



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA'NAViyAT VA DAVLAT TILINI
RIVOJLANTIRISH MASALALARI
DEPARTAMENTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI



**AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
ATAMALARINING
IZOHLI LUG'ATI**

004 (038)
A90

MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

«UNICON.UZ» - FAN-TEXNIKA VA MARKETING TADQIQOTLARI MARKAZI
DAVLAT UNITAR KORXONASI

AXBOROT TEXNOLOGIYLARI ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI



Toshkent

“Kafolat print kompaniy” nashriyoti

2022

UDK 004(038)
KBK 32.81v6
A 90

Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent:
«Kafolat print kompaniy» nashriyoti, 2022. – 824 b.

«UNICON.UZ» DUK direktori
M.M.Maxmudovning umumiy tahriri ostida

Muvofiqlashtiruvchilar:
A.Eminov p.f.n., N.Abdullayev

Musanniflar:
U.Azimov, M. Komilova, Y. Ahmedova, Sh. Adasheva

Taqrizchilar:
O.P. Axmedova t.f.n., M.H.Nazarova f.-m.f.n.

Mamlakatimizda elektron hukumat tizimining joriy etilishi natijasida davlat xizmatlarining samarali va kam xarajatli boshqaruv usuli joriy etilmoqda, natijada jamiyat va hukumat munosabatlari tubdan yangi bosqichga olib chiqiladi, fuqarolik jamiyati rivojlantirilib, hukumatning xalq oldidagi javobgarlik darajasi oshiriladi.

Ushbu lug'at O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida AKT sohasi xodimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan terminologik bazani shakllantirish maqsadida tuzildi.

Mazkur lug'atdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, tegishli ixtisoslikdagi talabalar va aspirantlar, shuningdek, AKTga qiziquvchilarning keng ommasi foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va Davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti buyurtmasiga binoan O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nashr etildi.

ISBN 978-9943-988-89-7

© «Kafolat print kompaniy» nashriyoti, 2022

MUNDARIJA

Kirish.....	4
A.....	6
B.....	83
D.....	116
E.....	143
F.....	166
G.....	189
H.....	202
I.....	215
J.....	253
K.....	260
L.....	338
M.....	344
N.....	418
O.....	431
P.....	457
Q.....	485
R.....	503
S.....	538
T.....	575
U.....	647
V.....	665
X.....	682
Y.....	702
Z.....	725
O'.....	728
G'.....	738
Sh.....	738
Ch.....	747
Foydalanilgan manbalar ro'yxati	822

KIRISH

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hayotimizga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Rivojlanish shu darajada shiddatli avj olmoqdaki, bundan bir necha yillar avval biron-bir zaruriy mahsulotni uydan chiqmasdan, kompyuter orqali xarid qilish imkoniyati vujudga kelishini tasavvur qilish ham qiyin edi. Bugun esa, nafaqat mahsulotlar, balki xizmatlarni ham AKT orqali sotish va xarid qilish imkoniyati paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy AKTni jamiyatning barcha sohalariga joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot jamiyatiga kirish, hamda jahon axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining bir qator qarorlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham AKTni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan AKT yo'nalishida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, "elektron hukumat" tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Telekommunikatsiyalar, axborotni qayta ishlash va kommunikatsiyalarining yangi vositalarini ichiga oluvchi zamonaviy AKTning mislsiz rivojlanishi natijasida jamiyatni axborotlashtirishni rivojlantirish darajasi iqtisodiyotga, mudofaa qobiliyatiga, siyosatga katta ta'sir ko'rsatadi va har bir davlatning muhim geosiyosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ham jahon axborot hamjamiyatida o'z o'rnini bor. Bugungi kunda AKT iqtisodiyotning barcha sohalarida zamonaviy boshqaruv tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda hozirda iqtisodiyot tarmoqlariga AKTni joriy etish, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda, axborot va kiberxavfsizlik masalalariga esa davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikada elektron hukumat tizimining joriy etilishi natijasida davlat xizmatlarining samarali va kam xarajatli boshqaruv usuli

joriy etilmoqda, natijada jamiyat va hukumat munosabatlari tubdan yangi bosqichga olib chiqiladi, fuqarolik jamiyati rivojlantirilib, hukumatning xalq oldidagi javobgarlik darajasi oshiriladi.

AKTning tez rivojlanishi natijasida taqdim etiladigan elektron davlat xizmatlari sonining oshib borishi, yangi dasturiy, apparat vositalarining yaratilishi va ularning joriy qilinishi har kuni yangidan-yangi atamalar va tushunchalarni keltirib chiqarmoqda. Bu o'z navbatida, AKTga oid ma'lumotnoma xarakteridagi nashrlar va izohli lug'atlarga bo'lgan ehtiyojni ham tobora oshirmoqda.

Atamalar lug'atini tuzishning muhim vazifalaridan biri AKT sohasida o'zbek tilini joriy qilish imkoniyatini yanada kengaytirish hamda atamalar-ning nafaqat o'zbek tilidagi ekvivalentini, balki ularning ma'nodoshini ham to'g'ri va aniq tanlash imkoniyatini yaratishdan iborat.

Ushbu lug'at O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida AKT sohasi xodimlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan terminologik bazani shakllantirish maqsadida tuzildi.

Lug'at Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, shuningdek, "UNICON.UZ" – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" DUK Atamashunoslik va lug'atlar xizmati mutaxassislarining mehnati samarasidir. Lug'atni tuzishda texnikaga oid xorijiy adabiyotlardan, ma'lumotnomalardan, normativ hujjatlardan, o'quv qo'llanmalaridan, Xalqaro elektraloqa ittifoqi tavsiyalaridan hamda Internet materiallaridan foydalanildi.

Lug'at alifbo tartibida joylashtirilgan 10 000 ga yaqin atamani o'z ichiga oladi. Unda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi atamalar, ularning ta'riflari hamda shu atamalarning ingliz va rus tilidagi muqobillari keltirilgan.

Mazkur lug'atdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, tegishli ixtisoslikdagi talabalar va aspirantlar, shuningdek, AKTga qiziquvchilarning keng ommasi foydalanishlari mumkin.

Lug'at yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz. Ular lug'atning keyingi nashrini tayyorlashda hisobga olinadi.

Bizning manzil: 100187, Toshkent sh., Mingbuloq ko'chasi, 38
«UNICON.UZ» – Fan-texnika va marketing
tadqiqotlari markazi davlat unitar korxonasi,
Atamashunoslik va lug'atlar xizmati

A

Abak

ing. - abacus

rus. - абак

Qadimgi greklar va rimliklarning tasmalarga ajratilgan taxtacha ko'rinishidagi sanoq vositasi. Sanashda toshchalar yoki tayoqchalar tasmalar bo'ylab siljutilib, sonlarning razryadlari aniqlanardi. Cho'tlar kashf qilinishi bilan abamiyatini yo'qotdi.

Aberratsiya

ing. - aberration

rus. - аберрация

Optik va elektron-optik tizimlarda tasvirlarning mayda detallari chetlarining surkalib ketishi ko'rinishida namoyon bo'ladigan buzilishi.

Abonement pochta javoni

ing. - subscription postbox

rus. - абонементный почтовый шкаф

Pochta aloqasi obyektlarida o'rnatiladigan qulfilanadigan qutichalardan iborat maxsus javon bo'lib, bu qutichalar yozma xat-xabarlarini, davriy bosma nashrlarni, pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalari kelganligi to'g'risidagi xabarnomalarni olish uchun adresatlar tomondan muayyan muddatga ijaraga olinadi.

Abonent

ing. - subscriber

rus. - абонент

Telekommunikatsiyalar operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida telekommunikatsiyalar xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs (yoki foydalalanuvchi).

Abonent aldovi

ing. - subscription fraud

rus. - абонентский фрод

Tovlamachilikning eng oddiy turlaridan biri, bunda abonent boshlang'ich abonent to'lovini kiritadi, keyin esa mobil aloqa qurilmisidan tinimsiz foydalanadi yoki efir vaqtini shunchaki qayta sotadi, hisoblash davri tugagandan keyin uni to'lamaydi, hisob-kitob yozuvlari bilan shug'ullanuvchi operator xizmatidan yashirinib yuradi.

Abonent autentifikatsiya kaliti

ing. - user authentication key

rus. - абонентский аутентификационный ключ

Uzunligi 128 bit bo'lgan shifrlangan ketma-ketlik. Odatda, foydalanuvchini ro'yxatga olish ma'lumotlari bilan birga abonent stansiyasining doimiy xotira qurilmasida saqlanadi.

Abonent bilan bog'lanish mumkin

bo'lmaganda chaqiruvni qayta manzillash

ing. - call forwarding not reachable (CFNRc)

rus. - переадресация вызова, когда абонент недоступен

Abonent joylashgan vaqtda yacheykaning barcha radiokanallari band bo'lgan (radiotarmoq ortiqcha yuklangan), abonent izlash xabarlariga javob bermagan, abonent ro'yxatdan o'tkazilmagan kabi sabablarga ko'ra, abonent bilan bog'lanish mumkin bo'lmaganda kiruvchi chaqiruvlar yo'nalishini o'zgartirish imkonini beradigan xizmat.

Abonent eshittirishi

ing. - narrowcasting

rus. - абонентское вещание

1. Cheklangan sondagi abonentlar uchun dasturiy eshittirishlarni uzatish.
2. Chegaralangan hududga yo'ldoshlar orqali eshittirish bo'lib, ular bortidagi antenna har biri o'z hududiga xizmat ko'rsatadigan bir nechta tor nurni hosil qiladi.

Abonent guruhini chaqirish

ing. - fleet call

rus. - вызов абонентской группы

Muayyan abonent guruhiga kiruvchi barcha radiostansiyalar sozlangan chastotada chaqiruvni uzatish.

Abonent identifikatori

ing. - subscriber identity security

rus. - идентификатор абонента

Bevosita zavodda har bir telefonga beriladigan o'zgarimas kod. Ishlab chiqaruvchi va model kodini ichiga oladi.

Abonent interfeysi

ing. - subscriber-line interface

rus. - абонентский интерфейс

Aloqa vositalarini foydalaniluvchi (oxirgi) uskuna bilan birlashtiradigan fizik zanjirlarning texnik-texnologik parametrlari.

(Abonent) kanallar selektori

ing. - (subscriber's) channel selector

rus. - селектор (абонентский) каналов

Abonentga kabelli taqsimlash tizimi bilan ta'minlanadigan kanallar sonidan bitta kanalni tanlash imkonini deradigan qurilma.

Izoh - Bu qurilma kabelli televideniye qabulqilgichi, abonent rozetkasi yoki abonent konvertoriga ulanishi mumkin.

Abonent konvertori

ing. - subscriber's convertor

rus. - абонентский конвертор

Abonent uskunasi qismi hisoblanadigan va kabelli taqsimlash tizimi chastota kanallarini qabulqilgich mo'ljallangan kanallarga o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Abonent liniyasi

ing. - local loop (син. service link)

rus. - абонентская линия

1. Abonent stansiyasi bilan aloqa uzelineing kommunikatsion uskunasi o'rtasidagi liniya; ko'pincha, telekommunikatsiya tizimining «so'nggi milyasi» deb ham ataladi.

2. Mobil yo'ldoshi aloqa tarmoqlaridagi xizmat ko'rsatiladigan abonent terminali bilan yo'ldosh retranslyatori o'rtasidagi aloqa liniyasi (Mobile Satellite Service - MSS xizmati).

Abonent oxirgi (terminal) qurilmasi

ing. - subscriber terminal (unit)

rus. - абонентская оконечная

(терминальная) установка

Ma'lumotlar kanalining chetki (terminal) apparaturasi va ma'lumotlar oxirgi (terminal) uskunasi majmui.

Izoh - Modemli shaxsiy elektron hisoblash mashinasi, modemlar guruhiga ega bo'lgan katta elektron hisoblash mashinasi va tashqi tarmoqqa ulanish uchun modemga ega bo'lgan lokal hisoblash tarmog'i abonent oxirgi (terminal) qurilmasiga misol bo'ladi.

Abonent pochta javoni

ing. - subscriber postbox

rus. - абонентский почтовый шкаф

Ko'p kvartirali uyda, shuningdek, yetkazib berish uchastkasida o'rnatiladigan, yozma xat-xabarlarni, davriy bosma nashrlarni, pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalari kelganligi to'g'risidagi xabarnomalarni adresatlarga yetkazib berish uchun mo'ljallangan qulflanadigan qutichalardan iborat maxsus javon.

Abonent pochta qutisi

ing. - post office box

rus. - абонентский почтовый ящик

Adresatlarga oddiy pochta jo'natmalari, davriy bosma nashrlar, ro'yxatga olinadigan pochta, kuryerlik jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari kelganligi to'g'risidagi xabarnomalarni yetkazib berish uchun mo'ljallangan uy (kvartira) kirishiga o'rnatilgan qulflanadigan maxsus quti.

Abonent qurilmasi

ing. - subscriber's unit

rus. - абонентское устройство

Telefon tarmog'i abonentiga kommutatsiya stansiyasiga ulanish, abonentning tanlovi bo'yicha ma'lumot uzatish, telefon tarmog'ining axborot yoki ma'lumot berish xizmatlari va suhbatlashish imkonini beruvchi qurilma.

Abonent radioliniasi

ing. - radio local loop (RLL)

rus. - абонентская радиолиния

«So'nggi milya» muammosini hal etish va olisdagi foydalanuvchilar bilan aloqa o'rnatish uchun mo'ljallangan simsiz ulanish texnologiyasi.

Izoh - Bu atama ko'proq, qishloq aloqa tarmoqlarini yaratish to'g'risida so'z bog'anda ishlatiladi.

Abonent radiotelegraf chaqiruvi

ing. - subscriber radio-telegraph call

rus. - абонентский радиотелеграфный

вызов

Ko'chma stansiyadan yoki ko'chma yer stansiyasidan chiquvchi (yoki ular uchun mo'ljallangan) hamda butun harakatlanish yo'li davomida yoki uning bir qismida ko'chma xizmat yoki ko'chma yo'ldoshi xizmat radioaloqa kanallari orqali uzatiladigan abonent telegraf chaqiruvi.

Abonent raqami

ing. - subscriber number

rus. - абонентский номер

Muayyan joy yoki mintaqada aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya-operator tomonidan abonentga beriladigan telefon raqami.

Abonent raqamini termasdan takror chaqirish

ing. - automatic redial

rus. - повторный вызов абонента без набора

Otbo'ydan va bog'lanish uzilgandan keyin, mikrotelefonni telefon apparatining richagli uzib-ulagichidan olish bilan raqam terna-sdan, abonentni qayta chaqirish amalga oshi-rilishini ta'minlaydigan qo'shimcha xizmat.

Abonent stansiya qurilmasi

ing. - subscriber set

rus. - станционное абонентское

устройство

Himoya vositalaridan hamda telefon tar-mog'ining har bir abonent liniyasi kommu-tatsion stansiyaning kirishida jihozlanadigan abonent to'plamidan iborat abonent telefon qurilmasi.

Abonent stansiyasi

ing. - user station

rus. - абонентская станция

1. Aloqa kanallari orqali axborotni uzatish/qabul qilish maqsadida, mobil aloqa tar-mog'iga ulanadigan, elektroaloqa signallarini shakllantiradigan texnik vosita.

2. Bevosita foydalanuvchida bo'lgan aloqa va axborotni qayta ishlash vositalari kompleksi.

Abonent tarmog'i

(foydalana olish tarmog'i)

ing. - subscriber network (access network)

rus. - абонентская сеть (сеть доступа)

Abonent terminallarini transport tarmog'idan, shuningdek, mahalliy aloqani transport tarmog'iga chiqmasdan foydalana olishni ta'minlaydigan mahalliy tarmoq abonent liniyalari va stansiyalarining majmui.

Abonent tarmoqlagich

ing. - system outlet

rus. - абонентский ответвитель

Bitta yoki bir nechta abonent rozetkasi ulani-shi mumkin bo'lgan tarmoq nuqtasi.

Abonent terminali

ing. - subscriber terminal

rus. - абонентский терминал

1. Abonent xonasiga o'rnatilgan va telekom-munikatsiyalar tarmog'iga ulangan, MChU o'z ichiga olgan telekommunikatsiyalar oxir-gi (terminal) apparaturasi.

Izoh - Terminal MKAni, u abonent xonasida joylashtiril-sa (umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'i bo'ylab ma'lumotlarni uzatish uchun modem), o'z ichiga olishi mumkin, bunda «abonent terminali» tushunchasi «abo-

nent oxirgi (terminal) qurilmasi» tushunchasi bilan mos keladi.

2. Foydalanuvchi tasarrufidagi antennali, o'lchamlari kichik bo'lgan, tayanch stan-siya, yo'ldosh yoki boshqa foydalanuvchi bi-lan axborot almashishni, jumladan, aloqaga kirish, aloqa seanslarini tayyorlash va amalga oshirish, axborotni kiritish va olishni ta'min-laydigan qabul qilgich-uzatgich.

«Abonent yo'q» xizmati

ing. - «Subscriber absent» service

rus. - услуга «Абонент отсутствует»

Tarmoqqa, chaqirilayotgan abonent yo'q vaqtida, xabarnomani qayta tiklash orqali barcha kiruvchi chaqiruvlarga javob berish imkonini beradigan xizmat.

Abonent shifrlash

ing. - end-to-end encryption

rus. - абонентское шифрование

Jo'natuvchi va oluvchi o'rtasida telekommu-nikatsiyalar vositalari yordamida bevosita uzatiladigan axborotning kriptografik usullar bilan muhofaza qilinishi.

Abonent chaqiruvini

avtoinformatorga uzatish

ing. - voice box

rus. - передача вызова

абонента на автоинформатор

Abonentga kommutatsiya stansiyasining avtoinformatori bilan bog'lana olish imkoni-ni beradigan qo'shimcha xizmat.

Abonentga hamroh chaqiruv

ing. - follow me

rus. - сопровождающий вызов абонента

Abonent joyini o'zgartirganda chaqiruvni bir necha marta qayta manzillash imkoniga ega qo'shimcha xizmat.

Abonentlar darajasidagi ochiqlik

ing. - user transparency

rus. - прозрачность на уровне абонентов

Abonentlarning, o'zlarining turgan joyi va tarmoq topologiyasidan qat'i nazar, tarmoqqa ulanish imkoniyati.

Abonentlar guruhi

ing. - fleet (of users)

rus. - группа абонентов

Bitta chastotada ishlaydigan va tarmoqning

ajratilgan resurslaridan erkin foydalanish umumiy huquqlariga ega bo'lgan barcha mobil abonentlar.

Izoh - Atama, abonentlari odatda, guruhlarga bo'lingan va guruhlarning har biriga ishchi kanal doimiy birlashtirib qo'yilgan konvensional va trunking radioaloqa uchun ishlatiladi.

Abonentlarni ro'yxatga olish

ing. - subscriber logging

rus. - регистрация абонентов

Qar.: Ro'yxatga olish.

Abonentlarning bandlik darajasi

ing. - answer bid ratio (ABR)

rus. - величина занятости абонентов

Abonentlarning bandligini ko'rsatadigan katalik; javob olgan muvaffaqiyati chaqiruvlar sonining, abonent bandligidagi muvaffaqiyatsiz chaqiruvlar soniga bo'lgan nisbatga teng.

Abonentlarning mobilligi

ing. - user portability

rus. - мобильность абонентов

Aynan bitta oxirgi uskunadan foydalangan holda, abonentlarning bir tizim xizmatidan boshqasining xizmatiga ko'chib o'tish qobiliyati.

Abonentni identifikatsiyalash moduli

(SIM-karta)

ing. - subscriber identification module, SIM

rus. - модуль идентификации абонента

(SIM-karta)

Mikrochiqli plastik kartochka, uning xotirasida autentifikatsiya protsedurasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan identifikatsion raqam, autentifikatsiya kaliti va kriptografik algoritm saqlanadi.

Abonentning javob signali

ing. - off-hook signal

rus. - сигнал ответа абонента

Telefon aloqa liniyasi band ekanligini bildiruvchi signal. Masalan, telefon aloqasida u go'shak ko'tarilgan vaqtda, ya'ni abonent chaqiruvga javob berishni boshlaganda, trunking aloqada esa mikrotelefon go'shakning tangenti bosilganida hosil bo'ladi.

Abonentning roumingdagi profili

ing. - roaming user profile

rus. - профиль абонента при роуминге

Uy tarmog'idan tashqarida ishlayotgan mo-

bil abonent uchun ochiq bo'lgan resurslar to'g'risidagi axborot.

Izoh - Konfiguratsiya tarmoq administratori tomondan o'rnatiladi va HLR ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Boshqa geografik mintaqada birinchi bor aloqa kirishilganda, abonentni birlamchi qayd etish sodir bo'ladi, bunda uning tarmoqdagi profili HLR dan avtomatik ravishda chiqarib olinadi va vaqtincha VLR ga kiritiladi. Keyingi chaqiruvlarda abonentning profili to'g'risidagi bu ma'lumotlardan tizimga har bir murojaat qilinganda foydalaniladi.

Absolyut

ing. - absolute (ABS)

rus. - абсолютный

Sonning absolyut qiymatini tiklaydigan funktsiya. Masalan, ABS (-3) 3 ga teng.

Absolyut assembler

ing. - absolute assembler

rus. - абсолютный ассемблер

Absolyut kod hosil qiladigan (chiqaradigan) yig'uvchi.

Absolyut barqaror shifr

ing. - unbreakable cipher

rus. - абсолютно стойкий шифр

Shifratmni bilish, tegishli ochiq matn baholanishini yaxshilash imkonini bermaydigan shifr.

Absolyut kod

ing. - absolute code

rus. - абсолютный код

Barcha adreslar absolyut manzillar hisoblanadigan kod.

Absolyut kodlarda dasturlash

ing. - absolute coding

rus. - программирование в абсолютных кодах

Mashina komandalaridan va absolyut manzillardan foydalanib dasturlash usuli. Bunday dastur protsessor tomonidan, oldindan translyatsiya va komponovka qilinmasdan bevosita bajarilishi mumkin. Kamdan-kam hollarda, oddiy mikroprotsessorlarda o'rnatilgan tizimlarni sozlashda qo'llanilishi mumkin.

Absolyut manzil

ing. - absolute address

rus. - абсолютный адрес

Xotira yacheykasining fizik manzilini ifodalaydigan son, yani potsessor yoki kontrolning manzil shinasiga joriy yacheykaga

olish imkonini beradigan manzil.
Izoh – Tizimli dasturlarda, shuningdek, barcha mumkin bo'lgan kontrollerlar va o'rnatiladigan tizimlar uchun assembler dasturlarida qo'llaniladi.

Absolyut vektor

ing. - absolute vector

rus. - абсолютный вектор

Oxirgi nuqtalari absolyut koordinatalarda berilgan vektor.

Absolyut yo'l

ing. - absolute path

rus. - абсолютный путь

Bo'limning mantiqiy nomidan yoki asosiy tizim direktoriyasidan boshlab, fayldan foydalana olishgacha bo'lgan to'liq yo'l.

Absolyut URL

ing. - absolute URL

rus. - абсолютный URL

Veb-sahifa yoki resursning to'liq Internet yo boshqa xil manzili. Absolyut URL manzilda, nisbiy URL manzildan farqli ravishda protokolning turi va faylgacha bo'lgan to'liq yo'l ko'rsatiladi.

Misol – <http://www.cppmp.uz> yoki `file:///home/user/pict.jpg`.

Abstrakt kompyuter

ing. - abstract computer

rus. - абстрактный компьютер

Hali mavjud bo'lmagan kompyuter modeli.

Izoh – Bu atama 1930-1960-yillardagi kompyuterlar nazariyasi bo'yicha ishlarda tez-tez uchrar edi. Eng mashhur abstrakt kompyuter Tyuring mashinasidir.

Abstrakt ma'lumotlar turi

ing. - abstract data type

rus. - абстрактный тип данных

Operatsiyalar obyektlariga (ya'ni, foydalana olish funksiyalari to'plamiga) nisbatan, bu obyektlar xotirada qanday ko'rsatilganiga bog'liq bo'lmagan holda qo'llaniladigan atamalarda belgilangan ma'lumotlar turi. Ma'lumotlarning bunday turlari xususan, Ada tilida qo'llaniladi. Obyektga yo'naltirilgan dasturlarda har bir tur o'zida abstrakt ma'lumotlar turini ifodalaydi.

Abstrakt mashina

ing. - abstract machine

rus. - абстрактная машина

Ba'zi real yoki gipotetik qurilma ishlashining

barcha rasmiy tomonlarini aks ettiradigan nazariy konstruksiya. Abstrakt mashinaga misol bo'lib chetki avtomatik mashina, Post mashinasi, Tyuring mashinasi va boshqa ko'plab matematika, kibernetika, sun'iy intellekt va boshqa fanlarda o'rganiladigan modellar xizmat qilishi mumkin.

Abstrakt oynalar uchun instrumental

vositalar to'plami

ing. - abstract windowing toolkit

rus. - набор инструментальных средств для абстрактных окон

Ishlab chiquvchilarga Java grafik funksiyalaridan, masalan, tugmalardan, interfeys elementlaridan, oynalardan foydalanish imkonini beradigan Java amaliy dasturlash interfeysi.

Abstrakt sintaksis

ing. - abstract syntax

rus. - абстрактный синтаксис

1. Qo'llanilishi bitta ilova yoki platforma bilan cheklanib qolmaydigan komandalarni shakllantirish uchun xizmat qiladigan qoidalar to'plami.

2. Apparat platformaga va kodlash usuliga bog'liq bo'lmagan, ma'lumotlar tuzilmasining tavsifi.

Abstrakt tarmoq

ing. - abstract network

rus. - абстрактная сеть

Faqat abstrakt komponentlardan tarkib topgan, mavjud bo'lmagan tarmoq. Bular tarmoq modellari, kompyuter tarmoqlarining tavsiflari yoki emulyatsiyalardan biri bo'lishi mumkin.

Izoh – Ulanish huquqlarini va xavfsizlikni tekshirish, shuningdek, turli xil ilovalarni va veb-resurslarni testlashda qo'llaniladi.

Abstrakt usul

ing. - abstract method

rus. - абстрактный метод

Obyektga yo'naltirilgan dasturlashda – abstrakt tur ichida mavjud bo'lgan usul.

Abstraktlash

ing. - abstraction

rus. - абстракция

1. Modellashtirish keng foydalaniladigan muammoning, uni hal qilishga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan aspektlarini inkor qilish prinsipi.

2. Obyektga yo'naltirilgan dasturlashda – obyektlardan yoki muayyan klasslardan umumiy xarakteristikalarini yoki umumiy qurilmalarni ajratish yo'li bilan supertur yarash jarayoni.

Abstraktlash darajasi

ing. - abstraction layer

rus. - уровень абстракции

Apparat vositalarining fizik amalga oshirilishini qandaydir mantiqiy tuzilma ostida yashirish usuli.

Abstraktlashtirish

ing. - abstraction

rus. - абстрагирование

Masalani yechish usuli bo'lib, bunda turli obyektlar umumiy tushuncha (konsepsiya) bilan birlashtiriladi, so'ngra to'plangan mohiyatlar yagona kategoriya elementlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Adaptatsion ma'lumotlar

ing. - adaptation data

rus. - адаптационные данные

O'rnatishda dasturni belgilangan joyga yoki operatsion muhitda belgilangan sharoitlarga moslash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar.

Adapter

ing. - adapter

rus. - адаптер

Kompyuterning periferik qurilmalarini va markaziy protsessorni birlashtirish qurilmasi, ba'zida periferik qurilmani boshqarish funksiyasini ham amalga oshiradi. Odatda, mikrosxema ko'rinishida bo'ladi va asosiy plataga joylashtiriladi, alohida plata ham bo'lishi mumkin.

Adaptiv antenna panjarasi, AAP

ing. - adaptive array antenna

rus. - адаптивная антенная решетка, AAP

1. Elektr xarakteristikalarini signal parametrlariga bog'liq holda o'zgarishi mumkin bo'lgan antenna panjarasi.

2. Xalaqitli sharoitga moslasha oladigan, yo'nalganlik diagrammasi dinamik o'zgaradigan, kuzatuvchi antenna. AAP ko'p sonli elementlardan tashkil topgan bo'lib, bunda signal faza yoki amplituda bo'yicha ajratiladi yoki kombinatsiyalanadi. Adaptiv antenna

panjarasining fazalangan antenna panjarasidan farqi shundan iboratki, AAP signal/xalaqit nisbatini maksimal ta'minlaydi, fazalangan antenna panjarasi esa, signalning maksimal darajasini kuzatadi.

Adaptiv antennalar

ing. - adaptive antennas

rus. - адаптивные антенны

Signallarni fazo-vaqt o'lchamida qayta ishlash tizimi tarkibida antenna ishineng eng yuqori samaradorligiga erishish maqsadida, signallar tarqalishi sharoitlari va xalaqitlar asosida parametrlari va xarakteristikalarining o'zgarishi muvofiqlashtirilgan antennalar.

Adaptiv differensial

impuls-kodli modulyatsiya

ing. - adaptive differential

pulse-code modulation

rus. - адаптивная дифференциальная

импульсно-кодовая модуляция

Adaptiv taxminlash va adaptiv kvantlashdan foydalangan holda raqamli siqish algoritmi.

Adaptiv guruhli kodlash

ing. - adapting group coding

rus. - адаптивное групповое кодирование

Sanoqlarning haqiqiy qiymatlarini uncha katta bo'lgan elementlar guruhi sanoqlarining kombinatsiyalari bilan almashtirgan holda kodlash.

Adaptiv hayotiy sikl

ing. - adaptive life cycle

rus. - адаптивный жизненный цикл

Loyihaning, shuningdek, o'zgartirilgan yoki moslashuvchan usullar sifatida ham ma'lum bo'lgan, o'zgartirishlarga ko'maklashadigan va manfaatdor tomonlarning yuqori darajada ishtirokini talab qiladigan hayotiy sikli. Adaptiv hayotiy sikllar, shuningdek, iterativ va inkremental hisoblanadi, biroq iteratsiyalar juda tez (odatda, uzunligi 24 hafta) bo'lishi hamda vaqtda va resurslarda qayd etilishi bilan farqlanadi.

Adaptiv interfeys

ing. - adaptive interface

rus. - адаптивный интерфейс

Elementlari foydalanuvchining tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda o'zgaradigan interfeys.

Adaptiv kod daftari

ing. - adaptive codebook

rus. - адаптивная кодовая книга

Nutq signallarining tanlanmalari yig'ilgan kod daftari. Bu kod daftaringiz parametrlari ish jarayonida kirish signalining «nozik» tuzilmasini tahlil qilish hisobiga avtomatik ravishda yangilanib turadi.

Adaptiv kodlash

ing. - adaptive encoding

rus. - адаптивное кодирование

Ma'lumotlarni siqishda, ma'lumotlarning biror-bir ma'lum turiga oldindan sozlanmaydigan kodlash metodologiyasi. Adaptiv kodlashdan foydalanadigan dasturlar, ularning hajmini maksimal qisqartirishga erishib, siqiladigan ma'lumotlarning istalgan turiga sozlanadi.

Adaptiv korrektor/kompensator

ing. - adaptive equalizer

rus. - адаптивный корректор/компенсатор
Parametrlari signallarni qabul qilish sharoitlariga avtomatik ravishda moslashadigan qurilma. Adaptiv korrektor/ kompensatorlar signalning belgilararo buzilishlari va signallarining qabul qilish hamda uzatish apparaturasi benuqson emasligi keltirib chiqaradigan amplituda va faza buzilishlarini tuzatish uchun qo'llaniladi.

Adaptiv kuzatib borish

ing. - adaptive maintenance

rus. - адаптивное сопровождение

Dasturiy mahsulot yetkazib berilgandan keyin, o'zgartirilgan yoki o'zgaradigan sharoitlardagi uning ishlash qobiliyatini ta'minlaydigan o'zgarishi.

Adaptiv kvantlash

ing. - adaptive quantization slicing

rus. - адаптивное квантование

Ba'zi parametrlari kvantlanuvchi signalning statistik xarakteristikalariga muvofiq o'lchadigan kvantlash algoritmi.

Adaptiv marshrutlash

ing. - adaptive routing

rus. - адаптивная маршрутизация

Tarmoqning bir qismi ishdan chiqqanda, eng optimal yo'lni tanlagan holda, xabarning tarmoqda o'tish yo'lini dinamik o'zgartirish imkonini beradigan mexanizm.

Adaptiv nur

ing. - adaptive beam

rus. - адаптивный луч

Qo'shimcha xossaga ega kuzatuvchi nur; nur parametrlari yo'ldosh harakatlanayotgan vaqtda doimiy qamrov zonasini (yoki xizmat ko'rsatish zonasini) ta'minlash uchun moslashtirilgan. Nurning bu turi, doimiy cho'qqi EINQ (ekvivalent izotrop nurlandigan quvvat) ni ta'minlagan holda, adaptiv cho'qqi kuchaytirishga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Adaptiv oldindan aytish

ing. - adaptive prediction

rus. - адаптивное предсказание

Oldindan aytish, bunda baholash diskretlanuvchi signalning spektral xarakteristikalarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Adaptiv regeneratsiya

ing. - smart refresh

rus. - адаптивная регенерация

Yarimo'tkazgichli xotira yacheykalarida saqlanadigan axborotni yangilash protsedurasi. Bunda regeneratsiya uchun barcha so'rovlar navbatga qo'yiladi va ularga fon rejimida xizmat ko'rsatiladi (boshqa so'rovlar orasidagi pauzalarda).

Izoh - Agar to'plangan so'rovlar soni qandaydir chegara miqdoridan ortib ketsa, o'tayotgan axborotlar almashuvi kadri to'xtatilib, xotira yacheykalarining regeneratsiya sikli darhol bajariladi.

Adaptiv sahifalash

ing. - adaptive layout

rus. - адаптивная верстка

Internetga ulangan turli qurilmalarda sayt to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydigan va brauzer oynasining berilgan o'lchamlariga dinamik moslashadigan, veb-sahifalar dizayni.

Adaptiv siqish

ing. - adaptive compression

rus. - адаптивное сжатие

Axborot va xotirlovchi muhit turi hamda mazmuniga bog'liq ravishda siqish algoritmlarini doimiy ravishda tahlil qiluvchi va o'zgartiruvchi axborotni siqish.

Adaptiv taxminlash bilan kodlash

ing. - adaptive predictive coding (APC)

rus. - кодирование с адаптивным предсказанием

Har bir keyingi sanoq, avvalgi sanoqlar qiy-matlarining chiziqli funksiyasi va tegishli vazn koeffitsiyentlariga ko'paytmalari sifatida tasvirlanadigan, taxminlashga asoslangan nutqni kodlash usuli.

Adaptiv DSL

ing. - rate-adaptive DSL (RADSL)

rus. - адаптивный DSL

O'tkazish qobiliyatining liniya sifatiga va uzatish masofasiga dinamik sozlash imkonini beradigan uzatish tezligini sozlovchi DSL – ADSL ning adaptiv varianti.

Additiv radioxalaqit

ing. - additive interference

rus. - аддитивная радиопомеха

Xalaqit beruvchi ta'siri foydali radiosignal bilan qo'shilishi orqali aniqlanadigan radi-xalaqit.

Additiv shifr

ing. - additive cipher

rus. - аддитивный шифр

Gammani ma'lumotlarga qo'yish uchun additiv turdagi binar operatsiyadan foydalaniladigan gammalash shifri.

Addon

ing. - add-on

rus. - аддон

Qar.: Qo'shimcha, plugin

Administrator

ing. - administrator

rus. - администратор

Domen kontrollerini sozlash va boshqarish-ga, foydalanuvchilar va guruhlarining hisobga olish yozuvlarini yuritish, parollar qo'yish va ruxsat berishga, hamda foydalanuvchilarning tarmoqda ishlashiga yordam berishga mas'ul foydalanuvchi.

Izoh – Administratorlar domendan yoki domenda-gi kompyuterdan to'liq foydalana olish huquqiga ega bo'ladilar.

Administratorlar guruhi

ing. - administrators group

rus. - группа администраторов

Administratorlar huquqiga ega bo'lgan, domen yoki lokal foydalanuvchilar guruhi. Administratorlar guruhiga kiruvchi foydala-

nuvchilar fayllardan to'la ravishda erkin foydalanish va hisobga olish yozuvlarini boshqarishi huquqiga ega bo'ladilar.

Adresat

ing. - addressee

rus. - адресат

1. Internet tarmog'ini kanallari orqali ma'lumotlar uzatiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs.
2. Pochta aloqasida – pochta, kuryerlik jo'nat-masi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasi, telegraf xabari yoki boshqa xabar yo'llangan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Adreslarni aniqlash protokoli

ing. - address resolution protocol (ARP)

rus. - протокол разрешения адресов

Kompyuterlarning noyob raqamli nomerlari-ni belgilaydigan protokol.

Agent

ing. - agent

rus. - агент

1. «Mijoz-server» modelida mijoz yoki server nomidan axborotni tayyorlash hamda almashishni ta'minlaydigan tizimning bir qismi. Tarmoqni boshqarish oddiy protokoli – SNMP (Simple Network Management Protocol) da boshqaruvchi tizimga tayanadi.
2. Foydalanuvchiga ko'rinmaydigan (odat-da fon rejimida ishlaydigan), hodisalar bilan boshqariladigan dastur (ya'ni, biror hodisa yuzaga kelganda qandaydir harakatni amalga oshiradigan). *nix-operatsion tizimlarida ular demon deb ataladi.

Agent-agent arxitekturasi

ing. - agent-agency architecture

rus. - агент-агентская архитектура

Hisoblashlarni ikki jarayonga (agentga) ajratish, bunda ulardan har biri mijoz-server arxitekturasi da mijoz va server rolini navbat-ma-navbat bajaradi.

Agent-robot

ing. - bot

rus. - агент-робот

U yoki bu vazifani mustaqil hal qiladigan dastur; funksional dasturiy modul.

Agregatsiyalash

ing. - aggregation

rus. - агрегирование

1. Ta'sirchanligi kamroq bo'lgan axborotni

to'plash va qiyoslash usuli yordamida ta'sirchan axborotni olish.

2. Konfidensiallik darajasi pastroq bo'lgan ma'lumotlarni umumlashtirish yoki ochiq axborot asosida konfidensial (muhofaza qilinadigan) axborotni olish usuli.

Ahamiyatli signal birligi

ing. - significant signaling unit

rus. - значащая сигнальная единица

Bir bayt xizmat axboroti va signalli axborot maydonidan iborat signal birligi. Agar xatolik bilan qabul qilingan bo'lsa, unda signalizatsiya bo'g'inini boshqaruvi orqali takrorlanadi.

Ahamiyatlilikning yo'qolishi

ing. - underflow

rus. - потеря значимости

Siljувchi nuqta (vergul) bilan bo'ladigan operatsiyalarda uchraydigan xatolardan biri. Protessor turiga, dasturlash tiliga, bajarish vaqti bibliotekalariga bog'liq holda, bu xatoni qayta ishlash turli usullar bilan, shu jumladan, apparat uzilishdan, status bitidan va h.k. foydalanib amalga oshirilishi mumkin.

Ajralish

ing. - uncoupling

rus. - развязка

Taqsimlagich yoki tarmoqlagichning ikkita chiqishi o'rtasidagi signalning so'nishi.

Ajratgich

ing. - separator

rus. - разделитель

Leksemalar yoki dasturlash tili jumllarini ajratadigan simvol.

Ajratiladigan katalog

ing. - shared directory

rus. - разделяемый каталог

Tarmoq foydalanuvchilari ulanishi mumkin bo'lgan katalog.

Ajratiladigan muhitlar

ing. - shared media

rus. - разделяемые среды

Foydalanuvchilarning umumiy aloqa liniyasidan, an'anaviy kommutatsiyalanadigan texnika vositalarisiz, jamoaviy foydalanishini ta'minlaydigan texnologiya. Atama ma'lumotlar uzatish umumiy muhiti kompyuterlarni o'zaro bog'lovchi ko'p sonli alohida li-

niyalarning o'rmini egallagan lokal tarmoqlarga taalluqli.

Ajratiladigan sahifalar

ing. - shared pages

rus. - разделяемые страницы

Bir nechta jarayonda birgalikda ishlatiladigan va ularning jadvalarida bir xil mantiqiy raqamlarga ega bo'lgan sahifalar.

Ajratiladigan (umumiy) segmentlar

ing. - shared segments

rus. - разделяемые (общие) сегменты

Bir nechta jarayon uchun umumiy bo'lgan va ularning segmentlar jadvalida bir xil mantiqiy raqamlarga ega bo'lgan segmentlar.

Ajratilgan kanal

ing. - dedicated channel

rus. - выделенный канал

1. Tayanch stansiya va mobil stansiyalardan biri o'rtasida trafik, signalizatsiya yoki ikkala turdagi axborotni uzatish uchun foydalaniladigan ikki nuqtali bog'lanish.

2. Axborotni uzatish manbai uchun doimo biriktirilgan aloqa kanali.

3. Foydalanuvchilarning ma'lum guruhiga biriktirilgan kanal (trankingli tizimlarda).

Ajratilgan kanal bo'yicha signalizatsiya

ing. - associated channel signalling

rus. - сигнализация по

выделенному каналу

Telekommunikatsiya signallarini uzatish usuli, bunda liniya signallarini va telefon tarmog'ini boshqarish signallarini almashish uchun, so'zlashuv kanalidan alohida bo'lgan individual kanaldan foydalaniladi.

Ajratilgan liniya

ing. - leased line

rus. - выделенная линия

Axborot uzatish manbaiga doimiy biriktirilgan liniya.

Ajratilgan liniya orqali

Internetdan erkin foydalanish

ing. - Internet access on leased line

rus. - доступ в Интернет

по выделенной линии

Belgilangan sifat bilan ajratilgan bog'lanish bo'yicha Internet tarmog'idan doimiy foydalana olishni taqdim etish.

Ajratilgan server

ing. - dedicated server

rus. - выделенный сервер

Faqat server, masalan, bosish serveri sifatida ishlash uchun mo'ljallangan tarmoq kompyuteri.

Ajratilgan telekommunikatsiyalar tarmog'i

ing. - private communication network

rus. - выделенная сеть телекоммуникаций

1. Foydalanuvchilarning muayyan doirasiga xizmatlar ko'rsatish uchun tijorat maqsadlarida yaratilgan telekommunikatsiyalar tarmog'i.

2. Yuridik shaxsning, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'iga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan telekommunikatsiyalar tarmog'i.

Ajratilgan chastota

ing. - assigned frequency

rus. - выделенная частота

Ma'lum vaqt davri uchun radiostansiyaga ajratilgan ishchi chastota.

Ajratish

ing. - division

rus. - разделение

Ma'lumotlarni izolyatsiyalangan bloklarga bo'lish. Riskni kamaytirish maqsadida, ularning xavfsizligini boshqarish alohida amalga oshiriladi. Masalan, butun loyihaga ta'sirni cheklash uchun, bosh loyiha ma'lumotlari loyihaning o'z xavfsizlik tizimiga ega bo'lgan, har bir tegishli bo'limiga mos keladigan bloklarga ajratiladi.

Ajratish, yoritish

ing. - highlight

rus. - выделение, подсветка

1. Invers shaklda ekranga chiqariladigan va kursorning joriy holatini ko'rsatadigan simvol, so'z, matn bloki, menu punkti, elektron jadval kataklari yoki komanda. Ko'pincha, «kursor» so'zining sinonimi sifatida foydalaniladi.

2. Tanlash ro'yxati yoki menu elementini belgilashda ishlatiladigan (ekrandagi) yoritgich.

Akkaunt

ing. - account

rus. - аккаунт

So'zma-so'z tarjimai - «qayd yozuvi». Kompyuterda saqlanadigan foydalanuvchi tavsifi. Odatda, u foydalanuvchining tarmoqdagi nomi, haqiqiy nom, parol, foydalanuvchi huquqlari va uy katalogining nomidan (agarda u bor bo'lsa) tarkib topadi.

Akkreditlash

ing. - accreditation

rus. - аккредитация

Korxonaning texnik kompetentligini hamda uning standartlar va boshqa normativ hujjatlar talablariga muvofiq, sinovlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun, sinaladigan axborotni muhofaza qilish vositalarini ishlab chiquvchilar, tayyorlovchilar (yetkazib beruvchilar), buyurtmachilar (iste'molchilar)dan mustaqilligini rasman tan olish. Akkreditlash maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Akkumulyator

ing. - accumulator

rus. - аккумулятор

Hisoblash natijalarini saqlash uchun mo'ljallangan xotira yacheykasi; protessorning arifmetik-mantiqiy qurilmasidagi registrlardan biri.

Aks ettirish/qayta tiklash vaqtining belgisi

ing. - presentation time stamp

rus. - метка времени отображения/ воспроизведения

Kadrlarni aks ettirish/qayta tiklash tartibini aniqliydigan belgi. Berilgan videokadring dekode chiqishida paydo bo'lish vaqtini ko'rsatadi.

Aks ettirmoq

ing. - display

rus. - отображать

Kompyuterdagi axborotni aks ettirish uchun mo'ljallangan vizual qurilma, odatda ekranni o'zida aks ettiradi.

Aks sado nazorati

ing. - echo check

rus. - эхоконтроль

Aloqa liniyasi bo'ylab uzatiladigan raqamli axborotning ishonchliligini nazorat qilish usuli. Qabul qilingan testli ketma-ketlik qabul qilgichda saqlanadi, keyin esa, teskari kanal bo'yicha uzatgichga qaytadi va dastlabki ketma-ketligi bilan taqqoslanadi.

(aks sado)

ing. - echo

rus. - эхо сигнал (эхо)

1. Ma'lumotlar uzatish tizimlarida halqasi-mon tekshirishda foydalaniladigan nazorat signali.

2. To'g'ridan-to'g'ri deb nomlanadigan asosiy signal kelganidan keyin vaqt bo'yicha kechikib qabul qilinadigan signal, chunki u eng qisqa yo'l bilan tarqaladi.

Akselerator

ing. - accelerator

rus. - акселератор

Ba'zi platformalarda menyu punktini tanlash uchun foydalaniladigan, boshqaruvchi asosiy ketma-ketlik.

Aksessuar

ing. - component

rus. - аксессуар

Kompyuter yoki dasturiy muhit elementi; faqat butun tizim bilan birgalikda ishlatilishi mumkin, lekin uni alohida sotib olish va o'rnatish mumkin. Masalan, kompyuterning multimedia aksessuarlariga kompakt-disklar, tovush adapterlari, kolonkalar kiradi; Windows tizimida Soat, Kalkulyator, Yon daftarcha kabi ilovalar kiradigan Aksessuarlar guruhi bor.

Akslanishlar

ing. - flares

rus. - блики

1. Tasvirming videosignal datchigi yoki tiklash qurilmasi optik tizimida yorug'likning sochilishi natijasida kelib chiqadigan parazit tashkil etuvchisi.

2. Birga yaqin qaytarish koeffitsiyenti bilan sirtidan qaytarish.

Aks-sadosiz kamera

ing. - anechoic chamber

rus. - безэховая камера

Devorlari, shifti, poli radio to'lqinlarni yutuvchi materiallar bilan qoplangan xona. Aks sadosiz kameralardan cheksiz fazoni imitatsiya qilishda, asosan, radiotexnika qurilmalarini sinash paytida foydalaniladi.

AKT xavfsizligi dasturi

ing. - ICT security program

rus. - программа безопасности ИКТ

Xavf ehtimollarini boshqarish, xizmat vaziri-

falarini taqsimlash, hayot siklini boshqarish, AKT xavfsizligi maqsadlari, strategiyalari va siyosatlarini ishlab chiqish asosida tashkilot AKT tizimlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

AKT yordamida taraqqiyot

ing. - e-development

rus. - развитие с использованием ИКТ

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy foydalanishga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Aktiv

ing. - active

rus. - активный

Ayni vaqtda murojaat etilayotgan jarayon yoki dastur oynasi aktiv emas hisoblanadi. Operatsion tizim avtomatik tarzda klavishani bosishni yoki aktiv oynaga nisbatan bajariladigan komandani qo'llaydi. Paneldagi tanlanmagan oyna yoki belgilar aktiv hisoblanmaydi.

Aktiv ajratgich

ing. - active white space

rus. - разделитель активный

Matli va grafik elementlarni qamrab oladigan, matni ajratuvchi, matnda tematik va iyerarxik munosabatlarni ko'rsatadigan, tegishli axborotni ajratib ko'rsatadigan va matn o'qilishini osonlashtiradigan makon (maydonlardan tashqari).

Aktiv antenna

ing. - active antenna, antennafier

rus. - активная антенна

Qabul qilish yoki uzatish uchun xizmat qiladigan antenna, unda kuchaytirgich (o'zgartirgich) bevosita antennaga o'atilgan bo'ladi.

Aktiv antenna panjarasi

ing. - active antenna array

rus. - активная антенная решетка

Kuchaytirgich va chastota o'zgartirgichlarini o'z ichiga olgan aktiv zanjimning har bir nur tarqatgichda (yoki ularning guruhida) qo'llanilishi xos bo'lgan antenna turi.

Aktiv axborot obyekt

ing. - active enterprise object

rus. - активный информационный объект

Korxonada domeni sohasidagi axborotning,

ya'xlit bir butun sifatida qarab chiqish mumkin bo'lgan va umumlashtirilgan yoki real yoki abstrakt mohiyatni (obyektni) tavsiflaydigan qismi.

Aktiv axborotni muhofaza qilish vositasi

ing. - active information security product

rus. - активное средство защиты информации

Axborot chiqib ketishi mumkin bo'lgan kanaldan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan yoki jiddiy ravishda kamaytiruvchi aktiv xalaqitlar vujudga keltirilishini ta'minlaydigan vosita.

Aktiv bo'lim

ing. - active partition

rus. - активный раздел

Aktiv operatsion tizim uchun yuklovchi bo'lim sifatida foydalaniladigan fizik kompyuterning mantiqiy bo'limi.

Aktiv bo'lmagan dastur

ing. - inactive program

rus. - неактивная программа

Ayni vaqtda foydalanuvchi bevosita ishlaymayotgan dastur. Odatda, dasturning ishlashi davom etadi, lekin aktiv dasturga nisbatan kamroq ustuvorlik bilan bajariladi.

Aktiv bo'lmagan oyna

ing. - inactive window

rus. - неактивное окно

Ayni vaqtda foydalanuvchi tomonidan ishlatilmayotgan dastur oynasi. Aktiv oynadan tashqari qolgan barcha oynalar aktiv bo'lmagan oynalar hisoblanadi. Sarlavhaning boshqa rangi bilan belgilanadi. Aktiv bo'lmagan oynada bajariladigan jarayonlarning afzalligi odatda, u aktiv oynadagiga nisbatan past bo'ladi.

Aktiv dastur

ing. - active program

rus. - активная программа

Protsessorni boshqaradigan dastur.

Aktiv datchik

ing. - active sensor

rus. - активный датчик

Kosmik tadqiqotlar xizmatida yoki Yerni tadqiq qilish yo'ldoshi xizmatidagi o'lchash asbobi, uning yordamida radioto'lqinlarni uzatish va qabul qilish hisobiga axborot olinadi.

Aktiv dipol

ing. - active dipole

rus. - активный диполь

Passiv dipol (reflektor yoki direktor) dan farqli ravishda o'rtasiga uzatgich yoki qabul qilgichning elektr zanjiri ulangan uzatuvchi yoki qabul qiluvchi dipol.

Aktiv direktoriya

ing. - active directory

rus. - активная директория

Microsoft kompaniyasining tarmoq komponentlarini boshqarish, himoya qilish, ulardan foydalana olish va ishlab chiqishni ta'minlash uchun mo'ljallangan mahsuloti.

Izoh - Barcha tarmoq obyektlarini ma'muriy jihatdan boshqarishning yagona instrumenti bo'lib xizmat qiladi.

Aktiv elektron muhofaza qilish qurilmasi

ing. - active dongle

rus. - активное электронное

устройство защиты

Buyurtma mikrosxema asosida yasalgan, elektr dasturlashtiriladigan energiyaga bog'liq bo'lmagan xotiraga ega va parallel portga ulanadigan elektron muhofaza qilish qurilmasi.

Aktiv element

ing. - active component

rus. - активный элемент

Ma'lum bir tarzda signal yoki uzatiladigan ma'lumotlarni o'zgartiradigan qurilma.

Aktiv giperhavola

ing. - active hyperlink

rus. - активная гиперссылка

Foydalanuvchi brauzerda tanlaydigan (belgilaydigan) giperhavola. Havola «sichqoncha»ning tugmasini bosish va qo'yib yuborish oraliqidagi vaqtda aktiv hisoblanadi.

Aktiv hujum

ing. - active attack

rus. - активная атака

1. Tizimga, uzatilayotgan axborotning mazmunini o'zgartirib, kirishga urinish

2. Xavfsizlikka aktiv tahdidning o'zgarishi

Aktiv hujum turi

ing. - active attack type

rus. - вид активной атаки

Ikki tizim o'rtasida, xabarlarini tutib olish va ularni shaxsiy xabarlar bilan almashtirish maqsadida, jinoyatkorni kiritish.

Aktiv ilova

ing. - active application

rus. - активное приложение

Ayni paytda kompyuterda bajariladigan ilova.

Aktiv konsentrator

ing. - active hub

rus. - активный концентратор

Tarmoqdagi uzatilayotgan signallarning tiklanishi va kuchayishini ta'minlaydigan ulovchi qurilma. Aktiv konsentratoridan stansiyalarni tarmoqqa qo'shish yoki stansiya va serverlar o'rtasidagi masofani oshirish uchun foydalanish mumkin.

Aktiv kutish

ing. - busy wait

rus. - активное ожидание

Jarayonning, biror bir komandani kutib turib, boshqa so'rovlarga javob bermagandagi holati.

Aktiv maishiy antenna

ing. - active household aerial

rus. - активная бытовая антенна

Radio va televizion eshittirish signallarini qabul qilish hamda kuchaytirish uchun mo'ljallangan, qabul qilinadigan signallar kuchaytirgichi o'rnatilgan antenna.

Aktiv matritsa

ing. - active matrix

rus. - активная матрица

Yassi panelli displeylar ishlab chiqarishda, ekranning har bir katagida yupqa plyonkali tranzistorlardan foydalaniladigan texnologiya. Aktiv matritsa, passiv matritsaga qaraganda, ko'pgina afzalliklarga ega, masalan, yorqinligi yaxshi va ko'rish burchagi 120° dan 140° gacha.

Aktiv matritsali suyuq kristalli displey

ing. - thin-film-transistor display

rus. - жидкокристаллический дисплей с активной матрицей

Asosan portativ kompyuterlar uchun mo'ljallangan displey.

Aktiv matritsali suyuq kristalli ekran

ing. - active matrix screen

rus. - жидкокристаллический экран с активной матрицей

Aktiv matritsa asosida tasviri shakllantirish texnologiyasi. Yupqa plyonkali (qalinligi 0,1 dan 0,01 mikrongacha) eslab qolish xususiyatiga ega tranzistorlarning matritsasiidan foydalanishga asoslangan. Texnologiyaning kamchiligi tasvir aniqligining juda yuqori darajada emasligida.

Aktiv muhofaza

ing. - active protection

rus. - активная защита

1. Tizimning holati. Bu holatda tizim xavfsizlikka tahdid manbalarini tanib oladi va bloklaydi va xavfsizlik tartibini buzishga aktiv to'sqinlik qiladi.

2. Maxsus vositalar va tizimlar yordami bilan berilgan chastotalar diapazonida aktiv niqoblangan to'siqlarni yaratish. Aktiv muhofaza maqsadi – tahminiy axborotni olish joyida signal va to'siqlar qo'shilmassida axborot signalni tanib olish imkoniyatini bermaydigan to'siqlarni yaratish.

Aktiv oyna

ing. - active window

rus. - активное окно

Operatsion tizimlarda yoki foydalanuvchining grafik interfeysi bo'lgan ilovalarda – ekrandagi ayni paytda kursor (kiritish nuqtasi) bo'lgan oyna; aktiv oyna sarlavhasi va ramka rang yoki yorqinlik bilan ajratilgan.

Aktiv qarshilik

ing. - resistance

rus. - активное сопротивление

Elektr zanjiri uchastkasining, undan oqib o'tayotgan tokka ko'rsatadigan qarshilik darajasini tavsiflaydigan kattalik. Kabelli liniyada uzunlik birligiga qayta hisoblangan uzunasiga o'lchanadigan qarshilikni baholash qabul qilingan.

Aktiv qurilma

ing. - active device

rus. - активное устройство

Signalning kuchaytirilishini amalga oshiruvchi har qanday qurilma.

Aktiv soha

ing. - active area

rus. - активная область

Foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlar kiritilishiga javob beradigan soha, masalan: oyna, belgi yoki matnli maydon.

Aktiv tahdid

ing. - active threat

rus. - активная угроза

Telekommunikatsiyalar tizimlari yoki tarmoqning ishlash holatini qasddan ruxsat etilmagan tarzda o'zgartirishga bo'lgan har qanday tahdidi.

Izoh – Aktiv tahdidga, amalga oshirilishi natijasida xabarlarini modifikatsiyalash, yolg'on xabarlarini kiritish, aldamchilik yoki xizmat ko'rsatishni rad etish misol bo'lishi mumkin.

Aktiv ulanish

ing. - active interconnection

rus. - активное соединение

Bir ish (harakat) boshqa bir ish (harakat)ni o'zgartirishi yoki uni boshqa bir diapazonga rag'batlantirishi mumkin bo'lgan fizik o'zaro ta'sir mexanizmi.

Aktiv veb-sahifa

ing. - active webpage

rus. - активная веб-страница

Ayni paytda ochiq turgan veb-sahifa.

Aktiv xalaqitlar

ing. - active interference

rus. - активные помехи

Radioqabulqilishga radiotexnika diapazonining elektromagnit energiyasi nur tarqatgichlari vujudga keltiradigan xalaqitlar. Aktiv xalaqitlar tabiiy va sun'iy bo'ladi.

Aktiv yacheyka

ing. - active cell

rus. - активная ячейка

Elektron jadvalning tanlangan yacheykasi. Bunday yacheykaning manzili formula satrining chap qismidagi nom maydonida ekranga chiqariladi. Yacheyka aktiv bo'lgan paytda foydalanuvchi bu yacheykaga ma'lumotlarni kiritishi, o'zgartirishi yoki o'chirishi mumkin.

Aktiv yo'ldosh

ing. - active satellite

rus. - активный спутник

Radioaloqa signallarini uzatish yoki retranslyatsiya qilish uchun mo'ljallangan stansiya joylashgan yo'ldosh.

Aktivatsiya to'lovi

ing. - activation fee

rus. - плата за активацию

Abonentning aloqa tarmog'iga ilk bor ulanishidagi bir martalik to'lov.

Aktivatsiya yozuvi

ing. - activation record

rus. - запись активации

Jarayon to'g'risidagi lokal ma'lumotlar saqlanadigan stekdagi xotira sohasi.

Aktivlarni taklif qilish

ing. - asset proposal

rus. - предложение активов

O'z ichiga asosiy aktivlarni (funktsional sohalarni, barcha ilovalarning umumiy darajalari va xarakteristikalarini) oladigan artefakt.

Aktivlashtirish

ing. - activation

rus. - активация

Foydalanuvchini ishlab chiquvchi kompaniyadan, muayyan kompyuterda dasturining to'liq funktsional rejimda ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan maxsus kodni olish jarayoni.

Aktivlashtirmoq

ing. - activate

rus. - активизировать

Ishchi holatga qaytarish.

Izoh – Odatda hisobga olish yozuvlari, xizmatlar yoki dasturlarning qismlariga taalluqli. Internet-saytlarda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, foydalanuvchidan ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlashni talab qiladigan harakat (odatda ro'yxatga olish jarayonini tugatish uchun havola bo'yicha o'tish).

Aktivlik koeffitsiyenti

ing. - activity factor

rus. - коэффициент активности

Aloqa kanali orqali, ma'lum hajmdagi axborotni berilgan yo'nalishda uzatish uchun zarur bo'lgan vaqtning aloqa kanalini umumiy band qilish vaqtiga nisbati. Kanallari kommutatsiyalanadigan ma'lumotlar uzatish tarmoqlarida aktivlik koeffitsiyenti odatda 1 ga teng. Nutqni uzatishda bu ko'rsatgich 0,4 gacha pasayadi, chunki bunda ikkita abonent so'zlashganda pauzalar hisobga olinadi. Paketlar kommutatsiyalanadigan tarmoqlardagi asimmetrik trafik hoida esa, aktivlik koeffitsiyenti «pastga» liniyasida 0,0015 ni, «yuqoriga» liniyasida esa 0,0028 ni tashkil qiladi.

Aktivlik

ing. - activity

rus. - активность

Operatsion tizim va kompyuterining barcha

obyektlariga nisbatan qo'llaniladigan atama (masalan, qattiq va egiluvchan disklar bilan ishlaganda, ixtiyoriy ilova ishga tushganida yoki oynalar bilan ishlaganda, shuningdek, protsessorda turli vazifalarni bajarishda).

Aktivlik atributlari

ing. - activity attributes

rus. - атрибуты активности

Ishlar (harakatlar) ro'yxatiga kiritilishi mumkin bo'lgan jadvalning har bir ishi (harakati) bilan bog'langan bir nechta atribut. Aktivlik atributlari aktivlik kodlarini, o'tmishdoshning ishini (harakatini), vorisning ishini (harakatini), mantiqiy munosabatlar, kutishlar, resurslarga bo'lgan talablarni, kiritilgan sanalarni, cheklovlar va ruxsatlarni o'z ichiga oladi.

Aktivlik identifikatori

ing. - activity identifier

rus. - идентификатор активности

Faoliyatni, faoliyatning boshqa turlaridan farqlash uchun, har bir grafik ishga (harakatga) beriladigan qisqa, noyob sonli yoki matnli belgi.

Aktivlik kodi

ing. - activity code

rus. - код активности

Ishning xarakteristikalarini identifikatsiyalaydigan yoki qandaydir tarzda jadval bo'yicha faoliyatni tavsiflaydigan bitta yoki bir nechta sonli yoki matnli qiymat, hisobotlarda ish (harakat)ni saralash va tartibga solish imkonini beradi.

Aktivlik resurslariga qo'yiladigan talablar

ing. - activity resource requirements

rus. - требования к ресурсам активности

Ishchi paketda faoliyatning har bir turi uchun zarur bo'lgan resurslarning turlari va miqdori.

AKTning ijtimoiy ta'siri

ing. - social impact of ICT

rus. - социальное воздействие ИКТ

AKTning jamiyatga – mehnat va bandlikka, iqtisodiyotga, ta'lim va madaniyat sohasiga, ijtimoiy tuzilmaga, uy va oilaga, umuman kundalik hayotga ta'siri.

Akustik teskari aloqa tizimi

ing. - system of acoustic feedback

rus. - система акустической

обратной связи

Panasonic televizorlarida qo'llaniladigan akustik teskari aloqa tizimi. Ekraning ikki tomonida joylashgan ikkita AFB Dome stereodinamigidan va ekraning pastida joylashgan bitta markaziy stereodinamikdan iborat. Tizim kuchli dinamik bas tembrli sof va tabiiy ovozni ta'minlaydi. Kamay oldida joylashgan sezgirliq yuqori datchiklar tovush bosimi darajasini aniqlaydi. Berilgan parametrlardan har qanday chetga chiqish teskari aloqa tizimi orqali tovush chastotalari kuchaytirgichiga uzatiladi va parametrlar to'g'rilanadi.

Akustooptik kommutatsion asbob

ing. - acousto-optic switching device

rus. - акустооптический

коммутационный прибор

Optik kommutatsiya elementlarida kuzatiladigan akustooptik effekt hisobiga amalga oshiriladigan optik kommutatsion asbob.

Albom

ing. - album

rus. - альбом

Biror-bir distributivga jamlangan CD-disklar to'plami. Har bir disk tom deb nomlanadi.

Albomli yo'naltirilganlik

ing. - landscape orientation

rus. - альбомная ориентация

Qog'ozni yo'naltirishning ikkita usuli (hujjatning ekrandagi tasviri) dan biri, bunda qog'ozning uzun qismi uning eni bo'ladi.

Alfa kanal

ing. - alpha compositing

rus. - альфа-канал

Qisman shaffoflik effektini yaratish maqsadida tasvirni fon bilan birlashtirish jarayoni. Alfa-kanal atamasi birinchi bor 1970-yillar oxirlarida Alvi Smit tomonidan kiritilgan. GIF formati oddiy binar shaffoflikni qo'llaydi (ya'ni, har bir piksel yoki butunlay shaffof bo'lishi ham, yoki butunlay shaffof bo'lmasligi ham mumkin). PNG formati qisman shaffoflikning 254 yoki 65534 darajasini qo'llashga imkon beradi. Ishlashiga yo'l qo'ymaydi. Barcha kirish va chiqish paketlarini filtrlash OSI etalon modeling amaliy pog'onasida amalga oshiriladi. Qo'llanmalar bilan bog'liq vositachi-dasturlar TCP/IP aniq xizmatlari generatsiyalayotgan axborotni shlyuz orqali qayta yo'naltiradi.

Alfa-testlash

ing. - alpha testing

rus. - альфа-тестирование

Yangi dasturiy yoki apparat mahsulotni, uni ishlab chiqqan kompaniya ichida testlashning birinchi bosqichi.

Izoh – Odatda, dasturning barcha funksiyalarini muntazam sinab ko'rishda ifodalanadi.

Alfa-versiya

ing. - alpha version

rus. - альфа-версия

Dasturiy mahsulotning, ishlab chiquvchi va hamkorlar o'rtasida, xususan, ilovalar ishlab chiqishni boshlash maqsadida, tarqatiladigan to'liq bo'lmagan boshlang'ich versiyasi.

Algoritm

ing. - algorithm.

rus. - алгоритм

Harakatlar ketma-ketligini belgilaydigan yo'l-yo'riqlar tizimi, ular yordamida muayyan turdagi vazifalarni hal qilish uchun cheklangan sonli qadamlar ishlatilishi mumkin bo'ladi yoki yechim mavjud emasligi to'g'risida xabar beriladi.

Algoritmik

ing. - algorithmic

rus. - алгоритмический

Masalalarni operatsiyalar algoritmi asosida hal qiladigan dasturlash tili (BASIC, C, Delphi).

Algoritmik foydalana olish

ing. - algorithmic access

rus. - алгоритмический доступ

Qandaydir algoritm bo'yicha manzilni hisoblashga asoslangan foydalana olish.

Algoritmik til

ing. - algorithmic language

rus. - алгоритмический язык

Simvollar to'plami va algoritmlarni berish uchun bu simvollardan konstruksiyalar tuzish va ularni talqin qilish qoidalari tizimi.

Alias, aliasing, diskretlash xalaqiti

ing. - alias, aliasing (spatial)

rus. - алиас, алиасинг, помеха

дискретизации

1. Aks ettirilayotgan elementlar sonining belgilangan tasvimi to'g'ri ko'rsatish uchun yetarli masligi tufayli yuzaga keladigan tasvir buzilishi.

2. Analog-raqamli o'zgartirishdagi diskretlash va kvantlash natijasida yuzaga keladigan ustma-ust tushish effekti.

3. Signallarni to'g'ri kelmaydigan tezlikda diskretlash tufayli sodir bo'ladigan va diskretlangan signal spektrida diskretlash chastotasi garmonikalari atrofidagi yon polosalarning o'zaro ustma-ust tushishiga olib keladigan buzilish.

Alifbo

ing. - alphabet

rus. - алфавит

Berilgan til yoki tizimda ma'lum bir ma'nodan tartiblashtirilgan simvollar yig'indisi. Bu simvollar harflar deb ataladi. Muayyan alfavitga tegishli bo'lgan simvollardagina so'zlarni tuzishda foydalanish mumkin. Masalan, Paskal tilining alfaviti lotin harflaridan (katta va kichik harflar ajratilmaydi), raqamlar va maxsus simvollardan tuzilgan.

Alifbo-raqamli simvol; harf yoki raqam

ing. - alphanumeric character

rus. - алфавитно-цифровой символ;

буква или цифра

Punktuatsiya (tinish) belgilari, matematik va boshqaruvchi simvollar bo'lmagan simvollar to'plami.

Alifbo-raqamli, harf-raqamli, matnli

ing. - alphanumeric

rus. - алфавитно-цифровой,

буквенно-цифровой, текстовый

Kichik va katta harflarni, raqamlarni, punktuatsiya (tinish) belgilarini va ba'zi boshqaruvchi simvollarni ichiga oladigan simvollar to'plami.

Al-Jamol algoritmi

ing. - Ale Hamale algorithm

rus. - алгоритм Эль-Гамалы

Axborotni autentifikatsiya qilish (raqamli imzo) hamda shifrlash uchun foydalaniladigan diskret logarifmlash masalasi asosidagi kriptotizim.

Allofon

ing. - allophone

rus. - аллофон

Bir xil xossalarga yoki informativlikka ega bo'lgan tovushlar to'plami.

Almashinuv buferi

ing. - clipboard

rus. - буфер обмена

Ilovalar o'rtasida matnli va grafik ma'lumotlar almashinish imkonini beradigan Windows mexanizmi.

Almashtirish

ing. - replace

rus. - заменить

Matn protsessorlaridagi asosiy operatsiyalar-dan biri – matndagi biron bir so'zni izlash va boshqa bir so'zga almashtirish.

Almashtirish uchun so'zlar ro'yxati

ing. - alternate list

rus. - список слов для замены

Ayrim matn redaktorlarida mavjud bo'lgan opsiya bo'lib, tez-tez ishlatiladigan so'zlarni to'liq kiritmasdan, ularni qisqa harf birikmalari bilan almashtirish imkonini beradi. Matn redaktorining o'zi ularni tanib oladi va almashtiradi. Ro'yxat formati – SO'Z: AL-MASH-TIRILADIGAN SO'Z.

Alohida kamyob resurslar

ing. - scarce resources

rus. - особо дефицитные ресурсы

O'z tabiatiga ko'ra cheklangan va shuning oqibatida kamyob bo'lgan resurslar. Ularning qatoriga quyidagilar kiradi: chastotalarning ishchi polosalari, geostatsionar orbitadagi kosmik apparatli tizimlarning orbital vaziyatlari va boshqalar.

Alohida muhim ma'lumotlar

ing. - particularly important information

rus. - сведения особой важности

Davlat tomonidan qattiq muhofaza qilingan, davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlar tarkibiga kiradigan ma'lumotlar.

Aloqa

ing. - communication

rus. - связь

Kelishilgan qoidalarga muvofiq, telekommunikatsiyalar vositalari yoki pochta aloqasi yordamida axborot almashinish yoki axborot yuborish.

Aloqa foydalanuvchisi

ing. - communication service user

rus. - пользователь связи

Aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida yoki bunday shartnomasiz aloqa xizmatlarini buyurishni xohlovchi yoki buyuruvchi, bu ulardan foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Aloqa kanali

ing. - data link

rus. - канал связи

Ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan tabiiy muhit va texnik qurilmalar. Aloqa kanallari analog va raqamli, telefon, telegraf, radiochastota, televizion, infraqizil hamda optik aloqa kanallariga bo'linadi. Shuningdek, ajratilgan va kommutatsiyalanadigan aloqa kanallari ham bor. Kanalning asosiy xarakteristikasi uning o'tkazish qobiliyatidir.

Aloqa liniyasi

ing. - communication line

rus. - линия связи

1. Uzatuvchi qurilmadan qabul qiluvchi qurilmaga signallarning uzatilishida foydalani-ladigan elektromagnit to'lqinlarning tarqalish doirasi.

2. Ovozli ma'lumotlar va/yoki matnli axborotni tashqi ekipaj a'zolari, havo harakatini boshqarish xizmatlari, havo fazosining boshqa foydalanuvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida almashish kanali.

Aloqa operatori

ing. - communication operator

rus. - оператор связи

Tegishli litsenziya asosida aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxs yoki yakka tadbirkor.

Aloqa operatorining ta'sir doirasi

ing. - operation area of

telecommunications operator

rus. - зона действия оператора

Litsenziyaga muvofiq, aloqa operatori aloqa xizmatlarini ko'rsatishga vakolatli bo'lgan hudud (qoplash zonasi bilan mos tushmaydi).

Aloqa redaktori

ing. - linkage editor

rus. - редактор связей

Obyekt modullaridan barcha modullararo havolalarga ruxsat etgan holda yuklanadigan modulni shakllantiradigan tizimli dastur.

Aloqa redaktori va yuklagich

ing. - linker and loader

rus. - редактор связей и загрузчик

Aloqa redaktori va yuklagich vazifalari bir-lashtirilgan tizimli dastur.

Aloqa tarmoqlarining birgalikda ishlashi

ing. - networks interworking

rus. - взаимодействие сетей связи

Texnologik jihatdan bog'langan tarmoqlarning umumiy vazifalarni bajarish maqsadida birgalikda ishlashi.

Aloqa tizimi

ing. - communication system

rus. - система связи

Odatda, bir butunni tashkil etgan holda birikish va o'zaro ishlashga layoqatli bo'lgan alohida telekommunikatsiya tarmoqlari, uzatish tizimlari, retranslyatsiya stansiyalari, yordamchi stansiyalar va terminal uskunalari majmui.

Aloqa vositalari

ing. - communication tools

rus. - средства связи

Elektraloqasi xabarlar yoki pochta jo'natmalarini shakllantirish, qayta ishlash, uzatish yoki qabul qilib olish uchun foydalaniladigan texnik vositalar, shuningdek aloqa xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan binolar, inshootlar yoki odam yashamaydigan xonalar.

Aloqa xizmatlari sifat auditi

ing. - telecommunications

rus. - аудит качества услуг связи

rus. - аудит качества услуг связи

Aloqa xizmatlari sifat ko'rsatgichlarining belgilangan talablarga mos kelishligini mustaqil hujjatlashtirilgan tekshiruvini o'tkazish.

Aloqa xizmatlari sifati

ing. - quality of communication service

rus. - качество услуг связи

Aloqa xizmatlariga xos bo'lgan xarakteristikalarining belgilangan normativ hujjatlarga mos kelish darajasi.

Aloqa xizmatlari sifatini boshqarish tizimi

ing. - service quality management system

rus. - система управления

качеством услуг связи

Xizmatlari sifati boshqarilishini amalga oshirish ta'minlanadigan, tashkiliy tuzilma, xodimlar javobgarligi hamda vakolatlari, protseduralar, jarayonlar, resurslar majmui.

Aloqa xizmatlari sifatini nazorat qilish

ing. - monitoring of quality of

communication service

rus. - контроль качества услуг связи

Aloqa xizmatlari sifat ko'rsatgichlarining belgilangan talablarga mos kelishini tekshirish.

Aloqa xizmatlaridan foydalanuvchilarga

xizmat ko'rsatish sifati

ing. - quality of service

rus. - качество обслуживания

пользователей услуг связи

Foydalanuvchilar tomonidan baholanadigan va ularning aloqa xizmatlari sifatidan qoniq-qanlik darajasini tavsiflaydigan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko'rsatgichlar (aloqa xizmatlari parametrlari) majmui.

Aloqa yo'q zona

ing. - dead zone

rus. - зона отсутствия связи

Tayanch stansiya uzatgichidan radiosignalning ishonchli qabuli mavjud bo'lmagan soha. Ishonchsiz qabul sohalari qamrash uchun, odatda qo'shimcha retranslyatorlar o'rnatiladi.

Aloqaga kirish signali

ing. - call-up signal

rus. - сигнал вхождения в связь

Boshqa stansiya bilan ulanishga urinayotgan radiostansiyadan beriladigan xizmat signali.

Aloqalarni tabir qilish

ing. - linking

rus. - редактирование связей

Dasturni qayta ishlash bosqichi, bunda aloqa redaktori obyekt modullaridan barcha modullararo havolalarga ruxsat etgan holda yuklanadigan modulni shakllantiradi

Aloqani taqdim etish xizmati

ing. - communication service providing

rus. - услуга предоставления связи

Ma'muriyatlar o'rnatidagi kelishuv bo'yicha belgilangan va/yoki xususiy ekspluatatsiya qilish tashkilotlari tomonidan tan olingan bayonnomalarga muvofiq, foydalanuvchilar o'rnatida aloqani, jumladan, oxirgi (terminal) uskuna funksiyalarini amalga oshirishning to'liq imkoniyatini taqdim etadigan telekommunikatsiyalar xizmatining turi.

Aloqaning buzilish ehtimoli

ing. - outage probability

rus. - вероятность нарушения связи

Signal darajasining oʻrnatilgan minimal sath-dan pastga tushish ehtimoli.

Izoh - Agar ushbu shart ish vaqtining berilgan qismi davomida bajarilsa, masalan, aloqa seansining 95 foizida signal darajasi oʻzgarmasdan saqlansa, aloqa ishonchli deb hisoblanadi.

Aloqaning uzilishi

ing. - disconnect

rus. - разрыв связи

Aloqa liniyasining shikastlanishi yoki dasturdagi xato tufayli kompyuterning tarmoqdan uzilishi.

Aloqaning uzoqligi

ing. - transmission distance

rus. - дальность связи

Qabul qilgich va uzatgich oʻrtasida berilgan sifat bilan axborot almashinuvi taʼminlanadigan maksimal masofa.

Izoh - Chastotaga, qabul qilgich va uzatgich antenaning yer sathidan joylashish balandligiga, uzatgich quvvati va qabul qilgichning sezgirlikiga, antenna-fider qurilmalarining samaradorligiga bogʻliq.

Altcoin

ing. - altcoin

rus. - альткойн

1. Raqamli bitcoin valyutasiga muqobil boʻlgan kriptovalyutaning toifasi.

Izoh - Koʻplab altcoinlar bitcoinnlarda mavjud cheklavlarni bartaraf etish maqsadida, raqobatbardosh afzalliklarga ega yangi versiyalarning yaratilishiga sabab boʻladi.

2. Yaratilishi va nazorat qilinishi kriptografik usullarga asoslanadigan raqamli valyutaning turi. Odatda, kriptovalyutalarning hisobga olinishi markazlashtirilmagan. Ushbu tizimlarning ishlashi blokcheyn, yoʻnaltirilgan atsiklik graf, konsensusli reyestr va sh.k. texnologiyalarga asoslangan.

3. Bitcoindan tashqari barcha kriptovalyutalarning nomi. Birinchi altcoinlar 2011-yilda paydo boʻlgan. Ularning maqsadi bitcoin ega boʻlgan barcha texnik cheklavlardan oʻtishdan iborat.

Amaldagi antenna balandligi

ing. - effective height of antenna

rus. - действующая высота антенны

1. Antenna nurlanish markazining Yer sirtining berilgan nuqtasi ustida joylashgan balandligi. Maydonni ravon taqsimlab

tasavvur qilinadigan vertikal nur tarqatgich uzunligi kabi belgilanadi, uning pastki oxiri Yer sathida joylashadi, shu bilan birga maksimal nurlanish yoʻnalishida bu nur tarqatgich koʻrib chiqilayotgan antennadagi kabi maydon kuchlanganligini hosil qiladi.

2. Joy relyefini hisobga olib uzatuvchi antenaning osma balandligi.

Amaliy darajadagi shlyuz

ing. - application-level gateway

rus. - шлюз прикладного уровня

Tarmoqlararo ekranni amalga oshirish variantlaridan biri. Mualliflashtirilgan mijoz bilan tashqi xost oʻrtasida bevosita oʻzaro taʼsirini istisno qiladi. Barcha kiradigan va chiqadigan paketlar filtratsiyasi VOS etalon modelining amaliy darajasida amalga oshiriladi. Ilovalar bilan bogʻlangan vositachi dasturlar shlyuz orqali TCP/IP muayyan servislari generatsiyalaydigan axborotni qayta yoʻllaydi.

Amaliy dasturiy kompleks

ing. - software application suite

rus. - прикладной программный комплекс

Yagona kompleksga birlashtirilgan ilovalar. Amaliy dasturiy kompleksga kiradigan har bir ilova mustaqil ishlashi mumkin. Ilovalarni yagona kompleksga birlashtirish, foydalanuvchi bilan ularning oʻrtasida bir xil interfeyslar mavjudligini bildiradi. Masalan, Microsoft Office amaliy dasturiy kompleks keng maʼlum. Uning tarkibiga quyidagi ilovalar kiradi: Word – matn protsessori, Excel – elektron jadvallar, Access – maʼlumotlar bazasi, PowerPoint – prezentatsiya. Integratsiyalashgan tizimlardan farqi shundaki, amaliy dasturiy kompleksning har bir elementi imkoniyatlari boʻyicha integratsiyalashgan tizimlardagi analogiga qaraganda birmuncha kuchli, amaliy dasturiy kompleksda maxsus umumiy muhit yoʻq. Har bir ilova ishlaydigan muhit Windows hisoblanadi.

Amaliy dasturiy taʼminot

ing. - application software

rus. - прикладное программное обеспечение

Muayyan vazifani bajarish, masalan, matnlarni tayyorlash, maʼlumotlar bazalaridan, telekommunikatsiyalar, elektron jadvallardan foydalanish uchun moʻljallangan dasturiy taʼminot.

Amaliy dasturlar generatori

ing. - application generator

rus. - генератор прикладных программ

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi-ga kiradigan muayyan ma'lumotlar bazasini boshqarish dasturlarini tuzishni avtomatlash-tirish uchun mo'ljallangan dasturlar. Dastur-lar generatoridan foydalanish uchun yuqori malaka talab qilinmaydi. Shu sababli, ma'lumotlar bazasi tuzilmasini yaratish, ma'lumotlar kiritilishini va tuzatilishini, hisobotlar tu-zishni oxirgi foydalanuvchi bajarishi mumkin.

Amaliy dasturlarning ikkilik interfeysi

ing. - application binary interface (ABI)

rus. - двоичный интерфейс

прикладных программ

Argumentlarni uzatish formatlarini qat'iy belgilaydigan quyi sath interfeysi. Amaliy dasturlarning ikkilik interfeysi operatsion tizimining qaysi interfeyslari bajarilayotgan dasturga bo'ysunishi kerakligini aks etiradi.

Amaliy dasturlash

ing. - application programming

rus. - прикладное программирование

Muayyan amaliy soha yoki oxirgi foydala-nuvchi uchun vazifalarning hal etilishi.

Amaliy dasturlash interfeysi

ing. - applications programming interface (API)

rus. - интерфейс прикладного программирования

Ilova yoki operatsion tizim tashqi dasturiy mahsulotlardan foydalanish uchun taqdim eta-digan tayyor turkumlar, protseduralar, funk-siyalar, tuzilmalar va konstantalar to'plami.

Amaliy jarayon

ing. - application-process

rus. - прикладной процесс

Foydalanuvchilarning manfaatlarini uchun bajariladigan va amaliy dasturlarda tasvir-lanadigan axborotni kiritish, saqlash, qayta ishlash va berish bo'yicha turli protseduralar.

Amaliy obyekt

ing. - application object

rus. - прикладной объект

Amaliy etalon modelning, noyob ilova tu-shunchasini belgilaydigan va obyektning ma'lumotlar elementlarini belgilaydigan atribut-larni ichiga oladigan elementar komponenti.

Amaliy protsesssor

ing. - application processor

rus. - прикладной процессор

Yagona ilova bilan ishlash uchun ajratilgan, ixtisoslashtirilgan protsesssor.

Amaliy sath

ing. - application layer

rus. - прикладной уровень

1. Ochiq tizimlarning birgalikda ishlay olishi (OSI) modelining, elektron pochta va fayllar-ni ko'chirish kabi kommunikatsiya xizmatlar-ini ta'minlaydigan yuqori sathi.

2. Tarmoqda kompyuterlarning birgalikda ishlay olish usullarini tavsiflaydigan ISO OSI yetti sathli modelining yettinchi, eng yuqori sathi. Bu sathda quyi sathlarda amalga oshirilgan xizmatlardan foydalaniladi, biroq u, tarmoqda ishlatiladigan apparat vositalari xossalari to'liq ajratilgan. Amaliy sath ilovalarning, jumladan, ma'lumotlar bazala-rini boshqarish tizimi, elektron pochta vosi-talari va terminal emulyatsiya dasturlarining tarmoq operatsion tizimi bilan birgalikda ish-lash usullarini belgilaydi.

Amaliy vazifalarni dasturlash uchun

ma'lumotlar bazasining ichiga

kiritilgan interfeysi

ing. - integrated database application programming interface

rus. - встроенный интерфейс базы данных для программирования прикладных задач Borland C++ va Delphi ishlab chiqish vosi-talari va BDE ma'lumotlar bazasi mexanizmi o'rtasidagi interfeysli qatlam. Ma'lumotlar bazasiga ilovalardan kirib foydalanish-ni ta'minlan uchun xizmat qiladi. Borland International firmasi tomonidan 1992-yilda Microsoft korporatsiyasining ODBC inter-feysiga muqobil tarzda ishlab chiqilgan.

Amerika standartlar milliy instituti

ing. - American national

standart institute (ANSI)

rus. - американский национальный

институт стандартов

Korporatsiyalar, hukumat organlari va bosh-qa tashkilotlarni birlashtiruvchi, standartlar bilan bog'liq faoliyatni muvofiqlashtiruvchi (1918-yilda asos solingan) jamoat tashkilo-ti. ANSI kommunikatsiyalar va tarmoqlarni yaratish masalalariga taalluqli xalqaro stan-dartlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC)

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ning a'zosi hisoblanadi.

Amplitudaviy yo'nalganlik diagrammasi

ing. - amplitude pattern of antenna

rus. - амплитудная диаграмма направленности

Nurlanuvchi elektromagnit maydon kuchlanganlik amplitudasining o'zgaraydigan masofa uchun uzoq zonadagi θ va φ burchak koordinatalariga bog'liqligi.

Amplituda-chastotaviy

ing. - frequency slope

rus. - наклон амплитудно-частотной

характеристики

Tizimning ikki nuqtasi o'rtasidagi ma'lum ikkita chastotadagi kuchaytirish yoki susayishlarning farqi.

Izoh - Odatda, muvofiq keladigan o'tkazish polosasining chegaralariga taalluqli.

Anaglif ko'zoynak

ing. - anaglyph glasses, anaglyph spectacles

rus. - анаглифные очки

Anaglif televidion tasvimi ko'rish uchun mo'ljallangan stereoskopik ko'zoynak.

Izoh - Chap va o'ng ko'z uchun tasvimi ajratish qo'shimcha (komplementar) ranglarning ikkita optik filtri orqali ta'minlanadi.

Anaglif televideniye

ing. - anaglyph television

rus. - анаглифное телевидение

Har bir ko'zga qo'shimcha (komplementar) ranglardagi alohida tasvirlar taqdim etilgan stereoskopik televideniye.

Analitik

ing. - analytical

rus. - аналитический

Formulalarni simvollar o'zgartirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot (kompyuter algebrasi) yordamida matematik masalalarni yechish usuli.

Analitik hujum, kriptoanalitik hujum

ing. - analytical attack, cryptanalytical attack

rus. - аналитическая атака,

криптоаналитическая атака

Analitik usullardan foydalanib, kodni bilib olishga yoki kalitni topishga urinish.

Izohlar

1. Analitik hujum to'liq ajratish asosidagi hujumga qarama-qarshi holat bo'lib hisoblanadi.
2. Tasvirlarni statistik tahlil qilish, shifrlash algorit-

midagi kamchiliklarni qidirish analitik hujumlarga misol bo'lib hisoblanadi.

Analitik usullar

ing. - analytical techniques

rus. - аналитические методы

Loyiha yoki atrof muhit o'zgaruvchilarining mumkin bo'lgan o'zgarishlari va ularning boshqa o'zgaruvchilar bilan o'zaro bog'liqligi asosida potensial natijalarni tahlil qilish yoki prognozlash uchun qo'llaniladigan turli usullar.

Analizator

ing. - analyzer

rus. - анализатор

Algoritmlar, matn va h.k. larni tahlil qiladigan va shuning asosida ma'lumotlar beradigan dastur. Masalan, matndagi harflar va so'zlar sonini hisoblaydi.

Izoh - Analizatorlar o'z vazifasiga ko'ra leksik, sintaktik va semantik analizatorlarga bo'linadi.

Analog format

ing. - analog

rus. - аналоговый формат

Axborot uzatish uchun kuchlanish amplitudasi yoki chastota o'zgarishi kabi fizik o'zgaruvchilardan foydalaniladigan format.

Analog hisoblash mashinasi

ing. - analog computer

rus. - аналоговая вычислительная машина

Analog ko'rinishda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan ishlaydigan hisoblash mashinasi, raqamli mashinalardan dasturlashning soddaligi va operatsiyalarni bajarish tezligi katta bo'lishi bilan ajralib turadi. Analog hisoblash mashinalari amalda har doim qattiq ixtisoslashtirilgan bo'ladi. Analog hisoblash mashinalarini neyrokompyuterni yaratishda yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Analog kattalik

ing. - analog size

rus. - величина аналоговая

Qiymatlari to'xtovsiz o'zgaradigan kattalik; uning aniq qiymati o'lchashni amalga oshiradigan asbobning aniqligiga bog'liq.

Analog kompyuter

ing. - analog computer

rus. - аналоговый компьютер

Harakatlari ma'lum tizimning harakatlariga mos va o'xshash ma'lumotlarni olib, ularni qayta ishlab taqdim etuvchi kompyuter.

Analog modem

ing. - analog modem

rus. - аналоговый модем

Ma'lumotlarni uzatish uchun telefoniya foydalanadigan chastota ko'lamidan (4 KHzgacha) foydalanuvchi modem. Analog modem yordamida ma'lumotlarni uzatishning eng katta tezligi 56 Kbit/s bilan cheklangan. Modem orqali ulanish paytida telefonan foydalanish mumkin emas (qo'ng'iroq qilish yoki qo'ng'iroqqa javob berish uchun ulanishni uzish lozim). Analog modemni ulash abonent yoki ATSDa maxsus jihozlarni o'rnatishni talab qilmaydi. Shunday qilib, aloqa sifati va qo'shimcha xizmatlardan foydalanish telefon stansiyasiga bog'liq (raqamni aniqlash, chaqirishni kutish va h.k.).

Analog modulyatsiya

ing. - analog modulation

rus. - аналоговая модуляция

Nurlanuvchi tebranish parametrlari (amplituda, chastota, faza) modulyatsiyalovchi kirish signali amplitudasiga proporsional o'zgaradigan modulyatsiyalash usuli.

Analog monitor (display)

ing. - analog monitor (display)

rus. - Аналоговый монитор (дисплей)

Rangli tasvirni hosil qilish uchun kulrang yoki rangli tashkil etuvchilardan iborat yo'xtovsiz shkalani bera oladigan analog videokirishi mavjud bo'lgan monitor. Izoh - VGA display - analog, EGA esa raqamli display hisoblanadi.

Analog-raqamli kompyuter, gibrid kompyuter

ing. - hybrid computer

rus. - аналого-цифровой компьютер,

гибридный компьютер

O'zida raqamli va analog hisoblash mashinalarini birlashtirgan kompyuter tizimi.

Izoh - U ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimlarida, robot texnikasida va murakkab tizimlarni modellashtirishda qo'llaniladi.

Analog-raqamli qabul qiluvchi-uzatuvchi optoelektron modul

ing. - analogue (digital) receiving-transmitting optoelectronic module

rus. - аналого-цифровой приемно-передающий оптоэлектронный модуль

Analog (raqamli) qabul qiluvchi va uzatuvchi optoelektron modullar funksiyalarini bajara-

digan uzatuvchi-qabul qiluvchi optoelektron modul.

Analog signal

ing. - analogue signal

rus. - аналоговый сигнал

Axborotni ifodalaydigan miqdoriy xarakteristikasi vaqtning istalgan onida, uzluksiz interval doirasidagi istalgan qiymatni qabul qiladigan signal.

Animatsiya, multiplikatsiya

ing. - animation

rus. - анимация, мультипликация

1. Rasmlarda yoki oddiy obyektlarda harakat illyuziyasini yaratish san'ati, texnika va texnologiyasi. MPEG-4 da sintetik obyektlarni bazaviy statik obyektning bir marta uzatish va obyektning dinamik o'zgarishlarini tavsiflovchi xabarlarini qo'shimcha uzatishdan iborat kodlash usuli.

2. Harakat illyuziyasini yaratish uchun ekran-ga bir-biridan juda kam farqlanadigan tasvirlar ketma-ketligini uzatish. Izoh - Dastlab multiplikatsion filmlarda qo'llanilgan. Buning uchun tasvirlar ketma-ketligi sifatida ko'rinadigan jarayonlarning vaqt davomida rivojlanishi modellashtiriladi.

Animatsiyalangan GIF

ing. - animated GIF

rus. - анимированный GIF

Tezda aks ettirilib, harakatlanuvchi tasvirni yaratuvchi GIF formatidagi tasvirlardan iborat fayl.

Aniq autentifikatsiya

ing. - explicit authentication

rus. - явная аутентификация

Parol bo'yicha yoki tuzilmaysiz autentifikatsiya qilish jarayonida o'zgaraydigan, oldindan shakllantirilgan kriptografik kalitlardan foydalanib autentifikatsiya qilish jarayoni.

Aniq imzo

ing. - indisputable signature

rus. - бесспорная подпись

Inkor qilish protokolidan foydalaniladigan raqamli imzo sxemasi imzo qo'yuvchining o'z xabarini inkor etishining oldini olish imkonini beradi.

Aniq siljish

ing. - precision offset

rus. - точное смещение

Tasvir eltuvchilari chastotalarining satrlar

muayyan funksiyasi va esh-
ittirish televideniyesi shu tizim maydonlari-
ning chastotasi hisoblanadigan hamda I Hz
ga teng yuqori aniqlikda qo'llab-quvvatla-
nadigan kattalikka siljishi.

Aniqlamoq

ing. - detect

rus. - обнаружить

Operatsion tizimning yangi uskuna va uning
sozlashlarini aniqlash protsedurasi.

Aniqlangan potensial zaifliklar

ing. - encountered potential vulnerabilities

rus. - потенциальные

обнаруженные уязвимости

Baholash obyektining, baholash bajarila-
yotganda baholovchi tomonidan identifikat-
siya qilingan, funksional xavfsizlik talablari
buzilishi uchun ishlatiladigan potensial zaif
joylari.

Aniqlik

ing. - definition, resolution

rus. - четкость

Televizion tasvir detallarining keskinlik chorasi.

Misol – Vertikal bo'yicha aniqlik, gorizon-
tal bo'yicha aniqlik.

Aniqlikni tekshirish jadvali

ing. - resolution test chart

rus. - таблица проверки четкости

Televizion tasvirning aniqligini tekshirish
uchun mo'ljallangan televizion sinov jadvali.

Anonim

ing. - anonymous

rus. - анонимный

Foydalanuvchining aniq nomini ko'rsatmas-
lik. Ko'pincha nom IP-manzili yoki elektron
pochta manzili bilan almashtiriladi.

Anonim kirish

ing. - anonymous logon

rus. - анонимный вход

Tizimga yoki biror resursga login yoki parol
nomini kiritmasdan kira olish usuli.

Izoh – Ko'pincha veb-saytlarda va FTP-serverlarda
qo'llaniladi. Ehtiyotkorlik bilan foydalanishni talab eta-
di, chunki xavfsizlik muammolariga ega va ko'pincha
flud/spamga olib keladi.

Anonim qo'ng'iroqlarning

takomillashtirilgan rad qilinishi

ing. - enhanced anonymous

call rejection (EACR)

rus. - усовершенствованное

отклонение анонимных звонков

«Chaqirayotgan liniya identifikatsiyasini
taqiqlash» xizmatidan foydalanuvchi abo-
nentlar tomonidan bo'ladigan chaqiruvlar-
ni qaytarish imkonini beradigan xizmat. Bu
xizmat abonentlarga:

- barcha anonim qo'ng'iroqlarni qaytarish;

- barcha anonim qo'ng'iroqlarni tovushli
pochtaga qayta yo'llash;

- barcha anonim qo'ng'iroqlarni belgilangan
raqam orqali filtrlash uchun ilova serveriga
qayta yo'llash imkonini beradi.

Anonimayzer

ing. - anonymizer

rus. - анонимайзер

Foydalanuvchi maxfiyligini saqlovchi dastur
yoki veb-sahifa.

Izoh – Internet bilan ishlayotganda xavfsizlik
maqsadlarida, shuningdek, buzg'unchilar tomonidan
izni yo'qotishda qo'llaniladi.

Anonimlik kaliti

ing. - anonymity key

rus. - ключ анонимности

Autentifikatsiya qilish protsedurasida shif-
lash orqali foydalaniladigan yordamchi kalit
(abonent bilan bog'lanmagan).

Anonimlikni saqlash dasturi (vositasi)

ing. - anonymizer

rus. - программа (средство) сохранения
анонимности

Interneta ishlash paytida xavfsizlik maqsad-
larida foydalaniladigan dastur.

Antenna

ing. - aerial, antenna

rus. - антенна

Radioto'lqinlarni bevosita nurlantirish va qa-
bul qilish uchun mo'ljallangan qurilma. Ant-
ennalar bajaradigan vazifasiga ko'ra qabul
qiluvchi, uzatuvchi va qabul qiluvchi-uzatuv-
chi antennalarga ajratiladi. Antennalar nurlan-
tiriladigan (qabul qilinadigan) radioto'lqinlar
diapazoni, chastota bo'yicha qoplashi, nurlan-
tirish yoki qabul qilish yo'nalishi, ishlash
prinsipi va konstruktiv bajarilishi bilan farq
qiladi. Antennaning asosiy parametrlari va
xarakteristikallari: yo'naltirilgan ta'sir koeffi-
tsiyenti, yo'nalganlik diagrammasi, nurlanish
qarshiligi, to'lqin qutblanishining turi.

Antenna aperturasi

ing. - aperture of antenna

rus. - апертура антенны

Sirt maydoni, bunda shu antenna bilan elektromagnit to'liqlar energiyasini asosiy nurlantirish va/yoki qabul qilish amalga oshiriladi.

Antenna diapazoni

ing. - antenna bandwidth

rus. - диапазон антенны

Antenna parametrlari belgilangan chegaralarda bo'ladigan (joylashadigan) chastotalar diapazoni yoki to'liqlar uzunligi diapazoni.

Antenna effektivligi

ing. - antenna efficiency

rus. - эффективность антенны

Antennaning elektr signalni elektromagnit nurlanishga aylantirish va uni kerakli yo'nalishga (va aksincha) yo'naltirish qobiliyati.

Antenna ekvivalenti

ing. - artificial antenna, dummy antenna

rus. - эквивалент антенны

Antennani imitatsiyalovchi elektr zanjir yoki qurilma.

Izoh - Uzatgichni sozlashda fider o'miga oxirgi kaskadga antenna ekvivalenti ulanadi.

Antenna elementi

ing. - aerial element

rus. - антенный элемент

Birlamchi yoki ikkilamchi nur tarqatgich.

Antenna-fider qurilmasi

ing. - antenna feeder device

rus. - антенно-фидерное устройство

Antenna va radiouzatgich chiqishi (radiopriyomnik kirishi) hamda antennaning kirishi (chiqishi) o'rtasidagi barcha konstruktiv elementlar.

Izoh - Antenna-fider qurilma radioaloqa, radioeshitirish, televideniye tizimlarida signallarni uzatish uchun shuningdek, signallarni uzatishda radioto'liqlardan foydalaniladigan radiotexnika tizimlarida qo'llaniladi.

Antenna-fider trakti

ing. - antenna-feeder path

rus. - антенно-фидерный тракт

Antenna bilan birgalikda uzatish liniyasi.

Izoh - Antenna-fider trakti tuzilishining muhim vazifalaridan biri bir necha yuqori chastotali stvollarni bitta umumiy antenna-fider trakti signallari bo'ylab bir vaqtda mustaqil uzatish hisoblanadi. Antenna-fider trakti tarkibiga antennalar, (koaksial yoki to'liqin

o'tkazgich) fider liniyalari, chastotaviy bo'lish uchun (o'ta yuqori chastotalarning polosali filtrlari, ferrit sirkulyatorlar) va stvollarni qutbli ajratish (qutbli selektorlar, qutblanish korrektorlari) uchun qurilma, shuningdek, gernetizatsiyalanadigan qo'shimcha, ferrit ventillar, to'liqlarning yutilish filtrlari va b.ka kiradi.

Antenna fideri

ing. - aerial feeder

rus. - антенный фидер

Uzatgich yoki qabul qilgichni antennaga ulash uchun xizmat qiluvchi ikki simli liniya yoki to'liqin o'tkazgich. Fiderning vazifasi yuqori chastotali tebranishlarni fider yordamida to'liqlar nurlanishiga va uni qizdirishga imkoni boricha energiya yo'qotmay uzatishdan iborat.

Antenna kirishi

ing. - antenna entrance

rus. - антенный ввод

Antenna va u bilan bog'langan aktiv uskuna o'rtasidagi yo'l.

Antenna ko'zgusi chetidan

energiyaning sizib chiqishi

ing. - spillover loss

rus. - утечка энергии за

край зеркала антенны

Parabolik antenna asosiy ko'zglasining chetidan energiyaning «oqib chiqishi», shuningdek, nurlanishning ko'zgu chetlarida va ko'zgu sirti notekisliklarida sochilishi (ya'ni, yon nurlanishdagi yo'qotishlar).

Antenna kommutatori

ing. - antenna switch, duplexer, polyplexer

rus. - антенный коммутатор

Turli antennalarni radiouzatuvchi markazning turli uzatgichlariga yoki radioqabul markazining qabul qilgichlariga birlashtiradigan kommutator.

Antenna kuchaytirgichi

ing. - antenna amplifier

rus. - антенный усилитель

Shovqinning kichik koeffitsiyentiga ega bo'lgan, antenna bilan bevosita bog'langan kuchaytirgich.

Antenna maydoni

ing. - antenna farm

rus. - антенное поле

Cheklangan hududda joylashgan antenna-fider qurilmalariga ega antennalar guruhi.

Antenna-machta

ing. - mast antenna

rus. - антенна-мачта

Stvoli uzatuvchi antenna sifatida foydalaniladigan, izolyatsiyalovchi tayanchga vertikal o'rnatilgan metall machta.

(Antenna) nurini mexanik skanlash

ing. - mechanical scanning of beam (of the antenna)

rus. - механическое сканирование луча (антенны)

Antennani burish vositasida amalga oshiriladigan antenna nurini skanlash.

Antenna nurlatgichi

ing. - exciter of antenna

rus. - облучатель антенны

Uzatuvchi antennaning asosiy aktiv zonasi ni nurlatish yoki qabul qiluvchi antennaning aktiv zonasidan energiya oqimini to'plash uchun qo'llaniladigan har qanday nurlantiruvchi tuzilma.

Antenna ochilishining soyalanishi

ing. - the shading of the antenna aperture

rus. - затенение раскрыва антенны

Nurlagich va antenna ko'zgusining qaytaruvchi sirti o'rtasida konstruktiv elementlar mavjudligi tufayli antenna nurlanishi samaradorligining pasayishi, ochilishning soyalanishi odatda yon yuproqlar bo'yicha nurlanish darajasining oshishiga olib keladi.

Antenna panjarasi

ing. - aerial lattice

rus. - антенная решетка

Muayyan tarzda fazalangan elektromagnit to'lqinlar nur tarqatgichlari qatoridan tashkil topgan murakkab antenna. O'zgaraydigan yo'nalganlik diagrammasiga ega va yo'nalganlik diagrammasi elektron boshqariladigan (fazalangan antenna panjaralari) antenna panjaralari ajratiladi.

(Antenna panjarasi nurini) elektr skanlash

ing. - electrical scanning (of array beam)

rus. - электрическое сканирование

(луча антенной решетки)

Nurlantiruvchi elementlardagi toklar yoki maydonlardagi amplituda-fazaviy taqsimlash elektr boshqarish vositasida amalga oshiriladigan antenna panjarasi nurini skanlash.

(Antenna panjarasi nurini)

fazaviy skanlash

ing. - phase scanning (beam array)

rus. - фазовое сканирование

(луча антенной решетки)

Toklar yoki maydonlarning fazaviy taqsimlanishi uning nurlantirish elementlarida o'zgarishida amalga oshiriladigan antenna panjarasi nurini skanlash.

(Antenna panjarasi nurini) skanlash

ing. - scanning of beam of array

rus. - сканирование

(луча антенной решетки)

1. Antenna panjarasi nurini fazoning ma'lum sektorida boshqarib siljitish.

2. Maksimal nurlanish yo'nalishini yoki antenna panjarasining qabulini fazoda ma'lum qonunga ko'ra o'zgartirish.

(Antenna panjarasi nurini)

skanlash fazoviy sektori

ing. - scan space

rus. - пространственный сектор

сканирования (луча антенной решетки)

Antenna panjarasining nurini skanlash amalga oshiriladigan fazoviy burchak.

(Antenna panjarasi nurini)

chastotaviy skanlash

ing. - frequency(-controlled) scanning

rus. - частотное сканирование (луча

антенной решетки)

Qo'zg'atadigan manbaning tebranish chastotasini o'zgartirish vositasida amalga oshiriladigan antenna panjarasi nurini skanlash.

(Antenna panjarasi yo'nalganlik

diagrammasining) difraksiya yuproqlari

ing. - diffraction lobes (of the antenna array)

rus. - дифракционные лепестки

(диаграммы направленности

антенной решетки)

Yo'nalishi antenna panjarasining ko'paytiruvchisi maksimal yuproqlarining, uning asosiy yaproq'idan tashqari, yo'nalishi bilan aniqlanadigan antenna panjarasi yo'nalganlik diagrammasining yaproq'i.

Antenna panjarasini ko'paytiruvchi

ing. - array factor

rus. - множитель антенной решетки

Antenna panjarasining yo'nalganlik diagrammasini tavsiflaydigan ifodadagi, joylashishi va nisbiy qo'zg'atilishi shu anten-

na panjarasini kabi bo'lgan, izotrop nurlantiruvchi elementlardan iborat gipotetik antenn panjarasining yo'nalganlik diagrammasiga mos keladigan, ko'paytiruvchi.

(Antenna panjarasining) burchak-chastota sezgirligi

ing. - angular-frequency sensitivity
(of antenna array)

rus. - углочастотная чувствительность
(антенной решетки)

Antenna panjarasi nuri yo'nalishining chastotani o'zgartirish bilan skanlash jarayonida signal chastotasining nisbiy o'zgarishiga nisbati bilan aniqlanadigan kattalik.

Antenna panjarasining burchak-chastota xarakteristikasi

ing. - angular-frequency characteristic of antenna array

rus. - углочастотная характеристика антенной решетки

Antenna panjarasi nuri yo'nalishining nurlantiriladigan yoki qabul qilinadigan signal chastotasiga bog'liqligi.

(Antenna panjarasining)

dastlabki nurlatgichi

ing. - primary irradiator (of array)

rus. - первичный облучатель
(антенной решетки)

Fider bilan bog'langan va fazoviy qo'zg'atishga ega antenna panjarasi elementlarini nurlantirishni qo'zg'atish uchun mo'ljallangan yoki fazoviy va fider qo'zg'atilishni birkiruvchi antenna yoki antennalar guruhi.

Antenna panjarasining diagramma hosil qiladigan sxemasi (yo'nalganlik diagrammasini shakllantirgich)

ing. - beamformer

rus. - диаграммообразующая схема антенной решетки (формирователь диаграммы направленности)

1. Asosiy yuproqlaming maksimumlari shakli va/yoki yo'naltirilganligi bilan farqlanuvchi yo'nalganlik diagrammasiga mos keladigan nurlantiruvchi elementlarning toklari yoki qo'zg'atilish maydonlarini bir necha amplituda-fazaviy taqsimlashni shakllantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

2. Ishning berilgan algoritmlariga muvofiq antenaning yo'naltirilgan xususiyatlarini o'zgartira oladigan diagramma hosil qiluvchi sxema.

Antenna panjarasining

fazoviy qo'zg'atilishi

ing. - array space feed

rus. - пространственное возбуждение антенной решетки

Antenna panjarasini, uni birlamchi nurlagich bilan nurlantirish yo'li orqali qo'zg'atish.

Antenna panjarasining

fiderli qo'zg'atilishi

ing. - array feed

rus. - фидерное возбуждение антенной решетки

Antenna panjarasining nurlantiruvchi elementlarini shu elementlarga birkiruvchi fider vositasida qo'zg'atish.

Antenna panjarasining

ketma-ket qo'zg'atilishi

ing. - series excitation of array

rus. - последовательное возбуждение антенной решетки

Antenna panjarasining fiderli qo'zg'atilishi, unda fiderning har bir keyingi tarmoqlanishiga avvalgi tarmoqlanish fideri bilan qo'zg'atilgan nurlantiruvchi elementda nurlanmagan quvvat kiritiladi.

Antenna panjarasining kirish

bo'yicha yo'nalganlik diagrammasi

notekislik koeffitsiyenti

ing. - coefficient of unevenness

pattern input array

rus. - коэффициент неравномерности диаграммы направленности по входу антенной решетки

Yo'nalganlik amplitudaviy diagrammasi darajasining, ko'p kirishli antenna panjarasining ushbu kirishi orqali ishlashda θ qayd etilgan burchakda ϕ azimut funksiyasi kabi, uning maksimal qiymatidan eng ko'p nisbiy og'ishi.

Antenna panjarasining

parallel qo'zg'atilishi

ing. - shunt excitation of the array

rus. - параллельное возбуждение антенной решетки

Antenna panjarasining, umumiy fiderni har biri nurlantiruvchi element bilan birlashadigan bir nechta fiderga, tarmoqlash yo'li bilan fiderli qo'zg'atilishi.

Antenna panjarasining qadami

ing. - array pitch

rus. - шаг антенной решетки

panjarasining qo'shni nurlantiruvchi elementlari markazlari o'rtasidagi masofa.

(Antenna panjarasining) ta'minot sxemasi
ing. - feed circuit

rus. - схема питания (антенной решетки)
Antenna panjarasining yo'nalganlik diagrammasini nur tarqatgichlarning ta'minot zanjiriga ulangan fazaaylantirgichlar yordamida boshqarishni ta'minlaydigan sxema.

Antenna platformasi

ing. - antenna platform

rus. - антенная платформа

Odatda, chastotalarning turli diapazonlaridagi, umumiy platformaga o'rnatilgan, bir nechta antennadan iborat konstruksiya.

Antenna polotnosi

ing. - antenna curtain

rus. - антенное полотно

Bitta tekislikda joylashgan birlamchi yoki ikkilamchi nur tarqatgichlarning majmui.

Antenna posangisi

ing. - antenna counterpoise

rus. - противовес антенны

O'tkazgich yoki yerdan izolyatsiyalangan, radiouzatgich chiqishidagi (radioqabulqilgich kirishidagi) biron uchga, ikkinchi uchiga antenna ulanadigan, o'tkazgichlar guruhi.

Antenna qaytargichi (reflektor)

ing. - reflector of antenna

rus. - отражатель (рефлектор) антенны

Elektromagnit to'lqin yo'nalishi va quvvat oqimi zichligini o'zgartirishga xizmat qiladigan ma'lum bir sirt ko'rinishidagi antennaning ikkilamchi nur tarqatgichi.

(Antenna) suyrisimon moslamasi

ing. - radome (of antenna)

rus. - обтекатель (антенны)

Antennani atrof-muhit ta'siridan saqlashda ishlatiladigan, radioshaffof va yetarlicha mustahkam materialdan tayyorlangan himoya qoplamasi.

Antenna yaprog'ining kengligi

ing. - sidelobe beamwidth

rus. - ширина лепестка антенны

Antenna yo'nalganlik diagrammasi yap-

rog'ining ikkita yo'nalishi o'rtasidagi burchak, uning chegaralarida maydon kuchlanganligi ma'lum qiymatgacha pasayadi.

Antenna yo'nalganlik diagrammasi yon yuproqlarining darajasi

ing. - levels of sidelobes of antenna pattern

rus. - уровни боковых лепестков

диаграммы направленности антенны

Yo'nalganlik diagrammasi yon yuproqlarining asosiy maksimum kattaligiga nisbati.

Antenna yo'nalganlik

diagrammasining kengligi

ing. - beamwidth

rus. - ширина диаграммы

направленности антенны

Antenna yo'nalganlik diagrammasining ikkita yo'nalishi o'rtasidagi burchak, uning chegarasida maydon kuchlanganligi ma'lum qiymatgacha pasayadi.

Antenna yo'nalganlik diagrammasining keyingi yaprog'i

ing. - posterior lobe of the antenna,

backlobe of the antenna

rus. - задний лепесток диаграммы

направленности антенны

Antenna yo'nalganlik diagrammasining yaprog'i, uning yo'nalishi asosiy yaprog' burchagiga nisbatan teng yoki 180° ga yaqin.

Antenna yo'nalganlik diagrammasining yuproqlarini qayta ulash

ing. - lobe switching (of antenna)

rus. - переключение лепестков диаграммы

направленности антенны

Har biri ma'lum xizmat zonasiga mos keladigan yuproqlarning (nurlarning) vaqt-vaqti bilan ketma-ket o'zgartirib turilishini ta'minlaydigan ko'p yaprog'li antenna yo'nalganlik diagrammasining boshqarish usuli.

(Antenna) yo'nalganlik

diagrammasining yaprog'i

ing. - lobe (of directivity pattern)

rus. - лепесток (диаграммы

направленности антенны)

Minimal nurlanishning ikkita qo'shni yo'nalishlari bilan cheklangan doiraning ichida joylashgan antenna yo'nalganlik diagrammasining qismi.

Antenna yo'nalganlik

diagrammasining «yo'yilishi»

ing. - antenna pattern deterioration

rus. - «рассыпание» диаграммы направленности антенны

Nurlanishlarning yaqin joylashgan buyumlardan qaytishi tufayli yaqin ta'sir zonasida antenna xarakteristikalarining yomonlashuvi.

Antenna-o'zgartirgich

ing. - antennaverter

rus. - антенна-преобразователь

Chastota o'zgartirgich o'matilgan antenna.

Antennadan tashqari radionurlanish

ing. - radio radiation besides antenna

rus. - радиоизлучение помимо антенны

Radioqabul qilish va radiouzatish qurilmalari korpusi, bog'lovchi kabellar, uzel va bloklarining tutashgan joylaridagi beixtiyoriy nurlanish.

Antennalardan tarqalgan

signallarni qo'shish

ing. - summing up diversity signals from antennas

rus. - сложение разнесенных сигналов от антенн

Signallarni, istalgan signalning kuchlanishini oshirish uchun antennalarning ko'pligidan kogerent ko'paytirish usuli.

Antennani pasaytirish

ing. - downlead

rus. - снижение антенны

Vertikal yoki pastki uchi fider bilan yoki radioqabul qilgichning kirishi bilan bog'langan, boshqa uchi esa antennaning yuqori qismi bilan bog'langan sim ko'rinishidagi antenna qismi.

Antennani yerga ulash

ing. - earthing of antenna

rus. - заземление антенны

Yerni yoki ikkinchi uchiga antenna ulanadigan radiouzatgich (radiopriyomnik kirishi) bitta chiqish uchi bo'lgan harakatdagi korpusini ulashni ta'minlaydigan o'tkazgich yoki o'tkazgichlar guruhi.

Antennaning absolyut kuchaytirish ko'effitsiyenti

ing. - antenna absolute gain

rus. - абсолютный коэффициент

усиления антенны

Etalon antenna erkin fazoda joylashgan izotrop antennani aks ettirganda, ushbu yo'nalishdagi antennani kuchaytirish ko'effitsiyenti.

Antennaning amaldai uzunligi

ing. - effective length of antenna

rus. - действующая длина антенны

1. Antennaning yo'nalganlik diagrammasi asosiy yaprog'ining yo'nalishi bilan qabul qilish joyidagi maydon kuchlanganligiga keladigan radioto'lqinda to'g'rilanadigan, undan foydalanishning, uzatish va qabul qilishda elektr yurituvchi kuchning nisbatiga teng bo'lgan, samaradorligini tavsiflaydigan antenna parametri.

2. Maksimal nurlanish yo'nalishida ko'rib chiqilayotgan antenna kabi, maydon kuchlanganligi kattaligini hosil qiladigan, tok bir tekis taqsimlanadigan chiziqli simmetrik vibrator uzunligi.

Antennaning dastlabki nur tarqatgichi

ing. - primary radiator of antenna

rus. - первичный излучатель антенны

Fider bilan bog'liq (fiderdan ta'minotni oladigan) antennaning nur tarqatuvchi elementi.

Antennaning fizik uzunligi (balandligi)

ing. - physical length (height) of antenna

rus. - физическая длина (высота) антенны
Antenna polotnosining metrik uzunligi (balandligi).

Antennaning foydali ish ko'effitsiyenti

ing. - efficiency

rus. - коэффициент полезного действия

Qurilmadan olinadigan foydali quvvat nisbatiga unga berilayotgan quvvat teng bo'lgan ko'effitsiyent.

Antennaning himoya ta'siri ko'effitsiyenti

ing. - front-to-back ratio of an antenna;

reduction factor of an antenna

rus. - коэффициент защитного действия антенны

Asosiy yo'nalishdagi antennada hosil qilingan maydon kuchlanganligining asosiy yo'nalishga qarama-qarshi yo'nalishdagi maydon kuchlanganligi nisbatiga teng ko'effitsiyent.

Antennaning kuchaytirish ko'effitsiyenti

ing. - antenna gain

rus. - коэффициент усиления антенны

Antennaning yo'nalganlik xususiyatlarini tavsiflovchi parametr. Antennaning maksimal nurlanishi yo'nalishidagi nurlanish quvvatining shu yo'nalish va shu kirish quvvati berilganidagi yarimto'liqlik dipolning nurlanish quvvatiga nisbati. Shuningdek, izotrop antennaga nisbatan ham aniqlanishi mumkin. Birinchi holda dBd birliklarida, ikkinchi holda dBi birliklarida aniqlanadi.

Antennaning normalangan yo'nalganlik diagrammasi

ing. - normalized antenna pattern

rus. - нормированная диаграмма направленности антенны

Nurlanish intensivligi uning maksimal qiymatiga nisbatan normalangan antennaning yo'nalganlik diagrammasi.

Antennaning pastga og'ishi

ing. - antenna downtilt

rus. - наклон антенны вниз

Antenna asosiy yaproq'ining gorizontal tekislikka nisbatan pastga yo'naltirilganligi.

Izoh - Antennaning pastga og'ishi mexanik yoki elektr jihatdan bajarilishi mumkin, agar ikki usul ham qo'llanilsa, ularning harakati jamlanadi.

Antennaning to'liq ichki qarshiligi

ing. - antenna impedance

rus. - полное входное сопротивление антенны

Antennaning kirish qisqichlarida o'lchangan zanjirning to'liq elektr qarshiligi.

Antennaning vertikal

yo'nalganlik diagrammasi

ing. - vertical directivity pattern

rus. - вертикальная диаграмма направленности антенны

Antennaning muayyan vertikal tekislikdagi yo'nalganlik diagrammasi.

Antennaning yelpig'ichsimon

yo'nalganlik diagrammasi

ing. - fan antenna pattern

rus. - веерная диаграмма направленности антенны

Antennaning bir tekislikda keng va boshqa tekislikda tor yo'nalganlik diagrammasi.

Antennaning yon yaproq'i, yon yaproq

ing. - sidelobe

rus. - боковой лепесток

антенны, боковой лепесток

Antennaning asosiy va orqa yaproqlaridan tashqari, yo'nalganlik diagrammasining istalgan yaproq'i.

Izoh - Yon yaproqlarning boshqa stansiyalarda salbiy ta'siri seziladi, chunki yon yaproqlardan nurlanuvchi signallar xalaqat manbai hisoblanadi. O'z navbatida, yon parraqlar orqali qabul qilinadigan signallar mazkur stansiya qabul qilgichida signal/ shovqin nisbatini yomonlashtirishi mumkin.

Antennaning yo'nalganligi

ing. - directivity of the aerial

rus. - направленность антенны

Antennaning radioto'liqlarni boshqa yo'nalishlarga nisbatan ma'lum yo'nalishlarda samaraliroq nurlantirish yoki qabul qilish qobiliyati.

Antennaning yo'nalganlik diagrammasi

ing. - antenna pattern

rus. - диаграмма направленности антенны

1. Ma'lum tekislik yoki konusning turli yo'nalishlarida antennaning kuchayish koefitsiyentiga proporsional bo'lgan kattalikka qutbli yoki dekart koordinatalarni ifodalaydigan egri chiziq.

2. Nurlanish yoki qabul qilish intensivligini fazoviy taqsimlash diagrammasi.

Antennaning yo'naltirilgan

ta'sir koefitsiyenti

ing. - directive antenna gain

rus. - коэффициент направленного действия антенны

1. Antennaning nurlanish quvvatini, boshqa teng sharoitlarda qabul qilishning aniq nuqtasida maydonning bir xil kuchlanganligini saqlash sharti bilan, uni izotrop antenna bilan almashtirishda, necha marta ko'paytirish kerakligini ko'rsatuvchi son.

2. Berilgan yo'nalishda antenna vujudga keltiradigan maydon kuchlanganligi kvadrating barcha yo'nalishlar bo'yicha maydon kuchlanganligi kvadrating o'rtacha qiymati nisbatiga teng koefitsiyent.

Anti-aliaslash

ing. - anti-aliasing

rus. - анти-алиасинг

Qar.: Silliqlasih.

Antifedingli antenna

ing. - antifading antenna

rus. - антифединговая антенна

Interferension so'nishlarni susaytirish uchun

gorizontga qarab katta burchaklar ostida kamaytirilgan nurlanishli antenna.

Aperiodik antenna

ing. - aperiodic antenna

rus. - аперриодическая антенна

Nisbatan keng chastotalar polosasiga ega antenna, uning asosiy xarakteristikalarini (to'liq kirish qarshiligi, yo'naltirilganlik) berilgan chastotalar polosasida o'zgarimas bo'lib qoladi.

Apertura burchagi

ing. - acceptance angle, aperture angle

rus. - апертурный угол

Optik tolaning chetiga tushadigan optik o'q va yorug'lik nuri o'rtasidagi maksimal burchak, bunda tolaning o'zagida ichki to'liq qaytish sharti bajariladi.

Aperturali antenna

ing. - aperture antenna

rus. - апертурная антенна

O'ta yuqori yoki ultra yuqori chastotalar antennasi, bunda nurlantirish va qabul qilish uning aperturasini orqali sodir bo'ladi.

Apogey

ing. - apogee

rus. - апогей

Yerning markazidan maksimal masofada joylashgan Yer yo'ldoshi orbitasidagi nuqta. Apogey Yer yo'ldoshining apoastronomi hisoblanadi.

Apparat interfeysi

ing. - hardware interface

rus. - аппаратный интерфейс

Hisoblash tizimining sezish mumkin bo'lgan elementlarini: mexanik, galvanik, elektromagnit, signal elementlarini yoki tashuvchilarni belgilash formatini fizik birlashtirish usuli.

Apparat monitori

ing. - hardware monitor

rus. - аппаратный монитор

Kompyuter tizimining unumdorligini tahlil qilish uchun, bu tizim elektron signallarini to'g'ridan-to'g'ri o'qiydigan qurilma.

Apparat moslik

ing. - hardware compatibility

rus. - аппаратная совместимость

Konstruktiv uzellar, bloklar, platalar va h.k.larning o'zaro almashina olishi yoki qo'shilish imkoniyati (masalan, ajratgichlar bo'yicha moslik).

Apparat muhiti

ing. - hardware environment

rus. - аппаратная среда

Ilovani bajarishda foydalaniladigan apparat vositalari.

Apparat ta'minoti

ing. - hardware.

rus. - аппаратное обеспечение

Tizim yoki tarmoq tarkibiga kiradigan elektron, elektr va mexanik qurilmalar kompleksi.

Izoh - Apparat ta'minotiga kompyuter va mantiqiy qurilmalar, tashqi qurilmalar va diagnostika apparaturalari, energetika uskunalarini, batareyalar va akkumulyatorlar kiradi.

Apparat ta'minotning

kengayadigan interfeysi

ing. - extensible firmware interface (EFI)

rus. - расширяемый интерфейс

аппаратного обеспечения

Operatsion tizim va uskunaning past sath funksiyalarini boshqaradigan mikrodsturlar o'rtasidagi interfeys, uning asosiy vazifasi tizim ulanganda uskunani ohista initsiallash va boshqaruvni operatsion tizim yuklagichiga berish. EFI ning dastlabki spetsifikatsiyasi Intel tomonidan ishlab chiqilgan.

Apparat (texnik) vositalari

ing. - hardware

rus. - аппаратные (технические) средства

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun foydalaniladigan vositalar.
2. Hisoblash texnikasida foydalaniladigan barcha mexanik, elektr va elektron uskunalar.

Apparat tezlatgich

ing. - hardware accelerator

rus. - аппаратный ускоритель

Butun tizim yoki uning alohida kichik tizimi unumdorligini oshirish uchun, qandaydir cheklangan to'plam funksiyalarni bajaradigan qurilma.

Apparat token

ing. - hard token

rus. - аппаратный токен

Qurilma egasini identifikatsiya qilish, axborot resurslaridan xavfsiz tarzda uzoqdan kira olish uchun foydalaniladigan kompakt qurilma.

Izoh – Apparat tokenlarga smart-karta, brelok kiradi.

Apparat to'xtab qolish; dasturiy xato

ing. - glitch

rus. - аппаратный сбой;

программная ошибка

Apparatura qandaydir elementining vaqtinchalik ishlamay qolishi tufayli yuzaga keladigan uzilish; dasturiy ta'minotdagi tushunarsiz yoki tasodifiy xato.

Apparat uzilish

ing. - hardware interrupt

rus. - аппаратное прерывание

Kompyuter ishidagi, komanda orqali yuzaga keltiriladigan dasturiy uzilishlardan farqli ravishda, klavishalarning bosilishi, tashqi qurilmalardan bo'ladigan uzilish, ta'minot to'xtab qolishidan bo'ladigan uzilishlar, kompyuter ishini nazorat qilish sxemalaridan bo'ladigan uzilishlar kabi tashqi voqealarga javoban, kompyuter sxemalari tufayli yuzaga keladigan uzilish.

Apparat vositasida muhofaza qilish

ing. - hardware security

rus. - аппаратная защита

Apparat vositalardan, masalan, chegaraviy registrlardan yoki qulflar va kalitlardan elektron hisoblash mashinasidagi ma'lumotlarni muhofaza qilish uchun foydalanish.

Apparat yordamida amalga oshirish

ing. - hardware support

rus. - аппаратная реализация

Kompyuter tizimi muayyan funksiyalarining apparat vositalar yordamida amalga oshirilishi.

Apparat yordamida nazorat qilish

ing. - hardware check

rus. - аппаратный контроль

Qurilmalarning ishlashidagi xatoliklarni aniqlash maqsadida, apparat vositalar bilan amalga oshiriladigan avtomatik nazorat.

Apparatdan apparatgacha

bo'lgan so'zlashuvlar

ing. - conversations from the set to the set

rus. - разговоры от аппарата к аппарату

Telefonning aniq raqamini ko'rsatgan holda buyurtma berilgan, to'lanadigan davri chaqiruvga kim javob berishidan qat'iy nazar, chaqiriluvchi raqam javob bergan vaqtdan boshlab hisoblanadigan so'zlashuv.

Izoh – Qo'shimcha apparatlardan to'g'ridan-to'g'ri izlash usuli bilan so'zlashuv, alohida ko'rsatmalar muayyan shaxsga va boshqalarga nisbatan berilmasa, apparatdan apparatga so'zlashuv kabi ko'rib chiqiladi.

Apparatli xatcho'p

ing. - hardware bookmark

rus. - аппаратная закладка

Axborot tutib olish maxsus elektron qurilmasi. U muhofaza qilinayotgan axborotni ruxsatsiz olish maqsadida axborotlashtirish obyekti (ma'lumotlarni uzatish tarmog'i)ga konfidensial tarzda o'rnatiladi yoki ulanadi.

Apparatxona shkafi

ing. - apparatus closet

rus. - аппаратный шкаф

Qar.: Telekommunikatsiya shkafi.

Applet

ing. - applet

rus. - апплет

HTML-sahifalarda joylashtirilgan Java tili-dagi uncha katta bo'lmagan amaliy dastur.

Izoh – Appletlar lokal kompyuterning ma'lum resurslaridan foydalana olish bo'yicha cheklolarga ega ekanligi va tarmoqdagi (mazkur applet yuboriganidan tashqari) boshqa kompyuterlar bilan aloqa taqiqlanganligi bilan to'liq Java-illovalardan farqlanadi.

Aqliy hujum

ing. - brainstorming

rus. - мозговой штурм

Predmet soha ekspertlaridan yoki komanda a'zolari guruhidan foydalangan holda, muammolarni hal qilish yoki g'oyalarni risklarni aniqlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan, kreativlik va ma'lumotlar to'plashning umumiy usuli.

Aqliy rivojlanish koeffitsiyenti

ing. - intelligence quotient

rus. - коэффициент умственного развития

Aqliy (intellektual) qobiliyatni baholash uchun testlash orqali aniqlanadigan ko'rsatgich.

«Aqlii shahar»

ing. - smart city

rus. - «умный город»

Buyumlar Interneti (IoT) ga ega bo'lgan, kommunikativ va axborot texnologiyalarining o'zaro bog'langan tizimi, u tufayli shahar ichki jarayonlarni boshqarish soddalashadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi. Intellektual shahar ikkita muhim vazifani bajaradi:

- ma'lumotlar to'plash va boshqaruv vakillariga berish;

- ma'muriyat va shaharliklar o'rtasida teskari aloqani yo'lga qo'yish.

«Aqlli shahar»ning ijobiy tomonlari, fuqarolarning hayot darajasini oshirishdan va tahliliy ko'nikmalarni qo'llash talab etilmaydigan faoliyatni avtomatlashtirish tufayli, ishchi jarayonlarning xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

«Aqlli tarmoq»

ing. - smart network

rus. - «разумная сеть»

Ma'lumotlar uzatishdan tashqari murakkab axborot xizmatlarining rang-barang turlarini taqdim qiluvchi kommunikatsiya tarmog'i.

Qar.: Intellektual tarmoq.

Aralash

ing. - miscellaneous

rus. - смешанный

O'z tarkibiga bittadan ortiq komponentni oluvchi.

Aralash xalaqit

ing. - mixed interference

rus. - смешанная помеха

Tovush signali kanalidagi har qanday yot kuchlanish.

Aralash yuqori chastotalar

ing. - mixed high frequencies

rus. - смешанные высокие частоты

Tasvir signalining, rangli tasvirda axromatik tiklanishi uchun mo'ljallangan, yuqori chastotali tashkil etuvchilari.

Aralash o'qitish

ing. - blended learning

rus. - смешанное обучение

Sinfda individual o'qitishni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan innovatsion foydalanishni ichiga oladigan pedagogik model.

Aralashish

ing. - shuffle

rus. - перемешивание

1. Shifrlashdan keyin simvollar ketma-ket kelish tartibining o'zgarishi.

2. Kommutatsiyalashda kanallar o'zaro almashuvi.

Aralashtirgich

ing. - mixer

rus. - смеситель

Bir nechta elektr signalni qo'shish uchun qo'llaniladigan, bir nechta kirishi va umumiy chiqishi bo'lgan qurilma.

Aralashtirib yuborish

ing. - confusion

rus. - перемешивание

Shifrovchi o'zgartirishning ma'lumotlar elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni murakablashtirish xossasi. Bu narsa, ochiq matn, kalit va shifrmam o'rtasidagi funksional va statistik bog'lanishning tiklanishini qiyinlashtiradi.

Arbitr

ing. - arbiter

rus. - арбитр

Jihozlar (vositalar) o'rtasida ziddiyatlarni hal qiluvchi vosita.

Arbitraj

ing. - arbitration

rus. - арбитраж

Raqobatlashadigan so'rovlarni va tezkor xotira qurilmasi yoki periferik qurilmalar kabi kompyuter resurslarini boshqarishda foydalaniladigan qoidalar to'plami.

Arbitrli protokol

ing. - protocol with arbiter

rus. - протокол с арбитром

1. Bir yoki bir nechta manfaatdor bo'lmagan vakolatli tomonlar (atributlar) dan foydalaniladigan kriptografik protokol. Vakolatnoma, protokolning barcha ishtirokchilari arbitring har qanday tasdiqlashi yoki harakatlari to'g'ri va haqiqiy ekanligini tan olishlarini bildiradi.

2. Kriptografik protokol, bu protokolda ishtirokchilar o'rtasidagi bahs-munozaralarni hal qilish uchun arbitraj talab qilinadi. Arbitrli protokollar ikki sinfga ajratiladi. Pessimistik protokollarda arbitr protokolni

seansida ishtirok etishi kerak. Optimististik protokollarda – faqat ishtirokchilar o'rtasida nizolar yuzaga kelgan holda arbitrning ishtirok etishi talab qilinadi.

Argument

ing. - argument

rus. - аргумент

Komandani, komanda faylini yoki makrokomandani buyurishda aniq harakatlar yoki xususiyatlarni ifodalovchi simvollar to'plami. Ishga tushiriladigan fayldan so'ng yoziladi. Dasturlashda – mustaqil o'zgaruvchi (odatda, manzil yoki boshqa kattalikka havola sifatida xizmat qiladi).

Arifmetik amal

ing. - arithmetic operation

rus. - арифметическая операция

1. Arifmetik operator sonli argumentlarga tatbiq qilinadigan amal.

2. Arifmetikaning fundamental amallardan biri, masalan, ikkilik arifmetik amallar (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish), unar operatsiya va absolyut kattalikni olish operatsiyasi, shuningdek, operatsiya kodi arifmetik amalni ko'rsatadigan komanda.

Arifmetik ifoda

ing. - arithmetic expression

rus. - арифметическое выражение

Ustida arifmetik amallar bajariladigan obyektlar operandlar bo'lib hisoblanadigan ifoda.

Arifmetik kodlash (Xaffman kodlashi)

ing. - arithmetic coding (Huffman coding)

rus. - арифметическое кодирование

(кодирование Хаффмана)

Ma'lumotlarning ko'p uchraydigan elementlari qisqaroq kod bilan, kam uchraydigan elementlari esa uzunroq kod bilan kodlanadigan kodlash. Qisqa kodlarning ancha ko'p bo'lishi hisobiga, umumiy o'lcham boshlang'ich o'lchamdan kichik bo'ladi.

Arifmetik-mantiqiy qurilma

ing. - arithmetic-logic unit

rus. - арифметико-логическое устройство

Protessorning, uning arifmetik va mantiqiy komandalarini bajaruvchi qismi, u shuningdek, siljish komandalarini ham bajaradi. Siljuvchi vergulli qiymatlar ustida amallar FRU blokida, xotirani boshqarish va tashqi qur-

ilmalar bilan o'zaro aloqa qilish esa MMU blokida amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi

ing. - applicant

rus. - заявитель

1. Autentifikatsiya qilish maqsadida foydalana olish administratori hisoblanadigan obyekt. Talabgor foydalana olish administratori nomidan autentifikatsiya ma'lumotlari almashinuvini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vazifalarni bajaradi.

2. Davlat xizmatlari taqdim etadigan organga, og'zaki, yozma yoki elektron shaklda davlat xizmati taqdim etilishi to'g'risida so'rov bilan murojaat qiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs yoki ularning vakolatli vakillari.

Arnlik

ing. - arity

rus. - арность

Funksiya yoki operator argumentlarining soni. Ba'zi dasturlash tillarida funksiyalar argumentlarning o'zgaruvchi soniga ega bo'ladi (o'zgaruvchan arnlik).

Artefakt

ing. - artifact

rus. - артефакт

1. Tasvir, tovush va videoning yo'qotishlar bilan siqishni qo'llash natijasida yuzaga keladigan sezilarli buzilishi.

2. Tasvir raqamli signalining, uni shakllantirish, uzatish yoki qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan va ekranda ko'rib aniqlanishi mumkin bo'lgan buzilishi.

«Arxi» tizimi

ing. - archive

rus. - система «архи»

Anonim fayllarni ko'chirish protokoli orqali foydalanish mumkin bo'lgan fayllarning joylashgan o'mini aniqlash uchun mo'ljallangan, taqsimlangan tizim. Butun dunyo bo'ylab joylashgan bir necha ming fayl-serverlardagi 2,5 milliondan ortiq fayl nomlari va direktoriylar to'g'risidagi axborot saqlanadigan katta megabaytni o'zida ifodalaydi.

Arxitektor

ing. - architect

rus. - архитектор

Tizimlarning arxitekturasi uchun javob beradigan odam, komanda yoki tashkilot.

Arxitektura

ing. - architecture

rus. - архитектура

1. Murakkab obyekt modelini, tuzilmasini, bajariladigan funksiyalarni va komponentlarining o'zaro aloqadorligini belgilovchi konsepsiya. Tarmoq arxitekturasi uning asosiy elementlarini, bu elementlarning xususiyatini va birgalikda ishlash topologiyasini belgilaydi. Axborot tizimining arxitekturasi, uning umumiy mantiqiy tashkil qilinishini, dasturiy-apparat ta'minotini tavsiflaydi, kodlash usullarini bayon qiladi va tizim bilan foydalanuvchi interfeysini belgilaydi.

2. Hisoblash tizimi apparat-dasturiy vositalarining umumiy tuzilmasi.

Arxitektura boshqaradigan o'zgarish

ing. - architecture-driven modernization (ADM)

rus. - модернизация, управляемая от архитектуры

Qiziqtiradigan tizimning mavjud dasturiy aktivlarini tushunish va rivojlantirish jarayoni.

Arxitektura tavsifi

ing. - architecture description

rus. - описание архитектуры

Arxitekturani ifodalash uchun qo'llaniladigan ishchi mahsulot.

Arxitektura tuzilmasi

ing. - architecture framework

rus. - структура архитектуры

Manfaatdor tomonlar hamjamiyati yoki muayyan qo'llanish sohasida yaratilgan arxitekturalarni tavsiflash uchun mo'ljallangan shartli belgilar, prinsiplar va amaliyot.

Arxitekturaga bo'lgan qarash

ing. - architecture viewpoint

rus. - точка зрения на архитектуру

Muayyan tizim manfaatlarini tizimlashtirish uchun arxitekturaviy taqdim etishni tashkil etish, talqin qilish va undan foydalanishning shartlilikini belgilaydigan ishchi mahsulot.

Arxitekturani ishlab chiqish

ing. - architecting

rus. - разработка архитектуры

Tizimning hayotiy siklida arxitekturani amalga oshirishda, ta'minlash hamda yaxshilashda tushunish, aniqlash, ifodalash,

hujjatlashtirish, hamkorlik, tegishli sertifikatlash jarayoni.

Arxitekturaviy loyihalash

ing. - architectural design

rus. - архитектурное проектирование

Kompyuter tizimini ishlab chiqish uchun asos yaratish maqsadida, apparat va dasturiy komponentlar to'plami hamda ularning interfeyslarini aniqlash jarayoni.

Arxitekturaviy tuzilma

ing. - architectural structure

rus. - архитектурная структура

Tizim komponentlari hamda ularning ichki va tashqi birikmalarining jismoniy yoki mantiqiy joylashishi.

Arxiv

ing. - archive

rus. - архив

Faylda, yoki bitta yo bir nechta magnit tasmada saqlangan va saqlangan fayllar, papkalar hamda boshqa ma'lumotlar to'plami.

Arxiv fondi

ing. - archive fund

rus. - архивный фонд

O'zaro tarixiy va mantiqiy bog'langan arxiv hujjatlarining majmui.

Arxiv ma'lumoti

ing. - archival

rus. - архивная информация

Uzoq vaqt davri mubaaynida hisoblanadigan (ba'zida yoziladigan) ma'lumot. Arxiv ma'lumoti saqlanadigan muhit, odatda ma'lumot barqaror (ya'ni, aniq va buzilmasdan) qoladigan muayyan eng kam hayot vaqtiga ega bo'ladi.

Arxiv sahifasi

ing. - archival page

rus. - архивная страница

Yozuv sifatida saqlanadigan mazmun.

Arxivator

ing. - archivist

rus. - архиватор

Arxiv fayllarini tuzuvchi va ular bilan ishlash uchun mo'ljallangan dastur.

Arxivdan chiqarish

ing. - decompression

rus. - разжатие

Arxivdagi siqilgan ma'lumotlarni odatdagi holatga keltirish.

Arxivlamoq

ing. - to archive

rus. - архивировать

Rezerv fayllarni va ular bilan o'zaro bog'liq bo'lgan har qanday jurnallarni, odatda belgilangan vaqt davri mobaynida saqlash.

Arxivlash

ing. - archivation

rus. - архивирование

Hujjatlar, ma'lumotlar yoki dasturlarning nusxalarini, ularni uzoq muddat saqlash uchun (optik disklar va magnit disklarda) yaratish, shuningdek, ular buzilgan holatlarda rezerv nusxalarini yaratish jarayoni. Arxivlash, arxivatorlar deb nomlanadigan maxsus amaliy dasturlardan foydalanib yozuvlar fizik uzunligini siqish ostida boradi.

Arxivlash tizimi

ing. - backup system

rus. - система архивации

Fayllarni saqlash va tiklash protseduralarini bajarish uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy vositalar to'plami.

Asbob

ing. - tool

rus. - инструмент

Qo'yilgan vazifani bajarish uchun mo'ljallangan usul, modul, dastur va h.k.

Asimmetrik autentifikatsiya qilish usuli

ing. - asymmetric authentication method

rus. - асимметричный метод

аутентификации

Autentifikatsiya qilish axborotining barchasidan ikkala tomon birgalikda foydalanmaydigan autentifikatsiya qilish usuli.

Asimmetrik dastur

ing. - asymmetric application

rus. - асимметричное приложение

Asosiy vazifasi ma'lumotlarni dekodlashdan iborat bo'lgan dastur.

Asimmetrik klasterizatsiya

ing. - asymmetric clustering

rus. - асимметричная кластеризация

Kompyuter klasterini tashkil qilish, bunda

bitta kompyuter ilovani bajaradi, qolganlari esa bekor to'xtab turadi.

Asimmetrik kriptografik algoritim

ing. - asymmetric cryptographic algorithm

rus. - асимметричный

криптографический алгоритм

Shifrlash va deshifrlash uchun turli kalitlardan foydalaniladigan, shifrlash yoki tegishli deshifrlashni bajarish algoritmi.

Asimmetrik ko'p

protssessorli qayta ishlash

ing. - asymmetric multiprocessing

rus. - асимметричная

многопроцессорная обработка

Har bir protssessor o'zining vazifasi yuzasidan, masalan, biri operatsion tizim uchun, boshqa biri ma'lumotlar bazalarini boshqarish tarmog'i uchun javob beradigan ko'p protssessorli tizimni tashkillashtirish.

Asimmetrik multiprotssessorli tizim

ing. - asymmetric multiprocessing

rus. - асимметричная

мультипроцессорная система

Protssessorlari o'z funksiyalari bo'yicha ixtisoslashgan ko'p protssessorli kompyuter tizimi.

Izoh - Har bir protssessorga spetsifik topshiriq beriladi, asosiy protssessor o'ziga bo'ysunadigan protssessorlarning ishini rejalashtiradi.

Asimmetrik operatsion tizim

ing. - asymmetrical operating system

rus. - асимметричная

операционная система

Tizim protssessorlaridan faqat bittasida, amaliy vazifalarni boshqa protssessorlarga taqsimlab, bajariladigan tizim.

Asimmetrik raqamli abonent liniyasi

ing. - assymetrical digital

subscriber line (ADSL)

rus. - асимметричная цифровая

абонентская линия

Ma'lumotlarni nisbatan yuqori tezlikda uzatishini ta'minlaydigan modimli texnologiya (8 Mbyte/s abonentga yo'nalishi bo'yicha, 1 Mbyte/s abonentdan chiquvchi yo'nalishda).

Izoh - Dial-up texnologiyasi bilan taqqoslaganda uning qo'shimcha imkoniyati shundan iboratki, telefon liniyasi qo'ng'iroqlar uchun bo'sh bo'lib qoladi va kompyuter doimo Internet tarmog'iga ulangan bo'ladi.

Asimmetrik siqish

ing. - asymmetrical compression

rus. - асимметричное сжатие

Tasvirni siqish uchun uni tiklashga qaraganda ko'proq qayta ishlash vositalari talab etadigan tizim. Odatda, dasturlarni kompakt-disk kabi eltuvchilarda ommaviy tarqatishda foydalaniladi.

Asimmetrik trafik

ing. - asymmetric traffic

rus. - асимметричный трафик

Axborotni to'g'ri va teskari yo'nalishlarda har xil tezlik bilan uzatish. Assimmetrik raqamli abonent liniyasi raqamli ko'p tonli signaldan (DMT) yoki CAP-kodlashdan foydalanib, bitta o'ralgan juft bo'yicha ishlash uchun mo'ljallangan, yuqori tezlikli kira olish kanali. ADSL modemi to'g'ri kanalda 6,144 Mbit/sekundga teng bo'lgan maksimal tezlik bilan uzatishni ta'minlaydi. Teskari kanalda, ma'lumotlarni dupleks rejimda uzatishda, maksimal tezlik 640 Kbit/ sekunddan oshmaydi.

Asimmetrik shifr

ing. - asymmetric cipher

rus. - асимметричный шифр

Shifrlash kaliti deshifrlash kaliti bilan mos tushmaydigan shifr.

Asimmetrik shifrlash

ing. - asymmetric encoding

rus. - асимметричное шифрование

Juft kalitdan foydalaniladigan shifrlash turi. Izoh - Uzatiladigan xabarlar qabul qiluvchining barcha uchun ma'lum bo'lgan ochiq kaliti orqali shifrlanadi. Ammo ma'lumotning shifri sir saqlanadigan shaxsiy kalit bilan ochiladi. Kalidlar matematik nuqtai nazardan shunday bog'langan bo'lishi lozimki, ochiq kalitni bilgan holda yopiq kalitni hisoblash mumkin bo'lmasin. Bu juda ham qulay, lekin asimmetrik shifrlash simmetrik shifrlashga nisbatan juda sekin tezlikka ega.

Asinxron

ing. - asynchronous

rus. - асинхронный

Boshqa jarayonlardan alohida (parallel) ishlaydigan jarayon, sinxron rejimda esa jarayonlar ketma-ket bajarilishini, ya'ni bir jarayon boshqa jarayon tugagandan so'ng bajarilishini bildiradi.

Asinxron aloqa serveri

ing. - asynchronous communications server

rus. - сервер асинхронной связи

Lokal hisoblash tarmog'idagi, foydalanuvchilarga kommutatsiyalanadigan telefon liniyalari orqali tarmoq tashqarisidagi uzellar bilan bog'lanish va asinxron rejimda aloqa o'rnatish uchun ajratilgan liniyalardan foydalanish imkonini beradigan server. Bu server ba'zan chaqiruv/javob serveri yoki modem-server deb ham ataladi.

Asinxron kiritish-chiqarish

ing. - asynchronous input-output

rus. - асинхронный ввод-вывод

Asosiy dasturning bajarilishi bilan parallel bajariladigan kiritish-chiqarish.

Asinxron rejim

ing. - asynchronous mode

rus. - асинхронный режим

Aloqa liniyasining har ikki uchidagi belgilovchi generatorlar avtonom ishlaydigan rejim.

Asinxron signal

ing. - asynchronous signal

rus. - асинхронный сигнал

Ixtiyoriy vaqt onida uzatiladigan, ular o'rtaidagi interval tasodifiy kattalik hisoblanadigan signal.

Asinxron uzatish

ing. - asynchronous transmission

rus. - асинхронная передача

Ma'lumotlar oqimi yaxlitligini ta'minlash maqsadida, simvolning boshlanishi va oxirini belgilash uchun mo'ljallangan start va stop bitlaridan foydalaniladigan ma'lumotlar uzatish usuli. Bunda ma'lumotlar uzatish to'g'riligini nazorat qilish uchun juftlik bitidan ham foydalaniladi.

Asinxron uzatish rejimi

ing. - asynchronous transfer mode (ATM)

rus. - асинхронный режим передачи

Yuqori tezlikli, kommutatsiyalanadigan va multipleksorlaydigan texnologiya. Tovush, video hamda ma'lumotlarni bir vaqtda uzatish uchun 53 byte (5 byte - sarlavha, 48 byte - foydali axborot) o'lchamli yacheykadan foydalanadi. Texnologiya asinxrondir, chunki axborot oqimlari umumiy taymarga bog'liq bo'lmagan holda yuborilishi mumkin.

Asinxron uzilish

ing. - asynchronous system trap

rus. - асинхронное прерывание

Yuzaga kelishi dasturning muayyan nuqtasiga bog'liq bo'lmagan uzilish. Tashqi uzilishlar va boshqa jarayon ishi bilan bog'liq bo'lgan uzilishlar shular jumlasidan.

Asinxron o'zgartirish

ing. - asynchronous mapping

rus. - асинхронное преобразование

Uzatish vaqtida ma'lumotlarning o'zgartirilishi.

Asinxronlik

ing. - asynchrony

rus. - асинхронность

Vaqtning turli onlarida yuz beradigan hodisalar o'rtasida vaqtinchalik bog'lanishlar yo'qligini ko'rsatuvchi alomat.

Asl holiga qayta oladigan displey

ing. - reversible display

rus. - обратимый дисплей

Operator ko'rsatmasi bo'yicha qora fonda yorqin simvollarni yoki, aksincha, yorqin fonda qora simvollarni tiklay oladigan qaytaruvchi ekran.

Asl hujjat

ing. - original document

rus. - подлинный документ

Hujjatning o'zida mavjud bo'lgan yoki biror bir yo'l bilan aniqlangan hujjat tayyorlangan vaqt va joy va/yoki muallif to'g'risidagi ma'lumotlar asl ma'lumotlarga muvofiqligini ko'rsatuvchi hujjat.

Asl marka tushirilgan markalangan

badiiy pochta konverti (varaqchasi)

ing. - artistic marked postal envelope (card) with original stamp

rus. - художественный маркированный почтовый конверт (карточка) с оригинальной маркой

Bosmaxona usulida pochta markasi tasviri tushirilgan markalangan badiiy pochta konverti bo'lib, pochta markasi ushbu konvert (varaqcha)dan alohida chiqarilmagan.

Asllilik

ing. - figure of merit

rus. - добротность

1. Antenna kuchaytirish koeffitsiyentining

qabul qilish chastotasida stansiyaning shovqin temperaturasiga nisbati.

Izoh - Asllilik radiostansiyaning qabulda samarali ishlashini tavsiflaydi. Bu ko'rsatgich boshqa teng sharoitlarda qancha yuqori bo'lsa, qabul qiluvchi antenaning kuchaytirish koeffitsiyenti shuncha katta va kiruvchi shovqinlarning darajasi shuncha kam bo'ladi.

2. Antenna kuchaytirish koeffitsiyentining stansiyaning shovqin temperaturasiga nisbati (G/T asllilik sifatida ma'lum).

Asosiy (birlamchi) noreal rang

ing. - initial nonphysical colour

rus. - основной (первичный)

нереальный цвет

Ranglilik diagrammasida spektral va qimmi rang chiziqlari bilan chegaralangan maydon tashqarasida nuqta bilan ifodalanadigan asosiy (birlamchi) rang.

Asosiy daraja interfeysi

ing. - basic rate interface

rus. - интерфейс базового уровня

Ma'lumotlar uzatishning asosiy tezligiga yo'naltirilgan interfeys.

Asosiy dastur

ing. - main program

rus. - основная программа

Dastur ishga tushirilganda boshqaruvni oladigan va boshqa protseduralarni chaqiradigan protsedura.

Asosiy funksional profil

ing. - basic functional profile

rus. - базовый функциональный профиль

Bir nechta o'zaro bog'liq pog'onalarni o'z ichiga olgan va o'zaro ta'sir sohasining faqat bir qism pog'onalari protokollari bilan belgilanadigan funksional profil. Asosiy funksional profil, uning asosida yaratiladigan to'liq yoki chala funksional profilga poydevor bo'ladi, shu sababli mustaqil ahamiyatga ega emas.

Asosiy hujjat

ing. - baseline document

rus. - базовый документ

Konfiguratsiyani boshqarish ostidagi ishchi mahsulotni belgilaydigan tizimli yoki dasturiy hujjat. Masalan: dizayn spetsifikatsiyalari, talablar spetsifikatsiyalari, tizimning texnik xarakteristikalari.

Asosiy kadr

ing. - key frame

rus. - ключевой кадр

Barcha videoaxborot siqilgan shaklda taqdim etilgan videokadr.

Asosiy kross

ing. - main cross-connect

rus. - главный кросс

Apparatxonadagi magistral, gorizontal kabel-larni hamda aktiv uskuna kabellarini kommutatsiyalovchi kross.

Asosiy ma'lumotlar massivi

ing. - basic data array

rus. - базовый массив данных

Mashina o'qiy oladigan tashuvchilardagi axborot. U ma'lumotlar bankining asosi bo'lib ma'lumotlarni ta'riflashning yagona tili talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Asosiy muhandislik obyekti

ing. - basic engineering object

rus. - базовый инженерный объект

Taqsimlangan infratuzilmaning qo'llab-quvvatlanishi talab etiladigan muhandislik obyekti.

Asosiy (ona) plata

ing. - mainboard

rus. - материнская плата

Shaxsiy kompyuterning, protsessor, tezkor xotira qurilmasi asosiy kiritish-chiqarish portlari va kengaytirish shinalarining ajratgichlari joylashtiriladigan asosiy platasi.

Asosiy parol

ing. - main password

rus. - главный пароль

1. Parollarning ma'lum bir to'plami uchun umumiy bo'lgan o'zak so'z.

2. Parollar katalogini muhofaza qilish uchun mo'ljallangan parol.

Asosiy plata

ing. - mainboard

rus. - основная плата

Apparatning, masalan kompyuterning asosiy bloklari joylashtiriladigan tutib turadigan (ona) plata-shassi.

Asosiy polosada kanali

ing. - baseband channel

rus. - основополосный канал

Signal modulyatsiya qilinmasdan uzatiladi-

gan fizik kanal. Eng soddavo'sitalar: o'ralgan juft yoki yassi ekranlanmagan kabel asosida yaratiladi. Ko'rilayotgan kanalning nomi asosiy polosada signali, ya'ni modulyatsiyasiz, asosiy polosada (kenglikda) uzatilayotgan signal nomidan kelib chiqqan.

Asosiy polosada signali

ing. - baseband signal

rus. - основополосный сигнал

Dastlabki shaklda, modulyatsiya bilan o'zgartirilmay, uzatilayotgan signal.

Asosiy rang

ing. - primary colour

rus. - основной цвет

Muvofiq siljيتishda, kamida ma'lum doirada turli ranglarni tiklashga imkon beradigan uchta asosiy rang omillaridan biri.

Asosiy rang maydoni

ing. - colour field, primary colour field

rus. - поле основного цвета

Asosiy ranglardan biridagi yoyishda hosil qilinadigan maydon.

Asosiy rang signali

ing. - basic color signal

rus. - сигнал основного цвета

Televideniye bo'ylab uzatiladigan, sezgirlikning muayyan spektral xarakteristikasiga muvofiq vaznlangan obyektning energetik xarakteristikalarini aks ettiradigan elektr signali.

Izoh - Odatda, bu signallar standart qizil (R), yashil (G) va ko'k (B) asosiy ranglarga mos keladi.

Asosiy rangdagi tasvir

ing. - primary colour picture

rus. - изображение в основном цвете

Tasviri asosiy ranglardan birini yoyishda tiklash.

Asosiy raqamli kanal

ing. - basic digital circuit; basic digital channel

rus. - основной цифровой Канал

Signallarni uzatish tezligi 64 kbit/s bo'lgan namunaviy raqamli uzatish kanali.

Asosiy reliz

ing. - major release

rus. - основной релиз

Dasturiy mahsulotning, oldingi versiyalariga qaraganda jiddiy o'zgartirishlar qilingan versiyasi. Odatda X.0 kabi raqamlanadi.

Asosiy simvol

ing. - basic symbol

rus. - основной символ

Jarayon yoki ma'lumotlar tashuvchining shakli yoki aniq xarakteri noma'lum bo'lganda yoki haqiqiy axborot tashuvchini aks etirish zarurati bo'lmaganda foydalaniladigan simvol.

Asosiy taqsimlash shchiti

ing. - main distribution frame (MDF)

rus. - главный распределительный щит

Tegishli himoya qurilmalariga ega tashqi kabellar hamda SHATS liniyasi elementlariga boradigan ichki kabellar ulanadigan shchit. O'zaro birikish ulanish bloklari o'rtasidan o'tuvchi tutashtirgich yordamida amalga oshiriladi.

Asosiy tarmoq

ing. - core network

rus. - базовая сеть

Abonent ma'lumotlarini saqlash uchun mo'ljallangan va ulanishlar o'rnatilishi, abonentlarni autentifikatsiya qilish, taqdim etilgan aloqa xizmatlari uchun to'lovni hisoblash uchun javob beradigan tarmoq.

Izoh - Tayanch tarmoq turli elementlarni ichiga oladi, biroq ularning ichida asosiyi markaziy kommutator va ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Asosiy tezkor xotira

ing. - base random access memory

rus. - основная оперативная память

Kompyuterlardagi tezkor xotira qurilmasining asosiy xotirasi. Dastlabki 640 kB (655 360 B)ni egallaydi. Tezkor xotira qurilmasi ichidagi dastur xotira qurilmasidan farqli ravishda, ta'minot uzilganda yo'q qilinadi.

Asosiy tezlikda kira olish

ing. - basic rate access (BRA)

rus. - доступ на основной скорости

Abonentlarni N-ISDN raqamli tarmog'iga BRI interfeysi bilan aniqlangan (2B+D) asosiy tezlikda kira olish protsedurasini qat'iy belgilovchi protokol.

Asosiy tezlikdagi ISDN interfeysi

ing. - ISDN base rate interface

rus. - интерфейс ISDN на базовой скорости

Ovoz yoki ma'lumotlar uzatish uchun ikki-

ta 64 kbit/s (B Channel deb nomlanuvchi) kanalni va 2B+D boshqaruv signallarini uzatish uchun bitta 16 kbit/s (D Channel deb nomlanuvchi) kanalni ta'minlaydigan interfeys.

Asosiy tezlikli uzatish interfeysi

ing. - primari rate interface

rus. - интерфейс передачи с основной скоростью

Asosiy foydalanish ISDN-interfeysi. Asosiy foydalanish vositalari bitta D-kanal 64 kbit/s plyus 23 (T 1) yoki 30 (E 1) V - tovush va ma'lumotlar uzatish kanallarini o'z ichiga oladi.

Asosiy traktga qayta ulash

ing. - changeback

rus. - переключение на основной тракт

Nosozliklar bartaraf etilgandan so'ng qurilma boshlang'ich ishchi konfiguratsiyasining tiklanishi.

Asosiy tus

ing. - main tone

rus. - основной тон

Asosiy chastotaning birorta garmonik bo'lmagan tebranish spektridagi garmonik tebranishi.

Asosiy xotira

ing. - main storage

rus. - основная память

Tezkor xotira qurilmasining tezkor xotirasi. Asosan bu atama meynfreym va superkompyuterlar tezkor xotira qurilmasiga nisbatan qo'llaniladi.

Asosiy xotira qurilmasi

ing. - main storage device

rus. - основное запоминающее устройство

Qar.: Tezkor xotira qurilmasi.

Asosiy yaprog, antenna yo'nalganlik

diagrammasining asosiy yaprog'i

ing. - main-lobe, antenna main-lobe

rus. - главный лепесток, главный лепесток диаграммы направленности антенны

Antenna yo'nalganlik diagrammasi yaprog'i, uning doirasida antenna nurlanishi (qabul qilish) maksimal bo'ladi.

Asosiy yuklovchi yozuv

ing. - master boot record (MBR)

rus. - основная загрузочная запись

Diskning dastlabki sektorida joylashgan, uning fizik va mantiqiy tuzilishi to'g'risida ma'lumot saqlovchi jadval. Agar bu yozuv buziladigan bo'lsa, operatsion tizim yuklanmaydi.

Asosiy chastota

ing. - main frequency

rus. - основная частота

Biror bir davriy tebranish, lekin garmonik bo'lmagan tebranish, davriga mos chastota (ya'ni, shakli bo'yicha sinusoidal tebranihdan farq qiladigan tebranishlar).

Asosli son

ing. - based integer

rus. - число с основанием

Sanoq tizimi ko'rsatilgan holda, sonli qiymatni yozish. Biror asos qiymatga nisbatan surilish bilan taqdim etilgan butun o'zgaruvchi (masalan, 1917 dan 1999 gacha bo'lgan son 0 dan 82 gacha bo'lgan sonlar bilan ifodalanishi mumkin).

Assembler

ing. - assembler

rus. - ассемблер

Quyida daraja kompyuter dasturlash tilining nomi va bu tilda yozilgan dasturlarni kompyuterining mashina kodiga aylantiradigan dastur (translyator).

Assembler tili

ing. - assembler language

rus. - язык ассемблера

Eng quyi darajadagi dasturlash tili, bunda dasturchi protsessorning ishini bevosita boshqaradigan yo'riqnomalar, shuningdek, odam idrok etishi uchun qulay shaklda yozilgan mashina komandalarining o'zini yozadi.

Assemblerlash

ing. - assembling

rus. - ассемблирование

Dasturni assembler tilidan mashina kodiga translyatsiya qilish jarayoni.

Assotsiativ obyekt

ing. - associative entity

rus. - ассоциативный объект

Boshqa bir obyektlar o'rtasidagi munosa-

batlarni taqdim etish uchun foydalaniladigan obyekt.

Assotsiativ sinf

ing. - associative class

rus. - ассоциативный класс

Ko'plab munosabatlarni hal etish uchun kiritilgan turkum.

Assotsiativ xotira

ing. - associative memory

rus. - ассоциативная память

Ma'lumotlarning tanlanishi, ularning manzillari bo'yicha emas, balki bu ma'lumotlar bilan assotsiatsiyalangan qiymatlar bo'yicha amalga oshiriladigan xotira qurilmasi.

Assotsiatsiya

ing. - association

rus. - ассоциация

Protokol obyektlari (yoki protokol obyekti va utib oluvchi) o'rtasida, hisoblashga oid muayyan hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan protokollar ayirboshlashga bog'liq bo'lmagan holda o'rnatiladigan munosabatlardir.

Assotsiatsiyalarni boshqarish obyekti

ing. - association management facility

rus. - объект управления ассоциациями

Protokol obyektlari o'rtasida aloqa boshqarilishini ta'minlaydigan xizmat primitivlari to'plami.

Asta-sekin yomonlashuv

(raqamli televideniya)

ing. - graceful degradation

rus. - постепенное ухудшение

(в цифровом телевидении)

Raqamli televideniya tizimining signal/shovqin nisbatini kamaytirib shikastlanmagan tasvirdan yaroqsiz tasvirgacha sifatning muntazam pasayishini ta'minlash xususiyati. Izoh - Asta-sekin yomonlashuvga uzatish xatosiga ma'lumotlar oqimi chidamliligining turli darajalarini ta'minlab, raqamli kodlash va/yoki modulyatsiya maxsus shakllaridan foydalanib erishish mumkin.

Ataylab buzish

ing. - preemphasis

rus. - преднамеренное искажение

Chastotalarning bir sohasidagi energiyani boshqa sohasidagi energiyaga nisbatan

ko'tarishda ifodalanadigan, signal normal shaklining ataylab o'zgartirilishi.

Ataylab (qasddan) qilingan xato

ing. - intentional error

rus. - преднамеренная

(умышленная) ошибка

Dastur yoki ma'lumotlarga qasddan kiritilgan xato.

Ataylab qilinmagan xalaqitlar

ing. - unintended interference

rus. - непреднамеренные помехи

Turli radioelektron vositalarning ishlashidan yuzaga keladigan tasodifiy xalaqitlar.

Atmosfera xalaqitlari

ing. - atmospheric handicaps

rus. - атмосферные помехи

Radioqabulqilishda atmosferada yuz beradigan elektr jarayonlarning qabul qiluvchi antenaga ta'sir qilishi bilan bog'liq xalaqitlar.

Atom

ing. - atom

rus. - атом

LISP dasturlash tilida atomlar – bu, simvollar va sonlar to'plami, ya'ni birmuncha murakkab tuzilmalarni tashkil qiladigan eng oddiy elementlardir. Ro'yxatlar atomlardan iborat bo'ladi. Masalan, «Men musiqa tinglayapman» ifodasi – bu, uch atomdan iborat ro'yxatdir.

Atomar operatsiya

ing. - atomic operation

rus. - атомарная операция

Parallel jarayonlardan biri operatsiyani bajarishni boshlagan bo'lsa, boshqa hech qanday jarayon u tugatmaguncha o'sha ma'lumotlar bo'yicha operatsiyalarni bajarishni boshlay olmaydigan operatsiya.

Atomarlik

ing. - atomicity

rus. - атомарность

Operatsiyaning uzluksiz xossasi. Atomarlik operatsiya butunlay uzluksiz bajariladi (yoki bajarilish rad etiladi). Atomarlik ko'p protsessorli kompyuterlarda (hamda ko'p karrali operatsion tizimlarda) katta ahamiyatga ega, chunki ajratilmaydigan resurslarni ishlatishda albatta atomarlik bo'lishi shart.

Atribut

ing. - attribute

rus. - атрибут

1. Obyektning holatini, tashqi ko'rinishini yoki boshqa jihatlarini tavsiflash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan ushbu obyektning xarakteristikasi yoki xususiyati.

2. Qandaydir axborot birligining qiymatlar domeniga beriladigan noyob nomi.

Atribut sertifikat

ing. - attribute certificate

rus. - сертификат атрибута

Atributlarni berish organining raqamli imzoriga ega bo'lgan, atributlarning ba'zi qiymatlarini bu atributlarning egasi to'g'risidagi identifikatsion axborot bilan bog'laydigan ma'lumotlar tuzilmasi.

Atribut tanlash

ing. - attribute sampling

rus. - выбор атрибута

Ko'rib chiqiladigan birliklarning har birida qandaydir xarakteristika (atribut) borligini (yoki yo'qligini) belgilashdan iborat, sifatini o'lchash usuli.

Atributlar beruvchi organ

ing. - attribute authority

rus. - орган по присвоению атрибутов

1. Atributlar sertifikatlarini berish yo'li bilan vakolatlar belgilovchi organ.

2. Bitta yoki bir nechta obyekt atributlar sertifikatlarini tuzish va imzolanishini ishonib topshiradigan obyekt.

Attenyator

ing. - attenuator

rus. - аттенюатор

O'zi orqali o'tadigan signalning ohista yoki diskret susayishini ta'minlaydigan qurilma.

Attestatlash

ing. - attestation

rus. - аттестация

Axborotlashtirish obyektining davlat standartlari talablariga, sertifikatlash bo'yicha davlat organlari tomonidan, ularning o'z vakolatlari doirasida tasdiqlangan axborot muhofazasi bo'yicha boshqa normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyat. Attestatlash axborotlashtirish obyektining egasiga axborotni, axborot

xavfsizligi darajasiga mos keluvchi maxfiylik darajasida qayta ishlash huquqini beradi.

Audio disk

ing. - audio CD

rus. - звуковой компакт-диск

Yozish uchun tovush yo'lkasi bo'lgan kompakt-disk. 74 minut eshittirish davomiyligidan iborat. U na faqat kompyuter, balki maxsus proigrivatel yordamida ham o'qiladi.

Audio quyi eltuvchi

ing. - audio subcarrier

rus. - аудиоподнесущая

Audio signalni tasvir signali bilan birgalikda uzatishda foydalaniladigan chastota. Stereotovush yoki tovush jo'rligining bir nechta tilda uzatilishida kanalda bir nechta audio quyi eltuvchi uzatiladi. Ular doim videosignal spektridan yuqorida joylashadi. Ularning aniq joylashishi, birinchi navbatda, videosignal polosasining kengligiga bog'liq bo'ladi. Videosignalni uzatishning turli standartlarida audio quyi eltuvchilar televizion signal spektrida 5 MHz dan 8,8 MHz gacha diapazonda joylashishi mumkin. Stereojuftlar ko'proq 180 kHz chastotalar farqi bilan uzatiladi.

Audio (tovushli)

ing. - audio

rus. - аудио (звуковой)

Tovush bilan ishlash uchun mo'ljallangan dasturlar yoki texnik qurilmalar.

Audiosignal oraliq chastotasi polosasining kengligi

ing. - bandwidth of intermediate frequency of audio signal

rus. - ширина полосы промежуточной частоты аудиосигнала

Demodulyator kirishiga audiosignalni o'tkazadigan audio quyi eltuvchi atrofidagi chastota spektrining polosasi. Oraliq chastotalar polosa kengligiga bo'lgan standartlar 110 kHz dan 600 kHz gacha diapazonda o'zgaradi.

Audiovideografiya

ing. - audiovideography

rus. - аудиовидеография

Harf-raqamli, harf-grafik tasvirli yoki tovush signallari bilan birgalikdagi harf-fotografik qayta tiklashdan iborat audiovizual tizim.

Audiovizual asar

ing. - audiovisual product

rus. - аудиовизуальное произведение

O'zaro bog'liq kadrlarning (tovush jo'rligida yoki tovush jo'rligisiz) belgilangan tartibdan iborat bo'lgan, tegishli texnik vositalar yordamida ko'rish yoki eshinish (tovush jo'rligida bo'lsa) orqali qabul qilish uchun mo'ljallangan asar. Audiovizual asarlar ichiga, ularning dastlabki yoki keyingi saqlanishidan qat'iy nazar, kinematografik asarlar va kinematografiya vositalari orqali taqdim etiladigan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar va shu kabilar) kiradi.

Audiovizual hujjat

ing. - audiovisual document

rus. - аудиовизуальный документ

Tasviriy va tovushli axborotni oz ichiga olgan hujjat.

Audit

ing. - audit

rus. - аудит

1. Auditning kelishilgan mezonlarini bajarish darajasini aniqlash uchun audit dalillari va ularning obyektiv bahosini olishning muntazam, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni.

Izoh - Audit ichki, tasbqi, qo'shma yoki kompleks bo'lishi mumkin.

2. Tizim muhofazalanganligining kundalik holatini belgilash maqsadida tizim jurnali (audit jurnali) yozuvlarini olish va tahtil qilish jarayoni.

3. Avtomatlashtirilgan tizim va uning barcha tashkil etuvchilarini, tizim xavfsizligining holatini aniqlash, uning amaldagi qonunchilik talablariga va tashkilotning tashkiliy-idora qilish hujjatlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida, ekspertiza qilish.

Audit jurnali

ing. - audit trail

rus. - журнал аудита

1. Xavfsizlik auditini o'tkazishda foydalanish maqsadida o'planadigan ma'lumotlar.

2. Tizimda amalga oshiriladigan tranzaksiyalar to'g'risidagi yozuvlar majmui. Tizimda axborotning qayta ishlash jarayonini hujjatlashtiradi, tranzaksiyalarning yuzaga kelish manbalarini va tizim tomonidan ularning bajarilish ketma-ketligini aniqlash imkonini beradi.

Auditoriya

ing. - audience

rus. - аудитория

Tashrif buyuruvchilarning umumiy ta'rif. Ular uchun muayyan sayt, portal yoki Internetning boshqa resursi mo'ljallangan. Resursni namoyish etish uslubi auditoriya xususiyatiga bog'liq, auditoriya hajmi esa Internet loyihasi muvaffaqiyatining muhim o'lchovidir.

Auditoriyani o'rganish

ing. - audience research

rus. - изучение аудитории

Potensial foydalanuvchilarni so'roqlash, uning integral va individual natijalarini tahlil qilish jarayoni.

Autentifikator

ing. - authenticator.

rus. - аутентификатор

1. Foydalanuvchining farqlovchi belgisini ko'rsatuvchi autentifikatsiya vositasi.

Izoh - Qo'shimcha kodli so'zlar, biometrik ma'lumotlar va foydalanuvchining boshqa farqlovchi belgilari autentifikatsiya vositalari bo'lishi mumkin. Ular elektron hisoblash mashinasiga displey klaviyurasidan, identifikatsion kartadan yoki biometrik ma'lumotlarga qarab autentifikatsiya qilishning maxsus qurilmalari yordamida kiritiladi.

2. Xabarga qo'shilgan, asimmetrik kriptografik algoritmdan foydalanib shifrlangan hamda xabarning yaxlitligini va jo'natuvchisining haqiqiylikini tekshirish uchun xabarni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonida foydalaniladigan ma'lumotlar bloki.

Autentifikatsion ma'lumotlar

ing. - authentication data

rus. - аутентификационные данные

Foydalanuvchining taqdim etilgan identifikatorini verifikatsiyalashda qo'llaniladigan axborot.

Autentifikatsion vektor

ing. - authentication vector

rus. - аутентификационный вектор

Mobil stansiyaning autentifikatsiya qilishda qo'llaniladigan parametrlarning majmui, masalan GSM da triplet va UMTS da kvintet.

Autentifikatsiya almashinsh

ing. - authentication exchange

rus. - обмен аутентификацией

Axborot almashinuv yo'li bilan qandaydir

mantiqiy obyektning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan mexanizm.

Autentifikatsiya axboroti

ing. - authentication information

rus. - информация аутентификации

1. Mantiqiy obyekt tomonidan taqdim etilgan identifikatsion axborotning ishonchlilikini aniqlash uchun foydalaniladigan axborot.

2. Foydalanuvchi shaxsining haqiqiylikini aniqlash uchun foydalaniladigan axborot.

Autentifikatsiya qilingan identifikatsiya

ing. - authenticated identity

rus. - аутентифицированная идентификация

Autentifikatsiya qilish yo'li bilan tasdiqlandigan erkin foydalanish administratorining farqlovchi identifikatori.

Autentifikatsiya qilish

ing. - authentication

rus. - аутентификация

1. Mantiqiy obyekt tomonidan taqdim etilgan identifikator haqiqiylikiga ishonch hosil qilinishini ta'minlash.

2. Foydalanuvchining (tarmoq abonentining, xabar jo'natuvchining), dastur, qurilma yoki ma'lumotlarning (axborotning, olinadigan xabarning, kalitning) haqiqiylikini belgilash protsedurasi.

Autentifikatsiya qilish kaliti

ing. - authentication key, A-KEY

rus. - ключ аутентификации

1. Mobil aloqa qurilmasi xotirasida saqlanadigan noyob kodli so'z. USDC va CDMA-450 tarmoqlarida shifrlash kalitlarini autentifikatsiya qilish va generatsiyalash uchun ishlatiladi.

2. Abonentni autentifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan yopiq yoki ochiq shifrlash kaliti. Radiotarmoqning har bir abonent terminalni initsializatsiya qilishda dasturlashtirilgan individual autentifikatsiya qilish kalitiga ega bo'ladi.

Autentifikatsiya qilish kodi

ing. - authentication code

rus. - код аутентификации

Maxfiy kalitdan foydalanib ma'lumotlardan olinadigan va saqlanadigan yoki telekommu-

nikatsiyalar kanali orqali uzatiladigan ma'lumotlarning o'zgartirilish faktini aniqlash maqsadida, ma'lumotlarga qo'shiladigan qat'iy uzunlikdagi kod (imitoqo'shimcha).

Autentifikatsiya qilish markazi

ing. - authentication center

rus. - центр аутентификации

Mobil aloqa tarmog'ida konfidensial axborot almashinish yuzasidan javobgar bo'lgan va ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilinishni ta'minlaydigan tarmoq uskunasi.

Autentifikatsiya qilish sertifikat

ing. - authentication certificate

rus. - сертификат аутентификации

Sertifikatlash organi tomonidan kafolatlangan va obyektning identifikatsiya qilinishini ta'minlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan xavfsizlik sertifikat.

Autentifikatsiya qilish xizmati

ing. - authentication service

rus. - услуга аутентификации

Obyekt yoki subyektni identifikatsiyalash, aslida ular tomonidan bayon qilingan identifikatsiya ekanligining dalilini ko'rsatuvchi xizmat.

Izoh - Amaldagi subyektni ta'minlash uchun identifikatsiya maqsadlariga bog'liq ravishda quyidagi autentifikatsiya turlari talab qilinishi mumkin: foydalanuvchini autentifikatsiya qilish, bitta rang obyektlarini autentifikatsiya qilish, ma'lumotlar manbaini autentifikatsiya qilish.

Autentifikatsiyani boshqarish maydoni

ing. - authentication management field

rus. - поле управления аутентификацией

Xabarning autentikligini tekshirish uchun qo'llaniladigan ma'lumotlar maydoni.

Autentifikatsiyaning

ulanadigan modullari

ing. - pluggable authentication modules

rus. - подключаемые модули

аутентификации

Qar.: PAM.

Autentik elektron hujjat

ing. - authentic electronic document

rus. - аутентичный электронный документ

Haqiqiyiligini ushbu hujjat yaratuvchisi (jo'natuvchisi)ning elektron raqamli imzosini

autentifikatsiya qilish yordamida tasdiqlash mumkin bo'lgan elektron hujjat.

Avariya signalizatsiyasi

ing. - alarming

rus. - аварийная сигнализация

Datchik va qurilmalar majmui. Ularning yordamida ishlayotgan tizim holati ustidan nazorat amalga oshiriladi, yorug'lik va tovush signallarini uzatish orqali nosozlik to'g'risida xabar beriladi.

Avariya uzatgichi

ing. - emergency transmitter

rus. - аварийный передатчик

Kema yoki samolyotdagi maxsus radiouzatgich. Avariya holatlarida avariya uzatgichi avtomatik ravishda yoki qo'l bilan ulanib, bir vaqtning o'zida uzatgichni pelenglash va avariyaga uchragan obyekttni izlash uchun xizmat qiluvchi halokat signallarini uzatadi.

Avariyaviy damp

ing. - disaster dump

rus. - аварийный дамп

MS Windows operatsion tizimlarida, kritik xatolik ro'y bergan paytda («o'limni anglatuvchi ko'k ekran» paydo bo'lganda), saqlanmay qolgan ma'lumotlarni tiklash maqsadida, tezkor xotiradagi va swap (podkachka) faylidagi ma'lumotlarni diskka yozib qo'yish.

Avariyaviy tugallanish

ing. - abnormal end

rus. - аварийное завершение

Ichki xatolik yoki foydalanuvchining noto'g'ri harakatlari oqibatida, operatsion tizimning yoki dasturning ishlashdan to'xtashi. Izoh - Bunday holatlarda ko'pincha kompyuterni yoki ilovani qayta yuklash kerak bo'ladi. Windows operatsion tizimida «o'limni anglatuvchi ko'k ekran» avariyaviy tugallanishning standart ko'rinishi hisoblanadi.

Avatar

ing. - avatar

rus. - аватар

Foydalanuvchini virtual dunyoda ifodalovchi grafik interaktiv obyekt.

Avtobelgilash

ing. - autolayout

rus. - авторазметка

Operatsion tizimlarning o'rnatish vaqtida

disklarni mustaqil tarzda tanlash va partit-siyalarga (qismlarga) ajratish imkoniyati.

Avtofokus

ing. - autofocus

rus. - автофокус

Antennani, signalning maksimal darajasi bo'yicha, avtomatik sozlash funksiyasi.

Avtoforamlash

ing. - auto formatting

rus. - автоформатирование

Teledastur bilan birga uzatiladigan maxsus signal yoki keng qora chiziqni aniqlash yordamida televizorni standart (4:3) yoki keng ekranli (16:9) tasvir formatlariga avtomatik tarzda qayta ulash.

Avtoinformator

ing. - autoinformant

rus. - автоинформатор

Kommutatsiya stansiyasining, telefon tarmog'i abonentiga chaqirilayotgan abonentning raqami to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradigan qurilmasi.

Avtojavobbergich

ing. - answering device

rus. - автоответчик

Telefon yoki modemning abonentlar uchun nutqiy axborotni aks ettirish va abonentlar xabarlarini disk flesh xotirasiga yozish imkonini beruvchi funksiyasi.

Avtokorrelyatsion funksiya

ing. - autocorrelation function

rus. - автокорреляционная функция

Signalning avtokorrelyatsion xossalarni tavsiflovchi funksiya. Avtokorrelyatsion funksiya cho'qqisi maksimal, yon yaproqlarining pog'onasi minimal bo'lgan signal yaxshi avtokorrelyatsion xossalarga ega hisoblanadi.

Avtokorrelyatsiya

rus. - автокорреляция

ing. - autocorrelation

Aynan bir ma'lumotlar to'plami turli qismlarining o'xshashlik o'lchovi; dasturlarni aniqlash (identifikatsiyalash) muammosi kontekstida haqiqiylik o'lchovi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Avtomagistrallardagi mikrouyalar

ing. - highway microcells

rus. - микросоты на автомагистралях

Avtomagistral bo'ylab cho'zilgan, har segmentida bittadan tayanch stansiya lashgan, segmentlangan mikrouyali tarmoq. Izoh - Chorrahalarida, odatda, har tomonlama yo'naltirilgan antennalari bo'lgan tayanch stansiyalar o'rnatiladi, avto-magistral bo'ylab esa, yo'naltirilgan antennalardan foydalaniladi.

Avtomat

ing. - automaton

rus. - автомат

Odamning bevosita ishtirokisiz qandaydir ishlarni bajaradigan qurilma yoki qurilmalar majmui.

Avtomatik dialog

ing. - automatic dialog

rus. - автоматический диалог

Foydalanuvchining kompyuteri va vositachi qurilma o'rtasidagi, ssenariy belgilaydigan dialog. Bu turdagi dialog foydalanuvchining hech qanday javobini talab etmaydi.

Avtomatik identifikatsiyalash va ma'lumotlar to'plash texnologiyalari

ing. - automatic identification and data

capture technologies

rus. - технологии автоматической

идентификации и сбора данных

Ma'lumotlarning, klaviatura yordamisiz, to'g'ridan-to'g'ri kompyuterga yoki dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerga kiritilishini ta'minlaydigan vositalar. Bu operator xatolarini istisno qiladi va kiritish jarayonini tezlashtiradi.

Avtomatik imzo

ing. - auto signature

rus. - автоматическая подпись

Uzatiladigan xat oxiriga avtomatik tarzda qo'yiladigan, oldindan tayyorlangan shtamp. Izoh - Qoidaga ko'ra, jo'natuvchi to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Avtomatik ishga tushirish

ing. - autoplay

rus. - автозапуск

Kompyuterga USB-qurilma yoki CD-disk ulanganda bajariladigan operatsiyalar majmui.

Avtomatik kelishuv

ing. - auto-negotiation

rus. - автоматическое согласование

Umumiy aloqa kanalidan foydalanuvchi

ikki qurilmaning, o'z tezlik imkoniyatlarini avtomatik tarzda ma'lum qilish, mumkin bo'lgan tartiblar va taklif qilingan ish tartibini aniqlash hamda qo'llash imkoniyati bo'lmaydigan tartiblarni rad etish to'g'risidagi ma'lumotlar olinganligini tasdiqlash qobiliyati.

Avtomatik kodlash

ing. - automatic coding

rus. - автоматическое кодирование

Simvollar orqali tasvirlash yordamida mashinada dastur ishlab chiqish.

Avtomatik masshtablash

ing. - auto-zooming

rus. - автоматическое масштабирование

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi paketlaridagi imkoniyatlardan biri bo'lib, u detal keltirilgan tasvirning masshtabi chizmaning masshtabiga mos ravishda avtomatik saqlanish imkonini beradi.

Avtomatik muqobil billing

ing. - automatic alternative billing (AAB)

rus. - автоматический

альтернативный биллинг

Abonentga istalgan telefondan chaqiruvni amalga oshirish, lekin so'zlashuv to'lovini shu xizmat uchun belgilangan va chaqiruvchi tomonga ham, chaqiriluvchi tomonga ham tegishli bo'lmagan uchinchi abonent hisobiga o'tkazish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - Bu xizmatdan foydalanish uchun maxsus kirish kodi ishlatiladi.

Avtomatik orqaga qaytish

ing. - automatic rollback

rus. - автоматический откат

Tranzaksiyani to'la tugallashga urinish muvaffaqiyatsiz bo'lganda, tizimni boshlang'ich holatga qaytarish va amalga oshirilgan ishlarning barcha natijalarini avtomatik tarzda bekor qilish.

Avtomatik qayta hisoblash

ing. - automatic recalculation

rus. - автоматический пересчёт

Elektron jadvalning ishlash rejimi, bunda yacheykalardagi barcha qiymatlarni qayta hisoblash har safar yangi qiymat kiritilganda amalga oshiriladi. Jadval katta bo'lganda, bu kiritish jarayonini sekinlashtirishi mumkin, chunki qayta hisoblash tugashini kutishga

to'g'ri keladi, shuning uchun ko'pincha fonli va qo'lida qayta hisoblash rejimlaridan foydalaniladi.

Avtomatik qayta ishga tushirish

ing. - autorestart

rus. - авторестарт

Muayyan turdagi xato aniqlanganda yoki qandaydir qurilma ishlamay qolganda, tizimni avtomatik tarzda qayta ishga tushirish jarayoni.

Avtomatik qayta tiklash

ing. - auto-recover

rus. - автоматическое восстановление

Matn protsessorlarining kiritilgan, lekin no-sozlik ro'y berishiga qadar saqlanmagan matnlarni tiklash imkoniyati, yoki operatsion tizimning oldindan saqlangan nusxalardan shikastlangan tizim fayllarini qayta tiklash imkoniyati.

Avtomatik qo'ng'iroq qilish (avtomatik tarzda teskari yo'nalishdagi chaqiruv)

ing. - automatic callback (AC)

rus. - автодозвон (автоматический обратный вызов)

Oxirgi marta kiruvchi chaqiruvni amalga oshirgan abonentga raqamni termasdan chaqiruvni amalga oshirish imkonini beradigan xizmat. Bunda abonent oxirgi marta kiruvchi chaqiruvni amalga oshirgan abonent raqamini bilishi shart emas.

Avtomatik ravishda pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni hisobga olish xizmati

ing. - automatic transferred debiting of charges service

rus. - услуга зачета платы

автоматическим перечислением

So'zlashuvlar uchun to'lov abonent hisobiga ushbu abonent tomonidan ko'rsatiladigan va ular tomonidan foydalaniladigan maxfiy kod bo'yicha tanib olinadigan shaxsning istalgan telefon apparatidan avtomatik ravishda hisobga olishni ta'minlaydigan xizmat. Izoh - Ushbu xizmat kredit kartochkalarning amaldagi xizmatiga o'xshash, lekin telefonchining aralashuvini talab etmaydi. U butun tarmoqda taqdim etilishi kerak.

«Avtomatik» rouming

ing. - automatic roaming

rus. - «автоматический» роуминг

HSAT (bundan keyin - abonentga) opera-

torlar o'rtasida rouming to'g'risida bitim tuzilgan sharoitda har qanday arizani oldindan bermasdan, boshqa HSAT operatorining ishlash zonasida kiruvchi va chiquvchi aloqaga ega bo'lish imkonini beradigan rouming xizmati.

Avtomatik saqlash

ing. - autosave

rus. - автосохранение

Foydalanuvchi ishtirokisiz, qattiq diskda ma'lumotlarning davriy ravishda avtomatik saqlanishi.

Avtomatik sozlash

ing. - automatic configuration

rus. - автоматическая настройка

Oldindan saqlab qo'yilgan parametrlardan foydalanib, tizimni avtomatik tarzda sozlash.

Avtomatik takrorlashni so'rash

ing. - automatic repeat request

rus. - запрос автоматического повторения

Qabul qiluvchi qurilma xatolarni aniqlaydigan va takroriy uzatishni so'raydigan kommunikatsiya metodikasi.

Avtomatik tarzda

ing. - auto

rus. - автоматически

Tizim tomonidan foydalanuvchining ishtirokisiz amalga oshiriladigan harakatlar.

Izoh - Bular tizim elementlarining yangilanishi, antiviruslarning tizimda viruslar borligini tekshirishi, operatsion tizim yuklanishi paytida disklarni xatoliklarga tekshirib, ularni bartaraf etish bo'lishi mumkin.

Avtomatik tarzda kirish

ing. - autologon

rus. - автоход

Foydalanuvchining tizimga avtomatik tarzda kirishi. Tizimning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Avtomatik tarzda takroriy chaqiruv

ing. - automatic recall (AR)

rus. - автоматический повторный вызов

Oxirgi chaqirilgan abonentni raqamni termasdan chaqirish imkonini beradigan xizmat.

Avtomatik telefon stansiyasi (ATS)

ing. - automatic exchange;

central office (CO)

rus. - автоматическая телефонная станция (АТС)

Telefon bog'lanishlar va uzilishlarning avtomatik ravishda o'rnatilishini ta'minlovchi telefon stansiya.

Avtomatik telefon stansiyasining xizmat zonasi

ing. - activity zone of automated telephone station

rus. - зона действия автоматической телефонной станции

Mazkur telefon stansiyasi yoki podstansiyasi joylashgan hudud. Bu hududda telefon stansiyasi yoki podstansiyasiga ulangan magistral, tarqatuvchi tarmoqning kabel (havodagi) liniyalari hamda radio foydalanish vositalari mavjud. Shu uskunalar bilan zonani telefonlashtirish mumkin bo'ladi.

Avtomatik tizim

ing. - automated system

rus. - автоматическая система

Inson ishtirokisiz mustaqil faoliyat yurituvchi dasturiy va apparat vositalar tizimi.

Avtomatik to'ldirish

ing. - autofill

rus. - автоматическое заполнение

Xotirada saqlanayotgan ma'lumotlar asosida veb-brauzerlarda formalarni to'ldirish imkoniyati.

Izoh - Veb-formalarni to'ldirish uchun maxsus dasturlar mavjud, masalan RoboForm.

Avtomatik to'g'rilash

ing. - auto arrange

rus. - автоматическое выравнивание

Kiritilgan matn, rasm yoki dasturlardagi boshqa obyektlarni avtomatik ravishda to'g'rilash imkoniyati.

Avtomatik ulanish

ing. - autconnect

rus. - автоподключение

Biror-bir tarmoq resurslariga (qoidaga ko'ra, tizim yuklanishi vaqtida) avtomatik tarzda ulanish.

Avtomatik verifikator

ing. - mechanical verifier

rus. - автоматический верификатор

Dasturlarning to'g'riligi avtomatik isbotlanishini ta'minlash sxemasi. Verifikatsiyalar

shartlari generatori hamda teoremlarni isbotlash blokinichiga oladi.

Avtomatik o'zgaruvchi

ing. - automatic variable

rus. - автоматическая переменная

Protseuraga (funksiya, usul yoki blokka) kirishda xotira avtomatik tarzda ajratiladigan o'zgaruvchi; xotira foydalanuvchining aniq komandasi bilan ajratiladigan dinamik o'zgaruvchiga qarshi qo'yiladi (taqqoslab ko'riladi).

Avtomatik o'chirish

ing. - autosleep

rus. - автоматическое гашение

Kompyuter ma'lum vaqt mobaynida ishlatilmasligi natijasida monitor yoki qattiq disk ta'minotining avtomatik tarzda o'chib qolishi.

Izoh – Bu elektr energiyasini tejaydi va qurilmalarning uzoq muddat ishlashini ta'minlaydi.

Avtomatika

ing. - automatics

rus. - автоматика

Odamning bevosita ishtirokisiz ishlaydigan tizimlar va qurilmalar yaratish masalalarini qamrab oladigan ilmiy va texnik fan.

Avtomatlar nazariyasi

ing. - automata theory

rus. - теория автоматов

Abstrakt hisoblash qurilmalari, yoki «mashinalar» ni o'rganish bilan shug'ullanadigan ilmiy fan.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi

ing. - automatized information system

rus. - автоматизированная

информационная система

Axborotni to'plash, saqlash, izlash va iste'molchilarga, ularning rasmiy talablariga ko'ra berish uchun mo'ljallangan dasturiy va texnik vositalar hamda axborot massivlari kompleksi.

Avtomatlashtirilgan axborot

tizimining xavfsizligi

ing. - automated information system security

rus. - безопасность автоматизированной

информационной системы

Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga xizmat ko'rsatishdagi buzilish va bu tizimni hamda ma'lumotlarni ruxsat etilmagan tarzda (qasd-

dan yoki tasodifan) ochish, o'zgartirish yoki buzishdan muhofaza qiluvchi boshqaruv va nazorat chora-tadbirlarining jami.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari

va ularning texnologiyalarini

ta'minlash vositalari

ing. - automated information systems and technologies support tools

rus. - средства обеспечения

автоматизированных информационных систем и их технологий

Axborot tizimlarini loyihalash va ulardan foydalanishni ta'minlash uchun foydalaniladigan yoki yaratiladigan dasturiy, texnik, lingvistik, huquqiy, tashkiliy vositalar (kompyuter uchun dasturlar; hisoblash texnikasi va aloqa vositalari; lug'atlar, tezauruslar va tasniflagichlar; ko'rsatmalar va uslubiyatlar; qoidalar, nizomlar, lavozim yo'riqnomalari; chizmalar va ularning tasniflari, boshqa foydalanish va kuzatish hujjatlari).

Avtomatlashtirilgan axborotni

qayta ishlash tizimi

ing. - automated data processing system

rus. - автоматизированная

система обработки информации

Quyidagi o'zaro bog'langan komponentlarning majmuini o'zida aks ettiruvchi tashkiliy-texnik tizim: ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish texnik vositalari (hisoblash texnikasi va aloqa vositalari), tegishli dasturiy ta'minot ko'rinishidagi qayta ishlash usullari va algoritmlari, turli tashuvchilardagi ma'lumot massivlari (to'plamlari, bazalari), davlat organlari, jamoat yoki tijorat tashkilotlari (yuridik shaxslar), ayrim fuqarolar (jismaniy shaxslar) va axborot boshqa iste'molchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashni bajarish uchun tashkiliy-tuzilma, tematik, texnologik yoki boshqa belgilarga ko'ra birlashtirilgan personal va foydalanuvchilar.

Avtomatlashtirilgan

boshqaruv tizimi (ABT)

ing. - automatized management system

rus. - автоматизированная система

управления (АСУ)

Matematik uslublar, texnik vositalar (kom-

pyuterlar, aloqa vositalari, ma'lumotlarni chiqarish qurilmalari va h.k.) va tashkiliy majmualar to'plami. U belgilab olingan maqsadga muvofiq, murakkab obyekt (jarayon) boshqaruvini ta'minlaydi. ABT asos va funksional qismlarga bo'linadi. Asosga axborot, texnik va matematik ta'minotlar kiradi. Funksional qismga aniq boshqaruv vazifalarini (loyihalash, moliyaviy-hisobot faoliyati va h.k.) avtomatlashtiruvchi o'zaro bog'liq dasturlar to'plami kiradi. Ikki turdagi ABT mavjud. Bular, obyektlar miqyosida avtomatlashtirilgan tizimlar (texnologik jarayonlar uchun – TJABT, korxonalar uchun – KABT, soha uchun – SABT) va funksional avtomatlashtirilgan tizimlardir. Funksional ABTga loyihalash, hisob-kitob, moddiy-texnika va boshqa ta'minotlar uchun mo'ljallangan ABT misol bo'la oladi.

Avtomatlashtirilgan dasturiy jarayon

ing. - automated software process

rus. - автоматизированный

программный процесс

Qo'llab-quvvatlaydigan vositalar bilan to'liq yoki qisman bajariladigan tizimli yoki dasturiy jarayonlar.

Avtomatlashtirilgan dasturlash

ing. - automated programming

rus. - автоматизированное

программирование

Amaliy dasturlarni loyihalash va qo'llash uchun mo'ljallangan usullar hamda instrumental vositalar majmuidir.

Izoh – Avtomatlashtirilgan dasturlashda amalda dasturiy ta'minotning barcha turlarini ishlab chiqishda ko'maklashadigan CASE texnologiyasi (CASE – Computer Aided Software Engineering – dasturiy vositalarning avtomatlashtirilgan injiniringi) keng ma'lum.

Avtomatlashtirilgan deshifrlash

ing. - automatized deciphering

rus. - автоматизированное дешифрование

Ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash jarayonining bosqichlaridan biri. Bu raqamli tasvirlar shaklida taqdim etiladigan ma'lumotlarni masofadan zondlashdir. Tasvirlarni kompyuterga kiritish, mavzu bo'yicha shiftni buzib ochish va ma'lumotlarni ekspert baholashlarini o'z ichiga oladi.

Avtomatlashtirilgan ish o'rni

ing. - automated workplace

rus. - автоматизированное рабочее место

Bir xodim tomonidan ishlarning muayyan turi bajarilishini ta'minlaydigan hisoblash tizimi. Muayyan turdagi faoliyatni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy-texnik kompleks. Avtomatlashtirilgan ish o'rnining odamning kompyuter bilan birgalikda ishlashini ta'minlaydigan apparat-dasturiy vositalarni birlashtiradi, axborotni (kompyuter «sichqoncha»si, klaviatura, skaner orqali) kiritish va monitor, printer, dinamik ekraniga chiqarish imkoniyatini beradi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi

ing. - optimal design integration system

rus. - система автоматизированного

проектирования

Ayrim buyumga, bino va inshootga tegishli barcha zarur konstruktorlik va texnologik hujjatlarini tuzish imkonini beradigan texnik va dasturiy vositalar kompleksi.

Avtomatlashtirilgan tizim

ing. - automatic system

rus. - автоматизированная система

1. Axborot texnologiyasini amalga oshiradigan va hisoblash tizimi, fizik muhit, personal va qayta ishlanadigan axborotni birlashtiradigan tashkiliy-texnik tizim.

2. Ma'lumotlar avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlanadigan, tarkibiga ma'lumotlarni qayta ishlashning texnik vositalari (hisoblash texnikasi va aloqa vositalari), shuningdek, usullar, protseduralar, dasturiy ta'minot kiradigan tizim.

Avtomatlashtirilgan tizim

resursining xavfsizligi

ing. - automatized system source security

rus. - безопасность ресурса

автоматизированной системы

Avtomatlashtirilgan tizim resursining xavfsizligi uning uchta xarakteristikasini: konfidensialligini, yaxlitligini va foydalana olishlikni ta'minlashdan tashkil topadi.

Tizim komponentining konfidensialligi, unga faqat tegishli vakolati bo'lgan foydalana olish subyektlari (foydalanuvchilar, dasturiy, jarayonlar) kira olishi mumkinligida ifodalanadi.

Komponentning yaxlitligi, u faqat tegishli huquqlari bo'lgan subyekt tomonidagina o'zgartirilishi mumkinligini nazarda tutadi. Yaxlitlik komponentning istalgan vaqt onida to'g'riligi (o'zgarماسligi, ish qobiliyati)ning kafolati hisoblanadi.

Komponentdan foydalana olishlik tegishli vakolatga ega subyekt istalgan vaqtda, hech qanday muammosiz tizim (resurs) ning zarur komponentidan foydalanish uchun ruxsat olishi mumkinligini bildiradi.

Avtomatlashtirilgan tizimda axborotni qayta ishlash

ing. - information processing in automated system

rus. - обработка информации в АС

Avtomatlashtirilgan tizim vositalaridan foydalanib axborot ustida bajariladigan operatsiyalar (yig'ish, jamg'arish, saqlash, o'zgartirish, in'ikos etish, chiqarish va shu kabilar) majmui.

Avtomatlashtirilgan tizimga tahdid

ing. - automated system treat

rus. - угроза автоматизированной системы
Avtomatlashtirilgan tizim resurslariga (moddiy, ma'naviy yoki boshqa) zarar keltirishi mumkin bo'lgan, potensial voqea, harakat, jarayon yoki hodisa.

Avtomatlashtirilgan tizimni

yaratish loyihalarini boshqarishda

pog'onali yondashuv

ing. - cascade approach in project management

rus. - каскадный подход в

управлении проектами создания автоматизированной системы

Loyihaning barcha bosqichlari qat'iy belgilangan tartibda izchil bajarilishi ko'zda tutiladigan yondashuv, bunda keyingi bosqichga o'tish oldingi bosqichdagi ishlar to'liq yakunlanganligini bildiradi.

Avtomatlashtirilgan tizimning

matematik ta'minoti

ing. - mathematical support of automated system

rus. - математическое обеспечение автоматизированной системы

Tizimni boshqarish va uning yordamida hisoblash texnikasida axborotni qayta ishlash vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan jami algoritmlar va dasturlar.

Avtomatlashtirilgan tizimning xavfsizligi

ing. - automated system security

rus. - безопасность

автоматизированной системы

Avtomatlashtirilgan tizimning, uning normal ishlash jarayoniga ruxsat etilmagan aralashuvdan, shuningdek, tizim komponentlarini o'g'irlash, noqonuniy o'zgartirish yoki buzishdan muhofaza qilinganligi.

Avtomatlashtirilgan tizimning zaifligi

ing. - automated system vulnerability

rus. - уязвимость

автоматизированной системы

Avtomatlashtirilgan tizimning, buzg'unchining undan foydalanishi tahdidni amalga oshirishga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday xarakteristikasi.

Avtomatlashtirish

ing. - automation

rus. - автоматизация

1. Odamning moddiy, energetik va axborot jarayonlarida bevosita ishtirokining ahamiyatini kamaytirishga qaratilgan tizimlar, qurilmalar, asboblari va usullarni ishlab chiqish va qo'llash.

Izoh - Ishlab chiqarishni, texnologik jarayonlarni boshqaruvni, loyihalashni, o'qitishni, dasturlashni avtomatlashtirish va kompleks avtomatlashtirish farqlanadi.

2. Ilmiy-texnik taraqqiyotning, axborotni olish, o'zgartirish, uzatish va undan foydalanish jarayonlarida odamni ishtirok etishdan ozod qilish maqsadida, o'zini-o'zi boshqaradigan texnik vositalardan va matematik usullardan foydalaniladigan yo'nalishlaridan biri.

Avtomatlashtirish obyekti

ing. - object of automation

rus. - объект автоматизации

Davlat boshqaruvining ma'muriy jarayonlari va ular bilan bog'liq bo'lgan mansabdor shaxslar, tashkiliy tuzilmalar, normativ-huquqiy hujjatlar, texnik va texnologik ta'minot.

Avtonom ajratilgan boshqaruv kanali

ing. - stand-alone dedicated control channel (SDCCH)

rus. - автономный выделенный канал управления

Tayanch va mobil stansiyalar o'rtasidagi ikki tomonlama aloqa kanali. Undan odatda, maxsus tarmoq xizmatlarining axborotini uzatishda foydalaniladi.

Avtonom rejim

ing. - off-line mode

rus. - автономный режим

Qurilmaning ishlash rejimi, bunda qurilma kompyuter tomonidan boshqarilmaydi. Profilaktika ishlarini olib borish, xizmat ko'rsatish, sozlash yoki ta'mirlash uchun, shuningdek, foydalanuvchi bilan uzluksiz aloqa ta'minlanmasdan, Internetda axborot izlash uchun xizmat qiladi. Ko'pincha, «off-line» (tizimdan tashqari) rejim deb ataladi.

Avtonom rejimdagi chaqiruvlarni qayta manzillash

ing. - autonomous call forwarding

rus. - переадресация вызовов в автономном режиме

Chaqiruv avtonom (tizimda ro'yxatdan o'tmagan) telefonga jo'natilganda, u qayta manzillash raqami asosida oldindan belgilangan raqam (masalan, tovushli pochta qutisi yoki avtomatik peyjing markazi) ga qayta manzillanadi.

Avtonom sinxronlash

ing. - autonomous synchronization

rus. - автономная синхронизация

Televizion signal manbaiga tashqi ta'sir bo'lmagandagi televizion sinxronlash.

Avtonom tizim

ing. - autonomous system

rus. - автономная система

Odam nazoratisiz va uning ishtirokisiz ham ishlay oladigan tizim.

Izoh - Tizimda datchiklar va bu datchiklarning ko'rsatgichlari asosida qaror qabul qiluvchi mexanizmlar o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Avtonom tizim chegaraviy marshrutizatori

ing. - autonomous system boundary router (ASBR)

rus. - пограничный маршрутизатор автономной системы

OSPF avtonom tizimi va OSPF ga kirmaydigan tarmoq o'rtasidagi marshrutizator. Ularda ham OSPF protokoli, ham marshrutlashning har qanday boshqa protokoli, masalan, RJP bajariladi. ASBR marshrutizatorlari OSPF ning o'tish sohasida joylashishi kerak.

Avtoring

ing. - authoring

rus. - авторинг

Multimedia mahsulotlarni, hujjatlarni boshqarish tizimida hujjatlarni, veb-sahifalarni yaratish mualliflik jarayoni yoki HTML-matnlarni tayyorlash.

Avtotanlov orqali yoyish (tarqoqlash)

ing. - selection diversity

rus. - разнесение с автовыбором

Turli yo'nalishlar orqali qabul qilish nuqtasiga kelib tushgan bir nechta signaldan, ayni vaqtda, eng katta quvvatga ega bo'lganini tanlab olib, yoyish usuli. Qabul qilishning bunday sxemasida quvvat darajasi qabulning har bir tarmog'ida o'lchanadi, demodulyatorga esa faqat bitta kanal qabul qilgichi ulanadi. Kanallarni avtotanlov orqali qayta ulash axborotni yo'qotmasdan sodir bo'ladi.

Avtouzatish mexanizmi

ing. - feeder

rus. - механизм автоподачи

Skaner, printer yoki nusxa olish apparatida varaqlarni avtomatik uzatish mexanizmi.

Axborot-huquqiy munosabat

ing. - information legal relation

rus. - информационное правоотношение

Axborot-huquqiy me'yor bilan tartibga solingan axborot ijtimoiy munosabat. Munosabat tomonlari axborot-huquqiy me'yor bilan belgilangan va kafolatlangan o'zaro huquq va majburiyat tashuvchilari sifatida qatnashadi.

Axborot-huquqiy munosabatlar matritsasi

ing. - matrix of information legal relations

rus. - матрица информационных правоотношений

Qatorlari predmet sohaslarida axborot jarayonlarini belgilovchi jadval: axborot, axborot resurslari, axborot mahsulotlari, axborot xiz-

matlarini izlash, olish va iste'mol qilish; ularni ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; axborot tizimlari, ularning tarmoqlari, ularni ta'minlash vositalarini yaratish va qo'llash; axborot xavfsizligi mexanizmlarini yaratish va qo'llash. Matritsa ustunlari huquq toifalarini ko'rsatadi: huquq, huquqning cheklanishi, majburiyat, mas'uliyat. Qator va ustunlar kesishgan joyda ushbu huquq toifalarida axborot jarayonlarida paydo bo'ladigan axborot munosabatlari ro'yxatlari keltiriladi.

Axborot-huquqiy normalar

ing. - information legal norms

rus. - информационно-правовые нормы

Axborot sohasida axborot huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish va axborotning aylanishida axborot jarayonlarining amalga oshirilishi tufayli paydo bo'luvchi ijtimoiy munosabatlarning alohida guruhlarini tartibga soladi.

Axborot-huquqiy tizimi

ing. - information legal system

rus. - информационно-правовая система

Kompyuterga o'rnatiladigan va maxsus dasturiy majmua yordamida turli izlash vazifalarini (aktlarni hujjat nomi, qabul qilingan sanasi, me'yoriy akt turi va h.k. bo'yicha izlash) bajarishi mumkin bo'lgan huquqiy axborotning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki. Zamonaviy axborot-huquqiy tizimlari odatda dasturiy qobiq va unga qo'shiladigan ma'lumotlar bazalaridan (masalan, huquq sohalari bo'yicha) iborat bo'ladi.

Axborot yondashuvi

ing. - information approach

rus. - информационный подход

Ilmiy bilishning tag-zaminli uslubi. Uning ma'nosi shundaki, tabiat va jamiyatdagi xohlagan obyekt, jarayon yoki hodisani o'rganayotganda birinchi navbatda ularning faoliyati va rivojlanishini belgilovchi eng namunali axborot xususiyatlari aniqlanib tahlil qilinadi.

Axborot

ing. - information

rus. - информация

1. Axborotni qayta ishlash tizimiga kiritilgan yoki turli tashuvchilarda turli

shakllarda taqdim etishda uning natijasi bo'lib hisoblanadigan va ushbu predmet sohasining boshqaruv obyekti jarayonida qabul qilinadigan qarorlarni optimallashtirish uchun (zarur bo'lgan) ishlatiladigan faktlar, voqealar, jarayonlar va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar.

2. Taqdim etish shaklidan qat'i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Axborot almashinish uchun

Amerika standart kodi

ing. - American standard code for information interchange (ASCII)

rus. - американский стандартный код для обмена информацией

Lotin alfaviti harflarini, sonlarni, tinish belgilarini mashinada taqdim etish uchun mo'ljallangan, 128 ta koddan va har biriga 7-bitli aniq ikkilik son to'g'ri keladigan maxsus simvoldardan iborat to'plam.

Axborot almashinuv liniyalari egasi

ing. - interexchange carrier

rus. - владелец линий

информационного обмена

Kanallar komutatsiyalanadigan olis aloqa liniyalari, paketlar komutatsiyalanadigan liniyalar tegishli bo'lgan telekommunikatsiya kompaniyasi yoki ijaradagi aloqa liniyalari.

Axborot almashinuvi va risk yuzasidan maslahatlashuvlar

ing. - risk communication and consultation

rus. - обмен информацией и консультации

относительно риска

Axborot bilan ta'minlash, uni taqsimlash yoki olish uchun va risklarni boshqarishga taalluqli masalalar bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan muloqotda ishtirok etish uchun tashkilotda bajariladigan uzluksiz iterativ jarayonlar.

Izohlar

1. Axborot risklarning mavjudligi, tabiati, shakli, ehtimolligi, ahamiyati baholanishi, qabul qilinishi va qayta ishlashiga tegishli bo'lishi mumkin.

2. Maslahatlashuvlar ushbu muammo bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar yoki bu muammo bo'yicha ishlarni belgilab olishdan avval, tashkilot bilan manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvining ikki tomonlama jarayonidir.

Maslahatlashuv – bu:

- majburlash asosida emas, balki ishonitirish asosida qaror qabul qilishga yordam beradigan jarayon;

- qarorni qabul qilishdan oldin keladigan, ammo u bilan birlashmaydigan jarayon.

(Axborot) almashtiriladigan mashina tashuvchisi
ing. - removable machine medium
(of information)

rus. - сменный машинный носитель (информации)
Axborotni o'qish/yozish texnik qurilmalaridan alohida saqlash, shu turdagi boshqa tashuvchiga o'zgartirish, turli axborot tizimlarida foydalanish mumkin bo'lgan axborot mashina tashuvchisi.

Axborot balansi
ing. - information balance
rus. - баланс информационный

Axborotning miqdor va sifat turlarining muayyan muvozanati. U axborot makonining uyg'unlik holatini belgilaydi.

Axborot bazasi
ing. - infobase
rus. - информационная база
Bitta faylda tizimlashtirilmagan, siqilgan matnli ma'lumotlarni saqlash texnologiyasi.

Axborot birligi
ing. - information item
rus. - информационная единица
Yagona butun sifatida ko'riladigan fayl yoki fayllar to'plami.

Axborot biznesi
ing. - information business
rus. - информационный бизнес
Jamiyatning ish faoliyatidagi yangi yo'nalish. U axborot bozorida savdo va oraliq vazifalarini amalga oshirish, shuningdek jamiyatni ommaviy axborotlashtirish vositalarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijaraga berish, sug'urta qilish, moliyaviy va ish kuchi bilan ta'minlashlarni tashkil qilish bilan bog'liq.

Axborot bozori
ing. - information market
rus. - информационный рынок

1. Jamiyatda iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlar tizimi. U axborot texnikasi vositalari, axborot texnologiyalari, axborot mahsulotlari savdosini hamda foydalanuvchilarga tijorat asosida axborot xizmatlari ko'rsatishni ta'minlaydi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot mahsulotlari va xizmatlari bozori.

Axborot bozori makoni
ing. - market space
rus. - рыночное информационное пространство
Axborot texnologiyalariga asoslangan va ular tomonidan boshqariladigan bozorlar.

Axborot egasi
ing. - information owner
rus. - собственник информации
1. Axborotga egalik qilish va undan foydalanishni, qonun bilan va/yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar doirasida vakolat va farmoyishlarni amalga oshiruvchi subyekt.
2. Axborot munosabatlarining, axborot egasi bilan shartnoma bo'yicha axborot resurslariga egalik qilish, farmoyish berish va undan foydalanish huquqiga ega, subyekt.

Axborot elektron davlat xizmati
ing. - information e-Government service
rus. - информационная электронная государственная услуга
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida fuqarolarga axborotning (masalan, ish vaqti yoki xizmatni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati to'g'risidagi) va hujjatlarning (masalan, rasmiy blanklarning) taqdim etilishi.

Axborot hamkorlik
ing. - information interaction
rus. - информационное взаимодействие
Maqsadi va asosiy mazmuni, ikki yoki undan ortiq subyektning, hech bo'lmaganda ulardan birida mavjud axborotni o'zgartirishdan iborat bo'lgan hamkorlik jarayoni.

Axborot huquqi
ing. - information law
rus. - информационное право
Axborot (axborot resurslari)ni yaratish, undan foydalanish, joylashtirish va himoya qilish sohasida jamiyat munosabatlarini tartibga soladigan huquqiy normalar kompleksi. «Axborot huquqi» tushunchasi «kompyuter huquqi» tushunchasidan bir muncha kengroq tushuncha, chunki tartibga

solish sohasida «axborot huquqi» tushunchasida nafaqat elektron shakldagi, balki istalgan ko'rinishdagi axborot mavjud bo'ladi.

Axborot huquqi prinsiplari

ing. - information law principles

rus. - принципы информационного права

Axborot sohasida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hayotning obyektiv qonuniyatlarini yuridik jihatdan tasdiqlovchi asosiy dastlabki prinsiplar. Axborot huquqining quyidagi asosiy prinsiplarini ajratish mumkin:

Axborot munosabatlarning axborot huquqining murakkab sohasini tashkil qiluvchi munosabatlar ekanligi prinsipi;

- Axborot mulkchiligi prinsipi;

- Axborotning yaratuvchisi va

foydalanuvchisidan ajratilmasligi prinsipi (subyektni olingan bilimlardan ajratib bo'lmasligi);

- Axborot mulkchiligi munosabatlarini

yaxlit rostlash prinsipi (axborotni o'zini ekanligini tan olish ma'nosida);

- Investitsiya mulkchiligi prinsipi;

- Axborot ashyosi prinsipi;

- Namunaviy axborot-huquqiy normalar prinsipi.

Axborot infratuzilmasi

ing. - information infrastructure

rus. - информационная инфраструктура

1. Axborot qayta ishlanishi, boshqa axborot xizmatlari taqdim etilishini, axborot tizimlariga servis xizmat ko'rsatilishini, xodimlar va foydalanuvchilarni o'qitishni, maslahat va metodik ishini hamda boshqa yordamchi faoliyatni amalga oshiradigan ilmiy va ishlab chiqarish tuzilmalarining jami.

2. Axborotni qayta ishlash va tahlil qilish markazlari, axborot almashinish va telekommunikatsiyalar kanallari, telekommunikatsiya liniyalari, axborotni muhofaza qilish tizimlari hamda vositalarining jami.

Axborot infratuzilmasi

standartlari komissiyasi

ing. - information infrastructure

standards panel

rus. - комиссия стандартов

информационной инфраструктуры

Vazifasi axborot tuzilmasiga doir standartlarni ishlab chiqishdan iborat komissiya.

1994-yilda AQSh da tuzilgan. Ma'lumotlar uzatish tarmoqlari konsepsiyasini amalga oshirish uchun zarur 40 ta spetsifikatsiyani o'z ichiga oladigan ro'yxatni e'lon qilgan. Komissiyada ko'rib chiqiladigan standartlar uchta – ma'lumotlar xavfsizligi; axborot tarmoqlarida mualliflik huquqini himoya qilish; tarmoqlarning, shu jumladan turli xil tarmoqlarning birgalikda ishlashini tashkil qilish sohasini qamrab oladi.

Axborot inqilobi

ing. - information revolution

rus. - информационная революция

1. Axborotning asboby asosi, uni uzatish va saqlash usullari hamda xalqning aktiv qismi uchun foydalanish mumkin bo'lgan axborot hajmining keskin o'zgarishi.

2. XX asming oxirgi choragida yuz bergan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga ko'rsatgan inqilobiy ta'sirini ifodalovchi istiora. Ushbu hodisa axborot sohasidagi undan avvalgi inqilobiy ixtirolar (kitoblarni bosish, telefoniya, radio aloqasi, shaxsiy kompyuter) ta'sirlarini birlashtiradi, chunki axborotni uzatishda xohlagan masofalarni o'tish va shu tufayli insoniyatning aqliy qobiliyatlarini va ma'naviy kuchlarining birlashishi uchun texnologik asos yaratadi.

Axborot iqtisodiyoti

ing. - information economy

rus. - информационная экономика

1. Axborot iqtisodiyoti axborot mahsulotlari va ijodiy mehnatning ahamiyati ustunligi bilan tavsiflanadigan, sivilizatsiya rivojlanishining zamonaviy bosqichi.

2. Axborot iqtisodiyoti – bu, axborot jamiyatining iqtisodiy nazariyasidir.

Axborot iste'molchisi

ing. - information consumer

rus. - потребитель информации

O'z ehtiyojlarini qondirish (bilimlarni oshirish, ta'lim olish, qarorlarni qabul qilish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs yoki shaxslar.

Axborot izlash

ing. - information search

rus. - поиск информации

Axborot massivida oldindan belgilangan

izlash sharti (so'rovi) talabini qondiruvchi yozuvlar borligini aniqlash jarayoni va agar ular mavjud bo'lsa, bunday yozuvlar joylashishini aniqlash jarayoni.

Axborot izlash tizimi

ing. - information retrieval system

rus. - информационно-поисковая система
Axborot massivlarida, ma'lumotlar bazalarida, axborot resurslarining butun majmuida hujjatlar izlab topish uchun mo'ljallangan tizim.

Axborot jamiyati

ing. - information society

rus. - информационное общество
Zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanishidagi, jamiyat hayotida bilimlar va axborotning ahamiyati oshib borishi bilan, ichki yalpi mahsulotda axborot kommunikatsiyalarining ulushi ortishi bilan, odamlarning samarali axborot o'zaro hamkorligini, ularning axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydigan global axborot makoni yaratilishi bilan tavsiflanadigan bosqich.

Axborot jamiyatining rivojlanish

ko'rsatgichlari

ing. - information society development indicators

rus. - индикаторы развития информационного общества

Axborot jamiyatining axborot, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha rivojlanishini belgilovchi ko'rsatgichlar ro'yxati. Har bir mamlakatda axborot jamiyati rivojlanishi darajasini miqdoriy baholash uchun yillik «axborot jamiyati indeksi» (AJI) ishlab chiqilgan. Ushbu indeks quyidagi to'rtta guruhga bo'lingan 23 ko'rsatgichga asoslanadi:
- kompyuter infratuzilmasi (7 ko'rsatgich - muayyan mamlakatda odam boshiga shaxsiy kompyuterlar soni, bitta oilaga uy kompyuterlarining soni va h.k.);
- axborot infratuzilmasi (7 ko'rsatgich - bitta oilaga to'g'ri kelgan telefon liniyalarining soni, odam boshiga televizorlar, fakslar, mobil aloqa qurilmalar soni, kabel televideniyesi abonentlarining soni va h.k.);
- Internet infratuzilmasi (4 ko'rsatgich - In-

temetdan maishiy, biznes va ta'lim maqsadlarida foydalanuvchilar soni, elektron savdo ko'lamini);

ijtimoiy infratuzilma (5 ko'rsatgich - o'rta maktab va oliy o'quv yurtlari o'quvchilari soni, matbuot o'quvchilari soni, matbuot erkinligi, fuqarolik huquqlarining ta'minlanishi).

Axborot jarayonlari

ing. - information processes

rus. - информационные процессы

Axborotni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, izlash va tarqatish jarayonlari.

Axborot jinoyati

ing. - information criminal

rus. - информационный криминал

G'arazli yoki bezorilik maqsadlarida amalga oshiriladigan, axborot tizimi va tarmoqlarida axborotni o'g'irlash yoki buzishga qaratilgan atayin qilingan jinoyatkorona harakatlar.

Axborot jinoyatchiligi

ing. - information criminality

rus. - информационная преступность

Qonunda ko'zda tutilgan shaxs, tashkilotlar yoki davlat huquqlarini buzuvchi g'ayri qonuniy harakatlar. Bunda jamiyatning axborot sohasidagi qonuniga zid o'laroq, shaxs, tashkilot va davlatga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazilishi nazarda tutilgan.

Axborot kioski (infokiosk)

ing. - information kiosk (infokiosk)

rus. - информационный киоск (инфокiosk)
«Bir darcha» prinsipi bo'yicha «Elektron hukumat» tizimining elektron davlat xizmatlaridan aholining foydalanishi uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan apparatdasturiy kompleks.

Axborot kollapsi

ing. - information collapse

rus. - информационный коллапс

Tarmoqdagi axborot makonining barqarorligi va normal faoliyatiga xavf tug'dirishi mumkinligi taxmin qilingan holati. Aloqa kanallari o'tkazish qobiliyatining keskin pasayishi bilan tavsiflanadi. Mavjud texnologiyalar ko'payib borayotgan trafik hajmlarini uzata olmaydigan holatda paydo bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi

ing. - information and communication infrastructure

rus. - информационно-коммуникационная инфраструктура

Hududiy taqsimlangan davlat va korporativ axborot tizimlari, aloqaliniyalari, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va kanallari, axborot oqimlarini boshqarish va kommunikasiya vositalari, shuningdek, tashkiliy tuzilmalar, huquqiy va normativ mexanizmlar majmui.

Axborot-kommunikatsiya**texnologiyalari, AKT**

ing. - information and communication technology (ICT)

rus. - информационно-коммуникационные технологии, ИКТ

Axborotdan foydalanuvchilarning manfaati yo'lida axborot to'plash, uni qayta ishlash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va undan foydalanish maqsadida birlashtirilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy texnik vositalar jami.

Axborot-kommunikatsiya**texnologiyalari xavfsizligi siyosati**

ing. - ICT security policy

rus. - политика безопасности

информационно-коммуникационных технологий

Tashkilot va uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doirasida aktivlarni, shu jumladan, kritik axborotni boshqarish, muhofaza qilish va taqsimlashni belgilovchi qoidalar, ko'rsatmalar, amaliyot.

Axborot-kommunikatsiya tizimi**axborot xavfsizligiga tahdid**

ing. - treat towards infocommunication system information security

rus. - угроза

информационной безопасности инфокоммуникационной системы

Tarmoq resurslarini buzish, buzib ko'rsatish yoki ulardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishga olib kelishi mumkin bo'lgan harakat yoki hodisa.

Axborot-kommunikatsiya xizmati

ing. - information-communication service

rus. - инфокоммуникационная услуга

Bog'lanishning ham kirish uchida, ham chiqish uchida hisoblash texnikasi vositalaridan

foydalangan holda, rasmiy talabga ko'ra, axborotni taqdim etish yoki saqlash, avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash taxmin qilinadigan telekommunikatsiyalar xizmati.

Axborot kommunikatsiyalari

ing. - information communications

rus. - информационные коммуникации

Zamonaviy axborot, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini uzviy bog'laydigan, ularning tizimlari hamda vositalarini amalga oshiruvchi, tashkilotlar hamda aholiga axborot va kommunikatsiya mahsulotlari, xizmatlarini taqdim etish uchun mo'ljallangan kompleks.

Axborot mahsulotlari (mahsuloti)

ing. - information products

rus. - информационные продукты (продукция)

1. Barcha turdagi axborot resurslari, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklari, axborotlashtirish jarayonida ishlab chiqarilgan boshqa tovarlar.

2. Foydalanuvchilarning ehtiyojlariga muvofiq tayyorlangan va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan yoki qo'llaniladigan hujjatlashtirilgan axborot.

Axborot makoni

ing. - information space

rus. - информационное пространство

Insonning semantik faoliyati natijalarining majmui. Ma'lumotlar bazalari va banklari, ularni ta'minlash va foydalanish texnologiyalari, umumiy prinsiplari asosida ishlaydigan va tashkilotlar hamda fuqarolarning axborot hamkorligini ta'minlaydigan, shuningdek, ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan axborot-telekommunikatsiya tizimlarining majmui ham axborot makoni hisoblanishi mumkin.

Izoh - Axborot resurslari, axborot hamkorlik vositalari, axborot infratuzilmasi axborot makonining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Axborot manbai

ing. - source of information

rus. - источник информации

Axborot yuzaga kelishini identifikatsiyalovchi obyekt. Foydalanuvchi erkin olishi mumkin bo'lgan va odatda ba'zi muammoli aniqlikka ega bo'lgan u yoki bu axborot resurslari turkumi subto'plamining yagona elementi.

Axborot mazmuni

ing. - information content

rus. - содержание информации

Ma'lum obyekt yoki hodisa to'g'risida jami elementlar, tomonlar, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi aniq ma'lumotlar.

Axborot (ma'lumotlar)

uzatilishini blokirovkalash

ing. - data transmission blocking

rus. - блокирование передачи

информации (данных)

Axborot uzatilishini to'xtatishda yoki vaqtincha ushlab turishda ifodalanadigan, (bu vaqtda u foydalanuvchi uchun o'z qimmatini yo'qotadi) axborot xavfsizligi sohasidagi buzilishlardan biri.

Axborot (ma'lumotlar) xavfsizligi

ing. - security of information (data)

rus. - безопасность информации (данных)

1. Axborot (ma'lumotlar)ning axborot egasiga zarar yetkazuvchi tasodifiy yoki qasddan qilinadigan ta'sirlar (tahdidlar)ga qarshi tura olish integral xususiyati.

Izoh - Axborot (ma'lumotlar) xavfsizligining xarakteristikalari bo'lib, konfidensiallik, yaxlitlik va foydalana olishlik, shuningdek, rad etolmaslik, hisob berishlik, haqiqiylik va ishonchlilik hisoblanadi.

2. Hisoblash texnikasi yoki avtomatlashtirilgan tizim vositalarida qayta ishlanadigan axborot (ma'lumotlar)ning ichki va tashqi tahdidlardan muhofazalanganlik holati.

Axborot (ma'lumotlar)ni

muhofaza qilish tizimi

ing. - information (data) protection system

rus. - система защиты информации

(данных)

1. Apparat, dasturiy va kriptografik vositalar, shuningdek, axborot (ma'lumotlar)ning tasodifiy yoki qasddan buzishdan, buzib ko'rsatishdan yoki foydalanishdan muhofaza qilinishini ta'minlovchi tadbirlar kompleksi.

2. Huquqiy (qonuniy) va ma'muriy xarakterdagi maxsus chora-tadbirlar, tashkiliy tadbirlar, jismoniy va texnik (dasturiy va apparat) muhofaza vositalari, shuningdek, avtomatlashtirilgan tizim yoki unda aylanadigan axborotning xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus personalning majmui (kompleksi).

Axborot (ma'lumotlar)ni qayta ishlash

ing. - information (data) processing

rus. - обработка информации (данных)

Axborotni, foydalanuvchilar foydalanishi uchun qulay bo'lgan ma'lumotlar ko'rinishida taqdim etish maqsadida, saqlash, izlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash bilan bog'liq operatsiyalarning majmui.

Axborot miqdorining o'lchov birligi

ing. - unit of information quantity

rus. - единица количества информации

Ikkilik sanoq tizimida, axborotning eng kichik birligi bo'lib bit hisoblanadi. Bir bit bu bitta «1» yoki bitta «0» degani, signal impulsi borligi yo yo'qligi bilan aks etadi. Bitlarning butun deb qaraladigan tutash ketma-ketligi bayt deb ataladi. Bayt sakkiz bitga teng deb qabul qilinadi.

Axborot muhiti

ing. - information environment

rus. - информационная среда

Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish texnik va dasturiy vositalarining jami, shuningdek, axborotlashtirish jarayonlarini amalga oshirishning siyosiy, iqtisodiy va maddiy sharoitlari.

Axborot muhofazasi sohasidagi

davlat siyosati

ing. - state information protection policy

rus. - государственная политика в области защиты информации

Axborot muhofazasi sohasidagi davlat siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- axborot muhofazasi sohasida faoliyatini davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini yaratish;
- axborot muhofazasi sohasidagi qonunchilikni rivojlantirish;
- davlat axborot resurslarini muhofazalash;
- axborot muhofazasi sohasida zamonaviy texnologiyalar va xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- davlat va jamiyat faoliyati uchun o'ta muhim bo'lgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari muhofazasini tashkil qilish;
- axborot muhofazasiga tegishli bo'lgan dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish.

Axborot muhofazasini ta'minlash prinsiplari

ing. - information security ensuring principles

rus. - принципы обеспечения информационной безопасности

- Shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilish;

- qonuniylik;

- axborot xavfsizligining barcha subyektlari harakatlarning kelishilganligi;

- axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralarining bir yaxlitligi;

- axborot xavfsizligi subyektlarining axborot sohasidagi qonunbuzarliklar uchun javobgarligi;

- xalqaro axborot xavfsizligi tizimlari bilan birlashish;

- qo'riqlanayotgan axborotning muhofaza qilinganligi;

- axborot xavfsizligini ta'minlash choralarining axborot sohasidagi noqonuniy harakatlarning (harakatsizlik) tufayli yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'lamiga muvofiqligi.

Axborot munosabatlari subyektini

ing. - information relations subject

rus. - субъект информационных отношений

Axborot resursiga nisbatan muayyan huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Izoh - Vakolatlar darajasiga bog'liq holda, axborot munosabatlari subyektini axborot manbai, mulkdori, egasi yoki axborotdan foydalanuvchi bo'lishi mumkin.

Axborot munosabatlari subyektining zaifligi

ing. - vulnerability of information relapse

rus. - уязвимость субъекта

информационных отношений

Subyektning, uning uchun kritik bo'lgan axborotga, uni tashuvchilarga va qayta ishlash jarayonlariga ta'sir etish vositasida, hayotiy muhim manfaatlariga zarar yetkazilishiga potensial yo'liqishi.

Axborot munosabatlari subyektlarining manfaatlariga tahdid

ing. - treat towards the interests of information relapses subjects

rus. - угроза интересам субъектов информационных отношений

Axborotga va avtomatlashtirilgan tizimning

boshqa komponentlariga ta'sir etish orqali, berilgan subyektlarning manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan potensial voqea, harakat, jarayon yoki hodisa.

Axborot munosabatlari subyektlarining xavfsizligi

ing. - information relation subjects security

rus. - безопасность субъектов

информационных отношений

Axborot munosabatlari subyektlarining, ularga axborot va/yoki uni qayta ishlash va uzatish vositalariga ta'sir etish orqali moddiy, ma'naviy yoki boshqa zarar yetkazilishdan muhofaza qilinganligi.

Axborot nazariyasi

ing. - information theory

rus. - теория информации

Matematikaning ehtimollik nuqtai nazaridan turib, axborot masalalarini, optimal kodlash masalalarini ko'rib chiqadigan bo'limi; real muhitlarda axborotni uzatish imkoniyatini o'rganadi.

Axborot obyektini

ing. - information object

rus. - информационный объект

Muayyan tarzda ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradigan usullar va xossalar (atributlar)ga ega bo'lgan dasturiy kod va ma'lumotlar jami.

Axborot obyektlari muhofaza qilinganligini sertifikatlash tizimi

ing. - information security

certification system

rus. - система сертификации

информационных объектов на защищенность

Axborot obyektlarining muhofaza qilinganligini sertifikatlash ulardan foydalanish sharoitlarining qayta ishlamayotgan axborotning huquqiy maromiga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Davlat mulki bo'lmish maxfiy axborot qayta ishlanadigan axborot obyektlarining muhofaza qilinganligini sertifikatsiyalash ularni ishga tushirishdan oldin shartli ravishda o'tkaziladi. Muhofaza qilinganlikka sertifikatlash tarkibi tekshirilayotgan axborot obyektidan foydalanilayotgan tegishli davlat organi, tashkilot, muassasa rahbari tomonidan

tasdiqlanayotgan hay'atlar tomonidan amalga oshiriladi va axborot muhofazasi bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishib olinadi. Davlat mulkchiligidagi bo'lgan axborotga ishlash bermaydigan axborot obyektlarini sertifikatlash uchun axborot muhofazasi bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan bunday faoliyat uchun litsenziya berilgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar jalb qilinishi mumkin.

Axborot ombori

ing. - data warehouse

rus. - информационное хранилище

Juda katta bo'lgan predmetga yo'naltirilgan informatsion korporativ ma'lumotlar bazasi. U alohida dasturlangan va hisobot tayyorlashga, biznes jarayonlarni tahlil qilishga va tashkilotlarda qaror qabul qilishga qaratilgan. Axborot omborida mijoz-server arxi-teksturi, relyatsion MBBT qo'llaniladi hamda u yechimga kelish utilitaga asoslangan. Axborot omboriga kelayotgan ma'lumotlar faqat o'qish uchun ochiq bo'ladi. Sanoat OLTP-tizimdan kelgan ma'lumotlar omborga shunday tarzda nusxa qilinadiki, unda hisobotlarni yaratish va OLAP-tahlili sanoat tizimining resurslaridan foydalanmaydi va barqarorligini buzmaydi. Ma'lumotlar omborga muayyan davriylikda keladi, shuning uchun ularning dolzarbligini OLTP-tizimidan bir oz kechikadi.

Axborot oqimi

ing. - information flow

rus. - информационный поток

Makon va zamonda uzatiladigan axborot.

Axborot oqimini boshqarish

ing. - information flow control

rus. - управление

информационным потоком

1. Axborot xavfsizlikning yuqori darajasidan quyi darajasiga (Bella-Lapadula modeli qoidalariga muvofiq) uzatilishi mumkin emasligini tasdiqlovchi axborot oqimini boshqarish protseduralari.

2. Axborot yashirin kanallarda bo'ylab, ya'ni xavfsizlik siyosatini cheklab o'tib, uzatilishi mumkin emasligini tasdiqlovchi boshqarish protseduralari.

Axborot-psixologik xavfsizlik

ing. - information psychological weapon

rus. - информационно-психологическая безопасность

Fuqarolar, ularning alohida guruhlari va ijtimoiy qatlamlari, shuningdek umuman olganda aholini salbiy axborot-psixologik ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holati.

Axborot-qidiruv xarakteristikasi

ing. - information-search(ing) parameters

rus. - информационно-поисковая характеристика

Elektron hujjatni identifikatsiya qilish, hisobga olish va arxivda saqlash davrida foydalalanishga imkon beradigan rekvizitlar majmui.

Axborot quroli

ing. - information weapons

rus. - информационное оружие

1. Axborot infratuzilmasiga qarshi qaratilgan jami ixtisoslashtirilgan (fizik, axborot, dasturiy, radioelektron) uslublar va vositalar. Ular infratuzilmaning butunlay yoki uning alohida elementlarining vazifalari va xizmatlarini vaqtinchalik yoki tiklab bo'lmaz darajada ishdan chiqarish uchun mo'ljallangan.

2. Axborot urushida dushmanga axborot ta'sirlarini o'tkazishni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita va uslublar.

3. Zarar yetkazish kuchi mamlakatning axborot sohasi obyektlari va uning qurolli kuchlarini vayron qilish, bostirish, (muhofazasini) yengishga asoslangan maxsus qurol.

Axborot resursi

ing. - information resource

rus. - информационный ресурс

Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e'lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot.

Axborot resursi manbai

ing. - information resource source

rus. - источник информационного ресурса

Axborotning o'tishini aniqlaydi va ma'lum ma'noda axborot mazmunini cheklaydigan qamrov parametrining qismi sifatida ishtirok etadi.

Axborot resursi sifati

ing. - quality of information resource

rus. - качество информационного ресурса
Foydalanuvchining oldida turgan maqsadlarga erishish uchun ularning o'zaro aloqasi va obyektlar to'g'risidagi aniq axborotning yaroqlilik darajasini aks ettiradigan xususiyatlar majmuini belgilaydi.

Axborot resursidan foydalana olish

ing. - access to information resource

rus. - доступ к информационному ресурсу
Subyektning ma'lum bir axborot resursi bilan manipulyatsiya qilish (foydalanish, boshqarish, xarakteristikalarini o'zgartirish va sh.k.) imkoniyatiga ega bo'lishi.

Axborot resursiga ko'rsatiladigan

tashqi ta'sir

ing. - exposure on information resources

rus. - внешнее воздействие на информационный ресурс
Tabiiy ofatlar, kuchli elektromagnit nurlanishlar yoki qo'poruvchilik harakatlari keltirib chiqaradigan, axborotning yaxlitligi buzilishiga yoki uning blokirovka qilinishiga olib keladigan xavf omili.

Axborot resursini qamrab olish

ing. - coverage information resource

rus. - охват информационного ресурса
Mazmuni belgilaydi, cheklaydi va tasvirlaydi. Ma'lum ma'noda qamrab olishni «mazmun» parametrining qismi deb olish mumkin. U mazmunga muayyan ramkalar beradi.

Axborot resursini qamrab olish hajmi

ing. - of information resource

rus. - объем охвата информационного ресурса
Foydalanuvchi uchun foydalana olish mumkin bo'lgan muammo bo'yicha axborotlarning umumiy soni.

Axborot resursini qamrab olish to'liqligi

ing. - coverage of information resource

rus. - полнота охвата информационного ресурса
Mavjud axborot muammosi bo'yicha va foydalanuvchi foydalanishi mumkin bo'lgan (ya'ni, foydalanuvchi olishi mumkin bo'lgan qism) axborot o'rtasidagi nisbat.

Axborot resursining dolzarbligi

ing. - timeliness of information resource

rus. - своевременность информационного ресурса
Axborotning qaror qabul qilish uchun foydali bo'lgan va qabul qilingan qaror (faoliyat) natijasiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan vaqt doirasida kelib tushishi.

Axborot resursining mazmuni

ing. - content of information resource

rus. - содержание информационного ресурса
Axborot resurslari qamrab oladigan (mavzu, g'oya, nazariya, metodika) muammoli sohani aniqlaydi. Muammoli sohaning chegaralari foydalanuvchi hal qiladigan vazifalarga bog'liq.

Axborot resurslari (axborot

tizimlari) foydalanuvchisi

ing. - the user of information resources (information systems)

rus. - пользователь информационных ресурсов (систем)

Qonunchilik bilan belgilangan tartibda yoki tomonlarning kelishuvi asosida axborot tizimlaridagi axborot resurslariga murojaat qiladigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Axborot resurslari

yoki axborot tizimlari egasi

ing. - the owner of information resources, information systems

rus. - владелец информационных ресурсов или информационных систем

Qonun bilan yoki axborot resurslari, axborot tizimlari mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida, axborot resurslari yoki axborot tizimlariga egalik qiladigan, ulardan foydalanadigan, ularni tasarruf etadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Axborot resurslarining mulkdori

ing. - proprietor of information resources or information systems

rus. - собственник информационных ресурсов

Axborot resurslari yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik va jismoniy shaxs.

Axborot sanoati

ing. - information industry

rus. - информационная индустрия

Eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (gazeta, jurnal va kitoblardan tortib kompyuter o'yinlari va tarmoqlarning axborot to'ldirilishi) asosida turli xil axborot mahsulot va xizmatlarini keng ko'lamda ishlab chiqarish. U muhim farq qiluvchi ikki qismdan iborat: axborot texnikasini (mashinalar va asbob-uskunalar) ishlab chiqarish va bevosita axborotni ishlab chiqarish.

Axborot sifati

ing. - information quality

rus. - качество информации

Obyektlar va ularning o'zaro bog'lanishlari to'g'risidagi muayyan axborotning yaroqliligini ifodalovchi xossalar majmui. U foydalanuvchi u yoki bu turdagi faoliyatni amalga oshirishi, o'z oldida turgan maqsadlarga erishishi uchun zarur. Eng umumiy parametrlar qatoriga ma'lumot ishonchligi, mavridiyli-gi, yangiligi, qimmatligi, foydaliligi, olish qulayligi kiradi.

Axborot sohasi

ing. - information sphere

rus. - информационная сфера

1. Axborotni yaratish, qayta ishlash va iste'mol qilish bilan bog'liq subyektlar faoliyati sohasi.

2. Kompyuterda saqlanadigan, lekin axborot tizimi ko'rinishida rasmiylashtirilmagan, qandaydir predmet sohasiga tegishli bo'lgan va bir yoki bir qancha foydalanuvchilar tomonidan foydalaniladigan bilimlar, faktlar va ma'lumotlarning majmui.

3. Axborotlashtirish jarayonini ta'minlaydigan texnik vositalar, shuningdek, tashkiliy, iqtisodiy, yuridik mexanizmlarning majmui.

Axborot tahdidi

ing. - information threat

rus. - информационная угроза

Axborot xususiyatlarining buzilish xavfini vujudga keltiruvchi omil yoki omillar majmui.

Axborot tahdidlari (texnik vositalar bilan amalga oshiriladigan) modeli

ing. - information treats model

(by technical facilities)

rus. - модель информационных угроз (техническими средствами)

Axborot chiqib ketadigan texnik kanallar-ning formallashtirilgan tavsifi, axborot didlarini amalga oshirishning usullari hamda vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Axborot tahlili

ing. - information analysis

rus. - информационный анализ

Hujjatlarni o'rganish, shakllantiriladigan foydalaniladigan axborot hajmini aniqlash, shuningdek, hujjat aylanish sxemasini axborot aloqalar modelini ishlab chiqish.

Axborot tarmog'i

ing. - information network

rus. - информационная сеть

Ma'lumotlar uzatish vositalari yordamida yagona tarmoqqa birlashtirilgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari jami.

Axborot tarmoqlari mulkdori

ing. - information network owner

rus. - собственник информационных сетей

Qonunga muvofiq tarzda axborot tarmoqlariga to'la egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishni amalga oshiruvchi davlat, ma'muriy-hududiy birlik, jismoniy yoki yuridik shaxs.

Axborot ta'minoti

ing. - dataware

rus. - информационное обеспечение

Loyiha yoki resursning axborot tashkil etuvchisi bo'lgan ma'lumotlar majmui.

Axborot tengsizligi

ing. - information divide

rus. - информационное неравенство

Eng yangi AKTdan foydalanishning turli imkoniyatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy differentsiatsiyaning yangi turi. U yana raqamli uzilish, axborotga oid yoki raqamli ixtilof deb ham ataladi.

Axborot texnologiyasi

ing. - information technology

rus. - информационная технология

Axborotni to'plash, saqlash, izlash, uni qayta ishlash va tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar.

Axborot texnologiyasi xavfsizligi

ing. - information technology security

rus. - безопасность

информационной технологии

Axborotni qayta ishlash texnologik jarayonining muhofazalanganligi.

Axborot tizimi

ing. - information system

rus. - информационная система

1. Muayyan tarzda o'zaro bog'langan va qandaydir yaxlitlikni hosil qiladigan (moddiy yoki ideal) elementlar majmui. Tizim sifatida voqelikning istalgan obyekti qarab chiqilishi mumkin. Har qanday tizim o'z mohiyatiga ko'ra, axborot hosiladir, chunki uning elementlarining o'zaro aloqasi axborotning bir joydan boshqa joyga uzatilishi vositasida amalga oshiriladi. Axborot tizimi, axborot bu tizimning kirish va chiqish mahsuloti bo'lishligi bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda texnologik jarayon axborot xarakterida bo'ladi, energetik va moddiy jarayonlar ta'minlovchi rolini bajaradi.

2. Tashkiliy jihatdan tartiblashtirilgan hujjatlar (hujjatlar to'plamlari), shu jumladan, axborot jarayonlarini amalga oshiradigan hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan foydalanilgan, axborot texnologiyalari majmui.

Axborot tizimi operatori

ing. - operator of the information system

rus. - оператор информационной системы

Axborot tizimidan foydalanish, shu jumladan, tizim tarkibida bo'lgan axborotni qayta ishlash bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Axborot tizimi xavfsizligi

ing. - information system security

rus. - безопасность

информационной системы

1. Axborot tizimining ruxsat etilmagan tarzda foydalanishga urinishlarga qarshi tura olish xususiyati.

2. Tizimning adekvat muhofazasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan operatsiyalar va chora-tadbirlar majmui, jumladan, apparat-dasturiy funksiyalar, xarakteristikalar, vositalar; operatsion va hisobga olish protseduralari, serverda, olishdagi kompyuterlar hamda telekommunikatsiyalar vositalaridan erkin foydalanishni boshqarish vositalari; ma'mu-

riy tadbirlar, fizik konstruksiyalar va qurilmalar; personalni va tizim kommunikatsiyalarini boshqarish.

Axborot tizimidan foydalanuvchi

ing. - information system user

rus. - пользователь

информационной системы

Axborot tizimining maqsad va vazifalari hamda foydalanishning o'rnatilgan tartibiga muvofiq, axborot tizimi funksiyalaridan yoki axborotdan bevosita foydalana oladigan jismoniy shaxs (axborotdan foydalanuvchi).

Axborot tizimlari interfeyslarining moslik bo'yicha talablar to'plamiga muvofiqligini sertifikatlash

ing. - certification of the compliance of information system interfaces with the compatibility

rus. - сертификация соответствия интерфейсов информационных систем своду требований по совместимости

Axborot tizimlarining moslashuv bo'yicha talablar to'plamiga mos kelishini tasdiqlash. Beriladigan sertifikatlar uchun javobgar bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Axborot tizimlari ishlashini ta'minlash vositalari

ing. - support of the information

rus. - средства обеспечения

функционирования

информационных систем

Axborot tizimlarini loyihalash, ishlashi uchun foydalaniladigan va ulardan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy, texnik, lingvistik, huquqiy va tashkiliy vositalar.

Axborot tizimlari mulkdori

ing. - information system owner

rus. - собственник

информационных систем

Axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. (qonun)

Axborot tizimlari va vositalarini muhofazalangan tarzda bajarish

ing. - protected version of information systems and tools

rus. - защищенное исполнение

информационных систем и средств

Axborot tizimlarini va vositalarini loyihalash va yasash. Bunda qayta ishlanayotgan axborotga xavfsizlik bo'yicha qo'yilgan talablar hisobga olinadi.

Axborot tizimlarini klonlash

ing. - cloning of information systems

rus. - клонирование

информационных систем

Replikant-dasturlar asosida yangi axborot tizimlarini qurish. Tizimlar axborot ifodalashning yagona standartlariga mos keladigan, kesishib o'tadigan ma'lumotlar bazasiga, umumiy izlovchi tizimga, o'xshash interfeyslarga ega bo'ladi.

Axborot tizimlarining mosligi

bo'yicha talablar to'plami

ing. - government interoperability framework

rus. - свод требований по совместимости информационных систем

Tashkiliy va texnik talablarni, shuningdek, davlat axborot tizimlariga kiritiladigan axborotni semantik tashkillashtirishga, ularni ishlab chiqish va ulardan foydalanishga bo'lgan talablarni ichiga oladigan normativ hujjat.

Axborot tizimlarining tashkiliy mosligi

ing. - organization interoperability of information systems

rus. - организационная совместимость информационных систем

Turli axborot tizimlari va ular tarkibiy qismlarining turli davlat vazifalarini bajarish doirasida birgalikda muvofiqlashtirilgan tarzda ishlash qobiliyati.

Axborot urushi

ing. - information war

rus. - информационная война

1. Dushman axboroti, axborotga asoslangan jarayonlar va axborot tizimlariga zarar yetkazish harakatlari. Ayni paytda o'z axboroti, axborotga asoslangan jarayonlari va axborot tizimlarini muhofaza qilish orqali axborot ustunligiga erishish ko'zlanadi.

2. Tizimlarning moddiy, harbiy, siyosiy yoki mafkuraviy sohada ma'lum yutuqqa erishishga qaratilgan bir-biriga ochiqdan-ochiq yoki yashirincha qarshi qaratilgan axborot hujumlari.

Axborot uzatilmaydigan kanal

ing. - dummy bearer

rus. - неинформационный канал

Tayanch va mobil stansiyalar o'rtasidagi sinxrosignallar va boshqa xizmatga axborot uzatiladigan kanal.

Axborot uzatishning ishonchligi

ing. - transmission accuracy

rus. - достоверность

передачи информации

Foydalaniluvchi (oxirgi) uskuna tomonidan berilgan axborotlar paketlarining, ma'lumotlar uzatish tarmog'i bo'yicha belgilangan nishning birinchi tomoni hisoblanadigan ushbu ulanishning ikkinchi tomoni hisoblanadigan foydalaniladigan (chetki) uskuna tomonidan qabul qilingan bir-biriga nisbatan bir xil ma'noli muvofiqlik.

Axborot uzatishning sinxron rejimi

ing. - synchronous transfer mode (STM)

rus. - синхронный режим

передачи информации

Har bir bog'lanish uchun axborotning qayd qilingan uzatish tezligini vaqti-vaqti bilan qdim etadigan axborotni uzatish rejimi.

Axborot virusi

ing. - content virus

rus. - информационный вирус

Viruslar toifasi bo'lib, ma'lumotlar niqobi ostida keladi va unga murojaat qilinganda aktivlashadi.

Axborot vositachisi

ing. - information intermediary

rus. - информационный посредник

1. Boshqa bir shaxs nomidan elektron hujjatlarini jo'natadigan, oladigan yoki saqlaydigan yoki hujjatlarga nisbatan xizmatlar ko'rsatadigan shaxs.

2. Shartnoma asosida elektron hujjatlarning aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Axborot xavfsizligi

ing. - information security

rus. - безопасность информации

1. Axborotning, nomaqbul (axborot munosabatlarining tegishli subyektlari uchun) oshkor qilinishdan (konfidsiialligining buzilishidan), axborotning buzilishi yoki foydalana

olish darajasini pasayishdan yoki yo'qotilishdan, shuningdek, noqonuniy ko'paytirilishdan muhofaza qilinganligi.

2. Axborotning, axborot resurslarining va axborot tizimlarining holati, unda talab etiladigan ehtimollikka ko'ra axborotni (ma'lumotlarni) tarqalib ketishidan, o'g'irlash, yo'qotish, ruxsat etilmagan tarzda o'chirish, buzish, o'zgartirish (qalbakilashtirish), nusxa ko'chirish, blokirovka qilish va sh.k. muhofaza qilish ta'minlanadi.

3. Axborotning yaxlitligini ta'minlovchi qurilmalar, jarayonlar, dasturlar, muhit va ma'lumotlarning muhofaza qilinganligi.

Axborot xavfsizligi administratori

ing. - information security officer

rus. - администратор информационной безопасности

Tashkilotning axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Axborot xavfsizligi hodisasi

ing. - information security event

rus. - событие информационной безопасности

Tizim, xizmat yoki tarmoq holatining xavfsizlik siyosatining buzilishi mumkinligini yoki himoya vositalarining buzilishini, yohud avval ma'lum bo'lmagan, xavfsizlik uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatni ko'rsatuvchi identifikatsiyalangan hodisa.

Axborot xavfsizligi insidenti

ing. - information security incident

rus. - инцидент информационной безопасности

Yagona hodisa yoki axborot xavfsizligining, biznes-operatsiyalarning obro'sizlanish va axborot xavfsizligiga tahdid ehtimoli katta bo'lgan qator nomaqbul yoki ko'zda tutilmagan hodisalari.

Axborot xavfsizligi

insidentlarini boshqarish

ing. - information security

incident management

rus. - управление инцидентами информационной безопасности

Axborot xavfsizligi insidentlariga taalluqli bo'lgan aniqlash, hisobga olish, baholash, munosabat bildirish va o'rganish jarayonlari.

Axborot xavfsizligi mezonlari

ing. - criteria of information security

rus. - критерий безопасности информации

Turli xavf-xatar faktorlari ta'siriga nisbatan axborot xavfsizligini tavsiflovchi mezon.

Axborot xavfsizligi obyekt

ing. - information security object

rus. - объект информационной безопасности

Axborot sohasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligi subyektlarining huquq va erkinliklari; axborot resurslari; axborot infrazuzilmasi.

Axborot xavfsizligi siyosati

ing. - information security policy

rus. - политика информационной безопасности

1. Muhofaza qilinayotgan axborotni qayta ishlashning huquqiy jihatlarini tartibga soluvchi jami qabul qilingan tashkiliy choralar. Muhofaza qilinayotgan axborotning aylanishi, uni saqlash va tarqatish sohasidagi amaldagi qonunlar, boshqaruv va me'yoriy materiallar, bandlar, ko'rsatmalar, qoidalar va h.k.larni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

2. Axborot muhofazasi sohasida boshqaruv va loyiha yechimlarini belgilovchi jami hujjatlar.

3. Nozik axborotning boshqarilishi, muhofaza qilinishi va tarqatilishi asoslangan jami qonunlar, qoidalar va amaliy tajriba.

4. Kompyuter muhofazasini ta'minlash uchun tanlangan reja yoki harakatlar yo'nalishi.

5. Muayyan tashkilotda boshqaruv siyosati. Boshqaruv obyektlari qatoriga konfidensial axborot yoki cheklangan foydalanuvchilar doirasi uchun mo'ljallangan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va uzatish kiradi.

Axborot xavfsizligi toifasi

ing. - information security category

rus. - категория безопасности информации

O'matilgan normalarga ko'ra, axborotning muhimligiga (qimmatligiga) bog'liq holda belgilanadigan axborot xavfsizligi darajasi.

Axborot xavfsizligiga tahdid

ing. - data security treat

rus. - угроза безопасности информации

1. Axborotning konfidensialligi, yaxlitligi, undan foydalana olishlik buzilishiga, shuningdek uning g'ayriqonuniy tarzda ko'payti-

rilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan potensial voqea, harakat, jarayon yoki hodisa.

2. Axborotning tarqatilishi va/yoki unga ruxsat etilmagan tarzda va/yoki ko'zda tutilmagan ta'sirlar bilan bog'liq potensial yoki mavjud real xavfni vujudga keltiruvchi sharoitlar va omillar majmui.

Axborot xavfsizligini boshqarish tizimi

ing. - information security management system ISMS

rus. - система управления информационной безопасностью

Umumiy boshqarish tizimining, axborot xavfsizligini ishlab chiqish, joriy qilish, uning ishlashi, monitoringi, tahlili, unga xizmat ko'rsatish va uni takomillashtirish uchun mo'ljallangan, biznes-risklarni baholash usullaridan foydalanishga asoslangan qismi. Izoht – Boshqarish tizimi o'z ichiga tashkiliy strukturani, siyosatlamni, faoliyatni rejalashtirishni, javobgarlikni taqsimlashni, qoidalarni, protseduralarni, jarayonlar va resurslarni oladi.

Axborot xavfsizligini boshqarish tizimining loyihasi

ing. - information security management system project

rus. - проект системы управления информационной безопасностью

Axborot xavfsizligini boshqarish tizimini joriy etishda tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan, tizimlashtirilgan faoliyat turlari.

Axborot xavfsizligini ta'minlash

ing. - information security assurance

rus. - обеспечение безопасности информации

Foydalanuvchining axboroti muhofazasiga qo'yilgan me'yor va talablarni bajarish. Bunda qoidabuzarning telekommunikatsiya tarmog'i obyektlariga va ularda aylanib yuradigan axborotga ma'lum ta'sirlaridan muhofazalash nazarda tutiladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash dasturi

ing. - information security program

rus. - программа обеспечения информационной безопасности

Tashkilotni axborot xavfsizligiga tahdid ehtimoli mavjud voqealardan kelishi mumkin bo'lgan zarardan himoyalashni ta'minlashga qaratilgan chora va tadbirlar tizimi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi

ing. - information security provision concept

rus. - концепция обеспечения информационной безопасности

Axborotni qayta ishlash avtomatlashtirilgan tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash muammosiga, uni to'plangan tajriba rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda hal qilish yo'llariga qarashlarning umumiy tizimini belgilovchi hujjat. Axborot xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi tashkilot xavfsizligi konsepsiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi

ing. - information security system

rus. - система обеспечения информационной безопасности

1. Organlar yoki bajaruvchilar majmui, foydalanadigan axborotni muhofaza qilish vositalari, shuningdek, tegishli huquqiy, tashkiliy-farmoyish beruvchi va normativ hujjatlar bilan belgilangan qoidalar bo'yicha tashkil qilingan va ish yuritadigan muhofaza obyektlari.

2. Axborot egasi manfaatlariga ziyon keltirilishini bartaraf qilish yoki jiddiy qiyinlashtirishga yo'naltirilgan huquqiy, tashkiliy va texnik tadbirlar, vositalar va normalar majmui.

Axborot xavfsizligini ta'minlash xizmati

ing. - information security service

rus. - служба обеспечения

информационной безопасности

Axborot xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-texnik, apparat-dasturiy va rejimli chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish bilan shug'ullandigan tarkibiy bo'linmasi.

Axborot xavfsizligining uzluksizligi

ing. - information security continuity

rus. - непрерывность

информационной безопасности

Axborot xavfsizligi ishlashining uzluksizligi ta'minlanadigan jarayonlar va protseduralar.

Axborot xizmatini ko'rsatish

ing. - information service

rus. - информационное обслуживание

Qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish, in-

sonning madaniy, ilmiy, ishlab chiqarish, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun axborot taqdim etish.

Axborot xizmatlari

ing. - information services

rus. - информационные услуги

Aniq telefonlar bo'yicha istalgan axborotni beradigan kecha-kunduz ishlaydigan ma'lumotnoma xizmati.

Axborot chiqib ketadigan kanal

ing. - covert channel

rus. - канал утечки информации

1. Jarayonga, axborotni tizim xavfsizligi buziladigan yo'l bilan uzatish imkonini beruvchi kommunikatsiya kanali.

2. Muhofaza obyekti yoki muhofaza qilindigan ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar doirasidan tashqariga chiquvchi, axborot manbaidan boshlanadigan fizik yo'l. Uning vositasida muhofaza qilindigan axborotni noqonuniy olish va/yoki unga ta'sir o'tkazish mumkin bo'ladi.

Axborot chiqib ketadigan texnik kanal

ing. - technical covert channel

rus. - технический канал

утечки информации

Konfidensial axborotni tashuvchi signallarni tarqatishning, qo'riqlanayotgan hududdan tashqariga chiquvchi fizik muhiti.

Axborot shahri

ing. - information city

rus. - информационный город

Iqtisodiyotning sanoatlashib bo'lgan infratuzilmasiga ega shahar. Unda asosiy faoliyat turlariga boshqarish, moliyaviy faoliyat, ilmiy tadqiqotlar, oliy ta'lim, madaniyat, axborot xizmatlari, OAV ish xizmatlari (reklama, maslahat, axborot va boshqa xizmatlari) kirib, ushbu faoliyat turlarida barcha ishlovchilarning yarmidan ko'pi band bo'ladi.

Axborotdan foydalana olish

ing. - access to information

rus. - доступ к информации

Axborot bilan tanishish, uni qayta ishlash, xususlan, axborotdan nusxa ko'chirish, o'zgartirish yoki yo'q qilish.

Axborotdan foydalanuvchi

(axborot iste'molchisi)

ing. - information user

rus. - пользователь (потребитель)

информации

1. Axborot resurslariga zarur axborotni olish va undan foydalanish uchun murojaat qiluvchi subyekt.

2. Axborotdan foydalana olish vakolatiga ega yuridik yoki jismoniy shaxs.

3. Axborotdan erkin foydalanishning belgilangan huquq va qoidalariga muvofiq yoki ularni buzgan holda, axborot egasi yoki vositachisidan olingan axborotdan foydalanuvchi subyekt.

Axborotdan mualliflashtirilmagan

tarzda foydalanishga urinish

ing. - hacking

rus. - неавторизованная попытка

доступа к информации

Tarmoqdan erkin foydalanishni nazorat qiluvchi vositalarni chetlab o'tish (aldash) hisobiga axborotdan foydalana olishga urinib ko'rish.

Axborotdan ruxsat etilgan

tarzda foydalana olish

ing. - authorized access to information

rus. - санкционированный

доступ к информации

Belgilangan erkin foydalanishni chegaralash qoidalari buzilmaydigan tarzda axborotdan foydalana olish.

Axborotdan ruxsatsiz foydalana olish

ing. - unauthorized access to information

rus. - несанкционированный

доступ к информации

Hisoblash texnikasi yoki avtomatlashtirilgan tizim vositalari taqdim etadigan shtat vositalaridan foydalanib, foydalanishni chegaralash qoidalarini buzuvchi axborotdan foydalana olish.

Izoh - Shtat vositalari deganda, hisoblash texnikasi yoki avtomatlashtirilgan tizim vositalarining dasturiy, dasturiy-apparat va apparat ta'minoti majmui tushuniladi.

Axborotga bo'lgan ehtiyoj

ing. - information need

rus. - информационная потребность

Maqsadlar, vazifalar, risklar va muammolarni

boshqarish uchun zarur bo'ladigan haqiqiy bilimlar.

Axborotga bo'lgan ishonch

ing. - assurance to information

rus. - доверие к информации

Axborotda almashtirishlarning (yaxlitlik saqlanishi uchun axborot elementlarini ruxsatsiz o'zgartirishning) bo'lmisligi.

Axborotga oid qonunlar

ing. - information legislation

rus. - информационное законодательство

Davlat hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan, ularning vakolati doirasida qabul qilingan va axborot sohasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan qonun hujjatlarida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

Axborotga putur yetkazish

(axborotni obro'sizlantirish)

ing. - compromise

rus. - компрометация

1. Kriptografik kalitlar yoki konfidensial axborotni ochish.

2. Kritik axborotni yo'qotish yoki uning mualliflashtirilmagan subyektlar (shaxslar, dasturlar, jarayonlar va b.q.) tomonidan olinishi.

3. Kompyuter xavfsizligining buzilishi, uning natijasida dastur yoki ma'lumotlar o'zgartirishi, yo'q qilinishi yoki vakolatga ega bo'lmagan mantiqiy obyektlar uchun ochiq bo'lib qolishi mumkin.

Axborotga qasddan bo'lmagan ta'sir

ing. - casual action on information

rus. - непреднамеренное воздействие на информацию

Foydalanuvchining xatosi, tizimning texnik va dasturiy vositalaridagi nosozlik, tabiat hodisalari yoki axborotning buzib ko'rsatilishiga, yo'q qilinishiga, undan nusxa olinishiga, axborotdan foydalanishni blokirovka qilinishiga, shuningdek, axborot tashuvchining yo'qolishiga, yo'q qilinishiga yoki ishlashida uzilishlar kelib chiqishiga olib keladigan, boshqa maqsadga yo'naltirilmagan, axborotni o'zgartirishga bo'lgan harakatlar.

Axborotga ruxsat etilmagan ta'sir

ing. - unauthorized action on information

rus. - несанкционированное воздействие на информацию

Muhofaza qilinadigan axborotga foydalanishning belgilangan huquqlari va/yoki qoidalarini buzgan holda ta'sir etish. Bu, axborotning yo'qolishiga, buzib ko'rsatilishiga, soxtalashtirilishiga, yo'q qilinishiga, axborotdan foydalanishning blokirovka qilinishiga, shuningdek, axborot tashuvchining yo'qolishiga, yo'q qilinishiga yoki ishlashida uzilishlar kelib chiqishiga olib keladi.

Axborotga tahdidlar modeli

ing. - information threat model

rus. - модель угроз информации

Axborotga bo'lgan tahdidlarni amalga oshirish usullari va vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar sizib chiqadigan texnik kanallarning rasmiylashtirilgan tavsifi.

Axborotlashtirish

ing. - informatization

rus. - информатизация

1. Axborot resurslaridan, axborot texnologiyalari va axborot tizimlaridan foydalanib, yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlar yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayoni.

2. Fuqarolarning axborot bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish, boshqarish uchun bilimlar va axborotdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida axborot kommunikatsiyalaridan keng ko'lamli foydalanish jarayoni.

Axborotlashtirish obyekti

ing. - informatization object

rus. - объект информатизации

Berilgan axborot texnologiyalariga muvofiq ishlatiladigan, axborot resurslari, vositalari va axborotni qayta ishlash tizimlari, ko'makchi texnika vositalari, ular o'rnatilgan binolar yoki obyektlar (imoratlar, inshootlar, texnika vositalari), yoki maxfiy muzokaralarni olib borish uchun mo'ljallangan binolar va obyektlar majmui.

Axborotlashtirish obyektlarini

attestatsiya qilish

ing. - validation of objects of informatization

rus. - аттестация объектов

информатизации

Axborotlashtirish obyektlari muhofaza qi-

linganligi haqiqiy holatining axborot xavfsizligi sohasidagi davlat standartlari va normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga yo'naltirilgan tashkiliy-texnik choratadbirlar kompleksi.

Axborotlashtirish sohasidagi siyosat

ing. - information society policy

rus. - политика в области информатизации

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish vositalari

ing. - informatization means

rus. - средства информатизации

Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini amalga oshirishning texnik va dasturiy vositalari.

Axborotlashtirishning normativ-huquqiy bazasi

ing. - regulatory and legal informatization base

rus. - нормативно-правовая база информатизации

Axborotlashtirish jarayonlarini tartibga soladigan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar kompleksi.

Axborotlashtirishning texnik-texnologik bazasi

ing. - technical and technology

informatization base

rus. - технико-технологическая база информатизации

Istiqbolli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, hisoblash texnikasi vositalarini va telekommunikatsiyalar texnikasini ishlab chiqish va ishlab chiqarish tarmoqlari, bu tarmoqlarga xizmat ko'rsatadigan ilmiy tadqiqot va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining jami, shuningdek, bu tarmoqlarning mutaxassis kadrlari.

Axborotni aktiv tutib qolish

ing. - active wiretapping

rus. - активный перехват информации

Ma'lumotlarni o'zgartirish yoki kiritish maqsadida, telekommunikatsiyalar liniyasiga yashirin qurilmani ulash.

Axborotni blokirovkalash

ing. - information blocking

rus. - блокирование информации

1. Texnik vositalar bilan qayta ishlashda axborotdagi undan foydalana olish xususiyatining yo'qolishi: tanishish, hujjatlashtirish, o'zgartirish yoki yo'q qilish bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalarni o'tkazish uchun, axborotdan ruxsat etilgan tarzda foydalalanishning qiyinlashuvida yoki to'xtatilishida ifodalanaadi.

2. Axborotni yo'qotish bilan bog'liq bo'lman holda, foydalanuvchilarning axborotdan foydalana olishlarini sun'iy ravishda qiyinlashtirish.

Axborotni harf-raqamli shaklda taqdim etish

ing. - alphanumeric

presentation of information

rus. - буквенно-цифровое

представление информации

Axborotni harf, raqam va boshqa simvollar ko'rinishiga ega bo'lgan alohida elementlarning cheklangan soni yordamida taqdim etish usuli.

Axborotni imitomuhofazalovchi

kodlash algoritmi

ing. - information encoding

imitoprotecting algorithm

rus. - алгоритм имитозащищающего

кодирования информации

Yaxlitlikni nazorat qilish maqsadida, axborotni o'zgartirish algoritmi.

Axborotni kriptografik

muhofaza qilish tizimi

ing. - data cryptoprotection system

rus. - система криптографической

защиты информации

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun uni kriptografik o'zgartiruvchi tizim.

Axborotni kriptografik

muhofaza qilish vositalari

ing. - cryptographic information

protection facilities

rus. - средства криптографической

защиты информации

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun axborotning kriptografik almashtirilishini amalga oshiradigan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar.

Izoh - Axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalariga, shuningdek, muhim hujjatlarni tayyorlash vositalari va muhim xujjatlarning o'zi ham (muhim axborotni tashuvchining turiga bog'liq bo'lmagan holda) kiradi.

Axborotni kriptografik o'zgartirish

ing. - cryptographic

transformation of information

rus. - криптографическое

преобразование информации

Kriptografik usullarni (shifrlash va ras-shifrovka qilish elektron raqamli imzo hamda xesh-funksiyani ishlab chiqish va tekshirish) qo'llashga asoslangan axborotni o'zgartirish jarayoni.

Axborotni ko'chirish xizmati

ing. - bearer service

rus. - услуга переноса информации

Foydalanuvchi-tarmoq interfeyslari o'rtasida signallarni uzatish imkoniyatini taqdim etuvchi xizmat turi.

(Axborotni) mashinaviy tashuvchi

ing. - machine medium (of information)

rus. - машинный носитель (информации)

Hisoblash texnikasi vositalari, shuningdek, ular bilan aloqador qurilmalar vositasida axborotni yozish va qayta tiklash uchun mo'ljallangan moddiy tashuvchi.

Axborotni (ma'lumotlarni)

muhofaza qilish

ing. - information (data) security

rus. - защита информации (данных)

1. Axborot (ma'lumot) egasi manfaatlariga zarar keltirilishining oldini olish yoki qiyinlashtirishga qaraltirilgan huquqiy, tashkiliy va texnik (apparat-dasturiy) tadbirlar kompleksi.

2. Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar.

3. Muhofaza qilinadigan axborot chiqib ketishini (yo'qolishini) muhofaza qilinadigan axborotga ruxsat etilmagan va ko'zda tutilmagan ta'sir(lar)ni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat.

Axborotni muhofaza qilish

apparat vositasi

ing. - information security hardware

rus. - аппаратное средство защиты информации

1. Axborotni ruxsat etilmagan tarzda foydalanish, nusxa ko'chirish, o'g'irlash, o'zgartirish yoki buzishdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan, mexanik, elektromexanik, elektron, optik, lazer, radio, radiotexnik va boshqa qurilmalar, tizimlar va inshootlar.

2. Maxsus himoya qurilmasi yoki axborotni qayta ishlash texnik vositasining komplektiga kiruvchi moslama

Axborotni muhofaza qilish bo'yicha tadbir
ing. - information protective measures

rus. - мероприятие по защите информации

Axborotni muhofaza qilish usullari va vositalarini ishlab chiqish va/yoki amaliy qo'llashga yo'naltirilgan harakatlar majmui.

Axborotni muhofaza qilish

bo'yicha texnik yechim

ing. - technical solution on

information security

rus. - техническое решение по

защите информации

Axborotni muhofaza qilish bo'yicha texnik, loyiha, arxitektura yoki konstruktorlik yechimi.

Axborotni muhofaza qilish

dasturiy vositasi

ing. - information security software

rus. - программное средство

защиты информации

Dasturiy ta'minot komplektiga kiruvchi va axborotni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan maxsus dastur.

Axborotni muhofaza qilish konsepsiyasi

ing. - information security concept

rus. - концепция защиты информации

Axborotni muhofaza qilish bo'yicha qarashlar va umumiy texnik talablar tizimi.

Axborotni muhofaza qilish maqsadi

ing. - Information security target

rus. - цель защиты информации

Axborotni muhofaza qilishning oldindan belgilangan natijasi.

Izoh - Axborotni muhofaza qilishdan maqsad, axborotning chitmoliy chiqib ketishidan va/yoki axborotga ruxsat etilmagan va qasddan qilinmagan ta'sir natijasida axborot mulkdoriga, egasiga, foydalanuvchisiga yetkaziladigan zararining oldini olish bo'lishi mumkin.

Axborotni muhofaza qilish mexanizmlarining kafolatlanganligi

ing. - information defence mechanism security

rus. - гарантированность

механизмов защиты информации

Foydalaniladigan axborotni muhofaza qilish mexanizmlarining tanlangan funksional talablarga adekvatligini (mosligini) baholash.

Izoh - Kafolatlanganlik axborotni muhofaza qilish mexanizmlarining samaradorligi va to'g'riligi bilan aniqlanadi.

Axborotni muhofaza qilish obyekti

ing. - information security object

rus. - объект защиты информации

Axborotni qo'yilgan muhofaza qilish maqsadiga muvofiq muhofaza qilish zarur bo'lgan axborot yoki axborot tashuvchisi yoxud axborot jarayoni.

Axborotni muhofaza qilish samaradorligi

ing. - information technical

protection efficiency

rus. - эффективность защиты информации

1. Axborotni muhofaza qilish bo'yicha erishilgan ish natijalarining qo'yilgan maqsadga muvofiq kelish darajasi.

2. Axborotni texnik muhofaza qilish darajasini tavsiflovchi ko'rsatgich.

Axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish

ing. - information security performance management

rus. - контроль эффективности защиты информации

Axborotni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar samaradorligining, belgilangan talablarga yoki muhofaza qilish samaradorligi me'yorlariga muvofiqligini tekshirish.

Axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish vositasi

ing. - information security

efficiency control facility

rus. - средство контроля эффективности защиты информации

Axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish uchun mo'ljallangan yoki foydalaniladigan texnik, dasturiy vosita, modda va/yoki material.

Axborotni muhofaza qilish samaradorligining normalari

ing. - information security efficiency rates

rus. - нормы эффективности защиты информации

Normativ hujjatlar bilan belgilangan axborotni muhofaza qilish samaradorligi ko'rsatgichlarining qiymatlari.

Axborotni muhofaza qilish sohasida akkreditlash

ing. - accreditation in the field of information security

rus. - аккредитация в области защиты информации

Muhofazalangan mahsulotlar, axborotni muhofaza qilish texnik vositalari va usullarini sertifikatlash sohasida qandaydir faoliyatni amalga oshirish bo'yicha vakolatlarning rasman tan olinishi.

Axborotni muhofaza qilish sohasida attestatlash

ing. - attestation in the field

of information security

rus. - аттестация в области защиты информации

Obyekt yoki jarayonni muhofaza qilish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar kompleksining axborotni muhofaza qilish yuzasidan qo'yiladigan talablarga muvofiqligini belgilash bilan bog'liq faoliyat.

Axborotni muhofaza qilish sohasida litsenziyalash

ing. - licensing in the information protection field

rus. - лицензирование в области защиты информации

Litsenziya kelishuvi (shartnomasi) bilan rasmiylashtirilgan, axborotni muhofaza qilish sohasida ishlarni olib borish huquqini berish yoki olishda, litsenziat ustidan nazoratni amalga oshirishda ifodalanadigan faoliyat.

Axborotni muhofaza qilish sohasida sertifikatlash organi

ing. - certification authority

in field of information security

rus. - орган по сертификации

в области защиты информации

Muhofazalangan buyumlar, axborotni muhofaza qilish texnik vositalari va usul-

larining ma'lum bir standartga yoki boshqa hujjatga muvofiqlik sertifikatliyasini o'tkazuvchi organ.

Axborotni muhofaza qilish sohasida sertifikatlash tizimi

ing. - certification system in the field of information security

rus. - система сертификации в области защиты информации

Axborotni muhofaza qilish sohasida muvofiqlik sertifikatliyasini o'tkazish uchun o'z qoidalari, protseduralari va boshqaruviga ega bo'lgan tizim.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi litsenziar

ing. - licensor in the information protection field

rus. - лицензиар в области защиты информации

Litsenziya kelishuvidagi, axborotni muhofaza qilish sohasida ishlarni olib borish huquqini beradigan tomon.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi litsenziat

ing. - licensee in the information protection field

rus. - лицензиат в области защиты информации

Litsenziya kelishuvidagi, axborotni muhofaza qilish sohasida ishlarni olib borish huquqini oladigan tomon.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi muvofiqlik belgisi

ing. - compliance mark in the field of information security

rus. - знак соответствия в области защиты информации

Sertifikatlash tizimi qoidalari muvofiq beriladigan yoki qo'llaniladigan, berilgan muhofazalangan buyum, texnik vosita yoki axborotni muhofaza qilish usuli muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos kelishini ko'rsatadigan, belgilangan tartibda muhofazalangan belgi.

Axborotni muhofaza qilish texnik (apparat-dasturiy) vositalari

ing. - technical (hardware and software) data protection facilities

rus. - технические (аппаратно-программные) средства защиты информации

Axborotni muhofaza qilish funksiyalarini (foydalanuvchilarni identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish, resurslardan foydalanishni chegaralash, voqealarni qayd qilish, axborotni kriptografik berkitish va b.q.) (mustaqil yoki boshqa vositalar bilan birgalikda) bajaradigan turli xil elektron qurilmalar va maxsus dasturlar.

Axborotni muhofaza qilish texnik chora-tadbirlari

ing. - technical information protective measures

rus. - технические меры защиты информации

Avtomatlashtirilgan tizim tarkibiga kiruvchi, (mustaqil yoki boshqa vositalar bilan birgalikda) axborotni muhofaza qilish (foydalanuvchilarni identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish, resurslardan foydalanishni chegaralash, hodisalarni qayd qilish, axborotni kriptografik yopish va b.q.) funksiyalarini bajaruvchi turli elektron qurilmalar va maxsus dasturlar.

Axborotni muhofaza qilish texnik vositasi

ing. - technical information security equipment

rus. - техническое средство защиты информации

1. Obyektning demaskirovkalovchi alomatlarini bartaraf qilish yoki susaytirish, soxta (imitatsiyalovchi) alomatlarini, shuningdek, axborotdan erkin foydalanish texnik vositalariga xalaqitlar vujudga keltirish uchun mo'ljallangan texnik vosita.

2. Axborot bilan bog'liq bo'lgan qonunga xilof ishlarning oldini olish va/yoki muhofaza obyektining qo'riqlanishini (jismoniy himoya qilinishini) ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus vositalar (qurilmalar).

Axborotni muhofaza qilish tizimini sertifikatlash

ing. - information security system certification

rus. - сертификация системы защиты информации

Axborotni muhofaza qilish tizimining davlat standartlari talablariga, sertifikatlash

bo'yicha davlat organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida tasdiqlangan axborotni muhofaza qilish bo'yicha boshqa normativ hujjatlarning talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyat.

Axborotni muhofaza qilish toifasi

ing. - information protection category

rus. - категория защиты информации

Tanlangan ahamiyatlilik shkalasida axborotni muhofaza qilish muhimlik darajasini aks ettiruvchi sifat ko'rsatgichi.

Axborotni muhofaza qilish usuli

ing. - information safety methods

rus. - способ защиты информации

Axborotni muhofaza qilishning muayyan prinsiplari hamda vositalarini qo'llash tartibi va qoidalari.

Axborotni muhofaza qilish vositalari

ing. - data protection facilities

rus. - средства защиты информации

Axborotni muhofaza qilish uchun mo'ljallangan texnik, kriptografik, dasturiy va boshqa vositalar, ular amalga oshirilgan vositalar, shuningdek, axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish vositalari.

Axborotni muhofaza qilish g'oyasi

ing. - information security plan

rus. - замысел защиты информации

Obyektda axborotni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan tadbirlarning tarkibi, mazmuni, o'zaro aloqadorligi va ketma-ketligini ochib beruvchi asosiy fikr (g'oya).

Axborotni muhofaza qilishning

huquqiy chora-tadbirlari

ing. - legal information protective measures

rus. - правовые меры защиты информации

Mamlakatda amal qiluvchi axborot bilan ishlash qoidalarini va ularning buzilishi uchun javobgarlikni, shu bilan undan noqonuniy foydalanishga to'sqinlik qiladigan va potensial buzg'unchilarni to'xtatib turuvchi omil hisoblanadigan, qonunlar, farmoyishlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

Axborotni muhofaza qilishning

jismoniy chora-tadbirlari

ing. - physical information

protective measures

rus. - физические меры защиты

информации

Avtomatlashtirilgan tizim va muhofaza qilinayotgan axborot komponentlariga potensial buzg'unchilarning suqulib kirishi va foydalanishining mumkin bo'lgan yo'llariga jismoniy to'siq yaratish uchun maxsus mo'ljallangan har xil turdagi mexanik, elektr yoki elektron-mexanik qurilmalar va inshootlar, shuningdek telekommunikatsiya va qo'riqlash signalizatsiyasi, vizual kuza-tish texnik vositalari.

Axborotni muhofaza qilishning

kriptografik usuli

ing. - cryptographic method of

information protection

rus. - криптографический метод

защиты информации

Shifrlash va/yoki elektron raqamli imzo prinsiplariga asoslangan, axborotni muhofaza qilish usuli.

Izoh - Kriptografik usul dasturiy, apparat va apparat-dasturiy vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Axborotni muhofaza qilishning

qonunchilik vositalari

ing. - legislative data protection facilities

rus. - законодательные средства защиты

информации

Mamlakatning, erkin foydalanilishi cheklangan axborotdan foydalanish, ularni qayta ishlash va uzatish qoidalarini qat'iy tartibga soladigan va bu qoidalarning buzilganligi uchun javobgarlik choralari belgilaydigan qonun hujjatlari.

Axborotni muhofaza qilishning

samaradorlik ko'rsatgichi

ing. - efficiency factor of

information security

rus. - показатель эффективности

защиты информации

Axborotni muhofaza qilish samaradorligini baholash o'lchovi yoki xarakteristikasi.

Axborotni muhofaza qilishning

tashkiliy chora-tadbirlari

ing. - organizational information

protective measures

rus. - организационные меры

защиты информации

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining ishlash jarayonini, tizim resurslaridan foyda-

lanishni, personal faoliyatini, shuningdek, foydalanuvchilarning tizim bilan o'zaro hamkorlik tartibini, tizimda aylanuvchi axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish qiyin bo'ladigan yoki bunday imkoniyat bartaraf etiladigan tarzda tartibga soladigan chora-tadbirlar.

Axborotni muhofaza qilishning tashkiliy vositalari

ing. - organizational protection means

rus. - организационные средства защиты информации

Axborotning muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida, telekommunikatsiyalar tarmoqlarini yaratish va ulardan foydalanish jarayonida amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik va tashkiliy-huquqiy tadbirlar.

Lzoh - Tashkiliy tadbirlar ular hayot siklining barcha bosqichlarida (loyihalash, sinov va ekspluatatsiya qilish) tarmoqning barcha tuzilma elementlarini qamrab oladi.

Axborotni oluvchi

ing. - information recipient

rus. - получатель информации

Axborotni, uning ko'rinishining barcha shakllarida, keyinchalik qayta ishlash va foydalanish maqsadida qabul qiladigan moddiy obyekt yoki subyekt.

Lzoh - Axborot manbalari va oluvchilari axborotni to'playdigan, saqlaydigan, o'zgartiradigan, uzatadigan yoki qabul qiladigan odamlar ham, texnik vositalar ham bo'lishi mumkin.

Axborotni oshkor etilishdan muhofaza qilish

ing. - information security from disclosure

rus. - защита информации от разглашения

Muhofaza qilinadigan axborotning ushbu axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan iste'molchilarga ruxsat etilmagan tarzda yetkazilishining oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Axborotni passiv tutib qolish

ing. - passive wiretapping

rus. - пассивный перехват информации

Ma'lumotlar olish maqsadida telekommunikatsiyalar liniyasiga yashirin qurilmani ulash.

Axborotni qasddan qilinmagan ta'sirdan muhofaza qilish

ing. - information protection from inadvertent action

rus. - защита информации от непреднамеренного воздействия

Muhofaza qilinadigan axborotga axborotni buzish, yo'q qilish, undan nusxa olish, axborotdan foydalana olishni blokirovka qilish, shuningdek axborot tashuvchisining yo'qolishi, yo'q qilinishi yoki ishlashining to'xtab qolishiga olib keladigan axborotdan foydalanuvchining xatolari, axborot tizimlari texnik va dasturiy vositalarining to'xtab qolishi, tabiat hodisalari yoki axborotni o'zgartirish uchun boshqa maqsadga muvofiq bo'lmagan tadbirlar ta'sirining oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Axborotni qayta ishlash ishonchligi

ing. - data processing validity

rus. - достоверность обработки информации

Xato ehtimolligi funksiyasi, ya'ni tizimdagi axborot berilgan aniqlik chegarasida axborotning ba'zi haqiqiy qiymati bilan mos tushmasligida ifodalanadigan hodisalar.

Axborotni qo'lga kiritish

ing. - wiretapping

rus. - перехват информации

Ma'lumotlarni olish, o'zgartirish yoki kiritish maqsadida, telekommunikatsiyalar liniyasining biror-bir qismiga yashirin qurilmani bildirmasdan ulash.

Axborotni ruxsat etilmagan foydalana olishdan muhofaza qilish

ing. - information access security

rus. - защита информации от несанкционированного доступа

Manfaatdor subyektning, normativ hujjatlar yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar yoki axborotdan foydalanish qoidalarini buzib, muhofaza qilinadigan axborotni olishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan faoliyat.

Axborotni ruxsat etilmagan ta'sirdan muhofaza qilish

ing. - information security from illegal impact

rus. - защита информации от несанкционированного воздействия

Axborotni o'zgartirish yuzasidan belgilangan huquqlar va/yoki qoidalar buzilgan holda, axborotning buzib ko'rsatilishiga, yo'q qilinishiga, undan foydalana olishning blokirovkalanishiga, shuningdek, axborot tashuvchining yo'qolishiga, yo'q qilinishiga yoki ishlashida uzilish kelib chiqishiga olib

keladigan ta'sirning oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Axborotni ruxsat etilmagan foydalana olishdan muhofaza qilish tizimi

ing. - unauthorized access data protection system

rus. - система защиты информации от несанкционированного доступа
Avtomatlashtirilgan tizimlarda axborotni ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilish bo'yicha ko'riladigan tashkiliy chora-tadbirlar va dasturiy-texnik (shu jumladan, kriptografik) vositalar kompleksi.

Axborotni ruxsat etilmagan foydalana olishdan muhofaza qilish vositalari

ing. - protection facilities of information from unauthorized access

rus. - средства защиты информации от несанкционированного доступа
Ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishning oldini olish yoki sezilarli darajada qiyinlashtirish uchun mo'ljallangan apparat, dasturiy, apparat-dasturiy, kriptografik vositalar, shuningdek, axborotni muhofaza qilish samaradorligini nazorat qilish vositalari.

Axborotni soxtalashtrish

ing. - data corruption

rus. - подделка информации

Axborot uzatishda, saqlashda yoki qayta ishlashda raqobatchi oldida muayyan foyda olish yoki unga ziyon yetkazish maqsadida qasddan axborotni ruxsat etilmagan tarzda o'zgartirish.

Axborotni tashkiliy jihatdan

muhofaza qilish

ing. - organizational security of information

rus. - организационная защита информации

Texnik vositalar bilan qayta ishlashda axborotni muhofaza qilish, ma'muriy chora-tadbirlar ko'rish orqali amalga oshiriladi.

Izoh - Ma'muriy chora-tadbirlar tashqi ta'sirga uchramagan obyekt joylashadigan yerning tanlanishini, nazorat qilinadigan (tekshiriladigan) zonani tashkillashtirish, turli tashuvchilardagi maxfiy (konfidensial) hujjatlarni hisobga olib, saqlash va ular bilan ishlash qoidalari va boshqa chora-tadbirlarni ichiga oladi.

Axborotni tashkiliy-texnik jihatdan

muhofaza qilish

ing. - organizational and technical security of information

rus. - организационно-техническая защита информации

Normativ va metodik hujjatlarning qo'llanilishini, axborotni muhofaza qilish sohasida faoliyatni litsenziyalashni, muhofazalangan buyumlar, muhofaza qilishning texnik vositalari hamda usullarini, obyektlarda axborotni muhofaza qilish tizimlari tuzilishini va bu obyektlarning attestatsiya qilinishini ko'zda tutadigan axborotni muhofaza qilish.

Axborotni texnik muhofaza qilish

ing. - technical protection of information

rus. - техническая защита информации

Axborotni texnik muhofaza qilish vositalaridan foydalanib muhandis-texnik va nokriptografik usullar bilan axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat.

Axborotni texnik muhofaza qilish vositalari

ing. - facilities of technical protection of information

rus. - средства технической защиты информации

Axborotni shakllantirish, uzatish, qabul qilish, o'zgartirish, aks ettirish va saqlash bosqichlarida texnik muhofaza qilinishini ta'minlaydigan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar.

Axborotni texnik vositalar bilan qayta ishlashda muhofaza qilish

ing. - information security while processing it with technical facilities

rus. - защита информации при ее обработке техническими средствами

Texnik vositalar bilan qayta ishlashda barcha turdagi tahdidlardan va xavf omillaridan axborotning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan harakat.

Izoh - Axborotni texnik vositalar bilan qayta ishlashda tashkiliy va texnik jihatdan muhofaza qilish farqlanadi.

Axborotni yetkazib beruvchi

ing. - content provider

rus. - поставщик информации

Telekommunikatsiyalar operatorining tarmog'i orqali foydalanuvchilarga taqdim etish yoki tarqatish uchun, xizmatlarni yetkazib beruvchiga axborot taqdim etadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Axborotni yo'q qilish

ing. - data destruction

rus. - уничтожение информации

1. Axborotni to'liq jismonan tugatish yoki uning axborotni identifikatsiyalaydigan muhim belgilarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi elementlarini tugatish.

2. Texnik vositalar bilan islov berilganda tashuvchilardagi axborotni tasodifan yoki qasddan o'chirish.

(Axborotni) yo'qotishlar bilan siqish

ing. - lossy compression

rus. - сжатие (информации) с потерями

Signalni siqish boshlang'ich signalning to'liq tiklanishi mumkin bo'lmagan tarzda amalga oshiriladigan jarayon. Undan odatda, tiklangan tasvirning sifati subyektiv ravishda maqbul bo'ladigan holda, harakatsiz va harakatlanadigan tasvir uchun foydalaniladi. JPEG, MPEG, H.261 standartlari bunga misol bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, axborotni yo'qotishlar bilan siqish axborotni yo'qotishlarsiz siqishga qaraganda, siqishning ancha yuqori darajasini ta'minlaydi.

(Axborotni) yo'qotishlarsiz siqish

ing. - lossless compression

rus. - сжатие (информации) без потерь

Signalni axborot yo'qotishlarsiz siqish va boshlang'ich ko'rinishda tiklash imkonini beradigan jarayon. PKZip, ZOO hamda ARC bunga yaqqol misol bo'ladi.

Axborotni o'zgartirish

ing. - information modification

rus. - модификация информации

Texnik vositalar bilan qayta ishlashda, tashuvchilardagi axborotning mazmuni yoki hajmini ruxsat etilmagan tarzda o'zgartirilishi.

Axborotni chiqib ketishdan

muhofaza qilish

ing. - information security from leak flow

rus. - защита информации от утечки

Oshkor qilish, ruxsat etilmagan tarzda axborotdan foydalana olish va muhofaza qilinadigan axborotni olish natijasida, muhofaza qilinadigan axborotning nazorat qilib bo'lmaydigan ravishda tarqalib ketishining oldini olishga qaratilgan faoliyat.

Axborotning buzilishi

ing. - information distortion

rus. - искажение информации

Axborotni texnik vositalar yordamida qayta ishlaganda (uzatganda) apparaturaning tashqi ta'sirlari (xalaqitlari), ishlashidagi to'xtab qolishlar yoki xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xato xatti-harakatlari natijasida ushbu axborotni tasodifiy yoki qasddan ruxsatsiz modifikatsiyalash.

Axborotning dinamik xususiyatlari

ing. - dynamic properties information

rus. - динамические свойства информации

Axborotning vaqt davomida o'zgarishini tavsiflaydigan xususiyatlar.

Axborotning fosh etilishi

ing. - disclosure of information

rus. - раскрытие информации

1. Kompyuter xavfsizligining buzilishi, uning natijasida ma'lumotlar vakolatga ega bo'lmagan mantiqiy obyektlarga ochiq bo'lib qoladi.

2. Axborotni yashirin yoki ruxsat etilmagan tarzda ko'rib chiqish.

Axborotning ikkilik birligi

ing. - binary digit

rus. - двоичная единица информации

Ikkilik sanoq tizimida 0 yoki 1 raqamli qiymatni oladigan razryad.

Axborotning ishonchliligi

ing. - information reliability

rus. - информационная надежность

1. Algoritm yoki dasturning, dastlabki ma'lumotlar turli xatolar bo'lganda, o'z funksiyalarini to'g'ri bajarish qobiliyati.

2. Axborot tizimining, unda saqlanadigan ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash qobiliyati.

Axborotning konfidensialligi

ing. - information confidentiality

rus. - конфиденциальность информации

Axborot bilan ruxsatsiz tanishish yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirish (nuxsalar olish)ning oldini olish ta'minlanadigan axborot va uning tashuvchisining holati.

Axborotning maxfiyligi

ing. - information secrecy

rus. - секретность информации

Axborotning, uni texnik vositalar bilan qayta ishlashda axborotdan ruxsat etilmagan tarzda tanishishning yoki hujjatlashtirishning (nuxxalar olishning) bartaraf etilishini ta'minlovchi xossasi.

Axborotning nishonli tizimi

ing. - character based information system

rus. - знаковая система информации

Axborotni uzatish va saqlashga mo'ljallangan o'z-o'zini tashkillashtiradigan tizimning alohida turkumi. Ular ikki turga bo'linadi: xususan tizimli (yo'l harakati belgilari, musiqqa, nutq va ham tabiiy ham sun'iy tillar) va tizimdan tashqari (qachonlardir mavjud bo'lgan tizimlarning qoldiqlari, masalan imo-ishoralar va holatlar tili).

Axborotning oshkor bo'lishi

ing. - information disclosure

rus. - разглашение информации

Muhofaza qilinadigan axborotning, bunday axborotdan erkin foydalanish huquqi bo'lmagan iste'molchilarga ruxsat etilmagan tarzda yetkazilishi.

Axborotning pragmatik xususiyatlari

ing. - pragmatic property information

rus. - прагматические свойства информации

Foydalanuvchi, iste'molchi va amaliyotchi uchun axborotning foydalilik bosqichini tasvirlaydigan xususiyatlar.

Axborotning taqdim etilishi

ing. - provision of information

rus. - предоставление информации

Axborotning muayyan shaxslar doirasi tomonidan olinishiga yoki muayyan shaxslar doirasiga berilishiga yo'naltirilgan harakatlar.

Axborotning tarqatilishi

ing. - dissemination of information

rus. - распространение информации

Axborotning noaniq shaxslar doirasi tomonidan olinishiga yoki noaniq shaxslar doirasiga berilishiga yo'naltirilgan harakatlar.

Axborotning yaxlitligi

ing. - information integrity

rus. - целостность информации

Hisoblash texnikasi vositalari va avtomatlashtirilgan tizimning, tasodifiy va/yoki qasddan buzib ko'rsatish (buzish) sharoitida axborotning o'zgarmasligini ta'minlash xususiyati.

Axborotning yo'qotilishi yoki buzib ko'rsatilishi

ing. - loss or corruption of information

rus. - потеря или искажение информации

Ruxsat etilmagan tarzda chiqarib tashlash, kiritish, o'tish tartibini o'zgartirish, takror foydalanish yoki ushlab qolish yo'li bilan, uzatilgan ma'lumotlar yaxlitligining buzilishi.

Axborotning yo'q qilinishi

ing. - information destruction

rus. - разрушение информации

1. Qanday sabab bo'lishidan qat'i nazar, ma'lumotlarning, axborotdan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan har qanday holati.
2. Elektron hisoblash mashinasi xotirasida saqlanadigan axborotning o'chirib yuborilishi.

Axborotning zaifligi

ing. - information vulnerability

rus. - уязвимость информации

Axborotning turli nobarqarorlashtiruvchi omillarning ta'siriga uchrashi, bu omillar axborotning konfidensialligi, yaxlitligi, foydalana olish mumkinligining buzilishiga yoki uni noqonuniy ko'paytirilishiga olib kelishi mumkin.

Axborotning chiqib ketishi

ing. - information loss

rus. - утечка информации

Axborotni texnik vositalar bilan qayta ishlashda, ruxsat etilmagan tarzda tanishish yoki hujjatlashtirish (nuxxa olish) natijasida axborot maxfiylik (konfidensiallik) xususiyatining yo'qolishi.

«Axlab» yig'ish

ing. - garbage collecting

rus. - сбор «мусора»

1. Subyekt yoki tizim obyektini ishidan so'ng, tezkor xotira yoki axborot to'plagichlarda qolgan axborotni izlashdan iborat hujum.
2. Ta'sirchan axborotni olish uchun qoldiq ma'lumotlarni izlashni ruxsat etilmagan tarzda amalga oshirish.

Axromatik rang

ing. - achromatic colour

rus. - ахроматический цвет

Ranglilikka (rangli tusga) ega bo'lmagan hamda rang tozaligi nolga teng kul rang va oq ranglar.

Ayirma eltuvchi

ing. - difference carrier

rus. - разностная несущая

Chastotasi tasvir va tovush jo'rliqi eltuvchilarning chastotalar farqiga teng bo'lgan tovush jo'rliqi oraliq eltuvchisi.

Ayirma eltuvchidagi tovush

ing. - intercarrier sound

rus. - звук на разностной несущей

Televizorlarda foydalaniladigan texnika, bunda tasvir eltuvchi va tovush jo'rliqi eltuvchisi noliniyaviy kombinatsiyalanganidagi olingan ayirma chastota, televizorning tovush jo'rliqi signali qayta ishlanadigan qismidagi oraliq chastota kabi foydalaniladi.

Aylanib o'tishlar va almashtirishlar jadvali

ing. - bypass and replacement graph

rus. - график обходов и замен

Traktlar (kanallar), ular va tarmoq tugunlarining tartib raqamlari ro'yxati. Unda tarmoqda yuzaga kelgan aniq holatlarda ishlashdan chiqib ketgan traktlar o'miga ulanadigan traktlarning yoki trakt qismining aniq tartib raqamlari, shuningdek, kommutatsiyalar va ikkilamchi tarmoqlarga hamda boshqa iste'molchilarga taqdim qilish joyi bo'lgan tarmoq tugunlarining tartib raqamlari aks etgan.

Aylantirish

ing. - scrolling

rus. - прокрутка

Kompyuter xotirasida bo'lgan ma'lumotlarni qarab chiqish usuli, agar bu ma'lumotlar displey ekranida ajratilgan oynaga sig'masa. Usul ma'lumotlarni vertikal va/yoki gorizonttal yo'nalishda ketma-ket va boshqariladigan tarzda ko'chirishdan iborat.

Aylantirish lineykalari

ing. - scrollbar

rus. - линейки прокрутки

Ekraning pastiga va/yoki oynaning o'ng tomoniga joylashgan ingichka to'rtburchak tasma. Oynadagi ma'lumotlar o'rmini «sichqoncha» kursori yordamida o'zgartirish uchun qo'llaniladi. Buning uchun lineykada maxsus yurgizgich (lineykaning to'g'ri chiziq bo'ylab sirg'aluvchi qismi) va uning chekka qismlarida harakat yo'nalishini ko'rsatib turadigan ko'rsatgichlari bo'ladi.

«Aylanuvchi qulf»

ing. - spinlock

rus. - «вертящийся замок»

Ko'p protsessorli tizimlarda ishlatiladigan Windows 2000 operatsion tizimidagi sinxronlash vositasi.

Ayverson notatsiyasi

ing. - Iverson notation

rus. - нотация айверсона

Matematik algoritmlarni yozish uchun ishlab chiqilgan simvollar to'plami.

Ayg'oqchi dastur

ing. - spyware

rus. - программа-шпион

Kompyuterdan foydalanuvchining faoliyatini kuzatish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot. Uning pochta yozishmalarini, u tomonidan kiritilgan ma'lumotlar, maxfiy so'z va komandalarni qamrab oladi.

B

Badniyat mantiq

ing. - malicious logic

rus. - злонамеренная логика

Dasturiy, dasturiy-apparat va apparat vositalariga tatbiq qilingan dastur. Bundan maqsad ayrim shaxsi o'ratilmagan yoki zarar keltiruvchi harakatlar sodir etish. Masalan, mantiqiy bomba, troyan oti, virus, qurt.

Bag

ing. - bug

rus. - баг

Apparat yoki dasturiy ta'minot ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan mantiqiy yoki tasodifiy xato. Tizim ishidagi uzilishlar sababi, dasturiy vositalar bilan bog'liq muammo hisoblanadi. Kodni tuzatish yo'li bilan bartaraf qilinadi.

Baho

ing. - evaluation

rus. - оценка

Xavfsizlik bo'yicha topshiriq yoki baholash obyektining muayyan mezonlar bo'yicha himoya profilning bahosi.

Baholangan korrelyatsiya

ing. - enhanced correlation

rus. - взвешенная корреляция

Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli, turli dasturlarda fonli korrelyatsiyadan ishonchli ajratish maqsadida, ma'lumotlar ketma-ketligiga nisbatan qo'llaniladi.

Baholash indikatori

ing. - assessment indicator

rus. - индикатор оценки

Baholovchi tomonidan jarayon xossasini baholashga nisbatan chiqarilgan hukmni (fikrni) tasdiqlash uchun foydalaniladigan obyektiv ma'lumotlar manbalari.

Izoh - Amaliy harkatlar, axborot elementlari yoki resurslari baholash indikatorlariga misol bo'la oladi.

Baholash natijalari

ing. - evaluation results

rus. - результаты оценки

Davlat xizmatlari yo'lidagi to'sqinliklarni aniqlash maqsadida, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish

organlari va boshqa tashkilotlar tuzilmaviy asosi.

Baholash obyektini xavfsizlik

funksiyalarining ma'lumotlari

ing. - target security functions of evaluation data

rus. - данные функции безопасности

объекта оценки

Baholash obyektining ishlashi uchun zarur bo'lgan, FXT bajarilishini ta'minlaydigan ma'lumotlar.

Baholash obyektini xavfsizlik

funksiyasining interfeysi

ing. - target security functions of evaluation interface

rus. - интерфейс функции

безопасности объекта оценки

Tashqi mantiqiy obyektlar (yoki OXFda bo'lmagan VO subyektlar) OXFdan/ga ma'lumotlar uzatadigan/oladigan, shuningdek, OXF xizmatlaridan foydalanadigan vositalar.

Baholash obyektini xavfsizlik

funksiyalari orasida uzatish

ing. - inter target security functions of evaluation transfers

rus. - передача между функциями

безопасности объекта оценки

Ma'lumotlarni baholash obyektini hamda axborot texnologiyalarining boshqa ishonchli mahsulotlari xavfsizligining funksional imkoniyatlari orasida uzatish.

Baholash obyektining resursi

ing. - TOE resource

rus. - ресурс объекта оценки

Baholash obyektini foydalanadigan yoki unga zarur bo'ladigan barcha narsa.

Baholash obyektining xavfsizlik

funksiyalari

ing. - security functions of object evaluation

rus. - функции безопасности объекта

оценки

Baholash obyektining xavfsizlik siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan, baholash obyektining barcha xavfsizlik funksiyalari majmui.

Baholash organi

ing. - evaluation authority

rus. - орган оценки

Tashkilotlarning muayyan hamjamiyati doirasida o'tkaziladigan, baholash sifatini nazorat qiluvchi va standartlarni belgilovchi tashkilot.

Baholash yozuvi

ing. - assessment record

rus. - запись оценки

Baholashga taalluqli bo'lgan, baholash chog'ida yaratilgan jarayon proffillarini aniqlashtiradigan yoki tasdiqlaydigan, tartiblashtirilgan hujjatli axborot.

Baholashlar asosi

ing. - basis of estimates

rus. - основа оценок

Ruxsat etish, cheklash, detallashtirish darajasi, ishonchlik diapazonlari va darajalari kabi loyihani baholashlarni tuzishda foydalaniladigan tafsilotlar bayon qilingan hujjatlarni qo'llab-quvvatlash.

Bajariladigan

ing. - running

rus. - исполняемый

Jarayonning holati, bunda operatsion tizim boshqaruvi ostidagi protsessorda yoki kompyuter tizimi protsessorlarida jarayon komandalari bajariladi.

Bajariladigan fayl

ing. - executable file

rus. - исполняемый файл

Operatsion tizim bajarishi uchun tayyor bo'lgan fayl yoki komanda fayli.

Bajariladigan kod

ing. - executable code

rus. - исполняемый код

Protsessor bajarishi mumkin bo'lgan translyatsiya qilingan dastur umumiy nomi.

Bajariladigan kontent

ing. - executable content

rus. - исполняемый контент

HTML-fayldan ishga tushiriladigan ilova.

Bajarilish indikatori (jarayonni)

ing. - progress bar

rus. - индикатор выполнения (прогресса)

Harakatlanuvchi indikatorli satr ko'rinishidagi element. U jarayonning borishini aks ettirishda ishlatiladi.

Bajarish profili

ing. - execution profile

rus. - профиль выполнения

Kompyuter dasturi komandalari bajarilish vaqtining yoki absolyut yo nisbiy chastotasining ko'rsatilishi.

Bajarish vaqtida manzillarni bog'lash yoki dinamik (keyinroq) bog'lash

ing. - binding addresses during execution or dynamic (late) binding

rus. - связывание адресов во время исполнения или динамическое (позднее) связывание

Moslashuvchan manzillash sxemasi, bunda dasturning yoki ma'lumotlarning mutlaq manzili faqat dasturni bajarish paytida aniqlanadi, amalga oshirish uchun manzillarni aks ettirishni apparatli qo'llab-quvvatlashdan foydalaniladi, masalan, bazalar va chegaralar registrlari.

Bajarish vaqtini qo'llab-quvvatlash umumiy tizimi

ing. - common language runtime (CLR)

rus. - общая система поддержки времени выполнения

.NET texnologiyalariya doirasida Visual Basic, Visual C++, JScript, Visual C# dasturlash tillarini qo'llab-quvvatlash uchun Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tizim. Barcha kompilyatorlar CLR bilan birgalikda dasturning asos matnini MSIL tiliga o'giradi, shuning uchun qator, massiv, obyektning turli tillardagi e'lon qilinish farqi CLR da yo'qoladi.

Bajaruvchi

ing. - executant

rus. - исполнитель

Algoritm yozilgan tilni tushunadigan, bu algoritmnin juda aniq bajara oladigan odam va/ yoki avtomatik qurilma. Kompyuter axborot algoritmlarini universal bajaruvchidir. Bajaruvchi komandalar haqiqatda bajarilayotganda real bo'lishi, komandalar modellashtirilayotganda shartli bo'lishi mumkin.

Bajaruvchi blok

ing. - execution unit

rus. - исполнительный блок

Protsessorda mashina komandalarini bajarish bloki.

Bajaruvchi kichik tizim

ing. - executive

rus. - исполнительная подсистема

Asosiy tizim servislarini amalga oshiruvchi hamoyalangan rejimda bajariladigan Windows yadrosining asosiy qismi.

Bajaruvchi manzil

ing. - effective address

rus. - исполнительный адрес

Xotirlovchi qurilmaning, komandada ko'rsatilgan manzillash usuliga muvofiq, dasturni bajarishda hisoblab chiqilgan manzili.

Band

ing. - busy

rus. - занято

Manbaga yoki qurilmalarga nisbatan ishlatiladi. Manba yoki qurilma ishlayotganligi sababli, unga vaqtincha ulanish mumkin emasligini bildiradi.

Band bo'lgan abonentga

chaqiruvlarni tugatish

ing. - call completion to the busy

subscriber (CCBS)

rus. - завершение вызовов к

занятому абоненту

Chaqiruvchi abonentga so'zlashuv bilan band bo'lgan chaqiruvchi abonent bilan u bo'shagan zahoti ulanish imkonini beradigan xizmat. Izoh - Chaqiruvchi abonent bir vaqtdagi chaqiruvlarning maksimal soniga va bitta yoki barcha chaqiruvlarni bekor qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Band etish; qamrab olish

ing. - stealing

rus. - занятие; захват

Axborot yuklamasining bir qismini chiqarib tashlash hamda uning o'rniga xizmatga oid axborotni kiritish hisobiga, aloqa liniyalari va kanallarining o'tkazish qobiliyatini majburan qayta taqsimlash prosedurasini.

Band liniyaga ulanish

ing. - connecting to busy line

rus. - подключение к занятой линии

Abonentning telefon so'zlashuv olib borilayotgan aloqa liniyasiga ulanish imkoniyati.

Band qilingan, egallangan

ing. - occupied

rus. - занятый

Biron-bir boshqa jarayon (obyekt) bilan band resurs (masalan, tezkor xotira).

Banderol

ing. - letter packet

rus. - бандероль

O'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarida belgilangan, bosma nashrlar, ish qog'ozlari va boshqa buyumlar solingan ichki pochta, kuryerlik jo'natmasining turi.

Bandlik vaqtida chaqiruvni qayd etish

ing. - call registration on busy

rus. - регистрация вызова при занятости

Band abonentga chaqiruvni qayd etish imkonini beradigan xizmat. Chaqiruvchi abonent shu abonentning o'ziga kelgusi gal chaqiruv yuborishni xohlasa, bog'lanish chaqiruvchi abonent go'shakni ko'targandan so'ng avtomatik tarzda o'rnatiladi.

Bank tarmog'i

ing. - banking network

rus. - банковская сеть

Bankka yoki banklar guruhiga xizmat ko'rsatuvchi axborot tizimi. Bank tarmog'i virtual tarmoq yoki fizik tarmoq bo'ladi. Birinchi holda u, ko'p maqsadli tarmoqning mantiqiy ajratilgan qismi (begona shaxslar uchun berik) resurslarining bir qismidan yakkahokim sifatda foydalanadi. Ikkinchi holda, axborot tizimining barcha jihozlari va dasturiy ta'minoti faqat bank tizimlarining ishlashi uchun mo'ljallangan bo'ladi (masalan, SWIFT tarmog'i). Bank tarmog'ining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: banklar, ularning tarkibiy qismlari va bo'limlari o'rtasida moliyaviy elektron hujjatlarni uzatish; hisoblarni bajarishda tranzaksiyalarni quvvatlash; moliyaviy ma'lumotlar bazasidan foydalanishni ta'minlash; uzoqlikdagi bankomatlarining ishini quvvatlash; banklarning lokal tarmoqlarini birlashtirish; moliya axborot tizimlaridan foydalanish; ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash.

Bank tizimi

ing. - banking system

rus. - банковская система

Bankda moliyaviy va hisobga tegishli operatsiyalar bajarilishini ta'minlovchi texnik va dasturiy vositalar majmui.

Bankir algoritmi

ing. - banker's algorithm

rus. - алгоритм банкира

Operatsion tizim tomonidan resurslarni

taqsimlashda berk yo'llarni tasvirlash uchun mo'ljallangan E.Deykstri algoritmi.

Banklararo tizim

ing. - interbank system

rus. - межбанковская система

Bank tizimlarining o'zaro ishlash vazifalarini bajaruvchi tarmoq xizmati tizimi. Banklararo tizim ko'p maqsadli tarmoqlar yoki maxsus bank tarmoqlaridan foydalangan holda banklarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Banklararo tizimlar ishning katta ishonchligini va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydigan tarzda quriladi. Xalqaro bank moliyaviy tarmoqlar jamiyati o'zining SWIFT tarmog'iga ega.

Bankomat

ing. - ATM

rus. - банкомат

Bank mijozlarining masofadan o'z-o'zlariga xizmat qilishlarini ta'minlovchi qurilma. Bankomat ixtisoslashtirilgan foydalanuvchi tizimi bo'lib, mijoz undan foydalanib qator bank operatsiyalarini bajarishi mumkin – qog'oz kupyuralarni berish; pul qabul qilish; o'z hisobidan, magnit yoki kompyuter kartochkasidan boshqa hisobga pul o'tkazish. Bankomatdan foydalanishda mijozga klaviatura, kartochkalarni kirgizish qurilmasi va monitor taqdim etiladi.

Banner

ing. - banner

rus. - баннер

1. Maqola yoki hujjatning, sahifaning butun kengligi bo'yicha yoyilgan sarlavhasi.
2. Veb-sahifaning, reklamani va reklama beruvchining veb-saytiga havolani ichiga oladigan qismi.

Banner almashish tarmog'i

ing. - banner exchange network

rus. - баннерообменная сеть

Reklama maydonlari ishtirok etgan reklama tarmog'i. Bannerlar almashish tarmoqlarining ko'pi ochiqdir, ya'ni tarmoqning reklama siyosatiga javob beruvchi xohlagan sayt uning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Bannerlarni almashish ishtirokchisi o'z sahifala-

rida boshqa ishtirokchilar bannerlarini ko'rsatadi, buning uchun u o'z sayti sahifalarida tarmoq kodini joylashtiradi. Buning evaziga u, o'z reklamasini boshqa ishtirokchilar sahifalarida ko'rsatish huquqi va imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z reklamasini boshqa saytlarda ko'rsatish soni boshqalar reklamasini o'z sahifalarida ko'rsatishlar soniga to'g'ri nisbatda bog'liq.

Banner namoyishi

ing. - banner demonstration

rus. - баннерпоказ

Bannerni veb-sayt tashrifchisiga amalda namoyish qilish. Tashrifchining brauzeri ushbu bannerni so'rab, uni to'la yuklaganidan so'ng hisobga olinadi.

Banner reklamasi

ing. - banner advertisement

rus. - баннерная реклама

Biror veb-saytni boshqa veb-saytlarda joylashtirilgan bannerlar yordamida reklama qilish usuli. Reklama qilinayotgan veb-saytga tashriflar sonini orttirish uchun xizmat qiladi, shu bilan birga kompaniyaning, mahsulotning, xizmatlarning va h.k.ning imijini yaratish qurolidir.

Banyan tarmog'i

ing. - banyan network

rus. - баньяновая сеть

Kaskadli manzillanadigan tezkor taqsimlangan tarmoq. Banyan tarmog'ining tuzilmasi 16 kirish va chiqishga ega bo'lib bir-biri bilan ulangan oddiy ulovchi elementlardan tashkil topgan. Shu elementlar ketma-ketligi orqali ma'lumotlar bloklari uzatiladi. Banyan tarmoqlari katta o'tkazish qobiliyatini ta'minlay oladilar, chunki, ma'lumotlar bloklari ular orqali parallel ravishda o'tadi, marshrutlash vazifalarini esa, apparatlar bajaradi. Banyan tarmoqlari integral ulab-uzish uzellarida qo'llaniladi.

Barcha kiruvchi chaqiruvlarning taqiqlanishi

ing. - barring of all incoming calls

rus. - запрет всех входящих вызовов

Aloqa tarmog'idagi qo'shimcha xizmat, undan foydalanilganda barcha kiruvchi chaqiruvlar abonentga kelib tushmaydi, chiquvchi

chaqiruvlar esa, biror-bir cheklashsiz uzatiladi.

Barcha chiquvchi chaqiruvlarni taqiqlash
ing. - outgoing call barring (BAOC)
rus. - запрещение всех исходящих вызовов
Mobil abonentdan chiquvchi chaqiruvlarni, shoshilinch chaqiruvlardan tashqari, taqiqlash imkonini beradigan xizmat.

Barcha chiquvchi chaqiruvlarning taqiqlanishi
ing. - barring of all outgoing calls
rus. - запрет всех исходящих вызовов
Aloqa tarmog'idagi qo'shimcha xizmat, undan foydalanilganda chaqiriluvchi abonentning raqami yoki uning joylashgan o'mi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida saqlaydigan chiquvchi chaqiruvlar cheklanadi.
Izoh - Bunday xizmat ko'rinishlardan biri - barcha xalqaro chaqiruvlarning taqiqlanishidir.

Barcha chiquvchi xalqaro chaqiruvlarni taqiqlash
ing. - international outgoing call barring (BIOC)
rus. - запрещение всех исходящих международных вызовов

Barcha chiquvchi xalqaro chaqiruvlarni taqiqlash imkonini beradigan xizmat.
Izoh - Bunday holatda, abonent faqat o'zining MAT va u bilan xizmatlari integratsiyalashgan umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'i orqali bog'langan abonentga chiquvchi chaqiruvlarni jo'natish imkoniga ega bo'ladi.

Barchasini qabul qilish
ing. - accept all
rus. - принять все

Barcha kiritilgan o'zgartirishlar qabul qilinadigan tanlash varianti. Odatda ushbu atama operatsion tizimlarda nusxa olish, saqlash hamda o'zgartirishlarni qabul qilish jarayonida ishlatiladi.

Bardohsizlik
ing. - nonpersistence
rus. - нестойкость
Kalitlarni generatsiyalash, tarqatish va saqlashda kriptoanalitiklarning algoritmi bilan ruxsat etilmagan tarzda tanishish imkoniyati.

Barmoqdagi halqa
ing. - finger ring
rus. - кольцо на пальце
U moliyaviy operatsiyalarni bajarish uchun

mo'ljallangan tashqi qurilmadir. Mikroprocessorli halqa kompyuter kartochkasiga muqobil yechimdir. Har bir halqa xotirasiga yozib (tikib) qo'yilgan 64-razryadli raqamga ega. Bu AQSH banklar assotsiatsiyasi standarti tomonidan belgilangan yuqori darajadagi muhofazani ta'minlaydi.

Barqaror kalit
ing. - strong key
rus. - стойкий ключ
Uzunligi amalda barqaror kriptotizim tuzish uchun yetarli bo'lgan kalit.

Barqarorlik
ing. - robustness
rus. - устойчивость
Muvaffaqiyatli bajarilishi to'g'risida foydalanuvchi xabardor bo'lgan tranzaksiya tizimi ishlamay qolganda ham yo'qotilmasligini kafolatlash imkonini beradigan ma'lumotlar bazasining xususiyati. Odatda, barcha tranzaksiyalar maxsus jurnalga qayd qilinadi, bu tizimning ishlamay qolishdan oldingi holatini tiklash va tranzaksiyaning bajarilishini ta'minlash imkonini beradi.

Bartaraf qilib bo'lmaydigan xato
ing. - unconvertable error
rus. - неустраняемая ошибка
Oqibatlarini tizim vositalari yordamida bartaraf qilib bo'lmaydigan va operatorming aralashuvi talab qilinadigan xato. Masalan, dasturning normal yakunlanmasligi keltirib chiqaradigan xato shular jumlasidan.

Basiz variant
ing. - basis alternative
rus. - базисный вариант
Ko'rilyotgan loyiha yechimini taqqoslash uchun qabul qilinadigan boshlang'ich loyiha yechimi.

Bastion
ing. - bastion host
rus. - бастион
Tashqi va ichki tarmoqlar oralig'iga joylashtiriladigan, tarmoqlararo ekranning dasturiy ta'minotida ishlaydigan kompyuter-shlyuz. Internet-saytlardan foydalanish xizmati va ichki tarmoqning muhofaza qilinishini ta'minlaydi.

Bayonetli ulagich

ing. - bayonet neill-concelman connector

rus. - байонетный соединитель

Koaksial kabel uchun mo'ljallangan, yo payvandlanadigan, yoki kabelning uchida siqilgan uncha katta bo'lmagan ajratgich.

Bayroq

ing. - flag

rus. - флаг

1. Operatsion tizimlarda, dasturlash tillarida ma'lumotlarni qayta ishlash paytida foydalaniladigan, qiymatiga dasturning keyingi ishi bog'liq bo'lgan belgi.

2. Ma'lumotlar uzatish tarmoqlarida kadrlarni ajratish uchun foydalaniladigan belgi.

3. Bir yoki bir necha bitdan iborat ma'lumotlar elementi formatining bir qismi. Bitlar bu elementning statusini belgilaydi.

Bayroqdan foydalanib kodlash

ing. - flag coding

rus. - кодирование с использованием флага
Kodga kodli so'z hisoblanmaydigan va ish jarayonida so'zlar o'rtasida bo'luvchi sifatida ishlatiladigan simvollarning biror-bir ketma-ketligini qo'shish.

Bayroq-tugma

ing. - check box

rus. - кнопка-флажок

Foydalanuvchi «sichqoncha»ni bosib «yoqish» yoki «o'chirishi» mumkin bo'lgan kichik oyna (katak). Oyna X harfi kvadrat ko'rinishida yoki ichida galochka (V) si bo'lsa, odatda tugma «yoqilgan» bo'ladi. Agar kvadrat bo'sh bo'lsa, u holda tugma «o'chirilgan» hisoblanadi.

Bayt

ing. - byte

rus. - байт

Xotiraning eng kichik manzillanadigan birligi (birgalikda qayta ishlanadigan bitlar ketma-ketligi). 8 ta ikkilik razryad (bit ni) o'zida saqlaydi. Xotira hajmining o'lchov birligi hisoblanadi.

Bayt-kod

ing. - bytecode

rus. - байт-код

Virtual Java-mashinasining, operandlarning postfiks yozuvi asosida tuzilgan, komandasi.

Bayt-kod verifikatori

ing. - byte code verifier

rus. - верификатор байт-кода

Java texnologiyasi xavfsizlik modelini muhofaza qilish mexanizmlaridan biri. Java bayt-kodining Java spetsifikatsiyalariga muvofiqligini, turlar keltirilishini, stek to'ldirilishini va h.k.larni nazorat qilish imkonini beradi.

Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari

ing. - basic interactive public services.

rus. - базовые интерактивные государственные услуги

Qonun hujjatlarida belgilangan majburiy bo'lgan va idoralar tomonidan bepul asosda ko'rsatiladigan xizmatlar, ko'rsatilganligi (rasmiylashtirilganligi) yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq, yig'imlar, bojlar ko'rinishida to'lov ko'zda tutilgan xizmatlardan tashqari.

Bazaviy xavfsizlik darajasi

ing. - baseline security

rus. - базовый уровень безопасности

Muhofaza qilinganlikning, axborot tizimlari uchun qabul qilingan, majburiy bo'lgan eng past darajasi.

Bebbej analitik mashinasi

ing. - analytical car of Bebbedzha

rus. - аналитическая машина Бэббеджа

Ch.Bebbej tomonidan ishlab chiqilgan universal mexanik hisoblash qurilmasi. Kompyuterining prototipi. Amalda hozirgi kompyuterlardagi qurilmalar: xotira, arifmetik qurilma, boshqarish qurilmasi, kiritish/chiqarish qurilmalariga ega bo'lgan, mashina dastur bilan boshqarilgan. Loyiha 1834-yilda ishlab chiqilgan, lekin to'la qurilmagan.

«Bebifon»

ing. - «Babyphone»

rus. - «Бэбифон»

Voqea joyidan katta olislikda turgan abonent uchun «mavjudlik» effektni yaratish imkonini beruvchi radiotelefon. Aloqa go'shak ko'tarilgan zahoti o'rnatiladi va xonadagi tovushlarni eshitish imkoniyati ta'minlanadi.

Begunok, slyayder

ing. - slider

rus. - бегунок, слайдер

Oynada qandaydir obyekt (matn, jadval,

tasvir va h.k.) joylashtirish imkonini beradigan, boshqarish elementlari bo'lgan tor sahifa.

Bekdor

ing. - backdoor

rus. - бэкдор

Buzuvchi (xaker) buzilgan kompyuterga birinchi kirishga ega bo'lgandan so'ng tizimga takroriy kirish maqsadida o'rnatadigan dastur yoki dasturlar to'plami. Bekdor – rutkitning (qar.: rutkit) alohida muhim tarkibiy qismi.

Bekor qilish komandasi

ing. - cancel command

rus. - команда отмены

«Yo'q» natijasi bilan dastur yoki muloqot oynasi ishini tugatadigan komanda. Bunda saqlanmagan ma'lumotlar saqlanib qolmaydi.

Bekor qilish ro'yxatining sertifikat

ing. - revocation list certificate

rus. - сертификат списка аннулирования

Bekor qilingan xavfsizlik sertifikatlarining ro'yxatini belgilovchi xavfsizlik sertifikat.

Bekor qilish sertifikat

ing. - revocation certificate

rus. - сертификат аннулирования

Xavfsizlik organi tomonidan, muayyan xavfsizlik sertifikatini bekor qilinganligini ko'rsatish uchun beriladigan xavfsizlik sertifikat.

Bekor qilmoq

ing. - cancel

rus. - отменить

Foydalanuvchi tomonidan belgilangan harakatning bekor qilinishi. Ko'pgina dialog oynalari tasdiqlash zarur bo'lgan operatsiyalar uchun Cansel (bekor qilish) tugmasiga ega. Bu tugmaning bosilishi, qandaydir harakat amalga oshirilmasdan turib, oynaning ekrandan yo'qolishiga olib keladi.

Bekus-Naur kengaytirilgan shakli

ing. - extended Backus-Naur form (EBNF)

rus. - расширенная форма Бекуса-Наура
Dasturlash tili, masalan, XML grammatikasi, elementlari va atributlarini rasman belgilashning standart usuli.

Bekus-Naur normal shakli

ing. - Backus-naur form

rus. - нормальная форма Бекуса-Наура

Dasturlash tillarining sintaksisini aniqlash uchun grammatikalarni tavsiflash usuli.

Belgi

ing. - label

rus. - метка

Fayl, dastur yoki hujjatni identifikatsiyalashda ishlatiladigan simvol.

Belgi bayrog'i

ing. - sign flag

rus. - флаг знака

Qator komandalar bajarilgandan so'ng, natija belgisi qiymatini oladigan, bir razryadli registr yoki protsessor holatining so'z razryadi.

Belgi generatori

ing. - signgenerator

rus. - знакогенератор

Videotasvirlarga lavha yozish uchun mo'ljallangan apparat. Harflar o'lchamlari, shriftlari va ranglarini keng tanlash imkonini beradi. Zamonaviy apparatlar simvollar harakatlanishi, miltillash, tus berish va «ko'rinadigan qilish» kabi qo'shimcha effektlar qo'llanilishiga imkon beradi.

Belgilangan raqamlar bo'yicha ulanish

ing. - dedicated numbers accessing

rus. - подключение по назначенным номерам

Mahalliy abonentlarga chaqiruvni faqat belgilangan raqamlar bo'yicha (lekin mahalliy abonentlarga hech qanday kiruvchi chaqiruvlarni taqiqlamasdan) yuborish imkonini beradigan xizmat.

Belgilangan zonaga ega chegaralanmagan telefon aloqasini ta'minlash xizmati

ing. - wide area telephone service

rus. - услуга обеспечения неограниченной телефонной связи с определенной зоной
Abonent oldindan shartlangan summani ushbu bog'lanishlar uchun to'lovni ro'yxatdan o'tkazmasdan, ma'lum telefon apparatidan belgilangan zona chegaralarida bog'lanishlarning cheklanmagan sonini o'rnatishi mumkin bo'lgan xizmat.

Belgilar asosidagi ko'p

protokolli kommutatsiya

ing. - multiprotocol label switching

rus. - многопротокольная коммутация на основе признаков

Tarmoq trafiginin IP-paketlarni kommutatsiyalash orqali, muayyan virtual kanallarga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lgan spetsifikatsiya.

Belgilararo interval

ing. - character spacing

rus. - межзнаковый интервал

Simvollar o'rtasidagi nisbiy gorizontaal masofa.

Belgilarni almashtirish

ing. - label swapping

rus. - замена меток

Paketli uzatish texnologiyasi. Bunda paketlarni kommutatsiyalash bilan bir vaqtda tarmoq orqali paketlar uzatilishini kuzatib boradigan identifikatsiya belgilarining almashinishi ro'y beradi.

Belgilarni optik aniqlash

ing. - optical mark recognition (OMR)

rus. - оптическое распознавание символов

Grafik axborotni (masalan, skanerdan olingan axborotni) matli ko'rinishga o'tkazishga mo'ljallangan algoritim. Algoritim barcha mos keluvchi chizmalarni solishtirib, eng o'xshash belgini aniqlash usulida ishlaydi.

Belgilarni taqsimlash protokoli

ing. - label distribution protocol

rus. - протокол распределения меток

IETF tomonidan IP-paketlarini Internetning magistral kanallari bo'yicha o'tkazadigan texnologiya uchun ko'rib chiqiladigan protokollaridan biri.

Belgilash fayli

ing. - destination file

rus. - файл назначения

1. Tizimda ro'y bergan jarayonlar to'g'risidagi axborot, tizim xabarlarining loglari yoziladigan fayl.

2. Almashinuv buferi mazmuni yoki dastur moslamalarining ma'lumotlari yoziladigan fayl.

Belgili razryad

ing. - sign bit

rus. - знаковый разряд

Ikkilik sonning chapda joylashgan eng chekka razryadi. Odatda, 0 musbat sonni, 1 - manfiy sonni bildiradi.

Belgilovchi generator

ishlashining stabilligi

ing. - operation stability of

assigning generator

rus. - стабильность работы

задающего генератора

Satrlar chastotasining xatoligi standartga mu-

vofiq, 0,016 Hz dan yoki 10^{-6} (200) dan oshmasligi kerak.

Bella-Lapadula modeli

ing. - Bella-Lapadula model

rus. - модель Белла-Лападула

Avtomatlar nazariyasidan foydalanib, xavfsizlik siyosatini tavsiflashning formal modeli va erkin foydalanishni boshqarishning ko'plab qoidalarini tavsiflovchi formal model. Bu modelda tizim komponentlari obyektlar va subyektlarga bo'linadi. Xavfsizlik holati tushunchasi kiritiladi, har bir o'tish xavfsizlik holatini saqlab qolsa (ya'ni, tizimni xavfsiz holatdan boshqa xavfsiz holatga o'tkazadi), induksiya prinsipiga muvofiq, tizim xavfsiz hisoblanishi isbot qilinadi.

Bepul dasturiy ta'minot

ing. - freeware

rus. - бесплатное программное

обеспечение

Boshlang'ich kodlarsiz tarqatiladigan dasturiy ta'minot. Freeware-dasturlarni tarqatish shartlari nusxa ko'chirishni, qaytadan ishlab chiqishni, o'zgartirishni, qayta tarqatilishini taqiqlashi va litsenziya shartnomasida kelishib olingan bo'lishi mumkin.

Bepul so'zlashuv xizmati

ing. - freephone service

rus. - услуга бесплатного переговора

To'lovdan ozod etilgan telefon raqamidan abonent bilan bog'lana olish imkonini beruvchi xizmat, ya'ni chaqiruvchi abonent to'lovdan ozod etilgan ham bunday chaqiruv hisobga olinadi.

Izoh - Bunday xizmatni ta'minlash to'lovdan ozod etilgan, abonentga chiqiladigan raqamlarni translyatsiya qilish uchun xizmat ko'rsatish markazining mavjudligini taxmin qiladi. Zarur bo'lganda, abonent xizmat ko'rsatish markaziga murojaat mavjudligini taxmin qiladi. Zarur bo'lganda, abonent xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qilishi va unda ro'yxatdan o'tgan ma'lumotlarni (masalan, chaqiruvni qayta ishlash profili, to'lovdan ozod etilgan chaqiruvlarni qabul qilish uchun vaqt bo'yicha interval; bunday chaqiruvlar kelib tushishi mumkin bo'lgan zona va h.k.larni) o'zgartirishi mumkin.

Bepul chaqiruv

ing. - no-charge call

rus. - бесплатный вызов

1. Chaqiruvchi abonent hisobiga emas, balki jamoat xizmatlari hisobiga amalga oshiriladigan telefon chaqiruv.

2. Mobil aloqa tarmoqlarida ayrim kompa-

niyalar tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli xizmat, unda so'zlashuvning dastlabki n sekundi bepul bo'ladi.

Berish (o'zlashtirish) operatori

ing. - assignment statement

rus. - оператор присваивания

O'zgaruvchiga qiymat beradigan, kompyuter dasturi qo'llanmasi.

Berkituvchi kuchlanish

ing. - locking voltage

rus. - запирающее напряжение

Boshqaruvchi elektrodagi manfiy kuchlanish, unda kineskop ekranining nurlanishi to'xtaydi.

Beta testlash

ing. - beta testing

rus. - бета-тестирование

Tijorat versiyalarni chiqarishdan oldin, yangi apparat yoki dasturiy vositalarni yakuniy testlash jarayoni.

Lzoh - Beta-testlash, odatda, foydalanuvchilar va dasturchilar tomonidan o'tkaziladi. Maqsad - yangi mahsulotni real sharoitlarga maksimal yaqin bo'lgan sharoitlarda sinash. Agar beta-testlash jarayonida kutilganidan ko'p xatoliklar topilsa, mahsulot yanada mukammalroq qilishga yuboriladi, shundan so'ng beta-testlashning takroriy siklidan o'tkaziladi. Ta'kidlash kerakki, beta-testlashda foydalanuvchilar tomonidan mahsulotning o'zidan tashqari, ushbu apparat yoki dasturiy ta'minotga oid hujjatlarining dastlabki versiyalari ham o'rganiladi.

Beta-versiya

ing. - beta version

rus. - бета-версия

Dasturning tijorat versiyasini chiqarishdan oldin testlashdan o'tkazish maqsadida berilgan turdagi dasturiy ta'minotdan foydalanadigan xususiy foydalanuvchilar orasida tarqatiladigan dasturiy mahsulot versiyasi.

Beshinchi avlod tili

ing. - fifth generation language (5GL)

rus. - язык пятого поколения

Sun'iy intellektual va neyron tarmoqlarida masalalarni yechish uchun foydalaniladigan til. Hozirgi kunda bunday tillar ishlab chiqish bosqichida turibdi.

Beveraj antenasi

ing. - Beverage antenna

rus. - антенна Беведреджа

Yuguruvchi to'liqning gorizontal qabul qiluvchi antenasi, uning o'lchami yarim

to'liqdan bir necha to'liq uzunligigachani tashkil qiladi, nurlanish esa o'q bo'ylab yo'naltirilgan.

Bevosita aloqa yo'li

ing. - tie line

rus. - линия прямой связи

Ikki nuqtani muntazam ulab turuvchi sotib olingan yoki ijaraga olingan telefon aloqa liniyasi.

Bevosita hujum

ing. - direct attack

rus. - непосредственная атака

Bazaviy algoritmlar, xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi prinsiplari yoki xususiyatlarining kamchiliklariga asoslangan, tizim muhofazasini buzishga bo'lgan urinish.

Bevosita kirish (raqam)ning terilishi

ing. - direct inward dialing (DID)

rus. - прямой входной набор

1. Faks-serverning kirishdagi marshrutlash usuli.

2. Kirish aloqasining avtomatik o'rnatilishi, telefonda ichki raqamlarni to'g'ridan-to'g'ri terish, ya'ni umumfoydalanishdagi tarmoqdan kirish chaqiruvlariga ofis ichidagi ma'lum abonent bilan operator yordamisiz ulanish uchun xizmat qiluvchi funktsiya.

Bevosita kommunikatsiya

ing. - direct communication

rus. - непосредственная коммуникация

Xabarlar yordamida jarayonlarning o'zaro ishlash usuli, bunda ular kommunikatsion primitiv chaqiruvlarida nomi yoki manzillar (ko'rsatgichlari) bo'yicha bir birlarini aniqlaydilar.

Bevosita manzillash

ing. - immediate addressing

rus. - непосредственная адресация

Manzilning qiymati komanda operandi tomonidan beriladigan manzillash usuli.

Bevosita muhofaza qilish

ing. - physical security

rus. - непосредственная защита

Resurslarning qasddan qilinadigan yoki tasodifiy tahdidlardan fizik muhofaza qilinishini ko'zda tutadigan chora-tadbirlar.

Bevosita operand

ing. - immediate operand

rus. - непосредственный операнд

Xotirada joylashishiga adres havola sifatida emas, balki komandaning bir qismi sifatida kodlanadigan, shuning uchun xotiraga qo'shimcha murojaat qilish talab qilinmaydigan ma'lumotlar qiymati.

Bevosita yo'ldoshli raqamli televidion eshittirish

ing. - direct satellite digital TV broadcasting

rus. - непосредственное спутниковое цифровое телевизионное вещание

Iste'molchilar tomonidan televidion dasturlarni yo'ldoshli antennalar bilan jihozlangan raqamli televizorlarga bevosita qabul qilish uchun mo'ljallangan yo'ldoshli raqamli televidion eshittirish.

Bevosita yo'ldoshli taqsimlash

ing. - direct distribution by satellite

rus. - непосредственное спутниковое распределение

Qayd etilgan yo'ldoshli xizmat yo'ldosh liniyalaridan dastur signallarini bitta yoki undan ko'p manbada yer usti radioeshittirish uzatish stansiyalari yoki kabel taqsimlash tizimi bosh stansiyalariga shu yerning o'zida joylashgan yer usti stansiyalari orqali uzatish uchun foydalanish.

Izoh - Qayd etilgan yo'ldoshli xizmat bitta yoki bir nechta yo'ldosh orqali belgilangan nuqtalarda joylashgan yer usti stansiyalari o'rtasidagi radioaloqa xizmati hisoblanadi.

Beysik

ing. - basic

rus. - бейсик

Dastlabki eng oddiy dasturlash tillaridan biri. 1964-yilda ishlab chiqilgan mazkur dasturlash tili professional bo'lmagan dasturchilarga mo'ljallangan. BASIC tili konstruksiyasining oddiyligi, shuningdek, kompyuter bilan dialog rejimda ishlash imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi.

«Bezovta qilinmasin» xizmati

ing. - «Do not disturb» service

rus. - услуга «Не беспокоить»

Abonent ma'lum vaqt davomida, o'z apparatidan javob berishni istamagan holatda, unga kelib tushgan telefon chaqiruvlarni boshqa raqamga o'tkazish imkonini beradigan xizmat.

Biblioteka

ing. - library

rus. - библиотека

Dasturlash tillarida klaviaturali, foydalanish tizimlarida cho'ntak kompyuteri, protseduralar, kichik dasturlar, funksiyalar, makrotav-siflar saqlanadigan fayllar majmui.

Izoh - Tizim yoki til translyatori bilan birga yetkazib beriladigan standart bibliotekalar va foydalanuvchilarning o'zlari tomonidan yaratiladigan foydalanish bibliotekalari farqlanadi. Masalan, Turbo C tilida kataloglar va fayllar bilan ishlash uchun funksiyalar taqdim etilgan «dir.h» standart biblioteka bor.

Bifurkatsiya

ing. - bifurcation

rus. - бифуркация

1. To'liq o'tkazgich yoki koaksial uzatish liniyasining o'qdash tarmoqlanishi.

2. Trafikni ikki oqimga ajratish.

Bikonik antenna

ing. - biconical antenna

rus. - биконическая антенна

Umumiy o'qli simdan iborat bo'lgan ikkita turli tomonga yo'naltirilgan kesik konuslardan va tutashgan cho'qqilardan tashkil topgan antenna.

Bildirishnoma

ing. - delivery report

rus. - уведомление

Yetkazib berishni, yetkazib berishning to'xtab qolishlarini, shlyuzdagi eksportni tasdiqlovchi xabar yoki yuborilgan xabarga javob.

Bildirishnoma (yozma ma'lumot)

ing. - report (reporting statement)

rus. - рапорт (докладная записка)

Rahbariyatga yoki yuqori turuvchi mansabdor shaxsga ma'muriy ko'rib chiqish uchun yo'llangan rasmiy xabar.

Bildirmoq, xabar bermoq

ing. - notify

rus. - извещать

Biron bir narsa to'g'risida xabardor qilmoq, ma'lumot bermoq.

Bilim

ing. - knowledge

rus. - знание

Tizimlashtirilgan va predmetlar, jarayonlar, hodisalar to'g'risida aniq tasavvur beradigan

obyektiv va aniq faktlar, usullar hamda texnologiyalar jami. Intuitiv tushuncha.

Bilimlar bazasi

ing. - knowledge base

rus. - база знаний

1. Muayyan fan sohasiga taalluqli bo'lgan va birorta bilimlarni ifodalash tilida yozilgan bilimlar to'plami (masalan, faktlar va qoidalar majmui). Bilimlar bazasi, odatda, ekspert tizimlari yoki boshqa bilimlarga asoslangan tizimlarning bir qismi bo'lib hisoblanadi.

2. Murakkab tuzilgan axborot birliklarini (bilimlarni) elektron hisoblash mashinasi xotirasida izlash, saqlash, o'zgartirish va yozishni ta'minlaydigan dasturiy vositalar majmui.

Bilimlar muhandisligi

ing. - knowledge engineering

rus. - инженерия знаний

Sun'iy intellekt bo'limi, uning doirasida bilimlarni chiqarish, bilimlarni egallash, bilimlarni namoyish qilish va bilimlarni manipulyatsiya qilish bilan bog'liq barcha muammolar hal qilinadi. Bilimlar muhandisligi ekspert tizimlari va boshqa intellektual tizimlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bilimlarni avtoformallashtirish

ing. - autoformalization of knowledge

rus. - автоформализация знаний

Mutaxassis bilimlarini kompyuter uchun mo'ljallangan dastur ko'rinishida formalashtirish jarayoni. Bilimlarning avtomatlashtirilishini ta'minlash uchun maxsus usullar va vositalar (masalan, shaxsiy kompyuterlar) talab qilinadi.

Billing

ing. - billing

rus. - биллинг

Telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanilishi to'g'risida axborot to'plash, ularni tariflashtirish, abonentlarga hisob ko'rsatish, to'lovlarni qayta ishlash uchun mas'ul bo'lgan aloqa korxonalaridagi jarayonlar va yechimlar kompleksi.

Izoh - Billing tizimi billing-jarayonlarni qo'llab-quvvatlashning amaliy dasturiy ta'minotidir.

Bilvosita hujum

ing. - indirect attack

rus. - косвенная атака

Xavfsizlikni ta'minlash mexanizmini chet-

lab o'tishga yoki tizimni ushbu mexanizmdan noto'g'ri foydalanishga majbur qilishga asoslangan, tizim muhofazasini buzishga bo'lgan urinish.

Bilvosita kommunikatsiya

ing. - indirect communication

rus. - косвенная коммуникация

Xabarlar yordamida jarayonlarning o'zaro ishlash usuli, bunda xabarlar pochta qutilari yoki portlar orqali jo'natiladi va olinadi.

Bimetall to'lqin o'tkazgich

ing. - bimetallic waveguide

rus. - биметаллический волновод

Boshqa metall dan yasalgan ichki qoplamali (ko'zguli) metall to'lqin o'tkazgich.

Bin

ing. - bin

rus. - бин

1. Element (signal).

2. Sanoq (diskretlangan signal sanoq boshi).

3. Pozitsiya (signalning mumkin bo'lgan qiy-matlaridan biri).

Binar operatsiya

ing. - binary operation

rus. - бинарная операция

Ikki operand bilan bajariladigan operatsiya, masalan, ko'paytirish.

Binar patch

ing. - binary patch

rus. - бинарный патч

Kompyuter dasturlarini buzishning keng tarqalgan usullaridan biri. O'matilgan dasturning ma'lum baytlarini almashtirish orqali uning ishiga ta'sir ko'rsatadi.

Binar tasvir

ing. - binary image

rus. - бинарное изображение

Har bir piksel faqat ikkita rangning bittasini bildirishi mumkin bo'lgan raqamli rastri tasvirlarning turi. Odatda raqamli binar tasvirlarni saqlashda bit kartasi qo'llanilib, unda bir pikselni aks ettirish uchun axborotning bir biti ishlatiladi. Texnika rivojlanishining dastlabki bosqichlarida mumkin bo'lgan ikkita rang oq va qoradan iborat bo'lgan.

Binokulyar ko'rish (stereoskopik ko'rish)
ing. - binocular vision (stereoscopic vision)

rus. - бинокулярное зрение
(стереоскопическое зрение)

Bir vaqtda olinadigan tasvirlarni birlashtirgan holda, obyektlarni yo'nalishi va nisbiy uzoqligiga ko'ra lokallashtirish imkonini beradigan ko'rish.

Biokompyuting

ing. - biocomputing

rus. - биокомпьютинг

Biologik elementlar va/yoki biologik mexanizmlar modellari yordamida hisoblash.

Biologik informatika

ing. - biological informatics

rus. - биологическая информатика

Biosferada - tirik organizmlar va o'simliklarda axborot texnologiyalari amalga oshirishning umumiy qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganuvchi fan. XX asrning oxirlarida rivojlana boshlagan fundamental informatikaning bo'limi.

Biometrik identifikatsiya qilish

ing. - biometric identification

rus. - биометрическая идентификация

Biometrik qiyofalarni kuzatishning va nazorat qilinadigan biometrik parametrlarni o'lchashning berilgan usuli doirasida birinchi va ikkinchi turdagi xatolarning berilgan qiymatlari bilan muayyan shaxs biometrik qiyofalarining yig'indisini tavsiflovchi modelni yaratish jarayoni.

Biometrik ma'lumotlar

ing. - biometric data

rus. - биометрические данные

Foydalanuvchining, originallari raqamli ko'rinishda elektron hisoblash mashinasi xotirasida saqlanadigan, ovoz tembri, qo'l barmoqlarining shakli, izi va shular kabi shaxsiy farqlovchi belgilarini o'zida ifodalovchi autentifikatsiya qilish vositalari.

Biometrik texnologiya

ing. - biometric technology

rus. - биометрическая технология

Inson komandalarini biotoklar orqali foydalanuvchi tizimga yetkazish usuli.

Biometriya

ing. - biometric

rus. - биометрия

1. Shaxsni identifikatsiya qilish uchun biologik xususiyatlardan, masalan, barmoqlar izi yoki ovozdand foydalanish to'g'risidagi fan.
2. Odam shaxsini fiziologik xarakteristikalariga asoslangan avtomatik identifikatsiya qilish usullari.

Bionika

ing. - bionics

rus. - бионика

Tirik tabiat tamoyillari, xossalari, vazifalari va tuzilmalarini texnik qurilma va tizimlarda qo'llashga qaratilgan amaliy fan. Internet o'z-o'zini tashkil qiluvchi tizim bo'lib, ko'p jihatlari bilan tirik organizm evolyutsiyasini «takrorlaydi».

Bipolyar kod

ing. - bipolar code

rus. - биполярный код

Birliklar navbatma-navbat qarama-qarshi qutblilikning kuchlanish impulslarini, «0» esa impulsning yo'qligini bildiradigan signal uzatish usuli.

Bir/bir modeli

ing. - model one/one

rus. - модель один/один

Ko'p oqimlilik modeli, bunda har bir foydalanuvchi oqimi yadroning bitta aniq oqimida aks etadi.

Bir darajali qurilma

ing. - single-level device

rus. - одноуровневое устройство

Berilgan vaqtda bitta xavfsizlik darajasidagi ma'lumotlarni qayta ishlay olishi mumkin bo'lgan funksional blok.

Bir darajali tarmoq

ing. - peer-to-peer network

rus. - одноранговая сеть

Bitta yoki bir nechta kompyuterining boshqa oraliq qurilmalariga murojaat qilmasdan bir birlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlashi mumkin bo'lgan tarmoq. Bir darajali tarmoqda kompyuterlar bir vaqtda mijoz ham, server ham bo'lishi mumkin.

«Bir darcha» prinsipi

ing. - «one-stop-shop» principle

rus. - принцип «одно окно»

Davlat xizmatlarini taqdim etish prinsipi, unga ko'ra, bunday xizmatlar talabnoma beruvchi tegishli talab bilan bir marta murojaat qilgandan so'ng ko'rsatilishi kerak.

Bir dyumdagi nuqtalar soni

ing. - dots per inch (DPI)

rus. - точек на дюйм

Ekran va printerning ruxsat etish imkonini o'lchashda qo'llaniladigan birlik. Qurilma bir dyumdagi kesmada ko'rsatishi yoki chop etishi mumkin bo'lgan nuqtalar soni. Dyumdagi nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa, ekrandagi tasvir shuncha sifatli ko'rinadi.

Bir jinsli bo'lmagan tarmoq

ing. - nonuniform network

rus. - неоднородная сеть

Turli topologiya fragmentlaridan va turli xil texnik vositalardan tuzilgan kompyuter tarmog'i. Bunday tarmoqda har xil turdagi uskunalar va almashuv protokollaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Bir jinsli (gomogen) tarmoq

ing. - homogeneous network

rus. - однородная (гомогенная) сеть

Mos keladigan uskuna va umumiy almashuv protokollaridan foydalanadigan, bir jinsli tuzilmaga ega tarmoq.

Bir kanalli kuchaytirgich (jamoaviy qabul qiluvchi antennalar uchun)

ing. - single channel amplifier

(for MATV or CATV)

rus. - одноканальный усилитель (для коллективной приемной антенны)

Chastotalar polosasining kengligi bitta muayyan televizion kanal bilan chegaralangan kuchaytirgich.

Bir ko'zguli antenna

ing. - single-reflector antenna

rus. - однозеркальная антенна

Asosiy elementi fokusda nurlagich bilan joylashtirilgan parabolik ko'zgu hisoblanadigan antenna.

Bir lahzada suratga olish

ing. - snapshot

rus. - моментальный снимок

1. Maxsus dastur yordamida olinadigan

ekran nusxasi, kompyuter videoxotirasining bir zumlik nusxasi (kam hollarda tezkor xotira qurilmasi). So'ng bunday nusxani diskda saqlab qo'yish, bosib chiqarish, tahrir qilish mumkin va h.k.

2. Bir onlik nusxa, stop-kadr.

Bir martali bloknot

ing. - single-use pad

rus. - одноразовый блокнот

Vernam shifri deb ham ataladigan kriptotizim, mutlaqo tasodifan generatsiyalanadigan bit satridan foydalanadi. Kalit oqim uzunligi ochiq matn uzunligiga teng. Tasodifiy bitlar satri va ochiq matn XOR operatsiyasidan foydalanib, shifmatni ishlab chiqish uchun kombinatsiyalanadi. Bunday algoritim mutlaqo maxfiy hisoblanadi.

Bir martali parol

ing. - single-use password

rus. - одноразовый пароль

Tarmoqqa har bir kirishdan so'ng o'zgaradigan, amal qilish muddati juda qisqa bo'lgan parol.

Bir martali raqamli imzo

ing. - one-shot digital signature

rus. - одноразовая цифровая подпись

Har qanday xabar uchun raqamli imzo faqat bir marta ishlatilishi mumkin bo'lgan sxema, ya'ni har bir yangi xabar uchun kalitlarning yangi jufti talab qilinadi. Bunday sxemaning afzalligi uning tezkorligi hisoblanadi, kamchiligi – katta miqdordagi axborotni (ochiq kalitlarni) e'lon qilish zarurligi, chunki har bir imzo faqat bir marta ishlatiladi.

Bir martali xabar

ing. - single-shot message

rus. - одноразовое сообщение

Faqat bir marta ishlatiladigan identifikator yoki raqam, ya'ni har bir keyingi aloqa seansida uning qiymati yangilanadi.

Bir martali yoziladigan kompakt disk

ing. - CD-write-once

rus. - компакт-диск с однократной записью

Maxsus CD-disklarga bir martalik yozish imkonini beradigan quzilma.

Bir modali optik tola

ing. - single-mode optical fiber

rus. - одномодовое оптическое волокно

1. Signal bir moda yoki tarqalish yo'li bo'ylab o'tadigan optik to'lqin o'tkazgich (tola). Bunday tola yadrosining diametri uncha katta bo'lmaydi.

2. Faqat bir moda tarqalishi mumkin bo'lgan optik tola; odatda, bu tola pog'onali sinish ko'rsatgichiga ega bo'ladi.

Bir modal tola

ing. - single-mode fiber (SMF)

rus. - одномодовое волокно

Markaziy o'tkazgichi to'lqin uzunligi bilan taqqoslanadigan juda kichik diametrga ega bo'lgan (odatda, 5-10 mkm), yorug'lik to'lqinining tarqalish sharoitlari yagona moda bilan cheklangan tola. Nurlar, qobiqdan qaytmagan holda, yorug'lik o'tkazgichning optik o'qi bo'ylab tarqaladi. Bir modal tolaning o'tkazish polosasi 100 Gs/km va undan ko'pni tashkil etadi.

Bir nechta amaliy muhitning mavjudligi

ing. - presence several application environment

rus. - наличие нескольких прикладных сред

Bitta operatsion tizim doirasida bir nechta operatsion tizim uchun ishlab chiqilgan dasturlarni bir vaqtda bajarish imkonini beradi. Ko'p zamonaviy operatsion tizimlar bir vaqtda MS-DOS, Windows, UNIX (POSIX), OS/2 amaliy muhitlarini yoki bu ommabop to'plamdan ayrim ko'plikni ta'minlaydi. Ko'plab amaliy muhitlar konsepsiyasi, bir qismi u yoki bu operatsion tizimning amaliy muhitini amalga oshiradigan turli serverlar ishlaydigan mikroayro bazasidagi operatsion tizimda oddiy amalga oshiriladi.

Bir nechta kamerani tutib turish

ing. - multiple camera

rus. - поддержка нескольких камер

Abonentning translyatsiya vaqtida foydalaniladigan turli kameralardan tasviri tanlash imkoniyati.

Bir nurli antenna panjarasi

ing. - single-beam array

rus. - однолучевая антенная решетка

Bitta nurli shakllantiruvchi antenna panjarasi.

Bir platali kompyuter

ing. - single-board computer

rus. - одноплатный компьютер

Butunlay bitta bosma platada joylashtirilgan kompyuter.

Bir pog'onali muhofaza qilish tizimi

ing. - key to the door protection

rus. - одноступенчатая система защиты

Yagona kalit dasturiy ta'minotdan foydalanishni ta'minlaydigan muhofaza qilish tizimi.

Bir rangli arxitektura

ing. - peer-to-peer architecture

rus. - одноранговая архитектура

Har bir abonent tizimi bir xil ko'lamda resurslarni taqdim va iste'mol qilishi mumkin bo'lgan, axborot tizimining konsepsiyasi. Bir rangli arxitektura shu bilan tavsiflanadiki, unda hamma abonent tizimlar teng huquqli va ularning bir-birlarini resurslariga murojaatlari simmetrik bo'ladi. Buning evaziga, foydalanuvchi ma'lumotlarning taqsimlangan ishlovi ni bajarishi, amaliy dasturlar, tashqi qurilmalar, shu jumladan, ixtiyoriy tizimlarda joylashgan fayllar bilan ishlashi mumkin. Bir rangli arxitektura tarmoq vositalarining oddiy yuklanishi, yengil kengaytirilishi bilan tavsiflanadi.

Bir sekunddagi kilobit

ing. - kbit/s (kbits)

rus. - килобит в секунду

SI tizimidagi ma'lumot uzatish tezligining birligi.

Bir tomonga yo'nalgan interfeys

ing. - one-way interface

rus. - однонаправленный интерфейс

Ma'lumotlarning faqat bitta yo'nalishda uzatilishini ta'minlaydigan interfeys.

Bir tomonlama autentifikatsiya qilish

ing. - single-side authentication

rus. - односторонняя аутентификация

Xabar jo'natuvchi yoki oluvchini autentifikatsiya qilish.

Bir tomonlama funktsiya

ing. - one-sided function

rus. - односторонняя функция

Berilgan x argument bo'yicha $f(x)$ funktsiya

qiymati oson hisoblab chiqariladigan funktsiya. $f(x)$ ni x dan hisoblab chiqarish anchagina murakkab. Hozirgacha bir tomonlama funksiyalarning mavjudligi qat'iy isbotlanmagan. Axborotni shifrlash uchun bir tomonlama funksiyalarni qo'llab bo'lmaydi, chunki ular yordamida shifrlangan matnni, hatto uning qonuniy egasi ham rasshifrovka qila olmaydi. Kriptografiyada siri bo'lgan bir tomonlama funksiyadan foydalaniladi.

Bir tomonlama xeshlash algoritmi

ing. - single sided hashing algorithm

rus. - односторонний алгоритм

хэширования

Xesh-kod olingan dastlabki ma'lumotlarning xesh-kod qiymati asosida amalda tiklab bo'lmalik xossasiga ega bo'lgan xeshlash algoritmi.

Bir tomonlama shifrlash

ing. - one-way encryption

rus. - одностороннее шифрование

Shifrlash, dastlabki ma'lumotlari tiklanishi mumkin bo'lmagan shifrlangan matn uning natijasi hisoblanadi.

Izoh - Bir tomonlama shifrlash autentifikatsiya qilishda ishlatiladi. Masalan, bir tomonlama shifrlash usuli bilan parolni shifrlash natijasida olingan shifrlangan matn saqlanib qoladi. Kechroq taqdim etilgan parol xuddi shu tarzda shifrlanadi. Keyin olingan ikkala shifrlangan matn solishtiriladi, agar ular bir xil bo'lsa, unda to'g'ri parol taqdim etilgan.

Bir turdagi uya; bir xil chastota

sohasiga ega uya

ing. - cocell

rus. - однотипная сота; сота с

одинаковым частотным планом

Axborot almashinuvi qo'shni klasterga kiruvchi yacheykalardan biridagi kabi, ayni shu chastotalar polosalarida ta'minlanadigan, hududiy jihatdan uzoqda joylashgan yacheyka (uya).

Bir vaqtda uzatish

ing. - simultaneous broadcast

rus. - одновременная передача

Bitta dasturni bir nechta tovush yoki televizion uzatish tarmoqi orqali bir vaqtda uzatish.

Bir vaqtdagi qo'ng'iroq

ing. - simultaneous ringing

rus. - одновременный звонок

Kiruvchi chaqiruvning birdaniga abonentning bir nechta (masalan, xizmat va mobil) raqamiga tushishi. Chaqiruvni ulash birinchi bo'lib javob bergan raqamga amalga oshiriladi.

Bir vazifali operatsion tizimlar

ing. - one task operating system

rus. - однозадачные

операционные системы

Virtual mashina foydalanuvchisiga kompyuter bilan ishlashni yanada sodda va qulay qilish vazifasini bajaradi. Bir vazifali operatsion tizimlar periferiya qurilmalarini boshqarish, fayllarni boshqarish vositalari, foydalanuvchi bilan muloqot vositalarini o'z ichiga oladi.

Bir xil darajali lokal

hisoblash tarmog'i (LHT)

ing. - peer-to-peer lan

rus. - одноранговая локально-

вычислительная сеть (ЛВС)

Ajratilgan serveri bo'lmagan va markazlashtirilgan tarzda boshqarilmaydigan LHT.

Bir yo'ldoshning o'tkazish qobiliyati

ing. - per-satellite capacity

rus. - пропускная способность

на один спутник

Yo'ldosh retranslyatori samaradorligining integral ko'rsatgichi. Yo'ldosh orqali uzatiladigan berilgan o'tkazish qobiliyati (masalan, 4,8 kbit/s) bilan telefon kanallarining o'rtaacha soni sifatida baholanadi. Ma'lumotlar uzatishga mo'ljallangan tizimlarda o'tkazish qobiliyati ma'lum vaqt oraliqida (masalan, bir sutka davomida) yo'ldosh orqali uzatiladigan ma'lumotlarning yig'ma hajmi sifatida baholanadi.

Bir o'lchamli taxminlash, 1-D taxminlash

ing. - one-dimensional

prediction, 1-D prediction

rus. - одномерное предсказание,

1-D предсказание

Taxminlangan qiymat, yoyishning o'sha satridagi kadning qo'shni elementlaridan kelib chiqib olinadigan taxminlash.

Bir chastotali tarmoq

ing. - single frequency network

rus. - одночастотная сеть

Bitta radiochastota kanalida bir xil signallarni nurlantiradigan sinxronlangan uzatuvchi stansiyalar tarmog'i. Xususan, bir xil radiochastota kanalidan birgalikda foydalaniladigan va o'xshash signallar uzatiladigan DVB-T sinxronlangan stansiyalar tarmog'i.

Birga yo'naltirilgan interfeys

ing. - codirectional interface

rus. - сонаправленный интерфейс

Interfeys turi bo'lib, tarmoqdagi har bir stansiya bir vaqtning o'zida axborot signalini generatsiyalaydi. Ikkala signal ham aynan bir yo'nalishda, tarmoqning bir uzeliidan ikkinchisiga izchil uzatiladi. Bunday usulda axborot ayiriboshlaganda qarama-qarshi yo'nalishlarda uzatish, liniyaning har ikki uchidagi tayanch generatorlari avtonom bo'lgani sababli, har xil tezlik bilan amalga oshirilishi mumkin.

Birgalikda foydalaniladigan resurslar

ing. - shared resources

rus. - совместно используемые ресурсы

Bir vaqtda bir nechta foydalanuvchiga yoki jarayonga ajratiladigan resurslar.

Birgalikda stroblash yoki diskretlash

ing. - joint gating or sampling

rus. - совместное стробирование или дискретизация

Rangli alohida (komponentli) videosignalga nisbatan qo'llaniladigan diskretlash usuli. Videosignallar bu holda yorqinlik signalini zichlash quyi eltuvchi chastotalarida diskretlanadi. Masalan, 4:2:2 usul orqali. Birgalikda stroblashda ikkita rang ajratuvchi signal yoki ajratilgan yorqinlik signali aynan o'sha chastotalarda yoki yorqinlik signali stroblanadigan chastotalarning biri bilan bir vaqtda diskretlanadi.

Biriktirilgan

ing. - attachment

rus. - вложение

Elektron xatga matn ko'rinishidagi faylni biriktirish. Agar fayl formati *.txt yoki *.html ko'rinishda bo'lsa, uning mazmuni xatni o'qishda ko'rinadi.

Birin-ketin joylashtirib muhofaza qilish

ing. - defence-in-depth

rus. - эшелонированная защита

Xavfsizlik tizimi konsepsiyasi, unda tarmoqdagi har bir kichik tizim mumkin bo'lgan maksimal darajagacha muhofaza qilinadi.

Birinchi avlod

ing. - 1G

rus. - первое поколение

Analog ma'lumotlar uzatilishidan foydalaniladigan mobil aloqa tizimlari. Ularga NMT, AMPS standartlarining tarmoqlari kiradi.

«Birinchi bo'lib keldi – birinchi bo'lib

xizmat ko'rsatildi»

ing. - first in, first out

rus. - «первым пришел – первым обслужен»

Navbatni qayta ishlash usuli, bunda elementlar navbatdan navbatga kiritilgan tartibda chiqarib tashlanadi.

«Birinchi bo'lib keldi – oxirgi bo'lib

xizmat ko'rsatildi»

ing. - first in, last out

rus. - «первым пришел – последним обслужен»

Navbatni qayta ishlash usuli, bunda elementlar, ular navbatga kiritilishiga teskari tartibda navbatdan chiqarib tashlanadi va ularga xizmat ko'rsatiladi.

Birinchi munosib usul

ing. - first fit

rus. - метод первого подходящего

Resurslarni taqsimlash algoritmi (sxemasi), unga ko'ra, yangi ma'lumotlarni joylashtirish uchun birinchi bo'lib mos keladigan blok egallanadi.

Birlamchi halqa

ing. - primary loop

rus. - первичная петля

FDDI standartining ikki halqali optik tolali tarmog'idagi, foydali axborotni asosiy rejimda uzatish uchun mo'ljallangan bog'lovchi liniya.

Birlamchi kalit

ing. - primary key

rus. - первичный ключ

Amaliyotda jadvalning qatorini noyob

aniqlagich sifatida ishlatiladigan ustun mazmuni yoki ustun guruhi mazmunlari to'plami.

Birlamchi muhofaza

ing. - primary protector

rus. - первичная защита

Telekommunikatsiya simlari va yer ostida kuchlanishni cheklovchi qurilma. Namunaviy protektorlar 215 dan 350 voltgacha bo'lgan o'zgarmas tok kuchlanishini cheklaydi.

Birlamchi xatolarni aniqlovchi va tuzatuvchi tezkor xotira qurilmasi

ing. - error detection and correction (EDC)

rus. - оперативно запоминающее

устройство с обнаружением и коррекцией одиночных ошибок

Xatolarni aniqlash va to'g'rilash sxemasi. 1-bitli xotoliklarni to'g'rilashi mumkin bo'lgan va 2-bitli xatolarni aniqlay oladigan xotira sxemasi.

Birlashtirilgan protsessor

ing. - attached processor

rus. - присоединенный процессор

Kompyuterga ulangan ikkilamchi protsessor.

Birlashtirilgan yuqori tezlikli

boshqaruv kanali

ing. - fast associated

control channel (FACCH)

rus. - высокоскоростной

совмещенный канал управления

Ikki tomonlama boshqarish kanali, u orqali, odatda, mobil stansiyaning bir yacheykadan boshqasiga o'tishida chastotani almashlab ulash komandalari uzatiladi.

Birlashish

ing. - fusion

rus. - слияние

Turli axborot manbalaridan kelayotgan ikki yoki undan ortiq ma'lumot oqimini birlashtirish.

Bit

ing. - bit

rus. - бит

Mashina kodining ikkili razryadi; ikkili sanoq tizimidagi 0 yoki 1 qiymatini oluvchi axborotning eng kichik birligi.

Bit intervali

ing. - bit interval

rus. - битовый интервал

1. Bit tezligiga teskari bo'lgan birliklarda o'lchanadigan, bitta bit elementni uzatish davomiyligi.

2. Bir bitni uzatish uchun zarur bo'lgan vaqt, uzatish tezligi 10 Mbit/s bo'lganda, 0,1 μ s ni tashkil etadi.

Izoh - Vaqt nisbatlari bit intervallarida o'lchanadi.

Bit protokoli

ing. - bit-oriented protocol

rus. - битовый протокол

Ma'lumotlarni bitma-bit uzatish protokoli.

Bitdagi xato ehtimolligi

ing. - bit error rate

rus. - вероятность ошибки на бит

Aloqa kanallarining sifatini fizik sathda baholash uchun foydalaniladigan, ikkilik simvollarini qabul qilishning ishonchlilik ko'rsatgichi. Miqdor jihatdan xato qabul qilingan bitlar sonining uzatilgan bitlarning umumiy soniga nisbati sifatida aniqlanadi.

Bitkoin

ing. - bitcoin

rus. - биткойн

Bir nomdagi hisob-kitob birligidan va bir nomdagi ma'lumotlar uzatish protokolidan foydalaniladigan piring to'lov tizimi.

Izohlar

1. Turli mualliflar bitkoinlarni turlicha tasniflaydilar. Ko'proq, kriptovalyuta, virtual valyuta, raqamli valyuta, elektron naqd pullar variantlari uchraydi.

2. Bitkoinlardan, ularni qabul qilishga rozilik bildirgan sotuvchilarda tovarlar va xizmatlarga ayirboshlash uchun foydalanilishi mumkin. Oddiy valyutalarga ayirboshlash raqamli valyutalarni ayirboshlash onlayn-servisi, boshqa to'lov tizimlari yoki ayirboshlash punktlari orqali yuz beradi.

3. Bu nafaqat mahsulotlar va xizmatlar uchun hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan raqamli valyuta yoki investitsiyalar uchun vosita, balki moliya dunyosini o'zgartirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalarni testlash uchun mo'ljallangan tajriba maydoni hamdir. Bu markazlashtirilmagan, to'liq shaffof va kriptografik jihatdan himoyalangan, blokcheyn deb nomlanadigan bloklar zanjiriga asoslangan tranzaksiyalarni qayta ishlash global tarmog'i va taqsimlangan ma'lumotlar bazasidir.

Bitlar bo'yicha xatolar koefitsiyenti

ing. - bit error rate

rus. - коэффициент ошибок по битам

Xatolar bilan qabul qilingan bitlar sonining,

berilgan vaqt intervali ichida qabul qilingan umumiy bitlar soniga bo'lgan nisbati.

Bitlar bo'yicha xatolarning qoldiq koeffitsiyenti

ing. - bit error residual ratio

rus. - остаточный коэффициент

ошибок по битам

Tinish bo'lmagan holatda bitlar bo'yicha xatolar koeffitsiyenti, sistema ichidagi xatolarga qo'yimlarni, atrof muhit ta'sirini, eskirish effektlarini va uzoq muddatli xalaqlarni ichiga oladi.

Bitlar satri

ing. - bit string

rus. - строка битов

Dasturlash tillarida, ikkilik razryadlar ketma-ketliklari bilan satrlar bilan bo'lgan kabi ishlashni ta'minlaydigan ma'lumotlar turi.

Bitlar spetsifikatsiyasi

ing. - specification of bits

rus. - спецификация битов

Bir vaqtda aks ettirilishi mumkin bo'lgan ranglar yoki kul rang darajalarining soni. Kompyuter grafik kartasi kontrollerining xotira hajmi bilan belgilanadi. 8 bitli kontroller 256 rangni, 16 bitli - 64000, 24 bitli - 16,8 million rangni aks ettirishi mumkin.

Bitlar taqsimlanishining

teskari moslashishi

ing. - inverse adaptation of distribution of bits

rus. - обратная адаптация распределения битов

Bitlarning koderda ham, dekoderda ham bir xil hisob-kitoblar amalga oshiriladigan taqsimlash usuli.

Bitlarni nazorat qilish

ing. - bit counting

rus. - контроль битов

Nusxa ko'chirishdan muhofaza qilish usuli, unga ko'ra, yo'lka (yoki boshqa soha) bitlarning ma'lum sonini o'z ichiga olsa, disk original sifatida aniqlanadi.

Bitli tasvir

ing. - bit image

rus. - битовое изображение

Binar tasvir, uni raqamli shaklda aks ettirish va saqlash uchun uning har bir elementi (pikseli)ga axborotning 1 biti ajratilgan bit xaritasi ishlatiladi. Piksellarning mazmuni faqat «0» va «1» bo'lishi mumkin bo'lgani uchun binar tasvirlar, ayniqsa bir bitli binar tasvirlar, juda yaxshi siqiladi va rastri tasvirlarning boshqa turlariga qaraganda ma'lumotlarning kichik hajmi bilan ajralib turadi.

Bitli xatolar chastotasi

ing. - bit error rate (BER)

rus. - частота битовых ошибок

Uzatish sifatining o'lchami. Tayyorlik holatida turgan kanal bo'yicha test o'tkazish vaqtida uzatilgan xatoli bitlar sonining umumiy bitlar soniga nisbati teng bo'lgan raqamli uzatish tizimi uchun asosiy parametrlar.

Bitma-bit hisoblash

ing. - bit counting

rus. - подсчет побитовый

Nusxa olinishdan muhofaza qilish usuli bo'lib, qandaydir yo'lka (yoki boshqa soha) bitlarning muayyan sonini ichiga olganda, disk original sifatida aniqlanadi.

Bitreyt

ing. - bit rate

rus. - битрейт

Raqamli ma'lumotlar oqimining uzatish tezligi.

Bitta dastur - ko'p ma'lumotlar

ing. - single-program - multiple-data

rus. - одна программа - много данных

Bir dasturda ma'lumotlar oqimlarining parallel qayta ishlanishi (bajarilishi) ko'zda tutiladigan arxitektura.

Bitta kirishga ega ko'p diapazonli

kuchaytirgich (jamoaviy qabul qiluvchi antenna uchun)

ing. - single-input multiband amplifier

rus. - многодиапазонный усилитель

с одним входом (для коллективной приемной антенны)

Bir nechta muayyan radioeshittirish diapazonida ishlash uchun mo'ljallangan bit-ta kirishga ega kuchaytirgich.

Bitta komandalar oqimi – ko'p ma'lumotlar oqimi

ing. - single instruction – multiple data stream processing

rus. - один поток команд – много потоков данных

Bir necha protsessordan bir xil ma'lumotlar massivlarini qayta ishlash uchun bitta komandadan foydalaniladigan, parallel kompyuter tizimi arxitekturasida.

Bitta qo'ng'iroq

ing. - wan-giri

rus. - один звонок

Firibgarlik usuli, bunda mobil aloqa qurilmasi faqat bir marta jiringlaydi, agar uning egasi aniqlangan telefon raqamiga qayta qo'ng'iroq qilsa, firibgar ma'lum vaqt o'tgandan so'ng uning katta miqdordagi summaga hisob yuboradi.

Bitta raqamga xizmat ko'rsatish – chaqiruvni ketma-ket tugatish

ing. - one number service – global series call completion

rus. - обслуживание одного номера – последовательное завершение вызова

Chaqirayotgan abonentga menyu taqdim etish xizmati. Undan abonent klassik IS xizmatini, yoki ATC bazasidagi IS xizmatini, yoki istalgan talab qilinayotgan servisni tanlashi mumkin. Chaqirayotgan abonent DTMF yordamida uzatiladigan, o'z telefon apparatidagi raqamlar yoki belgilar kombinatsiyasini bosish yoli bilan talab qilinadigan servichni tanlaydi. Agar tanlangan xizmat qo'shimcha raqamlarni kiritishni talab qilsa, chaqiruvchi abonent aytib turish yordamida DTMF bilan uzatiladigan raqamlarni teradi.

Bitta raqamga xizmat ko'rsatish – xizmatni avtomatik tanlash

ing. - one number service – automatic service selection

rus. - обслуживание одного номера – автоматический выбор услуги

Abonent turli joylarda bo'la turib va ushbu xizmatdan foydalana turib, o'zining noyob telefon raqamidan (One number service) foydalanishi mumkin. Buning uchun beshta har xil oxirgi (terminal) liniyalari ro'yxati tegishli abonent raqamlari bilan tuziladi, ulardan foydalanish ma'lum ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bunda abonentning shaxsiy

oxirgi (terminal) liniyasi bu ro'yxatda birinchi turadi. Boshqa turli raqamlarga chaqiruvning izchil marshrutizatsiyasi ma'lum shartlar bilan amalga oshiriladi. Bunday shartlar «Abonent band», yoki «Abonent B hozir javob bermaydi» yoki ikkala shart ham bo'lishi mumkin. Bunday shartlar beshta mumkin bo'lgan bog'lanishlar uchun uning shaxsiy telefon raqamini qo'shgan holda, oldindan aniqlangan bo'lishi mumkin.

Biznes-guruhlar uchun hisob kodlari

ing. - account codes for business groups

rus. - учетные коды для бизнес-групп

Abonentga CDR (Call detail record – chaqiruvning batafsil yozuvi) ga alohida telekommunikatsiya to'lovlarini yaratish uchun hisobga olish kodini kiritish imkonini beradigan xizmat.

Biznes-hamkor uchun

mo'ljallangan elektron biznes

ing. - business to business

rus. - электронный бизнес,

ориентированный на бизнес-партнера

Axborot makonidagi iqtisodiy faoliyatning qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantirishda qatnashadigan tashkilotlar bilan, uzoq mudatli va samarali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan sohasi

Biznes-jarayon

ing. - business-process

rus. - бизнес-процесс

Resurslar iste'mol qiladigan, natijada mahsulotning muayyan guruhi (sanoat mahsuloti, qurilgan obyekt, axborot mahsuloti, boshqarish qarori va h.k.lar) ishlab chiqariladigan, o'zaro bog'langan biznes-protseduralar to'plami. Barcha biznes-jarayonlar kompaniya funksiyalarini bajarish uchun mavjud bo'lib, maqsadlar hamda strategiyalarning belgilangan iyerarxiyasiga mos kelishi kerak.

Biznes-jarayon modeli

ing. - business process model

rus. - модель бизнес-процесса

Tizimda biznes jarayonning nusxalari yaratilishida asos bo'lib xizmat qiladigan andoza (shablon). O'z ichiga quyidagilarni oladi:

- biznes-jarayon sxemasini;

- foydalaniladigan rekvizitlar ro'yxatini;

- rekvizitlarni biznes-jarayon nuqtalariga

bog'lashni, ularni hisoblash va to'ldirish algoritmlarini;
- vazifa bajarilishining reja muddatlarini.
Biznes-jarayon modeli quyidagi savollarga javob berishi kerak:

belgilangan pirovard natijani olish uchun qanday protseduralar (funktsiyalar, ishlar)ni bajarish zarur;

- bu protseduralar qanday ketma-ketlikda bajariladi;

qarab chiqiladigan biznes-jarayon doirasida nazorat va boshqaruvning qanday mexanizmlari mavjud;

- jarayon protseduralarini kim bajaradi;

- jarayonning har bir protsedurasida kiruvchi qanday hujjatlar/axborotdan foydalaniladi;

- jarayon protsedurasi chiquvchi qanday hujjatlar/axborotni yuzaga keltiradi;

- jarayonning har bir protsedurasi bajarilishi uchun qanday resurslar zarur;

- qanday hujjatlar/shartlar jarayon bajarilishini reglamentlaydi qanday parametrlar protseduralar va umuman jarayon bajarilishini tavsiflaydi.

Biznes-jarayon sxemasi

ing. - business process scheme

rus. - схема бизнес-процесса

Biznes jarayon tuzilmasini aks ettiradigan grafik sxema, shuningdek, bu tuzilma doirasida jarayonning bajarilish ketma-ketligi.

Biznes-jarayon tavsifi

ing. - description of the business process

rus. - описание бизнес-процесса

Biznes-jarayon sxemasini matnli, jadval yoki grafik tarzda taqdim etish.

Biznes-jarayonlar reinjiningi

ing. - reengineering of business processes

rus. - реинжиниринг бизнес-процессов

Ishlab chiqarish-xo'jalik va iqtisodiy-moliyaviy faoliyatning eng yuqori samarasiga erishish uchun, tegishli tashkiliy-boshqaruv hamda normativ hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, biznes-jarayonlarni tubdan qayta anglab yetish va qayta loyihalash. Reinjining axborot tizimlarining ishlab chiquvchilariga ham, menejerlariga ham tushunarli bo'lgan muammoli axborotni taqdim etish va qayta ishlashning o'ziga xos vositalaridan foydalanadi. Biznes-jarayonlar reinjiningining mazmuni uning ikki asosiy

bosqichida:

- biznes-jarayonning optimal (ideal) turini (avvalo, asosiy turini) aniqlashda;

- mavjud biznes-jarayonni (mablag'lar, vaqt, resurslar bo'yicha) optimalga ko'chirishning eng yaxshi yo'lini aniqlashda ko'rinadi.

Biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish

ing. - business process automation

rus. - автоматизация бизнес-процессов

Axborot texnologiyalari yordamida biznes jarayonlarni boshqarish tizimining amalga oshirilishi.

Biznes-jarayonlarni boshqarish

ing. - business process management

rus. - управление бизнес-процессами

Zamonaviy boshqarish uslublaridan biri, o'z ichiga biznes-jarayonlarni boshqarishning dasturiy ta'minoti va g'oyasini oladi.

Biznes-jarayonlarni modellash notatsiyasi

ing. - Business process model and notation

rus. - нотация моделирования

бизнес-процессов

Biznes jarayonlarni, biznes sohasining ishlab chiquvchilardan tortib, monitoring jarayonlarini amalga oshiradigan boshqaruvchilargacha bo'lgan har bir qatnashchisiga tushunarli bo'lgan yagona standart bo'yicha biznes jarayonlarni tavsiflash uchun ishlab chiqilgan notatsiya (shartli yozma belgilar tizimi). BPMN sxemasini yaratish, biznes jarayonlarni ishlab chiqish va ularni joriy qilish bo'yicha loyihaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Biznes-jarayonlarni optimallashtirish

ing. - optimization of business processes

rus. - оптимизация бизнес-процессов

Tashkilotning mavjud biznes-jarayonlarini qisman takomillashtirish. Funktsiyalarning takrorlanishi, axborot sirtmoqlari kabi oshkor kamchiliklardan xalos bo'lish orqali yuz beradi.

Izoh - Biznes-jarayonlarni optimallashtirish tegishli tashkiliy-boshqaruv va normativ hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Biznes-jarayonlarni optimallashtirish korxonada o'z ishini yaxshilash zarur bo'lgan: xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish siklini qisqartirish, boshqarishdagi xatolar sonini kamaytirish, krizisdan chiqish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Odatda, mulim biznes-jarayonlar optimallashtirilishi kerak, chunki aynan shu jarayonlarni optimallashtirish katta samara beradi.

Blitter

ing. - blitter

rus. - блиттер

Rastrli grafik tasvirlar bilan operatsiyalar bajarish uchun mo'ljallangan, ixtisoslashtirilgan mikrosxema.

Blog

ing. - blog

rus. - блог

O'quvchilar uchun sharh qoldirish imkoniyati bo'lgan shaxsiy onlayn kundalik (ya'ni, yozuvlarning xronologik tuzilmasiga ega veb-sayt).

Izoh - Blogdan, shuningdek, piar kanali sifatida yoki hatto, ommaviy axborot vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Blogger

ing. - blogger

rus. - блогер

Qar.: Blog.

Blogosfera

ing. - blogospher

rus. - блогосфера

Qar.: Blog.

Blok

ing. - block

rus. - блок

1. Manzil, boshqaruvchi maydon va xatolarni aniqlash imkonini beradigan nazorat summasi yakunlangan va alohida mohiyat kabi ko'rib chiqiladigan uzatilgan ma'lumotlar ketma-ketligi.

2. Sarlavha va axborot maydonidan iborat axborot birligi.

3. Ma'lum bir funksiyani bajaradigan, konstruktiv va funksional jihatdan o'zaro bog'langan elementlar va uzellar majmui.

Blok bo'yicha almashlagich

ing. - block interleaver

rus. - блочный перемежитель

Kirish ketma-ketligidagi qo'shni bitlar o'zni almashtirib qo'yilishini ta'minlovchi almashlagich.

Izoh - U ularni turli bloklar bo'yicha blok o'lehamiga teng «chuqurlikka» taqsimlaydi. Blok bo'yicha almashish operatsiyasi ortiqchilik kiritmaydi, kirish va chiqish oqimlari tezligini bir xilda saqlaydi.

Blok manzili

ing. - block address

rus. - адрес блока

Xotira sohasining manzili. Blokarga manzillar orqali murojaat qilinadi.

Blok-multipleks kanal

ing. - blockmultiplexer channel

rus. - блок-мультиплексный канал

Ma'lumotlar bloklab uzatiladigan multipleks kanal.

Blok raqami

ing. - block number

rus. - номер блока

Qurilma (odatda, disk) blokini yoki faylni identifikatsiyalovchi son. Fizik raqam manzili (yo'lka raqamini va yo'lkadagi raqamni) belgilaydi. Mantiqiy raqam qurilmadagi blokning tartib raqamini bildiradi va qurilma drayveri tomonidan fizik raqamga aylantiriladi. Virtual raqam fayl ichidagi blok raqamini belgilaydi va fayl tizimi tomonidan mantiqiy raqamga aylantiriladi. Birmuncha oddiy tizimlarda «blokning mantiqiy raqami» va «blokning virtual raqami» mos tushadi.

Blok-sxema

ing. - flowchart

rus. - блок-схема

1. Algoritmnin grafik tarzda taqdim qilinishi. Algoritm ko'rgazmaliligini oshiradi. Blok-sxemalar tuzish ayniqsa, boshlovchi dasturchilar uchun foydali.

2. Tizim tuzilmasi yoki texnik vositalar tarkibining grafik tarzda taqdim qilinishi.

Blok uzunligi

ing. - block length

rus. - длина блока

Bitta blokda bo'lgan yozuvlar, so'zlar yoki simvollarning umumiy soni.

Blokcheyn

ing. - block

rus. - блокчейн

Ichida axborot bo'lgan bloklarning, muayyan qoidalar bo'yicha qurilgan uzluksiz ketma-ket zanjiri.

Izohlar

1. Atama birinchi marta «Bitkoyn» tizimida amalga oshirilgan taqsimlangan ma'lumotlar bazasining nomi sifatida paydo bo'ldi. Shu sababli, blokcheyn ko'pincha turli

kriptovalyutalardagi tranzaksiyalarga kiritiladi.

2. Blokklar zanjiri texnologiyasi o'zaro bog'langan har qanday axborot bloklariga tatbiq qilinishi mumkin.

3. Blokcheyn texnologiyasiga kriptovalyutalar, jumladan, bitkoyin va laytkoyn, Nameccoin, Emerccoin domen nomlari-yozuvlari tizimining ma'lumotlar bazasi asoslanadi.

Blokirovka qilish

ing. - blocking

rus. - блокировка

Bir nechta foydalanuvchilar yoki jarayonlarning bitta resursdan nazorat qilinadigan foydalana olishni tashkil etish usuli. Barcha foydalanuvchilarga, bitta foydalanuvchi bundan mustasno, aniq turdagi operatsiyalarni (o'qish, yozish, o'chirish va h.k.) vaqt bo'yicha taqiqlashdan iborat.

Blokirovkalangan

ing. - locked

rus. - заблокированный

Biron-bir narsaga kira olishning chegaralanganligi (vaqtinchalik yoki doimiy). Masalan, biron-bir resursdan foydalana olish hisobi blokirovkalangan bo'lsa, u resursga bu hisob orqali ulanib bo'lmaydi.

Blokirovkalash

ing. - blocking

rus. - блокирование

Ruxsat etilmagan tarzda nusxa ko'chirishga qarshi, ma'lumotlar yoki dasturiy ta'minotni muhofaza qilishning maxsus usullarini qo'llash.

Blokirovkalash sobasi

ing. - locking unit

rus. - область блокирования

Ma'lumotlar bazasining, bitta dastur tomonidan monopol (yakka) qayta ishlash uchun ochiq bo'lgan, yopilish paytigacha boshqa dasturlar foydalana olmaydigan qismi (yozuv, soha, fayl).

Bloklab foydalanish qurilmasi

ing. - block-oriented device

rus. - блочно-ориентированное устройство
Almashinish blokklar orqali amalga oshiriladigan tashqi xotira qurilmasi (masalan, disk).

Bloklab izlash (qiymatlar blokini o'qish)

ing. - block search

rus. - блочный поиск (считывание блока значений)

Kursor ko'rsatadigan qiymatlarni o'qish, uni boshqa satrga ko'chirish maxsus operator tomonidan amalga oshiriladi.

Blokli kod

ing. - block code

rus. - блочный код

Kodlash va dekodlash kodli ketma-ketlikning ma'lum qismi – bloki doirasida amalga oshiriladigan kod.

Blokli qurilma

ing. - block device

rus. - блочное устройство

Axborotni simvollar (alohida baytlar) bilan emas, balki blokklar (baytlar guruhlari) orqali qayta ishlaydigan qurilma.

Blokli testlash

ing. - unit testing

rus. - блочное тестирование

Dasturlashdagi jarayon, dasturning ilk kodini maxsus modullari to'g'riligini tekshirishga imkon beradi. G'oya – har bir notrivial (murakkab) funktsiya yoki usul uchun test yozish. Bu o'zgartirilgan kod xato keltirib chiqarmaganligini tezda aniqlashga imkon beradi. U regressiya – oldin yozilgan va testdan o'tkazilgan dasturlarda xato kelib chiqmaganligini osonlik bilan tekshirishni va xatoni to'g'rilashni o'z ichiga oladi.

Blokli shifr

ing. - block cipher

rus. - блочный шифр

Ma'lumotlar bir xil o'lchamdagi (blokli) miqdorlar bilan shifrlanadigan shifr, keyingi blokning shifrlanish natijasi faqatgina ushbu blokning qiymatiga va shifrlash kalitiga bog'liq bo'ladi, lekin shifrlanayotgan massivdagi blokning joylashuviga va massivning boshqa bloklariga bog'liq bo'lmaydi.

Blokni bekor qilish simvoli

ing. - block cancel character

rus. - символ отмены блока

Blokning oldingi qismi e'tiborga olinmasligi kerakligini ko'rsatadigan, boshqaruvchi simvol.

Blokni nazorat qilish simvoli

ing. - block check character

rus. - символ контроля блока

Uzatiladigan ma'lumotlar blokiga qo'shiladigan va nazorat summasini ichiga oladigan xizmatga oid simvol.

Bloknot

ing. - notepad

rus. - блокнот

Microsoft Windows operatsion tizimlarining bir qismi bo'lgan oddiy matn muharriri

Bloknotli kompyuter

ing. - notebook computer

rus. - блокнотный компьютер

Statsionar shaxsiy kompyuterning keng funksional imkoniyatlariga ega bo'lgan portativ kompyuter. Kompyuterning ba'zi qurilmalari statsionar qurilmalardan farq qiladi: displey odatda, suyuq kristalli, monoxrom yoki rangli (passiv yoki aktiv matritsali); protsessor unumliligi bo'yicha statsionar protsessorlardan farq qilmaydi, biroq energiya iste'moli kam; klaviaturada klavishalar soni kam.

«Blyu-rey» texnologiyasi

ing. - Blu-Ray technology

rus. - технология «Блю-рей»

Yozib oladigan optik disklarning eng yangi avlodi; ko'k lazerdan foydalaniladigan va bir tomonlama bir qatlamli bolvankaga 17 GB dan 27 GB gacha yozish imkonini beradigan texnologiya. To'g'riqizta eng yirik kompaniya (Sony, Matsushita, Samsung, LG, Philips, Thomson, Hitachi, Sharp i Pioneer) tomonidan taklif qilingan, HP, Dell firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. «Blyu-rey» texnologiyasi bo'yicha birinchi yozish qurilmasi 2003-yilda Sony firmasi tomonidan chiqarilgan. Tashuvchiga ma'lumotlar sig'imi darajasini oshirishga $\lambda=405$ nm, aperturas 0,85 bo'lgan to'q qizil-ko'k lazerdan foydalanish hisobiga erishiladi. Tashuvchilar diametri 120 mm bo'lgan standart disklarni o'zida ifodalaydi, himoya qatlamining qalinligi 0,1 mm.

Bod

ing. - baud

rus. - бод

Analog aloqa liniyalaridagi uzatish tezligining o'lchov birligi. Bir bod bir sekundda uzatilgan bitlar soniga teng.

Bofort kvadrati

ing. - Beaufirt square

rus. - квадрат Бофорта

Vijener kriptotizimiga o'xshash ko'p alifboli kriptotizim. Teskari tartibda yozilgan Vijener kvadrati satrlari kvadrat satrlari hisoblanadi. Kriptotizim admiral Frensis Bofort sharafiga nomlangan.

Bolalardan himoya tizimi

ing. - child lock

rus. - замок от детей

Elektron himoya tizimi, ishlatilganda qurilma (masalan, televizor) faqat masofadan boshqarish pulti orqali boshqariladi, bu bolalarning undan foydalanishlarini bartaraf etadi.

Boricha/qanday bo'lsa shunday

ing. - as is

rus. - как есть

Erkin va ochiq dasturiy ta'minotni tarqatish sharti. Foydalanuvchi dasturiy ta'minotdan istiqbolli foydalanishga, ishlab chiquvchiga hech qanday da'volarsiz o'z mas'uliyati ostida rozilik bildiradi.

Bort retranslyatori (yo'ldoshli tizimning)

ing. - on-board repeater (of satellite system)

rus. - бортовой ретранслятор

(спутниковой системы)

Signallarni retranslyatsiya qilish uchun mo'ljallangan kosmik stansiya uskunasi.

Lzoh - Antenna uzimi bu uskunaga kirmaydi.

Bosib turish

ing. - hold down

rus. - удерживать

Bosgan holda ushlab turish: masalan, klaviatura klavishasini bosib turish.

Bosma plata

ing. - edge board

rus. - печатная плата

Dielektrik material (masalan, shisha tekstolit) dan qilingan plastina. Bu plastinada maxsus usullar (masalan, kimyoviy usul bilan ishlov berish yoki elektrokimyoviy cho'ktirish) bilan, plastinada mahkamlangan elektron qurilmalar (tranzistorlar, integral sxemalar)ni birlashtiradigan o'tkazgichlar hosil qilinadi. Tizim platalari va kengaytirish platalari bosma platalar hisoblanadi.

Bosmadan chiqarish

ing. - listing

rus. - распечатка

Ma'lumotlarni yoki dasturlarni printer orqali chiqarish.

Bosmaga chiqmaydigan belgilar

ing. - nonprinting symbols

rus. - непечатаемые символы

Tasvirga ega bo'lmagan va matnni boshqarishda ishlatiladigan belgilar (formatlash, joyini belgilash). Masalan, tabulyatsiya.

Bostirib kirish

ing. - inroad, intrusion

rus. - вторжение

Axborot resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishni amalga oshirish maqsadida-ga hujum.

Bostirib kirishlarni aniqlash tizimi

ing. - intrusion detection system

rus. - система обнаружения вторжений

Axborot tizimida axborotdan qasddan foydalanishga yo'naltirilgan harakatlarni avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash (blokirovkalash) funksiyalarini amalga oshiradigan, dasturiy yoki dasturiy-texnik vosita, axborotni qo'lga kiritish, yo'q qilish, buzish va undan foydalanishni blokirovkalash maqsadida, axborotga (axborot tashuvchilariga) maxsus ta'sir ko'rsatish.

Bostirib kirishlarning oldini olish tizimi

ing. - intrusion prevention system

rus. - система предотвращения вторжений

Qar.: IPS.

Bostirilgan eltuvchi

ing. - suppressed carrier

rus. - подавленная несущая

Eltuvchi chastotada to'plangan, quvvat darajasi nisbatan kichik bo'lgan modulyatsiyalangan signal (ideal holatda bu quvvat kattaligi nolga intiladi).

Bostirish

ing. - suppression

rus. - подавление

Qandaydir noxush effektlar paydo bo'lishining oldini olish, masalan, foydali signallar-

ni qabul qilishda xalaqit va shovqinlar salbiy ta'sirining yo'qotilishi.

Bot

ing. - bot

rus. - бот

Avtomatik ravishda va/yoki belgilangan jadval bo'yicha oddiy foydalanuvchi kabi va interfeyslar orqali biror-bir harakatni bajaradigan maxsus dastur.

Izoh - Odatda, kompyuterlarga bo'ladigan tarmoq hujumlari - spamni yuborish, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash, o'lisda tizim parollarini tanlash, «xizmat ko'rsatishni rad etish» hujumlarini muvofiqlashtirish uchun va boshqalarda ishlatiladi.

Botnet

ing. - botnet

rus. - ботнет

Ma'lum sondagi xostlardan iborat va botlar (avtonom dasturiy ta'minot) ishlayotgan kompyuter tarmog'i. Odatda botnet tarkibidagi bot qurbon kompyuterida yashirin o'rnatiladigan va badniyat shaxsga (botnet «egasiga») kompyuter resurslaridan foydalanigan holda ma'lum harakatlarni bajarishga imkon beradigan dasturiy ta'minotdir. Botnetlar ko'pincha spam yuborish, uzoqdagi tizimda parollarni birma-bir ko'rib chiqish, xizmat ko'rsatishni rad etish kabi noqonuniy yoki ruxsat etilmagan faoliyat uchun foydalaniladi. Qar.: Bot.

Bouz-Choudxuri-Xokengem kodlari

ing. - Bose-Chaudhuri-Hocquenghem codes

rus. - коды Боуза-Чоудхури-Хокенгема

Xatolarni tuzatuvchi ikkilik chiziqli blokli kodlar turkumi. Bu kodlar ancha samarador, lekin ularning asosiy afzalligi kodlash/dekodlashning oddiyligida (siljish registrlaridan foydalanib). BChX kodlari siklik kodlar sifatida ham ishlatiladi.

Boys-Kodd normal formasi

ing. - Boyce-Codd normal form

rus. - нормальная форма Бойса-Кодда

Munosabatli axborot baza jadvalining ehtimoliy normal formasidan biri. Bu uchinchi normal formani o'zgarishi (ba'zi manbalarda 3-Boys Kodd normal formasi deb ataladi). Rey Boys va Edgar Kodd sharafiga nomlan-gan.

Bog'langan munosabat

ing. - attributed relationship

rus. - связанное отношение

Atributlarga ega bo'lgan munosabat.

Bog'langan ro'yxat

ing. - linked list

rus. - связанный список

Elementlari xotirada ketma-ket joylashishi shart bo'lmagan ro'yxat (ma'lumotlar tuzilmasi). Navbatdagi elementdan foydalanish, ro'yxatning oldingi elementida saqlanadigan ko'rsatgich yordamida amalga oshiriladi. Oxirgi elementda ko'rsatgich, ro'yxat oxiri belgilanadigan maxsus qiymatga ega bo'ladi. Ro'yxat, uning har bir elementi ham navbatdagi, ham oldingi elementlarga havolalarni ichiga oladigan ikki yo'nalishli bo'lishi mumkin.

Bog'langanlik

ing. - connectivity

rus. - связанность

Bog'langan tarmoqni bog'lanmagan qilish uchun chiqarib tashlanishi kerak bo'lgan liniyalar sonini ko'rsatadigan tarmoq parametri. O'rtasida bog'lovchi liniyalar bo'lmagan, kamida ikki qismdan iborat tarmoq bog'lanmagan tarmoq hisoblanadi.

Bog'lanish o'rnatilishining yarim

avtomatik usuli

ing. - semiautomatic connection

rus. - полуавтоматический способ

установления соединения

Bog'lanishni o'rnatish usuli. Telefon stansiyasida bog'lanishni avtomatik o'rnatish uchun raqamni tergan holda, qo'lda amalga oshiriladi.

Bog'lanishga ulanish xizmati

ing. - pick-up facility service

rus. - услуга подключения к соединению

O'z telefonidan uzoqda bo'lgan abonent o'z liniyasiga boshqa telefon apparatidan bunday bog'lanish mavjudligi to'g'risidagi radio izlash tizimi orqali axborotni olgandan keyin, o'z telefon raqamini va/yoki maxsus kodni terib, bunday bog'lanishni qabul qilishi mumkin bo'lgan xizmat.

Bog'lanishlar asosida

ing. - connection-orientad

rus. - на основе соединения

Ma'lumotlar almashinish modeli, bunda almashinish aniq ifodalangan uch bosqichga bo'linadi: bog'lanishni tashkil qilish, ma'lumotlar uzatish va bog'lanishni uzish.

Bog'lanishning o'rnatilish vaqti

ing. - call-setup time

rus. - время установления соединения

Chaqiruv jo'natilgan paytdan to aloqa kanali taqdim etilgunga qadar o'tadigan to'liq vaqt.

Bog'lanishsiz xizmat

ing. - connectionless service

rus. - услуга без соединения

Xizmat ko'rsatiladigan abonentlar o'rtasida, oxiridan oxiriga bog'lanishni o'rnatish tadbirlaridan foydalanmagan holda axborot o'tkazilishini ta'minlaydigan xizmat.

Izoh - Interaktiv xizmatlar kabi, taqsimlash xizmatlari uchun ham foydalanilishi mumkin bo'lgan bog'lanishsiz xizmat.

Bog'lashlar

ing. - bindings

rus. - привязки

Tarmoqlarda protokol drayveri va tarmoq adapterining drayveri o'rtasida aloqa o'rnatish jarayoni.

Bog'liq bo'lmagan parallelizm

ing. - independent parallelism

rus. - независимый параллелизм

Jarayonlarni aniq sinxronlamasdan parallel bajarish. Ularning har biri alohida, mustaqil vazifani o'zida ifodalaydi. Parallelizmning bu turidan odatda, har bir foydalanuvchi o'zining ilovasi bilan ishlaydigan vaqtmi ajratish tizimlarida foydalaniladi.

Bog'liqlik

ing. - connectivity

rus. - коннективность

Tizim tarkibiy qismlarining o'zaro bog'langanligi, ulanish imkoniyati (masalan, kompyuterlarning), o'zaro ishlash qobiliyati (masalan, dasturlarning).

Bog'lovchi dasturiy ta'minot

ing. - middleware

rus. - связующее программное обеспечение

Bir xil bo'lmagan tarmoq muhitida ilovalarning ochiq ishlashini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot. Tarmoqning turli mashinalari bo'ylab taqsimlangan ilova qismlarini birlashtirilish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi. Bog'lovchi dasturiy ta'minotning quyidagi asosiy turlari bor: chiqarib tashlangan protseduralarni chaqirish; xabarlar uzatish; chiqarib tashlangan protseduralarni chaqirish; xabarlar uzatish; obyektlarga bo'ladigan so'rovlar vositachisi.

Bog'lovchi uzatish liniyasi

ing. - junction transmission

rus. - соединительная линия передачи

Tarmoq stansiyasi va uzelinini yoki ikkita tarmoq stansiyasini o'zaro bog'lovchi uzatish liniyasi.

Bog'lovchi yuklagich

ing. - linking loader

rus. - связывающий загрузчик

Qisman komponentkachi vazifasini bajaradigan yuklagich (ta'minotchi).

Bog'lovchi yo'l

ing. - communication path

rus. - соединительный путь

Axborot uzatish vaqtiga tashkil qilingan, kommutatsiya tarmog'i liniyalari, kanallari, kommutatsiya stansiyasi to'plamlari va kommutatsiya maydoni kommutatsiya nuqtalarining majmui.

Bosh domen

ing. - root domain

rus. - корневой домен

Domen tizimi nomlar iyerarxiyasidagi eng yuqori yozuv.

Bosh fayl

ing. - master file

rus. - основной файл

Normativ-ma'lumotnomali axborot fayli.

Bosh katalog

ing. - root directory

rus. - корневой каталог

Disk kataloglarining iyerarxiya tuzilmasiga kirish nuqtasi. Barcha fayllar va quyi kataloglar saqlanadigan xotira qurilmasi nomini ko'rsatadi.

Bosh kompyuter

ing. - host computer

rus. - главный компьютер

1. Ko'p mashinali hisoblash majmualarida, boshqa kompyuterlarni boshqaradigan, tizimda (hisoblash tarmog'ida) ishlarni tashkillashtiradigan va asosiy axborotni qayta ishlaydigan kompyuter.

2. Telekommunikatsiya hisoblash tarmoqlarida, tarmoqqa xizmat ko'rsatishni, xabarlarini uzatishni va dasturlarni bajarish bilan bog'liq qo'shimcha funksiyalar yoki vazifalar bajarilishini ta'minlaydigan kompyuter.

Bosh sahifa

ing. - home page

rus. - начальная страница

Asosiy sahifa. Ingliz tilidan to'g'ri tarjima qilinganligidan qat'iy nazar, bu muayyan insonning uy (shaxsiy) sahifasi emas, balki veb-saytning boshlang'ich sahifasidir. Odatda murojaatlar aynan veb-saytning bosh sahifasiga qilinadi, shuning uchun ushbu sahifaga tashrif buyuruvchilar soni xohlagan boshqa sahifaga qaraganda ko'proq. Bosh sahifa (veb-sayt yuzi) bo'yicha foydalanuvchi qayerda ekanligi va saytning boshqa sahifalarida nimalarni ko'rish mumkinligi to'g'risida tasavvur oladi (ba'zan bosh sahifa birinchi va yagona bo'ladi).

Bosh stansiya

ing. - main station, parent station

rus. - главная станция

Eshittirishlari bitta yoki bir nechta retranslyator orqali retranslyatsiya qilinadigan uzatuvchi radioeshittirish stansiyasi.

Bosh zona serverlari

ing. - root zone servers

rus. - серверы корневой зоны

Internet tarmog'idagi, yettita yuqori sath domenlariga (.com, .edu, .mil, .gov, .net, .rod i maxsus .arpa) xizmat ko'rsatadigan nomlar serverlarining xost-kompyuterlariga, shuningdek, a.root-server.net dan i.root-server.net gacha nomlanadigan milliy tarmoqlar yuqori sath nomlar serverlariga ko'rsatgichlar saqlanadigan to'qqizta server.

Bosh o'zgartirgich

ing. - head-end converter

rus. - шлюзовой преобразователь

Monokanalli kabelda signal uzatishda bir chastota kengligini boshqasiga o'zgartirish uchun ishlatiladigan qurilma.

«Boshiga» (home) klavishasi

ing. - home

rus. - клавиша «в начало»

Asosiy klaviaturadan o'ngda joylashgan klavisha. Kursorni matn boshiga surish uchun xizmat qiladi.

Boshlang'ich kod

ing. - source code

rus. - исходный код

Hisoblash tizimida qabul qilingan kodda yozilgan dastur matni (odatda, fayl shaklida). Boshlang'ich kod bajariladigan kodga butunlay, dastur kompilyator yordamida ishga tushirilgunga qadar translyatsiya qilinadi yoki interpretator yordamida darhol bajarilishi mumkin.

Boshlang'ich qiymat

ing. - default value

rus. - значение по умолчанию

Dastur sozlamalarida ichki o'zgaruvchilarning boshlang'ich qiymati. Tez-tez qo'llaniladigan qiymat asosida oldindan to'ldiriladi. Bu qiymat ish jarayonida o'zgartirilishi mumkin

Boshlang'ich sahifa

ing. - default homepage

rus. - стартовая страница по умолчанию
Brauzer ochilishida ko'rsatiladigan lokal veb-sahifa yoki Internetdagi sayt.

Boshlang'ich son

ing. - seed

rus. - начальное число

Boshqa bir, yanada uzunroq bo'lgan psevdotasodifiy ketma-ketlikni generatsiyalash uchun foydalaniladigan tasodifiy sonli ketma-ketlik.

Boshlang'ich tezlikda foydalanish

ing. - primary rate access (PRA)

rus. - доступ на первичной скорости

PRI interfeysi bilan belgilanadigan, boshlang'ich tezlikda ko'p kanalli oxirgi (terminal) uskunaning ISDN tarmog'i bilan birgalikda ishlashini reglamentlovchi foydalanish protokoli.

Boshlang'ich videosignal

ing. - signal of source scanning

rus. - исходный видеосигнал

Videosignal datchigida hosil qilinadigan videosignal.

Boshlang'ich yorqinlik signali

ing. - source signal

rus. - исходный сигнал яркости

Tasvir elementlarining yorqinligi to'g'risidagi axborotni eltuvchi elektr impulslar.

Boshlang'ich yuklagich

ing. - bootstrap loader

rus. - начальный загрузчик

Kompyuter ulanganda operatsion tizimni tezkor xotira qurilmasiga yuklaydigan dastur. Odatda, monitor tarkibiga kiradi.

Boshlang'ich yuklash

ing. - boot

rus. - начальная загрузка

Operatsion tizim (dastur) boshlang'ich qismini kompyuterga yuklash jarayoni, bundan keyin tizim (dastur) o'z boshqaruvi ostida ishlashni davom ettirishi mumkin. Bu protsedura kompyuter ishga tushirilganda yoki qisqa muddat yonib-o'chganda avtomatik tarzda bajariladi.

Boshlang'ich o'rnatish qiymati

ing. - initialization value

rus. - значение начальной установки

Kalit oqimi generatorini berilgan (ma'lum bir) holatga o'rnatish uchun qo'llaniladigan simvollar ketma-ketligi.

Boshlang'ich shart

ing. - initial conditions

rus. - предусловие

Haqiqatligi protsedura yoki sikl jismi bajarilishining boshlanishida tekshiriladigan shart. Bu, sikl yoki protsedura faqat shart chin bo'lgan holdagina bajarilishini bildiradi.

Boshlang'ich shlyuz

ing. - default gateway

rus. - шлюз по умолчанию

Foydalanuvchi kompyuteri va tarmoq o'rtaqidagi ma'lumotlarni o'tkazadigan, joriy tarmoq uzeli rolini bajaradigan kompyuter. Internetga bog'lanishda ma'lum bir

kompyuter shlyuz deb ko'rsatilmagan bo'lsa, joriy shlyuzdan foydalaniladi.

Boshqa oynalar ustida

ing. - always on top

rus. - поверх других окон

Dasturlarning barcha qolganlarni, jumladan aktiv oynalarni ham qoplash imkoniyati.

Boshqariladigan

ing. - slave

rus. - ведомый

Yetakchi deb nomlanuvchi boshqa qurilma tomonidan boshqariladigan qurilma (kompyuter, kontroller).

Boshqariladigan ilovalar

ing. - managed application

rus. - управляемые приложения

NET ishlab chiqish vositalaridan foydalanib va spetsifikatsiyalarga muvofiq yaratilgan dasturlar.

Boshqariladigan kod

ing. - managed code

rus. - управляемый код

Boshqa dasturlar tomonidan tahlil qilinishi mumkin bo'lgan, oraliq tildagi kod.

Boshqariladigan obyekt

ing. - controlling object

rus. - управляющий объект

Protsecuraning asinxron chaqiruv bilan boshqariladigan, uzilishni qayta ishlash, elektr ta'minoti to'g'risidagi notifikatsiya yoki profilash bilan boshqariladigan Windows tizimi objekti.

Boshqariladigan raqamli video yozuv

ing. - network personal video recorder

rus. - управляемая цифровая видео запись

Kontentni keyinchalik individual ko'rib chiqish maqsadida tarmoqda saqlash.

Boshqariladigan resurs

ing. - managed resource

rus. - управляемый ресурс

Axborot texnologiyalari muhitida - tizimda mavjud bo'lgan va boshqarish mumkin bo'lgan obyekt.

Boshqariladigan yetkazib berish dasturi

ing. - programme delivery control

rus. - программа с управляемой доставкой
Eshittirish dasturlarining dasturning har bir

qismi foydalanuvchiga qabul qilgichni ulash yoki tanlangan dasturni yozib olish uchun dasturning bir yoki undan ko'p qismini oldindan tanlash imkonini beradigan farqlash signaliga ega turi.

Boshqariluvchi sinxronlash

ing. - driven synchronization

rus. - ведомая синхронизация

Boshqariluvchi sinxronizator signallarining chastotasi va fazasini yetakchi sinxrosignal yoki to'liq videosignal chastotasi va fazasiga sozlash orqali amalga oshiriladigan televizion sinxronlash.

Boshqarish

ing. - controlling

rus. - управление

1. Obyektga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir etish jarayoni. Berilgan talablarga muvofiq, uning ishlashini tashkil qilish uchun amalga oshiriladi.

2. Aniq bir maqsadni ta'minlash uchun, obyektga ta'sir ko'rsatish jarayoni. Boshqariladigan obyekt; boshqarishni amalga oshiradigan blok; boshqarish obyektidan boshqaruvchi blokka kelib tushadigan, teskari aloqani amalga oshiradigan ma'lumotlar; boshqarishning o'zini ta'minlaydigan signal-lar yoki ma'lumotlar boshqaruvda ishtirok etadi. Boshqaruv bilan fan sifatida kibernetika shug'ullanadi.

Boshqarish bloki

ing. - control block

rus. - блок управления

Boshqaruvchi axborotni saqlash uchun foydalaniladigan xotira sohasi.

Boshqarish domeni

ing. - management domain

rus. - домэн управления

Ma'lumotlar va jarayonlarni almashinish uchun loyihalashtirilgan va qurilgan, har biri taqsimlangan ikki yoki undan ortiq axborot tizimidan iborat ko'plikni qamrab oladigan soha.

Boshqarish imkoniyatlari bo'lgan

ko'p stansion foydalana olish

ing. - opportunity driven
multiple access (ODMA)

rus. - многостанционный доступ с управляемыми возможностями
UMTS tizimida foydalanish uchun **ETSI** tomonidan 1997-yilda tavsiya qilingan va **CDMA/TDMA** ni kod-vaqt bo'yicha ajratish usuliga asoslangan mobil aloqa texnologiyasi. Ilgari bu usul **E** konsepsiyasi nomi bilan ma'lum edi. **ODMA** da qisqa zondlovchi paketlarni uzatish jarayoni maxsuslashtirilgan, uning yordamida mobil stansiya o'zining yaqin qo'shnilarini aniqlab oladi, bu unga yo mobil aloqa rejimida yoki tayanch stansiyaning chetlab, qo'shni stansiyalar bilan to'g'ri-dan-to'g'ri ishlash imkonini beradi.

Boshqarish oqimi

ing. - control flow

rus. - поток управления

Jarayonlar bajaradigan komandalarning ketma-ketligi.

Boshqarish paneli

ing. - control panel

rus. - панель управления

Zamonaviy kompyuterlar ekranida operatsion tizim, qurilma yoki kompyuter kichik tizimlarining u yoki bu funksiyalarini sozlaydigan utilitalar piktogrammalari to'plami ko'rinishida taqdim etilgan panel.

Boshqarish qurilmasi

ing. - control unit

rus. - устройство управления

Protssorning komandalar bajarilishi tashkillashtirilishini boshqaradigan, muhim bloklaridan biri. Protssorlarda qat'iy mantiqqa ega (sxemaviy) va mikrodisturli ikkita boshqarish usulidan foydalaniladi.

Boshqarish tizimi

ing. - management system

rus. - система управления

Sayt, portal, axborot majmui yoki ularning qismini boshqarishni ta'minlaydigan tizim. U, shuningdek, obyektidan foydalanish nazoratini va undan ruxsatsiz foydalanishdan muhofaza qilishni amalga oshiradi.

Boshqarish vositalari

ing. - controls

rus. - средства управления

Riskni modifikatsiya qilishda qo'llaniladigan o'lchov.

Izohlar

1. Boshqarish vositalariga har qanday jarayonlar, siyosatlar, qurilmalar, protseduralar yoki riskni modifikatsiya qilishga yo'naltirilgan boshqa ishlar kiradi.
2. Boshqarish vositalari taxmin qilinadigan yoki yo'l qo'yiladigan modifikatsiyani har doim ham bajara olmaydi.

Boshqaruv axborot tizimi

ing. - executive information system

rus. - управленческая

информационная система

Rahbarga qarorlar qabul qilishda yordam beradigan qayta ishlangan va tizimlashtirilgan axborot taqdim etadigan muassasa hisoblash tizimi.

Boshqaruv kanali

ing. - control channel

rus. - канал управления

Tayanch stansiyadan mobil stansiya tomon yo'nalishda tashkil etiladigan mantiqiy kanal, undan xizmat axboroti, shu jumladan, aloqa kanalining berilishi yuzasidan so'rovlar uzatiladi.

Izoh - Tranking tizimlarda tayanch stansiya boshqarish kanali orqali ishchi kanalning ajratib berilishi so'rovini yoki navbatga qo'yish to'g'risidagi xabarni uzatadi.

Boshqaruv nazorati

ing. - management control

rus. - контроль управления

Axborot-hisoblash tarmog'ini boshqarish vazifalarini bajaradi. U ma'lumotlarni uzatish tizimlari, terminallari va kanallarini ishga tushirish va o'chirish, nosozliklarni aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'plash, hisobotlarni tayyorlash va h.k. bilan bog'liq.

Boshqaruv shinasi

ing. - control bus

rus. - шина управления

Kompyuter qurilmasini birlashtiruvchi uchta shinadan biri, boshqaruvchi signallarni yuborish uchun xizmat qiladi.

Boshqaruvchi axborotning umumiy protokoli

ing. - common management information protocol (CMIP)

rus. - общий протокол

управляющей информации

Tarmoqni boshqarish tartibotlarini aniqlaydigan ISO standarti. CMIP protokoli tarmoqni boshqarish funksiyalarini aniqlaydi va

olti xil xizmatlarni taqdim qiladi:

- konfiguratsiyani – tashqi shaklini, hamda tarmoq tarkibiy qismlarini o‘zaro joylashuvini boshqarish;
- ma'lumotlar muhofazasini boshqarish;
- ma'lumotlar xavfsizligini nazorat qilish;
- tarmoq ishining hisobini olib borish;
- faoliyat sifatini boshqarish;
- kataloglar xizmatini olib borish.

Boshqaruvchi dastur

ing. - control program

rus. - управляющая программа

Boshqa dasturlarning bajarilishi bilan boshqariladigan va kiritish-chiqarish qurilmasining ishlashi bilan boshqariladigan operatsion tizimning kichik tizimi.

Boshqaruvchi ketma-ketlik

ing. - control sequence

rus. - управляющая последовательность

Periferik qurilmalarning ba'zi turlarini, masalan, printer va modemlarni boshqarish uchun foydalaniladigan simvollar ketma-ketligi.

Boshqaruvchi signallar

ing. - manager signals

rus. - управляющие сигналы

Tashqi qurilmalarni boshqarish uchun resiver tomonidan shakllantiriladigan va TV signal bilan umumiy kabel orqali uzatiladigan signallar. 0/12 V signalli alohida sim orqali uzatiladi.

Boshqaruvchi tuzilma

ing. - control structure

rus. - управляющая структура

Operatsiyalar bajarilishi ketma-ketligini berish uchun mo'ljallangan dasturlash tili konsruksiyasi: sikl operatorlari, shartli operator.

Boshqaruvchi xotira

ing. - control storage

rus. - управляющая память

Boshqaruvchi dasturlar yoki mikro dasturlarni ichiga oladigan xotira qurilmasi.

Boshqaruvni markazlashtirish

ing. - dispatching

rus. - диспетчеризация

Operatsion tizimning rejalashtiruvchisi to-

monidan jarayonlarga protsessor vaqti kvantlarini navbati bilan ajratish.

Brauzer

ing. - browser

rus. - браузер

Mijozning server bilan birga ishlashini ta'minlaydigan dasturiy kompleks. Internet tarmog'ining WWW texnologiyasida brauzer axborot sahifalarini ko'rib chiqish, ma'lumotlar olish imkonini beradi. Ba'zi bir brauzerlar o'z ichiga Java tili vositalarini oladi.

Broker

ing. - broker

rus. - брокер

Turli ko'rinishdagi operatsiyalarda vositachi. Broker-inson bilan bir qatorda, elektron brokerlar ham faoliyat ko'rsatadilar. Informatikada broker amaliy dastur bo'lib, boshqa guruh dasturlarining o'zaro aloqasini ta'minlaydi. Buning misoli sifatida obyekt so'rovlarini brokerini keltirish mumkin.

Bryuster burchagi (to'liq qutblanish burchagi)

ing. - Brewster corner (corner to full polarization)

rus. - угол Брюстера (угол полной поляризации)

Qutblanmagan yorug'lik nurining tushish burchagi, bunda dielektrik yuzasidan qaytgan yorug'lik yassi qutblangan bo'ladi.

Bufer

ing. - buffer

rus. - буфер

1. Ma'lumotlarni oraliqda saqlash uchun xotirani dasturiy yoki apparatli tarzda ishlatish va undan turli tezlikda ishlaydigan ikki qurilma o'rtasida ma'lumotlar uzatishda axborotni qayta ishlash tezligidagi farqni yo'qotishda foydalanish.

2. Optik tola atrofida joylashgan himoya qo'big'i.

Bufer registri

ing. - buffer register

rus. - буферный регистр

Sxemotexnikada asinxron jarayonlarni moslashtirish uchun, masalan, kompyuterga

ma'lumotlarni sekin ishlaydigan tashqi qurilmadan kiritish uchun keng foydalaniladigan registr.

Bufirlash

ing. - buffering

rus. - буферизация

Bufir xotira qurilmasidan foydalanish.

Buferning to'lishi

ing. - buffer overflow

rus. - переполнение буфера

Himoyalash tizimining zaiflashishiga olib keladigan dasturiy xatolik. Xotirada massivning chegarasidan ma'lumot yozuvlarining chiqib ketishini avtomatik nazorat qila olmaslik natijasida yuz beradi.

Bul algebrasi

ing. - Boolean algebra

rus. - булева алгебра

Zamonaviy kompyuterlarda keng qo'llaniladigan, ikki belgili mantiqiy o'zgaruvchilar (1 va 0) ustida bajariladigan operatsiyalar to'plami. Uni yaratgan matematik Jorj Bul sharafiga shunday deb ataladi. Mantiqiy ko'paytirish, qo'shish va inkor etish operatsiyalaridan foydalaniladi, ulardan istalgan boshqa Bul operatsiyasini tuzish mumkin.

Bul ifodasi

ing. - Boolean expression

rus. - булево выражение

Barcha o'zgaruvchilar yo nol yoki 1 qiymatga ega bo'lgan matematik ifoda.

«Bulutli hisoblashlar»

ing. - cloud-based computing

ru - «облачные вычисления»

Dinamik masshtablanadigan va virtuallashtirilgan resurslar (ma'lumotlar, ilovalar, operatsion tizimlar va b.q.) ga asoslangan hisoblash modeli. Undan foydalanish mumkin va servis sifatida Internet orqali foydalaniladi hamda yuqori samarali ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari yordamida amalga oshiriladi.

«Bulutli ilovalar»

ing. - cloud applications

ru - «облачные приложения»

Ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarining kompyuterlarida «bulutli hisoblash»

(masalan, Windows Azure) muhitida bajariladigan ilova.

Burchak tarqoqligi

ing. - angle diversity

rus. - угловое разнесение

Fazoviy tarqalish usuli, unda ikki nurlu yoki ko'p nurlu yo'nalganlik diagrammasini shakllantiruvchi bir nechta nurlagichli bitta antenna ishlatiladi.

Buriladigan platforma

ing. - rotating platform; turntable; spinner

rus. - поворотная платформа

Obyektning harakati jarayonida berilgan yo'nalishdan nur og'ishining avtomatik kompensatsiyasini ta'minlaydigan, ko'chma obyektga yoki yo'ldoshga o'rnatilgan parabolik antennali yoki nurlagichli platforma.

Burmoq

ing. - rotate

rus. - поворачивать

Har bir nuqtani markazga nisbatan bir xil gradusga burishdan iborat rasmlar yoki grafik obyektlar ustida bajariladigan operatsiya.

Burchakli antenna

ing. - corner antenna

rus. - уголковая антенна

Ikkita yassi qaytadigan sirtlar bilan hosil qilinadigan burchak ichiga joylashtirilgan bitta yoki bir nechta nur tarqatgichdan iborat yo'naltirilgan antenna.

Butun

ing. - integer

rus. - целое

Kiritiladigan oddiy turdagi ma'lumotlar. Belgili, belgisiz, qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin.

Butun sonli o'zgaruvchi

ing. - integer variable

rus. - целочисленная переменная

Butun sonli qiymatlarni saqlaydigan oddiy turdagi o'zgaruvchi.

Butunga bo'lish

ing. - exact division

rus. - деление на целое

Arifmetik amal. Uning natijasi – xususiyning butun qismi, kasr qismi tashlab yuboriladi. Deyarli barcha dasturlash tillarida bor. A div

b yozuv bilan, ba'zi tillarda a/b qilib belgilanadi.

Butunjahon hisoblash tarmog'i

ing. - world area network

rus. - всемирная вычислительная сеть

1. Yer sharidagi barcha axborot-hisoblash tarmoqlarining jami.

2. Bir nechta mamlakat yoki kontinent hududini qamrab oladigan axborot-hisoblash tarmog'i.

3. Kommutatsiyalanadigan va ajratilgan liniyalardan yoki maxsus telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda, axborotning katta masofalarga uzatilishini ta'minlaydigan tarmoq.

Butunjahon tarmog'i

ing. - World Wide Web

rus. - всемирная сеть

1. Internetda resurslarni izlashning va ulardan foydalanishning gipermatnli tizimi.

Izoh - World Wide Web bu tarmoq kompyuterlarida saqlanadigan har qanday ma'lumoti, ularni bog'laydigan giperhavolalar tizimi orqali ko'rib chiqish imkonini beradigan Internet xizmatlari to'plamini taqdim etadi.

2. Internet orqali foydalana olish amalga oshiriladigan veb-uzellar ko'pligi.

Buyuk Britaniyaning universitetlar tarmog'i

ing. - Joint Academic Network (JANET)

rus. - университетская сеть

Великобритании

O'zini ta'lim va tadqiqot ishlariga bag'ishlagan Britaniya Davlat xususiy kompyuter tarmog'i.

Buyumlar Interneti

ing. - Internet of things

rus. - Интернет вещей

Axborot jamiyati uchun belgilangan, mavjud va rivojlanadigan, funksional jihatdan mos axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida (moddiy va virtual) buyumlarni bir-biri bilan bog'lash yo'li bilan birmuncha murakkabroq xizmatlar taqdim etilishi imkoniyatini ta'minlaydigan global infratuzilma.

Buyurtma dasturiy ta'minot

ing. - custom software

rus. - заказное программное обеспечение
Berilgan ilova (dastur) uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot.

Buyurtma pochta jo'natmasi

ing. - registered mail item

rus. - заказное почтовое отправление

Jo'natuvchiga kvitansiya berib joylanmaning qiymati baholanmasdan qabul qilinadigan va adresatga tilxat bilan topshiriladigan pochta jo'natmasi (xat, pochta varaqchasi, banderol, sekogramma, mayda paket va «M» belgisi qop).

Buzilish

ing. - corruption

rus. - разрушение

Aloqa liniyasi orqali uzatiladigan xabar mazmunining asliga qaytarib bo'lmaydigan tarzda o'zgartirilishi.

Buzilishga nisbatan barqarorlik

ing. - fault tolerance

rus. - отказоустойчивость

Tizimning uzluksiz ishlay olishi va biror-bir xatolik ro'y berganda uni muvaffaqiyatli bartaraf etish imkoniyati.

Buzilishgacha ishlash muddati

ing. - mean-time-between-failure

rus. - наработка на отказ

Televizor (tiklanadigan mahsulot)ning ishlaymay qolishlari o'rtasidagi ishlash muddatining o'rtacha qiymati.

Buzilishgacha ishlash vaqti

ing. - time to failure

rus. - время наработки на отказ

Hisoblash tizimi yoki qurilmaning ikkita texnik ketma-ket buzilishlari orasidagi o'rtacha vaqt. Tizimning ishonchlilik ko'rsatgichlaridan biri.

Buzish

ing. - hacking

rus. - взлом

1. Tarmoqda ishlovchi foydalanuvchi autentifikatsiyani tugatganda, odatda, aktiv hujumni amalga oshirish maqsadida, aloqa seansining boshlanishini tutib olish. Bu vaqtda jinoyatkor tizimga qonuniy foydalanuvchi sifatida kirishga harakat qiladi, bu unga ikkita stansiya o'rtasidagi ulanishni nazorat qilish imkonini beradi.

2. Raqib tomonidan kriptografik protokol (kriptografik sxema)ning barqarorligiga tahdidlarning amalga oshirilishi, ya'ni ushbu tahdidni belgilovchi masalani hal qilish.

Buzuvchi**ing.** - hacker**rus.** - взломщик

Muhofazalangan tizimga ruxsat etilmagan tarzda kirishga urinuvchi shaxs.

Buzg'unchi**ing.** - intruder**rus.** - нарушитель

Tizim resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishga (bu resurs bilan ishlashda uning uchun taqiqlangan harakatlarni bajarishga urinish) xato, bilmaslik oqibatida yoki yovuz niyatda (o'z manfaatlari yo'lida) yoki shunchaki (o'yin yoki o'zini namoyon qilish maqsadida) uringan (urinib ko'rgan) va buning uchun turli xil imkoniyatlar, usullar va vositalardan foydalangan shaxs (subyekt).

Bo'lim**ing.** - block**rus.** - раздел

Dasturning maxsus ma'noga ega bo'lgan qismi. Masalan, Pascal tilida dasturiy blok umumiy ko'rinishda belgilar, konstantalarni tavsiflash bo'limlaridan, ma'lumotlar turlarini aniqlash, o'zgaruvchilarni, protseduralar, funksiyalar, operatorlarni tavsiflash bo'limlaridan tuzilgan.

Bo'lingan ekran**ing.** - split screen**rus.** - разделённый экран

Kompyuter grafikasida bitta ekranning bir nechta (odatda bir biriga bog'liq bo'lgan) video oqimlari yoki matnli axborotni bit-ta displeyda bir vaqtning o'zida aks ettirish uchun bir nechta yondosh qismlarga ajratilishini ta'minlaydigan aks ettirish texnikasi.

Bo'lingan vaqt rejimi**ing.** - time sharing mode**rus.** - режим разделённого времени

Kompyuterdan foydalanish rejimi. Bunda mashinaga joylashtirilgan maxsus dastur turli vazifalarning alohida qismlarini, bir biriga «aralashmagan» holda, ketma-ket yechishi ta'minlanadi.

Bo'luvchi**ing.** - divider**rus.** - делитель

Berilgan nisbatda kuchlanish yoki quvvat pasayishini yoki chastotaning butun son marta bo'linishini ta'minlovchi qurilma.

Bo'yash**ing.** - fill**rus.** - закрашивание

Grafik ekranning ba'zi sohasini rang yoki standart ornament bilan to'ldirish protsedurasi. Bo'yash grafik redaktorlarda yoki amaliy dasturlarda dasturlash tillarining tegishli protseduralari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bo'yash bloki**ing.** - coloriser**rus.** - блок раскрашивания

Televizion tasvimi yoki uning fragment(lar)ini istalgan rangga bo'yash uchun mo'ljallangan qurilma.

Bo'sh bog'langan tizim**ing.** - loosely coupled system**rus.** - слабосвязанная система

Har bir protsessor o'zining lokal xotirasiga ega bo'lgan, turli protsessorlar esa o'zaro aloqa liniyalari orqali ishlaydigan taqsimlangan kompyuter tizimi.

«Bo'sh joy» klavishasi**ing.** - spacebar**rus.** - клавиша «пробел»

Klaviatradagi, bo'sh joy simvolini terish uchun xizmat qiladigan klavisha.

Bo'shsh vaqti**ing.** - takedown time, release time**rus.** - время освобождения

Abonentlardan birining bog'lanishi tugagan vaqtdan to shu liniya boshqa abonentlar uchun bo'shaguncha ketgan vaqt.

Bo'shliq**ing.** - null**rus.** - пустота

1. C va C++ dasturlash tillarida nol ko'rsatgichni anglatadi.
2. Ma'lumotlar bazasi jadvalining maydonida yozish mumkin bo'lgan maxsus qiymat (soxta qiymat).
3. Ayrim dasturlash tillaridagi mutlaqo hech qanday qiymatga ega bo'lmagan konstanta.

D

Dalil

ing. - evidence

rus. - доказательство

O'zicha yoki boshqa axborot bilan birga foydalanilganda, bahsni hal qilish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot.

Izohlar

1. Raqamli imzolar, himoya qobiqlari va xavfsizlik markerlari dalilning aniq ko'rinishlari hisoblanadi.
2. Raqamli imzolaridan ochiq kalitlar usullari bilan birga foydalaniladi, himoya qobiqlari va xavfsizlik markerlari esa, maxfiy kalitlar usullari bilan birga qo'llaniladi.

Damp

ing. - dump

rus. - дамп

1. Xotira yoki fayl ichidagini ekranga chiqarish, faylga olish yoki chop etish. Odatda, matnli xabarlarni izlash uchun, yoki kompyuterning osilib qolish sabablarini aniqlash maqsadida, shuningdek, dasturni sozlash paytida amalga oshiriladi.
2. Kriptovalyuta kursining iqtisodiy jihatdan juda tez va asossiz pasayishiga olib boruvchi vaziyat. Odatda tajribali treyderlarning maqsadli harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Daqiqqa

ing. - minute

rus. - минута

60 sekundga teng vaqt birligi. Ma'lumotlarni uzatish tezligini aniqlashda ishlatiladigan asosiy kattaliklardan biri.

Daraja videosignal

ing. - level of a video signal

rus. - уровень видеосигнала

Videosignalni, odatda, kuchlanishni taqdim etuvchi elektr kattalikning ko'pincha foizlarida yoki ma'lum tayanch ko'lamining ulushi, masalan, 1 volt bilan ifodalangan videosignal chegarasiga nisbatan oniy qiymati.

Darajalarni oldindan korreksiya qilish

ing. - precorrection of levels

rus. - предкоррекция уровней

Muayyan signallar yoki kabel taqsimlash tizimining shu nuqtasidagi signallar guruhi o'rtasida atayin o'rnatilgan darajalar farqi.

Darajalarni uzatish xarakteristikasi

ing. - characteristic of transmission of levels

rus. - характеристика передачи уровней

Eshittirish televideniyesi trakti yoki trakti zvenosining tasvir kanali chiqishidagi televizion tasvir yorqinlik darajalarining yoki yorqinlik signali darajalarining bu kanal kirishidagi obyektlar yorqinlik darajalariga yoki yorqinlik signali darajalariga bog'liqligi.

Darajani nazorat qilish

ing. - level monitoring

rus. - контроль уровня

Ma'lum xarakteristikalariga ega o'lchash apparaturasidan foydalanib dasturiy signallarning darajasini kuzatish.

Darajani qayd etish

ing. - clamping

rus. - фиксация уровня

1. To'liq videosignal bir qismi darajasini ma'lum qiymatda ushlab turish.
2. Sinxronlash signali impulslarining o'chirish darajasi yoki yuqori darajasi bitta potentsialga keltiriladigan videosignalni qayta ishlash.

Izoh - Darajani qayd etish, odatda, tasviming doimiy tashkil etuvchisini tiklashda qo'llaniladi.

Darajani rostlagich (kabel tarmog'ida)

ing. - level controller (in cable network)

rus. - регулятор уровня (в кабельной сети)

Bitta yoki bir nechta signalning doimiy darajasini, signalga nisbatan boshqa vositalar yordamida, masalan, pilot-signal, temperaturali kompensator, distansion boshqaruv va b.lar yordamida ushlab turish qurilmasi.

Daraxt

ing. - tree

rus. - дерево

Daraxtni eslatadigan tuzilma. Uning asosida bir qancha element (tana) bog'langan bitta element (ildiz) bo'ladi. Bu elementlar (tanalar) o'z navbatida yana bir qancha (shoxlar) bilan bog'langan va h.k, shu tarzda so'nggi elementlargacha (yaproqlargacha). Natijada ko'p pog'onali daraxt hosil bo'ladi. Daraxt - bu, bog'langan yo'naltirilmagan siklsiz grafdi.

Daraxtsimon kod

ing. - tree-type code

rus. - древовидный код

Simvollarni qayta ishlash uzluksiz tarzda, blokarga ajratmasdan amalga oshiriladigan kod.

«Darcha»

ing. - window

rus. - «окошко»

Displayning ma'lum jarayonni aks ettiruvchi qismi.

Dastlabki, boshlang'ich berilgan

ing. - default

rus. - по умолчанию

Tanlash elementlaridan biri. Barcha sozlashlar avvaldan kiritilgan boshlang'ich konfiguratsiyada qo'llaniladi. Aksariyat hollarda dasturiy ta'minotni o'rnatishda foydalaniladi. Bunday holatda ishlab chiquvchilar tomonidan eng ommabop tanlov zanjiri shakllantiriladi, bu esa foydalanuvchining sozlash jarayonini amalga oshirmasligiga imkon beradi.

Dastlabki buzilish

ing. - emphasis

rus. - предвысказание

Signal/shovqin nisbatini yaxshilash maqsadida, aloqa kanali bo'ylab uzatishdan oldin signalning amplitudasi, fazasi, chastotasi yoki shaklini ataylab o'zgartirish.

Dastlabki ko'rib chiqish

ing. - preview

rus. - предварительный просмотр

Bosib chiqarishga tayyorlangan hujjat yoki tasvimi, uning sahifada joylashishini va/yoki tashqi ko'rinishini aniqlashtirish maqsadida ko'rib chiqish.

Dastlabki ochiq kod

ing. - open source

rus. - открытый исходный код

Dasturiy ta'minotni yaratish usuli, bunda yaratilayotgan dasturiy ta'minotning dastlabki kodlari ochiq beriladi, ya'ni dasturiy ta'minotning dastlabki kodi ko'rish va o'zgartirishlar uchun ochiqdir. Ushbu imkoniyat barcha xohlovchilar uchun tayyor kodni o'z ehtiyojlari uchun ishlatishlari va ochiq dasturlarni yaratishga o'z hissalarini qo'shishlariga

yordam beradi. Foydalanuvchining dasturiy ta'minotdan bepul foydalanishga haqqi bor, lekin «ochiq litsenziya» ishlab chiqaruvchini ushbu «ochiq kodli» dasturiy mahsulotning «bepulligini» ta'minlashga majbur qilmaydi. Ammo ko'pgina samarali «ochiq» dasturiy mahsulotlar loyihasi bepul.

Dastlabki papka

ing. - default folder

rus. - папка по умолчанию

Dasturga taalluqli papka bo'lib, unda dasturga tegishli bo'lgan sozlash fayllari va vaqtinchalik fayllar saqlanadi.

Dastlabki o'rnatish

ing. - initial installation

rus. - начальная установка

Foydalanuvchi tanloviga ko'ra yoki boshlang'ich o'rnatiladigan parametrlar bilan oxirgi foydalanuvchi kompyuteriga dasturiy ta'minotni o'rnatish jarayoni.

Dastlabki o'zgartirishlar yoki filtrlash

ing. - preliminary transformations or filtering

rus. - предварительные преобразования

или фильтрация

Axborotni siqish uchun emas, balki uni keyinchalik siqish uchun qulay shaklda taqdim etishga xizmat qiladigan usul. Masalan, siqilmagan multimedia ma'lumotlari uchun signal darajasining ohista o'zgarishi xosdir. Shu sababli delta-o'zgartirish qo'llaniladi, ya'ni absolyut qiymat o'rniga nisbiy qiymat olinadi. Matn, bajariladigan fayllar, ma'lumotlar bazasi va boshqalar uchun filtrlar mavjud.

Dastur

ing. - program

rus. - программа

1. Elektron hisoblash mashinasida amalga oshirish uchun mo'ljallangan, operatorlar ketma-ketligi.

2. Bajarilishi kerak bo'lgan hisoblash jarayonining dasturlash tilidagi yoki mashina yo'riqnomalaridagi tavsifi. Funktsional masala hal qilinishini bajaradigan operatorlar, komandalarning tugallangan izchil to'plami.

Dastur (eshittirishda)

ing. - programme (in broadcasting)

rus. - программа (в вещании)

Radioeshittirish uchun maxsus mo'ljallangan va tayyorlangan tovushli yoki vizual epizodlar ketma-ketligi.

Izoh – Dasturlarni turiga ko'ra – tovushli, televizion, musiqali, nutqli dasturlar; maqsadiga ko'ra – yangiliklar, o'quv, ko'ngilochar dasturlar; manbaiga ko'ra – ma'lum uzatuvchi stansiyalar, tashkilotlar, to'g'ridan-to'g'ri olib ko'rsatiladigan ko'rsatuvlar, yozib olinadigan ko'rsatuvlar dasturi va boshqa dasturlarga tasniflash mumkin.

Dastur hisoblagichi

ing. - program counter

rus. - программный счётчик

Protsessorning, tanlanadigan navbatdagi komanda manzilini yoki dastur keyingi bayti (so'zi)ni ichiga oladigan ichki registri.

Dastur qadami

ing. - program step

rus. - шаг программы

Dasturning bitta elementar operatsiyasini, odatda mashina tilidagi komandani bajarish. Atama ko'pincha, dasturiy ta'minotni sozlash tizimlarini tavsiflashda ishlatiladi.

Dastur soatiga havola

ing. - reference to programme watch

rus. - ссылка на программные часы

90 kHz chastota davrida hisoblanadigan va transport oqimiga dastur darajasida kiritiladigan 33 bitli son bo'lib, berilgan dasturni qabul qilishda dekoderni sinxronlash uchun xizmat qiladi.

Dastur tahlili

ing. - code walkthrough

rus. - разбор программы

Dasturlarni jamoaviy ishlab chiqishda – dastur matnining dasturchilar guruhi tomonidan, uning to'g'riligini tekshirish maqsadida tahlil qilinishi.

Dastur to'g'risidagi axborot fayli

ing. - program information file

rus. - файл информации о программе

Windows yoki OS/2 boshqaruvida DOS seansida dasturning ishlash parametrlarini sozlash fayli.

Dasturdagi operator

ing. - instruction

rus. - оператор в программе

Operatsiyani va uning operandlari qiymatlari yoki joylashgan o'mini ko'rsatuvchi simvollar jami; dasturning, uning ishlash spet-

sifikatsiyasini va operandlarning joylashgan o'mi bo'lgan bitta yoki bir nechta manzilni ta'minlaydigan alohida elementi.

Dasturiy-apparat vosita

ing. - software-hardware too

rus. - программно-аппаратное средство

Asosiy xotiradan alohida faoliyat ko'rsatish mumkin bo'lgan holda (odatda doimiy xotira qurilmasida) saqlanuvchi jami tartibga solingan komandalar va ular bilan bog'liq ma'lumotlar.

Dasturiy apparatxona

ing. - presentation control area

rus. - программная аппаратная

Televizion dasturni turli manbalardan dastur signallarini ulash yo'li bilan ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan uskunaga ega apparatxona.

Dasturiy bog'liq axborot jadvallari

ing. - softwarehung information tables

rus. - таблицы программно-зависимой информации

MPEG-2 da dasturlarning tarkibi hamda ular komponentlarining identifikatorlari to'g'risidagi axborotni ichiga oluvchi PAT, PMT, CAT majburiy jadvallari va majburiy bo'lmagan NIT jadvali.

Dasturiy bomba

ing. - program bomb

rus. - программная бомба

Muayyan sharoitlarda bir yoki bir nechta mar-ta ishga tushishi zarur bo'lgan komandalarni dasturga yashirin o'rnatish.

Izoh – Mantiqiy va vaqt bombalari dasturiy bombaning variantlari hisoblanadi.

Dasturiy boshqariladigan radiostansiya

ing. - software defined radio

rus. - радиостанция с программным управлением

Ish rejimi va chastotalarning sozlanishini dasturiy usul bilan o'zgartiradigan abonent stansiyasi. Dasturlarning ish bilan ta'minlanishi SIM-karta orqali yoki stansiyaning radio-kanal bo'yicha qayta dasturlash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Dasturiy hujjat

ing. - software documentation

rus. - программная документация

Dasturiy mahsulot uchun ilova hujjat.
Masalan, foydalanuvchi yo'riqnomasi.

Dasturiy ilova

ing. - software application

rus. - программное приложение

Muayyan qo'llanish sohasida ma'lumotlar qayta ishlanishini amalga oshiradigan dasturlar majmui (xususan, veb muhitdagi veb-ilo-va).

Dasturiy interfeys

ing. - program interface

rus. - программный интерфейс

Tizimda jarayonni abstrakt tavsiflash yoki hisoblash jarayonlarining o'zaro aloqasi atamalarida: ma'lumotlar formati, ma'lumotlar almashinish protokoli, kichik dasturlarni chaqirish, dasturlash tili, ma'lumotlarni tavsiflash tili yoki ma'lumotlar bilan ishlash, tizimlarning bir-biriga ta'siri.

Dasturiy kommutator (moslashuvchan)

ing. - softswitch

rus. - программный (гибкий) коммутатор
IP tarmoqda chaqiruvlarni boshqarish funksiyasini amalga oshiradigan qurilma.

Izoh - Dasturiy kommutator IP-tarmoqda trafikka xizmat ko'rsatishning zarur funksiyalarini bajarishga mo'ljallangan protokollar to'plamini quvvatlaydigan apparat-dasturiy vositalardan iborat.

Dasturiy mahsulot

ing. - software product

rus. - программный продукт

Foydalanuvchiga yetkazib berish, uzatish, sotish uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar.

Dasturiy mahsulot sifatini baholash

ing. - program quality estimation

rus. - оценка качества

программного изделия

Sifat ko'rsatgichlari tanlanishini, bu ko'rsatgichlarning miqdor qiymatlarini tanlash va aniqlash usullari ishlab chiqilishini, ko'rsatgichlarning bazaviy qiymatlari belgilanishini, ko'rsatgichlarning haqiqiy qiymatlarini hisoblash, bazaviy qiymatlarni hisoblangan qiymatlar bilan taqqoslashni ichiga oladigan tadbirlar kompleksi.

Dasturiy modem

ing. - soft modem

rus. - программный модем

Protessorga modem funksiyalarini bajarish imkonini beradigan dastur.

Dasturiy moslik

ing. - software compatibility

rus. - программная совместимость

Kompyuter tizimining boshqa tizim uchun yozilgan dasturiy ta'minotni bajara olish qobiliyati.

Dasturiy qarog'chilik

ing. - software piracy

rus. - программное пиратство

Mualliflik asari hisoblanadigan litsenzion dasturiy mahsulotlardan noqonuniy foydalanish, nusxa ko'chirish yoki tarqatish.

Dasturiy signal, modulyatsiyalovchi signal

ing. - programme signal, modulation signal

rus. - программный сигнал,

модулирующий сигнал

Tovushli yoki televizion dasturlarni ifodalaydigan, uzatish uchun modulyatsiyalovchi signal sifatida foydalaniladigan elektr signallari.

(Dasturiy signallarni) mikshirlash

ing. - mixing (of programme signals)

rus. - микширование (программных сигналов)

Oxirgi dasturiy signalni olish uchun turli manbalardan dasturiy signallarni kombinatsiyalash.

Dasturiy so'raladigan uzib-ulagich

ing. - alternation switch

rus. - программно-опрашиваемый

переключатель

Elektron hisoblash mashinasi pultidagi yoki dastur modellaydigan kalit. Mashina komandalarni boshqarish uchun yoqilgan yoki o'chirilgan holatga o'tatilishi mumkin.

Dasturiy talqin etish

ing. - software interpretation

rus. - программная интерпретация

Kodli optimizator yordamida o'zgartirilgan shaklda yuklash yo'li bilan, boshqaruvchi dasturni ruxsat etilmagan o'zgartirishdan muhofaza qilish usuli.

Dasturiy ta'minot

ing. - software

rus. - программное обеспечение

1. Kompyuter ishini boshqaradigan komandalarni to'plami.

2. Avtomatlashtiriladigan faoliyatni elektron hisoblash mashinalari uchun belgilangan dasturlar bilan ta'minlash, jumladan, vazifaning qo'yilishi, loyihalash, amalga oshirish va keyingi ishlanna, shuningdek, EVM uchun dasturlarning o'zi.

3. Axborotni qayta ishlash tizimi dasturlari va bu dasturlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan dasturiy hujjatlar jami.

Dasturiy ta'minot tizimi

ing. - software system

rus. - система программного обеспечения
Kompyuter tizimining tarkibiy qismi bo'lgan dasturiy ta'minotga asoslangan tizim (kompyuter uskunasi va dasturiy ta'minotining birgalikda ishlashi).

Dasturiy ta'minot xavfsizligi

ing. - software security

rus. - безопасность программного обеспечения

Umummaqsadlardagi (bajaruvchi dasturlar, utilitalar yoki dasturiy ta'minotni ishlab chiqish vositalari) hamda amaliy dastur va vositalarning avtomatlashtirilgan tizimda ma'lumotlarning xavfsiz qayta ishlashini va tizim resurslaridan xavfsiz foydalanishni amalga oshirish xususiyati.

Dasturiy ta'minotni elektron tarqatish

ing. - electronic software distribution

rus. - электронное распространение программного обеспечения
Dasturlarni kompyuterlarga axborot tarmog'i orqali yuklash texnologiyasi.

Dasturiy ta'minot injeneriyasini

ishlab chiqish

ing. - software engineering

rus. - инженерия разработки программного обеспечения

Dasturiy ta'minotni tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, joriy etish va kuzatib borish usullari.

Dasturiy ta'minotni standartlash

ing. - standardization of software

rus. - стандартизация программного обеспечения

Davlat hokimiyat organlarida foydalaniladigan elektron hisoblash mashinalari uchun qo'llaniladigan dasturlarda ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashning asosiy prinsiplari

bo'yicha o'zaro bog'langan yechimlar kompleksi.

Dasturiy ta'minotning kaskad modeli

ing. - cascading software model

rus. - каскадная модель программного обеспечения

Ishlab chiqarish sikli bilan taqqoslab qarab chiqiladigan dasturiy ta'minot.

Dasturiy ta'minot replikasiyasi

ing. - software replication

rus. - репликация программного обеспечения

Namunaviy axborot majmuasining dasturiy ta'minotini, uni keyinchalik, yangi soha portali yoki majmui asosida klonlash maqsadida takror ishlab chiqarish.

Dasturiy ta'minot sifati

ing. - quality of software

rus. - качество программного обеспечения
Dasturiy ta'minotning afzalliklari va kamchiliklarini belgilaydigan alomatlar, xossalalar, fazilatlar majmui. Yaratilayotgan dasturiy ta'minot sifatini baholash miqdoriy usullarni ishlatib amalga oshiriladi. Bu tadbir dasturlash jarayonida amalga oshadi. Bu masalaning dolzarbligi oshishiga munosib ravishda, bozorda yaratilayotgan dasturlarning sifatini aniqlashni ta'minlaydigan dasturlar paydo bo'ldi.

Dasturiy ta'minotni moslashtirish

ing. - software adaptation

rus. - адаптация программного обеспечения
Foydalanuvchining muayyan texnik vositalari yoki aniq dasturlari boshqaruvidagi kompyuter uchun mo'ljallangan dasturning faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan o'zgartirishlar kiritish.

Dasturiy ta'minotni muhofazalash

vositalari

ing. - software protection tools

rus. - средства защиты программного обеспечения

Dasturiy vositalarni beruxsat foydalanishdan muhofaza qiluvchi vositalar.

Dasturiy ta'minotning hayotiy sikli

ing. - software life cycle

rus. - жизненный цикл программного обеспечения

Kompyuter dasturiy ta'minotini loyihalash
boshlangan daqiqadan to uning ishlatilishi to'xtashigacha o'tgan vaqt.

Dasturiy token

ing. - soft token

rus. - программный токен

Muvaffaqiyatli mualliflashtirishdan keyin foydalanuvchiga servislardan foydalana olish uchun beriladigan kalit.

Dasturiy uzilish

ing. - software interrupt

rus. - программное прерывание

Operatsion tizimlarda yoki tayanch kiritish/chiqarish tizimida quyi dasturlarga uzilishlarni qayta ishlash boshqaruvini berish uchun, maxsus mashina komandasining bajarilishi keltirib chiqaradigan uzilish. Dasturiy uzilishlardan sozlagichlarda keng foydalaniladi.

Dasturiy virus, virus

ing. - program virus, virus

rus. - программный вирус, вирус

Boshqa dasturlarga o'zining o'zgartirilgan nusxalarini qo'yish yo'li bilan o'z-o'zidan ko'payadigan, uni o'zgartiradigan, zararlangan dasturni ochishda amalga oshadigan maxsus ishlab chiqilgan zararli dastur.

Izoh - Virus ko'pincha buzilishlar yoki ishdan chiqishlarga sabab bo'ladi hamda ba'zi hollarda ma'lum sana boshlanishi bilan aktivlashishi mumkin.

Dasturiy vosita

ing. - software tool

rus. - программное средство

Dasturchi tomonidan dasturiy ta'minotni loyihalash, ishlab chiqish yoki boshqa dasturiy ta'minotni sozlashda foydalaniladigan har qanday dastur yoki utilita.

Dasturiy o'rnatma

ing. - software bug

rus. - программная закладка

Dasturiy ta'minotga ataylab kiritilgan funktsional obyektlar, ular ma'lum sharoitlarda (kirish ma'lumotlarida) axborotning konfidensialligi, undan foydalanish yoki yaxlitligi buzilishiga olib keladigan dasturiy ta'minot hujjatlarida tavsiflanmagan funktsiyalarning bajarilishini boshlab beradi.

Dasturlanadigan doimiy xotira qurilmasi

ing. - programmable read-only memory

rus. - программируемое постоянное запоминающее устройство

Maxsus qurilma, programmatyor yordamida, eruvchan ko'priklarni yuqori kuchlanishli impulslar yordamida kuydirish orqali, faqatgina bir marotaba yozish mumkin bo'lgan xotira turi. Ichiga joylashtirilgan dasturiy ta'minotni saqlash uchun turli xil elektron qurilmalarda ishlatiladi.

Dasturlanadigan uzilish

ing. - programmable interrupt

rus. - программируемое прерывание

Protssessorning (odatda dasturdagi xatoni qayta ishlash uchun) maxsus komandasi yordamida aniq generatsiyalanadigan uzilish.

Dasturlararo takomillashtirilgan aloqa

ing. - advanced program-to-program

communication (APPC)

rus. - усовершенствованная связь между программами

Dasturlararo takomillashtirilgan aloqa interfeysi. APPC protokoli IBM tomonidan «yangi» SNA arxitekturasida kabi ishlab chiqilgan. SNA ga ulangan ishchi stansiyalar va bu stansiyalardagi amaldagi dasturlararo bir rangdagi aloqani ta'minlaydi. LU 6.2 nomi bilan ham ma'lum.

Dasturlarni avtomatlashtirilgan ishlab

chiqish vositasi

ing. - CASE tool

rus. - инструмент автоматизированной разработки программ

1. Kompyuter boshqaruvli dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun foydalaniladigan dasturiy vosita.

2. Tizimli loyihalash va dasturiy ta'minot haqiqiy siklini avtomatlashtirilgan ta'minlash yo'li bilan, dasturlar va tizim muhandislariga yordamlashadigan dasturiy mahsulot.

Dasturlarni avtomatlashtirilgan ishlab

chiqishga bo'lgan ehtiyoj

ing. - computer-aided software

engineering needs

rus. - потребность в автоматизированной разработке программ

Dasturlarni avtomatlashtirilgan ishlab chi-

qish vositasining xarakteristikalari qanoatlan-tiradigan tashkiliy talablar. Ular boshqaruv jarayonini, ishlab chiqish jarayonini, xizmat ko'rsatishni, hujjatlarni, konfiguratsiya bosh-qaruvini, sifat tekshirilishini, atrof muhitga bo'lgan ehtiyoj tekshirilishini, CASE vosi-tasining jamlanganligini, sifat xarakteristika-larini, xarid qilishga, sotishga bo'lgan ehti-yojlarni, ta'minlash indikatorlari va serti-fikatlash talablarini o'z ichiga oladi.

Dasturlarni avtomatlashtirilgan tarzda tuzish

ing. - computer-aided software engineering (CASE)

rus. - автоматизированное конструирование программ
Instrumental CASE vositalarning maxsus paketlaridan foydalanib, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish texnologiyasi.

Dasturlarni boshqarish

ing. - program management

rus. - управление программ
Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, xavf-xatarni kamaytirishga va har bir loyihani muvaffaqiyatli yakunlashga yo'naltirilgan, o'zaro bog'langan bir qancha loyihalarni boshqarish jarayoni. Amalda va maqsadlarga ko'ra dasturiy boshqarish tizim muhandisligi va sanoat muhandisligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Dasturlarni (tarmoqning boshqa kompyuterida) uzoqdan ishga tushirish

ing. - remote activation program (on another computer network)

rus. - удаленный запуск программ (на другом компьютере сети)

Uzoqda joylashgan (odatda, katta quvvatli) mashinaning xotirasi, protessori va dis-kidan foydalanib va mijoz kompyuteridan terminal sifatida foydalanib, tarmoqning boshqa kompyuteriga kirish va unda ishlash imkoniyati.

Dasturlarni o'rnatish/o'chirish

ing. - add or remove programs

rus. - установка/удаление программ

Windows operatsion tizimidagi foydalanu-vchiga kompyuterga o'matilgan dasturiy ta'minot ro'yxatini boshqarish imkonini be-radigan boshqarish panelining qismi. Afsus-

foydalaniladigan das-turlarning hammasi ham aks ettirilmaydi.

Dasturlarning boshlang'ich kodini zararlaydigan viruslar

ing. - viruses, attaching program initial code
rus. - вирусы, поражающие исходный код программ

Dasturning boshlang'ich kodini yoki uning komponentlarini (OBJ-, LIB-, DCU-fayllar-ni), shuningdek, VCL hamda ActiveX kom-ponentlarni zararlaydigan viruslar. Kompilyatsiyadan so'ng dasturlar unga kiritilgan bo'ladi.

Dasturlarning ko'rsatiladigan paketlari

ing. - demonstration software packages

rus. - демонстрационные пакеты программ

Ma'lum bir axborotni auditoriyaga samarali yetkazish uchun mo'ljallangan aniq maq-sadga yo'naltirilgan dasturiy komplekslar. Asosan, prezentatsiya va reklama maqsadida qo'llaniladi. O'qitish-o'rgatish maqsadlarida qo'llanilishi foydaliroq bo'ladi.

Dasturlarning yaxshi muhofazalanmaganlik skaneri

ing. - program vulnerability scanner

rus. - сканер уязвимости программ

Hujumning u yoki boshqa bir aniq turidan yaxshi muhofazalanmagan mashinalarni izlab topish maqsadida, Internet tarmog'ida kompyuterlarning katta guruhi tekshirilishini amalga oshiradigan dastur.

Dasturlash

ing. - programming

rus. - программирование

Vazifani yechish algoritmini elektron hi-soblash mashinasi tomonidan «idrok etila-digan» ko'rinishda taqdim etish jarayoni. Dasturlash algoritmi elementar operatorlar darajasigacha batafsil tekshirish, algoritmi-ni tanlangan dasturlash tilida yozib olish va dasturlarning elektron hisoblash mashinasida bajarilishini boshqarish jarayonlarini tav-siflashni o'z ichiga oladi.

Dasturlash tili

ing. - programming language

rus. - язык программирования

Odami tomonidan ta'riflanadigan va kompyu-

ter yordamida hal qilinadigan muayyan muammolarning qulay tavsiflanishini ta'minlaydigan rasmiy til. Dasturlash tili sintaksis va semantika kabi ikkita tashkil etuvchidan iborat. Til konstruksiyalaridan mashina komandalariga o'tishni til translyatori amalga oshiradi. Dasturlash tillari masalani qanday atamalarda ta'riflash kerakligiga ko'ra, yuqori va quyi daraja tillariga ajratiladi. Agar, til tabiiy tilga yaqin bo'lsa, yuqori daraja tili deb, mashina komandalariga yaqin bo'lsa, quyi daraja tili deb ataladi.

Dasturlash tizimi

ing. - programming system

rus. - система программирования

Jami dasturlash tili va dasturlarni yaratish tizimi. U berilgan tilda dasturlarni avtomatlashtirilgan tarzda yaratish va bajarish hamda tegishli hujjatlar tayyorlashni ta'minlaydi. Odatda dasturlash tizimi tilning etalon xilini emas, balki uning dialektik - ma'lum osonlashtirish yoki kengaytirishlarga ega rumumini o'z ichiga oladi. Ba'zi dasturlash tizimlari dasturlarni bir necha tilda yaratishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shaxsiy kompyuterlar uchun eng mashhur dasturlash tizimlari: Microsoft kompaniyasining Basic, Java, C++ tillarini qo'llab-quvvatlovchi Visual Studio; Inprise (Borland International) kompaniyasining Delphi tili va boshqalar.

Dasturlashtiriladigan

kommutator (softsvich)

ing. - softswitch

rus. - гибкий (программируемый)

коммутатор

IP tarmog'ida chaqiruvlarni boshqarish va signalizatsiya funksiyalarini amalga oshiruvchi qurilma. Dasturlashtiriladigan kommutator IP tarmog'ida xizmat ko'rsatish trafikinga zarur funksiyalarini bajarishga yo'naltirilgan protokollar to'plamini ta'minlaydigan apparat-dasturiy vositalardan iborat.

Dasturlashtiriladigan mantiqiy matritsa

ing. - programmable logic array

rus. - программируемая логическая

матрица

Bitta mikrosxema ko'rinishida tayyorlanadigan bir turdagi elementlar matritsasi.

Dasturlashtiriladigan ma'lumotlar bazasi

ing. - programmable database

rus. - программируемая база данных

O'rnatilgan dasturlash tiliga ega ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi.

Dasturni boshlang'ich yuklash

ing. - initial program load

rus. - начальная загрузка программы

Boshlang'ich holatga o'rnatish protsedurasida, dastur (tizim) yadrosini yuklaydi va uni bajarish bo'yicha operatsiyani bajaradi.

Dasturni ekspluatatsiya qilish

bo'yicha hujjat

ing. - exploitative document

rus. - эксплуатационный программный

документ

Dasturiy mahsulotning ishlashini ta'minlash va uni ekspluatatsiya qilish bo'yicha zarur ma'lumotlarni o'zida saqlovchi dasturiy hujjat.

Dasturni mualliflashtirish

ing. - program authorization

rus. - авторизация программы

Tizim yoki foydalanuvchi dasturidan boshqa dasturlar yoki foydalanuvchilarning foydalana olishi bo'yicha cheklashlarning o'rnatilishi.

Dasturni muhofaza qilish

ing. - software lock (software protection)

rus. - защита программы

Dasturning bajarilishi uchun ishga tushirib yuborilishini bartaraf etuvchi shartlarning majmui.

Dasturni ruxsat etilgan tarzda tahlil qilish

ing. - authorized program analysis.

rus. - санкционированный анализ

программы

Texnik talablar bilan dasturning haqiqiy imkoniyatlari o'rtaqidagi farqni belgilash maqsadida bajariladigan tahlil.

Dasturni sozlash

ing. - programme checkout

rus. - отладка программы

Dasturlarni ishlab chiqish bosqichlaridan biri; dastur yozilishining to'g'riligi tekshiriladi, xatolar aniqlanadi va to'g'rilanadi. Odatda, sozlash ma'lum natijalar bo'lgan real

jariladi. Hozirgi dasturlash tillarida sozlash jarayonini soddalashtiradigan sozlovchi dasturlar mavjud.

Dasturni yig'ish

ing. - make

rus. - сборка программы

Boshlang'ich kodni obyekt fayllariga kompilyatsiyalash va modullarni bajariladigan fayllarga yoki bibliotekalarga komponovka qilish.

Dasturni yuklash

ing. - program loading

rus. - загрузка программы

Dasturning bajarilishi kerak bo'lgan kodi va zarur bibliotekalarni shaxsiy kompyuterning tezkor xotirasiga bajarish uchun yozish jarayoni.

Dasturning bajarilish vaqti

ing. - run-time

rus. - время выполнения программы

1. Kompilyatsiya va yuklash vaqtidan farqli ravishda, dasturni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt bo'lagi.

2. Markaziy protsessor faqat bir jarayonni bajarish uchun sarflaydigan vaqt.

Dasturning bajarilishi

ing. - program execution

rus. - исполнения программы

Mashina kodlaridagi dastur boshlang'ich ma'lumotlarning kiritilishi va natijalar olinishi bilan bajariladigan jarayon. Sozlash rejimida dastur qadamlab bajarilishi mumkin. Agar dastur operatsion tizim boshqaruvida bajarilsa, qadamlab bajarish dasturlash muhiti boshqaruvida amalga oshiriladi.

Dasturning xotiradagi binar obrazi

ing. - binary image of the

program in memory

rus. - бинарный образ

программы в памяти

Xotirada o'qish uchun dastur obraziga va buyurtmachi tomonidan shakllantiriladigan ishga tushirishga ega fayl.

Dasturchi

ing. - programmer

rus. - программист

Kompyuter dasturchisi deb kompyuter dasturlash bo'yicha mutaxassis yoki turli xil dasturiy ta'minot uchun kodlar yozuvchi mutaxassislarni atashadi. Amaliyotda dasturlashni formal tarzda o'qitadigan insonlarni ham dasturiy tahlilchi deb nomlash mumkin. Dasturchining asosiy ishlov tilini (Lisp, Java, Delphi, C++, h.k.) nomiga qo'shib xuddi veb muhitida ishlovchilarni veb nomlari bilan ishlatganday nomlashadi. Dasturchi atamasi ta'minot yozuvchisiga, ta'minot muhandisiga, kompyuter olimi yoki ta'minot tahlilchisiga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Data-markaz

ing. - data center

rus. - дата-центр

Abonentlarni Internet tarmog'i kanallariga ulash, server va tarmoq uskunasi joylashtirish (xosting) uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan bino.

Datchik

ing. - sensor unit

rus. - датчик

Qandaydir fizik kattalikning qayd etilishini, uning signallarga o'zgartilishini va bu signallarning, qayta ishlash uchun, boshqarish tizimiga uzatilishini ta'minlaydigan qurilma.

Davlat axborot resurslari

ing. - state information resources

rus. - государственные информационные ресурсы (ГИР)

Davlat axborot resurslari quyidagilardan shakllantiriladi: davlat organlarining axborot resuslaridan; yuridik va jismoniy shaxslarning davlat byudjeti mablag'lari hisobidan yaratilgan axborot resuslaridan; yuridik va jismoniy shaxslarning davlat sirlari hamda maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborot resuslaridan.

Davlat axborot siyosati

ing. - state policy in the sphere of informatization

rus. - информационная политика государства

Jamiyatning geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishining umumdavlat ustuvorliklarini ta'minlashga va mamlakatning axborot jamiyatiga o'tish shart-sharoitlarini

yaratishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va tashkiliy tadbirlar kompleksi.

Davlat axborot tizimi

ing. - public information system

rus. - государственная информационная система

Davlat organlarining vakolatlarini amalga oshirish, davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida tuzilgan yoki foydalaniladigan axborot tizimi.

Davlat axborot xavfsizligi

ing. - information security of the state

rus. - информационная безопасность государства

Davlat axborot resurslarining saqlanganlik va axborot sohasida jamiyat hamda shaxs qonuniy huquqlarining himoyalanganlik holati. Zamonaviy kishilik jamiyatida axborot sohasi ikkita tarkibiy qismga ega: axborot-texnik tashkil etuvchi (odam tomonidan sun'iy yaratilgan texnika, texnologiyalar dunyosi) hamda axborotruhiy tashkil etuvchi (jonli tabiatning odam ham kiradigan tabiiy dunyosi). Tegishlicha, jamiyat (davlat)ning axborot xavfsizligini umumiy holda axborotruhiy xavfsizlik kabi ikki tarkibiy qism orqali ko'rsatish mumkin. Xavfsizlikka bo'ladigan ehtimoliy tahdidlarni aniqlash va tasniflash ham axborot xavfsizligining muhim jihati.

Davlat axborotini oshkor etish

infratuzilmasi

ing. - state disclosure infrastructure

rus. - инфраструктура раскрытия информации государства

Davlat elektron hujjatlarining ommaviy oshkor etilishini ta'minlaydigan repozitoriylar majmui.

Davlat boshqaruvi

ing. - public administration

rus. - государственное управление

Davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining, tegishli protseduralar asosida ishlab chiqilgan siyosiy kursni amalga oshirish bo'yicha faoliyati.

Davlat buyurtmasi

ing. - government order

rus. - государственный заказ

Davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari va moliyalashtirishning byudjetdan tashqari manbalari hisobiga tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatishga bo'lgan buyurtma.

Davlat elektron xizmati

ing. - electronic public service

rus. - государственная электронная услуга
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Davlat korxonasi

ing. - state enterprise

rus. - государственное предприятие

Har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi, asosiy vositalari davlat mulki hisoblanadigan tashkilot.

Davlat organi xonasi

ing. - cabinet of the state body

rus. - кабинет госоргана

Davlat organining shaxsiy xonasi, davlat organi vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishda, kelib tushadigan rasmiy so'rovlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan, zarur hujjatlar va ma'lumotlar tayyorlash, tahrir qilish, izlash va berish imkoniyatini yaratadi.

Davlat organlarining davlat axborot resurslari va axborot tizimlari reyestri

ing. - register of state information systems and information resources of state bodies

rus. - реестр государственных информационных систем и информационных ресурсов государственных органов

Internet tarmog'idagi, qonun hujjatlarga muvofiq, davlat axborot resurslari va axborot tizimlari ro'yxatini hamda ular to'g'risidagi axborotni ichiga oladigan axborot resursi.

Davlat siri bo'lgan ma'lumotlardan foydalana olish

ing. - access to state secret information

rus. - доступ к сведениям, составляющим государственные секреты

Vakolatli mansabdor shaxs tomonidan ruxsat etilgan tarzda, muayyan shaxsni davlat siri bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishtirish.

Davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlarni tashuvchilar
ing. - bearers of state secrets

rus. - носители сведений, являющиеся государственными секретами

Davlat sirlarini tashkil qiladigan ma'lumotlar xotira, simvollar, obrazlar, signallar, texnik yechimlar va jarayonlar ko'rinishida aks etadigan, jismoniy shaxslar, moddiy obyektlar, shu jumladan, fizik maydonlar.

Davlat sirlari

ing. - state secrets

rus. - государственные секреты

Tarqatilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga ziyon keltirishi mumkin bo'lgan harbiy, tashqi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, razvedka, kontrrazvedka bilan shug'ullanuvchi va operativ-qidiruv faoliyati sohasidagi davlat tomonidan muhofaza qilinadigan ma'lumotlar. Davlat sirlari maxfiylik darajasiga ko'ra, alohida muhim ma'lumotlar va mutlaqo maxfiy (davlat siri) ma'lumotlarga bo'linadi.

Davlat tomonidan hisobga olish

ing. - state accounting

rus. - государственный учет

Identifikatsiya qilinadigan shaxslar, obyektlar va/ yoki turli xarakterdagi hodisalar to'g'risida muayyan tarkibdagi ma'lumotlarni to'plash va saqlash bo'yicha olib boriladigan muntazam ish.

Davlat xizmati

ing. - public service

rus. - государственная услуга

Davlat organlari tomonidan ariza beruvchilarning talabiga ko'ra amalga oshiriladigan, o'zlarining vazifalarini bajarish yuzasidan ko'rsatiladigan xizmat.

Izoh - Davlat xizmatini, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq, davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha vazifalar yuklangan hollarda, boshqa tashkilotlar ham ko'rsatishlari mumkin.

Davlat xizmati formati

ing. - format of state service

rus. - формат государственной услуги

Bajarilishi shart bo'lgan, davlat xizmatini oluvchining manfaatlari yo'lida ushbu davlat xizmatini ko'rsatish jarayoni, shakli,

mazmuni va natijasi xarakteristikalarini ichiga oladigan davlat xizmati ko'rsatilishiga bo'lgan talablarni belgilaydigan qoidalar.

Davlat xizmatini avtomatlashtirish

ing. - automation public service

rus. - автоматизация

государственной услуги

Odamni elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ishtirok etishdan ozod qilish uchun, shuningdek, ma'muriy protseduralarning sonini sezilarli qisqartirish uchun texnik vositalar hamda matematik usullar qo'llanilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar majmui.

Davlat xizmatining pasporti

ing. - passport of state service

rus. - паспорт государственной услуги

Xizmat to'g'risidagi, bu xizmatni qat'iy identifikatsiyalash imkonini beradigan ma'lumotlar majmui.

Davlat xizmatlari portali

ing. - portal of public and municipal services

rus. - портал государственных услуг

Davlat xizmatlarining elektron shaklda taqdim etilishini, shuningdek, talabgorlarning davlat xizmatlari reyestrlari yuritilishini ta'minlaydigan davlat axborot tizimlarida joylashtirilgan va Internet tarmog'idan foydalanib tarqatish uchun mo'ljallangan davlat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlaydigan davlat axborot tizimi.

Davlat xizmatlari reyestri

ing. - register of public services

rus. - реестр государственных услуг

Davlat xizmatlarining taqdim etilishi tartibi to'g'risidagi qisqacha asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan ma'lumotlar bazasi.

Davlat xizmatlarining elektron shaklda taqdim etilishi

ing. - delivering electronic public services

rus. - предоставление государственных

услуг в электронной форме

Davlat xizmatlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, shu jumladan, davlat xizmatlari portalidan, ko'p funksiyali markazlardan, universal click-trunk karta va boshqa vositalardan foydala-

nib taqdim etilishi, jumladan, bunday taqdim etish doirasida davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, tashkilot hamda ariza beruvchilar o'rtasida elektron o'zaro hamkorlikning amalga oshirilishi.

Davom ettirish

ing. - continue

rus. - продолжить

Tanlash varianti (oddiy tugma). U foydalanuvchi joriy sahifadagi shartlarga va o'zgartirishlarga rozi ekanligini va navbatdagi sahifaga o'tishga tayyorligini anglatadi.

Dayjest

ing. - digest

rus. - дайджест

O'zgaruvchan uzunlikdagi ma'lumotlarning kirish oqimini xesh-funksiya yordamida qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan, qat'iy uzunlikdagi kod. Masalan, SHA-1 xeshlash algoritmi kirish xabarining hajmidan qat'i nazar, 20 bit hajmidagi dayjestni yaratadi.

Deduktiv xulosa

ing. - deductive reasoning

rus. - дедуктивный вывод

Prolog tilida berilgan faktlar va qoidalar asosida yechim topish uchun foydalaniladigan usul.

Defektli sektor

ing. - bad sector

rus. - дефектный сектор

1. Qattiq yoki egiluvchan diskdagi, ishlab chiqarishdagi defekt yoki tasodifiy shikastlanish tufayli ma'lumotlarni saqlab bo'lmaydigan soha.

2. Diskdagi, ma'lumotlarni yozish/o'qish mumkin bo'lmagan sektor.

Defektli yo'lkalar jadvali

ing. - bad track table

rus. - таблица дефектных дорожек

Taayyorlovchi zavodda yakuniy testlash paytida aniqlanadigan, qattiq disk defektli sohalarning ro'yxati. Diskni operatsion tizim foydalanishiga tayyorlaydigan ba'zi dasturlar, foydalanuvchilardan, tuzish vaqtini kamaytirish maqsadida bu ro'yxatdan bo'lgan axborotning kiritilishini so'raydi.

Defeys

ing. - deface

rus. - дефейс

Xakerlik hujumining turi. Unda veb-saytning sahifasi boshqasiga almashtiriladi (odatda bosh sahifa), saytning qolgan sahifalari esa blokirovka qilinadi yoki butunlay o'chiriladi – buning maqsadida reklama, ogohlantirish, tahdid va boshqalar bo'lishi mumkin. Ba'zi buzuvchilar sayt defeysini krekerlik doiralarda tanilish, o'z imijini oshirish yoki sayt administratoriga zaiflikni ko'rsatish uchun amalga oshiradi.

Defragmentatsiya

ing. - defragmentation

rus. - дефрагментация

Fayllarni uzluksiz ketma-ket klasterlarda saqlanishini ta'minlash maqsadida disk bo'limining mantiqiy tuzilmasini optimallashtirish va yangilash jarayoni.

Izoh – Asosan FAT va NTFS fayl tizimlarida ishlatiladi. Defragmentatsiyadan so'ng fayllarni o'qish va yozish, shuningdek, dastur ishlari ham tezlashadi. Defragmentatsiyaning boshqa vazifasi: diskda fayllarni uzluksiz maydonda joylashadigan qilib taqsimlash.

Deinstallyator

ing. - uninstaller

rus. - деинсталлятор

Qandaydir ilovani deinstallatsiya qilish (o'chirib tashlash) uchun mo'ljallangan kompleks dastur. Deinstallatorlarni qo'llash zarurati, ko'plab zamonaviy ilovalar o'rnatish paytida o'z dastur fayllarini turli manzillar bo'yicha yozishi, shuningdek, o'z ma'lumotlarini tez-tez tizim reyestrda qayd etishi bilan izohlanadi.

Dekametrl to'lqinlar

ing. - decametric waves, short waves

rus. - декаметровые волны

10 m dan 100 m gacha bo'lgan to'lqin uzunliklari diapazoni. 3 MHz dan 30 MHz gacha bo'lgan chastotalar diapazoni.

Dekapsullash

ing. - decapsulation

rus. - декапсуляция

Qabul qilingan axborot oqimidan dastlabki xabarni ajratish jarayoni.

Dekatenatsiya**ing.** - decatenation**rus.** - декатенация

Simvollar satrlarini alohida qismlarga ajratish operatsiyasi; konkatenatsiyaga teskari bo'lgan operatsiya. Dasturlash tillarida bu operatsiyani bajaradigan maxsus funksiyalar mavjud.

Deklarativ til**ing.** - declarative language**rus.** - декларативный язык

Dasturchi, til interpretatoriga tegishli xulosalar chiqarishni qoldirgan holda, qandaydir sohaga tegishli faktlarni bayon qiladigan (ya'ni, vazifani ta'riflaydigan) dasturlash tili. Deklarativ tillarni, o'z navbatida, funksional va mantiqiy tillarga bo'lish mumkin.

Deklaratsiya (e'lon) qilinmagan**imkoniyatlar****ing.** - undeclared capabilities**rus.** - недеklarированные возможности

Dasturiy ta'minotning bayon qilinmagan yoki hujjatda bayon qilinganlarga mos kelmaydigan funksional imkoniyatlari. Ulardan foydalanish qayta ishlanadigan axborotning konfidensialligi, tushunarli bo'lishi yoki yaxlitligi buzilishiga olib kelishi mumkin.

Dekoder**ing.** - decoder**rus.** - декодер

Dekoderlash uchun mo'ljallangan qurilma, uning asosida kodlangan signalni dastlabki xabarga qayta o'zgartirishni bajaruvchi mantiqiy sxema ishlaydi.

Dekoder-qabul qilgich**ing.** - receiver-decoder**rus.** - приемник-декодер

TV yo'ldosh qabul qilgichi va MPEG – dekodemi birlashtiruvchi, raqamli yo'ldoshi eshittirish TV dasturlarni qabul qilish uchun xizmat qiluvchi qurilma.

Dekodlash vaqtining belgisi**ing.** - decode time stamp**rus.** - метка времени декодирования

Kadrlarni dekodlash tartibini aniqlaydigan belgi.

ing. - decompiler**rus.** - декомпилятор

Bajariladigan dastur va boshlang'ich matnning matn yozilgan yuqori darajadagi tilda dekompiyatsiya qilinishini bajaradigan dastur. Bunda, ichki o'zgaruvchilarning dasturchi tomonidan berilgan ma'naviy belgilari tiklanmaydi. Si, Fortran, PL/M-80 tillari uchun mo'ljallangan dekompiyatorlar ma'lum.

Dekompozitsiya**ing.** - decomposition**rus.** - композиция

Murakkab obyektning oddiy obyektlar yig'indisi sifatida taqdim etish, masalan, masalalarni kichik masalalarga bo'lish.

Dellinjer effekti**ing.** - Dellinger effect**rus.** - эффект Деллинджера

Signallarning (2 MHz dan 30 MHz gacha bo'lgan chastotalarda) to'satdan bo'ladigan ionosfera g'alayonlanishi (Quyosh chaqnashlari) paytida vujudga keladigan qisqa mudatli tinishi.

Delta impuls**ing.** - delta pulse**rus.** - дельта импульс

Vaqtning $t=0$ dan boshqa barcha qiymatlarida amplitudasi nolga teng mono impuls.

Delta-kadr**ing.** - delta-frame**rus.** - дельта-кадр

Faqat oldingi kadrdan farqlanuvchi piksellardan tashkil topgan ayirma (differensial) kadr. Delta-kadrlar diskka yozilishi kerak bo'lgan videoklipning umumiy o'Ichamini pasaytiradi.

Delta-modulyatsiya**ing.** - delta modulation (DM)**rus.** - дельта-модуляция

Differensial impuls-kodli modulyatsiya turi, bunda faqat har bir signal sanog'i va taxmin qilingan qiymat o'rtasidagi farq ishorasi qayd etiladi va yagona ikkilik razryad bilan kodlanadi.

«Demilitarizatsiya qilingan zona»**ing.** - demilitarized zone (DMZ)**ru** - «демилитаризованная зона»

Ayrim axborot resurslari (veb-server, pochta serveri va sh.k.)ni nafaqat korporativ tarmoq tashqarisidagi hujumlardan, balki ichki hujumlardan ham himoya qilish uchun tarmoqlararo ekranlardan foydalanish mexanizmi. Bu mexanizmi amalga oshirish uchun himoya qilinadigan resurslar joylashgan zona tarmoqlararo ekranlar bilan cheklanadi.

Demo

ing. - demo (demonstration)

rus. - демо

Dasturning bepul tarqatiladigan (masalan, reklama maqsadlarida), to'liq bo'lmagan versiyasi yoki qurilma namunasi. Qo'shimcha taqdimot materiallarini ichiga olishi mumkin.

Demon

ing. - demon

rus. - демон

Boshqa dasturning ishini sezdirmay nazorat qiladigan va vaqt-vaqti bilan dasturni (ko'pincha bu periferik (tashqi) qurilmalarni boshqarish dasturi), uning ishini buzmasdan to'xtatadigan dastur.

Demon-jarayon

ing. - deamon process

rus. - процесс-демон

Tizimda, u qayta ishga tushirilgunga qadar, doimo mavjud bo'lgan jarayon.

Dempfer

ing. - cladding

rus. - демпфер

Optik yorug'lik o'tkazgich yadrosini o'rab turuvchi material. Dempfer yorug'likni yadroga yo'naltirish uchun kichik sinish koeffitsiyentiga ega bo'lishi kerak.

Dempflash

ing. - damping

rus. - демпфирование

Tebranishlar so'nishini oshirish yoki uni tebranish tizimidan aperiodik tizimga aylantirish maqsadida tizimda energiya yo'qolishini ataylab ko'paytirish.

Demultipleksor

ing. - demultiplexer

rus. - демультиплексор

Multipleksor bajaradigan operatsiyaning teskarisini amalga oshiradigan, ya'ni berilgan

ish algoritimiga muvofiq, guruhli oqimni bir nechta kanalga ajratadigan qurilma.

Demultipleksorlash

ing. - demultiplexing

rus. - демультиплексирование

Axborot bloklarini bir bog'lanishdan bir nechta bog'lanishlarga identifikatsiya qiluvchi va ajratuvchi funksiya.

Depesha

ing. - dispatch

rus. - депеша

Bir vaqtning o'zida bir mamlakatning xalqaro pochta almashinuv joyidan boshqa mamlakatning tegishli xalqaro pochta almashinuv joyiga shakli Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlarida belgilangan hujjatlar ilova qilingan holda jo'natiladigan yozma xat-xabarlar, qiymati e'lon qilingan xatlar yoki posilkalar yoxud pochta buyumiga berkitilmagan posilkalar to'plami joylangan bitta yoki bir nechta qop.

Deskrembler

ing. - descrambler

rus. - дескремблер

Skrembler tomonidan o'zgartirilgan elektroloqa raqamli signali boshlang'ich tuzilmasini tiklash uchun mo'ljallangan qurilma.

Deskremblerlash

ing. - descrambling

rus. - дескремблирование

1. Raqamli uzatishda – dastlabki signalni tiklash maqsadida, skremblerlangan signalga nisbatan qo'llaniladigan jarayon.

2. Televideniyeda – axborotni sof shaklda qabul qilishga ruxsat berish uchun, skremblerlangan televideniy signal xarakteristikalarini tiklash.

Izoh - Deskremblerlash shartli foydalana olish tizimi nazorati ostidagi o'raltilgan tartibdagi jarayondan iborat.

Deskriptor

ing. - descriptor

rus. - дескриптор

1. Ma'lumotlarning shakli yoki mazmunini tavsiflovchi axborot tuzilmasi elementi, masalan, signatura deskriptori – diskdagi ma'lumotlar ketma-ketligini tavsiflovchidan diskdagi ma'lumotlarni tekshirishda foydalanish mumkin.

Axborot tizimida saqlanadigan
topish va tavsiflash imkonini beradi-
so'z yoki so'z birikmasi (kod bo'lishi
umkin). Ba'zan, kalit so'z deb ataladi.
Kodimni ishlab chiqishda deskriptorlarni
aniqlash va ularning mavjudligini hisobga
olish zarur.

Destabillashiruvchi omil

- destabilizing factor

- дестабилизирующий фактор

Yuz berishi oqibatida axborot resurslari-
ning konfidensialligi, yaxlitligi va/yoki ular-
erkin foydalanish, tarmoq yoki tarmoq
elementlari ish qobiliyatlarini buzilishi mumkin
bo'lgan voqea yoki hodisa. Masalan, axborot
xavfsizligiga tahdid.

Ma'lum telekommunikatsiyalar tarmog'iga
tashqi ichki yoki tashqi xarakterdagi fizik
texnologik jarayon bo'lgan, tarmoq ele-
mentlarining ishdan chiqishiga olib keladigan
sir.

Detektor dasturlar

ing. - detector software

rus. - программы-детекторы

Ma'lum bo'lgan bir qancha viruslarning
manjuri bilan zararlangan fayllarni aniqlash im-
konini beradigan dasturlar. Bu dasturlardan
fayllar ko'pchiligi zararlangan fayllarni tuzatish yoki
yo'q qilish rejimlariga ega.

Detektorli kallak

ing. - detector probe, detecting head

rus. - детекторная головка

O'ta yuqori chastota signalini ancha past
chastota signaliga to'liq o'tkazgich kesma-
si yoki unga ulangan detektor va liniya bilan
kelishish qurilmalari bilan yo'l-yo'l liniyalar
ko'rinishida o'zgartirish uchun mo'ljallangan
qurilma.

Determinallangan (aniqlangan) telefon

chaqiruvlar oqimi

ing. - determined telephone call flow

rus. - детерминированный поток

телефонных вызовов

Kelish vaqti qayd qilingan telefon chaqi-
ruvlar oqimi.

Determinallangan xalaqitlar

ing. - deterministic interference

rus. - детерминированные помехи

flanadigan xalaqitlar.

Detsibel (dB)

ing. - decibel (dB)

rus. - децибел (дБ)

Belning o'ndan biri energiyani aylantirish
yoki uzatishda quvvatning kuchayishi va
pasayishini o'lchash uchun foydalaniladigan
logarifmik shkala birligi.

Detsibel-millivatt (dBm)

ing. - decibels above/below one

milliwatt (dBm)

rus. - децибел-милливатт (дБм)

1 millivattga nisbatan detsibellarda hisobla-
nadigan quvvat o'lchov birligi.

Detsibel-vatt (dBw)

ing. - decibels above/below one watt (dBw)

rus. - децибел-ватт (дБвт)

Uzatgich quvvatining o'lchov birligi.

Detsibel-volt (dBv)

ing. - decibels referenced to one volt (dBv)

rus. - децибел-вольт (дБв)

Quvvat darajasining o'lchov birligi. Odatda,
videosignallar darajasini baholashda foyda-
laniladi.

Detsimetrli to'liqlar

ing. - decimetric waves

rus. - дециметровые волны

To'liq uzunliklari 0,1 dan 1 m gacha, chas-
totalar diapazoni esa 300 dan 3000 MHz ga-
cha bo'lgan to'liqlar.

Detsimillimetrli to'liqlar

ing. - decimillimetric waves

rus. - децимиллиметровые волны

(300 – 3 000) GHz bo'lgan chastotalar dia-
pazoni.

Devorga o'rnatiladigan (televizion) ekran

ing. - (television) wallmounted screen

rus. - настенный (телевизионный) экран
Zamonaviy televizorlarga nisbatan ekran
sezilarli darajada katta bo'lgan, xona devo-
riga o'rnatish mumkin bo'lgan yupqa tele-
vizion ekran.

Deytagramma

ing. - datagram

rus. - дейтаграмма

1. Tarmoq bo'ylab, aynan bir foydalanuvchiga yo'llangan axborotning boshqa qismiga bog'liq bo'limgan tarzda uzatiladigan ma'lumotlar paketi.

2. Tarmoq bo'ylab, bir-biriga bog'liq bo'limgan tarzda uzatiladigan qisqa paketlarga bo'lingan uzun xabar. Dastlabki xabar qabul qilish tomonida paketlar yig'ilgandan so'ng to'liq tiklanadi. Paketning uzunligi uzatish tezligi va tarmoq xarakteristikalariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Deytagrammali soket

ing. - datagram socket

rus. - дейтаграммный сокет

Deytagrammalari, bog'lanish o'rnatilmasdan, ikki tomonlama qabul qilish va uzatish imkonini ta'minlovchi interfeys turi.

Deytagrammali tarmoq

ing. - datagram network

rus. - дейтаграммная сеть

Paketlar kommutatsiyalangan ma'lumotlar uzatish tarmog'i. Bu tarmoqda har bir deytagramma tayinlangan punktga, tarmoqning yuklanganligiga bog'liq holda tanlanadigan alohida (mustaqil) yo'nalish bo'ylab uzatiladi. Transport sath protokollari turli yo'nalishda uzatilgan deytagrammalarni tiklaydi. Deytagrammali tarmoqda oldindan ulanish talab etilmaydi, shuning uchun trafikning kechikishi kamroq uchraydi. Bu ayniqsa, kichik hajmdagi axborotni uzatishda qulaylik yaratadi.

Dezinformatsiya

ing. - disinformation

rus. - дезинформация

Ma'lumotlarni bitta obyektidan boshqa obyektga biror maqsad bilan uzatishning shunday holatini yuzaga keltiradiki, unda ma'lumot uzatishning amalga oshirilishi bitta obyekt uchun ma'qul bo'lib, boshqa obyekt uchun ma'qul bo'lmaydi.

Deshifratör

ing. - decoder

rus. - дешифратор

1. Razryadma razryad kiruvchi ikkilik so'z (shift, kod) ni sxemaning 2n chiqish uchlarning birida birlik signalga o'zgartiruvchi mantiqiy sxema.

2. Televideniya – kodlangan dasturlarni deshifrlash uchun mo'ljallangan qurilma; shifrlangan yldoshi/telefon/faksimil signal-larini dekodlaydigan qurilma.

Deshifrlash algoritmi

ing. - decryption algorithm

rus. - алгоритм дешифрования

Deshifrlash funksiyasini amalga oshiradigan algoritim.

Diafragma

ing. - diaphragm

rus. - диафрагма

1. To'liqin o'tkazgichdagi, elektr maydonning katta kuchlanishli liniyalari yoki ular bo'ylab perpendikulyar o'rnatiladigan va mos ravishda ma'lum turdagi to'liqinlar susayishida sig'imli yoki induktiv o'tkazuvchanlikni hosil qiladigan to'siq.

2. Optik tizimlardagi yorug'lik oqimining ko'ndalang kesimini cheklovchi nosha'ffo to'siq.

Diagnostik xabar identifikatori

ing. - diagnostic message identifier

rus. - идентификатор диагностического сообщения

Tizim dasturi tomonidan aniqlangan xatoga javoban beriladigan xabar kodi.

Diagnostika

ing. - diagnostics

rus. - диагностика

Apparatura va dasturiy ta'minotdagi uzilishlar va nosozliklarni aniqlash jarayoni.

Diagramma

ing. - chart

rus. - диаграмма

O'lchanadigan kattaliklar va ularning nisbatlarini grafik tarzda shartli tasvirlash. Amaliy grafikaning ko'pgina tizimlarida diagrammalar ikki o'lchamli va uch o'lchamli ko'rinishda ustunlar va doiralar ko'rinishida taqdim qilinadi.

Dialekt

ing. - dialect

rus. - диалект

Ba'zi bir dasturlash tilining xususiy versiyasi. Masalan, Apple firmasining kompyuterlarida dasturlash uchun BASIC dialektlari mavjud.

ing. - dialog
rus. - диалог

Foydalanuvchining kompyuter bilan birgalikda ishlash turlaridan biri, bunda foydalanuvchi so'rovlar kiritadi va ularga javob yoki aniqlashtiruvchi savollar oladi.

Dialogli rejim

ing. - on-line mode
rus. - диалоговый режим

Odam va tarmoqdagi kompyuter(lar) bilan yoki kompyuter va periferik qurilma o'rtasidagi bevosita birgalikda ishlash rejimi, bunda birga ishlaydigan tizimlar o'rtasida aloqa uzilmaydi. Ko'pincha, interaktiv yoki «on-line» rejimi deb ataladi.

Diapazon

ing. - range, band
rus. - диапазон

Birorta kattalikning o'zgarish sohasi. Radiochastota (radioto'lqin) lar diapazoni – radiochastotalarning butun sohasi shartli ravishda taqsimlangan qismlardir.

Diapazonli antenna

ing. - wide-band antenna
rus. - диапазонная антенна
Parametrlari ishchi chastotalar diapazonidagi qo'yiladigan talablarga mos keladigan antenna.

Dielektrik antenna

ing. - dielectric antenna
rus. - диэлектрическая антенна
To'lqin o'tkazgich yoki koaksial kabel orqali qo'zg'atiladigan yaxlit yoki naychasimon (polistirol, polietilen) dielektrik o'zak ko'rinishidagi yuza to'lqin antenasi.
Izoh – Dielektrik antenna, mohiyatiga ko'ra, yuguruvchi to'lqin antenasini o'zida aks ettiradi va asosan antenna panjaralari va uchish apparatlarining radioqurilmalarida qo'llaniladi.

Dielektrik linza

ing. - dielectric lens
rus. - диэлектрическая линза
Elektromagnit to'lqinlarni fokuslash uchun qo'llaniladigan dielektrikdan iborat linza.

Dielektrik to'lqin o'tkazgich

ing. - dielectric waveguide
rus. - диэлектрический волновод

ko'rinishidagi yoki dielektrik muhit ichidagi kanal ko'rinishidagi to'lqin o'tkazgich, ular bo'ylab ular yo'naltiradigan elektromagnit to'lqinlar tarqatilishi mumkin.

Dielektrik uzatish liniyasi

ing. - dielectric line of transmission.
rus. - диэлектрическая линия передачи
Nolinchi bog'langanlikdagi ochiq uzatish liniyasi.

Dielektrik yo'qotishlar

ing. - dielectric losses
rus. - диэлектрические потери
Dielektrikda, unga elektr maydon ta'sir etishi tufayli ajraladigan quvvat.

Dielektrik o'tkazuvchanlik

ing. - permittivity
rus. - диэлектрическая проницаемость
Moddaning izotrop modda uchun skalyar va anizotrop modda uchun tenzor bo'lgan dielektrik xususiyatini tavsiflaydigan kattalik, uning elektr maydon kuchlanganligiga bo'lgan hosilasi elektr siljishiga teng.

Dielektriklar

ing. - dielectrics
rus. - диэлектрики
Qutblanish qobiliyatiga ega bo'lgan qattiq, suyuq va gazsimon moddalar.

Differensial analizator

ing. - differential analyzer
rus. - дифференциальный анализатор
Differensial tenglamalarni yechish uchun mo'ljallangan analog kompyuter (uzluksiz ishlaydigan mashina).

Differensial faza

ing. - differential phase
rus. - дифференциальная фаза
Yorqinlik signali oniy qiymati o'zgariganda ranglilik signali fazasining o'zgarishi.

Differensial impuls-kodli modulyatsiya (DIKM)

ing. - differential pulse code modulation (DPCM)
rus. - дифференциальная импульсно-кодовая модуляция (ДИКМ)
Signal diskretlashdan o'tadigan, har bir sa-

noq va oldingi sanoqlar yoki kvantlangan qiymatlarning ketma-ketligidan olinadigan va taxmin qilingan qiymat o'rtasidagi farq hisoblanadigan, keyin hisoblangan farq kvantlanadigan jarayon. Olingan kvantlangan qiymatlarning ketma-ketligi kodlash yo'li bilan raqamli signalga aylantiriladi.
Izoh - Differensial impuls-kodli modulyatsiya differensial kodlash uchun misol bo'ladi.

Differensial kodlash

ing. - differential coding

rus. - дифференциальное кодирование

Sanoq qiymati va taxminlangan qiymat o'rtasidagi farqdan foydalanib signalni kodlash usuli.

Izoh - Differensial kodlash yo'li bilan ketma-ket sanoqlar o'rtasida kuchli korrelyatsiya mavjud bo'lgan signallarning bitreytini pasaytirishga erishish mumkin, chunki sanoqlar o'rtasidagi farqni ayni darajadagi aniqlik bilan sanoqlarning o'zini kvantlashga nisbatan kamroq sondagi kvantlash intervallaridan foydalanib kvantlash mumkin.

Differensial kriptotahlil

ing. - differential cryptanalysis

rus. - дифференциальный криптоанализ

Takrorlanuvchi blokli shifrlar uchun qo'llaniladigan kriptotahlil usuli. Bu kriptotahlil usuli tanlangan ochiq matn bo'yicha kriptotahlil usuliga asoslanadi va bitta kalitda shifrlangan ikki ochiq matn o'rtasidagi farqni tahlil qiladi. Mumkin bo'lgan kalitlarning har biriga uning «to'g'riligi» ehtimoli belgilanadi va pirovardida foydalaniladigan kalit hisoblab chiqariladi.

Differensial kuchaytirish

ing. - differential gain

rus. - дифференциальное усиление

Yorqinlik signali oniy qiymati o'zgaranda ranglilik signallari ko'lamining nisbiy o'zgarishi.

Diffi-Hellman algoritmi

ing. - Diffie-Hellman algorithm

rus. - алгоритм Диффи-Хеллмана

1. Himoyalanmagan aloqa kanalidan foydalanib, ikki tomonga umumiy maxfiy kalitga ega bo'lish imkonini beradigan ochiq kalitdan foydalanadigan algoritmi.

2. Kalitlarni ochiq taqsimlash, shuningdek, kalitlarni eksponensial taqsimlash deb nomlanuvchi bir tomonlama ko'rsatgichli funktsiyadan foydalanishga asoslangan algoritmi.

Diffuz qaytish

ing. - diffuse reflection

rus. - диффузное отражение

Elektromagnit to'lqinlarning notekis sirtidan qaytishi, uning qiyshilqligini turli yo'nalishlar bo'yicha sodir bo'ladigan tashuvchi to'lqin uzunligi bilan solishtirsa bo'ladi.

Diffuz tarqalish

ing. - diffusion propagation

rus. - диффузное распространение

Metrlri va detsimetrlri to'lqinlarni ko'zga ko'rinadigan gorizontdan tashqarida, ularning ionosfera va troposferadagi har xil sochilishi bilan asoslangan tarqalishi.

Difraksion panjara

ing. - diffraction lattice (gitter)

rus. - дифракционная решетка

Spektral asboblarda elektromagnit nurlanishni spektrga fazoviy yoyish uchun ishlatiladigan, bir xil kenglikdagi shtrixlarning muntazam joylashgan ko'p soni bilan uning sirtiga transparant ko'rinishida kiritilgan optik element.

Digitayzer

ing. - digitizer

rus. - дигитайзер

Turli texnik prinsiplarga asoslangan, grafik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish uchun xizmat qiladigan qurilma.

Dinamik bog'liqlik

ing. - dynamic link

rus. - динамическая связь

Bir nechta dastur bilan ajratilgan ma'lumotlarni birlashtirish usuli. Ma'lumotlarning bir dasturda o'zgarishi, ularning qolgan dasturlarda ham o'zgarishiga olib keladi.

Dinamik diapazon

ing. - dynamic range

rus. - динамический диапазон

Tovush yoki elektr signalining, detsibellarda ifodalangan eng katta dinamik darajasining eng kichigiga bo'lgan nisbati.

Dinamik fokuslash

ing. - dynamic focusing

rus. - динамическая фокусировка

Nurning ekran markazidan og'ishi bilan

taning shakli va o'lchami o'zgaradi, bu yorqinlikning pasayishiga va ekran chetlariga fokuslashning yomonlashuviga olib keladi; dinamik fokuslashda ishlaydigan elektron linza tizimlari shu effektini tuzatishga xizmat qiladi.

Dinamik joylashtiriladigan biblioteka

ing. - dynamic link library (DLL)

rus. - динамически

компонуемая библиотека

Maxsus ravishda Windows da ishlash uchun yozilgan dastur-ilovalarda foydalaniladigan ma'lumotlar va funksiyalarni ichiga oladigan fayllar majmui. Ma'lumotlar deganda, piktoqrammalar, shriftlar va menyu tushuniladi. DLL bajariladigan dasturga kerak bo'ladigan funksiyalar va/yoki ma'lumotlar ishga, ishlaydigan dasturga standart kirishdan farqli ravishda, ularga murojaat qilish paytida jalb qilingan paytda, Windows da ishlash usulini ta'minlaydi.

Dinamik komponovkalash

ing. - dynamic linking

rus. - динамическая компоновка

Dasturga, bajariladigan dasturdan ularga murojaat qilinishiga qarab, tashqi protseduralarni ulash. Usullardan biri shundan iboratki, kompilyator bunday protseduralarga murojaat qilish joylariga, protsedurani birinchi chaqirishda muayyan dasturiy uzilishni keltirib chiqaradigan kod kiritadi, undan so'ng, uni qayta ishlash natijasida tezkor xotira qurilmasiga protsedurani yuklash va chaqirish nuqtasida manzilni sozlash amalga oshiriladi.

Dinamik kontrastlash

ing. - dynamic contrasting

rus. - динамическое контрастирование

Maqbul tasavvurga erishish maqsadida har bir kadrlning kontrastlilikini doimiy sozlaydigan texnologiya. Har bir tasvir sekundiga 25 marta tahlil qilinadi, zarur bo'lganda, tasvir kontrastlilikini tezda sozlanadi.

Dinamik linkovka

ing. - dynamic linker

rus. - динамическая линковка

Dasturni bajarish vaqtidagi linkovka.

ing. - dynamic data exchange (DDE)

rus. - динамический обмен данными

Windows muhitidagi dasturlararo birgalikda ishlash protokoli. OLE mexanizmi asta-sekin siqib chiqarmoqda. Uning amal qilishining mohiyati, ikki dastur o'rtasida doimiy aloqa o'rnatishdan iborat, natijada bir ilovadagi hujjat yangilanganda, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa ilova hujjatlaridagi axborot ham yangilanadi.

Dinamik marshrutlash

ing. - dynamic routing.

rus. - динамическая маршрутизация

Xabarlarni jo'natish uchun berilgan ikkita tarmoq uzeli o'rtasidagi yo'l faqat ushbu xabar jo'natilgan vaqtda aniqlanadigan marshrutlash usuli.

Dinamik mos kelmaslik

ing. - dynamic misregistration

rus. - динамическое рассовмещение

Tasvir mazmuniga bog'liq holda o'zgaruvchi videosignal datchigidan asosiy ranglar signallarining mos kelmasligi.

Dinamik tezkor xotira qurilmasi

ing. - dynamic random access memory

rus. - динамическое оперативное

запоминающее устройство

Zamonaviy kompyuterlarda tezkor xotira qurilmasi sifatida keng qo'llaniladigan erkin foydalanish imkoniga ega kompyuter xotirasi turlaridan biri.

Dinamik xotira

ing. - dynamic storage

rus. - динамическая память

Ma'lumotlarning fizik taqdim etilishi o'zgarib turadigan va ma'lumotlardan turli vaqt onlarida bir xilda foydalanib bo'lmaydigan xotira qurilmasi; murojaat qilish turli oraliqlar bilan ajratilgan muayyan onlarda mumkin bo'ladigan xotira.

Dinamik yuklash

ing. - dynamic loading

rus. - динамическая загрузка

Xotiraga quyi dasturni foydalanuvchi dasturidan unga birinchi murojaat qilinganida yuklash.

Dinamik o'zgaruvchi

ing. - dynamic variable

rus. - динамическая переменная

Xotira foydalanuvchining aniq komandasi bilan ajratiladigan o'zgaruvchi; xotira protseduraga (funksiya, usul yoki blokka) kirishda avtomatik ajratiladigan avtomatik o'zgaruvchiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Dinamik HTML, DHTML tili

ing. - dynamic HTML

rus. - динамический HTML, язык DHTML
Serverdan sahifani qayta yuklamadan (ya'ni, aks ettiruvchi sahifalarga interaktivlikni berish uchun), foydalanuvchining harakatiga (masalan, «sichqoncha» harakatiga) HTML-sahifalari reaksiyasini tashkil qilishga imkon beruvchi HTML tilining kengaytirilgan versiyasi. Sahifa, ularni taqdim etish skriptlar yordamida o'zgartirinishi mumkin bo'lgan obyektlar to'plami) kabi ko'rib chiqiladi. Gipermatni dinamik belgilash tili stillarining kaskadli jadvalarini, hujjatning obyektli modelini, shuningdek, JavaScript, JScript, ECMAScript va VBScript ssenariy-lari tillarini qo'llab-quvvatlaydi.

Dipleks

ing. - duplex

rus. - дилплекс

1. Bir nechta uzatgich yoki qabul qilgichning turli chastotalarda bitta antenna orqali bir vaqtda ishlashi.
2. Bir nechta uzatgich yoki qabul qilgichning bitta chastotada bitta antenna orqali navbatma-navbat ishlashi.

Diplekser

ing. - duplexer

rus. - дилпексер

Ikki signalni bitta liniya orqali bir vaqtda va o'zaro xalqitlarsiz uzatish imkonini beruvchi chastotaviy ajratish qurilmasi.

Dipol

ing. - dipole

rus. - диполь

1. Uzatgichga, qabul qilgichga yoki bog'lovchi liniyaga simmetrik qo'shilgan ikkita bir xil to'g'ri chiziqli o'tkazgichdan iborat simmetrik vibrator.
2. Elektromagnit maydon nurlanish naza-

riyasida dipol sifatida Gers elektromagnit nur tarqatgichi, ya'ni uzunligi nurlanuvchi elektromagnit to'liq uzunligidan ancha kichik bo'lgan simning bir qismi qaraladi.

Dipolga nisbatan hisoblanadigan detsibellar (dBd)

ing. - decibels, measured relative to a dipole (dBd)

rus. - децибелы, отсчитываемые относительно диполя (dBd)

Antenna kuchaytirish koeffitsiyentining, yarimto'liqinli simmetrik vibratorni (dipolni) kuchaytirish koeffitsiyentiga bo'lgan, detsibellarda ifodalangan nisbati.

Direktiva

ing. - directive

rus. - директива

Dasturga muayyan ishlarni bajarishni buyuradigan komanda (ko'rsatma). Dasturlashda – bu assembler yoki kompilyatorga, translyatsiya qilinadigan dasturga boshqa fayllarni shartli translyatsiya qilish yoki kiritish to'g'risidagi ko'rsatma (direktiva)dir.

Direktor

ing. - director

rus. - директор

Antennaning yo'naltirilgan harakati koeffitsiyentini oshirish maqsadida antenna yo'nalganlik diagrammasining asosiy yagrog'i tomonidan birlamchi nur tarqatgichga nisbatan joylashgan antennalar ikkilamchi nur tarqatgichlari majmui yoki ikkilamchi nur tarqatgich.

Direktoriy

ing. - directory

rus. - директорий

O'zaro bog'langan obyektlar to'g'risida saqlanadigan ma'lumotlar to'plami. Biroq, ko'pincha atama tashqi qurilmadagi fayllar katalogini bildiradi. U noldan bir nechtagacha fayllar va boshqa kataloglarni o'z ichiga oladi. Iyerarxik fayl tizimining boshlang'ich katalogi asosiy katalog deb ataladi.

Disk

ing. - disk

rus. - диск

Muayyan fayl tizimi uchun formatlangan va

ni saqlash joyi. Ma'lumotlarni saqlash uchun yumshoq-disk, kompakt-disk, qattiq disk yoki boshqa xil diskdan foydalanish mumkin.

Disk kanali

ing. - disk channel

rus. - дисковый канал

Ma'lumotlarning diskli to'plagich bilan kompyuter o'rtasida tez yuborilishini ta'minlaydigan qurilma.

Disk kesh-xotirasi

ing. - disk cache

rus. - кэш-память диска

O'qiladigan yoki diskka yoziladigan ma'lumotlarni keshlash uchun foydalaniladigan maxsus tezkor xotira qurilmasi.

Disk kontrolleri

ing. - disk controller

rus. - дисковый контроллер

Protessorning diskli to'plagich bilan birgalikda ishlashini ta'minlaydigan mikrosxema va/yoki kengaytirish platasi. .

Disk-konusli antenna

ing. - discone antenna

rus. - дискоконусная антенна

Konus cho'qqisiga yaqin o'rnatilgan, konus va diskdan iborat antenna; disk va konusning ta'minoti fazaga qarshi amalga oshiriladi.

Disk optimizatori

ing. - disk optimizer

rus. - оптимизатор диска

Tizimning unumdorligini oshirish uchun, diskdagi fayl va kataloglar joylashuvini qayta tartibga soladigan utilita.

Disk sektori

ing. - disk sector

rus. - сектор диска

Diskli xotira qurilmalarida axborot saqlashning minimal manzillanadigan birligi. Disk yo'lkasining bir qismi hisoblanadi. Ko'pgina qurilmalarda sektorning o'lchami 512 byte-ni (masalan, qattiq va egiluvchan disklarda) yoki 2048 byteni (masalan, optik disklarda) tashkil qiladi. Yangi qattiq disklarda kengaytirilgan format sifatida ma'lum bo'lgan 4096 byte sektor o'lchamidan foydalaniladi.

ing. - disk server

rus. - дисковый сервер

Olisdagi diskovod sifatida ishlaydigan va foydalanuvchilar tomonidan birgalikda foydalaniladigan lokal tarmoq uzeli.

Disk sig'imi

ing. - disk capacity

rus. - емкость диска

Diskda joylashtirish mumkin bo'lgan axborotning (baytlardagi) umumiy sig'imi.

Disklar va flesh-to'plagichlar (fleshkalar) xususiyatlaridagi atribut

ing. - the attribute in the properties of disks and flash drives (flash drives)

rus. - атрибут в свойствах дисков и флеш-накопителей (флешках)

Fayllar va papkalarning, har qanday fayl va papkaga kontekst menyusu orqali berish mumkin bo'lgan, shu orqali uni o'zgartirish, yo'q qilish xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan parametri.

Disklardan foydalana olish indikatori

ing. - access light

rus. - индикатор доступа к дискам

Kompyuterning tizim blokidagi yorug'lik diodi bo'lib, diskka yozish yoki undan o'qish paytida yonadi.

Disklarga murojaat qilish indikatori

ing. - disk indicator

rus. - индикатор обращения к дискам

Kompyuterning tizim blokidagi, o'qish yoki yozish paytida yonadigan yorug'lik diodi.

Disklarni aks ettirish

ing. - disk mirroring

rus. - отображение дисков

Ma'lumotlarni, disk massivining alohida diskida (ko'zgu diskda) ularning qo'shimcha nusxasini yaratish yo'li bilan muhofaza qilish. Bunda disklar bitta kiritish-chiqarish kanaliga ulanishi mumkin.

Disklarni defragmentatsiya qiluvchi

ing. - disk defragmenter

rus. - дефрагментатор дисков

Qattiq diskarni defragmentatsiya qilish uchun mo'ljallangan dastur.

Disklarni duplekslash

ing. - disk duplexing

rus. - дуплексирование дисков

Ishlamay qolishlarga chidamli tizimlarda ma'lumotlarni muhofaza qilish mexanizmi. Alohida erkin foydalanish kanallari (kontrol-larlari) bo'lgan ikkita turli qattiq diskka ayni bir ma'lumotni bir vaqtda yozish.

Diskli avtomat

ing. - jukebox

rus. - дисковый автомат

Disklar avtomatik ravishda almashinadigan diskovodni o'zida ifodalaydigan, robotlashtirilgan avtomat-biblioteka.

Diskli kartrij

ing. - disk cartridge

rus. - дисковый картридж

Himoya qobig'i bilan o'ralgan, olinadigan disk.

Diskli operatsion tizimi

ing. - disk operating system (DOS)

rus. - дисковая операционная система

Bir qiymatli, 16-bitli, terminal operatsion tizim. 1981-yilda ishlab chiqilgan. Nisbatan mashhur ko'rinishlaridan biri MS-DOS dir.

Diskni bo'lish

ing. - partitioning

rus. - разбивка диска

Bitta diskni bir nechta mantiqiy disklarga bo'lish.

Diskni keshlash

ing. - disk caching

rus. - кэширование диска

Fayl tizimining unumdorligini oshirish uchun foydalaniladigan usul. O'qish va yozish operatsiyalarini bajarish uchun diskka muntazam murojaat qilishlar o'rniga, fayllar tezkor xotira keshida saqlanadi. Barcha o'qish/yozish operatsiyalari xotiraga murojaat qilish tezligi bilan bajariladi, bu diskka murojaat qilishga qaraganda ancha tez.

Diskovod

ing. - disk drive

rus. - дисковод

1. Egiluvchan yoki qattiq diskdan ma'lu-

motlarni o'qish/yozish uchun mo'ljallangan elektromexanik periferik qurilma.

2. Berilgan tezlik bilan magnit yoki boshqa turdagi tashuvchini siljitadigan, shuningdek, kerak joyga o'qiydigan/yozadigan kallaklarni keltiradigan mexanik qurilma.

Diskret

ing. - discrete

rus. - дискретный

Ramzlar kabi alohida elementlardan iborat bo'lgan ma'lumotlar yoki aniq ko'rsatilgan qiymatlarning chekli soniga ega bo'lgan fizik miqdorlarga, shuningdek, jarayonlar va ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchi funksional moslamalarga tegishli ta'rif.

Diskret Furye o'zgartirishi

ing. - discrete Fourier transform

rus. - дискретное преобразование Фурье

Diskret vaqt funksiyasi bilan bo'luvchi bazis funksiya koeffitsiyentlari to'plami o'rtasida o'zaro bir xil tenglikni ta'minlaydigan o'zgartirish.

Diskret kattalik

ing. - discrete size

rus. - величина дискретная

Qiymatlari sakrabsimon o'zgaradigan kattalik. Masalan, elektr zanjirda tok borligini yoki yo'qligini tavsiflaydigan kattalik diskret kattalik bo'lib, «ha» yoki «yo'q» (0 va 1) qiymatlarini olishi mumkin.

Diskret ma'lumotlar

ing. - discrete data

rus. - дискретные данные

Simvollar yordamida taqdim etilgan ma'lumotlar.

Diskret modellash

ing. - discrete simulation

rus. - дискретное моделирование

O'rganiladigan jarayon voqealarning diskret ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etiladigan modellash.

Diskretlash

ing. - sampling

rus. - дискретизация

1. Ma'lumotlarning qandaydir manbadan tanlab olinishi.

o'lash va ularni raqamli shaklga o'zgartirgandan so'ng kompyuterga kiritish.

Diskretсион foydalana olishni boshqarish
ing. - discretionary access control

rus. - дискреционное управление доступом

1. Nomma-nom ko'rsatilgan subyektlar va nomma-nom ko'rsatilgan obyektlar o'rtasidagi foydalanishni chegaralash.

Izoh - Foydalanishning ma'lum huquqiga ega subyekt bu huquqni istalgan boshqa teng huquqli subyektga berishi mumkin.

2. Foydalana olishni boshqarish ro'yxatlari yoki erkin foydalanish matritsasi asosida, subyektlarning obyektlardan foydalana olishini boshqarish.

Diskretсион (tanlab) foydalana olish

ing. - discretionary (selective) access

rus. - дискреционный

(избирательный) доступ

Foydalanuvchi, jarayon va/yoki u tegishli bo'lgan guruhni identifikatsiya qilish va tanishga asoslangan, obyektlardan tizim subyektlarining erkin foydalanishini boshqarish usuli. Ma'lum huquqlarga ega subyekt istalgan obyektga, belgilangan cheklashlardan qat'i nazar, huquqlarni berishni amalga oshirishi mumkin bo'lganda, boshqaruv saylanma hisoblanadi (foydalana olish - bevosita bo'lmagan tarzda ham amalga oshirilishi mumkin).

Diskriminator; selektor

ing. - discriminator

rus. - дискриминатор; селектор

Foydali signalni xalaqitlar va shovqinlar bo'lgan signallar aralashmasidan ajratish qu-rilmasi.

Disksiz (ishchi) stansiya

ing. - diskless workstation

rus. - бездисковая (рабочая) станция

Lokal disk xotirasi bo'lmagan ishchi stansiya yoki shaxsiy kompyuter. Dasturlarni yuklash va fayllar bilan bajariladigan barcha ishlar lokal tarmoq orqali fayl-serverdan amalga oshiriladi.

Dispersion kanal

ing. - dispersive channel

rus. - дисперсионный канал

va chasto-
ta-selektiv tinishlarga ega aloqa kanali; dispersion kanalda signal davomiyligi bo'yicha kengayadi va buziladi.

Dispersiya

ing. - dispersion

rus. - дисперсия

1. Sochilish.

2. Tasodifiy kattalikning uning o'rtacha qiymatidan o'rtacha kvadratik og'ishi.

Dispersiyasiz tola

ing. - zero-dispersion fiber

rus. - бездисперсионное волокно

Tez harakatlanuvchi modalar uzun yo'l bo'ylab (qobiqqa yaqin), sekin harakatlanadigan modalar esa, qisqa yo'l bo'ylab (o'zakka yaqin) tarqaladigan tola. Natijada barcha turdagi to'lqinlar tolaning olis uchiga aynan bir paytda yetib boradi, bu esa, moddiy dispersiya bilan bog'liq bo'lgan signal buzilishini bartaraf etish imkonini beradi. Biroq, bunday toladagi jami yo'qotishlar dispersiyasi siljigan toladagiga qaraganda ancha katta.

Dispatcher

ing. - manager

rus. - диспетчер

Operatsion tizimning, dasturlarning bajari-lishini boshqarish ta'minlanadigan moduli. Tizimda muvofiqlashtirish va boshqaruv rolini bajaradigan dastur.

Dispatcher identifikatori

ing. - dispatch identifier

rus. - диспетчерский идентификатор

Dispinterfeys usulini yoki xususiyatini identifikatsiyalaydigan 32-bitli butun sonli atribut.

Dispatcher ustuvorligi

ing. - dispatching priority

rus. - диспетчерский приоритет

Topshiriqlarga beriladigan va multidastur rejimda, topshiriq markaziy protsessor tomonidan qayta ishlanadigan tartibni aniqlash uchun foydalaniladigan raqam.

Dispechering yashirin (latent) aktivligi

ing. - dispatch latency

rus. - скрытая активность

(латентность) диспетчера

Bir jarayonni to'xtatish va boshqasiga start

berishda dispatcher uchun talab qilinadigan vaqt.

Display

ing. - display

rus. - дисплей

Ma'lumotlarni vizual aks ettirish qurilmasi. Displaydan ma'lumotlarni kiritish va chiqarish uchun foydalaniladi. Displayning ishlash prinsiplari turlicha. Shaxsiy kompyuterlarda elektron-nurli trubkalardan foydalanilgan displeylar juda keng tarqalgan. Shuningdek, plazma panellar, suyuq kristallar, yorug'lik diodlari asosidagi displeylar ham bor. Displayni kompyuterga ulash uchun tegishli adapter zarur. Displaydan, shuningdek, kompyuterni boshqarish uchun ham foydalaniladi, shu sababli ko'pincha monitor deb ham ataladi.

Displayli panel

ing. - display panel

rus. - дисплейная панель

Plazma yoki suyuq kristall texnologiya asosida qurilgan display. Asosida suyuq kristall bo'lgan display – bu, suyuq kristallar va mikroo'tkazgichlardan iborat to'r joylashgan yassi ekrandir. Mikroo'tkazgichlar kristallarga elektr toki uzatadi, kristallar kuchlanish ostida tasvir hosil qilgan holda, yorisha boshlaydi. Nuqta qadami 0,26-0,3 mm. Maksimal ajrata olish: 1280x1024, 75 Hz.

Distorsiya (buzilish)

ing. - distortion.

rus. - дисторсия (искажение)

Kommunikatsiya tizimining ikki nuqtasi o'rtasida signalni uzatishda signal shaklining o'rinsiz o'zgarishi.

Distributiv

ing. - distributive

rus. - дистрибутив

Ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan shakldagi dastur mahsuloti. Distributiv diskda, odatda, dasturning o'zi hanida dasturni qattiq diskka o'rnatish va uning parametrlarini moslashtirish uchun mo'ljallangan o'matuvchi bo'ladi.

Distributiv komplekti

ing. - distribution kit

rus. - комплект дистрибутива

Kompakt-diskda distributiv bilan taqdim etiladigan dasturiy ta'minotning to'liq to'plami.

Dixroik kontrreflektor

ing. - dichroic subreflector

rus. - дихроичный контррефлектор

Antennaning bir xil chastotalarda aks etadigan va boshqalarda radioshaffofroq bo'lgan yordamchi ko'zguisi.

Dizassebler

ing. - disassembler

rus. - дизассемблер

Mashina kodlarini assembler tiliga o'zgartiradigan kompyuter dasturi.

Dizassemlirlash

ing. - disassemble

rus. - дизассемблирование

Mashina kodlaridagi dasturdan assemblerdagi dasturning boshlang'ich matnini olish jarayoni va/yoki usuli. Dasturning o'zining kodlarini generatsiyalashtirishda translyatorning optimallik darajasini belgilashda foydali. Dastlabki matmlari bo'lmagan dasturlarni tuzish usuli va/yoki algoritmini tushunish imkonini beradi. Bu jarayonni bajaradigan maxsus dasturlar – dizasseblerlar mavjud.

Dizayn

ing. - design

rus. - дизайн

Qar.: Veb-dizayn.

Dizering

ing. - dithering

rus. - дизеринг

Nisbatan kam ranglardan iborat tasvirlar uchun rang teranligi illyuziyasini yaratish uchun kompyuter grafikasida qo'llaniladigan usul. Mavjud bo'lmagan ranglar bor ranglarni «aralashtirish» yo'li bilan hosil qilinadi. Tasvirlarni ranglar sonini kamaytirish orqali optimallashtirishda dizering tasvirming vizual yaxshilanishiga olib keladi, biroq, ba'zi formatlarda (masalan, PNG) tasvirming hajmi oshadi.

Dizyunksiya

ing. - disjunction

rus. - дизъюнкция

$n \geq 2$ ifodalar uchun mo'ljallangan mantiqiy operatsiya. Natijaviy ifoda boshlang'ich ifodalar noto'g'ri bo'lgandagina, yolg'on

bo'ladi. Dizyunksiyani belgilash uchun standart ravishda V belgisidan foydalaniladi.

Doimiy bor bo'lish

ing. - continuous presence

rus. - постоянное присутствие

Harakatlanadigan tasvirlarni qayta ishlash, uzatish va namoyish qilish usuli. Bunda elektronika vositalari yordamida ikkita alohida harakatchan tasvir qismlari yagona axborot oqimida uzatish uchun kombinatsiyalanadi (birlashtiriladi). Qabul nuqtasida tasvir umumiy monitorda yoki ikkita yonma-yon turgan monitorda namoyish qilinishi mumkin.

Doimiy ifoda

ing. - regular expression

rus. - регулярное выражение

Berilgan matmda ixtiyoriy murakkablikdagi belgilar tuzilmalarini izlashni amalga oshirishda va tuzishda kerak bo'ladigan shablonlarni yaratishda qo'llaniladigan kuchli vosita. Doimiy ifodalarda bitta yoki bir nechta belgini o'zgartiruvchi qo'shimcha belgilerdan foydalanish mumkin.

Doimiy kanal (trakt) ni taqdim qilish xizmati, doimiy kanal (trakt) orqali aloqa xizmati

ing. - permanent circuit service, permanent circuit telecommunication service

rus. - услуга по предоставлению постоянного канала (тракта), услуга связи по постоянному каналу (тракту)

Aloqa kanali (trakti), ekspluatatsion yoki ma'muriy xabar vositasida amalga oshirilgan, abonentning so'roviga javoban yuzaga keladigan telekommunikatsiyalar xizmatining turi. Izoh - Aloqa kanali (trakti) ning uzib qo'yilishi uning o'rnatilishiga o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Doimiy tashkil etuvchini tiklash

ing. - restoration of direct current

rus. - восстановление постоянной составляющей

Videosignalni yoki doimiy tashkil etuvchiga ega bo'lmagan signaldan yo belgilangan doimiy tashkil etuvchiga ega bo'lgan signaldan to'liq videosignalni unung doimiy tashkil etuvchisi bilan yangitdan yaratish jarayoni.

Doimiy uzatish tezligi

ing. - constant bit rate (CBR)

rus. - постоянная скорость передачи

Real vaqtda ulanish o'rnatilishiga yo'naltirilgan, ma'lumotlar oqimini (siqilmagan nutq, videoma'lumotlar, televizion tasvirlar) o'zgarmas tezlik va taxminlash mumkin bo'lgan jadallik bilan uzatish uchun qo'llaniladigan, ATM tarmog'idagi trafik turi (A turkumi).

Doimiy virtual kanal

ing. - permanent virtual circuit (PVC)

rus. - постоянный виртуальный канал
Tarmoqning ikkita oxirgi nuqtalari o'rtasida doimo amalga oshadigan bog'lanish.

Doimiy virtual zanjir

ing. - permanent virtual circuit (PVC)

rus. - постоянная виртуальная цепь

Tarmoq sathida muayyan vaqt davriga (minutning ulushidan bir necha kun va hatto, oygacha) o'rnatiladigan mantiqiy bog'lanish. Tarmoqdagi har bir kanal uchun yo'nalish, uzatish tezligi hamda xizmat ko'rsatish sinfi qat'iy belgilangan.

Doimiy xotira

ing. - constant memory

rus. - постоянная память

O'zgaraydigan ma'lumotlar massivini saqlash uchun foydalaniladigan, energiyaga bog'liq bo'lmagan xotira.

Doimiy xotira qurilmasi

ing. - read-only memory (ROM)

rus. - постоянное запоминающее устройство

Kompyuterni boshqarish uchun dasturlar doimiy saqlanadigan, bitta yoki bir nechta mikrosxemadan iborat qurilma. Doimiy xotira qurilmasi energiyaga bog'liq bo'lmagan xotiradir, ya'ni kompyuter o'chirilganda xotira ichidagi o'zgarmaydi. Doimiy xotira qurilmasi shaxsiy kompyuterlarning apparat xususiyatlari va operatsion tizimning tayanch kiritish/chiqarish tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Ba'zi mashinalarda doimiy xotira qurilmasiga bundan tashqari, dasturlash tilidan translyator yoziladi. Ko'pincha, doimiy xotira deb ataladi.

Doimiy chiziqli tezlik

ing. - constant linear velocity

rus. - постоянная линейная скорость

Diskka yozish usuli xarakteristikalaridan biri.

Doiraviy-ikki simli to'liqino'tkazgich

ing. - round-twin-wire waveguide

rus. - кругло-двухпроводный волновод
Ikki simli liniyani qamrab oluvchi tashqi o'tkazgichning doiraviy kesimi bo'lgan uch bog'lamlil to'liqino'tkazgich.

Doiraviy qutblanish

ing. - circular polarization

rus. - круговая поляризация

Elektr maydonining ikkita garmonik tashkil etuvchisi kattalik bo'yicha teng va faza bo'yicha 90° ga siljigandagi (bu elektr maydonini doira bo'yilab aylanishiga olib keladi) qutblanish. Magnit maydon vektori markazda joylashgan va doira tekisligiga perpendikulyar.

Domen

ing. - domain

rus. - домен

1. Internet tarmog'idagi kompyuter nomining tarkibiy qismi.

2. Internet tarmog'ining, nomi yozilgan mezon bo'yicha ajratilgan va uni qo'llab-quvvatlash yuzasidan javob beradigan tashkilot tasarrufiga berilgan qismi.

Izoh - Domen bo'yicha kompyuter joylashgan yer aniqlanadi, undan foydalanish mumkin bo'ladi.

3. Markazlashtirilgan tarzda ma'muriy boshqariladigan, bir-biri bilan muayyan usulda domen nomlari serveri orqali birgalikda ishlaydigan kompyuterlar to'plami.

Izoh - Kompyuterlarni domenga birlashtirish ularning geografik joylashuvi, tashkilot bo'yicha yoki aktivlik turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Domen administratori

ing. - domain administrator

rus. - администратор домена

Domenni to'liq nazorat qila oladigan hisobga olish yozuvi.

Domen administratori foydalanuvchisining nomi

ing. - domain admin user name

rus. - имя пользователя

администратора домена

Domen administratori foydalanuvchisining nomi. U ushbu domendagi deyarli barcha huquqlarga ega.

Domen kontrolleri

ing. - domain controller

rus. - контроллер домена

Haqiqiylikni yalpi tekshirishda parolning tekshirilishini bajaradigan, domenning hisobga olish yozuvlari ro'yxati saqlanadigan kompyuter.

Domen manzili

ing. - domain address

rus. - доменный адрес

Qar.: Domen nomi.

Domen nomi

ing. - domain name

rus. - имя домена

1. Nomlarning domen tizimiga muvofiq, kompyuter tarmog'i uzelliga berilgan, noyob simvulli nom.

2. IP-manzilni simvulli ko'rsatish.

Domen nomini ro'yxatga kiritish

ing. - domain name registration

rus. - регистрация доменного имени

Talabnoma asosida domen nomi va uning administratori to'g'risidagi axborotni ro'yxatga oluvchi tomonidan reyestrqa kiritib qo'yish. Reyestrqa domen nomi to'g'risidagi axborot kiritilgan vaqtdan boshlab u ro'yxatga olingan hisoblanadi. Masalan, «uz» domenida ro'yxatning kuchga ega bo'lish muddati uch yilgacha.

Domen nomlari reyestri

ing. - domain name registry

rus. - реестр доменных имен

Domenning markaziy ma'lumotlar bazasi. Unda ro'yxatdan o'tgan domen nomlari, domenlarning administratorlari to'g'risidagi va domenlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur axborot saqlanadi.

Domen nomlari tizimi

ing. - domain name system

rus. - доменная система имен

Internetga o'xshash tarmoqda bog'langan kompyuterlarning har biriga noyob nomlar berishning iyerarxik tizimi.

Izoh - Nom chapdan o'ngga oshib boradigan iyerarxiya darajalariga mos keladigan, nuqta bilan ajratilgan qismlar domenlaridan iborat.

Domen nomlari xizmati

ing. - domain name service (DNS)

rus. - служба доменных имен

IP-manzil sonlari va matnli nomlar o'rnatiladigan moslik o'rnatadigan, Internet tarmog'ida qo'llaniladigan mexanizm.

Domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazuvchi
ing. - domain name registrant
rus. - регистратор доменных имен
Domen nomlarini ro'yxatga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan va tegishli axborotni reyestruga uzatadigan yuridik shaxs.

Domen nomlarini o'g'irish
ing. - domain name resolution
rus. - разрешение доменных имен
Internet domen nomini mos ravishda IP-manzilga o'g'irish jarayoni.

Domen nomlarining serveri
ing. - domain name server (DNS)
rus. - сервер доменных имен
Kompyuter nomlarini IP-manzillaridagi domen nomlariga o'tkazadigan tarmoqning xizmatga oid kompyuteri.

Domenni joylashtirish
ing. - domain parking
rus. - парковка домена
Domen nomlarini DNS-serverlarda ro'yxatdan o'tkazish. Domenni xususan qayd etuvchida, shuningdek tashqi maydonlarda qayd etish mumkin.

Domenning rezerv kontrolleri
ing. - backup domain controller
rus. - резервный контроллер домена
Windows NT domenidagi kompyuter, domenning xavfsizlik siyosati va ma'lumotlar bazasi nusxalarini o'zida saqlaydi. Agarda domenning bosh kontrolleridan foydalanish mumkin bo'lmasa, undan zaxira sifatida foydalaniladi.

Domenning yordamchi kontrolleri
ing. - helper DC
rus. - вспомогательный контроллер домена
Tarmoq yuklanganida yoki ishdan chiqqanida domenning asosiy kontrolleri (tartibga soluvchi)ni almashtirib turuvchi va Active Directory dagi ma'lumotni replitslovchi (nusxalovchi) zahira serveri.

Dominant (asosiy) marshrutizator
ing. - dominant router
rus. - доминантный маршрутизатор
Aktiv abonentlarni aniqlaydigan va so'rovlarning davriy ravishda yuborilishi uchun javob beradigan asosiy marshrutizator.

Doppler effekti
ing. - Doppler effect
rus. - эффект Допплера
Signal manbaiga va/yoki tarqalish muhitiga nisbatan harakat qiladigan, nuqtada kuzatiladigan signal chastotasining o'zgarishi.

Dorvey
ing. - doorway
rus. - дорвей
1-3 kalitli so'z yoki iboralar uchun maqbul-lashtirilgan sahifalar. Ularni odatda kirish sahifalari, shlyuzlar (gateway) .g yoki reklama sahifalari (splash pages) deyiladi. Ko'p hollarda dorveylar ma'lum izlash mashinasi uchun maxsus yaratiladi.

Dotkom
ing. - dotcom
rus. - дотком
Biznes-modeli to'liq Internet tarmog'i doirasidagi faoliyatga asoslangan kompaniya. Ushbu nom 1990-yillarning oxirida keng tarqalgan bo'lib, inglizcha «dot-com» («nuqta-com») iborasidan kelib chiqqan.

Dog' vobulyatsiyasi
ing. - wobble of spot
rus. - вобуляция пятна
Yoyuvchi elementga satrlami kengaytirish bilan satr tuzilmasini qisman sezilarli qilish uchun xabar beradigan, yoyish satrlariga perpendikulyar bo'lgan tebranma harakat.
Izoh - Taalluqli fransuzcha atama «Vobuler».

Drayver
ing. - driver
rus. - драйвер
1. Amaliy jarayonlar va tashqi qurilmalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini boshqaradigan, tezkor xotiraga yuklanadigan dastur.
2. Operatsion tizimning, bajariladigan dasturning ayrim qurilmalar bilan birgalikda ishlashini ta'minlaydigan va undan qulayroq foydalanishga ko'maklashadigan boshqaruvchi dasturi.

Drayverlarning yangilanishi
ing. - driver update
rus. - обновление драйверов
Drayverning yanada yangi, yanada funksional versiyasini qabul qilish uchun xizmat qiladi.

Drogen

ing. - doorgen

rus. - дорген

Dorvey generatori, ko'pincha Markov zanjiri bilan ishlatiladi. Dorvey generatsiyasi kalit so'zlar ro'yxati va mavzuli saytlar matni asosida amalga oshadi. Dorgen berilgan algoritim bo'yicha ko'pgina bet mazmunsiz matnlarni to'playdi. Ular o'zaro (ba'zida esa boshqa dorveylar bilan) ulagich orqali bog'langan bo'ladi.

Dupleks aloqa

ing. - duplex communication

rus. - дуплексная связь

Aloqa usuli, bunda uzatish telekommunikatsiyalar kanalining ikkala yo'nalishida bir vaqtda amalga oshiriladi.

Dupleks uzatish

ing. - duplex transmission

rus. - дуплексная передача

Axborotni ikkala yo'nalishda navbatma-navbat (yarim dupleks) hamda bir vaqting o'zida (to'liq dupleks) uzatish.

Duplekser

ing. - duplexer

rus. - дуплексер

Axborotni uzatish va qabul qilish uchun bita antennadan bir vaqtda foydalanishga yo'l qo'yiladigan antenna ajratuvchi filtri.

Dupleksorlash

ing. - duplexing

rus. - дуплексирование

Ikkita fizik mustaqil simpleks kanalining har biridan axborot faqat bir yo'nalishda uzatiladigan abonentlar o'rtasida ikki tomonlama aloqani tashkil etish.

Izoh - Amaliyotda dupleksorlashning ikkita: qabul qilish va uzatish kanallarini FDD va TDD bo'yicha bo'lish sxemasi qo'llaniladi.

Duplikator

ing. - duplicator

rus. - дубликатор

Disklar, disketalar, magnit tasmalarni ko'paytirish (nusxa olish) qurilmasi.

Do'stona interfeys

ing. - friendly interface

rus. - дружественный интерфейс

Foydalanish, qo'llash uchun qulay va oddiy tashkil qilingan foydalanuvchining interfeysi.

E

Effektiv nurlanadigan quvvat

ing. - effective radiated power

rus. - эффективная излучаемая мощность

Berilgan yo'nalishda yarimto'liqinli dipolga nisbatan, antennaga uzatilayotgan quvvatning uning kuchaytirish koeffitsiyentiga bo'lgan ko'paytmasi.

Effektiv sochilish maydoni

ing. - scattering cross-section

rus. - эффективная площадь рассеяния

Maydon o'lchamliligiga ega radiolokatsiya obyektlarining xususiyatlarini aks ettiradigan va nurlantiruvchi obyektning shu energiya oqimi zichligiga radiolokatsion stansiyaga obyektidan qaytadigan elektromagnit energiya quvvatining nisbatiga teng xarakteristikasi.

Efir

ing. - ether

rus. - эфир

Radioto'liqlar tarqaladigan elektromagnit muhitning umumlashtirilgan nomi.

Efir orti radiokuzatuv

ing. - listening watch

rus. - радионаблюдение за эфиром

Aloqa vositalarining ishchi chastotalari va ish rejimlarini elektromagnit va xalaqit mavjud vaziyatlarni tahlil qilish maqsadida nazorat qilish.

Efirida bo'lish vaqti

ing. - airtime

rus. - время пребывания в эфире

1. Abonent qurilmasi radiokanalga ulanib turgan umumiy vaqt.

2. Abonent tomonidan bir oy ichida radioaloqa kanalidan jami foydalanish vaqti (minutlarda) bo'lib, har oylik to'lovlarni hisoblashda ishlatiladi.

Efirga chiqilmasdan amalga

oshiriladigan nazorat

ing. - off-the-air monitoring

rus. - контроль без выхода в эфир

Radiostansiyani halqali tekshirish rejimi, bunda qabul qilgich o'z uzatgichining signalini qabul qiladi.

Egalik**ing.** - ownership**rus.** - владение

Obyektga egalik qilishga nisbatan mutlaq huquqlarga egalikni nazarda tutuvchi harakat.

Egallash, tutish**ing.** - capture**rus.** - захват

Axborotni qandaydir bir qurilmadan signalni bekor qilish va rasshifrovka qilish yo'li bilan qabul qilish. Odatda, ovoz va videoni tutish amalga oshiriladi.

Egillish tufayli yo'qotishlar**ing.** - bend loss**rus.** - потери от изгиба

Toladagi so'nish shakli. Tolaning xilma-xillik atrofida egilishi (makro egilish) yoki toladagi mikroskopik buzilish (mikro egilish) natijasi hisoblanadi.

Egiluvchan disk**ing.** - floppy disk**rus.** - гибкий диск

Kompyuter axborotni yozish uchun mo'ljallangan, asosi yupqa egiluvchan polimer magnit moddadan plastina shaklida yasalgan magnit disk. Plastina chang va shikastlanishdan saqlovchi, ichki tomonida tozalovchi qoplama bo'lgan zich korpusga joylashtirilgan. Korpusdagi o'yiqliq ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun xizmat qiladi. Axborot diskda konsentrik yo'laklar bo'ylab joylashtiriladi va saqlanadi.

Egiluvchan magnit diskdagi o'qish qurilmasi**ing.** - floppy disk drive**rus.** - накопитель на гибком магнитном диске

Disketadan ma'lumotlarni o'qiydigan va ma'lumotlarni disketaga yozadigan elektron hisoblash mashinalari apparat vositalarining qurilmasi.

Egiluvchan magnit disklar diskovodi**ing.** - floppy disk drive (FDD)

rus. - дискковод гибких магнитных дисков
Egiluvchan magnit diskdagi to'plagich. Dastlab 8» o'lchamga ega edi, keyinchalik esa 5,25» gacha kichraytirildi. Oxirgi ishlatil-

gan disketalar 3,5» o'lchamli va 1.44 Mbyte hajmga ega edi. Hozirda CD-diskovod va Flash-jamlovchilar uning o'rini egallab olgan.

Egiluvchan to'lqin o'tkazgich**ing.** - flexible waveguide**rus.** - гибкий волновод

Geometrik shaklining o'zgarishi, elektr xossalari jiddiy o'zgarishiga olib kelmaydigan to'lqin o'tkazgich.

Ehtimoliy shifrlash**ing.** - probability encryption**rus.** - вероятностное шифрование

1. Bitta ochiq matnga shifmatlar to'plami to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan shifrlash sxemasi.
2. Tasodifiy parametrlardan foydalangan holda shifrlash jarayoni.

Ehtiyoj dugasi**ing.** - claim edge**rus.** - дуга потребности

Resurslarni taqsimlash grafasidagi duga, jarayonni cho'qqidan cho'qqiga olib o'tadi, resurs punktir chiziq bilan ifodalanadi va bu jarayon ushbu resursni talab qilishi mumkinligini bildiradi.

Ekran**ing.** - screen**rus.** - экран

1. Proyektor tomonidan hosil qilingan tasvir aks etayotgan yuz.
2. Matnli yoki tasvirli ixtiyoriy mazmundagi axborot ko'rsatiladigan qurilma (televizor, monitor, elektron soatlar, telefon va h.k.).
3. Parazit nurlanishni kamaytirish va elektromagnit nurlanishlarning kabelga zararli ta'sirini kamaytirish uchun mo'ljallangan kabelning sirtini to'r to'qib o'rash.
4. Insonni yoki texnik qurilmalarni noqulay, zararli yoki bu ta'sirni uning yuzasi bilan aks ettirish orqali xavfli zararlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan qurilma yoki obyekt.

Ekran imitatsiyasi**ing.** - screen mimic**rus.** - имитация экрана

Hech narsadan gumon qilmagan foydalanuvchiga, uning nomi va parolini bilib olish

uchun soxta so'roq ekranini yoritish bilan bog'liq ekran maskirovkasi.

Ekran klaviaturasi

ing. - on-screen keyboard

rus. - экранная клавиатура

Operatsion tizimning, ekranda haqiqiy klaviatura kabi ishlaydigan virtual klaviaturani aks ettiradigan standart dasturi.

Ekran lupasi

ing. - magnifier

rus. - экранная лупа

Turli operatsion tizimlarning maxsus imkoniyatlari tarkibiga kiruvchi dastur. Ishlash tartibi oddiy lupa kabi, ya'ni ekrandagi biror elementning qismlarini aniqroq ko'rish yoki ko'rish qobiliyati past bo'lganda kattaroq qilib ko'rsatadi.

Ekran operatsiyalarini tezlashtirgich

ing. - windows accelerator

rus. - ускоритель экранных операций

Markaziy protsessorning ishtirokisiz, ekranda oynani o'zgartirish yoki qayta chizish yo'li bilan operatsion tizim ishini tezlatish uchun mo'ljallangan grafik plata.

Ekran surati

ing. - print screen, screenshot

rus. - снимок экрана

Foydalanuvchi tomonidan ekranda ko'rinib turgan yoki boshqa qurilmani ko'rsatishda kompyuter tomonidan olingan tasvir. Odatda, bu raqamli tasvir foydalanuvchining komandasiga asosan operatsion tizim yoki boshqa dastur tomonidan amalga oshiriladi.

Ekran o'lchami

ing. - screen resolution

rus. - разрешение экрана

Monitor ekranida chiqadigan axborot miqdorini aniqlovchi kattalik (nuqtalarda o'lchanadi). Ekraning quyi ruxsat etish darajasida, masalan 640 x 480 da, tasvir sohasi kichrayadi va alohida elementlar kattalashadi. Yuqori ruxsat etish darajasi 1024 x 768 da esa tasvir sohasi kattalashadi va unga muvofiq alohida elementlarni kichik ko'rinishda chiqarish mumkin bo'ladi.

Ekran shakli

ing. - display form

rus. - экранная форма

Operator interfeysi, bunda ma'lumotlar ekrandagi maydonlarda kiritiladi va chiqariladi, operator esa, kiritish kursorini maydonlar o'rtasida siljitib, ularning ichidagini to'ldiradi yoki o'zgartiradi.

Ekranlangan kamera

ing. - screened chamber

rus. - экранированная камера

Ichki va tashqi elektromagnit vaziyatni ajratish uchun ekranlash xususiyatlariga ega bo'lgan xona.

Ekranlanmagan o'ralgan juft

ing. - Unshielded Twisted Pair (UTP)

rus. - неэкранированная витая пара

Telefon aloqasi yoki kompyuter qurilmalarining bog'lanishi uchun foydalaniladigan ichki sim. U egiluvchan izolyatsion trubka ichidagi ikkitalik yoki to'rttalik o'ralgan juft simlardan tashkil topadi va modulli tiqin yoki telefon ajratgichlardan foydalanadi.

Ekranlash

ing. - screening

rus. - экранирование

1. Tarmoqlararo ekraning, tashqi sohadan bo'ladigan ruxsat etilmagan so'rovlarni rad qilgan holda, ichki soha obyektlarining xavfsizligini ta'minlaydigan funksiyasi.
2. Uzatiladigan ma'lumotlarni filtrlash yo'li bilan tarmoqlararo foydalanishni chegaralash.

Ekranlash ko'effitsiyenti

ing. - shielding effectiveness; shielding factor

rus. - коэффициент экранирования

Maydonning, ekranda hosil qilinadigan fazoning shu nuqtasidagi tashqi manbdan, sayishini tavsiflovchi ko'effitsiyent.

Ekranli himoyalash dasturi

ing. - screen protection program

rus. - программа защиты экрана

Klavisha oxirgi marta bosilgandan yoki «sichqoncha» surilgandan keyin ma'lum vaqt o'tgach, ekranli umuman o'chiradigan yoki vaqtda o'zgaradigan rasmni ko'rsatadigan dastur. Bunday dasturlar ekran lyuminofori tez yonib tugashining oldini olish uchun mo'ljallangan.

Ekranni saqlovchi

ing. - screen saver

rus. - хранитель экрана

Foydalanuvchi kompyuterda ishlamayotgan vaqtida, ekranga harakatdagi tasviri chiqaruvchi dastur. Klaviaturadan birorta klavisha bosilsa yoki «sichqoncha» qimirlasa, ekran saqlovchisi chiqargan tasvir darhol yo'qolib ketadi. Bunday dasturlar ayrim monitorlar ekranlarini lyuminofor yonishidan saqlaydi.

Ekranning kuchaytirish koeffitsiyenti

ing. - gain factor of screen

rus. - коэффициент усиления экрана

Ekranning akslantirish xossasi kattaligining, etalon materialning xuddi shu xarakteristika-ga nisbati.

Ekspert baholash

ing. - expert evaluation

rus. - экспертная оценка

Izlash usuli va ekspertning shaxsiy fikridan yoki ekspertlar guruhining umumiy fikridan foydalanish asosida olingan, usulni qo'llash natijasi.

Ekspert darajadagi tarmoqlararo ekran

ing. - stateful inspection firewall

rus. - межсетевой экран

экспертного уровня

Paketlarni filtrlashning maxsus algoritmlari. Ular yordamida har bir paket mualliflashtirilgan paketlarning ma'lum namunasi bilan taqqoslanadi. Qabul qilinadigan paketlarning ichidagi VOS modelining uchta: tarmoq, seans va amaliy darajalarida tekshiriladi.

Ekspert tizimi

ing. - expert system

rus. - экспертная система

Malakali ekspertlarning bilimi, tajribasi hamda kompyuterlarning imkoniyatlari asosida vazifalarni hal qilish uchun yaratilgan sun'iy intellekt tizimi. Ekspert tizimi – bu, kompyuter uchun dastur bo'lib, uning yordamida rasmiy, absolyut aniq yechimlar olish mumkin bo'lmagan vaziyatda maqbul yechim olish mumkin bo'ladi. Ekspert tizimi odatda, uchta blokdan, ya'ni bilimlar bazasi, mantiqiy xulosa bloki, foydalanuvchi interfeysidan iborat bo'ladi.

Ekspert xulosasi

ing. - expert analysis

rus. - экспертное заключение

Ekspertiza obyektining talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligi to'g'risida asoslangan xulosalarni ichiga oladigan hujjat.

Eksploit

ing. - exploit

rus. - эксплуат

Kompyuter tizimiga dasturiy ta'minotning zaif joyidan foydalanish orqali hujum qilish. Keyinchalik tizimga hujum qilish maqsadidagi g'araz niyatli foydalanuvchi huquqlarini oshirishda foydalaniladi.

Eksploatatsion dasturlash

ing. - maintenance programming

rus. - эксплуатационное

программирование

Dasturning, dastur buyurtmachida joriy qilingandan so'ng o'zgartirilishi. Yangi funksional imkoniyatlarni qo'shish, xatolarni tuzatish yoki foydalanishda qulayroq qilish maqsadida bajariladi.

Eksport

ing. - export

rus. - экспорт

Bir platformadagi ma'lumotlar bazasi ma'lumotlarini boshqa platformadagi ma'lumotlar bazasiga yoki bir formatdagi fayl ma'lumotlarini boshqa dasturdan foydalanish uchun boshqa formatdagi faylga o'tkazish.

Ekstent

ing. - extent

rus. - экстен

Kirish/chiqarish qurilmasidagi, ma'lumotlarning muayyan jami uchun band qilingan yoki zaxiralangan fizik soha.

Ekstrakod

ing. - extracode

rus. - экстракод

Operatsion tizim ichidagi, apparat funksiyalarni emulyatsiyalaydigan qisqa kichik dasturlar.

Ekstranet tarmog'i

ing. - extranet

rus. - сеть экстранет

Yopiq korporativ intratarmoqni kengaytirish natijasida hosil bo'lgan tarmoq. U biznesni samaraliroq olib borish uchun tashkilot axborot tizimidan tanlov asosida foydalanish zarurati bo'lgan mijoz, yetqazib beruvchi, subpudratchi va ishchan hamkorlari hamda tashkilotga nisbatan boshqa tashqi tomonlarni o'zaro bog'laydi.

Ekstremal dasturlash

ing. - extreme programming

rus. - экстремальное программирование

Dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish metodologiyalaridan biri.

Ekvayrer (bank-ekvayrer)

ing. - acquiring bank

rus. - эквайпер (банк-эквайпер)

To'lov tizimi vositalari bilan xizmat ko'rsatish ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini ta'minlash bo'yicha zarur operatsiyalar bajarilishini amalga oshiradigan moliya tashkiloti.

Ekvidistant antenna panjarasi

ing. - uniformly spaced array; equidistant

array; equispaced array

rus. - эквидистантная антенная решетка

Qo'shni elementlar o'rtasida bir xil masofaga ega liniya antenna panjarasi.

Ekvidistant elementlar

ing. - equally spaced elements

rus. - эквидистантные элементы

Bir-biriga nisbatan bir xil masofada joylashgan antenna panjarasining elementlar nur tarqatgichlari.

Ekvivalent izotrop nurlanuvchi

quvvat (e.i.n.q.)

ing. - equivalent isotropically-radiated

power (e.i.r.p.)

rus. - эквивалентная изотропно

излучаемая мощность (э.и.и.м.)

Antennaga uzatiladigan quvvatning, izotrop antennaga nisbatan berilgan yo'nalishda bu antennaning kuchaytirish koeffitsientiga ko'paytmasi.

Izoh - Izotrop antenna, unga 1kW quvvat uzatilganda barcha yo'nalishlarda 1 kW ga teng e.i.n.q. ni ta'minlaydi, va 1km masofada 173 mV/m naydon kuchlanilgini hosil qiladi, deb hisoblanadi.

Elektr pastga og'ish

ing. - electrical downtilt

rus. - электрический наклон вниз

Antenna elementlarini fazalash yo'li bilan yoki analog elektr vositalar yordamida amalga oshiriladigan antennaning pastga og'ishi.

Elektr ravishda o'chiriladigan dasturlashtiriladigan doimiy xotira qurilmasi

ing. - electrically (electrical) erasable

programmable read-only memory

(EEPROM)

ru - электрически стираемое

программируемое постоянное

запоминающее устройство

Kam ishlatiladigan yarim o'tkazgich turiga

tegishli dasturlashtirilgan doimiy xotira

qurilmasi, uni tozalash yoki qayta dasturlash

uchun elektr signallardan foydalaniladi.

Ushbu signallar mikrosxemaning maxsus

oyoqchalariga kompyuterning o'zi yoki

tashqi qurilma (dasturlovchi) tomonidan

yuboriladi. 10 dan 100 ming siklgacha qayta

yo'zish imkoniyatini beradi.

Elektr skanlanadigan antenna panjarasi

ing. - array with electrical scan

rus. - антенная решетка с электрическим

сканированием

Nurning elektr skanlanishi uning

parametrlarini elektr boshqarish vositasida

amalga oshiriladigan antenna panjarasi.

Elektr ta'minot tarmog'i bo'yicha

xalalqitga chidamlilik (hisoblash

texnikasi vositasining)

ing. - mains immunity of a computer

rus. - помехоустойчивость

(средства вычислительной техники)

по сети питания

Hisoblash texnikasi vositasining tarmoq xa-

laqitlari ta'siriga chidamliligi.

Elektroluminessensiya

ing. - electroluminescence

rus. - электролюминесценция

Elektr maydoni yoki tok qo'zg'atadigan

lyuminessensiya.

Elektroluminoforlar

ing. - electroluminescent materials

rus. - электролюминофоры

Elektrolyuminessensiya xossasiga ega bo'lgan moddalar.

Elektromagnit moslashuv

ing. - electromagnetic compatibility (EMC)

rus. - электромагнитная совместимость

Turli radioaloqa vositalaridan birgalikda foydalanish mumkin bo'lgan hamda ularning o'zaro ta'siri aloqa sifatining belgilangan normalardan pasayishiga olib kelmasligini kafolatlaydigan sharoit.

Elektromagnit moslashuv darajasi

(hisoblash texnikasi vositasining)

ing. - EMC level of a computer

rus. - уровень электромагнитной совместимости (средства вычислительной техники)

Parametrlarining qiymatlari qat'iy belgilangan tashqi xalaqitning hisoblash texnikasi vositasining xalaqit emissiyasiga bo'lgan normasi bilan xalaqitga chidamlilik normasi o'rtasida yotuvchi, darajasi. Real sharoitlarda uning oshib ketish ehtimoli kam.

Elektromagnit moslashuv xarakteristikasi

ing. - description of EMC

rus. - характеристика электромагнитной характеристики

Texnik vositaning berilgan elektromagnit vaziyatda ishlash imkoniyatini va/yoki uning boshqa texnik vositalarga ta'siri darajasini ko'rsatadigan xarakteristikasi.

Elektromagnit nurlanish

ing. - electromagnetic radiation

rus. - электромагнитное излучение

Energiyaning manbadan elektromagnit to'liqlar ko'rinishida fazoga nurlanish jayrioni.

(Elektromagnit nurlanishdan)

biologik himoya

ing. - biological protection

(from electromagnetic radiation)

rus. - биологическая защита

(от электромагнитного излучения)

Sanitariya normalari bilan belgilangan sathlarga mos keladigan elektromagnit nurlanishlarning qat'iy belgilangan darajalarini ta'minlash.

Elektromagnit to'liqlar dispersiyasi

ing. - dispersion of electromagnetic waves

rus. - дисперсия электромагнитных волн

Elektromagnit to'liqin fazaviy tezligining chastotaga bog'liqligi.

Elektromagnit to'liqlarning nurlanishi

ing. - electromagnetic radiation

rus. - излучение электромагнитных волн

Istalgan manbadan chiqayotgan energiyaning elektromagnit to'liqlar shaklidagi oqimi.

Elektromagnit to'liqlarning qaytishi

ing. - reflection of electromagnetic waves

rus. - отражение электромагнитных волн

Elektromagnit to'liqlar tarqalish yo'nalishining ikki muhit chegarasida o'zgarishi, bunda bo'linish chegarasida tushayotgan to'liqin qisman yoki to'liq holda o'zi kelayotgan muhitga qaytadi.

Elektromagnit xalaqit

ing. - electromagnetic disturbance

rus. - электромагнитная помеха
Manbai tabiatdagi fizik hodisalar bo'lgan elektromagnit xalaqit.

Elektromagnit xalaqitga chidamlilik;

xalaqitga chidamlilik

ing. - immunity to a disturbance

rus. - устойчивость к электромагнитной

помехе; помехоустойчивость

Texnik vositaning, elektromagnit xalaqitlar mavjudligi sharoitida sifatni pasaytirmasdan ishlash qobiliyati.

Elektromagnit xalaqitlardan himoyalash

ing. - EMI segregation

rus. - защита от электромагнитных помех

Telekommunikatsiya signalini elektromagnit xalaqitlardan himoya qilish maqsadida izolyatsiyalash.

(Elektromagnit) ta'sirchanlik

ing. - susceptibility

rus. - восприимчивость

(электромагнитная)

Retseptorning elektromagnit xalaqitga ta'sirchanlik qobiliyati.

Elektromagnit g'alayonlanish

ing. - electromagnetic disturbance

rus. - электромагнитное возмущение

Qurilma, uskuna yoki tizim xarakteristikalarini yomonlashtirishi mumkin bo'lgan har qanday elektromagnit hodisa.

Elektron arxiv

ing. - electronic archive

rus. - электронный архив

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishi zarur bo'lgan elektron hujjatlar to'plami.

Elektron outsorsing

ing. - cybersourcing, e-sourcing

rus. - электронный аутсорсинг

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga biznes-jarayonlar bajarilishini topshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan xizmatlarni taqdim etish.

Elektron axborot-xizmati hujjati

ing. - duty-information electronic documents

rus. - электронный служебно-информационный документ

Elektron raqamli imzo bilan himoyalangan, hisob-kitobni amalga oshirishda va banklarda ochilgan hisob varaqlari bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishda axborot almashinuvini ta'minlaydigan hujjat.

Elektron bildirish

ing. - e-mail notification

rus. - электронное уведомление

Axborot tizimi vositasida jismoniy yoki yuridik shaxsni davlat organi yoki boshqa tashkilotning elektron davlat xizmatlari ko'rsatish yuzasidan harakatlarini tasdiqlash to'g'risida xabardor qilish.

Elektron biznes

ing. - electronic business

rus. - электронный бизнес

Samaradorligi va raqobatbardoshligi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan biznes.

Izoh - Elektron biznes sheriklar va buyurtmachilar bilan bo'ladigan butun o'zaro munosabatlar tizimini qamrab oladi va faqat tijoriy faoliyatga taalluqli bo'lgan elektron tijorat tushunchasini ichiga oladi.

Elektron boshqaruvchi qurilma

ing. - electronic control unit

rus. - электронное управляющее устройство

Tashqi qurilmalar ishini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma (mikrosxema).

Elektron bozor

ing. - electronic marketplace

rus. - электронный рынок

Yagona axborot-texnologik infratuzilmada o'zaro hamkorlikni amalga oshiradigan yetkazib beruvchilar va xaridorlar guruhi.

Elektron davlat xizmati

ing. - electronic public service

rus. - электронная государственная услуга
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Elektron davlat xizmati reglamenti

ing. - electronic public service regulation

rus. - регламент электронной

государственной услуги

Elektron davlat xizmati ko'rsatish tartibi va unga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjat.

Elektron davlat xizmatini

ko'rsatish natijasi

ing. - result of the provision of

electronic public services

rus. - результат оказания электронной

государственной услуги

Talabnoma beruvchilar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining amalga oshirilishi, shu jumladan, ularga tegishli axborot va hujjatlarning taqdim etilishi. Davlat organlari tomonidan elektron davlat xizmati ko'rsatish reglamentiga muvofiq tegishli ishlarni amalga oshirishda ifodalanadi.

Elektron davlat xizmatlarining

yagona reyestri

ing. - unified register of electronic

public services

rus. - единый реестр электронных

государственных услуг

Elektron davlat xizmatlarining to'liq ro'yxatini ichiga oladigan interaktiv davlat xizmatlarining yagona portalida e'lon qilinadigan, davlat xizmatlari, shakllari va blanklari yagona reyestri tarkibida shakllantiriladigan, Internet tarmog'idagi ochiq va hamma foydalana oladigan axborot resursi.

Elektron demokratiya

ing. - e-democracy

rus. - электронная демократия

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarishdan tortib xalqaro darajagacha bo'lgan barcha bosqichlarda jamoaviy fikrlash (kraudsorsing) va ma'muriy jarayonlar (xabardor qilish, birgalikda qarorlar qabul qilish – elektron ovoz berish, qarorlar bajarilishini nazorat qilish) uchun asosiy vosita sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan tavsiflanadigan demokratiya shakli.

Elektron disk

ing. - ram disk

rus. - электронный диск

Tezkor xotira qismidan dasturiy tarzda yaratilgan psevdodiskli to'plagich. Operation tizim u bilan real mavjud bo'lgan disk bilan ishlagandek ishlaydi. Ma'lumotlardan foydalanishni tezlatish maqsadida fizik mavjud diskdan ma'lumotlarni vaqtinchalik takrorlash uchun foydalaniladi, chunki tezkor xotira diskli xotiraga nisbatan birmuncha tez ishlaydi. Ko'pincha, virtual disk deb ataladi.

Elektron (elektr) sinov jadvali

ing. - electronic (electrical) testing table

rus. - электронная (электрическая)

испытательная таблица

Elektr vositalari yordamida olingan signal hosil qilgan televizion sinov jadvali.

Elektron e'lonlar taxtasi

ing. - bulletin board system (BBS)

rus. - электронная доска объявлений

Terminal kira olish interfeysi orqali elektron pochtdan foydalanish, kerakli fayllarni ko'chirib olish va alohida Internet-xizmatlaridan foydalanish tizimi. Uning asosini turli foydalanuvchilar joylashtirgan e'lonlar va ularni boshqa foydalanuvchilarga namoyish qilish maqsadida yuborilgan xabarlardan iborat maxsus ma'lumotlar bazasi tashkil qiladi.

Elektron hisoblash mashinasi

ing. - computer

rus. - электронная

вычислительная машина

Elektron asboblari bo'lgan hisoblash mashinasi.

Elektron hujjat

ing. - electronic document

rus. - электронный документ

1. Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa elektron hujjat rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

2. Hisoblash tizimi xotirasidagi odamning dasturiy va apparat vositalari yordamida ko'rishi hamda eshitishi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar to'plami. Matnli, grafik va ovozli axborotga ega bo'lishi mumkin.

Elektron hujjat aylanishi

ing. - electronic document circulation

rus. - электронный документооборот

Axborot tizimi orqali elektron hujjatlarni jo'natish va olish jarayonlarining majmui.

Elektron hujjat aylanishi ishtirokchisi

ing. - participants of electronic documents circulation

rus. - участник электронного документооборота

Elektron hujjatni jo'natuvchi va elektron hujjatni oluvchi.

Izoh – Elektron hujjat aylanishida axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin.

Elektron hujjat aylanishi tizimi

ing. - electronic document

management system

rus. - система электронного документооборота

1. Elektron hujjatlar bilan ishlash (yaratish, o'zgartirish, izlash), shuningdek, xodimlar o'rtasida o'zaro hamkorlik o'rnatish (hujjatlarni uzatish, topshiriqlar berish, xabarnomalar jo'natish va b.lar) imkonini beradigan kompyuter dasturi (dasturiy ta'minot tizim).

2. Elektron hujjatlar bilan ishlash (ya'ni, elektron hujjat aylanishi) ni tashkil qilish va avtomatlashtirishga imkon beradigan tizim (kompyuter dasturi, dasturiy ta'minot va b.lar).

Elektron hujjat aylanishi vositalari

ing. - means of electronic

documents circulation

rus. - средства электронного

документооборота

Elektron hujjat aylanishida qo'llaniladigan dasturiy, texnik va texnologik vositalar majmui.

Elektron hujjat egasi

ing. - electronic document owner

rus. - владелец электронного документа

Qonun hujjatlarida belgilangan huquqlar chegarasida elektron hujjatlarga egalik qilish, foydalanish va boshqarishni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron hujjat formati

ing. - e-document format

rus. - формат электронного документа

«Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonuni yoki tizim ishtirokchilarining kelishuvlari bilan o'rnatilgan elektron hujjatning majburiy standartlashtirilgan rekvizitlari.

Elektron hujjat haqiqiylikini tasdiqlash

ing. - verification of electronic document

rus. - подтверждение подлинности электронного документа

Elektron hujjat barcha rekvizitlari o'zgarishmasligini tekshirishning ijobiy natijasi.

Elektron hujjat rekvizitlari

ing. - electronic document attributes

rus. - реквизиты электронного документа

Elektron hujjatning haqiqiylikini tan olish uchun zarur bo'lgan majburiy ma'lumotlar (elektron raqamli imzo, yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjat jo'natuvchisi – jismoniy shaxsning familiyasi, ism-sharifi, elektron hujjat jo'natuvchisining pochta va elektron manzili, uning yaratilish sanasi).

Elektron hujjatlar qiymati ekspertizasi

ing. - e-document values expertise

rus. - экспертиза ценности электронных документов

Elektron hujjatlarning, ularni saqlash uchun saralash va ularni saqlash muddatlarini belgilash maqsadida, qiymatini aniqlash.

Elektron hujjatlar repozitoriyi

ing. - repository of electronic documents

rus. - репозиторий

электронных документов

Elektron hujjatlar qayta ishlanishini va

saqlanishligini ta'minlaydigan, shuningdek, Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatning haqiqiylikini tekshirish vositalarini taqdim etadigan axborot resursi.

Elektron hujjatlarni boshqarish tizimi

ing. - electronic document

management system (EDMS)

rus. - система управления

электронными документами

Elektron hujjatlar bilan ishlash jarayonini avtomatlashtirish tizimi. Hujjatlar arxivini va ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotni o'z ichiga oladi.

Elektron hujjatni identifikatsiyalash

ing. - electron document identification

rus. - идентификация

электронного документа

Elektron hujjatning rekvizitlari asosida uning tuzilmasini aniqlash.

Elektron hujjatni jo'natuvchisi

ing. - sender of the electronic document

rus. - отправитель

электронного документа

Elektron hujjat rekvizitlarida nomi ko'rsatilgan hamda elektron hujjat oluvchisiga elektron hujjatni jo'natayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron hujjatni qabul qilib oluvchi

ing. - receiver of electronic document

rus. - получатель электронного документа

Elektron hujjatning jo'natuvchisi tomonidan elektron hujjat manzillangan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Elektron hujjatni qayta tiklash

ing. - E-document reproduction

rus. - воспроизведение

электронного документа

Odamning bevosita idrok qilishi uchun qulay bo'lgan elektron hujjatni amalga oshirish.

Elektron hujjatni tuzuvchi

ing. - electronic document compiler

rus. - составитель электронного документа

Saqlash uchun kimdir tomonidan yoki kimningdir nomidan elektron hujjatni jo'natgan yoki tayyorlagan shaxs.

Elektron hujjatning asl nusxasi
ing. - original of e-document

rus. - оригинал электронного документа
Elektron hujjatning aynan bir xil nusxasi, basharti u belgilangan tartibda haqiqiy deb tasdiqlangan bo'lsa, asl nusxadir.

Elektron hujjatning nazorat xarakteristikasi

ing. - control characteristics of e-document
rus. - контрольная характеристика электронного документа

Xeshlash vositalari yordamida ishlab chiqilgan va elektron hujjatning yaxlitligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan xesh funksiyaning ahamiyati.

Izoh - Elektron hujjatning yaxlitligi, unga ruxsat etilmagan o'zgarishlar kiritilmaganligini va elektron hujjatni qayta ishlashda yoki uni aloqa kanallari bo'yicha uzatishda mashina tashuvchilaridagi shikastlanishlar va dasturiy-texnik vositalardagi nosozliklar natijasida buzilmaganligini ko'rsatadi.

Elektron hujjatning qog'ozdagi nusxasi
ing. - e-document copy on paper medium

rus. - копия электронного документа на бумажном носителе

Elektron hujjatning qog'ozdagi nusxasining tashqi shaklini ifodalashni qonunchilik tomonidan o'rnatilgan tartibda guvohnomalash yo'li bilan yaratiladi. Elektron hujjatning qog'ozdagi nusxasi qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda guvohnomalanadi va saqlanadi.

Elektron hukumat
ing. - e-Government

rus. - электронное правительство

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron o'zaro hamkorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Elektron hukumat infratuzilmasi

ing. - e-Government infrastructure

rus. - инфраструктура электронного правительства

Elektron shaklda funksiyalarni amalga oshi-

rish va xizmatlar ko'rsatishda davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar va yuridik shaxslarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan, joylashtirilgan davlat axborot tizimlari, dasturiy-apparat vositalari va aloqa tarmoqlarining majmui.

Elektron hukumat yagona identifikatorlari

ing. - common identifiers for e-government

rus. - единые идентификаторы электронного правительства

Har bir jismoniy va yuridik shaxsga, kadastr va ko'chmas mulk obyektlariga, geografik va boshqa obyektlarga beriladigan hamda ularni elektron hukumatda identifikatsiyalash imkonini beradigan noyob kodlar.

Elektron iqtisodiyot

ing. - electronic economy

rus. - электронная экономика

Raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyat.

Elektron ish yuritish

ing. - electronic office management

rus. - электронное делопроизводство

Elektron hujjatlashtirishni va elektron hujjatlar bilan ishlashni qamrab oladigan tashkil qilish faoliyati.

Elektron jadval

ing. - spreadsheet

rus. - электронная таблица

Har xil hisoblash vazifalari uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot. Foydalanuvchiga yacheykalarida matnli va sonli ma'lumotlar, shuningdek, formulalar saqlanadigan jadval ko'rinishida taqdim qilinadi. Qo'yilgan formulalar bo'yicha tezkor hisoblash mumkin, ma'lumotlar o'zgarganda avtomatik qayta hisoblash bajariladi. Elektron jadvallar - boshqarish tizimi bilan birgalikdagi spetsifik ma'lumotlar bazasidir. Dasturchi bo'lmagan foydalanuvchi uchun mo'ljallangan.

Elektron jurnal

ing. - log

rus. - электронный журнал

Kompyuter dasturi yaratadigan, qandaydir

voqea yoki operatsiya to'g'risidagi axborotni maxsus faylga yozish.

Elektron kalit

ing. - electronic switch

rus. - электронный ключ

Dasturiy mahsulotlarni noqonuniy ko'paytirish va foydalanishdan muhofaza qilish qurilmasi. Elektron kalit – bu qandaydir parol yozilgan xotirali mikrosxemadan iborat, kichik o'lchamdagi blokdir. Blok kompyuterining parallel portiga ulanadi, printer yoki boshqa qurilmanni ulashga xalaqit bermaydi. Himoyalangan dastur ishga tushirilganda elektron kalitda yozilgan parol tekshiriladi.

Elektron karmon

ing. - e-purse, e-wallet

rus. - электронный кошелек

Elektron pullarni saqlash va turli to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradigan, ichiga chip o'rnatilgan smart-karta yoki boshqa elektron tashuvchi.

Izoh – Umuman olganda elektron karmon tushunchasi yaqindan ommalashib bormoqda.

Elektron kitob

ing. - e-book (electronic book)

rus. - электронная книга

Raqamli ko'rinishdagi, stol, cho'ntak kompyuterlaridagi, noutbuklardagi, shuningdek, bu maqsad uchun maxsus mo'ljallangan kompyuterlardagi maxsus dasturiy ta'minot (masalan, Microsoft Reader) yordamida o'qish uchun mo'ljallangan kitob. Kitob tegishli tugmalarni bosish orqali varaqlanadi. Matni kompyuterning yoritiladigan displeyida batareya yoki akkumulyatorning ishlash muddati mobaynida o'qish mumkin.

Elektron kommunikatsiya

ing. - electronic communication

rus. - электронная коммуникация

Qatnashchilarning elektron aloqa kanallari bilan bevosita ifodalangan o'zaro aloqasi.

Elektron litsenziyalash portali

ing. - e-licensing portal

rus. - портал электронного лицензирования

Litsenziyalash va ruxsat beradigan pro-tseduralar sohasida interaktiv xizmatlarni

taqdim etishning «Litsenziya» axborot tizimlari kompleksi. Bu kompleks elektron ko'rinishda litsenziyalar va ruxsatnomalar rasmiylashtirilishini avtomatlashtirishdan foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Elektron marka

ing. - electronic stamp

rus. - электронная марка

Oddiy va buyurtma xatlar, pochta varaqchalari va banderollarga tushirish uchun mo'ljallangan, qo'shimcha axborot kiritilgan, pochta aloqasi xizmatlariga to'lovni tasdiqlovchi shtrixli pochta identifikatori ko'rinishidagi pochta markasi.

Elektron maydon

ing. - e-trading platform

rus. - электронная площадка

Internet tarmog'ida joylashtirilgan umumiy foydalanishdagi axborot tizimi. Jumladan, axborot tizimi deganda, ma'lumotlar bazalarida bo'lgan axborot va uning qayta ishlanishini ta'minlaydigan axborot texnologiyalari hamda texnik vositalar majmui tushuniladi.

Elektron maydon:

- saytning Internet tarmog'idagi domen nomi;
- ma'lumotlar bazasi;
- dasturiy-apparat kompleksi;
- aloqa kanali;
- texnik ta'minot xizmati kabi beshta elementdan iborat.

Elektron ma'lumotlar

ing. - electronic data

rus. - электронные данные

1. Elektron vositalar yordamida shakllantiriladigan, qayta ishlanadigan, saqlanadigan, jo'natiladigan va olinadigan ma'lumotlar.

2. Elektron, optik yoki shunga o'xshash vositalar yordamida tayyorlangan, jo'natilgan, olingan yoki saqlanadigan axborot, shu jumladan ma'lumotlar bilan elektron almashish, elektron pochta, telegraf, teleks yoki telefaks va b.lar.

Elektron ma'lumotlar almashinuvi

ing. - electronic data interchange

rus. - электронный обмен данными

Axborotni bir kompyuterdan boshqasiga, kelishilgan axborotni tizimlashtirish standartidan foydalanib, elektron uzatish.

Elektron ma'lumotlarni jo'natuvchi

ing. - sender of electronic data

rus. - отправитель электронных данных

Nomiga yoki nomidan elektron ma'lumotlar yuboriladigan yuridik yoki jismoniy shaxs, bu ma'lumotlarga nisbatan axborot vositachilari sifatida ish ko'radigan shaxslardan tashqari.

Elektron ma'lumotlarni oluvchi

ing. - receiver of electronic data

rus. - получатель электронных данных

Jo'natuvchi tomonidan yoki jo'natuvchi nomidan, elektron ma'lumotlar jo'natiladigan yuridik yoki jismoniy shaxs, bu ma'lumotlarga nisbatan axborot vositachisi sifatida ish ko'radigan shaxslardan tashqari.

Elektron muhofaza qilish qurilmasi

ing. - dongle

rus. - электронное устройство защиты

Kompyuter tarkibidagi qulf, javob bergich va sh.k. funksiyalarni bajaruvchi va dasturni hamda ma'lumotlarni ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan elektron qurilma.

Elektron naqd pullar

ing. - electronic money (cash)

rus. - электронные наличные

Hisob-kitoblar uchun, shu jumladan Internet tarmog'idan foydalanib amalga oshiriladigan hisob-qitoblar uchun foydalaniladigan, bank yoki boshqa tuzilma tomonidan elektron (raqamli) sertifikatlar shaklida emissiya qilingan, ko'rsatuvchiga bo'lgan pul majburiyatlarini.

Izoh - Elektron naqd pullarning bank kafolatlari, majburiyatni uning emitentiga taqdim etish paytida oddiy pul mablag'lari bilan taminlashdan iborat.

Elektron nashr

ing. - electronic zine

rus. - электронное издание

Internet yoki boshqa onlayn xizmatlar orqali foydalanish mumkin bo'lgan nashr.

Elektron-nurli trubka

ing. - cathode ray tube (CRT)

rus. - электронно-лучевая трубка

Tasvirlarni qayta tiklash qurilmasi, unda elektr signal ekranning ichki tomonidagi

lyuminaforlarning yorug'lanishiga sababchi bo'ladigan elektron nurga aylantiradi. CRT qisqartmasini, shuningdek, Cathode Ray Terminal kabi ham o'qish mumkin, bu trubkani o'ziga emas, balki unga asoslangan qurilmaga mos keladi.

Elektron-nurli trubka asosidagi displey

ing. - cathode-ray tube display

rus. - дисплей на электронно-лучевой трубке

Ekranida tasvir elektron-nurli trubka yordamida yaratiladigan displey. Ishlash uchun, displeydan tashqari tegishli adapter yoki karta zarur bo'ladi. Rangli tasvirni yaratish uchun va grafikadan foydalanish mumkin bo'lishi uchun grafik adapter zarur. Elektron-nurli trubka asosidagi displeyda tasvir fluoressensiyalanadigan ekranni elektron nur bilan bombardimon qilish orqali yaratiladi. Nur ekran bo'ylab chapdan o'ngga, yuqoridan pastga harakatlanadi, bitta o'tish ichida barcha gorizontol satrlar shakllantiriladi. Displeyning satr chastotasi - displey l s ichida shakllantiradigan satrlar soni; kadrlarning yangilanish chastotasi (kadr chastotasi) muhim ko'rsatgichlar hisoblanadi. Raqamli boshqariladigan displeylar keng tarqalgan. Yaqin vaqtda displeyli panellarga ommaviy o'tish kutilmoqda.

Elektron-optik o'zgartirgich

ing. - electronic-optical converter

rus. - электронно-оптический преобразователь

Tasviring spektral tarkibini o'zgartirish va/yoki tasvir yorqinligini kuchaytirish uchun mo'ljallangan fotoelektron elektrovakuum asbob.

Elektron ovoz berish

ing. - e-voting

rus. - электронное голосование

Ovoz berishning har xil turlarini belgilaydigan, ham elektron ovoz berish vositalarini (elektron demokratiya), ham ovozlarni sanab chiqishning texnik elektron vositalarini qamrab oladigan atama. Internet-saylovlar elektron ovoz berishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Elektron ovoz berish texnologiyalari perfokartalarni, optik skanlash tizimlarini va ovoz berish uchun mo'ljallangan ixtisos-

Jashtirilgan terminallarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu texnologiyalar, shuningdek, saylov byulletenlari va ovozlari telefon, xususiy kompyuter tarmoqlari yoki Internet orqali uzatilishini ham o'z ichiga olishi mumkin. Elektron ovoz berish texnologiyasi ovozlarni sanab chiqish jarayonini tezlashtirish, shuningdek, imkoniyati cheklangan odamlarning ovoz berishini osonlashtirish imkonini beradi.

Elektron papka

ing. - electronic folder

rus. - электронная папка

Elektron hujjatlarning o'zaro bog'langan to'plami.

Elektron pochta

ing. - electronic mail

rus. - электронная почта

1. Bir elektron pochta qutisidan boshqa bir elektron pochta qutisiga xabarlar jo'natish yoki olish imkonini beradigan dasturiy-texnik vositalar kompleksi.

2. Internet tarmog'ining istalgan abonentini bilan elektron pochta xabarlarini almashinish.

3. Tarmoqlar orqali xabarlarining foydalanuvchidan foydalanuvchiga yuborilishini, shuningdek, bu xabarni o'qish va saqlash imkonini beradigan servis dasturlar tizimi.

Elektron pochta hisobga olish yozuvi

ing. - E-mail account

rus. - учётная запись электронной почты

Foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yozuv, bunda foydalanuvchi o'zi haqida elektron pochta tizimiga xabar beradi.

Elektron pochta Internet-xizmatlari

ing. - electronic mail Internet services

rus. - Интернет-услуги электронной почты

Xizmatlar iste'molchisiga manzili berish va bu manzilga ma'lumotlar qabul qilish, shuningdek, xizmatlar iste'molchisiga yuborilgan yoki uning nomiga kelgan ma'lumotlarni saqlash va jo'natish bo'yicha harakat yoki faoliyat.

Elektron pochta manzili

ing. - e-mail address

rus. - адрес электронной почты

Elektron pochta xabari yetkazib berilishi

kerak bo'lgan pochta qutisini identifikatsiya qiladigan yozuv. User@domain (masalan, chief@pcweek.ru) formatiga ega. Ko'pchilik Internet provayderlari elektron pochta manzili sifatida hisobga olish yozuvini taklif qiladilar.

Elektron pochta qutisi

ing. - electronic mail box

rus. - электронный почтовый ящик

Internet tarmog'i orqali xabarlarini olish yoki jo'natish uchun noyob raqamdan (elektron pochta manzilidan) foydalaniladigan dasturiy-texnik vositalar kompleksi.

Elektron pochta serveri

ing. - mail server

rus. - сервер электронной почты

Ayrim lokal tarmoq kompyuterlari uchun elektron pochtni jo'natish, qabul qilib olish va «taqsimlash»ni bajaradigan kompyuter va dasturiy ta'minot.

Elektron pochta xizmati

ing. - mail service

rus. - служба электронной почты

Elektron pochta serveri tomonidan ko'rsatiladigan xizmat, ya'ni mijoz o'z serverini joriy xizmatga moslaganda u elektron xatlarini shu server orqali uzatish va qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

«Elektron pochta» xizmatlari

ing. - email service

rus. - услуги «Электронной почты»

Istalgan foydalanuvchiga matn yoki matn ko'rinishiga o'zgartirilgan ixtiyoriy faylni jo'natish imkonini beradigan xizmatlar.

Elektron pullar

ing. - electronic money

rus. - электронные деньги

1. Kompyuterda yoki intellektual kartada maxsus yozuvlar ko'rinishida mavjud bo'lgan, aniq bir axborot texnologiyasi doirasida kontragentlarning o'zaro hisob-kitoblari va xaridlar uchun foydalaniladigan pullar.

2. Emitentga bo'lgan talabni o'zida ifodalaydigan, elektron qurilmada saqlanadigan, chiqariladigan pul qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda mablag' olingandan so'ng

emissiya qilinadigan va boshqa korxonalar tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan pul qiymati.

Izoh - yandexmoney, webmoney, qiwi karmon an'anaviy elektron pullarga kiradi.

Elektron pullar sohasidagi muassasa

ing. - electronic money (cash) institution

rus. - учреждение в сфере

электронных денег

Elektron pullar shaklida to'lov vositalari chiqaradigan (kredit muassasasiga qaraganda boshqacha) korxonalar yoki har qanday yuridik shaxs.

Elektron raqamli imzo

ing. - electronic digital signature

rus. - электронная цифровая подпись

Elektron raqamli imzo yopiq kalitidan foydalanish holda elektron hujjatdagi axborotni maxsus almashtirish natijasida ushbu elektron hujjatda hosil qilingan va elektron raqamli imzo ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborot buzib ko'rsatilmaganligini aniqlash hamda elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo.

Elektron raqamli imzo

haqiqiylikni tasdiqlash

ing. - confirm of electronic digital signature

rus. - подтверждение подлинности

электронно-цифровой подписи

1. Elektron raqamli imzo elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishligini va elektron hujjatda axborotni buzib ko'rsatishlar yo'qligini tekshirishning ijobiy natijasi.
2. Elektron raqamli imzoni tekshirish ma'lumotlarini muayyan shaxs bilan bog'laydigan va bu shaxsning aynan o'xshashligini tasdiqlaydigan elektron guvohnoma.

Elektron raqamli imzo

haqiqiylikni tekshirish

ing. - authentication of electronic digital signature

rus. - проверка подлинности

электронно-цифровой подписи

Reglamentlangan harakatlar ketma-ketligi, uning natijasida elektron raqamli imzo bilan imzolangan elektron hujjati va ro'yxatga olish guvohnomasi egasining ochiq

kalitini olgan shaxs, elektron raqamli imzo haqiqiylikni tasdiqlaydi yoki uni rad etadi.

Elektron raqamli imzo

kalitining sertifikatini

ing. - certificate key of electronic digital signature

rus. - сертификат ключа электронно-цифровой подписи

1. Ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan va tasdiqlangan, elektron raqamli imzo ochiq kaliti muayyan yuridik yoki jismoniy shaxsiga tegishligini tasdiqlaydigan hujjat. Izoh - Sertifikat elektron raqamli imzo ochiq kalitidan foydalanish xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni ichiga olishi mumkin. Sertifikat elektron hujjat shaklida berilganda, ushbu Markazning elektron raqamli imzosi bilan imzolandi.
2. Ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan va tasdiqlangan, elektron raqamli imzo ochiq kaliti imzo kaliti sertifikatining egasiga tegishligini tasdiqlaydigan hujjat.

Elektron raqamli imzo kalitlarini

qayd etish markazi

ing. - center of EDS keys registration

rus. - центр регистрации ключей

электронной цифровой подписи

Maxsus vakolatli organning davlat ro'yxatidan o'tgan va elektron raqamli imzo kalitlarining sertifikatlarini berish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Elektron raqamli imzo vositalari

ing. - means of the electronic digital signature

rus. - средства электронно-цифровой подписи

1. Elektron hujjatda elektron raqamli imzo yaratilishini, elektron raqamli imzo haqiqiylikni tasdiqlanishini, elektron raqamli imzo ochiq va yopiq kaliti yaratilishini ta'minlaydigan texnik va dasturiy vositalarning majmui.
2. Kalitlarni tayyorlash, elektron raqamli imzoni ishlab chiqish va/yoki tekshirish funksiyalarini amalga oshiradigan dasturiy va texnik vositalar majmui.

Elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasi

ing. - owner of private key of the electronic digital signature

rus. - владелец закрытого ключа электронной цифровой подписи

Elektron raqamli imzoni yaratadigan (elektron hujjatni imzolaydigan) va nomiga ro'yxatga olish markazi tomonidan elektron raqamli imzo sertifikatini berilgan jismoniy shaxs.

Elektron savdo

ing. - electronic trade

rus. - электронная торговля

1. Internetda elektron hujjat aylanishi orqali amalga oshiriladigan savdo.

2. Elektron aloqa vositalaridan, birinchi navbatda, Internet tarmog'idan foydalangan holda tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish va sotish, foydalanish va elektron kontent huquqlarini o'z ichiga olgan iqtisodiyot segmenti.

Elektron servis

ing. - electronic service

rus. - электронный сервис

Elektron servis iste'molchisiga idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimi orqali taqdim etiladigan, reglamentlangan xizmat ko'rsatish turi. Elektron servisning asosiy turlari:

- idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimiga ulangan axborot tizimidan so'ralgan axborotni olish;

- idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimiga ulangan axborot tizimiga axborot uzatish;

- idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimining ishlashi bo'yicha axborot-tahliliy hisobotlarni olish.

Elektron servislar reyestri

ing. - register of electronic services

rus. - реестр электронных сервисов

Idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimining, elektron servislar tavsiflari saqlanishini, shuningdek, kerakli servislarini topish uchun bu tavsiflardan foydalanishni ta'minlaydigan kichik tizimi.

Elektron so'rov

ing. - electronic inquiry

rus. - электронный опрос

Butunjahon Internet axborot tarmog'ida va umumaviy ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan, yuridik va jismoniy shaxslar so'rovi.

Elektron tender maydoni

ing. - electronic tendering

rus. - электронная тендерная площадка

Foydalanuvchilarga elektron tijoriy faoliyatni amalga oshirish uchun virtual axborot makonini taqdim etadigan ixtisoslashtirilgan Internet-resurs. Amalda birja rolini bajargan, o'lisdagi qatnashchilar o'rtasida onlayn rejimida kelishuvlarni olib borishga imkon yaratgan holda, elektron auksion formatida tashkil qilinishi mumkin.

Elektron tijorat

ing. - electronic commerce, e-commerce

rus. - электронная коммерция

Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati.

Elektron tijorat isbtirokchisi

ing. - participants of electronic commerce

rus. - участник электронной коммерции

Elektron tijoratni amalga oshiradigan jismoniy va yuridik shaxs, shuningdek, tegishli tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridorlari hisoblanadigan yuridik va jismoniy shaxslar.

Elektron tijoratni yuritish bo'yicha xizmatlar sifatining kafolati

ing. - electronic business assurance

rus. - гарантия качества услуг по ведению электронного бизнеса

Xizmatlardan foydalana olishlik, korporativ ma'lumotlarning muhofaza qilinishi, biznes-jarayonlarni ta'minlashning yuqori sifati va biznesni yuritish ochiqligini ta'minlashning yuridik amaliyotiga rioya qilinishining kafolati.

Elektron to'lov

ing. - electronic payment

rus. - электронный платёж

Qonunchilikka va o'rnatilgan protseduralarga muvofiq, elektron to'lov hujjati yordamida o'tkaziladigan to'lov.

Elektron to'lov hujjati

ing. - electronic payment document

rus. - электронный платёжный документ

Belgilangan shaklda birlamchi pul-hisob-kitob hujjati asosida yaratilgan, tashabbuskor bank va bank mijozining «Elektron» belgisi bo'lgan noyob elektron raqamli imzo bilan himoyalangan to'lov hujjati, uning aniqlik

nusxasi hisoblanadi va elektron raqamli imzoni hamda rasmiylashtirishning to'g'riligini tekshirish ijobiy natija bergan sharoitda, asl nusxaning yuridik kuchiga ega bo'ladi.

Elektron to'lov hujjatini qayta ishlash

ing. - processing of the electronic payment document

rus. - обработка электронного платежного документа

Elektron to'lov hujjati operatsiyalari – to'plash, kiritish, yozish, o'zgartirish, solishtirib tekshirish, saqlash, yo'q qilish, qayd etishlarning butun jami.

Elektron to'lov tizimi

ing. - electronic payment system

rus. - электронная платежная система

Texnik vositalardan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlarining xizmatlaridan foydalanib, elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Elektron to'lovlar

ing. - electronic payments

rus. - электронные платежи

Internet orqali turli xizmatlar uchun va tovarlar oldi-sotdisi paytida Internet foydalanuvchilar va moliya tashkilotlari, biznes tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblar tizimi.

Elektron to'lovlar tizimi

ing. - system of electronic payments

rus. - система электронных платежей

Banklararo hisob-kitoblar elektron to'lov hujjati asosida amalga oshiriladigan to'lov tizimi.

Elektron to'lovlar tizimi ishtirokchisi

ing. - participant of system of electronic payments

rus. - участник системы электронных платежей

Elektron to'lovlarni o'tkazish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadigan yoki foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Elektron to'p

ing. - electronic gun

rus. - электронная пушка

Talab qilinadigan shakl va jadallikdagi yo'nal-

tilirilgan elektronlar oqimini vujudga keltirish uchun mo'ljallangan qurilma. Elektron to'pdan elektron-optik o'zgartirgichlarda, gazli lazerlarda, elektron mikroskoplarda va hokazolarda foydalaniladi.

Elektron vositalar

ing. - electronic means

rus. - электронные средства

Elektron ma'lumotlarni shakllantirish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va qabul qilishda foydalaniladigan texnik vositalar.

Elektron xabar

ing. - e-mail (electronic) message

rus. - электронное сообщение

Elektron hisoblash texnikasi, axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatishning boshqa elektron vositalari elementlari holatlarining to'plami shaklida berilgan, inson tomonidan bir xil idrok qilishga yaroqli shaklga o'zgartirilishi mumkin bo'lgan axborot.

Elektron xaridlar

ing. - electronic procurement

rus. - электронные закупки

Samaradorligi Internet tarmog'idan va korporativ intratarmoqlardan foydalangan holda ta'minlanadigan xaridlar jarayonini avtomatlashtirish va integratsiyalash.

Elektron o'qitish

ing. - electronic learning

rus. - электронное обучение

Ham o'qitishni ham malaka oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'langan o'quv jarayoni uchun umumiy ifoda hisoblanadigan o'qitish. Elektron o'qitish, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida, ba'zida an'anaviy ta'lim kanallariga qo'shimcha sifatida beriladigan bilimlarning keng spektrini qamrab oladigan veb-o'qitish deb ham ataladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish, an'anaviy ta'lim va o'qitishdan foydalana olmaydigan shaxslar uchun ayniqsa samarali.

Elektronika sanoati sohalarining alyansi

ing. - electronics industries alliance (EIA)

rus. - альянс отраслей

электронной промышленности

AQSh hududida joylashgan, elektr va funktsional standartlarni ishlab chiquvchi tashkilot.

Elektrostatik xalaqit

ing. - electrostatic disturbance

rus. - электростатическая помеха

Elektrlash bilan shartlangan va to'plangan elektr zaryadlari impuls toklari oqib kelishi va/yoki elektrostatik zaryadlar natijasida hosil bo'luvchi tabiiy xalaqit.

Element maydoni

ing. - elemental area

rus. - площадь элемента

Qar.: Tasvir elementi.

Elementar oqim

ing. - elementary stream

rus. - элементарный поток

MPEG kodlashda bitta dasturga taalluqli bit-ta turdagi ma'lumotlar oqimi (video oqim, audio oqim, ma'lumotlar oqimi yoki boshqa axborot).

Elliptik egri chiziq asosidagi kriptografiya

ing. - elliptic-curve cryptography

rus. - криптография на эллиптических кривых

Asimmetrik shifrlash va elektron raqamli imzoning tez rivojlanib borayotgan yo'nalishi. Bunda barcha hisoblashlar (masalan, kalitning qiymatini tanlash) elliptik egri chiziq nuqtalari ustida amalga oshiriladi, ya'ni, masalan, ikkita sonni oddiy qo'shish o'miga, ma'lum qoidalarga ko'ra egri chiziqning ikki nuqtasini qo'shish bajariladi, bunda natija sifatida uchinchi nuqta olinadi.

Elliptik egri chizikli kriptotizim

ing. - elliptic curve cryptosystem

rus. - криптосистема эллиптической кривой

Elliptik egri chiziq xossalari asoslangan asimmetrik kriptotizim.

Izoh - Masalan, guruh tuzilmasi elliptik egri chiziq nuqtalari bilan berilishi mumkin va shunday guruh uchun diskret logarifm muammosini ifodalashi mumkin. Bu muammo qat'iy hisoblanadi va shuning uchun kriptotizimni yaratishda foydalanilishi mumkin.

Elliptik qutblangan to'liqin

ing. - elliptically polarized wave

rus. - эллиптически поляризованная волна

Elektr maydon kuchlanganlik vektorining uchi ellips chizadigan tarzda qutblangan elektromagnit to'liqin.

Elliptiklik koeffitsiyenti

ing. - axial ratio, ellipticity

rus. - коэффициент эллиптичности

Elektr va magnit maydon vektorlarining darajasi va fazaviy siljishiga bog'liq parametrlar.

Eltuvchi

ing. - carrier

rus. - несущая

Modulyatsiyalovchi signal bilan modulyatsiyalashga yaroqli bo'lgan tebranish. Axborot uzatishda uni tashuvchi o'rinda xizmat qiladigan garmonik elektromagnit tebranishlar chastotasi. Axborot uzatish eltuvchi chastotaning shu tebranishlarini uzatilayotgan xabarga mos signallar bilan modulyatsiyalash vositasida amalga oshiriladi.

Eltuvchi chastota

ing. - carrier frequency

rus. - несущая частота

Axborot uzatish maqsadida signallar bilan modulyatsiyalanadigan garmonik tebranishlar chastotasi. Modulyatsiyalangan signallar garmonik hisoblanmaydi, ularning spektri, eltuvchi chastotadan tashqari yon chastotalarga ega. Faqat yon chastotalar tebranishlari uzatiladigan signallarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun eltuvchi chastotasiz yoki bir polosali uzatish ham mumkin, bunda maxsus sxemalar yordamida modulyatsiyalangan tebranishlar spektridan eltuvchi chastota tebranishlari bartaraf qilinadi.

Eltuvchi chastota nazorat qilingan va konfliktlarning oldi olingan holda, ko'plab foydalana olish

ing. - multiple access with control carrier frequency and conflict prevention

rus. - доступ множественный с контролем несущей частоты и предотвращением конфликтов

Vaqt bo'yicha kvantlashdan foydalaniladigan protokollar turkumiga muvofiq, foydalana olish, bunda har bir stansiya axborotni faqat uning uchun qat'iy belgilangan vaqtda uzatishi va muhitdan foydalanish huquqini olishga

so'rovni yuborishi mumkin; har bir stansiya boshqaruvchi stansiyaga manzillanadigan uzatishga maxsus so'rovni shakllantiradi.

Eltuvchi chastotalarning siljishi

ing. - frequency offset (in television)

rus. - смещение несущих частот

Ikkita televizion radiouzatgichga xalaqitlarni ko'rish yoki eshityshni kamaytirish uchun atayin kiritilgan tasvir eltuvchi chastotalar yoki tovush jo'rligidagi eltuvchilarning uncha katta bo'lmagan farqi.

Eltuvchidagi bir kanal

ing. - one channel on carrier

rus. - один канал на несущей

Ko'p kanalli xabarni alohida kanallarning signallari alohida eltuvchilarda uzatilgandagi uzatish usuli.

Eltuvchidagi bir nechta kanal

ing. - several channels on carrier

rus. - несколько каналов на несущей

Ko'p kanalli xabar uzatish usuli, bunda alohida kanallar signallari bitta eltuvchida ajratish usuli bilan uzatiladi.

Eltuvchidagi nominal chiqish quvvati (tovush uzatgich)

ing. - carrier-power output rating

(aural transmitter)

rus. - номинальная выходная мощность на несущей (звуковой передатчик)

Uzatgichning chiqish qisqichlaridagi quvvat, bunda uzatgichga normal yuklama yoki uning ekvivalent zanjiri ulangan.

Eltuvchidagi oqning etalon darajasi

ing. - reference level of white on carrier

rus. - эталонный уровень

белого на несущей

Eltuvchining, oqning etalon darajasiga mos keladigan amplitudasi.

Eltuvchiga nisbatan

hisoblanadigan detsibellar (dBc)

ing. - decibels, marked off

relatively to the carrier (dBc)

rus. - децибелы, отсчитываемые

относительно несущей (dBc)

Yon uyarqolar bo'ylab nurlanadigan, eltuvchi chastotaga nisbatan hisoblanadigan signal quvvatining o'lchov birligi.

Eltuvchini nazorat qilish bilan

ko'plab foydalana olish

ing. - carrier sense multiple access (CSMA)

rus. - множественный доступ с

контролем несущей

Lokal kompyuter tarmog'i umumiy uzatish muhitidan ko'plab foydalana olish texnologiyasi.

Eltuvchini nazorat qilish va nizolarning

oldini olish bilan ko'plab foydalana olish

ing. - carrier sense multiple access with

collision avoidance (CSMA/CA)

rus. - множественный доступ с контролем несущей и предотвращением конфликтов

Uzatish muhitidan foydalana olish uchun stansiyalar raqobatiga asoslangan tarmoqlardagi foydalana olish usuli.

Eltuvchining qoldig'i

ing. - remainder of carrier

rus. - остаток несущей

Tasvir radiosignalining, bu signalning maksimal darajasiga nisbatan, foizlarda ifodalanган minimal darajasi.

Eltuvchisi bostirilgan

amplituda-fazaviy modulyatsiya

ing. - carrierless amplitude/ phase

modulation (CAP)

rus. - амплитудно-фазовая

модуляция с подавленной несущей

Ko'p pozitsiyali kvadratura modulyatsiyalashning spektral samarali usuli. Bunda eltuvchi chastota N ta holatga ega kodli fazo hosil qilgan holda, faza va amplituda bo'yicha modulyatsiyalanadi. Odatda, N ning qiymati 16 (SAR16), 64 (SAR64) yoki 128 ga (SAR128) teng. Eltuvchi chastota liniyaga uzatilmaydi, signaldan «kcsib olinadi», so'ngra qabul qilgichda tiklanadi. SAR64 modulyatsiya ADSL va HDSL (1,168 Mbit/s) abonent kirish liniyalarida, SAR128 esa, SDSL (2,32 Mbit/s) da qo'llaniladi.

Emitent

ing. - emitter

rus. - эмитент

Plastik kartalar chiqaradigan va chiqarilgan kartalardan to'lov vositasi sifatida foydalanilishi bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlar bajarilishini kafolatlaydigan moliya tashkiloti.

Emulyator

ing. - emulator

rus. - эмулятор

Emulyatsiya amalga oshiriladigan dastur, apparat-dasturiy tizim yoki mikrodastur. Emulyator yordamida kompyuter boshqa mashina, qurilma yoki operatsion tizim uchun yozilgan dasturlarni bajarishi mumkin. Ular ichki sxemali, shinali va dasturiy emulyatorlarga bo'linadi. Odatda, biror-bir tashqi qurilma tomonidan amalga oshiriladigan funksiyani bajaradigan dastur.

Emulyatsiya

ing. - emulation

rus. - эмуляция

Apparat yoki dasturiy vositalar yoki ularning birikmasi bilan boshqa qurilmalar yoki dasturlar ishini qayta takrorlash.

Emulyatsiya rejimi

ing. - compatibility mode

rus. - режим эмуляции

Protseornorming ishlash rejimi bo'lib, bunda protsessor boshqa modeldagi elektron hisoblash mashinasi komandalarini bajaradi. Emulyatsiya rejimidagi arxitektura yangi elektron hisoblash mashinasining eski model-lar bilan qisman moslashuvini ta'minlaydi.

Energiyaga bog'liq xotira

ing. - volatile memory

rus. - энергозависимая память

Faqat kompyuter yoqilgandagina ma'lumotlarni (dasturlarni, o'zgaruvchilarni) saqlash uchun mo'ljallangan xotira qurilmasi. Kompyuter o'chirilishi bilan (elektr energiya kelmaydi), xotira ichidagi yo'qoladi, uni tiklash mumkin bo'lmaydi. Tezkor xotira qurilmasi bunday xotiraga misol bo'ladi.

Energiyaga bog'liq bo'lmagan xotira

ing. - nonvolatile memory

rus. - энергонезависимая память

Elektr ta'minoti mavjudligiga bog'liq bo'lmagan magnit, optik yoki har qanday boshqa yozuv prinsiplariga asoslangan, ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan xotira qurilmasi. Masalan, elektron disklardan tashqari, har qanday diskl xotira.

Eng kam imtiyozlar

ing. - minimum of privilege

rus. - минимум привилегий

Muhofaza tizimini tashkillashtirishning asosiy tamoyillaridan biri. Unga ko'ra, har bir subyekt o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun mumkin bo'lgan eng kam imtiyozlarga ega bo'lishi lozim. Ushbu tamoyilga rioya qilish yovuz niyat, xato yoki imtiyozlardan ruxsatsiz foydalanish natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan buzishlarning oldini olish imkonini beradi.

Eng kam munosib usuli

ing. - least fit

rus. - метод наименее подходящего

Xotirani taqsimlashning umumiy vazifasini hal qilish usuli, bunda ro'yxat bo'yicha n ga nisbatan kam bo'lmagan maksimal o'lchamdagi bo'sh joy tanlanadi.

Eng katta yuklama soati

ing. - busy hour (BH)

rus. - час наибольшей нагрузки

60 minutdan iborat uzluksiz vaqt intervali. Uning mobaynida telefon yuklamaning o'rtaacha intensivligi maksimal bo'ladi.

Eng munosib usuli

ing. - best-match-first

rus. - метод наиболее подходящего

Xotirani taqsimlashning umumiy vazifasini hal qilish usuli, bunda ro'yxat bo'yicha n ga nisbatan kam bo'lmagan minimal o'lchamdagi bo'sh joy tanlanadi.

Entropiya

ing. - entropy

rus. - энтропия

1. Xabarlarini uzatish paytida paydo bo'ladigan u yoki bu simvollarining paydo bo'lish ehtimolliklari bilan belgilanadigan xabar manbaining noaniqlik darajasi.

2. Axborot nazariyasida – obyekt holatining yoki qandaydir vaziyatning (tasodifiy kattalikning) noaniqlik o'lchovi. Entropiya tushunchasi K.Shannon tomonidan kiritilgan va undan xabardagi axborotning miqdorini aniqlash uchun foydalaniladi.

Entropiyaviy kodlash, statistik kodlash

ing. - entropy coding, statistical coding

rus. - энтропийное кодирование,

статистическое кодирование

Raqamli televizion videosignalni, uning statistik xossaligidan foydalanib, yo'qotish-larsiz siqish bilan raqamli kodlash usuli.

Erkin fazoda uzatishdagi asosiy yo'qotishlar

ing. - basic transmission loss in free space

rus. - основные потери передачи в свободном пространстве

Antennalar ideal dielektrik, bir jinsli, izotrop va antennalar o'rtasidagi masofani saqlagan holda cheklanmagan muhitda o'zgartirilgan, uzatishdagi yo'qotishlar.

Izoh - Agar antennalar o'rtasidagi d masofa λ to'qin uzunligidan katta bo'lsa, detsebellarda ifodalangan erkin fazodagi so'nish quyidagicha aniqlanadi:

$$L_{\text{sf}} = 20 \lg \left(\frac{4\pi d}{\lambda} \right) \text{ dB.}$$

Erkin foydalanish konsepsiyasi

ing. - access concept

rus. - концепция доступа

Abstrakt elektron hisoblash mashinasida amalga oshiriladigan, erkin foydalanishni boshqarish modeli, u subyektlarning axborot resurslariga qiladigan barcha murojaatlarida vositachilik qiladi. Quyidagi erkin foydalanish konsepsiyalari mavjud: diskretsiyon boshqarish, mandatli boshqarish, ko'p darajali muhofaza.

Erkin foydalanish subyekti

ing. - access subject

rus. - субъект доступа

1. Harakatlari foydalanishni chegaralash qoidalari bilan qat'iy tartibga solinadigan shaxs yoki jarayon.

2. Shtat texnik vositalar yordamida, axborot resursidan erkin foydalanishni amalga oshiruvchi shaxs yoki jarayon.

Erkin foydalanish toifasi

ing. - access category

rus. - категория доступа

Mantiqiy obyektlarga beriladigan kategoriya, uning asosida obyektlar resurslardan foydalanish uchun ruxsat oladilar.

Erkin foydalanishni boshqarish ro'yxati

ing. - access control list (ACL)

rus. - список контроля доступа

Oldindan belgilangan obyektдан erkin foydalanish huquqini beradigan himoya deskrip-

torining bir qismi. Erkin foydalanishni boshqarish ro'yxati foydalanishni nazorat qilish elementlaridan iborat. Foydalanuvchilarning nomini, ularning parollarini va ularga berilgan imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Erkin foydalanishni boshqarish toifasi

ing. - access control category

rus. - категория управления доступом

Ruxsat etilmagan operatsiyalardan saqlovchi qoidalarni aniqlash uchun mo'ljallangan til elementlari.

Erkin foydalanishni boshqarish vositalari

ing. - access control facilities

rus. - средства управления доступом

Ma'lumotlardan tasodifiy yoki qasddan foydalana olishni bartaraf etuvchi vositalar.

Erkin foydalanishni nazorat

ing. - access control

rus. - управление доступом

Tizim administratori tasarrufidagi himoyalash deskriptorining tarkibiy qismi bo'lib, obyektga tizim darajasidagi xavfsizlikni o'zlashtirish imkonini beradi.

Erkin foydalanishni tanlangan boshqarish

ing. - discretion access control

rus. - управление доступом избирательное
Foydalanuvchi, jarayon va/yoki u tegishli bo'lgan guruhni identifikatsiya qilish va aniqlashga asoslangan, tizim subyektlarining obyektlardan foydalana olishini boshqarish usuli. Ma'lum huquqlarga ega subyekt istalgan obyektga belgilangan cheklashlardan qat'i nazar, huquqlar berishni amalga oshira oladi (erkin foydalanish bilvosita ham amalga oshirilishi mumkin) degan ma'noda boshqarish tanlangan bo'ladi.

Erkin foydalanishni taqdim etish siyosati

ing. - provisioning policy

rus. - политика предоставления доступа
Turli boshqariladigan resurslardan, masalan, dasturlardan yoki operatsion tizimlardan foydalanish imkoniyatini belgilaydigan siyosat. Erkin foydalanish barcha foydalanuvchilarga, muayyan rol tayinlangan foydalanuvchilarga yoki muayyan rolga kiruvchi foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

Erkin litsenziya

ing. - free license

rus. - свободная лицензия

Dasturga ilova qilinadigan, foydalanuvchi-ning intellektual faoliyatning turli mahsulotlarini cheklanmagan qayta tiklash, o'rganish, tarqatish va o'zgartirish (modifikatsiyalash yoki takomillashtirish) huquqini mustahkamlaydigan mualliflik shartnomasi.

Erkin va ochiq dasturiy ta'minot

ing. - free open source software (FOSS)

rus. - свободное и открытое программное обеспечение

Dasturiy maxsulotni ishlab chiqish usuli, unda dasturlarning yaratilgan dastlabki kodi ochiq, ya'ni ko'rib chiqish va o'zgartirishlar kiritish imkoni mavjud.

Eroziya

ing. - erosion

rus. - эрозия

Tasvirlarni sochiladigan va ekrandan yo'qoladigan mayda zarralarga kuchayib parchalanish illyuziyasini hosil qiluvchi videoeffekt; jarayon tasvir tomonlarining biridan boshlanadi.

Eshitish

ing. - eavesdropping

rus. - прослушивание

1. Axborot nurlanishlarini ruxsat etilmagan tarzda tutib olish.

2. Muhofaza qilish tizimining sust joylarini aniqlash va undan keyinchalik foydalanish maqsadida tarmoq bo'yicha uzatiladigan axborotni jinoyatkor tomonidan tutib olinishi.

Eshitish rejimi

ing. - listening mode

rus. - режим прослушивания

Radiostansiya ma'lumotlar uzatmaydigan va qabul qilmaydigan, lekin boshqa stansiyalardan uzatiladigan xabarlarini nazorat qila oladigan ish rejimi.

Eshittirish

ing. - broadcasting

rus. - вещание

Tegishli qabul qilish vositalariga ega bo'lgan ko'p sonli tinglovchilar uchun mo'ljallangan va radio yoki kabel tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan bir tomonlama telekomunikatsiyalarning turi.

Eshittirish dasturining moduli

ing. - broadcasting program module

rus. - модуль вещательной программы
Chiqarishga tayyorlangan, televizion axborot foydalanuvchisining ma'lumotlari va ma-tama'lumotlar bilan birgalikdagi televizion dastur.

Eshittirish tarmog'i

ing. - broadcasting network

rus. - сеть вещания

Bitta tashkilot, bitta hudud yoki bitta mamlakat tovushli yoki televizion dasturlar eshittirishlarini ta'minlaydigan qurilmalarning majmui.

Eshittirish televideniyesi

ing. - broadcasting television

rus. - вещательное телевидение

Tomoshabinlarning keng ommasiga mo'ljallangan tovush jo'rliqidagi televideniye.

Eshittirish televideniyesi dasturlaridan

foydalanish imkoniyati cheklangan tizim

ing. - system with limited access to

broadcasting television programs

rus. - система с ограниченным доступом к

программам вещательного телевидения
Multipleks tarkibiga kiruvchi, lekin eshittirish televideniyesining obuna bo'yicha tarqatiladigan dasturlaridan va qo'shimcha axborotdan foydalanish imkoniyatining cheklanishini ta'minlaydigan raqamli televizion eshittirish tizimi.

Eshittirish televideniyesi radiosignali

ing. - radio signal of broadcasting television

rus. - радиосигнал

вещательного телевидения

Bitta televizion dastur tasviri hamda tovush jo'rliqidagi radiosignallarining majmui.

Eshittirish televideniyesi radiosignali

eltuvchisini birlamchi modulyatsiyalash

ing. - primary modulation of broadcasting

television radio signal carrier

rus. - первичная модуляция несущей

радиосигнала вещательного телевидения

Radiosignal ortogonal kodlangan eltuvchilarining birlashmasi tarkibiga kiruvchi eshittirish (keng tarqatish) televideniyesi radiosignalining alohida olingan har bir eltuvchisini, raqamli televizion signal orqali modulyatsiyalash.

Eshittirish televideniyesi
radiosignalining ortogonal kodlangan
eltuvchilarini birlashtirish
ing. - coded orthogonal frequency
division multiplex

rus. - объединение ортогональных
кодированных несущих радиосигнала
вещательного телевидения

Xalaqitga chidamli kodlashni qo'llagan holda, kvadratura-amplitudaviy modulyatsiya qilingan eshittirish televideniyesining chastota-ortogonal eltuvchi radiosignalini o'zida ifodalaydigan, murakkab raqamli televizion signalni shakllantirish.

Eshittirish televideniyesi tizimi

ing. - broadcasting television system

rus. - система вещательного телевидения

1. Televizion signalning, xususan, yoyish usuli, sinxronizatsiya signali shakli, eltuvchilarni tasvir va tovush signallari bilan modulyatsiyalash turi, radiokanal polosasining kengligi va shu kanal doirasida tasvir va tovush jo'rligi eltuvchilarining nisbiy joylashuvini belgilaydigan xarakteristikalarini va parametrlarining majmui.

2. Televizion dasturning tasviri va tovushi to'g'risidagi axborotni shakllantirish, uzatish va qabul qilish usullarini aniqlaydigan xarakteristikalar va parametrlarining majmui.

Eshittirish televideniyesining trakti

ing. - broadcasting television tract

rus. - тракт вещательного телевидения

Televizion tasvimi televizion datchik kirishidan televizor ekranigacha, tovush jo'rligini mikrofon kirishidan televizor karnayigacha uzatish texnik vositalarining kompleksi.

(Eshittirish televideniyesining)

trakti zvenosi

ing. - broadcasting television tract section

rus. - звено тракта (вещательного телевидения)

Eshittirish televideniyesi traktining mustaqil funksional vazifaga ega bo'lgan qismi.

Eshittirish televideniyesining
dasturiy paketi

ing. - broadcasting television
programme package

rus. - программный пакет
вещательного телевидения

Televizion dastur fragmentlarining majmui.

Eshittirish televideniyesining
raqamli trakti

ing. - broadcasting television digital tract

rus. - цифровой тракт

вещательного телевидения

Mos ravishda raqamli televizion signal manbaining chiqishidan raqamli televizor yoki raqamli televizion qo'shimcha moslama kirishigacha raqamli televizion videosignallar, tovush signallari va xizmatga oid ma'lumotlarni shakllantirish, uzatish hamda qabul qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksi.

(Eshittirish uzatgichi bilan)

qamrab olish zonasi

ing. - coverage area

(of a broadcasting transmitter)

rus. - зона охвата

(вещательным передатчиком)

Radioeshittirish uzatgichlari eshittirishlarini qabul qilish, uy qabul qilgichlariga (prijemniklariga) mo'ljallangan muayyan texnik shartlarga muvofiq, kelishilgan normalangan xarakteristikalar asosida bajariladigan zona.

(Eshittirish uzatgichi bilan) qamrab olish

ing. - coverage (of a broadcast transmitter)

rus. - охват (вещательным передатчиком)

Uzatgich qamrab oladigan zona o'chami yoki uning ichidagi aholining soni.

(Eshittirishda) efir nazorati

ing. - off-air monitoring (in broadcasting)

rus. - эфирный контроль (в вещании)

Eshittirish dasturini uni eshittirish uzatgichi orqali bevosita qabul qilishdagi nazorat.

«Eslatib turuvchi»

ing. - reminder

rus. - «напоминка»

Dastur yoki tizim tomonidan foydalanuvchiga bir narsani eslatib turish xarakteriga ega bo'lgan xabar.

Estafeta halqasi

ing. - token-rings

rus. - эстафетное кольцо

Halqa topologiyasiga mo'ljallangan lokal kompyuter tarmog'ining turi. IBM firmasi to-

monidan 1986-yilda ishlab chiqilgan. Ma'lumotlar uzatish tezligi 16 Mbyte/s ga yetadi.

Estafeta rejimi

ing. - go-ahead mode

rus. - эстафетный режим

Bitta yetakchi va bir nechta bo'ysunuvchi stansiyaga ega bo'lgan liniyada ma'lumotlarni ketma-ket uzatish rejimi.

Izoh - Odatda, halqasimon strukturali tarmoqlarda tashkil etiladi.

Estafetali uzatish

ing. - go-ahead transmission

rus. - эстафетная передача

Mobil stansiyani, tarmoq bo'ylab harakatlanishi jarayonida, bir tayanch stansiyadan boshqasiga ko'chirib ulash.

Etalon test

ing. - benchmark

rus. - эталонный тест

Kompyuter, tizim yoki aniq dasturiy ta'minotning ish unumdorligini baholovchi test dasturi yoki paket.

Etalon videonazorat qurilmasi

ing. - reference monitoring device

rus. - эталонное видеоконтрольное устройство

Uzatish sifatini subyektiv baholash uchun xizmat qiladigan, shartlangan ish sifatiga ega televizion tiklash qurilmasi.

Evolutsion hisoblashlar

ing. - evolutionary computation

rus. - эволюционные вычисления

Optimal yechim topish uchun evolyutsiya nazariyasi prinsiplari qo'llaniladigan hisoblash usullari turkumi. Unga, jumladan, genetik dasturlash, kompyuter ilovalar va robot texnikasi qurilmalarining avtonom va adaptiv holati kiradi.

Evristik

ing. - heuristic

rus. - эвристический

O'rganish talab etiladigan ko'plab yechimlarga ega jarayon yoki dastur. Muammoni tajriba yo'li bilan, xatolar va tekshirishlar usuli bilan hal qilish. Dasturlashda hissiy bilish (intuitsiya) va taxminlarga, shuningdek, odam tomonidan, muayyan turdagi amaliy vazifalarni hal qilishda tajriba to'plana borgan sari egallangan bilimlarga asoslangan evristik yondashuvdan ko'p foydalaniladi. Ekspert tizimlarda qo'llaniladi.

E'lon qilinmagan

ing. - undefined

rus. - необъявленный

Xotira ajratilmagan, lekin dasturga murojaat qilinayotgan o'zgaruvchi. Bajarish vaqtida, xatolarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ham, kompilyator e'lon qilinmagan o'zgaruvchilarni qo'llashga yo'l qo'ymaydi. Dasturlashning zamonaviy dinamik tili bunday muammodan xoli bo'lib, ulardagi o'zgaruvchi birinchi murojaat vaqtida aniqlanadi.

E'lon, tavsif

ing. - declaration

rus. - объявление, описание

Dasturning, kompilyator yoki interpretatorni muayyan o'zgaruvchi, konstanta yoki obyektning turi, o'lchami va/yoki qiymati to'g'risida xabardor qiladigan taklifi.

E'lonlar taxtasi

ing. - bulletin board

rus. - доска объявлений

TDMA har bir kadrida birinchi bo'lib uzatiladigan va kadrdan vaqt intervalining taqsimlanish jadvalini saqlovchi paket.

F

Fag

ing. - phage

rus. - фaг

Mualliflashtirilmagan tarzda boshqa dasturlarni yoki MB ni o'zgartiradigan dastur.

Faks

ing. - fax

rus. - фaкс

Faksimil xabarlar, hujjatlarni kommutatsiya liniyalari (odatda, telefon liniyalari) orqali masofaga uzatish hamda masofadan qabul qilish qurilmasi.

Faks-modem

ing. - fax modem

rus. - фaкс-мoдем

Faksimil xabarlarini qabul qilish imkoniga ega bo'lgan kompyuterning dial-up-modemi. Faks-dastur bilan (masalan, Venta Fax and Voice) kompyuter faks funksiyalarini bajariishi mumkin bo'ladi.

Faks-server

ing. - fax server

rus. - фaкс-сервер

Bitta yoki bir nechta faks-modem orqali lokal tarmoq foydalanuvchilarining kiruvchi va chiquvchi faksimil xabarlarini oqimini markazlashtirilgan tarzda boshqaradigan server.

Faksimil xabarlarini uzatish

ing. - transfer of the facsimile messages

rus. - передача фaксимильных сообщений
Telefon tarmog'iga ulangan telefakslar o'rta-sida hujjatlar uzatilishini tashkil qilish.

Faktik (aniq) parametr

ing. - actual argument

rus. - фaктический параметр

Protsedura, makrokomanda yoki funksiyalar aniq chaqirilganda uzatiladigan argument.

Faktik (aniq) xotira

ing. - actual storage

rus. - фaктическая память

Hisoblash tizimining, ma'lum bir xotira

qurilmasi amalga oshiradigan tashqi yoki tezkor xotirasi.

Falsh-pol

ing. - access floor

rus. - фальш-пол

Olinadigan va o'zaro to'la almashinadigan panellardan iborat pol qoplamasi tizimi. Panellar ularning ostidagi bo'shliqqa kira olishni ta'minlaydigan maxsus tagliklar yoki to'sinlar (yoki unisi ham, bunisi ham) yordamida tutib turiladi.

Faoliyatni ro'yxatdan o'tkazish

ing. - activity registration

rus. - регистрация деятельности

Foydalanuvchi subyekt yoki g'araz niyatli shaxsning tizimdagi xatti-harakatlarini kuza-tish.

Faoliyatsizlik

ing. - hibernate

rus. - бездействие

Windows operatsion tizimining holati, bunda shaxsiy kompyuterning asosiy tizimlari aktiv bo'lmagan rejimga o'tadi va undan chiqqandan so'ng ishni davom ettiradi.

Faqat yozish (DWD-WO)

ing. - write only (DVD-WO)

rus. - только запись (DVD-WO)

Ma'lumotlardan tez foydalanadigan va faqat bir marta yozish mumkin bo'lgan DVD-disk.

Faqat o'qish

ing. - read-only

rus. - только чтение

Faylning, uni o'zgartirishdan yoki chiqarib tashlashdan himoya qiladigan atributi.

Faqat shifmatni bo'yicha

qilinadigan hujum

ing. - cipher text-only attack

rus. - атака только по шифротексту

Analitik hujum, bunda kriptoanalitik faqat shifmatga ega bo'ladi.

Faraz

ing. - assumption

rus. - допущение

Rejalashtirish jarayonidagi, dalilsiz yoki ko'rsatmasdan turib chin, haqiqiy yoki muayyan deb hisoblanadigan omil.

Farmoyish

ing. - ordinance
rus. - распоряжение

Rahbariyat, asosan kollegial organ tomonidan, operativ masalalarni hal qilish maqsadida tayyorlanadigan huquqiy hujjat; odatda, cheklangan amal qilish muddatiga ega bo'ladi hamda mansabdor shaxs va fuqarolarning tor doirasiga taalluqli bo'ladi.

Fatal xato

ing. - fatal error
rus. - фатальная ошибка

Apparatura, operatsion tizim yoki ilova xatosi. Ilovaning bajarilish yoki butun tizimning bundan keyin ishlash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Fayl

ing. - file
rus. - файл

Kompyuter tizimida umumiy nom bilan saqlanadigan yozuvlar yoki boshqa ma'lumotlar majmui. Barcha fayllar majmui ikkita katta turkumga bo'linadi – dastur fayllari (bajariladigan fayllar) va ma'lumotlar fayllari (bajarilmaydigan fayllar). Saqlanadigan ma'lumotlarning turiga ko'ra, fayllar matn, grafik, ikkili, komanda, ma'lumotlar bazasi fayllari, video va audiofayllarga bo'linadi.

Fayl atributi

ing. - file attribute
rus. - атрибут файла

Fayl tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, fayllar bilan ishlashni tartibga solish imkonini beradigan belgi. Turli operatsion tizimlarda fayllar turli atributlar to'plamiga ega bo'ladi.

Fayl egasi

ing. - file owner
rus. - владелец файла

Fayl yoki katalogni yaratuvchi (jismoniy) shaxs.

Fayl formati

ing. - file format
rus. - формат файла

Ma'lumotlarni faylda saqlash tuzilmasi. Standart formatlar, xususan, grafik fayllar formatlarining to'plami mavjud. Fayl formatini odatda fayl nomi kengaytmasi ko'rsatadi.

Fayl nomi

ing. - file name
rus. - имя файла

Elektron, magnit yoki optik tashuvchida saqlanganda, faylga beriladigan nom. Fayllar nomlarini yozish qoidalari foydalaniladigan operatsion tizimga bog'liq.

Fayl nomi andozasi

ing. - filename picture
rus. - изображение типа файла
Fayl nomining namunasi. * turidagi simvol, fayl nomi shablonida bitta shablonning fayllar guruhini qidirib topish uchun xizmat qiladi.

Fayl nomini kengaytirish

ing. - file name extension
rus. - расширение имени файла
Ajratgich nuqtadan keyin faylning turi yoki uning formatini identifikatsiya qiladigan faylning nomi joylashadigan, muayyan simvollar to'plami. Masalan, «.txt» – matnli fayl, «.bmp» – fayl-rasm, «.gif», «.jpg» – ham fayl-rasm, lekin ular boshqa formatda.

Fayl «qurtlari»

ing. - file worms
rus. - файловые «черви»

Kompyuter tarmog'ini uzellari bo'ylab ko'payadigan kompyuter viruslari turlaridan biri. Zararli dasturni o'z ichiga oladi. Bu viruslar, foydalanuvchi uni ishga tushirib yuboradi degan umidda, uning e'tiborini tortadigan nomlar ostida (masalan, Game.exe, install.exe va b.lar) o'zining nusxalarini yaratadi.

Fayl sarlavhasi

ing. - file header
rus. - заголовок файла

Faylning boshlang'ich qismi, unda uning atributlari saqlanadi.

ing. - file server

rus. - файловый сервер

1. Diskli to'plagichlari bo'lgan, tarmoqqa ulangan va tarmoq foydalanuvchilari uchun, unda saqlanadigan ma'lumotlar va ilovalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan markaziy kompyuter.

2. Barcha tarmoq xizmatlarining manbai – elektron pochta bo'ylab (orqali) abonentlarining so'rovlarini oladigan, agar talab etilsa, ayni shu yo'l bilan, ularning bajarilish natijalarini qaytaradigan maxsus dastur. Dasturlar, ma'lumotlar va boshqa axborot bo'lgan, doimiy ravishda to'ldirilib boriladigan katta arxivni o'zida ifodalaydi. Asosiy funksiyasi elektron pochta vositalari orqali axborot taqdim etish.

Fayl taqsimoti

ing. - file sharing

rus. - разделение файла

Ko'p foydalanuvchili operatsion tizimlarda bitta fayldan bir vaqtning o'zida bir nechta foydalanuvchining foydalanish imkoniyati. Atribut faylga tizim administratori tomonidan beriladi.

Fayl tizimi

ing. - file system

rus. - файловая система

1. Operatsion tizimning bir qismi bo'lib, diskdagi katalog va fayllar boshqarilishini ta'minlaydi.

2. Operatsion tizimda fayllarni nomlash, saqlash va joylashni belgilovchi umumiy tuzilma. NTFS, FAT va FAT32 tizimlari fayl tizimlarining har xil turlari bo'lib hisoblanadi.

Fayl turi

ing. - file type

rus. - тип файла

Fayl mazmuni yoki hajmini tavsiflash. Fayl turli fayl nomidan keyin uning kengaytmasi sifatida yoziladi.

Fayl viruslari

ing. - file viruses

rus. - файловые вирусы

O'z kodini dastur fayliga yoki makrokomandalar bo'lgan hujjatga yozadigan viruslar.

ishga tushirishda (yoki hujjatni tahrir qilish uchun yuklashda) viruslar boshqaruvga ega bo'ladi.

Izoh – Zararlash usuliga ko'ra, fayl viruslari qayta yozadigan, parazit, zveno viruslar, qurt viruslar, kompanon viruslarga, shuningdek, dasturlarning dastlabki matnini va dasturiy ta'minot komponentlarini zararlovchi viruslarga ajratiladi.

Fayl o'zgartirilgan sana va vaqt

ing. - data and time stamp

rus. - дата и время изменения файла

Fayl ko'rsatgichidagi sarlavhada, uni yaratish yoki oxirgi o'zgartirish sanasi hamda vaqtini avtomatik tarzda qayd etish.

Faylga kira olish

ing. - file access

rus. - доступ к файлу

Faylni ko'rib chiqish, o'zgartirish, almashtirish yoki o'chirib tashlash, shuningdek, uning atributlarini ko'rib chiqish va ularni manipulyatsiya qilish.

Faylga chop etish

ing. - print to file

rus. - печать в файл

Ma'lumotlarni (tasvir va sh.k.) qog'ozga emas, balki faylga chop etish imkoniyati.

Fayllar dispetcheri

ing. - file manager

rus. - диспетчер файлов

Windows3x da fayllar bilan ishlash uchun mo'ljallangan tizim dasturi.

Fayllar joylashishining

kengaytirilgan jadvali

ing. - extended file allocation table

rus. - расширенная таблица расположения файлов

Asosan, flesh-to'plagichlar uchun mo'ljallangan propriyetar fayl tizimi. Birinchi mar-ta Microsoft firmasi tomonidan Windows Embedded CE 6.0.da o'rnatilgan qurilmalar uchun taqdim etilgan.

Fayllar joylashishining virtual jadvali, virtual FAT

ing. - virtual file allocation table, virtual fat (VFAT)

rus. - виртуальная таблица размещения файлов, виртуальная FAT
Windows 95 da qo'llanuvchi fayl tizimi. Birinchi marotaba Windows for Workgroups 3.11 uchun paydo bo'lgan. Faylga oxirgi murojaat vaqtini saqlab qolish va uzun (255 simvolgacha) fayl nomlarini ishlatish imkonini beradi.

Fayllar katalogi

ing. - file catalog

rus. - каталог файлов

Disk xotirasini fayllar va boshqa kataloglar saqlanishi mumkin bo'lgan qismlarga mantiqiy bo'lish. Kataloglar majmui o'zak katalogli kataloglar daraxtini hosil qiladi. Har bir katalogda boshqa kataloglar va fayllar bo'lishi mumkin. Har bir katalog foydalanuvchi tomonidan beriladigan nomga ega; o'zak katalog diskli operatsion tizimda «/» (teskari slash) standart nomga ega. Disk egasining o'zi kataloglar daraxtini tuzishi mumkin, xususan, bu faqat, barcha fayllarni ichiga oladigan o'zak katalog bo'lishi mumkin.

Fayllarni ajratgich

ing. - file separator

rus. - разделитель файлов

Joylashtirilgan papkalarini bir-biridan farqlash uchun bo'luvchi sifatida ishlatiladigan simbol. Zamonaviy operatsion tizimlarida odatda ortga teskari egri chiziqcha ishlatiladi.

Fayllarni almashish dasturi

ing. - file sharing program

rus. - программа обмена файлами

Foydalanuvchilarga PTP protokoli orqali ma'lumotlarni almashish imkonini beradigan dastur. Bunda fayllar markazlashgan serverda emas, balki tarmoqdagi foydalanuvchilar kompyuterida saqlanadi.

Fayllarni boshqarish

ing. - file management

rus. - управление файлами

Faylni yaratish, saqlash, o'zgartirish va o'chirishdan iborat barcha protseduralar. Fayllarni boshqarish operatsion tizim vositalari, shuningdek, maxsus dasturlar - fayl menejmentlari yordamida ham olib boriladi.

Fayllarni havola bilan joylashtirish

ing. - reference data files

rus. - ссылочное размещение файлов

Har bir fayl diskli blokning bog'langan ro'yxati ko'rinishida taqdim etiladigan joylashtirish usuli.

Fayllarni joylashtirish jadvali

ing. - file allocation table (FAT)

rus. - таблица размещения файлов

MS-DOS va Windows oilasidagi boshqa operatsion tizimlarda fayllarni tartibga solish va boshqarish uchun qo'llaniladigan fayllar tizimi. FAT o'zida FAT yoki FAT32 uchun tomlarni formatlashda Windows da tuziladigan ma'lumotlar tuzilmasini ifodalaydi. Windows jadvalda fayllarning joylashishi, har bir fayl to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlaydi va kerakli faylni olish zarurati tug'ilganda, joriy jadvaldan foydalaniladi.

Fayllarni qo'shish

ing. - file merge

rus. - слияние файлов

Ikki yoki undan ortiq fayl ichidagini birlashtirish operatsiyasi.

Fayllarni sinxronlash

ing. - file synchronization

rus. - синхронизация файлов

1. Aloqa buzilganda fayllarni jo'natish texnologiyasi. Aloqa tiklangandan so'ng, faylning qanday qismi buzilishlarsiz qabul qilinganligi aniqlanadi va qolgan qismlarning jo'natilishi amalga oshiriladi.
2. Fayl nusxalarini, o'zgartirishlar kiritilganda, originalga mos keltirish.

Fayllarni uzatish

ing. - file transfer

rus. - передача файлов

Tarmoq muhitida, bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga fayllardan nusxa ko'chirish.

Fayllarni uzatish protokoli

ing. - file transfer protocol (FTP)

rus. - протокол передачи файлов

IP-protokollari to'plamiga kiradigan, TCP/IP tarmog'i orqali ikkita turli xildagi mashinalar orqali fayllarni izlash va jo'natishni ta'min-

lovchi mijoz-server protokoli. Internetda FTP-serverlar bilan ishlashda qo'llaniladi.

Fayllarni uzatish protokolining demoni

ing. - file transfer protokol daemon (FTPD)

rus. - демон протокола передачи файлов
FTP-server funksiyalarini bajaruvchi Linux-dastur. Qoidaga ko'ra, avtonom rejimda ishlaydi hamda kompyuterning 21- va 22-portiga manzillangan so'rovlarni qabul qiladi.

Fayllarni uzatish va ularga

kira olishni boshqarish

ing. - file transfer and access management (FTAM)

rus. - управление передачей и доступом к файлам

Turli xil abonent tizimlari fayllarini bir xil shaklda boshqarishni ta'minlaydigan tarmoq xizmati. U ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi bir amaliy jarayonni, boshqa bir uning fayllari bilan ishlovchi amaliy jarayon bilan o'zaro aloqasini tashkil qilish uchun mo'ljallangan.

Fayllarning asosiy jadvali

ing. - master file table

rus. - главная таблица файлов

NTFS fayl tizimi tomning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlaydigan relyatsion ma'lumotlar bazasi.

Fayllarning indekslangan joylashishi

ing. - indexable file allocation

rus. - индексируемое размещение файлов

Joylashtirish usuli, bunda fayl bloklari uchun barcha ko'rsatgichlar indeks blokiga birga to'planadi. Fayl ma'lumotlari blokiga taylanadigan indeks jadvallardan foydalaniladi.

Fayllarning yaxlitligini aniqlash

ing. - file integrity assessment

rus. - определение целостности файлов

Tizimdagi juda muhim fayllarning o'zgarishini tekshiradigan dasturiy ta'minot.

Fayllarning yonma-yon joylashishi

ing. - file layout

rus. - смежное размещение файлов

Har bir fayl diskda yonma-yon bloklar to'plamini egallaydigan joylashtirish usuli.

Faylli obyekt

ing. - file object

rus. - файловый объект

Fayl, qurilma, katalog, tom va sh.k. amalga oshirish kabi foydalanuvchi holatidagi ko'rinadigan obyekt.

Faylni aniqlovchi

ing. - file handle

rus. - определитель файла

Dastur fayl, dialog shakli, shuningdek, qurilma va oyna kabi obyektlarni identifikatsiya qilish va ulardan foydalana olish imkoniga ega bo'lishida qo'llaniladigan ixtiyoriy belgi.

Faylni arxivlash

ing. - file backup

rus. - архивирование файла

Ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash maqsadida, bir tashuvchidan boshqasiga faylning nusxasini ko'chirish.

Faylni blokirovkalash

ing. - file locking

rus. - блокировка файла

Ko'p vazifali tarmoq operatsion tizimlarida - ma'lumotlar yaxlitligini nazorat qilish usuli. Ikki dasturga bir vaqtda fayl ichidagini o'zgartirish imkonini bermaydi: faylga yozish amali bajarilayotganda, undan boshqa dasturlardan yozish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Faylni boshqarish bloki

ing. - file control block

rus. - блок управления файлом

Operatsion tizim muayyan faylni kiritish-chiqarish operatsiyalarini boshqaradigan tizim jadvali.

Faylni fragmentlash

ing. - file fragmentation

rus. - фрагментация файла

Berilgan faylni yozish uchun ajratilgan klasslarni ketma-ket emas, balki qattiq yoki egiluvchan diskning turli joylarida (bo'laklab) joylashtirish. Bunday vaziyat, ishlash jarayonida bo'sh disk xotirasi puliga, disk-

dan chiqarib tashlangan klasterlar qaytganda yuzaga keladi. Fayllarning uzunligi turlicha bo'lgani sababli, bo'sh klasterlarning uzluk-siz zanjiri yangi faylni yozish uchun yetmay qolishi mumkin, shunda u turli joylarda yoziladi. Fragmentlash sektorlarini izlash va ko'p sonli disk kallaklarini joylashtirish operatsiyalari sababli, diskdan faylni o'qish tezligini kamaytiradi.

Faylni konvertatsiyalash

ing. - file conversion

rus. - конвертирование файла

Fayl ichidagi ma'lumotni, ma'lumotlarni saqlashning bir formatidan boshqa formatga o'tkazish.

Faylni ko'chirish (ko'chirib o'tkazish)

ing. - file moving

rus. - перенос (перемещение) файла

Ma'lumotni disk fazosining boshqa joyiga yoki vositaga ko'chirish. Bunda ma'lumot oldingi joyidan o'chiriladi.

Faylni muhofaza qilish

ing. - file protection

rus. - защита файла

Faylga ruxsatsiz kirish, uni o'zgartirish yoki o'chirishning oldini olish maqsadida tegishli ma'muriy, texnik yoki fizik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Faylni nusxalash

ing. - file copying

rus. - копирование файла

Axborotni takrorlash va uni hujjatning boshqa qismida, boshqa faylda, xotiraning boshqa sohasiga yoki boshqa muhitga qaytadan tiklash.

Faylni ochish

ing. - opening file

rus. - открытие файла

Asosiy xotiraga uning sarlavhasini va kiritish-chiqarish operatsiyalarini bajarishdan oldin bitta yoki bir nechta qo'shni blokni qo'shish.

Faylni qayta nomlash

ing. - file rename

rus. - переименование файла

Faylga yangi nom berish.

Faylni saqlash

ing. - save file

rus. - сохранить файл

Yangi yaratilgan yoki o'zgartirishlar kiritilgan faylni hotirada saqlash bilan bog'liq harakat.

Faylni siqish

ing. - file compression

rus. - сжатие файла

Fayl yoki papkadan ortiqcha ma'lumotlarni chiqarib tashlash jarayoni. Fayllar va papkalar siqilganda, ularning hajmi kichrayadi.

Faylni tiklash

ing. - file recovery

rus. - восстановление файла

Xatoliklar aniqlangandan so'ng, faylning yaxlitligini tiklash jarayoni.

Faylni yopmoq

ing. - close a file

rus. - закрывать файл

Dasturning fayl bilan ishlashini tugallash operatsiyasi. Bu operatsiyani bajarishda fayl bilan bog'langan barcha buferlar tashlab yuboriladi va amalga oshirilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi axborot diskka kiritiladi.

Faylning mansubligi

ing. - file ownership

rus. - принадлежность файла

Ko'p foydalaniladigan operatsion tizimlarda – fayl yaratadigan foydalanuvchining nomini ko'rsatadigan atribut.

Faylning yaratilish sanasi

ing. - file creation data

rus. - дата создания файла

Ma'lum bir fayl yaratilgan kun, oy, yil. Bu sana fayl sarlavhasida saqlanadi, faylni to'g'rilashda joriy sanaga o'zgartiriladi. Faylning yaratilish sanasini istalgan operatsion tizimda yoki qobiqda ko'rish mumkin.

Faystel muvozanatlangan tarmog'i

ing. - balanced feistel network

rus. - сбалансированная сеть Файстеля

Doimiy va o'zgaradigan qismlari bir xil hajmga ega bo'lgan tarmoq.

Faza**ing.** - phase**rus.** - фаза

Tebranma yoki to'liqlik jarayonni tavsiflaydigan funksiyaning davriy o'zgaradigan argumenti.

Faza buzilishlari**ing.** - phase distortion**rus.** - фазовые искажения

Qandaydir qurilmaning, masalan, keng polosali kuchaytirgich kirishi va chiqishidagi signalning ayrim tashkil etuvchilari o'rtasidagi fazaviy nisbatning buzilishi.

Faza bo'yicha orqada qolish**ing.** - phase lag**rus.** - отставание по фазе

Chiqish signalining fazasi bo'yicha kiruvchi ta'sirga yoki tayanch tebranishga nisbatan kechikish.

Faza-chastota xarakteristikasi**(tasvir uzatgich)****ing.** - phase-frequency response**chamacteristic (transmitter of image)****rus.** - фазо-частотная характеристика**(передатчик изображения)**

Tasvir uzatgichi chiqishidagi og'ib o'tuvchi tebranishlar fazasining kirishdagi videochastota o'zgarib borgan sari, chiquvchi uchlardagi signalga bog'liqligini aks ettiruvchi egri chiziq.

Fazalangan antenna panjarasi**ing.** - phased array**rus.** - фазированная антенная решетка

Nurlanish yo'nalishi va/yoki tegishli yo'nalganlik diagrammasining shakli nurlantiruvchi elementlardagi qo'zg'atish toklari yoki maydonlarining amplituda-fazaviy taqsimlanishi o'zgarishi bilan tartibga solinadigan antenna panjarasi.

Fazalangan antenna panjarasining moduli**ing.** - module of phased array**rus.** - модуль фазированной**антенной решетки**

Nurlantiruvchi element yoki nurlantiruvchi elementlarning guruhi va/yoki uning funksional elementlari konstruktiv birlashgan

antenna panjarasining qismi hisoblanadigan qurilma.

Fazalash**ing.** - phasing**rus.** - фазирование

Biri odatda, etalon signal bo'lgan ikkita signal o'rtasida faza siljishini rostlash. Fazalar faqat nolga keltirilgan bo'lsa, «fazalash» atamasi o'miga «sinxronlash» atamasi ishlatiladi.

Fazaning o'zgarish koeffitsiyenti**ing.** - phase-change coefficient**rus.** - коэффициент изменения фазы

Tarqalish koeffitsiyentining mavhum qismi.

Fazaviy skanlanadigan antenna panjarasi**ing.** - phase-scanned array**rus.** - антенная решетка с фазовым сканированием

Nurning elektr skanlanishi uning nurlantiruvchi elementlariga uzatiladigan radiosignallar fazasining o'zgarishi bilan amalga oshiriladigan antenna panjarasi.

Fazaviy yo'nalganlik diagrammasi**ing.** - phase pattern**rus.** - фазовая диаграмма направленности

Antennaning asosiy qutblanish maydoni fazasining bog'liqligini aks ettiradigan antenna yo'nalganlik diagrammasi.

Fazaviy kommutatsiya**ing.** - space switching**rus.** - пространственная коммутация

Telekommunikatsiyalar tarmoqlaridagi, kommutatsiya tarmog'i fazaviy hamda vaqt kanallarini, ularning vaqt bo'yicha o'rinlarini o'zgartirishdan bog'lash orqali amalga oshiriladigan kommutatsiya.

Fazaviy tarqoq qabul**ing.** - space diversity reception**rus.** - пространственно-разнесенный**прием**

Radiostansiyadagi bir-biridan tegishli masofalarda joylashgan bir nechta antenna va ular bilan bog'liq qabul qilgichlar ishlatiladigan tarqoq qabul.

Izoh - Odatda, to'g'ri ko'rinishdagi radioreleli tizimlar uchun, troposferali radioreleli tizimlarda gorizontal bo'yicha tarqoqlik ishlatilgan bir paytda, vertikal bo'yicha tarqoqlik ishlatiladi.

Fazoviy to'liqin (ionosferali to'liqin)**ing.** - sky wave**rus.** - пространственная волна

(ионосферная волна)

Ionosferadan bir martali yoki ko'p martali qaytish natijasida sodir bo'ladigan va joyning katta burchaklari ostida qabul qilish nuqtasiga keladigan radioto'liqin.

Fazoviy yoyish**ing.** - space diversity, antenna diversity**rus.** - пространственное разнесение

Tinishlarga qarshi kurash usuli, bunda tarqoq signallarni qabul qilish/uzatish bir nechta antena yordamida amalga oshiriladi.

Fazoviy chastota**ing.** - spatial frequency**rus.** - пространственная частота

Signal parametrlarining (masalan, uzunligining) fazoviy koordinata bo'ylab davriy o'zgarish xarakteristikasi.

Femtouya**ing.** - femtocell**rus.** - фемтосота

Qoplash zonasi kichik bo'lgan, xonalarda mobil aloqa bilan qoplanishni ta'minlash uchun mo'ljallangan "uya".

Ferrit antenna**ing.** - ferrite antenna**rus.** - ферритовая антенна

Ferrit sterjen ko'rinishidagi o'zagi bo'lgan magnit antenna.

Ferroelektron tezkor xotira qurilmasi**ing.** - ferroelectric RAM (FeRAM)**rus.** - ферроэлектронное оперативно

запоминающее устройство

NEC korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan energiyaga bog'liq bo'lmagan yarimo'tkazgichli xotira qurilmasi.

Fexner qonuni**ing.** - Fechner's law**rus.** - закон Фехнера

Hissiy sezish intensivligi qo'zg'alish intensivligi logarifmiga proporsional. Tajribada logarifmik munosabat saqlab turilmaydi,

biroq, his qilish kamayishining umumiy prinsipi barcha hissiy taassurotni ifodalaydi.

Fider**ing.** - feeder**rus.** - фидер

Elektr zanjiri va radiochastota signalining energiyasini radiouzatgichdan antennaga yoki antennadan radioqabulqilgichga yetkazadigan yordamchi qurilmalar (ulagichlar, ventillar, faza aylantirgichlar).

Fikr**ing.** - proposition**rus.** - высказывание

Rost yoki yolg'on ekanligini deyarli har doim tasdiqlash mumkin bo'lgan mantiqiy ifoda.

Fiksatsiya impuls**ing.** - clamping pulse**rus.** - импульс фиксации

Videosignalning qayd etilishi kerak bo'lgan qismini aniqlashda foydalaniladigan impuls.

Filtr**ing.** - filter**rus.** - фильтр

Kiruvchi ma'lumotlarni standart kiritishdan oladigan, ularni aniq bir tartib bo'yicha qayta ishlaydigan va standart chiqarishga yo'naltiradigan dastur. Indeksflash xizmatida – hujjatlarni indekslash uchun ulardan mazmuni, xossalari qiymatini ajratib oladigan dasturiy vosita.

Filtr-dasturlar**ing.** - filter programs**rus.** - программы-фильтры

Kompyuterning tezkor xotirasida rezident tarzda joylashgan va operatsion tizimga qilingan, viruslar ko'payish va zarar yetkazish uchun foydalanadigan murojaatlarni tutib oladigan, shuningdek, ular to'g'risida foydalanuvchiga xabar beradigan dasturlar.

Filtr-diplekser**ing.** - filter-diplexer**rus.** - фильтр-диплексер

Yon polosani bostirish filtri va juda yuqori chastota ajratish filtri funksiyalari birlashtirilgan qurilma.

Filtrlar bloki

ing. - blocks filter

rus. - блок фильтров

Har biriga tegishli filtrlarning o'tkazish polosasiga to'g'ri keladigan signal qismi tushuvchi, umumiy kirish hamda alohida chiqishga ega bo'lgan polosali filtrlar guruhi.

Firibgarlik

ing. - fraud

rus. - мошенничество

1. Efir vaqti uchun tegishli to'lovlarsiz, masalan, yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish yo'li bilan mobil aloqaning tarmog'i resurslaridan foydalanish bilan bog'liq har qanday noqonuniy harakat.

2. Foyda olish maqsadida lozim darajadagi to'lovlarsiz telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan har qanday noqonuniy ataylab qilingan harakatlari.

Firibgarlik orqali foydalana olish

ing. - fraud access

rus. - мошеннический доступ

Mobil aloqa qurilmasini seriya raqamlarini qayta dasturlash yo'li bilan mobil aloqa xizmatlaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish.

Firibgarlikni aniqlaydigan tizim

ing. - fraud detection system

rus. - система обнаружения

мошенничества

Ma'lumotlar bazasini tahlil qilish asosida telefon chaqiruvlarini (CDR) batafsil ro'yxatga olish, firibgarlik holatlarini aniqlash imkonini beruvchi dastur.

Fishing

ing. - phishing

rus. - фишинг

1. Maqsadi foydalanuvchilarning konfidensial ma'lumotlari – loginlari va parollariga kirish hisoblanadigan Internet-firibgarlik turi. Izoh – Bunga mashhur brendlar nomidan elektron xatlarni ommaviy yuborish orqali, shuningdek, turli servislarining ichida shaxsiy xabarlar orqali crishiladi, masalan, bank nomidan yoki sotsial tarmoq ichida.

2. Ijtimoiy muhandislikning turli ko'rinishlaridan biri, foydalanuvchilarning tarmoq

xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan: xususan, ko'pchilik oddiy faktni maydi: servislar o'zining hisob ma'lumotlari, parol yoki boshqa xabarlarini berish to'g'risidagi xatlarni jo'natmaydi.

Fizik blok

ing. - physical block

rus. - физический блок

Tashuvchida yozilgan ajralmaydigan ma'lumotlar bloki. Magnit disklarda u sektor deb ataladi.

Fizik daraja

ing. - physical layer

rus. - физический уровень

Ma'lumotlar bitlarini uzatish uchun aktivlashtirish va fizik ulanish usulini ta'minlaydigan OSI modelining quyi (birinchi) sathi.

Fizik foydalana olishni boshqarish

ing. - physical access control

rus. - физическое управление доступом

Foydalana olishning boshqarilishini ta'minlaydigan fizik mexanizmlardan foydalanish. Izoh – Компьютерни qulflanadigan xonada saqlash foydalana olishni fizik boshqarishga misol bo'lib hisoblanadi.

Fizik kanal

ing. - physical channel

rus. - физический канал

Abonentlar o'rtasida axborot almashinuvi amalga oshiriladigan bog'lovchi liniya. Ertuvchi chastota, o'tkazish polosasini, modulyatsiyalash va kodlash, kanal intervali kabi parametrlar bilan tavsiflanadi.

Fizik manzil

ing. - physical address

rus. - физический адрес

Xotiradagi xotirani boshqarish qurilmasini «ko'radigan» va «tushunadigan» aniq manzil.

Fizik tahdid

ing. - physical threat

rus. - физическая угроза

Shunday tahdidki, uning amalga oshirilishi oqibatida, butun tizimga fizik zarar yetkaziladi.

Fizik zanjir

ing. - physical circuit

rus. - физическая цепь

Telekommunikatsiyalar signallarini uzatish uchun yo'naltiruvchi muhit hosil qiladigan metall simlar yoki optik tolalar.

Flesh-xotira

ing. - flash memory

rus. - флэш-память

Intel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yarimo'tkazgichli xotiraning energiyaga bog'liq bo'lmagan turi. Flesh-xotira elektr usul bilan o'chirilishi mumkin, bu uni kompyuterdan olmay turib qayta dasturlash imkonini beradi. Xotiraning bu turi alohida baytlar bilan emas, balki faqat bloklar bilan o'chirib bo'lishligi sababli, tezkor xotira qurilmasining asosiy komponenti sifatida yaroqsiz, biroq, flesh-xotiradan ko'pincha RS-kartalarda, modemlarda va boshqa qurilmalarda, shuningdek, portativ kompyuterlarda qo'shimcha xotira sifatida foydalaniladi.

Flops

ing. - flops

rus. - флопс

Kompyuter tezligining o'lchov birligi; protsessor sekundiga bajaradigan siljiydigan nuqta (vergul)li operatsiyalar sonini bildiradi.

Floptik disk

ing. - floptical disk

rus. - флоптический диск

Egiluvchan optik diskka yozish texnologiyasi. Disk sirtini belgilash va o'qish/yozish kallagini joylashtirish lazer yordamida amalga oshiriladi, axborotni yozishning o'zi magnitli hisoblanadi. LS-120 diskovodlarida foydalaniladi.

Flud (toshqin)

ing. - flood

rus. - флуд (наводнение)

Keraksiz axborotlar oqimi.

Fluktuatsion televidion xalaqitlar

ing. - fluctuation TV noises

rus. - флуктуационные

телевизионные помехи

Televidion tasvirda mitillaydigan, xotik

harakatlanadigan mayda nuqta va sbrixlar ko'rinishida aks etadigan, uzluksiz spektrga ega xalaqitlar.

Fluktuatsion xalaqitning

vazniy funksiyasi

ing. - weighting function of

fluctuation interference

rus. - весовая функция

флуктуационной помехи

Televidion tasvirdagi fluktuatsion xalaqit ko'rinariligidining uning chastotasiga bog'liqligi.

Fokus

ing. - focus

rus. - фокус

Ekrandagi piksel yoki piksellarning o'ta ravshanligi. Dog' o'lchami sifatida o'lchani.

Fon bo'limi

ing. - background region

rus. - фоновый раздел

Xotiraning, fonli dasturlar yuklanadigan sohasi (bo'limi).

Fon jarayoni

ing. - background process

rus. - фоновый процесс

Asosiy harakatlar bilan bir vaqtda bajariladigan jarayon.

Fon operatsiyalari

ing. - background operations

rus. - фоновые операции

Dasturni bajarishda amalga oshiriladigan ikkilamchi jarayon. Masalan, matn redaktori ma'lumotlarni printerga, dasturdan tahrir qilish uchun foydalanilayotgan paytda yuborishi mumkin. Fon operatsiyalari uzilishlardan foydalanish hisobiga ishlashi mumkin.

Fon rejimidagi dastur

ing. - background program

rus. - фоновая программа

Fon rejimida ishlaydigan dastur. Ayrim eskingan tizimlarda bu vazifa protsessor asosiy vazifa bilan band bo'lmagan vaqtda bajariladigan quyi ustuvorlikdagi vazifa hisoblanadi.

Fonli ishlash rejimi

ing. - background

rus. - фоновый режим работы

Obyektlar chiziladigan yoki ekranga chiqariladigan maydon (rang). Ba'zida aktiv oynadan tashqaridagi ekraning qismi shunday ataladi. Windows foydalanuvchisining grafik interfeysida qo'llaniladigan fonli tasvir.

Fonli tasvir

ing. - background image

rus. - фоновое изображение

Grafik ma'lumotlarni chiqarish qurilmalari (printer, display, proektor va h.k.) da taqdim etish shakli.

Fonohujjat

ing. - phonodocument

rus. - фонодокумент

Ovoz yozishning istalgan tizimida qayd etilgan ovozli axborotga ega hujjat.

Forjin

ing. - forcing

rus. - форжинг

Komission yig'imgar va yangi birliklar shaklida mukofot olish imkoniyati bo'lgan holda, egalik ulushini tasdiqlash asosida, blokcheynda turli kriptovalyutalarda yangi bloklar yaratish.

Fork

ing. - fork

rus. - форк

Dasturiy loyihaning kodli bazasidan boshqasi uchun boshlanish sifatida foydalanish.

Izoh – Bunda asosiy loyiha mavjudlikda davom etishi uchun ham, uni to'xtatish ham mumkin. Tarmoqlangan loyiha asosiy loyiha bilan ichidagining bir qismi bilan almashinishi va tutib turishi, asosiy loyiha bilan qandaydir umumiylikka ega bo'lmagan holda, mutlaqo boshqa xossalarni olish mumkin.

Formallashtirish

ing. - formalisation

rus. - формализация

Tadqiqot obyektini, mumkin qadar, bu obyekt har xil ma'noda talqin etilishi istisno qilinadigan ko'rinishda ta'riflash jarayoni.

Format

ing. - format

rus. - формат

Saqlashda, tashqi qurilmalarga kiritishda/

tashqi qurilmalardan chiqarishda yoki kompyuter tarmoqlari orqali yuborishda ma'lumotlarni joylashtirish va taqdim etish sxemasi.

Format (ekran formati)

ing. - screen format

rus. - формат (экрана)

Teleekraning normal kesimi, ya'ni balandligining kengligiga bo'lgan nisbati, u 3:4, 3:5, 9:16 ga teng.

Formatni o'zgartirish

ing. - format converting

rus. - конвертирование формата

Ma'lumotlarni bir formatdan boshqasiga, o'zga tizim qabul qila oladigan formatga (odatda, ma'lumotlar eksportida importida) o'zgartirish.

Formatlash

ing. - formatting

rus. - форматирование

1. Ma'lumotlarni bosishga, monitor ekraniga chiqarish uchun tayyorlash operatsiyasi.

2. (Magnit) tashuvchini, unga ma'lumotlar yozishdan oldin belgilash operatsiyasi.

3. Diskni foydalanish uchun tayyorlash – axborotlarni joylashtirish va o'qib olish tuzilmasi va usullarini o'rnatish jarayoni. Xotiraning diskli fazosi – ma'lumotlar kolleksiyasi – «bo'limlar» orqali tashkil qilinib, ularning har biri operatsion tizimga shunday joylashtiriladiki, bunda ma'lumotlarni tartiblash, izlash va tiklash imkoni mavjud bo'ladi. Foydalanilayotgan disk formatlansa, unda oldin mavjud bo'lgan axborot o'chiriladi.

Fosh etish

ing. - disclosure, reveal

rus. - раскрытие

Ilgari qo'llanilgan muhofazani qisman yoki to'liq olib tashlash operatsiyasi.

Fotodiod

ing. - photodiode

rus. - фотодиод

Yarimo'tkazgichning ikki turi o'rtasidagi yoki yarimo'tkazgich va metall o'rtasidagi p-n-o'tishga ega bo'lgan yarimo'tkazgichli diod, unda bevosita o'tish yaqinida yuz beradigan nurlanishning yutilishi fotogalvanik effektini keltirib chiqaradi.

Fotografiya sohasi ekspertlarining

birlashgan guruhi

ing. - joint photography

experts group (JPEG)

rus. - объединенная группа

экспертов в области фотографии

Faylning hajmi kichik bo'lishi va tez o'tkazish imkoniyatiga egaligi bilan tavsiflanadigan, lekin dekodlash jarayoni sekin davom etadigan va tasvir detallarining yo'qolishiga olib keladigan grafik tasvirlarni siqish usuli.

Fotohujjat

ing. - photodocument

rus. - фотодокумент

Fotografiya usulida tayyorlangan tasviriy hujjat.

Foydalana olinadigan zaiflik

ing. - exploitable vulnerability

rus. - доступная уязвимость

Baholash obyektining ishlash muhitida funksional xavfsizlik talablari buzilishi uchun ishlatiladigan, baholash obyektining zaif joyi.

Foydalana olinishi cheklangan axborot

ing. - limited access information

rus. - информация ограниченного доступа

Davlat sirlari va konfidensial axborotdan iborat ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlashtirilgan axborot, ulardan foydalana olish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi.

Foydalana olish atributi

ing. - access attribute

rus. - атрибут доступа

Muhofaza obyekti bilan bog'langan va shu obyektidan tizim subyektining foydalana olish huquqini belgilovchi axborot elementi. Berilgan ko'plab qiymatlardan ahamiyatlisini qabul qilishi mumkin (odatda, «o'qish», «yozish» va «bajarish»).

Foydalana olish darajasi

ing. - access level

rus. - уровень доступа

1. Mantiqiy obyektga muhofaza qilingan resursdan foydalanish imkoniyatini olish uchun zarur bo'lgan vakolatlar darajasi.

Izoh - Berilgan xavfsizlik darajasidagi axborotdan yoki ma'lumotlardan foydalana olishga vakolatlar foydalana olish darajasi bo'lishi mumkin.

2. Ma'lumotlarning kritikligini yoki sub-

yektlarning ochiqqligini identifikatsiya qilish uchun qo'llaniladigan, xavfsizlik darajasi belgisining iyerarxik qismi. Erkin foydalana nish darajasi noiyerarxik toifalar bilan birga xavfsizlik darajasini tashkil etadi.

Foydalana olish huquqi

ing. - access right

rus. - право на доступ

1. Qonuniy hujjatlar yoki axborot egasi, mulkdori tomonidan belgilangan, muhofaza qilinadigan axborotdan foydalanish qoidalarining majmui.

2. Resurs (fayl, printer) bilan bog'liq qoida, undan kim, qanday foydalanishini aniqlab beradi. Asosan to'rt xil darajadagi foydalana olish/kira olish huquqlari aniqlangan - foydalana olish/kira olish huquqi taqiqlangan, faqat o'qish uchun, o'zgartirish va to'liq foydalana olish/kira olish huquqi. Tizim administratori yoki ushbu resurs egasi tomonidan o'rnatiladi.

Foydalana olish huquqlarini taqdim etish

ing. - authorization

rus. - предоставление права на доступ

Muayyan dasturlar va ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat (sanksiya) berish.

Foydalana olish identifikatori

ing. - secure identifier

rus. - идентификатор доступа

Foydalana olish subyekti yoki obyektining noyob belgisi.

Foydalana olish kanali

ing. - access channel

rus. - канал доступа

Foydalanuvchi uskunasi tayanch stansiya bilan aloqa o'rnatish uchun foydalaniladigan, ko'tariluvchi WCDMA kanal.

Izoh - Foydalana olish kanalidan chiquvchi chaqiruvlar, qayd etish (ro'yhatga olish) kabi qisqa signal xabarlar almashinishda foydalaniladi.

Foydalana olish/kira olish

huquqlarining buzilishi

ing. - access violation

rus. - нарушение прав доступа

Xotiraning taqiqlangan qismiga murojaat qilganda ro'y beradigan xatolik. Dasturlarda xatoliklar hisobiga yuzaga keladi.

Foydalana olish/kira olish taqiqlangan

ing. - access denied

rus. - доступ запрещён

Foydalanuvchilarning, foydalanuvchida (masalan, operatsion tizim fayllaridan yoki jarayonlardan) foydalana olish huquqi bo'lmagan resurslarga murojaat qilishga urinishida, ma'lumotlarni «faqat o'qish uchun» deb nomlangan fayllarga yozishga urinishda yuzaga keladigan holat.

Foydalana olish/kira olishni

boshqarish tizimi

ing. - access control system

rus. - система контроля доступа

Dasturiy-texnik vositalarning majmui, ular yordamida turli resurslardan erkin foydalanishni nazorat qilish va boshqarish vazifasi hal etiladi. Tizim erkin foydalanishga ruxsat berish yoki taqiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi hamda kirishlar, trevogalar, xavfsizlikning buzilish hollari to'g'risida jurnal yuritadi.

Foydalana olish/kirish

ing. - access

rus. - доступ

1. Subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning maxsus turi, uning natijasida ularning biridan ikkinchisiga o'tuvchi axborot oqimi paydo bo'ladi.

2. Ma'lum turdagi operatsiyalarni keyinchalik bajarish uchun obyektning ochilishiga so'rov jarayoni.

3. Abonent, jarayon, qurilma tomonidan, tizimning tarmoq uchun umumiy resurslariga murojaat qilish protsedurasi.

Foydalana olish kodi

ing. - access code

rus. - код доступа

Foydalanuvchini kompyuter tizimida identifikatsiyalaydigan simvollar va sonlar guruhi.

Foydalana olish markeri

ing. - access token

rus. - маркер доступа

Jarayon bilan bog'liq va uning operatsion tizim resurslaridan foydalana olishi uchun «ruxsatnomasi» hisoblanadigan, ma'lumotlar tuzilmasi. Xususan, jarayonni ishga tushirgan foydalanuvchining barcha xavfsizlik identifikatorlarini o'z ichiga oladi.

Foydalana olish matritsasi

ing. - access matrix

rus. - матрица доступа

1. Erkin foydalanishni chegaralash huquqini aks ettiruvchi va tashlaydigan kirishning xususiyatlarini tasvirlash uchun mo'ljallangan jadval. Tizim obyektiga ustun, subyektiga esa, satr mos keladigan matritsani o'zida aks ettiradi. Matritsaning ustun va satrlari kesishgan joyda subyektning obyektidan erkin foydalanish huquqi ko'rsatiladi.

2. Subyektlarning axborot resurslaridan erkin foydalanish qoidalarini aks ettiradigan jadval.

3. Jadval ko'rinishida taqdim etilgan, ma'lumotlarning tizimli tuzilmasi. Jadvalning ustunlari tizimda mavjud bo'lgan barcha resurslarning identifikatorlari bilan, satrlar esa tizimda qayd etilgan barcha foydalanuvchilarning identifikatorlari bilan belgilangan. Jadval har bir ustunining har bir satr bilan kesishish joyida tizim administratori tomonidan berilgan obyektidan erkin foydalanish turining muayyan foydalanuvchiga ruxsat etilgan maxsus ko'rsatgichi qo'yiladi.

Foydalana olish (murojaat qilish) vaqti

ing. - access time

rus. - время доступа (обращения)

Ma'lumotlarni kiritish-chiqarishga komanda berish payti bilan almashinishning boshlanish payti orasidagi vaqt intervali.

Foydalana olish niqobi

ing. - access mask

rus. - маска доступа

1. Ayrim bitlari foydalana olishning har-xil turlariga mos keladigan ikkilik son.

2. Oldindan belgilangan huquqlar ro'yxati, foydalanuvchi va foydalanuvchilar guruhiga andoza bo'yicha beriladi. Linux operatsion tizimida standart foydalana olish/kira olish huquqi niqobi 755 ta foydalanuvchiga o'qish, o'zgartirish, fayllarni ishga tushirish huquqini beradi, qolgan foydalanuvchilar esa faqat o'qish va fayllarni ishga tushirish huquqidan foydalanishlari mumkin.

Foydalana olish nuqtasi

ing. - access point

rus. - точка доступа

Simsiz yoki simli qurilmalarning simli tarmoqqa ulanishiga imkon beradigan qurilma yoki uskuna qismi.

Foydalana olish obyekti

ing. - access object

rus. - объект доступа

Tizimning axborot resursi birligi, undan foydalana olish erkin foydalanishni chegaralash qoidalarini bilan tartibga solinadi.

Foydalana olish protokoli

ing. - access protocol

rus. - протокол доступа

Toqnashuvlarning oldini olish maqsadida, ishchi stansiyalar tomonidan axborotni tarqoqning alohida segmentlari orqali uzatishda foydalaniladigan qoidalar yig'indisi.

Foydalana olish qoidalarini

ing. - access rule

rus. - правила доступа

1. Muhofaza qilinadigan axborot va uning tashuvchilaridan foydalana olish tartibi va shartlarini qat'iy tartibga soladigan qoidalar majmui.
2. Doimiy texnik vositalardan foydalanigan holda, subyektning axborot resursidan foydalana olishini amalga oshirish maqsadida o'atilgan qoidalar.

Foydalana olish rejimi

ing. - access mode

rus. - режим доступа

Foydalana olish rejimi protsessorning tizim resurslaridan foydalanishda imtiyozga egaligini belgilaydi. «Yadro» rejimida protsess barcha xotira va komandalardan foydalanishi mumkin.

Foydalana olish ro'yxati

ing. - access list

rus. - список доступа

Resurslardan foydalana olish huquqlari bilan birgalikda resursdan foydalana olish ruxsatiga ega obyektlar ro'yxati.

Foydalana olish serveri

ing. - access server

rus. - сервер доступа

Ixtisoslashtirilgan elektron hisoblash mashinasi (kommunikatsiya protsessori) yoki tegishli kengaytirish platalari bilan jihozlangan va kommutatsiyalanadigan telefon kanallari orqali o'lsidagi foydalanuvchilarga tarqoq resurslaridan foydalana olish imkonini taqdim etadigan standart shaxsiy kompyuter.

Foydalana olish usuli

ing. - access method

rus. - метод доступа

Xotira qurilmalarida, fayllarda, ma'lumotlar bazalarida, tarmoqlarda ma'lumotlar saqlanishini va almashinuvini tashkil qilish usuli. To'g'ridan-to'g'ri, ketma-ket masofadan erkin foydalanish usullari bor.

Foydalana olish vaqtining samaradorligi

ing. - effective access time (EAT)

rus. - эффективное время доступа

Foydalana olish vaqtining sahifaga nisbatan matematik kutishi.

Foydalana olish yo'li

ing. - access path

rus. - путь доступа

1. Faylning diskdagi o'rni belgilaydigan nomlar zanjiri.
2. Ba'zi operatsiyani bajarish uchun zarur bo'lgan murojaatlar ketma-ketligi.
3. Ma'lumotlar elementlarining ketma-ketligi, ular ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tomonidan yozuvlardan yoki ma'lumotlar bazasida saqlanadigan ma'lumotlarning boshqa elementlaridan erkin foydalanishda qo'llaniladi.

Foydalana olish shlyuzi

ing. - access gateway

rus. - шлюз доступа

Foydalana olishning turli ko'rinishlariga ega oxirgi foydalanuvchilarga KAT paketli uzatish uzeli bilan ulanish imkonini beruvchi blok.

Foydalana olishlik

ing. - availability

rus. - доступность

1. Ma'lumotlar yoki resurslarning, vakolatli mantiqiy obyektning so'roviga ko'ra, foydalana olish mumkin bo'lgan va foydalanishga yaroqlilik xususiyati.
2. Maqbul vaqt ichida axborot tizimidan talab qilinadigan axborot xizmatini olish mumkinligi.
3. Axborot va uning tashuvchisining holati, unda foydalanuvchilar tomonidan ular uchun mo'ljallangan axborotning hech qanday qarshiliksiz va o'z vaqtida olinishi ta'minlanadi.

blokirovkalash (axborotdan)
ing. - block access (to information)
rus. - блокирование доступа (к информации)

1. Axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (qonuniy foydalanuvchilar) ning undan foydalanishini to'xtatish yoki qi-yinlashtirish.

2. Axborotdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektning axborotdan foydalani-shida to'sqinlik qiladigan sharoitlar yaratish.
Izoh - Axborotdan foydalanishda to'sqinlik qiladigan sharoitlar yaratish, foydalana olish vaqti bo'yicha qayta ishlash funksiyalari (foydalana olish turlari) bo'yicha va/yoki foydalanish mumkin bo'lgan axborot resurslari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Foydalana olishni boshqarish
ing. - access control

rus. - управление доступом

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi resurs-lariga faqat vakolatga ega mantiqiy obyektlar va faqat ruxsat etilgan usul bilan murojaat qilish imkoniyatini ta'minlaydigan usullar.

2. Tizimning barcha resurslaridan (ma'lumotlar bazalari elementlari, dasturiy va tex-nik vositalari) foydalanishni tartibga solish bilan, axborotni muhofaza qilish usuli.

3. Biznes va xavfsizlik talablariga asoslan-gan, aktivlardan ruxsat etilgan va cheklangan tarzda foydalana olishni ta'minlash usullari.

4. Faqat ruxsat etilgan dasturlar, jarayonlar yoki boshqa tizimlarga (tarmoqdagi) tizim resurslaridan erkin foydalanishni cheklash jarayoni.

Foydalana olishni boshqarish kaliti
ing. - access control key

rus. - ключ управления доступом

Jarayon tomonidan ma'lumotlar bazasi bosh-qarish tizimiga beriladigan va ma'lumotlardan ruxsat etilmagan tarzda erkin foydalanishning oldini olish maqsadida, tegishli qiymat bilan solishtiriladigan qiymat.

Foydalana olishni boshqarish ro'yxati
ing. - access control list

rus. - список управления доступом

Windows NT va Windows 2000 dagi xavfsiz-lik tizimi elementi. Foydalanuvchilar va ular guruhlarning resursdan (masalan, fayldan) erkin foydalanish huquqlarini belgilaydi.

Tartiblashtirilgan ACE ro'yxatidan iborat. Obyekt egasi o'z xohishiga ko'ra, obyekt ACL ni o'zgartirishi mumkin. Tarmoq ope-ratsion tizimi foydalana olishni boshqarish ro'yxatidan umumiy tarmoq resurslaridan foydalanish huquqlarini belgilashda foyda-lanadi.

Foydalana olishni boshqarish siyosati

ing. - access control policy

rus. - политика управления доступом

Foydalana olish o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarni belgilaydigan qoidalar to'plami.

Foydalana olishni boshqarish tizimi

ing. - controlled access system

rus. - система управления доступом

Foydalana olishni jismoniy boshqarishning avtomatlashtirilgan vositalari.

Izoh - Foydalana olishni boshqarish tizimida magnit polosali identifikatsion kartalardan, o'qiydigan bio-metrik qurilmalardan, smart-kartalardan foydalaniladi.

Foydalana olishni boshqarish xizmati

ing. - access control service

rus. - услуга управления доступом

Subyektlarning faqat ruxsat etilgan yo'l bilan foydalana olishini ta'minlaydigan usullar.

Foydalana olishni mantiqiy boshqarish

ing. - logical access control

rus. - логическое управление доступом

Ma'lumotlar yoki axborotdan foydalana olish boshqarilishini ta'minlaydigan me-xanizmlarning qo'llanilishi.

Izoh - Qoidaga ko'ra, foydalana olishni mantiqiy bosh-qarishda paroldan foydalaniladi.

Foydalana olishni nazorat qilish

ing. - access control

rus. - контроль доступа

Talab qilinadigan muhofaza qilish modeliga muvofiq, avtomatlashtirilgan tizim resurs-laridan erkin foydalanishni cheklaydigan jarayon.

Foydalana olishni nazorat

qilish mexanizmi

ing. - access control mechanism

rus. - механизм контроля доступа

Ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishni aniqlaydigan, bartaraf qiladigan va avtomat-

Ishlatirilgan tizimlarda qonuniy foydalanishga ruxsat beradigan uskuna yoki dasturiy ta'minot, tizim protseduralari, administrator protseduralari va ularning turli xil kombinatsiyalari.

Foydalana olishni nazorat qilish yozuvi

ing. - access control entry

rus. - запись контроля доступа

Windows NT va Windows 2000 xavfsizlik tizimida erkin foydalanishni boshqarish jadvalining elementi. Muayyan foydalanuvchi yoki foydalanuvchilar guruhi uchun audit va fayllar hamda boshqa obyektlardan foydalanish muhofaza qilinishini belgilaydi.

Foydalana olishni tekshirish

ing. - access verification

rus. - проверка доступа

Foydalanuvchining hisobga olish yozuvi to'g'risidagi ma'lumotni tekshirish. Subyektaga so'ralayotgan operatsiyani bajarish huquqini taqdim etish imkoniyatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Foydalana olishning o'rtacha vaqti

ing. - effective access time (EAT)

rus. - среднее время доступа

Sahifali tashkil qilishda xotiraga bo'lgan murojaatlar sonining matematik kutish bahosi.

Foydalaniladigan maydon kuchlanganligi

ing. - used field strength

rus. - используемая напряженность поля

Maydon kuchlanganligining median qiymatlari minimal foydalaniladiganlardan past bo'lmagan radiotelevizion stansiyaning xizmat ko'rsatish zonasi chegaralarini rejalashtirishda qabul qilingan maydon kuchlanganligi.

Foydalanilayotgan parametrlarni

nazorat qilish

ing. - usage parameter control (UPC)

rus. - контроль используемых параметров

Tarmoqning barcha resurslaridan foydalanilayotganda, ortiqcha trafikni tarmoqqa o'tkazmagan holda, o'ta yuklanish paydo bo'lishining oldini oladi. UPC ortiqcha trafikni chiqarib tashlash imkonini beruvchi CLP yachekalari bitlarini o'zgartiradi.

Foydalanish dasturi

ing. - user program

rus. - пользовательская программа

Ma'lumotlar, hisoblashlar va h.k.lar ustida qandaydir operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan amaliy dasturiy ta'minot.

Foydalanish davri

ing. - access period

rus. - период доступа

Foydalanish uchun ko'rsatilgan huquqlar amal qiladigan vaqt intervali.

Foydalanish huquqini beradigan kalit

ing. - portable access right key (PARK)

rus. - ключ на право доступа

Tarmoq o'lchamlariga bog'liq huquq kategoriyasi: uyalar soni kichik bo'lgan (A); murakkab kommutatsiyali va lokal tarmoqlar bilan aloqaga ega bo'lgan ofis (V); umumiy foydalanishdagi tarmoqlar bilan qo'shilgan (S); GSM tarmoqlari bilan qo'shilgan (D).

Foydalanish jarayoni

ing. - user process

rus. - пользовательский процесс

Operatsion tizimda foydalanuvchi tomonidan ishga tushirilgan jarayon.

Foydalanish turi

ing. - access type

rus. - вид доступа

Foydalanish huquqida ko'rsatilgan operatsiyalar turi.

Izoh - Foydalanish huquqida quyidagi operatsiyalar ko'rsatilishi mumkin: o'qish, yozish, bajarish, to'ldirish, modifikatsiya qilish, o'chirish, yaratish.

Foydalanish vazifalari uchun

xotirani taqsimlash

ing. - memory lay out for user-definable jobs

rus. - распределение памяти для

пользовательских заданий

Yuklanadigan foydalanish vazifasi uchun xotirani ajratish va uni har bir vazifa tugagan-dan so'ng bo'shatish.

Foydalanishga ruxsat

ing. - access permission

rus. - разрешение доступа

Resurs (masalan, fayl, printer) bilan bog'liq bo'lgan, berilgan resursdan kim va qanday foydalanishi mumkinligini belgilovchi qoida.

Foydalanishning to'rt darajasini foydalanish taqiqlangan, faqat o'qish uchun, takomillashtirish uchun va to'la foydalanish aniqlash tipik hisoblanadi.

Foydalanishga ruxsat olish
ing. - accessed

rus. - полученный доступ

Kompyuter tizimida yoki tarmoqda, biron-bir dastur yoki qurilmalar resursidan foydalanishga ruxsat olish. Xotira yacheykasiga, registrga, ma'lumotlar bazasiga, fayllarga va b.larga o'qish yoki ma'lumot yoza olish imkonini. Obyektning qandaydir operatsiyalarni bajara olishi uchun olinadigan ruxsat.

Foydalanishni majburiy nazorat qilish
ing. - mandatory access control (MAC)
rus. - принудительный контроль доступа
Qar.: Foydalanishni mandatli boshqarish.

Foydalanishni mandatli boshqarish
ing. - mandatory access control
rus. - мандатное управление доступом

1. Obyektlardan erkin foydalanishni boshqarish usuli obyektida mavjud bo'lgan axborotning (maxsus belgilar bilan taqdim etilgan) maxfiylik yoki kritiklik darajasiga va berilgan kritiklik darajasidagi axborotdan erkin foydalanishda subyektning vakolatlari va huquqlarini rasman tekshirishga asoslangan.
2. Obyektlarda bo'lgan axborot uchun konfidensiallik belgisini tayinlashga va subyektlarga shunday konfidensiallik darajasidagi axborotga murojaat qilishlari uchun rasmiy ruxsatlar berilishiga asoslangan subyektlarning obyektlardan foydalanishini chegaralash.

Foydalanishni chegaralash
ing. - access isolation
rus. - разграничение доступа

1. Tizim resurslaridan foydalanish tartibi, bunda subyektlar belgilangan qoidalarga qat'iy muvofiq holda obyektlardan foydalana oladilar.

2. Har bir foydalanuvchiga (foydalanish subyektiga) axborot resursidan erkin foydalanish, axborot bilan tanishish, uni hujjatlashtirish, o'zgartirish va yo'q qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan alohida huquqlar berish.

Izoh - Foydalanishni chegaralash tematik belgiga ko'ra qurilgan turli modellar yoki foydalanish ruxsat etilgan axborotning maxfiylik grifi bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanishni chegaralash qoidalari

ing. - access demarcation rules

rus. - правила разграничения доступа

Foydalana olish subyektlarining foydalana olish obyektidan foydalana olish huquqlarini tartibga soluvchi qoidalar majmui.

Foydalanishni chegaralash qoidalarini buzuvchi

ing. - security policy violator

rus. - нарушитель правил разграничения доступа

1. Axborotdan ruxsatsiz foydalana olishni amalga oshiruvchi foydalana olish subyektini.
2. Shtat texnik vositalar yordamida axborot resursidan ruxsat etilmagan tarzda erkin foydalanadigan shaxs.

Foydalanishni chegaralash qoidalarini buzuvchining modeli
ing. - security policy violator model

rus. - модель нарушителя правил разграничения доступа

Foydalanishni chegaralash qoidalarini buzuvchining abstrakt (formallashtirilgan yoki formallashtirilmagan) tavsifi.

Foydalanishni chegaralash rejimi

ing. - access demarcation mode

rus. - режим разграничения доступа
Shaxslarning, oldindan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan qoidalarga muvofiq, hisoblash texnikasi vositalaridan, qayta ishlashda dasturdan foydalana olish tartibi.

Foydalanishni chegaralash tizimi

ing. - security policy realization

rus. - система разграничения доступа
Hisoblash texnikasi vositalari yoki avtomatlashtirilgan tizimlarda foydalanishni chegaralashni amalga oshiradigan qoidalar majmui.

Foydalanishni chegaralash vositasi

ing. - access isolation facilito

rus. - средство разграничения доступа
Qabul qilingan modelga muvofiq, subyektlarning axborot resurslaridan foydalanishni chegaralanishini ta'minlovchi dasturiy-apparat vosita.

Izoh - Foydalanish matritsasi va maxfiylik (konfidensiallik) belgisi erkin foydalanishni chegaralash vositalari hisoblanadi.

Foydalanishning qulayligi

ing. - usability

rus. - простота использования

Tizimning, unda tayyorgarlik ko'magan foydalanuvchi ishi yengillik darajasini tavsiflash xususiyati.

Foydalanuvchi

ing. - user

rus. - пользователь

Baholash obyekti bilan birgalikda ishlaydigan, baholash obyektidan tashqarida bo'lgan har qanday mantiqiy obyekt (foydalanuvchi-odam yoki AT tashqi obyekti).

Foydalanuvchi agenti

ing. - user agent

rus. - пользовательский агент

Foydalanuvchining nomidan ish ko'radigan intellektual agent. Foydalanuvchini tizimda ifoda etuvchi, ochiq tizimlar o'zaro ishlay olish modelining amaliy jarayoni. Foydalanuvchi nomidan xabarlar qabul qilishi, jo'natishi, ba'zi hollarda esa, hatto tuzishi mumkin.

Izoh - Bu toifaga elektron pochta ni tekshirish va muhim xatlar kelganligi to'g'risida xabardor qilish, buyurtma qilingan yangiliklar hisobotlarini yig'ish, mavzu bo'yicha axborot izlash, veb-shakllarni avtomatik to'ldirish vazifalarini bajarayotgan intellektual agentlar kiradi.

Foydalanuvchi dasturlashtiradigan

mantiqiy integral sxema

ing. - field-programmable logic ic

rus. - программируемая пользователем

логическая интегральная схема

Loyihalashda yoki (ekspluatatsiya qilish sharoitlarida) foydalanuvchi tomonidan dasturlashtirilishi mumkin bo'lgan mantiqiy integral sxema.

Foydalanuvchi deytagrammalari

protokoll

ing. - user datagram protocol (UDP)

rus. - протокол дейтаграммы пользователя

TSR/IP protokollari guruhiga kiradigan, bog'lanish o'matilmaydigan transport sathi protokoli. UDP - tasdiqlashsiz yoki yetkazish kafolatlanmagan holda, deytagrammalar almashinuvini ta'minlaydigan oddiy protokoll, bunda xatolar qayta ishlashini va uzatish takrorlanishini biror-bir boshqa protokoll nazorat qilishi talab etiladi.

«Foydalanuvchi-foydalanuvchi»

signalizatsiyasi

ing. - user-to-user signaling (UUS)

rus. - сигнализация «пользователь-пользователь»

ISDN foydalanuvchisiga boshqa ISDN foydalanuvchisi bilan signal kanali orqali cheklangan hajmdagi axborot almashinish imkonini taqdim etadigan qo'shimcha xizmat; ushbu imkoniyat asosiy aloqa xizmatini shu (boshqa) foydalanuvchi bilan qo'shib taqdim etiladi.

«Foydalanuvchi foydalanuvchiga»

protokoli

ing. - client to client protocol (CTCP)

rus. - протокол «пользователь-пользователю»

Ma'lumotlarni qabul qilish markazlashtirilgan serverdan emas, balki xuddi shunaqa foydalanuvchilarning kompyuterlari tomonidan amalga oshiriladigan protokoll. Serverda turli kompyuterlarda fayllarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot saqlanadi. eDonkey, Kazaa turidagi piring tarmoqlarida qo'llaniladi.

Foydalanuvchi guruhi

ing. - user group

rus. - группа пользователя

Foydalanuvchilarning qaysidir xususiyatlari (mezonlari) asosida guruhlariga birlashishi. Masalan, tizim administratorlari guruhi.

Foydalanuvchi identifikatori

ing. - user identifier

rus. - идентификатор пользователя

1. Foydalanuvchini identifikatsiya qilish uchun ma'lumotlarni qayta ishlash tizimida foydalaniladigan tasvir yoki simvollar ketma-ketligi.
2. Barcha boshqa subyektlar (obyektlar) ning to'liq ko'pligi o'rtasida identifikatsiya qilinuvchi subyekt (obyekt)ni bir xil ajratishga imkon beradigan xususiy belgilanish (nom, kod va sh.k.).
3. Alohida shaxsga yoki shaxslar guruhiga beriladigan hamda hisoblash tizimi resurslaridan foydalanishga ruxsat beradigan ramziy nom.

Foydalanuvchi interfeysi

ing. - user interface

rus. - интерфейс пользователя

Foydalanuvchining kompyuter tizimi bilan hamkorlik jarayonlarini belgilaydigan interfeys. Matnli, grafikli yoki ovoqli bo'lishi mumkin.

Foydalanuvchi interfeysining obyekti

ing. - user interface object

rus. - объект интерфейса пользователя

Voqealar bog'langan funksiyalar ishlaydigan grafik interfeys obyekti. Masalan, tugmalar, matn maydoni va boshqalar.

Foydalanuvchi interfeysining oqimi

ing. - user interface thread

rus. - поток интерфейса пользователя

Windows operatsion tizimidagi, foydalanuvchining grafik interfeysi to'g'risidagi axborotni qaytaruvchi ma'lumotlar oqimi.

Foydalanuvchi konteksti

ing. - user context

rus. - контекст пользователя

Aniq holat ta'rifi. Kontekstga bog'liq xoda, atamalar har xil ma'noga ega.

Foydalanuvchi rasmi

ing. - user icon

rus. - картинка пользователя

Foydalanuvchi hisob yozuvining, foydalanuvchining o'zi tomonidan tanlangan rasm bilan ko'rsatish turi.

Foydalanuvchi rejimi

ing. - user mode

rus. - пользовательский режим

Protessorning, amaliy dasturlarni bajarish uchun mo'ljallangan, imtiyozli bo'lmagan ishlash rejimi.

«Foydalanuvchi-Tarmoq» interfeysi

ing. - user-network interface

rus. - интерфейс «Пользователь-Сеть»

Asosiy tezlikda «Foydalanuvchi-Tarmoq» interfeysi bilan o'zaro ishlaydigan foydalanuvchining terminali orqali standartlashtirilgan to'rt simli «Foydalanuvchi-Tarmoq» interfeysi (SQ etalon nuqta).

Foydalanuvchi tomonidan

boshqariladigan qayta manzillash xizmati

ing. - usage sensitive call

forwarding (USCF)

rus. - услуга переадресации управляемая пользователем

Foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan qayta manzillash xizmati individual liniya tayinlanmagan abonentlar uchun amalga oshirilishi mumkin. Qayta manzillash xizmatlari uchun to'lov ushbu xizmat aktivlashtirilganda generatsiyalanadi.

Izoh - Bu xizmat faqat MGCP protokolining oxirgi (terminal) qurilmalari uchun yaratiladi.

Foydalanuvchi uchun xotira

ing. - user memory

rus. - пользовательская память

Xotira qurilmasining foydalanuvchi uchun ajratilgan qismi.

Foydalanuvchilar adresatsiyasi

ing. - addressing of the users

rus. - адресация пользователей

Internet-xizmatlar (elektron pochta, xosting va b.) foydalanuvchilariga, berilgan manzilarga ma'lumotlar qabul qilish yoki uzatish mumkin bo'lishi uchun, manzillar berish protsedurasi.

Foydalanuvchilar huquqlarini

muhofaza qilish

ing. - user rights protection

rus. - защита прав пользователей

Foydalanuvchilarning dasturlar va ma'lumotlardan to'sqinliklarsiz hamda o'z vaqtida foydalana olishlarini ta'minlashga va ulardagi axborotdan boshqa shaxslar foydalanishidan muhofaza qilishga qaratilgan qoidalar, usullar hamda vositalar majmui.

Foydalanuvchilar paketlarining protokoli

ing. - user datagram protocol (UDP)

rus. - протокол пользовательских пакетов

Foydalanuvchining deytagrammalar protokoli, UDP protokoli, TCP/IP protokollari oilasidan transport darajasidagi tarmoq protokoli. Alohida paketlar IP dan foydalanib uzatishning to'g'riligi va yetkazish kafolatini tekshirmasdan, lekin iloji boricha tezroq uzatiladi. Bunda paketlarning bir qismi yo'qo-

ladi, lekin, masalan, nutqni uzatishda ovoz uzilmaydi, bu uning aniqligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Ma'lumotlar uzatish transport protokoli RFC 768 da tavsiflangan.

Foydalanuvchilarni identifikatsiyalashning yagona axborot tizimi

ing. - unified information system for user identification

rus. - единая информационная система идентификации пользователей

Yuridik va jismoniy shaxslar to'liq identifikatsiya qilinishini, shuningdek, idoralarga elektron o'zaro hamkorlikda mansabdor shaxslarning ma'lumotlar bazalari va axborot tizimlaridan ruxsat etilgan tarzda foydalana olishini ta'minlaydigan davlat axborot tizimi.

Foydalanuvchilarning standart interfeysi

ing. - common user interface (CUI)

rus. - стандартный (унифицированный) интерфейс пользователя

Turli dasturlar va operatsion tizimlarga qo'yladigan talablar majmui. Bunday dasturlarni shakllantirishda oldindan aniqlangan standart elementlardan foydalaniladi. Bu esa tajribasiz foydalanuvchilarga dasturdan foydalanishni osonlashtiradi.

Foydalanuvchilarning yopiq guruhi

ing. - closed user group (CUG)

rus. - замкнутая группа пользователей

Foydalanuvchilarga, unga va undan foydalanish cheklangan gurubni tashkil etish imkonini beradigan qo'shimcha xizmat.

Foydalanuvchini identifikatsiyalash

ing. - user identification

rus. - идентификация пользователя

Vakolatlarni - ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqi va ulardan foydalanish tartibini aniqlash maqsadida, foydalanuvchilarni (familiya va parolga qarab) tanish.

Foydalanuvchini ro'yxatga olish

ing. - user registration

rus. - регистрация пользователя

Kompyuter tizimiga (tarmog'iga) kirishda foydalanuvchini identifikatsiyalash protsedurasi; kompyuter tizimidan foydalanishga ruxsat olish uchun qo'llaniladigan ochiq hisobga olish nomi.

Foydalanuvchining grafik interfeysi

ing. - graphic user interface

rus. - графический интерфейс пользователя

1. Operatsion tizim ostida foydalanuvchining shaxsiy grafik interfeysini yaratish moslamasi.
2. Ma'lumotlarni vizuallashtirish imkonini beruvchi dastur.

Misol: Windows, OS/2 Presentation Manager.

Foydalanuvchining hisobga olish yozuvi

ing. - account

rus. - учётная запись пользователя

Lokal tarmoqlarda va ko'p foydalanuvchili operatsion tizimlarda har bir foydalanuvchini va uning aktivligini qayd qiluvchi yozuv. Administratorlik qilish, taqsimlangan resurslarni ifodalash va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Kishining operatsion tizimga tegishlilikini ifodalaydigan yozuv.

Foydalanuvchining huquqlari

ing. - user rights

rus. - права пользователя

Ma'lum turdagi tizimga kirishni amalga oshirish imkoniyati va u yoki boshqa imtiyozlarning mavjudligi.

Foydalanuvchining ma'lumotlari

ing. - user data

rus. - данные пользователя

OXFni bajarishga ta'sir etmaydigan foydalanuvchi uchun ma'lumotlar.

Foydalanuvchining nomi

ing. - user name

rus. - имя пользователя

Foydalanuvchining tizimdagi hisobga olish yozuvini belgilaydigan noyob nom. Hisob yozuvidagi nom guruhdagi boshqa nom bilan yoki shu domen yoki ishchi guruhdagi foydalanuvchining nomi bilan mos kelmasligi kerak.

Foydalanuvchining paroli

ing. - user password

rus. - пароль пользователя

Foydalanuvchining har bir hisob yozuvida saqlanadigan maxfiy so'z. Har bir foydalanuvchi, odatda takrorlanmaydigan maxfiy so'zga ega bo'ladi va uni tizimga kirish yoki serverga ulanishda ishlatadi.

Foydalanuvchining profili

ing. - user profile

rus. - профиль пользователя

1. Odatda, erkin foydalanishni boshqarish uchun qo'llaniladigan foydalanuvchining tavsifi.

Izoh - Foydalanuvchining profili foydalanuvchining identifikatori, foydalanuvchining nomi, parol, erkin foydalanish huquqi va boshqa atributlardan iborat bo'lishi mumkin.

2. Foydalanuvchi faoliyatining namunasi foydalanuvchining faoliyatidagi o'zgarishlarini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Foydalanuvchining tizimga kirishi

ing. - user login

rus. - вход в систему пользователя

Ekraning ro'yxatga olish oynasi, foydalanuvchi uning yordamida kompyuterga kiradi va ish seansini boshlaydi.

Foydalanuvchining tizimga kirishi

ing. - system user access

rus. - пользовательский вход в систему

Ko'p foydalanuvchili tizimga nisbatan foydalanuvchining jami huquqlari. Foydalanish uchun o'z ismi, paroli, uy katalogi va h.k. mavjudligi nazarda tutiladi.

Foydalanuvchining shaxsiy identifikatori

ing. - user personal identity (UPI)

rus. - персональный идентификатор пользователя

PIN-raqamiga o'xshab qo'lda kiritiladigan identifikator.

Foydali signal

ing. - useful signal

rus. - полезный сигнал

Texnik vositaning ishlab turishi uchun mo'ljallangan elektromagnit signal.

Fragment

ing. - fragment

rus. - фрагмент

Katta ma'lumotlar paketi yoki faylning qismi. Disk fayllarining fragmentlari qanchalik katta bo'lsa, ularga kirish shunchalik sekin amalga oshadi. Shuning uchun davriy ravishda diskni defragmentatsiyalash dasturini ishga tushirib turish kerak.

Fragmentlash

ing. - fragmentation

rus. - фрагментация

Bitta faylni bir nechta qismga (fragmentga) ajratish jarayoni.

Fraktal tasvir formati

ing. - fractal image format

rus. - формат фрактального изображения

Tasvirning qattiq siqilgan fayllari formati
Integrated Systems firmasi tomonidan taklif qilingan.

Frankirlash mashinasi

ing. - franking machine

rus. - франкирувальная машина

Yozma xat-xabarlariga pochta aloqasi xizmatlari uchun haq to'langanligini, ushbu xat-xabarlar qabul qilingan sanani va boshqa axborotni tasdiqlovchi tamg'a izlarini tushirishga mo'ljallangan mashina.

Freymlarni global ajratish

ing. - global allocation frame

rus. - глобальное выделение фреймов

Erkin freymlarni to'plash barcha jarayonlar uchun umumiy bo'lgan asosiy xotirada sahifalar freymlarini jarayonlarga ajratish, bir jarayon boshqasidan freym olishi mumkin.

Freymlarni lokal ajratish

ing. - local framing

rus. - локальное выделение фреймов

Asosiy xotirada, bo'sh freymlarning to'plami har bir jarayon uchun alohida ajratiladigan jarayonlarga sahifalar freymlarini ajratish.

Freymlarni proporsional ajratish

ing. - proportional deriving frames

rus. - пропорциональное выделение фреймов

Jarayonlarga xotiradagi jarayonlar o'lchamiga proporsional bo'lgan asosiy xotiradagi sahifalar freymlarini ajratish.

Freymlarni qayd etib ajratish

ing. - fixed framing

rus. - фиксированное выделение фреймов

Jarayonlarga asosiy xotiradagi sahifalar freymlarini yo bir xilda, yoki xotiradagi jarayonlar o'lchamiga proporsional tarzda ajratish.

Freymlarni ustuvorlik bo'yicha ajratish

ing. - priority framing

rus. - выделение фреймов по приоритетам
Jarayonlarga asosiy xotiradagi sahifalar freymini ajratish. Jarayonlarning ustuvorligiga muvofiq: sahifalarni almashtirishda quyi ustuvorlik jarayonining sahifasi joylashtiriladi.

Freyimli namoyishlar tili

ing. - frame representation language

rus. - язык фреймовых представлений
80-yillarda yaratilgan dasturlash tili. Freym obyekt yoki hodisaning asosiy xossalari ni o'zida aks ettiradi. Freymning tuzilmasi xossalar ro'yxati ko'rinishida yozilib, freym slotlari deb nomlanadi.

Funksional arxitektura

ing. - functional architecture

rus. - функциональная архитектура

Funksional obyektlar va ular o'rtasidagi KAT tuzilmasini tavsiflashda ishlatiladigan, etalon nuqtalar to'plami. Bunday funksional obyektlar etalon nuqtalar bilan ajratilgan, shuning uchun, ular funksiyalar taqsimlanishini belgilaydi.

Izoh - Funksional obyektlar etalon konfiguratsiyalarni tasvirlashda ishlatilishi mumkin. Bu etalon konfiguratsiyalar, qanday etalon nuqtalar uskunani ishlatish doirasida va ma'muriy domentlar o'rtasida ko'rinishini aniqlab beradi.

Funksional blok

ing. - functional unit

rus. - функциональный блок

Tizimdagi qurilma, qandaydir qurilmaning kichik tizimi yoki mikrosxemaning bir qismi, masalan, arifmetik-mantiqiy qurilma bloki, registr fayli va sh.k.

Funksional bog'lanish

ing. - functional cohesion

rus. - функциональная связность

Modulning faqat bitta vazifa bilan bog'liq harakatlarni bajaradigan funksional xarakteristikasi.

Izoh - Funksional bog'langan modul bir turdagi kiruvchi ma'lumotlarni bir turdagi chiquvchi ma'lumotlarga o'zgartiradi; bunday modularga tekni boshqaradigan modul yoki navbatni boshqaradigan modul misol bo'lib hisoblanadi.

Funksional dasturlash

ing. - functional programming

rus. - функциональное программирование
Dasturlash tilining barcha konstruksiyalari funksiyalar ko'rinishida amalga oshiriladigan dasturlash uslubi.

Funksional dasturlash tili

ing. - functional language

rus. - функциональный язык

программирования

Deklarativ turdagi dasturlash tili. Funksional tur tilidagi dastur ma'lum funksiyalar majmui ko'rinishida taqdim etiladi. Amalda barcha funksiyalar rekursiv. LISP va Logo funksional tillarning o'ziga xos vakillaridir.

Funksional ishonchlik

ing. - functional reliability

rus. - функциональная достоверность

Xavfsizlikning ba'zi mezonlarga, masalan, xavfsizlik siyosati bilan belgilanadigan mezonlarga mos kelishi xususiyati.

Funksional klavishalar

ing. - function keys

rus. - функциональные клавиши

Klaviaturadagi F1 dan F10 (ba'zan F12) gacha belgilangan va har bir dasturda maxsus belgilanishga ega bo'lgan dasturlashtiriladigan klavishalar guruhi.

Funksional moslashuv (raqamli

televideniya)

ing. - interoperability (in digital television)

rus. - функциональная совместимость (в цифровом телевидении)

Turli uzatish muhiti bo'yicha ishlashga imkon beradigan raqamli televideniya tizim xarakteristikasi.

Izoh - Yer usti televideniya eshittirishi kontekstidagi funksional moslashuvchanlik uzatishning muqobil muhitlari bo'yicha kabelli, yo'ldoshli, keng polosali tarmoqlar, videokassetalarni, shuningdek, mavjud analog televideniya tizimlarga kinematografiya va video standartlarini o'zgartirish, kompyuterlar va interaktiv tizimlar bilan o'zaro aloqani o'z ichiga oladi.

Funksional sxema

ing. - functional design

rus. - функциональная схема

Kompyuter tizimi funksional komponentlarining va ular o'zaro aloqadorligining grafik taqdim etilishi.

Funksional testlash
ing. - functional testing

rus. - функциональное тестирование

Ilovaning, dastur tuzilmasiga tegmasdan, belgilangan funksional talablarni bajarishini tekshirish.

Funksiya

ing. - function

rus. - функция

Dastur yoki tizim tomonidan hal qilinadigan masala yoki maqsad, shuningdek qandaydir qurilmaning vazifasi. Masalan, printerning funksiyasi – bosib chiqarish, kompyuterning funksiyalaridan biri o'qitish, matn redaktori-ning funksiyasi – hujjatni tayyorlash va h.k.

Funksiya prototipi

ing. - function prototype

rus. - прототип функции

Ba'zi dasturlash tillarida – dastur boshida funk-siyalar parametrlari va ularning turlari ro'yxati bilan birgalikdagi, funksiyalar turlari va nomlarini e'lon qilish. Bu translyatsiya qilish jarayonini soddalashtiradi.

Funksiyalar ustasi

ing. - wizard

rus. - мастер функции

Foydalanuvchining grafik interfeysidagi interaktiv funksiya. Bosqichma-bosqich bajariladigan operatsiyani (masalan, dasturni o'rnatish) ketma-ket o'zgarib turadigan dialog oynalar yordamida bajarish.

Ba'zida bu kabi interfeyslar druid, djin yoki assistent deb nomlanadi. Funksiyalar ustasi qurilgan tizim utiliti sifatida birinchi bor

Microsoft Windows 95 operatsion tizimida foydalanilgan.

Funksiyaning o'ta yuklanishi

ing. - function overloading

rus. - перегрузка функции

Dasturda, aynan bir nomga, biroq parametrlarning har xil turlariga va boshqarish qaytarilganda uzatiladigan qiymatlarga ega bir nechta protseduradan foydalanish.

Furye tez o'zgartirishi

ing. - fast Fourier transform

rus. - быстрое преобразование Фурье

Hisoblashlar hajmi kamaytirilgan Furye o'zgartirishini hisoblash algoritmi.

Feystel tarmog'i

ing. - Feistel network

rus. - сеть Фейстеля

Blokli shifrlar tuzish arxitekturasi. Bunda blokni shifrlashning butun jarayoni qadamlar (raundlar) ichida bajariladi. Ularning har birida blok o'zgaradigan va o'zgarmaydigan qismlarga ajratiladi. Shifrlash funksiyasi yordamida o'zgarmaydigan qism va raund kalitidan, gammalash operatsiyasi vositasida o'zgaradigan qismni modifikatsiyalashda foydalaniladigan modifikatsiyalovchi kod ishlab chiqiladi.

Feystel shifri

ing. - Feistel cipher

rus. - шифр Фейстеля

Takrorlanadigan blokli shifrnin maxsus sinfi, unda shifrlash matn chetlab o'tish funksiyasi qo'llanishini takrorlash bilan ochiq matndan hisoblab chiqiladi.

G

...ga almashtirish

ing. - replace with

rus. - заменить на...

Matnning bir fragmentini boshqasi bilan almashtirish.

Gabidulin kriptotizimi

ing. - Gabidulin's cryptosystem

rus. - криптосистема Габидулина

Rang (daraja) metrikasida xatolarni tuzatuvchi kodlarga asoslangan kriptotizim.

Gamma

ing. - gamma

rus. - гамма

Qayta tiklash yarim ton xarakteristikasi no-chiziqililigini ifodalaydigan televizion tizim kontrastligining omili yoki koeffitsiyenti.

Gamma tuzatuvchi

ing. - gamma-corrector

rus. - гамма корректор

Televizion eshittirish gamma qiymatini no-chiziqili element signali o'tish zanjiriga kiritish orqali rostdash uchun mo'ljallangan qurilma.

Gammalash

ing. - gamming

rus. - гаммирование

Ochiq ma'lumotlarni shifrlash uchun ushbu ma'lumotlarga muayan qonun bo'yicha shifrgammalarini qo'yish jarayoni.

Gammalash shifri

ing. - additive stream cipher

rus. - шифр гаммирования

Ma'lumotlarni shifrlash uchun gammalashdan foydalaniladigan oqimli shifrgammalarini qo'yish jarayoni.

Gamma-testlash

ing. - gamma testing

rus. - гамма-тестирование

Dasturiy mahsulotni, uni tijoriy chiqarishdan oldin testlashning uchinchi bosqichi. Gamma-testlash bosqichida faqat hujjatlar va o'ramgina so'nggi ko'rinishda bo'lmaydi.

Gamma-tuzatish

ing. - gamma correction

rus. - гамма-коррекция

Elektron-nur trubkaga beriladigan kuchlanish va yorqinlik o'rtasidagi noliniyaviy bog'liqlik tufayli sodir bo'lgan, elektron-nur trubkadagi rang yorqinligi buzilishini tuzatishga imkon beradigan mexanizm.

Gant diagrammasi

ing. - Gantt chart

rus. - диаграмма Ганта

Jarayonlarning nomini va ularni bajarishning vaqtinchalik diapazonlarini tasvirlaydigan, ayrim vaqt birliklarida ifodalangan, «vaqt chizig'i» ko'rinishidagi sxema.

Garmonikalar analizatori

(spektr analizatori)

ing. - analyzer of harmonics

(analyzer of spectrum)

rus. - анализатор гармоник

(анализатор спектра)

Tebranishlar spektrini tadqiq qilish uchun mo'ljallangan asbob. Garmonikalar analizatorining ishlash prinsipi berilgan tebranish joylashtirilishi mumkin bo'lgan turli chastotalardagi garmonik tebranishlarni (tor polosali filtrlar yordamida) ajratishdan iborat.

Gauss chastotaviy manipulyatsiyasi

ing. - gaussian frequency shift keying (GFSK)

rus. - гауссовская частотная манипуляция

Kirishida, kirish impulslari shakllarining Gauss qonuni asosida silliqilinishini ta'minlovchi past chastotali filtrga ega chastotaviy manipulyatsiya usuli, odatda, silliqilinish koeffitsienti 0,5 ga teng.

Izoh - (DECT, Bluetooth tizimlarida foydalaniladi).

Gauss kanali

ing. - Gauss channel

rus. - канал Гаусса

Bir tekis oq shovqinli akslantirishsiz kanal.

Gaz-razryadli almashlab ulagich

ing. - gas discharge switch

rus. - газоразрядный переключатель

Tarmoqlangan o'ta yuqori chastotali traktlarni kommutatsiyalash uchun mo'ljallangan, tashqaridan boshqariladigan gazli razryadlagich. Oddiy gazli razryadlagichdan farqli ravishda, gazrazryadli almashlab ulagich may-

don o'ta yuqori chastotasining quvvati oshib ketganda, o'z-o'zidan ishlab ketmasligi kerak, shu sababli, gaz bosimi mustaqil razryad uchun optimal bo'lganga nisbatan, ko'p karra kamaytirilishi yoki oshirilishi kerak.

Geksagonal yacheyka

ing. - hexagonal cell

rus. - гексагональная ячейка

Qo'shni uchastkalarni qoplamasdan yoki ayrim uchastkalarni qoldirib ketmasdan, xizmat ko'rsatiladigan butun hududni qamrab olish imkonini beradigan yacheyka.

Gektometrli to'lqinlar

ing. - hectometer waves

rus. - гектометровые волны

100 m dan 1000 m gacha bo'lgan to'lqin uzunliklari diapazoni (300 kHz dan 3000 kHz gacha bo'lgan chastotalar diapazoni).

Generator

ing. - generator

rus. - генератор

O'zining ishlash jarayonida nimadir yaratadigan dastur, masalan, ilovalar generatori, kod generatori va sh.k.

Geografik axborot tizimi

ing. - geographic information system

rus. - географическая информационная система

Joy kartalari, planlar, sxemalar kabi makonga oid ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash, saqlash va aks ettirish bilan bog'langan dasturiy tizimlar turkumi.

Geografik domen

ing. - geographic domain

rus. - географический домен

Geografik belgi bo'yicha birlashtirilgan domen nomlari guruhi.

Geoinformatika

ing. - geoinformatics

rus. - геоинформатика

Ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish faoliyati. U amaliy yoki geoilmiy maqsadlarda ilmiy asoslash, loyihalash, yaratish, ekspluatatsiya qilish va geografik axborot tizimlaridan foydalanish, geoaxborot texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliy jihatlar yoki GAT qo'llanmalari bilan shug'ullanadi.

Geoinformatsion tizim

ing. - geographic information system

rus. - геоинформационная система

1. Matnli, jadval, illyustratsiyali va boshqa shakllarda kartografik ma'lumotlarni va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni saqlab turishga, qayta ishlash va berishga qaratilgan dasturiy, axborot va texnik vositalar kompleksi.

2. Fazoviy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish va grafik vizuallashtirish uchun mo'ljallangan tizim. Ushbu tizim raqamli kartalarni, shuningdek, obyektlar to'g'risidagi qo'shimcha axborotni, masalan, bino balandligini, yashovchilarining manzili, sonini izlab topish, tahlil va tahrir qilish imkonini beradi.

Geomatika

ing. - geomatics

rus. - геомастика

1. Axborot texnologiyalari, multimedia va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish yo'nalishi. Ma'lumotlarni qayta ishlash, geotizimlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan xaritaga olish mazkur ilmiy yo'nalishning asosiy vazifasidir.

2. Geoinformatika yoki geoaxborotlashgan xaritaga olish atamalarining sinonimi sifatida ham ishlatiladigan atama.

Geometrik (koordinata)

buzilishlarni tuzatish

ing. - geometric (coordinate)

distortion correction

rus. - коррекция геометрических

(координатных) искажений

«Gorizontal bo'yicha chiziqlilik» rostagichi yordamida amalga oshiriladigan tuzatish.

Geosinxron yo'ldosh

ing. - geosynchronous satellite

rus. - геосинхронный спутник

Aylanish davri Yerning o'z o'qi atrofida aylanish davriga teng bo'lgan Yer yo'ldoshi.

Geostatsionar yo'ldosh

ing. - geostationary satellite

rus. - геостационарный спутник

To'g'ri va doiraviy orbitasi Yer ekvatori tekisligida yotadigan, shu tariqa Yerga nisbatan qo'zg'almas bo'lgan geosinxron yo'ldosh. Keng ma'noda – Yerga nisbatan taxminan qo'zg'almas bo'lib qoluvchi yo'ldosh.

Geostatsionar yo'ldoshlar orbitasi**ing.** - orbit of geostationary satellite**rus.** - орбита геостационарного спутника
To'g'ri va doiraviy orbitasi yer ekvatorining tekisligida joylashgan geosinxron yo'ldosh orbitasi.**Gers dipoli****ing.** - Hertzian dipole**rus.** - диполь Герца

O'rtasiga yuqori chastotali tebranishlar manbai ulanadigan, oxiri yo'g'onlashgan to'lqin uzunligiga nisbatan kichik uzunlikdagi sim kesmasi (bo'lagi).

Gers vibratori**ing.** - Hertz radiator, electric dipole**rus.** - вибратор Герца

G.Gers tomonidan konstruksiyalangan tebranish manbaini (tebranish rejimida) yoki yuklamani (qabul rejimida) o'rtadagi uzilish bilan ulash uchun mo'ljallangan metall shtir ko'rinishidagi antenna.

Geterodin chastotasini ohista rostlash**ing.** - fluent regulation of heterodyne frequency**rus.** - плавная регулировка частоты гетеродина

Konvertor geterodinining zavodda sozlash noaniqligini yo'qotish imkonini beradi. Amalda bu qabul qilinayotgan tasvir sifatini yaxshilaydi. Qo'lda sozlashdan tashqari ayrim resiverlarda chastotani avtomatik sozlash imkoniyati ham mavjud.

Geterogen tarmoq**ing.** - heterogeneous network**rus.** - гетерогенная сеть

Turli operatsion tizimlar, tarmoq kartalari o'rnatilgan har xil kompyuterlardan iborat va/yoki turli tarmoq protokollaridan foydalaniladigan tarmoq.

Geteroxrom**ing.** - heterochronous signals**rus.** - гетерохромные сигналы

Turli nominal uzatish tezliklariga ega signal-lar.

Geytvey**ing.** - gateway page**rus.** - гейтвей

Qar.: Dorvey.

Gibrid differensial impuls kodli modulyatsiya**ing.** - hybrid differential

pulse code modulation

rus. - гибридная дифференциальная

импульсно-кодовая модуляция

Differensial impuls-kodli modulyatsiya

(DIKM) va kodlashning boshqa usullarini o'z

ichiga oladigan manbani kodlash usuli.

Izoh - DIKM va IKM kombinatsiyasi misol bo'ladi,

bunda sanoqning haqiqiy va taxmin qilingan qiymati

o'rtasidagi farqning kvantlangan qiymatiga mos ke-

ladigan kodli so'zlar haqiqiy sanoqning kvantlangan

qiymatiga mos keladigan kodli so'zlar bilan oldindan

belgilangan tartibga muvofiq almashinib keladi.

Gibrid ekran**ing.** - hybrid screen**rus.** - гибридный экран

Ma'lumotlarni ham chiqarishni, ham kiritishni ta'minlovchi ekran. Gibrid ekran max-

sus jarayonlarda masalan, dispatcherlar, so-

tuvchilar, bank xizmatchilari bajaradigan

ixtisoslashgan jarayonlarda alohida katta

ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalar orasi-

da quyidagi ikki tamoyil ko'proq ishlatiladi.

Sig'imli tamoyilda, foydalanuvchining qo'l

barmog'i ekranga chiqarilgan tasvir detallari-

ga tegishi bilan ma'lumot kiritish yuz beradi.

Buning uchun, suyuq kristalli indikatorning

old va orqa tomonlaridan elektr o'tkazuvchi

qatlamli shisha plastinalar qo'yiladi, yon to-

monda esa elektrodlar joylashadi. Elektro-

magnit tamoyili maxsus pero ishlatishga

asoslangan. Buning uchun, suyuq kristalli

indikatorning orqa tomoniga sezgir panjara

yoki magnit konturlari joylashtiriladi. Pero

ekran qabul qilayotgan kuchlanishni induk-

siyalaydi.

Gibrid kabel**ing.** - hybrid cable**rus.** - гибридный кабель

Umumiy qobiq bilan o'ralgan, har xil turdagi

yoki toifadagi ikki yoki undan ortiq kabeldan

iborat qurilma. Umumiy ekranga ega bo'lishi

mumkin.

Gibrid kodlash**ing.** - hybrid coding**rus.** - гибридное кодирование

Harakatlanuvchi televizion tasvirlarni qay-

ta ishlash uchun kadr ichida va kadrlararo

kodlashni o'z ichiga oladigan, videosignal raqamli oqimini siqish. Raqamli oqimni qisqartirish maqsadida kadr ichida va kadrlararo kodlashni o'zida mujassamlashtirgan kodlash.

Gibrid kommunikatsiyalash

ing. - hybrid switching

rus. - гибридная коммутация

Kanallar kommutatsiyasini va paketlar kommutatsiyasini ta'minlovchi kompleks transport xizmat ko'rsatish turi.

Gibrid mikrosxema

ing. - hybrid microcircuit

rus. - гибридная микросхема

Sopol taglikka (asosga) o'rnatilgan diskret komponentlar va har xil turdagi integral sxemalardan iborat mikrosxema.

Gibrid optik-tolali arxitektura

ing. - hybrid fiber coax (HFC) architecture

rus. - гибридная волоконно-оптическая

архитектура

Signallar ikki tomonlama asimmetrik uzatiladigan abonent foydalanish tarmog'i arxitekturasi, 802.U. standarti doirasida ishlab chiqilgan. Unda optik-tolali kabellar, o'ralgan juft, koaksial kabellar va raqamli uzatish usullari qo'llanilishi mumkin.

Gibrid pochta

ing. - hybrid mail

rus. - гибридная почта

Jo'natuvchiga xabarlarini, telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali, keyinchalik adresatning pochta manziliga yetkazib berish imkoniyati bilan uzatish amalga oshiriladigan elektron pochta xizmati.

Gibrid pochta jo'natmasi

ing. - sending hybrid mail

rus. - отправление гибридной почты

Jo'natuvchidan fizik yoki elektron shaklda qabul qilinadigan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib ishlov beriladigan, yozma xat-xabarlar jo'natmaga o'zgartiriladigan va oluvchiga fizik ko'rinishda topshiriladigan xabar.

Gibrid tarmoq

ing. - hybrid network

rus. - гибридная сеть

Turli xil kompyuterlarni birlashtiradigan lokal tarmoq.

Gibrid to'lqin

ing. - hybrid wave

rus. - гибридная волна

Elektr va magnit maydon vektorlari nol dan farqli bo'ylama tashkil etuvchilarga ega elektromagnit to'lqin.

Gigabayt (Gbyte)

ing. - Gbyte

rus. - гигабайт (Gbyte)

Kompyuter tizimlari xotira sig'imining o'lchov birligi 230 yoki 1.073.741.824 byte ga teng.

Gigaflops

ing. - gigaflops

rus. - гигафлопс

Unumdorligi yuqori bo'lgan protsessor yoki superkompyuterning ishlash tezligi birligi (vaqt birligi ichida siljувchi nuqta bilan bajariladigan operatsiyalar soni).

Gilbert o'zgartirgichi

ing. - Hilbert transformer

rus. - преобразователь Гильберта

Chastotalarning keng polosasida signal fazalarining 90° ga siljishini ta'minlovchi qurilma.

Giperdiapazon (giperpolosa)

ing. - hyperrange (hyperband)

rus. - гипердиапазон (гиперполоса)

Kabelli televizion eshittirishlar uchun ajratilgan, 230 MHz dan 470 MHz gacha bo'lgan chastotalar diapazoni.

Giperhavola

ing. - hyperlink

rus. - гиперссылка

Faylga, faylning biror o'rmiga, Internet yoki intranetdagi HTML-sahifaga o'tish imkonini beradigan rangli va ostiga chizilgan matn yoki rasm. Giperilovalar, shuningdek, yangiliklar guruhi va Gopher, Telnet va FTP dagi uzellarni ko'rsatishi mumkin.

Giperkanallar

ing. - hyperchannels

rus. - гиперканалы

Kabelli televideniye tarmoqlarida foydalaniladigan 300 MHz dan 470 MHz gacha bo'lgan chastotalar polosasidagi chastota kanallari.

Giperkard

ing. - hyper card

rus. - гиперкард

Macintosh kompyuterida, 6-9 versiyalar MAC OS tizimida gipermedia ilovalar yaratish imkonini beradigan vizual dasturlash muhiti. Giperkardni, foydalanuvchiga qulay, interaktiv ko'rinishda taklif etgan holda, matnlar, rasmlar, tovushlar, animatsiyani birga to'plash imkonini beradigan «axborot tashkilotchisi» deb atash mumkin.

Giperkub

ing. - hypercube

rus. - гиперкуб

1. Ko'p protsessorli tizimda protsessorlarni birlashtirish usullaridan biri.
2. Uzellari ko'p o'lchamli kub grafasining cho'qqisi hisoblanadigan tarmoq topologiyasi.

Gipermatn

ing. - hypertext

rus. - гипертекст

1. Boshqa hujjatlarga giperhavolalarni (ko'rsatgichlarni) ichiga oladigan har qanday matn. Axborotni hujjatlar o'rtasidagi bog'lanishlar orqali taqdim etish usuli.
2. Matnlarda maxsus ko'rsatgichlardan (giperhavolalardan) foydalangan holda, matn massivlarida berilgan mavzularni izlab topishni ta'minlaydigan texnologiya.

Gipermatn preprotssessori

ing. - hypertext preprocessor (PHP)

rus. - препроцессор гипертекста

Veb-serverda HTML sahifalarni yaratish va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun yaratilgan dasturlash tili. Bugungi kunda ko'plab xosting kompaniyalarida qo'llab-quvvatlanadi.

Gipermatnli belgilash tili

ing. - hyper text markup language (HTML)

rus. - гипертекстовый язык разметки

Veb-brauzerning dizayn matnini loyihalash imkonini beradigan, maxsus simvollar (teg-lar)dan tarkib topgan, veb-hujjat matnini yozish tili. HTML tili shakllarni formatlash va qayta ishlash, shrifllarni boshqarish, ma'lumotlarni grafik ko'rinishda uzatish, gipermatnli aloqalarni tashkil etish va Java appletlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Gipermatnli ishorat

ing. - hyperlink

rus. - гипертекстовая ссылка

Qar.: Giperishorat.

Gipermatnli uzatish protokoli

ing. - hyper text transfer protocol (HTTP)

rus. - протокол передачи гипертекста

Gipermatnli uzatish uchun foydalaniladigan protokol. Protokolning asosiy vazifasi veb-server bilan aloqa o'rnatish va HTML sahifalarini mijozning veb-brauzeriga yetkazilishini ta'minlash hisoblanadi. Protokol ishlashi uchun IP bog'lanish orqali Internetga ulanish talab etiladi. veb-hujjat olinadigan kompyuter manzili oldidan http:// prefiksi qo'yiladi.

Gipermedia

ing. - hypermedia

rus. - гипермедиа

Multimedia-axborotni tashkil qilish usuli. Bunda matndan tashqari, ma'lumotlarning boshqa turlariga (video, grafika, tovush) havolalar ta'minlanadi.

Giperoqimlilik

ing. - hyper-threading

rus. - гиперпотоковость

Pentium 4 protssessorida amalga oshirilgan yangi texnologiyaning nomi. Bu texnologiyada protssessor registrlari va bloklarining ishga solinmagan imkoniyatlaridan foydalaniladi, natijada protssessor unumdorligi 30 foizgacha oshadi.

Gipervizor

ing. - hypervisor

rus. - гипервизор

Ayni bir xost-kompyuterda bir vaqtda bir qancha yoki ko'plab operatsion tizimlar parallel bajarilishini ta'minlaydigan yoki bajarilishiga imkon yaratadigan dasturiy yoki apparat sxema. Gipervizor, shuningdek, operatsion tizimlarning bir-biridan izolyatsiya qilinishini, muhofazasini va xavfsizligini, ishga tushirilgan turli operatsion tizimlar o'rtasida resurslar ajratilishini va bu resurslar boshqarilishini ham ta'minlaydi. Gipervizor qandaydir ma'noda minimal operatsion tizim (mikroyadro yoki nanoyadro) hisoblanadi.

Gromagnit chastota

ing. - gyromagnetic frequency

rus. - гиромагнитная частота

1. Lorens kuchi va markazdan qochma kuchlarning tengligi bilan aniqlanadigan, Yer magnit maydonining katta kuchlanishli liniyalari atrofida erkin elektronlarning aylanish chastotasi.

2. Doimiy bir jinsli magnit maydonda erkin zaryadlangan zarralarning aylanish chastotasi.

Gromagnitli rezonans

ing. - gyromagnetic resonance

rus. - гиромагнитный резонанс

Doimiy magnit maydonidagi elektronlarning aylantirish harakati hodisasi.

Gistogramma

ing. - bar chart

rus. - гистограмма

Ma'lumotlarning vaqt bo'lagi davomida o'zgarishini aks ettiradigan diagramma. Bu xil diagrammalar kattaliklarni ko'rgazmali taqqoslash uchun juda qulay. Gistogrammada kategoriyalar o'qi gorizontaal bo'ylab, qiymatlar o'qi vertikal bo'ylab joylashadi. O'qlarning bunday joylashuvi qiymatlarning vaqt bo'yicha o'zgarish xarakterini ta'kidlaydi.

Global axborot infratuzilmasi

ing. - global information infrastructure (GII)

rus. - глобальная информационная инфраструктура (ГИИ)

Sifat jihatidan tamomila yangi axborot tuzilmasi. Iki dunyo hamjamiyatining bir qator rivojlangan davlatlari 1995-yildan boshlab shakllantira boshlashgan. Ularning niyatlariga ko'ra, global axborot infratuzilmasi global va mintaqaviy axborot-kommunikatsion tarmoqlarining hamda raqamli televideniye va radio eshittirishlar, yo'ldosh tizimlar va harakatlanuvchi aloqaning uyg'unlashuvi asosida sayyoramizning aholisiga ommaviy xizmat ko'rsatadigan umumjahon integrallashgan axborot tarmog'idan iborat bo'ladi.

Global axborot tizimi

ing. - wide-area information system (WAIS)

rus. - глобальная информационная система
Internet tarmog'ining ma'lumotlar bazalaridan axborot izlash bo'yicha tarmoq xizmati. Glo-

bal axborot tizimi ko'p sonli ma'lumotlar bazalaridan axborot izlashni osonlashtirish uchun yaratilgan. Gopher tarmoq xizmatidan farqli, global axborot tizimi bilan ishlashda farqli, menyuni ko'rib chiqish kerak emas. IZlashda so'z kiritish kifoya. Shunda global axborot tizimi Internetdagi ma'lumotlar bazalarining nomlarini qarab chiqadi, natijada foydalanuvchi bu so'z uchraydigan obyektning ro'y-xatini oladi. Muhimi shuki, har bir baza o'zining axborot izlash usuliga ega. Global axborot tizimi esa bu usullarning barchasi bilan ishlay oladi va foydalanuvchiga yagona umumiy interfeys taqdim qiladi.

Global hisoblash tarmog'i

ing. - world area network

rus. - глобальная вычислительная сеть

1. Turli davlatlar va qit'alarni qamrab oladigan katta hududga yo'yilgan abonent tizimlarini birlashtiradi. Insoniyat va tashkilotlarning undan foydalana olish bo'yicha axborot resurslarini birlashtirish muammosini xal qiladi.

2. Hududi jihatidan taqsimlangan tarmoq yoki ma'lumotlar uzatish tarmog'i, ma'lum geografik hududni (region, mamlakat, qator mamlakatlarni) qamrab oluvchi va kommunatsiyalanadigan hamda ajratilgan liniyalar yoki maxsus aloqa kanallaridan foydalanib axborot uzatishni ta'minlaydigan tarmoq.

Global identifikator

ing. - global identifier

rus. - глобальный идентификатор

Ta'sir sohasi butun dastur bo'lgan identifikator.

Global izlash

ing. - global search

rus. - глобальный поиск

Butun hujjat, ma'lumotlar bazasi yoki disk bo'yicha izlash operatsiyasi.

Global manzil

ing. - global address

rus. - глобальный адрес

Tarmoqda ishlatiladigan manzil turlaridan biri. Global manzil ma'lumotlar bloki, xabar yoki signal barcha obyektlar uchun mo'ljallanganini ko'rsatadi. Tarmoqda global manzillar ishlatilganda, keng qamrovli eshittirish bajariladi. Shuningdek, tarmoqda guruhli

manzil (ma'lumotlar bloki mo'ljallangan obyektlar to'plamini aniqlaydi) va noyob manzil (tarmoqda faqat bitta obyektga ajratilgan) ishlatiladi.

Global manzillash

ing. - global addressing

rus. - глобальная адресация

Tarmoq elementlarining aniq joylashuvini oydinlashtirmay, marshrutizatorga ma'lum tarmoqni tanib olishga imkon beruvchi manzillash.

Izoh - Global miqyosdagi manzillarning kiritilishi o'zaro bog'langan ko'p sonli uzellar mavjudligida tarmoqlararo birgalikda ishlash protsedurasini soddalashtirish imkonini beradi.

Global mobil aloqa tizimi

ing. - global system for mobile telecommunications (GSM)

rus. - глобальная система мобильной связи
ETSI da mobil aloqaning maxsus ishchi guruhi Group Special Mobile (GSM nomining dastlabki talqini) tomonidan ishlab chiqilgan raqamli mobil aloqaning Evropa standarti.

Izoh - GSM standartida ishlaydigan birinchi tijorat tarmog'i 1992-yilda Germaniyada ishga tushirilgan. O'shandan buyon standart uzluksiz takomillashib va rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda uning foydalaniladigan chastotalar diapazoni bilan farqlanuvchi to'rtta versiyasi: GSM-900, GSM-1800 (DCS-1800), PCS-1900 va GSM-400 hamda uchta evolyusion texnologiyasi: HSCSD, GPRS va EDGE tarqalgan bo'lib, ular ma'lumotlar uzatish xizmatlarining jori etilishi bilan bog'liq.

Global nur

ing. - global beam

rus. - глобальный луч

Geostatsionar yo'ldosh Yer yuzasining butun ko'rinadigan sirti qamrab olinishini ta'minlaydigan $17^{\circ} \times 17^{\circ}$ kenglikdagi antenna nuri.

Global nurga ega antenna

ing. - antenna with global beam

rus. - антенна с глобальным лучом

Yo'nalganlik diagrammasi Yer sathini qamrab oladigan retranslyator-yo'ldosh antenasi.

Global o'zgaruvchi

ing. - global variable

rus. - глобальная переменная

Ta'sir sohasi dasturning barcha bloklari yoki modullari bo'lgan o'zgaruvchi (Java Script

da aynan bir HTML hujjatning barcha ssenariylari) yoki yuqori sath blokida tavsiflangan o'zgaruvchi.

Global optimallashtirish

ing. - global optimization

rus. - глобальная оптимизация

Dasturni optimallashtirish, sikllardan konstant ifodalarni chiqarish, hisoblashlar ketma-ketligini qayta tartibga solinishini ichiga oladi.

Global roving

ing. - global roaming

rus. - глобальный роуминг

Hududiy va tashkiliy cheklashsiz mobil abonent bilan aloqa o'rnatish rejimi.

Global tarmoq

ing. - global area network (GAN)

rus. - глобальная сеть

Lokal va shahar hisoblash tarmoqlarini birlashtiruvchi tarmoq. Ma'lumotlarning mamlakat yoki butun dunyo miqyosida katta masofalarga uzatilishini ta'minlaydi.

Global telekommunikatsiyalar tarmog'i

ing. - wide area network (WAN);

global network

rus. - глобальная сеть телекоммуникаций

Bir nechta mamlakat yoki qit'a hududini qamrab oluvchi telekommunikatsiyalar tarmog'i.

Global ulanish

ing. - global connection

rus. - глобальное соединение

Internet tarmog'ining ma'lumotlar bazalaridan foydalanishning gipermuhitini yaratuvchi tarmoq xizmati. CERNdagi Tim Berners-Li tomonidan ishlab chiqilgan. Uning asosiy g'oyasi, cho'qqilari hujjatlar bo'lgan, hujjatlardagi so'zlar va jumlar ularning o'zaro aloqasini aniqlaydigan katta grafni yaratishdadir.

Globallashtirish

ing. - globalization

rus. - глобализация

Axborot texnologiyalari, mahsulotlari va tizimlarining butun dunyoga tarqalish jarayoni. U iqtisodiy va madaniy jihatlardan qaraganda uyg'unlashuvga olib keladi. Bu jarayonning tarafdorlari bundan keyingi taraqqiyot im-

koniylarini faqat global axborot jamiyatining rivojlanish sharoitlarida ko'rishadi. Opponentlar globallashuvning milliy madaniy qadriyatlariga keltiradigan xatarlari to'g'risida ogohlantirishmoqda.

Globallashuv jarayoni

ing. - globalization process

rus. - процесс глобализации

Yagona, umumjahon axborot-moliya makonini yaratish.

Izoh - Globallashuv yangi texnologiyalarsiz, birinchi navbatda, axborot texnologiyalarsiz mumkin emas va ko'p jihatdan, innovatsion iqtisodiyotga tayanadi.

Gofrlangan to'lqin o'tkazgich

ing. - corrugated waveguide

rus. - гофрированный волновод

Choklari bo'lmagan, devorlari gofirlangan, egiluvchan to'g'ri burchakli to'lqin o'tkazgich.

Goley kodlari

ing. - Golay codes

rus. - коды Голея

Xatolarni tuzatuvchi chiziqli blokli kodlar turkumi. Goley kodlari siklik kod sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Golografik televideniye

ing. - holographic television

rus. - голографическое телевидение

Uch o'lchamli obyekt illyuziyasini hosil qiluvchi uch o'lchamli televideniye. Televideniye, bunda sahna tasviri kogerent manbadan kelayotgan yorug'lik va shu manbaning o'zidan kelayotgan, lekin sahnadan akslangan yorug'lik o'rtasidagi interferensiya natijasida hosil bo'ladi.

Golografiya

ing. - holographics

rus. - голография

Fan va texnikaning, tabiati turlicha bo'lgan to'lqin maydonlarni yozish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan qurilmalar va usullar yaratish, ularni o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limi.

Gomogen tarmoq

ing. - homogeneous network

rus. - гомогенная сеть

Yagona dasturiy platforma yoki bir turdagi kompyuterlar asosida qurilgan lokal tarmoq.

Gopp kodlari

ing. - Goppa codes

rus. - коды Гоппы

Turli kriptotizimlarda ishlatiladigan, xatolarni tuzatuvchi kodlar. Gopp kodlaridan dalanish Gopp kodlarini dekodlashni qo'lda amalga oshirish mumkinligiga asoslangan (Gopp kodlari «yashirinadigan») chiziqli blokli kodlarni dekodlash. NP to'liq vazifa bo'lib, uni bajarish juda qiyin.

Gorizont orti aloqasi

ing. - trans-horizon communication, beyond-the-horizon communication

rus. - загоризонтная связь

Bevosita ko'rinishdan tashqarida joylashgan stansiyalar o'rtasidagi aloqa, bunda biror aktiv yoki passiv retranslyatorlar qo'llanilmaydi.

Izoh - Radioto'lqinlarning gorizont ortida tarqalishi difraksiya, refraksiya effektlari va atmosferaning qatlamlaridan qaytish hisobiga amalga oshiriladi.

Gorizont ortidagi trassa

ing. - transhorizon path, overhorizon path, beyond-line-of-sight path

rus. - загоризонтная трасса

Uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalar o'rtasida to'g'ri ko'rinish mavjud bo'lmagan dioto'lqinlarning tarqalish trassasi.

Izoh - Gorizont orti tarqalishda radioto'lqinlarning tarqalish mexanizmi dioto'lqinlarni troposfera (troposferali aloqa)ning bir xil emasligidan qayta nurlanishi yoki ionosfera qatlamlaridan (qisqa to'lqinli aloqa)ning bir xil emasligidan qayta nurlanishi yoki ionosfera qatlamlaridan (qisqa to'lqinli aloqa) qaytishiga asoslangan.

Gorizontali bo'yicha ajratish

ing. - horizontal resolution

rus. - разрешение по горизонтали

Tasvirming har bir gorizontali chizig'ida videomonitor tiklashi mumkin bo'lgan minimal tasvir elementlarining (chiziqlarining) soni yoki manba videosignalining bitta gorizontali chizig'ida bo'lgan videoaxborotning umumiy soni. Masalan, VHS videoyozuv formati gorizontali bo'yicha 240 ta, lazerli disk - 480 ta, DVD - 500 ta, HDTV - 1080 ta chiziqni tashkil qiladi.

Gorizontali portal

ing. - horizontal portal

rus. - горизонтальный портал

Umumiy tavsifga ega bo'lgan, turli mavzular bo'yicha xizmatlar taqdim etuvchi veb-sayt.

Gorizontal qutblangan to'lqin
ing. - horizontally polarized wave

rus. - горизонтально
поляризованная волна

Magnit maydon vektori Yer sirtiga nisbatan vertikal, elektr maydon vektori esa, gorizontal yo'nalgan, chiziqli qutblangan elektromagnit to'lqin.

Gorizontal va vertikal tekisliklardagi antenna yo'nalganlik diagrammasi
ing. - beam angles directional pattern in cartesian coordinate system

rus. - углы раствора главного лепестка диаграммы направленности антенны в горизонтальной и вертикальной плоскостях

Yo'nalishlar bilan hosil qilingan gorizontal va vertikal tekisliklardagi burchaklar, ular uchun antenning kuchayishi qabulning asosiy yo'nalishida kuchayishning maksimal qiymatidan 3 dB ga kam.

Gorizontal yo'nalganlik diagrammasi
ing. - horizontal directivity pattern

rus. - горизонтальная диаграмма направленности

Antenning gorizontal tekislikdagi yo'nalganlik diagrammasi.

Gradatsion buzilishlar
ing. - gradation distortions

rus. - градационные искажения

1. Gradatsion xarakteristikaning talab etilgandan og'ishi.
2. Kul rang shkala turli darajalarining noto'g'ri qayta tiklanishi.

Gradatsion xarakteristika
ing. - gradation characteristic

rus. - градационная характеристика
Televizion tasvir yorqinligining yoki yorqinlik signali darajasining tashqi obyekt yorqinligi yoki kiruvchi yorqinlik signali darajasiga bog'liqligi.

Gradatsiya
ing. - gradation

rus. - градация

Rang zichligining asta-sekin o'zgarishi, obyektning qo'shni qismlari yoki tegishli tasvir o'rtasidagi tonning o'zgarishi.

Gradiyent

ing. - gradient

rus. - градиент

Kompyuter grafikasida qurish usuli. Muayyan (asosiy) nuqtalarning rangi va shaffofligi belgilanib, qolgan nuqtalarning rangi va shaffofligi ularga nisbatan yoki muayyan matematik algoritmlar asosida hisoblanadi. Shu tarzda dastlabki va so'nggi nuqtalarning koordinatalari va rangini belgilab, bitta rangdan boshqa rangga tekis o'tishlarni hosil qilish mumkin.

Gradiyent sindirish ko'rsatgichli tola

ing. - graded-index fiber

rus. - волокно с градиентным показателем преломления

Sindirish ko'rsatgichi ko'ndalang kesimda, yorug'lik o'tkazuvchi o'tkazgichning chetidan uning o'zagi tomon ortib borgan holda tekis o'zgaradigan ko'p modali optik tola. Sindirish ko'rsatgichining gradiyentli profilda tola ichidagi nur sinishi, binobarin, oqim tezligi sinish ko'rsatgichi nisbatan keng o'tkazish polosasi ta'minlaydi.

Grafema

ing. - grapheme

rus. - графема

Yozma matnning eng kichik birligi (harf, raqam, iyeroglif, tinish belgisi).

Grafik

ing. - graph

rus. - график

Biror bir funksional bog'lanishning grafik tasvirlanishi.

Grafik adapter

ing. - enhanced graphics adapter (EGA)

rus. - графический адаптер

1. 1984-yilda ishlab chiqilgan yaxshilangan grafik adapter. VGA va SVGA adapterlari tomonidan siqib chiqarilgan. 640x350 piksellar uchun 16 xil rangga ega.

2. Shaxsiy kompyuterning, display qurilmaning grafik funksiyalarini ta'minlaydigan kengaytirish platasi.

Grafik akselerator

ing. - graphic accelerator

rus. - графический акселератор

Markaziy protsessordan foydalanmasdan, grafik ma'lumotlar bilan ko'plab operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan qurilma. Grafik akseleratorlar shartli ravishda uch turga bo'linadi: grafik qobiqlar uchun mo'ljallangan, uch o'Ichamli grafikani yaratish uchun mo'ljallangan (3D akseleratorlar), dinamik tasvirlarni tiklash uchun mo'ljallangan grafik akseleratorlar.

Grafik almashish formati

ing. - graphics interchange format (GIF)

rus. - формат графического обмена

Aniq nomlanishi – GIF89A; grafik tasvirni siqish usuli va grafik fayllar formati, Internet sahifalarida ko'proq ishlatiladigan format hisoblanadi; ma'lumotlarni yo'qotmasdan siqishni ta'minlaydi.

Grafik axborot

ing. - graphical information

rus. - графическая информация

Sxemalar, eskizlar, tasvirlar, grafiklar, diagrammalar, ramzlar ko'rinishida ifodalangan ma'lumotlar yoki xabarlar.

Grafik display

ing. - graphic display

rus. - графический дисплей

Ekranda nuqtalar matritsasini yuzaga keltirishni ta'minlaydigan tasvir va/yoki matnlarni yorituvchi display. Bu nuqtalar topologiyasi ko'pincha videografika matritsasi orqali aniqlanadi.

Grafik fayl

ing. - graphics file

rus. - графический файл

Grafik tasvirni ichiga oladigan fayl.

Grafik filtr

ing. - graphics filter

rus. - графический фильтр

Tasvirni bir grafik formatdan boshqasiga o'zgartiradigan yoki uning ustida qandaydir boshqa operatsiyalarni bajaradigan dasturiy modul.

Grafik format

ing. - portable network graphic (PNG)

rus. - графический формат

Grafik fayllarni almashish formati (GIF) bilan patent bo'yicha muammolar paydo bo'lganidan so'ng, GIF formatining o'rniga kiritilgan format, pikselga 48 bit gacha bo'lgan chuqurlikka ega bo'lgan rangga ega tasvirni saqlash imkoniyatini beradi, alohida alfa-kanalga ega va yo'qotishlarsiz siqilishi yaxshilangan.

Grafik formatlar

ing. - graphics file formats

rus. - графические форматы

Grafik fayl formatlari grafikani/rasmlarni saqlash va boshqarishning standart usulidir. Bu qo'llanma rasmlarni va boshqa grafikalarini raqamli rasmlar formatlar sifatida saqlaydi. Grafik formatlar pikselida yoki pikselga rastrlash (bir necha istisno bilan) qilinadigan (geometrik) vektorda yoziladi. Rasm/grafika piksellar panjara (ustunlar va qatorlar) sifatida bo'ladi; har bir piksel raqamlardan tashkil topgan, ular yorug'lik va rang darajasini bildiradi. Bu turdagi formatlarga jpg, tiff, gif, png, bmp va boshqalar kiradi.

Grafik hujjat

ing. - graphic document

rus. - графический документ

Obyekt tasviri chiziqlar, shtrixlar, yorug' va soya tomonlarni bo'yoqlarda ko'rsatish vositasida olingan tasviriy hujjat.

Grafik interfeys

ing. - graphic interface

rus. - графический интерфейс

Foydalanuvchining hisoblash tizimi bilan o'zaro aloqasini tashkil qiladigan grafik muhit. Grafik interfeys g'oyasi amaliy tizim to'g'risida axborot taqdim etishning tabiiyligidan foydalanishdan iborat. Foydalanuvchi interfeysining asosiy tushunchalari bo'lib, oyna va piktogramma hisoblanadi.

Grafik kichik tizim

ing. - graphics subsystem

rus. - графическая подсистема

Grafika bilan ishlash uchun mo'ljallangan, kompyuter apparat vositalari jami.

Grafik kompakt-disk

ing. - compact disc plus graphics (CD+G)

rus. - графический компакт-диск

Kompakt-diskka ma'lumotni yozish formati, uning asosiy spetsifikatsiyasiga qo'shimcha tariqasida kengaytirilgan tasviriy imkoniyatlar qo'shilgan.

Grafik ma'lumotlar bazasi

ing. - graphical database

rus. - графическая база данных

Grafik ma'lumotlar saqlanayotgan ma'lumotlar bazasi.

Grafik ma'lumotlar bilan almashish boshlang'ich standarti

ing. - initial graphic exchange specification

rus. - исходный стандарт обмена графическими данными

AQSh Milliy standartlar byurosi tomonidan uch o'lchamli geometrik ma'lumotlarni almashish imkonini ta'minlash uchun e'lon qilingan standart.

Grafik protsessor

ing. - graphics chip processor

rus. - графический процессор

Grafik teztatgichlar uchun mo'ljallangan protsessor. Hozirgi vaqtda 64 va 128 razryadli grafik protsessorlardan foydalaniladi.

Grafik qobiq

ing. - graphic shell

rus. - графическая оболочка

Foydalanuvchilarning grafik foydalanish interfeysini amalga oshiradigan va tizim administratorlarining operatsion tizim bilan foydalanish interfeysini amalga oshiradigan operatsion tizimning kichik tizimi.

Grafik redaktor (muharrir)

ing. - graphics editor

rus. - графический редактор

Kompyuter yordamida ikki o'lchovli tasvirlarni tuzish va tahrir qilish imkonini beradigan dastur (yoki dasturlar paketi).

Izoh - Grafik redaktorlarning turlari: 1. Rastri grafik redaktorlar. Nisbatan ommalashgan redaktorlar: Microsoft Windows va MAC OS X operatsion tizimlar uchun Adobe Photoshop. GNU/Linux va boshqa POSIX standartiga muvofiq operatsion tizimlari uchun GIMP redaktori. 2. Vektorli grafik redaktorlar. Nisbatan om-

malashgan redaktorlar: Corel Draw, Macromedia Free Hand - Windows uchun, Inkscape - barcha operatsion tizimlar uchun.

Grafik rejim

ing. - graphics mode

rus. - графический режим

Chiziqalar va belgilarni ekranda nuqtalar bilan chiqarish orqali tavsirlash rejimi. Grafik rejimda tasvir bevosita shakl nuqtalarini birlashtirish orqali tuziladi, xuddi «sichqoncha»ning ko'rsatgichi singari. Bundan tashqari, u belgilarni (quyuq shrift yoki kursiv) chop etishda ularning tashqi ko'rinishini oldindan ko'rish imkonini ham beradi.

Grafik soprotsessor

ing. - graphics coprocessor

rus. - графический сопроцессор

Markaziy protsessor bilan bitta platada joylashgan, grafik komandalarning bajarilishi topshiriladigan (yoki o'zi tutib oladigan) grafik protsessor. Markaziy protsessorga tushadigan hisoblash yukini kamaytiradi va kompyuter videotizimining ishlash tezligini oshiradi.

Grafik stansiya

ing. - graphics workstation

rus. - графическая станция

Uch o'lchamli tasvirlarni qayta ishlash uchun grafik teztatgichli katta quvvatga ega kompyuter.

Grafik sxema

ing. - flowchart

rus. - графическая схема

Masalarni yechish algoritmining grafik taqdim etilishi, unda simvollardan operatsiyalarni, oqim ma'lumotlarini tavsiflash va boshqarish uchun foydalaniladi.

Grafik teztatgich

ing. - graphics accelerator

rus. - графический ускоритель

Chiziqalar va yuzalarni chizish, konturlarni to'ldirish, bo'yash, yashirin chiziqalarni o'chirish kabi murakkab grafik operatsiyalarni bajarishni tezlashtiruvchi plata yoki ixtisoslashtirilgan mikrosxema (mikroprotsessorlar to'plami).

Grafika

ing. - diagram

rus. - графика

Matnli ma'lumotlar va grafik timsollar bir-lashtirilgan kompyuterda ma'lumotlarni vizual taqdim etishning eng umumiy usuli. Mashina tashuvchilarda grafik tasvirning o'zini taqdim etishning rastrlı va vektorlı grafika kabi ikki turi bor.

Grafika chizadigan

ing. - plotter

rus. - графопостроитель

Egri va to'g'ri chiziqlar o'tkazish yo'li bilan tasvir chizadigan qurilma. Ikki turdagi, ya'ni barabanlı va planshetlı grafika chizuvchi qurilmalar ishlab chiqariladi. Barabanlı (rulonlı) grafika chizuvchi qurilmada tasvir chiqariladigan qog'oz yoki plyonka barabanga mahkamlanadi. Barabanlı grafika chizuvchi qurilmalar ixcham, ishlatishda qulay hamda katta hajmdagi chizmalar bilan ishlash imkonini beradi. Planshetlı (yassi) grafika chizuvchilarda qog'oz yoki plyonka tekislikda joylashadi. Tekislik ustidan metall konstruksiya o'rnatiladi, u yozuv blokini bir vaqtning o'zida ikki koordinata o'qi bo'yicha tekislik bo'ylab siljitish imkonini beradi. Yozuv blokining turiga qarab grafika chizuvchi qurilmalar peroli, sharrachali va elektrostatik xillarga bo'linadi. Grafika chizuvchilarning ikki toifasi farqlanadi. Vektorlı turda yozuvchi blok vektorlı tasvirlarni ikki yo'nalishda siljib chizadi. Rastrlı grafika chizuvchi qurilmalarda rastrlı tasvirlar rastır nuqtalari yordamida yaratiladi.

Grafikani optimallashtirish

ing. - graphics optimization

rus. - оптимизация графики

Tasvir fayllari o'lchamlarini, ularning maqbul sifatini saqlagan holda, mumkin qadar kichraytirish. Veb-sahifa yaratishda, uning sahifalarini yuklanish tezligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

Grafikadagi nuqta

ing. - data point

rus. - точка на графике

Grafikada tasvirlanadigan sonlı qiymatlar-nıng istalgan jufti.

Grafikon

ing. - graphicon

rus. - графикон

Kompyuter grafikasi, mashina ko'rishi, tasvirlar va videoni qayta ishlash bo'yicha Rossiyada har yili o'tkaziladigan katta xalqaro anjuman.

Granulyatsiyalangan shovqin

ing. - granular noise

rus. - гранулированный шум

Kvantlash tufayli sodir bo'lgan va tasvirning bir xil yoki qisman bir xil qismlarida yorqinlik va/yoki ranglilik fluktuatsiyasi kabi namoyon bo'ladigan vizual nuqson.

Gregori antennasi

ing. - Gregorian antenna

rus. - антенна Грегори

Ikki ta: parabolik (asosiy) va elliptik (yordamchi) ko'zgulardan iborat bo'lgan, o'ta yuqori yoki ultra yuqori chastotali keskin yo'naltirilgan antenna. Antennaning bunday konstruksiyasida ochilish yuzasidan foydalanish ko'effitsiyenti ortadi va qutblanish xususiyatlari yaxshilanadi.

Grey kodi

ing. - Gray code

rus. - код Грея

Ketma-ket keladigan elementlari bir razryadda farq qiladigan ikkilik kod (masalan, 000, 001, 011, 101, 100, 110, 010).

Grid texnologiyasi, konsepsiyasi

ing. - Grid

rus. - концепция, технология Grid

Hisoblashlarni virtuallashtirishga qaratilgan hisoblash jarayonini tashkil qilish usuli. Bunda vazifaning qismlari tarmoqning barcha bo'sh resurslari bo'ylab taqsimlanadi. Dasturiy ta'minotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri.

Guruh

ing. - group

rus. - группа

Foydalanuvchilar, kompyuterlar, kontaktlar va boshqa guruhlar majmui. Guruhlar foydalanish huquqini huqurqirish yoki xabarlarini tarqatish ro'yxati sifatida qo'llanilishi mumkin. Tarqatish guruhlari faqat elektron pochtda qo'llaniladi. Xavfsizlik guruhlari

erkin foydalanishni boshqarishda hamda xabarlarini tarqatish ro'yxatida ham ishlatiladi.

Guruh ichida chaqiruvni tutib qolish

ing. - group call pickup

rus. - перехват вызова внутри группы

Foydalana olish kodini terish yoki «Group Pickup» (SIP telefon) tugmasini bosish orqali guruhning boshqa terminaliga kelgan kiruvchi chaqiruvni qabul qilish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - Agar bir necha chaqiruv olingan bo'lsa, ko'p qo'ng'iroq qilgani tutib qolinadi.

Guruh (jamo) bo'lib foydalana olish

ing. - group access

rus. - групповой (коллективный) доступ

Ikki yoki undan ko'p foydalanuvchining paketli yoki interaktiv rejimda hisoblash tizimidan birgalikda foydalanishi.

Guruh manzillari

ing. - group address

rus. - групповой адрес

Obyektlar to'plamini aniqlaydigan manzil. Ma'lumotlar bloki shu manzilga atalgan.

Guruhiy aloqa seansi

ing. - group session

rus. - групповой сеанс связи

Bir nechta foydalanuvchi ishtirok etadigan aloqa seansi.

Guruhiy dasturiy ta'minot

ing. - groupware

rus. - групповое программное обеспечение

Mutaxassislar guruhining loyiha ustida yoki taqsimlangan hisoblash tizimidagi yoki tarmoqdagi ma'lumotlar bilan birgalikda yana-da samarali ishlashi uchun foydalaniladigan tarmoq dasturiy ta'minoti.

Guruhiy imzo

ing. - group signature

rus. - групповая подпись

1991-yilda Chom va Van Xeyst tomonidan taklif qilingan raqamli imzo sxemasi, guruhning istalgan a'zosiga xabarni, tekshirish paytida, xabar guruh a'zolaridan biri tomonidan imzo qo'yuvchining shaxsi aniqlashtirilmasdan imzolanganini aniqlash mumkin bo'ladigan tarzda imzolash imkonini beradi.

Guruhiy xabar

ing. - book message

rus. - групповое сообщение

Bir vaqtda bir necha adresatga uzatiladigan xabar; odatda, uni uzatishda raqam terishdan foydalanilmaydi.

Guruhiy chaqiruv

ing. - collective call

rus. - групповой вызов

Radiotarmoqlardagi, bitta chastotada ishlaydigan (bitta guruhga mansub) abonentlar uchun belgilangan chaqiruv turi.

Guruhli aloqa kanali

ing. - conference circuit

rus. - групповой канал связи

Bir nechta radiostansiyaning, odatda, qayd etilgan chastotada birgalikda ishlashi ta'minlanadigan aloqa kanali.

Izoh - Radiostansiyalardan har biri ushbu kanal bo'yicha xabarlarini qabul qilishi va uzatishi mumkin, agarda uning uchun guruhli (dispatcherli) aloqa rejimi o'rnatilgan bo'lsa.

Guruhli kechikish

ing. - group delay

rus. - групповая задержка

Umumiy chegara kattaligiga yetgan qisman farq qiladigan chastotali amplitudaga teng ikkita ustma-ust to'lqinlar bilan taqdim etilishi mumkin bo'lgan signalning ikki nuqtasi o'rtasidagi tarqalish vaqti.

Guruhli kodlash

ing. - group coding

rus. - групповое кодирование

Sanoq qiymatlarining sanoq o'rtacha qiymatlaridan og'ishining belgilar matritsasi uzatiladigan blokli kodlash.

Guruhli signal

ing. - aggregate signal

rus. - групповой сигнал

Multipleksor chiqishidagi turli axborot manbalaridan keladigan birmuncha past tezlikli kirish signallarining birlashishi natijasi bo'lgan yuqori tezlikli signal yoki raqamli oqim.

Guruhli tezlik

ing. - group velocity

rus. - групповая скорость

Elektromagnit to'lqin energiyasini ko'chirish tezligi.

Guruhli uzatish

ing. - multicast, batched transmission

rus. - групповая передача

1. Xabarni uzatish rejimi, bunda xabar bir vaqtda tarmoq uzellari guruhiga yuboriladi.
2. Har bir xabar qabul qilinganligini orada tasdiqlamay turib, bir stansiyadan boshqa biriga ikki yoki undan ortiq xabarni uzatish usuli.

Guruhli yetkazib berish

ing. - multicast

rus. - групповая доставка

Keng ko'lamli eshittirishning maxsus shakli, unda paketlar faqat foydalanuvchilarning muayyan guruhiga yetkazib beriladi.

Guruhni chaqirish

ing. - group call

rus. - вызов группы

Bitta yoki bir nechta guruh abonentlarining barchasini bir vaqtda chaqirish, odatda yarim dupleks aloqa rejimida amalga oshiriladi.

Izoh - Chaqirishni initsializatsiya qilish bitta tugmachani bosish orqali bajariladi, bunda bog'lanishni o'rnatish (0,3-0,5) s dan oshmaydi. Guruhdagi abonentlar sonidan qat'i nazar, guruhli chaqiruvda faqat bitta aloqa kanalidan foydalaniladi.

Go'shagi ko'tarilgan telefon

bilan bog'lanish xizmati

ing. - babyphone service

rus. - услуга связи с телефоном

при поднятой трубке

Go'shagi ko'tarilgan telefon apparati bilan, chaqiriluvchi abonentning xonasini eshitib nazorat qilish imkoniyatini ta'minlagan holda, bog'lanishni o'rnatish imkoniga ega xizmat.

H

Haftada bir bo'ladigan kollegial seminar

ing. - weekly collegiate workshop

rus. - еженедельный коллегийный

семинар

Davlat va xo'jalik organlarining ixtisoslashtirilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'linmalarining vakillari uchun, «Elektron hukumat» tizimi doirasida loyihalarning amalga oshirilishi muhokama qilinadigan seminar.

Hajmiy grafika

ing. - three-dimensional graphics

rus. - объемная графика

Qar.: Uch o'lchamli grafika.

Halqa tarmog'i

ing. - ring network

rus. - кольцевая сеть

O'zagi davriy halqa bo'lgan kabelli lokal tarmoq. Bunday tarmoqda davriy halqa fizik ulanishlar vositasi vazifasini bajaradi. Ushbu halqaning ishlash ishonchligiga butun tarmoqning ishlay olish qobiliyati bog'liq. Mono halqa kanalining uzilishi tarmoq faoliyatining to'xtashiga olib keladi. Shu sababli sodda halqali kanal tarmoq qiymati eng kam bo'lishi lozim bo'lgan hollardagina qo'llaniladi. Yuqori ishonchlik halqa tarmog'ida qayta ulanadigan konsentratorli halqa ishlatiladi, u tarmoqning ishdan chiqqan qismlarini uzib qo'yadi. Bundan ham yuqori ishonchlikni juft halqa ta'minlay oladi, u ikki halqadan biri ishdan chiqqan holatlarda ham ishlash imkoniyatiga ega.

Halqali tekshirish

ing. - back-to-back testing

rus. - кольцевая проверка

Raqamli axborotning ishonchligini «shleyf» bo'yicha baholash usuli. Liniyaning qabul qilish tomonidan, teskari yo'nalishda qabul qilingan barcha ma'lumotlar oqimini retranslyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Uzatuvchi tomonidan qabul qilingan va dastlab uzatilgan ketma-ketliklar taqqoslanadi, keyin xato qabul qilingan belgilar soni aniqlanadi.

Halqali chiqish

ing. - loop out

rus. - петлевой выход

Konvertordan qabul qilinadigan o'ta yuqori chastotali (O'YuCh) signal chiqariladigan ajratgich. U kirish signalini boshqa resiverga «tranzit» uzatish uchun mo'ljallangan.

Halqasimon antenna panjarasi

ing. - ring array, circular array

rus. - кольцевая антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari atrofida joylashgan antenna panjarasi.

Halqasimon rezonator

ing. - ring resonator, ring cavity

rus. - кольцевой резонатор

Elektromagnit tebranishlar yopiq kontur bo'yicha tarqaladigan optik rezonator.

Hamjamiyat

ing. - community

rus. - сообщество

Umumiy manfaatlar yo'lida birlashgan odamlar guruhi. Odatda, hamjamiyatlar forum va bloglar asosida vujudga keladi.

Hamkorlik

ing. - buddy-heap

rus. - партнерская куча

Linux operatsion tizimida xotira bloklari-ning bo'linishiga va qo'shni bo'sh bloklarni birlashtirishga asoslangan jismoniy xotirani taqsimlash usuli.

Hamмага ma'lum

xavfsizlik identifikatori

ing. - well-known security identifier

rus. - общеизвестный идентификатор

безопасности

Muhofaza tizimi uchun qayd qilingan sonli qiymatga va belgilanishga ega xavfsizlik identifikatori.

Haqiqiy manzil

ing. - real address

rus. - действительный адрес

Absolyut mashina manzili, xotiraning haqiqiy yacheykasi.

Haqiqiy vaqt

ing. - real time

rus. - реальное время

Jarayon sodir bo'layotgan vaqt muddati.

Haqiqiy vaqt obyektning kirish signallariga yoki ma'lumotlarga javoban shunday ta'sirlanishini belgilaydiki, bu holda u chiqish signalarini yoki ma'lumotlarni yetarlicha tez ishlab chiqishga ulguradi. Shu asosda haqiqiy vaqt tizimlari quriladi, haqiqiy vaqtda analitik qayta ishlash bajariladi.

Haqiqiy vaqtda analitik qayta ishlash

ing. - on-line analytical processing (OLAP)

rus. - аналитическая обработка в

реальном времени

Ma'lumotlarning tezkor tahlili, ma'lumotlarni onlayn analitik qayta ishlash, muhim qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun ma'lumotlarning tezkor tahlili.

Izoh - Ma'lumotlar ustidagi operatsiyalar OLAP-mashinalar tomonidan amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni saqlash uchun MOLAP, ROLAP va HOLAP dan foydalaniladi. OLAP atamasi Ye. Kodd (E.F.Codd) tomonidan 12 ta qoida bilan birga 1993-yilda taklif qilingan.

Haqiqiy vaqtning transport protokoli

ing. - real-time transport protocol

rus. - транспортный протокол

реального времени

Ma'lumotlarni bitta yoki undan ortiq adresatga berilgan chegaralarda kechikish bilan yetkazishni kafolatlaydigan transport protokoli, ya'ni ma'lumotlar real vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Haqiqiylik, asllik

ing. - authenticity

rus. - аутентичность, подлинность

1. Mantiqiy obyekt tasdiqlanganiga o'xshashligini kafolatlovchi xususiyat.

2. Ma'lumotlarning haqiqiy bo'lish xususiyati yoki tizimlarning ma'lumotlar haqiqiylikini ta'minlay olish xususiyati.

Haqiqiylikni aniqlashdagi almashish

ing. - authentication exchange

rus. - обмен при установлении

подлинности

Axborot almashinuvi yordamida qandaydir obyektning haqiqiylikini aniqlash uchun mo'ljallangan mexanizm.

Haqiqiylikni kriptografik aniqlash

ing. - cryptographic authentication

rus. - криптографическое

установление подлинности

Simmetrik shifrlash yoki ochiq kalit bilan shifrlashdan foydalaniladigan kriptografik o'zgartirishlarga asoslangan holda, haqiqiylikni aniqlash.

Haqiqiylikni tasdiqlash

ing. - authentication

rus. - подтверждение подлинности

Haqiqiylikni tasdiqlashga yo'naltirilgan va axborot almashinuvi ko'zda tutiladigan mexanizm.

Haqiqiylikni tekshirish

ing. - authentication

rus. - проверка подлинности

Foydalanuvchining, o'zini aynan shu odam deb ko'rsatishligini tasdiqlovchi protsedura. Oddiy holda foydalanuvchining, uning hisobga olish yozuvida saqlanadigan, parolni bilishi tekshiriladi.

Haqiqiylikni tekshirish protokoli

ing. - challenge handshake

authentication protocol (CHAP)

rus. - протокол проверки подлинности

Foydalanuvchining paroli va boshqa ma'lumotlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiruvchi haqiqiylikni tekshirish protokoli. Undan foydalangan holda uzoqlashgan nuqtadagi mijoz o'z shaxsiy ma'lumotlarini serverga shifrlangan ko'rinishda uzatadi. Microsoft korporatsiyasi Windows uchun mo'ljallangan MS-CHAP protokolini ishlab chiqqan.

Har doim, doimiy

ing. - forever

rus. - навсегда

Dasturning ishlashi davomida doimiy foydalaniladigan xususiyat, argument yoki parameter.

Har tomonga yo'naltirilgan antenna

ing. - omnidirectional

(nondirectional) antenna

rus. - всенаправленная антенна

Barcha azimutal yo'nalishlar bo'yicha har qanday vaqtda nurlanish xossasi bir xil bo'lgan antenna.

Har tomonga yo'naltirilgan uya

ing. - omni cell

rus. - всенаправленная сота

Har tomonga yo'naltirilgan antenna va bitta tayanch stansiyaga ega bo'lgan, odatda, zonaning markazida joylashgan mobil aloqa tarmog'idagi xizmat ko'rsatish zonasi.

Har tomonga yo'naltirilgan

yo'nalganlik diagrammasi

ing. - omnipattern

rus. - всенаправленная

диаграмма направленности

Antennadan bir xil masofada o'Ichangan elektr maydon kuchlanganligi barcha yo'nalishlar uchun bir xil bo'lgan yo'nalganlik diagrammasi.

Har tomonlama havolalar jadvali

ing. - cross-reference table

rus. - таблица перекрестных ссылок

Translyator, assembler yoki komponovkachi beradigan va har bir identifikatori uchun tur, manzil, aniqlash joyi va foydalanish joylarining ro'yxati ko'rsatilgan jadval.

Harakat, ta'sir, amal

ing. - action

rus. - действие

Foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan va dastur tomonidan qabul qilinadigan har qanday harakat.

Harakatlanuvchi tasvirlar

sohasidagi ekspertlar guruhi

ing. - moving picture experts group (MPEG)

rus. - группа экспертов в области

движущихся изображений

Video va audio uchun standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilot. MPEG 1983-yilda tashkil etilgan. Standartlashtirishda bu guruhga tasvirlarni zichlashtirish usullari, ularni uzatish va tiklash sohasi ajratilgan. 1993-yilda videodisklarda ishlatiladigan MPEG texnologiyasi standartlari ishlab chiqildi. 1995-yilda DVD raqamli videodisk pleyerlari, televizorlar, HDTV, videokameralar, yo'ldosh tarmoqlarning raqamli televidion qabul qilgichlari uchun standartlar paydo bo'ldi.

Harakatni raqamli interpolyatsiyalash

ing. - digital motion interpolation

rus. - цифровая интерполяция движения

Kamcrani tez harakatlantirganda, keskin burishlar paytida yoki kadr yoyish chastotasi 100 Hz bo'lganda, yuguruvchi satrda to'laqin-simon xalaqitlarning paydo bo'lishiga yo'l

qo'ymaslik maqsadida, tasvirning yetishmayotgan fazasini interpolyatsiyalash.

Harbiy tarmoq

ing. - military network

rus. - военная сеть

1984-yilda harbiy maqsadlarda ishonchli tarmoq xizmatini ta'minlash uchun ARPANET dan ajralib chiqqan tarmoq.

Harf-raqamli kodlash

ing. - alphanumeric coding

rus. - буквенно-цифровое кодирование

Harflar, sonlar va alifboning boshqa ramzlardan tashkil topgan koddan foydalanib kodlash.

Havo fideri

ing. - air feeder line

rus. - воздушный фидер

Simlarning parallel joylashishi bir-biriga nisbatan liniya bo'ylab ayrim masofada joylashgan izolyatorlar bilan qayd etilgan simli liniya ko'rinishidagi fider.

Havo kabel

ing. - aerial cable

rus. - воздушный кабель

Havoda muallaq turadigan, ustunlar, bino devorlari va boshqa tayanchlar tub turadigan telekommunikatsiya kabeli.

Havo ko'chma yo'ldoshli xizmati

ing. - aeronautical mobile satellite service

rus. - воздушная подвижная

спутниковая служба

Ko'chma yo'ldoshli xizmat, bunda ko'chma yer usti stansiyalari havo kemasining bortiga o'rnatiladi; bu xizmatda qutqarish vositalari stansiyalari va falokat joyini ko'rsatuvchi radiomayoq stansiyalari ham qatnashishi mumkin.

Havo radionavigatsiya yo'ldoshli xizmati

ing. - aeronautical radionavigation

satellite service

rus. - воздушная радионавигационная

спутниковая служба

Yer stansiyalari havo kemasining bortiga o'rnatiladigan radionavigatsiya yo'ldoshli xizmati.

Havola, aloqa kanali

ing. - link

rus. - ссылка, канал связи

1. Boshqa veb-sahifa, fayl, Internet-resurs bilan aktiv ulanish.

2. Ikki kompyuter (ma'lumotlarni oluvchi va jo'natuvchi) o'rtasidagi kommunikatsion yo'lining har qanday turi. Atama, odatda, global tarmoqlarga ko'proq taalluqli.

Havola biti

ing. - reference bit

rus. - бит ссылки

Sahifaga murojaat qilinmagan bo'lsa 0 ga teng va agar sahifaga murojaat qilingan bo'lsa 1 ga teng bo'lgan sahifalar jadvalining element bit.

Havolalar jadvali

ing. - reference table

rus. - таблица ссылок

Dasturni translyatsiya qilish jarayonida kompilyator tuzadigan jadval.

Havorang-to'q-qizil-sariq-qora

ing. - cyan-magenta-yellow-black (CMYK)

rus. - голубой-пурпурный-желтый-черный

Rangli tasvirlarni monitorlar va printerlarda (purkagich printerlarda) chop etish uchun RGB ranglar jilosiga muqobil tizim. Dastlabki uch rangning aralashmasi qora rang beradi, ammo har doim ham toza chiqmaydi, shuning uchun yaxshi printerlarda qora rang uchun, bo'yoqlarning aralashmasi emas, alohida kartrij ishlatiladi.

Hayotiy sikl

ing. - life-cycle

rus. - жизненный цикл

Vaqida obyekt (masalan, mahsulot yoki tizim) mavjudligi bosqichlarining ketma-ketligi.

Ha/yo'q

ing. - yes/no (y/n)

rus. - да/нет

1. Interaktiv tizimning muayyan qaror qabul qilishga bo'lgan so'rovi.

2. Terminalda tanlash imkoniyati. Foydalanuvchiga, tanlash ixtiyoriga bog'liq holda yoki u (ha) yoki n (yo'q) ni bosish taklif qilinadi.

Himoya bloki

ing. - protector

rus. - блок защиты

Aloqa vositalarini o'ta yuqori kuchlanish va toklardan himoya qilish uchun mo'ljallangan blok. Kabelli tarmoqlardagi kuchli impulsli xalqlar ayniqsa xavfidir.

Himoya intervali**ing.** - pedestal**rus.** - защитный интервал

Videosignal darajalarining qora daraja va so'ndirish darajasi o'rtasidagi farqi.

Himoya nisbati**ing.** - protection ratio**rus.** - защитное отношение

1. Foydali radiosignal darajasining radioqabul qiluvchi qurilmaning kirishidagi radioxalaqit darajasiga bo'lgan minimal nisbati, bunda radioelektron vosita ishlashining talab etiladigan sifati ta'minlanadi.

2. Foydali signal va xalaqit quvvatlari nisbatining minimal qiymati, bunda signallarning berilgan sifat bilan qabul qilinishi ta'minlanadi (detsibellarda ifodalangani).

Himoya profili**ing.** - protection profile**rus.** - профиль защиты

1. Amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan, iste'molchining o'ziga xos ehtiyojlariga javob beradigan, qandaydir toifadagi baholash obyektlari uchun mo'ljallangan, xavfsizlik talablarining majmui.

2. Funktsional jihatdan to'la, aprotatsiyadan o'tgan, ko'p marotaba foydalanish uchun mo'ljallangan, standartlashtirilgan talablar to'plami.

Himoyaga ega xotira**ing.** - protected storage**rus.** - память с защитой

Istalgan yacheykasiga ruxsat etilmagan tarzda kira olishdan muhofaza qiluvchi maxsus vositalarga ega bo'lgan xotira.

Himoyalangan**ing.** - secured**rus.** - защищённый

Obyektning holati, bunda u tashqi negatív omillar ta'siridan barqaror bo'ladi.

Himoyalangan axborotlashtirish**texnik vositasi****ing.** - protected technical

facility of informatization

rus. - защищённое техническое

средство информатизации

Qayta ishlanadigan axborot yaxlitligi buzilishdan va texnik kanallar orqali chiqib ketishdan muhofaza qilish vositalari kompleksi bo'lgan axborotlashtirish texnik vositasi.

Himoyalangan tranzaksiyalar protokoli**ing.** - secure electronic transaction**rus.** - протокол защищённых транзакций

Tarmoq muhitlarida, shu jumladan, Internetda amalga oshiriladigan kelishuvlar to'g'risidagi axborot konfidensialligini saqlashning yuqori darajasini, magnit va intellektual kartalardan foydalanib, to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar yaxlitligini va to'lov operatsiyalari barcha ishtirokchilarining autentifikatsiya qilinishini ta'minlaydigan ochiq standart.

Himoyalash**ing.** - protect**rus.** - защищать

Dasturiy ta'minotni buzishdan himoyalash.

Himoyalash qurilmasi**ing.** - protector unit**rus.** - защитное устройство

O'ta kuchlanish yoki ortiqcha toklardan yoki har ikkisidan himoyalovchi qurilma.

Himoyalovchi harakat**ing.** - protective action**rus.** - защитное действие

Asosiyga qarama-qarshi yo'nalishdagi antenna bilan yoki burchaklarning ma'lum belgilangan sektorida, shu signal bilan taqqoslaganda asosiy yo'nalishda qabul qilinadigan signalning pasayishi.

Hisobdan chiqarish**ing.** - cancel**rus.** - гашение

Pochta jo'natmasining jo'natilganligini yoki olinganligini bildiruvchi, markadan takroran foydalanishning oldini olish maqsadida qo'l shtempeli, shtempellash mashinasi yoki sharikli ruchka bilan qo'yiladigan pochta markasidagi belgi yo'nalishda qabul qilinadigan shtempellash belgisi.

Hisobdorlik**ing.** - accountability**rus.** - подотчетность

Tizim subyektlari faoliyatini nazorat qilish va ma'lum harakatlar uchun javobgarlikni o'rnatish uchun ularni individual identifikatorlar bilan bog'lashga imkon beruvchi tizim xususiyati. AKT xavfsizligi tamoyillaridan biri.

Hisobga olishni boshqarish**ing.** - accounting management**rus.** - управление учётом

Tegishli imkoniyatlar taqdim etish (o'tkazish qobiliyatiga va xavfsizlik talablariga nisbatan) maqsadida, ma'lumotlar to'plash hamda turli tarmoq resurslaridan yakka va guruh bo'lib foydalanishni muvofiqlashtirish jarayoni.

Hisobga olish ma'lumotlari

ing. - registration details

rus. - учетные данные

Hisobga olish predmeti to'g'risidagi ma'lumotlar va hisobga olishni yuritish doirasida to'planadigan, qayta ishlanadigan va saqlanadigan xizmatga oid ma'lumotlar.

Hisobga olish ma'lumotlarining

ishonchligi

ing. - reliability of credentials

rus. - достоверность учетных данных

Ma'lumotlarning, yuqori aniqlikda ma'lumotlarga o'zgartirish kiritilganlik faktini, mohiyatini, kiritilish vaqti va uni bajargan shaxslarni aniqlash imkonini beradigan xossasi.

Hisobga olish ma'lumotlarining

yuridik ahamiyati

ing. - legal significance of credentials

rus. - юридическая значимость

учетных данных

Hisobga olish ma'lumotlarining elektron ma'lumotlar asosida huquq va majburiyatlar belgilanish imkoniyatini ta'minlaydigan xossasi.

Hisobga olish strategiyasi

ing. - account policy

rus. - стратегия учёта

Ko'p foydalanishli va tarmoq operatsion tizimlari xavfsizlik tizimidagi qoidalar to'plami, foydalanuvchining tizim bilan ishlash paytida o'zini qanday tutishini va tizim resurslaridan foydalanishga ruxsat berilishini belgilaydi.

Hisobga olish yozuvi

ing. - data account

rus. - учётная запись

Xavfsizlik tizimi subyektini identifikatsiya qiluvchi axborot. Hisobga olish yozuvining ko'rsatgichi bo'lib, uning xavfsizlik identifikatori hisoblanadi. Foydalanuvchilar, guruhlar, kompyuterlar va domenlarning hisobga olish yozuvlari ajratiladi.

Hisobga olish yozuvini blokirovkalash

ing. - account lockout

rus. - блокировка учетной записи

Tizimda qayd etilishga muvaffaqiyatsiz urinishlar soni muayyan chegaradan oshganda, muayyan hisobga olish yozuvini blokirovkalash imkonini beradigan funktsiya.

Hisobga olish yozuvlari dispetcheri

ing. - account manager

rus. - диспетчер учётных записей

Foydalanuvchilarning hisobga olish yozuvini, shuningdek, shu foydalanuvchilar turgan guruhlarini yaratish, o'zgartirish va o'chirish imkonini beradigan operatsion tizim dasturi yoki vositasi.

Hisobga olishni uyushtiruvchi

ing. - organizer of accounting

rus. - организатор учёта

Mustaqil ravishda hisobga olish ma'lumotlari to'planishini, qayta ishlashini va saqlanishini amalga oshiruvchi yoki boshqa shaxsni bu faoliyatni to'liq yoki qisman amalga oshirish uchun vakil qilgan yoki zimmasiga yuklagan shaxs.

Hisob-kitoblar tizimi

ing. - accounting system

rus. - система расчетов

Xizmatlar ko'rsatishning texnologik jarayoni ishtirokchilari o'rtasida sarflangan pul xarajatlari to'g'risidagi axborotning taqsimlanishini ta'minlovchi, foydalanuvchilar, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va hisob-kitob markazlari (uchastkalari, guruhlari), umumiy foydalanish xizmatlarini taqdim etish punktlari, to'lov punktlari hamda normativ-ma'lumotnoma axboroti, normativ-ma'lumotnoma hujjatlarining majmui.

Hisoblagich

ing. - counter

rus. - счетчик

1. Dasturdagi o'zgaruvchi yoki qandaydir operatsiyaning takrorlanish sonini aniqlaydigan apparat registri, masalan, siklni hisoblagich.
2. Biror narsaning, masalan, foydalanilgan elektr energiyasi, gaz yoki suvning miqdorini o'lchaydigan va qo'shimcha ravishda, kattaligini, darajasini yoki jadalligini qayd etadigan qurilma.

Izoh - Hisoblagich berilgan vaqt davri ichida iste'mol qilingan biror narsaning jami miqdori o'lchanishi yuzasidan javob beradi.

3. Biror-bir sayt yoki sahifaga kiruvchilar sonini hisoblashga mo'ljallangan dastur. Zamonaviy hisoblagichlar kiruvchilarning noyobligini va bir soat yoki sutkada sahifaga kiruvchilarning o'rtacha sonini hisoblash imkonini beradi.

Hisoblash

ing. - computation

rus. - вычисление

Axborotni kompyuterda qayta ishlash jarayoni.

Hisoblash eksperimenti

ing. - computing experiment

rus. - вычислительный эксперимент

Kompyuter modeli ishlab chiqilgan hodisa, jarayon, mashinani o'rganish usuli. Hisoblash eksperimentining sifati, modelning real obyektga o'xshashligiga va hisoblanadigan parametrlarni belgilaydigan eksperimentatorga bog'liq. Hisoblash eksperimentining boshqa har qanday eksperimentdan afzalligi, tezligining yuqori bo'lishligida va xarajatlarning nisbatan kamligida. Texnika va informatikada, matematika, fizika, ximiya, biologiya, ekologiyada keng foydalaniladi.

Hisoblash jarayoni

ing. - computation

rus. - вычислительный процесс

Hisoblash tizimi holatlarining vaqtda dastur belgilaydigan almashinishi.

Hisoblash lingvistikasi

ing. - computational linguistics

rus. - вычислительная лингвистика

Lingvistika va sun'iy intellekt oralig'idagi fan. Elektron hisoblash mashinasi yordamida tabiiy tillarning formal xususiyatlarini o'rganish va analiz-sintez jarayonlarini hamda elektron hisoblash mashinasida tabiiy til matnlarini tushunishni modellash bilan shug'ullanadi.

Hisoblash majmui

ing. - computer complex

rus. - вычислительный комплекс

Yagona hisoblash tizimi sifatida ishlaydigan ikki yoki undan ko'p kompyuterlar majmui.

Hisoblash mashinasi

ing. - computer

rus. - вычислительная машина

Matematik, asosan axborot bilan bog'liq va-

zifalarni hal qilishda ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar va qurilmalar kompleksi. Mashinani boshqarish ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlar ko'rinishida mashinaga kiritiladigan algoritmlar bo'yicha amalga oshiriladi. Dasturlar va ma'lumotlar mashina xotirasida saqlanadi. Asosiy qurilmasi markaziy processor.

Hisoblash muhiti

(tizimi, tuzilmasi, tarmog'i)

ing. - computing fabric

rus. - вычислительная среда

(система, структура, сеть)

Tarmoqning jami resurslaridan foydalanib, parallel, taqsimlangan hisoblashlar ko'zda tutiladigan, kristaldagi funksional blok va tizimdan tortib, global, regional va muassasa kompyuter tarmoqlarigacha bo'lgan turli darajadagi hisoblash vositalari (to'liq bog'langan, taqsimlangan, matritsali) arxitekturasini. Zarur bo'lganda, eng murakkab va resurs ko'p talab qiladigan vazifalarni hal qilish uchun maksimal hisoblash quvvatini ta'minlash imkonini beradi.

Hisoblash murakkabligi

ing. - computational complexity

rus. - вычислительная сложность

Qaysidir algoritmlar bajaradigan ish hajmi kirish ma'lumotlarining miqdoriga bog'liqligi funksiyasini bildiruvchi informatika va algoritmlar nazariyasidagi tushuncha. Hisoblash murakkabligini o'rganuvchi bo'lim hisoblashlar murakkabligi nazariyasi deb nomlanadi.

Hisoblash resurslarining almashinuvi

ing. - peer-to-peer computing (P2P)

rus. - обмен вычислительными ресурсами
Internetga ulangan bir necha kompyuter o'rtasida, hisoblash va boshqa resurslari bilan ayirboshlash imkoniyatini ta'minlaydigan axborot texnologiyasi.

Hisoblash tarmog'i

ing. - computer network

rus. - вычислительная сеть

1. Axborotning taqsimlangan qayta ishlashini tashkil qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro bog'langan va bu bog'lanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

uzatish tarmog'i va/yoki texnik vositalarning majmui.

2. Hududiy jihatdan tarqoq ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari, telekommunikatsiyalar va ma'lumotlar uzatish vositalari va/yoki tizimlarining, foydalanuvchilarga uning resurslaridan masofadan va jamoaviy foydalanish imkonini beradigan o'zaro bog'langan majmui.

Hisoblash tarmog'ini muhofaza qilish

ing. - network security

rus. - защита вычислительной сети

Apparat, dasturiy va kriptografik muhofaza qilish usullari hamda vositalaridan, shuningdek tashkiliy tadbirlardan foydalanish yo'li bilan, foydalanuvchilarning tarmoq elementlari hamda resurslardan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishlariga yo'l qo'ymaslik.

Hisoblash texnikasi

ing. - computing technology

rus. - вычислительная техника

Axborotni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan mehnat talab masalalarning, jumladan, hisoblash jarayonini sonli, qisman yoki to'liq avtomatlashtirish yo'li bilan hal etilishini osonlashtirish va tezlashtirish uchun qo'llaniladigan usullar va yo'llar, texnik va matematik vositalar majmui.

Hisoblash texnikasi obyekti

ing. - computing machinery object

rus. - объект вычислительной техники

O'zida hisoblash texnikasi vositalari kompleksini ifodalaydigan, axborotni qayta ishlashning muayyan funksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan statsionar yoki ko'chma obyekt. Izoqlar

1. Hisoblash texnikasi obyektlariga avtomatlashtirilgan tizimlar, avtomatlashtirilgan ish joylari, axborot-hisoblash markazlari va hisoblash texnikasi vositalarining boshqa komplekslari kiradi.

2. Hisoblash texnikasi obyektlariga, shuningdek, hisoblash texnikasining, axborotni qayta ishlashning mustaqil funksiyalarini bajaradigan aynim vositalari ham kiradi.

Hisoblash texnikasi vositalarining

(avtomatlashtirilgan tizimning)

muhofaza qilinganlik ko'rsatgichlari

ing. - protection criterions of facilities of computing machinery (computer-based system)

rus. - показатели защищенности средств вычислительной техники (автоматизированной системы)

Muhofaza qilinganlik ko'rsatgichlarini aks ettiruvchi va hisoblash texnikasi vositalari (avtomatlashtirilgan tizim) ning muhofaza qilinganlik klassiga muvofiq daraja va kenglik bo'yicha o'zgaradigan talablarning ma'lum guruhi bilan tavsiflanadigan hisoblash texnikasi vositalari (avtomatlashtirilgan tizim)ning xarakteristikasi.

Hisoblash texnikasi vositalarining

(avtomatlashtirilgan tizimning)

muhofaza qilinganlik turkumi

ing. - security class of facilities of

computing machinery

(computer-based system)

rus. - класс защищенности

средств вычислительной техники

(автоматизированной системы)

Hisoblash texnikasi vositalari (avtomatlashtirilgan tizim)ni axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilish bo'yicha talablarning muayyan majmui.

Hisoblash texnikasi vositasiga

mikrosekundli impuls xalaqit

ing. - microsecond impulse

disturbance to a computer

rus. - микросекундная импульсная помеха

средству вычислительной техники

Davomiyliigi bir mikrosekunddan bir millisekundgacha bo'lgan oraliqda yotuvchi, hisoblash texnikasi vositasiga ta'sir qiladigan impulsli xalaqit.

Hisoblash tizimi

ing. - computer system

rus. - вычислительная система

Hisoblash texnikasining muayyan amaliy masalalarini hal etish uchun mo'ljallangan moddiy va mantiqiy (dasturiy) vositalar majmui.

Hisoblash tizimidan qasddan foydalanish

ing. - computer fraud

rus. - злоумышленное использование

вычислительной системы

Shaxsiy, odatda moliyaviy foyda olish maqsadida hisoblash tizimi ichida axborot bilan manipulyatsiya qilishga qaratilgan har qanday faoliyat.

Hisoblash tizimining muhofazasi
ing. - computer system protection
rus. - защита вычислительной системы
Qar. - Kompyuter muhofazasi.

Hisoblash tizimlari sohasidagi strategiya loyihasi, CSPP guruhi
ing. - computer systems policy project (CSPP)

rus. - проект по стратегии в области вычислительных систем, группа CSPP
AQShning o'n bitta boshqaruvchi yirik kompyuter kompaniyasidan iborat assotsiatsiya. AQSh axborot texnologiyalarining yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi.

Hisoblashga qaytarib bo'lmaydigan funktsiya
ing. - one-way function

rus. - вычислительно необратимая функция
Berilgan argument bo'yicha funktsiyaning qiymati oson hisoblanadigan va funktsiyaning berilgan qiymatiga asosan uning argumentini hisoblash qiyin bo'lgan funktsiyalar.

Hisobot
ing. - report
rus. - отчёт

Foydalanuvchining so'roviga ko'ra to'ldiriladigan va ekranga, fayl yoki bosmaga chiqariladigan, maxsus shakllantiriladigan chiqish shakli. Hisobotlarda sarlavha, sahifalarning raqamlari, ko'rsatuvchi yakunlar, o'rtacha qiymatlar, hisoblab chiqariladigan maydonlar va h.k. bo'ladi.

Hisobotlar dasturi generatori
ing. - report program generator
rus. - генератор программ отчётов
Hisobotlar formalarini (report) dasturlash uchun IBM korporatsiyasi tomonidan 1965-yilda ishlab chiqilgan til.

Hisobotlar generatori
ing. - report generator
rus. - генератор отчётов
Dasturchi bo'lmagan foydalanuvchiga o'z ma'lumotlar bazasi uchun hisobotlar shaklini tayyorlash imkonini beradigan dastur (yoki dasturlar paketi).

Hisobotlar va ko'chirmalar amaliy tili
ing. - practical extraction and report language (PERL)
rus. - практический язык извлечений и отчетов
Umumiy shlyuz interfeysi ssenariylarini yaratish uchun mo'ljallangan dasturlash tili. Talqin qiluvchi turdagi kuchli til. XX asrning 80-yillarida Lari Uoll tomonidan yaratilgan.

Hodisa
ing. - event
rus. - событие

1. Muhim normal yoki normaldan farq qiluvchi holatning paydo bo'lishi.
2. Voqealarning muqarrar bir-biriga to'g'ri kelib qolish holati.

Izohlar

1. Voqea-hodisa bir yoki bir necha marta yuzaga kelishi va bir qancha sababga ega bo'lishi mumkin.
2. Voqea-hodisa ma'lum yoki noma'lum bo'lishi mumkin.
3. «Voqea-hodisa» atamasi o'rtniga «insident» yoki «baxtsiz hodisa» atamalaridan ham foydalanish mumkin.

Hodisa alomati
ing. - event flag

rus. - признак события
Voqeaning bajarish indikator yoki muvaffaqiyatli bajarilishi hisoblanadigan parametrlar yoki tashqi o'zgaruvchi.

Hodisalar jurnali
ing. - event log

rus. - журнал событий
Operatsion tizimdagi ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarni qayd etuvchi reyestr. Tizim administratorlarining ishini yengillashtirish uchun xizmat qiladi.

Hodisalarni kuzatuvchi
ing. - event viewer

rus. - просмотрщик событий
Jurnaldan hodisalar to'g'risidagi xabarlarini o'qish uchun mo'ljallangan dastur.

Holat
ing. - status

rus. - состояние
Obyekt o'zgaruvchan parametrlarining ko'plab barqaror qiymatlari majmuasini ifodalaydigan tushuncha.

Holat satri**ing.** - status line**rus.** - строка состояния

Dasturning ishchi oynasidagi, jarayonlar va instrumentlar (vositalar) xossalari to'g'risidagi joriy va yordamchi ma'lumotlar aks etadigan, ajratilgan soha.

Hoshiya**ing.** - border effect**rus.** - окантовка

Predmetlarning chetini yoritadigan maxsus effekt.

Hududiy boshqarma**ing.** - territorial management**rus.** - территориальное управление

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining boshqarmasi. Asosiy vazifalari hududiy darajada mintaqaning axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishining borishini tahlil qilish, litsenziya bitimlari shartlarining bajarilishi, radiochastota spektridan foydalanish, shuningdek, Milliy axborot tizimi va «Elektron hukumat» tizimini shakllantirish va rivojlantirish doirasida joylardagi davlat hokimiyat organlarida tadbirlarni amalga oshirish hamda bajarilishini nazorat qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Hujjat**ing.** - document**rus.** - документ

Ilovada yaratilgan, o'ziga xos nom bilan saqlangan va keyinchalik shu nom orqali foydalaniladigan ixtiyoriy fayl. Bu faylning nomi o'zi joylashgan katalogda takrorlanmasligi kerak.

Hujjat aylanishi**ing.** - flow of documents**rus.** - документооборот

Hujjatlar yaratilgan yoki olingan paytdan boshlab bajarilishi tugallanguncha: tashkildan jo'natilguncha va/yoki arxivga yuborilguncha ularning harakatlanishini tashkil qilish bo'yicha ishtar.

Hujjat aylanishining hajmi**ing.** - volume of document management**rus.** - объем документооборота

Tashkilotga kelib tushgan va u tomonidan ma'lum davr uchun tuzilgan hujjatlar soni.

(Hujjat) formati**ing.** - format (of the document)**rus.** - формат (данных)

Ma'lumotlar turiga cheklov o'rnatilgan ma'lumotlarni taqdim etishning aniq shakli.

Izoh - Fayllar formati, kodlash, giperformati strukturalari.

Hujjat muallifi**ing.** - author of the document**rus.** - автор документа

Hujjatni tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Hujjat nusxasi**ing.** - document copy**rus.** - копия документа

Asl hujjatlardagi axborotni va uning barcha tashqi belgilari yoki yuridik kuchga ega bo'lmagan qismini to'liq qayta tiklaydigan hujjat.

(Hujjat) qonuniyligi**ing.** - legitimacy (of the document)**rus.** - легитимность (документа)

Namoyish qilinayotgan hujjat taqdimoti, hujjatning hayot sikli davomida foydalanilgan texnologiyalarning qonuniyligini obyektiv tasdiqlaydigan parametrlarga ega ekanligini ko'rsatuvchi hujjat xususiyati.

Hujjat rezolyutsiyasi**ing.** - document resolution**rus.** - резолюция документа

Mansabdor shaxs tomonidan hujjatga qo'yilgan va u qabul qilgan qarorga ega yozuvdan iborat rekvizit.

Hujjat tarkibi**ing.** - document content**rus.** - содержимое документа

Hujjat to'g'risidagi axborotni aks ettiradigan va odam idrok qilishi uchun mo'ljallangan ma'lumotlar.

Hujjat turining nomi**ing.** - name of the document type/

document type label

rus. - наименование вида документа

Hujjatning turini belgilaydigan hujjat rekviziti.

Hujjat versiyasi

ing. - document version

rus. - версия документа

Hujjatni ishlab chiqishning ma'lum bosqichiga mos keluvchi elektron hujjat.

Hujjatlar

ing. - documents

rus. - документы

Foydalanuvchiga tegishli bo'lgan axborotlar majmui. Shuningdek, hujjat egasi va administratoridan boshqa kishi kira olish huquqiga ega bo'lmagan maxsus papka.

Hujjatlar nomenklaturasi

ing. - works nomenclature

rus. - номенклатура дел

Tashkilotda ularni saqlash muddatlarini ko'rsatib, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan holatda yuritiladigan ish nomlarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

Hujjatlar va topshiriqlarni marshrutlash

ing. - routing of documents and assignments

rus. - маршрутизация

документов и заданий

Bajaruvchining ish joyiga hujjatlarni va topshiriqlarni yetkazish. Marshrutlashning ikkita: On-line (foydalanuvchining shaxsiy papkasida topshiriq kartochkasiga yorliqni joylashtirish) va Off-line (topshiriqni elektron pochta orqali jo'natish) usuli mavjud. Hujjat bilan ishlayotgan foydalanuvchi tomonidan topshirilishi mumkin bo'lgan, bir foydalanuvchidan boshqasiga hujjatning harakatlanish marshrutini aniqlash.

Hujjatlarni boshqarish tizimi

ing. - document management system (DMS)

rus. - система управления документами

Tashkilot hujjatlarini tuzish, tahrir qilish, tarqatish, saqlash, izlash, qabul qilish, ro'yxatga olish, hisobini yuritish va boshqa qator operatsiyalarni bajaruvchi dasturiy tizim.

Hujjatlarni indekslash

ing. - document indexing

rus. - индексирование документов

Axborot-qidiruv tili atamalarida so'rovlar va hujjatlar mazmunini tavsiflash jarayoni; hujjatga, uning ma'naviy mazmunini aks ettiradigan asosiy so'zlar to'plamini belgilash.

Hujjatlarni qayta ishlash

ing. - document processing

rus. - обработка документов

Faylni (hujjatni) izlash, yaratish, tahrir qilish, saqlash.

Hujjatlarni ro'yxatga olishning

avtomatlashtirilgan shakli

ing. - dynamic form (method) of

document registration/automated form of document registration

rus. - автоматизированная форма

регистрации документов

Maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanib hujjatni ro'yxatga olish usuli.

Hujjatlarning obyekt modeli

ing. - document object model (DOM)

rus. - объектная модель документов

Bitta veb-sahifadagi obyektlar va tasvirlarning manipulyatsiya qilinadigan usullarini belgilaydigan WWW konsorsium standarti.

Hujjatlashtirilgan axborot

ing. - documented information

rus. - документированная информация

1. Moddiy tashuvchida qayd etilgan va uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan rekvizitlarga ega axborot.

2. Tashkilotni boshqarish va uning ishlashi uchun zarur axborot, shuningdek, axborot saqlanadigan moddiy tashuvchi.

Izoh - Hujjatlashtirilgan axborot har qanday shaklda va har qanday tashuvchida taqdim etilishi, shuningdek, har qanday manbadan olinishi mumkin.

Hujjatlashtirilmagan axborot

ing. - undocumented information

rus. - недокументированная информация

Jismoniy shaxslar tashiydigan yoki ramz, timsol, signal, texnik yechim, jarayonlar shaklida fizik maydon va muhitlarda aks ettirilgan ma'lumotlar.

Hujjatlashtirish

ing. - documenting

rus. - документирование

Belgilangan qoidalarga ko'ra turli tashuvchilardagi axborot yozuvi.

Hujjatli axborot-qidiruv tizimi

ing. - document information

retrieval system (DIRS)

rus. - документальная информационно-поисковая система

Zarur axborotni o'zida saqlovchi hujjatlarni izlash uchun mo'ljallangan tizim. Hujjatli axborot-qidiruv tizimining izlash massivi hujjatlarning izlash tasviri yoki hujjatlarning o'zidan tashkil topgan bo'ladi.

Hujjatli nusxa

ing. - hard copy

rus. - документальная копия

Fayl yoki ekran ichidagining, qog'oz, plyonka yoki boshqa elektron bo'lmagan tashuvchidagi nusxasi.

Hujjatni bajarish muddati

ing. - document accomplishment deadline

rus. - срок исполнения документа

Normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy-farmoyish hujjatlari yoki rezolyutsiyalarda belgilangan muddat.

(Hujjatni) tahrir qilish

ing. - modification/adjustment

rus. - редактирование (документа)

Hujjat tarkibi, tuzilmasi va/yoki atributarini tuzish va/yoki o'zgartirishni o'z ichiga oladigan hujjatni qayta ishlash jarayoni.

Hujjatning elektron qayd

qilish-nazorat kartochkasi

ing. - electronic registration-control card of the document

rus. - электронная регистрационно-контрольная карточка документа

Hujjat rekvizitlarini kiritish uchun mo'ljallangan maydonlar to'plami shakli.

Hujjatning hayotiy sikli

ing. - document life cycle

rus. - жизненный цикл документа

Hujjatni shakllantirish onidan arxivga (saqlashga) yoki yo'q qilish uchun topshirishgacha bo'lgan jarayon.

Hujjatning qayd etilganligi

ing. - fixedness of the document

rus. - фиксированность документа

Hujjatning, uni taqdim etish shaklidan qat'i nazar, unda mavjud ma'lumotlarni ifodalaydigan funksional xususiyati.

Hujjatning yuridik kuchi

ing. - legal value of the document

rus. - юридическая сила документа

Rasmiy hujjatning, uni tayyorlagan organ vakolati doirasida va o'ratilgan rasmiylashtirish tartibiga ko'ra, unga amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra xabar qilinadigan xususiyati.

Hujum

ing. - attack

rus. - атака

1. Aktivlarni yo'q qilish, ochish, o'zgartirish, blokirovkalash, tutib olish, ruxsat etilmagan foydalanish huquqini olish yoki aktivlardan ruxsatsiz foydalanishga urinish.
2. Buzg'unchi tomonidan avtomatlashtirilgan tizim zaifliklaridan foydalanish yo'li bilan tahdidni amalga oshirish harakati.
3. Xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini chetlab o'tish maqsadida yoki ularning kamchiliklaridan foydalanish maqsadida qo'llaniladigan harakatlar.
4. Axborotni qo'lga kiritish, unga putur yetkazish (obro'sizlantirish), tarmoq xizmati rejimini buzish va boshqa maqsadda tizim himoyasini buzishga urinish.
5. Tizim himoyasini yengib o'tishga urinish. Hujum ma'lumotlarni o'zgartirishga olib keluvchi aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin. Izoh - Axborotga oid (information) o'zaro hamkorlik jarayonida tomonlarni autentifikatsiya qilish funksiyasini bajaradigan kriptografik tizim.

Hujum potensiali

ing. - attack potential

rus. - потенциал атаки

Baholash obyektiga hujum qilishda ishlatish uchun kerak bo'lgan, buzg'unchining kompetentlik, resurslar va motivatsiya ko'rsatgichlarida ifodalangan kuch o'lchovi.

Hujum yuzasi

ing. - attack surface

rus. - поверхность атаки

Kompyuter tizimlari axborot xavfsizligi vazifalarini yechishda qo'llaniladigan va mumkin bo'lgan zaif joylarning umumiy sonini bildiradigan atama. Serverda qancha ko'p komponent o'ratilgan bo'lsa, mumkin bo'lgan zaif joylarning soni shunchalik ko'p

va demak, hujum yuzasi shunchalik katta bo'ladi.

Hujumlarni aniqlash

ing. - attack detection

rus. - обнаружение атак

Tizim obyektlariga bo'ladigan hujumlarni aniqlash uchun qo'llaniladigan mexanizm.

Hujumlarni aniqlaydigan

IETF ishchi guruhi

ing. - intrusion detection working group

rus. - рабочая группа IETF по выявлению атак

Hujumlarni aniqlash muhitida Internet standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan guruh.

«HUKUMATGA OID»

belgili pochta jo'natmasi

ing. - postage prepaid

«HUKUMATGA OID»

rus. - почтовое отправление с отметкой «HUKUMATGA OID»

Pochta aloqasi xizmatlaridan foydalanganda afzalliklar taqdim etiladigan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatda ko'rsatilgan alohida toifadagi foydalanuvchilar tomonidan jo'natiladigan pochta jo'natmasi.

Hukumat shlyuzi

ing. - government gateway

rus. - правительственный шлюз

Turli davlat idoralari axborot tizimlarining integratsiyasi ta'minlanadigan ilovalar to'plami.

Huquqiy informatika

ing. - legal informatics

rus. - правовая информатика

Huquqda (yoki huquqiy tizimda) axborot, axborot jarayonlari va axborot tizimlarini o'rganuvchi fan. Huquqiy informatikaning tadqiqot obyektlari:

- huquqiy tizimda axborot maxsus obyekt turi sifatida;

- huquqiy tizimda axborot jarayonlari va ular bajarilayotganda paydo bo'ladigan axborot munosabatlari;

- huquqiy maqsadlarda qo'llaniladigan hisoblash texnikasi, aloqa va telekommunikatsiyalar vositalari asosida yaratiladigan axborot tizimlari, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari va ularni ta'minlash vositalari, jumladan, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklari, ularning tizimlari, boshqa axborot texnologiyalari.

Huquqiy kibernetika

ing. - legal cybernetics

rus. - правовая кибернетика

Huquqiy tizimning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimi sifatidagi axborot xususiyatlarini o'rganuvchi fan.

Huquqlar

ing. - rights

rus. - права

Tizimda biror bir operatsiyalarni bajarish huquqi. Administrator tomonidan boshqariladi.

Huquqni belgilovchi (huquqni yuzaga

keltiradigan) hisobga olish hodisasi

ing. - entitlement credentials changes

rus. - правоустанавливающее

(правопорождающее) учетное событие

Yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki tugallanishi davlat hisobga olish tizimida qayd etilmasdan mumkin bo'lmagan huquq va/yoki majburiyatlarini yuzaga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki tugatadigan hisobga olish hodisasi.

Huquqni tasdiqlaydigan (guvohlik

beradigan) hisobga olish hodisasi

ing. - rights confirming (certifying)

credentials changes

rus. - правоподтверждающее

(удостоверяющее) учетное событие

Muayyan shaxs huquqlari va/yoki majburiyatlarining yuzaga kelishini, o'zgarishi yoki tugallanishini aks ettiradigan hisobga olish hodisasi (huquqni belgilaydigan hujjatlar yoki hodisalarga nisbatan ikkilamchi hodisa).

I

Identifikator

ing. - identifier

rus. - идентификатор

1. Tegishli baholash obyekti kontekstida mantiqiy obyekt (masalan, foydalanuvchi, jarayon yoki disk) qat'iy identifikatsiya qilinganligining taqdim etilishi.

Izoh – Bunga simvollar qatori misol sifatida ko'rsatilishi mumkin. Foydalanuvchi-odam uchun uning to'liq yoki qisqartirilgan ismi, yo (shaxsiy) laqabi ko'rsatilishi mumkin.

2. Obyektni tavsiflovchi va uni boshqa ko'plab obyektlar orasida ajratib ko'rsatish imkonini beruvchi kod yoki ramziy nom. Identifikator tarmoq turini, protokolini, port raqamini va b.q. ko'rsatishi mumkin.

3. Foydalana olish subyekti yoki obyektning farqli belgisini aks ettiruvchi, foydalana olishni identifikatsiya qilish vositasi. Foydalanuvchilar uchun foydalana olishni identifikatsiya qilishning asosiy vositasi parol hisoblanadi.

Identifikator turkumi

ing. - naming class

rus. - класс идентификатора

Identifikatorning qiymat bilan bog'lanish va undan foydalanish usulini belgilovchi toifa.

Identifikatsion (kodli) karta

ing. - ID card (code)

rus. - идентификационная (кодовая) карта
Foydalanuvchining axborot resursidan foydalana olishini identifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan, kodli so'z (parol) tushirilgan, perforatsiyalangan qog'oz yoki magnit karta.

Identifikatsion belgi

ing. - identification mark

rus. - идентификационная метка

Kodlangan yoki shifrlangan ko'rinishdagi haqiqiy axborot (muallif, dastur nomi).

Identifikatsion ma'lumotlar

ing. - credential

rus. - идентификационные данные

Autentifikatsiya vaqtida so'raladigan va foydalanuvchini, guruhning aloqasini yoki identifikatsiyaning boshqa atributlarini ifodalaydigan axborot.

Identifikatsion ma'lumotlar ombori

ing. - credential vault

rus. - хранилище идентификационных данных

Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan identifikatsion ma'lumotlar saqlanadigan, konfiguratsiyalangan repozitori.

Identifikatsion ma'lumotlar puli

ing. - credential pool

rus. - пул идентификационных данных

Bir xil foydalana olish huquqlariga ega identifikatsion ma'lumotlar guruhi. Pulni xizmatlar guruhiga ham yoki xizmatlarning guruhlar to'plamiga ham berish mumkin.

Identifikatsion xavfsizlik siyosati

ing. - identity-based security policy

rus. - идентификационная политика безопасности

Foydalaniladigan tarmoq resurslarining, tarmoq foydalanuvchilarining, foydalanuvchilar guruhining identifikatsiyalovchi xossalari va/ yoki atributlariga asoslangan xavfsizlik siyosati.

Identifikatsiya qilish

ing. - identification

rus. - идентификация

1. Foydalana olish subyektlari va obyektlariga identifikator berish va/yoki taqdim etilayotgan identifikatorni o'zlashtirilgan identifikatorlar ro'yxati bilan solishtirish.

2. Tizimning ayrim komponentlarini, odatda tizimda qabul qilinadigan noyob nomlar (identifikatorlar) yordamida aniqlash jarayoni.

3. Foydalanuvchining shaxsini, unga tizim bilan ishlashda huquq va imtiyozlarining ma'lum to'plamini berish maqsadida aniqlash, masalan, foydalanuvchiga taalluqli xavfsizlik identifikatorini belgilash.

Identifikatsiyalash

ishonchligini oshirish qurilmasi

ing. - identification integrity increase device

rus. - устройство повышения

достоверности идентификации

Telekommunikatsiyalar kanallari orqali olisdagi terminallardan uzatilgan identifikatsiya xatolari tuzatilishini ta'minlaydigan dasturiy-apparat qurilma.

Izoh – Xatolarni tuzatish uchun turli usullar; xabarlarini uzatuvchi tomonga original bilan taqqoslash uchun qayta yuborish; xabar bilan bir vaqtda nazorat razryadlarini yuborish; ortiqcha kodlardan (Xemming kodi, siklik kodlar) foydalanish va h.k. qo'llaniladi.

Identifikatsiyalash tizimi

ing. - identification system, ID system

rus. - система идентификации

Axborotgaoid(informatsion)o'zaro hamkorlik jarayonida tomonlarni autentifikatsiya qilish funksiyasini bajaradigan kriptografik tizim.

Ideogramma

ing. - ideogram

rus. - идеограмма

Obyektni, butun so'zni, tushunchani va ular bilan qo'shib keladigan tovush elementlarini bildiradigan, shartli grafik belgi.

Idoralararo elektron hamkorlik

ing. - interagency electronic interaction

rus. - электронное межведомственное взаимодействие

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinish.

Idoralararo elektron so'rov

ing. - interdepartmental electronic request

rus. - межведомственный

электронный запрос

Davlat organining, davlat xizmati ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumot taqdim etilishi to'g'risida, talabnoma beruvchining so'rovi asosida so'raladigan hujjatlar va ma'lumotga ega bo'lgan tashkilotlarga elektron hujjat shaklida yuborilgan talabnomasi.

Idoralararo elektron o'zaro hamkorlik

ing. - interagency electronic interaction

rus. - межведомственное электронное взаимодействие

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinish.

Idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tizimi

ing. - system of interagency electronic interaction

rus. - система межведомственного электронного взаимодействия

Mahalliy hokimiyat organlariga, kredit tashkilotlariga (banklarga), nodavlat pensiya fondlariga, bu tizimning boshqa qatnashchilariga, fuqarolar va tashkilotlarga elektron shaklda davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni almashinish imkonini beradigan axborot tizimi.

Idoralararo integratsion platforma

ing. - interagency integration platform

rus. - межведомственная интеграционная платформа

Idoralararo o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida elektron hukumat axborot tizimlarini integratsiyalash uchun mo'ljallangan apparat-dasturiy vositalar majmui.

Idoralararo kompyuter tarmog'i

ing. - interagency computer network

rus. - межведомственная компьютерная сеть
Bitta yoki bir necha davlat doirasida bir necha idoralarning lokal va korporativ tarmoqlarini birlashtiruvchi axborot-hisoblash tarmog'i.

Idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i

ing. - interdepartmental data

transmission network

rus. - межведомственная сеть

передачи данных

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatadigan davlat organlarining idoraviy va idoralararo axborot resurslari va elektron hukumat markaziy ma'lumotlar bazalari o'rtasida o'zaro hamkorlik uchun belgilangan tarmoq.

Idoraning rasmiy sayti

ing. - official website of the agency

rus. - официальный сайт ведомства

Internet tarmog'ida noyob manzilga ega bo'lgan, tashkilotlar va fuqarolarga tegishli idoraning faoliyati to'g'risidagi axborotdan, shuningdek, axborot bilan bog'liq va boshqa xizmatlardan (servislardan) foydalana olishni ta'minlaydigan, davlat organi axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlarining majmui.

Ifloslanish

ing. - contamination

rus. - загрязнение

Bitta maxfiylik grifi yoki xavfsizlik toifasidagi ma'lumotlarni maxfiylik grifining darajasi pastroq bo'lgan yoki boshqa xavfsizlik toifasidagi ma'lumotlarga kiritish.

Ifoda

ing. - expression

rus. - выражение

Matematik formula va/yoki nisbat bilan ifodalangan, ma'lumotlar ustida qandaydir operatsiyalar bajarilishini dasturlash tilida yozish. Operatsiyalar belgilari (operatorlar) bilan birlashtirilgan o'zgaruvchilar, konstan-talar, funksiyalardan (ularning barchasi operandlar deb ataladi) iborat. Operatsiyalar unar (bitta operand bilan), binar (ikkita operand bilan) bo'ladi. Arifmetik, mantiqiy va simvulli ifodalar mavjud.

Ignasimon yo'nalganlik diagrammasi

ing. - pencil-beam pattern

rus. - игольчатая диаграмма направленности

Antennaning maksimal nurlanish o'qiga nisbatan simmetrik bo'lgan tor yo'nalganlik diagrammasi.

Ijaradagi liniya

ing. - leased line

rus. - арендуемая линия

Monopol (yakka tartibda) foydalanish uchun abonentga (tashkilot yoki xususiy shaxsga) ajratilgan, «nuqta-nuqta» turidagi, kommutatsiyalanmaydigan yer usti yoki yo'ldoshli aloqa liniyasi.

Ijaraga olingan kanal

ing. - rented channel

rus. - арендованный канал

Tarmoq operatori tomonidan tarmoq foydalanuvchisiga shartnoma asosida ijaraga berilgan kanal.

Ijtimoiy informatika

ing. - social informatics

rus. - социальная информатика

Jamiyatda axborot harakatlanishi qonuniyat-lari va shakllari to'g'risidagi fan. Informati-kaning ilmiy tadqiqotlarning yangi fanlararo sohasini bildiruvchi bo'limi.

Ijtimoiy muhandislik

ing. - social engineering

rus. - социальная инженерия

Kompyuter tizimlariga texnik vositalardan foydalanmasdan hujum qilish usuli. Bu usul inson omiliga, uning o'zligiga asoslangan.

Ijtimoiy munosabatlar

ing. - public relations

rus. - общественные отношения

Ijtimoiy subyektlar o'rtasida hayotiy ne'mat-lar taqsimlanishida ijtimoiy adolat bo'lishi va subyektlarning tengligi, shaxsning qaror topish va rivojlanish sharoitlari, moddiy, ij-timoiy, ma'naviy ehtiyojlar qondirilishi yuza-sidan amalga oshiriladigan munosabatlar.

Ijtimoiy tarmoq

ing. - social network

rus. - социальная сеть

Internetda ijtimoiy o'zaro munosabatlarni qurish, aks ettirish va tashkillashtirish uchun mo'ljallangan platforma, onlayn-servis, veb-sayt.

Ikki bog'lanishli topologiya

ing. - two-connected topology

rus. - двусвязная топология

Uzellarning har bir jufti, kam deganda, ikkita bog'lovchi liniyaga ega bo'ladigan tarmoqning tuzilmaviy sxemasi.

Ikki diapazonli

(ikkita diapazonda ishlash)

ing. - dual band

rus. - двухдиапазонный

(работа в двух диапазонах)

Turli chastota diapazonlarida, masalan, GSM 900 va GSM 1800 ishlay oladigan mobil tele- fon.

Izoh - Dual Band markasi bo'lgan GSM tarmoqlarining telefonlari va uskunasi ikkita chastota diapazonida ishlay oladi.

Ikki fazali kod

ing. - biphase code

rus. - бифазный код

Birining davri taktili intervalga, ikkinchisi esa taktili intervalning yarmiga teng bo'lgan ikki holat ikkita chastota impuls-lari orqali uzatila-digan kod.

Ikki hissa almashinuv tezligiga ega

bo'lgan SDRAM

ing. - double data rate SDRAM

(DDR SDRAM)

rus. - SDRAM с удвоенной

скоростью обмена

DDR SDRAM mikrosxemasi (texnologiyasi,

xotirasi) sinxron dinamik tezkor xotira qurilmasi mikrosxemalarining turi bo'lib, unda ma'lumotlar uzatish takt signalining ikkala frontida ham amalga oshiriladi, bu esa ma'lumotlar almashinuvi tezligini ikki hissa oshirish imkonini beradi.

Ikki kanalli (n-kanalli) televizion server

ing. - two (n)-channel TV-server

rus. - двухканальный (n-канальный)

телевизионный сервер

Ikki (n ta) mustaqil ishlaydigan televizion kanalga ega televizion server.

Ikki ko'zguli antenna

ing. - two-mirror antenna

rus. - двухзеркальная антенна

Ikki ta asosiy reflektor va kontreflektor ko'zgdan iborat bo'lgan ko'zguli antennalar. Izoh - Antennaning ikki ko'zguli sxemasi antenna yo'nalganlik diagrammasi yon yuproqlarining kichik darajasini ta'minlaydi, shuning uchun u ko'proq uzatuvchi antennalarda ishlatiladi.

Ikki liniyalı ulanish

ing. - dual homing

rus. - двухлинейное подключение

Abonent terminalini bir vaqtda tarmoqning ikki ta uzelliga ulash. Ikkinchi liniya, odatda rezerv hisoblanadi, ya'ni u orqali normal ish sharoitlarida ishlash qobiliyatini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan uncha katta bo'lmagan xizmatga oid oqim uzatiladi.

Ikki marta bosish

ing. - double click

rus. - двойной щелчок

«Sichqoncha» tugmasini ikki marta tez bosish. Foydalanuvchining grafik interfeysida obyektini tez tanlash yoki qandaydir ishni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ikki nuqta

ing. - colon

rus. - двосточие

Dasturlash tilida qatordagi operatorlarni ajratish uchun qo'llaniladi. Masalan, Beysik tilida bir satrda yozilgan operatorlar ikki nuqta orqali ajratiladi.

Ikki nuqtali aloqa protokoli

ing. - point-to-point protocol (PPP)

rus. - протокол двухточечной связи

SLIP protokolinig davomchisi. Bu pro-

tol kol marshrutizatorni marshrutizator bilan va xost-mashinani tarmoq bilan sinxron va asinxron aloqa liniyalari bo'yicha ulashni o'rnatadi. Agar SLIP protokoli faqat IP-protokoli bilan ishlash uchun loyihalashtirilgan bo'lsa, RRR protokoli esa tarmoq sathidagi bir necha protokollar bilan IP, IPX va ARA protokollarini qo'shgan holda, ishlash uchun loyihalashtirilgan. RRR protokoli, shuningdek, axborotni muhofaza qilishning o'rnatilgan mexanizmiga ega: SNAR va RAR protokollari.

Ikki nuqtali bog'lanish

ing. - point to point connection

rus. - двухточечное соединение

Faqat ikki ta punkt o'rtasida o'rnatiladigan bog'lanish.

Ikki nuqtali topologiya

ing. - point-to-point topology

rus. - двухточечная топология

Tarmoqning, ikki uzelnı o'zaro biron-bir kommutatsion uskunadan foydalanmasdan bog'laydigan, oddiy fragmenti. Soddaligiga qaramay, bu bazaviy topologiyadan axborotni yuqori tezlikli magistral aloqa liniyalari orqali uzatishda keng foydalaniladi.

Ikki polosali

ing. - dual-band

rus. - двухполосный

C-diapazon signallari kabi Ku-diapazon (12 GHz dan 18 GHz gacha) signallari bilan ham ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan uskuna va antennalarnı belgilashda foydalaniladigan atama.

Ikki portli

ing. - dual ported

rus. - двухпортовый

Operatsiyalarning parallel bajarilishini topshirish uchun, mustaqil ikki ta kirish nuqtasi bo'lgan xotira mikrosxemasi.

Ikki portli xotira

ing. - dual-port memory

rus. - двухпортовая память

Bir vaqtda bittadan ortiq protsessor yoki kontroller erkin foydalanishi mumkin bo'lgan xotira.

Ikki portli shlyuz**ing.** - dual-homed gateway**rus.** - двухпортовый шлюз

Tarmoqlararo ekran dasturiy ta'minoti ishlaydigan va ikkita – biri ichki tarmoqqa, ikkinchisi tashqi tarmoqqa ulangan tarmoq kartalariga ega bo'lgan kompyuter. Shlyuz axborotni bir tarmoqdan ikkinchisiga, ular o'rtasida bevosita o'zaro ta'simi istisno qilgan holda, uzatadi.

Ikki pog'onali tizim**ing.** - two level**rus.** - двухуровневая система

Ikki pog'onasida joylashgan kollektor va taqsimlash kanallariga ega bo'lgan kanallar tizimi.

Ikki protsessorli**ing.** - dual processor**rus.** - двухпроцессорный

Ikki protsessorli kompyuter.

Ikki rangda ko'rish**ing.** - dichromatic vision**rus.** - двухцветное зрение

Barcha ranglar tegishli tarzda tanlangan faqat ikkita qo'zg'atuvchi aralashmasi bilan mos kelishi mumkin bo'lgan normal bo'lmagan rang ko'rish.

Ikki rejimli terminal**ing.** - dual-mode terminal**rus.** - двухрежимный терминал

Turli tarmoqlarda ishlagan mo'ljallangan abonent terminali.

Misol – analog va raqamli standartlarda (TDMA/ AMPS), yo'ldoshli va mobil aloqa GSM/Globalstar rejimlarida ishlaydigan terminallar.

Ikki standartli telefon**ing.** - dual mode phone**rus.** - двухстандартный телефон

Turli tarmoqlarda, masalan, CDMA va AMPS, GSM va DECT da ishlay oladigan mobil telefon.

Ikki tomonga yo'naltirilgan port**ing.** - bidirectional port**rus.** - двунаправленный порт

Ma'lumotlar ikkala yo'nalishda yuborilishi mumkin bo'lgan port.

Ikki tomonga yo'naltirilgan interfeys**ing.** - bidirectional interface**rus.** - двунаправленный интерфейс

Bir vaqtning o'zida aloqaning ikkala yo'nalishida ma'lumotlar uzatilishini ta'minlovchi interfeys.

Ikki tomonlama bog'lanish**ing.** - biconnectivity**rus.** - двусвязанность

Tarmoq elementlarining istalgan jufti o'rtasida ikki aloqa liniyasining mavjud bo'la olishi.

Ikki tomonlama muvofiqlashtirish**ing.** - bilateral negotiation**rus.** - двустороннее согласование

To'g'ri va teskari yo'nalishlarda aloqa kanallarining real xarakteristikalari hisobga olingan holda, liniyalarning parametrlari va ish rejimlarini tanlash amalga oshiriladigan, bog'lanishni o'rnatish protsedurasi.

Ikki tomonlama xotira moduli**ing.** - dual inline memory module (DIMM)**rus.** - двухсторонний модуль памяти

DRAM xotira modullarining form-faktori. Modulning turli tomonlarida joylashgan kontaktlarning bog'liq bo'lmasligi DIMM ning asosiy farqi hisoblanadi. DIMM 64 (juftlikni nazorat qilmasdan) yoki 72 (juftlik yoki ESS kodi bo'yicha nazorat qilish bilan) ma'lumotlar uzatish liniyasida xatolarni aniqlash va tuzatish funksiyasini bajaradi.

Ikki tomonlama yo'naltirilgan antenna**ing.** - bidirectional antenna, bilateral antenna**rus.** - двунаправленная антенна

1. Bitta machtada joylashgan va qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan ikkita yo'naltirilgan antennadan iborat antennali tizim.
2. Radiosignallarni ikki yo'nalishda bir vaqtda nurlantiruvchi ikki yaproqli yo'nalganlik diagrammasiga ega antenna.

Ikki uyli shlyuz**ing.** - dual-homed gateway**rus.** - двудомный шлюз

Brandmauerming dasturiy ta'minoti ishlaydigan va biri ichki tarmoqqa, boshqa biri tashqi tarmoqqa ulangan ikkita tarmoq interfeys platasi bo'lgan kompyuter.

Izoh – Shlyuz axborotni bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa uzatadi, ular o'rtasida bevosita ta'sirga yo'l qo'ymagan holda. Seans va amaliy sath shlyuzlari ikki uyli shlyuzga kiradi.

«Ikki yarim» yoki «gibrid» animatsiya
ing. - animation «two with half» or «hybrid»
rus. - анимация «два с половиной» или
«гибридная»

Uch o'Ichamli perspektiva imitatsiyasiga
ega ikki o'Ichamli animatsiya. Obiektlar-
ning «ko'p qatlami» siljishidan foydalanil-
ganda «yaqinda joylashgan»larga nisbatan
«uzoqlashgan» obyektlar sekinroq siljiydi.

Ikki yo'nalishli

ing. - bidirectional

rus. - двунаправленный

Ikki tomonga yo'naltirilgan signal.

Ikki yo'nalishli oldindan aytish

ing. - bidirectional prediction

rus. - двунаправленное предсказание

«Oldinga» (o'tgan videokadrlar bo'yicha)
yoki «orqaga» (oldindagi videokadrlar bo'y-
icha) oldindan aytishdan foydalaniladigan
kodlash usuli.

Ikki o'Ichamli grafika

ing. - two dimensional 2d

rus. - двухмерная графика

X va Y o'qlari bo'yicha ikkita koordinata bi-
lan tavsiflanadigan grafika.

Ikki o'Ichamli taxminlash, 2-D taxminlash

ing. - two-dimensional prediction,

2-D prediction

rus. - двумерное предсказание,

2-D предсказание

Taxminlangan qiymat, ayni bir maydon satr-
laridagi qo'shni tasvir elementlaridan kelib
chiqib olinadigan taxminlash.

Ikki shinali arxitektura

ing. - dual independent bus

rus. - двухшинная архитектура

Pentium Pro protsessorlari ichki shinasi
arxitekturasining nomi. Turli taktli chastota-
larida ishlashini ta'minlash va tizim unum-
dorligini oshirish imkonini beradi.

Ikkilamchi halqa

ing. - secondary loop

rus. - вторичная петля

Ikki halqali optik tolali tarmoqdagi (FDDI
standarti) rezerv bog'lovchi liniya. Bu li-
niya orqali normal ish rejimida (nosozliklar
bo'lmaganda) liniya ishlash qobiliyatini

nazorat qilish uchun zarur bo'lgan xizmat
signallari uzatiladi.

Ikkilamchi kalit

ing. - secondary key

rus. - вторичный ключ

1. Asosiy xabarni va biror bir kirish parametri-
ni, masalan, abonent stansiyasining seriya
raqamini mantiqiy qayta o'zgartirish yo'li bi-
lan olinadigan kalit.

2. Dasturiy ta'minotni muhofaza qilish usuli,
unda birinchi kriptografik kalit dasturiy
ta'minotni deshifrovka qilish uchun kalit
hisoblanadigan ikkinchi kalitdan foydalana
olish uchun yo'l ochadi.

Ikkilamchi kesh-xotira

ing. - secondary cache

rus. - вторичная кэш-память

Protsessordan tashqarida, birlamchi kesh-
xotira bilan tezkor xotira qurilmasi o'rtasida
joylashgan ikkinchi sath kesh-xotira.

Ikkilamchi kuchlanishdan

muhofaza qilish qurilmasi

ing. - secondary voltage protector

rus. - защитное устройство от

вторичного напряжения

Shaxsiy hayot sirlarini ta'minlash uchun ba-
jarilayotgan tadbirlar. Ushbu tadbirlar, ayrim
shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni muho-
fazalash va ularni yig'ish, to'plash va ularni
qayta ishlashga cheklovlarini o'z ichiga oladi.

Ikkilamchi nur tarqatgich

ing. - secondary radiator

rus. - вторичный излучатель

Fider bilan bog'lanmagan va birlamchi nur
tarqatgichning elektromagnit maydoni bilan
qo'zg'atiladigan antennaning nurlantiruvchi
elementi.

Ikkilamchi nurlanish

ing. - secondary radiation

rus. - вторичное излучение

Yuqori chastotali toklar va elektr zaryadlar-
ni yo'naltirish hisobiga, radioto'lqinlarning
uzatish muhitidagi to'siqlardan qaytish va
tarqalish hodisasi.

Ikkilamchi rangli rirproyeksiya

ing. - downstream chromakey

rus. - вторичная цветовая рирпроекция
Rang videosignali bilan dastlabki tasvir yoki

yo'zuv yaratilgandan so'ng bajariladigan rirproyeksiya.

Ikkilamchi tarmoq kanali

ing. - secondary network channel

rus. - канал вторичной сети

Telekommunikatsiyalar ikkilamchi tarmog'ining kommutatsiya uzellari va stansiyalari oralig'idagi telekommunikatsiyalar kanalining qismi. Ikkilamchi tarmoqning turiga qarab uning kanallari quyidagicha nomlanadi: telefon tarmog'i kanali, telegraf tarmog'i kanali, ma'lumotlar uzatish kanali va h.k.

Ikkilamchi zichlanishga ega kanal

ing. - secondary multiplex

rus. - канал со вторичным уплотнением

Nutqli axborot bilan bir qatorda, qo'shimcha past tezlikli ma'lumotlar oqimi ham uzatilishi mumkin bo'lgan aloqa kanali.

Izoh - Polosasining kengligi (0,3-3,4) kHz bo'lgan kanal ma'lumotlarning bitta yoki bir nechta past tezlikli kanali bilan qo'shimcha zichlanishi mumkin.

Ikkilanma nur sinishi

ing. - double ray-refraction

rus. - двойное лучепреломление

Yorug'lik nurining optik anizotrop muhit orqali tarqalishida yorug'lik sinish ko'rsatgichining nur qutblanganligiga bog'liqligi oqibatida ikkiga ajralishi.

Ikkilik

ing. - binary

rus. - двоичный

Ikkilik sanoq tizimida taqdim etilgan ma'lumotlar turi.

Ikkilik fayl

ing. - binary file

rus. - двоичный файл

Ma'lumotlar ikkilik ko'rinishida, masalan, dastur kodi, shrift yoki tasvir bilan taqdim etiladigan fayl. Matnli fayllardan farqli ravishda, ekranda ko'rish uchun maxsus dastur talab etadi.

Ikkilik fazaviy manipulyatsiya

ing. - binary phase-shift keying (BPSK)

rus. - двоичная фазовая манипуляция

Fazaviy modulyatsiyalash usuli bo'lib, bunda kirish ikkilik simvolining 1 dan 0 ga yoki aksincha, almashinishi signal fazasining 180° ga o'zgarishiga olib keladi. Masalan, modulyator chiqishidagi faza siljishi 0 simvoli uchun +90°, 1 simvoli uchun -90° bo'lishi mumkin.

Ikkilik izlash

ing. - binary search

rus. - двоичный поиск

1. Tartiblashtirilgan ko'plikdagi izlash usuli bo'lib, uning har bir qadamida ko'plikning o'rtacha elementi izlangan element bilan taqqoslanadi va taqqoslash natijasiga bog'liq holda, keyingi qadamda qayta ishlash uchun ko'plikning yarmi tanlanadi.

2. Elementlar to'plami ikki qismga bo'linadigan va bir qismi tashlab yuboriladigan izlash. Jarayon maqbul xossaga ega elementlar topilgunga qadar takrorlanadi.

Ikkilik jamp

ing. - binary jump

rus. - двоичный джамп

Xotira ichidagini ikkilik ko'rinishida bosib chiqarish.

Ikkilik kiritish

ing. - binary input

rus. - двоичный ввод

Kompyuterga ikkilik ma'lumotlarni kiritish.

Ikkilik kod

ing. - binary code

rus. - двоичный код

1. Xotira ichidagini nollar va birlar ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etish, biroq bu atama ko'pincha bajariladigan dasturni belgilash uchun qo'llaniladi.

2. Bajarish uchun yaroqli ko'rinishda bo'lgan faqat mashina komandalari va konstantalarni ichiga oladigan dasturiy modul.

Ikkilik kodlar darajasidagi moslik

ing. - binary compatibility

rus. - совместимость на уровне

двоичных кодов

Bitta kompyuter tizimi dasturining o'zgartirishsiz boshqa platformada bajarilish qobiliyati.

Ikkilik ko'rinishdagi fayllarni uzatish**ing.** - binary file transmission (BFT)**rus.** - передача двоичных файлов

Fayllarni ikkilik ko'rinishda uzatish protokoli. Ma'lumotlar uzatish jarayonida o'zgar-maydi.

Ikkilik nuqta**ing.** - binary point**rus.** - двоичная точка

Ikkilik sondagi, butun qismni kasrli qismdan ajratadigan nuqta.

Ikkilik raqam**ing.** - binary digit**rus.** - двоичная цифра

Ikkilik sanoq tizimidagi ikkita - 0 va 1 raqamdan biri.

Ikkilik sanoq tizimi**ing.** - binary number system**rus.** - двоичная система счисления

Asosi 2 bo'lgan pozitsion sanoq tizimi. Sonlarni yozish uchun 0 va 1 ikkilik raqamlardan foydalaniladi. Informatikada asosiy sanoq tizimi hisoblanadi.

Ikkilik semafor**ing.** - binary semaphore**rus.** - двоичный semafor

0 va 1 qiymatlarni oladigan semafor.

Ikkilik sinxron uzatish**ing.** - binary synchronous communication**rus.** - двоичная синхронная передача

Olisdagi terminallarning markaziy elektron hisoblash mashinasi bilan aloqasida foydalaniladigan protokol.

Ikkilik skanlash ekran**ing.** - dual-scan supertwisted nematic**rus.** - экран с двойным сканированием

DSTN display - qattiq buralgan nematik bilan to'ldirilib, bir-biriga yopishtirilgan shishali yachevkalar. Birinchisi - suyuq kristalli display, ikkinchisi - elektrodlar va qutblagichlarsiz yoki oq fonda qora rangning aks etishini ta'minlovchi va kontrastni ko'paytiruvchi kompensator sifatida foydalanish uchun suyuq kristall modda bilan to'ldirilgan shisha yacheyka.

Ikkilik son**ing.** - binary number**rus.** - двоичное число

Ikkilik sanoq tizimida yozilgan son. Kompyuter xotirasidagi har qanday narsani ikkilik sonlar ko'rinishida taqdim etish mumkin.

Ikkilik sonlar psevdotasodifiy ketma-ketligining generatori**ing.** - generator of pseudo random binary sequence**rus.** - генератор псевдослучайной последовательности двоичных чисел

Ma'lumotlarning initsializatsiyalanadigan so'zini kiritishda muayyan psevdotasodifiy ikkilik ketma-ketligini generatsiyalaydigan uskuna.

Ikkilik tasvir**ing.** - bit image**rus.** - двоичное отображение

Ma'lumotlarning ikkilik massiv ko'rinishida taqdim etilishi.

Ikkilik yoqlama litsenziyalash**ing.** - dual-licensing**rus.** - двойное лицензирование

Erkin dasturiy ta'minotning biznes modeli va uni ikkita litsenziya bo'yicha amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ko'pincha bittasi - shaxsiy mulk sifatida ko'riladi va shu dasturiy ta'minot asosida uning qo'llanmalarini yaratishga imkon beradi.

Ikkilik-o'nli kod**ing.** - binary coded decimal (BCD)**rus.** - двоично-десятичный код

O'nli sonlarni ixcham tarzda mashina tiliga o'girish usullaridan biri bo'lib, har bir o'nli raqamni kodlash uchun to'rt bit talab qilinadi. Bunday sonlar meynfreymlarda iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

Ikkilik-o'nlik kodlash**ing.** - binary-coded decimal coding**rus.** - двоично-десятичное кодирование

O'nli (0-9) raqamlarni to'rt razryadli ikkilik kodlar bilan taqdim etish usuli.

Ikkinchi avlod (2G)**ing.** - second generation (2G)**rus.** - второе поколение (2G)

Mobil aloqa tizimlarining ikkinchi avlodi.

analog tizimlarning birinchi avlodidan keyingi, simsiz texnologiyalar raqamli standartlarining birinchi guruhi.

Izoh – Birinchi navbatda ovozni uzatish maqsadida ishlab chiqilgan, 2G tarmoqlarida ma'lumotlar ancha sekin uzatiladi. Ma'lumotlar uzatishda 2G tizimlari 2,5G va 3G tizimlardan farqli ravishda, ma'lumotlar ayni paytda uzatilayotganidan yoki uzatilmayotganidan qat'i nazar, butun aloqa scansi mobaynida tarmoqning o'tkazish polosasini egallaydi. 2G tizimlari o'z ichiga cdmaOne va GSM tizimlarini oladi.

Ikkinchi avlod tili

ing. - second generation language (2GL)

rus. - язык второго поколения
Ikkinchi avlod tili, shuningdek, assembler dasturlash tili sifatida ham ma'lum til.

Ikkinchi bosqich kesh xotirasi

ing. - level 2 cache (L2 cache)

rus. - кеш память второго уровня
Protessorlarning yangi modellarida ikkinchi bosqich kesh xotirasini protsessorga ichki qurilgan va birichni darajali kesh xotirasini to'ldirishda ishlatiladi.

Ikkinchi shans algoritmi

ing. - second chance

rus. - алгоритм второго шанса
Uzoq vaqt murojaat bo'lmagan sahifa emas, murojaatlarning vaqt bo'yicha o'sib borishi tartibi bo'yicha tartiblangan ro'yxatdan keyin keladigan sahifalar almashtiriladigan algoritmi.

Ikoncha

ing. - icon

rus. - иконка
Display ekranida operatsion tizimi muhitida obyekt yoki dasturni aks ettiruvchi kichik tasvir.

Ilmiy-axborot faoliyati

ing. - scientific information activity

rus. - научно-информационная деятельность
Ilmiy-texnikaviy axborotni tashkil qilish, to'plash, tartibga keltirish, tahliliy-sintetik qayta ishlash, yozish, saqlash, tarqatish va foydalanuvchi (iste'molchi)ga taqdim etish bilan bog'liq harakatlar majmui.

Ilmiy-texnik axborot

ing. - scientific and technical information

rus. - научно-техническая информация
Ilmiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va

ijtimoiy faoliyat davomida yig'ilgan hujjat va faktlar to'g'risidagi axborot.

Ilmiy-texnik axborot mahsuloti

ing. - scientific and technical

information production

rus. - научно-техническая информационная продукция

Ilmiy-texnikaviy axborot foydalanuvchilari (iste'molchilari) ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan axborot, ilmiy-texnik faoliyatning moddiy natijasi.

Ilmsimon to'lqin o'tkazgich

ing. - serpentine waveguide

rus. - змеевидный волновод

Konstruksiyasida qattiq metall sirtlar bo'lmagan, qayriladigan egiluvchan to'lqin o'tkazgich. To'g'ri burchakli teshiklari bo'lgan va ularni rezinali qobiq bilan birliktiradigan bir qator metall shaybalardan tashkil topgan.

Илова

ing. - application

rus. - приложение

Tizimli proseduralarni chaqirish vositasida operatsion tizim bilan birgalikda ishlagan holda, bevosita foydalanuvchiga zarur bo'lgan funksiyalarni bajaradigan amaliy dastur yoki dasturlar paketi (vazifaning to'la bajarilishini ta'minlaydigan dasturlar to'plami) – masalan, hisoblash dasturi, matn redaktori yoki elektron jadval.

Илова bibliotekasi

ing. - application library.

rus. - библиотека приложения

Foydalanuvchiga muayyan masalani hal etish imkoniyatini ta'minlaydigan, tugallangan amaliy dastur yoki paket, masalan, elektron jadval yoki matn protsessori.

Илова oynasi

ing. - application window

rus. - окно приложения

Ilonaning ishchi sohasi sifatida foydalaniladigan oyna.

Илова generatori

ing. - application generator

rus. - генератор приложений

Ilvalarning muayyan sohasida bitta yoki bir

nechta masalani hal qilish uchun dastur yaratadigan kod generatori.

Po'valar identifikatori

ing. - application identifier

rus. - идентификатор приложений

Faylli tuzilma tomi deskriptorining maydoni, disk yaratilishida bajariladigan birinchi amaliy dastur marshruti nomini belgilaydi.

Po'valar portfeli

ing. - application portfolio

rus. - портфель приложений

Butun hayotiy sikli mobaynida ilovalarni boshqarish uchun foydalaniladigan tizimlash-tirilgan hujjat yoki ma'lumotlar bazasi. Barcha ilovalarning asosiy, muhim atributlarini ichiga oladi.

Po'valar serveri

ing. - application server

rus. - сервер приложений

Tarmoq amaliy (mijoz server) dasturlari bajariladigan, shuningdek, mijozlar foydalana oladigan ma'lumotlar bo'lgan server.

Po'valar talablari spetsifikatsiyasi

ing. - application requirements specification

rus. - спецификация требований приложения

Ilovaning spetsifik talablari hujjatlashtiriladigan, variantlari bog'liq bo'lgan, domenga ko'rsatiladigan talablar spetsifikatsiyasi bilan yaxlit holatga keltiriladigan kichik jarayon.

Po'valar talablarini boshqarish

ing. - application requirements management

rus. - управление требованиями приложений

Ilovalar talablarining o'zgarishlari va kuzatib borishlik mumkinligi boshqariladigan quyi jarayon.

Po'valar talablarini tahlil qilish

ing. - application requirements analysis

rus. - анализ требований приложений

Muayyan ilovalarga bo'lgan barcha talablar tushuniladigan, modellash vositasida ilovalarga bo'lgan noto'g'ri va noizchil talablar tahlil qilinadigan, keyin esa, domenga qo'yiladigan talablar yordamida qanoatlantirilishi

mumkin bo'lmagan ilovalar talablari tahlil qilinadigan va kelishiladigan quyi jarayon.

Po'valarni hamkorlikda ishlab chiqish

ing. - joint application development (JAD)

rus. - совместная разработка приложений
1977-yilda IBM tomonidan taklif qilingan tizimlarni tahlil qilish va ishlab chiqishga yondashuv.

Po'valarni integratsiyalash

ing. - integration of the applications

rus. - интеграция приложений

Turli dasturlash tillarida yozilgan va turli arxitekturalarda ishlab chiqilgan turli ilovalarni o'zaro birlashtirish imkonini beradi.

Po'valarni ishlab chiqish muhandisligi

ing. - application engineering

rus. - инженерия разработки приложений

1. Aktivlardan takror foydalanish yo'li bilan, amaliy tizimlarni yaratish yoki aniqlashtirish jarayoni.

2. Jarayonlar to'plamidan iborat hayotiy sikl. Bu jarayonlarda ilova aktivlari va mahsulotlar, mahsulotlar chizig'i bo'laklari, domen arxitekturasiga muvofiq va platforma o'zgaruvchanligini bog'lash yo'li bilan, aktivlardan takror foydalanish orqali boshqariladi va bajariladi.

Po'valarni tez ishlab chiqish

ing. - rapid application development (RAD)

rus. - быстрая разработка приложений
Obyektga yo'naltirilgan va vizual dasturlashdan foydalanish hisobiga, ilovalarning tezda ishlab chiqilishini ta'minlaydigan dasturiy mahsulot.

Po'valarning asosiy oynasi

ing. - main application window

rus. - главное окно приложений

Ilovadagi asosiy vazifani bajaruvchi oyna. Asosiy oynadan butun dasturni moslash va konfiguratsiyasini o'zgartirish mumkin bo'lgan bir qator yordamchi oynalarni ochish mumkin.

Plovani ma'muriy boshqarish funksiyasi

ing. - application administration function

rus. - функция администрирования приложения

Foydalanuvchi tomonidan bajariladigan

funksiya, jumladan ilovani o'ratish, joylashtirish, zaxiralash, xizmat ko'rsatish (tuzatishlar kiritish va o'zgartirish) hamda chiqarib tashlash.

Ilovaning ishga tushirilishi

ing. - start application

rus. - запуск приложения

Ishlash uchun kerak bo'ladigan dastur modullari, bibliotekalari va tezkor xotiradan undan foydalanish va tez ma'lumot almashinish uchun nusxa olish.

Ilg'or texnologiya

ing. - advanced technology

rus. - прогрессивная технология

Biror-bir dasturiy va apparat ta'minot sohasida tub burilish yasagan eng ilg'or texnologiya. Masalan, DirectX 10, kompyuter bilan ishlash tezligini keskin oshirishga qodir ilg'or texnologiya hisoblanadi.

Imitatsion xalaqit

ing. - smart jamming

rus. - имитационная помеха

Tuzilmasiga ko'ra, foydali signalga o'xshiydi, shuning uchun uni topish va ajratish qiyin bo'lgan xalaqit. Odatda, u xuddi foydali signaldagi singari, lekin boshqacha modulyatsiya parametrlariga ega elementlardan tashkil topgan bo'ladi.

Imitatsiya

ing. - imitation

rus. - имитация

1. Texnik yolg'on xabar tarqatishning tarkibiy qismi, soxta obyektlar va texnik demaskirovka qiluvchi belgilarni sun'iy qayta tiklash yo'li bilan amalga oshiriladi.

2. Kriptografik protokolga aktiv hujum, uning maqsadi bir tomondagi raqib va/yoki buzg'unchi tomonidan boshqa tomon nomidan qabul qilayotgan rad etilmaydigan xabarni majburan qabul qildirish hisoblanadi.

Imitatsiyalanadigan xalaqit

ing. - simulated disturbance

rus. - имитируемая помеха

Xalaqitga chidamlilikni baholash yoki o'lash maqsadida hosil qilinadigan, parametrlarning berilgan qiymatiga ega elektromagnit xalaqit.

Imitbardoshlik

ing. - mimic resistance

rus. - имитостойкость

Maqsadi yolg'on xabarni majburan kiritish (qabul qilish) yoki uzatiladigan axborotni yoki saqlanadigan ma'lumotlarni almashtirib qo'yish bo'lgan, jinoyatkorming aktiv hujumlariga qarshi tura olish qobiliyati.

Imitomuhofoza

ing. - imitation protection

rus. - имитозащита

1. Shifrlangan aloqa tizimini yolg'on ma'lumotlar majburan kiritilishidan (qabul qilinishidan) saqlashning apparat, apparat-dasturiy yoki dasturiy muhofoza vositalari.

2. Shifrlangan aloqani yolg'on ma'lumotlarning ortiqcha o'mashishidan muhofoza qilish tizimi.

Imitomuhofoza tizimi

ing. - protection system from faked data

rus. - система имитозащиты

Xabarlamni autentifikatsiyalashni bajaruvchi va axborotni ruxsatsiz o'zgartirish yoki soxta axborotni majburan qabul qildirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan kriptografik tizim. Xususan, imitomuhofoza tizimi axborotning yaxlitligini ta'minlaydi.

Izoh - Imitomuhofoza tizimining matematik modeli imitomuhofozalovchi kodlash algoritmini (bu shifrlash algoritmi, autentifikatsiyalash kodi yoki boshqa o'zgartirish bo'lishi mumkin) va olingan axborotning haqiqiyligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish algoritmini hamda kalit tizimni o'z ichiga oladi.

Imitomuhofoza vositalari

ing. - imitoprotection means

rus. - средства имитозащиты

Axborotni kriptografik almashtirish algoritmlarini amalga oshiruvchi va yolg'on axborotni majburan qabul qildirishdan muhofoza qilish uchun mo'ljallangan apparat, dasturiy va apparat-dasturiy vositalar.

Imitoqo'shimcha

ing. - imitoinserter

rus. - имитовставка

Ochiq ma'lumotlar va kalitdan ma'lum qoidaga ko'ra olingan hamda shifrlangan ma'lumotlarga imitomuhofozani ta'minlash uchun qo'shilgan, qayd qilingan uzunlikdagi axborot bo'lagi.

Imkoniyati yuqori bo'lgan texnologiya
(bosmaga chiqarilayotganda)
ing. - advanced resolution technology (ART)
rus. - технология повышенного разрешения (при печати)
Bosmaga chiqarishda yuqori sifatga (1200x1200 dpi gacha) erishish imkoniyatini beradigan texnologiya.

Imkoniyatlar
ing. - facilities
rus. - возможности
Qurilma yoki dasturning funksional xarakteristikallari.

Imloni tekshirish
ing. - spellcheck
rus. - проверка орфографии
Kiritilgan matnни imlo qoidalariga ko'ra tekshiruvchi dastur.

Impedans
ing. - impedance
rus. - импеданс
Elektr zanjirining o'zgaruvchan tokka nisbatan to'liq qarshiligi.

Impedansli antennalar
ing. - impedance antennas
rus. - импедансные антенны
Yuguruvchi to'lqin antennalarining bir turi, unda elektromagnit energiya oqimini to'plash sayoz turdagi sekinlashtiruvchi tizimdan foydalanib amalga oshiriladi.

Impedansni moslashtirish
ing. - impedance matching
rus. - согласование импеданса
Zanjir qo'shni elementlarining to'la to'lqin qarshiliklarini (impedanslarini) interfeys nuqtasi orqali o'tuvchi quvvat unumdorlikni yaxshilash yoki alohida samaraga erishish uchun maksimal darajada mumkin bo'ladigan tarzda tanlash.

Implikatsiya
ing. - implication
rus. - импликация
Ikkita ifoda uchun mo'ljallangan mantiqiy operatsiya. Natija beruvchi ifoda faqat birinchi ifoda to'g'ri, ikkinchisi esa noto'g'ri bo'lganda (implikatsiya operatsiyasi kom-

mutativ bo'lmaganda) yolg'on bo'ladi.
Implikatsiyaning standart belgisi: →.

Impuls
ing. - impulse
rus. - импульс
Barqaror shakllangan jarayonning vaqtinchalik xarakteristikalariga nisbatan kichik vaqt intervali bilan tavsiflanuvchi, (kuchlanish, tok va b.) shakllangan holatining qisqa muddatli o'zgarishi. Impulsning shakli turlicha – to'g'ri burchakli, trapetsiyasimon va h.k. bo'lishi mumkin. Impulsning asosiy parametrlari davomiylik, amplituda, front hisoblanadi. Impulslar videoimpulslarga (eltuvchisi to'ldirilmaydigan impuls) va radioimpulslarga ajratiladi.

Impuls-kodli modulyatsiya
ing. - pulse-code modulation (PCM)
rus. - импульсно-кодовая модуляция
Modulyatsiyalash usuli, unga ko'ra, analog signal qat'iy uzunlikdagi ketma-ket uzatiladigan n razryadli (n=8) kodli so'zlardan iborat raqamli ma'lumotlar oqimiga aylantiriladi. Tovushni uzatish 64 kbit/s tezlik hamda A- yoki μ qonuni bo'yicha kompanderlash bilan amalga oshiriladi. IKM yordamida o'zgartirilgan tovush signalining sifati yuqori bo'ladi (eksport baholanishi MOS shkalasi bo'yicha 4,3).

Impulslar generatsiyasi
ing. - outpulsing
rus. - генерация импульсов
Telefon raqamini terish paytida telefon aloqa liniyasiga impulslar jo'natish.

Impulsi modulyatsiya
ing. - pulse modulation
rus. - импульсная модуляция
Modulyatsiyalangan signal video yoki radioimpulslar ketma-ketligi ko'rinishida bo'lishi bilan farqlanadigan modulyatsiyalash usullari guruhi.

Imtiyozlar
ing. - privileges
rus. - привилегии
Operatsion tizimga yuborilgan imtiyozli, ya'ni cheklangan doiradagi foydalanuvchilar uchun

mumkin bo'lgan so'rovlarni bajarish huquqi.
Masalan, tizim vaqtini o'zgartirishga so'rov.

Imtiyozlarni boshqarish infratuzilmasi

ing. - privilege management infrastructure

rus. - инфраструктура

управления привилегиями

Kompleks mualliflashtirish xizmati ko'magida hamda ochiq kalitlar infratuzilmasi bilan o'zaro hamkorlikda imtiyozlarni boshqarish ta'minlanadigan infratuzilma.

Imtiyozlarning taqsimlanishi

ing. - privilege sharing

rus. - разделение привилегий

Ma'lumotlarni muhofaza qilish mexanizmini ochish prinsipi, bunda erkin foydalanish (kirish) uchun bir emas, balki ikkita parolni (masalan, ikkita shaxs tomonidan) ko'rsatish zarur bo'ladi.

(Imtiyozli bo'lmagan) foydalanish rejimi

ing. - user mode

rus. - пользовательский

(непривилегированный) режим

Foydalanuvchilarning dasturlari bajariladigan dasturlarni bajarishning standart rejimi. Bu rejimda ayrim imtiyozli operatsiyalar (masalan, xotiraning va registrlarning tizim sohalarni o'zgartirish) ta'qiqlanadi.

Imzo

ing. - signature

rus. - подпись

Familiya, ism, manzil va boshqa axborotdan iborat kichik matn. Uy katalogidagi maxsus fayldan olinadigan imzo avtomatik ravishda jo'natilayotgan xat va teleanjumanda jo'natilgan maqolalarning oxiriga qo'shiladi. Qar.: raqamli imzo.

Imzo kaliti sertifikatining egasi

ing. - owner of key certificate

rus. - пользователь сертификата

ключа подписи

Ro'uxatga olish markazi tomonidan imzo kaliti sertifikatini olgan va o'z yopiq elektron raqamli imzo kalitiga ega bo'lgan jismoniy shaxs. Elektron raqamli imzo kaliti vositalari yordamida elektron hujjatlarda o'z elektron raqamli imzosini yaratish (elektron hujjatlarga imzo chekish) imkonini beradi.

Imzo sertifikatining egasi

ing. - signature certificate owner

rus. - владелец сертификата подписи

Nomiga imzo kalitining sertifikati berilgan, sertifikatda ko'rsatilgan ochiq kalitga mos keluvchi elektron raqamli imzo kalitining yopiq kalitiga egalik qiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Indeks

ing. - index

rus. - индекс

Berilgan har bir massivning har bir elementi identifikatsiya qilish uchun massiv nomi-ga qo'yiladigan raqam (yoki raqamlar, agar ma'lumotlar massivi ko'p o'lchamli bo'lsa).

Indekslangan fayl

ing. - indexed file

rus. - проиндексированный файл

Yozuvlaridan foydalanish uchun indeks bo'lgan fayl. Bunday faylda yozuvni topish uchun, avvalo, indeks faylidagi tegishli elementni topish kerak. Unda yozuvni identifikatsiyalaydigan kalit maydoni va uning mantiqiy yoki fizik manzili bo'ladi. Turli kalitlar bo'yicha izlashni osonlashtirish uchun, faylda bir nechta indeks bo'lishi mumkin. Indekslash yozuvlardan bevosita foydalanishni ta'minlaydi va faylni ko'rib chiqish vaqtini qisqartiradi.

Indekslangan manzil

ing. - indexed address

rus. - индексированный адрес

Xotirada ma'lumotlarning spetsifik elementi, masalan, jadvalning, birinchi elementi joylashgan yer. Tayanch manzilni va indeksli registrdan saqlanadigan qiymatni qo'shish yo'li bilan hisoblanadi.

Indeksli fayl

ing. - index file

rus. - индексный файл

Ma'lumotlar bazasi yozuvlari indekslarini saqlaydigan fayl. Indeksning bo'lishi yozuvlar izlab topilishini va ular bilan ishlashni tezlashtiradi.

Indeksli registr

ing. - index register

rus. - индексный регистр

Komanda manziliga, uning haqiqiy qiymatini

olish uchun qo'shish yoki chiqarib tashlash zarur bo'lgan muayyan ma'lumotlarni ichiga oladigan registr.

Indikator

ing. - indicator

rus. - индикатор

Muayyan axborot ehtiyojlari uchun ishlab chiqilgan tahliliy modeldan olingan tegishli atributlarni baholash imkonini beradigan o'lchov.

Indikatorlar qiymatini aniqlash mezonlari

ing. - criteria for determining the values of indicators

rus. - критерии определения значений индикаторов

Har bir indikatorga u yoki bu sonli qiymatni berish to'g'risida qaror qabul qilish algoritmi formal bayoni.

Individual boshqaruv bilan

taqsimlash xizmati

ing. - distribution service with user

individual presentation control

rus. - услуга распределения с

индивидуальным управлением

Taqsimlash xizmati, bunda axborot axborot bloklarining ketma-ketligi ko'rinishida, masalan, davriy qaytariluvchi kadrlar shunday taqdim etiladiki, natijada foydalanuvchi axborot bloklarini shaxsan tanlash va axborot borishining boshlanishi hamda tartibini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Individual boshqaruvsiz

taqsimlash xizmati

ing. - distribution service without user

individual presentation control

rus. - услуга распределения без

индивидуального управления

Taqsimlash xizmati, undan foydalanuvchilar taqsimlangan axborotni taqdim etishning boshlanishi va tartibini boshqarish imkoniga ega bo'lmagan holda foydalana oladi.

Individual qabul (yo'ldoshli eshittirishda)

ing. - individual reception

(in satellite broadcasting)

rus. - индивидуальный прием

(в спутниковом вещании)

Maishiy qurilmalar, odatda, uncha katta

bo'lmagan hajmdagi antennalar bilan yo'ldoshli eshittirishlarni bevosita qabul qilish.

Individual chaqiruv

ing. - private call

rus. - индивидуальный вызов

Mobil aloqa tarmog'idagi, ikki abonent o'rtasida «nuqta-nuqta» turidagi bog'lanish o'rnatilishi taxmin qilinadigan chaqiruv.

Industrial xalaqitlar

ing. - man-made noises

rus. - промышленные помехи

Elektr yo'yi yoki uchquni (elektr payvandlash, elektrottransport, sh.o.) paydo bo'ladigan turli elektr qurilmalarning ishlabidigan hosil bo'ladigan xalaqitlar. Industrial xalaqitlar, odatda, juda keng chastotalar spektriga ega bo'ladi, shuning uchun qabul qilish qurilmalarida ular bilan kurashish qiyin. Lekin xalaqit manbalarining o'zida xalaqitlar jadalligini pasaytiradigan choralar ko'rilishi, masalan ekranlashtirish, maxsus filtrlarni qo'llash mumkin.

Inersion sinxronlash

ing. - inertial synchronization

rus. - инерционная синхронизация

Satr va kadr sinxronlash impulsarlari qabul qilgichda keluvchi impulslar chastotasi bilan qamrab olingan satr chastota generatori yordamida qaytadan shakllantiriladigan xalaqitga chidamli sinxronlash.

Inersion sinxronlash sxemasi

ing. - scheme of inertial synchronization

rus. - схема инерционной синхронизации

Televizordagi, yoyish zanjirlari satr chastotasi bilan satr sinxronizatsiyasi signalining qisqa muddatli buzilishi vaqtida ham harakat qilishda davom etadigan, sinxronizatsiya sxemasining turi.

Infiks yozuv

ing. - infix notation

rus. - инфиксная запись

Matematik va mantiqiy ifodalarni yozish usullaridan biri bo'lib, bunda binar operatsiya belgisi operandlar orasida bo'ladi.

Infokommunikatsiyalar

ing. - information communications

rus. - инфокоммуникации

Zamonaviy axborot, kompyuter va tele-

kommunikatsiya texnologiyalarini, ulami amalga oshiradigan tizim hamda vositalarni uzviy ravishda bog'laydigan, tashkilotlarga va aholiga axborot, kommunikatsiya maxsulotlarini va xizmatlarini taqdim etish uchun mo'ljallangan kompleks.

Infomat

ing. - infomat

rus. - инфомат

Davlat xizmatlari taqdim etilishining axborot kioski. Sensorli monitori bo'lgan, jamoat joyida joylashgan, davlat xizmatlari portaliga yoki uning ixtisoslashtirilgan bo'limlariga kirishni ta'minlaydigan elektron terminal. Terminal har bir fuqaroga interaktiv o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish tartibida davlat xizmatlari olish imkonini beradi. Infomat yordamida xizmat to'g'risida ma'lumot olish, blanklarni to'ldirish va chiqarish, videomaslahatlar olish, navbatga yozilish, bojlar va tariflarni to'lash mumkin.

Informatika

ing. - informatics

rus. - информатика

Axborotning xususiyatlarini va uni olish, qayta ishlash, o'zgartirish, saqlash, taqdim etish, uzatish va axborotdan foydalanish usullarini o'rganadigan ilmiy yo'nalish.

Informatika obyektlari

ing. - computer science objects

rus. - объекты информатики

Turli maqsadlardagi avtomatlashtirilgan tizimlar, telekommunikatsiyalar, aks ettirish va ko'paytirish tizimlari, shuningdek, axborotni qayta ishlashning alohida texnik vositalari va konfidensial muzokaralar olib borish uchun mo'ljallangan xonalar.

Informodinamika

ing. - informodynamics

rus. - информодинамика

Axborot va uning o'zini o'zi tashkil qilishiga oid noyob hodisa, axborot hodisalari bo'ysunuvchi qonun (qoidalar) to'g'risidagi fan. U axborot hodisalarining energetika hodisalari bilan aloqalari, jumladan jami axborot hodisalari va tafakkur, aql, umuman barcha negentropiya jarayonlarini ham qamrab oladi.

Informografiya

ing. - informography

rus. - информография

Axborot resurslarining jahon hamjamiyatida hamda u yoki bu mamlakat hududida taqsimlanish topologiyasini o'rganuvchi fan. U, shuningdek, resurslar xususiyatlari, ulardan foydalanish osonligi, samarali foydalanish mumkinligini o'rganadi.

Informologiya

ing. - informology

rus. - информология

O'rganish obyekti makon, axborotning makondagi tashkillanishi hamda axborot tizimlarining makonda qurilishi qonuniyatlari bo'lgan fan. Informologiyaning umumiy vazifasi turli tadqiqot tamoyillariga asoslangan ilmiy yo'nalishlar doirasida olingan bilimlarni umumlashtirish va tartibga solishdir.

Infraqizil aloqa bo'yicha fayllarni uzatish

ing. - infrared file transfer

rus. - передача файлов по инфракрасной связи

инфракрасной связи

Ma'lumotlarni, kompyuter va qurilma o'rtasida, infraqizil nurlanish yordamida simsiz uzatish.

Infraqizil interfeys

ing. - infrared interface

rus. - инфракрасный интерфейс

Infraqizil portga ega simsiz bog'lanadigan qurilmalarni, masalan, printerlar va noutbuklarni ulash uchun foydalaniladigan interfeys.

Infraqizil kanal

ing. - infrared channel

rus. - инфракрасный канал

Ishlashi uchun simli ulanishlar talab qilinmaydigan ma'lumotlar uzatish kanali.

Infraqizil klaviatura

ing. - infrared keyboard

rus. - инфракрасная клавиатура

Tizim bloki bilan simsiz bog'lanish uchun mo'ljallangan, infraqizil interfeysli klaviatura.

Infraqizil nur tarqatgich

ing. - infrared emitter

rus. - инфракрасный излучатель

Elektr energiyani to'liq uzunligi 1-2 mm dan 0,74 mkm gacha bo'lgan elektromagnit nurlanishga aylantiruvchi yarimo'tkazgichli asbob. Infraqizil nurlanish manbalariga galktika jismlarining aksariyati tegishlidir.

Infraqizil port

ing. - infrared port (IRDA)

rus. - инфракрасный порт

Ikki ta qurilma o'rtasida shu port bilan simsiz aloqa o'rnatish imkonini yaratuvchi port. Amal qilish radiusining kichikligi (qurilmalar o'rtasidagi masofa 30 santimetrdan ko'p emas), ma'lumot uzatish tezligining kichikligi, xalaqitga bardoshlilikning ozligi (qurilmalar o'rtasiga har qanday shaffof bo'lmagan predmetning qo'yilishi aloqa uzilishiga sabab bo'ladi) ushbu aloqa texnologiyasining kamchiliklari hisoblanadi.

Initializatsiya

ing. - initialization

rus. - инициализация

Qurilmani ma'lumotlarni tashuvchidan foydalanish yoki qandaydir jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich holatga keltirish operatsiyasi.

Initializatsiya qilish

ing. - initialize

rus. - инициализировать

1. Boshlang'ich holatiga o'rnatish.
2. Boshlang'ich shartlarni berish.

Initializatsiya vektori

ing. - initialization vector

rus. - вектор инициализации

1. Kriptografik algoritm doirasida kriptografik jarayonning tayanch nuqtasini aniqlash uchun foydalaniladigan vektor.
2. Muntazam yangilanadigan, boshqaruv kanali bo'ylab uzatiladigan va shifrlash algoritmini initializatsiya qilish uchun foydalaniladigan tasodifiy son.

Inkor

ing. - negation

rus. - отрицание

1 Kommunikatsiyaga kiritilgan subyektlar-

dan birining muloqotdan to'la yoki qisman voz kechishi. Kommunikatsiya usullari va mexanizmlarini tavsiflashda «inkor mumkin emasligi» tushunchasi, ko'p hollarda, almashuvga kiritilgan subyektlar, o'zlarining kommunikatsiyada ishtiroklarini inkor qila olmaydigan holatini ifodalaydi.

2 Bul algebrasining mantiqiy inkor, NOT operatori. Operatorni bajarish natijasi, rost (TRUE) yoki yolg'on (FALSE) bo'ladi.

Inkor qilish protokoli

ing. - denial protocol

rus. - протокол отрицания

Imzo qo'yuvchi shaxsga imzolangan xabar-ni rad qilishiga yo'l qo'ymaydigan protokol turi.

Insident

ing. - incident

rus. - инцидент

Xizmatlarning rejalashtirilmagan tarzda uzilishiga yoki uning sifati pasayishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday hodisa.

Izoh - Masalan, infranizilma elementlaridan biridagi uzilish insidentga misol bo'ladi.

Insonning kompyuter bilan o'zaro ishlashi

ing. - human-computer interaction

rus. - взаимодействие

человека с компьютером

«Inson-mashina» axborot tizimida ro'y berayotgan jarayonlarni o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot yo'nalishi.

Installiyator

ing. - installer

rus. - инсталлятор

Fayllarni, masalan, kompyuterga ilova, drayverlar yoki boshqa dasturiy ta'minotni o'rnatuvchi kompyuter dasturi. Ayrim installiyatorlar ulardagi mavjud fayllarni o'rnatish uchun maxsus ishlangan; boshqalari universal hisoblanadi va o'rnatish zarur bo'lgan dasturiy ta'minot komplektini hisobga olib ishlaydi.

Instrumental komanda tili

ing. - tool command language (Tcl)

rus. - инструментальный командный язык

Interpretatsiya (talqin) qilinadigan dasturlash

tili, vebda ssenariyalar yozish uchun mo'ljallangan tillardan biri.

Instrumental konfiguratsiyani boshqarish vositalari

ing. - configuration management tools

rus. - инструментальные средства управления конфигурацией

Qo'lda boshqariladigan instrumental vositalar yoki konfiguratsiyani boshqarish tizimini qo'llab-quvvatlaydigan yoki amalga oshiradigan, avtomatlashtirilgan instrumental vositalar.

Instrumental platforma

ing. - instrumental platform

rus. - инструментальная платформа

Hisoblash tizimining yangi elementini ishlab chiqish davriga yoki joriy qilish paytiga o'zgarmas deb faraz qilinadigan instrumental dasturlar (dastur bajaruvchi kodini ishlab chiqish, translyatsiya qilish va yig'ish uchun qo'llaniladigan dasturlar) majmui.

Instrumental elektron hisoblash mashinasi

ing. - source computer

rus. - инструментальная электронно-вычислительная машина

Dasturni ishlab chiqish va uni translyatsiya qilish amalga oshiriladigan kompyuter.

Instrumentariy

ing. - tools

rus. - инструментарий

Asosiy vazifaga nisbatan yordamchi dasturiy vositalar to'plami. Foydalanuvchining instrumentariysi, masalan, antivirus dasturlari, fayllarni arxivlash va qurilmalar holatini tekshirish dasturlarini ichiga olishi mumkin. Dasturchi instrumentariysiga, shuningdek, standart protseduralar bibliotekasini ham kiritish mumkin. Rivojlangan operatsion tizimlarda va qobiqlarda instrumentariy katta miqdorda yetkazib beriladi.

Instrumentlar paneli

ing. - toolbar

rus. - панель инструментов

Windows-dasturlari grafik interfeysining elementi. U dasturning foydalanuvchi grafik interfeysidagi ekran tugmalari va belgilari satri, ustuni yoki blokidir. Foydalanuvchi bu tugma

yoki belgilarni bosish orqali dasturning biror bir funksiyasini aktivlashtiradi.

Integral mikrosxema

ing. - integral microcircuit

rus. - интегральная микросхема

1. O'zaro bog'liq elektron elementlarga ega yarimo'tkazgich materialdan yasalgan kichik tarkibiy qism.

2. Oxirgi yoki oraliq shaklga ega bo'lgan elektron sxema vazifalarini bajarish uchun mo'ljallangan mikroelektronika mahsuloti. Uning elementlari va aloqalari mahsulot yaratilgan material hajmi va (yoki) yuzasida ajratib bo'lmaz ravishda shakllantirilgan.

3. Bitta yarimo'tkazgich kristall yuzasida yoki ichida yaratilgan elektron sxema. Integral mikrosxema mantiqiy operatsiyalarni bajarish va axborotni saqlash qobiliyatiga ega bo'lgan ko'p sonli elektron elementlardan iborat. Buning uchun integral mikrosxema axborotni qayta ishlash, uni saqlash va uzatishga oid turli vazifalar bajarishi mumkin. Katta integral mikrosxemalar bitta kristallda minglab elektron mantiqiy elementlardan iborat bo'lishi mumkin, o'rta kattalari esa millionlab elementlardan yaralgan.

Integral sxema

ing. - integral circuit

rus. - интегральная схема

Qar.: Integral mikrosxema.

Integratsion testlash

ing. - integration testing

rus. - интеграционное тестирование

Dasturiy ta'minotni testdan o'tkazish bosqichlaridan biri. Unda muayyan dasturiy modullar birlashadi va guruhda testdan o'tadi. Odatda integratsion testlash modul testlashdan so'ng va tizim testlashdan oldin o'tkaziladi.

Integratsiyalash

ing. - integration

rus. - интеграция

Dasturiy va/yoki apparat komponentlarni yagona tizimga birlashtirish.

Integratsiyalashgan dasturiy ta'minot

ing. - integrated software

rus. - интегрированное программное обеспечение

Keng formatli jadvallar, matnni qayta ishlash,

ma'lumotlar bazalarini boshqarish va amaliy grafika kabi ayrim dasturlar bajaradigan ba'zi funksiyalarni birlashtiradigan dasturiy ta'minot paketi.

Integratsiyalashgan ishlab chiqish muhiti

ing. - integrated development environment (IDE)

rus. - интегрированная среда разработки
Amaliy tizimlarni samarador ishlab chiqishga mo'ljallangan va boshlang'ich matnlar redaktorlari va resurslardan, kompilyatordan, sozlovchidan, loyihani boshqarish vositasidan va standart vazifalarni ishlab chiqishni yengillashtiruvchi standartlarni o'z ichiga oladigan tezkor yordamdan iborat dasturiy kompleks.

Integratsiyalashgan muhit

ing. - integrated environment

rus. - интегрированная среда

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda dasturchilar tomonidan ishlatiladigan vositalar to'plami.

Misol – Turbo Pascal, Borland C++, Borland Delphi va b.q.

Integratsiyalashgan tizim

ing. - integrated system

rus. - интегрированная система

Analog va raqamli oqimlarning uzatilishi aynan bir kommutatsiyalovchi tarmoqda amalga oshiriladigan telekommunikatsiya tizimi.

Integratsiyalashgan shaxsiy tarmoqlararo interfeys

ing. - integrated private network-to-network interface

rus. - интегрированный частный межсетевой интерфейс

Ethernet-ATM aralash tarmog'ida trafikni boshqarish uchun ixtisoslashtirilgan marshrutlash protokoli.

Intellekt

ing. - intelligence

rus. - интеллект

Odamning fikrlash, o'zining va boshqa bir odam faoliyatining mumkin bo'ladigan oqibatlarini ko'zda tutish, optimal variantlar topish, yangi bilimlar yaratish qobiliyati.

Intellektual aloqa tarmog'i xizmatlari

ing. - intelligent network services

rus. - услуги интеллектуальной сети связи
Intellektual aloqa tarmog'i mantiqiy raqamiga foydalanuvchilardan kelib tushgan barcha chaqiruvlar har bir muayyan abonent uchun intellektual aloqa tarmog'i xizmatlarini yetkazib beruvchi tomonidan shakllantiriladigan oldindan belgilangan algoritm (xizmat profili) bo'yicha qayta ishlash imkoniga ega aloqa xizmatlari.

Intellektual antenna

ing. - smart antenna

rus. - интеллектуальная антенна

1. Signallarni qayta ishlash imkoniyatiga ega ko'plab antennalarning elementlarni o'z ichiga oladigan, uning nurlanish yo'nalganlik diagrammasini avtomatik optimallashtirish uchun va/yoki signallarning shartlariga bog'liq holda qabuli uchun mo'ljallangan, antennalar tizimi.

Izoh – XEI-R M.1797 Tavsiyalarida qayd qilinganidek, adaptiv antennalar va yo'nalganlik diagrammasi nurlarni qayta ulaydigan antennalar intellektual antennalarning ikkita asosiy kategoriyalari bo'lib hisoblanadi.

2. Maxsus boshqarish bloki (antenna «intellekti») yordamida antenaning yo'nalganlik diagrammasini qayta qurishning elektron (dasturiy) usuli tatbiq qilingan antennalar turkumi. Yaproqlar almashtirib ulandigan antennalar, fazalangan antenna panjaralari, adaptiv panjaralar va signallarning fazoviy seleksiyasini ta'minlovchi boshqa turdagi antennalar intellektual guruhga mansubdir.

Intellektual interfeys

ing. - intelligent interface

rus. - интеллектуальный интерфейс

Foydalanuvchining kompyuter bilan tabiiy tilda o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlovchi interfeys. Aqlli interfeys odatda foydalanuvchining kasbiy tilini o'giruvchi muloqot protsessori va vazifa tavsifini bilimlar bazasida saqlanuvchi axborot asosida uni bajarish dasturiga qadam-baqadam o'giruvchi loyihalagichni o'z ichiga oladi.

Intellektual karta

ing. - smart card

rus. - интеллектуальная карта

Keng funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan, mikroprotsessor asosidagi, shaxsni identifikatsiya qilish uchun terminal bilan ishlashda foydalaniladigan ixcham plastik kartochka.

Intellectual muhofaza qilish moduli

ing. - smart protection card

rus. - интеллектуальный модуль защиты
Dasturiy ta'minotni muhofaza qilishning, yuqori darajada muhofazalanganlik bilan tavsiflanuvchi hamda protsessordan foydalanuvchi apparat-dasturiy sxemasi.

Intellectual mulk

ing. - intellectual property

rus. - интеллектуальная собственность
Shaxsga vaqtinchalik berilgan barcha eksklyuziv nomoddiy huquqlarni bildiruvchi atama. Ushbu atama birinchi navbatda mualliflik va yondosh huquqlarga vaqtinchalik egalik qilish, tovar belgilariga guvohnomalar va amaldagi patentlarga ega bo'lishni nazarda tutadi. Intellectual mulk turlari: mualliflik huquqi, yondosh huquqlar, tovar belgilar, sanoat namunalar, patentlar.

Intellectual platforma

ing. - intelligent platform

rus. - интеллектуальная платформа
So'rovlarni qayta ishlash, uskunani abonentlar talabiga moslashtirish hamda yangi xizmatlarni taqdim etish maqsadida intellectual texnologiyalar qo'llanilishini ta'minlaydigan dasturiy-apparat «ustqurma».

Intellectual qurilma

ing. - smart device

rus. - интеллектуальное устройство

1. Ichiga o'rnatilgan protsessor yordamida tashqi muhitning holatiga bog'liq ravishda o'zining parametrlarini o'zgartiradigan (sozlaydigan), dasturiy ta'minoti bo'lgan tizim yoki qurilma.

2. Dasturiy-texnik kompleks; sun'iy intellekt usullaridan foydalangan holda, predmet sohaning muayyan masalalarini hal qilish uchun mo'ljallangan kompyuterni o'z ichiga oladi. Ekspert tizimlar bunga misol bo'ladi.

Intellectual tarmoq

ing. - intelligent network

rus. - интеллектуальная сеть

1. Xalqaro elektroaloqa ittifoqi tomonidan belgilangan tushuncha. Yangi standartlarga va qo'shimcha xizmatlarni, shu jumladan, elektroaloqaning ovozi tarmog'ida manzillar-

ni translyatsiya qilish xizmatlarining taqdim etilishini tashkil qilish usullariga taalluqli.

2. Nafaqat ma'lumotlar uzatilishi amalga oshiriladigan, balki turli-tuman murakkab axborot servisi ham taqdim etiladigan kommunikatsiya tarmog'i.

Intellectual terminal

ing. - smart terminal

rus. - интеллектуальный терминал

Mikroprotsessorlar va tezkor xotira bilan jihozlangan, oddiy qayta ishlashni mustaqil bajara oladigan terminal.

Intellectual xavfsizlik

ing. - intelligent security

rus. - интеллектуальная безопасность

Jamiyatning aqliy sohasi, uning kognitiv tuzilmalari (ilmiy maktablar, tadqiqot markazlari, laboratoriyalar, universitetlar va h.k.) hamda inson aqliy qobiliyatlarining zararli ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holati.

Intellectual o'qitish tizimi

ing. - intelligent learning system

rus. - интеллектуальная обучающая система
Автоматlashtirilgan o'rganuvchi tizim. U o'rganuvchiga o'rganish jarayonida muloqot olib borish, savollarga javob berish va vazifalarni tabiiy tilda bajarishga imkon beruvchi aqliy interfeysga ega.

Interaktiv

ing. - interactive

rus. - интерактивный

Ishining natijasi, ham natijani, ham natija taqdim etilishini o'zgartirishi mumkin bo'lgan foydalanuvchiga bog'liq bo'lgan ilova.

Interaktiv axborot tizimi

ing. - interactive information system

rus. - интерактивная информационная система

Kodlovchi va dekodlovchi (kodlangan ma'lumotni qayta tiklaydigan) qurilmalar bitta moddiy obyekt sifatida ifoda etadigan axborot tizimi.

Interaktiv dastur turi

ing. - interactive software type

rus. - программа интерактивного типа

Foydalanuvchining kompyuter bilan muloqot (interaktiv) shaklida o'zaro ishlashga asoslangan, barcha turdagi shaxsiy kompyuterlar (jumladan, televizion o'yin kompyuterlar qo'shimchalari) uchun mo'ljallangan dastur.

Interaktiv davlat xizmatlari

ing. - interactive public services

rus. - интерактивные государственные услуги

Idoralar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali (Yagona portal)

ing. - single portal for interactive government services

rus. - единый портал интерактивных государственных услуг (Единый портал)

Davlat organlari tomonidan, jumladan, haq to'lash asosida taqdim etiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona nuqtasi. Yagona portal zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlarini olishda foydalanuvchi imkoniyatlarini rivojlantirish va sharoitlarni kengaytirish uchun mo'ljallangan. Quyidagilar yagona portalning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- foydalanuvchilarga murojaatlarni davlat organlariga bevosita berish imkoniyatini taqdim etish;
- foydalanuvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyasi;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilishda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, kamaytirish;
- davlat boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishda va «elektron hukumat» ning keyingi rivojida ko'maklashish.

Interaktiv elektron davlat xizmati

ing. - interactive e-Government services

rus. - интерактивная электронная государственная услуга

Davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar

yoki fuqarolar o'rtasida elektron ko'rinishdagi, yuridik oqibatlariga ega bo'lgan ikki tomonlama o'zaro hamkorlik.

Interaktiv kompakt disk

ing. - compact disk-interactive

rus. - интерактивный компакт-диск

Audio-, video-, matnli ma'lumotlarning umumlashuvini ko'zda tutadigan optik disk-lar standarti.

Interaktiv muloqot oynasi

ing. - interactive dialog box

rus. - интерактивное диалоговое окно

Foydalanuvchining javobini kiritish uchun mo'ljallangan muloqot oynasi. Bunday muloqot oynasini masofaviy murojaat serveri va foydalanuvchi o'rtasida qo'shimcha himoya darajasi sifatida ishlatiladi. Bu yerda (masofadan kira olish terminali eranida) foydalana olish kodi yoki foydalanuvchi nomi va parol kiritiladi.

Interaktiv raqamli televizion eshittirish

ing. - interactive digital

television broadcasting

rus. - интерактивное цифровое телевизионное вещание

Axborot oluvchidan axborot yetkazuvchiga teskari aloqadan foydalanib amalga oshiriladigan raqamli televizion eshittirish.

Interaktiv raqamli video

ing. - digital video interactive

rus. - интерактивное цифровое видео

Qar.: DVI.

Interaktiv rejim

ing. - interactive mode

rus. - интерактивный режим

Foydalanuvchining kompyuter bilan dialogli rejimda o'zaro muloqotda bo'lish rejimi. Misol tariqasida «sichqoncha»ni biror bir element ustiga olib borish bilan chiqadigan yordamchi ma'lumotlarni yoki foydalanuvchidan dialogli rejimda harakatni tanlashni so'rovchi instalyator dasturini ko'rsatish mumkin.

Interaktiv televideniye

ing. - interactive tv

rus. - интерактивное телевидение

Multimediali axborot ma'lumotlar bazasiga crkin kira olish, telekonferensiyalarda

ishtirok etish va masofadagi abonent bilan televizion muloqot olib borish.

Interaktiv tovushli javob

ing. - interactive voice response (IVR)

rus. - интерактивный голосовой ответ

Abonentga kompyuter bilan tovush va klaviaturadan DTMF kiritishlar yordamida o'zaro ishlashga imkon beradigan xizmat. Telekommunikatsiyalar sohasida IVR mijozlarga kompaniya ma'lumotlar bazasidan telefon klaviaturasi yoki nutqni aniqlash yordamida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, shundan so'ng, ular IVR dialogiga rioya qilib, o'zlarining so'rovlarini berishlari mumkin. IVR tizimlari oldindan yozilgan yoki dinamik generatsiyalanadigan, foydalanuvchilarga keyin qanday yo'l tutishlari kerakligi to'g'risida ko'rsatma beradigan audioxabarlar bilan javob berishlari mumkin.

Interaktiv video

ing. - interactive video

rus. - интерактивное видео

Foydalanuvchining harakati, uning tanlovi va qarori syujetning rivojiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Interaktiv xizmat

ing. - interactive service

rus. - интерактивная услуга

Foydalanuvchilar o'rtasida yoki foydalanuvchilar va yetakchi uzellar o'rtasida ikki tomonlama axborot almashinuvi vositalarini ta'minlaydigan xizmat.

Izohlar:

1. Interaktiv xizmatlar uch turkumdagi xizmatlarga bo'linadi: dialogli xizmatlar, xabarlamani uzatish xizmatlari va izlash (axborotni) xizmatlari.

2. Axborotni to'plamasdan va keyinchalik uzatmasdan real vaqt masshtabida uni foydalanuvchidan foydalanuvchiga bir uchidan boshqa uchiga ko'chirish yo'li bilan ikki tomonlama aloqani ko'zda tutadigan interaktiv xizmat.

Interaktivlik

ing. - interaction

rus. - интерактивность

Obyektlar va subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik xususiyati va darajasini ochib beradigan tushuncha.

Izoh - Axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiyalar tizimlari, sotsiologiya, dizaynda jumladan, o'zaro hamkorlikni loyihalashda va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Interferension qoplash

ing. - interference coating

rus. - интерференционное покрытие

Qoplash sirtidan va himoya qilinadigan obyekt sirtidan qaytgan to'lqinlar fazaga qarama-qarshi holatda bo'ladigan va o'zaro yo'q qilinadigan qoplash.

Interferension so'nish

ing. - interference fading

rus. - интерференционное замирание

Yagona manbadan qabul nuqtasiga turli yo'llar bo'ylab keladigan ikkita yoki undan ko'p radioto'lqinlarning interferensiyasi bilan hosil bo'ladigan radiosignallarning so'nishi.

Interferensiya

ing. - interference

rus. - интерференция

Turli manbalardan chiqadigan (tovush, yorug'lik, radio) to'lqinlarning, ular bir-birining ustiga tushganda, o'zaro kuchayishi yoki susayishi.

Interfeys

ing. - interface

rus. - интерфейс

1. Odam va kompyuter o'rtasida axborotni grafik aks ettirish va almashinishni ta'minlaydigan apparat-dasturiy vositalar.
2. Tizim ikki yoki undan ortiq elementining ushbu tizimda birgalikda ishlashini ta'minlaydigan texnik va/yoki dasturiy vositalar majmui.
3. Aniq fizik, funksional va elektr parametrlarga ega ikkita qurilma yoki tizim o'rtasidagi chegara.

Interfeys-ilova

ing. - front end application

rus. - интерфейсное приложение

Foydalanuvchi bilan interfeysni va mijoz-server tizimlarida ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimining server qismi uchun ma'lumotlarning dastlabki qayta ishlanishini ta'minlaydigan ilova.

Interfeys tizim

ing. - interface system

rus. - интерфейсная система

Radioelektron vositalarning birgalikdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun xizmat

qiladigan interfeyslar va/yoki konstruktiv vositalar majmui.

Interfeyslar o'zgartirgichi

ing. - media converter

rus. - преобразователь интерфейсов

Signallarni mantiqan o'zgartirmasdan, ma'lumotlar uzatishning bir muhitidan boshqasiga o'tishini amalga oshiradigan qurilma, masalan, o'ralgan juftdan optik to'laga o'tish va aksincha.

Intermodulyatsiya

ing. - intermodulation

rus. - интермодуляция

Ikki yoki undan ortiq f_1 , f_2 , f_3 garmonik tebranishlarning nochiizliq element kirishiga ta'siri, bunda uning chiqishida $m_1 f_1 \pm m_2 f_2 \pm m_3 f_3$ ko'rinishidagi (intermodulyatsion tashkil etuvchilar deb nomlanuvchi) ko'plab kombinatsion chastotalardan tashkil topgan tebranishlarning murakkab spektri hosil bo'ladi.

Internatsionallashtirish

ing. - internationalization

rus. - интернационализация

Mahsulotni (dasturiy yoki apparat ta'minot) boshqa hudud yoki hududlarning til va madaniy xususiyatlariga moslashtirishni osonlashtiruvchi ishlab chiqishning texnologik usullari. Boshqa so'z bilan aytganda, internatsionallashtirish – bu mahsulotni deyarli barcha joylarda potensial ishlatish uchun moslashtirish, mahalliyashtirish esa – ma'lum hududda foydalanish uchun maxsus funksiyalarni qo'shish. Internatsionallashtirish ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida bajarilsa, mahalliyashtirish har bir mo'ljal til uchun alohida bajariladi. Ingliz tilida «internatsionallashtirish» so'zi uchun «i18n» qisqartmasi qabul qilingan. Bunda 18 raqami «i» va «n» harflari orasida o'tkazib yuborilgan harflarning sonini bildiradi.

Internet

ing. - Internet

rus. - Интернет

1. Tarmoqlararo protokolga yoki uning istiqbolli kengaytmalari/izdoshlariga asoslangan unitar manzil makoni bilan mantiqan bog'langan;

- Transmission Control Protocol/Internet Protocol (TCP/IP)dan yoki kengaytmalari/izdoshlaridan va/yoki IP-mos protokollari-dan foydalangan holda, kommunikatsiyalarni ta'minlaydigan;

- kommunikatsiyalarga va ular bilan bog'liq infratuzilmaga asoslangan yuqori darajadagi servislarni (barcha uchun yoki konfidensial) taqdim etadigan, foydalanadigan yoki foydalana olishni mumkin qiladigan global axborot tizimi.

2. Standart ochiq protokollar orqali axborot almashinish uchun o'zaro birlashtirilgan mustaqil kompyuter tarmoqlarining global (butunjahon) ko'pligi.

3. Umumfoydalanadigan axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining majmui, ular o'rta-sidagi o'zaro hamkorlik bir xil nomdagi tarmoqlararo protokolni qo'llash orqali ta'minlanadi.

Internet axborot serveri

ing. - Internet information server

rus. - информационный сервер Интернет
Windows NT Server 4.0 komponentasi. Uchta asosiy xizmat: ftp, gopher va www.larni, shuningdek, grafik ma'muriy boshqarish vositalarini, ma'lumotlar bazasi bilan aloqani, muhofaza qilish protokollari va turli xil usullarni taklif etadi.

Internet banki

ing. - Internet bank

rus. - Интернет-банк

Internet orqali bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank. Mijozlarga Internet orqali xizmat ko'rsatuvchi an'anaviy bank ham, virtual bank ham Internet-bank hisoblanishi mumkin.

Internet-broker

ing. - Internet broker

rus. - Интернет-брокер

Internet treyding xizmatlarini ko'rsatuvchi brokerlik (sarmoya) kompaniyasi yoki uning vakili.

Internet hamjamiyati

ing. - Internet community

rus. - Интернет-сообщество

Nisbatan barqaror aloqalar va munosabatlar tizimi bo'lib, u tarmoq axborot makoni foy-

dalanuvchilari orasidagi birgalashgan faoliyat jarayonida tashkil topadi. Shaxslararo aloqalardan farqli o'laroq, Internet jammiyati a'zolari «barcha barcha bilan» turidagi to'g'ridan-to'g'ri axborot almashuvi asosida o'zaro aloqada ishlaydilar.

Internet inkubatori

ing. - Internet incubator

rus. - Интернет-инкубатор

Internet kompaniyalari va loyihalarini tezkor ravishda tayyorlash va bozorga chiqarishga qaratilgan venchur sarmoya modeli.

Internet jamiyati

ing. - Internet society (ISOC)

rus. - Интернет-общество

Internetni rivojlantirish sohasida hamkorlikni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro notijorat tashkiloti. ISOC 1991-yili AQShda manfaatdor tashkilotlar tomonidan tuzilgan. Uning asosiy vazifasi zamonaviy axborot texnologiyalarini ommalashtirish va axborot tarmoqlarining global axborot infratuzilmasiga birlashishiga yordam berish hisoblanadi.

Mazkur jamiyat Internet tarmog'ini rivojlantirish va undan foydalanishda yordam ko'rsatadi. Shu bilan birga, u Internet arxitekturasi ni o'rganish va tarmoqni ekspluatatsiya qilish bo'yicha o'qitish ishlarini olib boradi, hamda tarmoq tadqiqotlari va ishlamlarini rag'batlantiradi.

Internet jurnalistika

ing. - internet journalism

rus. - Интернет-журналистика

XX asr oxirida Internetning rivojlanishi va tarqalishi bilan paydo bo'lgan jurnalistika-turini.

Internet katalogi

ing. - catalog Internet

rus. - каталог Интернет

Turli tarmoq resurslariga, birinchi navbatda WWW hujjatlariga havolalarning mavzu jihatdan tizimlashtirilgan to'plamlarini saqlash vositasi.

Internet kimoshdi savdosi

ing. - Internet auction

rus. - Интернет-аукцион

Elektron savdo tizimi. Unda mahsulotlar bevosita bitta insondan boshqasiga sotiladi. Odatda «iste'molchi-iste'molchi» sohasiga tegishli. Bunday kimoshdi savdosiga mashhur www.ebay.com sayti misol bo'lishi mumkin. Kimoshdi savdolari to'g'ridan-to'g'ri «biznes-biznes» sohasiga ham taalluqli bo'lishi mumkin, masalan, energiya kimoshdi savdolari.

Internet-kompaniya

ing. - Internet company

rus. - Интернет-компания

Internet xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Uni axborot texnologiyalaridan foydalanish holda an'anaviy biznes (jumladan, savdo) yurituvchi kompaniyalardan farqlash lozim.

Internet maslahatlar

ing. - Internet advising

rus. - Интернет-консультации

Huquq, soliq, firmalarni ta'xis etish va boshqa masalalar bo'yicha onlayn rejimida o'zaro aloqada ishlash. Ularni yo'lga qo'yish uchun elektron pochta, Internet anjumanlaridan foydalaniladi. Uni elektron biznes turi bo'lgan elektron konsaltingdan farqlash lozim.

Internet-media

ing. - Internet media

rus. - Интернет-медиа

Qar.: Internet OAV.

Internet OAV

ing. - Internet media

rus. - Интернет-СМИ

Internetda ommaviy axborot vositasi vazifasini bajaruvchi veb-sayt. An'anaviy OAV (matbuot, radio, televideniye) kabi, Internet OAV jurnalistika tamoyillariga amal qiladi. Internet OAVning ikki turi mavjud: faqat Internetda nashr etiladigan va an'anaviy OAVning Internetdagi versiyasi. Internet OAV rasmiy OAV maqomiga (litsenziyaga) ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

Internet orqali dialogli muloqot tizimi

ing. - Internet relay chat (IRC)

rus. - система диалогового

общения по Интернету

Internetda boshqa odamlar bilan real vaqt

rejimida bog'lanish uchun ishlatiladigan xizmat tizimi. IRC 1988-yilda fin talabasi Yarko Oykariinen (Jarkko Oikariinen) tomonidan yaratilgan.

Internet orqali ovoz berish

ing. - Internet voting

rus. - Интернет-голосование

Ovoz berish shakli. Ijtimoiy fikrni o'rganishdan tortib Internet orqali o'tkaziladigan referendumlar va siyosiy saylovni ham o'z ichiga oladi. Saylovchi ma'lum veb-saytda elektron byulleten orqali ovoz beradi. Byulleten haqiqiyliги raqamli imzo orqali kafolatlanadi. Elektron hukumati faoliyati doirasida alohida ahamiyatga ega.

Internet-protokol

ing. - Internet protocol (IP)

rus. - Интернет-протокол

Ulanish o'rnatilmasdan tarmoq komplekslariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan, TCP/IP protokollari guruhiga kiradigan tarmoq sathi protokoli. Internet-protokol manzillash, servis turini ko'rsatish, paketlarni fragmentlash va keyinchalik qayta yig'ish, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishini tashkil qilish vositalariga ega.

Internet-provayder

ing. - Internet provider

rus. - Интернет-провайдер

1. Internet tarmog'iga kirish bo'yicha va serverlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmatlar taqdim etadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.
2. Tijoriy asosda foydalanuvchilarga telekommunikatsiyalar operatorlarining tarmog'i orqali Internet tarmog'iga kirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Internet qaramlik

ing. - Internet addiction

rus. - Интернет-зависимость

Internetga ruhiy bog'liq bo'lishning haqiqatan mavjud bo'lgan hodisasi. Internetga bog'liqlik ko'rinishlari orqasida, shuningdek, boshqa ruhiy og'ishlar ham yashiringan bo'lishi mumkin. Voqeelikdan o'ziga xos uzoqlashish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunda

tarmoqdan foydalanish jarayoni subyektni shu darajada o'ziga rom qiladiki, u haqiqiy dunyoda to'la faoliyat ko'rsatish qobiliyatini yo'qotadi.

Internet raqamlarini berish markazi

ing. - Internet assigned numbers

(names) authority

rus. - центр по присвоению номеров Интернет

AQSh hukumati tomonidan moliyalashtiriluvchi Internetda oliy darajadagi domenlarning ma'muriy boshqaruviga javob beruvchi tashkilot, ularga .com, .net, .org lar kiradi. U bajaradigan vazifalarni 1998-yilning sentyabr oyidan ICANN Xalqaro notijorat tashkiloti o'z zimmasiga oldi.

Internet-resurs reytingi

ing. - Internet resource ratings

rus. - рейтинг Интернет-ресурса

Berilgan vaqt onida qandaydir Internet resurs (o'xshash tarzda, teledastur, bosma nashr, radiostansiya) bilan qamrab olingan maqsadli guruh auditoriyasining foizi. Reytingning bita punkti bir foizga to'g'ri keladi.

Internet sanoati

ing. - Internet industry

rus. - индустрия Интернет

Tarmoq axborot makonining faoliyatini ta'minlovchi moddiy va aqliy ishlab chiqarish sohasi.

Internet-server

ing. - Internet server

rus. - Интернет-сервер

Internet xizmatlar faoliyatini ta'minlovchi texnikaviy va dasturiy vositalar: HTTP (sayt), elektron pochta, anjumanlar, FTP va h.k. Saytni Internetda joylashtirish uchun kamida HTTP xizmatini qo'llovchi Internet-server zarur.

Internet tarmog'i

ing. - Internet network

rus. - сеть Интернет

Global kompyuter tarmog'i yoki tarmoqlar birlashmasi. Internet timsoli Arpanet tarmog'i ko'rinishida 1969-yilda yaratilgan. Hozirgi

ko'rishda Internet XX asrning 90-yillaridan mavjud. «Off-line» va «on-line» rejimlarida ishlaydi. Internet tarmog'ining asosi TCP/IP protokoli hisoblanadi. Internet taklif qiladigan tarmoq xizmatlari ichida fayllar uzatish gipermatnli hujjatlar bilan ishlash va elektron pochta keng tarqalgan.

Internet tarmog'i foydalanuvchisi

ing. - Internet user

rus. - пользователь сети Интернет

Internet tarmog'idan foydalangan holda, xizmatlar olish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

Internet tarmog'idagi rasmiy sayt

ing. - official Internet site

rus. - официальный сайт в сети Интернет
Yuridik shaxsning, uning nomi va rekvizitlarini ichiga oladigan sayti.

Internet tarmog'idagi sayt

ing. - Internet site

rus. - сайт в сети Интернет

IP-manzilga va qo'shimcha ravishda domen nomiga ega bo'lgan, tizimlashtirilgan axborot to'plami.

Internet tarmog'iga ulanish xizmatlari

ing. - Internet connection services

rus. - услуги подключения

к сети Интернет

Mulkdorlik huquqi asosida yoki boshqa huquq asosida xizmatlar iste'molchisiga tegishli bo'lgan chetki uskunani Internet tarmog'iga ulash bo'yicha harakatlar yoki faoliyat.

Internet tarmog'ining axborot resursi

ing. - Internet information resource

rus. - информационный

ресурс сети Интернет

Internet tarmog'i vositalari bilan ochiq foydalana olish rejimida taqdim etilgan va noyob manzilga ega bo'lgan, tizimlashtirilgan axborot to'plami.

Internet-telefoniya

ing. - Internet phone

rus. - Интернет-телефония

IP-telefoniyasining xususiy holi bo'lib, telefon trafikini uzatish liniyalari sifatida oddiy Internet kanallaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Internet treyding

ing. - Internet trading

rus. - Интернет трейдинг

Internet fond birjasida qimmatli qog'ozlarni (aksiyalar, obligatsiyalar, fyucherslar, opsiyalar) sotish yoki sotib olish. Shuningdek, valyuta va tovar birjalarida savdo bilan shug'ullanish.

Internet uzatish

ing. - Internet broadcasting

rus. - Интернет-вещание

Axborotning (yangiliklar, radio, video va h.k.) Internet kanallari orqali oqimli uzatish texnologiyasi.

Internet xabarlaridan erkin foydalanish protokoli

ing. - Internet message access protocol

rus. - протокол доступа к Интернет-сообщениям

Internetdagi xabarlardan foydalana olish protokoli, 1986-yil Stenford universitetida ishlab chiqilgan. Serverdagi elektron pochta xabarlarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni boshqarish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Internet xizmatlarini taqdim etuvchi

ing. - internet service provider (ISP)

rus. - поставщик услуг Интернета

Yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlardan (tjorat) erkin foydalanish yoki Internetdan mavjudligini taqdim etuvchi Internet-provayder, tashkilot.

Internet-2

ing. - Internet-2

rus. - Интернет-2

200 ta Amerika universitetlari va 50 ta yirik korporatsiyalardan tashkil topgan, tasvir va tovushni uzilishlarsiz uzatilishi va uzatish kanallarini barqaror kengligini kafolatlovchi keyingi avlod Internet texnologiyasini ishlab chiqayotgan konsorsium. Loyiha 1996-yil oktyabr oyida keng omma e'tiboriga chiqarilgan.

Internetda ishlashni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash

ing. - implementation and support of

Internet activity

rus. - организация и поддержка

работы в Интернет

Veb-uzellarni tashkil etish, xususiy IP-man-zillarni ajratish, domen nomlarining bazasi va Internet-provayderlarning boshqa xizmatlari-ni yuritish bo'yicha xizmatlar.

Internetda muloqot

ing. - Internet communication

rus. - Интернет-общение

Internetda muloqot joylari – chatlar, forum-lar, ijtimoiy tarmoqlar va h.k. Qoida bo'yicha muloqot saytlari yoki xizmatlarida adminis-tratorlar mavjud bo'lib, ular u yerdagi tartibni nazorat qiladi.

Internetda pochta xizmatlarini ko'p maqsadli kengaytirish

ing. - multipurpose internet mail extensions (MIME)

rus. - многоцелевые расширения почтовой службы в Интернет

Internetda elektron pochta orqali uzatish uchun matnli va matsiz (masalan, grafik) axborotni bitta xabarda kodlashtirishga oid standart.

Internetdagi domen nomlari xizmati

ing. - berkley internet name domain (BIND)

rus. - служба доменных имён в Интернете
Domen nomlari serverini qo'llab-quvvat-lash dasturi, dastlab Unix uchun yozilgan, ayni vaqtda uning nisbatan ommabop amali-yoti bo'lgan DNS barcha platformalarda qo'llaniladi. BIND ma'lumotlar bazasi tuzil-masini, DNS funksiyalari va o'rnatish uchun talab qilinadigan konfiguratsion fayllar va server nomlari funktsionalligini aniqlaydi.

Internetdagi manzil

ing. - Internet address

rus. - адрес в Интернете

Oddiy qilib aytganda, domen nomi (cppmp.uz, yandex.ru va b.q.).

Internetdan erkin foydalanish xizmatlari

ing. - Internet access service

rus. - услуги доступа к Интернет

Internetga kirgan tarmoqlarning birlamchi provayderlari (yetkazib beruvchilari) – tash-kilot egalari, yoki birlamchi provayderlaridan foydalana olish kanallarini ijara-ga oluvchi ikkilamchi provayderlar–firmalar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar.

Internetga ulanish

ing. - Internet connection

rus. - подключение к Интернет

1. Ajratilgan aloqa kanali (optik tola, yo'ldosh aloqasi, ra-diokanal, ajratilgan kommutat-siyalanmaydigan telefon liniya-si) bo'yicha

2. Kommutatsiyalanadigan, ya'ni uzib-ulan-adigan ulanish (dial-up).

Internetika

ing. - Internetics

rus. - Интернетика

Amaliy ilmiy yo'nalish bo'lib, u global kompyuter tarmog'ining inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilishiga oid xususi-yatlar, qonuniyatlar va foydalanish usullarini o'rganadi.

Internet-magazin

ing. - Internet shop

rus. - Интернет-магазин

Tovarlar katalogi, xaridlar uchun virtual savat, to'lov vositalari va ehtimol, buyurtmalarning yetkazib berilishini boshqarish tizimi bo'lgan veb-sayt.

Internet-marketing

ing. - Internet-marketing

rus. - Интернет-маркетинг

Internet tarmog'idagi, veb-saytlardan foyda-lanish, elektron pochta orqali axborotni ma-qsadga muvofiq ravishda yuborish, axborotni foydalanuvchilarning mijoz ilovalariga tekzor yetkazib berish texnologiyasi orqali amalga oshiriladigan marketing.

Internetni tartibga solish

ing. - Internet regulation

rus. - регулирование Интернет

Internetni rivojlantirish va quvvatlashga qa-ratilgan qonunchilikka oid va tashkiliy tad-birlar majmui. Bularga: tijorat sohasidagi qonunchilik, raqobatni rivojlantirish, litsen-ziyalash, texnologiya standartlari, narxlam-i rostlash, soliq solish, intellektual mulkni, iste'molchilarni, pinhoniyligni muhofazalash, provayderlarning mas'uliyatini ta'minlash, kompyuter jinoyatchiligini ta'qib qilish va boshqalar kiradi. Internetni rostlash tadbirlari shaffoflikni va oshkoralikni ta'minlashi zarur. Internetning noyob tabiati sababli, uni tarti-

biga solish mushkul bo'lganligi uchun ko'p mamlakatlarda «Internet to'g'risida» maxsus qonun yo'q.

Internetning ichki tahdidlari

ing. - internal Internet threats

rus. - внутренние угрозы Интернет

Tarmoq axborot makonining ahvoli va rivojlanishi uchun salbiy oqibatlariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar. Bular: tarmoqning ortiqcha yuklanganligi tufayli axborot kollapsi (qulashi); xakerlarning ma'lumotlarni yo'q qilishi yoki o'zgartirishi, «bog'lama-lar va trafikni «chetlab o'tish» yo'nalishlarini blokirovkalash maqsadida uyushtirgan hujumlari; kommunikatsiya kanallarining tasodifiy yoki uyushtirilgan avariylari; axborot-izlash tizimlarining mukammal emasligi; protokollarning «ma'naviy» eskirib qolishi va boshqalar.

Internetning tashqi tahdidlari

ing. - external Internet threats

rus. - внешние угрозы Интернет

Foydalanuvchilar uchun salbiy oqibatlariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlar. Tashqi tahdidlar texnologik va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Texnologik: sekin kanallar; tarmoqqa ulanishning unumsiz usublari; olib keltirilgan viruslar; axborot «toshqini» va h.k. Ijtimoiy: foydalanuvchilarning jismoniy va psixik sog'lig'iga bo'lgan ta'sir; insonning shaxsiy ongiga bo'lgan ta'sir; axborot terrochiligi va jinoyati va boshqalar.

Internet-portal

ing. - Internet portal

rus. - Интернет-портал

Internetdan foydalanuvchiga, mavzu bo'yicha bog'langan bir qancha sayt ma'lumotlaridan foydalanishning navigatsiya, izlash va boshqa vositalarini taqdim etadigan veb-sayt.

Internet-reklama

ing. - Internet advertisement

rus. - Интернет-реклама

Internet tarmog'idagi reklama.

Internet-serverni amaliy

dasturlash interfeysi

ing. - Internet server application program/programming interface (ISAPI)

rus. - интерфейс прикладного

программирования Интернет-сервера

Yordamchi amaliy tizimlar uchun veb-serverni dasturlash interfeysi. Dastlab Process Software korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, so'ngra Microsoft tomonidan moslashtirilgan.

Internet-televizion eshittirish

ing. - internet-television broadcasting

rus. - Интернет-телевизионное вещание

Televizion va multimediali dasturlarni yetkazish uchun global Internet telekommunikatsiya tarmog'idan foydalaniladigan raqamli televizion eshittirish.

Internet-xizmatlar

ing. - Internet-services

rus. - Интернет-услуги

Ko'rsatilishi, ma'lumotlarni Internet kanallari orqali uzatish yoki qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladigan xizmatlar. Eng keng tarqalgan xizmatlar: ma'lumotlarni saqlash, xabarlar va ma'lumotlar blokini uzatish, elektron va nutqli pochta, videoservis.

Interneziya

ing. - internesia

rus. - интернезия

Ma'lum axborotning qaysi veb-sayt yoki boshqa Internet manbaidan (masalan, elektron pochta) olinganligini eslash mumkin emasligi. Internet va amneziya so'zlari birikmasidan yasalgan.

Interoperabellik

ing. - interoperability

rus. - интероперабельность

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining ma'lumotlar almashinish va boshqa manbalardan olinadigan axborotdan foydalanish qobiliyati.

Interpolyatsion kodlash (raqamli

televideniyeda)

ing. - interpolative coding (in digital television)

rus. - интерполяционное кодирование

(в цифровом телевидении)

Signal bitreytini pasaytirish maqsadida interpolyatsiyadan foydalanib manbani kodlash usuli.

Interpolyatsiya (raqamli televideniya)

ing. - interpolation (in digital television)

rus. - интерполяция

(в цифровом телевидении)

Yetmayotgan yoki o'tkazib yubonilgan kadrlarni, yoki kadrlarning qismini fazo va vaqt bo'yicha qo'shni kadrlar yoki kadrlar qismidan kelib chiqib, olib chiqilgan axborot-dan foydalanib, tiklash usuli.

Interpretator

ing. - interpreter

rus. - интерпретатор

Boshlang'ich tilning har bir operatorini bajarish va ketma-ket o'zgartirish uchun belgilangan dastur; dastur matnini bitta yo'riqnomaga bo'yicha, uni darhol bajargan holda tarjima qiladi.

Misol – BASIC com dasturi.

Intranet

ing. - Intranet

rus. - Интранет

Intratarmoq, intranet, ichki korporativ Internet, Internet texnologiyalari, standartlari va dasturiy ta'minotidan foydalanadi. Intratarmoq tashqi foydalanuvchilardan, ularni Internet orqali ruxsatsiz foydalanishdan himoya qiluvchi brandmauer yordamida izolyatsiyalanishi yoki tashqi foydalanishga ega bo'lmagan avtonom tarmoq kabi ishlashi mumkin. Odatda, kompaniyalar o'z xodimlari uchun Intranet yaratishadi, lekin bunga boshqa foydalanuvchilar guruhini ham jalb qilish mumkin. Tarmoqning bu holati Extranet deyiladi.

Invariant

ing. - invariant

rus. - инвариант

Bajarilish jarayonida o'zgaraydigan dasturiy obyekt. Dasturlarning to'g'riligini isbotlashda foydalaniladi.

Inversiyalash bilan nolga qaytmasdan

ing. - non-return to zero, inverted (NRZI)

rus. - без возврата к нулю с

инвертированием

Nolga qaytmasdan kodlashning modifikatsiyalangan usuli, bunda signal har doim nol bo'lmagan qiymatlarga ega, 1 simvoli signal darajasi almashishiga, 0 simvoli esa, uning yo'qligiga to'g'ri keladi. Takrorlanadigan

simvollarining uzunligini cheklash uchun davriy ravishda 1 simvolidan inversiyasi amalga oshiriladi. FDDI va 100BaseFX da qo'llaniladi.

Invertirlangan fayl

ing. - inverted file

rus. - инвертированный файл

Yozuv kalitini va unga bo'lgan ko'rsatgichni ichiga oladigan kalit. Har bir kalit yozuvni unikal tarzda identifikatsiyalaydi, ko'rsatgich esa dasturga ma'lumotlar bazasida yozuvni fizik joylashtirishni ko'rsatadi. Fayl shu ma'noda invertirlanganki, kalitlar tartib bo'yicha saralangan, ma'lumotlar bazasidagi, bu fayl bilan ko'rsatgichlar orqali bog'langan yozuvlar esa ixtiyoriy, ularning yaratilishi tartibida joylashtirilishi mumkin.

Invertirlangan proksi-server

ing. - reverse proxy

rus. - инвертированный прокси-сервер

Mijozga boshlang'ich server sifatida ko'rindigan proksi-server. Xavfsizlik yoki serverlar yuklanishini balanslash maqsadida tashkil qilinadi.

Invertirlangan televizion kanallar

ing. - inverted television channels

rus. - инвертированные

телевизионные каналы

Amplitudaviy modulyatsiyadagi ikkita televizion kanaldan, ularning birida tovush jo'rligidagi eltuvchi tasvir eltuvchiga nisbatan chastota bo'yicha yuqori, boshqasida past joylashgan bo'lsa, chastota spektrida bir xil o'rinni egallaydigan tizim.

Izoh - Bu tizimda ikkita kanaldan biri to'g'ri, boshqasi invertirlangan deb, nomlanadi.

Investitsiya loyihasi

ing. - investment project

rus. - инвестиционный проект

Loyiha-smeta hujjatlarida bayon qilingan, investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi, investitsiyalarni amalga oshirish muddatlari va hajmlari asoslanganligiga taylanadigan, uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar loyihasi.

Iontash

ing. - ionization

rus. - ионизация

Modda neytral atomlarining va molekularining ionlarga aylanishi.

Ionlovchi nurlanish

ing. - ionizing radiation

rus. - ионизирующее излучение

Muhitni ionlaydigan nurlanish.

Ionogramma

ing. - ionogram

rus. - ионограмма

Ionosferali zondlash yo'li bilan olingan ionosferaning yuqori chastotali xarakteristikasi.

Ionosfera

ing. - ionosphere

rus. - ионосфера

Fotoionlanish tufayli sodir bo'ladigan ionlar va erkin elektronlarning mavjudligi bilan tavsiflanadigan atmosferaning yuqori qismi, bunda elektron zichlik chastotalarning ma'lum polosalarida radioto'lqinlar tarqalish shartlarining katta o'zgarishlarini yaratish uchun yetarli.

Izoh - Yer ionosferasi taxminan 50 km balandlikdan 2000 km balandlikgacha cho'ziladi.

Ionosfera aloqa liniyasi

ing. - skywave link

rus. - ионосферная линия связи

Katta masofada (500 km dan 5000 km gacha) aloqani ta'minlaydigan (50 bit/s dan 1200 bit/s gacha) past o'tkazish qobiliyatiga ega gorizont orti aloqa liniyasi.

Ionosfera radioaloqasi

ing. - ionospheric radio communication

rus. - ионосферная радиосвязь

Radioto'lqinlarning ionosferadan qaytishida yoki ularning ionosferaning xilma-xilligida sochilishida foydalaniladigan radioaloqa.

Ionosfera stansiyasi

ing. - ionospheric observation station

rus. - ионосферная станция

Ionosfera holatini tadqiq etish radiostansiyasi.

Ionosferadagi sakrash

ing. - ionospheric jump

rus. - ионосферный скачок

Radioto'lqinlarning Yer sirtining bir nuqtasidan boshqasiga tarqalish trayektoriyasi, u bo'ylab o'tish ionosferadan bir qaytish bilan kuzatiladi.

Ionosferadagi sochilish

ing. - ionospheric scattering

rus. - ионосферное рассеяние

Radioto'lqinlarning, ionosfera ionlanishining bir xil emasligi natijasida sochilishi hisobiga tarqalishi.

Ionosferadagi tarqalish

ing. - ionospheric propagation

rus. - ионосферное распространение

Yer ionosferasining radioto'lqinlar tarqalishi xususiyatiga ta'siri bilan bog'liq radioto'lqinlarning tarqalish turlaridan biri.

Ionosferadagi zondlash

ing. - ionospheric sounding

rus. - ионосферное зондирование

Maxsus radiosignallarni uzatish va qabul qilish yordamida radioto'lqinlarning ionosferada tarqalishi yoki ionosfera xarakteristikalarini sharoitlarini aniqlash.

«Issiq liniya» xizmati

ing. - «warm line» service

rus. - услуга «Теплая линия»

Raqam termasdan telefon apparatga (telefon apparatning raqami abonent tomonidan oldindan kommutatsiya stansiyasiga xabar beriladi), agar telefon go'shagi ko'tarilganda so'ng ma'lum vaqt davomida abonent raqam termaganda, chaqiruv yuborish imkonini beruvchi xizmat. Bu vaqt tugagandan so'ng abonent raqam terishi va xohlagan yo'nalishga qo'ng'iroq qilishi mumkin.

«Issiq» start

ing. - warm boot

rus. - «теплый» старт

Kompyuterni o'chirmasdan qayta yuklash. Bunda faqat operatsion tizimning qayta yuklanishi yuz beradi. Odatda, Reset tugmasi bosilganda bajariladi.

Iste'molchi iste'molchi uchun

ing. - customer-to-customer

rus. - потребитель для потребителя

Tijorat munosabatlari iste'molchilarning bir-biri bilan muloqotida quriladigan bozor sohasi. Ushbu soha veb-resurslarga Internet kimoshti savdolari misol bo'la oladi.

Istiqbolli tadqiqot loyihalarini

boshqarish tarmog'i

ing. - advanced research project agency network (ARPANET)

rus. - сеть управления перспективными исследовательскими программами 1969-yilda tashkil topgan hamda ilmiy va harbiy tashkilotlarni birlashtirgan kompyuter tarmog'i. Internetning ajdodi hisoblanadi.

Istisno

ing. - exception

rus. - исключение

Dasturning biron-bir operatsiyani bajarishi davomida dasturni ishini davom ettira olmaydigan holatga olib keluvchi hodisa.

Istisno qiluvchi «YOKI»

ing. - exclusive or

rus. - исключающее «ИЛИ»

Mantiqiy operatsiya. Ba'zi dasturlash til-larida XOR kabi belgilanadi, p XOR q deb yoziladi, bu yerda r va q mantiqiy ifodalar. Ba'zida «2 moduli bo'yicha mantiqiy qo'shish» deb ataladi.

Istisnolar lug'ati

ing. - exception dictionary

rus. - словарь исключений

Matn protsessorlariga yoki stol noshirlik tizimlari dasturlariga qo'yilgan oddiy ko'chirish qoidalariga bo'ysunmaydigan so'zlarni ichiga oladigan lug'at.

Iteratsiya

ing. - iteration

rus. - итерация

Aynan bir komponentdan ikki yoki undan ortiq turli talabni ifodalash uchun foydalanish.

Ixtilof

ing. - conflict

rus. - конфликт

Qurilmalar yoki dasturlar o'rtasida yuz beradigan dasturiy yoki uskunaviy ixtilof. U bir qurilmaga yoki xotira sohasiga bir vaqtning o'zida murojaat qilinganda ro'y beradi.

Ixtisoslashtirilgan axborot resurslaridan foydalana olish xizmatlari

ing. - access services to special-purpose information resources

rus. - услуги доступа к

специализированным

информационным ресурсам

Xususiy tarmoq yoki ijaraga olingan kanal bazasidagi moliyaviy (birja) va boshqa axborot resurslaridan masofadan foydalana olishni tashkil etish hamda foydalanuvchining terminal uskunasinin moliyaviy-axborot resurslari operatorlari yoki egalaringin tarmoqlariga ajratilgan ulanish.

Ixtisoslashtirilgan integral mikrosxema

ing. - application-specific integrated circuit

rus. - специализированная

интегрированная микросхема

Har qanday aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan kompyuter mikrosxemasi.

Ixtisoslashtirilgan server

ing. - specialized server

rus. - специализированный сервер

Katta kompyuter tarmog'ida alohida funktsiyani bajaradigan server. Fayl-server, faks-server, pochta serveri, ilovalar serveri, kommunikatsiya serverlari va b.lar ajratiladi.

Ixtisoslashtirilgan tuzilmaviy bo'linmalar

ing. - specialized structural subdivisions

rus. - специализированные

структурные подразделения

Tashkilotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi va amalga oshirishi uchun javob beradigan bo'linma.

Ixtiyoriy almashtirish

ing. - optional replacement

rus. - произвольное замещение

Boshlang'ich tasvir har qanday tashkil etuvchisidan farqlash belgisi sifatida foydalanishda videotasvir ba'zi bir qismlarini boshqasiga almashtirish. Tutun yoki soya kabi «shaffof» effektlar yaratish imkonini beradigan elektron almashtirishning eng mukammal texnologiyasi.

Ixtiyoriy foydalana olish

ing. - random access

rus. - произвольный доступ

Xotirada ma'lumotlarni bevosita olish yoki almashtirish jarayoni.

Ixtiyoriy foydalana olish kanali

ing. - random access channel (RACH)

rus. - канал произвольного доступа

Liniya «yuqoriga» yoʻnalishidagi boshqarish kanali boʻlib, mobil stansiya tomonidan qisqa xabarlar va kanallar taqdim etilishi yuzasidan soʻrovlarni uzatishda foydalaniladi.

Ixchamlashtirmoq

ing. - minimize

rus. - минимизировать

Dasturni, uning ishini toʻxtatmagan holda vazifalar paneliga yigʻish. Ishlayotgan dasturlar oynalari orasida harakatlanishni qulaylashtirish maqsadida yaratilgan.

Iyerarxik fayl tizimi

ing. - hierarchical file system

rus. - иерархическая файловая система

Daraxtsimon tuzilishga ega fayl tizimi. Unda baʼzi fayl (papka, kataloglar) boshqalarining ichiga solinishi mumkin.

Iyerarxik hisoblash tarmogʻi

ing. - hierarchical computer network

rus. - иерархическая вычислительная сеть

Uzellar, oʻzlarining operatsiyalarni boshqarish imkoniyatlariga nisbatan turkumlar iyerarxiyasiga birlashtirilgan hisoblash tarmogʻi.

Iyerarxik kodlash, koʻp darajali kodlash

ing. - hierarchical coding, layered coding

rus. - иерархическое кодирование,

многоуровневое кодирование

Manbani, dastlabki tasvimi sifatning bir nechta darajalarida qayta tiklashga imkon beradigan maʼlumotlar oqimini maxsus tuzilma asosida kodlash usuli.

Izoh - Radioshtitirishda iyerarxik kodlash, masalan, qayd etilgan antennaga yuqori aniqlikdagi tasvimi qabul qilishni, shu bilan bir vaqtda, sifati past tasvimi portativ qabul qilgichning oʻrnatilgan antennaga qabul qilinishini amalga oshirish imkonini beradi.

Iyerarxik marshrutlash

ing. - hierarchical routing

rus. - иерархическая маршрутизация

Koʻp sathli tarmoqdagi, uning har bir sathida mustaqil bajariladigan marshrutlash.

Iyerarxik maʼlumotlar bazasi

ing. - hierarchical data base

rus. - иерархическая база данных

Elementlari iyerarxik prinsip asosida tashkil-lashtirilgan maʼlumotlar bazasi. Daraxtsimon graf bilan tavsiflanadi.

Iyerarxik tahlil

ing. - hierarchical analysis

rus. - иерархический анализ

Dastur boshlangʻich matnini sintaksik tahlil qilish, uning natijasida simvollar yoki token-lar qoʻyilgan toʻplamlarga iyerarxik guruhlanadi.

Iyerarxik tarmoq

ing. - hierarchical network

rus. - иерархическая сеть

Liniyalari va uzellar turli bogʻlanishlar tuzilmasiga ega boʻlgan bir qancha daraja boʻlingan axborot tarmogʻi.

Iyerarxiya

ing. - hierarchy

rus. - иерархия

Oʻzaro aloqadorligini belgilovchi bir nechta darajaga ega boʻlgan, bir-biriga bogʻliq obyekt-larning tartiblashtirilgan majmui. Quyi daraja obyektlari yuqori daraja obyektlariga boʻysunadi, agar ularning oʻrtasida bogʻlanish boʻlsa. Iyerarxiya daraxt shaklida koʻrsatilishi mumkin.

Iz

ing. - footprint

rus. - след

Ortiqcha kodning, mualliflik huquqi buzilgan hollarni aniqlashda foydalanish mumkin boʻlgan qismi.

Iz tushirish moslamasi

ing. - counterrecoil device

rus. - накатное устройство

Posilkalar va qiymati eʼlon qilingan banderollarni oʻrab joylashda, shuningdek, xalqaro pochta almashinuv joylarida keluvchi mayda paketlarni oʻrab joylashda foydalaniladigan qogʻoz tasmalariga pochta aloqasi obyektining nomi va pochta indeksi izini tushirish uchun moʻljallangan maxsus qurilma.

Izlash

ing. - find

rus. - найти

Ma'lumotlar bazasidan axborotni, faylni, direktoriyani va h.k.larni izlash komandasi.

Izlash agenti

ing. - search agent

rus. - поисковый агент

Tarmoqni doimiy ravishda kezib yuruvchi va veb-sahifalardan axborot yig'uvchi (ularni indekslovchi) maxsus dastur.

Izlovchi

ing. - search engine

rus. - поисковик

Qar.: Izlash tizimi.

Izoh, havola

ing. - reference

rus. - примечание, ссылка

Hujjat yoki dasturdagi muayyan joyga taalluqli qo'shimcha axborot.

Izomorfizm

ing. - isomorphism

rus. - изоморфизм

Obyektlardan tuzilgan ikki to'plam orasidagi munosabat bo'lib, birinchi to'plamdan tanlangan har bir obyekt uchun ikkinchi to'plamning yagona elementi mos keladi. Izomorfizm analogiya tushunchasining matematik aniqlashgan holdidir. Izomorfizm ushbu ikki to'plam uchun bir xil bo'lgan jami xususiyatlarni belgilaydi, ya'ni ularning biri yuzasidan chiqarilgan xulosalar boshqasi uchun ham to'g'ri.

Izotrop antenna

ing. - isotropic antenna

rus. - изотропная антенна

Har tarafga bir tekisda nurlanadigan, yo'qotishlarsiz tasavvur etiladigan antenna.

Izotrop muhit

ing. - isotropic medium

rus. - изотропная среда

Xususiyati, uning yo'nalishidan qat'i nazar bir xil bo'lgan muhit.

Izotrop nur tarqatgich

ing. - isotropic radiator

rus. - изотропный излучатель

Intensivlikning barcha yo'nalishlarida doimiyga ega bo'lgan elektromagnit nurlanishni paydo qiluvchi gipotetik nuqtasimon manba.

Izotrop nur tarqatgichga nisbatan hisoblanadigan detsibellar (dBi)

ing. - decibels, measured relative to an isotropic radiator (dBi)

rus. - децибелы, отсчитываемые относительно изотропного излучателя (dBi)

Antenna kuchaytirish koeffitsiyentining, izotrop nur tarqatgichgichni kuchaytirish koeffitsiyentiga bo'lgan, detsibellarda ifodalanagan nisbati.

Ish (harakat) turi

ing. - activity type

rus. - тип действия

Ayni bir algoritmnning bajarilishi bilan belgilanadigan faoliyatni tasniflash.

Ish (harakatlar) ustuni

ing. - action stub

rus. - столбец действий

Muammoni hal qilishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha ish (harakat)lar ro'yxati.

Ish stoli

ing. - desktop

rus. - рабочий стол

Foydalanuvchining ish komponentalari simvollari bilan tasvirlangan ekranli interaktiv vosita. Ekraning oyna (shuningdek, dialog oynalari), belgi va menyular joylashgan ish maydoni.

Ish stoli muhiti

ing. - desktop environment

rus. - окружение рабочего стола

Foydalanuvchining grafik interfeyslari turi. Bunday muhit ish stoli deb atalgan makonni ta'minlab, unda oynalar, piktogrammalar, panellar va boshqa elementlar paydo bo'ladi. Odatda muhitning turli qismlarini birlashtiruvchi mexanizmlar qo'llanadi – masalan, drag-n-drop (ma'lumotlarni ko'rsor yordamida oynalar orasida ko'chirish).

Misol – Microsoft Windows va Mac OS tizimlarining grafik interfeyslari, GNOME, KDE va Xfce muhitlari.

Ish varag'i

ing. - work sheet

rus. - рабочий лист

Tizimlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni yozishga mo'ljallangan rasmiylashtirilgan anketa. Ish varaqasi qayta ishlanayotgan hujjatlar yoki ma'lumotlar turiga mos keladigan ma'lumotlar maydonining tarkibi hamda mazmuni va ularni to'ldirish qoidalari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plamidan iborat.

Ish yuritish

ing. - office management

rus. - делопроизводство

Rasmiy hujjatlarni tuzish va ular bilan ishlashni tashkil qilishni ta'minlovchi faoliyat.

Ish yuritishni avtomatlashtirish

ing. - office automation

rus. - автоматизация делопроизводства

Korxonada va tashkilotlarning hujjatlar bilan ishlash aspektlari va funksiyalari yig'indisi.

Ishga tushirish

ing. - startup

rus. - пускать в ход

Jarayon (obyekt), dastur va h.k.larni zarur hisob-kitoblar, o'zgartirishlarni amalga oshirish maqsadida ishga tushirish. Masalan, Doppix operatsion tizimini ishga tushirish.

Ishga yaroqlilik

ing. - serviceability

rus. - работоспособность

1. Apparat qurilma yoki tizimning turli ish rejimlarida talab qilinadigan xizmat ko'rsatish sifati bilan ishlay olishi, xizmat ko'rsatishda ishdan chiqish yoki tasodifan to'xtab qolishlar bo'lganida, o'zining boshlang'ich ishchi holatini tezda tiklay olish qobiliyati.

2. Foydalanuvchining tizim bilan ishlay olishi va unga texnik xizmat ko'rsatishdagi qulaylik.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi

ing. - computer integrated manufacturing (CIM)

rus. - автоматизированная система

управления производством

Yirik firma yoki korxonada ishlarini yengil-

lashtirish yoki hujjat aylanishini osonlashtirish uchun xizmat qiladigan tizim.

Izoh - Odatda bunday tizimlar buyurtmaga ko'ra ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

ing. - computer-aided manufacturing

rus. - автоматизация производства

Mashinalashtirilgan ishlab chiqarish rivojlanishidagi jarayon, bunda ilgari odam tomonidan bajarilgan boshqaruv va nazorat funksiyalari asboblarga va avtomatik qurilmalarga beriladi.

Ishlab chiqarishni kompleks

avtomatlashtirish

ing. - computer-integrated manufacturing ()

rus. - комплексная автоматизация

производства

Kompyuterlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uslubi. U o'zida loyiha ishlari, texnologik vositalar bilan bir qatorda rejalashtirish, nazorat, boshqarish va hisob tizimlarini birlashtiradi. CIM ni ishlatish avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish korxonalarini yaratishga imkon beradi. Natijada korxonada qo'shimcha harajatlarni va moliya sarfini sezilarli kamaytiradi. Bundan tashqari, energiyani va xom ashyoni tejash ta'minlanadi, yaroqsiz mahsulot va chiqindilar kamayadi. CIM asosida kompyuterlashgan logistik tizimlar yaratiladi.

Ishlab chiqaruvchi-iste'molchi

ing. - producer-consumer

rus. - производитель-потребитель

Jarayonlarning o'zaro harakat paradigmasi, bunda jarayon-ishlab chiqaruvchi (producer) jarayon-iste'molchi (consumer) tomonidan ishlatilayotgan axborotni biror buferda generatsiyalaydi.

Ishlab chiqish

ing. - development

rus. - разработка

Mahsulot hayotiy siklining, BOni amalga oshirishni taqdim etishda yaratilishi bilan bog'liq bosqichi.

Izoh - ALC turkumidagi barcha talablarda «ishlab chiqish» atamasi va u bilan bog'liq bo'lgan (ishlab chiquvchi, ishlab chiqish) atamalarini keng ma'noda ishlatiladi, ham ishlab chiqish, ham ishlab chiqarishni bildiradi.

Ishlab chiqish muhiti

ing. - development environment

rus. - среда разработки

1. Baholash obyekti ishlab chiqiladigan muhit.

2. Ular asosida va ularning yordamida ishlab chiqish amalga oshiriladigan dasturiy va/yoki apparat vositalar majmui.

Ishlab chiqish va testlash tizimi

ing. - test-and-development system

rus. - система для разработки и тестирования

Elektron qurilmalarni ishlab chiqish va to'g'ri ishlashini tekshirish uchun mo'ljallangan dasturlar hamda vositalar kompleksi.

Ishlab chiqish vositalari

ing. - development tools

rus. - средства разработки

Dasturlashda – kompilyatorlar, komponov-kachilar, sozlovchilar, utilitalar, loyihani yuritish va versiyalarni nazorat qilish vositalari va h.k.

Ishlab chiquvchi

ing. - developer

rus. - разработчик

1. Dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchi (ingl. software developer, software engineer). Informatika, loyihalarni boshqarish, matematika, muhandislik va boshqa bilim sohalaridan texnologiyalar, uslubiyat va amaliyotdan foydalangan holda dasturiy ta'minotni yaratish va uning ishini qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi shaxs.

2. Veb ishlab chiquvchi (ingl. web developer). Veb-sayt yoki veb-qo'llanmani yaratish, jumladan, veb-dizayn, elektron tijorat qo'llanmalarini ishlab chiqish, veb-serverni konfiguratsiyalash, mijoz va server tomonida veb uchun dasturlash bilan shug'ullanuvchi shaxs.

3. Ma'lumotlar bazasini ishlab chiquvchi (ingl. database developer). Tashkilot ma'lumotlar bazalarini tashkillashtirish va yur-gizish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Ishlamay qolish

ing. - refusal

rus. - отказ

Televizor (element) ishlash xususiyatining to'liq yoki qisman yo'qolishi.

Ishlamay qolish (dasturning)

ing. - failure

rus. - отказ (программы)

Qurilma yoki tizim funksiyalari bajarilishini to'xtatishi. Bu atama ko'pincha «apparat vositalarining ishlamay qolishi» yoki «dasturdagi fatal uzilish» ko'rinishida ishlatiladi.

Ishlamay qolishda foydalana olish

ing. - failure access

rus. - доступ при отказе

Uskuna yoki dasturiy ta'minotning buzilishi natijasida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimidagi ma'lumotlardan ruxsat etilmagan tarzda va tasodify foydalana olish.

Ishlamay qolishdan so'ng tiklash

ing. - failure recovery

rus. - восстановление после отказа

Hisoblash tizimi ishini ishlamay qolishdan so'ng tiklash protsedurasi tizimning no-to'g'ri natijalar chiqarishini istisno qiladi.

Ishlamay qolishlar o'rtasidagi

ishlash muddati

ing. - lifelength between refusals

rus. - наработка между отказами

Televizor (tiklanadigan mahsulot)ning ikkita ketma-ket ishlamay qolishlari o'rtasidagi ishlash davomiyligi.

Ishlamay qolishlardan muhofaza

qilinganlik

ing. - failure protected

rus. - защищенный от сбоев

Mumkin bo'lgan ishlamay qolishlardan muhofaza qiladigan vositalar bilan jihozlangan kompyuter yoki qurilma.

Ishlamay qolishni chetlab o'tish

ing. - failover

rus. - обход отказа

Klasterli konfiguratsiyalarda – tizimning, ishlash qobiliyatini saqlab qolgan boshqa qurilmaga ulangan holda, qandaydir qurilmanning ishlamay qolishiga tez javob bera olish qobiliyati.

Ishlash muddati

ing. - lifelength

rus. - работа

Televizor (element) ning ma'lum sharoitlarda miqdor jihatdan vaqt bilan baholanadigan ishlash davomiyligi.

Ishonch

ing. - assurance

rus. - доверие

Baholash obyekti xavfsizlik funksiyasi siyosatiga mos kelishi to'g'risida ishonch uchun asos.

Ishonch ma'lumotlari

ing. - credentials

rus. - верительные данные

Mantiqiy obyektning qayd qilingan haqiqiylikni belgilash uchun uzatiladigan ma'lumotlar.

Ishonchli hisoblash bazasi

ing. - trusted computing base

rus. - достоверная вычислительная база
Hisoblash tizimi muhofaza mexanizmlarining majmui, jumladan, xavfsizlik siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun javobgar dasturiy va apparat komponentlar.

Ishonchli hisoblash tizimi

ing. - reliable computing system

rus. - надежная вычислительная система
Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi. Bunda turli foydalanish huquqlariga ega foydalanuvchilarning turli muhofaza tasnifi va muhofaza darajalaridagi ruxsat etish uchun yetarli kompyuter muhofazasi borligi nazarda tutilgan.

Ishonchli kanal

ing. - trusted channel

rus. - доверенный канал

OXF va axborot texnologiyalarining boshqa ishonchli mahsuloti orasidagi, zarur qat'iylik darajasini ta'minlovchi birgalikda ishlash vositasi.

Ishonchli kompyuter tizimi

ing. - trusted computer system

rus. - достоверная компьютерная система
1. Foydalanuvchilarning maxfiylik griflari va xavfsizlik toifalari turlicha bo'lgan ma'lumotlardan bir vaqtda foydalana olish

imkoniyati hisobga olingan holda, yetarlicha kompyuter xavfsizligi ko'zda tutiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi.

2. Xavfsizlikni ta'minlashning apparat va dasturiy vositalaridan foydalanish siyobiga, saralanmagan kritik axborot oqimining qayta ishlaniishi xavfsiz olib borilishini ta'minlovchi tizim.

Ishonchlilik

ing. - durability

rus. - надёжность

1. O'rnatilgan vaqt davomida tizimning o'z funksiyasini bajarish qobiliyati. Ishonchlilikni baholash uchun hisob-kitobga oid hamda statistik (sinovlar jarayonida olingan) xarakteristikalar qo'llaniladi va ular, odatda, qurilmaning ishga layoqatli holatda bo'la olish vaqtining foizi sifatida aniqlanadi. Ishonchlilikning asosiy ko'rsatkichlari: buzilishgacha o'rtacha ishlash muddati, o'rtacha tiklanish vaqti va boshqalar.

2. Tizim, qurilma yoki dasturiy mahsulot berilgan sharoitlarda va belgilangan vaqt davomida undan talab qilinadigan funksiyalarni so'zsiz bajara olish ehtimoli.

Ishonchlilik biti

ing. - validity bit

rus. - бит достоверности

Elektron hisoblash mashinasi xotirasidagi so'zga axborotning ishonchlilikini ko'rsatish uchun qo'shiladigan razryad.

Ishonchlilik (dasturiy vositaning)

ing. - reliability

rus. - надёжность

(программного средства)

Dasturiy ta'minotning, o'rnatilgan vaqt davri ichida o'zining ishlash sifati darajasini saqlab qolish qobiliyatiga taalluqli atributlar to'plami.

Ishonchlilik mezonini bilan kodlash

ing. - coding with fidelity criterion

rus. - кодирование с критерием верности
Manba xabarini kodli so'zga qayta o'zgartirish, bunda teskari o'zgartirishdan so'ng, dastlabki xabarga berilgan ishonchlilik mezonini ma'nosida yaqin bo'lgan qandaydir boshqa xabar olinadi.

Ishonchlilikka sinash**ing.** - test on reliability**rus.** - испытание на надежность

Televizor (element)ning ishonchlilik parametrlari qiymatlarini texnik shartlarga muvofiqligini belgilangan usulda baholash maqsadida tajribaviy aniqlash.

Ishonchlilikni yalpi tekshirish**ing.** - throughout authentication**rus.** - сквозная проверка подлинности

Ishonchlilikni tekshirish, bunda kirish kompyuteri foydalanuvchini identifikatsiya qiluvchi axborotni boshqa kompyuterga uzatadi.

Ishonchsiz qabul**ing.** - fringe reception**rus.** - неуверенный прием

Mobil stansiya xizmat ko'rsatish zonasining chekkasida ishlayotganida signallarni qabul qilish sharoitlarining yomonlashuvini tavsiflovchi tushuncha.

Ishoratlarni halqasi**ing.** - webring**rus.** - кольцо ссылок

O'xshash mavzudagi veb-saytlarni birlashtirish. Bu tashrifchiga halqaning ixtiyoriy saytlaridan uni qiziqtirayotgan mavzu bo'yicha boshqa saytlarni yengillik bilan topishga imkon beradi. Halqaning yaratilishi resurslarni birlashtirishga yordam beradi hamda foydalanuvchilarga kamroq vaqt sarflab ko'proq axborot olishga imkon beradi.

Ishchi guruh**ing.** - working group**rus.** - рабочая группа

1. Umumiy loyiha ustida ishlovchi va shu tarmoqda fayllar, ma'lumotlar bazasi va h.k. larni bo'lishuvchi lokal hisoblash tarmog'ining foydalanuvchilar guruhi. Guruhning ishi, guruh dasturiy ta'minoti yordamida koordinatsiya qilinadi.

2. Windows NT da umumiy o'ziga xos nom ostida mujassamlangan kompyuterlar guruhi ishchi guruh hisoblanadi, ularning boshqaruvi bir kompyuterning boshqaruviga monand bo'ladi.

Ishchi guruhlar uchun Windows**ing.** - Windows for workgroups**rus.** - Windows для рабочих групп

Windows 3.1 operatsion tizimining, Ethernet bazasidagi ucha katta bo'lmagan lokal tarmoqlarda ishlash uchun mo'ljallangan versiyasi (1992-yilda chiqarilgan).

Ishchi radiochastotalar diapazoni**ing.** - range of working radio frequency**rus.** - диапазон рабочих радиочастот

Radiostansiyaning ishlashi ta'minlanadigan chastotalar polosasi.

Ishchi ro'yxat**ing.** - hotlist**rus.** - рабочий список

Tez-tez foydalaniladigan manzillar (hujjatlar, veb-sahifalar va h.k.) ro'yxati.

Ishchi soha**ing.** - blackboard**rus.** - рабочая область

Ekspert tizimlarida ma'lumotlar bazasining mantiqiy xulosa jarayonida olingan barcha xulosa komponentlari uchun qulay bo'lgan va ular orasida birgalikda ishlash uchun foydalaniladigan faktlarni ichiga oladigan qismi.

Ishchi stansiya**ing.** - workstation**rus.** - рабочая станция

Odatda, kompyuter tarmog'ida ishlaydigan kompyuter yoki terminal.

Ishchi xotira**ing.** - working storage**rus.** - рабочая память

Xotiraning, bajariladigan jarayonlarning oraliq natijalarini saqlash uchun foydalaniladigan qismi.

Ishchi chastotalar polosasi**ing.** - operating frequency band**rus.** - полоса рабочих частот

Past va yuqori chastotalar bilan cheklangan polosa, uning doirasida antenning elektr parametrlari aniq turdagi antennaga qo'yiladigan texnik talablarni qanoatlantiradi.

Ishga joylashtirilgan**ing.** - built-in, embedded**rus.** - встроенный

1. Dasturning asosiy vazifasidan ancha yiroq

bo'lgan qo'shimcha imkoniyati. Masalan, fayl boshqaruvchilaridagi arxivlarni ko'rish yoki ACDSec grafik redaktorida musiqali fayllarni ishga tushirish.

2. Biror bir uskuna tarkibida ishlatiladigan, uning ichiga o'atilgan qurilma (masalan, kompyuter bosh platasi ichiga o'atilgan modern yoki videokarta), masalan, embedded computer.

Ichiga kiritilgan (singdirilgan) tovush

ing. - embedded (introduced) sound.

rus. - встроенный (внедренный) звук
SDI signali ichiga kiritilgan va video bilan birgalikda uzatiladigan tovushli ma'lumotlarning raqamli oqimi.

Ichiga solmoq, biriktirmoq

ing. - attach

rus. - вложить, прикрепить
Elektron xatga biror-bir faylni biriktirish. Bu fayllar serverda turadi va elektron xat qayta uzatilganda u kompyuterdan qayta ko'chirib olinmaydi.

Ichki firibgarlik

ing. - internal fraud

rus. - внутреннее мошенничество
Xizmatchilar tomonidan uchinchi shaxslarga konfidensial xarakterdagi texnik ma'lumotlarni uzatish yo'li bilan, shaxsan yoki ushbu shaxslar orqali foyda olish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanishi.

Ichki fotoeffekt

ing. - internal photoeffect

rus. - внутренний фотоэффект
Elektronlarni yarimo'tkazgich yoki dielektrik ichidan tashqariga chiqarmagan holda bog'langan holatdan erkin holatga elektromagnit nurlanish ta'siri keltirib chiqaradigan kvant o'tishlar.

Ichki fragmentatsiya

ing. - internal fragmentation

rus. - внутренняя фрагментация
Xotirani ajratish strategiyasini qo'llash natijasida sahifagacha bo'lgan aniqlikda bo'sh xotira samarali sarflanmaydigan tizimdagi holat.

Ichki frod

ing. - internal fraud

rus. - внутренний фрод

Jinoiy faoliyat turi bo'lib, xizmatchilar o'zlarining xizmat mavqelaridan shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali, ularga konfidensial xarakterdagi ma'lumotlarni berish yo'li bilan manfaat ko'rishda foydalanadilar.

Ichki giperishorat

ing. - internal hyperlink

rus. - внутренняя гиперссылка

Aktiv veb-saytdagi xohlagan veb-sahifa yoki faylga ko'rsatuvchi giperishorat (sayt ichidagi giperishorat).

Ichki havola

ing. - internal reference

rus. - внутренняя ссылка

Ayni bir modulda bo'lgan (aniqlangan) obyektga havola.

Ichki hujjat

ing. - internal document

rus. - внутренний документ

Hujjat tayyorlangan tashkilotdan tashqariga chiqmaydigan rasmiy hujjat.

Ichki hujum

ing. - insider attack

rus. - внутренняя атака

Muhofazalangan tarmoqning o'zidan amalga oshiriladigan hujum.

Ichki ilovalar

ing. - on-premises applications

rus. - внутренние приложения

Foydalanuvchining lokal kompyuterida bajariladigan ilovalar.

Ichki kanal

ing. - innerduct

rus. - внутренний канал

Katta diametrli konduitga joylashtirilgan qo'shimcha konduit.

Ichki koder (dekoder)

ing. - internal coder (decoder)

rus. - внутренний кодер (декодер)

Kaskadli kodlashda kanalga nisbatan ichki bo'lgan koder (dekoder).

Ichki korporativ tarmoq
ing. - internal corporate network
rus. - внутрикорпоративная сеть
Qar.: Intranet.

Ichki magistral
ing. - intrabuilding backbone
rus. - внутренняя магистраль
Bino kichik tizimining bir qismi bo'lgan, bir telekommunikatsiya shkafini boshqasi bilan bog'lovchi magistral telekommunikatsiya kabeli (kabellari).

Ichki modem
ing. - internal modem
rus. - внутренний модем
Elektr ta'minoti alohida bo'lgan ixcham avtonom qurilmani o'zida ifodalaydigan tashqi modemdan farqli ravishda, kompyuter-ning ichida o'rnatilgan plataga montaj qilingan modem mikrosxemasini.

Ichki pochta, kuryerlik jo'natmasi
ing. - domestic postal, express delivery
rus. - внутреннее почтовое, курьерское отправление
O'zbekiston Respublikasi hududida jo'natish va adresatga yetkazib berish (topshirish) uchun qabul qilinadigan pochta, kuryerlik jo'natmasi.

Ichki tarmoq
ing. - internal network
rus. - внутренняя сеть
Internetga chiqish imkoniyati bo'lmagan yoki undan tarmoqlararo ekran bilan ajratilgan korporativ kompyuter tarmog'i.

Ichki tarmoqlararo ekran
ing. - back firewall
rus. - внутренний межсетевой экран

Lokal tarmoq orqali uyushtiriladigan hujumlardan himoya qiluvchi tarmoq ekрани.

Ichki uzilish
ing. - internal interrupt
rus. - внутреннее прерывание
Uzilish komandasi yoki komandani bajarishdagi xato keltirib chiqaradigan uzilish.

Ichki veb-sayt
ing. - internal website
rus. - внутренний веб-сайт
Tashkilot doirasida yaratilgan va faqat o'sha tashkilot ichki tarmog'idan foydalanish mumkin bo'lgan veb-sayt.

Ichki xalaqit (hisoblash texnikasi vositasiga)
ing. - internal disturbance to a computer
rus. - внутренняя помеха (средству вычислительной техники)
Manbai hisoblash texnikasi vositasining bir qismi hisoblanadigan hisoblash texnikasi vositasiga bo'ladigan elektromagnit xalaqit.

Ichki yozma xat-xabarlar
ing. - domestic letter post
rus. - внутренняя письменная корреспонденция
O'zbekiston Respublikasi hududida jo'natish va adresatga yetkazib berish uchun qabul qilinadigan yozma xat-xabarlar.

Ichki shina
ing. - internal bus
rus. - внутренняя шина
Protsektorning ichki shinasi yoki markaziy protsektor bilan operativ xotira qurilmasi o'rtasidagi shina.

J

Jadval

ing. - table

rus. - таблица

1. Relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida – identifikatorlari (nomlari) bo'lgan yozuvlar ketma-ketligi ko'rinishidagi ma'lumotlar tuzilmasi.
2. Elektron jadvalning ishchi varag'i.

Jamiyatning axborot madaniyati

ing. - information culture of society

rus. - информационная культура общества

Jamiyatning o'z ixtiyorida bo'lgan axborot resurslari va axborot kommunikatsiyasi vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati. Shuningdek, ushbu maqsadlarda axborotlashtirish va axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Jamiyatning axborot muhiti

ing. - society information environment (sphere)

rus. - информационная среда общества

1. Axborot resurslari, axborotni shakllantirish, tarqatish va undan foydalanish tizimi, axborot infratuzilmasi jami.
2. Aholi yashash sifatining sezilarli oshirishini, davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini va jamiyatning barqaror rivojlanishga o'tishini ta'minlash imkonini beradigan axborot resurslari, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, axborotlashtirish vositalari, axborot mahsulotlari va xizmatlari, axborotlashtirish jarayonlarini amalga oshirishning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy shart-sharoitlari jami.

Jamiyatning axborot potentsiali

ing. - information potential of society

rus. - информационный

потенциал общества

1. Axborot resurslarini aktivlashtirish va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi jami vosita, usul va sharoitlar.
2. Axborotni ishlab chiqish va axborot xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati.

Jamoat bo'lib foydalanish liniyasi

ing. - party line

rus. - линия коллективного пользования

Ko'p tomonlama aloqa liniyasi. Bu liniyadagi barcha abonentlar bir xil raqamga ega bo'ladilar, individual farqlash boshqa belgilarga, masalan, chaqiruv signali parametrlariga qarab yuz beradi.

Jamoat foydalanish markazi

ing. - public access center (point)

rus. - центр общественного доступа

Elektron hukumat infratuzilmasining, quyidagi komponentlami:

- Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanishni ta'minlaydigan telekommunikatsiya uskunasini;

- komponentlari ishonchli himoyalanihi ta'minlanadigan qutilarga solingan alohida konstruksiyalardan (infomatlar) va/yoki avtomatlashtirilgan ish o'rinaridan iborat dasturiy-texnik kompleksni ichiga oladigan funksional elementi.

Jamoat tarmog'i

ing. - public network

rus. - общественная сеть

Davlat tasarrufidagi axborot tarmog'i.

Jamoaviy antenna

ing. - community antenna, aerial antenna

rus. - коллективная антенна

Teleradioeshittirish dasturlarini abonentlarning katta sonli qabul qilgichlari bilan bir vaqtda qabul qilish uchun mo'ljallangan antenna.

Jamoaviy maxfiy qiymat

ing. - shared secret

rus. - коллективное секретное значение

Muhofaza qilish tizimining, kriptografik algoritmilar uchun mo'ljallangan kaliti.

Jamoaviy qabul

ing. - community reception

rus. - коллективный прием

Yer usti yoki yo'ldoshli uzatishlarni bu qurilmalar joylashgan joylarda yoki cheklangan zonadagi kabel taqsimlash tizimida odamlar guruhini qurilmalar bilan ta'minlaydigan qabul.

Izoh - Jamoaviy qabul qilinadigan yo'ldoshli eshittirishni bevosita yo'ldoshli taqsimlash bilan adashitmaslik kerak.

Jamoaviy qabul qiluvchi antenna

ing. - collective reception antenna (or MATV)

rus. - коллективная приемная антенна

Kabelli taqsimlash tizimi bilan bog'langan va signallarni bir binoda yoki binolar kompleksida joylashgan abonentlar radioeshittirish qabul qilgichlariga va televizorlariga uzatish uchun mo'ljallangan antenna.

Jamper

ing. - jumper

rus. - джампер

Qar.: Tutashtirgich.

Jarayon

ing. - process

rus. - процесс

1. Xotiraning bajariluvchi kodlar va ma'lumotlar bilan muhofazalangan sohasini, bitta yoki bir nechta bajarish oqimini hamda foydalanishning bosh markerini o'z ichiga oluvchi operatsion tizim obyektini.

2. Bajarilayotgan dastur.

3. Kirishlarni chiqishlarga o'zgartiruvchi o'zaro bog'langan va o'zaro harakat qiluvchi faoliyat turlarining majmui.

Jarayon identifikatori

ing. - process identifier

rus. - идентификатор процесса

Operatsion tizimdagi jarayonlarni ko'rsatish uchun ishlatiladigan son.

Jarayon konteksti

ing. - context of process

rus. - контекст процесса

Bajarilayotgan dasturning vaqtning istalgan onidagi holati. Rejalash konteksti, fayllar tizimi konteksti, signallarni qayta ishlash jadvallari va virtual xotira kontekstidan iborat.

Jarayon muhiti

ing. - process environments

rus. - окружение процесса

Nol bilan tugaydigan: jarayon komanda satri argumentlarining vektori va jarayon muhiti (o'zgaruvchan) vektoridan iborat tizim tuzilmasi.

Jarayondan foydalanish vaqti

ing. - user time

rus. - пользовательское время процесса

Shaxsiy kompyuterining tizim resursi. Prot-

essor amaliy dastur kodini bajarishga qancha vaqt sarflayotganini ko'rsatadi.

Jarayonlarni kaskadli yo'q qilish

ing. - cascading destruction of process

rus. - каскадное уничтожение процессов

Ona-jarayonni tugatish yoki yo'q qilishda shu'ba jarayonlarni avtomatik yo'q qilish qoidasini rekursiv qo'llash natijasidagi jarayonlarni guruhli yo'q qilish.

Jarayonlarni parallel (yoki navbati bilan bir protsessorli kompyuterda) boshqarish

ing. - process control parallel (one-at-a-time on single-processor computer)

rus. - управление процессами – параллельное (или поочередное на

однопроцессорном компьютере)

Foydalanish jarayonlarini bajarish, parallel jarayonlarni aniqlik ishga tushirish, ularni boshqarish va ularni sinxronlash.

Jarayonlarni to'xtatish bilan boshqaruvni markazlashtirish

ing. - preemptive

rus. - диспетчеризация

с прерыванием процессов

Tizimga juda qisqa yoki juda muhim jarayonlar kelib tushganda jarayonlar ishini to'xtatishdan foydalanadigan boshqaruvni markazlashtirish strategiyasi.

Jarayonlarni to'xtatmasdan boshqaruvni markazlashtirish

ing. - non-preemptive

rus. - диспетчеризация без

прерывания процессов

Tizimga juda qisqa yoki juda muhim jarayonlar kelib tushganda jarayonlar ishini to'xtatishdan foydalanmaydigan boshqaruvni markazlashtirish strategiyasi.

Jarayonlarni xotiraga yoki diskka ko'chirishni rejalashtiruvchi

ing. - planner pumping and swappig processes

rus. - планировщик откачки и

подкачки процессов

Operatsion tizimning, qaysi foydalanish jarayonlari xotiraga tushirilishi yoki diskka yozilishi kerakligini aniqlaydigan rejalashtiruvchisi.

Jarayonlarning tayanch tarkibi

ing. - basic process set

rus. - базовый состав процессов

Tayanch yetilganlik darajasiga erishishni ta'minlaydigan jarayonlar tarkibi.

Izohlar

1. Jarayonlar tarkibi jarayonlarni baholashning muayyan modellari asosida shakllantiriladi.

2. Jarayonlarning tayanch tarkibi jarayonlarning eng lam tarkibini, shuningdek, baholash uchun tashkiliy kontekst talab qiladigan qo'shimcha va fakultativ jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Jarayonni boshqarish bloki

ing. - process control block (PCB)

rus. - блок управления процессом

Operatsion tizim tomonidan jarayonni boshqarishda foydalaniladigan ma'lumotlarning tizimlashtirilgan tuzilmasi.

Jarayonni ishga tushirish

ing. - running the process

rus. - запуск процесса

Amaliy jarayonlarni avtomatlashtirish tizimlarida muayyan jarayonning bajarilishini boshlash.

Jarayonning yetilganligi

ing. - maturity of the process

rus. - зрелость процесса

Muayyan jarayon aniqlik, boshqaruvchanlik, o'lchash mumkinlik, nazorat qilib bo'lishlik, natijalilik talablarini qanoatlantiradigan daraja.

Java server sahifalari

ing. - Java server pages

rus. - серверные страницы Java

Web-serverda dinamik sahifalarni generatsiya qilish uchun mo'ljallangan Java Servlet API kengaytmasi. Microsoft korporatsiyasining ASP spetsifikatsiyasiga muqobil hisoblanadi.

Java virtual mashinasi

ing. - Java virtual machine (JVM)

rus. - виртуальная машина Java

Abstrakt kompyuterni o'zida ifodalovchi Java dasturlar bayt-kodlarining interpretatori. Java tilida yozilgan va kompilyatsiya qilingan bayt-kodli dasturlarni ishga tushiradi.

Javob berish

ing. - reply

rus. - ответить

Pochta qutilarida xatni jo'natgan kishiga javob berish. Bunda xatning mavzusi saqlab qolinadi, xat matni esa javob berishi maydoniga ko'chiriladi.

Javob bermagan abonentni takroriy chaqirish toni bilan chaqiruvlarni tugallash

ing. - call completion not reply

(CCNR) with recall tone

rus. - завершение вызовов

к не ответившему абоненту с тоном повторного вызова

Abonentga takroriy chaqiruv tonida chaqiruvga javob bermagan abonentni chaqirishni tugallash imkonini beradigan xizmat. Javob bermagan (chaqirilyotgan) abonent terminali aktivizatsiyadan so'ng bo'shatilsa, chaqiriluvchi abonent, xabardor qilinadi (takroriy chaqiruv toni yuboriladi). Chaqiriluvchi abonent takroriy chaqiruv tonini qabul qilganda, tarmoq chaqirilyotgan abonentga chaqiruvni avtomatik tarzda generatsiyalaydi. Takroriy chaqiruvning maxsus toni faqat SIP abonentlarga yuboriladi.

Javob bo'lmaganda

chaqiruvni qayta manzillash

ing. - call forwarding no reply

rus. - переадресация вызова при отсутствии ответа

Xizmat abonentiga jo'natiladigan har bir kiruvchi chaqiruvni boshqa belgilangan raqamga, oldindan belgilangan vaqt davomida chaqiruvga javob bo'lmaganda, avtomatik qayta manzillash imkonini beradigan xizmat.

Javob bo'lmaganda chaqiruvni

o'tkazib yuborish

ing. - no-answer transfer

rus. - перевод вызова в случае отсутствия ответа

Mobil aloqa tarmoqlari operatorlari tomonidan taqdim etiladigan, aloqa tizimining abonentni chaqiruvga javob bermaganda, kiruvchi chaqiruvni boshqa telefon raqamiga avtomatik ravishda qayta manzillash imkonini beradigan xizmat.

Javob vaqti

ing. - response time

rus. - время ответа

Birinchi so'rovdan birinchi javobgacha bo'lgan davrda talab chilinadigan vaqt. Optimallashtirish mezonini minimallashtirish.

Jgut

ing. - harness

rus. - жгут

Yaxlit bir butun qilib yig'ilgan hamda mexanik mahkamlangan bog'lovchi simlar, kabel-lar yoki optik tolalar dastasi.

Jinoyatkor

ing. - intruder, malicious user, hacker

rus. - злоумышленник

1. G'arazli niyatda qasddan harakat qiluvchi buzg'unchi.
2. Axborot tizimi va uning resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan manfaatdor bo'lgan va ularni ruxsat etilmagan tarzda olish, o'zgartirish uchun oldindan o'ylab harakat qilgan shaxs yoki tashkilot.
3. Yomon niyatdagi chaqiruvlarni amalga oshirish maqsadida ruxsat etilmagan foydalana olishga ega bo'lgan shaxs.
4. Muhofaza obyektining axborot xavfsizligi buzilishini anglagan holda harakat qiluvchi shaxs.

Jism

ing. - shank, core

rus. - тело

Dasturiy konstruksiyalarda tugallangan harakatlarni belgilaydigan operatorlar ketma-ketligi. Dastur jismiga dasturning bajariladigan qismi kiradi, ya'ni dastur sarlavhasi va o'zgaruvchilar, konstantalar ta'rifi kirmaydi. Sikl jismiga siklni boshqarish operatorlaridan tashqari, barcha takrorlanadigan operatorlar kiradi. Protsedura va blokning jismi o'xshash tarzda aniqlanadi.

Jismoniy muhofaza qilish vositalari

ing. - physical protection facilities

rus. - физические средства защиты

Jinoyatkorming suqulib kirishi va foydalana olishi mumkin bo'lgan yo'llarda jismoniy to'siqlarni yaratish uchun maxsus mo'ljallangan avtonom qurilma va tizimlar.

Izoh – Apparatura joylashgan eshiklardagi quflar, derazadagi panjarnalar, qo'riqlash signalizatsiyasining elektron mexanik uskunasi jismoniy muhofaza qilish vositalari bo'lishi mumkin.

Jismoniy xavfsizlik

ing. - physical security

rus. - физическая безопасность

Tizim resurslari va kritik axborotga jismoniy tahdidlar (buzish, o'g'irlash, terrorchilik akti, shuningdek, yong'in, suv toshqini va b.q.)ga qarshi ogohlantiruvchi yoki qarshi chora kabi jismoniy to'siqlar va nazorat protseduralarini amalga oshirish.

Jismoniy shaxs

ing. - private customer

rus. - физическое лицо

Fuqarolik huquqi subyekti.

Jitter

ing. - jitter

rus. - джиттер

Impulslar frontining bir tekis borishi qat'iy-ligini buzadigan raqamli signal frontining titrashi.

Jonli jurnal

ing. - livejournal

rus. - живой журнал

Onlayn kundaliklarni (bloglarni) joylashtirish uchun bloglar platformasi yoki ushbu platformadagi alohida blog. Yozuvlarni nashr qilish, o'quvchilar tomonidan sharhlarni qoldirish, do'stlarning yozuvlarini o'qish kabi imkoniyatlarni beradi.

Joriy katalog

ing. - current directory

rus. - текущий каталог

Foydalanuvchi ayni vaqtda joylashgan katalog. Qoida bo'yicha foydalanuvchi tomonidan bajariladigan barcha operatsiyalar shu katalogda bajariladi.

Joriy marshrut

ing. - source route

rus. - исходный маршрут

Kompyuter tarmoqlarida joriy marshrut paket jo'natuvchiga tarmoq bo'yicha o'tuvchi manzillarni ro'yxatini ko'rsatishga imkon beradi.

Josuslikka qarshi dastur

ing. - antispyware

rus. - антишпионская программа

Kompyuterdagi josus dasturlari tanib oluvchi, ularga qarshi to'siq qo'yuvchi/o'chiruvchi dastur.

Izoh - Ba'zan reklama bannerlariga va sh.k.larga to'siqlar qo'yish uchun ham ishlatiladi.

Joylashgan yer bo'yicha chaqiruv

ing. - call by location

rus. - вызов по местоположению

Parametrlarni berish usuli, bunda chaqiruvchi model chaqiriladigan modulga uzaytiriladigan parametrlarning manzilini beradi.

Izoh - Bu usul yordamida chaqiriladigan modul, chaqiradigan modul saqlagan parametr qiymatini o'zgartirishi mumkin.

Joylashgan yer tayanch registri

ing. - home location register

rus. - опорный регистр местонахождения

Xotirasida ko'chma (mobil) stansiya abonentining barcha parametrlari va joriy joylashuvi doimiy saqlanadigan registr.

Joylashgan yerni aniqlashga asoslangan xizmatlar

ing. - location-based services (LBS)

rus. - услуги, основанные на определении местонахождения

Foydalanuvchilarning qayerdaligini kuzatib borish va ular ayni paytda bo'lgan aniq hududga taalluqli axborotni yetkazish. UMTS tarmoqlarida koordinatalarni belgilash aniqligi 50 m ga yaqin.

Joylashgan yerning vizit registri

ing. - visiting register location

rus. - визитный регистр местонахождения

Hozirgi vaqtda berilgan registr nazorat qiladigan zonadagi ko'chma stansiyalar ulanishini o'rnatish uchun zarur bo'lgan abonentlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar to'plangan registr.

Joylashtirish, o'rnatish

ing. - allocation

rus. - размещение

Dasturni bajarish uchun kompyuter resurslarini joylashtirish.

Joylashuviga ko'ra

boshqariladigan yo'ldosh

ing. - station-keeping satellite

rus. - спутник, управляемый по положению

Markazi o'rini, massasini ma'lum qonun bo'yicha, yoki shu kosmik tizimga mansub boshqa yo'ldoshlarga nisbatan, yoki Yerdagi harakatlanmaydigan yoki muayyan tarzda ko'chadigan nuqtaga nisbatan ko'chirish mumkin bo'lgan yo'ldosh.

Joystik

ing. - joystick

rus. - джойстик

Ekranida kursor bilan boshqarish uchun xizmat qiladigan, uni istalgan yo'nalishdagi harakatlanishini ta'minlaydigan, tutqich ko'rinishidagi qurilma. Bu qurilmalar barcha manipulyatorlarning asosi hisoblanadi. Simulyatorlar va arkadali kompyuter o'yinlarida, o'yin pristavkalarida va shunga o'xshash qurilmalarda keng qo'llaniladi. Buning uchun tutqichda ko'plab tugmalar va polzunlar mavjud. Ayrim joystiklar tutqichni harakatlantirishdan tashqari, uning o'z o'qi atrofida aylanishini ham ta'minlaydi.

Juda ham yuqori chastota

ing. - tremendously high frequency

rus. - чрезвычайно высокая частота

300 MHz dan 3000 MHz gacha bo'lgan diapazonda yotadigan chastotalar sohasi. Bu chastotalarga submillimetrlilik yoki detsimillimetrlilik to'lqinlar ($\lambda = 0,001 - 0,0001$ m) mos keladi.

Juda katta tezlikli asosiy tarmoq servisi

ing. - very high speed backbone

network service (VBNS)

rus. - очень высокоскоростной сервис базовой сети

NSF homiyiligi ostidagi super hisoblash markazlari va tanlangan erkin foydalanish nuqtalari orasidagi yuqori tezlikli ulanishni ta'minlaydigan loyiha qismi.

Juda katta uzunlikdagi komanda

so'zlari mavjud arxitektura

ing. - very long instruction word

rus. - архитектура с командными словами очень большой длины

Bu arxitekturadagi komandalarda bir vaqtning o'zida (parallel tarzda) protsessorning

tezligini oshirish uchun uning turli funksional bloklarida bajariluvchi oddiy komandalar birlashtirilgan bo'ladi. Bunda protsessorning samaradorligini oshirish uchun komanda darajasidagi parallelizmni tashkil qilish uchun vaqt sarflash talab qilinmaydi.

Juda past chastotalar

ing. - very low frequency

rus. - очень низкие частоты

3 kHz dan 30 kHz gacha diapazonda yotadigan chastotalar sohasi.

Juda yuqori chastotalar

ing. - very high frequencies

rus. - очень высокие частоты

Elektromagnit to'liqlarning 30 MHz dan 300 MHz gacha (uzunligi 10 m dan 1 m gacha) bo'lgan chastotalar dipazoni.

Juda yuqori chastotali

ajratuvchi filtr, diplekser

ing. - (vision/sound) diplexer

rus. - очень высокочастотный

разделительный фильтр, диплексер

Tasvir va tovush jo'rliqi radiouzatgichlaridan keladigan radiosignallar kombinatsiyalانشi va qo'shish ko'prigiga yoki bevosita antennaga uzatilishi mumkin bo'lgan qurilma.

Juda xavfli viruslar

ing. - herculean viruses

rus. - очень опасные вирусы

Ta'sir etishi dasturlarning yo'qotilishiga, ma'lumotlar yo'q bo'lishiga, diskning tizim sohalarida axborot o'chib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan viruslar.

Juft chastotalar polosasi

ing. - paired bands

rus. - парная полоса частот

Biri qabul uchun, ikkinchisi uzatish uchun ajratilgan, har birining o'rtasida himoya oralig'i bo'lgan ikkita chastota intervalini ichiga oluvchi polosa. Chastotalarning juft polosasi kanallarni chastota bo'yicha ajratish bilan dupleks uzatishda foydalaniladi (FDD rejimi).

Juftlangan moslashuv

ing. - pairwise compatibility

rus. - попарная совместимость

Chastotaviy rejalashtirish usuli bo'lib,

abonentlarning har bir juftiga ikkita - biri uzatish, ikkinchisi esa, qabul qilish uchun mo'ljallangan qayd etilgan chastota beriladi.

Juftlash, birlashtirish

ing. - pairing

rus. - спаривание

1. Ikkita bitni bitta kodli kombinatsiyaga birlashtirish; kodlash va modulyatsiyalash tizimlarida qo'llaniladi.

2. TDMA kadridagi ikkita qo'shni intervalni uzatish tezligini oshirish maqsadida agregirlash.

Juftlik asosida nazorat qilish

ing. - parity check

rus. - контроль по четности

Xatolarni aniqlashning eng sodda usuli. Axborot ketma-ketligini guruhlar (bloklar) ga bo'lish va ularning har biriga bitlar yig'indisi doimo juft yoki toq bo'ladigan tarzda tekshirish belgisi (0 yoki 1) ni qo'shishga asoslangan. Juftlikni nazorat qilish tekshiriladigan ma'lumotlarda yakka xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Juftlik biti

ing. - parity bit

rus. - бит четности

Jo'natiladigan ma'lumotlarning har bir baytiga (yoki so'zga) yuborish to'g'riligini nazorat qilish uchun qo'shiladigan qo'shimcha bit.

Juftlik bitlari generatori

ing. - parity generator

rus. - генератор битов четности

Ikkining moduli bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga qo'shiladigan «soxta» tekshiruvchi bitni generatsiyalaydigan summator ko'rinishida bajarilgan mantiqiy sxema. Juftlikni tekshirish tartiboti protokol bilan ko'zda tutilgan, kiruvchi ketma-ketlikda tekshiruvchi bitlar bo'lmagan tizimlarda foydalaniladi.

Juftlik bo'yicha bo'ylama nazorat

ing. - longitudinal parity check

rus. - продольный контроль по четности

Matritsani shakllantiruvchi to'plam bo'lagi hisoblanadigan ikkilik raqamlar satrida juftlik bo'yicha nazorat qilish.

Juftlik bo'yicha ko'ndalang nazorat

ing. - transverse parity check

rus. - поперечный контроль по четности

Matritsani shakllantiruvchi to'plam bo'lagi hisoblanadigan ikkilik raqamlar ustunida juftlik bo'yicha nazorat qilish.

Juftlik bo'yicha nazorat biti

ing. - parity check bit, parity bit

rus. - бит контроля по четности

Ma'lumotlarga, ularning ishonchligini nazorat qilish uchun ma'lumotlarni tashkil etuvchi ikkilik birliklarning yig'indisi, jumladan, nazorat biti birligi, har doim juft yoki toq bo'ladigan tarzda qo'shiladigan nazorat biti.

Juftlik xatosi

ing. - parity error

rus. - ошибка четности

Ma'lumotlardagi, ularni saqlash yoki juftlikni nazorat qilish orqali uzatish jarayonida aniqlanadigan xato.

Juftlikni nazorat qilish

ing. - parity check

rus. - контроль четности

Xatolarni aniqlashning eng oddiy usuli. Axborot ketma-ketligini guruhlar (blokklar) ga bo'lish va ularning har biriga bitlar yig'indisi doimo juft yoki toq bo'ladigan tarzda tekshirish simvoli (0 yoki 1)ni qo'shishga asoslangan. Juftlikni nazorat qilish tekshiriladigan ma'lumotlarda yakka xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Jurnal

ing. - journal

rus. - журнал

1. Qayd yozuvlarini saqlovchi fayl. Ushbu

fayl matn formatida yoki ma'lumotlar bazasi formatida bo'lishi mumkin.

2. Internet brauzerida oxirgi bir necha kun yoki hafta ichida ko'rilgan sahifalar manzillari saqlanadigan joy. «Tarix» deb ham ataladi.

Jurnali fayl tizimi

ing. - Ext3

rus. - журналируемая файловая система

Jumallash imkoniyati fsck dasturining ishlashini kutish zaruriyatidan va meta-ma'lumotlarning shikastlanish xavotiridan xalos etadi. Qattiq diskning tanlangan bo'limida ext2 fayl tizimidan ext3 fayl tizimiga va aksincha, muammosiz amalga oshirilishi mumkin.

Jo'natish ro'yxatlari

ing. - mailing lists

rus. - списки рассылки

Internetning o'z protokoliga ega bo'lmagan va faqat elektron pochta orqali ishlaydigan oddiy xizmati. Xabarlarini bitta maxsus manzildan barcha obunachilarga yetkazishni amalga oshiradi.

Jo'natuvchi

ing. - sender

rus. - отправитель

Buyurtma berish niyatida bo'lgan yoki aloqa xizmatiga buyurtma beradigan aloqa foydalanuvchisi.

Jo'natuvchining manzili

ing. - source address

rus. - адрес отправителя

Axborot manbai bo'lgan abonent yoki tarmoqning raqami.

K

Kabanov effekti (gortizont orti radiolokatsiyasi)

ing. - effect of Kabanov
(transhorizon radiolocation)
rus. - эффект Кабанова

(загоризонтная радиолокация)
Yerdan (5-30) MHz chastotalar diapazonidagi qisqa to'liqinli (dekametrl) uzoqqa sochilish hodisasi.

Kabel

rus. - кабель
ing. - cable

Ikkita yoki undan ortiq simdan, ekran va izolyatsiya qatlamidan iborat ulovchi element. Kabel tarkibiga tizimning konstruktiv elementi sifatida ajratgichlar ham kiradi.

Kabel elementi

ing. - cable element
rus. - кабельный элемент

Kabeldagi eng kichik konstruksion birlik (masalan, juftlik, to'rtlik yoki alohida tola). Kabel elementi ekranga ega bo'lishi mumkin.

Kabel kanali

ing. - cableway
rus. - кабельный канал

O'tkazgichlar, kabellar yoki optik tolani yotqizish uchun mo'ljallangan alohida yopiq kanal.

Kabel lotogi

ing. - cable tray
rus. - кабельный лоток

Telekommunikatsiya muhitini (masalan, kabelni) tutib turish uchun mo'ljallangan, zinapoya, novlar ko'rinishidagi yoki ventilyatsiyalanadigan kanal tizimi.

Kabel qobig'i

ing. - cable sheath
rus. - оболочка кабеля

Bir to'plam simni o'rab turadigan tashqi qoplama. Bitta yoki undan ortiq metall yoki optik-tolali elementi, qattiqlik yoki ekranlash elementlarini ichiga olishi mumkin.

Kabel, sim

ing. - cable
rus. - кабель, шнур

Kompyuterning elektr tokini o'tkazuvchi (ko'pincha metallidan tayyorlangan) ko'p kontakli elementi. Elektr energiyasini va signalni turli komponentlarga uzatish uchun xizmat qiladi. Ular ikkita - parallel va koaksial turga bo'linadi. Koaksial kabellar nisbatan qimmatroq, lekin signallarni yuqori chastotada uzatish imkonini beradi.

Kabel skaneri

ing. - cable scanner
rus. - кабельный сканер

Kabellarning elektr va mexanik parametrlari - uzunligi, so'nishi, impedansi, o'tish xalaqitlarini o'lchash hamda uzilish, qisqa tutashish, noto'g'ri o'rnatilgan ajratgich kabi nosozliklarni aniqlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Kabel taqsimlash tizimi

ing. - cabled distribution system
rus. - кабельная распределительная система

Tovushli va televizion dasturlarni hamda boshqa turdagi signallarni ko'plab abonentlarga uzatish uchun mo'ljallangan nurlantirmaydigan kabellar va shunga taalluqli uskunadan iborat tarmoq.

Kabel taqsimlash tizimining

bosh stansiyasi
ing. - main station of cable distribution system

rus. - головная станция кабельной распределительной системы
Mahalliy yoki tashqi manbalardan, signallarni qabul qilish va qayta ishlash uchun uskunani qo'shgan holda, kabel taqsimlash tizimiga signallarni uzatuvchi uskuna kompleksi.

Kabel televideniyesi qabul qilgichi

ing. - cable (distribution system) receiver
rus. - приемник кабельного телевидения
Abonent rozetkasidagi kabelli taqsimlash tizimi bilan ta'minlanadigan signallarni qabul qilish uchun maxsus loyihalashtirilgan radioeshittirish qabul qilgichi yoki televizor.
Izoh - Bunday qabul qilgichlar radioeshittirish diapazonlaridan tashqaridagi kanallarga sozlanishi mumkin.

Kabel terminali

ing. - cable terminal

rus. - кабельный терминал

Kabel o'tkazgichlariga kira olish va ulanishni amalga oshirish uchun foydalaniladigan qurilma.

Kabel tizimi

ing. - cabling system

rus. - кабельная система

1. Kabellar, shnurlar, simlar hamda kommutatsion uskuna yig'indisi.

2. Uzatgich va qabul qilgich orasida joylashgan optik elementlardan, masalan, tolalar, konnektorlar, muftalar va boshqa elementlardan iborat tizim.

Kabel ustuni

ing. - cable rack

rus. - кабельная стойка

Shift yoki devorga mahkamlangan, kabel oqimlarini ochiq ushlab turish uchun mo'ljallangan vertikal yoki gorizontal qurilma (odatda, alyuminiy yoki po'latdan tayyorlanadi).

Kabel uzeli (optik tola)

ing. - cable assembly (optical fiber)

rus. - кабельный узел (оптическое волокно)

Bitta yoki ikkala uchida konnektorlar ulangan optik-tolali kabel. Konnektor kabelning faqat bir uchiga ulangan bo'lsa, kabel uzeli egiluvchan o'tkazgich, agar ikkala uchiga ulansa, tutashtirgich bo'ladi.

Kabel uchastkasi

ing. - cable plant

rus. - кабельный участок

Uzatgich va qabul qilgich o'rtasida joylashgan kabellar, ulagichlar, ajratgichlar va boshqa elementlarning majmui.

Kabel shkafi

ing. - wiring closet

rus. - кабельный шкаф

Binoga xizmat ko'rsatadigan kommutatsion uskuna o'rnatilgan texnologik (apparat) shkaf.

Kabelli lokal tarmoq

ing. - cable local-area network

rus. - кабельная локальная сеть

Kanallari kabellar asosida yaratilgan lokal tarmoq. Kabelli lokal tarmoqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, har bir kanalga o'nlab tizimlar ulanishi mumkin. Shu tarzda, monokanalli tarmoq, halqasimon tarmoq va kommutatsiyalanadigan lokal tarmoq hosil bo'ladi.

Kabelli modem

ing. - cable modem

rus. - кабельный модем

Kompyuterni onlayn servisini o'zida ifodalaydigan kabelli televizion tizim bilan ulash uchun ishlatiladigan modem.

Kabelli optik kiritish qurilmasi

ing. - cable optical device is entered

rus. - вводно-кабельное оптическое

устройство

Ichida ulovchi optik tolalar (kabel) bo'lgan, ularning uzatish tizimi oraliq stansiyasining konteyneriga (sistemasiga) zich kiritilishini, ortiqcha uzunliklari yotqizilishini, shuningdek, liniya kabelining optik tolalari bilan ulanishini hamda tegishli optik ulagichlarning himoyasini ta'minlovchi qurilma.

Kabelli raqamli televizion eshittirish

ing. - cable-digital TV- broadcasting

rus. - кабельное цифровое

телевизионное вещание

Kabelli tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan raqamli televizion eshittirish.

Kabelli (raqamli televizion)

eshittirish tizimi

ing. - cable-digital TV-broadcasting system

rus. - система кабельного (цифрового

телевизионного) вещания

Televizion dasturlarni iste'molchiga kabel tarmog'i orqali yetkazish uchun mo'ljallangan raqamli televizion eshittirish tizimi.

Kabelli taqsimlash

ing. - cabled distribution

rus. - кабельное распределение

Foydalanuvchilar guruhiga televizion yoki tovushli dasturlarni kabelli tarmoqlar orqali taqsimlash.

Izoh - Ayrim tizimlarda boshqa signallar uzatilishi mumkin, shuningdek, teskari aloqa kanali ta'minlanishi mumkin.

Kabelli tarmoq

ing. - cable network

rus. - кабельная сеть

Tizimlari kabellar orqali o'zaro aloqada bo'lgan axborot tarmog'i. Axborot tizimlarida kabellarni ishlatish atmosfera shov-qinlari va quyosh nurlanishidan saqlash, ma'lumotlarning yuqori darajadagi xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qator ijobiy xossalarga olib keladi. Ayni vaqtda, simsiz tarmoqlarga nisbatan, kabelli tarmoqlar fazo va koinotdagi tizimlar bilan aloqa qiluvchi mobil tizimlarni yaratish uchun yaroqsiz. Bundan tashqari, kabelli tarmoqlar aholi kam istiqomat qiluvchi hududlarda va foydalanish qiyin bo'lgan tarmoqlarda tejamli emas. Kabelli tarmoqlar, birinchi navbatda, global va bududiy tarmoqlarda ishlatiladi.

Kabelli telefoniya

ing. - cable telephony

rus. - кабельная телефония

Kabelli televideniyesi xizmatlarini yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan telefon aloqasi xizmatlari.

Kabelli televideniye

ing. - cable TV

rus. - кабельное телевидение

Televizion dasturlarni kabel bo'yicha taqsimlash.

Kadensiya

ing. - cadence

rus. - каденция

Audiosignal, raqamning impulsli terilishi yoki chaqiruv signali uchun xos bo'lgan, almashinib keladigan tovush va pauzalar ketma-ketligi.

Kadr

rus. - кадр

ing. - frame

1. Telekommunikatsiyalarda va kompyuter tarmoqlarida: aloqa kanali orqali uzatish uchun mo'ljallangan ma'lum bir formatdagi ma'lumotlar paketi; videografikada: videooqimdag alohida kadr; HTML tili va vebdizaynda: brauzer oynasining alohida veb-sahifani ko'rsatuvchi qismi; dasturlashda (asosan quyi daraja tillarida): funktsiyaning lokal o'zgaruvchilarini saqlash uchun ajratiladigan xotira qismi.

2. Televideniya - teskari qaytishni qo'shgan holda, tasvirni to'liq tavsiflashga mos keluvchi satrlar jami.

Izoh - Ba'zi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda «frame» atamasi televideniya kadrlarining tarkibiy qismini belgilash uchun qo'llaniladi.

Kadr identifikatori

ing. - frame identifier

rus. - идентификатор кадра

Paket sarlavhasidagi maydon bo'lib, unda uzatiladigan kadrlarning turi - axborot kadri yoki xizmatga oid kadr ekanligi ko'rsatiladi.

Kadr sinxronizatori, sinxronizator

ing. - frame synchronizer

rus. - кадровый синхронизатор, синхронизатор

Tashqi manbadan kelgan sinxron bo'lmagan to'liq videosignalni yoki to'liq rangli videosignalni, xotira qurilmasiga yozish va keyinchalik uni mahalliy signallar bilan sinxron sa-nash orqali sinxronlash va fazalashni amalga oshiruvchi qurilma.

Kadr sinxronizatsiyasi, siklik

sinxronizatsiya

ing. - frame alignment

rus. - синхронизация кадра, цикловая синхронизация

Holat, bunda qabul qiluvchi uskuna bilan generatsiyalangan raqamli kadr qabul qilingan signalning raqamli kadri bilan doimiy vaqt bo'yicha nisbatga ega va alohida taym-slotlar har bir raqamli kadrda noyob identifikatsiyalangan bo'lishi mumkin.

Kadr sinxronizatsiyasi so'zi, siklik

sinxronizatsiya so'zi

ing. - frame alignment word

rus. - слово синхронизации кадра,

слово цикловой синхронизации

Har bir raqamli kadrda yoki har bir n ta raqamli kadrda keyin kiritilgan, doimo raqamli kadrda o'zgarmas nisbiy pozitsiyani egallaydigan va kadmi siklik sinxronizatsiyani o'rnatish va qo'llab-quvvatlashda foydalaniladigan razryadlarning farqlovchi guruhi.

Kadr tarkibi jadvali

ing. - frame composition table

rus. - таблица состава кадра

Kadrlarning davomiyligi, kadrda slotlarning

umumiy soni, kadring boshlanish vaqti hamda chastotaning surilishi to'g'risidagi axborotni ichiga oladigan jadval.

Kadrlar chastotasi

ing. - frame frequency, picture frequency

rus. - частота кадров

Sekund ichida yoyiladigan kadrlar soni.

Izoh - Ayrim ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda «Frame frequency» atamasi 1 sekunddagi maydonlar sonini belgilashda ishlatiladi.

Kadrlararo (maydonlararo) kodlash

ing. - inter-frame (inter-field) coding

rus. - межкадровое (межполевое)

кодирование

Tasvirning ikki va undan ortiq qo'shni kadr (maydoni) sanoqlari o'rtasidagi fazoviy va vaqt korrelyatsiyasidan foydalanishga asoslangan, raqamli oqimni qisqartirish maqsadida kodlash.

Kadrlararo taxminlash bilan kodlash

ing. - coding with inter-frame prediction

rus. - кодирование с межкадровым

предсказанием

Kanal bo'yicha mavjud kadr va koderda taxmin qilingan kadr o'rtasidagi farq uzatiladigan kodlash usuli.

Kadrlarni retranslyatsiya qilish

ing. - Frame Relay (FR)

rus. - ретрансляция кадров

Kadrlarning uzellarda minimal kechikishlar bilan tez uzatilishini ta'minlaydigan HDSL boshqaruv protokoliga asoslangan FR yuqori sath protokoli negizida qurilgan tarmoq turi. FR tarmoqlarida X.25 protokoli negizidagi tarmoqlarga xos bo'lgan ortiqchalik yo'q, trafikni inkapsulyatsiyalash yo'qotishlari 2-3 foizdan oshmaydi, chunki butun kaddagi xatolarni nazorat qilish o'miga, faqat uning yaxlitligi tekshiriladi, xatolarni aniqlash protsedurasi manzil maydoni uchungina saqlanadi. FR tarmoqlarida axborot qabul qilinishi ishonchlilik darajasini belgilash foydalanuvchilarning uskunasi ga yuklatiladi. Kadrlarni yuborishning tarmoq mexanizmi signal/shovqin nisbati yuqori (odatda, 10-7 dan yomon bo'lmagan) kanallardan foydalanishni talab qiladi. frame relay tarmoqlari arxitekturasida virtual kanallarning ikki -

doimiy (PVC) va kommutatsiyalanadigan (SVC) turidan foydalaniladi. Aloqani tashkil qilishda afzallik doimiy kanallar orqali uzatish tomonda bo'ladi. frame relay protokoli foydalanuvchilarni xabardor qilgan holda, tarmoqning o'ta yuklanishi ustidan nazorat olib borilishini ko'zda tutadi. FR texnologiyasi ITU-T (I.233, Q.920-933, I.370 tavsiyalar) hamda ANSI (T1.606, 602, 617, 618 standartlari) tomonidan standartlashtirilgan.

Kadrlash

ing. - framing

rus. - кадрирование

Videosignal datchigida yoki tiklash qurilmasida yoyuvchi element bilan aylanib chiqadigan sirtning to'g'ri joylashishi.

Kadrlarni differensial kodlash

ing. - differential frame coding

rus. - дифференциальное

кодирование кадра

Harakatdagi tasvirlar holatida signallarni siqish bilan kodlashdan foydalanib faqatgina ikkita qo'shni kadrlar orasidagi farq to'g'risidagi axborotni uzatish.

Kadrlarni diskret-kosinus o'zgartirish

ing. - trained discrete cosine transformation

rus. - кадровое дискретно-косинусное

преобразование

Tasvirni satrlararo qayta ishlash usuli orqali ikki maydonni bir kadr ga satrma-satr birlashtirish va progressiv yoyish bilan uni oddiy tasvir kabi qayta ishlash usuli.

Kadrlarning tebranishi

ing. - frame bounce, frame twitch

rus. - подергивание кадра

Vertikal yo'nalishdagi televizion tasvirda paydo bo'ladigan fazaviy titrash.

Kafolat

ing. - assurance

rus. - гарантия

Xavfsizlik siyosatini o'tkazishning to'g'riligi va batartibligiga nisbatan arxitektura va tizim xavfsizligini ta'minlash vositalariga ishonch o'Ichovi.

Kafolatlangan xizmat ko'rsatish zonasi**ing.** - guaranteed service area**rus.** - гарантированная зона обслуживания

Har qanday tashqi omillar ta'siriga qaramay, turg'un aloqa ta'minlanadigan xizmat ko'rsatish zonasi.

Kafolatlangan yo'nalganlik diagrammasi**ing.** - guaranteed radiation pattern**rus.** - гарантированная диаграмма

направленности

Real yo'nalganlik diagrammasi yaproqlari cho'qqi qiymatlarining og'ib o'tuvchisi.

Izoh - Kafolatlangan yo'nalganlik diagrammasi darajasining 3 dB dan ko'p bo'lmagan va real yo'nalganlik diagrammasi yon yaproqlari pikrlarining 10 foizidan ko'p bo'lmagan oshishiga yo'l qo'yiladi.

Kalibr lash**ing.** - calibration**rus.** - калибровка

Audio- yoki video qurilmalarning to'g'ri ishlashini ta'minlash maqsadida, ularni aniq sozlash.

Kalit, kod**ing.** - key**rus.** - ключ

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidagi kalit. Baza faylida xabarni identifikatsiya qilish va unga tez kira olishni ta'minlash uchun ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi.

Kalit oqimi**ing.** - keystream**rus.** - ключевой поток

Ikkining moduli bo'yicha bitma-bit jamlash yordamida o'zgartiriladigan ochiq xabarga qo'yiladigan uzun psevdotasodifiy ketma-ketlik.

Kalit oqimi generatori**ing.** - key stream generator**rus.** - генератор ключевого потока

Oqimli kriptotizimlar uchun kalit oqimini ishlab chiquvchi algoritim. Yo jo'natuvchi va oluvchi uchlarida bir xil kalit oqimini qayta ishlab chiqish uchun determinallangan, yo tasodifiy bo'lishi mumkin. Agar generator determinlangan bo'lsa, u maxfiy kalitga bog'liq bo'ladi. Kalit oqimi generatorlari odatda siljish registrlarining kombinatsiyasiga va no-

chiziqli Bul funksiyalariga asoslanadi. Kalit oqimi generatorlarini tuzishda ko'pincha, blokli shifrlarni kriptografik qayta tuzishdan, masalan OFB yoki hisoblagichli usuldan foydalaniladi.

Kalit sertifikat**ing.** - key certificate**rus.** - сертификат ключа

1. Ochiq kalit, kalit egasining xizmatga oid axboroti, shuningdek ishonchli sertifikatlash-tirish markazi (tasdiqlochi markaz) vakolatlangan shaxsining raqamli imzosi bilan tasdiqlangan boshqa xizmatga oid axborotni o'z ichiga olgan oldindan belgilangan formatdagi ma'lumotlar tuzilmasi (kalitning amal qilish vaqti va vazifasi, foydalanilayotgan kriptografik algoritmlar turi va b.).

2. Ochiq kalitning, uni ishlab chiquvchi shaxsga muvofiqligini tasdiqlovchi raqamli guvohnoma. Eng oddiy shaklda sertifikatlar ochiq kalit va kalit muallifining nomini o'z ichiga oladi. Bu axborotdan tashqari, sertifikatda sertifikatning amal qilish muddati tugagan sana, sertifikat bergan tashkilot nomi va ayrim boshqa axborot bo'lishi mumkin.

Kalit so'z**ing.** - keyword**rus.** - ключевое слово

1. Dasturlash tillarida - oldindan belgilangan harakat, o'rnatilgan funktsiya yoki operatsiya aniqlanadigan so'z.

2. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida - qandaydir yozuvlar yoki hujjatlarni izlash amalga oshiriladigan so'z.

Kalit tizimi**ing.** - key system**rus.** - ключевая система

1. Kriptografik kalitlarni generatsiya qilish, taqsimlash, ulardan foydalanish, saqlash, almashtirish, yo'q qilish va tiklash tartibini belgilovchi qoidalar majmui.

2. Axborotning kriptografik muhofaza qilinishini ta'minlashda, kriptografik kalitlar va ulardan foydalanish qoidalarining majmui.

Kalitlar bilan almashish**ing.** - key exchange**rus.** - обмен ключами

1. Obyektlar o'rntasida, bu obyektlar orasida

bog'lanishni kodlash uchun foydalanilishi kerak bo'lgan ochiq kalitlarni almashinish.

2. Odatda ikki tomon keyinchalik shifrlangan axborot bilan almashish uchun kriptotizim kalitlari bilan almashadigan jarayon.

Kalitlar generatsiyasi

ing. - key generation

rus. - генерация ключей

Kriptografik kalitlarni generatsiyalash jarayoni. Kirxgoff qoidasiga muvofiq, kriptografik algoritmining o'zgarmasligi kalitning maxfiy-ligiga asoslanadi, shuning uchun kalitlar generatsiyasi juda muhim jarayon hisoblanadi, uni bajarish uchun turli usullardan, masalan, tasodifiy va psevdotasodifiy ketma-ketlikdagi generatorlardan foydalaniladi.

Kalitlarni autentifikatsiya qilish va tanlash to'g'risida bitim

ing. - authentication and key

selection agreement

rus. - соглашение об аутентификации и выборе ключей

3G tarmoqlarida ikki tomonlama autentifikatsiya qilish protsedurasi, bunda uzatuvchi tomondan autentifikatsion vektor shakllanadi va qabul qiluvchi tomon bilan kelishiladi. Agar kelishuvga erishilsa, shifrlash kalitini hisoblash amalga oshiriladi, aks holda, so'rov bekor qilinadi.

Kalitlarni boshqarish

ing. - key management

rus. - управление ключами

1. Kalitlarning muhofazalangan generatsiyalanishi, taqsimlanishi, saqlanishi va yo'q qilinishini ta'minlovchi tadbirlar va protseduralarning majmui.

2. Kalitlarning to'liq yashash sikli davomida bajariladigan, kriptografik kalitlarni va xavfsizlik (masalan, initsializatsiya qilish vektorlari va parollar) bilan bog'liq boshqa parametrlarini boshqarishni, shuningdek ularni generatsiyalash, saqlash, o'rnatish, kiritish, chiqarish va nollashni o'z ichiga olgan harakatlar.

3. Xavfsizlik siyosatiga muvofiq, kalitlarni generatsiyalash, saqlash, taqsimlash, chiqarib tashlash, hisobga olish va qo'llash.

Kalitlarni boshqarish tizimi

ing. - key management system

rus. - система управления ключами

Kalit tizimining, putur yetkazilgan (obro'-sizlantirilgan) kalitlardan foydalanish, ularni almashtirish, saqlash va arxivlash, zaxira nusxa ko'chirish, tiklash, muomaladan chiqarib tashlash, shuningdek, eski kalitlarni yo'q qilish tartibini belgilovchi tarkibiy qismi.

Kalitlarni oldindan taqsimlash sxemasi

ing. - preliminary key distribution scheme

rus. - схема предварительного

распределения ключей

Boshlang'ich kalit axborotni taqsimlash va kalitlarni shakllantirish algoritmlarining majmui.

Kalitlarni ochiq taqsimlash

ing. - public key distribution

rus. - открытое распределение ключей

1. Muhofazalanmagan telekommunikatsiyalar kanallari bo'yicha kriptografik kalitlarni taqsimlash mexanizmi.

2. Ikki ta abonentga, oldindan taqsimlanadigan qandaydir umumiy maxfiy axborotni uzatmasdan turib, ochiq telekommunikatsiyalar kanali orqali xabarlarini almashinish yo'li bilan, umumiy maxfiy kalit ishlab chiqish imkonini beradigan protokol.

Kalitlarni saqlash uchun topshirish

ing. - key escrow

rus. - депонирование ключей

Kriptografik kalitlarni ikki qismga ajratib, kalitlarni saqlash uchun topshirish jarayoni, ularning har biri shifrlanadi va kalit komponentlari, amal qilish muddati davomida ishonchli saqlashni ta'minlovchi ishonchli hukumat tashkilotlariga saqlash uchun topshiriladi. Bu komponentlar milliy xavfsizlik uchun javobgar xizmatlarga noyob kalitlarni tiklash va xabarlarini rasshifrovka qilish imkonini beradi.

Kalitlarni sertifikatlash markazi

ing. - key certification center

rus. - центр сертификации ключей

Muhofazalangan bog'lanishga bo'lgan har bir so'rovda abonent-respondent kalitiga murojaat qilinishini talab etmaydigan mexanizm.

Kalitlarni taqsimlash

ing. - key distribution, key management

rus. - распределение ключей

1. Kalitlarni boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri. Turli xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Simmetrik kriptotizimlar uchun abonentlarga kalitlarni yetkazib berishning quyidagi variantlari mavjud: – muhofazalangan kanallar bo'ylab, masalan feldyegerlik xizmati yordamida; – turli kanallar bo'ylab qismlarga bo'lib; – kalitlarni taqsimlash markazi orqali. Asimmetrik kriptotizimlar uchun kalitlarni ochiq taqsimlash mexanizmidan foydalanish mumkin.

2. Kriptografik kalitlarni generatsiyalash, foydalanuvchilarga yuborish, saqlash va bekor qilish tartibini belgilovchi qoidalar majmui.

Kalitlarni taqsimlash markazi

ing. - key distribution center

rus. - центр распределения ключей

1. Simmetrik kriptotizimlarda maxfiy kalitlarni taqsimlash imkonini beradigan mexanizm.

2. Ishonch bildirilgan shaxslarga vaqtinchalik seans kalitlarini berish vakolatiga ega tizim. Izoh – Har bir seans kaliti shifrlangan ko'rinishda topshiriladi, buning uchun ma'lumotlar beriladigan ishonch bildirilgan shaxs bilan birgalikda kalitlarni taqsimlash markazi tomonidan qo'llaniladigan asosiy kalitidan foydalaniladi.

3. Ishtirokchilar (protokolning ishtirokchilari) o'rtasida simmetrik shiftizimlardagi yoki asimmetrik shiftizimlardagi maxfiy kalitlarni taqsimlovchi ishonch markazi.

Kalitlarni taqsimlash protokoli

ing. - key distribution protocol

rus. - протокол распределения ключей

1. Bajarilishi natijasida birgalikda ishlaydigan tomonlar (foydalanuvchilar, foydalanuvchilar guruhi) kriptografik tizim ishlashi uchun zarur bo'lgan kalitlarni oladigan protokol.

2. Foydalanuvchilar tomonidan kriptografik tizim ishlashi uchun zarur bo'lgan kalitlarni olish protokoli. Kalitlarni taqsimlash protokolinig quyidagi turlari farqlanadi: (generatsiyalangan) kalitlarni uzatish protokollari; umumiy kalitni ishlab chiqish protokollari (kalitlarni ochiq taqsimlash); kalitlarni dastlabki taqsimlash sxemalari.

Kalitlarni tarqatish xizmati

ing. - key distribution service

rus. - услуга рассылки ключей

Kalitlarni vakolatli obyektarga xavfsiz tarqatish xizmati. Kalitlarni tarqatish markazi tomonidan bajariladi.

Kalitlarni tez yangilash

ing. - key freshness

rus. - быстрое обновление ключей

Kalitli axborotni ochishdan muhofaza qilish usuli, unga ko'ra, har bir yangi aloqa seansida kalitlar yangilanadi, bunda kalitlarning hech qaysisi takroran ishlatilmaydi.

Kalitlarni o'rnatish tizimi

ing. - key setting system

rus. - система установки ключей

1. Kalitlarni generatsiyalash, taqsimlash, uzatish va tekshirish algoritmlari va protseduralarini belgilovchi kalit tizimining kichik tizimi.

2. Kalit tizimining, kalitlarni generatsiyalash, taqsimlash, berish va tekshirish algoritmlari hamda protseduralarini belgilovchi tarkibiy qismi.

Kalitlarning hayotiy sikli

ing. - key lifecycle

rus. - жизненный цикл ключей

Kalitlar generatsiya vaqtdan yo'q qilish vaqtigacha o'tadigan bosqichlar ketma-ketligi.

Kalitni ochib ko'rsatish

ing. - key scheduling

rus. - развертывание ключа

Shifrlash kalitidan raundli kalitlar ketma-ketligini ishlab chiqish protsedurasi. Odatda, raundli kalitlarning jami hajmi shifrlash kalitining o'lchamidan ancha ko'p bo'ladi.

Kalitning amal qilish davri

ing. - life cycle

rus. - период действия ключа

Vaqt intervali, uning mobaynida kriptografik kalit almashtirilmasdan, zarur muhofazalanganlik kafolatlanadi.

Kalkulyator

ing. - calculator

rus. - калькулятор

Hisob-kitoblarni bajarishga yordam beradigan ko'pgina operatsion tizimlarning max-

sus, ichki qurilgan dasturi. Ikki xil – oddiy va muhandislik uchun mo'ljallangan turlari mavjud.

Kallak

ing. - head

rus. - головка

Ma'lumotlarni diskdan o'qish va unga yozish komponenti. Dastlabki diskdan o'qish va unga yozish kallaklari ferritdan yasalgan edi. So'ngra ular o'miga juda yupqa metall qatlamli tuzilmali kompozit moddalardan yasalgan kallaklar ishlatila boshladi. Yupqa plyonkali kallaklarga o'tish ularning o'lchamlarini ancha kichraytirishga imkon berdi. Ma'lumotlarni diskda yuqori zichlikda yozish uchun ishlab chiqilgan magnit rezistiv kallaklar haqiqiy inqilob bo'ldi.

Kam harakatli tasvirga ega televideniye

ing. - still-picture television

rus. - телевидение с малоподвижным изображением

Tiklanadigan tasvir va shu tasvirmo yoki yangi tasvirmo o'zgartirilgan versiyasini qayta tiklash o'rtasidagi vaqt intervali, tasvir ketma-ketligining tarkibiy qismi, odatda, kadrlarning oddiy davridan qisman oshadigan televideniye.

Kam shovqinli konvertor

ing. - low-noise converter

rus. - малошумящий конвертор

Tarkibida kam shovqinli kuchaytirgichi va L-diapazonda yuqori oraliq chastotali (OCh) o'zgartirgichi bo'lgan yo'ldoshli aloqa (yo'ldoshli televideniye)ni qabul qilish) stansiyasining kam shovqinli kirish qurilmasi.

Kam shovqinli kuchaytirgich

ing. - low-noise amplifier

rus. - малошумящий усилитель

Yo'ldoshli aloqa liniyasining qabul qilish qurilmasi kirishidagi kichik xususiy shovqinli dastlabki kuchaytirgich.

Kamayib borish bo'yicha saralash

ing. - descending sort

rus. - сортировка по убыванию

Ma'lumotlarni katta qiymatlardan kichik qiymatlarga tomon masalan, sanalarni – hozirgisidan oldingi sana tomon, matnli ma'lumotlarni – alifbo tartibiga teskari tartibda qo'yish.

Kamera

ing. - camera

rus. - камера

Yorug'likka sezgir moddalarda predmetlarning tasvirini olishga mo'ljallangan qurilma. Eslab qolinadigan signalning turiga qarab kameralar analog va raqamli turlarga bo'linadi.

Kamerali kanal

ing. - camera channel

rus. - камерный канал

Televizion kamera bilan bog'liq, sinxro-generator, kuchaytirgich, kamerani boshqarish bloki va to'liq videosignalni paydo qilishga imkon beradigan tuzatadigan qurilmalarni o'z ichiga olgan uskunalarning jami.

Kanal

ing. - pipe

rus. - канал

1. Axborotni uzatish marshruti.

2. Telekommunikatsiyalar tizimining, manba va xabarlar qabul qilgichni o'zaro bog'lovchi qismi.

Kanal bo'yicha kodlash

ing. - channel coding

rus. - канальное кодирование

1. Telekommunikatsiyalar kanali orqali ishonchli uzatishni ta'minlash uchun, xatolarni aniqlovchi kodlardan yoki xatolarni tuzatuvchi kodlardan foydalanish.

2. Shiftlangan xabarlar uzatish usuli, bunda har bir xabar deshifrovka qilinadi va uni qayta jo'natishning har bir bosqichidan so'ng yana qayta kodlanadi.

3. Raqamli signalni uzatish kanali xarakteristikalar bilan muvofiqlashtirilgan signalga aylantirish uchun raqamli kodlash.

Izohlar

1. Kanalli kodlashda, ayrim ortiqchalik atayin kiritilishi mumkin, masalan, xatolardan himoya qilish uchun.

2. «Liniyani kodlash» atamasi kabelli uzatishda ham xuddi shu ma'noga ega, lekin, odatda, xatolardan himoya qilishni o'z ichiga olmaydi.

Kanal darajasi (ma'lumotlar

bo'g'ini darajasi)

ing. - link layer

rus. - канальный уровень

(уровень звена данных)

Tarmoq elementlari o'rtasida ma'lumot-

lar uzatish darajasida aloqani tashkil qilish, qo'llab-quvvatlash va uzilishlarni ta'minlaydigan OSI modelining ikkinchi sathi. Paketlarni qabul qilish va uzatish, deytagramma darajasidagi servis, lokal manzillash va xatolarni nazorat qilish uchun javob beradi.

Kanal hosil qiluvchi apparatura

ing. - channel bank

rus. - каналообразующая аппаратура

Alohida kanallar signallarining guruhli signallarga birlashtirilishini ta'minlaydigan apparatura. Kanallar chastotaviy bo'linadigan tizimlarda ko'p kanalli signal kanallarni chastota bo'yicha transponirlash hisobiga hosil qilinadi.

Kanal intervali

ing. - channel time-slot

rus. - канальный интервал

Siklda muayyan o'rinni egallovchi va kanallarni vaqt bo'yicha ajratish usuli bilan olingan bitta kanal uchun mo'ljallangan vaqt intervali.

Kanal sathi protokoli

ing. - channel layer protocol

rus. - протокол канального уровня

Muhitga kira olishni boshqarish (MAC - sathidagi) va OSI yetti sathli modelining fizik (PHY) sathidagi simsiz tarmoqlarni tashkil qilish tartibini belgilaydigan protokol.

Kanal chegarasi

ing. - channel bound

rus. - граница канала

Kanal polosa kengligi bilan ajratilgan E-UTRA eltuvchining quyi va yuqori chastotalari.

Kanaldan muvozanatli foydalana olish tartiboti

ing. - link access procedure

balanced (LAPB)

rus. - процедура сбалансированного доступа к каналу

X.25 protokoli asosidagi paketlar kommutatsiyalanadigan tarmoqlarda foydalaniladigan kanal pog'onasidagi tartibot. Foydalanuvchi uskunasi va tarmoq kommutatori o'rtasida ma'lumotlar almashinuvining simmetrik rejimini tashkil qilish imkonini beradi. Ish-

lash jarayonida xatolarning nazorat qilinishi va uzatiladigan ma'lumotlarning yaxlitligi ta'minlanadi.

Kanalga xizmat ko'rsatish modull ing. - channel service unit (CSU)

rus. - модуль обслуживания канала

Tashqi telefon tarmog'idan mijoz territoriyasiga signal o'tkazadigan dastlabki moslama. CSU telefon tarmog'ining to'g'ri yakunlanishini, uning kelishuvi va xatosini, bundan tashqari qurilma nosozligini qidirganda shleyf orqali liniya tekshiruvini ta'minlaydi.

Kanallar adapteri

ing. - channel adaptor

rus. - адаптер каналов

Televizion kanalda eltuvchilar tarqoqligini va ularning chastota spektridagi holatini o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Kanallar kommutatsiyasi

ing. - circuit switching

rus. - коммутация каналов

1. Paketlarni uzatish uchun foydalaniladigan ikki xost o'rtasida ajratilgan kommunikatsiya yo'li tashkil etiladigan kommunikatsiya modeli. Yo'li faqat uzatish vaqtida mavjud bo'ladi, uzatish tugagandan so'ng yo'li yopiladi. Ulanish yopilgach undan boshqa xostlar foydalanishi mumkin.

2. Foydalanuvchilar o'rtasida aniq hajmdagi xabarlarini uzatish uchun zarur vaqt talab etiladigan kanallarining ketma-ket bog'lanishini ta'minlaydigan stansiyalar va uzellardagi operatsiyalar majmui.

3. Jo'natuvchi va oluvchi o'rtasida ulanish davomida ajratilgan fizik aloqa kanali mavjud bo'ladigan kommutatsiya tizimi. Telefon tarmog'ida keng qo'llaniladi.

Kanallar kommutatsiyasining mobil markazi

ing. - mobile telephone switching office (MTSO)

rus. - мобильный центр коммутации каналов

Radiotarmoqning kommutatsiya markazi bo'lib, barcha chaqiruvlarni nazorat qiladi, umuman tizim ishini boshqaradi.

Kanallar puli

ing. - pooled channels

rus. - пул каналов

Umumiy pulga birlashtirilgan bitta yoki bir nechta tayanch stansiyaga mansub bo'lgan ishchi kanallar guruhi.

Kanallardagi qutblanish nosozligini

xotirada saqlab qolish

ing. - remembering on polarization detuning in each channel

rus. - запоминание расстройки по поляризации на каждом канале

Har bir kanal uchun dasturlarni qayta ulashdan so'ng avtomatik tarzda almashtirish orqali qutblanish burchagini moslash mumkinligi.

Kanallarni agregatsiyalash

ing. - channel aggregation

rus. - агрегирование каналов

Bir nechta parallel kanalni bitta, yuqori tezlikli ma'lumotlar oqimiga birlashtirish hisobiga, o'tkazish qobiliyatini oshirish usuli.

Kanallarni bo'lish

ing. - channel assignment

rus. - деление каналов

Yacheykalardan birida ortiqcha yuklanish sodir bo'lganda kanallarni dinamik taqsimlash hisobiga mobil aloqa tarmog'i qobiliyatini kuchaytirish usuli.

Izoh - Qo'shni yacheykalardan o'zlashtirish hisobiga oshirilgan trafikli tayanch stansiya uchun ajratilgan ishchi kanallar sonini oshirishga imkon beradi.

Kanallarni fazoviy ajratish bilan ko'p stansion foydalana olish

ing. - space division multiple access (SDMA)

rus. - многостанционный доступ с пространственным разделением каналов
Butun xizmat ko'rsatish zonasi ko'plab mayda hududlarga bo'linadigan va ularning har biri alohida nur bilan qamrab olinadigan foydalana olish usuli.

Izoh - Turli zonalarda ishlab turgan abonentlar o'rtasidagi aloqa nurlararo kommutatsiya hisobiga amalga oshiriladi.

Kanallarni fazoviy-kodli ajratish bilan ko'p stansion foydalana olish

ing. - space division CDM (SD-CDMA)

rus. - многостанционный доступ с

пространственно-кодовым

разделением каналов

Kanallarni fazoviy ajratishga asoslangan gibrid foydalana olish usuli, unda qo'shni nurlarda turli kodli ketma-ketliklar ishlatiladi. Izoh - Bunday foydalana olish usulida turli nurlar signallari o'rtasidagi kerakli bo'shalish ular hamda ustma-ust tushganida ham amalga oshadi.

Kanallarni kod bo'yicha ajratish

bilan ko'p stansion foydalana

olish texnologiyasi

ing. - code division multiple access (CDMA)

rus. - технология многостанционного

доступа с кодовым разделением каналов

Kengaytirilgan spektrli signallardan foydalana olishga asoslangan kodli foydalana olish texnologiyasi. Bunda, odatda, o'zaro «yaxshu» korrelyatsiyalanish xossalari ega bo'lgan kodli psevdotosodifiy ketma-ketlik (PTK) lar negizida tashkil etilgan fazoviy manipulyatsiyalangan signallar qo'llaniladi. Turli psevdotosodifiy ketma-ketliklardan foydalanish CDMA tizimi abonentlariga chastotalarning umumiy polosasida ishlash va har qanday kanaldan foydalanish imkonini beradi.

CDMA texnologiyasining asosiy ustunliklariga: signalni o'ramga aylantirish jarayonida oddiy shovqinga transformatsiyalanadigan tor polosali xalaqitlarga nisbatan yuqori xalaqitga chidamlilik, radioto'lqinlar ko'p nurlil tarqaladigan kanallarda yuqori spektral samaradorlik, abonent bir zonadan boshqasiga ko'chib o'tganida kanallarni ohista almashlab ulash (xendover) kiradi. Tarmoqdagi barcha tayanch stansiyalar bitta chastotada ishlaydi, shuning uchun chastotaviy rejalashtirish zarurati yo'q. Abonent stansiyalari quvvatlarining sochilishiga bo'lgan yuqori sezgirlik va tayanch stansiyalarni sinxronlash zarurati (IS-95 standarti) - CDMA texnologiyasini joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklardir.

Kanallarni kod bo'yicha ajratish

hamda vaqt bo'yicha psevdotosodifiy

qayta sozlash bilan ko'p stansion

foydalana olish

ing. - time hopping CDMA (TH-CDMA)

rus. - многостанционный доступ с кодовым разделением каналов и псевдослучайной перестройкой во времени

Gibrid foydalana olish texnologiyasi, unda axborot vaqtda siqiladi va shovqinsimon signallardan foydalanilgan holda uzatiladi.

Kanallarni kod bo'yicha ajratish texnologiyasi
ing. - code-division multiplexing (CDM)

rus. - технология кодового
разделения каналов

Bitta eltuvchi chastotadan kanallarni ajratish usuli, bunda turli kanallarning signallari foydalaniladigan kodli (odatda, psevdotosodifiy) ketma-ketlik turlari bo'yicha farqlanishi talab qilinadi.

Kanallarni kod-vaqt bo'yicha ajratish bilan ko'p stansion foydalana olish
ing. - time division CDMA (TD-CDMA).

rus. - многостанционный доступ с кодово-временным разделением каналов
1. Gibrid foydalana olish texnologiyasi, bunda vaqt kadri kanalli intervallar (KI)ga bo'linadi, uzatiluvchi ma'lumotlar bloki esa, uch parametr – chastota, vaqt hamda kod bilan tavsiflanadi.

Izoh – «Bitta abonent – bitta KI» yoki «ikkita abonent – bitta KI» (yarim tezlikli kanallar uchun) prinsipi amalga oshiriladigan klassik TDMA texnologiyasidan farqli ravishda, TD-CDMA ning bitta vaqt intervalida kengaytirilgan spektrli bir necha CDMA-signalning uzatilishi ta'minlanadi.

2. (TDD) vaqt dupleksidan foydalaniladigan WCDMA tizimlarning ishlash rejimlaridan biri.

Kanallarni kodli ajratish bilan ko'p stansion foydalana olish
ing. - code-division multiple access (CDMA)

rus. - многостанционный доступ с кодовым разделением каналов
cdmOne, CDMA2000 va WCDMA radiointerfeyslari uchun mo'ljallangan ko'p stansion kira olish texnologiyasi. Bunda har bir abonent umumiy chastotalar polosasida tarmoqqa kirish uchun o'ziga xos kodli ketma-ketlikdan foydalanadi.

Kanallarni kodli ajratish bilan ko'plab kira olish
ing. - code division multiple access (CDMA)
rus. - множественный доступ с кодовым разделением каналов

Tarmoqda bir turdagi chastotalardan ko'p marta foydalanadigan mobil aloqaning raqamli tizimi (radiochastotali aloqaning samarali foydalaniladi).

Izoh – Nurlanuvchi quvvat va shovqinlar darajasining bir vaqtda pasayishida yuqori sig'imni va nutqning yuqori sifatini ta'minlaydigan mobil aloqa tizimi.

Kanallarni kommutatsiya qilish bilan uzatish rejimi
ing. - circuit transfer mode

rus. - режим передачи с коммутацией каналов

Uzatish va kommutatsiya qilish funksiyalari bog'lanishlar o'rtasidagi kanallar yoki chastotalar polosasini doimiy birlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladigan axborotni ko'chirish rejimi.

Kanallarni kommutatsiyalash usuli
ing. - channel switching method

rus. - метод коммутации каналов
Uzatish kanallari butun bog'lanish vaqtiga ajratiladigan kommutatsiyalash usuli.

Izoh – 2G simsiz tarmoq va an'anaviy telefon tarmog'i kanallarni kommutatsiyalash usulidan foydalanib qurilgan tarmoqlarga mosdir. Bu usul ma'lumotlar uzatish uchun, paketlarni kommutatsiyalash usuliga qaraganda, kam samarali.

Kanallarni ko'p tezlikli kommutatsiyalash
ing. - multirate circuit switching

rus. - многоскоростная коммутация каналов

Kanallarni 64 Kbit/sekund tezlikka karrali, ya'ni, n*64 Kbit/sekund bo'lgan tezliklar bilan sinxron kommutatsiya usuli. Bu yerda n – butun son.

Kanallarni majburiy ravishda o'zlashtirib olish bilan taqsimlash

ing. - forcible-borrowing channel assignment

rus. - распределение с принудительным заимствованием каналов

Kanallarni taqsimlash protsedurasida, bunda ortiqcha trafik paydo bo'lgan uyalar (yacheykalar)ning ishchi kanallari soni, nisbatan kamroq trafikli yacheykalardan o'zlashtirish hisobiga ko'paytiriladi. Protsedura avtomatik ravishda bajariladi.

Kanallarni skanlash
ing. - scan of channels

rus. - сканирование каналов

Aloqa kanallari holatini, ularning axborotni uzatishga yaroqliligi nuqtai nazaridan, tekshirish tartiboti. Bunda, odatda, qabul qilgichning kirishida mavjud bo'lgan shovqinlar darajasi o'lchanadi yoki joriy signal/xalaqit nisbati aniqlanadi.

Kanallarni vaqt bo'yicha ajratish

ing. - time division multiplexing

rus. - временное разделение каналов

Vaqtini ajratish (kanallarni vaqt bo'yicha zichlash) bilan multipleksorlash.

Kanallarni chastota bo'yicha

ajratish bilan ko'plab/ko'p

stansion foydalana olish

ing. - frequency-division

multiple access (FDMA)

rus. - множественный/многостанционный доступ с частотным разделением каналов

1. Spektrdan foydalana olish usuli, bunda bir yoki bir nechta chastota polosasi bitta abonentga taqsimlanadi, turli abonentlar turli chastota polosalaridan foydalanadilar. Biroq, abonentlar TDMA, CDMA yoki SDMA foydalana olish usullarini qo'llagan holda, spektrdan birgalikda foydalanishlari mumkin. FDMA ning xususiyati shundaki, apparat amalga oshirish (ko'rinish)da filtrlarga qo'yiladigan talab TDMA yoki CDMAga qaraganda yuqoriroq, lekin vaqt bo'yicha sinxronizatsiyaga qo'yiladigan talab TDMA yoki CDMA uchun bo'lganiga qaraganda pastroq. Bundan tashqari, chastota bo'yicha filtratsiya tufayli, CDMA da yaqqol namoyon bo'ladigan «yaqin-uzoq» muammosi FDMA da unchalik sezilarli emas.

2. Ajratilgan chastotalar diapazonining barchasi, har birining o'rtasida himoyaviy chastota oraliqlari mavjud bo'lgan bir-birini qoplamaydigan tor polosalarga ajratiladigan foydalana olish usuli. FDMA asosida aloqani tashkil etishda har bir abonentga alohida kanal ajratiladi, ular orqali signallar o'z eltuvchi chastotalarida uzatiladi. Foydalana olishning bunday usuli abonentlar soni kam, kanallarning yuklanishi past bo'lganida kam samaralidir.

Kanallarning adaptiv taqsimlanishi

ing. - adaptive channel allocation

rus. - адаптивное распределение каналов

Tizim chastota resursining uyalar o'rtasida, ularning kutilgan yoki haqiqiy yuklanishiga mos ravishda taqsimlanishi.

Izoh - Kanallarni adaptiv tayinlash algoritmlari eng intensiv trafikli uyalarning o'ta yuklanib ketishining oldini olish va shuning hisobiga butun mobil aloqa tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kanallarning dinamik ko'rsatgichi

ing. - dynamic channel pointer

rus. - динамический указатель каналов

Televizorlardagi funksiya, u aktivlashganda ayni vaqtda ko'rilayotgan telekanaldagi tasvir markazga suriladi, uning atrofiga tasvimi har sekundda yangilangan holda, boshqa 12 ta kanalni uzatuvchi 12 ta kichik darcha paydo bo'ladi.

Kanallarning dinamik taqsimlanishi

ing. - dynamic channel allocation

rus. - динамическое

распределение каналов

Xalaqitlardan xoli kanallarni tanlash maqsadida, ishchi chastotalarning muayyan to'plamini davriy skanlashga asoslangan kanallarni tayinlash usuli.

Kanallarning qayd etilgan

taqsimoti (mobil aloqa tarmoqlarida)

ing. - fixed channel allocation

rus. - фиксированное распределение

каналов (в мобильной связи)

Chastota-hududiy rejalariga asoslangan kanallarni taqsimlash usuli, bunda har bir uyaga (yacheykaga) yetarlicha uzoq vaqtga aniq miqdorda eltuvchilar ajratiladi. Ajratilgan eltuvchilar soni, odatda trafikning zichligi va yacheykaning o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Kanalli shifrlash

ing. - channel level coding

rus. - канальное шифрование

Telekommunikatsiya vositalari orqali uzatilayotgan axborotni kriptografik usullar bilan muhofazalash. Shifrlash, aloqa kanalining ikkita uzeli (yuboruvchidan qabul qiluvchigacha yo'lda oraliq shifrlash ham bo'lishi mumkin) or'rtasida amalga oshiriladi.

Kanalni egallash

ing. - bid

rus. - захват канала

Ma'lumotlarni uzatish uchun kanalni band qilish maqsadida so'rov uzatishga urinish. Aniq vaziyatga bog'liq tarzda, bunday urinish muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz va to'qnashuvga olib keluvchi bo'lishi mumkin.

Kanalning ishonchligi

ing. - channel reliability

rus. - надежность канала

Kanal aloqa uchun yaroqli bo'lgan vaqt ulushi.

Kanalning tayyorlik vaqti

ing. - availability seconds

rus. - время готовности канала

Aloqa kanalining sifat ko'rsatgichi. Test signali davomiyligi va xatolar bilan qabul qilingan sekundli intervallar soni o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Aloqa kanalining tayyorligi odatda, foizlarda ifodalanaadi.

Kandela

ing. - candle

rus. - свечка

Yorug'lik kuchining birligi; SI tizimining asosiy birligi. Kandela parametrlari aniq belgilangan manbaning berilgan yo'nalishdagi yorug'lik kuchiga teng.

Kapalaksimon antenna

ing. - butterfly-shaped antenna.

rus. - бабочкообразная антенна

Yassi o'tuvchi sirtning markaziy o'qi bo'yicha teshilgan, nurlanish to'liqlinining uzunligiga teng kenglikdagi bo'ylama tiriqishli nur tarqatgich.

Kaptcha

ing. - captcha

rus. - каптча

Tyuringning kompyuterlar va insonlarni farqlash uchun to'liq avtomatlashtirilgan ochiq sinovi. Tizim foydalanuvchisi inson yoki kompyuter ekanligini aniqlash uchun qo'llaniladigan kompyuter sinovi. Karnegi-Mellon universitetining savdo markasi. Atama 2000-yilda paydo bo'lgan. Sinovning asosiy g'oyasi: foydalanuvchilarga inson

yecha oladigan biroq kompyuter yechishni o'rganish ancha qiyin bo'lgan vazifani taqdim etish. Odatda bu belgilarni aniqlash vazifalari. Kaptcha ko'pincha internet-servislarining botlar tomonidan foydalanilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi, jumladan, xabarlarining avtomatik jo'natilishi, ro'yxatdan o'tish, fayllarni yuklash, spamni jo'natish va h.k.

Kardano panjarasi

ing. - Cardano grid

rus. - решетка Кардано

Almashtirib qo'yish shifrini amalga oshiruvchi kriptografik tizim. O'zida, yacheykalarining to'rtidan biri to'rt burchakda kesilgan kvadrat jadval (panjara)ni aks ettiradi. Ochiq matn 90° ga buriladigan panjaraning kesilgan yacheykalariga yoziladi, shu bilan yangi, to'ldirilmagan yacheykalar ochiladi.

Karder

ing. - carder

rus. - кардер

Plastik kartalar bilan bog'liq qalbaki ishlar bilan shug'ullanuvchi firibgar («virtual o'g'ri»).

Karding

ing. - carding

rus. - кардинг

Tovar yoki xizmatlarga tegishli bo'lmagan (o'g'irlangan) kredit karta orqali to'lovni amalga oshirish. Odatda, kredit kartaning egasi bundan bexabar bo'ladi.

Kardrider

ing. - card reader

rus. - кардридер

Xotira kartalari-flesh-kartalarni o'qish va yozish.

Karetkani orqaga qaytarishi

ing. - carriage return (CR)

rus. - возврат каретки

Karetkani qaytarish operatsiyasini belgilaydigan ASCII boshqaruv simvoli, ya'ni main belgilari chiqaradigan qurilmada karetkani varaqning chap tomoniga va keyingi satrga o'tkazilishi.

Karnay

ing. - speaker

rus. - колонка

Shaxsiy kompyuterining dinamik qurilmasi, akustik kolonka.

Karta, perfokarta

ing. - card

rus. - карта, перфокарта

Mashinada qayta ishlanadigan alohida sifat-dagi qog'ozdan qilinadigan axborot tashuvchi.

Karta to'g'risidagi axborot bloki

ing. - card information structure

rus. - блок информации о карте

PC Card da ma'lumotlarni shakllantirish, formati va talab qilinadigan resurslar to'g'risidagi axborotni ichiga olgan ma'lumotlar tuzilmasi.

Kartografik axborot

ing. - cartographical information

rus. - картографическая информация

1. Kartografik asarlar to'g'risida ma'lumotlar.
2. Kartografik asarlar shaklida ifodalangan axborot.
3. Kartografik asarlarni yaratishda va yangilashda ishlatiladigan axborot.

Kartografik kommunikatsiya

ing. - cartographical communication

rus. - картографическая коммуникация

Kartografik axborotni karta yaratuvchidan foydalanuvchiga uzatish. Buning ustiga kartaning o'zi o'ziga xos aloqa kanali sifatida ham talqin qilinadi.

Kartografik ma'lumotlar banki

ing. - cartographical databank

rus. - картографический банк данных

Raqamli kartografik ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ishlatishning texnik, dasturiy, axborot va tashkiliy vositalari majmui. Uning tarkibiga bitta yoki bir nechta predmet (mavzu) sohasidagi kartografik ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimi hamda so'rovlar va amaliy dasturlar kutubxonasi kiradi.

Kartografik ma'lumotlar bazasi

ing. - cartographical database

rus. - картографическая база данных

Biror bir predmet (mavzu) sohasi bo'yicha

o'zaro bog'liq kartografik ma'lumotlar majmui. U raqamli shaklda (shu jumladan kartografik ma'lumotlar bazasi shaklida) ma'lumotlar ifodalash, saqlash va joyini o'zgartirishga oid umumiy qoidalarga mos ravishda benigan. Kartografik ma'lumotlar bazasiga ko'pgina foydalanuvchilar kira olishlari mumkin. U amaliy dasturlar paketiga bog'liq bo'lmay, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) tomonidan boshqariladi.

Kartochka

ing. - card

rus. - карточка

Ma'lumotlar va ularni qayta ishlash uchun mo'ljallangan vizual interfeysning majmui.

Kartochkali operatsion tizim

ing. - card operating system (COS)

rus. - карточная операционная система

Mikroprosessorli kartochkalar uchun mo'ljallangan operatsion tizim.

Kartrij

ing. - cartridge

rus. - картридж

Qurilmaning almashiriladigan qismi. Odatda, bu, printer uchun bo'yyadigan tasma, lazer printerlar yoki ko'paytiruvchi apparatlar uchun toner, purkagichli printerlar uchun siyoh saqlanadigan kasseta.

Kasr chizig'i

ing. - fraction bar

rus. - дробная черта

Bo'lish operatsiyasini anglatuvchi simvol.

Kassegren antenasi

ing. - Cassegrain antenna

rus. - антенна Кассегрена

Parabola ko'rinishidagi asosiy ko'zguga va antenna fokusida joylashtirilgan aylanish giperboloidi shaklidagi kichik profillangan ko'zguga ega ikki ko'zguli antenna. Izo - Antennada, asosiy va yordamchi ko'zgulur yuzasining profillarini tanlash hisobiga, asosiy ko'zguning yanada samarali nurlanishi ta'minlanadi va yon yoproqlarning darajasini pasaytirishga erishiladi.

Katalog

ing. - catalog

rus. - каталог

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni

saqlashning tashkil qilinishi orqali ta'minlanadigan, ma'lumotlar ko'pligi tavsiflarining majmui.

2. Obyektning matnli nomi bo'yicha izlab topilishini ta'minlaydigan ma'lumotlar tuzilmasi.

Katalog elementi

ing. - directory entry

rus. - элемент каталога

Papkada yoki diskning tub katalogida saqlanadigan, diskda saqlanadigan diskret obyektini (odatda, fayl yoki papkani) tavsiflaydigan axborot. Katalog elementi obyektning nomi, joylashgan yeri, o'lchami va maxsus fayl atributlari kabi axborotni ichiga oladi. Har bir fayl va papka diskda tegishli katalog elementiga ega. Nomi uzun fayllar joylashtirish uchun bittadan ortiq katalog elementini talab qilishi mumkin.

Katalog serveri

ing. - directory server

rus. - сервер каталога

Mijoz nomidan katalog ma'lumotlarini qo'shishi, yo'q qilishi, o'zgartirishi va izlashi mumkin bo'lgan server.

Katalogdan foydalana olish protokoli

ing. - directory access protocol

rus. - протокол доступа к каталогу

Mijozlar va X.500 serverlari o'rtasida almashtiruvchi boshqaradigan protokol.

Kataloglar xizmati

ing. - directory service

rus. - служба каталогов

Ma'lumotlarni saqlash uchun kataloglar to'g'risida vositalarni taqdim etadigan va bu ma'lumotlardan foydalanuvchilar va tarmoq administratorlari foydalana olishlarini ta'minlaydigan xizmat.

Katod nurlari

ing. - cathode rays

rus. - катодные лучи

Magnit maydonini yuzaga keltiruvchi, magnit va elektromagnit maydonlarida og'uvchi, vakuumdagi elektron dasta.

Katta hajmdagi ma'lumotlar

ing. - big data

rus. - большие данные

1. Odam tomonidan idrok qilinadigan, uzluk-

siz o'sish, hisoblash tarmog'ining ko'p sonli uzellar bo'ylab taqsimlash sharoitida samarali natijalarni olish uchun, katta hajmdagi turli-tuman tuzimlashtirilgan va tuzimlashtirilmagan ma'lumotlarni qayta ishlash usullari, vositalari, yondashuvlari turkumi.

2. Katta hajmi va o'zgarishlarning tezligi bilan tavsiflanadigan (shu jumladan haqiqiy vaqt rejimida) tuzimlashtirilgan va tuzimlashtirilmagan axborot massivlarini to'plash, qayta ishlash va saqlash texnologiyalari, bu maxsus vositalar va ular bilan ishlash usullarini talab qiladi.

Katta harflar

ing. - capital letters

rus. - прописные буквы

Yuqori registr harflari to'plami.

Katta ikkilik obyekt

ing. - binary large object

rus. - большой двоичный объект

Ba'zi dasturlash tillaridagi va ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimidagi, ixtiyoriy ikkilik axborotni saqlash uchun mo'ljallangan ma'lumotlar turi.

Katta (ikkilik) razryad,

katta ahamiyatli bit

ing. - most significant bit, MSB

rus. - старший (двоичный) разряд,

старший значащий бит

Kodli so'z doirasidagi eng katta ahamiyatga ega bo'lgan ikkilik razryadi.

«Katta portlash» testlash usuli

ing. - big-bang testing

rus. - метод тестирования

«большой взрыв»

Kompleks testlash, bunda dasturiy elementlar, apparat elementlar yoki ularning har ikkisi bir vaqtda tizimga birlashtiriladi va bosqichma-bosqich emas, balki bir butun yaxlit sifatida testlanadi.

Katta simvolli obyekt

ing. - character large object (CLOB)

rus. - большой символьный объект

Katta matnli obyektlarni saqlash uchun mo'ljallangan maydon turi.

Katta tezlikka ega bo'lgan

ketma-ket shina

ing. - fibre channel arbitrated loop (FC-AL)

rus. - высокоскоростная

последовательная шина

Kuchli serverlardagi SCSI texnologiyasi- ni o'zgartirishi mumkin bo'lgan FC-AL optik-tolali interfeysga ega texnologiya. Uzatishning bazaviy tezligi 100 (200-800) Mbit/s bo'lgan, ikki portli, avtomatik konfiguratsiya qilinadigan qurilmalarning «qaynoq» almashinuvi. Qurilmalar o'rtasi- dagi masofa 10 km gacha yetishi mumkin.

Katta vaqt mobaynidagi buzilishlar

ing. - distortion of long duration

(of a picture)

rus. - искажения в области

больших времен

Tasviming, namoyon bo'lishi bir nechta kadr mobaynida sezilishi mumkin bo'lgan, buzilishlari.

Kattalashtirish

ing. - zoom

rus. - увеличение

Grafik redaktorlarda – tasvir masshtabini yoki tasvir bir qismini kattalashtirish.

Kattalik

ing. - amount, greatness

rus. - величина

O'z nomi yoki qiymati bilan yoki ham unisi, ham bunisi bilan belgilanadigan ma'lumotlar elementi. Xotiraning bir qismi, nom (identifikator) va xotirada saqlanadigan qiymat bilan beriladi.

Kaziski usuli

ing. - Kazisky's method

rus. - метод Казиски

Shifratndagi bir xil so'zlarni aniqlash yordamida ko'p alifboli kriptotizim davrini hisoblash imkonini beruvchi kriptotahlil usuli. Agar ko'p alifboli kriptotizim davri ma'lum bo'lsa, kriptotahlil bir alifboli tizimlar kriptotahliliga keltiriladi.

Kegl

ing. - font size

rus. - кегль

Spetsifik shriftidagi simvollar to'plami nuqtasining o'lchami.

Keladigan telefon yuklama

ing. - offered telephone traffic

rus. - поступающая телефонная нагрузка

Kelayotgan har bir chaqiruvga band bo'lmagan chiqish bilan darhol bog'lanish taqdim qilingan holda, qarab chiqiladigan vaqt intervali ichida keladigan barcha chaqiruvlar- ga xizmat ko'rsatishning taxmin qilinadigan jami vaqti.

Kelgan telefon chaqiruvi

ing. - offered telephone call

rus. - поступивший телефонный вызов

Telefon stansiyasida qayd qilingan telefon chaqiruv.

Kelgusi avlod tarmog'i (KAT)

ing. - next generation network (NGN)

rus. - сеть последующего

поколения (СПП)

Sifati kafolatlangan telekommunikatsiya xizmatlarining cheklanmagan to'plami taqdim etilishini va foydalanuvchining global mobilligini ta'minlaydigan, xizmatlar/dasturlarni boshqarish funksiyalarini kommutatsiya qilish va uzatish funksiyalaridan ajratish hamda qayd etilgan va mobil tarmoqlarga kira olishning turli texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradigan, keng polosali paketli tarmoq asosida qurilgan universal tarmoq.

Kelib tushuvchi yuklama

(abonent yuklamasi)

ing. - offered load

rus. - поступающая

(абонентская) нагрузка

Tarmoqqa ulangan barcha axborot manbalaridan keluvchi jami trafik; odatda, ma'lum vaqt davri ichida aniqlanadi. Tarmoq orqali o'tkazilgan umumiy trafikdan farqli o'laroq, kelib tushuvchi yuklama tarmoqning xizmat axboroti va signalizatsiyani uzatish uchun zarur ichki trafignini hisobga olmaydi.

Kelishish grifi

ing. - label of agreement

rus. - гриф согласования

Hujjat muallifi hisoblanmaydigan muassasa yoki uning organining hujjat mazmuni bilan roziligini ifodalaydigan rasmiy hujjat rekviziti.

Kelishish varag'i**ing.** - approval sheet**rus.** - лист согласования

Bitta yoki bir nechta elektron hujjatning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan hujjat.

Kembrij halqasi**ing.** - cambridge digital communication ring**rus.** - кембриджское кольцо

Halqali topologiyaga ega tadqiqot qilinadigan tarmoq tizimining bir turi.

Keng ekranga panoramali ko'rsatish**ing.** - panning on broad screen**rus.** - панорамирование на широкий экран 4:3 kadr formatini, tasvining minimal buzilishi bilan, 16:9 formatga o'zgartirish.**Keng eshittirishli kanal****ing.** - broadcast channel**rus.** - широковещательный канал

Uzatilayotgan axborot keng auditoriya tomondan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinishiga qaratilgan kanal.

Keng eshittirishli tarqatish**ing.** - broadcast**rus.** - широковещательная рассылка

Bir nechta maxsus bo'lmagan qabul qiluvchilarga yo'naltirilgan uzatish. Ethernetda tarmoqning barcha uzellarini oluvchi paket turi. Maxsus manzil turi bilan identifikatsiya qilinadi.

Keng eshittirishli vebtranslyatsiya**ing.** - webcasting**rus.** - широковещательная вебтрансляция Teleradioeshittirish dasturlarini Internet tarmog'i orqali uzatish.**Keng formatli televizor****ing.** - wide-frame television set**rus.** - широкоформатный телевизор

Ekran tomonlarining nisbati 16:9 bo'lgan televizor (oddiy televizorlarda bu nisbat 4:3 ni tashkil etadi). 4:3 nisbatli ekran kengligi balandligiga qaraganda 33 foizga, 16:9 nisbatlida esa 75 foizga katta bo'ladi.

Keng imkoniyatlarga ega**integratsiyalashgan raqamli tarmoqlar****ing.** - integrated digital enhanced networks (IDEN)**rus.** - интегрированные цифровые сети с расширенными возможностями

Ma'lumotlar, ovoz, SMS-xabarlarining birgalikda uzatilishini ta'minlaydigan simsiz tarmoq.

Izoh - IDEN «bittada to'rtta» texnologiyasini o'zida ifodalaydi: foydalanuvchilar bitta korpusda raqamli mobil aloqa qurilma, ikki tomonlama radioaloqa, alifbo-raqamli peyjer va faks-modem imkoniyatlarini bir-lashtirish tufayli, simsiz aloqaning barcha afzalliklaridan bir vaqtda foydalanishlari mumkin. IDEN TDMA texnologiyasiga asoslanadi va 800 MHz hamda 1,5 GHz chastotalar diapazonida ishlaydi. IDEN 25 kHz polosada 65 Kbit/s uzatish tezligini ta'minlash uchun tovushni siqishdan, VSELP kodekidan va kvadraturati amplitudaviy modulyatsiya texnologiyasidan foydalaniladi.

Keng impuls, yarim satrli impuls**ing.** - broad pulse, half-line pulse**rus.** - широкий импульс, полустрочный импульс

Odatda, satrlarning ikkilangan chastotasi bilan takrorlanadigan va maydonlarning sinxronlanuvchi impulslarini hosil qiladigan impulslar.

Keng polosali aloqa**ing.** - broadband communication**rus.** - широкополосная связь

Chastotalarning keng diapazonidan foydalaniladigan aloqa turi. Televizion eshittirish, kabelli televideniye, o'ta yuqori chastota diapazonidagi aloqa hamda yo'ldoshli aloqa bunga misol bo'ladi.

Keng polosali antenna**ing.** - broad-band antenna**rus.** - широкополосная антенна

Parametrlari chastotalar diapazonining qoplash ko'ffitsiyenti 1,2-1,5 bo'lganda qo'yiladigan talablarga mos keladigan antenna.

Keng polosali kanal**ing.** - broadband channel**rus.** - широкополосный канал

Ko'p sonli tor polosali axborot manbalari (nutq, ma'lumotlar, faks), yoki bitta yoki bir nechta yuqori tezlikli manbalardan (videotas-

virilar, multimedia ma'lumotlari) bir vaqtda ma'lumotlar uzatilishi ta'minlanishi mumkin bo'lgan kanal.
Misol – DSL liniyalari, kabelli kanallar, WCDMA radiokanallari.

Keng polosali kuchaytirgich (jamoaviy qabul qiluvchi antennalar uchun)

ing. - broadband amplifier
(for MATV or CATV)

rus. - широкополосный усилитель
(для коллективной приемной антенны)
Chastotalarning barcha diapazonida ishlash uchun loyihalashtirilgan, jamoaviy qabul qiluvchi antennalarda foydalanish mumkin bo'lgan kuchaytirgich.

Keng polosali signal

ing. - broadband signal

rus. - широкополосный сигнал
Ishchi diapazon markaziy chastotasining 0,1 foizdan ortiq chastotalar polosasini egallagan signal.

Izoh – Masalan, 500 MHz ishchi chastotaga ega bo'lgan signal, agar uning polosa kengligi 0,5 MHz dan katta bo'lsa keng polosali signal hisoblanadi.

Keng polosali o'q

ing. - broadband axis

rus. - широкополосная ось

Quyí etuvchidagi ranglilik signalining birmuncha kengroq uzatish chastotalari polosasi ko'zda tutilgan tashkil etuvchisining fazasi. Signalni vektorli taqdim etishda – ranglilikning nozik asosiy rangini ifodalaydigan vektor yo'nalishi.

Keng yo'lka

ing. - wide track

rus. - широкая дорожка

Nusxa ko'chirishdan himoya qilish usulining qismi, bunda diskdagi ikki yoki undan ortiq yonma-yon yo'lkaga aynan bir xil ma'lumotlar yoziladi.

Kengayadigan belgilash tili

ing. - extensible markup language (XML)

rus. - расширяемый язык разметки
WWW tarmog'ida gipermatnli hujjatlarni tayyorlash, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan til.

Kengayadigan uslublar jadvallari tili, XSL
ing. - extensible stylesheet language, XSL
rus. - расширяемый язык таблиц стилей, XSL

XML hujjatlarni taqdim etish (masalan, veb-brauzerda aks ettirishda) qoidalarini va ularni ma'lumotlarning boshqa sxemalari asosida yaratilgan XML hujjatlarga, shuningdek, boshqa formatlardagi (masalan, PDF) hujjatlarga o'zgartirish yo'llarini belgilash imkonini beradigan spetsifikatsiyalar turkumi.

Kengayish polosalari

ing. - extension band

rus. - полосы расширения

Spektr bo'yicha tub polosalar bilan kesishmaydigan, chastotalarning qo'shimcha polosalari. Jumladan, ITT-2000 tizimining o'tkazish qobiliyatini kengaytirish uchun, Yevropa va dunyoning ba'zi hududlarida (2-3) GHz li spektr uchastkasi ajratilgan.

Kengaytiriladigan tizim

ing. - expandable system

rus. - расширяемая система

Samaradorlikni, periferik quрилmalar soni yoki xotira sig'imini oshirish imkoniyati ko'zda tutilgan kompyuter tizimi.

Kengaytirilgan

ing. - extended

rus. - расширенный

Asosiy versiyaga nisbatan qo'shimcha imkoniyatlar bilan ta'minlangan dasturiy ta'minot. Odatda bu atama yangi imkoniyatlarni o'z ichiga olib dasturning nomi bilan birga qo'shib ishlatiladi.

Kengaytirilgan fayl tizimi

ing. - ext2

rus. - расширенная файловая система

Linux yadrosi uchun fayl tizimi. U Rémy Card tomonidan extended file system fayl tizimini almashtiruvchi tizim sifatida ishlab chiqilgan. U fayl tizimlari sinovlarida namuna qilib ishlatsa bo'ladigan, yetarlicha samarali ishlaydigan fayl tizimi hisoblanadi. Jurnalnandigan fayl tizimi emasligi uning asosiy kamchiligidir. ext2 fayl tizimining rivoji bo'lib, jumallanadigan va ext2 tizimiga to'liq mos keladigan ext3 fayl tizimi hisoblanadi.

Kengaytirilgan imkoniyatlarga ega raqamli radioxizmatlar

ing. - digital advanced wireless services (DAWS)

rus. - цифровые радиослужбы с расширенными возможностями
Personal mobil abonentning to'liq mobiligini 155 Mbit/s dan kam bo'lmagan uzatish tezligida ta'minlab bera oladigan, istiqbolli aloqa texnologiyasi.

Kengaytirilgan matnli format

ing. - rich text format (RTF)

rus. - расширенный текстовый формат
Microsoft korporatsiyasi tomonidan, amaliy dasturlar o'rtasida formatlangan matnli hujjatlarni (ya'ni rasmiylashtirilgan) almashish uchun ishlab chiqilgan fayllar formati. Turli kod jadvallarini qo'llaydi. Ko'plab platformalarda amalga oshirilgan.

Kengaytirilgan spektrli signallarni qo'llagan holda ko'p stansion foydalana olish

ing. - spread spectrum multiple access (SSMA)

rus. - многостанционный доступ с использованием сигналов с расширенным спектром
Ko'p sonli abonentlarning bir vaqtda foydalana olish usuli bo'lib, bunda ularning har biri kengaytirilgan spektrli signalni umumiy retranslyatorga uzatadi.

Izoh - Qabul paytida signal (chulg'am)ning teskari qayta o'zgarishi amalga oshiriladi, u dastlabki tor polosali signal spektrini buzilishlarsiz tiklash imkonini beradi, chunki turli abonentlar tomonidan uzatilayotgan signallar o'rtasidagi o'zaro korrelyatsiya koefitsiyentlari ancha kichik.

Kengaytirilgan xotira

ing. - extended memory

rus. - расширенная память
1 MB manzil fazosidan tashqaridagi qo'shimcha tezkor xotira.

Kengaytirilgan yuklanadigan yozuv

ing. - extended boot record (EBR)

rus. - расширенная загрузочная запись
Bitta mantiqiy bo'limning o'Ichamini tasvirlaydigan, shuningdek, keyingi kengaytirilgan yuklanadigan yozuvni ko'rsatuvchi qattiq diskdagi (512 bayt) sektor.

Kengaytirish platasi

ing. - expansion board

rus. - плата расширения

Kiritish/chiqarish qurilmalari (diskovodlar, modemlar, tarmoq) adapterlari o'rnatilgan bosma plata.

Kengaytirish uyasi

ing. - expansion slot

rus. - гнездо расширения

Kengaytirish platasi o'rnatiladigan tizim platasidagi uya. Bunday platalar ularning nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq ravishda, interfeys kartalari, tarmoq adapterlari va h.k. deb ataladi.

Kengaytirish shinasini

ing. - expansion bus

rus. - шина расширения

Tizim shinasining, kengaytirish platalari uchun mo'ljallangan uyalarni lokal shina bilan birlashtiradigan qismi. Qo'shimcha periferik qurilmalar kontrollerlarini ulash uchun xizmat qiladi.

Kengaytiruvchi kodli ketma-ketlik

ing. - spreading code (spreading sequence)

rus. - расширяющая кодовая последовательность

Signalni kodi bo'yicha ajratish tizimlarida, masalan, DS-CDMA da spektrni kengaytirish uchun qo'llaniladigan kodli ketma-ketlik.

Kengaytma

ing. - extention

rus. - расширение

1. Fayl nomining bir qismi; uning yordamida fayllarni tasniflash amalga oshiriladi. Masalan, MS-DOS da kengayish, agar bor bo'lsa, nuqtadan keyingi (bittadan uchtagacha) simvoldan iborat bo'lishi mumkin; kengayishdan bajariladigan fayllarni (.COM, .EXE, .BAT), turli dasturlash tillari dasturlarining matnlarini ajratish uchun (BAS - BASIC, PAS - Pascal) foydalaniladi.

2. Tegishli standartlarda bo'lmagan talablarning xavfsizlik bo'yicha topshiriqqa yoki himoya profiliga qo'shilishi.

Kengayuvchanlik

ing. - extensibility

rus. - расширяемость

1. Dasturlash tilida yangi til konstruksiyalarini belgilash mumkinligi.

2. Raqamli televideniye tizimining kengaytirilgan funksiyalarni va kelgusi texnologik yutuqlarni qo'llab-quvvatlash va kiritish qobiliyati.

Kenglik-impulsi modulyatsiya

ing. - width-pulse modulation

rus. - широтно-импульсная модуляция

Impulslar davomiyligi (kengligi) o'zgaradigan impulsi modulyatsiya.

Kermit

ing. - kermit

rus. - кермит

Fayllarni uzatishga yo'naltirilgan dastur. Umumiy foydalaniladigan dasturiy ta'minot sifatida tarqatiladi.

Kerr yacheykasi

ing. - cell of Kerr

rus. - ячейка Керра

Elektrooptik Kerr effektidan foydalanishga asoslangan yorug'lik oqimini modulyatsiyalash qurilmasi.

Kesish

ing. - cut

rus. - вырезать

Matn yoki tasvir bilan ishlayotganda bajariladigan operatsiyalardan biri. U matndagi tasvirdagi ajratilgan fragmentni o'chiradi va almashtiruv buferiga ko'chirib qo'yadi. Ko'p hollarda bu operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan «qaynoq» klavi-shlar Ctrl+X yoki Shift+Del lardir.

Kesishuv

ing. - crosshair

rus. - перекрестие

Interaktiv grafik tizimlarda kursor shakli.

Kesishuvchi aloqa

ing. - cross-coupling

rus. - перекрестная связь

Kanallar, zanjirlar yoki o'tkazgichlar o'rta-sida yuzaga keladigan parazit bog'lanish (aloqa) bo'lib, uning natijasida turli xalaqit beruvchi signallar paydo bo'ladi.

Kesishuvchi buzilishlar (televideniya)

ing. - crosstalk (in television), crossview

rus. - перекрестные искажения

(в телевидении)

Tasvirga boshqa videokanallardagi signallar bilan hosil qilinadigan beixtiyoriy tasvirlarni tushirish.

Kesishuvchi modulyatsiya

ing. - cross-gain-modulation

rus. - перекрестная модуляция

Xalaqit signalini bir zanjir yoki simdan boshqa bir zanjir simga yo'llash natijasida yuzaga keladigan to'g'rilash.

Kesishuvchi xalaqitlar

ing. - crosstalk

rus. - перекрестные помехи

Ko'p kanalli tizimlarda, bitta kanal orqali uzatilgan signal boshqa kanalning chiqishida anchayin kuchsizlangan holda paydo bo'lishi hisobiga yuzaga keladigan o'zaro xalaqitlar. Simli aloqa liniyalari uchun uzoq uchdagi kesishuvchi xalaqit FEXT hamda liniyaning yaqin uchidagi xalaqit NEXT xosdir. Chastotaviy ajratilgan tizimlarda kanal filtrlarining yetarlicha selektiv bo'lmasligi hamda barcha kanallar uchun umumiy bo'lgan traktida tashkil qilinadigan kombinatsion chastotalar kesishuvchi xalaqitlar paydo bo'lishining asosiy sabablaridir.

Kesishuvchi xalaqitlarning yo'l

qo'yiladigan darajasi

ing. - unnoticeable crosstalk

rus. - перекрестные помехи

допустимого уровня

Noqulay xalaqit beruvchi vaziyatda, masalan, aynan bir ishchi chastotalardan foydalaniladigan qo'shni uyalarning o'zaro ta'siri mavjudligi sharoitida ishlaydigan radiostansiyalar vujudga keltiradigan o'zaro xalaqitlar.

Keskin yo'naltirilgan antenna

ing. - high-directivity antenna

rus. - остронаправленная антенна

Nurlanadigan yoki qabul qilinadigan quvvatning asosiy ulushi tor fazoviy burchakda to'plangan antenna.

Keskin yo'naltirilgan nur

ing. - high-directivity beam, pencil-like beam

rus. - остронаправленный луч

Asosiy nurlanuvchi energiyasi nisbatan tor fazoviy burchakda teng taqsimlangan, «qalam» turidagi nur.

Keskinlik

ing. - sharpness

rus. - резкость

Televizion tasvirning tavsifi bo'lib, tasvir yirik detallari chegaralarining uzatilish sifatini ifodalaydi. Keskinlik miqdor jihatdan televizion tizim o'tish xarakteristikaning surkalib ketuvchi zonasi orqali baholanadi.

Ketma-ket erkin foydalanish

ing. - sequential access

rus. - последовательный доступ

Barcha oraliq bloklarni, boshidan ko'rib chiqish yo'li bilan xotira qurilmasi ma'lumotlar blokidan erkin foydalanishni tashkil qilish usuli.

Ketma-ket kompyuter

ing. - sequential machine

rus. - последовательный компьютер

Dastur komandalarini ketma-ket amalga oshirish yo'li bilan ma'lumotlar qayta ishlanishini bajaradigan kompyuter.

Ketma-ket-parallel o'zgartirgich

ing. - consecutively-parallel converter

rus. - последовательно-параллельный преобразователь

Ketma-ket uzatishdan parallel uzatishga o'tish qurilmasi.

Ketma-ket port

ing. - series port

rus. - последовательный порт

Ma'lumotlar o'tish tartibiga ko'ra bitma-bit uzatiladigan port; ma'lumotlar parallel portga qaraganda birmuncha sekin uzatiladi. Odatda, ketma-ket portga modem ulanadi.

Ketma-ket printer

ing. - serial printer

rus. - последовательный принтер

Kompyuterga standart ketma-ket port orqali ulanadigan printer.

Ketma-ket qayta ishlash

ing. - sequential processing

rus. - последовательная обработка

Ma'lumotlarni xotirada saqlanadigan yoki xotiraga kelib tushadigan ketma-ketlikda qayta ishlash.

Ketma-ket uzatish

ing. - serial transmission

rus. - последовательная передача

Axborot almashinuv usuli, unda ayrim belgilar aynan bitta aloqa kanali orqali birin-ketin uzluksiz tarzda yoki to'xtashlar bilan uzatiladi. Ketma-ket uzatish ikkita rejimda amalga oshirilishi mumkin: asinxron va sinxron. Asinxron rejimda ma'lumotlar alohida jo'natmalar tarzida uzatiladi va ularning har biriga qabul qiluvchi tomonda uzatishning boshlanishi va tugashi haqida signal beradigan start va stop bitlari kiritiladi. Sinxron uzatishda axborotning uzluksiz oqimi sinxrojo'natmalar yordamida kadrlarga ajratiladi.

Keyingi

ing. - next

rus. - следующий

Tizimlashtirilgan zanjirdagi (ketma-ketlikdagi) elementlar joylashuvi. Masalan, ma'lumotlar bazasi jadvalidagi keyingi yozuv.

Keyingi nurlanish davomiyligi

ing. - persistence duration

rus. - длительность послесвечения

Kineskoplar keyingi nurlanishining o'rtacha vaqtiga ega, bu vaqt davomida ekranning nurlanish (so'nish) yorqinligi ta'sir to'xtatilgandan so'ng ta'sir paytidagi boshlang'ich yorqinlikka nisbatan bir foizgacha kamayadi.

Keyingi nurlanishni tuzatish

ing. - correction of persistence

rus. - коррекция послесвечения

Yuguruvchi numi yo'yishdan olingan va luyminoforing beixtiyoriy nurlanishidan buzilgan videosignal shaklini tuzatish.

Keylogger

ing. - keylogger

rus. - кейлоггер

Klaviaturadan kiritishni tutib olish uchun mo'tjallangan apparat qurilma yoki dastur. Izoh - Keylogger bosilgan klavishular skan-ladlarini aniqlashni ular yashirin saqlanishini va/yoki qandaydir kanal orqali uzatilishini amalga oshiradi.

Keynet

ing. - catenet

rus. - кейнет

Xost-kompyuterlar turli tarmoqlarga shlyuz-

lar yoki marshrutizatorlar yordamida ulangan tarmoq. Internet shunday tarmoqqa misol bo'la oladi.

Kesh
ing. - cache

rus. - кэш
O'qilishi sekinroq bo'lgan xotirada saqlanayotgan, biroq u yerdan so'ralish ehtimoli katta bo'lgan axborotning nusxasi saqlanadigan tez o'qiladigan oraliq bufer. Keshdagi ma'lumotlar sekin xotiradan olinishi yoki qayta hisoblab chiqilishiga qaraganda ancha tezroq o'qiladi, bu esa o'rtacha kira olish vaqtini kamaytiradi.

Kesh-xotira
ing. - memory cache
rus. - кэш-память

Ma'lumotlarni vaqtinchalik saqlash uchun xizmat qiladigan xotira. Kompyuterning ishlash samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Tezkor xotira va qattiq magnit disk o'rtasidagi kesh-xotira ikki turda bo'ladi; apparat va dasturiy kesh-xotira. Apparatchesh-xotiradan odatda, tarmoq serverlarida, diskli adapterlarda (kontrollerlarda) foydalaniladi, u yanimo'tkazgichli, energiyaga bog'liq, juda tez ishlaydigan xotirani o'zida ifodalaydi. Dasturiy kesh-xotira tezkor xotiraning bir qismidir, odatda, stol tizimlarida tashqi xotira bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi.

Kesh-xotira kontrolleri
ing. - cache controller
rus. - контроллер кэш-памяти

Kesh-xotirani boshqarish uchun mo'ljallangan maxsus mikrosxema.

Kesh-xotira ma'lumotlarining tezkor xotira qurilmasi
ing. - cache-data ram
rus. - оперативное запоминающее

устройство данных кэш-памяти
Kesh-xotira ma'lumotlari turlarining teglari (alamatlari) saqlanadigan mikrosxema.

Keshlash
ing. - caching
rus. - кэширование

Oldingi operatsiyalar natijasida olingan ma'lumotlarni keyingi operatsiyalarni tezlashtirish uchun saqlash. Keshlash disk ma'lu-

motlarining bir qismini xotirada saqlab qolish bilan chegaralanib qolmaydi, ayrim hollarda, buning uchun diskda vaqtinchalik fayllar yaratiladi. Ma'lumotlar uzatish kontekstida bu atamadan xabarlar uzatilishini tezlashtirish uchun ma'lumotnomalar va boshqa axborot atributlaridan nusxa olinishini belgilashda foydalaniladi.

Kechikish
ing. - delay
rus. - задержка

Qandaydir operatsiya yoki komanda bajarilishi davomida pauza sodir bo'ladigan vaqtinchalik muddat.

Kechikish bilan bo'ladigan xendover
ing. - delayed handover
rus. - хэндовер с задержкой

Mobil stansiya bir yacheykadan boshqasiga o'tishida chastotaning ma'lum vaqtdan so'ng qayta sozlanishi. Texnik jihatdan quvvat darajalarining ikkita - minimal va maksimal qiymat bo'yicha chegarasidan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Ikkita tayanch stansiyaning xizmat ko'rsatish zonalariga chegarasida «ping-pong» effektini bartaraf etish imkonini beradi.

Kechikish bo'yicha quvvat spektri
ing. - delay power spectrum
rus. - спектр мощности по задержке
Qabul qilinadigan signal spektral tashkil etuvchilari quvvatining vaqtga bog'liq holda taqsimlanishi.

Kechikish bo'yicha sochilganlik
ing. - delay spread
rus. - разброс по задержке
Qabul qilinayotgan ko'p nurli signalning darajasi noldan farqli va uni o'lchash uchun hali yetarli bo'lgan vaqt intervali. Mobil aloqa tizimlarida kechikish vaqti joy relyefiga bog'liq ravishda, mikrosekundning ulushlaridan boshlab bir necha o'n mikrosekund qiymatlarigacha o'lchanadi, bunday katta kechikishlar odatda radioto'lqinlarning yirik shaharlarda tarqalishi uchun xosdir.

Kechikish tufayli yuzaga keladigan buzilishlar
ing. - distortions caused by delay
rus. - искажения, обусловленные запаздыванием

Signal turli komponentlarining qabul qilish nuqtasiga vaqt bo'yicha turli darajadagi ushlanishlar bilan yetib kelishi hisobiga paydo bo'ladigan buzilishlar.

Kechikish, ushlanib qolish, orqada qolish
ing. - lag

rus. - запаздывание; задержка; отставание
Tizimning inersionligi yoki ekranning kechikib shu'lananishi bilan tavsiflanadigan, chiqish signalining kirishdagi ta'sirga nisbatan vaqt bo'yicha siljishi.

Kechikish variatsiyasi (fluktuatsiyasi)
ing. - cell delay variation

rus. - вариация (флуктуация) задержки
Paketlarni uzatishda kechikish vaqtdan mumkin bo'lgan og'ishlarni tavsiflovchi parametr.

Kechikkan ulanish
ing. - late entry

rus. - позднее подключение
Aloqa seansi boshlanganidan keyin yoki telefon so'zlashuvi davom etayotgan paytda, uchinchi abonentning tarmoqqa ulanishi.

Kiberjinoiyat
ing. - cybercrime

rus. - киберпреступление
Kompyuter tizimi yoki tarmog'i yordamida, kompyuter tizimi yoki tarmog'i doirasida yoki kompyuter tizimi yoki tarmog'iga qarshi sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday jinoiyat.

Kiberkasallik
ing. - cyber sickness

rus. - киберболезнь
Inson ruhiyati va fiziologik funksiyalariga virtual voqelik texnologiyalarining zararli ta'siri oqibatida paydo bo'lgan kasallikning yangi turi.

Kibermadaniyat
ing. - cyberculture

rus. - киберкультура
Madaniyatni rivojlantirishdagi texnokrat yangi yo'nalish. U kompyuter o'yinlarining imkoniyatlari va virtual voqelik texnologiyalarini ishlatishga asoslangan.

Kibermakon

ing. - cyberspace
rus. - киберпространство

U.Gibson tomonidan 1984-yilda kiritilgan atama. Hozirda bu atama kompyuter tizimlari uchun tuzilgan virtual fazoni tavsiflaydi va axborot resurslarining butun fazosini anglatadi.

Kibernetika

ing. - cybernetics
rus. - кибернетика

Tabiat va jamiyatdagi aloqa va boshqaruvning umumiy qonunlari, axborot olinishi, uzatilishi va o'zgartirilishi to'g'risidagi fan.

Kiberskvotter

ing. - cybersquatter
rus. - киберсквоттер
Kiberskvotting bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Kiberskvotting

ing. - cybersquatting
rus. - киберсквоттинг
Mashhur kompaniyalar nomlariga o'xshash yoki shunchaki «qimmat» hisoblangan domen nomlarini ularning keyingi qayta sotilishi yoki reklamani joylashtirish maqsadida xarid qilish. Turlari:

1. Taupskvotting.
2. Brend kiberskvottingi - tovar belgilari, firma nomlari, mashhur ism va nomlar, ya'ni qonun tomonidan himoyalangan shaxsiy aniqlovchi vositalarni xarid qilish.
3. Himoyalovchi kiberskvotting - mashhur sayt (tovar belgisi)ning qonuniy egasi tomonidan uning domen nomiga yozilishi va aytilishi yaqin, o'xshash, ma'nodosh barcha domen nomlarining xarid qilinishi. Bu kiberskvotterlardan himoyalaniş maqsadida amalga oshiriladi.

Kiberterrorizm

ing. - cyberterrorism
rus. - кибертерроризм

Submilliy guruhlar yoki maxfiy agentlar tomonidan noharbiy nishonlarga nisbatan kuch ishlatilishida ifodalangan, axborot, kompyuter tizimlariga, kompyuter dasturlari va ma'lumotlarga siyosiy asoslangan qasddan qilinadigan hujumlar.

Kiberxavfsizlik

ing. - cybersecurity

rus. - кибербезопасность

Axborot muhitida foydalanuvchilar resurslarini muhofaza qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositalar, yo'llar, rahbariy ko'rsatmalar, ehtimoliy xavflarni boshqarishga yondashuvlar, o'rgatishlar, eng yaxshi tajribani tarqatish, sug'urta, axborot xavfsizligi texnologiyalari va axborot texnologiyalarining majmui.

Kilobayt

ing. - kilobyte

rus. - килобайт

1024 byte yoki 2^{10} byte ga teng xotira sig'imining o'lchov birligi.

Kilolips (bir sekunddagi minglab mantiqiy xulosalar)

ing. - kilo logical inferences per second

rus. - килолипис (тысяча логических выводов в секунду)

Sun'iy intellekt dasturiy ta'minotining imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan mantiqiy xulosalarning o'lchov birligi.

Kinofilmni avtomatik aniqlash

ing. - automatic movie detection

rus. - автоматическое обнаружение кинофильма

Filmni to'g'ri kadr formati bilan ko'rsatish maqsadida translyatsiya qilinayotgan film turini avtomatik aniqlash, masalan, keng ekranli film 4:3 formatda translyatsiya qilinganda, bu funksiya filmni 16:9 formatli ekranda ekranning yuqori va pastki qismidagi xarakterli qora keng chiziqsiz, to'liq formatli ko'rsatish imkonini beradi.

Kinohujjat

ing. - audiovisual

rus. - кинодокумент

Kinematografiya usulida tayyorlangan tasviriy yoki audiovizual hujjat.

Kira olishni boshqarish usuli

ing. - access control method

rus. - метод управления доступом

Har bir foydalanuvchiga xizmat ko'rsatishning maqbul darajasini ta'minlash uchun tarmoq uzellarining ma'lumotlar uzatish

muhitiga kira olishni taqdim etish tartibini tasniflaydigan lokal hisoblash tarmoqlarining turli texnologiyalarini belgilaydigan asosiy xarakteristika.

Kirgich (kirish yo'li)

ing. - insert

rus. - ввод

Simlar yoki kabellar chiqadigan taqsimlash kanalidagi yoki yacheykadagi teshik. Kirgich zavod sharoitlarida, montaj paytida ham, undan keyin ham (agar zarur bo'lsa) o'matilishi mumkin.

Kirish

ing. - sign in

rus. - войти

Foydalanuvchining tarmoqda o'zini identifikatsiya qilish uchun logini va parolini kiritish orqali tarmoqda ish boshlashi.

Kirish (foydalanish)ga urinish

ing. - access attempt

rus. - попытка доступа

1. Bitta yoki bir nechta abonent tomonidan, axborot uzatishga ruxsat olish maqsadida, aloqa tizimi bilan o'zaro ta'sirlashuv tartiboti.
2. Kira olish (kirishga urinish) uchun radio-kanal orqali jo'natilgan bir nechta so'rovdan iborat ketma-ketlik. Ma'lum vaqt intervalidan keyin tarmoq tomonidan tasdiq signali (tarmoqqa kirishga ruxsat) kelsa, urinish muvaffaqiyatli bo'lgan hisoblanadi.

Kirish kuchaytirgichi

ing. - front-end amplifier

rus. - входной усилитель

Qabul qilgichning kirishiga o'matilgan, odatda, konstruktiv jihatdan antenna bilan birlashtirilgan kam shovqinli qurilma.

Kirish navbati

ing. - input queue

rus. - входная очередь

Diskda, xotirada o'z dasturlarini bajarish uchun joylashtirishni kutadigan jarayonlarning majmui.

Kirish nuqtasi

ing. - entry point

rus. - точка входа

Dasturga kirishda birinchi bo'lib bajariladi-

gan komanda manzili yoki belgisi; dasturda-gi, boshqaruv uzatilishi mumkin bo'lgan har qanday joy.

Kirish sezgirligi

ing. - entry sensitivity

rus. - чувствительность входа

Qurilmaning chiqishida nominal chiqish signali olish uchun uning kirishiga uzatilishi kerak bo'lgan (odatda millivoltlarda o'lchadigan) kuchlanish. Integral kuchaytirgich yoki resiver uchun chiquvchi quvvatni, aktiv akustika uchun - tovush bosimi darajasini tashkil etadi.

Kirish sinovi

ing. - access probe

rus. - проба доступа

Preambula hamda so'rovdan tashkil topgan qisqa paket bo'lib, davriy ravishda (yoki avvaldan berilgan algoritim bo'yicha) kirish kanali orqali uzatiladi.

Izoh - Keng polosali mobil aloqa tizimlarida o'zaro xalaqitlar darajasini pasaytirish uchun shunday algoritim ishlatiladiki, bunda har bir keyingi kirish sinovida quvvat darajasi diskret ravishda ΔP kanalikka oshiriladi. Quvvatning joriy qiymati $P = P_0 + \Delta P (n-1)$ nisbat orqali aniqlanadi, bunda P_0 - quvvatning boshlang'ich qiymati, n - bitta kirish urinishidagi sinov tartib raqami ($n=1-n_{max}$). Kirish sinovlari, so'rovga javob qabul qilinmagunigacha yoki kirish o'rnatishga ajratilgan nazorat vaqti tugamagunigacha uzatiladi.

Kirish-chiqish jufti

ing. - inlet-outlet pair

rus. - пара вход-выход

Kommutatorning berilgan kirish liniyasini muayyan chiqish liniyasi bilan bog'lash. Aloqa seansi vaqtiga o'matiladi.

Kirishga ruxsat berilgan interval

ing. - access interval

rus. - интервал доступа

Bitta yoki bir nechta stansiya so'rovlarni uzatishi mumkin bo'lgan vaqt intervali. Aynan bir interval bir vaqtning o'zida bir nechta stansiyaga ajratilsa, kanalda to'qnashuvlar kelib chiqishi mumkin.

Kirishlarni hisoblagich

ing. - access counter

rus. - счетчик посещений

Veb-sahifa yoki saytga kiruvchilar va/yoki kirishlar sonini hisoblash imkonini beradigan skrip.

Kiritiladigan signal

ing. - insertion signal

rus. - вводимый сигнал

Maydonlarni sinxronlash signalidan tashqari maydon so'ndirish intervalining ma'lum satrlariga kiritilgan ma'lumotlarni tanish, sinash, nazorat qilish yoki uzatishda foydalaniladigan signal.

Kiritiladigan yo'qotishlar

ing. - insertion loss

rus. - вносимые потери

Yuklamada liniyaga qo'shimcha uzil-kirish gunguna qadar va undan keyin o'lchangan quvvatlar o'rtasidagi farq. Agar olingan natija salbiy bo'lsa, yo'qotishlar ortadi.

Kiritiladigan o'lchash signali, sinov

satrlarining o'lchash signali

ing. - insertion test signal, insertion

reference signal

rus. - вводимый измерительный

сигнал, измерительный сигнал

испытательной строки

Videosignalni uzatish xarakteristikasini o'lchashda foydalaniladigan kiritiladigan signal. Izoh - Bu signaldan ayrim buzilishlarni avtomatik tarzda tuzatishda foydalanish mumkin.

Kiritish

ing. - input

rus. - ввод

1. Klaviatura kabi maxsus kiritish qurilmalari yordamida ma'lumotlarni kompyuterga yuklash.

2. Ma'lumotlarni protsessorga, tezkor xotiraga yoki tashqi qurilmaga yozish jarayoni. Foydalanuvchi tomonidan klaviaturadan, ovoz orqali; avtomatik tarzda tashqi qurilmadan amalga oshirilishi mumkin. Komandalarni (hajmi katta bo'lmagan) joystik, «sichqoncha», trekbol, perolar, trekpoint va sensor panel yordamida kiritish mumkin.

Kiritish buferi

ing. - input buffer

rus. - буфер ввода

Kiritiladigan va chiqariladigan axborotni oraliq saqlash uchun mo'ljallangan xotira.

«Kiritish» klavishasi

ing. - enter key

rus. - клавиша «ввод»

«Enter» yozuvli klaviatura tugmasi. Foyda-

Ilanuvchi tomonidan, biror-bir harakatni tasdiqlashda, ushbu tugmani bosish orqali ishlatiladi.

Kiritish rejimi

ing. - insert mode

rus. - режим вставки

Kursordan keyin turgan, har bir yangi belgi mavjud belgidan oldin qo'yiladigan, shu bilan birga kursordan o'ng tarafda turgan barcha matn qator oxiriga suriladigan, matnni kiritishdagi ikkita tahrir qilish rejimidan biri.

Kiritish-chiqarish

ing. - input/output

rus. - ввод-вывод

Atama ham kompyuterning kiritish-chiqarish kichik tizimini, ham protsessor yoki tezkor xotira bilan tashqi qurilmalar o'rtasida har qanday ma'lumotlar uzatish operatsiyalarini anglatadi. Kiritish-chiqarish operatsiyalarini bajarishning bir nechta asosiy usullari mavjud: dasturlashtiriladigan kiritish-chiqarish, uzilish bo'yicha kiritish-chiqarish va xotiradan bevosita foydalanish.

Kiritish-chiqarish qurilmalari

ing. - input/output device

rus. - устройства ввода/вывода

Turli ish prinsiplariga asoslangan, lekin funksional jihatdan ma'lumotlar, komandalar kiritilishini va ma'lumotlar chiqarilishini bajaradigan fizik qurilmalar. Ma'lumotlarni kiritish qurilmalari: manipulyatorlar (klaviatura, «sichqoncha», joystik, trekbol, trekpoint, skaner, pero, sensorli panel), datchiklar, mikrofon, videokamera. Ma'lumotlarni chiqarish qurilmalari: printer, plotter, radiokamay, televizor. Kiritish/chiqarish qurilmalari: telefon, teletayp, teletekst, telefaks, display.

Kiritish-chiqarish interfeysi

ing. - input/output interface

rus. - интерфейс ввода-вывода

Tashqi qurilmani, kompyuter va uning tashqi qurilmalari bilan ma'lumotlar almashinuvini taminlaydigan kompyuterning asosiy bloki bilan ulanish interfeysi.

Kiritish-chiqarish kanali

ing. - input/output channel

rus. - канал ввода-вывода

Ma'lumotlarning asosiy xotira va periferiya o'rtasida yuborilishini ta'minlaydigan qurilma.

Kiritish-chiqarish kontrolleri

ing. - input/output controller

rus. - контроллер ввода-вывода

Ma'lumotlarning kiritilishi va chiqarilishini boshqaradigan mikrosxema. Kiritish-chiqarish qurilmalari bilan mikroprotsessor o'rtasidagi apparat interfeysi hisoblanadi.

Kiritish-chiqarish manzili

ing. - input/output address

rus. - адрес ввода-вывода

Qurilmaning, kiritish-chiqarish operatsiyalari amalga oshiriladigan noyob fizik manzili.

Kiritish-chiqarish protsessori

ing. - input/output processor

rus. - процессор ввода-вывода

Unumdorligi yuqori bo'lgan hisoblash tizimlaridagi, kiritish-chiqarish operatsiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan, ixtisoslashtirilgan protsessor.

Kiritish-chiqarishga yo'naltirilgan

ing. - input/output bound

rus. - ориентированный на ввод-вывод

Hisoblashlarga qaraganda kiritish-chiqarishga ko'p vaqt sarf qiladigan jarayon.

Kiritish-chiqarishni kutadigan

jarayonlarning navbati

ing. - device queues

rus. - очереди процессов, ожидающих ввода-вывода

Kiritish-chiqarish qurilmalari ishining natijalarini kutayotgan jarayonlar to'plami (har bir qurilma uchun o'zining navbati tashkil qilinadi).

«Kiruvchi»

ing. - inbox

ru - «входящие»

Elektron pochtaga kiruvchi xatlar qutisi.

Kiruvchi aloqani vaqtinchalik taqiqlash

ing. - incoming call restriction

rus. - временный запрет входящей связи

Abonent tomonidan kommutatsiya stansiyasiga oldindan xabar berilgan vaqt davrida

kiruvchi telefon aloqani taqiqlash imkonini beradigan telefon tarmog'i abonentiga xizmat ko'rsatishning qo'shimcha turi.

Kiruvchi aloqaning chaqiriluvchi

abonent tomonidan to'lanishi

ing. - payment of incoming call charge by called subscriber

rus. - оплата вызываемым абонентом входящей связи

Shaqiriluvchi abonent tomonidan, agar chaqiruvchi abonent bog'lanish boshlanishida bu haqda so'rasa, chaqiriluvchi abonent esa rozilik bersa, muayyan bog'lanish to'lovini amalga oshirish imkonini beradigan xizmat.

Kiruvchi hujjat

ing. - incoming document

rus. - входящий документ

Tashkilotga kelib tushgan rasmiy hujjat.

Kiruvchi kabelli kanal

ing. - lead-in duct

rus. - вводной кабельный канал

Abonent qurilmalarni aloqa uzeligga ulash liniyasi.

Kiruvchi liniya

ing. - inbound link

rus. - входящая линия

Abonentdan aloqa stansiyasiga axborot oqimi kelib tushadigan liniya yoki retranslyator.

Kiruvchi ma'lumotlar

ing. - input data

rus. - входные данные

Axborotni qayta ishlash tizimiga yoki uning biror bir qismiga saqlash yoki qayta ishlash uchun kiritilgan ma'lumotlar.

Kiruvchi oqim

ing. - input current

rus. - входной поток

Tizimga kiritish uchun kelib tushadigan ma'lumotlar va hujjatlar ketma-ketligi.

Kiruvchi sonli apertura

ing. - launch numerical aperture (LNA)

rus. - входная числовая апертура

Optik tizimning, yorug'lik o'tkazgich kiri-

shidagi haqiqiy optik quvvatni lavsiflovchi sonli apertura. Ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan optik tolaning har bir turi uchun o'rnatiladigan NA sonli apertura qat'iy ko'rsatgichidan farqli ravishda, LNA qat'iy yorug'lik o'tkazgichni bir vaqtda, bir necha optik signal bilan qo'zg'atganda turli nuqsonlarni, shu jumladan, fokusning siljishini hisobga oladi. Shuning uchun LNA parametri optik tolada turli to'liqlinlar optik quvvatining boshlang'ich taqsimlanishini ifodalaydi.

Kiruvchi telefon trafik (yuklama)

ing. - incoming telephone traffic

rus. - входящая телефонная нагрузка

Liniya (kanal) lar bog'lamlari yoki kommutatsiya aloqa asboblari guruhiga telefon yuklamaning tashqi manbalaridan keladigan telefon yuklama.

(Kiruvchi) qo'ng'iroq/elektron

ro'yxatdan chaqiruvni kutish

ing. - distinctive ringing/call

waiting (DRCW)

rus. - звонок (входящий)/ожидание

вызова из электронного списка

Elektron ro'yxatga kiritilgan abonentlardan qabul qilingan chaqiruvlar abonentga farq qiluvchi qo'ng'iroq bilan kelib tushishini ta'minlaydigan xizmat. Shuningdek, elektron ro'yxatdagi abonent tomonidan bo'ladigan chaqiruvni kutish signali oddiy signaldan farq qiladi.

Izoh - Abonentlar elektron ro'yxatni xizmatdan foydalanish kodini terib modifikatsiya qilishlari mumkin.

Kiruvchi chaqiruv uchun

to'g'ridan-to'g'ri raqam terish

ing. - direct dialling in (DDI)

rus. - прямой набор номера

для входящего вызова

Foydalanuvchiga xususiy (muassasaviy) kommutatsiya stansiyasi yoki boshqa xususiy aloqa tizimi boshqa foydalanuvchisini, xodimlarning aralashuvizis, bevosita chaqirish imkonini beradigan xizmat, bunda kiruvchi chaqiruv uchun to'g'ridan-to'g'ri teriladigan raqam (raqamlar) chaqiriluvchi ISDN raqamining eng kam sonli raqami (raqamlari) bo'lib hisoblanadi.

Kiruvchi chaqiruvlarga xizmat

ko'rsatish turlarini sozlash

ing. - *commpilot express*

rus. - *настройка видов обслуживания*

входящих вызовов

Abonentning joriy statusga bog'liq kiruvchi chaqiruvlar dastlabki konfiguratsiyasining interfeysi:

- kirish mumkin – ofisda;

- kirish mumkin – ofisdan tashqarida;

- band;

- kirish mumkin emas statuslardan har biri

alohida konfiguratsiyalanishi mumkin.

Kiruvchi chaqiruvlarni qayd etish xizmati

ing. - *registration of incoming calls*

rus. - *услуга регистрации*

входящих вызовов

Aniq raqamlarga kelib tushadigan barcha chaqiruvlar (masalan, nutqni yozishdan tashqari) chaqiruvchi abonent raqami, chaqiruvning boshlanish vaqti, chaqiruvga javob berish yoki rad etish vaqti, uzilish vaqti) to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarning ro'yxatdan o'tkazilishini amalga oshiradigan xizmat.

Kiruvchi chaqiruvlarni

chegaralash xizmati

ing. - *incoming call barring service*

rus. - *услуга ограничения*

входящих вызовов

Ma'muriyatga yoki abonentga barcha yoki ayrim kiruvchi chaqiruvlarni telefon liniyasiga kirishini taqiqlash imkonini beradigan xizmat.

Kirxgof prinsipi

ing. - *Kirchhoff principal*

rus. - *принцип Кирхгофа*

1. Kriptografik algoritmlarni tuzish prinsipi. Unga ko'ra, bu algoritmlarning ma'lum bir to'plami (kalit) sir tutiladi, qolgan bahasi esa, algoritm bardoshlilikini yo'l qo'yiladigan miqdordan pasaytirmasdan, ochiq bo'lishi mumkin.

2. Shift buzib ochishga nisbatan yetarlicha barqarorlikni ta'minlashi kerak, shifrdan foydalanish oson bo'lishi kerak, shifarning buzib ochishga nisbatan barqarorligi

algoritmi emas, kalitning maxfiyligini ta'minlashga to'liq bog'liq bo'lishi kerak.

Kitobiy yo'naltirilganlik

ing. - *portrait orientation*

rus. - *книжная ориентация*

Microsoft Office Word va Open Office Writer kabi ofis dasturiy ta'minotidagi sahifa parametrining ikkita variantidan biri (kitobiy, albomli). Kitobiy yo'naltirilganlik gorizontal holatda A4 formatidagi hujjatlarni yaratish va bosmadan chiqarish imkonini beradi.

Kichik ahamiyatli raqam

ing. - *least significant digit*

rus. - *младшая значащая цифра*

Taqdim etiladigan sonning o'ng tomondagi (kichik) raqami.

Kichik dastur

ing. - *routine*

rus. - *подпрограмма*

Dasturning maxsus ravishda rasmiylashtirilgan qismi; unga zarur bo'lganda boshqa dasturlardan murojaat qilish mumkin. Ko'plab dasturlash tillarida protsedura tushunchasi bilan mos tushadi. Dasturning tez-tez takrorlanadigan fragmentlarini almashtirish va uning kompaktligiga erishish uchun foydalaniladi.

Kichik hisoblash tizimlari interfeysi

ing. - *small computer system interface*

rus. - *интерфейс малых вычислительных систем*

Shaxsiy kompyuterlarning periferik qurilmalar (masalan, qattiq magnit disk, printer, lokal tarmoq) bilan birgalikda ishlashi uchun belgilangan standart. Yuqori tezlikli parallel interfeysni ta'minlaydi.

Kichik (ikkilik) razryad, kichik ahamiyatli bit

ing. - *least significant bit, LSB*

rus. - *младший (двоичный) разряд,*

младший значащий бит

Kodli so'z doirasidagi eng kichik ahamiyatga ega bo'lgan ikkilik razryad.

Kichik katalog

ing. - *subdirectory*

rus. - *подкаталог*

Fayl tizimi kataloglari iyerarxiyasida boshqa katalogning ichida bo'lgan katalog.

kiruvchi telefon aloqani taqirlash imkonini beradigan telefon tarmog'i abonentiga xizmat ko'rsatishning qo'shimcha turi.

Kiruvchi aloqaning chaqiriluvchi abonent tomonidan to'lanishi

ing. - payment of incoming call charge by called subscriber

rus. - оплата вызываемым абонентом входящей связи

Shaqiriluvchi abonent tomonidan, agar chaqiruvchi abonent bog'lanish boshlanishida bu haqda so'rasa, chaqiriluvchi abonent esa rozilik bersa, muayyan bog'lanish to'lovini amalga oshirish imkonini beradigan xizmat.

Kiruvchi hujjat

ing. - incoming document

rus. - входящий документ

Tashkilotga kelib tushgan rasmiy hujjat.

Kiruvchi kabelli kanal

ing. - lead-in duct

rus. - вводной кабельный канал

Abonent qurilmalarni aloqa uzelliga ulash liniyasi.

Kiruvchi liniya

ing. - inbound link

rus. - входящая линия

Abonentdan aloqa stansiyasiga axborot oqimi kelib tushadigan liniya yoki retranslyator.

Kiruvchi ma'lumotlar

ing. - input data

rus. - входные данные

Axborotni qayta ishlash tizimiga yoki uning biror bir qismiga saqlash yoki qayta ishlash uchun kiritilgan ma'lumotlar.

Kiruvchi oqim

ing. - input current

rus. - входной поток

Tizimga kiritish uchun kelib tushadigan ma'lumotlar va hujjatlar ketma-ketligi.

Kiruvchi sonli apertura

ing. - launch numerical aperture (LNA)

rus. - входная числовая апертура

Optik tizimning, yorug'lik o'tkazgich kiri-

shidagi haqiqiy optik quvvamni tavsiflovchi sonli apertura. Ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan optik tolaning har bir turi uchun o'rnatiladigan NA sonli apertura qat'iy ko'rsatgichidan farqli ravishda, LNA qiymati yorug'lik o'tkazgichni bir vaqtda, bir necha optik signal bilan qo'zg'atganda turli nuqsonlarni, shu jumladan, fokusning siljishini hisobga oladi. Shuning uchun LNA parametri optik tolada turli to'lqinlar optik quvvatining boshlang'ich taqsimlanishini ifodalaydi.

Kiruvchi telefon trafik (yuklama)

ing. - incoming telephone traffic

rus. - входящая телефонная нагрузка

Liniya (kanal) lar bog'lamlari yoki kommutatsiya aloqa asboblari guruhiga telefon yuklamaning tashqi manbalaridan keladigan telefon yuklama.

(Kiruvchi) qo'ng'iroq/elektron

ro'yxatdan chaqiruvni kutish

ing. - distinctive ringing/call

waiting (DRCW)

rus. - звонок (входящий)/ожидание

вызова из электронного списка

Elektron ro'yxatga kiritilgan abonentlardan qabul qilingan chaqiruvlar abonentga farq qiluvchi qo'ng'iroq bilan kelib tushishini ta'minlaydigan xizmat. Shuningdek, elektron ro'yxatdagi abonent tomonidan bo'ladigan chaqiruvni kutish signali oddiy signaldan farq qiladi.

Izoh - Abonentlar elektron ro'yxatni xizmatdan foydalanish kodini terib modifikatsiya qilishlari mumkin.

Kiruvchi chaqiruv uchun

to'g'ridan-to'g'ri raqam terish

ing. - direct dialling in (DDI)

rus. - прямой набор номера

для входящего вызова

Foydalanuvchiga xususiy (muassasaviy) kommutatsiya stansiyasi yoki boshqa xususiy aloqa tizimi boshqa foqdalanuvchisini, xodimlarning aralashuviziz, bevosita chaqirish imkonini beradigan xizmat, bunda kiruvchi chaqiruv uchun to'g'ridan-to'g'ri teriladigan raqam (raqamlar) chaqiriluvchi ISDN raqamining eng kam sonli raqami (raqamlari) bo'lib hisoblanadi.

Kiruvchi chaqiruvlarga xizmat ko'rsatish turlarini sozlash

ing. - *commipilot express*

rus. - *настройка видов обслуживания входящих вызовов*

Айланмаган jonty statusga bog'liq kiruvchi chaqiruvlar dastlabki konfiguratsiyasining ishoratidir.

- kirish mumkin - ofisda

- kirish mumkin - ofisdan tashqarida

- bard:

- kirish mumkin emas statuslardan har biri alohida konfiguratsiyalanishi mumkin.

Kiruvchi chaqiruvlarni qayd etish xizmati

ing. - *registration of incoming calls*

rus. - *услуга регистрации входящих вызовов*

Aniq raqamlarga kelib tushadigan barcha chaqiruvlar (masalan, nutqni yozishdan tashqari chaqiruvchi abonent raqami, chaqiruvning boshlanish vaqti, chaqiruvga javob berish yoki rad etish vaqti, uzilish vaqti) to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarning ro'yxatdan o'tkazilishini amalga oshiradigan xizmat.

Kiruvchi chaqiruvlarni chegaralash xizmati

ing. - *incoming call barring service*

rus. - *услуга ограничения входящих вызовов*

Ma'muriyatga yoki abonentga barcha yoki ayrim kiruvchi chaqiruvlarni telefon liniyasiga kirishini taqiqlash imkonini beradigan xizmat.

Kirxgof prinsipi

ing. - *Kirchhoff principal*

rus. - *принцип Кирхгофа*

1. Kriptografik algoritmlarni tuzish prinsipi. Unga ko'ra, bu algoritmlarning ma'lum bir to'plami (kalit) sir tutiladi, qolgan barchasi esa, algoritm bardoshlilikini yo'l qo'yiladigan miqdordan pasaytirmasdan, ochiq bo'lishi mumkin.

2. Shifr buzib olishga nisbatan yetarlicha barqarorlikni ta'minlashi kerak, shifrdan foydalanish oson bo'lishi kerak, shifring buzib olishga nisbatan barqarorligi

algoritmi emas, kalitning maxfiyligini ta'minlashga to'liq bog'liq bo'lishi kerak.

Kitobiy yo'naltirilganlik

ing. - *portrait orientation*

rus. - *книжная ориентация*

Microsoft Office Word va Open Office Writer kabi ofis dasturi ta'minotidagi sahifa parametrigi ikkita variantidan biri (kitobiy, albomli). Kitobiy yo'naltirilganlik gorizontal bo'lakda A4 formatidagi hujjatlarni yaratish va bosmada chiqarish imkonini beradi.

Kichik ahamiyatli raqam

ing. - *least significant digit*

rus. - *младшая значащая цифра*

Taqdim etiladigan sonning o'ng tomondagi (kichik) raqami.

Kichik dastur

ing. - *routine*

rus. - *программа*

Dasturning maxsus ravishda rasmiylashtirilgan qismi; unga zarur bo'lganda boshqa dasturlardan murojaat qilish mumkin. Ko'plab dasturlash tillarida protsedura tushunchasi bilan mos tushadi. Dasturning tez-tez takrorlanadigan fragmentlarini almashtirish va uning kompaktligiga erishish uchun foydalaniladi.

Kichik hisoblash tizimlari interfeysi

ing. - *small computer system interface*

rus. - *интерфейс малых вычислительных систем*

Shaxsiy kompyuterlarning periferiya

malar (masalan, qattiq magnit disk) bilan

lokal tarmoq) bilan birgalikda ishlatiladigan

belgilangan standart. Yuqoridagi standart

interfeysni ta'minlaydi.

Kichik (ikkilik) raqam

ing. - *least significant bit*

rus. - *младший значащий бит*

Kodli so'z doirasidagi (bit) raqami

ega bo'lgan ikkilik raqami

Kichik katalog

ing. - *subdirectory*

rus. - *подкаталог*

Fayl tizimi katalogining ichki qismi

katalogning ichki qismi

... dan kelib chiqish bo'lgan klavishlarni...

Klaviaturasiz cho'ntak kompyuteri
ing. - key boardless pocket computer
rus. - бесклавиатурный карманный компьютер

Ma'lumotlarni kiritish uchun plastik perodan foydalaniladigan cho'ntak kompyuterining turi. Pero bosilishga sezgir bo'lgan display sirtiga tekkiziladi. Matn yozma tarzda kiritiladi yoki virtual klaviaturada teriladi.

Klavisha (kalit)

ing. - key

rus. - клавиша (ключ)

1. Kompyuter klaviaturasidagi klavisha.
2. Xabarni shifrlash jarayonida, ya'ni uni ma'noga ega bo'lmagan ko'rinishga keltirish jarayonida ishlatiladigan kalit kod. Kalit xabarni shifrdan chiqarish uchun ham kerak bo'ladi.
3. Platani noto'g'ri qo'yish yoki mikrosxemani xato o'rnatishga yo'l qo'ymaydigan maxsus konstruktiv element.
4. Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimida - uzluksiz indeksli faylda yozuvni identifikatsiyalash va undan tez foydalanish uchun ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi.

Klavishalar kodi

ing. - key code

rus. - код клавиш

Klavishalar bosilganda yoki klavishalarning muayyan birikmalarida klaviatura kontrolleri protsessorga uzatadigan, aniq bir klavishaning raqamli kodi.

Klavishalar uyg'unligi

ing. - keyboard shortcut

rus. - сочетание клавиш

Muayyan tartibda bosilganda tizim biror (dasturni ishga tushirish, klavishalar tartibini o'zgartirish kabi) harakatni amalga oshiradigan, oldindan aniqlanadigan klavishalar.

Klavishalarni bosish ketma-ketligi

ing. - key sequence

rus. - последовательность нажатия

Biror narsaga murojaat qilish uchun bir nechta klavishani ketma-ket bosish tartibi.

Klavishalarni bog'lash

ing. - key binding

rus. - привязка клавиши

Aniq bir klavishani bosish natijasida bajariladigan vazifani aniqlash. Har qanday joydan turib dasturni tez chaqirishda ishlatiladi. Tizim bu klavishalar bosilishini o'zi aniqlab, berilgan vazifani bajaradi.

Klavishalarning joylashish sxemasi

ing. - keymap

rus. - схема расположения клавиш

Tugmalar tartibining har bir harfiga monand chaqirish kodi yozilgan jadval, ya'ni foydalanuvchi biron klavishani bosganda tizimga bosilgan tugmaning kodi yetib boradi va operatsion tizim tanlangan tugmalar tartibidan kelib chiqib klavishalar joylashgan jadvalga qarab, simvolni standart chiqarish oqimiga (monitorga) chiqaradi.

Kliplar jamlanmasi

ing. - clipart

rus. - коллекция клипов

Hujjatlarga qo'shish mumkin bo'lgan, bir nechta dasturga joylashtirilgan multimedia ma'lumotlari to'plami.

Kliring

ing. - clearing

rus. - клиринг

O'zaro talablarni va majburiyatlarni hisobga olishga asoslangan hisob-kitoblarni tizimi. Kliring hisob-kitoblarni o'tkazishda elektronika va informatika usul va vositalari keng ishlatiladi. Kliring operatsiyalari kommunikatsiya tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

Kloal

ing. -

rus. -

Veb-servislar talanuvchiga bir mazmuni, izlanuvchi boshqa mazmuni ko'rsatuvchi qurilma bo'lgan qadrovchi robotlar qadragan IP-manzilidan foydalanib borish va ularga boshqa axborotni o'zlashtirishda foydalaniladi. Kloalning asosiy vazifasi a'zolarini shirish imkonini beradi, bu...

natijalarida yuqori joylashtirish imkoni yaratiladi. Kloakingning ayon bo'lishi ko'p holalarda saytning, izlash tizimining «qora ro'y-xatiga» kiritilishiga va uni indekslashning to'la to'xtatilishiga olib keladi.

Klon

ing. - klon

rus. - клон

Avval yaratilgan boshqa vositalarga funktsional jihatdan o'xshash bo'lgan texnik yoki dasturiy vositalar.

Klonlash

ing. - cloning

rus. - клонирование

1. Qayta dasturlash yo'li bilan, begona raqamli mobil aloqa qurilmasiga o'xshash mobil qurilmani tayyorlash.

2. Telefonlar yoki abonentlarning qalbaki identifikatori bo'lgan telefon to'lov kartalari, raqamlar va to'lov belgilarini vakolatga ega bo'lmagan holda tayyorlash.

Koaksial kabel

ing. - coaxial cable

rus. - коаксиальный кабель

Bir-biridan izolyatsiyalangan ichki va tashqi o'tkazgichlardan iborat kabel. Ma'lumotlarni yuqori chastotada, kam yo'qotish bilan uzatish imkonini beradi.

Kod

ing. - code

rus. - код

1. Ochiq matn elementlarini (harflar, harflar birikmasi, so'z va sh.k.) simvollar guruhlari (harflar, raqamlar yoki boshqa belgilar) bilan ko'plab qayta o'zgartirish. Shifning maxsus turi hisoblanadi.

2. Xarakterli bir (dastlabki) alifbodan boshqasi bilan axborotni hech qanday yo'qotishsiz o'zgartirish qoidasi.

блиц

simvollar to'plamini tezda

qayta o'zgartirilgan simvollarni

Windows va OS/2 operatsion

tizimida

Kod kitobi

ing. - code book

rus. - кодировочная книга

Ochiq matni kodlangan shaklga (kriptogramмага) aylantirishda foydalaniladigan kitob.

Kod ortiqchaligi

ing. - code redundancy

rus. - кодовая избыточность

Kodli kombinatsiyalarning bir qismi foydalanilmay qoladigan kodning xossasi. Bunday kombinatsiyalar taqiqlangan hisoblanadi, bu esa qabul qilishda kodga tekshiradigan belgilarni kiritmasdan xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Kod tuzilmasining buzilishi

ing. - code violation

rus. - нарушение кодовой структуры

Uzatish tomonida kiritilmagan (ortiqcha kodlar), lekin qabul qilish tomonida ajratilgan, taqiqlangan kodlarni aniqlash. Bu xil kombinatsiyalarni topish, qabul qilinayotgan signalda xato mavjudligini ko'rsatadi.

Kod yozuvi

ing. - code signature

rus. - подпись кода

Umumiy foydalanish tarmoqlari bo'ylab tarqatiladigan dasturiy ta'minotni imzolash imkonini beruvchi mexanizm. Bu, dasturiy ta'minot muallifini autentifikatsiya qilish va uzatish jarayonida kodning o'zgartirilmasligini kafolatlash imkonini beradi.

Kodek

ing. - codec

rus. - кодек

Videoma'lumotlar va tovushni kompressiya/dekompressiyalaydigan qurilma. Videokonferensiya o'tkazilganda, u mikrofon va kameradan analog signallarni qabul qiladi. Bu signallar diskret shaklga o'zgartiriladi va tarmoq orqali boshqa tizimga yuboriladi. Kodek tarmoq orqali boshqa tizimning diskret signallarini qabul qilib, ularni analog signallarga o'zgartiradi va radiokamaylar hamda monitorlar orasida taqsimlaydi.

Kodek (bir tomonga

yo'naltirilgan uzatishda)

ing. - codec (in unidirectional transmission)

rus. - кодек (в однонаправленной передаче)

Televizion uzatish liniyasining kirishi va chiqishida muvofiq tarzda joylashgan koder va qo'shimcha dekodek kombinatsiyasi.

Izoh - «Kodek» atamasi ikki tomonga yo'naltirilgan uzatishda boshqa ma'noga ega va buni noto'g'ri tushunmaslik kerak.

Kodek (ikki tomonga

yo'naltirilgan uzatishda)

ing. - codec (in bi-directional transmission)

rus. - кодек (в двунаправленной передаче)

Qarama-qarshi yo'nalishda ishlaydigan, bit-ta uskuna tarkibidagi koder va dekodekni yig'ish.

Koder

ing. - coder

rus. - кодер

Analog signallarni raqamli shaklga o'zgartiradigan qurilma.

Izoh - Shuningdek, koder - raqamli signallar yoki kodlarni bir formatdan boshqa formatga o'zgartirgich. Qayta kodlanuvchi axborotning (umumiy foydalanish yoki konfidensiallik) tunga bog'liq ravishda kodlovchi yoki shifratör deb atalishi mumkin.

Koder, kodlovchi qurilma

ing. - coder, encoder

rus. - кодер, кодирующее устройство

Kodlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh - Koder va kodlovchi qurilma rangli televideniya spetsifik ahamiyatga ega.

Kodga bog'liq bo'lmagan kanal

ing. - code-independent channel

rus. - кодонезависимый канал

Kodlangan ma'lumotlar oqimi shaffof (ochiq) rejimda, ya'ni qo'shimcha tarzda ishlov berilmasdan hamda xizmatga oid simvollar qo'shilmasdan uzatiladigan aloqa kanali.

Kodga bog'liq bo'lmagan uzatish

ing. - code-independent transmission

rus. - кодонезависимая передача

Boshlang'ich ketma-kektliq tuzilmasiga bog'liq bo'lmagan, bitlarni qayta ishlash protokolidan foydalaniladigan uzatish usuli.

Kodlama

ing. - encoding

rus. - кодировка

Ramzlar (insonlar tili) bilan sonlar (kompyuterlar tili) orasidagi munosiblik. Bir xil sonlarni turli alifbolarning ramzlariga almashtirish mumkin. Internetda keng tarqalgan kodlamalardan biri - YUNIKOD.

Kodlash

ing. - coding

rus. - кодирование

Dastlabki alifboni obyektli alifboga qayta o'zgartirish jarayoni.

Kodlash kaliti

ing. - coding key

rus. - ключ кодирования

Kriptografiyada - kodlarni o'zgartirishda ularning o'zaro mosligini tekshirish uchun ishlatiladigan kalit. Bu kalitning vazifasi begona obyektlar tomonidan dasturlarni va ma'lumotlarni ishlatishdan muhofazalashdan iborat.

Kodlash masofasi

ing. - coding distance

rus. - кодовое расстояние

Berilgan kod kodlar ketma-ketligining ixtiyoriy jufti o'rtasidagi masofaning eng kichigi.

Kodlash qonuni

ing. - encoding law

rus. - закон кодирования

Kvantlash va kodlashda foydalaniladigan kvantlash qadamlarining nisbiy kattaliklarini aniqlovchi, tovushni siqish qonuni.

Kodlash qurilmasi

ing. - coder

rus. - кодирующее устройство

1. Dasturlar va ma'lumotlarni axborot tashuvchisidagi, ularni keyinchalik elektron hisoblash mashinasiga kiritish maqsadida kodlash uchun mo'ljallangan avtomatik yoki avtomatlashtirilgan qurilma.

2. Axborotni taqdim etish shaklini o'zgartiruvchi qurilma, bunda har bir kirish signaliga, kirish signalining kodi hisoblanadigan, chiqish signallarining ma'lum kombinatsiyasi mos keladi.

Kodlash tizimi

ing. - coding system

rus. - система кодирования

Kodlash simvollarini va qoidalarining majmui;
kod.

Kodlash vositalari

ing. - coding tools

rus. - средства кодирования

Almashtirishning bir qismini qo'l operatsiyalari yordamida bajargan holda axborotni kriptografik almashtirish algoritmlarini amalga oshiruvchi vositalar.

Kodlash, shifrlash

ing. - encryption

rus. - кодирование, шифрование

Axborotni ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, muhofaza qilish.

Kodlash chegarasi

ing. - coding bound

rus. - граница кодирования

Kod unumdorligining chegarasi, u kod quvvati, minimal Xemming masofasi, kodli kombinatsiya uzunligi kabi parametrlarga bog'liq.

Kodli panjara

ing. - code grid

rus. - кодовая решетка

Yo'naltirilgan graf bo'lib, unga oxirgi cheklash uzunligiga ega yuqori aniqlikdagi kod daraxti aylanadi.

Kodli rejalashtirish

ing. - code planning

rus. - кодовое планирование

Umumiy xizmat ko'rsatish zonasidagi tayanch va mobil stansiyalar o'rtasida kodli ketma-ketlikning taqsimlanishi. Kodlarni taqsimlash algoritmi o'zaro (tizim ichidagi) xalaqitlar darajasini pasaytirishga asoslanadi.

Kodli sahifa

ing. - charset

rus. - кодовая страница

Simvol raqami va uning yozilishi o'rtasidagi muvofiqlik jadvali. Odatda, faqat 128-255 simvollarini uchun yo'naltiriladi.

Kodli so'z (tasvirni kodlashda)

ing. - code word (in coding of picture)

rus. - кодовое слово

(в кодировании изображения)

Tasvir to'g'risidagi axborotning (kadming) elementini, masalan, kvantlangan qiymatni, muayyan kodga mos ravishda ifodalovchi tartibli razryadlar ketma-ketligi.

Kodli chegaralash uzunligi

ing. - constraint length

rus. - длина кодового ограничения

O'ramli koderdagi +1 kechikish elementlarining soni.

Kodli cheklash

ing. - coding limitation

rus. - кодовое ограничение

Qisqartma kodni dekoderlashda hisobga olinadigan oldingi simvollar soni.

Kodlovchi

ing. - encoder

rus. - кодировщик

Axborotning kodlashtirilishini bajaradigan qurilma, mikrosxema yoki dastur.

Kodni ochish, dekodlash

ing. - decode

rus. - декодировать

Kodlangan signallarni, uzatilayotgan axborotni bevosita aks ettiruvchi, unga mos signallarga almashtirish

Kodni chiqarib tashlash

ing. - code removal

rus. - удаление кода

Dasturni optimallashtirishda - dasturning hech qanday ish bajarmaydigan yoki boshqarishga ega bo'lolmaydigan fragmentlarini chiqarib tashlash.

Kodning buziluvchi segmenti

ing. - discardable code segment

rus. - разрушаемый сегмент кода

Xotiradagi Windows ilovasining kod segmenti bo'lib, zarur bo'lganda buzilishi, qayta yozilishi yoki diskdan chiqarib tashlanishi mumkin.

Kodning energetik yutug'i

ing. - energy gain code

rus. - энергетический выигрыш кода

Kodlash tizimi va kodlashsiz tayanch ti-

zimdagi xatoning berilgan ehtimoligida talab qilingan signal/shovqin nisbatidagi farq.

Kodning ortiqchaligi

ing. - code redundancy
rus. - избыточность кода

Manbaning bir xabarini kodlash uchun qo'llaniladigan bitlarning o'rtacha soni va Shannon teoremasidan olingan bitlarning mumkin bo'lgan eng kam soni o'rtasidagi farq.

Kodulyatsiya

ing. - codulation
rus. - кодуляция

Odatda, bitta DSP-protsessor yordamida bajariladigan, signalni kodiash va modulyatsiyalash operatsiyalarini birlashtiruvchi jarayon.

Kogerant to'lqinlar

ing. - coherent waves
rus. - когерентные волны

Bir xil chastotadagi yoki uzunlikdagi, vaqt bo'yicha fazalar farqi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlar.

Kogerent nurlanish

ing. - coherent radiation
rus. - когерентное излучение

Chastotasi va fazasi fazoning istalgan nuqtasida va vaqtning istalgan onida doimiy bo'lgan elektromagnit nurlanish.

Kogerent optoelektronika

ing. - coherent optoelectronics
rus. - когерентная оптоэлектроника

Murakkab axborot tizimlari yaratishning yangi tamoyillarini belgilaydigan optoelektronika turi.

Kogerentlik

ing. - coherence
rus. - когерентность

Vaqt davomida yoki fazoda bir nechta tebranma yoki to'lqinli (ulaming qo'shilishida paydo bo'ladigan) jarayonlarning bir-biriga muvofiq o'tishi.

Kogerentlik masofasi

ing. - coherence distance
rus. - расстояние когерентности

Qabul qilinuvchi signallar kuchsiz korrelyat-

siyalangan bo'lishi uchun, antennalar tarqoq holda o'rnatilishi kerak bo'lgan minimal fazoviy masofa, ya'ni bunda ularning o'zaro kogerentlik koeffitsiyenti o'zining minimal yo'l qo'yiladigan qiymatidan past bo'ladi.

Kogerentlik vaqti

ing. - coherence time
rus. - время когерентности

Vaqt intervali, shu vaqt oralig'ida qabul qilinuvchi signallar kogerent deb qaralishi mumkin. Tinishlar kuzatiladigan kanaldagi kogerentlik vaqti Dopler chastotasining tarqoqligiga bog'liq bo'ladi. Abonent harakatlanishining yuqori bo'lmagan tezligida u interaktiv almashinuv uchun kerak bo'ladigandan ancha kattadir. Shu sababli, vaqt bo'yicha tarqoqlik «sof holda» amaliyotda juda kam uchraydi.

Kognitiv radio

ing. - cognitive radio sistem
rus. - когнитивное радио

Tizimga o'zini ekspluatatsion yoki geografik o'rab turgan muhit to'g'risida bilim olish; o'zining ekspluatatsion parametrlari va protokollarini olingan bilimlarga muvofiq, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun, dinamik va avtonom rostdash; o'z harakatlari natijalari asosida o'rganish imkonini beradigan texnologiyadan foydalaniladigan radiotizim.

Kognitiv texnologiyalar

ing. - cognitive technologies
rus. - когнитивные технологии

Inson tafakkuri imkoniyatlarini rivojlantirishga maxsus yo'naltirilgan axborot texnologiyasi. Bunday texnologiyaning o'ziga xos misoli bo'lib, kognitiv kompyuter grafikasi hisoblanadi. U kompyuter ekranida fazoviy shaklda nafaqat turli geometrik shakllarni, balki turli matematik formulalarni ham ifodalay oladi. Bunday ifodalashlar insonning fazoviy tasavvurini va uning assosiativ fikrlashini rivojlantiradi. Interbilding kognitiv texnologiyaning misoli bo'lib, u insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning tashxisi, treningi va monitoringining kompyuter texnologiyasidir.

Kollaps funksional profili
ing. - collapse functional profile

rus. - коллапсный

функциональный профиль

Bitta yoki bir nechta pog'ona yetishmaydigan soxta to'la funksional profil. Chala profilda yetishmagan pog'onalar funksiyalari shunchalik soddalashtirildi, ular boshqa pog'onalar vazifalari tarkibiga kiritilgan. Chala profililar paydo bo'lishi juda sodda va tez ishlaydigan lokal tarmoqlar yaratish imkonini ochdi. Tabiiyki, bu afzalliklar o'zaro ishlash sohasidagi qator funksiyalarni o'ta soddalashtirish evaziga yuzaga kelgan. Shu munosabat bilan, bunday profilarning imkoniyatlari ma'lumotlarni berishda va seanslar o'tkazishda cheklangan. Bundan tashqari, bu holda kommunikatsiya tarmog'i orqali ma'lumotlar uzatish soddalashtirilgan.

Kollektorli kanal

ing. - header duct

rus. - коллекторный канал

1. Yacheykasimon va pol osti kanallar tizimida kabelni telekommunikatsiya shkafidan taqsimlash kanallarigacha o'tkazish uchun foydalaniladigan asosiy kanal. Sinonimi: fiderli kanal.

2. To'g'ri burchakli kesimga ega, pol chegarasida yoki toza poldan sal quyida joylashgan, taqsimlash kanalini yoki yacheykani telekommunikatsiya shkafi bilan bog'lash uchun xizmat qiluvchi kanal. Ko'pincha, berk fider yoki transheya kanali deb ataladi. Toza pol bilan bir sathda o'rnatilgan, butun uzunligi bo'ylab olinadigan qopqoqlari va servislarni ajratuvchilari bo'lgan transheya kanal-fideri.

Kolliziya

ing. - collision

rus. - коллизия

1. Ikki (yoki undan ortiq) stansiyaning bir vaqtda CSMA/CD tarmog'ida paketni uzatishni boshlashga urinishi; kelishmovchilik aniqlanganda ikkala stansiya ham uzatishni to'xtatadi va uni kelishmovchilik yuzaga kelish muammosini hal etish imkoniga ega tasodifiy ravishda aniqlanuvchi vaqt oralig'i o'tgandan so'ng takroran tiklashga urinadilar.

2. Vaqt birligi ichida paketlarning radiokanalda urilishlar soni.

3. Turli xabarlarining xesh-funksiyasi bir-biriga mos keladigan hodisa.

Kolokeyshn

ing. - colocation

rus. - колокейшн

Provayder mijoz jihozlarini o'z hududida (odatda ma'lumotlar markazi) joylashtirib, ularni yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega aloqa kanallariga ulashdan iborat aloqa xizmati. Ba'zan ko'rsatilgan jihozlar mijozga tegishli bo'lmasdan, provayderdan ijaraga olinadi. Bunday joylashtirish provayderdan mijozga (so'nggi milya) aloqa kanalini tashkil qilish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Kolokeyshnga ko'pincha trafik hajmi katta bo'lgan veb-saytlar va boshqa tarmoq xizmatlarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan serverlar, shuningdek, ko'p nuqtalardan ishonchli kira olish talab etilgan jihozlar (masalan, VPN konsentratrlar, IP telefoniy shlyuzlari) qo'yiladi.

Kolorimetrik funksiya

ing. - colorimetric functions

rus. - колориметрическая функция

Ranglar uyg'unligi funksiyasi. Ushbu kolorimetrik tizimda to'lqinlar uzunligining funksiyasiga teng energetik spektr monoxromatik tashkil etuvchilaridan har biriga rang bo'yicha tenglashtirish uchun kerak bo'lgan uchta asosiy ranglar soni keltiriladi. Izoh - Bu kolorimetrik funksiyalar avvallari «taqsimlash koeffitsiyentlari», keyinchalik «uch xil rangli spektral tashkil etuvchilar» deb nomlangan.

Kolorimetrik tizim (televideniya)

ing. - colorimetric system (in television)

rus. - колориметрическая система

(в телевидении)

Uchta asosiy rangdan va tayanch oq rangdan iborat guruh.

Kolorimetriya

ing. - colorimetry

rus. - колориметрия

Rangni o'lchash usullari va ularni miqdor jihatdan ifodalash to'g'risidagi fan.

Komanda

rus. - команда

ing. - command

Bajaruvchiga, uning uchun tushunarli tilda

berilgan va bajaruvchining harakatini qat'iy belgilaydigan ko'rsatma. Komanda turli usullar bilan berilishi mumkin; kompyuterda bu simvollarning ma'lum bir to'plami, agar kiritish klaviatura orqali amalga oshirilsa, va/yoki elektr signallar, agar kiritish portlar orqali (masalan, modem bo'ylab) amalga oshirilsa.

Komanda fayli

ing. - batch file

rus. - командный файл

Operatsion tizim komandalari to'plamini ichiga oladigan, formatlanmagan matn fayli. Komanda fayllari ko'p bajariladigan operatsiyalarni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Komanda interpretatori

ing. - shell

rus. - командный интерпретатор

Foydalanuvchi tomonidan terminaldan yoki komanda fayli ko'rinishida beriladigan operatsion tizimni boshqarish operatorlarini o'qiydigan va interpretatsiya qiladigan dastur.

Komanda protsessori

ing. - command processor

rus. - командный процессор

Matli foydalanuvchi interfeysi bo'lgan tizimlarda – foydalanuvchi komandalarini qayta ishlaydigan modul.

Komanda satri

ing. - command line

rus. - командная строка

Kompyuter bilan ishlashdagi terminal rejim. Komandalar qo'lda yozish orqali kiritiladi. Barchasi minimal grafik sozlashlar bilan bajarilgan.

Komandalar darajasidagi parallelizm

ing. - instruction level parallelism

rus. - параллелизм на уровне команд

Protsessorning, bir nechta mashina komandasini bir vaqtda bitta dasturiy oqim doirasi-da bajara olish qobiliyati.

Komandalar deshifratori

ing. - instruction decoder

rus. - дешифратор команд

Markaziy protsessorning, operatsiya kodi va komanda operandlarini ajratadigan, keyin

esa, berilgan komandani bajaradigan mikro-dasturni chaqiradigan bloki (mikroshxema).

Komandalar generatori

ing. - code generator

rus. - генератор команд

Translyatorning, translyatsiya qilinayotgan dasturga mos keladigan mashina komandalari ketma-ketligini hosil qiladigan qismi.

Komandalar keshi

ing. - instruction cache

rus. - кэш команд

Komandalarni saqlash uchun garvard arxitekturasidan foydalaniladigan, mikroprotsessor kesh-xotirasi bloki.

Komandalar navbati

ing. - instruction queue

rus. - очередь команд

Protsessor buferi, bu erga tanlash operatsiyasidan keyin komanda kelib tushadi va tegishli bajarish qurilmasiga yuboriladi.

Komandalar registri

ing. - instruction register

rus. - регистр команд

Hozirda bajariladigan komandani saqlash uchun mo'ljallangan, protsessor registri (xotira mikroshxema).

Komandalar tizimi

soddalashtirilgan kompyuterlar

ing. - reduced instruction set computers (RISC)

rus. - компьютеры с упрощенной

системой команд

1980-yillarning boshlarida professor Devid Patterson (Berкли universiteti, AQSh) va uning talabasi Devid Ditsel (keyinchalik yirik olim, Transmeta kompaniyasining rahbari) tomonidan taklif qilingan kompyuterlar arxitekturasiga soddalashtirilgan yondashuv.

Komandalar to'plami

ing. - instruction set

rus. - набор команд

Berilgan protsessor bajaradigan barcha mashina komandalari jami.

Komandalar to'plamini modellash tizimi

ing. - instruction-set simulator

rus. - система моделирования

набора команд

Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va baholash hamda ichki qurilgan tizimlarni testdan o'tkazish uchun qo'llaniladigan dastur. Murakkablik darajasiga ko'ra uch turdagi imitatorlar qo'llaniladi:

a) oddiy, faqat protsessor komandalarini bajaradi. Bunda konveyerlash samaradorligi va komandalarni bajarish uchun sarflangan sikllar hisobga olinmaydi;

b) Nisbatan murakkabroq versiya – komandalarni bajarish uchun sarflangan sikllarni hisobga oladi, lekin kesh-xotiradan va MMU (Memory Management Unit) xotirani boshqarish qurilmasidan foydalana olishdagi kutishlarni hisobga olmaydi;

c) murakkab versiya – protsessorning to'liq faoliyatini modellashtiradi.

Komandalarni bajarish bloki

ing. - instruction execution engine

rus. - блок исполнения команд

Protsessorning komandalarning bajarilishini boshqaradigan qurilmasi. Zamonaviy protsessor o'z ichiga bir nechta komandalarni bajarish blokini olishi mumkin.

Komandalarni hisoblagich

ing. - program counter, control counter

rus. - счетчик команд

Protsessorning navbatdagi tanlanadigan komanda manzilini yoki dasturning navbatdagi bayti (so'zi)ni ichiga oladigan ichki registri.

Komandalarning qisqartirilgan to'plamini hisoblash

ing. - reduced instruction set computing (technology)

rus. - вычисления с сокращённым набором команд

Qisqartirilgan komandalar to'plamiga asoslangan protsessorlar arxitekturasi. Qisqartirilgan uzunlikdagi komandalar, katta miqdordagi registrlar, registr-registr turidagi operatsiyalar, shuningdek, bilvosita manzilashning yo'qligi bilan ta'riflanadi.

Komandani kiritishga taklif

ing. - command prompt

rus. - приглашение на ввод команды

Dasturiy qobiqning komandani bajarishga tayyor ekanligini ko'rsatuvchi satr. Odatda joriy papka nomi va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Komandani tanlash vaqti

ing. - instruction time

rus. - время выборки команды

Xotiradan mashina komandasini chiqarib olish va uni komandalar registriga kiritish vaqti.

Komandaning boshqaruvchi parametri

ing. - command qualifier

rus. - управляющий параметр команды

Firma operatsion tizimlarining komanda tillarida – komandani bajarish usuli yoki rejimini ko'rsatadigan, komanda satri parametri.

Kombayner

rus. - комбайнер

ing. - combiner

1. Summator (quvvat); (tarqoq signallarni) qo'shish sxemasi.
2. Birlashtiruvchi.

Kombinatsiyalangan portlash

ing. - combined blowup

rus. - комбинированный взрыв

Intellektual tizimlardagi, qarorlarning fazoviy hajmi elementar qarorlarning soni o'sishi bilan favqulodda tez ko'payadigan vaziyat. Shu sababga ko'ra, yechim izlash uchun ajratish usuli to'g'ri kelmaydi: evristik qoidalardan foydalanish zarur.

Kombinatsiyalangan stereosignal

ing. - composite stereosignal

rus. - комбинированный стереосигнал

Tarkibida ko'p kanalli signal komponentalari uzatiladigan murakkab ikkita kanalli tovush signali. Undan MPEG-2 standartida MPEG-1 bilan teskari moslashishda foydalaniladi.

Kommunikativistika

ing. - communication science

rus. - коммуникативистика

Axborot kommunikatsiyalari (shu jumladan, tarmoqlar) muammolarini o'rganadigan fan.

Kommutatsiyalanadigan kanallar orqali ma'lumotlarni uzatish tarmog'i

ing. - dial-up networking

rus. - сеть передачи данных по коммутируемому каналу

Shaxsiy kompyuterga ulangan ikkita telefon liniyasi va ikkita modem qurilmasi yordamida ikki tomonlama raqamli ma'lumotlar bilan almashish rejimini tashkil etish imkonini beradigan texnologiya.

Kommutatsiyalanadigan kanallar orqali IP-tarmog'iga ulanish (qo'ng'iroq)

ing. - Dial-up IP

rus. - подключение (дозвон) к сети IP по коммутируемому каналу

SLIP yoki PPP protokollari orqali IP-tarmog'i bilan ulanish. Odatda modem orqali amalga oshiriladi.

Kommutatsiyalanadigan liniya

ing. - dial-up line

rus. - коммутируемая линия

Faqat ikki qurilmaning ulanish vaqtida o'rnatiladigan telekommunikatsiyalar liniyasi.

Kommutatsiyalanadigan liniyalar bo'yicha olisdagi foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish xizmati

ing. - remote authentication

dialin user service

rus. - служба аутентификации удаленных пользователей по коммутируемым линиям
Autentifikatsiya qilish serverida foydalanuvchilarning qayd qilingan ma'lumotlarini (parollar va sh.k.) markazlashtirilgan tarzda tekshirish uchun mo'ljallangan protokol.

Kommutatsiyalanadigan liniyalar orqali Internetdan erkin foydalanish

ing. - dial-up access

rus. - доступ в Интернет по коммутируемому линиям

Foydalanuvchi kompyuterining Internet tarmog'i va uning resurslariga telefon liniyasi bo'yicha seansli ulanishdan foydalanishni ta'minlash.

Kommutatsiyalanadigan lokal tarmoq

ing. - switched local-area network

rus. - коммутируемая локальная сеть

Segmentlardan iborat lokal tarmoq. U kommutatsiya majmui yordamida yagona bir

butun bo'ladi. Yuqori o'tkazish qobiliyatli kommutatsiyalanadigan majmua orqali, faqat boshqa segmentlarda joylashgan tizimlarga yo'llangan ma'lumot bloklari uzatiladi. Qolgan bloklar faqat o'zlarining segmentlari ichida aylanib yuradilar, bu esa tarmoqning xavfsizligiga imkon yaratadi. Kommutatsiyalanadigan majmua fizik kommutatsiyasini ham, mantiqiy kommutatsiyasini ham ta'minlaydi. Buning natijasida, bir-biri bilan bog'langan turli-tuman virtual tarmoqlar yaratiladi.

Kommutatsiyalanadigan telekommunikatsiyalar tarmog'i

ing. - switched network

rus. - коммутируемая сеть телекоммуникаций

Abonentning so'rovi bo'yicha yoki berilgan dasturga muvofiq, tarmoqning stansiyalari va kommutatsiya qilish uzellari yordamida oxirgi (terminal) abonent qurilmalari o'rtasida xabarlarini uzatish uchun talab qilingan vaqtda aloqani ta'minlaydigan telekommunikatsiyalarning kommutatsiya tarmog'i.

Kommutatsiyalanadigan virtual tarmoq

ing. - switched virtual networking (SVN)

rus. - коммутируемая виртуальная сеть
IBM korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan, tuzilmasi jo'shqin o'zgaradigan tezkor kommunikatsiya tarmoqlarining arxitekturasini. SVN tizimli tarmoq arxitekturasini va marshrutizatorlar asosida yaratilayotgan tarmoqlar o'mini bosadi. SVNning asosiy xususiyati uzatishning asinxron usulini ishlatish va ulanishning fizik vositalarining rang-barangligidadir. Shuning evaziga, SVN strategiyasi turli rusumdagi tarmoqlarni qamrab olmoqda.

Kommutatsiyalanadigan yaproq

ing. - switched lobe

rus. - коммутируемый лепесток
Aloqaning bir yo'nalishidan boshqasiga tezkor qayta ulanadigan ko'p nurli antenna yo'nalganlik diagrammasining yaproqlaridan biri.

Kommutatsiyalanmaydigan liniya

ing. - leased line

rus. - некоммутируемая линия
Ulanish o'rnatilishi uchun raqam terish talab etilmaydigan telefon liniyasi.

Kommutatsiyalanmaydigan telekommunikatsiyalar tarmog'i
ing. - non-switched telecommunication network
rus. - некоммутируемая сеть телекоммуникации

Oxirgi (terminal) qurilmalarning telekommunikatsiyalar kanali orqali, tarmoq stansiyalari va qayta ulash uzellari yordamida uzoq muddatli bog'lanishlarni ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar tarmog'i.

Kommutatsiyalash xabi

ing. - switched hub
rus. - коммутирующий хаб

Tarmoq ishining samaraliligini oshiruvchi Ethernet texnologiyasining keyingi rivojlanishi. Bu holda muhitdan foydalanishni boshqarish aslida bog'lamalardan port juftlari – paket manbalari va ularni qabul qiluvchilar – o'rtasida virtual ajratilgan kanallar o'rnatilishini ta'minlovchi markaziy kommutatsiyalanadigan qurilmaga ko'chiriladi. Uzatuvchi uzellardan kommutatsiya xabi deyarli har doim paketni yo o'z buferiga qabul qilish, yo uni deyarli uzilishsiz maqsad portiga uzatishga tayyor. Kommutatsiya xab orqali o'zaro ma'lumotlarni almashuvchi kompyuterlar umumiy trafik yukini oshirmaydi. Bunday xablar, shuningdek, Ethernet va Fast Ethernet tarmoqlarini bog'lash uchun qo'llaniladi.

Kompakt-disk

ing. - compact disk (CD)
rus. - компакт-диск

Axborotni (ma'lumotlarni), ya'ni ma'lumotlarni saqlash formatini raqamli shaklda saqlash uchun mo'ljallangan ko'chma optik disk.

Kompakt disk surati

ing. - CD snapshot
rus. - снимок компакт-диска

Doimiy xotira qurilmasi kompakt-diski fayllari katalogi va tuzilmasining aks ettirilishi. Kompakt-disklarni klonlashtirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u kompakt diskning obrazi ham deyiladi.

Kompakt disklar bilan ishlash uchun real vaqti operatsion tizim

ing. - CD-real-time operation system
rus. - операционная система реального времени для работы с компакт-дисками

Interaktiv mazmunga ega bo'lgan kompakt-disklarni qayta ishlash imkonini beradigan operatsion tizim. Turli audio- va videoprogrivatellarda bo'ladi.

Kompakt diskning fayl tizimi

ing. - compact disk file system (CDFS)

rus. - файловая система компакт-дисков

Kompakt-disklar uchun mo'ljallangan fayl tizimi. Klastering 2 kbit qayd etilgan o'lchamiga ega. Barcha zamonaviy operatsion tizimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Kompakt-diskdagi doimiy

xotira qurilmasi

ing. - compact disk read-only memory (CD-ROM)

rus. - постоянное запоминающее устройство на компакт-диске

1. Kompyuter va boshqa kompyuterlashtirilgan qurilmalar uchun mo'ljallangan, kompakt-diskda joylashtirilgan tashqi doimiy xotira. Foydalanuvchining ma'lumotlar bloki diskda 2048 byte ni egallaydi. Har bir blok-dagi 304 byte dan qo'shimcha axborot va xatolarni to'liq qizqatib borish va tuzatish uchun foydalaniladi. To'la fizik blok 2352 byte ni egallaydi.

2. Kompakt-disklarni o'qish uchun mo'ljallangan qurilma.

Kompakt-diskdan yuklash

ing. - CD boot

rus. - загрузка с компакт-диска

Kompakt-diskning birinchi yo'lkasida yozilgan ma'lumotdan foydalanib kompyuterni yuklash. Odatda, operatsion tizimni yuklashda va diagnostika qilishda qo'llaniladi.

Kompakt-diskka yozish qurilmasi

ing. - CD recorder

rus. - устройство записи компакт-дисков

Ma'lumotlarni kompakt-diskka yozadigan qurilma.

Kompakt-disklarni dasturlashtiruvchi

ing. - CD-bumer

rus. - программатор компакт-дисков

Kompakt-disklarga ma'lumotlarni yozadigan dastur.

Kompaktlash**ing.** - compaction**rus.** - компактировка

Xotiradagi qo'shni bo'lmagan barcha bo'sh sohalarni bitta uzluksiz blokka birlashtirish maqsadida xotiraning siljishi yoki aralashtirib yuborilishi.

Kompander**ing.** - compander**rus.** - компа́ндер

Kompressor va ekspander funksiyalarini birlashtiradigan hamda aloqa kanali orqali signallarni uzatishdan oldin, ularning dinamik diapazoni siqilishini va qabul qiluvchi tomonda signallarning dastlabki shakli tiklanishini ta'minlaydigan qurilma.

KompanDIRlanmagan uzatish**ing.** - uncompanied transmission**rus.** - неко́мпандированная передача

Uzatish usuli, bunda uzatiladigan signallarning dinamik diapazonini siqish yuz bermaydi.

Kompanion viruslar**ing.** - companion viruses**rus.** - вирусы-компаньоны

Nusxasini zararlanadigan dastur o'rmiida yaratadigan, original faylni yo'q qilmasdan, uni qayta nomlaydigan yoki siljitadigan viruslar. Dasturni ishga tushirishda avval virus kodi bajariladi, keyin boshqaruv original dasturga beriladi.

Komparator**ing.** - comparator**rus.** - компаратор

O'lchanayotgan kattalikni etalon kattalik bilan solishtirish uchun mo'ljallangan o'lchash asbobi. Komparatorlar optik, elektr, interferensiyali va h.k. bo'lishi mumkin. Komparatorlar, masalan, nurlantiruvchi tizimlarning elektromagnit maydon kuchlanishini o'lchashda qo'llaniladi.

Kompetensiya**ing.** - expertise**rus.** - компетенция

Shaxs tajribaga, bilimlarga ega bo'lgan masalalar doirasi; qandaydir organ yoki mansabdor shaxsning vakolatlari doirasi.

Kompetentlik, muayyan vakolarga ega**ing.** - competence**rus.** - компетентность

1. Vakolatga, huquqqa, nimadir to'g'risida hukm chiqarish, mulohaza yuritish imkonini beradigan bilimlarga ega bo'lishlik. Muayyan vaziyatda ko'rsatilgan bilimlar, malakalar, mahoratning mavjudligi.

2. Istalgan natijalarga erishish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati.

Kompilyator**ing.** - compiler**rus.** - компилятор

1. Dasturni muammoga yo'naltirilgan tildan mashinaga yo'naltirilgan tilga o'giradigan translyator, yuqori darajadagi tillarni mashina kodiga (yoki ba'zida, keyinchalik interpretator bajaradigan oraliq kodga) aylantiradigan dasturiy ta'minot.

2. Dasturning boshlang'ich matnini dasturlash tilidan dasturning mashina (obyekt) yoki oraliq kodiga translyatsiya qilinishini bajaradigan maxsus dastur. Translyatsiyadan so'ng, kompilyator obyekt faylini bajariladigan mashinaga bog'liq kodga o'zgartirib, komponentga qilishni (yig'ishni) amalga oshiradi.

Kompilyatsiya**ing.** - compilation**rus.** - компиляция

Biror-bir dasturlash tilida yozilgan dasturni unga ekvivalent bo'lgan tilga (mashina tili yoki oraliq til) o'girish. Kompilyatsiya jarayoni mantiqan boshlang'ich matnini tahlil qilish, sintezlash yoki kodni generatsiya qilishga asoslangan bosqichlardan iborat. Fizik jihatdan – har bir bosqichda kompilyator boshlang'ich matnini boshdan oxirigacha tekshirib chiqadi.

Kompilyatsiya vaqti**ing.** - compilation time**rus.** - время компиляции

Kompilyator dasturni boshlang'ich dasturlash tilidan bajariladigan mashina (obyekt) kodiga aylantirishi uchun sarflaydigan vaqt.

Kompilyatsiya vaqti (fazasi)**ing.** - time (phase) compilation**rus.** - время (фаза) компиляции

Dasturning boshlag'ich kodi obyekt modu-

liga kompilyatsiyalanadigan dasturni qayta ishlash bosqichi.

Kompilyatsiyalash parametrlari

ing. - compiler options

rus. - параметры компиляции

Ishga tushirish paytida komanda satrida yoki dastur matnida translyatorga ko'rsatmalarda keltiriladigan va uning ishini boshqaradigan parametrlar.

Kompilyatsiyalash tartibi

ing. - compilation order

rus. - порядок компиляции

Dastur modullari uzatilishi kerak bo'lgan tartib. Rivojlangan modul tuzilmali tillarda (masalan, Ada, Modula) modulning translyatsiya qilinishi, foydalaniladigan barcha ta'riflash aniqlash modullaridan oldin bajarilishi mumkin emas.

Kompleks axborot tizimlari

ing. - complex information systems

rus. - комплексные

информационные системы

Korxonaning, kompleks avtomatlashtirish g'oyalari va usullarini amalga oshiradigan texnik va dasturiy vositalari majmui. Kompleks avtomatlashtirish tashkilotning barcha asosiy amaliy jarayonlari integratsiyasini va kompyuter texnologiyalariga o'tilishini ko'zda tutadi.

Kompleks xizmatlarga ega keng polosali raqamli tarmoq

ing. - broadband integrated services digital network (B-ISDN)

rus. - широкополосная цифровая сеть с комплексными услугами

ISDN standartining rivojlantirilgan versiyasi, ma'lumotlar uzatish tezligi 155 dan 622 Mbit/s va undan yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. Ma'lumotlar trafigi, ovoz va videoni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan, ATM/SDH texnologiyalariga asoslangan.

Komplementar metall-oksidli yarimo'tkazgich

ing. - complementary metal-oxide semiconductor

rus. - комплементарный металло-оксидный полупроводник

Elektron sxemalarni tuzish texnologiyasi.

Afzalligi - elektr energiyani kam iste'mol qiladi. Kamchilligi - murakkab sxemani tuzish imkoniyatining yo'qligi.

Komponent (alohida) signallar

ing. - component (separate) signals

rus. - компонентные (раздельные) сигналы

Komponent videosignallarda yorqinlik signali va ranglilik signalini alohida qayta ishlash va uzatish tushuniladi. Videosignal uchta: yorqinlik signali va ikkita rang farqlovchi (Y, B-Y, R-Y kabi belgilanadi, ya'ni U_y , U_{R-Y} va U_{B-Y} yoki U_R , U_G va U_B) tarkibiy qismga ajratilgan. U kompozit yoki S-video signalga nisbatan ustunliklarga ega.

Komponent blok

ing. - tributary unit-n (TU-n)

rus. - компонентный блок

Quyi daraja traktlari qatlami va yuqori daraja traktlari qatlami o'rtasida moslashuvni ta'minlovchi axborot tuzilmasi. Axborot yuklamasi va yuklama sikli boshlanishining yuqori daraja virtual konteyneri sikli boshlanishiga nisbatan siljishini bildiruvchi komponent blok ko'rsatgichidan iborat.

Komponent kirish

ing. - component input

rus. - компонентный вход

Qizil, yashil va ko'k ranglarda elektronlar chiqaradigan kineskopning elektron to'pini boshqaradigan yarimo'tkazgichli sxemalardan bevosita foydalanish imkonini beradigan kirish.

Komponent (rangli televideniya)

ing. - component (in a colour television system)

rus. - компонент (в цветном телевидении)

Asosiy ranglarning signallaridan hosil qilinadigan uchta signaldan biri. Odatda, yorug'lik signali va ikkita tor polosali ayirmarang signallar komponenta hisoblanadi.

Komponentlararo kabel

ing. - interelement cable

rus. - межкомпонентный кабель

A/B-tizimning komponentlari o'rtasida chiziqi darajadagi audiosignal (tovush kabel) yoki kompozit videosignal (videokabel) uzatiladigan kabel.

Komponentlarning obyekt modeli

ing. - component object model

rus. - объектная модель компонентов

O'zaro hamkorlikda ishlovchi tarqatilgan va har biri bir vaqtning o'zida bir nechta dasturda ishlatilishi mumkin bo'lgan komponentlar asosidagi dasturiy ta'minotni yaratishga mo'ljallangan Microsoft kompaniyasining texnologik standarti.

Komponentli dasturiy ta'minot

ing. - component software

rus. - компонентное

программное обеспечение

Standart tashkil etuvchilarni terib birlashtirish bilan yaratiladigan dasturlar majmua. Mazkur texnologiyada, dasturning ixtiyoriy qismi takror ishlatilishi mumkin bo'lsa, u tarkibiy qismdir (komponentdir). Komponentli dasturiy ta'minotning afzalliklari ishlab chiqish davrini qisqartirishda va dastur arzonlashuvida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, dasturiy ta'minotning yuqori sifati ta'minlanadi. Komponentli dasturiy ta'minot texnologiyasining rivojlanishi obyektga yo'naltirilgan dasturlashning yaratilishiga olib keldi.

Komponovka qilingan blok

ing. - assembly

rus. - скомпонованный блок

.NET texnologiyasida boshqarilayotgan kodni saqlaydigan binar fayl. .NET platformasi kompilyatori YEXE yoki DLL modulni yaratganda, o'sha modulning tarkibi komponovka qilingan blok deb ataladi. Komponovka qilingan blok o'z tarkibida versiya raqami, meta-axborot va IL yo'riqnomalarni saqlaydi.

Komponovkachi

ing. - builder

rus. - компоновщик

Dasturlash tizimining bir qismi yoki mustaqil dastur, obyekt modulardan va bibliotekadan olinadigan standart qismlardan bajariladigan dasturni yig'adi.

Kompozit kirish/chiqish

(PCh video kirish/chiqish)

ing. - composite input/output (on/off)

rus. - композитный вход/выход

(НЧ видео вход/выход)

Videoapparatning, qandaydir NTSC, PAL

yoki SECAM standartida kompozit videosignalning almashishda foydalaniladigan interfeysi turi.

Kompozit (qo'shma yoki to'liq) signallar

ing. - composite (joint or full) signals

rus. - композитные

(совместные или полные) сигналы

Tasvirning ham yorqinligi, ham rangliligi to'g'risidagi axborotga ega bo'lgan videosingnal. Yorqinlik va ranglilik to'g'risidagi axborot NTSC, PAL, SECAM kabi TV standartlar talablariga muvofiq kodlanadi.

Kompozit rangli videosingnal

ing. - composite colour signal

rus. - композитный цветовой видеосигнал

Ayirmarang signallarni uzatish uchun rangli quyi eltuvchilardan foydalaniladigan rangli televideniye tizimlaridagi rangli videosingnal.

Kompressiya (siqish)

ing. - compression

rus. - компрессия (сжатие)

Tarmoqda ishlash vaqtida uzatiladigan ma'lumotlar hajmini kamaytirish va saqlash uchun zarur bo'lgan xotira hajmini kamaytirish maqsadida ma'lumotlarni o'zgartirish. Ma'lumotlarni siqish usullari kodlash yo'li bilan ortiqchalikni kamaytirishga asoslangan. Siqish darajasi fayl turiga bog'liq, bajariladigan fayllar amalda kamaymaydi, grafik ma'lumotlar bo'lgan fayllar 4 marta siqiladi.

Kompyuter

ing. - computer

rus. - компьютер

Komandalarni bajara oladigan raqamli (diskret) hisoblash mashinasi. Kompyuterning asosiy vazifasi - dasturlar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlashdir. Kompyuterda apparatura qismi va dasturiy ta'minot ajratiladi. Apparatura qismining asosini mikroprotsessor tashkil qiladi. Dasturiy ta'minot asosi - operatsion tizim.

Kompyuter aloqasi

ing. - computer communication

rus. - компьютерная связь

Aloqa kanallari bo'ylab kompyuterdan kompyuterga axborot uzatish. Aloqa elektron vositalar yoki jamoa telekommunikatsiya

kanalari (telefon, radio- va yo'ldoshli aloqa), yoki maxsus kabellar va simlar orqali amalga oshiriladi.

Kompyuter arxitekturası

ing. - computer architecture
rus. - архитектура компьютера

Kompyuterning tashkiliy tuzilmasi bo'lib, ichiga ma'lumotlar oqimini, interfeyslarni, apparat va dasturiy ta'minotni oladi. Atama IBM korporatsiyasi tomonidan mos keladigan System/360 elektron hisoblash mashinalari turkumini yaratishda kiritilgan.

Kompyuter-bosma

ing. - computer-to-press
rus. - компьютер-печать

Raqamli poligrafiyada ishlatiladigan tushuncha. U kompyuter bilan poligrafiya o'rtasida oraliq operatsiyalar yo'qligini bildiradi.

Kompyuter dasturi

ing. - computer program
rus. - компьютерная программа

1. Masalani yechish algoritmining tavsifi. Dasturlash tilida beriladigan, dasturchi tomonidan tuziladigan va kompyuter bajaradigan ko'rsatmalar yig'masi.
2. Muayyan funksiyalarni, masalalarni va muammolarni yechish uchun zarur bo'lgan, ixtisoslashgan dasturlash tilining qoidalariga bo'ysunadigan va operatorlar yoki komandalarni tavsifidan iborat sintaksis birlik.
3. Hisoblash mashinasiga algoritmi belgilab beradigan, ko'rsatmalar (komandalarni yoki tavsiflar va operatorlar) ketma-ketligi. Kompyuter dasturi kompyuter qanday tartibda, qaysi ma'lumotlar ustidan va qanday operatsiyalarni bajarishi kerakligini, hamda qanday shaklda natija berishi kerakligini ko'rsatib beradi. Kompyuterni boshqarish qurilmasi kompyuter dasturini mashina komandalari ketma-ketligi shaklida qabul qiladi. Kompyuter dasturini mashina tilida tuzish - noqulay va sermehnat jarayon. Shu sababli, odatda kompyuter dasturi inson tomonidan biror-bir dasturlash tilida tuziladi, so'ngra kompyuterning o'zi bu dasturni mashina tiliga o'tkazadi (translyatsiya qiladi).

Kompyuter dasturini modifikatsiya qilish

ing. - software modification
rus. - модификация компьютерной программы

Moslashtirish bo'lmagan va dastlabki matnning o'zgarishiga olib keluvchi har qanday o'zgartirishlar.

Kompyuter dasturining chiqarilishi

ing. - software publishing
rus. - выпуск программы для компьютера
Kompyuter uchun dastur nusxalarini muallif roziligi asosida cheklanmagan shaxslar doirasiga taqdim etish (jumladan, kompyuter xotirasiga yozish va bosma matn chop etish orqali ham). Bunday nusxalar soni ko'rsatilgan asarlar tavsifiga ko'ra mazkur doiradagi shaxslar ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Kompyuter dasturlarini qo'riqlash

ing. - protection of computer software
rus. - охрана компьютерных программ
Ixtiyoriy tilda va ixtiyoriy shaklda, shu jumladan, dastlabki matn yoki obyektli kod ham, ifodalanishi mumkin bo'lgan dasturlarning (shu qatori operatsion tizimlar ham) barchasiga tegishli bo'lgan qo'riqlash turi.

Kompyuter firibgarligi

ing. - computer fraud
rus. - компьютерное мошенничество
Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi yoki kompyuter tamog'i yordamida yoki undan bevosita foydalangan holda sodir etilgan firibgarlik.

Kompyuter grafikasi

ing. - computer graphics
rus. - компьютерная графика
Kompyuter yordamida yaratiladigan, saqlanadigan yoki qayta ishlanadigan har qanday tasvir, shuningdek, bu bilan bog'liq maxsus apparat vositalar, dasturiy ta'minot va dasturlash.

Kompyuter grafikasi metafile, CGM formati

ing. - computer graphics metafile (CGM)
rus. - метафайл компьютерной графики, формат CGM
Grafik ma'lumotlar hamda tasvirlarni saqlash va uzatish formatining standarti.

Kompyuter hodisalariga chora ko'rish xizmati

ing. - computer emergency response team

rus. - служба реагирования на компьютерные инциденты

Qar.: CERT.

Kompyuter huquqi

ing. - computer law

rus. - компьютерное право

Qonunchilikning kompyuter, kompyuter tizimlari va tarmoqlarini ishlatish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy hujjatlar majmuidan iborat yangi sohasi. Huquqshunoslikka oid adabiyotlarda «kompyuter huquqi» atamasi bilan birga: «informatika huquqi», «axborot huquqi», «kompyuter-axborot huquqi» kabi atamalar ham uchraydi. Axborot huquqi tushunchasi kompyuter huquqi tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega, chunki u axborot qanday texnik vositalar bilan qayta ishlanishidan va uni tashuvchilar qandayligidan qat'iy nazar, axborot faoliyati sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Kompyuter ilmi

ing. - computer science

rus. - компьютерная наука

Qar.: Informatika.

Kompyuter jinoyati

ing. - computer crime

rus. - компьютерное преступление

1. Axborot resursidan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish, uni o'zgartirish (qalbakilashtirish) yoki o'zi uchun yoki uchinchi shaxs uchun mulkiy foyda olish, shuningdek, o'z raqibiga mulkiy zarar yetkazish maqsadida bu resursni yo'q qilish.

2. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi yoki kompyuter tarmog'i yordamida yoki undan bevosita foydalangan holda sodir etilgan jinoyat.

Kompyuter jinoyatlari tasniflagichi

ing. - codifier of computer crimes,

classifier of computer crimes

rus. - классификатор компьютерных преступлений

Interpol tashkiloti Bosh kotibiyatining

ishchi guruhi tomonidan 1991-yilda ishlab chiqilgan. U so'rovlar bo'yicha axborotni avtomatlashtirilgan axtarish tizimi bilan uyg'unlashtirilgan va hozirgi kunda, Interpolning yuzdan ortiq Milliy bo'limlaridan foydalanish imkonini beradi. Tasniflagich kompyuter jinoyatlarining olti guruhini o'z ichiga oladi, ularning har biri yana ayrim turlarga bo'linadi. Tasniflagichda Z shartli belgisi nazarda tutilgan bo'lib, u «jinoyatlarning boshqa turlari»ni ifodalaydi va kompyuter texnologiyalarining bo'lajak rivojlanishini hisobga olib kiritilgan. QA guruhi - ruxsat etilmagan foydalanish va tutib olish, QD guruhi - kompyuter ma'lumotlarini o'zgartirish, QF guruhi - kompyuter qallobligi, QR guruhi - noqonuniy nusxa olish, QS guruhi - kompyuter ish tashlashi, QZ guruhi - boshqa kompyuter jinoyatlari.

Kompyuter kartochkasi

ing. - computer card

rus. - компьютерная карточка

Ichiga mikroprosessor, dasturiy ta'minot va energiyaga qaram bo'lmagan xotira qurilmasi o'rnatilgan plastik kartochkasi. Kompyuter kartochkasi, boshqacha, intellektual kartochkasi deb ham atalib, uncha katta bo'lmagan o'lchamlarga, o'zining oddiy operatsion tizimiga va beruxsat foydalanishdan ichiga o'rnatilgan muhofazasiga ega. Kartochkada bir guruh tutashmalar bo'lib, ular ozuqa manbaiga ulanish, kartochkaga ma'lumotlarni kiritish va undan ma'lumotlarni chiqarish uchun xizmat qiladi. Kompyuter kartochkasi uning egasini aniqlash uchun va qo'shimcha axborot (bankdagi hisob raqami, biror tovar uchun to'langan pul miqdori va h.k.) taqdim qilish uchun mo'ljallangan.

Kompyuter ma'lumotlarini g'ayriqonuniy egallab olish

ing. - improper possession of computer information

rus. - неправомерное завладение

компьютерной информацией

Kompyuter tizimida, tarmoqda yoki mashina tashuvchilarida saqlanayotgan axborotni ruxsatsiz ko'chirish yoki boshqa g'ayriqonuniy yo'l bilan egallab olish, yoki

kompyuter aloqasi vositalari yordamida uzatiladigan axborotni ushlab qolish.

Kompyuter muhofazasi

ing. - computer protection

rus. - защита компьютера

Ma'lumotlar va tizim resurslarini, odatda tasodifiy va qasddan qilingan harakatlarga qarshi qo'llanadigan tegishli tadbirlar tizimi bilan muhofazalash. Bunday harakatlar o'zgaralar axborotini o'zgartirish, yo'q qilish, oshkor etish, olish yo undan foydalanish kabilar bo'lishi mumkin.

Kompyuter musiqasi

ing. - computer music

rus. - компьютерная музыка

Kompyuter texnikasi va tegishli dasturiy ta'minotni ishlatib yaratiladigan musiqa.

Kompyuter-pyupitr

ing. - clipboard computer

rus. - компьютер-пюпитр

Папка-пюпитр ko'rinishidagi, axborotni kiritish uchun yassi ekranini va perosi bo'lgan portativ kompyuterlar turkumi.

Kompyuter reklamasi

ing. - computer advertisement

rus. - компьютерная реклама

Axborot tarmog'i tomonidan texnologiyalar, tovarlar va taklif qilinayotgan xizmat turlari to'g'risida taqdim qilinayotgan axborot. Kompyuter reklamasi audiovideotizimlar, multimuhit va virtual borliqdan foydalanishga tayanadi. Reklamada taklif qilinayotgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar joylashgan ma'lumotlar bazasi katta ahamiyatga ega. Barcha hollarda ma'lumotlarning hamma turlari, ya'ni, matn, nutq, musiqa va tasvirlar, shu jumladan, rangli, hajmiy tasvirlar ishlatiladi. Ommaviy tomoshabinga mo'ljallangan reklama uchun, teleko'rsatuvlar tarmog'i ishlatiladi.

Kompyuter sabotaji

ing. - computer sabotage

rus. - компьютерный саботаж

Qasddan kompyuter axborotini yoki dasturini yo'q qilish, blokirovkalash, yaroqsiz holga keltirish, kompyuter uskunalarini safdan

chiqarish, kompyuter tizimini, tarmog'ini yoki axborotning mashinali tashuvchisini barbod qilish.

Kompyuter savodxonligi

ing. - computer literacy

rus. - компьютерная грамотность

Hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanish, kompyuterda ishlash ko'nikma va bilimlarining eng kam to'plamiga egalik qilish; informatika asoslarini va axborot texnologiyasining jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish.

Lzoh - Kompyuter savodxonligi axborot jamiyati va kompyuterlashtirish to'g'risida bilim, kompyuterdan foydalanish mahorat va ko'nikmalarini, gibrid intellekt yaratishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shaxsiy sifatlarni beradi. Bilish faoliyatining vositasi sifatida kompyuterdan keng foydalanish imkonini beradi, axborotni taqdim etish va saqlash imkoniyatini kengaytiradi.

Kompyuter steganografiyasi

ing. - computer stenography

rus. - компьютерная стеганография

Xabar yoki faylni boshqa xabar yoki faylda yashirish.

Kompyuter suiiste'molligi

ing. - computer abuse

rus. - компьютерное злоупотребление

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining kompyuter xavfsizligiga ta'sir etadigan yoki uni buzadigan, qasddan yoki tasodifiy ruxsat berilmagan harakat.

Kompyuter tarmog'i

ing. - computer network

rus. - компьютерная сеть

Resurslardan birgalikda foydalanish va ma'lumotlar almashinish uchun, aloqa kanallari bilan o'zaro bog'langan kompyuterlar va tarmoq uskunasi majmui. Resurslar - bu uskuna, dasturlar va ma'lumotlar bazasidir.

Kompyuter tarmog'i administratori

ing. - computer network administrator

rus. - администратор компьютерной сети

Tarmoqni joriy boshqarish va uni rivojlantirish istiqboli bilan shug'ullanadigan shaxs yoki shaxslar guruhi. Asosiy vazifalari: ishonchli ishlashni ta'minlash, foydalanish

(kirish) parollari va manzillarini aniqlash va berish, boshqa tarmoqlar bilan birgalikda ishlashni ta'minlash, ma'lumotlar bazalarining administratorlari bilan birgalikda ishlash.

Kompyuter telefoniyasi

ing. - computer integrated telephony (CIT)

rus. - компьютерная телефония

Maxsus dasturlar va protokollar yordamida telefon tarmog'i foydalanuvchilari bilan muhoqot qilish imkoniyati. Bunday imkoniyat bepul berilmaydi.

Kompyuter texnologiyasi

ing. - computer technology

rus. - компьютерная технология

Qar.: Axborot texnologiyasi.

Kompyuter tili

ing. - computer language

rus. - компьютерный язык

Hisoblash mashinasi tushunadigan til. Dastlab u faqatgina nol va birlardan iborat til edi. Keyin esa, mashinalar protsessor darajasida-gi Assemblerni «tushunishni o'rganishdi».

Kompyuter tizimi

ing. - computer system

rus. - компьютерная система

Markaziy kompyuter va unga aloqador chekka qurilmalar, konsol kompyuterlar, disk massivlari, lentali tashuvchilar, ma'lumotlarni robotlashgan saqlash tizimi va shunga o'xshashlar.

Kompyuter tizimining auditi

ing. - computer-system audit

rus. - аудит компьютерной системы

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimida qo'llaniladigan protseduralarni, ularning samaradorligi va to'g'ri bajarilayotganligini baholash yuzasidan ekspertiza qilish, shuningdek, xavfsizlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Kompyuter virusi

ing. - computer virus

rus. - компьютерный вирус

1. Hisoblash tizimiga, ma'lumotlarni buzish, o'zgartirish yoki yo'q qilish maqsadida kiritiladigan anonim dastur.

2. Quyidagi xususiyatlarga: o'zini boshqa fayllarga, diskka, elektron hisoblash mashi-

nasiga ko'chirish; aniq chaqiruvsiz bajarish; axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishni amalga oshirish; aniqlashga urinishdan maskirovka qilish imkoniyatiga ega dastur.

3. O'zining nusxasini yoki boshqa zararli dasturlar yaratadigan va ularni kompyuter fayllariga, tizim sohalariga kiritadigan, shuningdek, boshqa destruktiv xarakatlarni amalga oshiradigan zararli dastur.

Kompyuter vositasida buzish

ing. - cracking

rus. - компьютерный взлом

Manfaat ko'rish, begonalarning ma'lumotlaridan foydalanish, shaxsiy qiziqishni qanoatlantirish va boshqa maqsadda kompyuter tarmog'iga yoki begona shaxs kompyuteriga ruxsat etilmagan tarzda kirish.

Kompyuter xaritasi

ing. - computer map

rus. - компьютерная карта

Avtomatlashtirilgan kartografik tizim yoki geografik axborot tizimi vositalari yordamida olingan xarita. U grafika chiqarish qurilmalari – grafika chizadigan, printer va boshqalar yordamida qog'oz, fototasma va boshqa materiallarda tayyorlanadi. Qar.: Geografik axborot tizimi.

Kompyuter xavfsizligi

ing. - computer security

rus. - компьютерная безопасность

Kompyuter tizimlarining, qayta ishlanadigan va saqlanadigan axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish yo'lidagi urinishlarga, buzg'unchilik harakatlariga olib keluvchi axborotning kiritilishiga hamda soxta axborot majburan kiritilishiga (qabul qilinishiga) qarshi tura olish xususiyati.

Kompyuterlar avlodi

ing. - generation

rus. - поколение компьютеров

Kompyuterlar, dasturlash tillari, tarmoqlarni tasniflash vositasi.

Kompyuterlashtirilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish

ing. - computer-aided software engineering (CASE)

rus. - компьютеризованная разработка программного обеспечения

Dasturiy ta'minot ishlab chiqishga mo'ljallangan tizim. CASE texnologiyasi dasturlarini ishlab chiqishga, umumiy ma'lumotlar bazasini yaratishga, shu baza bilan o'zaro ishlashning yagona usulidan foydalanishga mo'ljallangan kompyuterlashgan tizim vositalari to'plamidan iborat. Buning ustiga, bu yondashuv yagona axborot tarmog'iga ulanadigan axborot tizimlarida ishlatiladigan operatsion tizimlarning xilma-xilligini hisobga oladi. Bundan tashqari, CASE turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlatiladigan tarmoq texnologiyalarining yagona asosini belgilaydi. CASE yana, yaratilayotgan dasturlarni testlashning uslubiyatini va testlash vositalarini taqdim qiladi. CASE ni ishlatish evaziga ishlanmalar arzonga tushadi va ularni ishlab chiqish davri qisqaradi.

Kompyuterlashtirilgan ishlab chiqarish

ing. - computer-aided manufacturing (CAM)

rus. - компьютеризованное производство
Ishlab chiqarishni, texnologik jarayonlarni kompyuterlashtirilgan tizim ishtirokida boshqarish.

Kompyuterlashtirilgan logistik tizim

ing. - computer-aided logistics system (CALs)

rus. - компьютеризованная
логистическая система

Loyihalash va murakkab qurilmalar to'plamini kuzatib borish texnologiyalari majmui. CALs tizimi avtomatlashtirish funksiyalari to'plamini belgilab beradi. U bozorni o'rganish va marketing, texnik shartlarni ishlab chiqish, loyihalash, ishlarning moddiy-texnik ta'minoti, texnologik jarayonni ishlab chiqish va tayyorlash, ishlab chiqarish, nazorat va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ko'rsatib o'tilgan funksiyalarni bajarish uchun CALs quyidagi vositalarni ishlatadi:

- logistik tizimlarning spetsifikatsiyasini yaratish;

- loyihalash, shu jumladan, ma'lumotlar bazalarini;

- dasturlash;

- uyg'unlashuv uchun platformalarni

- kuzatib borish;

turli nimitizimlarni yaratuvchilarning o'zaro ishlashini rejalash, nazorat qilish.

Kompyuterlashtirilgan loyihalash

ing. - computer-aided design (CAD)

rus. - компьютеризованное проектирование

Ishlab chiquvchilar mehnatini avtomatlashtirish texnologiyasi. Mahsulotlar (asboblar, qurilmalar, apparatlar, tizimlar) tobora murakkablasha borishi, ularni yaratishda yanagicha yondashuvlar qo'llashni taqozo etadi. Ular CAD, Loyiha Ishlarini Avtomatlashtirish Tizimi (LIAT) deb ham ataladigan texnologiya bilan amalga oshiriladi. CAD loyihalash va chizmachilikni, yassi yoki hajmiy detallar va konstruksiyalarni uch o'lchamli modellashni ta'minlaydigan amaliy dasturlar paketidir. Bundan tashqari CAD, konseptual konstruktirlash, animatsiya, vizuallashtirish, ma'lumotlar bazalarini boshqarish va muhandislik hujjatlarini tayyorlash vazifalarini bajaradi. CAD yaratilishi kerak bo'lgan mahsulot to'g'risida ma'lumotlar yig'ishdan tortib, uni tayyorlagacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kompyuterlashtirilgan tarjima

ing. - computer-aided translation

rus. - компьютеризованный перевод

Kompyuter yordamida, bir tabiiy tildan boshqasiga bajariladigan tarjima. Kompyuterlashgan tarjima. ko'p hollarda mashinali tarjima deyiladi, sun'iy tafakkurga ega bo'lgan amaliy jarayon tomonidan bajariladi. Kompyuterlashgan tarjimaning uch turi mavjud. To'g'ridan-to'g'ri tarjima usuli eng eskisi bo'lib, faqat bir juft tillarga mo'ljallangan. Vositachi - til ishlatishga asoslangan tarjima usuli. U avvalgidan mam mazmunini ifodalash uchun vositachi kiritilishi bilan farqlanadi. Bu usul, ayniqsa, ko'ptilli muhida samarali hisoblanadi. Bundan tashqari u oldingi to'g'ridan-to'g'ri tarjima usulidan tejamliroq. Transfer (uzatish) usulida, tarjimaning yana bir bosqichi kiritiladi. Ulardan birinchisida, boshlang'ich mam kirish tilining ifodalarga aylantiriladi. Ikkinchi bosqichda bu ifodalanish chiqish tili ifodalariga qayta aylantiriladi. Nihoyat oxirgi bosqichda chiqish tilidagi matn hosil bo'ladi.

Kompyuterlashtirilgan tizim

ing. - computer-aided system (CAS)

rus. - компьютеризованная система

Kompyuter yordamida ixtiyoriy ishlarni avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizim.

CAS tizimi, modellash, loyihalash, ishlab chiqish, yaratish, amalda ixtiyoriy mashinalarni, apparatlarni, asboblarni va boshqa mahsulotlarni tayyorlash va sinash bilan bog'liq ishlarni qamrab oladi.

Kompyuterlashtirish

ing. - computerization

rus. - компьютеризация

1. Kompyuterlar vositasida avtomatlashtirish.
2. Inson faoliyatining turli sohalarida, axborot jarayonlarini va texnologiyalarni avtomatlashtirishni ta'minlaydigan kompyuterlarni rivojlantirish va tatbiq qilish jarayoni.
3. Kompyuter mahsulotlari va xizmatlari sanoatini, hamda jamiyatda ulardan foydalanishni rivojlantirish jarayoni. Internetni keng rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biri.

Kompyuterlashtirish markazi

ing. - center computerization

rus. - центр компьютеризации

Asosiy faoliyati joylarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuterlashtirishni ishlab chiqish va rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini yuritish va yangilash, mintaqalarda yaratilgan va yaratiladigan davlat axborot resurslari hamda axborot tizimlari ro'yxatga olinishida yordam korsatish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlarining veb-portallarini muntazam yangilab borish, shuningdek, mintaqada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari holati va rivojlanish istiqbollarini muntazam tahlil qilib borish hamda uning natijalari asosida bu sohani takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritishdan iborat bo'lgan tashkilot.

Kompyuterning tez ishlashi

ing. - quickly operation of the computer

rus. - быстродействие компьютера

Aniq bir kompyuterning ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi. Ko'pgina omillarga, jumladan, tashqi qurilmalarning tez ishlashiga bog'liq. Kompyuterning tez ishlashini odatda, protsessorning tez ishlashi belgilaydi.

Kompyuteromaniya

ing. - computer mania

rus. - компьютеромания

Insonning kompyuter tizimlarini muntazam

ishlatishdagi patologik ehtiyoji. Bu inson ruhiyatiga kompyuter o'yinlari va virtual birligi texnologiyalari ta'siriga ko'nikib qolishi bilan yuzaga kelgan.

Kompyutron

ing. - computron

rus. - компьютерон

Kompyuter unumdorligini baholashning mavhum birligi.

Konduktiv xalaqit

ing. - conducted disturbance

rus. - кондуктивная помеха

O'tkazgichlar bo'ylab tarqaladigan elektromagnit xalaqit.

Konferens-aloqa

ing. - conference-call (CON)

rus. - конференц-связь

Foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bir nechta, o'zaro aloqada bo'lgan abonentlar bilan axborot almashish imkoniyatini beruvchi xizmat.

Konfidensial

ing. - confidential

rus. - конфиденциальный

Ommaviy foydalana olishga mo'ljallanmagan axborot (parollar va h.k.). Odatda konfidensial axborot shifrlanadi.

Konfidensial axborot

ing. - confidential information

rus. - конфиденциальная информация

1. Davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlar bo'lmagan hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq chegaralanadi.
2. Foydalanuvchilar tomonidan erkin foydalanish huquqi cheklangan va ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilinishi talab etiladigan axborot.
3. Xizmatga oid, professional, sanoat, tijoratga oid yoki huquqiy rejimi egasi tomonidan qonunchilikka asosan belgilanadigan va muhofaza qilinishi talab etiladigan axborot.

Konfidensiallik

ing. - confidence

rus. - конфиденциальность

1. Axborotning avtorizatsiya qilinmagan

shaxslar, mantiqiy obyektlar yoki jarayonlar uchun foydalanib bo'lmashlik yoki yopiqlik xususiyati.

2. Axborotdan foydalanish huquqiga ega subyektlar doirasiga cheklovlar kiritish zarurligini ko'rsatuvchi va tizimning (muhitning) ko'rsatilgan axborotni undan erkin foydalanish huquqi bo'lmagan subyektlardan sir saqlash zarurligini ta'minlovchi, subyektiv aniqlanadigan (qo'shib yoziladigan) axborot xarakteristikasi (xususiyati).

3. Axborot va uning tashuvchisining holati, bunda u bilan ruxsat etilmagan tarzda tanishishning yoki ruxsat etilmagan tarzda hujjatlashtirish (nusxa ko'chirish)ning oldini olish ta'minlanadi.

4. Tutib olish va boshqa ruxsat etilmagan harakatlar natijasida axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishning mumkin bo'lmashligi.

Konfidensiallik belgisi

ing. - confidentiality mark

rus. - метка конфиденциальности

Obyektida mavjud bo'lgan axborotning konfidensialligini tavsiflovchi axborot elementi.

Konfidensiallik toifasi

ing. - sensitivity

rus. - категория конфиденциальности

Resursning, uning muhimligini yoki ahamiyatligini belgilovchi va o'z ichiga resurs zaifligini olish xarakteristikasi.

Konfidensiallik xizmati

ing. - confidentiality service

rus. - услуга конфиденциальности

Almashinadigan ma'lumotlarning ruxsat etilmagan tarzda oshkor etilishdan muhofaza qilinishini ifodalaydigan konfidensiallik xizmati.

Izoh - Konfidensiallikni ta'minlash xizmatlarining quyidagi turiari ajratiladi: tanlangan maydon konfidensialligi; bog'lanish o'rnatilgan rejimdagi konfidensiallik; bog'lanish o'rnatilmagan rejimdagi konfidensiallik; trafikning konfidensialligi.

Konfiguratsion fayl

ing. - configuration file

rus. - конфигурационный файл

Tizimning tarkibiy qismlari, tizimning muayyan sozlanishini belgilaydigan yordam-

chi parametrlar tavsiflanadigan fayl. Konfiguratsion fayllar deyarli barcha kuchli tizimlarda bor. Odatda, bu tizimning o'zi interpretatsiya qiladigan matnli fayllardir.

Konfiguratsiya

ing. - configuration

rus. - конфигурация

Qurilma yoki ilovaning ishlash rejimlarini belgilaydigan apparat yoki dasturiy ko'rsatmalar to'plami.

Konfiguratsiya fayli

ing. - configuration file

rus. - файл конфигурации

MAYDON:QIYMAT formatidagi fayl bo'lib, unda dasturlarning foydalanuvchi tomonidan sozlangan qiymatlari saqlanadi.

Konfiguratsiyani boshqarish rejisi

ing. - configuration management plan

rus. - план управления конфигурацией

Baholash obyektlari uchun konfiguratsiyani boshqarish tizimidan foydalanish tavsifi.

Konfokal rezonator

ing. - confocal cavity

rus. - конфокальный резонатор

Sferik ko'zgularning egrilik radiusiga teng masofada joylashgan, ikkita bir xil sferik ko'zguda hosil qilingan optik rezonator.

Konform antenna

ing. - flush-mounted antenna,

conformal antenna

rus. - конформная антенна

1. Shakli eltuvchining atroflama chiziqlarini takrorlaydigan va yassi. silindrsimon, konusimon yoki sferik sirtida joylashgan antenna.

2 Transport vositasining gabarit o'lchamidan turtib chiqmaydigan va kichik aerodinamik qarshilikka ega bo'lgan antenna.

Konkatenatsiya

ing. - concatenation

rus. - конкатенация

Simvollarning bir nechta satrini bitta satrga birlashtirish operatsiyasi. Dasturlash tillarida bu operatsiyani bajaradigan maxsus funksiyalar mavjud. Masalan, Pascal tilida konkatenatsiya operatsiyasi + bilan belgilanadi.

Konnektor

ing. - connector

rus. - коннектор

Tola bilan birgalikda, tolaning pozitsiyalashuvini, uzatgich, qabul qilgich yoki boshqa toлага ulanishini ta'minlash uchun foydalaniladigan mexanik qurilma. Odatda konnektorning quyidagi turlaridan foydalaniladi: SC (SC-Subscriber Connector, 568SC), ST Compatible (ST-Straight Tip, BFOC/2.5), FC, FCPC, FDDI, Escon, Biconic, D4, SMA 905, 906.

Konsalting

ing. - consulting

rus. - консалтинг

Ekspertiza o'tkazish va maslahat berish faoliyati bilan bog'liq xizmat turi. Muhim rolni axborot konsaltingi egallaydi.

Konsentrator

ing. - concentrator

rus. - концентратор

1. Ko'plab abonent liniyalari, stansiyalari yoki boshqa konsentratorlar ulanadigan aktiv yoki passiv qurilma. Bunday qurilmaning chiqish uchlari kirish uchlariga qaraganda ancha kam. Qo'llash sohasiga bog'liq ravishda konsentrator funksiyalari an'anaviy kanallar konsentratori funksiyalaridan farq qilishi mumkin. Jumladan, lokal aloqa tarmoqlarida u ko'p portli takrorlagich funksiyasini bajaradi.

2. Markaziy stansiya. Tarmoqning, «yulduz» topologiyali tarmoqlarida radial bog'lanishlarni tashkil qilish uchun mo'ljallangan kommutatsion yadrosi.

3. Markaziy kross (strukturalangan kabelli tizimlarda).

Konseptual model

ing. - conceptual model

rus. - концептуальная модель

Muammoli sohaning tushuncha darajasida formal taqdim etilishi.

Konsol

ing. - console

rus. - консоль

Foydalanuvchi tomonidan kompyuter ishini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma.

Masalan, klaviatura, displey, «sichqoncha» konsol qurilmalardir.

Konsolli kompyuter

ing. - console computer

rus. - консольный компьютер

Asosiy kompyuterini ishga tushirib yuborish uchun tayyorgarlik harakatlarini bajaruvchi kompyuter. Bunday vazifa «kata» kompyuter tizimlari, masalan, superkompyuterlar bajarilganda, ayrim mashinaga berilishi mumkin. Odatda, konsolli kompyuterdan bosh kompyuter tizimining elementlari va tugunlari holatining monitoringi bajariladi, shu bilan birga unda, asosiy kompyuterini sozlash va unda xizmat ko'rsatish uchun ishlatiladigan konfiguratsiya axboroti va xizmat utilitalari saqlanadi.

Konstanta

ing. - constant

rus. - константа

Doimiy, o'zgarmas kattalik. Xotirada biror bir muhim parametрни saqlash uchun xizmat qiladi.

Konstantalar sohasi

ing. - constant area

rus. - область констант

Dastur konstantalarining qiymatlari joylashgan xotira sohasi.

Konstruksiya tahlili

ing. - reverse engineering

rus. - анализ конструкции

Birmuncha yuqori abstraksiya darajasida yoki boshqa shaklda dasturning ba'zi bir yoki barcha funksiyalarini imitatsiya qilish yoki takrorlash maqsadida, dasturning ishlash algoritmlarini o'rganish uchun, dastur yoki mikroshemani doimiy tahlil qilish jarayoni.

Konstruktor

ing. - constructor

rus. - конструктор

Obyektga yo'naltirilgan dasturlashdagi turkum konstruktori – bu obyektни yaratishda yoki uni e'lon qilishda (C++ da stek yoki statik xotirada joylashgan, ammo Javada emas va ba'zi turdagi obyektga yo'naltirilgan tillarda) qo'llaniladigan maxsus yo'riqnoma

yig'indisi. Yoki u new kalit so'zni ishlatganda dinamik holatda to'plamda joylashadi. Konstruktor uslubga o'xshash, lekin undan farqi, bu uni aniq turdagi qaytuvchi ma'lumot, meroslikka ega emasligi va ko'riylayotgan modifikatorlar uchun turli qoidalar mavjudligidir. Konstruktorlar e'lon qilingan turkum bilan bir xil nomga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning vazifalari – obyekt a'zosini initsializatsiya qilish va turkum invariantini aniqlash, hamda invariant noto'g'ri bo'lsa xabar berish. To'g'ri yozilgan konstruktor, obyektning to'g'ri statusini belgilaydi. O'zgarmaydigan obyektlar ham konstruktor tomonidan initsializatsiya qilinishi kerak.

Konsultatsion (maslahat) chaqiruv

ing. - consultation calling

rus. - консультационный вызов

Aktiv abonentga liniyani ushlab turish rejimiga o'tkazish va boshqa abonentdan kerakli axborotni olish uchun bog'lanish imkonini beruvchi xizmat.

Kontaktli xalaqit

ing. - contact disturbance

rus. - контактная помеха

Elektromagnit maydon ta'sirida tok o'tkazuvchi kontaktlar va/yoki nochiqli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan muhitning nurlantirishi bilan bog'liq elektromagnit xalaqit.

Kontaktsiz kommutatsion aloqa elementi

ing. - static switching element

rus. - бесконтактный

коммутационный элемент связи

Aloqa tarmoqlarida, fazoda kontakt-detallarni (tutashadigan qismlarni) ko'chirmasdan, telekommunikatsiyalar signallarining o'tish sharoitlarini o'zgartirish orqali kommutatsiyalashni amalga oshiradigan kommutatsion aloqa elementi.

Izoh – Ishlash prinsipiga bog'liq ravishda, yarim o'tkazgichli, magnit, gaz-razryad, optik kontaktsiz elementlar ajratiladi.

Kontaktsiz (zarbsiz) printer

ing. - nonimpact printer

rus. - бесконтактный

(безударный) принтер

Bo'siladigan elementlarni nomexanik (zarb-

siz) usul bilan shakllantiradigan printer. Termoprinterlar, elektrostatik, purkagichli, lazer va yorug'lik diodli printerlar shular jumlasidandir.

Kontekst

ing. - context

rus. - контекст

Foydalanuvchi muhiti xarakteristikalarini aniqlash uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan axborot.

Izoh – Kontekst foydalanuvchi qayerdaligi, uning yaqinida qanday resurslar (qurilmalar, foydalanish punktlari, shovqin darajasi, o'tkazish polosasi va h.k.lar) borligi, foydalanuvchi qaysi paytda ko'chib yuradi, odam va predmetlar o'rtasidagi hamkorlik xronologiyasini ichiga olishi mumkin. Kontekst axborot aniq ilovalarga muvofiq yangilanishi mumkin.

Kontekstli meny

ing. - contextual menu

rus. - контекстное меню

Qaysi joyda ishga tushirilishidan qat'i nazar, o'zgaruvchan matnli meny. Odatda, «sichqoncha»ning o'ng tugmasini bosish orqali ishga tushiriladi.

Kontekstning o'zgarishi

ing. - context switch

rus. - переключение контекста

Operatsion tizimning eski jarayon holatini saqlash va saqlangan holatni yangi jarayon uchun yuklash bo'yicha bir jarayondan boshqa jarayonga o'tishdagi holati.

Kontent

ing. - content

rus. - контент

Servetni, axborot kompleksini axborot jihatdan ahamiyatli har qanday to'ldirish – matnlar, grafika, multimedia. Sahifalar ko'rinishida gipermatnli belgilash vositalari bilan tashkillashtiriladi. Axborot bilan to'ldirishda uning hajmi, dolzarbligi va izlash tizimi talabni qanoatlantira olishi zarur ko'rsatgichlar bo'lib hisoblanadi. Internet tarmog'ida axborot to'ldirish gipermatnli belgilash tili orqali veb-sahifalar ko'rinishida tashkil etiladi.

Kontent-provayder

ing. - content-provider

rus. - контент-провайдер

Foydalanuvchilarga muayyan axborot yoki

ko'ngil ochadigan xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilot.

Kontentni boshqarish tizimi

ing. - Content Management System (CMS)

rus. - система управления контентом

Matn va multimedia hujjatlarini yaratish, tahrir qilish va boshqarishning qo'shma jarayonini ta'minlash va tashkillashtirishda qo'llaniladigan kompyuter dasturi yoki tizimi.

Konteyner

ing. - container

rus. - контейнер

Maxfiy xabarlarini yashirish uchun mo'l-jallangan fayl yoki har qanday axborot.

Kontraktlar bilan bog'liq firibgarlik

ing. - subscription fraud

rus. - мошенничество с контрактами

Mobil aloqa tarmog'i operatori bilan kontrakt tuzishda yolg'on ma'lumotlarni ataylab ko'rsatish.

Kontrast (televideniya)

ing. - contrast (in television)

rus. - контраст (в телевидении)

Uzatilayotgan ko'rinish yoki tiklanayotgan tasvirning ikki nuqtasidagi yorug'lik nisbati.

Kontrastlilikni sozlash

ing. - contrast control

rus. - регулировка контрастности

Tasvir signalining kuchayishini qo'lda sozlash.

Kontroller

ing. - controller

rus. - контроллер

O'ziga ulangan qurilmalar ishini boshqaruvchi, lekin, o'zi orqali o'tadigan ma'lumotlarni o'zgartirmaydigan qurilma.

Kontrreflektor

ing. - subdish, kontrreflector

rus. - контррефлектор

O'lchami asosiy ko'zgudan nisbatan kam bo'lgan ikkita ko'zguli antenning yordamchi ko'zguisi.

Konturlarning nostabilligi

ing. - instability of edges

rus. - нестабильность контуров

Asosan, DIKM da sodir bo'ladigan, noaniq taxminlash tufayli tasvir konturlaridagi asosan tasodifiy tebranuvchi notekisliklar kabi paydo bo'ladigan vizual nuqson.

Konturlash

ing. - outline effect

rus. - оконтуривание

Predmetlarning faqat chetlari tiklanadigan maxsus effekt.

Konturli tuzatish

ing. - contour correction

rus. - контурная коррекция

Tasvirning subyektiv aniqligini predmetlarning chekka qismlarini ajratib ko'rsatish uchun videosignallarning yuqori chastotali tashkil etuvchilari darajasini tanlab ko'tarish yo'li bilan oshirish.

Konussimon antenna panjarasi

ing. - conical array

rus. - коническая антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari konussimon yuzada joylashgan sirt antenna panjarasi.

Konussimon spiral antenna

ing. - conical spiral antenna

rus. - коническая спиральная антенна

Qobig'i posangi, shuningdek, reflektor sifatida ishlatiladigan (dumaloq yoki to'g'ri burchakli) yassi metall ekran bilan birlashtirilishi mumkin bo'lgan, koaksial fider bilan ta'minlanadigan simli konussimon spiraldan iborat antenna.

Konvensional tizim

ing. - conventional system

rus. - конвенциональная система

Biriktirilgan chastotalarda, bir yoki ikki chastotali simpleks rejimida ishlaydigan radioaloqa tizimi (odatda 160 MHz va undan past chastotalar diapazonida ishlatiladi).
Izoh - Konvensional tizim xizmat ko'rsatish zonasining radiusi, odatda, mobil aloqa tizimiga nisbatan kattaroq bo'ladi va u, asosan, antenning o'rnatilish balandligi bilan belgilanadi.

Konvergensiya
ing. - convergence

rus. - конвергенция

Raqamli video, raqamli tovush, kompyuterlar va Internet kabi turli texnologiyalarning birikmasi.

Konvert

ing. - envelope

rus. - конверт

1. Uzatish jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lgan xabar qismi. Xabar jo'natuvchini va potensial oluvchilarni aniqlab beradi, o'z ichiga olganlarni tavsiflaydi.

2. 5 byte uzunlikdagi sarlavha va 48 byte ma'lumotlar maydoni bilan qayd etilgan o'lchamning kadri.

Konvertor

ing. - convertor

rus. - конвертор

Antenna fokusiga o'rnatiladigan elektron blok. Qabul qilish tomonida antenna fokusida aks etgan elektromagnit to'lqinlar konvertorning to'lqin o'tkazuvchi kirishiga tushadi va elektr signaliga aylanadi. Konvertorda bu signal kuchayadi, uning chastota spektri birinchi oraliq chastotagacha pasayadi.

Konveyyer

ing. - pipeline

rus. - конвейер

Markaziy protsessorning, komandalarni qayta ishlash, bir taktida bajariladigan uncha katta bo'lmagan qadamlarga ajratiladigan parallel ishlaydigan bajaruvchi qurilmalarining zanjiri.

Konyunksiya

ing. - conjunction

rus. - конъюнкция

$n \geq 2$ ifodalar uchun mo'ljallangan mantiqiy operatsiya. Natijaviy ifoda (boshlang'ich ifodalar konyunksiyasi) barcha boshlang'ich ifodalar to'g'ri bo'lgandagina to'g'ri bo'ladi. Konyunksiyani belgilash uchun standart ravishda & belgisi (ba'zida ^), shuningdek, ko'paytirish belgisi nuqta shaklida ishlatiladi. Ko'pgina hollarda, konyunksiya belgisi tushirib qoldirilishi mumkin.

Kooperativ hisoblashlar

ing. - cooperative computing

rus. - кооперативные вычисления

Umumiy axborotdan va taqsimlangan hamda tarmoq tizimlaridagi umumiy resurslardan foydalanib, birgalikda olib boriladigan hisoblash ishlari.

Koordinata buzilishlari

ing. - coordinate distortions

rus. - координатные искажения

Sintezlangan televidion tasvir nuqtalari koordinatalarining obyektning tabiiy qilinadigan tasviri tegishli nuqtalari koordinatalaridan og'ishi.

Kopileft

ing. - copyleft

rus. - копилефт

Ingliz tilidagi copy - nusxa, kopiya va left - chap, so'zlari birikmasidan hosil bo'lgan - mualliflik huquqi qonunini qo'llash g'oyasi va amaliyoti, ya'ni mahsulotni ilk ishlangan holda va unga asoslanib ishlangan yangi mahsulot holda ixtiyoriy kimsa foydalanishini, o'zgartirishini va tarqatishini cheklamalikni ta'minlash. Kopileft, mualliflik huquqiga teskari holda ushbu qonunni odamlarning huquqini kengaytirishga qo'llaydi. Kopileftning asosiy g'oyasi shundaki, har bir dasturni o'zgartirishsiz yoki o'zgartirib tarqatayotgan shaxs bu dasturni keyingi tarqatishni yoki o'zgartirishni cheklash huquqiga ega emas. Kopileft har bir foydalanuvchining erkin faoliyatini kafolatlaydi, shu tarzda, yuridik ma'noda, kopileft kopiraytga antonim hisoblanadi.

Korporativ aloqa tarmog'i

ing. - corporate telecommunications network

rus. - корпоративная сеть связи

Ham bitta davlat miqyosida, ham bir nechta davlat miqyosida alohida korxonalar (firmalar, tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlari va sh.k.) tarmoqlarini birlashtiradigan tarmoq.

Korporativ axborot tizimi

ing. - corporate information system

rus. - корпоративная информационная система

Ishirokchilari cheklangan doiradagi shaxslar bo'lgan axborot tizimi. Ishirokchilar axborot tizimining egasi tomonidan yoki shu axborot tizimi ishtirokchilari orasidagi bitim bilan aniqlanadi.

Korporativ axborot xavfsizligini boshqarish

ing. - governance of information security

rus. - корпоративное управление

информационной безопасностью

Axborot xavfsizligi sohasida tashkilot faoliyatiga rahbarlik qilish va nazorat qilishni ta'minlovchi tizim.

Korporativ hisoblash tarmog'i

ing. - corporate computer network

rus. - корпоративная вычислительная сеть

Ham bitta davlat, ham bir nechta davlat miqyosida alohida korxonalar (firmalar, tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlari va sh.k.), korporatsiyalarning lokal tarmoqlarini birlashtiradigan axborot-hisoblash tarmog'i.

Korporativ ijtimoiy tarmoq

ing. - corporate social networking

rus. - корпоративная социальная сеть

Biznes ehtiyojlarni qondirish uchun yaratilgan tarmoq. Bu, kompaniya faoliyatini tashkillashtirish va ta'minlash masalalarini hal qiladigan professional ijtimoiy tarmoqdir. Korporativ professional ijtimoiy tarmoqlar Internetda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga yoki kompaniya faoliyati yoki biznesi manfaatlarini ma'qullaydigan odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga e'tibor qaratadi. Korporativ ijtimoiy tarmoqlar dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar faoliyatining natijasi bo'lib, ichki korporativ muloqotni tashkillashtirish va tashqi muhit bilan o'zaro hamkorlik (birgalikda ishlash) uchun xizmat qiladi.

Korporativ kontentni boshqarish

ing. - enterprise content management

rus. - управление корпоративным контентом

Tashkilot doirasida raqamli hujjatlarini va kontentning boshqa turlarini boshqarish, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va yetkazish.

Korporativ portal

ing. - corporate portal

rus. - корпоративный портал

Korporativ tarmoqning asosiy kirish nuqtasi. Izoh - Korporativ portalning vazifasi xodimlarga, ularning foydalanish huquqlari va afzalliklari hisobga

olingan holda, tashqi va ichki korporativ axborotning keng to'plamidan foydalanish imkoniyatini berish hisoblanadi. Korporativ portal foydalanuvchi uchun muhim bo'lgan axborotni, foydalanuvchining tashkilotdagi vazifalariga muvofiq saralangan holda, tanlab yetkazilishini ta'minlaydi.

Korporativ tarmoq

ing. - enterprise-wide network

rus. - корпоративная сеть

Tarqoq bo'limlar va ma'muriy ofislarni birlashtiruvchi bir korxonaning tarmog'i.

Izoh - Tarmoqning majburiy komponenti bo'lib, telefon liniyalari, radiokanallar yoki yo'ldosh aloqa kanallari yordamida o'zaro bog'langan uzoqdagi lokal tarmoqlar hisoblanadi. Korporativ tarmoqlarning barcha foydalanuvchilari umumiy (odatda, muhofaza qilingan) tarmoq resurslaridan foydalana oladi.

Korporativ tarmoqlarni tashkil etish

ing. - implementation of corporate networks

rus. - организация корпоративных сетей

Tashkilot bo'linmalarining (filiallar, vakolatxonalar va h.k.lar) hududiy ajratilgan yagona tarmog'iga (mahalliy, hududiy, xalqaro masshtabda) birlashadigan telekommunikatsiya infratuzilmasini, jumladan, umumiy foydalanishdagi telefon tarmoqlari, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va kompyuter tarmoqlarining vositalarini yaratish va kuzatib borish.

Korpus

ing. - case

rus. - корпус

Kompyuterining mexanik qismi bo'lib, uning barcha qolgan qismlari unga birlashtiriladi. Odatda, «korpus» deganda korpus va ta'minot bloki juftligi tushuniladi.

Korpusiz integral sxema

ing. - bare integrated circuits

rus. - безкорпусная интегральная схема

Muhofazalovchi qobig'i bo'lmagan integral sxema. Ularning chiqarilishi sharofati bilan, apparatura ishlab chiqaruvchilar o'zlarining ko'p mikroshemali komplekslarini (mikroprotessorlar, elektron xotira qurilmalari, maxsus mantiqiy modullar, mikrokontrolerlar, modemlar) yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunda ko'p mikroshemali kompleks avval seriyalab ishlab chiqarilgan tarkibiy qismlardan yig'ilib, so'ngra biror bir qobiqqa yoki boshqa muhofazalovchi korpusga joylashtiriladi.

Korreksiyalash to'g'risidagi

xabarlar jadvali

ing. - table of messages about correction

rus. - таблица сообщений о коррекции

Tarmoqqa kiradigan stansiyalar guruhiga signallarni vaqtini, chastotasini va amplitudasini korreksiyalash uchun yuboriladigan jadval.

Kortej

ing. - tuple

rus. - кортеж

Kortej bu ko'plik nazariyasining atamasi. U bitta yoki bir nechta atributlarning yig'imiga tegishli.

Korxonalar arxitekturasini

ing. - enterprise architecture

rus. - архитектура предприятия

Korxonalar tuzilmaviy aloqalari va jarayonlarini tavsiflash usullari to'plami. Bu to'plamdan axborot texnologiyalari sohasida asosan, axborot tizimlarini rejalashtirishda va ularning samaradorligini baholashda foydalaniladi.

Korxonalar axborot resurslarini boshqarish

ing. - enterprise content management (ECM)

rus. - управление информационными

ресурсами предприятия

Korxonada hujjat aylanishini tartibga solishda va tez-tez uchrab turadigan har xil protseduralarni (masalan, ishchilarning kelib-ketish vaqtini nazorat qilishni) avtomatlashtirishda yordam beruvchi dasturiy ta'minot.

Korxonalar resurslarini rejalashtirish

ing. - enterprise resource planning

rus. - планирование ресурсов предприятия

Faoliyatning barcha sohalari uchun jarayonlar va ma'lumotlarning umumiy modelini ta'minlaydigan, ixtisoslashtirilgan integratsiyalashgan amaliy dasturiy ta'minot paketi vositasida korxonalar resurslarini uzluksiz balanslash va optimallashtirishga qaratilgan, ishlab chiqarish va operatsiyalarni, mehnat resurslarini boshqarishni, moliyaviy menejment va aktivlarni boshqarishni integratsiyalashning tashkiliy strategiyasi.

Korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi

ing. - enterprise resource

planning (ERP) system

rus. - система планирования

ресурсов предприятия

Korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarini hisob-kitob va nazorat qilish, rejalashtirish hamda boshqarish vazifalarini kelishilgan holda bajarishni ta'minlashga qaratilgan axborot tizimi. ERP tizimlarida ta'minlash va savdo vazifalarini bajarish odatda hisoblash vazifalaridan iborat. Bunda yetkazuvchi va iste'molchilar resurslarini rejalashtirish tizimlari bilan ularga o'xshash tizimlar o'rtasida bevosita o'zaro ishlash mexanizmi mavjud bo'lmaydi.

Kosmik nurlanish

ing. - cosmic radiation

rus. - космическое излучение

Manbai kosmik obyektlar bo'lgan nurlanish.

Kosmik radio nurlanish

ing. - cosmic radioradiation,

space radioemission

rus. - космическое радионизлучение

Radioto'lqinlar diapazonida turli samo jislarni nurlantiradigan elektromagnit to'lqinlar. Radionurlanishning eng kuchli manbai bo'lib, Yerga yaqinligi tufayli, Quyosh hisoblanadi.

Kosmik stansiya antenasining

kuchaytirish konturi

ing. - antenna gain contours

of the space station

rus. - контуры усиления антенны

космической станции

Yer sirti kartasida tasvirlangan, kosmik stansiyaning uzatuvchi yoki qabul qiluvchi antennalarini bir xil kuchaytiradigan berk konturlar.

(Kosmik stansiyaning) kontur nuri

ing. - contoured beam (of cosmic station)

rus. - контурный луч

(космической станции)

Yer sirti bilan kesishganda, shu kosmik stansiyaning qoplash zonasini takrorlaydigan, bir xil quvvat oqimi zichligiga mos keladigan liniyalar hosil qiladigan nur.

(Kosmik stansiyaning) nur maydoni

ing. - beam area (of a space station)

rus. - зона луча (космической станции)

Kosmik stansiya uzatuvchi antenasi nuri-

ning Yer yuzasi kesishish konturi bilan asosiy yo'nalishdagi nurlanishning yarim quvvati darajasida chegaralangan Yer sirti qismi.

(Kosmik stansiyaning) xalaqit zonasi

ing. - interference zone (of space station)

rus. - зона помех (космической станции)

Yer yuzasining istalgan nuqtasida kosmik stansiyadan keladigan xalal beruvchi signal quvvatining oqim zichligi talab etiladigan sathga teng yoki undan katta bo'ladigan qismi.

Kosmik televideniye

ing. - space television

rus. - космическое телевидение

Televizion texnikadan kosmosda foydalanish.

Kosmik xalaqit

ing. - cosmic disturbance

rus. - космическая помеха

Manbai Quyosh, yulduzlar va galaktikalar-ning nurlanishi bo'lgan tabiiy xalaqit.

Kosmik zond

ing. - space probe

rus. - космический зонд

Kosmosda kuzatuvlar yoki o'lchashlar olib borish uchun mo'ljallangan kosmik kema.

Kosmos-Yer liniyasi (liniya pastga)

ing. - down-link

rus. - линия космос-Земля (линия вниз)

Uzatuvchi kosmik stansiya va qabul qiluvchi yer stansiyasi o'rtasidagi radioliniya.

Izohlar

1. Bu atama, shuningdek, Yer uski aloqasida uzatuvchi tayanch stansiya va qabul qiluvchi ko'chma stansiya o'rtasida aloqa liniyasini belgilashda ishlatiladi.

2. I belgisi liniya pastga bilan bog'liq kataliklarni harfli belgilashlarda quyidagi indeks sifatida ishlatiladi.

Kosmos shovqinlari

ing. - noise of the cosmos

rus. - шумы космоса

Qabul qiluvchi antennadagi Quyosh, yulduzlar, sayyoralar, yulduzlararo muhit va b.q.larning radionurlanishi bilan shartlangan elektr fluktuatsiyalar.

Kotelnikov chastotasi, Nyakvist chastotasi

ing. - Kotelnikov frequency,

Nyquist frequency

rus. - частота Котельникова, частота

Найквиста

Diskretlashning, dastlabki signalni buzilishsiz tiklash nazariy jihatdan mumkin bo'lgan, minimal chastotasi.

Izoh - Spektri nol chastotadan boshlanadigan va maksimal chastota bilan cheklangan signal uchun Nyakvist chastotasi ikkilangan maksimal chastotaga teng.

Kotib xizmati

ing. - secretary service

rus. - услуга секретаря

Abonentga barcha kiruvchi chaqiruvlarni qayta ishlash uchun boshqa telefon (kotib telefoni) tayinlash imkonini beradigan xizmat, ya'ni barcha kiruvchi chaqiruvlar avval kotib telefoniga yuboriladi va faqat kotib ushbu xizmat abonentini bevosita chaqirishi mumkin bo'lad.

Kraker

ing. - craker

rus. - кракер

Amaliy dasturiy ta'minot sohasida ixtisoslashgan xakerlarning bir turi. Krakerlarning faoliyati odatda, g'arazli maqsadlarga yo'naltirilgan va «begona» axborotdan, jumladan, konfidensial axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish bilan bog'liq.

Kredit kartochka

ing. - credit card

rus. - кредитная карточка

Bank tizimlarida keng tarqalgan magnit kartochka. Bankomatlarda, savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining kassa apparatlarida kartochkaning egasini aniqlash uchun ishlatiladi. Har qaysi bunday kartochka o'zining «shaxsiy identifikatsiya tartib raqami» (PIN) ga ega bo'lib, u uning egasiga birkiriladi.

Kredit kartochkalar avtomatik xizmati

ing. - automatic credit card service

rus. - автоматическая услуга

кредитных карточек

Maxsus jihozlangan telefon apparatiga kredit kartochkani kiritish yo'li bilan yoki kartochkaning raqamini terish orqali so'zlashuv uchun to'lov amalga oshiriladigan xizmat. So'zlashuv uchun hisob bunday kredit kartochkaning egasiga yuboriladi.

Kredit muassasa

ing. - credit institution

rus. - кредитное учреждение

Faoliyati, cheklanmagan doiradagi shaxslardan depozitlar yoki boshqa, qaytarilishi zarur pul mablag'larini qabul qilish va o'z hisobidan kreditlar taqdim etishdan iborat bo'lgan korxon.

Kreker

ing. - cracker

rus. - крэкер

Hakerning Internetda qabul qilingan nomlanishi. Tarmoqda haqorat so'zi hisoblanmaydigan «xaker» so'zidan farqli, aynan qo'poruvchi (sindiruvchi - «yomon odam»).

Krekling

ing. - cracking

rus. - крекинг

Kompyuter tizimiga yoki tarmoqqa suqulib kirish harakati.

Kremniyli kompilyator

ing. - silicon compiler

rus. - кремниевый компилятор

Mikrosxemalar topologiyasini avtomatlashtirilgan tarzda loyihalash uchun mo'ljallangan kompilyator-dastur.

Kriptoalgoritm

ing. - cryptoalgorithm

rus. - криптоалгоритм

Algoritm, uning yordamida dastlabki xabar (ochiq mam)ni belgilarning shifrlangan ketma-ketligiga mantiqiy qayta o'zgartirish amalga oshiriladi.

Kriptobardoshli gamma

ing. - strong gamma

rus. - криптостойкая гамма

Ma'lum qismi bo'yicha uning boshqa qismlarini aniqlash va uni ishlab chiqish algoritmini to'liq tiklash mumkin bo'lmagan gamma.

Kriptobardoshli xabar

ing. - crypto-proof message

rus. - криптостойкое сообщение

Kriptografik kalitni bilmadan turib, deshifrovka qilish mumkin bo'lmagan xabar.

Kriptografik algoritm

ing. - cryptographic algorithm

rus. - криптографический алгоритм

1. Axborotni buzib ko'rsatish imkoniyatining oldini olish va ruxsatsiz foydalanishdan muhofaza qilish maqsadida axborot (ma'lumotlar)ni o'zgartirishning matematik algoritmi.

2. O'z ishida, odatda, ochiq matbuotda e'lon qilinadigan maxfiy va ochiq parametrlar to'plamidan foydalanadigan ma'lumotlarni o'zgartirish algoritmi.

3. Kriptografik funksiyalardan birini hisoblashni amalga oshirish algoritmi.

Kriptografik bardoshlilik

ing. - cryptostrength

rus. - криптографическая стойкость

1. Shifrlanish, kalitni bilmadan turib axborotni rasshifrovka qilishga bardoshlilikini belgilovchi xarakteristikasi.

2. Kriptografik tizimning, jinoyatkorning kalitni, ochiq xabarni olish yoki yolg'on xabarni kiritish maqsadida qiladigan hujumlariga qarshi tura olish qobiliyatini tavsiflovchi xossasi.

3. Kriptografik algoritmning kriptotahlilga bardoshlilikini.

Kriptografik blok

ing. - cryptographic block

rus. - криптографический блок

Berilgan kriptoalgoritm uchun qat'iy o'lchamdagi ma'lumotlar to'plami bo'lib, ular kriptoalgoritm ishining bir siklida qayta ishlanadi.

Kriptografik ilashish

ing. - cryptographic chaining

rus. - криптографическое сцепление

Kriptografik algoritmdan foydalanish rejimi, bunda o'zgartirish oldingi kirish yoki chiqish ma'lumotlari qiymatlariga bog'liq bo'lgan algoritm tomonidan amalga oshiriladi.

Kriptografik kalit

ing. - cryptographic key

rus. - криптографический ключ

Kriptografik algoritmning parametrlari to'plamining muayyan maxfiy qiymatlari bo'lib, bu algoritm uchun mumkin bo'lgan

o'zgartirishlar majmuidan bittasi tanlanishini ta'minlaydi. Kriptografik kalit shiflash va shifmni ochish (deshiflash) protseduralarini boshqaradi.

Kriptografik muhofaza qilish

ing. - cryptosecurity,

cryptographically security

rus. - криптографическая защита

1. Axborot jarayonlarini ma'lumotlarni kriptografik o'zgartirishlarga asoslangan, normal kechish sharoitlaridan og'dirishga mo'ljallangan urinishlardan muhofaza qilish.

2. Axborotni undan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish va kriptografik o'zgartirishlar algoritmlari yordamida o'zgartirishdan muhofaza qilish.

Izoh - Masofadan bank xizmatini ko'rsatish tizimlarida kriptografik muhofaza qilish uchun elektron raqamli imzodan va uzatiladigan axborotni shiflashdan foydalaniladi.

Kriptografik nazorat kattaligi

ing. - cryptographic check value

rus. - криптографическая

контрольная величина

Ma'lumotlar blokini kriptografik o'zgartirish natijasida olinadigan axborot.

Kriptografik nazorat qiymati

ing. - cryptographic checkvalue

rus. - криптографическое

контрольное значение

Ma'lumotlar blokini kriptografik qayta o'zgartirishda aniqlanadigan va uzatiladigan axborotning yaxlitligini nazorat qilish uchun mo'ljallangan axborot.

Kriptografik protokol

ing. - cryptographic protocol

rus. - криптографический протокол

1. Algoritm, uning vositasida ikki yoki undan ortiq tomon qandaydir axborotni almashinadi va almashinadigan axborotning xavfsizligi kafolatlanadi. Bunday algoritm kriptografik o'zgartirishlardan foydalanadi va odatda, ochiq kalitli kriptografiyaga asoslanadi.

2. Kriptoalgoritm dan va shiflash kalitlaridan foydalanishni belgilaydigan qoidalar va protseduralar to'plami.

3. Kriptografik algoritmlardan foydalangan holda, ikki va undan ko'p tomonning o'zaro ishlashini ko'zda tutuvchi protokol.

Kriptografik tahlil

ing. - cryptanalysis

rus. - криптографический анализ

1. Shifmni yoki har qanday boshqa shakldagi kriptografiya obyektining sirini ochish san'ati va ilmi.

2. Kalitni bilmasdan turib shiflangan matndan dastlabki matn olish yoki dastlabki matn va shiflangan matn bo'yicha kalitni hisoblab chiqarish jarayoni.

Kriptografik tekshiruv

ing. - cryptographic verification

rus. - криптографическая проверка

Kriptografik o'zgartirish yordamida axborot olish jarayoni.

Kriptografik tizim

ing. - cryptographic system, cryptosystem

rus. - криптографическая система

1. Ochiq matn shifmatga va aksincha o'zgartiradigan qayta o'zgartirishning kalit yordamida tanlab olinadigan turkumi.

2. Axborotning kriptografik qayta o'zgartirilishini va kalitlarni taqsimlash jarayoni boshqarilishini ta'minlovchi texnik va/yoki dasturiy vositalar, tashkiliy usullarning majmui.

Kriptografik uskuna

ing. - cryptographic equipment

rus. - криптографическое оборудование

Kriptografik algoritmlarni amalga oshiruvchi, shiflash, rasshifrovka qilish, shif kalitlarni tayyorlash, ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilish va axborotni uzatish, qayta ishlash va sqalashda muhofaza qilish uchun mo'ljallangan apparat, dasturiy-apparat, dasturiy kompleks va vositalar.

Kriptografik vositalar

ing. - cryptographic facilities

rus. - криптографические средства

1. Axborotni kriptografik o'zgartirishlardan foydalaniladigan, axborot xavfsizligini ta'minlashning usullari hamda vositalari.

2. Kriptografik tizim funksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan hujjatlar, mexanik, elektromexanik, elektron texnik qurilmalar yoki dasturlar ko'rinishidagi vositalar.

Kriptografik o'zgartirishlar

ing. - cryptographic transformation

rus. - криптографические преобразования
Ma'lumotlarni shifrlash va deshifrlash operatsiyalarining majmui, shuningdek, shifrlash va deshifrlash ma'lumotlarni qayta shifrlash.

Kriptografiya

ing. - cryptography

rus. - криптография

1. Ma'lumotlarning semantik mazmunini yashirish, ulardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish yoki ularning aniqlab bo'lmaydigan o'zgartirilishini oldini olish maqsadida, ma'lumotlarni o'zgartirish prinsiplari, vositalari va usullarini, qamrab oluvchi fan.

2. Ma'lumotlarni telekommunikatsiyalar kanallari orqali uzatishda yoki saqlashda, ularning maxfiyligi va/yoki haqiqiyiligi ta'minlash usullari to'g'risidagi fan.

3. Axborotni tushunarsiz ko'rinishga keltirish prinsiplari, vositalari va usullari, shuningdek, uni qabul qilish uchun yaroqli ko'rinishga qayta tiklash.

Kriptografiya uchun API

ing. - cryptographic API (CAPI)

rus. - API для криптографии

Kriptografiya va elektron imzo bilan ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy interfeys. Xabarlarini kodlash/dekodlash bibliotekalarini o'zida saqlaydi.

Kriptologiya

ing. - cryptology

rus. - криптология

Axborotni xavfsiz saqlash va aloqa kanallari bo'ylab uzatish tizimini yaratish hamda tahlil qilish to'g'risidagi fan. Kriptologiya ikki qismga - kriptografiya va kriptotahlilga bo'linadi.

Kriptotahlil

ing. - cryptanalysis

rus. - криптоанализ

1. Ta'sirchan axborotni, jumladan, ochiq matnni olish maqsadida, kriptografik tizimni va/yoki uning kirishlari hamda chiqishlarini tahlil qilish.

2. Ma'lumotlarni ochish va/yoki qalbakilash usullari to'g'risidagi fan.

3. Yashirin o'zgaruvchan yoki haqiqiy ma'lumotlarni, jumladan, dastlabki matnni ajratish maqsadida xabarlarini muhofaza qilish tizimini o'rganish va/yoki uning kirish va chiqish xabarlarini tekshirish.

Kriptotizim

ing. - cryptosystem

rus. - криптосистема

1 Shifrlash yoki deshifrlashni ta'minlashda foydalaniladigan hujjatlar, qurilmalar, uskunalar va usullar majmui.

2 Axborotning kriptografik o'zgartirilishini va/yoki kriptografik kalitlarni tayyorlash va taqsimlash jarayoni boshqarilishini, jumladan, avtomatlashtirilgan tarzda, ta'minlovchi tashkiliy, texnik va dasturiy vositalar majmui.

Kriptotizimni buzish, ochish

ing. - cryptosystem discrimination, hacking

rus. - взлом, вскрытие криптосистемы

Kriptotizim bilan muhofaza qilingan axborot jarayonining uning normal (shtat) kechish sharoitlaridan og'ishini keltirib chiqarish imkonini beradigan protsedurani yuzaga keltirish.

Kriptoalyuta

ing. - crypto-currency

rus. - криптовалюта

1. Raqamli tranzaksiyalar reyestrini yuritish qoidalariga muvofiq, ushbu reyestr ishtirokchilari tomonidan raqamli tranzaksiyalarning taqsimlangan reyestrda yaratilgan va hisobga olingan raqamli moliyaviy aktiv turi.

2. Hisobga olinishi markazlashtirilmagan, raqamli hisoblash birliklari.

Izohlar

1. Bunday tizimlarning ishlashi taqsimlangan kompyuter tarmog'i yordamida yuz beradi. Bunda tranzaksiyalar to'g'risidagi axborot shifrlanmaydi, undan ochiq ko'rinishda foydalanish mumkin.

2. Tranzaksiyalar bloklari zanjiri bazasining doimiyiligi ta'minlash uchun, kriptografiya elementlari (ketma-ket xeshlash, ochiq kalitli tizim asosidagi raqamli imzo)dan foydalaniladi.

Kritik (maxfiy) bo'lmagan axborot

ing. - unclassified information

rus. - нескритичная (несекретная)

информация

1. Ochilishdan muhofaza qilishga ehtiyoj bo'lmagan axborot.

2. Davlat, xizmat, tijorat sirlarini yoki shaxsiy sirni ichiga olmaydigan, ochiq matbuotda e'lon qilinishi mumkin bo'lgan axborot.

Kritik radionurlanish chastotasi

ing. - critical frequency of radio-frequency emission

rus. - критическая частота радиоионизации

Radionurlanishning eng katta chastotasi, bunda vertikal yo'nalgan radioto'lqin ionosferaning ionlashgan qatlamidan qaytadi.

Kritik refraksiya

ing. - critical refraction

rus. - критическая рефракция

Ijbiy atmosfera refraksiyasi, bunda nurning egri radiusi yer sharining radiusiga teng, to'lqini esa yer sirtiga parallel harakat qiladi.

Kritik seksiya

ing. - critical section

rus. - критическая секция

Bir nechta jarayon bilan parallel bajarilishi mumkin bo'lgan va barcha jarayon uchun ayrim umumiy resurslardan – masalan, global xotira sohasi yoki umumiy fayldan foydalana olishni amalga oshiradigan kod.

Kritik seksiyalar bo'yicha

jarayonlarni sinxronlash

ing. - synchronization

process of critical section

rus. - синхронизация процессов по критическим секциям

Jarayonlarni parallel bajarish rejimini ta'minlash, bunda, agar bitta jarayon o'zining kritik seksiyasiga kirgan bo'lsa, u tugamaguncha boshqa hech qaysi jarayon o'zining kritik seksiyasiga bir vaqtda kira olmaydi.

Kritik soha

ing. - critical region

rus. - критическая область

Sinxronlash uchun, ajratiladigan resurslar va konstruksiyasini tasvirlashga asoslangan, umumiy resurs bilan ishlashda o'zaro bartaraf qilishni ta'minlaydigan yuqori darajali konstruksiya.

Kritik chastota

ing. - critical frequency, cutoff frequency

rus. - критическая частота

Eng kichik chastota, bunda uzatish liniyasida shunday turdagi to'lqin tarqalishi mumkin bo'ladi.

Kross

ing. - cross-connect

rus. - кросс

Bog'lanish kommutatsion shnurlar yoki tutashtirgichlar yordamida amalga oshiriladigan, oddiy turdagi kommutatsiyalanadigan qurilma.

Kross-brauzerlik

ing. - cross-browser

rus. - кросс-браузерность

Veb-saytning turli brauzerlarda bir xil, ya'ni tuzilishi buzilmasdan va materialning o'qilishi darajasi o'zgarimasdan aks ettirilishi va ishlay olish xususiyati.

Kross-dastur

ing. - crossware

rus. - кросс-программа

Ekstratarmoqlar foydalanuvchilari uchun ishlab chiqiladigan dastur. Bu amaliy dasturlar odatdagilardan shu bilan farq qiladiki, ular muayyan amaliy tizimlar bilan emas, balki operatsion tizimlar yig'masi bilan ishlashi mumkin. Shu sababli, kross-dasturlarni ishlatganda, turli ishlab chiquvchilarga umumiy bo'lgan standartlarni qo'llash zarur.

Kross-modulyatsiya

ing. - cross-modulation

rus. - кросс-модуляция

Boshqa xalaqit beradigan signal bilan modulyatsiyalash yoki foydali signal uzatiladigan eltuvchi chastota xalaqiti natijasida paydo bo'ladigan intermodulyatsion buzilishlar.

Kross-qutblanish

ing. - cross-polarization

rus. - кросс-поляризация

Elektromagnit to'lqin tarqalish jarayonida kutilayotgan qutblanishga ortogonal bo'lgan tashkil etuvchi qutblanishning paydo bo'lishi.

Kross-qutblanish koeffitsiyenti

ing. - cross-polarization discrimination

rus. - коэффициент кросс-поляризации

Qabul qilish nuqtasidagi, kutilgan qutblanish bilan qabul qilingan quvvatning ortogonal qutblanish bilan qabul qilingan quvvatga nisbati.

Izoh - Kross-qutblanish koeffitsiyenti antennalar xarakteristikalarini kabi, tarqalish muhitiga ham bog'liq.

Kross-qutblanish seleksiyasi

ing. - cross-polarization discrimination (XPD)

rus. - кросс-поляризационная селекция

Chiziqli qutblangan to'liq uchun $XPD = 20 \log (E_1/E_2)$ tarzida aniqlanadigan ko'rsatgich bo'lib, bunda E_1 - mos tushuvchi (foydali) qutblanishga ega elektromagnit to'liqning tashkil etuvchisi, E_2 - ortogonal (xalaqit beruvchi) qutblanishga ega to'liqning kross-qutblanishli tashkil etuvchisi.

Kross-qutblanishni ajratish

ing. - the allocation of cross-polarization

rus. - выделение кросс-поляризации
Ushbu qutblanishdan uzatilgan radioto'liq uchun ortogonal qutblanish bilan qabul qilingan quvvatga kutilayotgan qutblanish bilan qabul qilingan quvvatning qabul qilish nuqtasidagi nisbati.

Izoh - Kross-qutblanish koeffitsiyenti, antennaning xarakteristikasi kabi, tarqalish muhitiga ham bog'liq.

Kross-tizim

ing. - cross system

rus. - кросс-система

Dasturlar yaratish imkoniyati bo'lmagan va tayyor dastur «tikiladigan» ixtiloslashtirilgan kompyuterlar uchun dasturlar ishlab chiqish imkonini beradigan dasturiy vosita (universal kompyuterdagi).

Krosslash

ing. - cross-connection

rus. - кроссирование

Tarmoqning ikkita oxirgi (terminal) qurilmasi o'rtasida o'rnatiladigan vaqtinchalik bog'lanish, odatda, kommutatsion shnurlar yordamida ta'minlanadi.

Krossli kommutatsiya

ing. - cross switching

rus. - кроссовая коммутация

Ma'lumotlarning bitta xabarini uzatish uchun zarur bo'lgan ortiqroq vaqtda va ma'lumotlar xabarini takroran uzatishda o'rnatilgan bog'lanishni saqlaydigan ma'lumotlar uzatish kanallarining kommutatsiyasi.

Kross-platformali dasturiy ta'minot

ing. - cross-platform software

rus. - кроссплатформенное программное обеспечение

Bittadan ko'p apparat platformada va/yoki operatsion tizimda ishlaydigan dasturiy ta'minot. Bir vaqtda Linux hamda Windows operatsion tizimlarida ishlash uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot bunga tipik misol bo'la oladi.

Kross-platformalilik

ing. - cross-platform

rus. - кроссплатформенность

Ishlanmani joriy qilish platformasi bilan mos tushmaydigan instrumental platformada olib borish mumkinligi.

Kruk kriptotizimi

ing. - Crook's cryptosystem

rus. - криптосистема Крюка

Xatolarni tuzatuvchi kodlarga asoslangan kriptotizim. Unda Mak Ellis kriptotizimining kamchiliklari bartaraf qilingan.

Kuki

ing. - cookies

rus. - куки

Foydalanuvchi brauzerini, veb-serverga tashrif buyurganda veb-server qo'yib chiqadigan belgidan iborat ma'lumotlar (katta bo'lmagan blok). Foydalanuvchi keyin tashrif buyurganda, server bu yerda uni avval bo'lganini biladi. Shuni hisobga olib, masalan, o'tgan gal ko'rsatgan bannemi bu gal unga ko'rsatmaydi. Takomillashgan tizimlarda, kuki (cookies) texnologiyasi yordamida tashrifchining qiziqishlarini o'rganib, uning har tashrifida tegishli reklamani ko'rsatish mumkin. Avvalgi iz, misol uchun loginlarni, onlayn do'kon

savati ma'lumotlarini va boshqalarni eslab qolishga qodir.

Kulrang darajasi

ing. - grey level

rus. - уровень серого

Videosignalning qora daraja va oq daraja o'rtasidagi oraliq darajasi.

Kulrang shkalasi

ing. - grayscale

rus. - шкала серого

Bir vaqtning o'zida aks ettirilayotgan kulrang qatlamlar soni.

Kundalik

ing. - journal

rus. - дневник

Operatsion tizim yoki ilova tomonidan tizim bodisalarining qayd etilishi yoki protokoli yuritiladigan fayl.

Kursor

ing. - cursor

rus. - курсор

Kompyuter tizimi monitoriga chiqariladigan va berilgan onda foydalanuvchi ishlaydigan joyni ko'rsatadigan maxsus belgi.

Kursor o'rni tiklash

ing. - restore cursor position (RCP)

rus. - восстановление позиции курсора

Win32-Console-ANSI-1.00 modulining «sichqoncha» harakati uchun o'tish ketma-ketliklarining biri, SCP (Save Cursor Position - kursor o'rni saqlovchi) yordamida saqlangan kursor o'rni koordinatalardan foydalangan holda qaytaradi.

Kursorni boshqarish klavishalari

ing. - cursor control keys

rus. - клавиши управления курсором

Klaviaturadagi, kursorning ekranda surilishini boshqarish uchun mo'ljallangan klavishalar guruhi.

Kuryerlik jo'natmalari

ing. - courier items

rus. - курьерские отправления

Jo'natilishi qisqa muddatlarda qo'ldan qo'lga yetkazib berilgan (topshirilgan) holda amalga oshiriladigan pochta varaqchalari,

xatlar, banderollar, posilkalar, bosma nashrlar.

Kuryerlik xizmatlari

ing. - courier service

rus. - курьерские услуги

Pochta aloqasi operatori yoki provayderining kuryerlik jo'natmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha faoliyati.

Kutilayotgan

ing. - waiting

rus. - ожидающий

Ba'zi voqealarning (masalan, kiritish-chiqarishni tugatish) sodir bo'lishini kutayotgan jarayon holati. Jarayon kutish vaqtida protsessorni band qilmaydi.

Kutish holati

ing. - wait state

rus. - состояние ожидания

1. Protessor ishidagi, bitta yoki bir nechta komanda taktlari orasidagi pauza. Bu pauza mobaynida xotiradan yoki kiritish qurilmalaridan ma'lumotlar kelishi kutiladi.
2. Vazifa yoki jarayonning keyinchalik bajarilishi kutiladigan holat.

Kutish rejimi

ing. - idle mode

rus. - режим ожидания

Ko'p vazifali operatsion tizimlarda - topshiriq bajarilishini qandaydir voqea yuz bergungacha yoki belgilangan vaqt intervaliga to'xtatib turish.

Kutish sikli

ing. - wait loop

rus. - цикл ожидания

Qandaydir tashqi shart bajarilgunga qadar yoki voqeagacha, masalan, foydalanuvchining harakatigacha bajariladigan dasturiy sikl.

Kutish vaqti (javobni)

ing. - latency, probe backoff

rus. - время ожидания (отклика)

1. Radiostansiyadan so'rov uzatilishi va aloqa seansi boshlangan onlar o'rtasidagi vaqt intervali. Foydalana olish vaqti aloqani

tashkil etish sxemasi va ishlatiladigan protokollarga bog'liq bo'ladi.
2. Mobil stansiya o'z so'roviga javob xabarini kutadigan vaqt intervali.

Kuydirish

ing. - burn

rus. - прожигать

Компакт diskka yozish.

Kuzatish

ing. - lurking

rus. - наблюдение

1. Yangiliklar turkumini, ularning muhokamasida ishtirok etmasdan, o'qish.
2. O'rganilayotgan obyekt o'zgarishlarini maqsadli yo'naltirilgan va tashkiliy idrok qilish va qayd qilishdan iborat tadqiqot usuli.

Kuzatish moslamasi

ing. - view finder

rus. - видискатель

Operatorga sahnani kamera «kuzatganidek» ko'rish imkonini beradigan uzatuvchi televizion kameraning tarkibiga kiradigan yordamchi optik yoki elektron qurilma.

Kuzatmoq, taqqoslamq

ing. - trace

rus. - проследживать, сопоставлять

Eng kam talabchanlik bilan ikkita mantiqiy obyekt o'rtasidagi muvofiqlikning norasmiy tahlilini bajarish.

Kuzatuvchi

ing. - observer

rus. - наблюдатель

1. Yashirin ko'rib chiqish bilan shug'ullanuvchi odam.
2. Elektron e'lonlar taxtasidagi xatlarni o'quvchi, lekin ularning muhokamasida ishtirok etmaydigan va u yerga o'zining xatlarini yubormaydigan shaxs.

Kuzatuvchi dastur

ing. - monitoring software

rus. - программа наблюдения

Real vaqt rejimida muntazam ravishda obyekt (obyektlar) holatini kuzatib boradigan dastur yoki operatsion tizim xizmati.

Kuzatuvchi jurnali

ing. - browsing history

rus. - журнал обозревателя

Foydalanuvchi kirgan sayt sahifalarining sanasi, kirgan domeni bo'yicha tartiblangan ro'yxati. Bu foydalanuvchini Internetda ishlashini osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

Kuchayishni avtomatik rostlash

ing. - automatic gain control

rus. - автоматическая регулировка усиления

Qabul qilgichning bitta yoki bir nechta kaskadini qamrab oladigan teskari bog'lanish zanjiri yordamida qabul qilinadigan signal darajasini avtomatik o'zgartirish jarayoni.

Kuchaytirgichli antenna

ing. - antennafier

rus. - антенна-усилитель

Kam shovqinli kuchaytirgich o'rnatilgan antenna.

Kuchaytirish

ing. - augmentation

rus. - усиление

Paketga bitta yoki bir nechta talabni qo'shish.

Kuchli autentifikatsiya

ing. - strong authentication

rus. - сильная аутентификация

Foydalanuvchining identifikatori va parolini tekshirish jarayonidan tashqari barcha autentifikatsiya qilinadigan axborotni kriptografik o'zgartirishdan foydalaniladigan autentifikatsiya.

Kuchli bog'langan tizim

ing. - tightly coupled system

rus. - сильносвязанная система

Ko'p mashinali hisoblash tizimidan yoki bir xil yoki turli qurilmalardan iborat bo'lgan tarmoqdan farqli ravishda, umumiy tezkor xotira maydoniga ega ko'p protessorli hisoblash tizimi yoki klaster.

Kuchli tinishlar

ing. - severe fading

rus. - сильные замирания

Signalning anchagina susayishi bilan davom etadigan chuqur tinishlar, bunda ishonchli signallarning barqaror qabul qilinishi qiyinlashadi.

Kuchsiz autentifikatsiya

ing. - poor authentication

rus. - слабая аутентификация

Autentifikatsiya qilish jarayonini amalga oshiruvchi foydalanuvchining faqat identifikatori va parolini tekshirish.

Kvadratura-amplitudaviy modulyatsiya

ing. - quadrature-amplitude modulation

rus. - квадратурно-амплитудная модуляция

Faza bo'yicha siljiltirilgan ikkita eltuvchidan foydalaniladigan radiochastotali signalni raqamli signal bilan modulyatsiyalash usuli. Amplituda va fazaning realizatsiya qilinadigan diskret qiymatlari soni ushbu modulyatsiya turning belgilanishida ko'rsatiladi, masalan, 16-QAM yoki 64-QAM.

Kvadratura-fazaviy manipulyatsiya

ing. - quadrature phase-shift keying

rus. - квадратурно-фазовая манипуляция
Bir-biriga nisbatan 90° ga surilgan ikkita eltuvchining ikkita fazaviy holati (0 va 180°) dan foydalanadigan modulyatsiyalash turi.

Kvadratura-ko'zguli filtr

ing. - quadrature mirror filter

rus. - квадратурно-зеркальный фильтр

M-seksiyali raqamli polosla filtri. Berilgan polosalar chastotasini har bir qismidagi signalni bir vaqtda pasayuvchi diskretizatsiyalash bilan teng 2^m qismga bo'ladi.

Kvadraturaviy o'zaro

kesishuvchi buzilishlar

ing. - quadrature crosstalk

rus. - квадратурные перекрестные искажения

Rangli televideniye tizimlarida rangli tashkil eltuvchilar quyi eltuvchining kvadratura amplitudaviy modulyatsiyasida uzatiladigan, kvadraturaviy buzilishlar bilan asoslangan

ranglilik signalining ikkita tashkil eltuvchilari o'rtasidagi kesishuvchi xalalqit tufayli sodir bo'ladigan buzilishlar.

Kvant

ing. - quantum

rus. - квант

Diskret fizik kattalik, masalan, signal o'zgarishi mumkin bo'lgan eng kam kattalik.

Kvant axborot nazariyasi

ing. - quantum theory of information

rus. - квантовая теория информации

Kvant axborotining vujudga kelishi, uni qayta ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini ifodalovchi futuristik nazariya. Bu axborot ustidagi operatsiyalar bitlar sifatida elementar zarrachalar holatini ishlatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kvant kompyuter

ing. - quantum computer

rus. - квантовый компьютер

Kvant fizikasiga asoslangan, determinatsiyalanmagan algoritmlarni amalga oshiradigan hisoblash qurilmasi.

Kvant kriptografiyasi

ing. - quantum cryptography

rus. - квантовая криптография

Kvant fizikasi prinsiplaridan foydalanishga asoslangan kriptografik mexanizm. Xabarlarini uzatish uchun fotonlardan foydalaniladi, bu kriptoaanalitik tomonidan axborotni o'zgartirish yoki uni uzatish jarayonini buzish mumkin bo'lmashligini kafolatlaydi. Hozirgi vaqtda kvant kriptografiyasi qo'llanilmaydi; faqat eksperiment sifatida ishlatiladi.

Kvantlagich

ing. - quantizer

rus. - квантователь

Analog signalni raqamli signalga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh - Kvantlagich, signalni vaqtning diskret momentlarida, kattaligi jihatidan eng yaqin bo'lgan raqamli qiymatlar orqali approssimatsiyalaydi va keyinchalik bu qiymatlarini xotirada saqlab qoladi. Ko'proq, bir tekis simmetrik amplitudaviy xarakteristikaga ega bo'lgan kvantlagichlar ishlatiladi.

Kvantlangan sanoq

ing. - quantized sample

rus. - квантованный отсчет

Analog signalning diskret vaqt onida olingan va qat'iy kattalikkacha yaxlitlangan qiymati.

Kvantlash

ing. - quantization

rus. - квантование

Fizik kattalikni qiymatlarning muayyan to'plamigacha cheklash jarayoni.

Kvantlash darajasi

ing. - level of slicing

rus. - уровень квантования

Sanoqlar «bog'lanadigan» qayd etilgan darajalar.

Kvantlash xatosi

ing. - quantization error

rus. - ошибка квантования

Chiqish (kvantlangan) va kirish (analog) signallari shakllarining muvofiq kelmasligi keltirib chiqaradigan xato. Kvantlash qadami kattaligiga va diskretlash chastotasiga bog'liq.

Kvantlash shovqini

ing. - quantization noise

rus. - шум квантования

Kvantlash jarayonida yuzaga keladigan hamda additiv tarzda tiklangan foydali signal bilan qo'shiladigan qo'shimcha shovqin signal. Bu xil buzilishlarni bartaraf etib bo'lmaydi, lekin uning kattaligini kvantlash darajalari sonini oshirish yoki kvantlash qadamini kichiklashtirish yo'li bilan kamaytirish mumkin. Kvantlashda tasodifiy shovqindan tashqari, o'ta yuklanishdagi shovqin, parchalash shovqini kabi signalning qator spetsifik buzilishlari, shuningdek, kvazidoimiy darajali signallarni uzatishda vujudga keladigan buzilishlar paydo bo'ladi.

Kvantlashning buzilishi

ing. - quantizing distortion

rus. - искажение квантования

Chiquvchi signalni kvantlash jarayoni natijasida signalning buzilishi.

Izohlar

1. «Kvantlashning buzilishi», «kvantlash shovqini»

atamalaridan foydalanish, odatda, kvantlash ishchi diapazoni doirasidagi hodisalar bilan cheklangan.

2. «Kvantlash shovqini» atamasi, buzilish odatda, axborotni eltuvchi signal ustidagi tasodifiy signal ko'rinishida kuzatilishi tufayli qo'llaniladi.

Kvazi-stereoskopik televideniye

ing. - quasi-stereoscopic television

rus. - квази-стереоскопическое телевидение

Har bir ko'zga monoskopik tasvirdan hosil qilingan alohida tasvirlar taqdim etilgan uch o'lchamli televideniye.

Izoh - Kvazi-stereoskopik televizion tasvir sun'iy parallelksni kiritish yo'li bilan, masalan, alohida tasvirlarni nisbiy siljitish yo'li bilan olinishi mumkin.

Kvintet

ing. - quintet

rus. - квинтет

Beshta komponent - RAND, XRES, CK, IK va AUTN dan tashkil topgan, UMTS dagi autentifikatsion vektor.

Kvota

ing. - quota

Ajratilgan resurs limiti.

Kvota chegarasi

ing. - quota limit

rus. - предел квоты

Kvotaning maksimal hajmi, kvotaning tugash nuqtasi.

Kyubit, kubit

rus. - кьюбит, кубит

ing. - qubit

Kvant hisoblash texnikasida axborotning eng kichik bo'lagi.

«Ko'k ekran»

ing. - «blue screen»

rus. - «синий экран»

Obyekt yorqinlik maydoni fonida olinadigan usul. So'ngra, fotografik yoki elektron usul yordamida ko'k rang fon tasvirga atmashtiriladi («chroma-key» effekti). Buning natijasida boshlang'ich obyekt shu fonda tasvirga olingan, degan tasavvur paydo bo'ladi.

Ko'lamilik

ing. - scalability

rus. - масштабируемость

Tizim yoki uning alohida qismlarining, tizimning o'zining alohida parametrlari kamayishiga yoki oshishiga moslasha olish imkoniyatini tavsiflaydigan xossasi. Masalan, Windows 95 operatsion tizim turli o'lchamdagi displeylardan foydalanilganda bir xil tashqi ko'rinishni ta'minlaydigan keng ko'lamlanadigan foydalanuvchi interfeysiga ega.

Ko'ndalang nurlanishli

antenna panjarasi

ing. - array with transverse radiation

rus. - антенная решетка с

поперечным излучением

Markazlari bitta o'qqa joylashtiriladigan, sinfazali nurlantiruvchi elementlarning jamidan tashkil topgan antenna panjarasining turi.

Ko'p darajali kriptografiya

ing. - multilevel cryptography

rus. - многоуровневая криптография

Simmetrik kriptotizimlar uchun kriptografik kalitlarni tuzishning maxsus usulidan iborat mexanizm. Ushbu mexanizمنى amalga oshiruvchi kriptotizim, keyingi kalitlarning barbasini tanlash ma'lum qonunga bo'ysunishi kerak bo'lgan vaqtda birinchi kriptografik kalit ixtiyoriy tanlanishi mumkin bo'lgan tarzda, tuzilgan.

Ko'p darajali qurilma

ing. - multilevel device

rus. - многоуровневое устройство

Kompyuter xavfsizligining buzilish riski bo'lmagan holda, ikki yoki undan ko'p xavfsizlik darajasidagi ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida qayta ishlay olishi mumkin bo'lgan funksional blok.

Ko'p darajali xavfsizlik

ing. - multilevel security

rus. - многоуровневая безопасность

Kritiklik darajasi turlicha bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan tizimlar toifasi.

Ko'p dasturli rejim

ing. - multiprogram mode

rus. - мультипрограммный режим

Kompyuter yoki hisoblash majmui tomonidan bir paytning o'zida bir necha vazifani yechish. Uning turlaridan biri taqsimlangan vaqt rejimi, boshqasi - vazifaning paketli yechilishi, ya'ni hisoblash quurilmalarini to'la yuklash maqsadida vazifalarning tanlab guruhlariga birlashtirilishi.

Ko'p faktorli autentifikatsiya

ing. - multi-factor authentication

rus. - многофакторная аутентификация

Foydalanuvchini bir nechta mustaqil faktor (biometrik ma'lumotlar, u biladigan hamda u ega bo'lganlar) asosida autentifikatsiya qilish.

Izoh - Ko'p faktorli autentifikatsiya tashkilotga autentifikatsiya qilishning turli usullaridan (bir mamlak parollar, sertifikatlar, kontekst va boshqalar) foydalanish asosida foydalana olishning barqaror tizimini amalga oshirish imkonini beradigan moslashuvchan yondashuvni o'zida ifodalaydi.

Ko'p foydalanuvchili muhit

ing. - multi-user dimension (mud)

rus. - многопользовательская среда

Telekonferensiya turlaridan biri. Virtual voqeyilikni yaratuvchi kompyuter dasturi, unda foydalanuvchi turli holatlarni amalda qo'llashi mumkin.

Ko'p foydalanuvchili tizim

ing. - multiuser system

rus. - многопользовательская система

Bir vaqtda bir nechta foydalanuvchi ishlay olishi mumkin bo'lgan kompyuter tizimi.

Ko'p funksiyali printer

ing. - multifunction peripheral printer

rus. - многофункциональный принтер

Faks, skaner va nusxa ko'chirish apparati rejimlarida ishlaydigan printer.

Ko'p funksiyali qurilma

ing. - multifunctional device

rus. - многофункциональное устройство

Bir necha vazifani bajaruvchi qurilma. Har biri printer, skaner, faks apparati, nusxa olish apparati bo'lgan quurilmalar ayniqsa keng tarqalgan.

Ko'p kanalli kuchaytirgich (jamoaviy qabul qiluvchi antena uchun)
ing. - multi-channel amplifier (for MATV or CATV)
rus. - многоканальный усилитель (для коллективной приемной антенны)
Bitta radioeshittirish diapazonida joylashgan tovush va tasvirning bir nechta radioeshittirish kanallarida ishlash uchun loyihalashtirilgan kuchaytirgich.

Ko'p karrali tasvirlar (to'liq tasvir signali)
ing. - multiplex images (full signal of image)
rus. - многократные изображения (полный сигнал изображения)
Ko'p martali tasvirlar apparaturada signallarning ko'p nurlu uzatilishi yoki qaytarilishi oqibatida vaqt bo'yicha asosiy tasvirdan siljigan tasvirlarni o'zida ifodalaydi.

Ko'p kirishli antenna panjarasi
ing. - multiinput array
rus. - многовходовая антенная решетка
Ko'p kirishli antenna panjarasiga ega bo'lgan va bir nechta korrespondentlar bilan aloqaning turli chastota kanallari orqali signallarni bir vaqtda mustaqil uzatishni va/ yoki qabul qilishni ta'minlaydigan antennafider qurilmasi.

Ko'p kirishli antenna panjarasining kirishi bo'yicha berilgan yo'nalishdagi kuchaytirish koeffitsiyenti
ing. - gain in a predetermined direction along the array of multientry
rus. - коэффициент усиления в заданном направлении по входу многовходовой антенной решетки
Ideal moslashgan yarimto'lqinli vibrator kirishidagi quvvat qiymatining ko'pkirishli antenna panjarasining ushbu kirishiga keltirilgan yo'qotishlarsiz quvvat qiymatiga nisbati, bunda ikkala antenna ham berilgan yo'nalishda bir xil masofada maydon kuchlanganligining teng qiymatlarini yoki quvvat oqimi zichligining xuddi shunday qiymatlarini hosil qilishi va panjaraning qolgan kirishlari moslashgan yuklamalarga ulanishi kerak.

Ko'p konturlilik
ing. - multiple image
rus. - многоконтурность
Asosiy tasvirga nisbatan aralash bo'lgan pozitiv yoki negativ qo'shimcha tasvirlar ketma-ketligi.

Ko'p kristalli integral sxema
ing. - multicrystal integrated circuit
rus. - многокристалльная интегральная схема

Bitta korpusda joylashgan va o'zaro bog'langan kristallar guruhidan iborat integral sxema. Kristallar bitta taglikda joylashgan bo'lib ko'p qatlamli yupqa tasmani bog'lovchi chiziqlar yordamida o'zaro ishlaydi. Albatta, ishlatiladigan kristallar korpusdirdir. Ko'p kristalli modularda o'zaro bog'lanishlar uzunligi bosma plataga qaraganda ancha kichkina bo'lishi sababli, modullar ishlaydigan tezliklar gigagers chastotalarga yetib borgan. Ko'p kristalli modular avvalo katta kompyuterlarda qo'llanilgan. Endilikda esa ular shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladi. Bu ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish imkonini beradi.

Ko'p kristalli modul
ing. - multichip module
rus. - многокристалльный модуль
Analog va raqamli komponentlarni ichiga oladigan mikrosxema.

Ko'p liniyalı ulanish
ing. - multihoming
rus. - многолинейное подключение
Oxirgi abonent uskunasi bir qancha alohida kirish liniyalari orqali ATSGa ulash. O'xshash tarzda, ishchi stansiyani tarmoq adapterlari yordamida lokal tarmoqning bir nechta bog'lamasiga ulash amalga oshiriladi.

Ko'p manzilli tarqatish
ing. - multicast
rus. - многоадресная рассылка
Xabarlarini bitta emas, bir nechta foydalanuvchiga jo'natish. Natijada xabarni bir vaqtning o'zida oluvchi maydonida sanab o'tilgan bir nechta foydalanuvchilar oladi.

Ko'p manzilli xabar**ing.** - multiple-address message**rus.** - многоадресное сообщение

Bittadan ko'p manzilga yuborish uchun mo'ljallangan xabar.

Ko'p mashinali hisoblash tizimi**ing.** - multimachine system**rus.** - многомашинная**вычислительная система**

Bir nechta birlashtirilgan kompyuterdan iborat va yagona hisoblash tizimi sifatida ishlaydigan hisoblash kompleksi.

Ko'p modali optik tola**ing.** - multimode optical fiber**rus.** - многомодовое оптическое волокно

Yorug'lik ko'plab yo'l (modda) bo'yab o'tadigan optik to'lqin o'tkazgich. Tola gradiyentli yoki bosqichli sinish ko'rsatgichiga ega bo'lishi mumkin.

Ko'p nuqtali bog'lanish**ing.** - multipoint connection**rus.** - многоточечное соединение

Tarmoq uskunasining aynan bitta komplekti yordamida, uchta yoki undan ortiq stansiya bog'lash.

Ko'p nuqtali; ko'p punktli**ing.** - multipoint**rus.** - многоточечный; многоточечный

Uchta va undan ortiq qurilma yoki stansiya o'rtasida, kommutatsiya vositalarini qo'llamasdan turib, umumiy resurslardan foydalangan holda bog'lanish o'rnatish imkoniyati.

Ko'p nuqtali liniya**ing.** - multipoint line**rus.** - многоточечная линия

Bitta yoki bir nechta oraliq stansiyadan foydalangan holda, ikkita yoki undan ko'p aloqa punktini bog'laydigan ma'lumotlarni uzatish liniyasi.

Ko'p nurli**ing.** - multy beam**rus.** - многолучевой

Ultraqisqa to'lqinlar diapazonidagi qabulda qabul qilgich va uzatgich o'rtasida signal-

ning ikki va undan ko'p tarqalish yo'li. Bu hodisa radiosignallarning to'siqlardan qaytishi natijasida kelib chiqadi.

Ko'p nurli antenna**ing.** - multibeam antenna**rus.** - многолучевая антенна

1. Har biri ma'lum geografik hududga xizmat qilish uchun yo'naltirilgan koplarni nurlarning shakllanishini ta'minlaydigan antenna.

2. Bir nechta mustaqil kirishlari bo'lgan antenna, (ularning har biriga o'zining nuri (parsial yo'nalganlik diagrammasi) mos keladi).

Ko'p nurli antenna panjarasi**ing.** - multibeam array**rus.** - многолучевая антенная решетка

Bir nechta nurlarni (ularning soni uning kirish va/yoki chiqish soniga teng) shakllantiradigan antenna panjarasi.

Ko'p nurli signal**ing.** - multipath signal**rus.** - многолучевой сигнал

Uzatgichdan qabul qilish nuqtasiga turli yo'llar (nurlar) orqali keladigan, amplitudasi, boshlang'ich fazalari hamda Doppler chastota siljishi turlicha bo'lgan signalning vaqt bo'yicha siljigan bir nechta nusxalarini o'zida ifodalaydigan signal.

Ko'p nurli tarqalish**ing.** - multipath propagation**rus.** - многолучевое распространение

1. Bitta radiosignalling tarqalishning bir nechta alohida trassalari bo'yab uzatish nuqtasi va qabul qilish nuqtasi o'rtasida tarqalishi.

2. Radioto'lqinlarning uzatgichdan qabul qilgich tomon bir vaqtda, bir qancha trayektoriya bo'yab turli yer usti obyektlari (tog'lar, baland imoratlar va shunga o'xshashlar) dan qaytishi oqibatida tarqalishi.

Ko'p nurli tarqalishdagi tinishlar**ing.** - multipath fading**rus.** - замирания при**многолучевом распространении**

Mobil aloqa kanallarida ko'p nurli signal

qo'shni nurlarining parazit ta'siri evaziga paydo bo'ladigan tinishlar turi.

Ko'p nurli yoyish

ing. - multibeam diversity

rus. - многолучевое разнесение

Noaniq yoyish usuli, bunda uzatgich bitta signal tarqatadi, qabul qilish nuqtasiga esa, radioto'lqinlarning ko'p nurli tarqalishi oqibatida bu signalning bir qancha nusxasi bir vaqtda keladi.

Ko'p nurlilik

ing. - multipathing

rus. - многолучевость

Aynan bir signalning turli yo'l (trayektoriya) lar bo'ylab tarqalishi bilan bog'liq va qabul qilish nuqtasida interferensiyani yuzaga keltiruvchi hodisa.

Izoh - Ushbu atama ko'pincha «ko'p nurli» tarzida qo'llaniladi va radioto'lqinlarning tarqalishi ko'p nurlilik tabiatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ko'p oqimlilik

ing. - multithreading

rus. - многопоточность

Protessorning bir vaqtda bir nechta vazifani parallel bajara olish imkoniyati. Bu rejimni qo'llashdan maqsad - protessorning operatsiyani, masalan xotiraga yozish jarayonini tugatish vaqtini kamaytirish. Bu vaqtda u boshqa oqimdagi komandani bajaradi.

Ko'p pog'onali himoya

ing. - multilevel security

rus. - многоуровневая защита

Konfidensiallikning turli darajasidagi obyektlardan foydalana olishning turli huquqlariga ega subyektlarning foydalanishini chegaralanishi ta'minlanadigan muhofaza.

Ko'p protokolli inkapsulyatsiya

ing. - multiprotocol encapsulation

rus. - многопротокольная инкапсуляция

Ma'lumotlarni MPEG-2 transport oqimida transport oqimi seksiyasiga joylashtirish yo'li bilan uzatish usuli.

Ko'p protokolli marshrutlash

ing. - multiprotocol routing (MPR)

rus. - многопротокольная маршрутизация

IP va IPX tarmoqlarida lokal tarmoqlarni o'zaro birlashtirish yoki ularni global tarmoqlar bilan birlashtirish orqali tashkillashtiriladigan marshrutlash.

Ko'p protessorli tizim spetsifikatsiyasi

ing. - multi processor specification

rus. - спецификация

многопроцессорной системы

Bir qancha turli protessorlarning tezkor xotira qurilmasidan va kiritish-chiqarish kichik tizimlaridan birgalikda foydalanish mexanizmi.

Ko'p radial tizim

ing. - multi-star system, multi-star network

rus. - много радиальная система

Abonent liniyalari bittadan ko'p nuqtada boshlanadigan kabel taqsimlash tizimi.

Ko'p sathli navbat

ing. - multi-tiered queue

rus. - многоуровневая очередь

Turli sinflarning jarayonlarini va alohida navbatdagi ustuvorliklarni (masalan, paketli va interaktiv) o'z ichiga oladigan tizim navbatlarining majmui.

Ko'p seksiyali rupor

ing. - multisection horn

rus. - многосекционный рупор

Ko'zgu'li antennalar uchun, bir uchi ochiq bo'lgan va to'lqino'tkazgich traktiga boshqasi bilan ulangan bir nechta konstruktiv birlashtirilgan ruporli to'lqino'tkazgichli seksiyalar korinishida bajarilgan klaster nurlagich.

Ko'p slotli rejim

ing. - multislots mode

rus. - многословотый режим

1. Abonent stansiyasining, bitta axborot kanalini uzatish va qabul qilish uchun, radiokanalidagi uzatish kadrlarining bir nechta (8 tagacha) vaqt intervallaridan (slotlaridan) foydalaniladigan ish rejimi.

2. Ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish usuli bo'lib, bunda TDMA kadridagi ikki yoki undan ortiq vaqt intervali (sloti) birlashtirilishi va turli uzatish tezliklari bilan ishlaydigan abonentlar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Ko'p standartli televizor**ing.** - multi-standard television set**rus.** - многостандартный телевизор

Eshittirish televideniyesining turli televizion standartlariga mos keladigan, ishchi rejimlari avtomatik ravishda yoki qo'l bilan qayta ulanadigan televizor.

Ko'p stansion foydalana olish**ing.** - multiple access**rus.** - многостанционный доступ

Bitta kirish foydalana olish kanaliga ko'p sonli stansiyalarning bir vaqtda murojaat etish imkoniyati.

Izoh - Kanallarning abonentlarga birlashtirilish usuliga ko'ra, foydalana olishning uchta asosiy usuli farq qilinadi: tayinlab o'rnatilgan (FA - Fixed Assigned), talabga ko'ra (DA - Demand Assigned) va tasodifiy kira olish (RA - Random Access). Kengaytirilgan spektrli signallardan foydalanishga asoslangan foydalana olish usullari alohida kichik turkumga ajratilgan.

Ko'p stansion kira olish qurilmasi**ing.** - multistation access unit (MSAU)**rus.** - многостанционное

устройство доступа

Yulduzsimon topologiyaga ega, Token Ring tarmog'ida konsentrator (xab) sifatida ishlaydigan qurilma.

Ko'p tarmoqli kompyuter**ing.** - multihomed computer**rus.** - многосетевой компьютер

Turli fizik kompyuter tarmoqlariga ulangan bir nechta tarmoq adapterlari bo'lgan kompyuter.

Ko'p tarmoqli operatsion tizim**ing.** - multifilament operating system**rus.** - многонитевая операционная система

Protessor vaqtini vazifalar o'rtasida emas, ularning alohida tarmoqlari o'rtasida taqsimlaydigan tizim.

Ko'p terminalli tizim**ing.** - multiterminal system**rus.** - многотерминальная система

Bir qancha terminal ulanadigan kompyuterni ichiga oladigan tizim; bu terminallar yaqinda ham bo'lishi, ko'plab kilometr uzoqlikda ham bo'lishi mumkin. Tizim kompyuter

tarmog'iga o'xshab ketadi, agar terminallar intellektual bo'lsa.

Ko'p tilli domen**ing.** - multilingual domain**rus.** - многоязычный домен

Milliy alifbo belgilaridan iborat bo'lgan domen nomi. Masalan, Rossiya uchun yuqori pog'onali milliy kirillik domeni rasmiy tasdiqlangan.

Ko'p tolali kabel**ing.** - multifiber cable**rus.** - многоволоконный кабель

Har biri alohida axborot kanalini o'zida ifodalovchi, ikkita dan ortiq tolni o'z ichiga olgan optik-tolali kabel.

Ko'p tomonlama kira olish**ing.** - multiple access**rus.** - множественный доступ

Bir necha abonent (foydalanuvchi, dastur yoki qurilma)ning bitta resurs bilan o'zaro ishlash jarayoni. Foydalanish amalga oshiriladigan resurslarga fayllar, xotira qurilmalari, printerlar, kanallar va h.k. kiradi. Foydalanishni boshqarish tanlangan foydalanish usuliga bog'liq.

Ko'p tomonlama uzatishlar**ing.** - multilateral transfers**rus.** - многосторонние передачи

Ikki yoki undan ortiq mamlakatga bir vaqtning o'zida yo'naltiriladigan bitta yoki bir nechta mamlakatdan, bitta yoki bir nechta chiquvchi punktdan uzatishlar.

Ko'p tomonlama chaqiruv**ing.** - multiway calling**rus.** - многосторонний вызов

Konferensaloqa xizmatining atributi bo'lib, abonentga ko'p tomonlama bog'lanish imkonini beradi.

Ko'p uzelli liniya**ing.** - multidrop line**rus.** - многоузловая линия

Bir nechta terminal, oraliq qurilma yoki dasturlashtiriladigan datchiklar bir vaqtda ulangan liniya. Axborot almashish ularni ketma-ket so'rov yo'li bilan tashkil qilinadi.

Ko'p vazifali operatsion tizim
ing. - multitasking operating system
rus. - многозадачная

операционная система
Bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajaradigan operatsion tizim. Birinchi ko'p vazifali operatsion tizim – bu Unix operatsion tizimi.

Ko'p vazifali rejim
ing. - multitasking
rus. - многозадачный режим
Bir vaqtda (yoki qisqa vaqt intervallari oralatib) ikki yoki undan ko'p vazifa bajariladigan ish rejimi.

Ko'p vazifalilik
ing. - multitasking
rus. - многозадачность
Bir vaqtning o'zida bir nechta jarayon (vazifalar)ni ishga tushira oladigan operatsion tizimning xususiyati.

Ko'p vibratorli antennalar
ing. - manypole antennas
rus. - многовibratorные антенны
Keskin yo'naltirilgan nurlanish va qabulni ta'minlaydigan antennalar.

Ko'p yadroli kompyuter
ing. - multicore computer
rus. - многоядерный компьютер
Bitta kristallda joylashgan, ikkinchi darajali assotsiativ (kesh) xotirani ajratadigan va umumiy xotirada ishlaydigan bir-biri bilan o'zaro bog'langan protsessorlar (yadrolar) ga asoslangan kompyuter tizimi.

Ko'p yadroli protsessor
ing. - multicore processor
rus. - многоядерный процессор
Bir korpusda yoki bitta protsessor kristalida ikkita va undan ortiq hisoblash yadrolarini ichiga oladigan markaziy protsessor.

Ko'p yo'li antenna
ing. - multifilar helix
rus. - многозаходная спираль
Yuqori kuchlanish koeffitsiyentiga ega bo'lgan, bir nechta parallel ulangan va sinfaz ta'minlanadigan spiral nur tarqatgichlardan iborat spiral antenna.

Ko'p o'lchamli taqdim etish
ing. - multidimensional view
rus. - многомерное представление
Ma'lumotlarni tezkor tahliliy qayta ishlash uchun qulay tarzda taqdim etish texnologiyasi. Ma'lumotlar ko'p o'lchamli ma'lumotlar bazalari ko'rinishida taqdim etiladi. Relyatsion ma'lumotlar bazalaridan farqli o'laroq, ushbu ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlar ayrim jadvallarda joylashmaydi. Foydalanuvchi uni qiziqtirayotgan obyektlar to'g'risida turli axborotga ega bo'lishini xohlasa, u jadvallar guruhi bo'yicha izlashi lozim. Ko'p o'lchamli bazada sanab o'tilgan uchala tavsifnoma ham bitta massiv ichida joylashgan va izlash aynan uning doirasida amalga oshiriladi. Shu tufayli turli xildagi elementlardan iborat murakkab so'rovga tezkor javob beriladi. Ma'lumotlarning ko'p o'lchamli taqdim etilishi mijoz-server arxitekturasida qo'llaniladi. Bazalar, relyatsion tuzilmalarni ko'p o'lchamli massivlarga aylantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotga ega. Bu foydalanuvchilarning tegishli so'rovlarga javoban tarmoqda uzatiluvchi ma'lumotlar hajmini kichraytirish imkonini beradi.

Ko'p chastotali signalizatsiya
ing. - frequency-exchange signaling
rus. - многочастотная сигнализация
Ayrim chastotalarning susayishi va boshqalarining kuchayishi hisobiga bir holatdan ikkinchi holatga o'tish ta'minlanadigan signalizatsiya usuli.

Ko'p chastotali tarmoq
ing. - multi-frequency network
rus. - многочастотная сеть
Turli radiochastota kanallaridan foydalangan uzatuvchi stansiyalar tarmog'i. Xususan, turli radiochastota kanallaridan foydalanuvchi DVB-T stansiyalar tarmog'i.

Ko'p chastotali TDMA
ing. - multi carrier TDMA (MC-TDMA)
rus. - многочастотная TDMA
Vaqt bo'yicha ajratilgan ko'p stansion foydalana olishning gibrid texnologiyasi bo'lib, unda har bir kanal kadrtdagi vaqt intervali raqami va chastotasi bilan tavsiflanadi.

«Ko'plab portlar – ko'plab xotira modullari»

ing. - multiple ports multiple memories

rus. - много портов – много

модулей памяти

Har tomonlama almashinish shinasiga ega ko'p portli xotira.

Ko'prik

ing. - bridge

rus. - мост

Ikki yoki bir nechta fizik tarmoqni bog'lovchi va paketlarni bir tarmoqdan boshqasiga uzatuvchi qurilma. Turli protokollardan foydalanadigan tarmoqlarni bog'lash uchun foydalaniladi.

Izohlar

1. Ko'prik shlyuzning bir ko'rinishidir, lekin soddar oq tarzda o'zaro bog'lanishi ta'minlaydi. OSI modelining kanal sathida ishlaydi.

2. Ko'prik ko'pincha MAS sathining – ya'ni muhitga kira olishni boshqarish qurilmasi kabi aniqlanadi. Ko'priklar paketlarni filtrlashi mumkin, ya'ni kanal sathining axboroti asosida boshqa segment yoki tarmoqlarga trafikning faqat bir qismini uzatishi mumkin (MAC-adres).

3. Agar oluvchining adresi ko'priknig adreslar jadvalida mavjud bo'lsa, kadr faqat oluvchi joylashgan segment yoki tarmoqqa uzatiladi.

Ko'prik-marshrutizator

ing. - brouter

rus. - мост-маршрутизатор

O'zida ko'prik va shrutizator funksiyalarini birlashtirgan qurilma bo'lib, ma'lum bir transport protokollari (masalan, TCP/IP) uchun shrutizator, ba'zilar uchun esa, ko'prik sifatida xizmat qiladi, ya'ni paketlarni tarmoqning bir segmentidan boshqasiga uzatadi.

Ko'pchilik-ko'pchilikka munosabati

ing. - many-to-many relationships

rus. - отношение многие-ко-многим

A jadvalning bitta qatoriga V jadvaldagi bir nechta qator muvofiq bo'lsa va teskarisi ham to'g'ri bo'lsa ko'pchilik-ko'pchilikka munosabati namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqish

ing. - browsing

rus. - просмотр

Axborot izlash bo'lib, ko'pincha konfidensial ma'lumotlardan ruxsat etilmagan tarz-

da foydalanishni maqsad qilib qo'yadi, shu tufayli tizim uchun xavf tug'diradi.

Ko'rib chiqmoq

ing. - browse

rus. - просмотреть

Kataloglar, fayllar, disklar, foydalanuvchi hisoblari, guruhlar, domenlar yoki kompyuterlar ro'yxatidan kerakli elementni izlab topish.

Ko'rilgan giperishorat

ing. - visited hyperlink

rus. - просмотренная гиперссылка

Bog'lama tashrifchisi oldinroq «sichqoncha», klaviatura yoki boshqa qurilma yordamida aktivlashtirgan veb-sahifadagi giperishorat.

Ko'rinish

ing. - visibility

rus. - видимость

Identifikatorning ta'sir sohasi bilan bog'liq tushuncha.

Ko'rinish yoyi

ing. - arc of visibility

rus. - дуга видимости

Geostatsionar yo'ldosh yoyi, uning doirasida kosmik stansiya, u orqali ushu yo'ldosh tarmog'ida ishlaydigan barcha yer stansiyalaridan mahalliy gorizontda ko'rinadi.

Ko'rinish zonasi

ing. - area of view

rus. - зона видимости

Yer yuzasining, joyning minimal yo'l qo'yiladigan katta (masalan, 5° dan ortiq) ma'lum burchagi ostida vaqtning berilgan davri (aloqa seansi) mobaynida yo'ldosh ko'rinadigan qismi.

Ko'rinmas viruslar

ing. - stealth viruses

rus. - вирусы-невидимки

1. Aniqlanishi va zararsizlantirilishi qiyin bo'lgan viruslar, chunki ular operatsion tizimning zararlangan fayllarga va disk sektorlariga murojaatini tutib oladi va o'z o'rniga diskning zararlanmagan ucha-kalarini qo'yadi.

2. O'zining diskda, ba'zi hollarda tezkor xotirada mavjudligini niqoblovchi maxsus alqoritmlardan foydalanadigan viruslar.

Ko'rinuvchi nurlanish

ing. - visible radiation

rus. - видимое излучение

Odam ko'zi qabul (idrok) qiladigan elektromagnit to'lqinlar. Spektming to'lqin uzunligi taxminan 380 nm dan (binafsha) 740 nm gacha (qizil) bo'lgan qismni ichiga oladi. Bunday to'lqinlar 400 teragersdan 790 teragersgacha bo'lgan chastota diapazonini egallaydi. Bunday to'lqin uzunliklariga ega elektromagnit nurlanish ko'rinadigan yorug'lik yoki oddiygina yorug'lik deb ham ataladi. Odam ko'zi 555 nm sohada yorug'likka juda sezgir bo'ladi.

(Ko'rinuvchi) tasvir

ing. - (visible) image

rus. - изображение (видимое)

Televizion ekranda kadrlarning o'tish davri mobaynida paydo bo'ladigan tasvir.

Ko'rish adaptatsiyasi

ing. - visual adaptation

rus. - зрительная адаптация

Ko'rish organining yorug'lik ta'siri intensivligiga yorug'lik sezgirligining o'zgarishi tufayli namoyon bo'ladigan moslashishi.

Ko'rish dasturi

ing. - viewer

rus. - просмотрщик

Faylni ko'rishni formatlardan birida amalga oshiruvchi ilovadagi funktsiya. Fayllarning formatlari to'plami tufayli, odatda katta sondagi vyuverlar bajariladi.

Ko'rish inersiyasi

ing. - inertia of vision

rus. - инерция зрения

Odaming ko'rish sezgisi orqali qabul qilish jarayonidagi hodisa, bunda tasvir ko'zning to'r pardasi orqali ma'lum inersiya bilan qabul qilinadi. Aks holda, televideniye, kinematografiya va animatsiya tasvirlarning millitillagan harakatsiz to'plami sifatida qabul qilingan bo'lar edi.

Ko'rish o'tkirligi bilan

(chastotalar polosasini) moslash

ing. - conditioning (of frequency bands) with keenness of sight

rus. - согласование (полос частот) с остротой зрения

Yorug'lik signali va ayirmarang signallar chastotalar polosasi nisbiy kengligini, ko'rish o'tkirligi bilan moslash uchun, aniqlash.

Ko'r-ko'rona imzo

ing. - blind signature

rus. - слепая подпись

DigiCash to'lov tizimida ishlatiladigan va tasodifiy ko'paytiruvchini (blinding factor) qo'llashga asoslangan elektron raqamli imzo mexanizmi.

Ko'rsatishlar kompilyatori

ing. - help compiler

rus. - компилятор подсказок

Ko'rsatishlar onlayn tizimi matini berilgan tizimda qabul qilingan ichki tasavvurga o'tkazadigan dasturiy ta'minot. Dasturiy mahsulotni lokallashtirish va modifikatsiyalashda foydalaniladi.

Ko'rsatgich

ing. - pointer

rus. - указатель

Ma'lumotlarning maxsus turi. Bu turdagi ma'lumotlar elementining yoki o'zgaruvchining qiymati, boshqa ma'lumotlarni (bevosita manzillash), shu jumladan, boshqa ko'rsatgichni (bilvosita manzillash) ko'rsatishi mumkin bo'lgan manzil hisoblanadi. Odatda, ko'rsatgichlardan yozuvlar bilan ishlashda, protseduralarga parametrlar berishda va bog'langan ro'yxatlarni tashkil qilishda foydalaniladi.

Ko'rsatmalar satri

ing. - key bar

rus. - строка подсказок

Displey ekranidagi, tushunilishi oson bo'lgan komandalar menyusiga ega satr.

Ko'tarilish uzeli (orbitaning)

ing. - ascending node

rus. - восходящий узел (орбиты)

Yo'ldosh janubdan shimolga harakatlangan-

da orbita ekvator tekisligini kesib o'tadigan nuqta.

Ko'tariluvchi (abonent) trafik

ing. - upstream traffic

rus. - восходящий (абонентский) трафик

Periferik uzeldan markaziy uzel tomon, masalan, telefon modemidan Internetga, mobil stansiyadan tayanch stansiyaga tomon uzatiladigan trafik.

Ko'tariluvchi kanal

ing. - uplink channel

rus. - восходящий канал

Foydalanuvchi uskunasiidan tayanch stansiyagacha bo'lgan uzatish kanali.

Ko'tariluvchi oqim

ing. - upstream

rus. - восходящий поток

Periferik uzeldan markaziy uzel tomon uzatiladigan ma'lumotlar oqimi.

Ko'z akkomodatsiyasi

ing. - eye accommodation.

rus. - аккомодация глаза

Ko'zning kuzatiladigan obyektgacha bo'lgan masofaga bog'liq holda ko'z gavharining fokus masofasi va optik kuchini o'zgartirish xususiyati. Shu tufayli ko'zdan turli masofada joylashgan obyektlarning aniq tasvirini kuzatish mumkin.

Ko'zgu

ing. - mirror

rus. - зеркало

«Oyna-tom» tizimini tashkil etgan ikki tomondan biri. Tom oynalari har-xil disklarda joylashgan bo'ladi. Agar oyna disklaridan biri ishdan chiqsa, operatsion tizim ma'lumotlarga ikkinchi disk yordamida murojaat qilishda davom eta oladi.

Ko'zguli antenna

ing. - reflector antenna

rus. - зеркальная антенна

Metall sirt ko'rinishidagi dastlabki nur tarqatgich va qaytargichni o'z ichiga oladigan yo'naltirilgan antenna.

Ko'zguli-dipolli antenna

(ko'zguli-vibratorli antenna)

ing. - cup-dipole antenna

rus. - зеркально-дипольная антенна

(зеркально-вibratorная антенна)

Ikki ta kesishgan simmetrik vibratorlardan va ta'minoti uchun amplitudaga teng, lekin faza bo'yicha 90° ga siljigan, toklardan foydalaniladigan pallali nurlagichdan iborat aylantiruvchi qutblanishga ega antenna.

Ko'zguli qaytish

ing. - mirror image

rus. - зеркальное отражение

1. Qaytish burchagi tushish burchagiga teng bo'lgandagi to'lqinlar qaytishi.
2. Yorug'likning tekis optik sirtidan qaytishi.

Ko'zguli yorug'lik o'tkazgich

ing. - mirror beam waveguide;

reflecting beam waveguide

rus. - зеркальный световод

Yorug'lik nuri truba bo'ylab o'rnatilgan ko'zguning periskopik tizimi yordamida fokuslanadigan yorug'lik o'tkazgich.

Ko'chiriladigan dastur

ing. - relocatable code

rus. - перемещаемая программа

Kompyuter manzil qismining ixtiyoriy sohalari yuqurida yuklanishi mumkin bo'lgan dastur.

Ko'chiriladigan dasturiy ta'minot

ing. - portable code

rus. - переносимое программное

обеспечение

Kompyuterlarning bitta turida bajarilishi yoki kam kuch bilan boshqa platformaga ko'chirilishi mumkin bo'lgan, mashinaga bog'liq bo'lgan dastur (ilova).

Ko'chiriladigan kod

ing. - relocatable code

rus. - перемещаемый код

Manzillash ko'chiriladigan registr qiymatiga va komandada hisoblanadigan manzilga nisbatan yuzaga keladigan va xotiradagi manzil ko'chiriladigan registr qiymatining summasiga teng kod.

Ko'chirish**ing.** - carry**rus.** - перенос

Arifmetik amallarda ikkilik razryadni katta raqam o'rniga o'tkazish yoki surish amallarida uning registr tashqarisiga chiqishi.

Ko'chirish bayrog'i**ing.** - carry flag**rus.** - флаг переноса

Ikki yoki uchta birlikning quyi razryadlarini qo'shishda ishlatiladigan qo'shimcha birlik.

Ko'chirish indeksi**ing.** - citing index**rus.** - индекс цитирования

Veb-sahifa yoki veb-saytning mashhurligining son ko'rsatgichi. Bu sahifaga yoki saytga boshqa veb-resurslardan murojaatlar soni shaklida aniqlanadi. Shu bilan birga, har bir murojaat u joylashgan veb-saytning «nufuzi» ga hamda har ikki saytning mavzulari mos kelishiga bog'liq o'zining «vazni»ga ega.

Ko'chirish (otkachka) fayli**ing.** - backing store**rus.** - файл откочки

Operatsion tizim tomonidan ko'chirib olingan jarayonlarning obrazlarini saqlash uchun ishlatiladigan diskli xotira sohasi.

Ko'chirmoq**ing.** - move**rus.** - переместить

Fayllarni turgan joyidan boshqa joyga ko'chirish, bunda eski manzildagi fayl o'chiriladi. «Sichqoncha» bilan harakatlantirish, bunda «sichqoncha» kursori eski joydan yangi joyga ko'chadi.

Ko'chma disk**ing.** - removable storage**rus.** - сменный диск

Olib qo'yiladigan xotira qurilmasi. Masalan,

flesh-kartalar, olib qo'yiladigan qattiq disklar va b.q.

Ko'chma pochta aloqasi bo'limi**ing.** - mobile post office**rus.** - передвижное отделение почтовой связи

Statsionar pochta aloqasi obyektlari mavjud bo'lmagan joylarda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish uchun, shuningdek, pochmani tashish uchun pochta transportida tashkil etiladigan pochta aloqasi bo'limi.

Ko'chma televizion stansiya**ing.** - movable TV station**rus.** - передвижная

телевизионная станция

Studiya dan tashqari sharoitlarda televizion ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan apparatura kompleksi joylashtirilgan transport vositasi.

Ko'chma yo'ldoshli aloqa**xizmatidagi abonent liniyasi****ing.** - service link in the MSS**rus.** - абонентская линия в подвижной спутниковой связи

Ko'chma yo'ldoshli aloqa xizmati abonent stansiyasidan kosmik stansiyagacha va kosmik stansiyadan ko'chma yo'ldoshli aloqa xizmati abonent stansiyasigacha bo'lgan radioliniya.

Ko'chma yo'ldoshli aloqa**xizmatidagi abonent stansiyasi****ing.** - user terminal in the MSS**rus.** - абонентская станция в подвижной спутниковой связи

Abonent foydalanishida bo'lgan ko'chma aloqa yer stansiyasi.

L

Laboratoriya axborot tizimi

ing. - laboratory information management system (LIMS)

rus. - лабораторная информационная система

Turli soha laboratoriyalarida ishchilarni boshqarish, hujjat va standartlar bilan ishlash, hamda boshqa laboratoriya ishlari, masalan ish jarayonlarini avtomatlashtirish, hisob-fakturani tuzish va jo'natishni amalga oshiradigan maxsus dasturiy ta'minot. Asosan atrof-muhitni muhofaza qilish, ilmiy tadqiqot ishlari yoki tijorat tahliliga yo'naltirilgan bo'ladi.

Lamer

ing. - lamer

rus. - ламер

O'zini kompyuter ekspertlari deb hisoblaydigan odamlarning o'ylashicha, (jargon) (inglizcha lame – «zaif») kompyuterni yomon tushunadigan odamlarga beriladigan laqab.

Lazer disk

ing. - laser disk

rus. - лазерный диск

Musiqqa, shuningdek, video ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun ishlatiladigan disk. Yozish jarayoni lazer nuri yordamida ma'lumot saqlovchi raqamli signalni metall yuzaga kichik o'yoqlarni kuydirish orqali amalga oshiriladi.

Lazer xotira

ing. - laser storage

rus. - лазерная память

Optik disklardagi maxsus xotira.

Lazerli printer

ing. - laser printer

rus. - лазерный принтер

Tasvirni shakllantirishda kserografiya prinsipi asosida ishlaydigan elektrostatik chop etish qurilmasining turi.

Lazerli skanlash qurilmasi

ing. - laser scanner

rus. - лазерное сканирующее устройство
Tasvir to'g'risidagi axborotni raqamli shaklga aylantirish uchun qo'llaniladigan qurilma. Ajratishning o'ta yuqori va ko'p tusli tasvirlar (yorqinlik pog'onalar) sonining yuqori darajaga ko'tarilishiga erishish mumkin.

Leksema

ing. - lexical element

rus. - лексема

Simvollar ketma-ketligi, dasturlash tilining elementi, translyator uchun ma'no-ga ega. Har qanday dastur bu, leksemalar ketma-ketligidir.

Leksik analizator

ing. - lexical analyzer

rus. - лексический анализатор

Dastur boshlang'ich matnini leksik tahlil qiladigan translyator moduli.

Leksik tahlil

ing. - lexical analysis

rus. - лексический анализ

Dasturlashda so'zlar (leksemalar) yozilishining to'g'riligini tekshirish. Dasturning leksik tahlili dasturni translyatsiya qilish paytida amalga oshiriladi.

Leksikon

ing. - lexicon

rus. - лексикон

Shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan matn redaktorlaridan biri, integratsiyalashgan master tizimiga kiradi. Ko'p oynali, foydalanuvchi bilan qulay interfeysga ega, orfografiyani tekshiradi, so'zlarning to'g'ri ko'chirilishini bajaradi.

Lempel-Ziv usulida kodlash

ing. - Lempel-Ziv coding

rus. - кодирование по методу

Лемпеля-Зива

Ma'lumotlarni jo'natuvchi va qabul qiluvchidagi ikki aynan o'xshash lug'atdan foydalanishga asoslangan, ma'lumotlarni statistik siqishning yuksak samarali algoritmi. Aloqa

kanali bo'ylab axborotning o'zi emas, balki uning lug'atda joylashgan o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar uzatiladi. Kodlashning ushbu usuli nuq, matn va grafikani siqishda keng qo'llaniladi.

Lentikulyar stereoskopik kineskop (display)

ing. - lenticular stereoscopic picture tube
rus. - лентиккулярный стереоскопический кинескоп (дисплей)

Stereoskopik kineskop, bunda lentikulyar (linzorastli) obyektivlar ekraning old qismida ikki tomonga yo'naltirilgan yorug'lik bo'lgich (tasvir ajratgich) ni hosil qiladi, shuning uchun, chap va o'ng ko'z uchun navbatma-navbat ko'rsatiladigan tasvirlarni ajratish uchun boshqa vositalarga (masalan, ko'zoynak)ka zarurat bo'lmaydi.

Libratsiya

ing. - libration
rus. - либрация

Osmon jismining orbita bo'ylab harakatlanishi paytida, turli g'alayonlanishlar natijasida, undan qaytgan signalning tinishida aks etadigan hodisa.

Liniya

ing. - link
rus. - линия

1. Konnektorlar yordamida uzatgichga (manbaga) va qabul qilgichga (detektorga) ulangan optik-tolali kabel.

2. Ikki nuqta o'rtasidagi, terminal uskunadan tashqari, telekommunikatsiya vositalarining yig'indisi.

3. Har qanday ikki nuqtani bog'lovchi uzatish kanali.

Liniya band bo'lganda

chaqiruvlarni qayta manzillash

ing. - call forwarding on busy
rus. - пересадрация вызовов при занятости

Xizmat abonentiga jo'natiladigan kiruvchi chaqiruvlarni, xizmat abonent band bo'lganda, boshqa belgilangan raqamga avtomatik tarzda qayta manzillash imkonini beradigan xizmat.

Liniya (kabel taqsimlash tizimida)

ing. - feeder (in a cabled distribution system)

rus. - линия (в кабельной распределительной системе)

Kabelli taqsimlash tizimida, masalan, metall kabel, optik kabel, to'liqin o'tkazgich yoki ularning istalgan kombinatsiyasi ikki nuqtasi o'rtasidagi uzatish vositasi.

Liniya kodi

ing. - line code
rus. - линейный код

Dastlabki bitlar oqimining optik-tolali va kabelli aloqa liniyalari orqali uzatish uchun qulay shaklga mantiqiy o'zgartirilishini ta'minlovchi kodlar (odatda, blokli) turkumi. Bunday kodlashning asosiy mazmuni faqat nollardan iborat ketma-ketliklarni 1 hamda 0 simvollarini ichiga oladigan ketma-ketlikka almashtirishdan iborat. Ushbu operatsiya signallarning sinxronlash xossalariini yaxshilash imkonini beradi.

Liniya olis uchidagi

kesishuvchi xalaqitlar

ing. - far-end crosstalk
rus. - перекрестные помехи на дальнем конце линии

Bitta yo'nalishda axborot uzatadigan kanallar vujudga keltiradigan o'zaro xalaqitlar. Qabul qilgichga nisbatan liniyaning olis uchida joylashgan uzatgichlar shunday xalaqitlarning manbai hisoblanadi.

Liniya «pastga»

ing. - downlink
rus. - «линия вниз»

Tayanch stansiyadan mobil stansiyaga bo'lgan aloqa liniyasi.

(zoh - Yo'ldoshli aloqada shunga o'xshash liniya yo'ldosh retranslyatoridan yerdagi stansiyaga tashkil qilinadi va «yo'ldosh-Yem» liniyasi deb ataladi.

Liniya signali

ing. - line signal
rus. - линейный сигнал

Kommutatsiya maydoni va telekommunikatsiyalar tarmog'i liniyalari, kanallari orqali uzatiladigan, liniyalar, kanallar ho-

latini tavsiflaydigan va bog'lanish o'ratilishining asosiy bosqichlarini belgilaydigan telekommunikatsiyalar signali.

Liniya yaqin uchidagi kesishuvchi xalaqitlar

ing. - near-end crosstalk

rus. - перекрестные помехи на ближнем конце линии

Uzatish yo'nalishi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan kanallar vujudga keltiradigan xalaqitlar. Qabul qilgichga nisbatan liniyaning yaqin uchida joylashgan uzatgichlar bunday xalaqitlarning manbai hisoblanadi.

Liniyaga aktiv ulanish

ing. - active line connection

rus. - активное подключение к линии

Ma'lumotlarni o'zgartirish yoki kiritish maqsadida tarmoqqa ulanish.

Liniyaga passiv ulanish

ing. - passive line connection

rus. - пассивное подключение к линии

Ma'lumotlarni o'qish maqsadida tarmoqqa ulanish.

Liniyani eshitish

ing. - listening-in

rus. - прослушивание линии

Telefon liniyasida bir vaqtning o'zida bir nechta shaxs ishtirokidagi so'zlashuvni eshitishga imkon beradigan funktsiya. Ushbu rejimda telefon apparatining korpusidagi mikrofon uzib qo'yilgan bo'ladi.

Liniyaning antenna effekti

ing. - antenna effect of line

rus. - антенный эффект линии

Liniyaning elektromagnit to'lqinlarni nurlantirish yoki qabul qilish xususiyati.

Link

ing. - link

rus. - линк

Fayl yoki direktoriya manzili. Odatda, ushbu manzil maxsus faylda saqlanadi. Microsoft Windows va boshqa operatsion tizimlarda bunday fayllar yorliq deb ataladi.

Linza

ing. - lens

rus. - линза

Linzani o'rab turuvchi fazoda va linza tuzilmasida tarqalishning fazali tezliklaridan foydalanib, to'lqinlar nurlanishining yo'nalganlik diagrammasini shakllantirish qurilmasi.

Linzali antennalar

ing. - lens antenna

rus. - линзовые антенны

Aperturali antennalarning bir turi (ko'ndalang antenna panjaralari), unda elektromagnit energiya oqimini to'plash oqimning tutib olingan qismini elektromagnit linza yordamida fokuslash orqali amalga oshiriladi.

Listing

ing. - listing

rus. - листинг

Dastur matni yoki printerda bosilgan yoki displey ekraniga chiqarilgan ma'lumotlar.

Liter atributi

ing. - character attribute

rus. - атрибут литеры

Mashina grafikasida – litera rangi, shrifti, yo'naltirilganligi va o'lchami.

Liter kattalik

ing. - lettered value

rus. - литерная величина

Matn konstantasi sifatida qabul qilinadigan kattalik. Liter kattalikni sonlarsiz literal sifatida belgilash mumkin. Boshqa nomlari: simvulli, satrli kattalik, zanjir. Ko'pchilik dasturlash tillarida liter kattalik apostroflarga olinadi – «123», «abed».

Literal

ing. - literal

rus. - литерал

Dasturlash tilidagi o'zining xususiy qiymatini konstanta sifatida qat'iy belgilaydigan, lekin o'zgaruvchi, konstanta yoki boshqa bir konstruksiyaning belgisi hisoblanmaydigan simvol yoki so'z.

Litsenziya

ing. - license

rus. - лицензия

1. Davlat organlari tomonidan xizmatlarni sotish yoki taqdim etish huquqini beradigan ruxsat.

2. Mulkchilikka egalik qilish huquqini beradigan rasmiylashtirilgan hujjat.

3. Axborotni muhofaza qilish sohasida u yoki bu ishlarni olib borish huquqi uchun berilgan, tegishli ravishda rasmiylashtirilgan ruxsatnoma.

Litsenziya shartnomasi

ing. - license agreement

rus. - договор лицензионный

Bir tomon (litsenziar yoki litsenziya beruvchi) tegishli haq evaziga ixtirodan yoki boshqa texnik yutuqdan (litsenziyadan) foydalanish huquqini boshqa tomonga (litsenziya oluvchiga yoki litsenziatga) taqdim etadigan shartnoma.

Litsenziyalanmaydigan chastotalar polosasi

ing. - license-free band

rus. - нелицензируемая полоса частот

Butun jahonda global foydalanish uchun ruxsat etilgan chastotalarning ochiq diapazoni. Bu diapazonda ishlash chastota idoralarining ruxsatini talab etmaydi va bu diapazon, agarda ular ma'lum bo'lgan nomaqbul va polosadan tashqari nurlanishlar sathi bo'yicha qo'yilgan talablarni bajarsa, har qanday tizimlarning ishlashi uchun qulay.

Litsenziyalash

ing. - licensing

rus. - лицензирование

Axborotni muhofaza qilish sohasida ishlarni olib borish huquqini berish yoki olishdan iborat faoliyat.

Log

ing. - log

rus. - лог

Veb-saytning o'ziga xos bordagi jurnali. Server loglariga u yoki bu foydalanuvchi

qayerdan va qachon kelgani, saytda qancha vaqt bo'lgani va u yerda nimani ko'rgani va yuklab olgani, uning brauzeri va uning kompyuterining IP-manzili qandayligi to'g'risidagi ma'lumot yoziladi. Logga har bir yozuv ma'lum xitga tegishli bo'ladi, chunki server aynan sayt elementlaridan biriga murojaatni qayd qilishi mumkin.

Log-fayl

ing. - log file

rus. - лог-файл

Server ishi va foydalanuvchilarning harakati to'g'risidagi: sana va vaqt, foydalanuvchining tashrifi, foydalanuvchi kompyuterining IP-manzili, foydalanuvchi brauzerining nomi, foydalanuvchi tomonidan so'ralgan varaqlar, foydalanuvchi refereri kabi tizimli axborotga ega fayl.

Login

ing. - login

rus. - логин

Kompyuter tizimiga (tarmoqqa) kirishda foydalanuvchini identifikatsiya qilish jarayoni, protsedurasi.

Logo

ing. - logo

rus. - лого

Yuqori darajadagi dasturlash tili, LISP tilining maxsus versiyasi. Juda sodda til, oson kengayadi, kichik yoshdagi bolalarni o'rgatishda foydalaniladi. S.Paypert tomonidan 1980-yilda Massachuset texnologiya instituti (AQSh)da ishlab chiqilgan.

Logotip

ing. - logotype

rus. - логотип

Hududiy tuzilmalar, tijorat korxonalari, tashkilotlari va xususiy shaxslar tomonidan kishilik jamiyatida farqlay olishlikni va taqqoslash mumkinligini oshirish uchun foydalaniladigan grafik belgi, emblema yoki simvol. Logotip stilizatsiyalangan harflar va/yoki ideogramma ko'rinishidagi o'zi identifikatsiyalaydigan mohiyat nomini o'zida ifodalaydi. Logotiplar tovar belgilari sifatida keng qo'llaniladi.

Lokal

ing. - locale

rus. - локаль

Foydalanuvchi o'zining interfeysida ko'rishni xohlayotgan parametrlar to'plami, belgilar to'plami, shu jumladan, foydalanuvchi tili, mamlakati, vaqt chizig'i va boshqa boshlang'ich o'rnatishlar.

Lokal blokirovkalash

ing. - local lock

rus. - локальная блокировка

Ayrim foydalanuvchi tomonidan yo'lanayotgan sohaga tegishli resurslarni muhofaza qilish maqsadida blokirovkalash.

Lokal disk

ing. - local disk

rus. - локальный диск

Fayl-serverga emas, balki ishchi stansiyaga ulangan disk.

Lokal hisoblash tarmog'i

ing. - local area network

rus. - локальная вычислительная сеть

Geografik chegaralangan tarmoqlarning bir turi. Lokal hisoblash tarmog'i turli ma'lumotlarni juda yuqori tezlikda almashishga va tarmoq uchun umumiy bo'lgan resurslardan birgalikda foydalanishga (masalan, printerlar, modemlar) imkon berib kompyuterlar, printerlar va boshqa elektron uskunalarni bog'laydi.

Lokal hisoblash tarmog'i kommutatsiyasi

ing. - LAN switching

rus. - коммутация локальной

вычислительной сети

Paketlar faqat ularning qabul qiluvchilariga yo'naltirilishini ta'minlaydigan texnologiya. Lokal hisoblash tarmog'i kommutatsiyasining ikkita asosiy usuli mavjud: matritsali (fizik darajada) va MAS darajasidagi kommutatsiya.

Lokal manzil

ing. - local address

rus. - локальный адрес

Tarmoq doirasida birlashtirilgan manzil.

Tarmoqlararo interfeys pog'onasida IP-manzillarni lokal manzillarda aks ettirish vazifasi turadi. IP-manzil bo'yicha lokal manzilni aniqlash uchun manzilning ruxsat berish protokoli (Address Resolution Protocol, ARP) ishlatiladi. Bunga tamomila teskari bo'lgan masalani yechadigan protokol ham mavjud, u ma'lum lokal manzil bo'yicha IP-manzilni aniqlash imkonini beradi.

Lokal printer

ing. - local printer

rus. - локальный принтер

Kompyuterdagi portlardan bittasiga bevosita ulanadigan printer.

Lokal tarmoq

ing. - local area network (LAN)

rus. - локальная сеть

Uncha katta bo'lmagan hudud (bino, korxon) ni qamrab oluvchi va obyektlar o'rtasida nisbatan qisqa (500 m dan ko'p emas) aloqa liniyalaridan foydalanuvchi ma'lumotlar uzatish tarmog'i. Lokal tarmoq foydalanuvchilar ish joylari va oraliq qurilmalarni yagona tarmoq operatsion tizim boshqaruvida ishlovchi yagona makonga birlashtiradi. Masofaning qisqaligi ma'lumotlarni yuqori tezlikda (100 Mbit/s gacha) uzatishiga erishish hamda real vaqt rejimida xizmatlarning keng to'plamini taqdim etilishini ta'minlash imkonini beradi.

Lokal tarmoq kommutatori

ing. - local area network switch

rus. - коммутатор локальной сети

Bitta yoki bir guruh lokal tarmoq segmentlari o'zaro ishlashini ta'minlaydigan qurilma. Lokal tarmoq kommutatori odatdagi kommutator kabi, unga ulangan lokal tarmoqlarning o'zaro ishlashini, hamda lokal tarmoq segmentlarining har xil turi ulanayotgan bo'lsa, interfeyslarni o'zgartirishini ta'minlaydi.

Lokal tarmoqqa ulanish

ing. - local area connection

rus. - подключение по локальной сети

Tarmoq resurslaridan foydalanish mumkin bo'lgan tarmoqqa ulanish holati.

Lokal xotira**ing.** - local memory**rus.** - локальная память

Qandaydir dastur yoki funksiyaga ajratilgan tezkor xotira qurilmasi.

Lokal o'zgaruvchi**ing.** - local variable**rus.** - локальная переменная

Dasturlash tillaridagi o'zgaruvchi; butun dastur bo'yicha foydalanilishi mumkin bo'lgan global o'zgaruvchidan farqli ravishda, faqat o'zining blokida yoki protsedurasida foydalanilishi mumkin.

Lokal shina**ing.** - local bus**rus.** - локальная шина

Markaziy protsessorni tashqi kesh-xotira bilan bog'laydigan, qo'shimcha yuqori tezlikli shina.

Lokalizator**ing.** - localizer**rus.** - локализатор

Nosozlik yoki shikastlanish yerini topishni ta'minlaydigan yoxud qabul qilinadigan belgilar ketma-ketligidagi xatolarni aniqlaydigan apparat va dasturiy vosita.

Longli-Rays modeli**ing.** - Longley-Rice model**rus.** - модель Лонгли-Райса

Mobil aloqa tarmoqlarida radioto'lqinlarning tarqalishidagi yo'qotishlarni hisoblash uchun foydalaniladigan model.

Loyiha**ing.** - project**rus.** - проект

Vaqtida cheklangan, noyob mahsulot olishga yo'naltirilgan tadbirlar kompleksi.

Loyiha fayli**ing.** - project file**rus.** - файл проекта

Ishlab chiqiladigan ilova loyahasini tashkil qiladigan barcha fayllar to'g'risidagi axborotni ichiga oladigan fayl.

Loyihalarni boshqarish**ing.** - project management**rus.** - управление проектами

Faoliyat sohasi, uning davomida ishlar hajmi, resurslar (pul, mehnat, materiallar, energiya, makon kabi), sifat va tavakkalchiliklar o'rtasida muvozanat saqlangan holda, loyihaning aniq maqsadlari belgilanadi va unga erishiladi. Oldindan aniq belgilangan rejaning, rejadan chetga chiqishlar va tavakkalchiliklarni kamaytirishning, o'zgarishlarni samarali boshqarishning (jarayonli, funksional boshqaruvdan, xizmatlar darajasini boshqarishdan farqli ravishda) mavjudligi, loyihalarni boshqarish muvaffaqiyatining muhim omilidir.

Loyihalash shabloni**ing.** - pattern**rus.** - шаблон проектирования

Loyihalashtirish masalalarini yechishning eng samarali usullaridan biri, ayniqsa kompyuter dasturlarini loyihalashtirishda keng qo'llaniladi. Pattern bu kodga to'g'ridan-to'g'ri aylantirish mumkin bo'lgan loyihaning tayyor namunasi emas, bu ko'proq har xil vaziyatlarning yechimini topish uchun qo'llaniladigan tasvir yoki namuna. Obyektga yo'naltirilgan shablonlar ilovada qanday obyekt va klasslar qo'llanilishini aniqlaydi, balki klasslar va obyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabat va ta'sirni ko'rsatadi. Algoritmalar shablonlar sifatida qaralmaydi, chunki, ular loyihalash vazifalarini emas, balki, hisoblashga oid vazifalarni bajaradi.

Lug'at**ing.** - dictionary**rus.** - словарь

Har bir elementi ikki qismdan iborat, ma'lumotlarning uyushtirilgan majmui. Birinchi qismda ikkinchi qismda bo'lganning qisqacha nomi. Birinchi qismda ko'rsatilgan nom bo'yicha bajariladigan ma'lumotlar qayta ishlanishini tezlashtirish uchun mo'ljallangan, zarur bo'lganda ikkinchi qism qo'shiladi.

Lyuk

ing. - trapdoor

rus. - люк

1. Kompyuter xavfsizligi mexanizmlarini chetlab o'tish imkonini beruvchi, asosan testlash va nosozliklarni izlab topish uchun yaratiladigan yashirin dasturiy yoki apparat mexanizm.

2. Avtomatlashtirilgan tizimga kirishning yashirin yoki hujjatlashtirilgan nuqtasi. Muhofaza tizimini chetlab o'tishda qo'llash mumkin.

3. Katta dasturga yashiringan, foydalanuvchiga muhofaza tizimidan o'tishga ruxsat beradigan yoki tizim resurslaridan shtat rejimida foydalanish imkonini beradigan blok.

Lyuks (fk)

ing. - lux (fk)

rus. - люкс (fk)

Xalqaro birliklar tizimi (SI) da yoritilganlik o'lchov birligi.

Lyumen (fm)

ing. - lumen (fm)

rus. - люмен (fm)

Xalqaro birliklar tizimi (SI) da yorug'lik oqimi birligi. Bir lyumen bir sham (bir candela) yorug'lik kuchida bir steradian fazoviy burchakda nuqtaviy yorug'lik manbai tomonidan nurlanadigan yorug'lik oqimiga teng.

Lyuminofor

ing. - luminophore

rus. - люминофор

Elektron nur bilan «bombardirovka» qilindanda yoki elektromagnit maydon ta'sirida yorug'lik chiqaradigan maxsus material.

M

Magistral aloqa

ing. - on-g-haul communication

rus. - магистральная связь

Katta uzunlikka hamda o'tkazish qobiliyatiga ega liniyalardan (shaharlararo, milliy, xalqaro va global) foydalaniladigan aloqa.

Magistral fider (antenna panjarasining)

ing. - trunk feeder (of the antenna array)

rus. - магистральный фидер

(антенной решетки)

Antenna panjarasining tegishli kirishi bilan diagramma hosil qiluvchi sxemaning chiqishini birlashtiruvchi fider.

Magistral kabel tizimi

ing. - backbone cabling

rus. - магистральная кабельная система

1. Shahar kirgichi (kirish yo'li), apparatxona, telekommunikatsiya shkaflari, shuningdek, binolar orasidan o'tuvchi kabel tizimi.

2. Asosiy va oraliq krosslarni tashkil etuvchi kabel hamda kommutatsiya uskunasi, shuningdek, telekommunikatsiya shkaflari, apparatxona va shahar kirgichi (kirish yo'li) orasidan o'tuvchi kabel segmentlari.

Magistral kanal

ing. - trunk

rus. - магистральный канал

Ikkita kommutatsiya tugunini bog'lovchi jismoniy kanal. Kommutatsiya tugunlari bilan birga magistral kanallari ma'lumotlar marshrutlash tarmog'ini tashkil qiluvchi asosiy tarkibiy qismlardir. Magistral kanal ko'p sonli tizimlar tomonidan yo'naltirilgan ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallanganligi sababli, u ayniqsa katta ishonchlik va yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun magistral kanallar odatda efir, optik kabel va koaksial kabellar asosida quriladi.

Magistral kommutator

ing. - backbone switch

rus. - магистральный коммутатор

Kompyuterlarining magistral tarmoq bilan

ulanishlarini o'rnatish uchun mo'ljallangan qurilma.

Magistral; magistral liniya

ing. - backbone

rus. - магистраль; магистральная линия

1. Ikki tarmoqni o'zaro bog'lovchi, intensiv trafikli va xizmat ko'rsatish sifati yuqori bo'lgan, yuqori tezlikli aloqa liniyasi.

2. Umumiy yuqori tezlikli aloqa liniyasi yordamida tarmoqqa birlashtirilgan uzellar va stantsiyalar guruhi.

Magistral mediashlyuz

ing. - trunking media gateway (TMG)

rus. - магистральный медиашлюз

KAT paketlari uzellari va axborotni yetkazish trafikini uzatish uchun KTSOP (umumiy foydalanishdagi kommutatsiyalanadigan telefon tarmog'i)/SSIS (xizmatlari integratsiyalashgan raqamli tarmoq) tarmoqlari (masalan, tranzit stantsiyalar, mahalliy ATS, xalqaro stantsiyalar) ning kanallar kommutatsiyalanadigan uzellari o'rtasida interfeys bo'lib xizmat qiluvchi blok. TMG axborotni yetkazish trafikini uchun barcha zarur o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Magistral monokanal

ing. - trunk monochannel

rus. - магистральный моноканал

Bitta yoki bir necha umumiy bo'g'inlari magistral tarzida amalga oshirilgan monokanal. Magistral monokanalning umumiy bo'g'ini odatda yassi kabelning o'rama jufti, koaksial kabel va radio kanal asosida yaratiladi. Juft past tezliklarda, koaksial kabel esa katta tezliklarda ishlatiladi.

Magistral pochta yo'nalishi

ing. - magistral postal route

rus. - магистральный почтовый маршрут

Xalqaro pochta xizmatini pochta almashinuv punktlari, jumladan, xalqaro pochta almashinuv punktlari bilan bog'lovchi pochta yo'nalishi.

Magistral tarmoq

ing. - backbone network

rus. - магистральная сеть

Umumiy yuqori tezlikli aloqa liniyalariga ko'priklar, marshrutizatorlar va kanal

konsentratorlari orqali bog'lanadigan tarmoq segmentlari, uzellari hamda alohida stantsiyalarining majmui.

Magistral uzel

ing. - backbone site

rus. - магистральный узел

Internet va/yoki elektron pochta tizimining, katta hajmdagi trafikni qayta ishlaydigan uzeli.

Magnit disk

ing. - magnetic disk

rus. - магнитный диск

Kompyuterlarning xotira qurilmalarida ishlatiluvchi va bir o'qda parallel joylashgan dumaloq plastina yoki plastinalar shaklida yaratilgan ma'lumotlar tashuvchisi. Magnit diskda har bir plastinaning bitta yoki ikki tomoni magnit qatlami bilan qoplangan. Ma'lumotlar ushbu qatlamdagi halqa yo'lklariga yoziladi. Ma'lumotlarni yozish va o'qish diskni aylantiruvchi diskuritma yordamida amalga oshiriladi. Magnit disklarning asosiy turlariga qattiq disk va egiluvchan disk kiradi.

Magnit karta

ing. - magnetic card

rus. - магнитная карта

Magnit moddasi bilan qoplangan ma'lumotlar tashuvchi. U standart o'lchamdagi plastik karta shaklida bo'lib, undan ketma-ket foydalanish mumkin. Ma'lumotlarni yozish, saqlash va o'qish uchun mo'ljallangan. Ixtisoslashtirilgan kompyuterlar, masalan, bank xizmati tizimida qo'llaniladi.

Magnit tasma

ing. - magnetic tape

rus. - магнитная лента

Ma'lumotlarni saqlash uchun magnit modda bilan qoplangan egiluvchan tasma. Magnit tasma g'altakka o'raladi yoki ikki g'altakli kassetada bo'ladi. G'altakli xotira to'plagichlari boshqalaridan oldin paydo bo'lgan bo'lib, asosan katta va o'rtacha kompyuterlarda ishlatiladi. Shu bilan birga, 4 mm kenglikdagi DAT raqamli audiotasmalar bilan ishlaydigan magnitofonlar ham keng tarqalgan.

Magnit tasmasidagi to'plagich

(strimmer)

ing. - magnetic tape drive

rus. - накопитель на магнитной ленте (стриммер)

Axborotni magnit tasмага yozuvchi uskuna, ishlash prinsipi xuddi oddiy kassetali magnitofonga o'xshaydi. Afzalligi – katta hajm, ishonchlilik, arzon narx. Kamchiligi – ishlash tezligining pastligi.

Magnit to'plagich

ing. - magnetic storage

rus. - магнитный накопитель

Moddalarning magnit xususiyatlaridan foydalanadigan хотира qurilmasi. Magnit to'plagichlari o'qish usuli bo'yicha quyidagi guruhlarğa bo'linadi: magnit tasma, magnit disk, magnit karta.

Magnit chiziqli kartalar

ing. - card with magnetic strip

rus. - карты с магнитной полосой

Axborot kartaning orqa tomonida joylashgan uch yo'lkali magnit chiziqda saqlanadigan oddiy kartalar.

Magnitli antena

ing. - magnetic antenna

rus. - магнитная антенна

Magnitli materialdan tayyorlangan (odatda ko'p o'ramli) o'zakli ramkasimon antena. Magnitli materiallar sifatida ko'pincha magnitodielektriklar yoki ferritlar (ferrit antena) ishlatiladi.

Magnitli dipol

ing. - magnetic dipole

rus. - магнитный диполь

1. Elementar konturdagi, ya'ni konturdagi berk elektr toki, kuzatish nuqtasigacha bo'lgan masofa bilan taqqoslanganda uning o'lchami kichkina bo'ladi.

2. Elektr tokining elementar konturi magnit maydoniga teng, uning o'lchamiga nisbatan katta masofada magnit maydoni hosil qiladigan istalgan elementar hajm.

Magnitoptik disk

ing. - magneto-optical disk

rus. - магнитооптический диск

Ma'lumotlarni o'ta zich saqlash uchun mag-

nitoptik texnologiyalar asosida yaratilgan disk. U 1988-yilda yuzaga kelgan. Uning aktiv tashuvchisi terbiy qo'shilgan temirkobalt qotishmasidir. Yozish uslubi qitblanishga asoslangan. Yozish jarayonida lazer nuri 1 mikrometrdan kam bo'lgan joyni qizdiradi, buning natijasida ushbu nuqtadagi magnitlanganlik vektoritashqi magnit maydoniga parallel yo'naladi. Aks etgan lazer nuri kuchsiz bo'lib, magnitlanganlikni o'zgartirish uchun yetarli bo'lmaydi. Yozilgan ma'lumotlarni o'chirish uchun tashuvchiga bir paytning o'zida lazer nuri va tashqi magnit maydoni ta'siridan foydalaniladi. Shu tarzda ma'lumotni o'chirish va qayta yozish 10 mln. marta amalga oshirilishi mumkin. Disk juda katta xotiraga ega bo'lib, ma'lumotlarni arxiv usulida saqlash uchun qo'llaniladi.

Magnitoptik

kommutatsiyalanadigan asbob

ing. - magneto-optic switch apparatus

rus. - магнитооптический коммутационный прибор

Optik kommutatsiyalash elementlarida kuzatiladigan magnitoptik effekt hisobiga amalga oshiriladigan optik kommutatsiya asbobi.

Magnitoptik kompakt-disk

ing. - compact disc-magneto optical

rus. - магнитооптический компакт-диск

1988-yilda ishlab chiqilgan kompakt-disk turi. Ma'lumotni ko'p marotaba yozish va o'chirish imkoniyatini beradi. Hajmi 128 Mbyte dan 2,6 Gbyte gacha. Hozirgi vaqtda bu formatdan foydalanilmaydi.

Magnitoptik to'plagich

ing. - magneto-optical drive

rus. - магнитооптический накопитель

Magnitoptik disklar bilan ishlash uchun mo'ljallangan to'plagich. Magnitoptik disk mo'ljallangan to'plagich. Magnitoptik disklar aliyum qotishmadan tayyorlanadi va plastik qobiqqa joylangan. Magnitoptik disklar (mos ravishda, diskovodlar) ikki o'lchamda chiqariladi: 3,5 dyuymli disk 500 Mbyte ma'lumotni ichiga oladi; 5,25 dyuymli disk 2,3 Gbyte ma'lumotni ichiga oladi. Ma'lumotlardan erkin foydalanish vaqti 50 ms ga yaqin.

Mahalliy foydalana olish va uzatish zonasi

ing. - local access and transport area (LATA)
rus. - зона местного доступа и передачи
Ko'p juftli kabledan iborat magistral kabelli uchastkani, bir yoki bir nechta tuman ATS hamda abonentlarni ulash uchun mo'ljallangan kabelli liniyalarni ichiga oluvchi mahalliy telefon aloqa tarmog'i.

Mahalliy kommutatsiya markazi

ing. - local switching centre
rus. - местный центр коммутации
Bitta aholi punkti yoki ma'muriy tuman doirasida joylashgan foydalanuvchilar o'rtasidagi telefon bog'lanishlar o'rnatilishini ta'minlaydigan uskunalar majmui.

Mahalliy (lokal) ko'p nuqtali taqsimlangan xizmat

ing. - local multipoint distribution service
rus. - местная (локальная) многоточечная распределенная служба
26 GHz dan 30 GHz gacha bo'lgan juda yuqori chastotalar diapazonida ishlaydigan simsiz aloqa tizimi yoki simsiz dem xizmati.

Mahalliy tarif

ing. - local rate
rus. - местный тариф
Ma'lum geografik hududda amal qiladigan tarif stavkalari.

Mahalliy telefon raqamlarining ko'chirib o'tkaziluvchanligi

ing. - local number portability
rus. - переносимость местных номеров
Xizmatlar provayderi o'zgartirilganda ayni telefon raqamini saqlab qolish imkoniyati.

Mahalliy telefon tarmog'ining abonent raqami

ing. - local telephone network subscriber number
rus. - абонентский номер местной телефонной сети
Telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan shartnoma tuzilganda abonentga ajratiladigan raqam. Bu raqamga qarab, telekommunikatsiyalar tarmog'iga ulangan oxirgi (terminal) uskuna identifikatsiya qilinadi.

Mahalliy lashtirish

ing. - localization
rus. - локализация

Mavjud dasturiy mahsulotni tili boshqa mamlakatlarda foydalanish maqsadida qayta ishlash. Hujjatlar va foydalanuvchi interfeysi (menyu, xabarlar, aytib turishlar va yordam) ko'chirilishini, hisoblashlar metodikalari o'zgartirilishini va dasturlar birmuncha qayta ishlanishini ko'zda tutadi. Ba'zida mahalliy lashtirishga maslahat ta'minoti ham qo'shiladi.

Maishiy elektronika

ing. - home electronics
rus. - бытовая электроника
Aholi foydalanadigan elektron apparatlar.

Maishiy radioelektron apparat

ing. - household radio electronic apparatus.
rus. - бытовой радиоэлектронный аппарат
Radioeshittirish va televizion dasturlarni, simli eshittirish dasturlarini, fonogrammalarni, videogrammalarni, shuningdek maxsus signallarni qabul qilish, qayta ishlash, sintez qilish, yozish, kuchaytirish va qayta eshittirish kabi bitta yoki bir nechta funksiyani bajarish uchun qo'llaniladigan radioelektron qurilma.

Majburiy nusxa tizimi

ing. - mandatory copy system
rus. - система обязательного экземпляра
Jami shartli nusxa turlari, shuningdek, ularni to'plash, tarqatish va foydalanishning belgilangan tartibi.

Majburiy sinxronlash

ing. - master-slave synchronization
rus. - принудительная синхронизация
Tarmoqning barcha tayanch generatorlarini sinxronlash usuli, unda o'zaro bog'langan va bo'yusuvchi qurilmalarning barchasiga sinxronlovchi signal bitta yetakchi stansiyadan kelib tushadi.

Majburlash

ing. - enforcement
rus. - принуждение
Muho'faza usuli, bunga ko'ra foydalanuvchilar va tizim personalni moddiy, ma'muriy

yoki jimoiy javobgarlik tahtidi ostida muho-
faza qilmadigan axborotni qayta ishlash,
uzatish va undan foydalanish qoidalariga
noya qilishga majbur bo'ladilar.

Majoritar element

ing. - majority element

rus. - мажоритарный элемент

Chiqish diskret signali qiymati uning kirish-
larida ko'pchilikni tashkil etgan bir-biriga
teng qiymatlarga mos obyekt. Majoritar
element ham qurilma tarkibiy qismi, ham
dastur qismi bo'lishi mumkin. Uning mohi-
yati shundaki. u toq sonli kirishlarga va
bitta chiqishga ega bo'lib, go'yo ovoz berish
jarayonini aks ettiradi. Ya'ni, elementning
chiqish signali uning kirishlaridagi bir xil
signallar qiymatini aks ettiradi. Masalan,
uchta kirishli majoritar elementning ikkita
yoki uchta kirishiga «bir» berilgan bo'lsa,
ushbu element chiqishida ham «bir» pay-
do bo'ladi. Ikki yoki uch kirishida «nol»lar
bo'lsa, chiqishida ham «nol» bo'ladi.

Mak Ellis kriptotizimi

ing. - Mac Alice cryptosystem

rus. - криптосистема Мак Эллиса

Xatolarni tuzatuvchi kodlarga asoslangan
kriptotizim. Uning o'ziga xos ikki kamchili-
gi bor: kalit uzunligining katta bo'lishi va
katta ortiqchalik (shifratm uzunligi xabar
uzunligidan ikki marta oshadi).

Maket plata

ing. - development board

rus. - макетная плата

Laboratoriya sharoitlarida qurilmaning
boshlang'ich versiyasi yig'iladigan va
sozlanadigan plata.

Makro

ing. - macro

rus. - макро

1. MACHine ROutine qisqartmasi. Bir
necha mashina komandasidan tashkil top-
gan to'plamga o'giriluvchi dasturlash tilida
berilgan alohida ko'rsatma.
2. Boshqa komandalar ketma-ketligini
chaqiruvchi komanda.
3. «Juda kata» ma'nosida ishlatiladi, masalan
– makroiqtisodiyot.

Makroblok

ing. - macroblock

rus. - макроблок

Yorqinlik va ranglilik signallari
koeffitsiyentlarini bir necha DKO blokleri
orqali tasvirlanadigan hamda bitta siljish
vektori bilan ifodalanuvchi odatda, 16x16
piksel kattalikka ega bo'lgan tasvir sohasi.

Makrodasturlash

ing. - macroprogramming

rus. - макропрограммирование

Dasturlarni makrokomandalardan foydala-
nib yozish jarayoni.

Makrogenerator

ing. - macrogenerator

rus. - макрогенератор

Translyator yoki makroassemblerning mak-
roalmashtirishlarni bajaradigan qismi.

Makrokengaytirish

ing. - macro expansion

rus. - макрорасширение

Dasturda foydalaniladigan makrokomandani
mashina komandalarga kompilyatsiyalash
natijasi.

Makrokomanda

ing. - macroinstruction

rus. - макрокоманда

Foydalanuvchi tomonidan ma'lum standart
komandalardan tuziladigan, qandaydir
tildagi komanda. Bu komandalarni tuzish
uchun tegishli vosita – makrotil bo'lishi
kerak.

Makros

ing. - macro

rus. - макро

Komandalar ketma-ketligi va/yoki noyob
nomdagi makroregistratorlarda yozilgan
klavishalarni bosish ketma-ketligi.

Makrotil

ing. - macro language

rus. - макроязык

Foydalanuvchiga boshlang'ich komandalar-
ni birlashtirish mumkinligi hisobiga o'z ishi-
ni osonlashtirish yoki uzun, tez-tez takrorla-
nadigan matn o'rniga uning shartli ekviva-

lentini kiritish imkonini beradigan dasturiy vosita. Makrotil foydalanuvchi tomonidan yaratiladigan makrotavsiflardan (makroko-mandalardan, makroalmashtirishlardan) va ularni natijalovchi matnlarga (shu jumladan, dasturlarga) o'tkazadigan dasturlardan iborat.

Makrouya

ing. - macrocell

rus. - макросота

Odatda, radiusi 1 km dan to 35 km gacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladigan mobil aloqa tarmog'ining xizmat ko'rsatish sohasi. Izoh - Bir nechta mikro va pikouyalardan iborat bo'lishi mumkin. Makrouya chegarasida bir vaqtda bita chaqiruvga xizmat ko'rsatadigan, ikkita yoki undan ortiq parallel bog'lanishni saqlab turish imkoniyati ta'minlanadi.

Makrovirus

ing. - macro virus

rus. - макровирус

Aniq bir ilova uchun mo'ljallangan makros ko'rinishidagi fayl virusi. Zararlangan fayl ochilganda virus dasturga birikib oladi va u murojaat qiladigan barcha fayllarni zararlaydi.

Maksimal ajratish

ing. - maximal permission

rus. - максимальное разрешение

Monitorida o'rnatish mumkin bo'lgan eng katta ajratish. U ba'zan mavjud o'lchamdagi monitor uchun talab etilganidan katta bo'ladi.

Maksimal haqiqatga o'xshash algoritm

ing. - maximum plausibility;

maximal likelihood algorithm

rus. - алгоритм максимального правдоподобия

Dekoder uzatishda shartli ehtimolligi maksimal bo'lgan kodli so'zni tanlaydigan dekodlash ketma-ketligi.

Maksimal qo'llaniladigan chastota

ing. - maximum usable frequency

rus. - максимальная применимая частота

Ma'lum bir sharoitlarda berilgan vaqtda berilgan punktlar o'rtasida radioto'lqin-

larning ionosferali tarqalishi mavjud bo'lgan radionurlanishning eng katta chastotasi.

Maksimal yorqinlik

ing. - maximal brightness

rus. - максимальная яркость

Tashqi yoritish bo'lmaganda va farqlanuvchi satr tuzilma mavjudligida qoraning tasvirda berilgan darajasida televizion ekranda o'lchanishi mumkin bo'lgan eng katta yorqinlik.

Maksimal yo'l qo'yiladigan quvvat

ing. - maximally admissible power

rus. - максимально допустимая мощность

Antennaga o'tkazilishi mumkin bo'lgan va elektr teshilish hamda antenna elementlarining buzilish imkoniyati cheklangan quvvat.

Mamlakat bilan bevosita so'zlashuv

yoki boshqa mamlakat operatorini

to'g'ridan-to'g'ri chaqirish

ing. - direct conversation with the

country or direct call of the

operator of other country

rus. - прямой разговор со страной или

прямой вызов оператора другой страны

Mamlakattan tashqarida joylashgan

foydalanuvchining maxsus raqamini terib,

chaqiriluvchi abonent hisobidan to'langan

(xizmat uchun hisob-kitob) yoki oldindan

to'langan kredit kartochka (xalqaro yoki

abonent yashagan mamlakat) orqali ushbu

mamlakat abonentini bilan so'zlashuvga

buyurtma uchun mamlakatning operatori

(o'zining yashash joyi va foydalanuvchi

raqamini ro'yxatga olish) bilan bog'lanish

imkonini beradigan xizmat.

Izohlar

1. Chaqiriluvchi abonent to'lov yig'indisi to'g'risida

xabardor qilinishi kerak. Ma'lumotlar so'rovi

xizmatlarning ushbu turidan chiqarib tashlangan

bo'lishi mumkin.

2. Ayrim hollarda chaqiruvchi abonentga xizmatlarning

ushbu turidan erkin foydalanish uchun to'lov tavsiya

qilinishi mumkin. Har qanday holatda bunday

tarifning qo'llanilishi bog'lanishga buyurtma amalga

oshiriladigan mamlakatning milliy vakolatiga kiradi.

Mamlakat kodi

ing. - country code

rus. - код страны

Chaqirilayotgan mamlakatni belgilaydigan,

bitta, ikkita yoki uchta raqamdan iborat birikma.

Mamlakat mobil kodi

ing. - mobile country code (MCC)

rus. - мобильный код страны

Xalqaro identifikatsiyalash raqami IMSI ning sarlavhasida ko'rsatilgan uchta raqamdan iborat indeks.

Mamlakatning yagona axborot makoni

ing. - unified state information space

rus. - единое информационное

пространство страны

Yagona prinsiplar va umumiy qoidalar asosida, dunyo axborot makoniga kirishdagi manfaatlar muvozanati saqlangan va milliy axborot mustaqilligi ta'minlangan holda, mamlakatning barcha hududida ochiq axborot resurslaridan teng ravishda foydalana olish sharoitida, davlat, tashkilotlar va fuqarolarning xavfsiz axborot o'zaro hamkorligini, shuningdek, ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlari iloji boricha to'liq qondirilishini ta'minlash imkonini beradigan axborot resurslari hamda axborot infratuzilmasining yig'indisi.

Manba

ing. - source

rus. - источник

Turli fizik tabiatdagi xabarlar yoki signallar ko'rinishidagi axborotni to'plash, saqlash, o'zgartirish va berishi mumkin bo'lgan moddiy obyekt yoki subyekt.

Manba kuchlanishini avtomatik

almashlab ulash

ing. - automatic line switching (ALS)

rus. - автоматическое переключение

напряжения питания

Operator ishtirokisiz ta'minot kuchlanishini 120 V dan 220 V yoki 240 V ga almashlab ulash.

Manbani kodlash

ing. - source coding

rus. - кодирование источника

Berilgan alifbo doirasida o'zgaruvchan uzunlikdagi kodlardan, xabardagi simvollar sonini, xabardagi butun axborotni taqdim etish

yoki hech bo'lmaganda bunday qisqartirish shartlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng kam darajagacha kamaytirish maqsadida foydalanish.

Manbani o'chirish

ing. - power off

rus. - выключить питание

Asbob-uskunalarini elektr manbaidan uzish.

Manchestercha kodlash

ing. - manchester coding

rus. - манчестерское кодирование

Ma'lumotlarni kanal orqali uzatish uchun kodlash uslubiyati. Manchestercha kodlash mantig'i ikkilik sanoq tizimiga oid signalni manchestercha kodga aylantirish bilan bog'liq. Mazkur kodlashni amalga oshirishda muvaqqat bit oraliqlari deb atalmish muddatlarga bo'linadi.

Mandat

ing. - capability

rus. - мандат

1. Obyektдан erkin foydalanish uchun bitta yoki bir nechta huquqlarni taqdim etish.

Izoh - Mandat erkin foydalanishga ruxsat berish hisoblanadi.

2. Ma'lum subyektning ma'lum obyektдан foydalanish turini belgilovchi, erkin foydalanish matritsasi elementi. Har safar mandat subyektni dinamik ravishda - erkin foydalanish so'ralganda beriladi. Mandatlarni tarqatish juda ham o'zgaruvchan tarzda yuz berishi sababli, ular bevosita obyektlar ichida joylashishi mumkin, buning oqibatida ularni nazorat qilish juda ham qiyin. Sof ko'inishda bu mexanizmdan juda kam foydalaniladi. Biroq, erkin foydalanishni nazorat qilishning boshqa mexanizmlari ko'pincha mandatlarni yordamida amalga oshiriladi.

3. Taqdim etiladigan vakolat shakli, unga egalik qilish tizim resursidan erkin foydalanish huquqini tasdiqlaydi.

4. Qandaydir obyektning talab etiladigan identikligini (o'xshashligini) tasdiqlash uchun uzatiladigan axborot.

Mandatli foydalana olish

ing. - mandatory access

rus. - мандатный доступ

Obyektlardan foydalana olishni boshqarish usuli. Obyektда mavjud bo'lgan axborotning maxfiylik yoki kritiklik darajasiga, ma'lum bir kritiklik darajasidagi axborotdan foydalana olishda subyektning vakolatlari va huquqlarini rasman tekshirishga asoslangan. Izoh - Foydalana olishni mandatli boshqarish: - tizimning barcha subyektlari va obyektlari bir xil identifikatsiya qilinganligini;

– tizimning har bir obyektiga, undagi axborotning qiymatini belgilovchi kritiklik belgisi berilganligini;
– tizimning har bir obyektiga subyekt foydalana olishi mumkin bo'lgan obyektlar kritiklik belgisinging maksimal qiymatini o'rnatuvchi bazaviy xavfsizlik darajasi berilishini nazarda tutadi.

Manfaatdor bo'lmagan hakam protokoli

ing. - protocol with arbitrator

rus. - протокол с третейским судьей

Arbitrli protokolga o'xshash protokol, lekin undan farqli ravishda manfaatdor bo'lmagan hakam faqat protokol ishtirokchilari o'rtasida bahsli holatlar yuz bergan hollaridagina paydo bo'ladi. Manfaatdor bo'lmagan hakam, arbitrdan farqli ravishda, to'g'ridan-to'g'ri protokolda ishtirok etmaydi, lekin manfaatdor bo'lmagan hakamga aldovni aniqlash uchun imkon beradigan ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Manipulyator

ing. - manipulator

rus. - манипулятор

Kompyuter holatini boshqarish, shu jumladan, qo'llar yordamida ma'lumotlarni kiritish imkonini beradigan qurilma. Manipulyatorga joystick, «sichqoncha», trekbol, sensorli panel, pero, trekpoint, J-klavisha kiradi. Eng keng tarqalgan manipulyator – klaviatura.

Manipulyatsion kod

ing. - manipulation code

rus. - манипуляционный код

Har bir signalga simvollar to'plamini taqoslaydigan kod, bunda qo'shni signallarga tegishli bo'lgan ketma-ketliklar ikkilik simvollarning eng kam soni bilan farqlanib turishi kerak.

Manipulyatsiya qilish

ing. - manipulation

rus. - манипулирование

1. Biror narsa ustida murakkab usul, harakat.
2. Informatikada – ma'lumotlarni qayta ishlash. Bunda dasturlar foydalanuvchi komandalarini qabul qilib, kompyuterga nima va qaysi tartibda bajarish kerakligini buyuradi.
3. Algebraik ifodalarni qayta o'zgartirish.
4. Ma'lum qurilmani boshqarayotganda muayyan vazifani bajarish bilan bog'liq

bo'lgan qo'l harakati. Odatda robotlar inson qo'llari harakatlariga taqlid qiladi va buyumlarni olib ularning fazodagi joyini o'zgartirishni ta'minlaydi.

Manipulyatsiyani aniqlash

ing. - manipulation detection

rus. - обнаружение манипуляции

Ma'lumotlarning tasodifan yoki qasd-dan qilinadigan o'zgartirishlarni aniqlash uchun qo'llaniladigan protsedura.

Mansell bo'yicha rang miqdori

ing. - Munsell color quantity

rus. - количество цвета по Манселлу

Odatdagi sharoitlarda, yorqinlikni sezishning taxminan bir tekis darajasini kuzatish imkonini beradigan shkala yordamida ifodalangan rangli predmet uchun yorug'likni o'tkazish yoki qaytarish kattaligi.

Mansell rang tizimi

ing. - Munsell color system

rus. - манселла цветовая система

Uch o'zgaruvchidan ikkitasi, xususan, tusi (rangning tusi), miqdori va xromlari doimiy bo'lgan bir tekis rang shkalasidan foydalanihga asoslangan jismlar rangini aniqlaydigan tizim.

Mantiq

ing. - logic

rus. - логика

Mantiqiy tafakkur shakli va qonunlari to'g'risidagi fan. Mantiq fanining obyekti – tafakkur qonunlari, shakllari, uslublari va operatsiyalaridir. Mantiq fani u o'rganadigan predmet sohasining turi bo'yicha ikki bo'limdan iborat: formal mantiq va dialektik mantiq. Formal mantiq statik borliqqa, dialektik mantiq dinamik borliqqa oiddir. Formal mantiq ilmining asoslari eramizdan avvalgi IV asrda buyuk yunon olimi Aristotel tomonidan yaratilgan. IX asrda yashab o'tgan Markaziy Osiyolik alloma Abu Nasr Farobiy Aristotelning umumiy formal mantiq tizimini uning boshqa asarlari asosida to'ldirib, o'z zamonasi uchun eng muhim mantiq fanini shakllantirib bergan. Yo rost yo yolg'on bo'lishi mumkin bo'lib qiymatlari ikkilik sanoq tizimiga xos fikrlar, ya'ni hukmlar

ustida matematik tahlil va deduktiv fikrlashni birinchi bo'lib XIX asr o'rtalarida Irlandiyalik Jorj Bul qo'llagan. Bu Bul algebrasi deb ataluvchi mantiq algebrasi yaratilishiga va oxir oqibatda XX asr o'rtalarida elektron hisoblash mashinalarining yaratilishiga olib kelgan.

Mantiqiy analizator

ing. - logic analyzer

rus. - логический анализатор

Murakkab raqamli qurilmalarni sozlash va diagnostika qilish uchun mo'ljallangan qurilma.

Mantiqiy bomba

ing. - logic bomb

rus. - логическая бомба

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining muayyan bir holatida ishga tushadigan va tizimni ishdan chiqishiga olib keluvchi zararli dastur.

2. Avtomatlashtirilgan tizim resurslarining (ma'lumotlar, dasturiy yoki apparat ta'minot) shikastlanishiga olib keluvchi va ayrim shartlar bajarilganda ishga tushadigan kompyuter dasturi yoki dastur fragmenti.

3. Elektron hisoblash mashinasining, ma'lumotlarni buzish, yo'q qilish yoki o'zgartirish maqsadida, davriy ravishda yoki muayyan vaqtda bajaradigan dasturi.

Mantiqiy dasturlash

ing. - logical programming

rus. - логическое программирование

Dasturlash uslubi, bunda dastur xulosalar shakllanadigan faktlar va bog'liqliklardan iborat bo'ladi. Prolog tilida amalga oshirilgan.

Mantiqiy dasturlash tili

ing. - logical programming language

rus. - логический язык

программирования

Deklarativ tillarga tegishli bo'lgan dasturlash tili; mantiqiy xulosa qoidalari va kirish ma'lumotlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilash asosida qurilgan.

Mantiqiy disk

ing. - logical drive

rus. - логический диск

Qattiq disk xotirasining maxsus qismi. Man-

tiqiy diskni operatsion tizim alohida qurilma sifatida qabul qiladi. U o'zining nomiga, kataloglarga ega.

Mantiqiy formatlash

ing. - logical formatting

rus. - логическое форматирование

Diskda operatsion tizim foydalanadigan jadvallar, kataloglar va xizmat sektorlari tuziladigan formatlash.

Mantiqiy ifoda

ing. - logical expression

rus. - логическое выражение

Ustida mantiqiy operatsiyalar bajariladigan obyektlar operandlar bo'lgan ifoda. Har bir dasturlash tili o'zining ifodalar tuzish qoidalarini va operatsiyalarni belgilashlarni belgilaydi (sintaksis). Mantiqiy ifodaning bajarilish natijasi – CHIN yoki YoLG'ON mantiqiy qiymatlardan biri.

Mantiqiy inkor

ing. - logic negation

rus. - логическое отрицание

Mantiqiy amal. Ba'zi dasturlash tillarida NOT kabi belgilanadi va NOT p ko'rinishida yoziladi, bu yerda p – mantiqiy ifoda.

Mantiqiy kanal raqami

ing. - logical channel number

rus. - логический номер канала

x.25 tarmoqlaridagi virtual kanal identifikatori.

Mantiqiy ko'paytirish,

VA mantiqiy funksiyasi

ing. - and

rus. - логическое умножение,

логическая функция И

Operandlarning ikkilik (0,1) razryadlari yoki mantiqiy kattaliklari ustida bajariladigan, «chin» qiymati faqat har ikki operand 1 ga teng bo'lganda yoki ikkala operand chin bo'lgandagina qaytariladigan operatsiyalar.

Mantiqiy ko'paytma

ing. - logical product

rus. - логическое произведение

Operandlarining har ikkisi chin bo'lganda, natijasi chin bo'ladigan VA mantiqiy amali.

Mantiqiy manzil

ing. - logical address
rus. - логический адрес

Xotira sohasining, periferik yoki tarmoq qurilmasi, Internet, elektron pochtaning ramziy yoki shartli manzili. Translyatsiya qilishda yoki ishlash jarayonida tegishli dasturiy yoki apparat ta'minot yordamida fizik manzilga aylantiriladi.

Mantiqiy matritsa, ventilli matritsa

ing. - gate array
rus. - логическая матрица, вентильная матрица

Berilgan funksiyalarni bajarish imkoniyati bo'ladigan qilib birlashtirilgan mantiqiy ventillarning jami ko'rinishidagi maxsus mikrosxema.

Mantiqiy mikroprotessor

ing. - logic chip
rus. - логический микропроцессор
Axborotni qayta ishlaydigan va saqlaydigan, mantiqiy sxemalardan tashkil topgan mikroprotessor.

Mantiqiy nom

ing. - logical name
rus. - логическое имя

Operatsion tizim qandaydir qurilma yoki qurilmalar toifasiga, amaliy dasturiy ta'minot qurilma konstruksiyasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lmasligi uchun beriladigan nom.

Mantiqiy obyekt

ing. - entity
rus. - логический объект

Obyekt to'g'risidagi axborot saqlanishi mumkin bo'lgan obyekt, mantiqiy obyekt deb hisoblanadi. Mantiqiy obyektlar va ularning munosabatlari munosabatlar diagrammasi yordamida tavsiflanadi.

Mantiqiy operatsiya

ing. - logic operation
rus. - логическая операция

Mantiqiy mulohazalar ustidagi operatsiyalar. Ko'pgina dasturlash tillarida ikki o'rinli operatsiyalar: mantiqiy qo'shish (OR), mantiqiy ko'paytirish (AND), implikatsiya (« \rightarrow »),

istisno qiluvchi («yoki»); bir o'rinli operatsiya – mantiqiy inkor (NOT) belgilanadi.

Mantiqiy operatsiya belgisi

ing. - logical operator
rus. - знак логической операции

Mantiqiy operatsiya simvoli (VA-AND, YO'Q-NOT, YoKI-OR, Faqat YoKI-XOR).

Mantiqiy qiymat

ing. - logical value
rus. - логическое значение
1 yoki 0 ikkilik qiymatlar.

Mantiqiy qurilma

ing. - logical unit
rus. - логическое устройство

Dasturiy yo'l bilan yaratilgan, biroq funksional jihatdan fizik qurilma kabi ishlaydigan qurilma. Bitta mantiqiy qurilmaga bir nechta fizik qurilma, va aksincha, to'g'ri kelishi mumkin. Masalan, bitta fizik qattiq disk bir qancha mantiqiy disklarga bo'linishi mumkin.

Mantiqiy qo'shish

ing. - logical addition
rus. - логическое сложение

Hech bo'lmasa bitta operandi yoki har ikki operandi chin bo'lganda, natijasi chin bo'ladigan YoKI mantiqiy operatsiyasi.

Mantiqiy siljish

ing. - logical shift
rus. - логический сдвиг

Registr ichidagini, registrdan chiqarib tashlanadigan bitni yo'qotgan holda, chappa yoki o'ngga razryadlab ko'chirish. Bo'sh razryadlar nollar bilan to'ldiriladi.

Mantiqiy sxema

ing. - logic circuit
rus. - логическая схема
Ma'lumotlarni qayta ishlaydigan yoki mantiqiy operatsiyalarni bajaradigan mikrosxema.

Mantiqiy sxemalar sintezi

ing. - logic synthesis
rus. - синтез логических схем
Mikrosxemani loyihalashdagi bosqich. Yuqori daraja tilidagi mikrosxema tavsifini

mantiqiy ventillar va ularning birikmalariga aylantirishda ifodalanadi.

Mantiqiy topologiya

ing. - logical topology

rus. - логическая топология

Tizimning fizik topologiyasidan farq qiluvchi mantiqiy chizmasi. Masalan, lokal tarmoqlarda tarmoq fizik nuqtai nazardan «yulduz» topologiyasi ko'rinishida bo'lishi mumkin bo'lsada, tarmoq mantiqiy shina sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Mantiqiy ventill

ing. - logic gate

rus. - логический вентиль

Kirish signallari ustida eng oddiy mantiqiy operatsiyalarni amalga oshiradigan ventill.

Mantiqiy xulosa mashinasi

ing. - inference engine

rus. - машина логического вывода

Ekspert tizim bilimlar bazasida saqlanadigan mantiqiy xulosa qoidalari va faktlar asosida xulosa shakllantirish mexanizmi.

Mantiqiy yozuv

ing. - logical record

rus. - логическая запись

Fizik joylashishiga bog'liq bo'lmagan holda ma'lumotlarni yozish. Yozuv, masalan, ikkita turli xil faylda saqlanishi mumkin.

Mantiqiy shina

ing. - logical bus

rus. - логическая шина

Lokal tarmoqlar topologiyasi, masalan, Ethernet kabi umumiy aloqa kanalidan foydalanadigan topologiya.

Manzil

ing. - address

rus. - адрес

1. Tarmoq yoki tarmoq qurilmasiga uni axborot almashinuvi vaqtida boshqa tarmoqlar va qurilmalar aniqlay olishi uchun beriladigan noyob identifikator.

Izoh - Manzillar mantiqiy (ramziy yoki shartli), fizik (apparat) yoki tarmoq manzillari shaklida bo'lishi mumkin.

2. Internet tarmog'ida avtomatlashtirilgan axborot tizimi joylashgan yerning simvolli taqdim etilishi.

Manzil arifmetikasi

ing. - address arithmetic

rus. - адресная арифметика

Murakkab manzillash tizimlarida manzillarni hisoblash protsedurasi.

Manzil deshifratori

ing. - address decoder

rus. - дешифратор адреса

Manzilni, xotira qurilmasiga yuborilayotgan boshqaruvchi signallarga o'zgartirgich.

Manzil fazosi

ing. - addressing space

rus. - адресное пространство

1. Protsektor yoki dastur foydalana oladigan yoki foydalana olishi mumkin bo'lgan manzillar diapazoni. Manzil shina kengligiga va protsektor registrlarining razryadililigiga bog'liq.

2. Dasturga ajratilgan fizik yoki virtual manzillar diapazoni.

Manzil liniyasi, manzil satri

ing. - address line

rus. - адресная линия, адресная строка

1. So'raladigan yoki saqlanadigan axborotning manzilini ko'rsatish uchun foydalaniladigan chiziqlardan biri. Axborot matritsa ko'rinishida tashkil qilinishi sababli, manzil liniyalaridan to'liq foydalanish sikli ichida ikki marta - satr va ustun raqamini ko'rsatish uchun foydalaniladi.

2. Internetda yoki lokal kompyuterda bo'lgan fayllarni ochish vositasi. Manzilning manzil satriga kiritilishi, shu manzilda bo'lgan faylning ochilishiga so'rovni bildiradi.

Manzil maydoni

ing. - address field

rus. - поле адреса

Mashina komandasi yoki xabarning manzilni ichiga oladigan qismi.

Manzil niqobi

ing. - address mask

rus. - адресная маска

Manzilning qaysi qismi tarmoqqa yoki kichik tarmoqqa, qaysi biri xost-mashinaga taalluqli ekanligini tasvirlash uchun foydalaniladigan bitlar kombinatsiyasi.

Ba'zan oddiygina qilib, niqob deb ham ataladi.

Manzil registri

rus. - адресный регистр

ing. - address register

Protssessor, tezkor xotira qurilmasi to'liq manzilini yoki manzilning ma'lumotlar bajaruvchi manzilini yoki navbatdagi bajariladigan komandani hisoblashda foydalani-ladigan qismini ichiga oladigan registri.

Manzil strobi

ing. - address strobe

rus. - строб адреса

Protssessor yoki xotira kontrolleri yuzaga keltiradigan, xotira mikrosxemasining kiruvchi boshqaruv signallaridan biri.

Manzil zanjiri

ing. - address latch

rus. - защелка адреса

Manzil shinasi va manzil qurilmasi o'rtasida o'rnatiladigan mikrosxem (masalan, tezkor xotira qurilmasi).

Manzil shinasi

ing. - address bus

rus. - адресная шина

1. Kompyuter xotirasida axborot saqlanadigan va kiritish mumkin bo'lgan joyni aniqlash uchun xizmat qiladigan o'tkaz-gichlar va yordamchi elementlar tizimi.
2. Signallarni uzatishda ishlatiladigan tizim shinasidagiliniyalar to'plami, ular yordamida protssessor tomonidan bajariladigan o'qish/yozish va kiritish-chiqarish operatsiyalarini bajarish uchun xotira yacheykasining joylashgan o'rni aniqlanadi.

Izoh - Shina kengligi plataning xarakteristikalariga qarab o'zgaradi (8 dan 64 razryadgacha). Ayrim kompyuterlarda tashqi qurilmalar registrlariga kira olish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Manzillar jadvallari

ing. - address tables

rus. - таблицы адресов

Kommutatorlar, ko'priklar va marshrutizatorlarda saqlanadigan va ushbu qurilmalarga tarmoqdagi fizik qurilmalarning joylashishini «eslab qolish» imkonini beradigan jadvallar.

Manzillar kitobi

ing. - address book

rus. - адресная книга

Pochta dasturlaridagi pochta manzillari ro'yxati.

Izoh - U pochta qutisining egasi tomonidan to'ldiriladi, ayrim hollarda avtomatik to'ldirish imkoni ham mavjuddir. Pochta manzillarini kiritishdan tashqari manzil kitobida odatda ism, familiya, telefon raqami va boshqa shaxsiy ma'lumotlar kiritiladi.

Manzillarni aniqlash protokoli

ing. - address resolution protocol (ARP)

rus. - протокол определения адресов

TCP/IP va Apple Talk tarmoqlarida foydalaniladigan protokol. U xost-kompyuterga agarda uning faqat mantiqiy manzili ma'lum bo'lsa, tarmoq uzelinig fizik manzilini aniqlash imkonini beradi. Protokoldan foydalanishda, tarmoq platasi tarmoq uzella-rining mantiqiy manzillarini apparat man-zillarga o'zgartirish uchun xizmat qiladigan jadvalni ichiga oladi.

Manzillarni hal etishning

teskari protokoli

ing. - reverse address resolution

protocol (RARP)

rus. - обратный протокол

разрешения адресов

Teskari ARP amalini bajaradigan protokol.

Manzillarni sozlash

ing. - address relocation

rus. - настройка адресов

Manzillarning obyekt yoki yuklash moduli-da modifikatsiyalash. Komponovkachi yoki yuklovchi tomonidan, uni muayyan manzil bo'yicha joylashtirish paytida bajariladi.

Manzillarui tasvirlash

ing. - address mapping

rus. - отображение адресов

1. Manzillarni bir formatdan boshqasiga ko'chirish usuli. Turli tarmoq protokollariga birgalikda ishlash imkonini beradi.
2. Fizik manzilni virtual yoki mantiqiy manzil bo'yicha hisoblash.

Manzil(lar)ni o'zgartirish

ing. - address resolution

rus. - преобразование адреса (адресов)

Protokol IP-manzilini tegishli fizik manzilga o'zgartirish.

Manzillarning dinamik translyatsiyasi

ing. - dynamic address translation (DAT)

rus. - динамическая трансляция адресов
Virtual manzillarni virtual xotira bilan ishlashni qo'llab-quvvatlaydigan xotirani boshqarish qurilmasi va operatsion tizim tomonidan bajariladigan jismoniy xotira manzillarga aylantirish.

Manzillash

ing. - addressing

rus. - адресация

1. Nomerlarini ko'rsatish yo'li bilan kompyuter portlariga yoki xotiraning alohida yacheykalariga, tez kirishni (foydalanishni) ta'minlash usuli.
2. Kompyuter tarmoqlarida abonent joylashgan yerni aniqlash usuli.

Manzillash rejimi (usuli)

ing. - addressing mode

rus. - режим (способ) адресации

Protessor tomonidan, komanda murojaat qiladigan ma'lumotlar elementi manzili (operand) ni hisoblab topish usuli. Registrli va noregistrli, to'g'ri, indeksli, nisbiy va bilvosita, operand manzilini bir vaqtda oshirish yoki kamaytirish bilan manzillash bor.

Manzilli dastur

ing. - address program

rus. - адресная программа

Tashkilot tomonidan yil mobaynida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar rejasi.

Manzilni modifikatsiya qilish

ing. - address modification

rus. - модификация команды

Obyektga murojaat qilish. Bunda maxsus dasturlar va elektron jadvallar yordamida mantiqiy va virtual manzillar fizik manzillarga aylantiriladi. Foydalanuvchilar ko'zlangan obyekt, masalan, bitta tizimdan boshqasiga ko'chirilganligini sezmasligi mumkin.

Manzilni o'zgartirish

ing. - address resolution

rus. - преобразование адреса

Kompyuterlardagi adreslash sxemalarida farqlarni bartaraf etish usuli. Manzilni o'zgartirish odatda, tarmoq sathi (IP-manzillari)ni kanal sathi (MAS-manzillari) bilan birlashtirish usulini aniqlaydi.

Manzilning o'zgarishi

ing. - address modification

rus. - изменение адреса

Manzil bo'yicha bajariladigan arifmetik, mantiqiy yoki sintaksis operatsiya. Masalan, effektiv manzil, indeksli manzil, nisbiy manzil, ko'chiriladigan manzil.

Mapping

ing. - mapping

rus. - маппинг

1. Ma'lumotlarni bir shakldan boshqa shaklga o'zgartirish jarayoni.
2. Eltuvchining mumkin bo'lgan holatlarini modulyatsiyaning vektor diagrammasida (signal yulduzida) tegishli pozitsiyalar bilan tasvirlash, bunda pozitsiyaning gorizontaal o'qqa nisbatan burchagi eltuvchi fazasini, koordinata boshidan pozitsiyagacha bo'lgan masofa eltuvchi amplitudasini belgilaydi.
3. Bitlar ketma-ketligini boshqa bitlar ketma-ketligiga modulyatsiya turiga bog'liq ravishda ma'lum qoida bo'yicha o'zgartirish jarayoni.
4. Bitlar ketma-ketligini signal yulduzining modulyatsiya simvollariga bog'liq ravishda ma'lum qoida bo'yicha o'zgartirish jarayoni.

Maqsadli dastur

ing. - target code

rus. - целевая программа

Muayyan maqsad (vazifa) ga erishishga yo'naltirilgan, muddatlar, bajaruvchilar, resurslar tomondan o'zaro muvofiqlash-tirilgan, bajariladigan tadbirlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) majmui.

Maqsadli katalog

ing. - destination directory

rus. - целевой каталог

Fayllardan nusxa ko'chiriladigan kataiog

Maqsadli til

ing. - target language

rus. - целевой язык

Dasturning boshlang'ich matni translyatsiya qilinadigan yoki assemblanadigan til. Boshqa dasturlash tili yoki mikrokontrollerdan superkompyutergacha bo'lgan har qanday protsessorning mashina tili maqsadli til bo'lishi mumkin.

Markalangan badiiy pochta

konverti (varaqqhasi)

ing. - artistically marked postal envelope (card)

rus. - художественный маркированный почтовый конверт (карточка)

Bosmaxona usulida pochta markasi tasviri va badiiy illyustratsiya tushirilgan standart pochta konverti (standart pochta varaqqhasi).

Markalangan pochta konverti

(varaqqhasi)

ing. - marked postal envelope (card)

rus. - маркированный почтовый конверт (карточка)

Bosmaxona usulida pochta markasi tasviri tushirilgan standart pochta konverti (standart pochta varaqqhasi).

Markalar preyskuranti

ing. - price-current stamp

rus. - преysкурaнт марок

Kolleksion pochta markalari va bloklari uchun narxlar ma'lumotnomasi.

Markali varaq

ing. - stamp sheet

rus. - марочный лист

Perforatsiyalangan yoki perforatsiyalanmagan qog'ozning bir varag'ida chiqariladigan ikkittadan ortiq pochta markasining har qanday kombinatsiyasi.

Markaz

ing. - center

rus. - центр

Matn yoki tasvirlarni tekislash variantlaridan biri. Bunda satrlar sahifa yoki yacheyka markazi bo'yicha gorizonta tarzda tekislanadi.

Markaziy davlat boshqaruvi organlari

ing. - government body

rus. - центральные органы

государственного управления

Davlat hokimiyatining yuqori pog'onasidagi, o'zining vakolati doirasida mustaqil davlatning butun hududida davlat boshqaruvi amalga oshirishga vakolati bo'lgan organlar.

Markaziy protsessor

ing. - central processing unit

rus. - центральный процессор

Kompyuterning, hisoblashlarni, komandalarni bajaradigan va kompyuterning qolgan qismlari o'rtasida axborot almashinuvini amalga oshiradigan elementi. Markaziy protsessor boshqaruvchi va bajaruvchi qurilmalarini o'z ichiga oladi, kompyuter barcha qurilmalarning ishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi, arifmetik va mantiqiy axborot jarayonlarini bajaradi.

Markaziy zona

ing. - picture safe (time safe)

rus. - центрoзона

Televizion kadming chetlari bo'yicha yo'qotishlar miqdoridan qat'i nazar, barcha televizion qabul qilgichlarda tiklanadigan qismi.

Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi

ing. - centralized database

rus. - централизованная база данных

Tarkibi yagona axborot massivi ko'rinishida bitta elektron hisoblash mashinasidagi bitta yoki bir nechta tashuvchida joylashtirilgan ma'lumotlar bazasi.

Markazlashtirilgan sinxronlash

ing. - centralized synchronization

rus. - централизованная синхронизация

Bir nechta televizion signal manbalari chiqaradigan signallarning chastota va fazasini bitta (markaziy) manba ishlab chiqaradigan tayanch signalling chastota va fazasiga sozlash orqali televizion sinxronlash.

Markazlashtirilgan tarmoq

ing. - centralized network

rus. - централизованная сеть

Boshqarilishi, tarmoqning barcha resurslari tegishli bo'lgan yagona serverdan amalga oshiriladigan kompyuter tarmog'i.

Markazlashtirilgan tarzda boshqariladigan tarmoq xavfsizlik kontrolleri

ing. - centralized security controller
rus. - контроллер безопасности сети с централизованным управлением
Tarmoq xavfsizligini ta'minlash usuli, bunda asosiy xavfsizlik funksiyalari tarmoqning bitta uzulida (yacheyskasida) – markaziy kontrollerida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilmagan (bir rangdagi) tarmoq
ing. - decentralized (peer-to-peer) network
rus. - децентрализованная (одноранговая) сеть

Lokal hisoblash tarmog'i, unda boshqarish funksiyasi navbati bilan bir ishchi stansiya-dan ajratilgan serverlarga ega bo'lmagan boshqa ishchi stansiyaga uzatiladi.

Markazlashtirilmagan qayta ishlash
ing. - decentralized processing
rus. - децентрализованная обработка
Qayta ishlaydigan uzellari turli yerda joylashgan, ular o'rtasidagi ma'lumotlar almashinish trafik hajmi bilan cheklangan kompyuter tizimi.

Marker
ing. - token
rus. - маркер

1. Elektron mazmun tashuvchi.
2. Aniqlanadigan so'zlarni, masalan, tilning xizmatga oid so'zlarini, konstantalarni va sh.k., taqdim etish uchun mo'ljallangan qisqa kod.

Marker-kanal
ing. - perch channel
rus. - маркерный канал (Perch канал)
WCDMA tizimidagi, mobil stansiya tomonidan tayanch stansiyaning aniqlashda foydalaniladigan kanal. Bu kanalda, vaqt bo'yicha uchta signal multipleksorlangan, ya'ni umumiy pilot signal, mantiqiy kanallar to'g'risidagi ma'lumotlar va Gold kodli ketma-ketliklari.

Markerni uzatish, markerli halqa
ing. - token, token ring
rus. - передача маркера, маркерное кольцо
Halqali topologiya tarmog'idagi kommunikatsiya usuli, bunda markerlar deb ataladigan maxsus xabarlar tizimda doimo aylanadi.

Markerning sirkulyatsiya vaqti
ing. - token rotation time
rus. - время циркуляции маркера
Halqa tuzilmali hamda markerli kirishga ega tarmoqda markerning aloqa bog'lanishiga kelishining ikki ketma-ket onlari o'rtasidagi vaqt.

Marketing
ing. - marketing
rus. - маркетинг
Mahsulot yoki xizmatlarni sotish bilan bog'liq jamiyat faoliyati. Marketingni o'tkazish uchun maxsus axborot tizimlari yaratiladi. Ularning har biri mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan axborotni yaratish, tahlil qilish va tarqatishga qaratilgan jami uslub va tartiblardan iborat. Marketingni o'tkazishda ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni uzatish uslublari va vositalari, amaliy dasturlar majmuidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bular axborotni to'plash, saqlash, olingan ma'lumotlarga statistik qayta ishlash, kalendar rejalashtirish va h.k.larni ta'minlaydi.

Marshrutizator
ing. - router
rus. - маршрутизатор
1. Bir nechta lokal tarmoqni bitta tarmoqqa birlashtiruvchi va ma'lumotlarni bir tarmoqdan, paketlarni filtrlaydigan va tarmoqni kerak bo'lmagan paketlardan muhofaza qiladigan, boshqa tarmoqqa uzatishini ta'minlaydigan qurilma.
Izoh – Marshrutizator uchinchi (tarmoq) OSI catbda joylashadi va paketlarni uzatishning bir nechta yo'llaridan birini tanlashni ta'minlaydi.
2. Bir nechta tarmoq trafiginu uzatish yo'llaridan birini tanlash to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish uchun javob beruvchi tizim. Bu vazifani bajarish uchun tarmoq to'g'risidagi axborot va marshrutlash metrikasi («routing metrics») deb nomlanuvchi, bir

necha mezonlar asosida eng yaxshi yo'lni tanlash algoritmlarini o'z ichiga oluvchi marshrutlash protokollaridan foydalaniladi.

3. Tarmoq trafigi yo'naldirilishi kerak bo'lgan optimal yo'lni tanlash uchun, bir yoki bir necha metrikadan foydalanadigan, OSI modelining tarmoq sathida ishlaydigan qurilma. Marshrutizatorlar paketlarni bir tarmoqdan boshqasiga, marshrutli axborotni yangilash paketlaridagi mavjud tarmoq sathi axborotlariga tayangan holda, qayta yo'llaydi.

Marshrutlash

ing. - routing

rus. - маршрутизация

1. Axborot manbadan qabul qilgichga uzatiladigan uzatish traktarlari va tarmoq uzellarning ketma-ketligini tanlash.

2. Xabarlarni uzatish uchun optimal yo'lni tanlash jarayoni.

3. Bitta yoki bir necha tarmoq orqali paketni uzatishning optimal yo'li (marshruti) ni tanlash jarayoni. Barcha tarmoq uchun markazlashgan tarzda yoki bir-biridan mustaqil ravishda tarmoqning turli uzellarida hisoblanadigan taqsimlangan usulda shakllanishi mumkin bo'lgan doimiy (tizimning ish boshlashidan oldin hisoblanadigan) yoki dinamik marshrut jadvallari asosida amalga oshiriladi. Marshrutlash usullari vektorlar uzunligi, qisqa yo'lni afzal ko'ruvchi algoritmlaridan, shuningdek, turli tarmoqlarda qo'llaniladigan boshqa usullar va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan. Bu usullar, algoritmlar va texnologiyalar marshrutlash protokollaridan foydalanib amalga oshiriladi.

4. Oluvchining xost-mashinasigacha bo'lgan yo'lni belgilash jarayoni. Oluvchining xost-mashinasiga yetgunga qadar, paket o'tishi kerak bo'lgan potensial oraliq uzellar soni katta bo'lishi tufayli, yirik tarmoqlardagi marshrutlash murakkab operatsiyani o'zida aks ettiradi.

Marshrutlash jadvali

ing. - routing table

rus. - таблица маршрутизации

1. Paketlar yoki xabarlar kommutatsiyasi bilan tarmoq uzeli bog'langan va har bir adresat uchun optimal chiqish kanalini ko'rsatuvchi jadval; bir necha chiqish kanallari ularning afzalliklari tartibida ko'rsatilishi mumkin.

2. Marshrutizatorlarda yoki tarmoqlararo birlikda ishlash qurilmasida tarmoqlarga marshrutlar aniq saqlanadigan jadval, ayrim hollarda, shunday marshrutlar uchun metrikalar yoziladi.

Marshrutlash jadvallari protokoli

ing. - routing table protocol (RTP)

rus. - протокол таблиц маршрутизации

VINES arxitekturasi uchun RIP protokoli asoslangan marshrutlash protokoli. Tarmoq topologiyasi to'g'risidagi axborotni tarqatadi va VINES-serverlarga qo'shni mijoz serverlar va marshrutizatorlarni topishga yordam beradi. Marshrutlash metrikasi sifatida kechikish kattaligidan foydalaniladi.

Marshrutlash jadvallari boshqarish protokoli

ing. - routing table

maintenace protocol (RTMP)

rus. - протокол управления

таблицами маршрутизации

Apple Computer kompaniyasi ishlab chiqqan axborotlarni marshrutlash protokoli. Bu protokol Apple Talk tarmog'idagi ixtiyoriy jo'natuvchidan ixtiyoriy oluvchigacha deyatagramma marshrutlarini o'tkazish uchun talab qilinadigan marshrutli axborotni boshqaradi. RTMP protokolidan foydalanib, marshrutizatorlar topologiyadagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun marshrutlash jadvallaridagi ma'lumotlarni dinamik boshqaradi.

Marshrutlash protokoli

ing. - routing protocol

rus. - протокол маршрутизации

Berilgan jo'natuvchi va oluvchi uchun optimal marshrutni tanlash usulini belgilaydigan va marshrut tanlangandan so'ng xabarlarni yetkazish to'g'riligini ta'minlaydigan protokol. Odatda, marshrutlash protokollari marshrutizatorlarning o'zaro harakati orqali amalga oshiriladi. Marshrutlash protokollariga IGRP, OSPF va RIP protokollari misol bo'ladi.

Marshrutlash serveri

ing. - route server

rus. - сервер маршрутизации

Xabarlar qabul qilinishini va ularning eng

samarali yo'llar orqali adresatga tez yetkazib berilishini amalga oshiradigan server.

Marshrutlashni boshqarish

ing. - routing control

rus. - управление маршрутизацией

Chaqiruvni yoki paketni adresatga yetkazishi mumkin bo'lgan marshrutni aniqlash jarayoni.

Marshrutli axborot protokoli

ing. - routing information protocol (RIP)

rus. - протокол маршрутной информации
Internetda keng qo'llaniladigan ichki shlyuzlar protokoli. Marshrutlash metrikasi sifatida bu protokol o'tishlar sonidan foydalanadi.

Maskarad

ing. - masquerade

rus. - маскарад

1. Ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish uchun biror-bir mantiqiy obyektning o'zini boshqa mantiqiy obyekt qilib ko'rsatishga urinishi.

2. Tegishli harakatlarni amalga oshirishga vakolatlari bo'lmagan va o'zini bu harakatlarni ruxsat berilgan boshqa shaxs qilib ko'rsatadigan subyekt tomonidan, tizimdan, obyektidan erkin foydalanishga urinish yoki boshqa harakatlarning bajarilishi.

3. Qandaydir qonuniy foydalanuvchining ishini imitatsiya qilish yo'li bilan tarmoqqa ruxsat etilmagan tarzda kirishga urinish.

Maskirator

ing. - maskirator

rus. - маскиратор

Axborotni o'zgartirishning matematik algoritmini amalga oshiradigan, maxfiy kalitdan foydalanmaydigan yoki uni xabar bilan birga uzatadigan (saqlaydigan) axborotni muhofaza qilish vositasi.

Maslahat beruvchi axborot

ing. - help information

rus. - консультативная информация

Tizimda to'g'ri ishlash uchun foydalanuvchi tomonidan so'raladigan ma'lumot.

Masofadan boshqarish dasturi

ing. - remote control program

rus. - программа дистанционного управления

Bir kompyuterning boshqa kompyuter bilan aloqasini ta'minlaydigan va unda amaliy dasturni ishga tushiradigan dastur. Kompyuterlar tarmoqqa ulangan bo'lishi kerak.

Masofadan foydalana olish uchun ulanish

ing. - dial-up connection

rus. - подключение удалённого доступа
Odatdagi kommutatsiyalanadigan telefon aloqa liniyasi orqali modem yordamida tarmoqqa ulanish.

Masofadan tarqatiladigan

dasturiy ta'minot

ing. - telesoftware

rus. - дистанционное

программное обеспечение

Internet hamda teletex, viewdata va shu kabi boshqa telematik xizmatlar orqali tarqatiladigan dasturiy ta'minot.

Masofadan turib foydalanish

ing. - remote access

rus. - удалённый доступ

Kompyuter tarmog'ining elementlari o'rta-sida birgalikda ishlashning ucha variantini ta'minlaydigan foydalanish: masofadan boshqarish – olisdagi abonent va/yoki server dasturlarining ishga tushirilishini amalga oshirish imkonini beradi; tizimning uzoq muddatli xotirasidan foydalanish; elektron pochta rejimida ishlash.

Masofadan turib foydalanish xizmati

ing. - remote access service

rus. - служба удалённого доступа

1. Tarmoq foydalanuvchilariga ularda yetarli huquqi bo'lganida uzoqdan turib kompyuterdan foydalanish imkonini beruvchi va ularni boshqaruvchi Windows xizmati.
2. Mobil foydalanuvchilarni ulashda va hududiy jihatdan olisda joylashgan filiallar bilan aloqa o'rnatishda foydalaniladi. Shu bilan birga ular tarmoqning hamma imkoniyatlarini oladi (tizim administratorlari va mobil xizmatchilariga masofaviy ruxsatni ta'minlaydi, bu kommutatsiya liniyalaridan

printerlar, elektron pochta, SQL ma'lumotlar bazasini loyihalash va ishlatishda shaxsiy tarmoq orqali umumiy foydalanish imkonini beradi).

Masofadan zondlash yo'ldoshi

ing. - remote sensing satellite

rus. - спутник дистанционного зондирования

Aktiv yoki passiv datchiklardan foydalanib elektromagnit to'liqlarni qabul qilish yo'li bilan masofadan kuzatadigan yo'ldosh.

Masofadan o'qitish

ing. - online education

rus. - дистанционное образование

1. Masofadan o'qitish usullaridan foydalanish asosida aholining keng qatlamlariga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarining zamonaviy kompleksi.

2. Ta'lim xizmatlarini taqdim etadigan o'quv yurtidan geografik jihatdan otisda bo'lgan o'quvchilarga ta'lim olish imkonini beradigan vositalar va chora-tadbirlar majmui.

Massiv

ing. - massive

rus. - массив

Tuzilishi va foydalanish usuliga ko'ra bir turdagi elementlar to'plamini taqdim etish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar tuzilmasi.

Mass-media

ing. - mass media

rus. - масс-медиа

1. Davriy bosma nashr, radio-, tele- yoki videodastur, kinoxronika dasturi yoki ommaviy axborotni tarqatishning boshqa shakli.

2. Televizion, telefon, kompyuter va boshqa aloqa tarmoqlarini mujassamlovchi matbuot (gazetalar, jurnallar, kitoblar), radio, televideniye, kinematograf, tovush va tasvir yozuvlari, videomatin, telematin, reklama shchit va panellari, uy videomarkazlari.

Mastday

ing. - mustdie

rus. - мастдай

Microsoft Windows operatsion tizimlarining boshqa operatsion tizimlar fanatlari tomonidan kamsitib atalishi.

Master

ing. - master

rus. - мастер

Zamonaviy dasturlash va ma'lumotlarni boshqarish tizimlaridagi funktsiya. Foydalanuvchiga tegishli standart ishlanmalar to'plamini taqdim etadi. Qandaydir tizimda asosiy rolni bajaradigan qurilma (masalan, diskovod) yoki blok.

Mashtablash

ing. - zooming

rus. - масштабирование

Ekranda aks ettiriladigan butun grafik tasvirni yoki uning bir qismini kattalashtirish/kichraytirish.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, MChJ

ing. - Limited Liability Company, LLC

rus. - общество с ограниченной

ответственностью, ООО

Bitta yoki bir nechta jismoniy va/yoki yuridik shaxs tomonidan ta'sis qilingan, ustav kapitali ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati.

Izoh - Jamiyat qatnashchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar emaslar va jamiyatning ustav kapitalidagi o'zlariga tegishli bo'lgan ulushlar yoki aksiyalarning qiymati doirasida jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlarni xavfni ko'taradilar. Muomalaga aksiyalar chiqarmaydi.

Matematik mantiq

ing. - mathematical logic

rus. - математическая логика

Mantiq fani bo'limi. U matematika uslublari asosida rivojlantiriladi. Unga fikr (hukm) larni asoslash, isbotlar, mantiqiy xulosalar chiqarish kiradi. Buning uchun matematik mantiqda algebra uslublari va algoritmlar nazariyasi qo'llaniladi.

Matematik soprotsessor

ing. - mathematical coprocessor

rus. - математический сопроцессор

Asosiy markaziy protsessorga qo'shimcha integral sxema. Siljiydigan nuqta (vergul) shaklida taqdim etilgan sonlar bilan ishlaydigan komandalarni tez bajaradi. Soprotsessoridan foydalanish hisobiga shaxsiy kompyuterining ish tezligi 4-20 marta oshadi. Bunday yutuqqa nafaqat hisoblashga oid masalalarni hal qilishda, balki grafika

bilan ishlashda ham erishiladi. Matnlar bilan ishlashda soprotsessordan foydalanilmaydi.

Matn

ing. - text

rus. - Текст

Biror bir tildagi so'zlarning ketma-ketligi.

Matn fayli

ing. - text file

rus. - текстовый файл

Ko'rinmaydigan (bosilmaydigan) simbol-larni ichiga olmagan fayl. Matn redaktori tomonidan yaratiladi.

Matn maydoni

ing. - text box

rus. - текстовое поле

Muloqot darchasidagi axborot kiritish uchun mo'ljallangan maydon.

Matn redaktori

ing. - text editor

rus. - текстовый редактор

Matnlarni tuzish va ularni o'zgartirish uchun mo'ljallangan dastur.

Matnbop reklama

ing. - context online advertising

rus. - контекстная реклама

Mazmuni foydalanuvchining izlash tizimiga qilgan so'roviga bog'liq reklama. Shuningdek, Internet-resurslar kataloglari va turli sahifalarga tashrif buyuruvchilar uchun reklamaga nisbatan ham ishlatiladi. Bunday reklama uni izchil qidirayotganlarga ko'rsatilishi sababli, uning samaradorligi ham oddiy reklamaga nisbatan yuqoriroq.

Matnlarni qayta ishlash

ing. - word processing

rus. - обработка текстов

Matn protsessorlari yordamida matnli hujjatlar bilan ishlash.

Matnli raqamlar

ing. - textual numbers

rus. - текстовые числа

Ko'p xonali sonlarni raqamlar va matnlar kombinatsiyasi orqali ifodalash. Masalan, 3 trln. 42 mlrd. 24 mln. 325 ming.

Matnli rejim

ing. - character mode

rus. - текстовый режим

Aks ettirish rejimi, bunda monitor kursiv, ustki indeks kabi grafik tasvirlar va belgilarni emas, balki harflar, raqamlar va matnli belgilarni tasvirlaydi.

Matnli segment

ing. - text segment

rus. - текстовый сегмент

Matnning nusxa olishga, ko'chirishga yoki o'chirishga tayyorligi belgilangan qismi.

Matnli joylashtirish

ing. - wordwrap

rus. - укладка текста

Matnli chap va o'ng chegaralari orasida avtomatik ravishda to'g'rilash va oldingi satrga sig'magan so'zlarni keyingi satrlarga ko'chirish.

Matnli nutqiy kiritish tizimi

ing. - dictation system

rus. - система речевого ввода текста

Kompyuterga kiritiladigan nutqni (ovozdan) matnga aylantirish tizimi.

Matritsa

ing. - matrix

rus. - матрица

1. Har bir elementi, biri ustunni, boshqa biri berilgan element joylashgan satrni belgilaydigan ikkita indeks qiymatlari bilan manzillanadigan ma'lumotlarni tartiblashtirilgan tarzda joylashtirish.

2. Rangli televideniya matematik amali belgilaydigan koeffitsiyentlar jadvali, uning bajarilishi rang koordinatalarining o'zgarishiga olib keladi.

Matritsalar (rang bo'yicha)

ing. - matrixing (in colour television)

rus. - матрицирование (цветовое)

1. Asosiy ranglar signallarini va/yoki ayirmarang signallar, yorqinlik signali va bitta rang tasviriga mos keladigan ayirmarang signallarni vaznlab qo'shish.

2. Rang koordinatalarini hisoblash yo'li bilan yoki elektr, optik yoki boshqa vositalar yordamida o'zgartirish.

Matritsali blok

ing. - matrixer unit

rus. - матричный блок

Rang koordinatalarining o'zgartirilishi elektr, optik yoki boshqa vositalar yordamida bajariladigan qurilma.

Matritsali kommutator

ing. - matrix switch

rus. - матричный коммутатор

Har bir kirish kanali oldindan berilgan chiqish kanali bilan birlashtiriladigan kommutator.

Matritsali printer

ing. - dot matrix printer

rus. - матричный принтер

Belgi tasvirini chop etuvchi ignalar matritsasi va bo'yovchi tasma yordamida shakllantiruvchi printer.

Matritsali protsessor

ing. - array processor

rus. - матричный процессор

Ma'lumotlar jadvali matritsasi elementlarini parallel qayta ishlaydigan protsessor.

Matritsali videopanel

ing. - matrix video-panel

rus. - матричная видеопанель

Elektrodlarning matritsali tuzilmasiga ega yassi signal-yorug'lik o'zgartirgich.

Mavjud bo'lgan

ing. - exist

rus. - существующий

Mavjud bo'lgan fayl nomi bilan yangi fayl yaratilganda yuzaga keladigan vaziyat. Bunday vaziyatdan chiqishning birgina yo'li eski fayl nomini o'zgartirishdir.

Mavzu rejasi

ing. - syllabus

rus. - тематический план

Ma'lum davr ichida chiqarish rejalashtiriladigan, pochta markalari seriyasi va alohida pochta markalari, markalangan va filialliya mahsulotlari ro'yxati.

Maxfiy axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish

ing. - unauthorized access to

secret information

rus. - несанкционированный доступ к

секретной информации

Maxfiy ma'lumotlardan foydalana olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomondan maxfiy ma'lumotlarning olinishi.

Maxfiy axborotning buzilishi

ing. - secret information destruction

rus. - разрушение секретной информации

Texnik vositalarning nosozligi, dasturiy ta'minotning takomillashmaganligi va xatolari, xizmat ko'rsatuvchi personalning mas'uliyatsizligi, tabiiy ofatlar yoki jinoyatkorlar (buzg'unchilar) harakatlari natijasida, axborotning noqonuniy yoki qasddan o'zgartirilishi, buzilishi yoki yo'q qilinishi.

Maxfiy axborotning chiqib

ketishi (yo'qolishi)

ing. - secret information leaking

rus. - утечка секретной информации

Davlat va xizmat siri hisoblanadigan ma'lumotlarning, shu ma'lumotlar ishonib topshirilgan (bunday ma'lumotlar bo'lgan) tashkilot yoki shaxslar doirasidan tashqariga noqonuniy tarqatilishi.

Maxfiy bo'lmagan axborot

ing. - open information

rus. - несекретная информация

Davlat, xizmat sirini, tijorat bilan bog'liq sirni va shaxsiy sirni o'zida ifodalamaydigan, ochiq matbuotda e'lon qilinishi mumkin bo'lgan axborot.

Izoh - Maxfiy bo'lmagan axborot oshkor bo'lishdan himoyalanamaydi, chunki unda hech qanday sir bo'lmaydi, biroq bu axborot (biblioteka) hujjatlari yoki kompyuterning ma'lumotlar banki shaklida taqdim etilgan holda, yaxlitligi buzilishidan va blokirovkalanishdan himoyalaniishi kerak.

Maxfiy ish

ing. - secret work

rus. - секретная работа

Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, loyiha, texnologik, qidiruv va boshqa ishlar (shu jumladan, talabalar, diplomniklar, dissertantlarning ishlari), shuningdek,

maxfiylashtirish lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatida ko'zda tutilgan har qanday ma'lumot.

Maxfiy kalit

ing. - private key

rus. - секретный ключ

1. Mazkur kalit yordamida kriptografik o'zgartirishlarni shakllantirgan shaxsga tegishli va ma'lum bo'lgan kriptografik kalit.

2. Bir yoki bir nechta ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan va raqibga ma'lum bo'lmagan kriptografik protokol (kriptografik sxema)ning maxsus parametri. Raqibda maxfiy kalitning qiymati to'g'risidagi axborotning yo'qligi – ko'plab kriptografik protokollar (kriptografik sxemalar) barqarorligining zarur sharti.

3. Ushbu simmetrik shifrtizim kalitlaridan foydalana olish yoki ushbu asimmetrik shifrtizimning ba'zi funksiyalaridan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslardan sir saqlanadigan kalit.

Maxfiy kalitli kriptotizim

ing. - private key cryptosystem

rus. - криптосистема с секретным ключом
Kriptografik tizim, bunda aynan bitta kriptografik kalitdan axborotni shifrlash va ras-shifrovka qilish uchun foydalaniladi. Bunday kriptotizimlar bir kalitli, simmetrik, oddiy, ikki tomonlama yoki klassik deb ham ataladi. Maxfiy kalitli kriptografik tizimlar blokli va oqimli kriptotizimlarga bo'linadi.

Maxfiy ma'lumotlar

ing. - secret data

rus. - секретные данные

Ma'lum bir maxfiylik grifi (darajasi) berilgan yopiq ma'lumotlar.

Maxfiy-rejimli organ (MRO)

ing. - regime and secret authority (RSA)

rus. - режимно-секретный орган (PCO)

Maxfiylik rejimini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi hamda maxfiy ishlar yuritiladigan tashkilotlarda unga rioya qilinishini muntazam tekshirib turadigan mustaqil tashkiliy bo'linma.

Maxfiylashtirilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati

ing. - list of information to be classified as secret

rus. - перечень сведений,

подлежащих засекречиванию

Belgilangan tartibda tasdiqlangan, tarqatilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning maxfiylik darajasini belgilovchi hujjat.

Maxfiylashtirish apparaturasi

ing. - ciphony equipment

rus. - аппаратура засекречивания

Telefon va telegraf so'zlashuvlarini (xabarlarini) avtomatik ravishda shifrlash va deshifrlash uchun mo'ljallangan maxsus texnik qurilmalar.

Maxfiylik grifi

ing. - security classification

rus. - гриф секретности

1. Berilgan muayyan holatda ma'lumotlar yoki axborotni ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan aniq belgilangan daraja. Masalan, «mutlaqo maxfiy», «maxfiy», «konfidensial».

2. Hujjat yoki nashrdagi, shu hujjatdan foydalanishning muhim tartibini belgilovchi yozuv (tamg'a).

3. Axborot tashuvchidagi, shu tashuvchida saqlanadigan axborotning konfidensiallik darajasini tasdiqlovchi maxsus belgi.

4. Tashuvchining o'ziga va/yoki unga ilova qilinadigan hujjatlarga qo'yiladigan, ularning eltuvchilarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning maxfiylik darajasini tasdiqlovchi rekvizitlar.

Maxfiylik kaliti

ing. - privacy key

rus. - ключ секретности

Foydalanuvchining yoki dasturning resurslar va ma'lumotlar bilan ishlash huquqlarini aniqlaydigan kalit. Maxfiylik kaliti autentifikatsiyada ishlatilib, parol, ya'ni, maxfiy so'z turlaridan biridir.

Maxsus effektlar generatori

ing. - generator of special effects

rus. - генератор спецэффектов

Televizion tasvirlarda maxsus effektlarni yaratish uchun mo'ljallangan uskuna.

Maxsus foydalanish ilovalari

uchun mobil aloqaning

takomillashtirilgan mantig'i

ing. - customized applications mobile

enhanced logic (CAMEL)

rus. - усовершенствованная логика

мобильной связи для специальных

пользовательских приложений

Intellektual tarmoq prinsiplariga asoslangan, aniq foydalanuvchilarning talablariga moslashtirilgan mobil aloqa tarmoqlarini boshqarish texnologiyasi. GSM standartining amaldagi MAP protokoli negizida, operatorlarga yangi xizmatlarni GSM doirasida, ularning standartlashtirilishini talab qilmagan holda, aniqlash va kiritish imkonini beradigan tarmoq infratuzilmasi tuzilishini ta'minlaydi.

Maxsus imkoniyatlar

ing. - accessibility

rus. - специальные возможности

Ba'zi bir operatsion tizimlarning imkoniyati cheklangan kishilarning ishini onsonlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratishga mo'ljallangan. Bularning qatoriga ekran maydonini kattalashtiruvchi ekran lupasini, tasvining kontrastlilikini oshirish, ekran klaviaturasi va klaviatura yordamida «sichqoncha»ni boshqarish imkoniyatlarini kiritish mumkin.

Maxsus kanallar

ing. - dedicated channels

rus. - спецканалы

Kabelli televideniye tarmoqlarida foydalaniladigan, 110 MHz dan 174 MHz gacha hamda 230 MHz dan 294 MHz gacha chastotalar polosasidagi chastota kanallari.

Maxsus mobil radioaloqa

ing. - specialized mobile radio (SMR)

rus. - специальная мобильная радиосвязь
220 MHz dan 900 MHz gacha chastotalar diapazonida ishlaydigan va mobil obyektlari

bo'lgan tarmoqlarda dispetcherlik aloqasini tashkil etish uchun mo'ljallangan harakatdagi radioaloqaning ixtisoslashgan xizmatlari: tez yordam, o't o'chirish, avariya xizmatlari va b.lar. Axborot almashinuvi, asosan, alohida radiostansiyalarni emas, balki abonentlar guruhini bir vaqtda chaqirish imkonini beradigan yarim dupleks rejimda amalga oshiriladi.

Maxsus muhofaza belgisi

ing. - special security mark

rus. - специальный защитный знак

Belgining o'zini haqiqiylikini va yaxlitligini aniqlash yoki xarakterli alomatlariga mos kelishlik mezonlari bo'yicha, «Maxsus muhofaza belgisi – taglik» kompozitsiyasini aniqlash yo'li bilan muhofaza qilinadigan obyektlardan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishni nazorat qilish uchun mo'ljallangan, belgilangan tartibda sertifikatlangan va ro'yxatga olingan buyum.

Maxsus simvol

ing. - special character

rus. - специальный символ

Biror bir sanoq tizimi yoki A-Ya alifbosiga kirmaydigan belgi. Unga ~!@##\$%&*0_+ va boshqa belgilar misol bo'la oladi.

Maxsus tadqiqotlar

ing. - special study

rus. - специальные исследования

1. Axborotni qayta ishlash texnik vositalarini ekspluatatsiya qilish obyekti axborotni muhofaza qilish tizimining standartlar va normativ hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlash. shuningdek, muhofaza qilish tizimini talab qilinadigan darajaga cha yetkazish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida olib boriladigan tadqiqotlar.
2. Nazorat-o'lchash apparaturasidan foydalanib, muhofaza qilinadigan axborot asosiy va yordamchi texnik vositalar hamda tizimlardan chiqib ketishi mumkin bo'lgan texnik kanallarni aniqlash va axborotni muhofaza qilishning shu mazmundagi normativ hujjatlar talablariga mos kelishini baholash bo'yicha faoliyat.

Maxsus xotira shtempeli**ing.** - memorable special postmark**rus.** - памятный специальный штемпель
Muhim davlat voqealariga, tarixiy va xotira joylari hamda sanalar, ko'rgazmalarga va hokazolarga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda pochta markalarini maxsus hisobdan chiqarish uchun qo'llaniladigan shtempel.**Maxsus o'rnatiladigan elektron qurilma****ing.** - special electronic inset device**rus.** - специальное закладное электронное устройство
Zarur vaqt onida axborotning chiqib ketishini, uning yaxlitligi buzilishini yoki blokirovka qilinishini ta'minlash uchun, ruxsatsiz va yashirin holda texnik vositada o'rnatilgan elektron qurilma.**Maxsus chiqarilgan****(kommemorativ) marka****ing.** - special issue stamp (commemorative)**rus.** - марка специального выпуска (коммеморативная)

Tarixiy sanalar, yubileylar yoki biror-bir voqealarga, mavzuga bag'ishlab bosib chiqariladigan pochta markasi.

Maxsuslashtirilgan yo'ldosh**ing.** - dedicated satellite**rus.** - специализированный спутник

Foydalanuvchilarning muayyan kontingenti uchun xizmat ko'rsatadigan yo'ldosh.

Mayda donador pigmentli lyuminoforlar**ing.** - luminophors with small grain pigment**rus.** - люминофоры с

мелкозернистым пигментом

LG televizorlarida foydalaniladigan mayda donador pigmentli lyuminoforlar, ular ko'rish sifati yaxshilanishi uchun tashqi yorug'likni yutadi, bunda lyuminessensiyaning yuqori samaradorligiga erishiladi. Pigmentning mayda donadorligi yorqinlik va kontrastlilik oshishiga ko'maklashadi hamda ranglarning aks ettirilishi yaxshilanishiga yordam beradi.

Mayda paket**ing.** - small packet**rus.** - мелкий пакет

Joylanmasi, o'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarida belgilangan, tovarlarning namunalari, katta bo'lmagan predmetlar solingan pochta jo'natmasining turi.

Maydon**ing.** - margin**rus.** - поле

1. Ma'lumotlar bazasidagi eng kichik ahamiyatli yozuv elementi (relyatsion ma'lumotlar bazasida maydon ma'lumotlar ustuni deb ham ataladi). Har bir yozuv maydoni atributlar sifatida turga (sonli, simvolli, mantiqiy, sana maydoniga va sh.k.) va maksimal uzunlikka ega bo'ladi.

2. Ma'lumotlar tuzilmasining nomlangan elementi.

Maydon bo'yicha diskret-kosinus**o'zgartirish****ing.** - field discrete cosine transform**rus.** - полевоe дискретно-косинусное преобразование

Satr tashlab olingan tasvirlarni qayta ishlash usuli, bunda bitta kadrning ikki maydoni mustaqil tasvir sifatida alohida kodlanadi.

Maydon ichra (kadr ichra) kodlash**ing.** - intrafield (intraframe) coding**rus.** - внутривидовое

(внутрикадровое) кодирование

Raqamli oqimni qisqartirish maqsadida bir maydon tasvirining qo'shni sanoqlari o'rtasidagi fazoviy korrelyatsiyadan foydalanishga asoslangan kodlash.

Maydon (kadr) yoyish**ing.** - field (frame) scanning**rus.** - полевая (кадровая) развертка

Vertikal yo'nalishda maydonlar chastotasi bilan (satma-satr yoyishda kadrlar chastotasi bilan) yoyish.

(Maydonlar, kadrlar) satrlari davri**ing.** - period of lines (fields, frames)**rus.** - период строк (полей, кадров)

(Maydon, kadr) bitta satrini yoyish davomiyligi.

Maydon (televideniya)

ing. - margin (in television)

rus. - поле (в телевидении)

Navbatma-navbat o'tadigan satrlarning bir-biriga nisbatan teng turuvchi guruhni o'z ichiga olgan televizion kadrlarning tarkibiy qismi. Bu satrlar guruhlarining o'tish chastotasi kadr uchun qisqa.

Izoh - Ayrim ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda «frame» atamasi televizion kadrlarning tarkibiy qismini, ya'ni yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra «maydon» ni belgilashda qo'llaniladi.

Maydonlararo kodlash

ing. - interfield coding

rus. - межполевое кодирование

Taxminlash uchun qiymat oldingi, joriy va keyingi maydonlardan olinadigan taxminlash bilan kodlash.

Maydonlarni o'chirish intervalidagi telematn

ing. - field blanking teletext

rus. - телетекст в интервале

гашения полей

Axborot oddiy televizion tasvir bilan bir vaqtda, asosan, maydonlarni o'chirish intervalining bir qismi davomida uzatildigan telematn.

Maydonlarning ketma-ket almashinishi

ing. - sequential alternation of fields

rus. - последовательное

чередование полей

Ayrim asosiy ranglarning ketma-ket keladigan yoyish maydonlariga o'tishi.

Misollar - Maydonlarni ketma-ket almashlash bilan yorug'likni signalga o'zgartiruvchi qurilma, maydonlarni almashlash bilan tiklovchi qurilma, maydonlar ketma-ket almashinadigan tizim, maydonlarni ketma-ket almashlash bilan uzatish.

Mayning

ing. - mining

rus. - майнинг

1. Kriptovalyuta ko'rinishida mukofot olish maqsadida kriptovalyutani yaratish va/yoki validatsiyalashga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati.

2. Turli kriptovalyutalarda, xususan Bitkoin'da komission yig'imgilar va yangi bir-

liklar shaklida mukofot olish imkoniyati bilan, taqsimlangan platformani qo'llab-quvvatlash va yangi bloklarni yaratish bo'yicha faoliyat.

Mazmuni boshqarish tizimi

ing. - content management system

rus. - система управления содержанием

Ma'lumotlarni, ulardan Internet orqali foydalanish mumkin bo'lishi uchun (jumladan, ma'lumotlarni sayt sahifalari bo'yicha joylashtirish va kerakli formatga keltirish) rasmiylashtiradigan dasturiy tizim.

Mashina grafikasi

ing. - machine graphics

rus. - машинная графика

Qar.: Kompyuter grafikasi.

Mashina identifikatori

ing. - machine-identification

rus. - идентификатор машины

Raqamli kod, uning asosida bajariladigan dastur kompyuter va dastur ishlaydigan boshqa qurilmalar xarakteristikalarining muvofiqligini aniqlaydi.

Mashina kodi

ing. - machine code

rus. - машинный код

Dastlabki matnni kompilyatsiya qilish va uni ishga tushirish uchun tayyorlash bosqichlaridan o'tgan mashina tilidagi dastur. Mashina kodi mashina komandalari ketma-ketligidan iborat bo'lib, ular protsessor tomonidan tezkor yoki doimiy xotiradan olib o'qiladi va bajariladi.

Mashina kodlarida dasturlash

ing. - absolute coding

rus. - программирование в

машинных кодах

Dastlabki elektron hisoblash mashinalari uchun ommaviy bo'lgan, lekin hozirda muomaladan chiqib ketgan mashina komandalari va absolyut manzillardan foydalanib dasturlash usuli. Bunday dastur oldindan translyatsiya va komponovka qilinmasdan, bevosita protsessor tomonidan bajarilishi mumkin. Ba'zan oddiy mikroprotsessorlarda ichki qurilgan tizimlarni sozlashda qo'llaniladi.

Mashina komandasi

ing. - machine instruction

rus. - машинная команда

Mikroprotessor bajarishi mumkin bo'lgan mashina kodi operatori (komandasi).

Mashina manzili

ing. - machine address

rus. - машинный адрес

Hisoblash tizimi qurilmasi yoki xotira yacheykasi baytini qat'iy identifikatsiyalaydigan, raqamli kod ko'rinishidagi manzil.

Mashina sikli

ing. - machine cycle

rus. - машинный цикл

Har bir mashina komandasini bajarish sikli. Elementar operatsiyalar to'plamidan: komandani tanlash, dekodlash, bajarish va natijani yodda saqlashdan iborat.

Mashina, tarmoq stansiyasi

ing. - machine

rus. - машина, сетевая станция

Kompyuter so'zi uchun mo'ljallangan umumiy atama; lokal tarmoqdagi ishchi stansiya; ba'zi funksiya yoki vazifani bajaradigan qurilma.

Mashina tarjimas

ing. - automatic translation

rus. - машинный перевод

Matn yoki nutqni, kompyuterdan foydalanib bir tabiiy tildan boshqa bir tabiiy tilga o'zgartirish. Tarjima jarayoni to'la avtomatlashtiriladigan dasturni yaratish bo'yicha ishlar o'nlab yillardan buyon olib borilmoqda. Texnik matnlarni tarjima qilishda eng yaxshi natijaga erishilmoqda, lekin olingan tarjimani tekshirish va tuzatishda odamning ishtiroki baribir taqozo qilinmoqda. Bu muammoni hal qilish yuzasidan ko'plab yondashuvlar mavjud; shunday yondashuvlardan biri IBM firmasi tomonidan taklif qilingan: natijalar solishtiriladigan bir tildan boshqa tilga va aksincha, tarjima qiladigan, mustaqil ravishda o'rgatadigan tizim yaratilmoqda.

Mashina tili

ing. - machine language

rus. - машинный язык

Konstruksiyalari bevosita apparatura to-

monidan talqin qilinadigan til. Aynan shu tilga yuqori daraja tillarida (Paskal, Basik) yozilgan dasturlar pirovardida o'tkaziladi (translyatsiya qilinadi).

Mashina o'qiy oladigan tashuvchi

ing. - machine-readable storage device

rus. - машиночитаемый носитель

Texnik vositalar (kompyuter) tomonidan ma'lumotlarni bevosita yozish va o'qish uchun mos tashuvchi.

Mashinada o'qiladigan format

ing. - machine-readable format

rus. - машиночитаемый формат

Ma'lumotlarni taqdim etishning, ularning dasturiy qayta ishlanishini ta'minlaydigan elektron formati.

Mashinada o'qiladigan CSV formati

ing. - machine readable CSV format

rus. - машиночитаемый формат CSV

Jadval ma'lumotlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan matli format. Faylning har bir satri - jadvalning bitta satridir. Ayrim ustunlarning qiymatlari bir-biridan tizimda belgilangan ajratuvchi belgi - (,), nuqtali vergul - (;) yoki tabulyatsiya belgisi bilan ajratiladi.

Mashinada o'qiladigan HTML formati

ing. - machine-readable HTML format

rus. - машиночитаемый формат HTML

Ma'lumotlarni HTML tili elementlaridan foydalanib semantik belgilash usullari mavjui. Standart funktsionallik saqlangan holda, HTML hujjatga kiritilgan atributiv axborotni avtomatik tarzda o'qish (hujjatni brauzerdan foydalanib vizual ko'rib chiqish) imkoniyatini ta'minlaydi.

Mashinada o'qiladigan JSON formati

ing. - machine-readable JSON format

rus. - машиночитаемый формат JSON

Ma'lumotlar almashinishning, Java Script ga asoslangan va odatda, aynan shu til bilan foydalaniladigan matnli formati.

Mashinada o'qiladigan XML formati

ing. - machine-readable XML format

rus. - машиночитаемый формат XML

Butunjahon «o'rgimchak to'ri» (W3C)

Konsorsiumi tomonidan tavsiya etilgan belgilash tili. XML spetsifikatsiyasi XML hujjatlarni, qisman XML protsessorlar (XML hujjatlarni o'qiydigan va ularning mazmunidan foydalanishni ta'minlaydigan dasturlar) o'zini qanday tutishini tavsiflaydi.

Mashinaga bog'liq bo'lmagan til
ing. - machine-independent
rus. - машинно-независимый язык
Har xil kompyuterlarda foydalanish mumkin bo'lgan dastur yoki qurilma.

Mashinaga bog'liq til
ing. - computer-dependent language
rus. - машинно-зависимый язык
Boshqa turdagi muayyan elektron hisoblash mashinasining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanadigan dasturlash tili.

Mashinaga yo'naltirilgan til
ing. - machine-oriented
rus. - машинно-ориентированный язык
Muayyan turdagi kompyuter va/yoki protsessor arxitekturasi (tuzilishining) o'ziga xos xususiyatlaridan maxsus tarzda foydalaniladigan dasturlash tili, dastur yoki qurilma.

Mashinalar ish faoiyatini baholash bo'yicha konsorsium
ing. - system performance evaluation corporation (SPEC)
rus. - консорциум по оценке производительности машин
Notijorat tashkilot bo'lib, kompyuterlar uchun «adolatli, betaraf, xolis va mazmunli» standartlarni tuzishga intiladi. Standartlarning asosiy maqsadi «hayotiy» vaziyatlarni testdan o'tkazishdir. Masalan, SPECweb2005 – veb-server unumdorligini turli xildagi parallel NTTR-so'rovlarni yaratish yo'li bilan testdan o'tkazish.

Mashinaning to'liq domen nomi
ing. - fully qualified domain name
rus. - полное доменное имя машины
Internetdagi tarmoq uzellari nomlari tizimi. Noyob nom domen-soha nomidan va mashinaning o'z nomidan iborat bo'ladi.

Mashinaviy intellekt
ing. - machine intelligence
rus. - машинный интеллект
Qar.: Sun'iy intellekt.

Mashinaviy so'zi
ing. - machine word
rus. - машинное слово
Protsessor tanlaydigan yoki bir marta murojaat qilish (foydalanish) davomida yaxlit guruh sifatida shu protsessor qayta ishlaydigan, tezkor xotira razryadlarining guruhi. Mashina so'zining uzunligi odatda, 16, 32, 64 razryaddan iborat bo'ladi.

Ma'lum ochiq xabar bilan qilinadigan hujum
ing. - known-plaintext attack
rus. - атака с известным открытым сообщением
Jinoyatkor tizimga kira oladigan va unga uzatiladigan xabarning matni ma'lum bo'ladigan hujum turi. Jinoyatkor shifrlangan matnni yashirishga uringan holda, uzatiladigan xabar matnini dinamik tarzda o'zgartirishi mumkin.

Ma'lumot berish tizimi
ing. - help
rus. - справочная система
Amaliy dasturlar orqali foydalanuvchiga yordam sifatida taqdim etiladigan axborot.

Ma'lumotlar
ing. - data
rus. - данные
Raqam shaklida taqdim etilgan, telekommunikatsiyalar vositalari va ma'lumotlarni saqlash hamda ularni qayta ishlash vositalari bilan ishlov berish uchun yaroqli turli xildagi axborot (nutq, matn, grafik, tasvir, audio, video, va h.)

Ma'lumotlar agregati
ing. - data aggregate
rus. - агрегат данных
Yozuvga murojaat qilish uchun umumiy nomga ega bo'lgan, yozuv ichidagi ma'lumotlar elementlarining istalgan to'plami; ma'lumotlarning tarkibiy elementi.

Ma'lumotlar almashinish kanali

ing. - data communication channel

rus. - канал обмена данными

Tarmoqdagi kompyuterlar o'rtasida ma'lumotlarning almashinishi yuz beradigan texnik vositalar jami.

Ma'lumotlar almashuvi

ing. - data interchange

rus. - обмен данными

Funksional qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni ko'chirish. Bu ma'lumotlarni siljitishni va almashuvni kelishtirishni boshqarish qoidalarini to'plamiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar atributi

ing. - data attribute

rus. - атрибут данных

Kirish paytida nomi (semantikasi), formati, mumkin bo'lgan qiymatlar diapazoni va qiymatlar taqdimotini ko'rsatadigan ma'lumotlar elementi.

Ma'lumotlar banki

ing. - data bank

rus. - банк данных

Ma'lumotlarni markazlashtirilgan tarzda saqlash va jamoa bo'lib foydalanishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Izoh - Ma'lumotlar banki tarkibiga bita yoki bir nechta ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlar bazalarining ma'lumotnomasi, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, shuningdek, amaliy dasturlar va so'rovlar bibliotekalari kiradi.

Ma'lumotlar bankiga murojaat qilish xizmati

ing. - retrieval service

rus. - услуга обращения к банку данных

Ma'lumotlar bazasining markazida saqlanadigan axborotdan erkin foydalana olish imkonini ta'minlaydigan interaktiv xizmat.

Izoh - Axborot foydalanuvchiga faqat uning so'rovi bo'yicha uzatiladi. Axborotga murojaat qilish individual ravishda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni axborot ketma-ketligi uzatilishining boshlanish vaqtini foydalanuvchi boshqaradi.

Ma'lumotlar bazalari bilan birgalikda

ishlash ochiq interfeysi

ing. - open data base connectivity (interface) (ODBC)

rus. - открытый интерфейс

взаимодействия с базами данных

Tizimlashtirilgan so'rovlar tilidan foydalaniladigan ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarida ma'lumotlardan erkin foydalanish imkonini beradigan dasturiy kompleks. Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Ma'lumotlar bazalari

ishlashining ochiq interfeysi

ing. - open database connectivity (ODBC)

rus. - открытый интерфейс

сцепления баз данных

Fayllar formatiga bog'liq bo'lmagan amaliy dasturlash interfeysi yordamida turli ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bazasiga kirishni ta'minlovchi Microsoft standarti. Operatsiyalarni bajarishda ODBC drayverlari SQL so'rovlar formasidan foydalanadi.

Ma'lumotlar bazalari kompyuteri

ing. - database computer

rus. - компьютер баз данных

Apparatlar yordamida MBBT qator funktsiyalarini bajaradigan ixtisoslashtirilgan kompyuter.

Ma'lumotlar bazalarini tuzish

ing. - database engineering

rus. - конструирование баз данных

Ma'lumotlar bazalarini loyihalash, modellash va yaratish shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish, ma'lumotlar bazalarini ma'muriy boshqarish, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi bilan bog'liq boshqa masalalarni o'rganadigan fan.

Ma'lumotlar bazasi

ing. - database

rus. - база данных

1. Obyektiv shaklda ifodalangan va bu ma'lumotlar elektron hisoblash mashinalari yordamida topilishi va qayta ishlashini mumkin bo'lgan tarzda tizimlashtirilgan ma'lumotlar (moddalar, hisob-kitoblar va h.k.)ning majmui.

2. Amaliy dasturlarga bog'liq bo'lmagan holda, ma'lumotlarni tavsiflash, saqlash va boshqarishning umumiy prinsiplarini ko'zda tutadigan muayyan qoidalar bo'yicha tashkil qilingan ma'lumotlarning majmui.

Ma'lumotlar bazasi administratori

ing. - database administrator

rus. - администратор базы данных

Ma'lumotlar bazasi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lgan va bu ma'lumotlar bazasini yuritish, undan foydalanish, uni rivojlantirish yuzasidan javobgar maxsus mansabdor shaxs (shaxslar guruhi). Ma'lumotlar banki ma'muriyati tarkibiga kiradi.

Ma'lumotlar bazasi kaliti

ing. - database key

rus. - ключ базы данных

Boshqaruv tizimi tomonidan ma'lumotlar bazasiga berilgan va ma'lumotlar bazasi yozuvini qat'iy identifikatsiya qiluvchi kalit.

Ma'lumotlar bazasi replikasi

ing. - replica

rus. - реплика базы данных

Ma'lumotlar bazasining foydalanuvchi kompyuteridagi nusxasi. Foydalanuvchi, xususan mobil aloqa foydalanuvchisi ma'lumotlar bazasini o'zgartirib, keyin esa asosiy ma'lumotlar bazasi bilan sinxronlashtiradi.

Ma'lumotlar bazasi serveri

ing. - database server

rus. - сервер баз данных

Lokal tarmoqdagi kompyuter-serverda joylashgan ma'lumotlar bazasiga boshqa kompyuter tarmoqlarining kira olishlarini taqdim etuvchi kompyuter va dasturiy ta'minot.

Ma'lumotlar bazasi uchun OLE

ing. - OLE DB

rus. - OLE для баз данных

Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan - ma'lumotlardan foydalanish spetsifikatsiyasining nomi (avvalgi nomi - Nile). Open Connectivity Database va OLE ni birlashtiradi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish

ing. - database administration

rus. - администрирование базы данных

Ma'lumotlar bazasida ma'lumotlarni belgilash, tashkillashtirish, boshqarish va muhofaza qilish funksiyalarining bajarilishi.

Ma'lumotlar bazasini

boshqarish tizimi (MBBT)

ing. - data base management system (DBMS)

rus. - система управления

базами данных (СУБД)

Rivojlangan so'rovlar tili yordamida ma'lumotlar bazasi ma'lumotlari tuzilmasini hosil qilish, saqlash, yangilash, yangi ma'lumotlar qo'shish, izlash operatsiyalarining bajarilishini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot. Zamonaviy MBBTlari tranzaksiya mexanizmi orqali ma'lumotlardan bir vaqtda ko'plab foydalanuvchilarning erkin foydalanishlarini ta'minlaydi. Bunda bir foydalanuvchining olgan natijasi boshqasini- ga ta'sir qilmaydi. Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi tarkibiga dasturlash tili; dasturlar generatorlari - dasturlar tuzilishini, ma'lumotlar bazasi yaratilishini va ularning qayta ishlashini osonlashtiradi; kompilyatorlar - mashina kodlaridagi boshqarish dasturlarini, dasturlarning ishlashini tezlashtirish va ularning muhitga bog'liq bo'lmashligi uchun generatsiyalaydi; hisobot generatorlari - foydalanuvchiga chiqish hujjatlarini tezkor yaratish, tanlab olish, saralash va hisoblashlarni bajarish imkonini beradi; hujjatlashtirish vositalari - ma'lumotlar bazasini yaratish bilan bir vaqtda, matn va grafik ko'rinishlarda uning tavsifini yaratish, listinger bo'lgan dasturlarni tavsiflash imkonini beradi. Ma'lumotlar bazalarining turlariga ko'ra, iyerarxik, tarmoq va relyatsion MBBT mavjud. Amalda barcha MBBT «mi-joz-server» arxitekturali tarmoqda ishlashni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar bazasini

boshqarishning gibrid tizimi

ing. - hybrid database management system

rus. - гибридная система

управления базой данных

Gibrid MBBT. U relyatsion va obyektga yo'naltirilgan tizimlarning ijobiy sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Relyatsion MBBT ning tranzaksiyalarini qayta ishlash vositalarini o'z ichiga olib, obyektga yo'naltirilgan MBBT ning ko'pgina ma'lumot turlarini ham quvvatlaydi. Gibrid MBBT «tuzilmalashtirilgan so'rovlar tili» SQL dan foydalanadi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarishning ko'p o'lchamli tizimi

ing. - multidimensional database management system (MDDDBMS)
rus. - многомерная система управления базой данных

Ma'lumotlarning N-o'lchamli kub shaklida taqdim etilishini ta'minlaydi. Shu tufayli MDDDBMS murakkab hujjatlar tizimlarini qayta ishlaydi.

Ma'lumotlar bazasini moslashtirish
ing. - database adaptation

rus. - адаптация базы данных
Foydalanuvchining muayyan texnik vositalari yoki aniq dasturlari boshqaruvidagi ma'lumotlar bazasi faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan o'zgartirishlar kiritish jarayoni.

Ma'lumotlar bazasini chop etish
ing. - database publishing

rus. - выпуск базы данных
Ma'lumotlar bazasi nusxalarini muallif roziligi asosida cheklanmagan shaxslar doirasiga taqdim etish (jumladan, kompyuter xotirasiga yozish va bosma matn chop etish orqali ham). Bunday nusxalar soni ko'rsatilgan asarlar tavsifiga ko'ra mazkur doiradagi shaxslar ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Ma'lumotlar bazasining tuzilmasi
ing. - database structure

rus. - структура базы данных
Ma'lumotlar bazasida yozuvlarni va ular orasidagi bog'liqliklarni tashkil qilish tartibi yoki prinsipi.

Ma'lumotlar bilan ishlashni nazorat qilish

ing. - manipulation detection
rus. - контроль работы с данными

Ma'lumotlar bloki tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlar ostida bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlash imkonini beradigan prosedura.

Ma'lumotlar biti
ing. - data bit

rus. - бит данных
Ikkilik pozitsion hisoblash tizimida taqdim etilgan ma'lumotlar simvollaridan biri.

Ma'lumotlar bloki
ing. - data unit

rus. - блок данных
Bir xil uzunlikdagi ramzlar ketma-ketligi. U ma'lumotlarni ifodalashda yoki o'z holicha uzatishda ishlatiladi.

Ma'lumotlar blokini saralash usuli
ing. - burrows wheeler transform

rus. - метод сортировки блока данных
O'zgartirishlarning alohida ko'rinishi yoki guruhi, uning asosida saralash yotadi.

Ma'lumotlar buferi
ing. - data buffer

rus. - буфер данных
Ma'lumotlarni kiritish-chiqarishda yoki bir joydan boshqa joyga jo'natishda to'plash va/yoki vaqtinchalik saqlash uchun xizmat qiladigan xotira sohasi.

Ma'lumotlar elementi
ing. - data element

rus. - элемент данных
Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan ma'lumotlar qismi.

Ma'lumotlar fayli
ing. - data file

rus. - файл данных
Matnli, sonli, grafik yoki multimediali ma'lumotlar bo'lgan fayl.

Ma'lumotlar formati
ing. - data size

rus. - формат данных
Ma'lumotlar simvollarining joylashish tartibi bo'lib, ularning tarkibiy qismini tanlab olish imkonini beradi.
Izoh - Ma'lumotlar formati ma'lumotlar simvollarining muayyan majmuiga bog'liq holda nom oladi. masalan, ma'lumotlar xabarining formati.

Ma'lumotlar izlash
ing. - data search

rus. - поиск данных
Qar.: Axborot izlash.

Ma'lumotlar kanali
ing. - data channel

rus. - канал данных
Meynfreymlarda - o'zining komandalar

tizimiga ega xususiy protsessori bo'lgan kiritish-chiqarish qurilmasidir. Markaziy protsessor kanalga tegishli komandani yuborgan holda, ma'lumotlar uzatish seansini initsializatsiya qiladi (o'zlashtiradi), kanal protsessorni spetsifik vazifalardan ozod qilgan, tezkor xotira qurilmasidan o'z dasturini olgan holda, keyingi barcha operatsiyalarni mustaqil bajaradi.

Ma'lumotlar kanali chetki apparaturasi
ing. - data circuit-terminating equipment (DCE)

rus. - аппаратура окончания канала данных

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i tarkibiga kiruvchi va bu tarmoq bo'yicha uzatiladigan hamda qabul qilinadigan signallar parametrlarini ma'lumotlar oxirgi (terminal) uskunasini parametrlari bilan moslashuvini ta'minlaydigan apparatura.

Izoh - Ma'lumotlar kanali chetki apparaturasi ITU-T tavsiyalarida DCE (Data Communications Equipment) kabi belgilanadi.

Ma'lumotlar karuseli

ing. - carousel of data

rus. - карусель данных

Transport oqimida ma'lumotlar modulini davriy takrorlash bilan uzatish.

Ma'lumotlar kommutatori

ing. - data switch

rus. - коммутатор данных

Kompyuter tizimidagi, kiritiladigan ma'lumotlarni turli joylarga qayta yo'llaydigan qurilma.

Ma'lumotlar lug'ati

ing. - data dictionary

rus. - словарь данных

1. Ma'lum bir MBBT da foydalaniladigan barcha fayllar, maydonlar va o'zgaruvchilar ro'yxati. Ishlab chiquvchiga (ba'zi MBBT da foydalanuvchiga ham) u yoki bu elementlar qanday berilganini aniqlashga imkon beradi.

2. Bir nechta ilovada foydalanilishi mumkin bo'lgan, ma'lumotlar tavsiflarining to'plami.

Ma'lumotlar manbaini

autentifikatsiya qilish

ing. - data origin authentication

rus. - аутентификация источника данных
Olingan ma'lumotlar manbaining haqiqiylikini tasdiqlash.

Ma'lumotlar massivi

ing. - arraycd data

rus. - массив данных

Har biri massiv nomi va indeks(lar) bilan identifikatsiya qilinadigan bir turdagi ma'lumotlar majmui. Indeks(lar) soniga bog'liq ravishda, massivlar bir o'lchamli (chiziqli) ikki o'lchamli va h.k. bo'ladi.

Ma'lumotlar maydoni

ing. - field

rus. - поле данных

Disk maydoni (sektori)ning, manzil undan oldin keladigan ma'lumotlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan qismi.

Ma'lumotlar modeli

ing. - data model

rus. - модель данных

Ma'lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash sohalarida tarkibiy qismlar turi va ularning aloqalari to'g'risidagi tasavvur. Ma'lumotlar modeli ma'lumotlarni tavsiflash tili bilan belgilanadi.

Ma'lumotlar ombori

ing. - data store

rus. - хранилище данных

Ma'lumotlarni saqlash konsepsiyasi. Ma'lumotlar bazasidan birinchidan, ma'lumotlarni aktuallashtirish ma'lumotlar yangilanishini emas, balki mavjudlariga qo'shilishini bildirishligi bilan; ikkinchidan, boshqarish tizimining holatini aks ettiradigan ma'lumotlardan tashqari, ma'lumotlar omborida metama'lumotlar ham (omboring tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish) saqlanishligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumotlar oqimi

ing. - data flow

rus. - поток данных

1. Har bir operatsiyaning bajarilishi, uning barcha operandlari tayyor bo'lgandagina

amalga oshiriladigan parallel hisoblashlar algoritmlariga yoki arxitekturalariga tegishli umumiy atama. Bunda komandalarning bajarilish ketma-ketligi oldindan berilmaydi.

2. Konveyerli arxitekturada, ularning ustida bir xil operatsiyalarni bajaradigan operatsion qurilmaga uzluksiz uzatiladigan ma'lumotlar ketma-ketligi.

Ma'lumotlar oqimi boshqaradigan kompyuter
ing. - dataflow computer

rus. - компьютер, управляемый потоком данных

Parallel hisoblashlar arxitekturasiga ega kompyuter. Unda har bir operatsiyaning bajarilishi ma'lumotlar oqimining barcha operandlari tayyor bo'lgandagina amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar oqimi diagrammasi
ing. - data flow diagram (DFD)

rus. - диаграмма потоков данных

Asosiy komponentlari tashqi obyektlar bo'lgan, o'zida axborot manbai va uni qabul qiluvchisini; aniq algoritmlarga muvofiq ravishda kiruvchi ma'lumotlarni chiquvchi ma'lumotlarga akslantirish jarayonini; axborotlarni joylashtirish va ularni olish mumkin bo'lgan tashuvchilarni; manbadan qabul qiluvchiga biror-bir bog'lanish orqali uzatilayotgan axborotni aniqlovchi ma'lumotlar oqimini ifodalovchi axborot modeli.

Ma'lumotlar oxirgi (terminal) uskunasi (MOU)
ing. - data terminal equipment (DTE)
rus. - оконечное оборудование данных (ООД)

Ma'lumotlar manbai yoki ma'lumotlar qabul qiluvchisi, yoki unisi ham, bunisi ham bo'lib hisoblangan oxirgi (terminal) uskuna (masalan, elektron hisoblash mashinasi).

Izoh - MChU ma'lumotlar uzatish tarmog' i tarkibiga kirmaydi. MChU o'rinda ma'lumotlar tarmog' iga ulangan telefon xizmati serverlari ham bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar raqamli signalining fazali titrashi (djitterning fazali titrashi)
ing. - jitter
rus. - фазовое дрожание

цифрового сигнала данных (фазовое дрожание джиттера)
Ma'lumotlar raqamli signali ahamiyatli onlarining vaqt bo'yicha ideal holatidan og'ishi.

Ma'lumotlar saqlanuvchi tarmoq
ing. - storage area network (SAN)
rus. - сеть хранения данных

Kanallar va konsentratrlarni 100 Mbyte/s vositasida ma'lumotlarni saqlashning turli xil qurilmalarini va serverlarni birlashtiruvchi maxsus yuqori tezlikka ega bo'lgan tarmoq. Bunday tarmoqlarda ma'lumotlar saqlash qurilmalari va boshqa qurilmalar orasida vositachi server bo'lmaydi. Ma'lumot uzatishda Fibre Channel texnologiyasidan foydalaniladi. Segmentlarning katta masofasi hisobiga bunday tarmoqlar firma egallab turgan binodan tashqarida korporativ ma'lumotlarni saqlashni tashkil qilishga imkon beradi.

Ma'lumotlar segmenti
ing. - data segment
rus. - сегмент данных

1. 80x86 protsessorlarda - ma'lumotlar segmenti registri yuboradigan tezkor xotira qurilmasining bir qismi.
2. Tezkor xotira qurilmasi yoki tashqi xotiraning, dastur foydalaniladigan ma'lumotlarni ichiga oladigan qismi.

Ma'lumotlar seksiyasi
ing. - data section
rus. - секция данных

Operatsion tizim tomonidan global o'zgaruvchilar, massivlar, tuzilmalar, obyektlar saqlanadigan jarayonga ajratiladigan asosiy xotiraning statik (o'zgaraydigan o'lchamdagi doimiy ajratilgan) sohasi.

Ma'lumotlar sektori
ing. - data sector
rus. - сектор данных
Magnit diskdagi axborot sektori.

Ma'lumotlar signali
ing. - data signal
rus. - сигнал данных
Ma'lumotlar xabarini fizik kattalik yordamida taqdim etish shakli, bunda uning bitta

yoki bir nechta parametrlarining o'zgarishi xabar o'zgarishini aks ettiradi.

Ma'lumotlar signalini analog-raqamli o'zgartirish
ing. - analog-to-digital data signal conversation
rus. - аналогово-цифровое преобразование сигнала данных

Diskretlashning berilgan qadamida ma'lumotlar signalining mumkin bo'lgan uzluksiz ko'plab qiymatlar funksiyasi ushbu signalning oxirgi ko'plab mos keluvchi qiymatlar funksiyalari bilan almashadigan ma'lumotlar signalini o'zgartirish.

Ma'lumotlar tashuvchisi
ing. - data carrier
rus. - носитель данных

1. Moddiy obyekt yoki moslama. U ma'lumotlarni yozish, saqlash va o'qish imkonini beruvchi ma'lum fizik xususiyatlarga ega. Hisoblash texikasida ma'lumotlar tashuvchisi sifatida yarimo'tkazgich kristallar, magnit va lazer disklari, flesh-xotira, magnit tasmalar, magnit kartalar, perfokarta va perfotasmalar hamda (bosish uchun) qog'oz ishlatiladi. Ma'lumotlar tashuvchisiga ma'lumotlar tashuvchisi xotira qurilmasini tashkil qiladi.

2. Axborotni yozish uchun va doimiy xotira qurilmasi sifatida ishlatiladigan jism yoki muhit.

Ma'lumotlar trakti
ing. - data path
rus. - тракт данных

Protsessoring ichki ma'lumotlar shinasi. Uning kengligi protsessor unumdorligiga ta'sir qiladi. Protsessoring yuqori unumdorligiga keng (ko'p razryadli) ajratilgan ma'lumotlar traktidan foydalanish va tashqi hamda ichki kesh-xotira sig'imi kattaligi tufayli erishiladi.

Ma'lumotlar turi
ing. - data type
rus. - тип данных

Biror belgisi bo'yicha bitta nom bilan bir-lashtirilgan ma'lumotlar. Ma'lumotlar turi ma'lumotlar bazalarida qo'llaniladi.

Ma'lumotlar tuzilmasi
ing. - data structure

rus. - структура данных

Tartiblangan ma'lumotlarga muvofiq keluvchi yozuv yoki massivning tashkil qilish sxemasi bo'lib, u bilan ma'lumotlarni tushunib olish va ular ustida ma'lum bir operatsiyalarni bajarish mumkin bo'ladi.

Ma'lumotlar to'plash

ing. - data collection

rus. - сбор данных

Turli xil tashqi datchiklardan kompyuter tizimiga ma'lumotlar kiritish jarayoni. Ma'lumotlar, ma'lumotlarni yig'ish platasi bilan olinganda, ularni u yoki bu tashqi hodisa bilan sinxronlash ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar to'plash strategiyasi

ing. - acquisition strategy

rus. - стратегия сбора данных

Mahsulotlar va xizmatlarni sotib olishga bo'lgan, yetkazib berishlar manbalariga, xarid usullariga, talablar spetsifikatsiyalari turlari, shartnomalar yoki bitimlar turlariga va ular bilan bog'liq xarid tavakkalchiligiga asoslangan muayyan yondashuv.

Ma'lumotlar uzatish

ing. - data transmission

rus. - передача данных

1. Ikki signal orqali ko'rinishdagi ma'lumotlarni telekommunikatsiyalar vositalari yordamida bir punktdan boshqa punktga, qoidaga ko'ra, keyinchalik hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishlash maqsadida ko'chirish.

Izoh - Bu yerda «ma'lumotlar» deb, odam ishtirok etishi mumkin bo'lgan holda avtomatik vositalar (masalan, kompyuter) bilan qayta ishlash uchun yaroqli bo'lgan axborotga aytiladi.

2. Tovushli yoki televizion uzatgichlar orqali axborot signallarini, odatda, raqamli signallarni telematn, subtitr, sinov va boshqaruv signallari kabi tizimlar uchun uzatish.

Ma'lumotlar uzatish adresati

ing. - addressee message

rus. - адресат сообщения данных

Tuzuvchining maqsadiga ko'ra, ma'lumotlar xabarini olishi kerak bo'lgan qandaydir

shaxs, bu ma'lumotlar xabariga nisbatan vositachi sifatida ish ko'radigan shaxsdan tashqari.

Ma'lumotlar uzatish apparaturasi

ing. - data communication equipment (DCE)

rus. - аппаратура передачи данных

1. Ma'lumotlar uzatish kanali oxirgi (terminal) uskunasi ayon o'zi. «Foydalanuvchi-Tarmoq» interfeysi tarmog'i tomonidan kommunikatsiya tarmog'i qurilmasi va ulanishni o'z ichiga oladi. DCE – qurilmasi tarmoqqa fizik ulanishni, DCE va DTE qurilmalari o'rtasida ma'lumotlarni sinxronlash va uzatishda ishlatiladigan taktli signallarni berish va o'zidan trafikni o'tkazishni ta'minlaydi. DCE – qurilmasiga modem misol bo'ladi.

2. Ma'lumotlar uzatish tarmog'i tarkibiga kiradigan (yoki telekommunikatsiyalarning ixtisoslashtirilgan tarmog'ini to'ldiradigan) va uzatiladigan hamda qabul qilinadigan ma'lumotlar signallarini ma'lumotlar oxirgi (terminal) uskunasi bilan moslashishini ta'minlaydigan apparatura (yoki apparat-dasturiy vositalar).

Izoh – MUA signalni o'zgartirish, xatolardan himoyalash, avtomatik chaqiruv va javob, signal sifatining detektor, korrektor va ular bilan bog'liq bo'lgan yordamchi qurilmalar, masalan, nazorat-o'lchash qurilmalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar uzatish kanali

ing. - data link

rus. - канал передачи данных

1. Ma'lumotlar uzatish uchun yaroqli bo'lgan, ma'lumotlarni jo'natuvchi va oluvchi vositalaridan hamda boshqaruvchi uzellardan tashqari, barcha tarmoq elementlarini ichiga oladigan aloqa kanali yoki liniyasi.

2. Oxirgi terminallarga bir-biri bilan bevosita bog'lanish imkonini beradigan fizik qurilmalar konfiguratsiyasi.

Ma'lumotlar uzatish kanalini yuqori darajada boshqarish

ing. - high-level data link control

rus. - высокоуровневое управление каналом передачи данных

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan kadrlar bo'yicha cheklangan, razryadli ma'lumotlar uzatish kanallari uchun belgilangan standart protokol.

Ma'lumotlar uzatish muhiti

ing. - communication environment

rus. - среда передачи данных

Ma'lumotlar uzatiladigan fizik muhit. Bu simli yoki simsiz liniya bo'lishi mumkin. Simli liniya – mis yoki optik tolali kabel. Simsiz liniya – radio-, televizion, infraqizil kanallar.

Ma'lumotlar uzatish oddiy protokoli

ing. - trivial file transfer protocol (TFTP)

rus. - простейший протокол

передачи данных

Disksiz stansiyalarni masofadan yuklash uchun foydalaniladigan protokol.

Ma'lumotlar uzatish protokoli

ing. - link protocol

rus. - протокол передачи данных

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i qurilmalari o'rtasida axborot paketlari tuzilmasiga va axborot paketlari almashuvi algoritmiga bo'lgan talablarning shakllantirilgan to'plami.

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i

ing. - data network

rus. - сеть передачи данных

1. Ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan raqamli tarmoq.

2. Ma'lumotlar uzatilishini ta'minlash maqsadida ma'lum nuqtalar o'rtasida telekommunikatsiyani tashkil etish uchun maxsus tuzilgan telekommunikatsiyalar uzellari va kanallarining majmui.

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i

orqali bog'lanish

ing. - connection on a data

transmission network

rus. - соединение по сети

передачи данных

Aloqa vositalari o'rtasidagi, abonent va/yoki foydalanuvchiga ovozi va/yoki ovozsiz axborotni uzatish va/yoki qabul qilish imkonini beruvchi, chaqirish natijasida yoki oldindan o'rnatilgan o'zaro hamkorlik.

Ma'lumotlar uzatish

tarmog'ining tuzilmasi

ing. - structure data transmission network

rus. - структура сети передачи данных

Ma'lumotlar uzatish tarmog'ida o'zaro

ishlaydigan qurilmalarining o'zaro joylashishi va bog'lanishi.

Ma'lumotlar uzatish tezligi

ing. - data-transfer rate

rus. - скорость передачи данных

Ma'lumotlar uzatishda bir sekunddagi bitlar soni. Bu tezlik tashqi xotira bo'lgan lokal shina turiga, periferik qurilmalar bo'lgan interfeys turiga bog'liq. Kompyuter tarmoqlarda ma'lumotlar almashinish tezligi. Kanalning holati va ma'lumotlar uzatish apparaturasi bilan belgilanadi.

Ma'lumotlar uzatish tizimi

ing. - data transmission system

rus. - система передачи данных

Ma'lumotlar uzatishni ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar tizimi.

Ma'lumotlar uzatish vositalari

ing. - data transmission facilities

rus. - средства передачи данных

Aloqa kanali va ma'lumotlar uzatish apparaturasi majmui.

Ma'lumotlar uzatish xizmatlari

foydalanuvchisi

ing. - data transmission service user

rus. - пользователь услуг

передачи данных

Ma'lumotlar uzatish xizmatlari xizmatidan foydalanuvchi odam (yoki unga tegishli MChU yoki MChUdagi ma'lum jarayon).

Ma'lumotlar va ularning

tashuvchilarini maxfiylashtirish

ing. - classification of information

and its bearers as secret.

rus. - засекречивание сведений и их

носителей

Qonunda ko'zda tutilgan tartibda, davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlar uchun, ulami tarqatish va tashuvchilardan foydalanish yuzasidan cheklashlar kiritish.

Ma'lumotlar xabari

ing. - data message

rus. - сообщение данных

Elektron, optik yoki analog vositalar yordamida, ma'lumotlarning elektron almashi-

nuvi, elektron pochta, telegramma, teleks yoki telefaksi qo'shgan holda, lekin ular bilan cheklanmagan holda tayyorlangan, jo'natilgan, olingan yoki saqlanadigan axborot.

Ma'lumotlar xabarini jo'natuvchi

(xabar jo'natuvchi)

ing. - message sender

rus. - отправитель сообщения данных

(отправитель сообщения)

Xabarlar oqimidan ma'lumotlar xabarlarini tanlashni amalga oshiruvchi va ushbu xabarni keyinchalik uzatish uchun shakllantiruvchi inson va/yoki qurilma.

Ma'lumotlar xabarini tuzuvchi

ing. - data message writer

rus. - составитель сообщения данных

Nomidan yoki nomiga saqlash uchun ma'lumotlar xabari tayyorlangan yoki jo'natilgan shaxs.

Izoh - Ma'lumotlar xabarini tuzuvchiga, bu ma'lumotlar xabarga nisbatan vositachi sifatida ish ko'ruvchi shaxs kirmaydi.

Ma'lumotlar yaxlitligining buzilishi

ing. - data corruption

rus. - нарушение целостности данных

Axborotning, uning tuzilmasining o'zgarishiga va ma'lumotlarning bir qismi yo'qolishiga olib keladigan buzilishi.

Ma'lumotlar yo'li

ing. - dataway

rus. - магистраль данных

Ma'lumotlar uzatiladigan virtual yo'li.

Ma'lumotlar zvenosining ulanishi

ing. - data link connection(DLC)

rus. - соединение звена данных

Bevosita tarmoqqa ulangan printerlardan ma'lumotlar uzatish kanalini boshqarish protokoli.

Ma'lumotlar shinasini

ing. - data bus

rus. - шина данных

1. Kompyuter qurilmasini (masalan, protsesor va tezkor xotira qurilmasini) birlashtiruvchi va ular orasida ma'lumotlar uzatish

uchun xizmat qiladigan uchta shinadan biri. Hozirda 32 va 64 razryadli ma'lumotlar shinalaridan foydalaniladi. Ma'lumotlar shinasining kengligi kompyuter unumdorligini belgilaydi. Ma'lumotlar shinasi har doim ikki yo'nalishli bo'ladi. Atamadan, ko'pincha dasturiy ta'minotni sozlash tizimlarini tavsiflashda foydalaniladi.

2. Mikroprotessor ichki shinalaridan biri. Odatda, tizim platasidagi ma'lumotlar shinasiga qaraganda kengroq (128 yoki 256 razryadli) bo'ladi.

Ma'lumotlardan birgalikda foydalanish

ing. - data sharing

rus. - совместное использование данных
Bitta fayldan bir vaqtda bir nechta foydalanuvchi (ilova)ning foydalana olishi.

Ma'lumotlardan erkin foydalanish mexanizmi

ing. - data access arrangement (DAA)

rus. - механизм доступа к данным
Modemni telefon liniyasiga ulash uchun mo'ljallangan dasturiy xizmat.

Ma'lumotlardan erkin foydalanish obyektlari

ing. - data access objects (DAO)

rus. - объекты доступа к данным

Ma'lumotlar bazalari bilan ishlashning asosiy jarayonlarini ifodalaydigan, ishlab chiquvchilarni ma'lumotlarni o'qish va yozish jarayonining texnik detallariga murojaat qilishdan xalos etadigan toifalar bibliotekasi, yuqori darajali obyektlar to'plami.

Ma'lumotlardan foydalana olishlik

ing. - data accessibility

rus. - доступность данных

Axborotning (avtomatlashtirilgan axborot tizimi resurslarining) holati, bunda foydalana olish huquqiga ega bo'lgan subyektlar ulardan to'sqinliksiz foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Ma'lumotlardan foydalanish

texnologiyasi

ing. - activex data objects

rus. - технология доступа к данным

Ishlab chiquvchilarga ma'lumotlarga istal-

gan dasturlash tilida murojaat qilishlariga imkon beradigan, yuqori darajali interfeyslar to'plamini o'z ichiga oladigan texnologiya.

Ma'lumotlardan universal foydalanish

ing. - universal data access (UDA)

rus. - универсальный доступ к данным
Microsoft ma'lumotlardan foydalana olish texnologiyasi, Windows DNA ning qismi bo'lib, o'z ichiga ADO va OLE DB larni oladi.

Ma'lumotlarni aktuallashtirish

ing. - updating data

rus. - актуализация данных

Ma'lumotlarni aktual holatda saqlab turish, ya'ni ularni predmet sohaning aks ettiriladigan obyektlarining holati bilan muvofiqlikka keltirish. Aktuallashtirish yozuvlar qo'shish, ularni chiqarib tashlash, shuningdek, tahrir qilish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarni arxivlash

ing. - data archiving

rus. - архивирование данных

Ma'lumotlarni doimiy xotirada uzoq vaqt saqlash uchun, ularni zichlash va joylashtirish.

Ma'lumotlarni asinxron oqimli uzatish

ing. - asynchronous data streaming

rus. - асинхронная потоковая передача данных

Ma'lumotlarni vaqt bo'yicha sinxronlash talablarisiz oqimli uzatish (masalan, RS-232 protokoli bo'yicha ma'lumotlar).

Ma'lumotlarni asinxron uzatish

ing. - asynchronous data transmission

rus. - асинхронная передача данных

Uzluksiz xabarlar oqimidan ma'lumotlarni olish uslubi va uzatish usuli; uzatuvchi tomon har bir ma'lumotga, ma'lumot qayerda tugashini ko'rsatadigan start va stop bitlarini kiritadi. Bu, ma'lumotlar uzatishning, modemli aloqada qo'llaniladigan ancha ishonchli usulidir.

Ma'lumotlarni autentifikatsiya qilish

ing. - data authentication

rus. - аутентификация данных

Ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish jarayoni.

Masalan, olingan ma'lumotlarning jo'natilgan ma'lumotlar bilan bir xilligini, shuningdek, dasturda virus bor yoki yo'qligini tekshirish.

Ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash

ing. - automatized data processing

rus. - автоматизированная

обработка данных

Ma'lumotlarni asosan hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishlash.

Ma'lumotlarni blokirovkalash

ing. - data interlock

rus. - блокировка данных

Bitta foydalanuvchidan tashqari, barcha foydalanuvchilarga kirishni taqiqlash yo'li bilan fayl yoki uning bir qismini (yozuv blokini) muhofaza qilish.

Ma'lumotlarni bo'lish

ing. - data partitioning

rus. - разделение данных

Xatolar ta'sirini kamaytirish uchun, bit oqimini ikki oqimga ajratish usul. Dekodlashdan oldin ikkala oqim birlashtiriladi.

Ma'lumotlarni e'lon qilish

ing. - data declaration

rus. - объявление данных

O'zgaruvchining xarakteristikalarini: ma'lumotlar nomi, turi, boshlang'ich qiymatini tavsiflovchi dastur operatori.

Ma'lumotlarni kiritish

ing. - data entry

rus. - ввод данных

Ma'lumotlarni, axborotni qayta ishlash tizimiga yoki uning biror bir qismiga, uni saqlash yoki qayta ishlash uchun kiritish jarayoni.

Ma'lumotlarni kommutatsiyalanadigan tarmoqlar orqali yuqori tezlikda uzatish

ing. - high-speed circuit

switched data (HSCSD)

rus. - высокоскоростная передача

данных по коммутируемым сетям

1. GSM standartidagi, ma'lumotlarni

oshirilgan tezlikda (57 Kbit/s gacha) uzatish texnologiyasi.

Izoh - Bu texnologiyaning asosiy afzalligi, ma'lumotlar uzatish tezligining yuqoriligida. Bu, bog'lanishni o'rnatishga ketadigan vaqtni kamaytirish va dasturlar ishini tezlashtirish imkonini beradi. Ma'lumotlarni uzatish oldingiga nisbatan to'rt marta tez bajariladi, bu esa, kartalar va grafik interfeysdan foydalanib, mobil navigatsiya kabi xizmatlarni amalga oshirish imkonini beradi. HSCSD texnologiyasi kommutatsiyalanadigan tarmoqlarda qo'llanilishi tufayli, ma'lumotlar qisqa impulslar tarzida uzatiladigan elektron pochta uzatishga qaraganda, multimedia va videodasturlar ishi uchun yaxshiroq moslashtirilgan. Texnologiyadan GSM tarmog'ida foydalanishda uzatish tezligi 43,2 Kbit/s bo'lishiga erishiladi. Bu qiymat zamonaviy modemlardan foydalaniladigan simli tarmoqlar orqali ma'lumotlar uzatish tezligiga teng.

2. GSM mobil tarmoqlar usturmasi. 57,6 Kbit/s yuqori o'tkazish qobiliyatiga erishish uchun, to'rtta 14,4 Kbit/s past tezlikli kanalni birlashtirish imkonini beradi.

Izoh - GPRS dan farqli ravishda, kanallarni kommutatsiyalash usulidan foydalaniladi. HSCSD uskunasida multimedia ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan, videokonferens aloqa uchun ham to'g'ri keladi.

Ma'lumotlarni konvertatsiya qilish

ing. - data conversion

rus. - конвертирование данных

Ma'lumotlarni taqdim etish shaklini ma'lum qoidalarga muvofiq, undagi axborotni saqlagan holda, o'zgartirish.

Ma'lumotlarni konveyerlash

ing. - data piping

rus. - конвейеризация данных

MPEG-2 transport oqimining foydali ma'lumotlar paketi sohasiga ma'lumotlarni bevosita uzatish.

Ma'lumotlarni ko'chirish darajasi

ing. - data portability

rus. - переносимость данных

Dasturiy ta'minotni ishga tushirmasdan va bajarmasdan turib, ma'lumotlarni bir tizimdan boshqa tizimga oson uzatish mumkinligi.

Ma'lumotlarni masofadan qayta ishlash

ing. - distant data processing

rus. - дистанционная обработка данных

Kiritish yoki chiqarish quurilmalari markaziy protsessordan uzoqda joylashgan holda

ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash.

Ma'lumotlarni mualliflashtirish

ing. - data authorization

rus. - авторизация данных

Ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarning xususiylik darajasini aniqlash va belgilash.

Ma'lumotlarni muhofaza qilish

ing. - data protection

rus. - защита данных

1. Ma'lumotlardan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishning oldini olish uchun ma'muriy, texnik yoki jismoniy chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Ma'lumotlarni, qasddan yoki qasddan bo'lmagan tarzda o'zgartirishiga, fosh bo'lishiga yoki buzilishiga olib keladigan no-maqbul oqibatlardan va harakatlardan saqlash uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar.

Ma'lumotlarni nazorat qilish

ing. - data control

rus. - контроль данных

Ma'lumotlarning ishonchligi va yaxlitligini tekshirish. Sintaksis, semantik va pragmatik nazorat farq qilinadi.

Ma'lumotlarni ochiq tarmoqda qayta ishlash

ing. - open network computing (ONC)

rus. - открытая сетевая обработка данных

SUN Microsystems korporatsiyasi tomonidan taklif qilingan asosiy funksional profil. SUN Microsystems korporatsiyasiga tegishli bo'lgan ONC 1985-yili paydo bo'lgan va turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan chiqarilgan axborot tizimlarida tatbiq qilishga mo'ljallangan standartlar to'plamidir. Bu standartlar, operatsion tizim va kompyuterlarning arxitekturasiga bog'liq emas. Interfeyslarning barcha spetsifikatsiyalari va tavsiflari nashr qilingan va mutaxassislarning keng doirasiga murojaat etilgan, ya'ni, ONC ochiqdir. Unda dastlabki matnlarning talaygina qismi bepul uzatiladi, qolgan qismi uchun – arzimagan pul to'lanadi. ONC asosiy profili keng tarqalib, ma'lumotlarni tarqoq, qayta ishlash uchun de-fakto standart bo'lib qoldi.

(Ma'lumotlarni) paketli radio uzatish umumiy xizmati

ing. - general packet radio service

rus. - общий сервис пакетной радиопередачи (данных)

Mobil aloqa tarmoqlarida ma'lumotlarni uzatish standarti.

Ma'lumotlarni qayta ishlash apparaturasi

ing. - data terminal equipment (DTE)

rus. - аппаратура обработки данных

Foydalanuvchi tomonidan «Foydalanuvchi-Tarmoq» interfeysida joylashgan va ma'lumotlar manbaiga va/yoki qabul qiluvchiga xizmat ko'rsatuvchi qurilma. DTE-qurilmasi ma'lumotlar uzatish tarmog'iga DCE-qurilmasi (masalan, modem) orqali ulanadi va DCE-qurilmasida generatsiyalanadigan taktli signallardan foydalanadi. DTE qurilmalariga kompyuterlar, marshrutizatorlar va multipleksorlar kiradi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi

ing. - processing program

rus. - программа обработки данных

Biror bir ma'lumotni qayta ishlaydigan istalagan dastur

Ma'lumotlarni qayta ishlash ochiq tizimi

ing. - open system

rus. - открытая система

обработки данных

Boshqacha maqsadlardagi va bajarilgan boshqa tizimlar bilan funksional moslikni yaxshilash uchun, birgalikda o'rnatilgan interfeyslar va protokollarni ichiga oladigan tizim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi

ing. - data processing system

rus. - система обработки данных

Dasturiy ta'minot va ma'lumotlar avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashini bajaradigan hamda apparat vositalarini ishga soladigan tegishli xodimlar.

Ma'lumotlarni real vaqtda qayta ishlash

ing. - real-time data processing

rus. - обработка данных в

реальном времени

Ma'lumotlarga ishlov berish tezligi, hodi-

saning modellar tezligi bilan bir xil yuz bergan hol.

(Ma'lumotlarni) saqlash

ing. - (data) storage

rus. - хранение (данных)

Ma'lumotlarni, ularni saqlagandan so'ng o'zgarish holatda ushlab turish, vaqtning istalgan onida keyinchalik hisoblash imkonini ta'minlovchi jarayon.

Ma'lumotlarni sinxronlangan

oqimli uzatish

ing. - synchronized data streaming

rus. - синхронизированная потоковая передача данных

Ma'lumotlarni vaqt bo'yicha sinxronlash tablari bilan oqimli uzatish, shu ma'nodaki, oqim tarkibidagi ma'lumotlar ma'lumotlar oqimlarining boshqa turlari bilan majburiy sinxronlash orqali qayta tiklangan bo'lishi mumkin (masalan, audio va video oqimlari).

Ma'lumotlarni siqish

ing. - data compression

rus. - сжатие данных

Ma'lumotlar hajmini kamaytirish maqsadida uni qayta kodlash protsedurasi. Ma'lumotlarni saqlash va uzatish qurilmalaridan yanada oqilona foydalanish uchun qo'llaniladi.

Ma'lumotlarni skanlash

ing. - data scan

rus. - сканирование данных

Ma'lumotlar traktlarini skanlaydigan test ketma-ketlik (diagnostik testlashda ma'lumotlar traktlarini tekshirish maqsadida).

Ma'lumotlarni taqdim etish

ing. - data representation

rus. - представление данных

Ma'lumotlar bazasining maxsus sxemasi orqali qayd etilgan fizik muhitda ma'lumotlarning joylashishi. Ushbu sxemadan foydalanib, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi ma'lumotlarning fizik joylashuviga ega bo'lgan kerakli axborotni izlash so'rovini aniqlaydi. Ma'lumotlar bazasi sxemasini tuzishning turli prinsiplari ma'lumotlarni taqdim etishning har xil (relyatsion, iyerarxik va tarmoq) turlarini keltirib chiqaradi.

Ma'lumotlarni taqdim etish darajasi

ing. - presentation layer

rus. - уровень представления данных

Ochiq tizimlar o'zaro bog'liqligining, ma'lumotlar kerakli formatda taqdim etilishi va o'zgartirilishini, amaliy daraja mantiqiy obyektlari o'rtasida ma'lumotlar almashinish bo'yicha xizmatlarni ta'minlaydigan darajasi.

Ma'lumotlarni taqdim etish protokoli

ing. - presentation protocol

rus. - протокол представления данных

Taqdimot darajasidagi protokoli, unda TCP/IP stekini bir qancha cheklovlarga ega tarmoqlarda qo'llab-quvvatlash usuli ifodalangani.

Ma'lumotlarni taqsimlangan

holda qayta ishlash

ing. - distributed data processing

rus. - распределенная обработка данных

Amaliy dasturlarning tizim guruhlari tomonidan bajarilish metodikasi. Bunda foydalanuvchi bir nechta o'zaro bog'liq abonent tizimlarida joylashgan tarmoq xizmatlari va amaliy jarayonlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lumotlarni taqsimlangan

qayta ishlash muhiti

ing. - distributed computing

environment (DCE)

rus. - распределенная среда

обработки данных

Ma'lumotlarni taqsimlangan qayta ishlash texnologiyasi, abonent tizimlarining guruhlari bo'yicha bo'lib-bo'lib taqsimlangan amaliy jarayonlarni bajarish uchun tarmoq xizmatlarining standart to'plamini o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotlarni taqsimlangan qayta

ishlash milliy platformasi

ing. - national platform for

distributed data processing

rus. - национальная платформа

распределенной обработки данных

«Bulutli» hisoblashlarni amalga oshiradigan axborot tizimlari kompleksi. Milliy platformani yaratishdan maqsad, davlat hokimi-

yati organlarining IT-ta'minotga qilinadigan sarf-xarajatlarini optimallashtirish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini avtomatlashtirish darajasini oshirishdan iborat.

Ma'lumotlarni tezkor analitik

qayta ishlash

ing. - online analytical processing (OLAP)

rus. - оперативная аналитическая

обработка данных

Axborotni qayta ishlash texnologiyasi. O'z ichiga hisobot va hujjatlarni dinamik tuzish va chop etishni oladi. Tahlilchilar tomonidan axborot bazasidagi qiyin so'rovlarni tez qayta ishlashda foydalaniladi.

Ma'lumotlarni tezkor yetkazish

ing. - operative data delivery

rus. - оперативная доставка данных

Foydalanuvchilar tomonidan axborotni tezkor olish texnologiyasi. Foydalanuvchilar o'z abonent tizimlariga axborotni ikki texnologiyadan birini ishlatib olishlari mumkin. Ma'lumotlarni ko'chirib olish texnologiyasi shu bilan tavsiflanadiki, unda foydalanuvchi mustaqil yoki mobil agentlar yordamida kerakli axborotni bazadan qidiradi, uni topib, bazadan oladi. Ma'lumotlarni turtkilab chiqarish texnologiyasining mohiyati shundaki, foydalanuvchilar guruhiga ularning muayyan talabnomalarisiz aniq axborot tarqatiladi. Uni buyurtma bergan va tarqatish manzili egalari ro'yxatiga kiritilganlar oladi.

Ma'lumotlarni tiklash

ing. - data recovery (reconstruction)

rus. - восстановление данных

1. Ma'lumotlarni oldindan ma'lum bo'lgan yoki muayyan bir holatga keltirish.

2. Ma'lumotlarni, ma'lumotlarning himoya nusxasi bo'lgan tashuvchidan original tashuvchiga, ma'lumotlar yaxlitligi buzilgan holda ko'chirish.

Ma'lumotlarni tozalash

ing. - data scrubbing

rus. - очистка данных

Voris ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni, ularning takrorlanishini, mos kelmasligini va kiritishdagi xatolarni aniqlash yo'li

bilan tuzatish. Ma'lumotlarni tozalash jayronida mumkin bo'lgan joyda, bir nechta ma'lumotlar bazasidan olingan yozuvlar birlashtiriladi. Tozalash operatsiyasi ma'lumotlar omborini to'ldirish paytida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni turlarga bo'lish

ing. - data typing

rus. - типизация данных

Ma'lumotlarni, ularning qiymat sohalari va ular ishtirok etadigan operatsiyalar bo'yicha tasniflash. Ma'lumotlar, ular qayta ishlanadigan tizimlarda o'zgaruvchilar va konstantalar ko'rinishida, shuningdek, ifodalalar va funksiyalar ko'rinishidagi ularning birikmasi shaklida taqdim etiladi. Ma'lumotlarni turlarga bo'lish o'zgaruvchilar va konstantalar, tegishlicha, ifodalalar va funksiyalar kiradigan klassni belgilaydi. Dasturlash tillarida ma'lumotlar turlarini aniqlash, dasturlashda xatolarni kamaytirish va talab qilinadigan xotirani minimallashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ma'lumotlar turlari oddiy va tarkibli (murakkab) bo'ladi. Oddiy ma'lumotlarga, masalan, butun sonlar, haqiqiy sonlar; tarkibiy ma'lumotlarga massivlar, fayllar kiradi. Ba'zi dasturlash tillarida ma'lumotlar turi foydalanuvchi tomonidan belgilanishi mumkin.

Ma'lumotlarni (to'g'rilikka) tekshirish

ing. - data validation

rus. - проверка данных (правильности)

Kirish ma'lumotlarining dastur ko'rsatadigan talablarga (qiymatlar diapazoni, taqdim etish formati) mos kelishini tekshirish uchun, ularni oldindan qayta ishlash.

Ma'lumotlarni mobil aloqa tarmog'i

orqali raqamli paketli uzatish

ing. - cellular digital packet data (CDPD)

rus. - цифровая пакетная передача

данных по сети сотовой связи

Ma'lumotlarni analog uyli telefon aloqa tizimi orqali 19,2 Kbit/s tezlik bilan uzatish imkonini beradigan paketli uzatish. Zamonaviy 3G tizimlari joriy qilina borgan sari, CDPD texnologiyasi asta-sekin iste'moldan chiqib bormoqda.

Ma'lumotlarni uzatishning taqsimlangan o'tkazuvchi interfeysi
ing. - copper-distributed data interface
rus. - распределенный проводной интерфейс передачи данных
FDDI protokolining o'ralgan juftli tarmoq orqali amalga oshirilishi.

Ma'lumotlarni va ularni tashuvchilarni oshkor qilish

ing. - declassification of information and its carriers

rus. - рассекречивание сведений и их носителей

Qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda oldin kiritilgan, davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlarni tarqatishga va ularni tashuvchilardan foydalana olishga bo'lgan cheklavlarni olib tashlash.

Ma'lumotlarni vizuallashtirish

ing. - data visualization

rus. - визуализация данных

Eksperimental yoki boshqa ma'lumotlarni grafik taqdim etish usullarining majmui, foydalanuvchiga ular ichidan ahamiyatli ma'lumotni tezda ajratish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni xavfsiz uzatish protokoli

ing. - secure sockets layer

rus. - протокол безопасной передачи данных

Amaliy darajada trafikni oxirgi shiflash uchun foydalaniladigan protokol.

Ma'lumotlarni yuklash

ing. - data loading

rus. - загрузка данных

Ma'lumotlarni, ular tozalangandan keyin boshlang'ich ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlar bazasining yangi segmentiga (yoki boshqa xotira qurilmasiga) ko'chirish.

Ma'lumotlarni zichlash samarasizligi

ing. - packing inefficiency

rus. - неэффективность уплотнения данных

O'tkazish qobiliyatining, ma'lumotlar guruhli oqimini marshrutlash va aloqa uzellaridagi turli abonentlar ma'lumotlarini ajratish uchun zarur bo'lgan xizmatga oid

axborot bilan to'ldirishga bog'liq holda yo'qolishi.

Ma'lumotlarni o'rganish

ing. - data mining

rus. - исследование данных

Ma'lumotlar omborlarini tahlil qilish texnologiyasi. Sun'iy intellekt usullariga va qarorlar qabul qilishni ta'minlash vositalariga asoslanadi. Jumladan, bunga ma'lumotlar o'rtasida assosiativ aloqadorlikni, ularning o'zgarish trendlarini topish, ma'lumotlar turlarini aniqlash kiradi.

Ma'lumotlarni o'zgartirish

ing. - data conversion

rus. - преобразование данных

Boshlang'ich ma'lumotlarni, ma'lumotlar ombori uchun belgilangan formatga o'tkazish.

Ma'lumotlarni shiflash

ing. - data encryption

rus. - шифрование данных

Ma'lumotlarni, ularning yashirin uzatilishini ta'minlaydigan maxsus algoritmlardan foydalanib, qayta ishlash usuli. Axborotning o'zgartirilishi kodlash birliklari, odatda, mazmunli so'z yoki jumlar bo'lgan kriptografik usullardan farqli o'laroq, bitlar yoki ularning ketma-ketligi darajasida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni shiflash algoritmi

ing. - data encryption algorithm

rus. - алгоритм шифрования данных

Axborotni taqdim etishning dastlabki shakli (ochiq matn)ni, qayta o'zgartirish siriga ega ko'rinishga (shifrlangan matn) aylantirish bo'yicha, muhim o'zgaruvchi (shifrlash kaliti)ga bog'liq bo'lgan operatsiyalarning mazmuni va izchilligini belgilaydigan matematik qoidalar to'plami.

Ma'lumotlarni shiflash standarti

ing. - data encryption standart (DES)

rus. - стандарт шифрования данных

Shiflash va deshiflashda keng qo'llaniladigan yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo'lgan algoritim. U.S.National Bureau of Standards tomonidan ishlab chiqilgan. Ayni

dagi hujjatlar talablariga ko'ra faoliyat doiralarida (masalan, xavfsizlik siyosati va uni yurgizish bo'yicha hujjatlar yuritish, obyekt joylashish joyini tanlash, nazorat qilinadigan (tekshiriladigan) zonani tashkil qilish, turli tashuvchilardagi muhofaza qilish lozim bo'lgan ma'lumotlarga ega hujjatlarni qayd qilish, saqlash va aylanish qoidalarini bajarish va h.k.

Ma'muriy hisobga olish

ing. - administrative accounting

rus. - административный учет

Davlat tomonidan hisobga olish turi, uning ma'lumotlarining o'zgarishi jismoniy yoki yuridik shaxs huquqlari yoki majburiyatlarining yuzaga kelishiga, o'zgarishiga yoki tugatilishiga olib keladi yoxud jismoniy yoki yuridik shaxs huquqlari yoki majburiyatlarini yuzaga kelishining, o'zgarishining yoki tugatilishining oqibati hisoblanadi.

Ma'muriy protsedura

ing. - administrative procedure

rus. - административная процедура

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan funksiyalari hamda vazifalarini bajarishlari uchun amalga oshiriladigan jarayonlar majmui.

Ma'muriy reglament

ing. - administrative regulation

rus. - административный регламент

Davlat funksiyasini bajarish chog'ida, ijro etuvchi hokimiyat va/yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining ma'muriy protseduralari va harakatlarining izchilligini va muddatlarini, uning tuzilmaviy bo'linmalari bilan mansabdor shaxslar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibini, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat va/yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan, davlat hokimiyat va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning boshqa organlari, tashkilotlar va muassasalar bilan o'zaro hamkorligini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjat.

Ma'muriy xabarlar

ing. - administrative alerts

rus. - административные оповещения

Serverga yoki resurslardan foydalanishga taalluqli bo'lgan xabarlar. Ular foydalanuvchilarni xavfsizlik va foydalanishni boshqarish tizimida, foydalanuvchilar seanslarida, ta'minotni boshqarish tizimida yuz berayotgan voqealar to'g'risida, katalogni replikasiya qilish va bosishda xabardor qiladi. Kompyuter xabarni qabul qilganda, kompyuterlar va foydalanuvchilarning oldindan belgilangan ro'yxati bo'yicha bu xabar jo'natiladi.

Ma'muriy xavfsizlik

ing. - administrative security

rus. - административная безопасность

Kompyuter xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ma'muriy chora-tadbirlar. Operatsion protseduralar va hisob berish protseduralari, xavfsizlik buzilishlarini tekshirish hamda audit jurnallarini tahlil qilish protseduralari shunday chora-tadbirlar hisoblanadi.

MBBT-ilova

ing. - database application

rus. - СУБД-приложение

Foydalanuvchining ma'lumotlar bazasi ma'lumotlaridan foydalana olishini ta'minlaydigan dastur. Ma'lumotlarni kiritish, so'rovlar va hisobotlar shaklida amalga oshiriladi.

«M» belgili qop

ing. - «M» bag

rus. - мешок «M»

Bir jo'natuvchi tomonidan bitta adresatga yuboriladigan bosma nashrlar (davriy nashrlar, kitoblar va sh.k.) solingan xalqaro pochta jo'natmasi turi (maxsus qop).

Media

ing. - media

rus. - медиа

1. Ommaviy axborot vositalari (OAB). Ma'lum axborotni ko'p abonentlarga uzatish vositasi.

2. Informatikada «media» so'zi turli moddalarini – qog'oz, optik disk, magnit disk, magnit tasmalarni bildiradi.

Mediaprotsessor

ing. - media processor

rus. - медиапроцессор

Oqimli video va/yoki audio axborotni qayta ishlash uchun mo'ljallangan, bir kristalli multiprotsessor.

Mediashlyuz kontrolleri

ing. - media gateway controller

rus. - контроллер медиашлюза

Mediashlyuzdagi media kanallar uchun ulanishni boshqarishga taalluqli bo'lgan faqat chaqiruv holatining qismlarini ruzorat qiladi.

Megabayt (Mbyte)

ing. - Mbyte

rus. - мегабайт (Mbyte)

Xotira hajmini yoki ma'lumotlar miqdorining o'lchov birligi. $2^{20} = 1048576$ byte ga teng.

Megapiksel

ing. - megapixel

rus. - мегапиксель

Tasvimi shakllantiradigan bir million piksellar. Raqamli foto- va videokameralarning eng muhim xarakteristikalaridan biri, ya'ni matritsaning ajrata olish qobiliyati, megapikselda o'lchanadi. Shuningdek, yaratilgan yoki skanlangan tasvirning kattaligini ham ma'lum tasvirning kattaligi bilan solishtirish uchun megapikselda o'lchanadi.

Megaaya

ing. - megacell

rus. - мегасота

Mobil aloqa tarmog'idagi, harakat radiusi (100-500) km bo'lgan qoplash zonasi.

Mehmonlar kitobi

ing. - guest book

rus. - гостевая книга

Saytga tashrif buyuruvchilar bilan teskari aloqa vositasi. Sahifa mazmuni to'g'risida o'z fikringizni yozib jo'natish mumkin bo'lgan forma. Foydalanuvchi mehmonlar kitobida formani to'ldirgandan keyin uning fikri saytda chop etiladi.

«Men seni izlayman»

ing. - «I seek you»

rus. - «Я ищу тебя»

Internetda sherik izlash va ular bilan real vaqtda xat orqali muloqot qilish imkonini beradigan interaktiv muloqot tizimi. Hozirgi vaqtda America Online korporatsiyasiga tegishli bo'lgan Mirabilis kompaniyasining mahsuloti.

Menejer

ing. - manager

rus. - менеджер

Obyektni boshqarish vazifalarini bajaruvchi inson, qurilma yoki dastur. Boshqaruv obyekti tarmoq, katta tarmoqning qismi, tizim, ma'lumotlar banki va h.k. bo'lishi mumkin.

Menejment

ing. - management

rus. - менеджмент

1. Kerakli natijalarga erishish maqsadida insonlar va obyektlarga ta'sir o'tkazish. Avtomatika, informatika, texnologik jarayonlarda boshqaruv obyektlarga, ularning faoliyatini ta'minlash uchun maqsadli ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi. U asosan qurilmalar va amaliy dasturlar majmui tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, boshqaruvda xodimlar ham ishtirok etishi mumkin. Jamiyatlarining axborot faoliyatini boshqarishning usullari va vositalari axborot menejmenti deyiladi.

2. Maqsadga qaratilgan jami harakatlar. Bunga ahvol va boshqaruv obyektining holatini baholash, boshqaruv ta'sirlarini tanlash va amalga oshirish ham kiradi.

Menyu

ing. - menu

rus. - меню

Dastur ekranga chiqaradigan komandalar yoki javoblar ro'yxati. Menyuda tanlash «sichqoncha» kursori bilan, unda belgilangan harfni klaviaturadan bosib yoki kursorni harakatlantirish yordamida amalga oshiriladi. Menyular ekranga kiritilgan bo'lishi mumkin va tashkil qilish usuli bo'yicha hamda ekranda ko'rinishi bo'yicha farqlanadi.

Menyu komandasi

ing. - menu command

rus. - команда меню

Dastur bilan ishlaganda uning menyusidagi biror bir punktni chaqirish uchun ishlatiladigan tezkor klavishalar birikmasi bo'lib, qulaylik uchun yaratilgan. Masalan, ochish – Ctrl+O, saqlash – Ctrl+S va hokazo.

Menyu qatori

ing. - menu bar

rus. - строка меню

Oynaning yuqori qismida joylashgan, aktiv dasturda foydalanish mumkin bo'lgan, tanlash elementlari (menyu punktlari) dan iborat bo'lgan, gorizontal yo'lak.

Menyu tarkibiy qismi

ing. - menu item

rus. - пункт меню

Menyu punktidagi dastur bilan ishlash uchun kira olish mumkin bo'lgan komandalar. Masalan, «fayl» menyusida ochish, saqlash, yopish va h.k. qismlar bor.

Menyu tugmasi

ing. - menu button

rus. - кнопка меню

Bosh menyusidagi tugma, dastur oynasi bilan ishlanganda asosiy amalni bajaradi.

Merkle «daraxti»

ing. - Merkle's tree

rus. - «дерево» Меркля

Bir martali signaturalar va xesh-funksiyaga asoslanadigan raqamli imzo sxemasi. Bir martali imzolar sxemasidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qo'llaniladi. Har bir yangi xabar uchun kalit juftini generatsiyalashdan voz kechish imkonini beradi.

Merkle sharadasi

ing. - Merkle charade

rus. - шарада Меркля

Kalitlarni taqsimlash algoritmi. Shifrlash uchun foydalaniladigan maxfiy kalitni, sharadalarining katta to'plamida uni yashirgan holda, uzatishda qo'llaniladi.

Metabilim

ing. - meta-knowledge

rus. - метазнание

O'zining bilimlar bazasida saqlanadigan bi-

limlar to'g'risida yoki bazada saqlanadigan bilimlar orqali bajarilishi mumkin bo'lgan protseduralar to'g'risidagi intellektual tizimni bilish. Metabilimlarni kiritish rekursiv jarayondir. Metabilim tabiiy tildagi matnlarda: «Men Ivanov suzolmasligini bilaman» yoki «Sidorov Petrov algebrani bilmaydi deb taxmin qilgan» kabi iboralar bilan kiritiladi.

Metafayl

ing. - metafile

rus. - метафайл

Grafik elementlar tegishli parametrlarga ega grafik komandalar ko'rinishida tavsiflanadigan yozuvlarni ichiga olgan oddiy fayl. Metafayl ikkilik kodda taqdim etiladi.

Metaizlash

ing. - metasearch

rus. - метапоиск

Bir vaqtning o'zida bir necha izlash tizimidan foydalangan holda Internetda izlash.

Metaizlash mexanizmi

ing. - metasearch engine

rus. - механизм метапоиска

Boshqa izlash tizimlariga so'rov berib, ularning barchasidan olingan natijalarni umumlashtiruvchi izlash tizimi. Aslida, foydalanuvchi izlashni maqbullashtirish uchun bitta izlash tizimidan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan ko'p izlash tizimlaridan foydalanadi. Metaizlash tizimlari misoli sifatida Dogpile, CurryGuide, Excite, Fuzzle larni ko'rsatish mumkin.

Metakompyuting

ing. - meta computing

rus. - метакомпьютинг

Kompyuter tarmoqlaridan milliy va jahon miqyosidagi taqsimlangan hisoblash tizimini yaratish uchun foydalanish. Metakompyuting maqsadi hududiy taqsimlangan va Internetga ulangan yuqori quvvatli kompyuter va chekka qurilmalarini xohlagan shaxsiy kompyuter yoki ishchi stansiyasidan foydalanish mumkin bo'lgan, foydalanuvchi va dasturlashtiruvchilar uchun yagona hisoblash muhiti bo'lgan o'ta kuchli kompyuter yoki metakompyuterga aylantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni yaratish-

dir. Bunda foydalanuvchi bitta, biroq stolida turgan mashinadan anchagina katta mashina bilan ishlash tasavvuriga ega bo'ladi.

Metama'lumotlar

ing. - metadata

rus. - метаданные

Boshqa ma'lumotlarni aniqlaydigan va tavsiflaydigan ma'lumotlar.

Metasimvollar

ing. - metacharacters

rus. - метасимволы

Fayllar nomlarining maskalarini yaratish uchun foydalaniladigan * va ? simvollari. «?» simvoli har qanday yakka simvolga to'g'ri keladi, «*» simvoli esa, nolga yoki simvollarning katta soniga to'g'ri keladi.

Metatarmoq

ing. - meta tag

rus. - метатэг

O'zaro aloqada bo'lgan hududiy tarmoqlardan iborat bo'lgan global tarmoq.

Metatil

ing. - metalanguage

rus. - метаязык

Dasturlash tillarini tavsiflash tili.

Meteor aloqasi

ing. - meteor burst communications

rus. - метеорная связь

Signalning meteoritlarning ionlashgan izlaridan qaytishiga asoslangan ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi. Ushbu kanaldan foydalanishning iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqqan holda (bepul «yo'ldosh»), ma'lumotlarni uzatishning kerakli sifatini ta'minlash uchun maxsus choralar ko'rilmoqda. Birinchidan, meteor kanallaridan diskret signallar uzatiladi. Ikkinchidan, kodlaganda xatolarni to'g'rilovchi maxsus kodlar ishlatiladi. Meteor aloqasi uzoqligi 1000 kmgacha yetib boradi. Meteor aloqasi katta mablag' talab qilmasdan, yo'ldosh tannog'idan uch baravar arzonidir.

Metrlil to'lqinlar

ing. - metric waves

rus. - метровые волны

To'lqin uzunligi 1 m dan 10 m (chastotasi

30 MHz dan 300 MHz) gacha bo'lgan radioto'lqinlar.

«Mexanik» rouming

ing. - «mechanical» roaming

rus. - «механический» роуминг

Rouming davrida abonent (roumer) xizmat ko'rsatuvchi operatoridan boshqa abonent raqamini oladigan va o'zining mobil raqami bo'yicha mahalliy operatorga taalluqli kiruvchi chaqiruvlarni qabul qilish imkoniga ega bo'lmaydigan rouming xizmati.

Meynfreym

ing. - mainframe

rus. - мэйнфрейм

Ma'lumotlar juda katta tezlikda qayta ishlanishini ta'minlaydigan, juda katta hajmdagi xotiraga ega bo'lgan, katta o'lchamdagi hisoblash mashinalari. Juda yirik tijorat va ilmiy ilovalar uchun foydalaniladi.

Me'yorlik

ing. - conformance

rus. - конформность

Obyektni uning normativ-texnik hujjatlariga mos kelishi. Obyekt sifatida tizim, stansiya, dastur, funksional blok bo'lishi mumkin. U qurilma shaklida yaratilgan bo'lishi yoki, dasturlar majmui shaklida taqdim etilishi mumkin.

Mijoz

ing. - client

rus. - клиент

1. Dastur yoki kompyuterdan xizmatlar, resurslar, ma'lumotlar yoki qayta ishlashni so'raydigan foydalanuvchi, kompyuter yoki boshqa dastur.

2. Server deb ataladigan boshqa bir dasturning muayyan xizmatlaridan foydalanadigan dastur.

3. Mijoz-dastur bajariladigan kompyuter.

4. Muayyan vazifalarni bajarish uchun serverlar deb ataladigan boshqa tizimlarga (yoki dasturlarga) so'rov yuboradigan tizim (yoki dastur).

Izoh - Serverlar va mijozlar maxsus protokollar orqali birgalikda ishlaydi va turli toifadagi kompyuterlarni ifodalaydigan tarmoqning turli uzellarida ishlashlari mumkin.

Mijoz dasturiy ta'minoti

ing. - client software

rus. - клиентское программное

обеспечение

Oxirgi foydalanuvchiga tarmoq ilovasi bilan ishlash imkonini beradigan dasturiy ta'minot.

Mijoz ilova

ing. - front end

rus. - приложение-клиент

Kompyuterga o'rnatilgan, lekin uzoqdagi server bilan ishlash imkoniyati bo'lgan dastur.

Mijoz qurilmasi

ing. - client device

rus. - клиентское устройство

Simsiz tarmoq dasturini qo'llash imkonini beradigan foydalanuvchi interfeysiga ega bo'lgan apparat ta'minoti.

Izoh - Mijoz qurilmasi - kompyuter qurilmasining boshqa bir nomidir.

Mijoz-server

ing. - client-server

rus. - клиент-сервер

1. Xizmatlarni tavsiyashning umumiy usuli va bu xizmatlar uchun foydalanuvchi jarayonlarining (dasturlarining) modeli.

Izoh - Vazifani bajarish ikki qismga ajratiladi oxirgi foydalanuvchi rasmiy talablarining tizim (mijoz qismi) tomonidan so'ralishi va server qismning (resurslar omborining) ularga javobi.

2. Mijozlar, serverlar va umuman, tarmoq yig'indisi.

Mijoz-server arxitekturasi

ing. - client-server architecture (CSA)

rus. - архитектура «клиент-сервер»

Ma'lumotlarning katta qismi serverda saqlanib, qayta ishlanayotgan paytdagi dasturiy mahsulotlarni realizatsiya qilish usuli. Mijoz kompyuterlari sifatida kam quvvatli mashinalar qo'llanilayotganda yoki ma'lumotlarni markazlashtirilgan tarzda saqlash (har bir xodim foydalana olishi uchun) zarur bo'lganda qo'llaniladi.

«Mijoz-server» arxitekturasi ma'lumotlar bazasi

ing. - «client-server» architecture data base

rus. - база данных архитектуры

«клиент-сервер»

Saqlash va olib borish funksiyalari, baza bir kompyuterda (serverda) saqlanishi, foydalanuvchi esa, boshqa bir mashinaga (mijozga) egaligi sababli, jismonan ajratilgan ma'lumotlar bazasi. Ma'lumotlar bazasi va foydalanuvchi aloqa kanallari bilan bog'langan.

Mijoz-server munosabati

ing. - client/server relationship

rus. - отношение клиент/сервер

Mijozning daraja tarmog'ida ma'lumotlarni uzatish kanalini serverning daraja tarmog'ini trakti yordamida ushlab turishga imkon beruvchi «adaptatsiya» funksiyasi yordamida amalga oshiriladigan daraja tarmoqlari o'rtasidagi aloqa.

Mijoz terminal

ing. - thin client

rus. - клиент-терминал

Hisoblash resurslari cheklangan tarmoq kompyuteri.

Mijoz tomonidagi dastur

ing. - client-side software

rus. - программа на стороне клиента

Internetda serverda bajarilmay, mijoz kompyuterida bajariluvchi dastur.

Mijozlar bilan o'zaro

munosabatlarni boshqarish

ing. - customer relations management

rus. - управление

взаимоотношениями с клиентами

Axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish.

Izoh - Mijozlar bilan o'zaro hamkorlikning barcha imkonlari to'g'risidagi axborotning yagona ombori mavjudligini, tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga va buyurtmachilarni saqlab qolish dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan qarorlarni tayyorlash maqsadida, to'plangan axborotni doimo tahlil qilib borilishini o'z ichiga oladi.

Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimi
ing. - customer relationship management
rus. - система управления

взаимоотношениями с клиентами
Buyurtmachilar (mijozlar) bilan hamkorlik strategiyalarini avtomatlashtirish, xususan, sotuvlar darajasini oshirish, mijozlar to'g'risidagi axborotni, ular bilan o'zaro munosabatlar tarixini saqlash yo'li bilan, marketingni optimallashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatilishini yaxshilash, biznes-jarayonlarni aniqlash va ularni yaxshilash hamda keyinchalik natijalarni tahlil qilish uchun mo'ljallangan, tashkilotlar uchun amaliy dasturiy ta'minot.

Mikrodastur

ing. - microcode

rus. - микропрограмма

Maxsus xotirada saqlanadigan, bajarilishi komandalar registriga kiritilgan ishga tushirish komandasi orqali bo'ladigan, elementar komandalar ketma-ketligi.

Mikrodasturiy boshqarish bloki

ing. - microprogram control unit

rus. - блок микропрограммного управления

Tegishli qurilmalarni boshqarish uchun mikrodastur yozilgan mikrosxema.

Mikrodasturlash

ing. - microprogramming

rus. - микропрограммирование

Komandalarni bajarishda protsessor elementar qadamlarining tavsifi. Mikrodasturlash asosi mikrodasturdir. Protsessor boshqaruvining deyarli barcha bloklari mikrodasturlashtiriladi. Bu protsessorlarni loyihalash osonligini ta'minlaydi va xotira tarkibini oddiy o'zgartirish orqali boshqaruv vazifalarini o'zgartirish imkonini beradi.

Mikroelektronika

ing. - microelectronics

rus. - микроэлектроника

Elektronikaning XX asming 60-yillarida paydo bo'lgan va mayda shakldagi elektron quurilmalarni yaratish muammosini o'rganuvchi sohasi. Mikroelektronikada elektr, konstruk-

tiv va texnologik ma'noda bog'liq bo'lgan yarimo'tkazgichlar xususiyatlaridan foydalaniladi. Ushbu jarayonda tarkibiy qismlar bir butunga birlashtirilib, integral sxemani tashkil qiladi.

Mikrofon

ing. - microphone

rus. - микрофон

Tovushni elektr signaliga aylantirishini ta'minlovchi qurilma. Mikrofon tovushni tizim va axborot tarmog'iga kiritish uchun mo'ljallangan. Tovush tebranishlari uzluksiz shakliga ega bo'lgani tufayli mikrofonning analog signali analog-raqamli o'g'irishda qatnashadi. Ish prinsipi bo'yicha ko'mir, elektrodinamik, elektrostatik va pyezoelektrik mikrofonlar farqlanadi. Mikrofonlar asta-sekin klaviatura o'rmini bosyapti. Bunga nutqni tushunish muvaffaqiyatli tufayli erishiladi. Birinchi navbatda, bu ishlab chiqarishni boshqarish va ta'minlash sohalarida ro'y bermoqda.

Mikrointerval

ing. - microspacing

rus. - микроинтервал

Matnini to'g'rilash uchun, simvollar orasidagi masofaga qo'shiladigan, o'zgaruvchan uzunlikdagi interval.

Mikrokalkulyator

ing. - microcalculator

rus. - микрокалькулятор

O'ta ixcham mikrokompyuter. Nisbatan oddiy muhandislik, iqtisodiy va boshqa hisoblashlar uchun mo'ljallangan. Dasturlashtiriladigan kalkulyatorlar keng tarqalgan. Murakkab bo'lmagan dasturni kiritish orqali mutaxassis bunday mikroalkulyatorga tenglamalarni yechishi, formulalar bo'yicha hisoblashlar qilishi mumkin.

Mikrokomanda

ing. - microinstruction

rus. - микрокоманда

Mikrokod komandalari to'plamidan iborat komanda. Mikrokomandalar o'ta tez xotirada joylashtiriladi va registrning alohida razryadlari va protsessorning boshqa qurilmalari darajasida ishlaydi.

Mikrokompyuter**ing.** - microcomputer**rus.** - микрокомпьютер

Mikroprotessor asosidagi kompyuter.

Mikrokontroller**ing.** - microcontroller**rus.** - микроконтроллер

Texnologik jarayonlarni, periferik, kommunikatsion qurilmalarni boshqarish tizimlari uchun maxsus ishlab chiqilgan, bir kristalli mikroprotessor.

Mikro (mikroskopik) yoyish**ing.** - microdiversity

(microscopic diversity)

rus. - микроразнесение

(микроскопическое разнесение)

To'liq uzunligiga teng yoki undan kichik kattalikdagi chastotaviy, vaqt bo'yicha yoki fazoviy tarqoqlikdan foydalanishiga asoslangan yoyish usuli.

Izoh - Mikrooyishdan keladigan yutuq signallarni qayta ishlash usullari (avtotanlov bilan qabul qilish, signal/shovqin nisbatini maksimumga ko'ra joylashtirish, RAKE qabul qilgichlarni qo'llash)ga bog'liq bo'ladi.

Mikropolosali antennalar**ing.** - microstrip antennas**rus.** - микрополосковые антенны

Mikropolosali uzatish liniyalarining bo'laklari asosida tuzilgan antennalar.

Mikroprotessor**ing.** - microprocessor**rus.** - микропроцессор

Ma'lumotlar qayta ishlanishini va bu jarayon boshqarilishini amalga oshiradigan, bitta yoki bir nechta katta integral sxema asosida qilingan qurilma. Mikrokompyuterli tizimlarning asosiy komponentlaridan biri.

Mikroprotessor yadrosi**ing.** - microprocessor core**rus.** - ядро микропроцессора

Mikroprotessorning boshqarish bloki bo'lmagan qismi.

Mikrosayt**ing.** - microsite**rus.** - микросайт

Minisayt deb ham nomlanadigan mikrosayt

- bu veb-saytning bosh sahifadan tashqari alohida URLra ega bo'lgan va axborotni taqdim etish va/yoki bosh sahifaga bog'liq bo'lgan nimanidir reklama qilish uchun foydalaniladigan alohida sahifasi. Masalan, muzey veb-sayti u yerda o'tkazilayotgan maxsus ko'rgazma to'g'risida axborotdan iborat mikrosaytga murojaatga ega bo'lishi mumkin, yoki kompyuter ishlab chiqaruvchisi foydalanuvchiga yangi mahsulot to'g'risida axborot berish uchun mikrosayt yaratishi mumkin. Mikrosaytlar odatda reklama kampaniyasi tugagach yoki axborot ahamiyatsiz bo'lib qolganda veb-serverlaridan olinadigan vaqtinchalik veb-saytlardir.

Mikrosxema**ing.** - microcircuit**rus.** - микросхема

Elementlari konstruktiv va texnologik ravishda birlashtirilgan mayda elektron qurilma.

Mikrouya**ing.** - microcell**rus.** - микросота

Odatda, 100 m dan 1000 m gacha bo'lgan kichik radiusli ta'sir doirasiga ega mobil aloqa tarmog'ining xizmat ko'rsatish sohasi, kanallarning yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Mikrouyali radiotarmoq**ing.** - microcellular radio network**rus.** - микросотовая радиосеть

Kichik o'lchamdagi mobil aloqa.

Mikrouyali tizim**ing.** - microcell system**rus.** - микросотовая системаMikrouyali topologiyaga ega tizim bo'lib, odatda, 10000 Erl/km² gacha bo'lgan yuqori zichlikdagi trafikli hududlarda ishga tushiriladi.**Mikrouyali tuzilmaga ega tarmoq****ing.** - fine-grained network**rus.** - сеть с микросотовой структурой

Cheklangan hududda joylashgan ko'p sonli tayanch stansiyalarga ega tarmoq.

Mikroyadro**ing.** - micro-kernel**rus.** - микроядро

Operatsion tizimni ishlab chiqish prinsipi. Modullarning maksimal mumkin bo'lgan sonini tizimidan foydalanuvchi «fazosiga» o'tkazish, ya'ni operatsion tizim shunday ishlab chiqiladiki, uning ko'pchilik modul-lari foydalanuvchi rejimida bajariladi, yadro o'lchami esa ixchamlashtiriladi.

Mikroyadro bazasidagi operatsion tizim**ing.** - operating system

based on microkernels

rus. - операционная система

на базе микроядра

Yuqori darajadagi operatsion tizimlarning funksiyalarini foydalanish rejimidagi maxsus komponentlar – operatsion tizim-serverlar bajarayotgan vaqtda, apparaturani bosh-qarish bo'yicha faqat minimum funksiyalar-ni bajaradigan operatsion tizim.

Mikrochip**ing.** - microchip**rus.** - микрочип

Qar.: Integral mikroskema.

Miksher**ing.** - mixer**rus.** - микшер

Dasturiy signallarni mikshirlash uchun mo'ljallangan uskuna.

Misol – Tovushli miksher, videomiksher.

Mikshirlash pulti**ing.** - mixing desk, mixing console**rus.** - пульт микширования

Dastur signallarini mikshirlash uchun zarur bo'lgan barcha boshqaruv va nazorat organ-lari jamlangan pult.

Millimetrli to'lqinlar**ing.** - millimeter waves**rus.** - миллиметровые волны

To'lqin uzunliklari 0,01 m dan 0,001 m ga-cha, chastotalar diapazoni esa 30 GHz dan 300 GHz gacha bo'lgan to'lqinlar.

Milliy aloqa tarmog'i**ing.** - national telecommunication network**rus.** - национальная сеть связи

Muayyan mamlakatning, ushbu mamlakat ichidagi abonentlar o'rtasida aloqani va xalqaro tarmoqqa chiqishni ta'minlovchi aloqa tarmog'i.

Milliy operator xizmatchilarining ko'krak nishoni**ing.** - badge employees of the national operator**rus.** - нагрудный знак работников национального оператора

Xodimlarning milliy operatorga taalluq-liligini ko'rsatuvchi formal kiyim-boshdagi rasmiy belgi.

Milliy operator xodimlarining formal kiyim-boshi**ing.** - uniform dress employees of the national operator**rus.** - форменная одежда работников национального оператора

Xizmat vazifalarini bajarishda milliy operator xodimlarining kiyib yurishlari uchun mo'ljallangan, belgilangan namuna-dagi kiyim-bosh komplekti to'plami.

Milliy yo'ldosh**ing.** - domestic satellite (DOMSAT)**rus.** - национальный спутник

Bir mamlakat doirasida aloqa yoki telera-dioeshittirish xizmatlarini ko'rsatuvchi yo'ldosh.

Miltillash**ing.** - blink**rus.** - мерцание

Biror hodisaga diqqatni tortish usuli. Xabar sarlavhasi muhim vaziyatlarda o'zining rangini o'zgartiradi (miltillaydi).

Miltillashning kritik chastotasi**ing.** - critical flicker frequency**rus.** - критическая частота мерцания

Bir sekunda ikki turli xil qo'zg'atgich (qo'zg'atgichlar chastotasi yoki davriy o'zganuvchi qo'zg'atgich chastotasi) navbat-lashuvining minimal soni.

Mini blok

ing. - mini block

rus. - мини блок

Pochta markalarining to'plami bosilgan yoki aynan bir pochta markasi takrorlanadigan pochta markalari varag'i.

Miniatyura

ing. - thumbnail

rus. - миниатюра

Grafik obyekt, shuningdek, yvorstkalanadigan hujjatning kichraytirilgan va soddalashtirilgan nusxasi (odatda alohida kichik oynada).

Minikompyuter

ing. - minicomputer

rus. - миникомпьютер

Ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlari cheklangan kompyuter. Minikompyuterlar 1960-yillarning oxirida paydo bo'lgan. Asosiy kompyuterga qaraganda minikompyuter uzunligi kamroq bo'lgan so'zlar bilan ishlaydi, cheklangan tezkor xotira va nisbatan katta bo'lmagan tezlikka ega. Shuning uchun minikompyuterlar asosiy kompyuterga qaraganda oddiyroq vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladi. Biroq, asosiy kompyuter bilan solishtirganda minikompyuter kichikroq hajmga ega, hamda foydalanilishi osonroq. «Minikompyuter» atamasi shaxsiy kompyuterlar yaratilishidan oldin paydo bo'lgan.

Minimal mumkin bo'lgan javob vaqti

ing. - response time

rus. - минимальное

возможное время ответа

Tizim ortib ketishi fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotni datchiklardan, foydalanuvchidan yoki tarmoqdan olib qayta ishlashi davomidagi interval.

Minimal oraliqli kod

ing. - minimum distance code

rus. - код с минимальным расстоянием

Ortiqcha kod, unda yo'l qo'yiladigan bir qiymatdan keyingisiga o'tish kodli kombinatsiyadagi minimal o'zgarish bilan boradi. Uzatiladigan ma'lumotlarda faqat yakka xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Minimal ortiqchalikka ega kod

ing. - minimum redundancy code

rus. - код с минимальной избыточностью

Qoidaga ko'ra, bunda Xaffman protsedurasi bo'yicha tuzilgan kod tushuniladi. Umumiy holda kodli so'zning o'rta uzunligi nuqtai nazaridan qaraganda «optimal» kod, kodlashni amalga oshirishning murakkabligi ko'rib chiqilmaydi.

Minimumga keltirish

ing. - minimize

rus. - доведение до минимума

Foydalanuvchining grafik interfeysida - dasturni to'xtatmasdan, uni piktogramma oynasiga aylantiruvchi opsiya.

Izoh - Windowsning oxirgi versiyalarida bu oynaning nomi vazifalar panelida oynaning pastida paydo bo'ladi. Bu nomni bosish vazifani qayta aktivlashtiradi.

Miniplata

ing. - mini-card

rus. - миниплата

Kompyuter imkoniyatlarini kengaytiradigan mayda xotira qurilmasi. Miniplatalar turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilib qattiq disk yoki flesh-xotira qurilmalari vazifalarini bajaradi.

Minislot

ing. - minislot

rus. - временной подинтервал (минислот)

TDMA kadridagi vaqt intervalining bir qismi bo'lib u turli abonentlarning axborotini uzatish uchun ishlatilishi mumkin.

Mintaqaviy tarmoq

ing. - regional network

rus. - региональная сеть

Geografik tarqoq yirik tarmoq bo'lib, u turli joylardagi kompyuterlarni kommunikatsiya vositalari bilan yagona yaxlit tarmoqqa birlashtiradi. Bitta tumanda ko'plab binolarni qamrab olishi ham, davlat chegarasidan tashqariga chiqishi ham mumkin. Bir biri bilan bog'langan bir nechta taqsimlangan, mintaqaviy tarmoq deyish o'rninga ko'pincha intertarmoq yoki tarmoqlar majmui deb ataladi.

Mirjametrlı to'liqlar

ing. - myriametric waves, very low-frequency waves

rus. - мириаметровые волны

Uzunligi 10 km dan 100 km gacha bo'lgan radioto'liqlar.

Mis kabel bo'ylab taqsimlangan interfeys

ing. - copper distributed data interface (CDDI)

rus. - распределенный

интерфейс на медном кабеле

Kabelli tizimlar uchun ekranlangan yoki ekranlanmagan o'ralgan juftlar asosida FDDI standartining modifikatsiyasi. Ushbu texnologiya kabel tizimini installatsiya qilish jarayonini ancha soddalashtiradi va arzonlashtiradi, biroq, o'ralgan juftlardan foydalanilayotganda, stansiyalar o'rtasidagi maksimal masofa cheklanadi. U 100 metr-dan oshmasligi kerak.

Mnemonika

ing. - mnemonics

rus. - мнемоника

Yisqa va osonlik bilan eslanadigan so'z yoki qisqartma. U inson va kompyuter muloqotida komanda sifatida ishlatiladi. Masalan, «Ctrl» tugmasi kompyuterning ba'zi operatsiyalarini boshqaradi. Bu yerda «Ctrl» – mnemonika, «Control» so'zining qisqartmasi.

Mobil abonent

ing. - mobile user

rus. - мобильный абонент

Yer usti yoki yo'ldoshli aloqaning harakatlana turib ishlaydigan har qanday abonent. Odatda, u muayyan xizmat ko'rsatish zonasida qayd etilgan bo'lib, shu hududda erkin ko'chib yurishi va boshqa abonentlar bilan aloqa o'rnatishi mumkin.

Mobil abonent joylashgan yer registri

ing. - visitor location register (VLR)

rus. - регистр местоположения

подвижного абонента

Mobil aloqa tarmog'ining ma'lumotlar bazasi, unda abonentlarning ko'chib yurishi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi. Har bir tayanch stansiyada o'zining zonası va «be-

gona» zonalaming abonentlari to'g'risidagi ma'lumotlarnı saqlaydigan registr (VLR) bo'ladi. Yig'ilgan axborot vaqtincha, ya'ni abonent aniq geografik zonada qayd etilgan vaqt davomida saqlanadi. Abonent bir zonadan boshqasiga ko'chib o'tganida, u joylashgan yer to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik ravishda yangilanadi.

Mobil abonentning identifikatsiya raqami

ing. - mobile subscriber i

dentification number (MSIN)

rus. - идентификационный номер мобильного абонента

IMSI mobil stansiya xalqaro identifikatsiya raqamining ma'lum pozitsiyalarida yozib qo'yilgan, 10 ta sondan iborat raqam.

Mobil abonentning xalqaro telefon raqami

ing. - international mobile user number (IMUN)

rus. - международный телефонный номер мобильного абонента

Uchinchi avlod mobil aloqa tarmoqlarida abonentni chaqirish uchun foydalaniladigan raqam.

Mobil agent

ing. - mobile agent

rus. - мобильный агент

Ma'lumotlar bazalari bo'ylab axborot izlash maqsadida «o'rnalovchi» dastur. Mobil agent izlashni amalga oshirish lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasiga ega tizimga o'tadi. O'rgimchak deb ham nomlanuvchi mobil agent faqat nimadir topilganda va o'z foydalanuvchisiga topilganni berish lozim bo'lganda tarmoqqa murojaat qiladi. Bitta tizim bazasida izlashdan keyin mobil agent boshqa abonent tizimiga o'tib, u yerda izlashni davom ettirishi mumkin. Mobil agentlar global bog'lanish xizmatida ayniqsa keng tarqalgan. Bu yerda mobil agentlardan foydalanish kerakli axborotni topish tezligini ancha oshiradi. Robotlar deb ham nomlanuvchi agentlar deyarli to'xtovsiz bog'lamlar bo'ylab «o'rmlab», ular tarkibini so'raydi va ularda mavjud axborotni tahlil qiladi.

Mobil aloqa avlodlari

ing. - wireless generations

rus. - поколения мобильной связи

Simsiz mobil aloqa tizimlarining rivojlanib borishini aks ettiruvchi avlodlar. 1G mobil kommunikatsiya tizimlari faqat ovozni uzatish uchun mo'ljallangan edi. 1G analog standartlari – AMPS, TACS va NMT o'tgan asrning 70-yillari oxiri va 80-yillarining boshida ishlab chiqilgan edi. 2G 90-yillarda tarqala boshladi. Signallarni raqamli kodlashdan foydalaniladigan asosiy standartlar GSM, TDMA hamda CDMA lardir. GSM tarmoqlari taqdim etadigan qisqa SMS xabarlarini jo'natish xizmatidan tashqari, 2G ovozni uzatish uchun qo'llaniladi. Asta-sekin foydalanishga, elektron pochta va Internet bilan mobil ishlash imkoniyatini beruvchi, oraliq avlod deb ataluvchi 2,5G yoki 2G+ mobil standartlar joriy qilinmoqda. Asosiy standartlari – GPRS paketli uzatishni GSM uchun kengaytirish, oshirilgan ma'lumotlar uzatish tezligiga ega GSM va TDMA (EDGE) modifikatsiyalari, shuningdek, modifikatsiyalangan CDMA (IS-95B i HDR). 3G (3 Generation) mobil aloqa tizimlarining yangi 3-avlodi. Radiokirish (foydalanish) tarmog'ining bu avlodi yuqori mobil (harakatlanish tezligi 120 km/h gacha), abonentlar uchun 144 Kbit/s gacha tezlik bilan, mobiligi past bo'lgan abonentlar uchun (tezlik 3 km/h gacha) 384 Kbit/s va 2,048 Mbit/s tezlik bilan axborot almashishni ta'minlaydi. 4G – mobil aloqa tizimlarining, ma'lumotlar uzatish tezligi yuqori bo'lishi va ovozi aloqa sifati oshirilganligi bilan farq qiladigan yangi avlodidir. 4-avlodga 100 Mbit/s dan yuqori tezlik bilan axborot almashishni ta'minlaydigan texnologiyalar kiradi. Wi-Fi va WiMAX 4 G texnologiyalarga misol bo'ladi. Soni uncha katta bo'lmagan, 4G tarmoqlar bilan ishlashi mumkin bo'lgan kam sonli apparatlarning energiya iste'molining yuqoriligi bu texnologiyaning kamchiligidir.

Mobil aloqa kommutatsiya markazi

ing. - mobile switching centre

rus. - центр коммутации подвижной связи
Telekommunikatsiyalar tarmog'i ichida mobil abonentlarning bog'lanishini va ularning statsionar tarmoqlar bilan birgalikda ishlay olishini ta'minlaydigan kommutatsiya stansiyasi.

Mobil aloqa operatori

ing. - mobile network operator

rus. - оператор мобильной связи

Mobil aloqa tarmog'iga ega bo'lgan, uning qurilishi, ishlashi, rivojlanishini ta'minlovchi va litsenziyaga asosan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Mobil aloqa tarmoqlarining kengaytirilgan mantig'i uchun mo'ljallangan dasturlar

ing. - customised applications for mobile networks enhanced logic (CAMEL)

rus. - приложения для расширенной логики сетей мобильной связи

GSM tarmog'ining funksiyasi. intellektual funktsionallikni qo'shgan holda, tarmoq imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Undan tayanch stansiyada foydalanuvchilar qiladigan qo'ng'iroqlarni kuzatib borish va nazorat qilish imkonini bo'lgan holda, rouming vaqtida foydalaniladi.

Izoh – Bu funksiya teriladigan raqamlarni chaqiruvni sozlash jarayonida o'zgartirish, chaqiruvga javobni va so'zlashuv tugallanishini kuzatib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, rouming xizmatlariga oldindan haq to'lanishini, ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishning nazorat qilinishini, maxsus raqamlar (masalan, ovozi pochta chaqirish uchun hamma joyda 123 raqamini terish mumkin) va foydalanuvchilarning yopiq guruhni raqamlari terilishini ta'minlaydi. CAMEL uchta bosqichda standartlashtirilgan, ulardan birinchisi foydalanishga topshirilmoqda.

Mobil aloqa tarmog'i

ing. - mobile communication network

rus. - сеть мобильной связи

Abonentlarga mobil aloqa (ovoz, ma'lumotlar uzatish va boshqalar) xizmatlarini ko'rsatuvchi texnik vositalar (kommutatsion va radioukuna, abonent qurilmalari, ulovchi liniyalar, inshootlar va h.k.) majmui. Mobil aloqa tarmoqlariga uyali, trunk, lokal-trank, radialzona tarmoqlari kiradi.

Mobil aloqa uzeli

ing. - mobile site

rus. - узел мобильной связи

Tayanch stansiya, antenna kompleksi va boshqa aloqa uskunasi joylashgan aloqa punkti.

Mobil aloqada raqamli paketli

ma'lumotlar

ing. - digital packet data in mobile communication

rus. - цифровые пактные данные в мобильной связи
Paketli radiotarmoqda ma'lumotlar uzatish usuli. Bu texnologiyaga ega tarmoqlar 1994-yili paydo bo'lib, tezda ommaviylashib ketdi. Mobil aloqa ma'lumotlarning ixtiyoriy turini (matnlar, tasvirlar va tovushni) uzatishni ta'minlay boshladi. Shu bilan birga, uzatishning yuqori ishonchligi va xilma xil xizmatlar taqdim qilish kafolatlanadi.

Mobil aloqaning raqamli kanallari bo'ylab ma'lumotlarni paketli uzatish ing. - mobil digital packet data (MDPD)

rus. - пакетная передача данных по цифровым каналам мобильной связи
Dupleks rejimida radiokanal bo'ylab ma'lumotlarni 19,2 kbit/s tezlikda uzatish. Ma'lumotlar so'zlashuvlar orasidagi pauzalarda yoki ajratilgan aloqa kanallari bo'ylab uzunligi 138 baytli paketlar bilan uzatiladi (axborot tezligi 9,0-14,4 kbit/s).

Mobil banking

ing. - mobile banking

rus. - мобильный банкинг

Bank hisob raqamidan simsiz foydalanish texnologiyasidan (WAP protokoli) foydalangan holda mobil telefon yoki portativ kompyuter (PDA) yordamida boshqarish.

Mobil eshittirish

ing. - mobile broadcast

rus. - мобильное вещание

Mobil aloqa kanallari bo'ylab, ro'yxatga olingan barcha abonentlar foydalana olishi mumkin bo'lgan axborot-ma'lumotnoma xabarlarining tarqatilishi. Keng eshittirish zonasi binoning bir qismi yoki lokal shahar zonasidan to butun tarmoq o'Ichamigacha, dinamik ravishda o'zgarishi mumkin.

Mobil Internet

ing. - mobile Internet

rus. - мобильный Интернет

WAP protokoli asosida Internetdan simsiz foydalanish texnologiyasi. Mobil aloqa tarmoqlarida so'rovlarni uzatish transporti GPRS ma'lumotlarni paketli uzatish xizmati yoki CSD bo'lishi mumkin. Texnologiya yuqori darajada servisni, ayniqsa, biznesni samarali boshqarish imkoniyatini ta'minlaydi.

Mobil Internet-foydalanish

ing. - mobile Internet use

rus. - мобильное Интернет-использование

Internetdan mobil aloqa yoki simsiz ulanishlar tarmog'i orqali, uydan yoki ish joyidan uzoqda portativ kompyuterlarda yoki cho'ntak qurilmalarida foydalanish.

Mobil (ko'chiriladigan) operatsion tizim

ing. - mobile (portable) operation system

rus. - мобильная (переносимая)

операционная система

Bir nechta kompyuter to'plamida uning kodini ko'chirish yo'li bilan (uncha katta bo'lmagan o'zgarishlar bilan bo'lishi mumkin) ishlatiladigan operatsion tizim.

Mobil modul

ing. - mobile module

rus. - мобильный модуль

Intel korporatsiyasining bloknotli shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan protses-sorli moduli.

Mobil radioaloqa

ing. - mobile radio communication

rus. - подвижная радиосвязь

Statsionar va mobil radiostansiyalar o'rtasidagi yoki faqat mobil radiostansiyalar o'rtasidagi radioaloqa.

Izoh - Mobil radioaloqaqaga trunkli va uyali radioaloqa, mobil stansiyalarning retranslyatorlar orqali aloqasi, har qanday mobil radiostansiyalarning o'zaro aloqasi taalluqlidir.

Mobil stansiya

ing. - mobile station

rus. - мобильная станция

Harakatlana turib ishlashga mo'ljallangan barcha dengiz, havo va quruqlik radiostansiyalariga nisbatan qo'llaniladigan umumiy nom. Izoh - Mobil radiostansiyalar qatoriga ko'pincha portativ terminallar, jumladan, «telefon go'shagi» turidagi terminal ham kiritiladi.

Mobil stansiya klassi

ing. - mobile station class

rus. - класс мобильной станции

Mobil stansiyaning asosiy xarakteristikalarini, birlamchi navbatda, uzatgichning maksimal nurlanish quvvatini tavsiflovchi ko'rsatgich.

Izoh - GSM standarti doirasida mobil stansiyalarning 8 ta klassi mavjud.

Mobil stansiya mansub bo'lgan tarmoq kodi

ing. - mobile network code (MNC)

rus. - код сети, к которой принадлежит мобильная станция

Xalqaro IMSI identifikatsiya raqamida ko'rsatilgan, ikkita raqamdan iborat indeks.

Mobil stansiya qayd etilgan mamlakat kodi

ing. - mobile country code (MCC)

rus. - код страны, в которой

зарегистрирована мобильная станция

Xalqaro IMSI identifikatsiyalash raqami sarlavhasida ko'rsatilgan uchta raqamdan iborat indeks.

Mobil stansiya tomonidan boshqariladigan xendover

ing. - mobile-controlled handover (MCHO)

rus. - хэндовер, управляемый мобильной станцией

Mobil stansiyaning bir uyadan boshqasiga o'tish protsedurasi, bunda turli tayanch stansiyalardan qabul qilinuvchi signal darajasi mobil stansiya tomonidan o'lchanadi; aynan shu stansiya o'ziga qayerda va qanday xendover kerakligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Ushbu usul simsiz foydalana olish tarmoqlarida qo'llaniladi.

Mobil stansiya uskunasi xalqaro identifikatori

ing. - international mobile (station) equipment identity (IMEI)

rus. - международный идентификатор оборудования мобильной станции

Raqamli mobil telefonning yagona xos seriyali raqami.

Mobil stansiya yordamidagi xendover

ing. - mobile assisted handover

rus. - хэндовер с помощью мобильной станции

Mobil stansiya ishtirokida xizmat ko'rsatishni bir tayanch stansiyasidan boshqasiga uzatish. Avtomatik qayta ulash usuli, bunda abonent stansiyasi signal darajasini o'lchaydi va o'lchash natijalari to'g'risida tayanch stansiyaga hisobot yuboradi.

Mobil stansiyaning identifikatsiya raqami

ing. - mobile identification number (MIN)

rus. - идентификационный номер мобильной станции

Mobil stansiyaning tarmoqdagi raqami bo'lib, u orqali stansiya aniq identifikatsiya qilinishi mumkin; stansiyaning tarmoq raqami. Izoh - Bu raqam, odatda, tayyorlovchi zavod tomonidan beriladigan seriyaviy raqam (ESN)dan farq qiladi. Ruxsat etilmagan kirish (foydalanish)ning oldini olish maqsadida, MIN va ESN lar elektron usulda nazorat qilinadi.

Mobil stansiyaning vaqtinchalik rouming raqami

ing. - mobile station roaming number (MSRN)

rus. - временный роуминговый номер мобильной станции

Abonent-roumerga, kiruvchi ulanishni o'rnatishda faqat bog'lanish vaqtiga beriladigan raqam.

Mobil telefon

ing. - mobile phone

rus. - мобильный телефон

Mobil aloqada foydalaniladigan telefon apparati turi. Mobil telefon asta-sekin kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko'p maqsadli abonent tizimiga aylanmoqda. Buning uchun apparat klaviatura va ekranga ega.

Mobil telefoniya

ing. - mobile telephony

rus. - мобильная телефония

Ko'chma telefon qurilmalarini zamonaviy kundalik hayotga tatbiq etish. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, mobil telefoniya zamonaviy insonlarning yashash va fikrlash tarzidagi o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mobil tijorat

ing. - mobile-commerce

rus. - мобильная коммерция

Mobil terminal yordamida hisob-kitob qilish, bank operatsiyalarini bajarish, tovarlarga buyurtma berish va turli xizmatlarni ko'rsatishga imkon beradigan mobil aloqaning yangi xizmat turi.

Mobil tizim

ing. - mobile system

rus. - мобильная система

Harakatlanuvchan va harakatlanmaydigan abonentlarning bir-biri bilan o'zaro ishlashini ta'minlovchi kommunikatsiya tarmog'i xizmati. Mobil tizimlar yer usti va sun'iy yo'ldosh tarmoqlarida tashkil etiladi. Ular, shuningdek, paketli monil aloqa tarmoqlarida, jumladan uyasimon raqamli paketli ma'lumotlardan foydalanganda ham keng qo'llaniladi. Natijada mobil aloqa tarmoqlari, ya'ni harakatlanuvchan mobil aloqa tizimlari tashkil etiladi.

Mobil treyding

ing. - mobile trading

rus. - мобильный трейдинг

Investitsiya hisob raqamidan simsiz foydalaniş texnologiyasidan (WAP protokoli) foydalangan holda mobil telefon yoki portativ kompyuter (PDA) yordamida boshqarish.

Mobil yo'ldoshli xizmat

ing. - mobile satellite service (MSS)

rus. - мобильная спутниковая служба

Mobil yer stansiyalari yoki mobil va stasionar yer stansiyalari o'rtasida axborot almashinuvini tashkil etish uchun mo'ljallangan radioaloqa xizmati. Bunday xizmat uchun 1 GHz gacha chastotalar diapazoni, shuningdek, L(1,5/1,6 GHz) va S(1,9/2,5 GHz) chastotalar diapazonidagi chastotalar polosalari ajratilgan.

Mobil IP

ing. - mobile IP

rus. - мобильный IP

IP-protokolidan foydalanishga asoslangan mobil aloqa protokoli. Unda, aloqada uzoq muddatli tanaffuslar ko'zda tutiladi, abonentni bir tayanch stansiyadan boshqasiga o'tkazish rejimi saqlab turiladi. Protokolni amalga oshirish abonent terminalarida ham, marshrutizatorlarda ham TCP/IP protokollari steklariga o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi.

Mobillik

ing. - mobility

rus. - мобильность

Abonent stansiyasining, uning dastlab qayd etilgan joyidan qat'i nazar, ko'chib yurish va aloqa o'rnatish imkoniyati.

Mobillikni boshqarish

ing. - mobility management

rus. - управление мобильностью

Mobil stansiyalarni ro'yxatdan o'tkazish, ularni autentifikatsiya qilish va tarmoq resurslarining ular uchun taqsimlanishi bilan bog'liq protsedura. Mobillikni boshqarish tizim arxitekturasining tarmoq darajasida amalga oshiriladi.

Moda

ing. - mode

rus. - мода

Alohida yorug'lik nuri ham ko'p modali, ham bir modali tola orqali o'tadigan yo'l.

Modal oyna

ing. - modal window

rus. - модальное окно

Boshqa oynaga o'tishdan oldin foydalanuvchidan qandaydir harakatlar talab qilinadigan oyna.

Modallik

ing. - modality

rus. - модальность

Tartibotning uzluksizlik xossasi, ya'ni, uni to'liq tugamaguncha to'xtatishning iloji yo'q.

Moddiy axborot tashuvchisi

ing. - information storage device

rus. - материальный носитель информации
Axborotni yozish va saqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muayyan fizik xususiyatlarga ega modda.

Moddiy dispersiya

ing. - material dispersion

rus. - материальная дисперсия

Xromatik dispersiyang bir turi. Optik tola yoki to'lqin o'tkazgich materiali xossalari bilan belgilanadi va sindirish ko'rsatkichining to'lqin uzunligiga bog'liqligi orqali tavsiflanadi.

Model

ing. - model

rus. - модель

Dastlabkidan farq qiladigan, ammo yechilayotgan vazifalar doirasida uni almashtirishga layoqatli bo'lgan (haqiqiy, belgili yoki farziy) obyekt.

Modellash

ing. - simulation

rus. - моделирование

O'rganiladigan obyekt (tizim, hodisa) modelini ishlab chiqish jarayoni. Asosiy vazifa – obyektни o'rganish. Modelni yaratish – bu iteratsion jarayon bo'lib, model original bilan taqqoslanadi va aniqlashtiriladi. Informatikada asosan, modellashning informatson va matematik usuli qo'llaniladi.

Modem

ing. - modem

rus. - модем

1. Kommutatsiyalanadigan uzatish liniyasining modemi. Telefon aloqa liniyalarida ishlaydi. Ma'lumotlar uzatish maksimal tezligi raqamli aloqa liniyalarida 56,6 kbit/s, analog aloqa liniyalarida 33,6 kbit/s.
2. Raqamli signalni analog tovush signaliga va analog signalni raqamli signalga aylantiruvchi qurilma bo'lib, u telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuterga ma'lumotlarni uzatadi va undan qabul qiladi.

Modem-dastur

ing. - software modem

rus. - модем-программа

Modem vazifalarini bajaruvchi dastur. Kerakli dasturiy ta'minot kompyuterning «doimiy xotira qurilmasiga» yuklanadi. Modem-dastur modemga ko'ra qator afzalliklarga ega: modem apparati uchun zarur bo'lgan joy egallamaydi; narxi solishtirib bo'lmaydigan darajada arzon; energiya iste'moli kam; modemni yangilash oson.

Modemlar to'plami

ing. - modem pool

rus. - модемный пул

Modemlar to'plami. Foydalanuvchi o'z terminalini ulashga ruxsat so'raganda ushbu modemlarning bittasiga ulanadi va uni telefon tarmog'i orqali ma'lumotlar uzatish va olish uchun ishlatadi.

Modemli server

ing. - modem server

rus. - модемный сервер

Bitta modem yoki modemlar guruhidan

iborat tarmoq elektron hisoblash mashinasi. Tarmoq foydalanuvchilariga chiquvchi chaqiruvlar uchun mo'ljallangan modemlardan birgalikda foydalanish imkonini beradi.

Moder

ing. - moder

rus. - модер

O'matilgan kodlovchi qurilma bilan tuzilishi jihatidan va ishlashi bo'yicha moslashgan modulyator.

Moderator

ing. - moderator

rus. - модератор

1. Forum, teleanjuman va chatlarda qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi yetakchi. Odatda teleanjuman qoidalari juda oddiy: spam, fleym va anjumanga tegishli bo'lmagan mulohazalar man etiladi. Moderator, zarur bo'lganda ishtirokchilarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rishni mumkin – tartibbuzarlarni ogohlantirishdan tortib ma'lum xabarlarini o'chirish yoki hatto ba'zi foydalanuvchilar uchun foydalanishni man etishgacha.
2. Kataloglarda moderator – u yoki bu mavzu bo'limiga javobgar shaxs. U sayt mavzusi va katalog bo'limining mosligini tekshirib turadi. Ba'zan (agarda bu katalogda axborotni joylashtirish shartlari bilan belgilangan bo'lsa) moderator saytlar mazmuni bilan tanishib chiqadi.

Modifikatsiya biti

ing. - bit modification

rus. - бит модификации

Diskka, faqat modifikatsiyalangan sahifalarni ko'chirib olish (otkachka) maqsadida, sahifalar modifikatsiyasini ko'rsatuvchi sahifalar jadvalining element biti.

Modul

ing. - module

rus. - модуль

Tizim texnik ta'minotining, bitta blokda qilingan va boshqa modullar bilan birikish uzellariga ega bo'lgan funksional qismi. Modullar tizimdan oson foydalanish uchun qo'llaniladi, ishdan chiqqanda va modernizatsiya qilishda ularni almashtirish

mumkin. Protseduralar, kichik dasturlarni ajratish, mustaqil sozlash va dasturga tayyor qismlarni kiritish uchun mo'ljallangan dasturlash tili obyekt.

Modul bo'yicha bo'lish

ing. - division on modulo

rus. - деление по модулю

Arifmetik amal. Uning natijasi – butunga bo'lish qoldig'i. Deyarli barcha dasturlash tillarida bor. a mod b ko'rinishida belgilanadi.

Modula

ing. - modula

rus. - модуль

Protsedura turidagi universal dasturlash tili. N.Virt tomonidan 1975-yilda ishlab chiqilgan; Paskal tilining to'g'ridan-to'g'ri avlodi. Standart Paskal tilidan asosiy farqlari: modul va jarayon tushunchasi kiritilgan, sintaksis yanada tizimlashtirilgan, til past daraja dasturlash vositalari bilan to'ldirilgan. 1979-yilda tilning Modula – 2 versiyasi yaratilgan.

Modulli arxitektura

ing. - modular architecture

rus. - модульная архитектура

Birga bog'lanishi mumkin bo'lgan alohida tarkibiy qismlardan iborat xohlagan tizim dizayniga tegishli atama. Modulli arxitektura afzalligi xohlagan tarkibiy qism (modul) ni qolgan tizimga ta'sir ko'rsatmasdan o'zgartirish yoki qo'shish mumkinligidir. Modulli arxitektura qarama-qarshi tarkibiy qismlar orasida aniq chegaralari bo'lmagan birlashgan arxitekturadir.

Modulli A/V kontroller

ing. - module A/V-controller

rus. - модульный А/В-контроллер

Qurilmani takomillashtirishda almashtirishga yaroqli bo'lgan, chiqarib olinadigan modullar asosida konstruksiyalangan A/V-kontroller.

Modullik

ing. - modularity

rus. - модульность

Qurilmaning turli vazifalarni bajaruvchi

funksional bloklardan foydalanish orqali o'z imkoniyatlarini o'zgartirish xususiyati.

Modulyator

rus. - модулятор

ing. - modulator

Nolinariyaviy zanjirlarni o'z ichiga oladigan, elektr tebranishlarni modulyatsiyalash uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh – Modulyatorida uzatiladigan axborot qonuniyatlanga muvofiq tebranish jarayonining istalgan parametrining (amplituda, chastota, faza) o'zgarishlari ro'y beradi.

Modulyator-demodulyator

ing. - modem

rus. - модулятор-демоулятор

Kompyuterning raqamli signallarini keyinchalik telefon liniyalari orqali uzatish maqsadida analog signallarga, va aksincha, aylantiradigan qurilma.

Modulyatsiya

ing. - modulation

rus. - модуляция

Eltuvchi chastota parametrlari (amplituda, chastota yoki faza)ning berilgan qonun bo'yicha o'zgarish jarayoni. Bu jarayon yuqori chastotali tebranish davriga nisbatan past tezlik bilan amalga oshiriladi.

Izoh – Modulyatsiyalash metodlari egallangan spektr kengligi, xalqig'iga bardoshlilik va spektral samaradorlik bilan farqlanadi.

Modulyatsiya simvoli

ing. - modulating symbol

rus. - модуляционный символ

Eltuvchining signal vektor diagrammasida (signal yulduzida) tegishli pozitsiya bilan tasvirlanadigan muayyan holati. Har bir pozitsiya eltuvchi fazasi va amplitudasining muayyan qiymatiga mos keladi va muayyan bitlar ketma-ketligini ifodalaydi.

Modulyatsiyalash

xatoliklari koeffitsiyenti

ing. - modulation error ratio

rus. - коэффициент

модуляционных ошибок

Eshittirish televideniyesi radiosignalining ortogonal kodlangan eltuvchilarining signal

yulduzidagi vektorlarning hisoblangan va haqiqiy pozitsiyasi o'rtasidagi tafovutni tavsiflaydigan hamda shu pozitsiyalarda radiosignallar quvvatlarining nisbati sifatida aniqlanadigan koeffitsiyent.

Modulyatsiyalovchi kod

ing. - modulating code

rus. - модулирующий код

QPSK, 8PSK, 16QAM murakkab modulyatsiyalash usullarida ishlatiladigan, n bitdan iborat kodli kombinatsiya.

Izoh - Bunday kodli kombinatsiyalar dibit, tribit, kvadbit va h.k.lar tarzida ham ma'lum.

«Mohiyat – bog'liqlik» modeli

ing. - Entity – relationship model

rus. - модель «сущность – связь»

Mohiyatlar va bog'liqliklar diagrammasi ko'rinishida ma'lumotlar bazalari tuzilmalarini grafik taqdim etishning keng tarqalgan vositasi. Mohiyat – muayyan turdagi abstrakt obyekt. Bog'liqliklar – bu mohiyatlar o'rtasidagi bog'lanish, atributlar esa, mohiyatlarning xossalari.

Molekulyar kompyuter

ing. - molecular computer

rus. - молекулярный компьютер

Molekulalarning (ko'proq biologik) hisoblash imkoniyatidan foydalanuvchi hisoblash tizimi. Molekulyar kompyuterlar atomlarning bo'shlikda joylashishini hisoblash g'oyasini qo'llaydi.

Moliyalashtirish

ing. - financing

rus. - финансирование

Nimani dir amalga oshirishga, rivojlantirishga qilinadigan xarajatlarning zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi.

Monipyuter

ing. - moniputer

rus. - монипьютер

Nomi «monitor» va «kompyuter» so'zlarining qo'shilishidan olingan qurilma.

Monitor (display)

ing. - monitor (display)

rus. - монитор (дисплей)

1. Axborotni matn, jadvallar, rasmlar, chizmalar va b.lar ko'rinishida vizual aks ettiradigan qurilma. Monitorlarning aksariyati

elektron-nur trubka asosida konstruksiyalangan.

2. Televizion signal yoki uning sifatini baholash bilan harakatlarni soddalashtirish uchun tasvirning mavjudligini belgilash maqsadida televizion tasvimi qayta tiklashga mo'ljallangan apparatura.

Izoh - Fransuz tilidagi «moniteur» atamasi va ingliz tilidagi «class I monitor» va «studio monitor» atamalari tasvir sifatini baholashga yordam beradigan yuqori sifatli uskunalaridagina qo'llanilishi mumkin.

Monitoring

ing. - monitoring

rus. - мониторинг

Tizim, jarayon yoki faoliyat holatini aniqlash.

Izoh - Holatni aniqlash uchun, balki uni nazorat qilish, kuzatish yoki kritik baholash zarur bo'lishi mumkin.

(Monitorlarda) yorqinlikni avtomatik tarzda nazorat qilish

ing. - automatic brightness control

rus. - автоматический контроль

яркости (в мониторах)

Tasvirning yorqinligiga bog'liq holda monitoring yorqinligi va kontrastligini o'zgartirish imkonini beruvchi funktsiya.

Izoh - Ko'pincha nazorat oq rang bo'yicha olib boriladi.

Monokanal

ing. - monochannel

rus. - моноканал

Ajratilgan kanal, u orqali xabarlar jo'natuvchi abonent stansiyadan tarmoqning boshqa barcha stansiyalariga bevosita, kechikishsiz va navbat kutmasdan uzatilishi mumkin.

Monokanal tarmog'i

ing. - monochannel network

rus. - моноканальная сеть

O'zagi monokanal bo'lgan tarmoq. Monokanal tarmog'i abonent tizimlari guruhini monokanalga ulash orqali hosil qilinadi. Tarmoq topologiyasi ishlatilayotgan monokanal turi bilan belgilanadi. Odatda monokanal tarmog'i boshqa lokal tarmoqlar va hududiy tarmoqlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Monokenglikdagi shrift

ing. - monospaced font

rus. - моноширинный шрифт

Belgilar kengligining bir xilda qayd etilgan shirifti, ya'ni har bir belgining kengligidan qat'i nazar gorizontaal bo'yicha ham bir xil kenglikka ega bo'ladi.

Monolog
ing. - monologue

rus. - монолог
Foydalanuvchi yoki amaliy jarayonning o'ziga o'xshash foydalanuvchi yoki jarayonga darrov javob berishni talab qilmaydigan murojaati. Monolog darrov javob berishni talab qilmaydigan turli xil xabarlarini uzatish uchun mo'ljallangan. Foydalanuvchi yoki dastur nutqi abonent tizimining tashqi xotirasida haqiqiy oluvchi tomonidan talab qilinmaguncha saqlanadi.

Monopol rejim
ing. - exclusive mode

rus. - монопольный режим
Biron-bir drayver yoki dasturning, boshqa dasturlarning murojaatlarini blokirovka qilib faylga yoki qurilmaga murojaat qilib ishlashi.

Monoprotessor
ing. - uniprocessor

rus. - микропроцессор
Yuqori unumdorlik bilan ishlaydigan bitta protessorini bo'lgan hisoblash tizimi.

Monoxrom
ing. - monochrome

rus. - монохромный
Bir rangli. Misol uchun, monitorlar monoxrom, oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin. Monoxrom monitorlar aslida ikkita rangdan foydalanadi, ularning bittasi displey tasviri, ikkinchisi esa fon uchun ishlatiladi. Grafik tasvirlar ham monoxrom, oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin.

Monoxrom kanal
ing. - monochrome channel

rus. - монохромный канал
Rangli televizion uzatishda monoxrom signalni o'tkazish uchun mo'ljallangan istalgan trakt. Monoxrom kanal boshqa signallarni ham ko'chirishi mumkin, masalan, mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan rangli quyi eltuvchi signalini.

Monoxrom kanal polosasining kengligi
ing. - bandwidth of monochrome channel

rus. - ширина полосы монохромного канала
Monoxrom signal videopolosasining kengligi.

Monoxrom matritsali, rangli,

suyuq kristalli displey
ing. - super twist nematic
rus. - цветной жидко-кристаллический дисплей с монохромной матрицей

Monoxrom (qora-oq) passiv suyuq kristalli displey turi. Odatdagi suyuq kristalli displeylardan farqi ranglar kontrastligi molekullarni 180° dan 270° burchakkacha o'zgartirilishi hisobiga yaxshilangan. Yana bir afzalligi, bunday monitorlarning kam elektr energiyasini talab qilishi va ishlab chiqarishda arzonligidir.

Monoxrom signal

ing. - monochrome signal
rus. - монохромный сигнал
Monoxrom televizion uzatishda - ranglilikni emas, faqat tasvir yorqinligini boshqaruvchi signal. Rangli televizion uzatishda, asosan rangli tasvir yorqinligini, shuningdek, oddiy monoxrom qabul qilgichda yaratiladigan tasvir yorqinligini boshqaruvchi signal.

Montaj (dasturni)

ing. - editing (a programme)
rus. - монтаж (программы)
Turli tovushli va vizual syujetlarni kompiyatsiya qilish yo'li bilan dastur yaratish.

Morfing

ing. - morphing
rus. - морфинг
Bitta obyektidan boshqa obyektga tekis o'tishni yaratadigan kompyuter grafikasi texnologiyasi. Uch o'lchamli va ikki o'lchamli, rastli va vektorli grafikada uchraydi. Morfingdan foydalanganda odam faqat tayanch figuralarni yaratadi va ba'zan kompyuterga morfingni to'g'ri bajarishda yordam beradigan kalit nuqtalarni belgilaydi.

Mos kelmaslik

ing. - incompatibility
rus. - несовместимость

Dasturiy va/yoki apparat ta'minotning bir-biriga mos kelmasligi, ularning birgalikda ishlashini cheklaydi yoki mumkin qilmaydi.

Mos keluvchi chastotadagi ikki yoqlama qutblanish

ing. - dual polarization of co-frequency

rus. - двойная поляризация на совпадающей частоте

Turli signallar uzatiladigan, ortogonal qutblanishga ega ikki eltuvchili bitta radiochastotadan foydalanish.

Moslashgan yuklama

ing. - matched load, nonreflecting load

rus. - согласованная нагрузка

1. Parametrlari unda ko'proq quvvatni olishga imkon beradigan yuklama.

2. Liniyada qaytgan to'lqin yo'qligini bildiradigan liniya yuklamasi.

3. Kuchlanish bo'yicha turg'un to'lqin koeffitsiyenti 1,05 dan ko'p bo'lmagan yuklama.

Moslashuvchi rangli televideniye tizimi

ing. - compatible system of coloured television

rus. - совместимая система цветного телевидения

Rangli televideniye rangli televideniye signallarini qabul qilish va tasvimi oq-qora televizorda aks ettirish; oq-qora televideniye signallarini qabul qilish va tasvirlarni rangli televideniye aks ettirish; rangli va oq-qora televideniye televideniye signallarini aloqa kanallari bo'yicha uzatishni ta'minlaydigan tizimi.

Moslashtirish; solishtirish

ing. - aligning

rus. - согласование; сопоставление

1. Ma'lumotlar bazasida saqlanadigan modelni real tarmoq konfiguratsiyasiga mos keltirish.

2. Mashinada tarjima qilish tizimlarida: ikki tilda juft fragmentlarni avtomatik tarzda shakllantirish maqsadida, parallel matnlarni solishtirishning intellektual vositalariga nisbatan turli dasturlarda solishtirish protseduralari turlicha, biroq, qoidaga ko'ra, ular dialog elementini ichiga oladi va ba'zan,

parallel matnlardan biri o'zgartirilishini talab qiladi.

Moslashuvchanlik

ing. - adaptability

rus. - адаптируемость

Farqlanadigan yoki takomillashtirilgan apparat vositalar, dasturiy ta'minot, boshqa operatsion muhitlar yoki foydalanish sharoitlari uchun samarali va oqilona moslashning oddiylik darajasi.

Izoh - Moslashuvchanlikka ichki potensial imkoniyatlarning (masalan, ekran maydonlarining, jadvallarning, tranzaksiya hajmlarining, hisobotlar shakllarining) ko'lamliligi ham kiradi.

Moslik

ing. - compatibility

rus. - совместимость

1. Turli dasturiy va apparat ta'minot vositalarining birgalikda ishlash va axborot almashinish qobiliyati.

2. Eshittirish televideniyesi yangi tizimining dasturlarni shu tizim bo'yicha o'zgartirilmagan mavjud televizorlarga qabul qilishni amalga oshirishga imkon beradigan xususiyati.

Izoh - Taalluqli atama «moslashtirish».

Moslikka testlash

ing. - compatibility testing

rus. - тестирование на совместимость

Mahsulotning, kompyuterlarning har xil modellarida va turlarida, tashqi qurilmalar (masalan, printerlar) ning har xil turlari bilan ishlash qobiliyatini, shuningdek, tizimning boshqa dasturiy va apparat komponentlari bilan mosligini tekshirish.

Mozaika (yoyish qurilmasida)

ing. - mosaic (in scanning equipment)

rus. - мозаика (в устройстве развертки)

Optik tasvimi elektron tasvirga o'zgartirishda xizmat qiladigan bir nechta o'zaro izolyatsiyalangan yorug'likka sezgir elementlardan tashkil topgan sirt.

Muallif

ing. - author

rus. - автор

Fayl yaratuvchi. Bu fayl uchun boshqa foydalanuvchilarga qaraganda ko'proq huquqqa ega bo'ladi.

Muallifga tegishli yorliq

ing. - copyright notice

rus. - авторская этикетка

Dasturiy mahsulotda muallif huquqi borligi-

ni bildiruvchi yorliq.

Izoh - Odatda muallifga tegishli yorliq dasturiy listing boshiga kiritiladi va albatta kompyuter displeyida aks ettiriladi.

Mualliflashtirilgan erkin foydalanish subyekti

ing. - authorized access subject

rus. - авторизованный субъект доступа

Tizim obyektlaridan erkin foydalanish yuzasidan tegishli huquqlar (vakolatlar) taqdim etilgan subyekti.

Mualliflashtirilgan foydalanuvchi

ing. - authorized user

rus. - авторизованный пользователь

Ma'lum huquq va imtiyozlarga ega foydalanuvchi.

Mualliflashtirilmagan foydalana olish

ing. - illegal access

rus. - неавторизованный доступ

Foydalanuvchining, o'qish, o'zgartirish yoki buzish maqsadida, unga erkin foydalanish ruxsat etilmagan ma'lumotlarga ataylab murojaat qilishi.

Mualliflashtirish

ing. - authorization

rus. - авторизация

1. Foydalanish huquqlari asosida foydalanish imkoniyatini taqdim etishdan iborat bo'lgan huquqlarni taqdim etish.

2. Foydalanuvchining foydalana olish huquqlarini tekshirish va unga berilgan huquqlarga muvofiq resurslardan foydalana olishga ruxsat olish.

Izoh - Mualliflashtirish odatda autentifikatsiya protsedurasidan ilgari bo'ladi.

3. Subyektga obyektga kira olish huquqlarini taqdim etish.

4. Foydalanuvchi, dastur yoki jarayonga kira olishni taqdim etish.

5. Turli xildagi tizim resurslaridan foydalanishni taqdim etish yoki foydalanishning rad etilishi.

Mualliflashtirish sertifikatini

ing. - authorization certificate

rus. - сертификат авторизации

Axborotdan erkin foydalanish huquqini, foydalanuvchining shaxsini yoki uning boshqa huquqlari va vakolatlarini tasdiqlovchi elektron hujjat.

Muallifik dasturi

ing. - authoring program

rus. - авторская программа

O'rgatuvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan yoki interaktiv multimedia ilovalarni ishlab chiqish imkonini beradigan, ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot. Bunday dasturiy ta'minotdan foydalanish, o'rgatuvchi dasturni ishlab chiquvchida dasturlash sohasida eng kam bilim, tushuncha bo'lishini talab etadi.

Muallifik huquqi

ing. - copyright

rus. - авторское право

Qonun tomonidan muallifga yoki uning vakiliga original ishni qayta tiklash, e'lon qilish va nusxa ko'chirish uchun taqdim etiladigan yagona huquq.

Muallifik huquqini qo'riqlash

ing. - copyright symbol

rus. - знак охраны авторского права

Asarning har bir nusxasida joylashtirilgan nishon. U uch elementdan iborat: 1) aylana ichida «C» lotin harfi; 2) alohida muallifik huquqi egasining ismi (rasmii nomi); 3) asar birinchi marta chop etilgan yil.

Muallifik huquqlarini

bimoyalash texnik vositalari

ing. - digital rights management (DRM)

rus. - технические средства защиты авторских прав

Dasturiy kodlarni o'zida saqlamaydigan himoyalangan asarlarning (masalan, audio va video fayllarning) nusxalarini ko'chirish imkonini qiyinlashtiruvchi dasturiy vositalar. Rivojlanishning navbatdagi bosqichida, qayta eshittirish vositalari butunlay huquq egasi nazoratida bo'lgandagina, DRM to'laqonli qayta eshittirishni ta'minlash va nusxa ko'chirishdan himoyalashni ta'minlash imkoniga ega bo'ladi.

Muallifik ishlab chiqish tili

ing. - authoring development language

rus. - авторский язык разработки

Dasturchi bo'lmagan mutaxassislar tomonidan multimedia mahsulotlar va taqdimotlar ishlab chiqishda foydalaniladigan yuqori darajadagi ixtisoslashtirilgan til.

Mualliflikni qayd etish

ing. - non-repudiation

rus. - фиксация авторства

1. Jo'natuvchining xabarni jo'natish yoki harakatni bajarish faktini keyinchalik tan olmasligini bartaraf qilish qobiliyati.

2. Obyektlarning aloqa seansida ishtirok etuvchilardan biri tomonidan, aloqa seansining barchasida yoki bir qismida ishtirok etganlikni tan olishni rad etishdan muhofaza qilish.

3. Jo'natuvchi tomonidan xabarni, (masalan, «dasturni ko'rish uchun bir martalik to'lov» xizmatiga so'rov) uning jo'natish faktini tan olmaslik mumkin emasligini ta'minlash jaryoni.

Mualliflikni rad etish

ing. - refusal of authorship

rus. - отказ от авторства

Qandaydir hujjat yoki xabarga aloqadorlikni rad etish.

Muammoga yo'naltirilgan dasturlash tili

ing. - problem-oriented

programming language

rus. - проблемно-ориентированный язык программирования

Til tuzilishining o'zi va/yoki ma'lumotlar strukturasi ishlab chiqiladigan masalalarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan dasturlash tili. Deyarli barcha ma'lum bo'lgan universal dasturlash tillari ixtisoslashtirilgan, muammoga yo'naltirilgan tillar sifatida ishlab chiqilgan. Masalan; Fortran tili ilmiy hisoblashlar uchun mo'ljallangan til sifatida, Pascal – o'qitish uchun, Si – tizim dasturlarini ishlab chiqish uchun, COBOL – iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun, LISP – sun'iy intellekt masalalarini hal qilish uchun, Fox – ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari bilan bog'liq vazifalar uchun ishlab chiqilgan.

Muammoga yo'naltirilgan

ma'lumotlar bazasi

ing. - problem-oriented database

rus. - проблемно-ориентированная база данных

Muayyan turdagi amaliy vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan mavzuga bog'liq hujjat va/yoki ma'lumotlarga ega ma'lumotlar bazasi.

Muammolarni yechish

ing. - troubleshooting

rus. - решение проблем

Xatolarni topish, diagnostika qilish, qurilmalarning ishlash jarayonidagi nosozlik sabablarini topish va ularni bartaraf etish.

Muar (televideniya)

ing. - moire (in television)

rus. - муар (в телевидении)

Televizion tasvirda, tasvirning qo'shni uchastkalarida yorug'ligi va rangi bo'yicha bir oz farq qiladigan to'liq linialardan tashkil topgan va tasvirga nam ipak ko'rinishiga o'xshash tus beradigan uchastkalar paydo bo'lishiga olib keladigan effekt.

Muassasa-ishlab chiqarish

telefon stansiyasi

ing. - private branch exchange

rus. - учрежденческо-производственная телефонная станция

Muassasa yoki korxonada abonentlarini telefon aloqa bilan ta'minlaydigan telefon stansiyasi.

Muassasa ichidagi mikrouyalar

ing. - indoor microcells

rus. - микросоты внутри учреждения

Ta'sir radiusi kichik va idora hududida joylashgan tayanch stansiyalarga ega simsiz aloqa tarmog'i uyalar.

Muhandis

ing. - engineer

rus. - инженер

Malakali texnik mutaxassis. Muhandis amaliy muammoning iqtisodiy va xavfsiz yechimini izlaydi va texnik muammolarni yechishda matematik va ilmiy bilimlarni qo'llaydi. Bu atama lotincha ingenium ya'ni bilimlilik so'zidan kelib chiqqan. Dasturiy muhandis dasturiy ta'minot tamoyillarini, tizimlarni dizayn qilishda, rivojlantirishda, testlash va baholashda qo'llaydi va shu kabi ta'minotlarni (masalan, chip) ishga tushiradi.

Muhandislik mehnatini kompyuterlashtirish
ing. - computer-aided engineering (CAE)

rus. - компьютеризация инженерного труда
Modellash, sxematexnika va mahsulotlar sinashga oid muammoli masalalarni yechadigan, kompyuterlashgan loyihalashning mustaqil sohasi.

Muhim bo'lmagan ma'lumot

ing. - background information
rus. - фоновая информация
Unga muhim bo'lmagan, ikkinchi darajali hisoblangan ma'lumotlar. Bu bir sekunddagi kadrlar soni to'g'risidagi axborot bo'lishi mumkin.

Muhit

ing. - environment
rus. - среда
Tizim (obyekt) ishlaydigan texnik va dasturiy vositalarining majmui.

Muhitga eltuvchini detektorlab va nizolarni aniqlab ko'plab kira olish

ing. - carrier sense multiple access with collision detection (CSMA/CD)
rus. - множественный доступ к среде с обнаружением конфликтов и детектированием несущей
Har bir uzal uzatishni boshlagandan so'ng, boshqa qurilma tomonidan bir vaqtda uzatishga urinish - kolliziyani aniqlash uchun tarmoqni «eshitishni» davom ettirishni talab etuvchi uzatish muhitiga kira olish usuli.
Izoh - CSMA/CD usuli Ethernet tarmoqlarida qo'llaniladi. Ushbu tarmoqlarda (35-40) foiz yuklama bilan kolliziyalar tez-tez ro'y beradi va ishni ancha sekinlashtiradi.

Muhitga kira olish bloki

ing. - medium attachment unit (MAU)
rus. - блок доступа к среде
Foydalanuvchi tizimning yoki ma'muriy tizimning monokanal yoki davriy halqaning umumiy bo'g'ini bilan ulanish qurilmasi.
Ulanish bloki uch qismdan tashkil topadi.
Ulardan ikkitasining tuzilmasi bu bo'g'inlarning turiga bog'liq bo'lib, ulanish blokining foydalanuvchi bo'g'in yoki umumiy bo'g'in bilan tutashishini ta'minlaydi. Blokning

uchinchi (mantiqiy) qismi ulanish blokining nosozligini tashxis qilish va «o'zining» tizimiga paydo bo'layotgan nosozliklar to'g'risida xabar uzatish, tizimdan signallarni umumiy bo'g'inga va unga teskari yo'nalishda uzatish va qabul qilish, umumiy bo'g'inning bandligini aniqlash maqsadida eshitib turish kabi foydalanish funksiyalarini bajaradi. Ko'pincha ulanish bloklarini kontrollerlar deb atashadi.

Muhofaza auditi

ing. - security audit
rus. - аудит защиты
Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi yozuvlari va resurslarining mustaqil tahlil va tadqiq qilinishi. U tizimni boshqarish vositalarining talablarga muvofiqligini tekshirish, ularning belgilangan xavfsizlik siyosati va amaliy vazifalarga mosligini kafolatlash, muhofaza tizimidan buzib foydalanishni aniqlash va boshqaruv, xavfsizlik siyosati va tartiblarda muayyan o'zgarishlar bo'yicha tavsiyalar berish maqsadida amalga oshiriladi.

Muhofaza biti

ing. - security bit
rus. - бит защиты
Xotira kalitidagi, tegishli xotira blokining yozishdan yoki tanlash va yozishdan muhofaza qilinishini belgilovchi ikkilik razryad.

Muhofaza falsafasi

ing. - protection philosophy
rus. - философия защиты
Muhofaza mexanizmlaridan foydalanishni (rasmiy yoki norasmiy usullar bilan) ko'rishga imkon beruvchi tizimning to'la umumiy sxemasi.

Muhofaza halqalari

ing. - protection rings
rus. - кольца защиты
Tizim va foydalanuvchi vakolatlar pog'onasini apparatli ajratishni amalga oshiruvchi axborot xavfsizligi va funksional radga turg'un arxitekturasi. Vakolatlar tuzilmasi bir necha konsentrik doira shaklida aks ettirish mumkin. Bu tarzda resurslarga maksimal kira olishni ta'minlovchi tizim rejimi (supervayzer rejimi yoki nol halqasi, ya'ni «halqa 0») ichki doira, kira olishi cheklan-

gan foydalanuvchi rejimi esa tashqi doira hisoblanadi. An'anaviy x86 mikroprotsessorlar oilasi himoyaning to'rtta halqasini ta'minlaydi.

Muhofaza kafolati

ing. - protection assurance

rus. - гарантия защиты

Axborotni qayta ishlash texnik vositasi uchun mutanosiblik sertifikatini yoki informatika obyekti uchun attestat mavjudligi. Bular qayta ishlanayotgan axborot xavfsizlik standartlari va boshqa normativ hujjatlar talablariga javob berishini tasdiqlaydi.

Muhofaza (maxfiylik) qulfi

ing. - privacy lock, protection lock

rus. - замок защиты (секретности)

Ma'lumotlar bazasiga yoki uning fragmentlariga (fayllarga, sohalarga) murojaat qilingandagi parollarni tekshirishning dasturiy mexanizmi. Yozuvlardan foydalanishni cheklaydi.

Muhofaza obyekti

ing. - protection object

rus. - объект защиты

1. Kirish nazorat ostida bo'lgan obyekt. Misollar – fayl, dastur, asosiy xotira sohasi; inson tomonidan yig'ilayotgan va quvvatlanayotgan ma'lumotlar.

2. Axborotni muhofazalash maqsadiga binoan axborotning muhofazasini ta'minlash zarur bo'lgan axborot yoki axborot tashuvchi, yoki axborot jarayoni.

3. Texnik razvedkadan muhofaza talab qilinadigan, axborotning barcha mavjudlik shakllari uchun umumlashma atama. Tarkibiga ko'ra, muhofaza obyektlari yakka va guruhiy bo'lishi mumkin.

Muhofaza qilinadigan axborot

ing. - secured information

rus. - защищаемая информация

Mulkchilik predmeti hisoblanadigan va normativ hujjatlar talablari yoki axborot egasi tomonidan belgilanadigan talablarga muvofiq muhofaza qilinishi kerak bo'lgan axborot.

Muhofaza qilinadigan axborotga

ta'sir ko'rsatuvchi omil

ing. - factor, acting upon protectable information

rus. - фактор, воздействующий на защищаемую информацию

Muhofaza qilinadigan axborot chiqib ketishi, buzib ko'rsatilishi, yo'q qilinishi, undan foydalana olish blokirovkalanishi mumkin bo'lgan hodisa, harakat yoki jarayon.

Muhofaza qilinadigan obyekt attestati

ing. - protection object certificate

rus. - аттестат объекта защиты

Sertifikatlash bo'yicha organ yoki muhofaza qilinadigan obyektida axborotni muhofaza qilishning belgilangan talablari va samaradorlik normalari bajarilishi uchun zarur va yetarli shart-sharoitlar mavjudligini tasdiqlaydigan boshqa maxsus vakolatlangan organ tomonidan beriladigan hujjat.

Muhofaza qilingan

avtomatlashtirilgan tizim

ing. - automatized system in guarded construction

rus. - автоматизированная

система в защищённом исполнении

Axborotni muhofaza qilish bo'yicha standartlar va/yoki normativ hujjatlarning talablariga muvofiq, belgilangan funksiyalar bajarilishining axborot texnologiyasini amalga oshiradigan avtomatlashtirilgan tizim.

Muhofaza qilingan fayl

ing. - protected file

rus. - защищенный файл

Yozuvlaridan foydalana olish uchun parol kiritilishi zarur bo'lgan fayl.

Muhofaza qilingan socketlar darajasi

ing. - secure sockets layer (SSL)

rus. - уровень защищённых сокет

Netscape Communications korporatsiyasi tomonidan shifrlangan, autentifikatsiya qilingan xabarlarni Internet orqali uzatish uchun ishlab chiqilgan protokolning tasnifi. SSL 2.0 versiyasi IETF standarti sifatida qabul qilingan va veb-brauzerning veb-server bilan ishlashida transport darajasidagi ma'lumotlarni shifrlash va vakolatlarni tekshirishda keng qo'llaniladi. SSL protokoli bilan himoyalangan sahifalardan foydalanish uchun URL da oddiy http prefiksi o'miga, SSL-ulanishdan foydalanilishi ko'rsatilgan https (443 port) prefiksi qo'llaniladi. Shifrlash/deshifrlash operatsiyalari ko'plab

hisoblash resurslarini talab qiladi, veb-serverdagi yuklamani kamaytirish uchun SSL-apparat tezlatgichlaridan foydalaniladi. SSL 3.0 ishlab chiqish jarayonida va muhokama uchun ochiq hisoblanadi.

Muhofaza qilingan tizim

ing. - protected system

rus. - защищенная система

Kirish uchun parolning kiritilishi talab etiladigan tizim.

Muhofaza qilinganlik

ing. - security

rus. - защищенность

Tizimning, muhofaza qilinadigan axborot-dan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishga, uning buzilishiga yoki unga zarar yetkazilishiga qarshi tura olish qobiliyati.

Muhofaza qilinganlikni tahlil qilish

ing. - protection analysis

rus. - анализ защищенности

1. Avtomatlashtirilgan tizim resurslarining zaif joylarini aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni.

2. Axborotni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar samaradorligi sifat va miqdor ko'rsatgichlarining axborot xavfsizligi talablariga mos kelishini tekshirish.

Muhofaza qilinganlikni tahlil qilish tizimi

ing. - protection analysis system

rus. - система анализа защищенности

Texnik vositalar yoki avtomatlashtirilgan tizimning muhofaza qilinganligini tahlil qilish uchun mo'ljallangan yoki ishlatiladigan texnik yoki dasturiy vosita.

Muhofaza qilinmaganlik

ing. - insecurity

rus. - незащищенность

Muayyan hujum amalga oshirilganda ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining muayyan zaifligidan foydalanish imkoniyati.

Muhofaza qilish

ing. - security

rus. - защита

Apparatura, dasturlar va ma'lumotlardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishning ol-

dini olish bo'yicha yuridik, tashkiliy, texnik, shu jumladan, dasturiy chora-tadbirlar.

Muhofaza qilish apparat vositalari

ing. - hardware protection means

rus. - аппаратные средства защиты

Axborotni ruxsatsiz olish, ko'chirish, o'g'irlash yoki turlashdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan mexanik, elektromexanik, elektron, optik, lazer, radio, radiotexnik, radiolokatsion va boshqa qurilma, tizim va inshootlar.

Muhofaza qilish modeli

ing. - protection model

rus. - модель защиты

Ruxsatsiz foydalana olishdan muhofaza qilish dasturiy-texnik vositalari va/yoki tashkiliy choralarini kompleksining abstrakt tavsifi.

Muhofaza qilish sertifikat

ing. - protection certificate

rus. - сертификат защиты

1. Hisoblash texnikasi yoki avtomatlashtirilgan tizim vositalarining axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilish bo'yicha talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi va ishlab chiquvchiga axborotdan muhofazalangan axborot sifatida foydalanish va/yoki tarqatish huquqini beradigan hujjat.

2. Tegishli ravishda rasmiylashtirilgan, sertifikatlash tizimi qoidalariga ko'ra berilgan va axborotni muhofaza qilish vositalarining axborot xavfsizligi bo'yicha talablarga muvofiq kelishini tasdiqlovchi hujjat.

Muhofaza qilish strategiyasi

ing. - protection strategy

rus. - стратегия защиты

Tizimning ma'lum tahdidlardan muhofaza qilinishini ta'minlashda amal qilinishi kerak bo'lgan mezonlarni, ayniqsa, tezkor mezonlarni rasmiy aniqlash.

Muhofaza qilish tizimini

chetlab o'tish yo'li

ing. - trapdoor

rus. - путь обхода системы защиты

Harakat natijasi bo'lib, bunda tizim obyekti jinoyatkorga komandaga yoki oldindan belgilangan hodisaga yoki hodisalar ketma-

ketilgiga ruxsat etilmagan tarzda ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan darajada o'zgaradi. Masalan, parolni tekshirish shunday o'zgartirilishi mumkinki, u o'zining odatdagi natijasidan tashqari, jinoyatkor parolining to'g'riligini ham tasdiqlaydi.

Muhofaza qilish vositalari kompleksi

ing. - trusted computing base

rus. - комплекс средств защиты

Hisoblash texnikasi vositalari yoki tizimlarining axborotdan hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasi obyektlaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilinishini ta'minlash uchun yaratiladigan va tutib turiladigan dasturiy hamda texnik vositalar majmui.

Muhofaza qilish vositasi

ing. - protection facilities

rus. - средство защиты

Turli xavfsizlik darajasiga ega bo'lgan ikkita ma'lumotni qayta ishlash tizimi o'rtasida yoki foydalanuvchi terminali va ma'lumotlar bazasi o'rtasida himoya filtri sifatida foydalaniladigan hamda foydalanuvchida ulardan erkin foydalanish vakolati bo'lmagan ma'lumotlarni saralash uchun mo'ljallangan funksional blok.

Muhofaza qilish yadrosi, foydalana olish dispetcheri

ing. - reference monitor

rus. - ядро защиты, диспетчер доступа

1. Belgilangan qoidalarga muvofiq, subyektlarning axborot resurslaridan foydalana olishini nazorat qilishning tashqi ta'sirlardan muhofazalangan dasturiy va apparat vositalarining majmui.

2. Foydalana olish dispetcheri konsepsiyasini amalga oshiruvchi muhofaza qilish vositalari kompleksining apparat, dasturiy va dasturiy-apparat elementlari.

Muhofaza qilishning buzilishi

ing. - security breach

rus. - нарушение защиты

Kompyuter xavfsizligi tizimini chetlab o'tish yoki uning biror-bir elementini ishdan chiqarish, natijada ma'lumotlarni qayta ishlash tizimiga kirib olish mumkin bo'ladi.

Muhofaza razryadi

ing. - protection bit

rus. - разряд защиты

Aniqlik saqlanib qolishini ta'minlaydigan oraliq natijalarning qo'shimcha razryadlaridan biri.

Muhofaza rejasi

ing. - protection plan

rus. - план защиты

Axborot va obyektning muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan asosiy g'oya. U bajariladigan tadbirlarning tarkibini, mazmunini, aloqadorligini va ketma-ketligini ochib beradi.

Muhofaza tizimi ma'muriyati

ing. - security system administration

rus. - администрация системы защиты

Xavfsizlik siyosatini belgilaydigan hamda bu siyosat qo'llaniladigan obyekt va subyektlarni aniqlaydigan boshqaruv organi.

Muhofaza tizimi orqali o'tish, aylanma yo'l

ing. - security trapdoor, bypass path

rus. - проход через систему

защиты, обходной путь

Shifrlash tizimiga kiritilgan chetlab o'tish bloki.

Muhofaza toifasi

ing. - category of protection

rus. - категория защиты

Nozik axborotning noshajaraviy tasnifi. U ma'lumotlardan foydalanishni faqatgina shajaraviy tasnif muhofazasiga nisbatan aniqroq boshqarish uchun qo'llanadi.

Muhofaza vositalari nazorat qilinishini qayd etish

ing. - security audit trail

rus. - фиксация контроля средств защиты

Vaqt bo'yicha to'planadigan va muhofaza vositalarini boshqarishni soddalashtirish uchun mo'ljallangan, muhofaza vositalarining holati to'g'risidagi ma'lumotlar majmui.

Muhofaza vositalarini nazorat qilish

ing. - security audit

rus. - контроль средств защиты

Muhofaza tizimlarining ishlashini, ularning

eksploatatsiya qilish talablariga va qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida, tizim yozuvlari va personal ishini nazorat qilish.

Muhofazalangan axborot tizimi
ing. - protected information system
rus. - защищенная

информационная система
Tahdidlarni tahlil qilish asosida o'rnatilgan, axborotni hamda tizim komponentlarini muhofaza qilish bo'yicha talablar ro'yxatini qondiradigan qoidalarning bajarilish mexanizmi amalga oshirilgan axborot tizimi.

Muhofazalangan axbotor obyekti
ing. - protected informatics object
rus. - защищенный объект информатизации

Qayta ishlanadigan axborotning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha standartlar va boshqa normativ hujjatlarning talablariga mos keladigan axborotlashtirish obyekti.

Muhofazalangan elektron tranzaksiyalari
ing. - secure electronic transaction (SET)
rus. - защищенные электронные транзакции

Internet kabi ommaviy foydalanish tarmoqlarida kredit kartalar bo'yicha to'lovlar muhofazasi protokolinom nomi. Visa va MasterCard kompaniyalari tomonidan 1996-yili ishlab chiqilgan. Moliyaviy axborotning konfidentsialligini va kelishuv qatnashchilarining autentifikatsiyasini ta'minlaydi.

Muhofazalangan foydalanish rejimi
ing. - protected usage mode
rus. - защищенный режим использования
Ma'lumotlar bazasini muhofazalangan tarzda qayta ishlash rejimi, bu rejimda ma'lumotlar bazasi sohaslarini ochgan dastur bilan parallel ishlaydigan barcha amaliy dasturlar yozuvlarni o'qishi mumkin, lekin dastur bu sohalarni yopmaguncha, ularni yangilay olmaydi.

Muhofazalangan hisoblash texnikasi vositasi
ing. - protected computer facilities

rus. - защищенное средство вычислительной техники
Muhofaza qilish vositalarining kompleksi amalga oshirilgan hisoblash texnikasi vositasi.

Muhofazalangan kanal
ing. - secure channel
rus. - защищенный канал

Domen kompyuterlarining va Netlogon xizmatlari o'rtasidagi nomlangan kanal. Muhofazalangan kanalni hosil qilishda kanal bo'yicha uzatiladigan xabarlarining haqiqiylikini tekshirish va uzatilayotgan axborotning bir qismini shifrlash uchun qo'llaniladigan seans kaliti yaratiladi.

Muhofazalangan kompyuter
ing. - trusted computer
rus. - защищенный компьютер

Muhofazalangan kompyuterlarni bir qator kompaniyalar ishlab chiqaradi. Ular agressiv muhitga - qattiq vibratsiya, kuchli changlanish, yuqori namlik va boshqa turdagi buzg'unchilikka oddiy kompyuterdan chidamliroq bo'ladi. Ko'pincha ular noutbuk ko'rinishida bo'ladi lekin, undan og'irligi va o'lchami kattaroqdir.

Muhofazalangan muhit
ing. - protected environment
rus. - защищенная среда

Ma'lumotlarni va resurslarni tasodifiy yoki qasddan qilingan harakatlardan muhofazalashga alohida e'tibor (mualliflash, foydalanish, konfiguratsiyani boshqarish va h.k. shakllarda) beriladigan muhit.

Muhofazalangan resurs
ing. - locked resource
rus. - защищенный ресурс
Muhofaza (maxfiylik) qulfi belgilangan, ya'ni erkin foydalanishni boshqarish spetsifikatsiyalangan (tasniflangan) resurs.

Muhofazalangan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i
ing. - protected public switched telecommunications network
rus. - защищенная сеть телекоммуникаций общего пользования

Muhofazalangan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i, bunda buzg'unchining har qanday ta'siriga (loyihlashda berilgan ko'plikdan), yo berilgan ehtimollik bilan yo'l qo'yilmaydi, yo tarmoq vositalari bilan berilgan ehtimollikda aniqlanadi, bunda tarmoqning ushbu ta'sir oqibatlarini berilgan ehtimollikda bartaraf qilishga yo'naltirilgan javobi: foydalanuvchilarni xabardor qilish, ta'sir joyini kengayishiga yo'l qo'ymasligini, tarmoqning ish qobiliyatini tiklash va foydalanuvchilarning axboroti (ma'lumotlari) uzatilishini ta'minlovchi sharoitlar yaratiladi.

Muhofazalangan xesh-algoritm

ing. - secure hash algorithm

rus. - защищенный хэш-алгоритм

Elektron imzolarni generatsiyalash imkonini beradigan xesh-algoritm.

Muhofazani bevosita buzishga urinish

ing. - direct attack

rus. - прямая попытка нарушения защиты
Bazaviy algoritmlarning, xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi prinsiplari yoki xususiyatlarining kamchiliklariga asoslangan, tizim muhofazasini buzishga bo'lgan urinish.

Muhofazani tasniflash

ing. - classification of protection

rus. - классификация защиты

Ma'lumotlar yoki axborotdan foydalanishning zarur bo'lgan maxsus muhofaza darajasini aniqlash va shu muhofaza darajasini belgilash. Masalan, «o'ta maxfiy», «maxfiy».

Muhofazaning kompleksligi

ing. - security complexity

rus. - комплексность защиты

Texnik razvedkaning barcha xavfli turlari va vositalariga qarshi tadbirlarni ko'zda tutuvchi muhofaza qilish prinsipi.

Muhofazaning uzluksizligi

ing. - protection continuity

rus. - непрерывность защиты

Obyektning hayotiy siklining barcha bosqichlarida (ishlab chiqish, yaratish yoki qurish, sinovdan o'tkazish, foydalanish va utilitatsiya qilish) muhofazasini tashkil qilishdan iborat muhofaza tamoyili.

Muhr

ing. - seal

rus. - печать

Kriptografik nazorat qiymati bo'lib, yaxlitlik saqlanib turishini ta'minlaydi, lekin oluvchi tomonidan amalga oshiriladigan qalbakilashtirishdan muhofaza qila olmaydi (ya'ni, mualliflik qayd etilishini ta'minlay olmaydi).

Mukammal izlash

ing. - exhaustive search

rus. - исчерпывающий поиск

1. Ma'lumotlar bazasi har bir yozuvda izlash.
2. Masalani barcha variantlarni o'rganish yo'li bilan yechish.

Mukammal maxfiylik

ing. - unconditional secrecy

rus. - совершенная секретность

Ochiq matn va shifmatn statistik jihatdan mustaqil va shifmatning qo'lga kiritilishi (tutib olinishi) kriptotahlilchiga ochiq matn to'g'risida qo'shimcha axborot bermasligidan iborat bo'lgan sharoit.

Mukammal testlash

ing. - exhaustive testing

rus. - исчерпывающее тестирование

Dasturning o'zgaruvchi kirish qiymatlarining mumkin bo'lgan barcha kombinationsiyalari bilan bajarilishi.

Mulohaza, to'g'ri fikr

ing. - assertion

rus. - суждение, утверждение

1. Qiymati noto'g'ri bo'lsa, xatoni bildiradigan ifoda. Bunday ifodalardan dasturlarni sozlash maqsadlarida foydalaniladi.
2. Mantiqiy dasturlashda – bajarilish vaqtida, dastur ma'lumotlar bazasiga kiritadigan yangi fakt yoki qoida.

Muloqot oyna shabloni

ing. - dialog template

rus. - шаблон диалогового окна

Windows operatsion tizimida ekranda muloqot oynalarini yaratish va chiqarish uchun ishlatiladigan, hamda ularning xarakteristikasini belgilaydigan andoza. Foydalanuv-

chiga, operatsion tizim tomonidan aniq aks ettiriladigan, o'z muloqot oynalarini yaratish imkonini beradi.

Muloqot oynasi

ing. - dialog window

rus. - диалоговое окно

Biror komanda yoki vazifani bajaradigan tugma va boshqa boshqaruv elementlarini o'z ichiga olgan yordamchi oyna.

Muloqot qila olishga asoslangan firibgarlik

ing. - fraud based on communication ability

rus. - мошенничество, основанное на умении общения

Foydalanuvchilar yoki tarmoq administratorlarini, ulardan tarmoqdan noqonuniy foydalana olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bilib olish yo'li bilan aldash mahorati; odatda, mualliflashtirilgan foydalanuvchi nomidan ularga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

Multidasturlash

ing. - multiprogramming

rus. - мультипрограммирование

Bitta kompyuterda bir necha dasturning bajarilishini tashkil qilish usuli.

Multidasturlash darajasi (koeffitsiyenti)

ing. - multi-tasking index

rus. - степень (коэффициент)

мультипрограммирования

Tizim vaqt birligida xizmat ko'rsatadigan jarayonlarning soni.

Multidasturlash tizimi

ing. - multiprogramming system

rus. - мультипрограммная система

Bir vaqtda ikkita yoki undan ortiq dasturi ishga tushiruvchi tizim.

Multi ekran

ing. - multi-screen

rus. - мультиэкран

Suyuq kristalli ekranning darchalarga (odatda 4 yoki 9) ajratib, ularda olinayotgan harakatlanuvchi obyektlarning to'xtatilgan kadrlarini sekunddan kam oraliqda (odatda 0,1 s dan 0,5 s gacha) ko'rsatish.

Multikadrli sinxronlash

ing. - multiframe synchronization

rus. - мультикадровая синхронизация

Kiruvchi oqimdan multikadr boshlanishi ni belgilaydigan sinxronlovchi signalni ajratishga asoslangan sinxronlash usuli. Sinxron kod multikadring boshida joylashtirilishi ham, uning uzunligi bo'ylab taqsimlanishi ham mumkin.

Multimedia

ing. - multimedia

rus. - мультимедиа

Axborotni taqdim etishning turli shakllardan va uning yagona obyekt-konteynerida qayta ishlashidan bir vaqtda foydalanish. Masalan, bitta obyekt-konteynerda matnli, audio, trafik va video axborot bo'lishi mumkin. Multimedia atamasi, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va ulardan tez foydalanish imkonini beradigan axborot tashuvchilarni belgilash uchun ham qo'llaniladi.

Multimedia funksiyalari

ing. - multimedia functions

rus. - мультимедийные функции

Videoni raqamli filtrlash va masshtabga solish, videoni apparatli raqamli zichlash va yoyish, uch o'lchamli grafika (3D) bilan bog'liq grafik operatsiyalarni tezlashtirish, jonli videoni monitorga chiqarish, kompozitli video chiqishga ega bo'lish, TV signalini monitorga chiqarish.

Multimedia-kengayishlar uchun

ko'rsatmalar to'plami

ing. - matrix math extensions

rus. - набор инструкций для

мультимедиа-расширения

Intel korporatsiyasining, Pentium protessorlarida multimediani ta'minlash va multimedia-ilovalarning grafika, tovush va video bilan ishlashini tezlatish uchun ishlab chiqilgan texnologiyasi.

Multimedia-server

ing. - multimedia server

rus. - мультимедиа-сервер

Lokal multimedia tarmoqlar uchun mo'ljallangan server.

Multimedia tarmog'i

ing. - multimedia network

rus. - мультимедийная сеть

Kanallar bo'yicha turli shakldagi axborot (matn, tovush, video va h.k.)ni tashish uchun mo'ljallangan tarmoq.

Multimedia xabarlarini uzatish xizmati

ing. - multimedia messaging service (MMS)

rus. - услуга передачи

мультимедийных сообщений

Musiqali, foto- va video fayllarni ichiga oladigan multimedia xabarlarini uzatish va qabul qilish xizmati.

Multimedia xizmatlari

ing. - multimedia services

rus. - услуги службы мультимедиа

Telekommunikatsiyalar tarmog'i bo'ylab bir nechta turdagi axborotni bir vaqtda shakllantirish va keyinchalik uzatishni amalga oshiradigan (masalan, tovush, matn, ma'lumotlar, harakatsiz va harakatli tasvirlar uzatilishi mumkin) va ularni birgalikda aks ettirish, qayta ishlash, kombinatsiyalash imkonini va h.k.larni ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar xizmatlari.

Multimediali dastur moduli

ing. - multimedia program module

rus. - модуль мультимедийной программы

Tarkibida ta'lim-tarbiyaviy, telematik, Internetga mos keladigan, mediametrik va teletibbiyot ma'lumotlari bo'lgan, chiqarishga tayyorlangan televizion dastur.

Multimediali televizion eshittirish

ing. - multimedia TV-broadcasting

rus. - мультимедийное

телевизионное вещание

Televizion dasturlarni uzatishdan tashqari, kompyuter texnologiyalari uchun xos bo'lgan axborotning uzatilishi ham ko'zda tutilgan raqamli televizion eshittirish.

Izoh - Kompyuter texnologiyasi deganda, axborotni matn, grafika (chizma), tasvir, animatsiya va ovozdin foydalangan holda kompleks taqdim etish tushuniladi.

Multimediali shaxsiy kompyuter

ing. - multimedia personal computer

rus. - мультимедийный

персональный компьютер

Multimedia PC Council ta'rifi ko'ra, hozirgi kunda yaxshi tezkor xotira hajmi, katta qattiq disk, CD-ROM yoki DVD qurilmasi, raqamli tovushni qo'llab-quvvatlash tizimiga ega shaxsiy kompyuter multimedia shaxsiy kompyuteri deb hisoblanadi.

Multipleks analog komponent

ing. - multiplexed analog component

rus. - мультиплексный

аналоговый компонент

D-MAC da signallarni uzatish formati, bunda videosingnal tovushli raqamli signal bilan birgalikda alohida tashkil etuvchilarni vaqtinchalik zichlash bajariladi.

Multipleks (televizion dasturda)

ing. - multiplex (TV programs)

rus. - мультиплекс

(телевизионной программы)

Eshittirish tevideniyesining bir nechta dasturiy paketlaridan iborat to'plam.

Multipleks shinasi

ing. - multiplexed bus

rus. - мультиплексная шина

Bir xil liniyalar bo'yicha ma'lumotlar uzatiladigan va boshqaruv amalga oshiriladigan shina.

Multipleksor

ing. - multiplexer

rus. - мультиплексор

1. Raqamli televizion signal ma'lumotlarining bir nechta oqimini xizmat bitlarini qo'shish bilan, yagona oqimga birlashtirish uchun mo'ljallangan qurilma.

2. Radiouzatgichlarning istalmagan o'zaro ta'sirlanishining oldini olgan holda, bitta antennaga bir nechta radiouzatgichni parallel ulash imkonini beradigan qurilma.

Multipleksorlangan abonent raqami

ing. - multiplexed subscriber

number (MSN)

rus. - мультиплексированный

номер абонента

Umumiy foydalanishdagi bitta foydalanish uchun va xususiy foydalanish uchun multipleksorlangan raqamlarni berish imkonini

ta'minlaydigan abonent raqamini multipleksorlash qo'shimcha xizmati.
Izoh - Abonent raqamini multipleksorlash qo'shimcha xizmati zarur foydalanuvchini umumiy foydalanish tar-mog'ini orqali chaqirish, ko'p sonli tanlashlardan bita yoki bir nechta individual terminalni aniqlash imkonini beradi.

Multipleksorlash

ing. - multiplexing

rus. - мультиплексирование

1. Axborot alohida oqimlarini yagona transport oqimiga birlashtirish jarayoni.

2. Bitta fizik kanalda mantiqiy kanallar guruhi tuziladigan obyektlarning vositalaridan foydalanadigan guruhlar o'rtasidagi ma'lumotlar uzatish vositalarini bo'lish texnologiyasi.

Izoh - Vaqt va chastota bo'yicha multipleksorlashga bo'linadi.

Multiplikatsiya

ing. - animation

rus. - мультипликация

Lotincha «multiplicati» - «ko'paytirish». Harakatlanuvchi tasvirlarni modellash jarayoni. Harakatlanuvchi tasvir soxta tasavvurni yaratadi. U tasvirlarni tez almashtirishga asoslangan. Axborot tizimida multiplikatsiya bir necha yo'l bilan amalga oshirilib mumkin. Ulardan biri faqat «harakatlanish» lozim bo'lgan jihatlarini farq qiluvchi ko'plab tasvirlarni chizishdan iborat. Ikkinchi yo'l ekranni boshqarish dasturlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ular yordamida boshlang'ich va oxirgi mo'ljal punktlari belgilash orqali tasvimga ketma-ket o'zgarishi amalga oshiriladi. Bunda kompyuter tomonidan tasvirlarni yaratish tezligi ko'rsatish tezligidan ancha past bo'lishi mumkin. Bunday holatda tasvirlar ekran-ga chiqarilishidan oldin xotirada to'planadi. Harakat soxta tasavvurini yaratish uchun ekranga sekundiga kamida 16 tasvirni chiqarish lozim. Televideniye standarti sekundiga 24 tasvirga teng tezlikni belgilaydi.

Multiprotessor

ing. - multiprocessor

rus. - мультипроцессор

Bir vaqtda foydalanish uchun bir nechta arifmetik va mantiqiy bloklari bo'lgan mashina.

Multiprotessorlash rejimi

ing. - multiprocessor mode

rus. - режим мультипроцессирования

Ma'lumotlarni qayta ishlash parallel ravishda bir nechta protsessorda olib boriladigan rejim. Bu rejimning ishlashi uchun operatsion tizim va ilova multiprotessorlikni qurvatlashi kerak.

Multiprotessorli spetsifikatsiya

ing. - multi processor specification (MPS)

rus. - мультипроцессорная спецификация

Operatsion tizim va protsessor proshivkasi o'rtasidagi interfeysni tavsiflaydigan, ularga multiprotessorli konfiguratsiyada x86 mos keladigan protsessor bilan ishlash imkonini beradigan ochiq standart.

Multitelefon

ing. - multihandset

rus. - мультителефон

Bir nechta mikrotelefon go'shagi bo'lgan radiotelefon.

Multitilli xabarlar

ing. - multiple language announcements

rus. - мультиязычные сообщения

Turli tillarda xabar uzatish imkonini beradigan xizmat. Til kodlari ulanuvchi liniyalar guruhiga va PRI dasilabki foydalanish interfeysiga kiruvchi abonentga tayinlanishi mumkin.

Mumkin bo'lgan, ruxsat etilgan

ing. - available

rus. - доступный

Kira olish va foydalanish erkin bo'lgan bo'sh resurs.

Mundarija

ing. - appendix

rus. - оглавление

Ma'lumotnoma tizimida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan mavzular va kichik mavzular ro'yxati.

Munosabat

ing. - relationship

rus. - отношение

Biror jadvaldagi tashqi kalit boshqa jadvaldagi birlamchi kalitga muvofiq bo'lsa,

jadvallar o'rtasidagi munosabat mavjud bo'ladi.

Munosabat, aloqadorlik

ing. - relation

rus. - отношение, связь

Relyatsion malumotlar bazalarida jadvallar ustunlari va satrlarining elementlari o'rtasidagi bog'liqlik.

Munosabat (taqqoslash) operatori

ing. - relational operator

rus. - оператор отношения (сравнения)

Operandlar nisbatini aniqlash imkonini beradigan binar operator: teng (EQ), teng emas (NE), dan kam (LT), dan ko'p (GT), dan kam yoki teng (LE), dan ko'p yoki teng (GE).

Munosabatlar diagrammasi

ing. - entity-relationship diagram

rus. - диаграмма отношений

Munosabatlar diagrammasi konseptual chizmalarni tavsiflaydigan axborot andozasi. U grafikali bo'lib blok va chiziq'larga asoslangan. Bu blok va chiziq'lar boshqa bir axborot andozasining obyektlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflaydi. Shu mazmunda munosabatlar diagrammasi axborot meta andozasi hisoblanadi, shuningdek axborot andozalarni tavsiflovchi vosita deb hisoblanadi.

Munosib, mos

ing. - compatible

rus. - совместимый

Kompyuter dasturiy va apparat ta'minotining birgalikda ishlashi va axborot almashina olish imkoniyati.

Muqobil matn

ing. - alternative text

rus. - альтернативный текст

O'xshash simvollar ketma-ketligining o'zini to'ldirishga mo'ljallangan, oldindan aniqlangan matn.

Izoh - Ko'p takrorlanuvchi matnli axborotni kiritishni soddalashtirish uchun mo'ljallangan.

Murakkab kalit

ing. - compound key

rus. - сложный ключ

Bir nechta atributdan iborat kalit.

Murakkab komandalar

to'plamiga ega kompyuter

ing. - complex instruction set computer

rus. - компьютер со сложным

набором команд

O'zgaruvchan uzunlikdagi, bajarilish vaqti turlicha bo'lgan turli mashina komandalarining keng to'plamiga ega, kompyuterlar arxitekturasi.

Murakkab komandalar

to'plamiga ega protsessor

ing. - complex instruction set computer

rus. - процессор со сложным

набором команд

RISC-protsessorlariga teskari bo'lgan to'la komandalar to'plamiga ega an'anaviy protsessorlar arxitekturasi. Mashina komandalari to'plami keng, turli, o'zgaruvchan uzunlik va bajarilish vaqtiga ega bo'lgan ommabop protsessorlar. x86 va 680x0 guruhiga mansub protsessorlar CISC-protsessorlari qatoriga kiradi, ammo CISC-protsessorlarining ichida ko'pincha RISC-arxitekturasi-dan foydalaniladi.

Murakkab tizimlarni loyihalash va obyektga yo'naltirilgan tahlil qilish

ing. - object-oriented analysis and

design of complex system

rus. - объектно-ориентированный анализ

и проектирование сложных систем

XX asrning 80-90-yillarida yuzaga kelgan, murakkab tizimlarni loyihalash va tahlil qilish metodologiyasi, dasturiy mahsulotlarni, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarni, shuningdek, ularni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda asosiy metodologiya hisoblanadi. Tadqiq qilinadigan yoki ishlab chiqiladigan tizim modellarining ketma-ketligi: informatsion model, holatlar modeli va jarayonlar modelini tuzish metodologiyaning asosini tashkil etadi.

Murakkablik

ing. - complexity

rus. - сложность

Dasturiy ta'minotni tushunishdagi, tahlil qilish, testlash va ta'minlashdagi qiyinchiliklar o'lchovi.

Murojaatlar monitori

ing. - reference monitor concept

rus. - монитор ссылок

Foydalanish nazorati tamoyillari. U subyektlarning obyektlardan foydalanishga urinishlarini ajratuvchi mavhum mashina tushunchasiga asoslangan. Xavfsizlik o'zagi shaklida amalga oshiriladi.

Mushkul holat

ing. - deadlock

rus. - тупиковая ситуация

Ikkita oqimning bajarilishida ularning bir-birini blokirovka qilib qo'yishida yuzaga keladigan holat xatoligi. Bunda har bir oqim boshqa oqim foydalanayotgan reversning bo'shashini kutib turadi.

Musiqa tizimi

ing. - musical system

rus. - музыкальная система

Ixtisoslashtirilgan abonent tizimi. U musiqa asarlarini yaratish, ishlov berish va ijro etish uchun mo'ljallangan. Kompyuterga tashqi qurilmalar, ya'ni maxsus klaviatura, mikrofonlar, karnaylar va tegishli dasturiy ta'minotning qo'shilishi orqali yaratiladi. Tizim imkoniyatlari ishlab chiqaruvchilarga ma'lumotlarni taqdim qilishning turli shakllaridan foydalanish imkonini beradi. Musiqa asari bilan ishlab, foydalanuvchi uning tarkibiy qismlarini kesib olish, nusxa olish, qo'shish, tozalash operatsiyalarini bajaradi. Musiqa tizimlari uchun musiqa qurilmasi interfeysi belgilangan va «standart musiqani tavsif qilish tili» SMDL yaratilgan.

Mustaqil jarayon

ing. - independent activity

rus. - независимый процесс

Boshqa jarayonlar bilan bog'lanmagan, boshqa jarayonlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatmaydigan yoki ularning ta'sirini sezmaydigan jarayon.

Mutanosiblik

ing. - consistency

rus. - корректность

Mutanosiblik faqat to'g'ri axborotni bazaga

yo'zishga ruxsat beradi. Agarda tranzaksiya bazaning mutanosibligini buzsa, butun tranzaksiya orqaga qaytariladi va baza mutanosib qoladi.

Mutant viruslar

ing. - mutant viruses

rus. - вирусы-мутанты

Shifrlash-rasshifrovka qilish algoritmlarini ichiga oluvchi viruslar. Bu algoritmlar tufayli, aynan bir virusning nusxalari baytlarning birorta ham takrorlanadigan zanjiriga ega bo'lmaydi.

Mutlaqo maxfiy ma'lumotlar

ing. - top secret informations

rus. - совершенно секретные сведения

Alohida muhim ma'lumotlardan tashqari davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlar.

Muvaffaqiyatsiz chaqiruv;

muvaqqiyatsiz murojaat

ing. - unsuccessful call

rus. - безуспешный вызов;

неудачное обращение

Bog'lanish o'rnatilishi bilan tugallanmagan kira olishga urinish.

Izoh - Mobil aloqa tarmoqlarida, aktiv izlash yakunida hech bo'lmaganda bitta radiostansiya tomonidan taqdimlanmagan chaqiruv.

Muvofiqlashtirilgan translyatsiya

ing. - consistent compilation

rus. - согласованная трансляция

Umumiy tavsifga ega bo'lgan bir nechta dasturiy modulni translyatsiya qilish, bunda barcha translyatsiya birliklari tavsiflarning bir xil versiyalaridan foydalanadi.

Muvofiqlik deklaratsiyasi

ing. - declaration of compliance

rus. - декларация соответствия

Ochiq konkurs qatnashchisining yuridik kuchga ega bo'lgan, davlat axborot tizimi interfeyslarini amalga oshirish uchun, axborot tizimlarining moslashuvchanligi bo'yicha talablar to'plamida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalardan foydalanish majburiyati.

Muvofiqlik sertifikat

ing. - conformance certificate

rus. - сертификат соответствия

Hisoblash texnikasi vositalari yoki avtomatlashtirilgan tizimning, davlat standartlari talablariga, sertifikatlash bo'yicha davlat organlari tomonidan, ularning vakolatlari doirasida tasdiqlangan axborotni muhofaza qilish bo'yicha boshqa normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi va ishlab chiquvchiga ulardan muhofaza qilingan hujjat sifatida foydalanish va/yoki tarqatish huquqini beruvchi hujjat.

Muvofiqlikni baholash

ing. - assessment

rus. - оценка соответствия

Qandaydir standartga yoki tavsiyalarga rioya qilinishini, yozuvlarning olib borilishi aniqligini tekshirishga yoki samaradorlik va natijalilikning maqsadli qiymatlariga erishishga yo'naltirilgan tekshiruv va tahlil.

Muzlatishga qarshi tizim

ing. - antiicing system

rus. - противообледенительная система

Antenna ko'zgasining orqa sirtiga montaj qilinadigan elektr isitgichlar yordamida ko'zguni va nurlantiruvchi tizimni sun'iy isitish uchun xizmat qiladigan antennaning issiqlik himoyasi tizimi.

Myuteks

ing. - mutex

rus. - мьютекс

Operatsion tizimlarda ishlatiladigan semaforlarning o'zaro bartaraf qilishni ta'minlaydigan analogi.

Mo'rt posilka

ing. - fragile parcel

rus. - хрупкая посылка

Alohida ehtiyotkorlikni talab qiluvchi tez sinadigan predmetlarni o'z ichiga olgan posilka.

N

Nadenenko dipoli

ing. - Nadenenko dipole

rus. - диполь Надененко

Yelkalari silindr hosil qilishi bo'yicha joylashgan, bir nechta parallel simlardan iborat cimmatrik vibrator ko'rinishidagi antenna.

Namoyish qilinadigan versiya

ing. - demo

rus. - демонстрационная версия

Bepul tarqatiladigan (masalan, reklama maqsadida) tugallanmagan dastur. U qo'shimcha namoyish materiallarini o'z ichiga olishi, shuningdek, magazin yoki ko'rgazmadagi kompyuter namunasi ham bo'lishi mumkin.

Namunaviy almashtirish elementi

ing. - standard substitute item

rus. - типовой элемент замены

Ishlash qobiliyatini tiklash vada almashtirishi zarur bo'lgan, almashtiriladigan eng kichik, funksional tugallangan yig'ma birlik.

Namunaviy guruhli trakt

ing. - typical group link

rus. - групповой типовой Тракт

Elektraloha signallarini, tonal chastota kanallari me'yorlashtirilgan sonini yoki chastotalar polosasidagi asosiy raqamli kanallarni berilgan guruhli traktga xos bo'lgan uzatish tezligi bilan uzatish uchun mo'ljallangan texnik vositalarning jami. Izoh - Guruhli trakt kanallarining me'yorlashtirilgan soniga bog'liq ravishda birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi yoki N-guruhli trakt deb nomlanadi.

Namunaviy uzatish kanali

ing. - standard transmission channel

rus. - канал передачи типовой

Parametrlari qabul qilingan me'yorlarga javob beruvchi uzatish kanali.

Nanokompyuter

ing. - nanocomputer

rus. - нанокomпьютер

Mantiqiy elementlari bir necha nanometr bo'lgan elektron (biokimyo, kvant) texnologiya asosida qurilgan hisoblash asbobi.

Nanotexnologiya asosida ishlab chiqarilgan kompyuter ham juda kichkina. Nanokompyuter nazariyasining mantiqiy asoslari hali yo'q.

Nanotexnologiya

ing. - nanotechnology

rus. - нанотехнология

Informatikada – kompyuterlardagi protses-sorlar uchun integral sxemalar tayyorlash texnologiyasi. Molekulalar va atomlar bilan ishlashga asoslangan.

Navbat

ing. - queue

rus. - очередь

1. Elementlar qanday tartibda kiritilgan bo'lsa, o'sha tartibda o'chiriladigan ma'lumotlar tuzilmasi.

2. Printerdan chiqarish uchun topshiriqlar ro'yxati yoki topshiriqlar navbati, ishlarning tartibini operatsion tizimning o'zi aniqlaydi.

Navbatlar bilan taqsimlangan

ikki yoqlama shina

ing. - distributed queue double bus (DQDB)

rus. - распределенная двойная шина с очередями

Bir juft optik kanal yordamida hosil bo'lgan tezkor ko'p kanalli tarmoq. U birinchi navbatda, katta shaharning axborot tarmog'ini yaratish uchun mo'ljallangan. Ishda yuqori o'tkazish qobiliyati va ishonchlilikka ega.

Navbatlashish ketma-ketligi

ing. - interlacing sequence

rus. - последовательность перемежения

Navbatma-navbat yoyishda ayrim maydonlarning vaqtinchalik ketma-ketligini aniqlaydigan sonlar guruhi.

Navbatma-navbat yoyish

ing. - interlaced scanning

rus. - перемежающаяся развертка

Navbatma-navbat (ketma-ket) yoyiladigan satrlar bir-biridan bir satrning kengligidan butun son marta katta masofaga tarqatilgan va bunda yondosh satrlar maydonlarning ahastotalari bilan bir-birining ketidan keladigan vaqt intervallari davomida yoyiladigan yoyish jarayoni.

Navigatsiya, siljish, joyini o'zgartirish

ing. - navigation

rus. - навигация, передвижение, перемещение

1. Foydalanuvchi interfeysi yordamida menyu, ma'lumot beruvchi fayllar yoki qandaydir boshqa obyektlar murakkab tizimida yo'lni aniqlash jarayoni yoki usuli.

2. Tarmoq obyektlari bo'yicha joyini o'zgartirish.

3. Transport vositasining harakatlanish yo'nalishini rejalashtirish va kuzatish, transportda yurish vaqtini hisoblash.

4. Mobil robotning o'z harakati yo'nalishini tanlashi, masalan orientirlar bo'yicha.

Nazorat

ing. - control

rus. - контроль

Tizim xavfsizligining joriy holatini aniqlash maqsadida, mustaqil obzor va tizim yozuvlarining tahlilini hamda tizim aktivligini olish imkonini beruvchi operatsiyalar majmui.

Nazorat-geraldli muhr

ing. - control-heraldic seal

rus. - печать контрольно-геральдовая

Pul mablag'larining pochta o'tkazmalari blanklari, 5-shakldagi daftarlar, 10-shakldagi reyestrlar va pul mablag'larining pochta o'tkazmalari bo'yicha xizmatga oid yozishmalar hamda alohida yo'riqnomalarga muvofiq boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish uchun mo'ljallangan maxsus muhr.

Nazorat jurnali

ing. - control journal

rus. - контрольный журнал

Qar.: Audit jurnali.

Nazorat kodi

ing. - check code

rus. - контрольный код

Uzatiladigan ma'lumotlardagi xatolarni avtomatik tarzda aniqlash, tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va bartaraf qilish imkonini beradigan kod.

Nazorat muddatlari

ing. - control period

rus. - контрольные сроки

Pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mab-

lag'larining pochta o'tkazmalarini qabul qilish joyidagi pochta aloqasi obyektidan ularni topshirish va yetkazib berish joyidagi pochta aloqasi obyektigacha jo'natish uchun belgilangan eng ko'p vaqt oralig'i.

Nazorat nuqtasi

ing. - checkpoint

rus. - контрольная точка

Jarayon bajariladigan nuqta, unda jarayonni shu nuqtadan takror ishga tushirish uchun zarur bo'lgan axborot saqlanadi.

Nazorat nuqtasi ma'lumotlari to'plami

ing. - checkpoint data set

rus. - набор данных контрольной точки

Nazorat nuqtasida saqlangan vazifa yoki tizim holatini ichiga oladigan ma'lumotlar to'plami (fayl).

Nazorat nuqtasidan qayta ishga tushirish

ing. - checkpoint restart

rus. - перезапуск с контрольной точки

To'xtab qolishdan so'ng, saqlangan jarayon yoki topshiriq bajarilishining tiklanishi.

Nazorat qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri

aloqa rejimi

ing. - managed direct mode

rus. - контролируемый режим

прямой связи

Mobil stansiyalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani tashkil etish prinsipi bo'lib, unga muvofiq abonent tarmoq xizmatida qayd qilinadi va to'g'ridan-to'g'ri aloqa rejimiga kirgunicha autentifikatsion tekshiruvdan o'tkaziladi.

Nazorat qilinadigan zona

ing. - under control zone

rus. - контролируемая зона

Axborotni qayta ishlash texnik vositasi atrofidagi hudud, uning chegarasida begona shaxslarning va transport vositalarining ruxsat etilmagan tarzda bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat qiluvchi so'z

ing. - checking word

rus. - контрольное слово

Signalni skremblerlash uchun shartli foydalanish tizimida qo'llaniladigan va abonentga signal bilan birga uzatiladigan kodli so'z.

Nazorat raqami

ing. - check digit

rus. - контрольная цифра

Bitta raqam (simvol)dan iborat bo'lgan tekshiruv kaliti.

Nazorat summasi

ing. - checksum

rus. - контрольная сумма

1. Baytlar summasini hisoblash va uni yozuvga qo'shish yo'li bilan ma'lumotlar yozuvining to'g'riligini tekshirish uchun mo'ljallangan axborot. Ma'lumotlarni hisoblashda baytlar summasi nazorat summasi bilan mos kelishi kerak.

2. Ma'lumotlar blokiga tekshirish maqsadlarida solishtiriladigan qandaydir funksiya, odatda faylning barcha yozuvlari maydonlariga mos keluvchi summa ko'rinishida shakllanadi. Bu son biror-bir muhim ma'noga ega emas, faqat fayl yozuvlarini tekshirish uchun xizmat qiladi. Maydon qiymatining har qanday o'zgarishi oldindan qayd qilingan va qaytadan hisoblangan nazorat summalarining mos kelmasligidan aniqlanadi.

Nazorat (tekshirish) kodi

ing. - checking code

rus. - контрольный (проверочный) код

Ruxsat etilmagan tarzda ko'chirib olingan nusxa emasligini aniqlash uchun, diskning bir qismini o'qiydigan mashina komandalari.

Nazorat zvenosi

ing. - control section

rus. - контрольное звено

Dasturning eng kichik, alohida o'tkaziladigan elementi.

Nazorat chastotalari diapazoni

ing. - frequency range of control

rus. - диапазон частот контроля

Nomaqbul radionurlanishlarning darajasi-ni nazorat qilish majburiy hisoblanadigan chastotalar diapazoni.

Negativ uzatish

ing. - negative transmission

rus. - негативная передача

Boshlang'ich yoritish kuchining kamayishi

uzatiladigan quvvatning oshishini keltirib
chiqaradigan uzatish usuli.

Negativ videosignal

ing. - negative video signal

rus. - негативный видеосигнал

Qoradan oqga o'tishda oniy qiymatlari kamayadigan videosignal.

Netbook

ing. - netbook

rus. - нетбук

Internidan foydalanish va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan kichik noutbuk. Netbuklar ixcham o'lchamlari, kichik vazni, kam energiya iste'moli va nisbatan arzon narxlar bilan ajralib turadi.

Nettop

ing. - nettop

rus. - неттоп

Asosan Internet dasturlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan kichik tejamkor shaxsiy kompyuter. Nettoplar energetik samarali mikroarxitekturalarga ega protsessorlarga asoslanadi. Nettop atamasi Intel kompaniyasi tomonidan Atom protsessori e'lon qilinishi paytida taklif etilgan. Nettop – bu netbukning statsionar analogi.

Neyman arxitekturasi

ing. - Neumann architecture

rus. - архитектура Неймана

Kompyuter qurishning, ham ma'lumotlar, ham dasturning o'zi saqlanadigan tezkor, ketma-ket manzillanadigan xotira ajratilgan klassik arxitekturasi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik kompyuterlar shunday arxitekturaga ega. Nomi bu arxitekturani ishlab chiquvchilardan biri bo'lgan mashhur matematik Jon fon Neyman sharafiga berilgan.

Neymkoin

ing. - namecoin

rus. - неймкойн

Bitcoin texnologiyasiga asoslangan, «nom-qiymat» turidagi ixtiyoriy kombinatsiyalarni saqlash tizimi, uning eng ma'lum qo'llanilishi domen nomlari tizimining muqobil tub serverlar tizimi hisoblanadi.

Neyrokompyuter

ing. - neural computer

rus. - нейрокompьютер

Neyron tarmoqlar asosida yaratilgan kompyuter. Hozircha mustaqil tarzda mavjud emas, lekin zamonaviy kompyuterlarda aktiv ravishda modellashtirilmoqda.

Neyrokompyuting

ing. - neurocomputing

rus. - нейрокомпьютинг

Neyron tarmoqlar yordamida amalga oshiriladigan hisoblashlar.

Neyrokontroller

ing. - neural controller

rus. - нейроконтроллер

Arxitekturasida neyron tarmoqlardan foydalaniladigan kontroller.

Neyrolingvistik dasturlash

ing. - neurolinguistic programming

rus. - нейролингвистическое

программирование

So'z orqali ishontirishning alohida shakllari yordamida inson ichki ongiga manipulyativ ta'sir ko'rsatish uslubi. Bunda insonda yetarli darajada mustahkam psixologik ko'rsatmalar paydo bo'lib, ular keyinchalik muayyan harakatlarga undashi mumkin. Internet orqali amalga oshirilishi mumkin.

Neyron kompyuteri

ing. - neural computer

rus. - нейронный компьютер

Bir-biriga bog'langan elektron neyronlar tarmog'idan tuzilgan kompyuter turi. Ushbu mashinalar o'rganish uchun yaratilgan va dasturlash uchun yaratilmagan. Dizayni va faoliyati bo'yicha ular inson miyasiga o'xshaydi. Miyadagidek, neyronlar bir-biriga minglab moslashtiriladigan kanallar orqali signallar jo'natadi. O'rganish jarayoni davomida mashina kanallarni sozlaydi. O'zini sozlaganidan keyin mashina yozuv yoki ovozni tushuna oladi.

Neyron tarmoq

ing. - neural network

rus. - нейронная сеть

1. Formal neyronlar, summatorlar va sinapslar majmuini hosil qilgan tarmoq.

2. Neyronlarning soddalashtirilgan funksional modellari hisoblanadigan, bir jinsli protsessorli elementlardan tuzilgan hisoblovchi yoki mantiqiy sxema.

Neytral optik tarmoqlagich

ing. - neutral optical splitter

rus. - нейтральный оптический разветвитель

Optik qutblar o'rtasidagi uzatish koeffitsiyentlari optik nurlanish to'liq uzunliklarining berilgan diapazonidagi to'liq uzunligiga bog'liq bo'lmagan optik tarmoqlagich.

Niderrayter kriptotizimi

ing. - Nidderrigher's cryptosystem

rus. - криптосистема Нидеррайтера

Xatolami tuzatuvchi kodlarga asoslangan kriptotizim.

Nihoyatda past chastotalar

ing. - extremely low frequency

rus. - крайне низкие частоты

300 Hz dan quyida yotuvchi chastotalar sohasi. To'liq uzunligi 1000 km dan ortiq bo'lgan megametrlil to'liqlar mos keladi. Bu diapazonda 50 Hz chastota va uning garmonikalarida elektromagnit to'liqlarni generatsiyalaydigan elektr uzatish liniyalari xalaqitlarning asosiy manbai hisoblanadi.

Nik

ing. - nickname

rus. - ник

Tarmoq foydalanuvchisi odatda chatlar, yangilik guruhlarida, elektron pochta ishlata digan taxallus, haqiqiy bo'lmagan ism. Odatda nik turli xil qayd yozuvlarida foydalanuvchi nomi sifatida ishlatiladi.

Nimani ko'rsang, shuni olasan

ing. - what you see is what you get (WYSIWYG)

rus. - что видишь, то и получишь

Rejim (prinsip) WYSIWYG («vizivig» deb talaffuz qilinadi), «nimani ko'rsang, shuni olasan» matn redaktorlarida va shaxsiy redaktorlik tizimlari – ekrandagi tahrir qilinayotgan hujjat tasvirining bosma variantiga grafik jixatdan to'liq monand rejim. Tayyorlangan maket qanday ko'rinishini oldindan aytib berishga imkon beradi.

Niqob

ing. - mask

rus. - маска

Qiyamatda muayyan bitlarni ko'rsatish yoki tanlab aks ettirish uchun foydalaniladigan ikkilik qiymat.

Niqob biti

ing. - mask bit

rus. - бит маски

Muayyan operatsiyalarga ruxsat etish yoki ularni taqiqlash yoki maydon ichidagini tekshirish yo bo'lmasa o'zgartirish uchun, nol yoki birlik qiymatga o'matiladigan bitlar yig'indisi.

Niqoblanadigan uzilish

ing. - maskable interrupt

rus. - маскируемое прерывание

Protsessor birmuncha muhimroq ishni bajarishi uchun, uzilishlar kontrolleri yoki protsessorning maxsus registridagi qurilma yordamida taqiqlash (yoki ruxsat etilishi) mumkin bo'lgan apparat uzilish.

Niqoblash

ing. - masking

rus. - маскирование

1. Shovqinga qo'shib foydali signalni yashirin uzatish, bunda oddiy vositalar bilan uni aniqlash imkoni bo'lmaydi.
2. Tovush balandligi yuqori bo'lgan fon signali mavjudligida, so'zlashuvni eshitishning yomonlashuvi.
3. Obyektni jinoyatkorlar uchun kirib bo'lmaydigan (ko'rinmaydigan) yoki undan foydalanishni murakkablashtiruvchi harakatlarni bajarishga asoslangan obyektlarni muhofaza qilish uslubi.
4. Kompyuter nazariyasida, niqob bu binar operatsiyalar uchun ishlatiladigan ma'lumotdir. Niqobni ishlatish bu turli baytdagi bitlar yo yoqilishi yo o'chirilishi, yoki yagona binar operatsiyada yoqiqdan o'chiqqacha o'girilishi (yoki aksi) dir. Niqob IP-manzillar bilan kompyuter nimitarmog'ini aniqlashda yoki kompyuter grafikasida, masalan, shaffof muhit ko'rinishini aniqlashda ishlatiladi.

Nisbatlar

ing. - proportions

rus. - пропорции

Kompyuterlar displeylari va rasmlarda rasm enining bo'yiga bo'lgan nisbati. Masalan, 2:1 nisbati rasm eni uning bo'yidan ikki baravar kattaligini ko'rsatadi. Rasmni veb-sahifa kabi boshqa hujjatga qo'shish paytida nisbatini saqlash katta ahamiyatga egadir.

Nisbiy identifikator

ing. - relative identifier

rus. - относительный идентификатор

Xavfsizlik identifikatorining kichik qismi. Domen doirasida xavfsizlik identifikatorlari bir xil katta qismga ega, nisbiy identifikator esa 1000 dan boshlab ketma-ket ko'payuvchi qiymatni oladi.

Nisbiy yo'l

ing. - relative path

rus. - относительный путь

1. Fayl yoki katalogning tarkibiy nomi bo'lib, unda fayl nomining oldidan joriy katalogdan boshlanadigan kataloglar ketma-ketligi yozilgan bo'ladi.
2. Ayrim mavjud direktoriyaga nisbatan fayldan foydalana olish yo'li.

Nizom

ing. - position

rus. - положение

Qandaydir sohada munosabatlarni tartibga soladigan qoidalar to'plami, qonun protseduralari.

Noaniq autentifikatsiya

ing. - implicit authentication

rus. - неявная аутентификация

Autentifikatsiya qilish jarayonida berilgan algoritim bo'yicha generatsiyalanadigan shifrlash kalitlaridan foydalanishga asoslangan autentifikatsiya qilish protsedurasi.

Noaniq holat

ing. - promiscuous mode

rus. - неразборчивый режим

Ish rejimi, bunda tarmoq qurilmasi (ko'prik, kommutator) adreslar manbai va maqsadidan qat'i nazar barcha portlardan unga kelayotgan paketlarni ko'rib turadi.

«Noaniq nusxa»

ing. - blind carbon copy (BCC)

rus. - «слепая копия»

Pochta xabarlari sarlavhasidagi elektron xat nusxasi yuboriladigan manzil. Bunda VSS qabul qiluvchisiga xat yuborilgan boshqa manzillar ro'yxati ko'rinmaydi.

Noaniq nutq

ing. - speech blurring

rus. - нечеткая речь

Nutqni qayta eshittirish va uning tushunarlik sifatini yomonlashtiruvchi buzilishlar turi. Past chastotalar sohasidagi xalaqitlar, odatda, og'ib o'tuvchining tutilib qolishiga bog'liq bo'lib, ular nutqning eshittirish sifati yomonlashuvida aks etadi, ayni paytda, yuqori chastotalar sohasidagi xalaqitlar, asosan, nutqning tushunarligi yomonlashuviga olib keladi.

Noekvidistant antenna panjarasi

ing. - nonequidistant array,

density-tapered array

rus. - неэквидистантная антенная решетка

Element antenna panjarasining markaziy o'qidan qancha uzoq joylashgan bo'lsa, bir-biridan shuncha katta turli masofalarda joylashgan elementar nur tarqatgichlar guruhi.

Noeostatsionar orbita

ing. - non-geostationary orbit

rus. - негеостационарная орбита

Noeostatsionar orbitalarga elliptik (NEO) o'rta balandlik (MEO) va past Yer atrofi (LEO) orbitalari tegishlidir.

Nol

ing. - zero

rus. - нуль

Matematik (0) qiymat. Bul algebrasida «yolg'on» qiymatni anglatadi.

Nol holati boshqariluvchi

antenna panjarasi

ing. - null-steering array

rus. - антенная решетка с

управляемым положением нуля

Yo'nalganlik diagrammasida xalaqitlar man-

bai yo'nalishida qisqa uzilish shakllanadigan antenna panjarasining turi. Yo'nalganlik diagrammasining nol holatini boshqarishda xalaqit signali amalda bostirilgan bo'lishi kerak.

Nol nurlanish bo'yicha yo'nalganlik diagrammasining kengligi

ing. - null-to-null beamwidth

rus. - ширина диаграммы направленности по нулевому излучению
Ikki ta yo'nalish o'rtasida o'lgan yo'nalganlik diagrammasi asosiy yuqori qismning kengligi, ular bo'ylab maydon kuchlanganligi nolga yaqin bo'ladi.

Nolga qaytmasdan

ing. - non-return to zero (NRZ)

rus. - без возврата к нулю

Kodlash usuli, bunda signallar har doim musbat yoki manfiy, nol bo'lmagan qiymatlarga ega, 1 va 0 ikkilik simvollarini turlicha qutblanadigan signallar bilan kodlanadi. Bunday signal 1 larni uzatishda takt davomida, ya'ni har bir bitdan keyin 0 ga qaytmaydi. Usul xatolarni yaxshi aniqlashni ta'minlaydi, lekin o'zini o'zi sinxronlash xossasiga ega emas.

Nolinchi argument

ing. - zero argument

rus. - нулевой аргумент

UNIX operatsion tizimlarida komanda nomi nolinchi raqamli argument hisoblanadi. Ishga tushiriladigan dasturning validligini tekshirish uchun xizmat qiladi. \$0 parametri bilan belgilanadi.

Nolinchi kun zaifligi

ing. - zero day exploit

rus. - уязвимость нулевого дня

Himoya mexanizmlari hali ishlab chiqilmagan zararli dastur yoki zaiflik.

Nolinchi paketlar

ing. - zero packages

rus. - нулевые пакеты

Axborot tashimaydigan va oqim tezligi o'zgarishiga xizmat qiladigan transport oqimi paketlari.

Nolinchi qurilma

ing. - null device

rus. - нулевое устройство

Unix-monand operatsion tizimlarda hech

qanday maqsadga yetkazmaydigan bo'sh qurilma. Qabul qilinadigan barcha signallarni yutadi. Ekranga chiqarish va hech qayerda saqlanishi kerak bo'lmagan axborotni qayta yo'naltirish uchun ishlatiladi.

Nollashtirish

ing. - zeroize

rus. - обнулять

Disk sektori, xotira bloki yoki o'zgaruvchilarni nollar bilan to'ldirish.

Nom

ing. - name

rus. - имя

Dasturlashda - ma'lumotni, dasturi yoki kataloglashtirilgan protsedurani identifikatsiyalaydigan harf-raqamli simvollar ketma-ketligi (nomning birinchi simvoli harfi bo'lishi kerak).

Nom bo'yicha chaqiruv

ing. - call by name

rus. - вызов по имени

Parametrlarni berish usuli, bunda chaqiruvchi modul chaqiriladigan modulga uzaytiriladigan parametrlarni ifodalaydigan ramziy ifodani taqdim etadi, xizmatga oid protsedura ifodani baholaydi hamda natijalovchi qiymatni chaqiriladigan modulga taqdim etadi.

Nomaqbul effekt

ing. - side effect

rus. - побочный эффект

Dastur yoki funksiyani bajarishda hisoblash muhiti holatining yoki o'zgaruvchilarni global qiymatlarining o'zgarishi.

Nomaqbul yuproq

ing. - spillover lobe

rus. - побочный лепесток

Antenna ko'zgi bilan nurlanadigan energiya qisman qamrab olishda hosil qilinadigan parazit yuproq.

Nomer (raqam)

ing. - number

rus. - номер

Qandaydir qurilma yoki foydalanuvchiga beriladigan va keyinchalik uni identifikatsiya qilish uchun qo'llaniladigan yagona sonli kod yoki indeks.

Nomidan kirish

ing. - sign in as ...

rus. - войти как ...

Login va paroldan foydalanib resursdan foydalana olish huquqini olish.

Nominal daraja

ing. - nominal level

rus. - номинальный уровень

U yoki bu qurilma (aloqa tizimida qo'llaniladigan) kirishidagi elektr signalining yo'l qo'yiladigan chegaraviy darajasi, bunda qurilma tomonidan kiritiladigan nohiziqli buzilishlarning qiymati yo'l qo'yiladigan chegaralardan oshmaydi.

Nominal kanal intervali

ing. - nominal channel time slot

rus. - номинальный канальный интервал

Qo'shni kanallar orasida chastotata bo'yicha tarqatish. Kanal intervali teng bo'lishi yoki teng bo'lmisligi mumkin.

Nominal quvvat

ing. - nominal power

rus. - номинальная мощность

Radiokamayga beriladigan eng katta elektr quvvati, bunda nohiziqli buzilishlar berilgan turdagi radiokamayning texnik hujjatlarida keltirilgan normalardan oshmaydi.

Nomlar jadvali

ing. - symbol table

rus. - таблица имён

Dasturda foydalaniladigan identifikatorlar (belgilar, kichik dasturlar va o'zgaruvchilar nomlari)ni va ularning atributlarini (belgilarini) ichiga oladi; nomlar jadvali ishlash paytida translyator va komponovkachi tomonidan tuziladi; semantik tahlil va oraliq kodni generatsiyalash bosqichlarida, shuningdek dasturni komponovkalash uchun foydalaniladi. Nomlar jadvali tegishli, sozlash maqsadida obyekt yoki yuklash modulida saqlanishi mumkin.

Nomlar serveri

ing. - nameserver

rus. - сервер имен

Boshqa nomlar serverlari bilan birgalikda xost-kompyuterlar nomlarining, ularning

IP-manzillariga o'zgartirilishini amalga oshiradigan kompyuter.

Nomli buyum

ing. - personal item

rus. - именная вещь

Hujjatlar, pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalari blanklariga pochta aloqasi obyektini nomi, pochta vagoni, yo'nalishi, pochta, kuryerlik jo'natmasi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasi va boshqa axborotni qabul qilish hamda kelib tushgan sanasini ko'rsatgan holda iz tushirish uchun mo'ljallangan moslama (shtamp).

Nomukammal shifr

ing. - breakable cipher

rus. - несовершенный шифр

Mutloq chidamli bo'lmagan shifr.

Noortogonal diskretlash

ing. - non-orthogonal sampling

rus. - неортогональная дискретизация

Diskretlash onlariga mos keladigan yoyish satrlaridagi nuqtalar tasvirga yoyish satri yo'nalishiga perpendikulyar ravishda yo'naltirilgan tasvimi diskretlash.

Izoh - Progressiv yoyish hollarida, yoyish satridagi nuqtalar shu maydonning vaqt bo'yicha qo'shni satrlari nuqtalariga yo'naltirilgan, satr oralatib yoyishda, yoyish satridagi nuqtalar keyingi maydonning fazo bo'yicha qo'shni satrlariga yo'naltirilgan.

Nopozitsion sanoq tizimi

ing. - nonpositional notation

rus. - непозиционная система счисления

Sonlarni belgilash uchun, miqdor qiymati har doim bir xil va joylashgan o'rniga bog'liq bo'lmaydigan muayyan belgilar kiritiladigan sanoq tizimi. Nopozitsion sanoq tizimidan kam foydalaniladi, chunki u hisoblashlar uchun moslashtirilmagan. Xarakterli misol - rimcha sanoq tizimi. Lotin alifbosining quyidagi qiymatlarga ega simvollar bor: I-1, V-5, X-10, L-50, C-100, D-500, M-1000.

Norekursiv filtr

ing. - nonrecursive filter

rus. - нерекурсивный фильтр

Yakuniy javobi ratsional funktsiya orqali ifodaladigan raqamli filtr.

Normallashtirish

ing. - normalization

rus. - нормализация

Ma'lumotlarni, takrorlanadigan ma'lumotlar guruhlarini saqlamaslik va ma'lumotlar ortiqchaligiga yo'l qo'yimaslik imkonini beradigan alohida jadvallarga guruhlash usuli.

Normativ-huquqiy hujjat

ing. - normative legal act

rus. - нормативно-правовой акт

Belgilangan shakldagi, vakolatli davlat organining yoki boshqa tuzilmalarning vakolati doirasida yoki qonun hujjatlarida belgilangan protseduralarga rioya qilingan holda referendum yo'li bilan qabul qilingan rasmiy hujjat.

Normativ-huquqiy hujjat muhokamasi

ing. - discussion of the normative legal act

rus. - обсуждение

нормативно-правового акта

Normativ-huquqiy hujjatning tegishli loyihasini yoki boshqa zarur axborotni rasmiy saytda joylashtirish, shuningdek, muhokama qamashchilarining taqdim etilgan takliflarini ko'rib chiqish va umumlashtirish.

Nosimmetrik liniya

ing. - unbalanced line

rus. - несимметричная линия

O'tkazgichlardan biri signalni uzatish uchun, ikkinchisi esa, yerga ulash vositasi sifatida xizmat qiladigan uzatish liniyasi.

Nosimmetrik vibrator

ing. - unsymmetrical vibrator

rus. - несимметричный вибратор

O'tkazuvchi sirt ustida joylashadigan, bir uchi bilan fiderga, ikkinchi uchi esa, o'tkazuvchi sirtga, masalan, yer, antenna posangisi yoki obyekt korpusi bilan ulanadigan vibrator.

Nosimmetrik zanjir

ing. - unbalanced circuit

rus. - несимметричная цепь

Bir-biridan yerga yoki boshqa simga nisbatan qarshilik, elektr sig'imi, o'tkazuvchanlik yoki induktivlik bilan farqlanadigan yelkallari bo'lgan ikki o'tkazgichli liniya.

Nosozlik

ing. - fail

rus. - сбой

Tashqi ta'sirlar tugagandan so'ng bartaraf etiladigan, juda ham jiddiy bo'lmagan ishlamay qolish.

Nonstandart foydalana olish usuli

ing. - nonstandart access method

rus. - нестандартный метод доступа

Dasturda ko'zda tutilmagan, lekin resurslardan erkin foydalanishda ishlaydigan usul. Asosan veb-dasturlar uchun xos.

Notariallashtirish

ing. - notarization

rus. - нотаризация

Ma'lumotlarni uchinchi ishonchli tomondan qayd etilishi, bu esa keyinchalik ularning ichidagi, jo'natuvchi, vaqt va oluvchi kabi tavsiflarning tasdiqlanishini ta'minlaydi.

Notarqoq zona (mobil aloqa tarmog'ida)

ing. - nondiversity area

rus. - зона без разносения

(в сотовой связи)

Har tomonga yo'nalgan antennali bitta tayanch stansiyaga ega xizmat ko'rsatish zonasi. Tayanch stansiya ushbu zonaning markazida joylashadi.

Notatsiya

ing. - notation

rus. - нотация

Matematik yoki ilmiy ifodalarni, dasturlar elementlarini tavsiflash uchun mo'ljallangan qoidalar va simvollar to'plami.

Notekis kvantlash

ing. - non-uniform quantizing,

non-uniform quantization

rus. - неравномерное квантование

Kvantlashning ikkita chetki intervallari uchun belgilangan tashqi chegaralar o'rtasidagi kvantlashning barcha intervallari o'zaro teng bo'lmagan kvantlash.

Notekis nurlanish

ing. - nonuniform irradiation

rus. - неравномерное облучение

Antennaning ochilishida qo'zg'atiladigan

elektromagnit maydon tekis hisoblanmaydigan, balki ko'zguning chetlariga tekis tushadigan nurlanish.

Noto'g'ri kadrlash

ing. - incorrect framing

rus. - неправильное кадрирование

Videosignal datchigi yoki tiklash qurilmasidagi belgilangan kadrga nisbatan yoyish elementi bilan aylantirib chiqiladigan sirtning noto'g'ri joylashishi.

Noutbuk, laptop

ing. - laptop (computer)

rus. - ноутбук, лэптоп

Odatda o'lchami A4 formatdagi varaq o'lchami bilan mos keladigan, og'irligi bir necha kilogramm atrofida bo'lgan ko'chma shaxsiy kompyuter.

Nov

ing. - trough

rus. - желоб

Olinadigan qopqog'i bo'lgan, yer osti kabelini o'tkazish uchun yer ostidagi trenchga joylashtirilgan kanal.

Noyob nom

ing. - unique name

rus. - уникальное имя

Berilgan nomlar makonidagi aniq (yagona) nom.

Nozik axborot

ing. - critical information

rus. - критичная информация

To'la huquqli shaxs nuqtai nazaridan muhofazalanishi zarur bo'lgan axborot. Chunki, uni oshkor aylash, o'zgartirish, yo'q qilish yoki yo'qotish kimgadir yoki nimagadir sezilarli zarar yetkazishga sabab bo'lishi mumkin.

Nochiziqli buzilishlar

ing. - nonlinear distortion

rus. - нелинейные искажения

Signal shakli (tovush tebranishlari)ning qo'shimcha garmonikalar (tovush tembrining buzilishi, xirillash, zirillash) ning paydo bo'lishi hisobiga buzilishi. Buzilishlar garmonikalar koeffitsiyenti (klirfaktor) bilan baholanadi.

Nochiziqli buzilishlar o'lchagichi

ing. - meter of nonlinear distortion

rus. - измеритель нелинейных искажений

Signalning o'tish traktida liniya, kuchaytirgich va sh.k.lar tomonidan kiritiladigan nochiziqli buzilishlar koeffitsiyentini yoki tovush chastotasi sinusoidal tebranishlari generatorining chiqishida vujudga keladigan buzilishlarni aniqlaydigan asbob.

Nochiziqli montaj

ing. - nonlinear mounting

rus. - нелинейный монтаж

Montaj texnologiyasining kompyuterda amalga oshiriladigan yangi avlodi. Videoplenkalar, disklar va grafikalaridagi tasvir raqamlashtiriladi, magnit disklarda saqlanadi. Istalgan kadr, istalgan paytda va istalgan ketma-ketlikda chaqirib olinishi mumkin.

Nuqta o'lchami (lyuminofor

zarrasining qadami)

ing. - size of point

(step of grain of luminofor)

rus. - размер точки

(шаг зерна люминофора)

Bitta rangdagi nuqtalar (piksellar) o'rtasidagi masofa. Har xil turdagi kineskoplar uchun diagonal yoki gorizontaal bo'yicha o'lchanadi.

Nuqtalar qadami

ing. - step of points

rus. - шаг точек

Qo'shni triadalarining markazlari o'rtasidagi masofa.

Nuqtali vergul

ing. - semicolon

rus. - точка с запятой

Elektron pochta bir nechta foydalanuvchilarga jo'natish uchun manzillarni ajratishda ishlatiladigan bo'lgich. Dasturlashda esa u satrning mantiqiy tugallash belgisi hisoblanadi.

Nur

ing. - beam

rus. - луч

Antenna yo'nalganlik diagrammasining bitta yaprog'i nurlanishi tarqaladigan fazo qismi. Izo - Nur keskin yo'naltirilgan, profilangan, qayta

yo'naltiriladigan yoki vaqt davomida kommutatsiyalanadigan bo'lishi mumkin.

Nur (antenna panjarasining)

ing. - beam (of the antenna array)

rus. - луч (антенной решетки)

Yo'naltirilgan antenna panjarasi yo'nalganlik diagrammasining asosiy yaprog'i.

Nur tarqatgich

ing. - emitter

rus. - излучатель

Elektr signallarning elektromagnit to'lqinlarga aylantirilishini ta'minlaydigan manbaning umumiy nomi.

Nur o'qi

ing. - axis of the beam

rus. - ось луча

Nurda uzatiladigan maksimal energiya xos bo'lgan yo'nalish, odatda, antennaning yo'nalganlik diagrammasi asosiy yaprog'iga mos keladi.

Nurlagich bilan soyalash

(antenna ko'zgusi)

ing. - feed blockage (of antenna mirror)

rus. - затенение облучателем

(зеркала антенны)

Antenna ko'zgusi sirti nurlanish samaradorligining nurlagichning soyalantiruvchi harakati va uning konstruktiv (tayanch) elementlari tufayli pasayishi.

Nurlanish

ing. - emission

rus. - излучение

1. Istalgan manbadan chiqayotgan energiyaning radioto'lqinlar shaklidagi oqimi.

2. Elektromagnit to'lqinlarning manbadan atrof-muhitga yoki uzatish liniyalari orqali tarqalish jarayoni.

Nurlanish darajasi

ing. - radiation level

rus. - уровень излучения

Texnik vosita nurlantirayotgan elektr va/yoki magnit maydonlar va/yoki quvvat oqimi zichligining, qat'iy belgilangan sharoitlarda o'lgangan darajasi.

Nurlanish turkumi

ing. - class of emission

rus. - класс излучения

Belgilangan shartli belgilar orqali ifodaladigan nurlanishlar xarakteristikalarining majmui, masalan, asosiy eltuvchini modulyatsiyalash turi, modulyatsiyalaydigan signal, uzatiladigan xabarlar turi, shuningdek, (zarur bo'lganda) signalning har qanday qo'shimcha xarakteristikalari.

Nurlantiruvchi element

(antenna panjarasi)

ing. - radiating element (of antenna array)

rus. - излучающий элемент

(антенной решетки)

Antenna yoki antenna panjarasining tarkibiy qismi hisoblanadigan berilgan qo'zg'atish qonuniga ega antennalar guruhi.

Nurlanuvchi quvvat

ing. - transmitted power, radiated power

rus. - излучаемая мощность

Vaqt birligida, chastotalaming cheklangan polosasida nurlanadigan energiya.

Izoh - Nurlanuvchi quvvat qiymati uzatish vaqtiga, uzatish muhitining xarakteristikalariga hamda o'lchash usuliga bog'liq. Og'ib o'tuvchining oniy cho'qqi quvvati, vaqtda yoki uzatish liniyasining berilgan ko'ndalang kesimida (masalan, to'lqin o'tkazgichda) o'rtaqalashirilgan quvvat farqlanadi. Antennadan keladigan to'la quvvat belgilangan yo'nalishda (cheklangan fazoviy burchakda) uzatilishi yoki izotrop, ya'ni barcha yo'nalishlarda bir tekis nurlanishi mumkin.

Nurlanuvchi radioxalaqit

ing. - radiated interference

rus. - излучаемая радиопомеха

Fazoda tarqaladigan radioxalaqit.

Nurli (energetik) yorqinlik

ing. - radiant intensity

rus. - лучевая (энергетическая) яркость

Fazoviy burchak birligida manba proyeksiyasi maydon birligiga to'g'ri keladigan nurli oqim.

Izoh - Birligi vatt taqsim steradian, kvadrat metr ($W/sr.m^2$).

Nurli oqim

ing. - radiation flux

rus. - лучевой поток

Nurlanuvchi energiyaning ko'chirish quvvati

ti, ya'ni vaqt birligida o'tadigan energiya miqdori.

Nurni kombinatsiyalangan boshqaruvga ega antenna

ing. - antenna with combined

operation of beam

rus. - антенна с комбинированным

управлением лучом

Bir tekislikda mexanik skanlash va boshqarida elektr skanlashga ega antenna.

Nusxa ko'chirilishidan muhofaza qilish

ing. - copy protection

rus. - защита от копирования

1. Ma'lumotlardan, dasturiy yoki dasturiy apparat ta'minotidan ruxsat etilmagan tarzda nusxa ko'chirilishini aniqlash yoki oldini olish uchun maxsus usullarning qo'llanilishi.

2. Magnit tashuvchida, masalan, tijorat yo'nalishidagi dasturiy mahsulotga ega diskda, yozilgan axborotdan nusxa ko'chirishining oldini olish usuli.

Nusxa ko'chirish

ing. - copy

rus. - копировать

Belgilangan matn yoki obyektни almashinuv buferiga ko'chirish.

Nusxa ko'chirish platasi

ing. - copy card

rus. - плата копирования

Elektron hisoblash mashinasiga o'rnatilgandan so'ng, tezkor xotiradan diskka muhofazalangan dasturiy ta'minotni ko'chirish imkonini beradigan elektron qurilma.

Nusxa ko'chirishga ruxsat etilgan

ing. - copyleft

rus. - разрешено для копирования

FSF ga kiritilgan mualliflik huquqining turi bo'lib, mahsulotni notijoriy maqsadlar uchun erkin tarqatilishiga ruxsat etilganligini bildiradi.

Nusxalovchi arxivlash

ing. - copy backup

rus. - копирующая архивация

Barcha belgilangan fayllardan nusxa ko'chi-

rilishi mumkin bo'lgan, lekin rezervlangan fayllar belgilanmaydigan arxivlash rejimi.

Nutq aktivligi detektori

ing. - voice activity detector (VAD)

rus. - детектор активности речи

Nutq intervallarini yoki nutqsiz shovqinni aniqlash va ajratish uchun mo'ljallangan qurilma.

Izoh - Nutq detektori pauzalar va aloqa seansi tugaganda, uzalgichni o'chirish (uzib qo'yish) uchun ham ishlatiladi. Detektorda qaror qabul qilish chegarasi juda past ham bo'lishi kerak emas, aks holda, qurilma shovqindan «ishlab» ketadi, shuningdek, juda yuqori ham bo'lmasligi kerak, unda nutq jumlasining boshlanishi «kesilib» qoladi va nushunartilik yomonlashadi.

Nutq orqali (raqam) terish xizmati

ing. - voice dialling service

rus. - услуга речевого набора

Telefon raqamini yoki familiyani aytish orqali raqamni termasdan bog'lanishni o'rnatish imkoniga ega xizmat.

Izoh - Xizmat ham telefon stansiyada, ham abonent terminalida amalga oshirilishi mumkin.

Nutq polosasi

ing. - voice band

rus. - речевая полоса

Nutq uzatilishini ta'minlaydigan, 3000 Gs (300 dan 3400 gacha) ga teng bo'lgan chas-totalar polosasi.

Nutq sifati

ing. - voice quality

rus. - качество речи

Nutq mazmun va rasmiy tomonlarining mavjud xususiyatlari: to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, softigi, ifodaliligi, boyligi va o'rtnli ekanligi.

Nutqiy axborot

ing. - speech information

rus. - речевая информация

Manbai inson nutqi bo'lgan akustik axborot.

Nutqiy erkin foydalanish

ing. - voice access

rus. - речевой доступ

Foydalanuvchi ovozini identifikatsiyalash asosida erkin foydalanishga ruxsat berish tizimi.

Nutqiy interfeys

ing. - voice-based interface

rus. - речевой интерфейс

Nutq shaklida komandalar va ma'lumotlar kiritish interfeysi. U foydalanuvchi va axborot tizimi o'zaro ishlashiga oid usullarni soddalashtirish maqsadida yaratilgan. Tizimga ma'lumotlarni qayta ishlashni boshqarish komandalari yoki ma'lumotlarning o'zi kiritiladi.

Nutqiy kiritish

ing. - speech input

rus. - речевой ввод

Ma'lumotlarni kompyuterga ovoz yordamida (klaviaturasiz) kiritish texnologiyasi. Nutqiy kiritishdan foydalanish uchun, tezkor xotirasi kamida 8 Mbyte bo'lgan Pentium yoki i486 protsessorga ega katta quvvatli shaxsiy kompyuter va lug'atli dasturiy ta'minot bo'lishi zarur. Dastur nutqni raqamlashtiradi, har bir so'zni ajratadi va aniq ta'riflash uchun uni o'zining lug'atidan topishni bajaradi.

Nutqiy pochta

ing. - voice mail

rus. - речевая почта

Nutqiy xabarlar uzatishga mo'ljallangan elektron pochta turi. Nutqiy pochta foydalanuvchilar monologini ta'minlaydi. Nutq xabarlar shaklida uzatilib, ularni talab qilinmaguncha xotirada saqlana beradi. Buning uchun abonent tizimlarida pochta qutisi deb ataluvchi xotira sohasi ajratib beriladi.

Nutqiy xabar

ing. - audio message

rus. - речевое сообщение

Tarmoq orqali uzatilayotgan nutqdan iborat bo'lgan xabar. Nutqiy xabar uzatish odatdagiga nisbatan juda oson, chunki, klaviatura yoki nurli pero ishlatishga ehtiyoj bo'lmaydi. Shu bilan birga, uzatish jarayoni analog-raqamli o'zgartirishni, qabul qilish jarayoni esa raqamli-analog o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, nutqiy xabarlar katta hajmliligini hisobga olgan holda, ma'lumotlarni zichlashtirishdan foydalaniladi.

Nutqli (ovozli) xabarlarini qayta ishlash

ing. - voice processing

rus. - обработка речевых

(голосовых) сообщений

Ovozli pochtoni, raqamli avtojavobbergichlarni, ma'lumot beradigan kiosklarni ichiga oladigan texnologiyalar jami.

Nutqli xabar

ing. - voice message

rus. - сообщение речевое

Nutq signallari ko'rinishida taqdim etiladigan xabar.

Nutqni anglash

ing. - speech recognition

rus. - распознавание речи

Nutqiy ma'lumotlarni mashina yordamida anglash va ularni mashina matniga o'g'irish. Nutqni anglash dasturi matni klaviatura orqali emas, balki kompyuterga ulangan mikrofon yordamida kiritish imkonini beradi.

Nutqni kodlash

ing. - speech coding

rus. - кодирование речи

Nutqni kodlar ketma-ketligiga aylantirish.

Nutqni kodlash algoritmi

ing. - algorithm encoding speech (CODEC)

rus. - алгоритм кодирования речи

Nutqni raqamlashtirish tizimi zida tovushlar lug'atini ifodalaydi, bu lug'at yordamida gapiruvchining ovozi aloqa liniyasi bo'ylab uzatish uchun nollar va birlar to'plamiga o'zgartiriladi.

Nutqni qayta ishlash

ing. - speech processing

rus. - обработка речи

Nutqni tahlil qilish, o'zgartirish va sintezlash jarayoni. Nutqni tanish uni matnga aylantirishdan iborat, uni axborot manbai sifatida ishlatish imkoniyatini ochadi. Tanishga teskari bo'lgan holat nutqni sintezlashdir, ya'ni, aniq kod bilan ifodalangan matni nutqqa o'g'irish.

Obfuskatsiyalash

ing. - obfuscation

rus. - обфускация

Birlamchi matn yoki dasturning bajariladigan kodining funksionalligini saqlab qoladigan, biroq uni tahlil qilish, ish algoritmlarini tushunish va dekompiyatsiya paytida modifikatsiyalashni murakkablashtiradigan shaklga keltirish. Kodni «chalkashtirish» algoritmi, birlamchi matn, assemblerlik darajasida amalga oshirilishi mumkin.

Chalkash assemblerlik matni yaratish uchun dasturi bajarish muhitining yashirin yoki hujjatlashtirilmagan imkoniyatlaridan foydalanuvchi maxsus kompilyatorlar qo'llanilishi mumkin. Obfuskatsiyalashni bajarish uchun maxsus dasturlar ham mavjud, ular obfuska-torlar deyiladi.

Obrazlarni aniqlash

ing. - pattern recognition

rus. - распознавание образов

Funksional blok yordamida fizik yoki abstrakt obrazlarni, tuzilmalar va konfiguratsiyalarni identifikatsiyalash. Aniqlash, qabul qilinayotgan signallarning xususiyatlari va qonuniyatlariga asoslangan holda, namunaning tuzilishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Obyekt

ing. - object

rus. - объект

1. Atributlarini o'Ichash yordamida tavsiflanadigan alohida element.

2. Foydalanilishi nazorat qilinadigan mantiqiy obyekt.

Masalan, fayl, dastur, tezkor xotira doirasi; yig'ilgan va saqlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar.

3. Axborotni saqlovchi, qabul qiluvchi yoki uzatuvchi tizimning passiv komponenti, undan foydalana olish erkin foydalanishni chegaralash qoidalarini bilan tartibga solinadi.

Izoh - Obyektidan foydalana olishida unda saqlanayotgan axborotdan erkin foydalanishni anglatadi. Obyektlar: yozuvlar, bloklar, sahifalar, segmentlar, fayllar, direktoriyalar va dasturlar, shuningdek, alohida bitlar.

Obyekt-dispatcher

ing. - dispatcher object

rus. - объект-диспетчер

Windows 2000 operatsion tizimidagi sinxronlash vositasi, myuteks va semafor kabi ishlaydigan, ularning semantikasi shartli o'zgaruvchi semantikasiga o'xshash voqealarni generatsiyalaydi.

Obyekt fayli

ing. - object file

rus. - объектный файл

Kompilyator bilan boshlang'ich kodni qayta ishlash natijasida olingan, dasturning alohida moduli oraliq taqdim etilgan fayl. Obyekt fayli o'z ichiga alohida tarzda tayyorlangan (ko'pincha, ikkilik yoki binar kod deb ataladigan) kodni oladi. Bu kod, tayyor bajariladigan modulni yoki bibliotekani olish uchun, bog'lanishlar redaktori (komponovkachi) yordamida boshqa obyekt fayllari bilan birlashtirilishi mumkin.

Obyekt fayllarining umumiy formati

ing. - common object file format

rus. - общий формат объектных файлов

Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standart.

Obyekt kodi

ing. - object code

rus. - объектный код

Dasturlovchi tizim yaratadigan. bir yoki undan ortiq jarayonni (dastur matni yoki tili) qulay taqdim etish shakli.

Obyekt moduli

ing. - object module

rus. - объектный модуль

Bajariladigan mashina komandalari va simvollar jadvalini o'z ichiga oladigan, kompilyator bilan generatsiyalanadigan dastur binar kodining fayli.

Obyekt so'rovlar brokeri

ing. - object request broker (ORB)

rus. - брокер объектных запросов

Namunaviy dasturlar blokini ishlab chiqish

texnologiyasi. ORB texnologiyasi dasturiy ta'minotning oraliq qatlamlari turlaridan biri bo'ladi. ORB yordamida yaratilayotgan dasturlar murakkab dasturiy tizimlarni qurish uchun qayta-qayta ishlatilishi mumkin. Bu tizimlar, birinchi navbatda global ulanish xizmatida foydalanishga mo'ljallangan. ORB obyektga yo'naltirilgan arxitekturaga tayanadi, broker operatsiyalarini bajara turib, bir obyektga boshqa obyektlarni topib olish va ularga tarmoq orqali so'rovlar bilan murojaat qilish imkonini yaratadi. ORB yordamida yaratilayotgan dasturlar, tarmoqda qo'llanilayotgan platformaga, ular yaratilgan dasturlash tillariga bog'liq emas.

Obyekt so'rovlari vositachisi

ing. - object request broker (ORB)

rus. - посредник запросов к объектам

Компьютер tarmog'i orqali obyektning boshqa obyektlar bilan o'zaro ta'sirini ta'minlovchi tizim, OMG standartining qismi. RPC va MOM ga o'xshab, ORB ham foydalanuvchidan uzoqdagi obyektlarga kirishni berkitadi. So'ralgan obyekt aktivlashtirilayotgan obyekt nomini bilishi va unga bir qator parametrlarni jo'natishi kerak.

Obyektдан takroriy foydalanish

ing. - repeated use of object

rus. - повторное использование объекта

Avval bitta yoki bir nechta obyektдан iborat bo'lgan xotira maydonining (masalan, bet, freym, disk sohasi, magnit tasma) qayta tayinlanishi va takroriy qo'llanilishi. Xavfsizlikni ta'minlash uchun ushbu maydon yangi obyekt uchun ajratilganda, unda eski obyektlar axboroti bo'lmasligi lozim.

Obyektga havola

ing. - object handle

rus. - объектная ссылка

Windows yadrosining tizim obyektiga havola.

Obyektga kira olish

ing. - access to object

rus. - доступ к объекту

1. Obyektдagi axborotni olish.

2. Obyektдан biror maqsad yo'lida foydalanish.

Obyektga yo'naltirilgan

ing. - object-oriented

rus. - объектно-ориентированный

Obyektlardan foydalanish ta'minlanadigan operatsion tizim, ishlab chiqish muhiti, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi yoki ilova.

Obyektga yo'naltirilgan arxitektura

ing. - object-oriented architecture

rus. - объектно-ориентированная

архитектура

Asosi, tizim yoki tarmoqning bir-biri bilan o'zaro aloqada ishlovchi obyektlar to'plami bo'lgan arxitektura. Obyektga yo'naltirilgan arxitektura obyekt texnologiyalarini belgilaydi. Bu arxitektura asosida dasturlashda, ma'lumotlarni qanday qayta ishlanishi tavsiflanmaydi, balki, qayta ishlash natijasida nima yuz berishi uqtirilgan xabar yo'llanadi. Algoritmarni tavsiflash obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillaridan foydalanib amalga oshiriladi.

Obyektga yo'naltirilgan boshqarish

ing. - object-oriented management

rus. - объектно-ориентированное

управление

Obyektga yo'naltirilgan arxitekturadan foydalanadigan tarmoqni boshqarish. Obyektga yo'naltirilgan boshqarishning asosida axborot tarmog'ini o'zaro bog'langan obyektlar - qurilmalar va dasturlar to'plami shaklida ifodalash yotadi. Obyektga yo'naltirilgan boshqarishni ishlatish amaliy dasturlarni ishlagga ketayotgan vaqtni qisqartirishni va boshqariladigan tarmog'i konfiguratsiyasini sozlashda ephillikni ta'minlaydi.

Obyektga yo'naltirilgan dasturlash

ing. - object-oriented programming

rus. - объектно-ориентированное

программирование

Dasturlash rivojlanishidagi ommabop yo'nalish. Ma'lumotlar muayyan xossalarga ega bo'lgan va o'zining ichiga ham ma'lumotlar tuzilmasini, ham ular bilan ishlash protseduralarini oladigan protseduralar ko'rinishida taqdim etilishida ifodalanadi.

Obyektga yo'naltirilgan

ma'lumotlar bazasi

ing. - object-oriented database

rus. - объектно-ориентированная

база данных

Ma'lumotlar bazasi, unda ma'lumotlar tashqi hodisalarni boshqaradigan, amaliy dasturlarni o'z ichiga oladigan obyektlar modeli ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalarini boshqarish guruhi

ing. - object database

management group (ODMG)

rus. - группа управления объектно-ориентированными базами данных

Ma'lumotlar bazalari sohasida standartlarni ishlash bilan shug'ullanadigan jamiyat. ODMG, birinchi navbatda obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazalari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi.

Obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi

ing. - object-oriented database

management system (OODBMS)

rus. - объектно-ориентированная система управления базой данных

Obyektga yo'naltirilgan ma'lumotlar bazasiga asoslangan. Obyektlar shaklida saqlanayotgan ma'lumotlarning murakkab turlari bilan ishlashga imkon beradi, shu bilan birga, ma'lumotlar amaliy dasturlardan mustaqil ravishda saqlanadi. OODBMS tranzaksiyalar ishlovida yuqori unum beradi, shu sababli, tasvirlar va tovushni, relyatsion baza talab qilgani kabi jadval shaklida ifodalamaydi.

Obyektga yo'naltirilgan operatsion tizim

ing. - object-oriented

operating system (OOOS)

rus. - объектно-ориентированная операционная система

Obyektga yo'naltirilgan arxitekturaga ega bo'lgan operatsion tizim. Tizimning eng muhim bo'g'ini bo'lib, operatsion tizimning asosiy vazifalarini bajaradigan mikroo'zagi hisoblanadi. Uning yuqorisida, turli xizmatlarni taqdim qiladigan modullar joylashadi. Mikroo'zak bilan obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari bog'langan.

Obyektlar karuseli

ing. - carousel of objects

rus. - карусель объектов

Transport oqimida ma'lumotlarning muayyan oqimlari bilan bog'liq umumlashgan obyektlar (fayllar, direktoriylar)ni davriy takrorlagan holda uzatish.

Obyektlardan foydalanishning oddiy protokoli

ing. - simple object access protocol (SOAP)

rus. - простой протокол

доступа к объектам

Microsoft korporatsiyasi va uning hamkorlari tomonidan taklif qilingan onlayn savdo maydonchalarini (elektron kommersiya tugunlari va portallari) yaratishning umumiy standartidir. Bu protokolda ma'lumotlar almashinuvi XML tiliga asoslangan.

Obyektlarni bog'lash va joylash texnologiyasi

ing. - OLE

rus. - связывание и встраивание объектов
Elektron jadval yoki matnli protessor fayli kabi boshqa ilovalar bilan yaratilgan hujjatga bir ilova bilan yaratilgan obyektmi o'rnatish vositasida ilova ma'lumotlardan birgalikda foydalanish va almashish usuli.

Obyektlarni boshqarish guruhi

ing. - object management group (OMG)

rus. - группа управления объектами

Tarmoq va axborot tizimlari obyektlarini boshqarish standartlarini ishlab chiqadigan notijorat tashkilot. 1989-yilda tashkil topgan. Uning taniqli ishlanmalaridan biri bo'lib, «obyektlar so'rovlari agentlarining umumiy arxitekturasi» deb ataluvchi CORBA hisoblanadi. U tillar va amaliy tizimlardan qat'iy nazar, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan amaliy dasturlarning o'zaro ishlashini ta'minlaydi.

Obyektlarni muhofaza qilish

ing. - object protection

rus. - защита объектов

Muhofazalangan sohadan chiqarilishi mumkin bo'lgan obyektlarni (masalan, fayllarni, tashuvchilarni, seyflarni) muhofaza qilish vositalari.

Obyektkli interaktiv loyihalash**ing.** - object view interaction design (OVID)**rus.** - объектное интерактивное

проектирование

Murakkab masalalarni qulay bajarishga mo'ljallangan, foydalanuvchi interfeysini ishlab chiqish uslubiyati. OVID uslubiyati bir masalaning o'zini yechishda foydalanuvchilar tomonidan muntazam operatsiyalar bajariladigan hol uchun mo'ljallangan. Masalan, matnlarni tahrir qilish, moliya hisoblarini bajarish, chizmalarni yaratish. Bu uslubiyat obyekt deb ataluvchi tushunchalarni ishlatishga asoslangan.

Obyektkli so'rovlar brokerining**umumiy arxitekturasi****ing.** - common object request broker architecture (CORBA)**rus.** - общая архитектура брокера (посредника) запросов к объектам

Taqsimlangan obyektlar uchun o'zaro harakati amalga oshirish tilidan mustaqil model. OMG (OS/2, SOM modeli) guruhi tomonidan ishlab chiqilgan standart.

Obyektkli texnologiya**ing.** - object technology**rus.** - объектная технология

Obyektga yo'naltirilgan arxitektura bilan aniqlanadigan texnologiya. Avvalgi yondashuvlardan farqli o'laroq, tartibot va ma'lumotlar tushunchalari obyekt degan tushuncha bilan almashtirilgan.

Obyektkning atributiv turi**ing.** - attributive entity type**rus.** - атрибутивный тип объекта

Obyekt boshqa bir turining bitta yoki bir nechta atributini tavsiflaydigan mohiyat turi.

Obyektkning demaskirovkalovchi bilvosita belgisi**ing.** - indirect unmask object characteristics**rus.** - косвенный демаскирующий признак объекта

Ta'minlovchi kuch va vositalarning harakati yoki muhofaza obyektining ishlashi natijasida atrof muhitning o'zgarishi bilan bog'liq demaskirovkalovchi texnik belgi. Bilvosita demaskirovkalovchi belgilarga obyekt faoli-

yatining vizual-optik belgilari, shuningdek, joyning kimyoviy yoki radioaktiv zararlaniishi kiradi.

Odam-mashina interfeysi**ing.** - man machine interface**rus.** - интерфейс человек-машина

Ishlab chiquvchi tomonidan kompyuter tizimidan foydalanuvchiga, bu tizim bilan birgalikda ishlash uchun taqdim etiladigan vositalar jami. Odatda, menyuning turli xil kombinatsiyalarini, klaviatura komandalarini, ekranda oyna tashkil qilinishini, ko'rsatmalar tizimini, «sichqoncha» bilan ishlash uchun mo'ljallangan ekran tugmalarini, nutq komandalari aniqlanishini va sh.k. larni o'z ichiga oladi.

Odam-mashina terminali**ing.** - man-machine terminal**rus.** - терминал человек-машина

Foydalanuvchi va tizimning bir-biri bilan o'zaro bog'lanish imkoniyatini ta'minlaydigan kiritish/chiqarish qurilmasi (masalan, telefon apparat, vizual displeyli terminal, bosib chiqaruvchi qurilma).

Odatdagi posilka**ing.** - ordinary parcel**rus.** - обыкновенная посылка

Jo'natuvchiga kvitansiya berish bilan joylanma qiymatini baholamasdan qabul qilinadigan va adresatga tilxat bilan topshiriladigan posilka.

Oddiy fayl**ing.** - flat file**rus.** - простой файл

Oddiy matn yoki matn va binar axborotni saqlaydigan fayl. Ushbu faylda bitta qator bitta yozuvga teng. Qatorda axborot vergul yoki boshqa bo'lgichlar bilan bo'linishi yoki uzunligi aniq belgilangan bo'lishi mumkin.

Oddiy pochta jo'natmasi**ing.** - uninsured post**rus.** - простое почтовое отправление

Jo'natuvchiga kvitansiya berilmasdan qabul qilinadigan, ilova hujjatlariga qo'shimcha yozuvlar yozilmasdan jo'natiladigan va adresatga tilxatsiz topshiriladigan pochta jo'natmasi.

Oddiy so'rov**ing.** - simple search**rus.** - простой запрос

Izlaydigan veb-serverlar ishlash algoritmlaridan biri.

Oddiy viruslar**ing.** - simple viruses**rus.** - простейшие вирусы

Fayllar va disk sektorlarining ichidagini o'zgartiruvchi, oson aniqlanadigan va yo'q qilinadigan viruslar.

Oflayn**ing.** - offline**rus.** - офлайн

1. Foydalanuvchining kompyuteri bog'lama kompyuteri bilan ulanmagan holat.

2. Telefon liniyasi bilan ulanmagan, ammo, bu tizim bilan ishlash uchun aktivlashtirilishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy qurilma.

Oflayn rejimi**ing.** - offline mode**rus.** - режим офлайн

Qar.: Oflayn.

Oflayn texnologiyalar**ing.** - offline technologies**rus.** - офлайновые технологии

Ma'lumotlar va xabarlar almashuvida, sezilarli asinxronlikka yo'l qo'yadigan, axborot makonidagi xabarlar kommunikatsiyasi vositalari: tarqatish ro'yxatlari, yangiliklar guruhi, veb-forumlar va h.k.

Ogohlantirish**ing.** - alert**rus.** - предупреждение

Xato to'g'risidagi tovush signali yoki vizual signal, foydalanuvchini mumkin bo'lgan xato yoki uning harakatlarining salbiy oqibatlari to'g'risida ogohlantirish; dasturlashda – bu, protseduralarni ko'p oqimli (multitred) tizimlarda asinxron chaqiruv bilan bog'liq bo'lgan xabar. Bunday ogohlantiruvchi xabarlarni turkumlarga bo'lish mumkin.

Ogohlantirish oynasi**ing.** - alert box**rus.** - окно предупреждения

Xatolik yoki ogohlantirish to'g'risidagi

xabar bo'lgan dialog oynasi. Foydalanuvchi bunday vaziyatda ishni davom ettirishdan oldin qanday operatsiyalarni bajarishi zarurligi to'g'risidagi yo'riqnomani ichiga olishi mumkin.

Ogohlantiruvchi muhofaza qilish**ing.** - disincentive protection**rus.** - предупредительная защита

Nusxa ko'chirishdan muhofaza qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar. Dastur yoki fayldan ruxsat etilmagan tarzda nusxa ko'chirishga urinadigan shaxs jarimaga tortilishini yoki jarima to'lash tahdidini ko'zda tutadi.

Oktava**ing.** - octave**rus.** - октава

Yuqori chastotaning past chastotaga nisbati ikkiga teng chastotalar intervali.

Oktet**ing.** - octet**rus.** - октет

Yaxlit bir butun sifatida qayta ishlanadigan, 8 bit uzunlikdagi kodli kombinatsiya. «Bayt» va «okteb» atamali orasidagi asosiy farq, ularning qo'llanish sohasida. «Bayt» atamasi asosan, kompyuterda saqlanadigan va qayta ishlanadigan axborotga tatbiq ishlatiladi, «okteb» esa, har bir sanoq 8 bitdan iborat bo'lgan impuls-kodli modulyatsiyada qo'llaniladi.

Old fon rangi**ing.** - foreground color**rus.** - цвет переднего фона

Monitor ekranidagi shakl, shrift va boshqa ixtiyoriy obyektning rangi.

Oldindan filtrlash**ing.** - prefiltering**rus.** - префильтрация

Televizion videosignalni analog-raqamli signalga o'zgartirishdan oldin chastotaviy filtrlash.

Oldindan tanlash qurilmasi**ing.** - prefetcher**rus.** - устройство предвыборки

Mikroprotssessorlarning, protssessor unum-

dorligini oshirish maqsadida, komandalar tanlashni ilgariroq boshlaydigan qurilmasi.

Oldindan to'langan kartalar

ing. - prepaid card service

rus. - предоплаченные карты

Provayder (operator)ga xizmat ko'rsatishning yangi turini, oldindan to'langan hisob telefon so'zlashuvlar to'lovi uchun ishlatilganda amalga oshirish imkonini beradigan xizmat. Oldindan to'langan kartochkadan foydalanuvchi xohlagan telefon apparatidan qo'ng'iroq qilishi mumkin. Bunda kartochkalar uchun hech qanday hisoblash qurilmasi talab qilinmaydi.

Oldindan to'lov kartochkalari bilan bog'liq fribgarlik

ing. - prepaid fraud

rus. - мошенничество с карточками предоплаты

Oldindan to'langan kartochkalar yordamida hisobni to'ldirishning noqonuniy usullari bilan bog'liq har qanday harakatlar.

Oldinga

ing. - forward

rus. - вперёд

Harakat yo'nalishi. Masalan, navbatdagi sahifaga o'tish.

Olib tashlamoq

ing. - sub

rus. - выгесть

Assembler tilidagi komandaning nomi.

Olib yuriladigan radiostansiya; ratsiya

ing. - manpack radio

rus. - носимая радиостанция; рация

O'zining xususiy quvvat olish manbaiga ega va ishchi holatda olib yurishga mo'ljallangan mobil aloqa radiostansiyasi.

Olinganligi to'g'risida bildirishnoma

ing. - receipt notification

rus. - уведомление о получении

Pochta, kuryerlik jo'natmasi yoki pul mablag'lari pochta o'tkazmasining jo'natuvchisi (yoki uning tomonidan ko'rsatilgan shaxs) ni ro'yxatga olinadigan pochta, kuryerlik jo'natmasi qachon va kimga topshirilgan-

ligi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasi to'langanligi to'g'risida xabardor qilish xizmati.

Olisdagi ofis

ing. - remote office

rus. - удаленный офис

Masofadan turib ishlash funksiyasi. Bunda lokal terminal yoki telefon apparatidan foydalanish, bacha chaqiruvlarni esa, local telefon yoki terminal raqamini sir saqlagan holda, BroadWorks orqali amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ishchi terminal raqamini almashtirish funksiyasi ishlaydi. Funksiya administrator tomonidan sozlanadi.

Olisdagi uzellar serveri

ing. - server remote node

rus. - сервер удаленных узлов

Olisdagi shaxsiy kompyuterning lokal kompyuter tarmog'i bilan ishlashini ta'minlaydigan maxsus dasturlar va kompyuter. Server va olisdagi shaxsiy kompyuter modemlar bilan ta'minlanishi kerak. Asosiy vazifalari – ruxsat etilmagan tarzda erkin foydalanishga yo'l qo'ymaslik, ma'lumotlar uzatish va birlashtirish ishonchligini ta'minlashdir.

Oltin disk

ing. - golden disk

rus. - золотой диск

Dasturiy mahsulot nusxalari ko'paytiriladigan dasturiy ta'minotning to'la va so'nggi rusumi.

Oltin toifasidagi raqam

ing. - golden number

rus. - золотой номер

Oson eslab qolinadigan telefon tartib raqami.

Oluvchi

ing. - recipient

rus. - получатель

Ma'lumotlarni (masalan, FTP-serverdan faylni) tarmoq orqali qabul qiluvchi foydalanuvchi yoki kompyuter.

Ommaviy axborot

ing. - mass information

rus. - массовая информация

Cheklanmagan shaxslar doirasi **u**chun

mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, matbuot, audio, audio-vizual hamda boshqa xabarlar va materiallar.

Ommaviy kommunikatsiya

ing. - mass communication
rus. - массовая коммуникация
Qar.: Ommaviy axborot.

Ommaviy parallel qayta ishlash

ing. - massively parallel processing (MPP)
rus. - массовая параллельная обработка
Ma'lumotlarni ko'p sonli protsessorlar bilan parallel qayta ishlash uslubi.

Ommaviy parallelizm bilan hisoblashlar

ing. - massively parallel processing
rus. - вычисления с массовым параллелизмом
Protsessorlarning har biri o'zining tezkor xotira qurilmasi, operatsion tizim, ilova nusxasiga ega bo'ladigan va ma'lumotlarni mustaqil qayta ishlaydigan ko'p protsessorli tizim arxitekturasini.

Ommaviy paralleli sanoq tizimi

ing. - massively parallel system
rus. - вычислительная система с массовым параллелизмом
Ko'p protsessorli tizim arxitekturasini, unda barcha ishlayotgan jarayonlar ma'lumotlarni bir-biridan mustaqil ravishda qayta ishlash imkoniga ega bo'ladi. Bu har bir jarayon uchun alohida tezkor xotira qurilmasi va ilova nusxasi taqdim qilinishi hisobiga amalga oshiriladi.

Ommaviy tarqatish

ing. - multicast
rus. - мультивещание
1. Xabarlar (ma'lumotlar)ni lokal tarmoq, global tarmoq yoki Internet tarmog'ining muayyan ajratilgan foydalanuvchilar guruhiga jo'natish texnologiyasi.
2. Televideniya - tomshabinlar ko'rishi uchun ko'p sonli kanallarning mavjudligi.

Ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi

ing. - mass service theory
rus. - теория массового обслуживания
Tasodifiy jarayonlar nazariyasining, talab

va xizmat ko'rsatishning tasodifiy xarakteri hisobga olingan holda turli sohalarida real xizmat ko'rsatish modellarini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limi. Navbatda turish vaqtini kamaytirish, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi shug'ullanadigan asosiy masalalardan biridir. Masalan, «mijoz - server» tarmog'ida ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi, mijozlar javobni kutishga vaqtlarini yo'qotmasliklari uchun qaysi serverni qo'yish zarur degan savolga javob beradi.

Ommaviy xotira

ing. - mass storage
rus. - массовая память
Ma'lumotlar hajmi juda katta bo'lgan axborot tashuvchilar.

Ommaviy xotira qurilmasi

ing. - mass storage device
rus. - массовое запоминающее устройство
1. Katta hajmdagi tashqi xotira qurilmalari, masalan, qattiq disk, magnit tasma yoki optik disk.
2. Katta hajmdagi ma'lumotlar yozuvlarini saqlay oladigan magnit tasmali kartriklar kutubxonasi turidagi zaxiraviy saqlash tizimi.

Onlayn

ing. - online
rus. - онлайн
1. Kompyuter xost-tizim bilan ulangan rejim hamda kompyuter FTP-server, WWW-server va boshqa umumiy foydalanish mumkin bo'lgan tizim bilan ulanganda bevosita xizmatni taqdim qilish. O'zgacha qilib aytganda, foydalanuvchi bilan bevosita o'zaro aloqada ishlash rejimi.
2. Elektron, tarmoqli nashrlarga, ma'lumotlar bazalariga nisbatan. Masalan, onlayn jurnal; onlayn hujjatlar; onlayn yordam va h.k.

Onlayn anketa

ing. - online application form
rus. - онлайн анкета
To'ldirishning barcha bosqichlari butunjahon Internet axborot tarmog'ida mumkin bo'ladigan so'rovnoma.

Onlayn-banking**ing.** - online banking**rus.** - онлайн-банкинг

Bank hisob raqamlarini telefon (telebanking), shaxsiy kompyuter va Internet (Internet-banking) yoki ixcham qurilmalar (mobil banking) orqali masofadan boshqarish.

Onlayn-broker**ing.** - online broker**rus.** - онлайн-брокер

Internet orqali o'z xizmatlarini taqdim qiladigan broker. Texnologiya nuqtai nazaridan Internet telefonga nisbatan, ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun buyurtmalar qabul qilish uchun qo'shimcha vositadir.

Onlayn jurnalistika**ing.** - online journalism**rus.** - онлайн-журналистика

Qar.: Internet-jurnalistika.

Onlayn marketing**ing.** - online marketing**rus.** - онлайн-маркетинг

Kompyuter tarmoqlarini – tijorat onlayn kanallarini va Internet tarmoqlarini ishlatishga asoslangan marketing. Kanallardan foydalanib, xaridorlar marketing axborotini oladilar va savdo bitimi tuzadilar.

Onlayn ovoz berish**ing.** - online voting**rus.** - онлайн-голосование

Qar.: Ovoz berish.

Onlayn rejimi**ing.** - online mode**rus.** - режим онлайн

Qar.: Onlayn.

Onlayn resurs**ing.** - on-line resource**rus.** - онлайн ресурс

Foydalanish, ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulangan kompyuter vositasida real vaqt rejimida amalga oshiriladigan resurs. Izo – Onlayn resurslar ko'rinishida tekzor axborot yoki dialog rejimida dastur yoki boshqa foydalanuvchi bilan ishlash imkoniyati taqdim etilishi mumkin.

Onlayn so'rov**ing.** - online application**rus.** - онлайн опрос

Xalqaro Internet kompyuter tarmog'i vositasida ijtimoiy voqelikning aniq bir voqealari, faktlari, hodisalari bo'yicha sotsiologik ma'lumot to'plash usuli.

Onlayn tahliliy qayta ishlash**ing.** - online analytical processing**rus.** - онлайн-аналитическая обработка

аналитическая обработка

Qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun, ko'p sonli turli xil ma'lumotlarni tez tahlil qilish.

Onlayn texnologiyalar**ing.** - online technologies**rus.** - онлайн-технологии

Tarmoq axborot fazosida, haqiqiy vaqtda axborotning sinxron almashuvini ta'minlab beruvchi, xabarlarining kommunikatsiya vositalari: «suhbat kanallari» (chatlar), audio- va videonjumanlar va boshqalar.

Onlayn xizmat**ing.** - on-line service**rus.** - онлайн-служба

- Elektron pochta, yangiliklar xizmati va foydalanuvchi bilan dialog rejimida axborot almashinish («savol-javob» turidagi) mo'ljallangan boshqa ilovalarning ishlashini ta'minlaydigan axborot xizmati.
- Real vaqtda ma'lumotlar uzatish tarmog'i vositasida taqdim etiladigan xizmat.

Onlayn-treyding**ing.** - online trading**rus.** - онлайн-трейдинг

Savdo (investitsion) hisob raqamlarni shaxsiy kompyuter va Internet (Internet treyding) yoki ko'chma qurilmalar (mobil treyding) orqali masofadan boshqarish.

Onlayn o'yinlar**ing.** - online games**rus.** - онлайн-игры

Internetda o'ynaladigan o'yinlarning ikki turi mavjud: bevosita veb-sahifadagi soddagina o'yinlar va ko'p foydalanuvchilarga mo'ljal-

langan o'yinlar. Birinchi holda, o'yin bevosita veb-sahifada o'ynaladi – sahifaga kirishda katta bo'lmagan dasturcha yuklanadi va o'yin «iste'molga tayyor». Odatda bunday o'yinlar yetarlicha murakkab bo'lmay, ayrim hollarda juda zavqli. Ko'p foydalanuvchilarga mo'ljallangan o'yinlar, odatda mijoz-dastur bo'lishini talab qiladi, ya'ni, siz sotib yoki ko'chirib oladigan o'yinlar. Bu mijozni ishga tushirib yuborib, siz Internet orqali o'yinlar serveri bilan ulanasiz va shu serverga ulangan boshqa o'yinchilar bilan birgalikda o'yinda ishtirok etasiz.

Operand

ing. - operand

rus. - операнд

Arifmetik jarayonda foydalaniladigan element yoki shunday elementlarning manzili; ustida amal bajariladigan ma'lumotlar elementi, masalan, «in 3x4» ifodada 3 va 4 sonlari operandlar hisoblanadi.

Operandlar soni

ing. - arity

rus. - число операндов

Funksiya yoki operator argumentlarining soni. Ba'zi dasturlash tillarida funksiyalar argumentlarning o'zgaruvchan soniga ega bo'ladi.

Operator

ing. - operator

rus. - оператор

1. Uskunani boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajaruvchi malakali mutaxassis.
2. Dasturiy-apparat resurslari va aloqa kanallariga ega bo'lgan holda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilot yoki jismoniy shaxs.
3. O'tkaziladigan operatsiyaning belgisi yoki simvoli.

Operatorlarni ajratgich

ing. - statement separator

rus. - разделитель операторов

Dasturlash tilida bir operatorni boshqasidan ajratish uchun ishlatiladigan simvol.

Operatorlarning chaqiruvlarini taqiqlash

ing. - operator calls barring

rus. - запрет вызовов операторов

Agar bu xizmat aktivlashtirilgan bo'lsa, xizmat abonentiga ingliz, fransuz, nemis, yapon, ispan, italyan va rus tillarida so'zlashuvchi operatorlardan xalqaro chaqiruvlar taqiqlanadi.

Operatsion muhit

ing. - operating enviroment

rus. - операционная среда

1. Amaliy dasturlarlarni ishlab chiqarish va ishlatishni ta'minlaydigan dasturiy ta'minot kompleksi. Operatsion muhit operatsion tizimni, amaliy dasturlar interfeyslarini, amaliy dasturlarni, tarmoq xizmatlarini, ma'lumotlar bazasini va dasturlash tillarini o'z ichiga oladi.

2. Operatorga fayllar va hisoblash jarayonlarini boshqarish imkonini beradigan kompyuter dasturlarining majmui. Operatsion tizimlarning standarti etib, shu operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlayotgan va ushbu kompyuterning operatsion muhitini tashkil etuvchi utilita va til qobiqlarining sintaksisi va semantikasi aniqlangan.

Operatsion platforma

ing. - operating platform

rus. - операционная платформа

Amaliy dasturlar va operatsion tizimlar guruhi o'rtasida interfeysni ta'minlaydigan funksional blok.

Operatsion tizim

ing. - operating system

rus. - операционная система

Vazifalarning markazlashtirilishini, resurslarning taqsimlanishini, uzilishlarning qayta ishlanishini, kiritish-chiqarishni, foydalanuvchi interfeysini, fayl tizimi va boshqa tizimlar boshqarilishini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot.

Operatsion tizim yadrosi

ing. - operating system kernel

rus. - ядро операционной системы

Operatsion tizimning markaziy, asosiy qismi bo'lib, tezkor xotirada doimo bo'ladi, operatsion tizimni boshqaradi; qurilmalar

dryayverlari, xotirani boshqaruvchi kichik dasturlar, vazifalarni rejalovchidan tashkil topgan.

Operatsion tizim yuklagichi

ing. - loader of an operating system

rus. - загрузчик операционной системы

Bevosita kompyuter ulangandan so'ng operatsion tizimning yuklanishini ta'minlaydigan tizim dasturiy ta'minoti.

Operatsion tizimning ishonchligi va ishlamay qolishlarga chidamliligi

ing. - reliability and robustness

of operation system

rus. - надежность и отказоустойчивость операционной системы

Ichki va tashqi xatolar, to'xtab qolishlar va ishlamay qolishlardan himoyalangan tizim. Uning harakatini har doim oldindan bilish zarur, dasturlar esa operatsion tizimga zarar yetkaza olmasliklari zarur.

Operatsion tizimning ko'chiruvchanligi

ing. - portability of operation system

rus. - переносимость

операционной системы

Kod bir turdagi protsessordan boshqa turdagi protsessorga va bir turdagi apparat platformasidan (protsessor turi bilan bir qatorda kompyuterning barcha apparaturasini tashkil qilish usulini o'z ichiga oladi) boshqa turdagi apparat platformasiga oson ko'chiriladi.

Operatsion tizimning monolit yadrosi

ing. - monolithic kernel of operating system

rus. - монолитное ядро

операционной системы

Imtiyozli rejimda ishlaydigan va imtiyozli hamda foydalanuvchi rejimlari o'rtasida ulanishni talab qilmaydigan bir protseduradan boshqasiga tez o'tishda ishlatiladigan bita dastur kabi kompanovkalanadi.

Operatsion tizimning moslashuvi

ing. - compatibility operation system

rus. - совместимость

операционной системы

Operatsion tizim boshqa operatsion tizimlar uchun yozilgan amaliy dasturlarni bajarish

uchun vositalarga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari foydalanish interfeysi mavjud tizimlar va standartlar bilan mos kelishi kerak.

Operatsion tizimning samaradorligi

ing. - performance operating system

rus. - производительность

операционной системы

Tizim apparat platformasining imkoniyati darajasida tez harakat va vaqtdan o'zishga ega bo'lishi kerak.

Operatsion tizimning yuklanishi

ing. - operating system loading

rus. - загрузка операционной системы

Tizimning o'z ishini amalga oshirishi uchun yadroni va boshqa tizim modullarini tekzor xotiraga yuklash jarayoni.

Operatsion xavfsizlik

ing. - operational data security

rus. - операционная безопасность

Kiritish, qayta ishlash yoki chiqarish operatsiyalarini bajarish vaqtida, ma'lumotlarning o'zgartirishlardan, buzilishlardan yoki oshkor qilishlardan (tasodifiy, muallif tomonidan bo'lmagan yoki qasddan) muhofaza qilinganligi.

Operatsiya

ing. - operation

rus. - операция

Dasturlash tili obyektlari, ma'lumotlar, o'zgaruvchilar, konstantalar, funksiyalar – operandlar ustida bajariladigan ish. Operandlarning turiga bog'liq ravishda, arifmetik, satri (simvulli), mantiqiy, faylli operatsiyalar farqlanadi. Operandlarning soniga bog'liq ravishda, bir o'rinli (unar), ikki o'rinli (binar) va ko'p o'rinli (n-ar) operatsiyalar farqlanadi. Umuman olganda, operatsiyalar dasturlash tili bilan belgilanadi.

Operatsiya kodi

ing. - operation code

rus. - код операции

Mashina kodi darajasidagi elektron hisoblash mashinasining komandasi.

Operatsiya (komponent ustida)

ing. - operation

rus. - операция (над компонентом)

Komponentning takrorlanishi yoki o'zgartirilishi.

izoh - Komponentlar ustida ruxsat etilgan operatsiyalar: «tayinlamoq», «iteratsiya», «aniqlamoq» va «tanlamoq».

Operatsiya (obyekt ustida)

ing. - operation

rus. - операция (над объектом)

Subyektning obyekt ustida bajaradigan aniq turdagi harakati.

Operatsiyalarni tadqiq qilish

ing. - operational research

rus. - исследование операций

Odam faoliyatining turli sohalarida eng yaxshi yechimlarni topish usullarini ishlab chiqish va qo'llash bilan shug'ullanadigan matematik fan. Operatsiyalarni tadqiq qilishning asosiy prinsiplari haqiqiy muammoning modelini tuzishdan iborat. Bunda natijada erishilishi kerak bo'lgan maqsad; qanoatlanirilishi kerak bo'lgan cheklashlar; boshqarilishi maqsadga erishish imkonini beradigan parametrlar ajratiladi. Operatsiyalarni tadqiq qilishning ko'plab masalalarini hal qilish imkonini beradigan dasturiy komplekslar ishlab chiqilgan.

Opsiya

ing. - menu option

rus. - опция

Bajarish uchun tanlab olinishi mumkin bo'lgan menyu elementi.

Optik aloqa liniyasi

ing. - optical link

rus. - оптическая линия связи

Uzatgich sifatida foydalaniladigan modulyatsiyalanuvchi yorug'lik manbaidan, optik-tolali kabel hamda fotodetektordan (qabul qilgichdan) iborat aloqa liniyasi. Liniyaning barcha elementlari optik signal-lar manbaidan qabul qilgichga etib boradigan tarzda, ulanadi.

Optik aloqa tarmog'i

ing. - optical net

rus. - сеть оптической связи

Optik tolali aloqa tarmog'i.

Optik aralashtirgich

ing. - optical mixer

rus. - оптический смеситель

Monokanal shoxchalarini ulaydigan va ix-tiyoriy kirishlaridan biriga berilgan yorug'-lik signali uning barcha chiqishlariga yetib keladigan qilib yasalgan qurilma.

Optik disk

ing. - optical disc

rus. - оптический диск

O'qish optik nurlanish yordamida boradigan disk ko'rinishidagi axborot tashuvchi. Disk odatda, yassi bo'lib, asosi polikarbonatdan qilingan. Polikarbonat asosga axborotni saqlash uchun xizmat qiladigan maxsus qatlam surtilgan. Axborotni o'qish uchun maxsus qatlamga yo'naltiriladigan va undan qaytadigan lazer nuridan foydalaniladi.

Optik kabel

ing. - optical cable

rus. - оптический кабель

Ekspluatatsiya qilishning berilgan sharoit-larida ularning ishlash qobiliyatini ta'minlay-digan yagona konstruksiyaga birlashtirilgan bitta yoki bir nechta optik toladan iborat ka-bel mahsuloti.

Izoh - Zarur bo'lganda, optik kabelda tok o'tkazuvchi simlar ham bo'lishi mumkin.

Optik kanal (optik-tolali aloqa liniyasi)

ing. - optical channel (optic-fiber communication line)

rus. - оптический канал (волоконно-оптическая линия связи)

Yorug'lik o'tkazgichlar va optik kuchaytir-gichlardan iborat aloqa liniyalari bo'ylab yorug'lik signallarini uzatish uchun mo'ljal-langan kanal.

Optik kommutator

ing. - optical commutator

rus. - оптический коммутатор

Ma'lumotlar uzatish optik tolali liniyalarini ulash uchun bitta yoki bir nechta port bilan jihozlangan an'anaviy tarmoq kommutator-lari. Ushbu qurilmalar bir vaqtning o'zida ikkita funksiyani bajaradi.

Optik kommutatsiyalash

ing. - optical switching

rus. - оптическая коммутация

Optik kanallar orasida yorug'lik signallarini tarqatishni va xotirada saqlashni ta'minlovchi kommutatsiyalash.

Optik kompyuter

ing. - optical computer

rus. - оптический компьютер

Ma'lumotlarni taqdim etish uchun yorug'likdan foydalanish maqsadida loyihalashtirilgan va o'zgartirilgan, hisoblash mantig'i elementlari bevosita bog'langan optik qurilmalarga asoslangan apparatura.

Optik kuchaytirgich

ing. - optical amplifier

rus. - оптический усилитель

Optik nurlanish quvvatini kuchaytirishni ta'minlovchi kuchaytirgich. Optik kanal va tizimlarda, yorug'likni kuchaytirish tashqi manba energiyasi evaziga amalga oshiriladi. Kuchaytirgichning asosi bo'lib, aktiv fizik muhit hisoblanadi, unda energetik dam berish hisobiga nurlanish quvvati ortadi. Aktiv fizik muhit sifatida, lazerlarda ishlatiladigan moddalar ishlatiladi. Kuchaytirishda, boshlang'ich signal spektri o'zgarishi mumkin.

Optik qayta ulagich

ing. - optical switch

rus. - оптический переключатель

Optik-tolali kabelga ega tarmoqlarda qo'llaniladigan, konsentratorga o'xshash tez harakat qiladigan tarmoq qurilmasi.

Optik qaytargich (qaytargich)

ing. - optical reflector (reflector)

rus. - оптический

отражатель (отражатель)

Yorug'lik manbai chiqaradigan yorug'lik oqimini uning fazoviy taqsimlanishini o'zgartirish maqsadida qaytaruvchi qurilma.

Optik sinov jadvali

ing. - optical testing table (pattern)

rus. - оптическая испытательная таблица

Shaffof yoki noshaffof asosga tushirilgan televizion sinov jadvali.

Optik «sichqoncha»

ing. - optical mouse

rus. - оптическая «мышь»

«Sichqoncha» ning maxsus turi, «Sichqoncha» siljishlarini indikatsiyalash uchun yorug'lik diodlaridan va qaytaruvchi sirtidan foydalaniladi.

Optik skaner

ing. - optical scanner

rus. - оптический сканер

Simvollarni optik tanish usullaridan foydalanib, matnni o'qish uchun mo'ljallangan qurilma.

Optik spektr

ing. - optical spectrum

rus. - оптический спектр

Optik nurlanishning nurlanish yoki yutilish spektri.

Izoh - To'lqin uzunligi 100 nm dan 10000 nm gacha bo'lgan elektromagnit nurlanish. Optik nurlanish to'lqin uzunligiga bog'liq ravishda, ultrabinafsha, ko'rinuvchi va infraqizil nurlanishlarga bo'linadi.

Optik tarmoqlagichning

uzatish matritsasi

ing. - matrix of the issue optical

rus. - матрица передачи

оптического разветвителя

Satr raqamlari kirish optik qutblari raqamlariga, ustun raqamlari optik tarmoqlagichning chiqish qutblari raqamlariga mos keladigan, matritsa elementlari esa, berilgan ulanishda tegishli kirish va chiqish optik qutblari o'rtasida uzatish koeffitsiyentlarini o'zida ifodalaydigan matritsa.

Optik tarmoq

ing. - optical network

rus. - оптическая сеть

Yorug'lik signallari uzatadigan kommunikatsiya tarmog'i. Optik kommunikatsiya tarmog'i, bir biri bilan ulangan optik kommutatsiya bog'lamlaridan va optik kanalli abonent tizimlaridan tashkil topadi.

Optik tola

ing. - optical fiber

rus. - оптическое волокно

Optik-tolali uzatish tizimining, qoplamali dielektrik materialdan qilingan sim ko'rinishida yasalgan optik to'lqin o'tkazgichi.

Optik tola dispersiyasi

ing. - dispersion of optical fiber

rus. - дисперсия оптического волокна

Optik nurlanish turli tashkil etuvchilari guruhiy tezliklarining farqi.

Optik tola segment

ing. - fiber optics span

rus. - волоконно-оптический сегмент

Har ikkala uchida optik signallarni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi qurilmalar ulanishi mumkin bo'lgan optik kabel (tola).

Optik tola taqsimlangan

ma'lumotlar interfeysi

ing. - fiber distributed data interface (FDDI)

rus. - оптоволоконный распределенный интерфейс данных

Optik tola kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarni 100 Mbit/s tezlik bilan uzatish tizimlari uchun mo'ljallangan standart.

Optik tolaning qutbliligi

ing. - optical fiber polarity

rus. - полярность оптоволоконна

Optik-tolali tarmoq uzatgichi va qabul qilgichini marshrutlash. Farqlanish (uzatgich yoki qabul qilgich) signal manbaining fazoviy holatiga bog'liq bo'ladi. Har qanday berilgan nuqtadan boshlab, uzatuvchi tola pirovardida, qarama-qarshi tomonda qabul qiluvchi tolagacha ayplanadi.

Optik tranzistor

ing. - optical transistor

rus. - оптический транзистор

Yorug'lik signalini ichki elektr ta'siriga asoslangan kuchaytirgich.

Optik-tolali attenuator

ing. - fiber optic attenuator

rus. - волоконно-оптический аттенюатор

Optik-tolali uzatish tizimida optik signal quvvatini kamaytirish maqsadida o'rnatilgan komponent. Ko'pincha, fotodekoder olgan optik quvvatni optik qabul qilgichning sezgirlik chegarasigacha cheklash uchun foydalaniladi.

Optik-tolali kabel

ing. - fiber optic cable

rus. - волоконно-оптический кабель

Ma'lumotlar yorug'lik yordamida uzatiladigan kabel, bu uzatish sifati va tezligini oshiradi. Kompyuter tarmoqlarida ishlatiladi. Kvarts shisha asosida qilingan va sindirish ko'rsatgichi o'zakdagiga nisbatan kichik bo'lgan qobiq bilan o'ralgan tola (egiluvchan) dielektrik.

Optik-tolali kichik tizim

ing. - fiber optic sub-system

rus. - волоконно-оптическая подсистема

Muayyan bog'lanishlar va interfeyslarga ega, tizimning bir qismi hisoblanadigan funksional birlik. O'z ichiga fizik tuzilmalar va/yoki komponentlarni oladi.

Optik-tolali kommunikatsiya tizimi

ing. - fiber optic communication system

rus. - волоконно-оптическая

коммуникационная система

Modulyatsiyalangan yoki modulyatsiyalanmagan optik energiyani optik-tolali muhit bo'ylab uzatish.

Optik-tolali liniya

ing. - fiber optic link

rus. - волоконно-оптическая линия

1. Bog'langanda uzatish yo'lini hosil qiladigan optik-tolali segmentlar va repiterlar majmui.

2. Yorug'lik energiyasining, uzatgichdan qabul qilgichga 850 nm dan 1350 nm gacha to'lqin uzunliklari diapazonida uzatilishini ta'minlovchi, passiv va aktiv optik elementlar jami.

Optik to'lqin o'tkazgich

ing. - optical waveguide

rus. - оптический волновод

Qar.: Tola.

Optik to'plagich

ing. - optical drive

rus. - оптический накопитель

Lazer texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlarni saqlash qurilmasi. Optik to'plagichlar «faqat o'qish uchun» (CD-ROM), «o'qish va bir marta yozish uchun» (CD-R,

Compact Disk-Recordable), «o'qish va ko'p marta yozish uchun» (CD-RW, Compact Disk-Re Writable) kabi turlarga bo'linadi. Bu turlardan tashqari, magneto-optik to'plagichlar va DVD qurilmalari bor.

Optimal marshrutni tanlash algoritmi

ing. - best-route algorithm

rus. - алгоритм выбора

оптимального маршрута

Paketni oxirgi adresatga yetkazib berish vaqti minimallashtirilgan marshrutlash algoritmi.

Optimallashtirish

ing. - optimization

rus. - оптимизация

Davlat xizmatlarini taqdim etish jarayonining eng yuqori samaradorligiga erishish uchun, mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash.

Optoelektronika

ing. - optoelectronics

rus. - оптоэлектроника

Elektronikaning asosini elektr signallarni optik signallarga va aksincha, aylantirish printsiplari, shuningdek, optik to'liqlar yordamida ko'chiriladigan axborotni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash usullari tashkil etadigan bo'limi.

Oq rang balansi

ing. - white color balance

rus. - баланс белого цвета

Qizil, yashil va ko'k signallar jadalligini muvofiqlash jarayoni, ularning aralashishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Ekran rangliligi rangli kineskop uchta nurining toklari nisbati bilan aniqlanadi.

Oq ro'yxat

ing. - whitelist

rus. - белый список

Avtomatik tarzda e'tiborga olinmasligi yoki blokirovka qilinishi lozim bo'lmagan obyektlarning ishonchli xostlari, manzillari va boshqa identifikatorlarining ro'yxati. Oq ro'yxatlardan foydalanish «ro'yxatdagi obyektlarning operatsiyalarini bajarishni doimo ruxsat etish» tamoyilini amalga oshiradi.

«Oq» shovqin

ing. - «white» noise

rus. - «белый» шум

Vaqt bo'yicha uzluksiz va o'zgarmas amplitudali shovqin, uning spektral tashkil etuvchilari quyi va yuqori chegaralar bilan cheklangan chastotalarning keng polosasida bir tekis taqsimlanadi.

Oqib chiquvchi moda

ing. - leaky mode

rus. - вытекающая мода

Nuning, tola chetiga qA apertura burchagidan katta bo'lgan burchak ostida tushishidan hosil bo'lgan to'liqlin. O'zak-qobiq bo'linish chegarasidagi sinish hisobiga to'liqlin energiyaning bir qismini yo'qotadi va so'nadi.

Oqib chiquvchi to'liqlin

ing. - leaky wave

rus. - вытекающая волна

Dielektrik yoki optik to'liqlin o'tkazgichda kiruvchi elektromagnit to'liqlinning to'liqlin o'tkazgich chetidan oqib o'tadigan va nurlanish manbaidan uzoqlashgan sari so'nib borgan holda, uning tashqi tomoni bo'ylab tarqaladigan qismi. Oqib chiquvchi to'liqlin odatda, yuqori tartibdagi modalardan iborat bo'ladi, quyi modalar to'liqlin o'tkazgichda qoladi.

Oqim

ing. - stream

rus. - поток

Aloqa kanali yoki liniyasi orqali uzatiladigan ma'lumotlarning uzluksiz ketma-ketligi.

Oqim, jarayon

ing. - thread

rus. - поток, процесс

1. Mijoz bilan so'rovlar yuboriladigan server o'rtasidagi mantiqiy ulanish.
2. Ko'p vazifali tizimda yuzaga kelgan jarayon (tred) – zamonaviy operatsion tizimlarda – dispetcherlash (boshqaruvni markazlashtirish) birligi.

Oqimlar puli

ing. - threadpool

rus. - пул потоков

Oqimlarni .NET dagi guruhlariga tizimlashtirishning samarali mexanizmi.

Oqimli multimedia

ing. - streaming media

rus. - потоковое мультимедиа

Foydalanuvchi tomonidan oqimli uzatish provayderidan to'xtovsiz olinadigan multimedia. Mazkur tushuncha telekommunikatsiyalar orqali uzatiladigan axborotga nisbatan ham, dastlab oqimli (radio, TV) yoki oqimli bo'lmagan uzatish (kitob, videokaseta, audiodisk)larga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Oqimli shifr

ing. - stream cipher, general stream cipher

rus. - потоковый шифр

Ochiq matnning ketma-ket ayrim bitlarini yoki belgilarini o'zgartiruvchi va dastur ko'rinishida amalga oshirish uchun mo'ljallangan shifr.

Oqni siqish (televizion tasvirda)

ing. - compression of white

(of a television picture)

rus. - сжатие белого

(в телевизионном изображении)

Tasvirming yorqin uchastkalari kontrastlilikini sezilarli kamaytirish.

Oqning darajasi

ing. - level of white; white peak

rus. - уровень белого

Eshittirish televideniyesi berilgan tizimi uchun yorqinlik signalining belgilangan maksimal darajasi.

Izohlar

1. Yorqinlik signali pozitiv deb taxmin qilinadi.
2. Rangli televideniya rangli videosignalning maksimal darajasi oqning darajasidan oshishi mumkin.

Oqning etalon darajasi

ing. - reference level of white

rus. - эталонный уровень белого

Kuzatish nuqtasidagi, oqning yonalishida tasvir signalining muayyan maksimal kirishiga mos keladigan daraja.

Oqning nominal darajasi

ing. - nominal level of white

rus. - номинальный уровень белого

Obyektda normalangan oqni uzatish vaqtidagi yorqinlik signalining darajasi.

Oqning tayanch impulsi

ing. - supporting white pulse

rus. - опорный импульс белого

So'nish darajasidan oqning nominal darajasigacha bo'lgan ko'lamdagi to'g'ri burchakli etalon impulsi.

Oraliq

ing. - spacing

rus. - промежуток

Grafik tasvirga ega bo'lmagan ikkita element o'rtasidagi masofa.

Oraliq avlod (2,5G)

ing. - 2,5 generation (2,5G)

rus. - промежуточное поколение (2,5G)

Mobil aloqa tizimlari rivojlanishining, 2G va 3G tizimlari o'rtasidagi o'tish bosqichi.

Izoh - Bu bosqich 3G tizimlariga xos bo'lgan xizmatlarni yaqindan etadigan, 2G ning takomillashirilgan vositalaridan foydalanishi bilan tavsiflanadi. 2,5G ham 2G foydalanadigan chastota diapazonidan foydalanadi va uskunaning eng kam darajada takomillashirilishini talab qiladi. 2,5G tizimlari GPRS hamda 1xRTT tizimlarini o'z ichiga oladi.

Oraliq radioreleli stansiya

ing. - intermediate radiorelay station

rus. - промежуточная

радиорелейная станция

Televizion radioreleli tizimning bir qismi.

Televizion signalni qabul qiladigan va uzatadigan muayyan apparatura kompleksi.

Oraliq tasvir

(tovush jo'rligidagi) eltuvchi

ing. - intermediate carrier of image

(of sound accompaniment)

rus. - промежуточная несущая

изображения (звукового сопровождения)

Televizion apparaturada (tovush jo'rligidagi) tasvir radiosignalining qayta ishlanishini soddalashtirish uchun foydalaniladigan (tovush jo'rligidagi) tasvir eltuvchi.

Oraliq til

ing. - intermediate language

rus. - промежуточный язык

Dasturlarning boshlang'ich matmlari turli dasturlash tillaridan, keyin interpretator bajaradigan yoki mashina kodiga kompilyatsiya qilinadigan qandaydir oraliq tilga

ko'chiriladigan texnologiya. Xususan, Java va Microsoft NETda qo'llaniladi. Yangi dasturlash tillarini amalga oshirish vaqtini qisqartiradi va turli jarayonlar uchun ayni bir kompilyatordan foydalanish imkonini beradi.

Oraliq zona

ing. - intermediate-field region

rus. - промежуточная зона

Nurlantiruvchi antenna uchun yaqin va uzoq zona o'rtasidagi o'tish sohasi, bunda elektromagnit maydon kuchlanganligi nurlanish manbaigacha bo'lgan masofaning kvadrati-ga, shuningdek kubiga teskari proporsional nurlanish manbaigacha masofaga teskari proporsional tarzda o'zgaradi.

(Orbitaning) pastdagi uzeli

ing. - descending node

rus. - нисходящий узел (орбиты)

Yo'ldosh shimoldan janubga harakat qilgan-da, orbita ekvator tekisligini kesib o'tadigan nuqta.

Organ

ing. - authority

rus. - орган

Sertifikatlar berilishi yuzasidan javobgar obyekt. Organlarning ikki turi: ochiq kalit-lar sertifikatlarini beradigan sertifikatlash organi hamda atributlar sertifikatlarini bera-digan atributlar organi belgilangan.

Organ sertifikat

ing. - authority certificate

rus. - сертификат органа

Organga (masalan, sertifikatlash organiga yoki atributlarni berish bo'yicha organga) berilgan sertifikat.

Organik yorug'lik diodi

ing. - organic light-emitting diode

rus. - органический светодиод

Yassi displeylar uchun istiqbolli qurilma. Elektr energiyasini kam iste'mol qiladi, o'lchamlari kichik, og'irligi kam, ko'rish burchagi birmuncha keng, ekranni yoritib turish zarurati yo'q.

Original uskuna ishlab chiqaruvchi

ing. - original equipment

manufacturer (OEM)

rus. - производитель

оригинального оборудования

Biror bir tashqi qurilmani, odatda unga *dray-vern* ham, ishlab chiqaradigan firma.

Orqa fon rangi

ing. - background color

rus. - цвет заднего фона

Dasturlar va operatsion tizimlarda – asosiy ishlash maydonining rangi. Odatda, o'zga-rishi mumkin. Operatsion tizimlarda orqa fonga istalgan tasvirni ham qo'yish mumkin.

Orqa yuproqning nisbiy darajasi

ing. - back-to-front ratio

rus. - относительный уровень

заднего лепестка

Orqa va asosiy yuproqlar bo'yicha nurla-nadigan signallar quvvatining nisbati.

Orqaga

ing. - back

rus. - назад

Veb-brauzerda oldingi sahifaga o'tish yoki fayl boshqaruvchilarda oldingi papkaga o'tish operatsiyasini bajaruvchi tugmacha. Backspace yoki Alt + < - klavishalari bu ope-ratsiya uchun «qaynoq klavisha» hisoblanadi.

Orqaga qaytish

ing. - rollback

rus. - откат

SGLda orqaga qaytish tranzaksiyadagi taklif qilingan o'zgartirishlarni qaytaradi. Orqaga qaytish protsedurasida tranzaksiyaning nomi ishlatilgan bo'lsa, tranzaksiya butunlay qay-tarilishi mumkin. Agarda tranzaksiyada saqlash nuqtasi ishlatilgan bo'lsa qisman orqaga qaytish ham mumkin. Orqaga qay-tishning muqobili – tranzaksiyani qayd etish.

Ortga qaytarish

ing. - roll back

rus. - откатить

Oldingi (o'zgartirishlargacha bo'lgan) ho-latga qaytarish.

Ortib borish bo'yicha saralash

ing. - ascending sort

rus. - сортировка по возрастанию

Ma'lumotlarni kichik qiymatlardan katta qiymatlarga tomon, masalan, sanalarni – oldingisidan hozirgi sana tomon, matni ma'lumotlarni – alifbo tartibi bo'yicha tartibga solish.

Ortiqcha bitlar

ing. - extra bits

rus. - избыточные биты

Axborotni qabul qilishda xatolardan himoya qilish maqsadida, signalga qo'yiladigan qo'shimcha bitlar ketma-ketligi.

Ortiqcha kod

ing. - error detection code

rus. - избыточный код

Xatolar mavjudligini avtomatik tarzda aniqlash uchun qurilgan kod (masalan, sarlavhadagi CRC-8, ekspluatatsiya qilish va boshqarish yacheykalaridagi CRC-10 va RIP-16 kod).

Ortiqcha kod bilan

bo'ylama nazorat qilish

ing. - longitudinal redundancy control

rus. - продольный контроль

избыточным кодом

O'qish/magnit tasmaga yozishda ma'lumotlar yaxlitligini nazorat qilish usuli, nazorat summolari har bir yo'lka bo'yicha ma'lumotlar bloki uchun hisoblanadi.

Ortiqcha siklik kod bilan nazorat qilish

ing. - cyclic redundancy control

rus. - контроль избыточным

циклическим кодом

1. Ma'lumotlarni uzatish va saqlashda ularning yaxlitligini avtomatik nazorat qilish usullaridan biri. Polinomial kodning bir turi yordamida hisoblangan (ya'ni, nazorat summasiga qaraganda murakkabroq qoidalar bo'yicha) son xotiradagi yozuvning oxirida joylashtiriladi, o'qish/yozish operatsiyalarida yoki telekommunikatsiyalar kanallari orqali uzatishda ma'lumotlarning yaxlitligini nazorat qilish uchun foydalaniladi.

2. Ma'lumotlarni bo'ylama nazorat qilish usuli, xatolarning tuzatilishini ta'minlaydi.

Ortiqcha telefon trafigi

ing. - overflow (rejected) telephone traffic

rus. - избыточная телефонная нагрузка

Keladigan telefon trafikning, telefon tarmog'i liniyalari (kanallari) bog'lami tomonidan xizmat ko'rsatilmagan va telefon tarmog'i aylanma yo'llarining liniyalari (kanallari) bog'lamlariga yo'naltiriladigan qismi.

Ortiqcha trafik

ing. - rejected traffic

rus. - избыточный трафик

Trafikning, texnik vositalar to'plamiga kelib tushgan va bu to'plam orqali o'tmagan qismi.

Ortiqcha uzatish tezligi

ing. - excess rate

rus. - избыточная скорость передачи

Belgilangan ulanish uchun kafolatlangan o'tkazish polosasidan oshuvchi trafik. Xususan, uzatishning ortiqcha tezligi uzatishning kafolatlangan tezligisiz uzatishning maksimal tezligiga teng. Ortiqcha trafik tegishli resurslar mavjud bo'lgan hollardagina yetkaziladi, o'ta yuklanish vaqtida u chiqarib tashlanishi mumkin.

Ortiqcha yuklanish

ing. - congestion

rus. - перегрузка

Sifatning asosiy ko'rsatgichlari tez yomonlasha boshlaydigan tarmoq holati.

Ortiqchalik

ing. - redundancy

rus. - избыточность

1. Ishlashning zarur ishonchligini ta'minlash maqsadida, tizimga eng kam miqdordagi apparat yoki dasturiy vositalarning ustiga qo'shimcha kiritish.

Izoh – Tegishli ravishda apparat va dastur ortiqchaligi farq qilinadi. Axborot nazariyasida – raqamli shaklga o'zgartirilgan signaldan uning qayta tiklanish aniqligini buzmasdan chiqarib tashlash mumkin bo'lgan ma'lumotlar xarakteristikasi (axborot ortiqchaligi deb ham ataladi).

2. Ishonchlikni oshirish usuli bo'lib, asosiy elementlar ishlamay qolganda, ularni almashtirishi mumkin bo'lgan ortiqcha elementlarning kiritilishiga asoslangan.

3. Har qanday xabarni birmuncha qisqa shaklda taqdim etish mumkinligining miqdor xarakteristikasi. Diskret signallar shaklida kodlangan xabarlar uchun ortiqchalik kodning undan chiqarib tashlanishi mumkin bo'lgan elementlari miqdorining elementlarning boshlang'ich miqdoriga nisbati bilan o'lanadi.

Ortiqchalik bo'lgan arzon

disklar massivi

ing. - redundant array of independent disks (RAID)

rus. - массив недорогих дисков с избыточностью

Ma'lumotlarni saqlash ishonchligini ta'minlovchi (RAID 1, RAID 5) tizimi yoki ma'lumotlarni o'qish-yozish tezligini oshiruvchi (RAID 0) texnologiya. Bitta massivga birlashtirilgan bir qancha disklardan foydalanishni ifodalaydi.

Ortiqchalik bo'yicha siklik nazorat

ing. - cyclic redundancy control

rus. - циклический контроль по избыточности

Ortiqchalik bo'yicha nazorat bo'lib, qo'shimcha raqamlar yoki simvollar siklik algoritmlar orqali generatsiyalanadi.

Ortiqchalikni qisqartirish

ing. - redundancy reduction

rus. - сокращение избыточности

Bitreyni pasaytirish usuli, bunda imkon qadar axborotning ortiqcha bo'lmagan qismi uzatiladi.

Izoh - Ortiqchalikni qisqartirish qaytariluvchi jarayon hisoblanadi.

Ortogonal diskretlash

ing. - orthogonal sampling

rus. - ортогональная дискретизация

Yoyish satrlaridagi diskretlash sanoqlariga tegishli nuqtalar tasvirga yoyish satri-niing yo'nalishiga perpendikulyar ravishda yo'naltirilgan tasvirni diskretlash.

Izoh - Progressiv yoyish hollarida, yoyish satri nuqtasi shu maydondagi vaqt bo'yicha qo'shni satrlar nuqtasiga yo'naltirilgan, satr oralatib yoyishda, yoyish satri-dagi nuqtalar keyingi maydonning fazo bo'yicha qo'shni satrlariga yo'naltirilgan.

Ortogonal diskretlash tuzilmasi

ing. - orthogonal structure of digitization

rus. - ортогональная структура дискретизации

Signal-dagi sanoqlar chastotasiga satrlar chastotasiga karrali qilib tanlangan diskretlash, bunda sanoqlar to'g'ri burchakli panjara tuginlarida joylashadi.

Orttirilgan aniqlikdagi televideniye

ing. - television of raised clarity

rus. - телевидение повышенной четкости
Mavjud eshittirish televideniyesi tizimlariga nisbatan aniqlikni oshirish uchun eshittirish televideniyesi radiosignalining parametrlari o'zgartirilishi mumkin bo'lgan sifati yaxshilangan televideniye.

Osiyo mobil va yo'ldoshli aloqa tizimi

ing. - Asian Cellular and Satellite system (ACeS)

rus. - азиатская система мобильной и спутниковой связи

Tarkibiga Indoneziya, Filippin va Tailand kiradigan ACeS konsorsiumi tomonidan yaratilgan shaxsiy radiotelefon aloqa tizimi. Izoh - Tizim Osiyo va Yevropa hududlarini qamrovchi bir nechta geostatsioner kosmik apparat (Garuda) yordamida 2 mln gacha abonentga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan. Abonent qurilmalari sifatida, mobil va yo'ldoshli aloqa tizimlarida ishlash imkoniyatlari mujassamlashtirilgan, ikki rejimli portativ «go'shaklar» ishlatiladi.

Osonlashtirilgan jarayon

ing. - lightweight process

rus. - облегченный процесс

Virtual xotira fazosida jarayon-ona kabi bajariladigan jarayon.

Ostvald rang tizimi

ing. - Ostwald colour system

rus. - остваляда цветовая система

Sirtlar rangini ideal sirt rangi bilan muvoziqlashtirishga asoslangan aniqlash tizimi.

Overley

ing. - overlay

rus. - оверлей

Dasturning, zarur bo'lganda dastur bajarilish paytida tashqi xotira qurilmasidan qoplash (overleylar) sohasiga, undagi kodni o'chir-

gan holda, yuklanadigan segmenti. Overlaylar bu sohaga ixtiyoriy tartibda yuklanishi mumkin. Dasturni yadroga va overlaylarga bo'lish, uning tezkor xotirasi uchun zarur bo'lgan hajmni keskin kamaytirish imkonini beradi, lekin diskli kiritish-chiqarish operatsiyalari hajmini oshiradi.

Overlay drayveri

ing. - overlay driver

rus. - драйвер оверлея

Xotiraning bitta sohasiga foydalanuvchi dasturidagi modulning yo birinchi guruhi ni yoki boshqa guruhini navbati bilan yuklashni bajaradigan tizim dasturi.

Overlay tuzilmasi

ing. - overlay

rus. - оверлейная структура

Dasturi, turli guruhlar bir vaqtda xotirada saqlashi kerak bo'lmagan o'zaro bog'langan modullar guruhiga, dastur uchun ajratilgan xotira sohasida ularni navbatma-navbat yuklash maqsadida bo'lish.

Ovoz balandligini rostdlash

ing. - regulation of loud-ness

rus. - регулировка громкости

Elektr signal amplitudalarini past chastota kuchaytirgichi o'ta zo'riqishining yoki radiokamay tiklayotgan tovush signallari ortiqcha baland bo'lishining oldini olish maqsadida o'zgartirish.

Ovoz berish

ing. - voting

rus. - голосование

Veb-sayt auditoriyasi va uning fikrlari to'g'risida axborot yig'ish uchun asbobiy dastur. Odatda ovoz berish har bitta savolga standart javob xillaridan birini tanlash mumkin bo'lganda qulay.

Ovoz bilan boshqariladigan

ing. - voice-driven

rus. - управляемый голосом

Nutqiy komandalar orqali boshqariladigan jarayonlar yoki qurilmalar.

Ovoz yordamida raqam terish

ing. - voice-activated dialing

rus. - набор номера голосом

Mobil telefonning, chaqiriluvchi abonent

raqami nutq yordamida terilishini ta'minlovchi funksiyasi.

Ovoz yozish qurilmasi

ing. - sound recorder

rus. - устройство звукозаписи

Tovush to'loqlarini analog yoki raqamli signallarga o'girib, keyinchalik ma'lumotlarning tashuvchilarda saqlanishini ta'minlaydigan ovoz yozish qurilmasi.

Ovozlashtirish

ing. - TV program dubbing

rus. - озвучивание

Tovush jo'rliigi tasvir yozib olingandan so'ng ekranda kuzatiladigan dastur mazmuniga muvofiq qo'shiladigan televizion dasturlar qismini ishlab chiqish.

Ovozli kitob

ing. - audio book

rus. - звуковая книга

Ovozli kitobni o'zida saqlovchi tovushli fayl. Ovoz berish professional artistlar tomonidan analga oshiriladi.

Ovozli, nutqli va audio moslamalar

ing. - sounds, speech, and audio devices

rus. - звуковые, речевые и аудио устройства

Ovozga ishlov berish, chiqarish uchun qurilma. Masalan, ovozli karta, audiokolonkalar va sh.k.

Ovozli pochta xizmatlari

ing. - voice mail service (VMS)

rus. - услуги голосовой почты

Operator tomonidan taqdim etiladigan, ovozli pochta deb ataladigan xizmatlar kompleksi. Mobil telefon band bo'lganda, o'chirib qo'yilganda, tarmoq qoplash zonasidan tashqarida bo'lganda, qandaydir vaqt mobaynida chaqiruvga javob bermaganda, qayta manzillash xizmatidan foydalanib, qo'ng'iroqlarni qabul qilish imkonini beradi.

Ovozni qabul qilish

ing. - soundgrab

rus. - звуковой захват

Manbadan ovozli axborotni qabul qilish.

Masalan, ovozli yo'lakni AudioCD dan qabul qilish.

Ovozsiz

ing. - mute

rus. - без звука

Tovush chiqarilmaydigan rejim. Qisqa muddatga tovushni o'chirib turishda foydalaniladi.

«Oxirgi bo'lib keldi – birinchi bo'lib

xizmat ko'rsatildi»

ing. - last-in first-out

rus. - «Последним пришёл – первым обслужен»

Stek, tuzilma, qurilma va boshqalarning ishlash prinsipi, birinchi bo'lib oxirgi kelgan elementga xizmat ko'rsatiladi.

Oxirgi foydalanuvchiga

mo'ljallangan elektron biznes

ing. - business to consumer

rus. - электронный бизнес,

ориентированный на конечного пользователя

Axborot makonidagi iqtisodiy faoliyatning, oxirgi foydalanuvchining ehtiyojlarini qondirishga va uzoq muddatli iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan sohasi.

«Oxirgi milya»

ing. - last-mile

rus. - «последняя миля»

Aloqa tarmog'ining, oxirgi (terminal) abonent qurilmasidan to magistral liniya yoki kommutatsion stansiya gacha bo'lgan qismi. Boshqacha izohi – abonent foydalanish tarmog'i.

Oxirgi nuqta

ing. - endpoint

rus. - конечная точка

Seans manbai yoki belgilanishi bo'lib xizmat qiladigan tizim.

Oxirgi obyekt

ing. - terminal object

rus. - конечный объект

Sertifikati bo'lgan, o'zining shaxsiy kalitidan sertifikatlarni imzolash maqsadlarida

foydalanmaydigan subyekt yoki ishonchli tomon hisoblanadigan obyekt.

Oxirgi (terminal) abonent qurilmasi

ing. - subscriber terminal

rus. - оконечное (терминальное)

абонентское устройство

Abonent xonasida o'rnatiladigan va uning tasarrufida bo'lgan oxirgi (terminal) qurilma.

Oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasi

ing. - subscriber's telephone set

rus. - оконечное (терминальное)

абонентское телефонное устройство

So'zlashuv olib borish uchun mo'ljallangan abonent telefon qurilmasi.

Oxirgi (terminal) ma'lumotlar uskunasi

ing. - data terminal equipment (DTE)

rus. - оборудование данных оконечное

(терминальное)

Ma'lumotlar manbai yoki ma'lumotlarni oluvchi yoki unisi ham, bunisi ham bo'lgan (masalan, elektron hisoblash mashinasi) oxirgi (terminal) uskuna.

Oxirgi (terminal) qabul qiluvchi stansiya

ing. - receiving terminal station

rus. - оконечная (терминальная)

приемная станция

Kirishiga radioreleli liniyadan televizion signal uzatiladigan, chiqishida esa radioreleli liniyaning televizion chiqish signali olinadigan apparatura kompleksi.

Oxirgi (terminal) tarmoq qurilmasi

ing. - network termination (NT)

rus. - сетевое оконечное

(терминальное) устройство

Abonent uskunasi va abonentni tarmoqqa ulaydigan aloqa liniyasi o'rnatidagi interfeys qurilma. ISDN tarmog'ida apparat murakabligi bilan farqlanadigan oxirgi (terminal) uskunaning ikki turi ajratiladi. Oddiy NT1 da fizik sathning asosiy funksiyalari amalga oshirilgan, NT2 qurilmasi (kontroller vazifasini bajaradigan) yordamida esa, bir vaqtning o'zida bir nechta NT1 ning tarmoqqa ulanishi ta'minlanadi.

Oxirgi (terminal) uskuna

ing. - terminal equipment

rus. - оконечное (терминальное)

оборудование

Telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o'zaro ishlaydigan hamda telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni hosil qilish, o'zgartirish, qayta ishlashga mo'ljallangan foydalanuvchilarning texnik vositalari (telefon, faksimil, radiotelepriyomniklar va boshqa qurilmalar).

Oxirgi tizim

ing. - end-system

rus. - конечная система

OSI modelidagi OSI protokolining barcha (yetita) bosqichi orqali aloqani ta'minlaydigan, o'zida amaliy jarayonlarni saqlovchi tizim. Internetdagi xost-ning analogi.

Oxirgi uzal

ing. - endpoint node

rus. - оконечный узел

Kommunikatsiya tarmog'i orqali o'zaro ishlashda ma'muriy yoki abonent tizimlar ulangan uzallar.

Oxirgi yozuv

ing. - trailer record

rus. - концевик

Ma'lumotlar blokining yakuntovchi qismi. Unga, uzatish oldidan, ma'lumotlar bloki uzatilgandan so'ng xato paydo bo'lganligini aniqlash imkonini beradigan nazoratlovchi yig'indi - bitlar ketma-ketligi yoziladi.

Oxirgi shifrlash

ing. - end-to-end encryption

rus. - оконечное шифрование

Avtomatlashtirilgan tizimning ikki subyekti o'rtasida uzatiladigan axborotning kriptografik muhofazasi.

Oyna

ing. - window

rus. - окно

Display ekranining to'rtburchakli qismi, u orqali ilova yoki uning qismi bilan birga ishlash amalga oshiriladi. Grafik foydalanuvchi interfeyslarida va barcha mumkin bo'lgan qobiqlarda keng qo'llaniladi, status

satri, sarlavha va menyular kabi standart elementlarni o'z ichiga oladi. Ekraning dastur va jarayonlar bajarilishi mumkin bo'lgan qismi. Bir vaqtda bir nechta oyna ochilishi mumkin. Masalan, bir oynada elektron pochta dasturini ochish, boshqasida elektron jadval bilan ishlash, uchinchisida raqamli kamerada tasvirni yuklash, to'rtinchisida esa Internet-magazinda buyurtmani rasmiylashtirish mumkin. Oynani yopish, hajmini o'zgartirish, vazifalar panelida tugmalarni burish yoki ekranda to'laligicha aks ettirish mumkin.

Oyna mexanizmi

ing. - windowing

rus. - механизм окна

1. Ma'lumotlarni uzatishni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Oyna deyilganda kommunikatsion tizim orqali, xatosiz yetib borishi to'g'risidagi xabar kutilmasdan uzatiluvchi ma'lumotlar bloklari soni rushuniladi. Ushbu uzatishning tugashida haqiqiy oluvchi jo'natilgan ma'lumotlar bloklarini olganligini tasdiqlashi lozim.

2. Bir paytning o'zida bir necha dasturni ishlatish texnologiyasi, bunda har bitta dastur alohida oynada bajariladi. Masalan, birinchi oyna hujjatni qayta ishlash uchun, ikkinchisi elektron jadvallarni tuzish, uchinchisi esa elektron pochtni qabul qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Oyna tizimi

ing. - window systems

rus. - оконная система

Ekranda bir vaqtda turli hisoblash jarayonlariga (dasturlariga) tegishli bo'lgan bir qancha chiqish joylari (oynalar) aks etadigan operator interfeysi.

Oyna turkumi

ing. - window class

rus. - класс окна

Microsoft Windows operatsion tizimi va uning API tizimidagi fundamental tuzilmalardan biri. Tuzilma nishonchalar, menyular, fon rangi va bir qancha parametrlarni ko'rsatish yo'li bilan oyna yaratish imkonini yaratadi. U o'zida foydalanuvchining harakatiga ko'ra amalga oshirish kerak bo'lgan oynaning harakatlarini ifodalovchi

funksiyaga ko'rsatgichni ham saqlaydi. Bundan tashqari, u operatsion tizimga klassning o'zi uchun va har bir oyna uchun qancha xotira kerakligi to'g'risida ham xabar beradi. window classlarning ikkita versiyasi bo'lgan. Ikkinchi versiyasiga qo'shilgan yagona texnik bo'lmagan qo'shimcha, bu – oyna uchun qo'shimcha kichik nishoncha. Birinchi versiyasi Windows 3.x da ishlatilgan bo'lsa, ikkinchisi Windows 95 va Windows NT 3.1 lardan boshlab qo'llaniladi.

Oyna uslubi

ing. - window style

rus. - стиль окна

Oyna klassi bilan tasniflanmaydigan oyna ko'rinishini belgilaydigan konstanta.

Oyna o'lchovi

ing. - window extent

rus. - размер окна

Mos ravishda oynaning bo'yi va enini piksellarda aniqlovchi ikkita – x, y son.

Oynalar dispetcheri

ing. - window manager

rus. - диспетчер окон

Windows funksiyasi oynalarni ekranda tartiblashga, oynalarni barcha oynali ilovalarga xos ravishda joylashtirishga, o'zgartishga mas'ul.

Oynali server

ing. - mirror server

rus. - зеркальный сервер

Aloqa kanallarining o'tkazish qobiliyati yoki server samaradorligi yetarli bo'lmashligi tufayli, barcha foydalanuvchilar foydalana olmaydigan, tarmoqda ommaviy bo'lgan serverlarni takrorlaydigan xizmatlar va axborotni taqdim etadigan server. Turli yerlarda o'mashgan «oynalar» bu muammoni hal qiladi. Boshlang'ich server ma'lumotlaridagi barcha o'zgartirishlar oyna serverlarga tarqatiladi.

Oynani aniqlovchi

ing. - window handle

rus. - определитель окна

Foydalanilayotgan oynaga kirish uchun ruxsat oladigan noyob oyna identifikatori.

Oynani boshqarish funksiyasi

ing. - Window-management function

rus. - функция управления окном

Oynalarni mashtablash, joyini o'zgartirish, o'lchamini o'zgartirish va ularning o'zaro joylashuvini boshqaradigan funksiya.

«Og'ir vaznli» jarayon

ing. - heavyweight

rus. - «тяжеловесный» процесс

Shaxsiy manzil fazosida ishlaydigan, yengillashtirilgan jarayonga qaraganda qanchi bo'lgan klassik jarayonning nomi.

Og'ish bo'yicha o'ta yuklanish

ing. - slope overload

rus. - перегрузка по наклону

Kvantlagichning, kirishga beriladigan sanoqlar ketma-ketligidagi qiymatlar o'rtasidagi katta farqqa mos ravishda, ta'sir ko'rsata olmasligi hollarida sodir bo'ladigan buzilishlar.

Og'ish burchagi

ing. - tilt angle

rus. - угол наклона

1. Nurning antenna yo'nalganlik diagrammasining o'qidan og'ish burchagi.
2. Qutblanish ellipsi o'qi va asosiy qutblanish o'rtasidagi burchak.

Og'zaki xabarni uzatish xizmati

ing. - transmission of a

verbal message service

rus. - услуга передачи

устного сообщения

Foydalanuvchining (abonent bo'lishi yoki bo'lmashligidan qat'i nazar) so'rovi bo'yicha telefonchi, bitta yoki bir nechta telefon raqamlarini belgilangan vaqtda chaqirib yoki oldindan aniqlangan shaxsning (abonent bo'lishi yoki bo'lmashligidan qat'i nazar) chaqiruviga javob berib, qisqa xabarni uzatadigan xizmat.

Oshib boruvchi diskretlash

(interpolyatsiya)

ing. - boosting discretization (interpolation)

rus. - повышающая

дискретизация (интерполяция)

Vaqt birligida sanoqlar sonini oshirgan holda qayta diskretlash.

Ochiladigan ro'yxat

ing. - drop-down list

rus. - раскрывающийся список

Qiyimatlar ro'yxatidagi bitta yoki bir nechta qiymatni tanlab olish uchun mo'ljallangan boshqaruv elementi.

Ochilish portali

ing. - disclosure portal

rus. - портал раскрытия

Davlatning ishonchli va yuridik jihatdan ahamiyatli axboroti joylashtiriladigan hamda undan cheklanmagan doiradagi shaxslar foydalana oladigan avtomatlashtirilgan tizim.

Ochiq amaliy jarayonlar guruhi

ing. - open application group (OAG)

rus. - группа открытых

прикладных процессов

Umumiy foydalanishdagi modellarni va amaliy dasturlarning standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan tashkilot. OAG o'nta eng yirik dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'z e'tiborini qo'llanmalarni uyg'unlashtirishga qaratgan. Yaratilayotgan standartlar foydalanuvchilarga amaliy dasturlarni ishlab chiqaruvchilarni tanlash imkoniyatini va moliyaviy vositalarni iqtisod qilishni ta'minlaydi.

Ochiq arxitektura

ing. - open architecture

rus. - открытая архитектура

Kompyuter yoki periferik qurilma arxitekturasi, bu arxitektera uchun boshqa ishlab chiqaruvchilarga shunday arxitekturali tizimlarga qo'shimcha qurilmalar ishlab chiqish imkonini beradigan spetsifikatsiya nashr qilingan.

Ochiq boshlang'ich matnlar

ing. - open source code

rus. - открытые исходные тексты

ishlab chiqiladigan tizimning boshlang'ich kodi, uni takomillashtirish istagida bo'lgan barcha xohlovchilarga erkin va bepul taqdim etilishida ifodalanadigan prinsip.

Ochiq dasturiy muhit

ing. - open software environment

rus. - открытая программная среда

Dasturlar uyg'unligini ta'minlay oladigan dasturiy muhit.

Ochiq dasturiy ta'minot

ing. - open source software

rus. - открытое программное обеспечение

Dastlabki kodi ochiq bo'lgan, ya'ni ko'rish va o'zgartirish imkoniyati mavjud dasturiy ta'minot. Bu yaratilgan dasturning yangi versiyalarini yaratish, xatolarni tuzatish hamda ochiq dasturni qo'shimcha qayta ishlash imkonini beradi. «Ochiq» litsenziya ochiq dasturiy ta'minot tekinga taqdim qilinishini talab qilmaydi. Shunga qaramay, ko'pchilik ochiq dasturiy ta'minotning muvaffaqiyatli loyihalari bepul.

Ochiq dasturiy ta'minot fondi

ing. - open software foundation (OSF)

rus. - фонд открытого

программного обеспечения

DEC, IBM, Hewlett-Packard va bir qator ish stansiyalari va serverlarning unchalik taniqli bo'lmagan yetkazib beruvchi kompaniyalardan tashkil topgan konsorsium. 1988-yili Unix tizimiga o'xshash ochiq kodli operatsion tizimni ishlab chiqarish uchun tuzilgan. 1996-yili X/Open konsorsiumi bilan birlashgan.

Ochiq elektron raqamli imzo kaliti

ing. - rublic key of the

electronic digital signature

rus. - открытый ключ электронно-цифровой подписи

Elektron raqamli imzoning tegishli yopiq kaliti bilan qat'iy bog'langan axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan simvollar ketma-ketligi.

Ochiq e'lon

ing. - explicit declaration

rus. - явное объявление

O'zgaruvchilarni, ulardan dasturda foydalanishgacha e'lon qilish.

Ochiq fayl

ing. - open file

rus. - открытый файл

O'qish yoki qayta yozish yoki ham o'qish, ham qayta yozish mumkin bo'lgan fayl.

Ochiq hujjat

ing. - open document

rus. - открытый документ

Ma'lumotlar abonent tizimlarini qayta ishlashga qulay va xalqaro standartlarda belgilangan ommabop shaklda yozilgan hujjat.

Ochiq hujjat formati

ing. - open document format (ODF)

rus. - формат открытого документа

Ofis dasturlari uchun erkin tarqatiladigan standart format.

Ochiq kalit

ing. - public key

rus. - открытый ключ

1. Kriptografik protokol (kriptografik sxema)ning barcha ishtirokchilarga, shu jumladan raqibga ham ma'lum bo'lgan maxsus parametri. Maxfiy kalitga ma'lum darajada mos keladi va maxfiy kalitni bilmagan ishtirokchilarga ba'zi kriptografik o'zgartirishlarni bajarish imkonini beradi.

2. Asimmetrik shifrlash sxemasida foydalaniladigan kalitlardan biri. Ochiq kalitdan tegishli shaxsiy kalit bilan juftlikda foydalanish mumkin bo'lishi uchun hamma foydalana olinadigan qilinadi.

Ochiq kalit bilan shifrlash

ing. - public key cryptography

rus. - шифрование с открытым ключом

Shifratni shakllantirish uchun ochiq kalitdan va shifratni dastlabki matnga almashtirish uchun yopiq kalitdan foydalaniladigan kriptografik usul.

Ochiq kalit foydalanuvchisi

ing. - public key recipient

rus. - пользователь открытого ключа

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun elektron raqamli imzo ochiq kalitdan foydalanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Ochiq kalit sertifikat

ing. - public key certificate

rus. - сертификат открытого ключа

1. Foydalanuvchining ochiq kaliti, uni bergan sertifikatlash organining shaxsiy kaliti bilan birga, shuningdek, shifrlash tufayli qalbakilashtirib bo'lmaydigan ba'zi bir boshqa axborot.

2. Qalbakilashtirib bo'lmaydigan formatda vakolatli organ tomonidan tekshirilgan va imzolangan, o'zida egalarining ochiq kalitini (boshqa ixtiyoriy axborotni) ifodalaydigan qiymatlar.

Ochiq kalitlar infratuzilmasi

ing. - public key infrastructure

rus. - инфраструктура открытых ключей

Ochiq kalitli kriptoo'zgartirishlar texnologiyalaridan foydalanishni ta'minlaydigan texnik va tashkiliy infratuzilma.

Izoh - Ochiq kalitlar infratuzilmasi raqamli sertifikatlarni tarqatish texnologiyalarini qo'llashi kerak: sertifikatlarni berish va bekor qilish, sertifikatlar haqiqiyligini tekshirish uchun zarur bo'lgan axborotni saqlash.

Ochiq kalitli kriptografiya

ing. - public-key cryptography

rus. - криптография с открытым ключом

1. Shifrlash va deshifrlash uchun ochiq kalit kabi, unga mos keladigan shaxsiy kalitdan foydalaniladigan kriptografiya.

Izoh - Agar ochiq kalit shifrlash uchun foydalanilsa, unga mos keladigan shaxsiy kalitdan deshifrlash uchun foydalaniladi va aksincha.

2. Biri ochiq, ikkinchisi yopiq bo'lgan juft kalitlardan foydalaniladigan shifrlash usuli.

Ochiq kalitli kriptotizim

ing. - public key cryptosystem

rus. - криптосистема с открытым ключом

Ikkita - maxfiy va ochiq kalitdan foydalaniladigan kriptografik tizim. Shuni hisobga olish kerakki, kalitlarning birortasi ham, maqbul vaqt ichida boshqasidan hisoblab chiqarilishi mumkin emas. Maxfiy kalit sir saqlanishi kerak, ochiq kalit o'zaro hamkorlik qilindigan barcha abonentlarga yuborilishi mumkin. Bunday kriptotizimlar, shuningdek, ikki kalitli va asimmetrik kriptotizimlar deb ham nomlanadi. Bunday tizimlar kalitlarni boshqarishda va elektron raqamli imzoni yaratishda qo'llaniladi.

Ochiq kalitni ro'yxatga olish

ing. - public key registry

rus. - регистрация открытого ключа

Ochiq kalitning qiymati qalbakilashtirilishini bartaraf qilish maqsadida, so'rovni amalga oshiruvchi shaxsga ishonchli axborotni ta'minlovchi, ochiq kalitlarni qayd etish jarayoni.

Ochiq kod

ing. - open source

rus. - открытый код

Keng doiradagi mustaqil ishlab chiquvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan bepul dastlabki kod yoki dastur. Oshkora kalitli loyihalarning asosiy g'oyasi shundaki, mustaqil dasturchilarning keng guruhi sifatli firma dasturiy ta'minotiga (yopiq kodga) xos bo'lgan, «qo'ng'iz» va «teshiklar»dan holi bo'lgan, dasturiy mahsulotni tayyorlashlari mumkin. Bunga erishish uchun, dastlabki kod undagi xatolarni topish maqsadida loyihaning ko'pchilik ishtirokchilari tomonidan ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari har bir ishtirokchi, o'zining shaxsiy talablariga monand turlashni kiritishi uchun, tarqatiladigan ochiq dasturiy ta'minotdan foydalanishi mumkin. Mashhur ochiq dasturlardan biri bo'lib, Apache veb-serveri, Linux operatsion tizimi va Mozilla Firefox brauzeri hisoblanadi.

Ochiq mahsulot

ing. - open product

rus. - открытый продукт

Umumfoydalanuvchilar tomonidan tan olingan interfeysli amaliy dasturiy ta'minot. OSI sohasida standartlarning yaratilishi, UNIX operatsion tizimi, amaliy tiziming va amaliy jarayonlar va amaliy pog'ona orasidagi ochiq interfeyslarning keng ishlatilishi, turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan abonent tizimlarda ishlatiladigan ochiq mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini berdi. Natijada, dasturiy mahsulotlarning katta bozori vujudga keldi. Bu yerda dasturlar muayyan turlarga emas, balki, bu mahsulotlarni ishlatishga ochiq bo'lgan barcha kompyuterlar uchun taklif qilinadi.

Ochiq matn

ing. - plaintext

rus. - открытый текст

Passiv raqibdan himoyalannagan aloqa kanali bo'ylab jo'natiladigan va kriptotizim yordamida himoyalannadigan konfidensial axborotni o'z ichiga olgan xabar. Ochiq matn shifrlash kaliti bilan birga shifrlash algoritmi uchun dastlabki ma'lumotlarni tashkil qiladi.

Ochiq ma'lumotlar

ing. - open data

rus. - открытые данные

Muayyan ma'lumotlar mashinada o'qish uchun erkin ravishda mumkin bo'lishi va mualliflik huquqi, patentlar cheklanmasdan hamda nazorat qilishning boshqa mexanizmlarisiz keyinchalik qayta e'lon qilinishi kerak degan g'oya aks ettirilgan konsepsiya.

Ochiq ma'lumotlar portali

ing. - open data portal

rus. - портал открытых данных

O'zbekiston Respublikasining Internet tar-mog'idagi Hukumat portali doirasida ishlaydigan, davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining, joylardagi davlat hokimiyat organlarining ochiq ma'lumotlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan, ochiq ma'lumotlardan foydalanishda va ularni e'lon qilishda foydalanuvchilar va ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar, portal operatori o'rtasida hamkorlikni ta'minlaydigan apparat va dasturiy vositalar majmuidan iborat axborot resursi.

Ochiq muhit

ing. - open environment

rus. - открытая среда

Ma'lumot va resurslarni tasodifiy yoki qasd-dan qilingan ta'sirlardan muhofazalash uchun soddada operatsion tartibotlar yordamida erishiladigan muhit.

Ochiq savdo

ing. - open commerce

rus. - открытая торговля

CommerceNet tomonidan taklif qilingan bo'lib, obyektli so'rovlar brokerining umumiy arxitekturasi (CORBA) tayanadi va format, interfeys va protokollar uchun standartlar taklif qiladi.

Ochiq standartlar

ing. - open standards

rus. - открытые стандарты

Mustaqil ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan ochiq tartibda ishlab chiqiladigan va barcha manfaatdor shaxslar foydalanishiga to'sqinlik bo'lmaydigan shartlarda e'lon qilinadigan texnik spetsifikatsiyalar.

Ochiq tarmoq arxitekturas

ing. - open network architecture

rus. - открытая сетевая архитектура

Foydalanuvchilarning keng doirasi erkin foydalana (kira) oladigan tarmoq arxitekturas.

Ochiq tizim

ing. - open systems

rus. - открытая система

Ishlab chiquvchilar tomonidan ishlab chiqilgan tizimning barcha zarur standartlaridan umumfoydalanib bo'ladigan tizim. Bu, boshqa bir ishlab chiquvchiga o'xshash tizimni yaratish, uning xarakteristikalarini yaxshilash, o'z qurilmalari yoki dasturiy vositalarini qo'shish, ularning birgalikda ishlashini tashkil qilish imkonini beradi. Ochiq tizimlarga misollar: IBM firmasining shaxsiy kompyuterlari, dBASE turidagi ma'lumotlar bazalari, Internet.

Ochiq tizim muhiti

ing. - open system environment

rus. - среда открытой системы

Har xil operatsion tizimlar asosida sintezlanuvchi va har xil dasturchi-ishlab chiquvchilar tomonidan taklif etiladigan bir xil amaliy dasturlarning operatsion tizimlarda ishlashini ta'minlaydigan operatsion muhit.

Ochiq tizimlar

ing. - open systems

rus. - открытые системы

Tayyorlovchilarga bog'liq bo'lmagan, qator standartlar talablarini qanoatlantiradigan tizimlar.

Ochiq tizimlar o'zaro bog'liqlik modeli

ing. - open systems interconnection model

rus. - модель взаимодействия

открытых систем

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)

tomonidan taklif qilingan ochiq tizimlarning yetti pog'onali o'zaro bog'lanish (birgalikda ishlash) modeli (OSI).

Izoh - Natijada tarmoqdagi o'zaro bog'lanish kichik va osonroq vazifalarga bo'linadi, turli ishlab chiquvchilarning mahsulotlari o'rtasida moslashuvchanlik ta'minlanadi, alohida pog'onalarni yaratish va mavjud amalga oshirilganlardan foydalanish hisobiga, ilovalarni ishlab chiqish soddalashadi.

Ochiq tizimlarning o'zaro bog'liqligi

ing. - open systems interconnection (OSI)

rus. - взаимосвязь открытых систем

Ochiq tizimlarning birgalikda ishlashini ta'minlash uchun Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlar uzatish protokollarining yetti sathli modeli. Pastdan yuqoriga qarab boradigan sathlar: fizik sath, kanal sathi, tarmoq sathi, transport sathi, seans sathi, ma'lumotlar taqdim etish sathi hamda amaliy sath.

Ochiq tizimlarning o'zaro ishlashi

ing. - open system interconnection (OSI)

rus. - взаимодействие открытых систем

1. Protokollarning yetti sathli etalon modeli bazasida ISO tomonidan ishlab chiqilgan standartlar turkumi xarakteristikalari va xossalari belgilovchi konseptual asos.

Izoh - «Ochiq» atamasi standartlashtirilgan protokollar va spetsifikatsiyalar to'plami, turli ishlab chiquvchilarning uskunalari birgalikda ishlay olishini kafolatlashini bildiradi.

2. Turli rusumdagi kompyuterlar va tarmoqlarni protokollar to'plami orqali xalqaro (standartlashtirilgan) aloqasini ta'minlash imkoniyati.

Ochiq usul

ing. - public method

rus. - открытый метод

Obyekt tashqarisidan cheklanmagan tarzda amalga oshiriladigan usul.

Ochiq xavfsiz muhit

ing. - open-security environment

rus. - безопасная открытая среда

Ma'lumotlar va resurslarni tasodifiy yoki qasddan qilinadigan harakatlardan muhofaza qilishga normal operatsion protseduralar vositasida crishiladigan muhit.

Ochiq shifrlash

ing. - end-to-end encryption,
end-to-end encipherment

rus. - сквозное шифрование

1. Axborotni maxfiylashtirish usuli bo'lib, shifrlangan oqim tarmoq orqali ochiq rejimda, ya'ni trafikni oraliq telekommunikatsiyalar uzellarida qayta shifrlamasdan, uzatiladi.

2. Ma'lumotlarni tizim doirasida yoki tegishli deshimflash bilan manba tomonida shifrlash. Faqat tizim doirasida yoki mo'ljallangan tomonida amalga oshiriladi.

Ochiqlik darajasi

ing. - transparency level, clearance

rus. - уровень прозрачности

Xavfsizlikning maksimal darajasi, subyektdan undan foydalana olish uchun Bella-Lapadula modeli qoidalariga ko'ra ruxsat berilgan. Subyektning joriy darajasi (u shu vaqtda operatsiyalar bajarayotgan daraja) minimaldan ochiqlik darajasigacha o'zgartirilishi mumkin.

Ochish

ing. - open

rus. - открыть

Faylning dastur tomonidan ochilish jayroni. Ochilganidan so'ng, faylni ko'rib chiqish, agar huquqlar yetarli bo'lsa tahrir qilish mumkin bo'ladi.

Ochuvchi bayroq

ing. - opening flag

rus. - открывающий флаг

Bitlarning qayd qilingan ketma-ketligi. Kadr ajralishi boshlanishining belgisi bo'lib xizmat qiladi.

P

Paket

ing. - package

rus. - пакет

1. Xavfsizlikning funksional talablari yoki ishonch talablarining nomma-nom ko'rsatilgan guruhlari.

Izoh - Ishonch paketlariga misol bo'lib, ishonchni babolovchi darajalar hisoblanadi.

2. Ko'p marta foydalanishga mo'ljallangan funksional komponentlar yoki ishonch komponentlarining majmui.

Paket identifikatori

ing. - packet identifier

rus. - идентификатор пакета

MPEG-2 transport paketi sarlavhasidagi ma'lumotlar paketida muayyan elementar oqim mavjudligini ko'rsatadigan, 13 bitli ko'rsatgich.

Paket protokoli

ing. - packet protocol

rus. - пакетный протокол

Xabarni bo'lish, qayta jo'natish va yig'ish qoidalari.

Paket sarlavhasi

ing. - batch header

rus. - заголовок пакета

Paketning, paket tuzilmasi to'g'risidagi axborotni ichiga oladigan birinchi elementi.

Paketlar filtrlanadigan

tarmoqlararo ekran

ing. - packet-filtering firewall

rus. - межсетевой экран с

фильтрацией пакетов

1. Mualliflashtirilgan mijoz bilan tashqi xost o'rtasida kiruvchi va chiquvchi paketlarni filtrlash orqali bevosita o'zaro ta'simi istisno qiladigan tarmoqlararo ekran.

Izoh - Filtrlash paket sarlavhasidagi axborot asosida (jo'natuvchi va oluvchi manzillari, port raqamlari va sh.k.) amalga oshiriladi.

2. Marshrutizatorlar yoki serverda ishlaydigan, kiruvchi va chiquvchi paketlar filtrlanadigan qilib konfiguratsiyalangan dasturlar.

Paketlar kommutatori

ing. - packet switch

rus. - коммутатор пакетов

Abonent stansiyalaridan yoki tarmoqning qo'shni uzellaridan paketlar qabul qiladigan va ularni manzil qismi asosida o'zining portlari bo'ylab taqsimlaydigan qurilma. Ma'lumotlarni bir kommutatordan boshqasiga izchil uzatish, paket mo'ljallangan oxirgi punktga yetib borgunga qadar amalga oshiriladi. Ushbu turdagi kommutatorning kanallar kommutatsiyalanadigan tarmoqdagi o'xshash qurilmadan asosiy farqi, bufer xotira mavjudligidadir. Bufer xotira kommutatorning chiqish porti boshqa paketni qayta ishlash bilan band bo'lganda, axborotni yo'qotmagan holda paketlarni saqlash imkonini beradi.

Paketlar kommutatsiyasi

ing. - packet switching

rus. - коммутация пакетов

Ma'lumotlar uzatish texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra, uzatiladigan axborot oqimi tarmoqda mustaqil bloklar sifatida qayta ishlanadigan va kommutatsiyalanadigan, qat'iy yoki o'zgaruvchan uzunlikdagi paketlarga ajratiladi. Ulanish faqat paketni uzatish vaqtiga o'rnatiladi, u tugagach, ulanish darhol uziladi.

Paketlar kommutatsiyasiga ega tarmoq

ing. - packet switched network

rus. - сеть с коммутацией пакетов

Paketlar kommutatsiyasi texnologiyasidan foydalanuvchi kommunikatsiya tarmog'i.

Paketlar kommutatsiyasining

tarmoq interfeysi

ing. - packet switching network interfaces

rus. - интерфейсы сети

коммутации пакетов

Paketlar kommutatsiyasi tarmog'i abonentlari interfeyslarini belgilaydigan X.25, X.75 va boshqa standartlar.

Paketlarni erta tashlash

ing. - early packet discard

rus. - раннее отбрасывание пакетов

Tarmoqda ortiqcha yuklanish paydo bo'

lishidan oldin, ustivor bo'lmagan xabarlanga daxldor paketlarni tashlab yuborishga imkon beradigan va bu bilan yuqori ustivorlikdagi trafik uchun qayta uzatishlar sonini kamaytiradigan mexanizm.

Paketlarni kommutatsiya

qilish bilan uzatish rejimi

ing. - packet transfer mode

rus. - режим передачи с

коммутацией пакетов

Uzatish va kommutatsiya qilish funksiyalari paketli usul bilan amalga oshiriladigan axborotni ko'chirish rejimi, bunda uzatish va kommutatsiya qilishning tarmoq resurslari bir nechta bog'lanishlar o'rtasida dinamik ravishda taqsimlanadi.

Paketlarni kommutatsiyalash

tarmoqlarining tarmoqlararo interfeysi

ing. - packet switching networks

internetwork interface

rus. - межсетевой интерфейс сетей

коммутации пакетов

Paketlarni kommutatsiyalash tarmoqlari o'rtasidagi interfeys. Tarmoqlararo interfeys X.75 tavsiyasi tomonidan belgilangan.

Paketlarni kommutatsiyalash usuli

ing. - packet switching method

rus. - метод коммутации пакетов

Axborot simli va simsiz tarmoqlar orqali «ma'lumotlar paketi» deb nomlanadigan bo'laklar bilan uzatiladigan kommutatsiyalash usuli. 2,5G yoki 3G tarmoqlarda telefon so'zlashuv paketlarga bo'linadi va audio oqimga qayta yig'iladigan tarmoq orqali jo'natiladi.

Izoh - Paketli kommutatsiya tarmoqlarida kommunikatsiya kanali ma'lumotlar haqiqatda uzatiladigan vaqtga band qilinadi, bu kanallarning sig'imidan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Paketlarni qayta ishlash

ing. - packet processing

rus. - обработка пакетов

Paketlarni yig'ish, marshrutlash, saralash va ishlab chiqish, shuningdek, xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash.

Paketlarni yig'uvchi/ajratuvchi

ing. - packet assembly/disassembly (PAD)

rus. - сборщик/разборщик пакетов

1. Paketlar kommutatsiyasi operetsiyalarini bajaruvchi tarmoqdan foydalana olishni ta'minlaydigan, lekin paketlar kommutatsiyasining rejimida ishlash uchun mo'ljallanmagan funksional blok.

2. Terminallarni paketlar kommutatsiyasi tarmog'iga ulash imkonini beradigan protokollar o'zgartirgichi. Qabul qilish oxirida paketlar ajratiladi va terminalga uzatiladi. PAD asinxron ma'lumotlar paketlarini to'playdi va ularni paketlar kommutatsiyasi tarmog'iga uzatadi. PAD, shuningdek, paketlarni ajratish va ularni paketlar bilan ishlamaydigan qurilmalar yoki dasturlarga uzatishga teskari bo'lgan tadbiri ham bajaradi.

Paketlarning o'zgarishi

ing. - package switch

rus. - переключение пакетов

Tarmoq ulanishi usuli, bunda o'zgaruvchan uzunlikdagi xabar qayd qilingan uzunlikdagi paketlarga bo'linadi va adresatga jo'natiladi.

Paketlarning tez kommutatsiyasi

ing. - fast packet switching (FPS)

rus. - быстрая коммутация пакетов

Bir nechta yo'nalishlar: uzatish tezligini oshirishga ko'maklashadigan turli ko'rinishdagi axborotlar (ma'lumotlar, nutq va video) uchun paketlarning yagona o'lchami qo'llanilishi; qayd etilgan uzunlikdagi – 53 byte paketlardan foydalanish, sekundiga 100 mingdan 1 milliongacha bo'lgan paketlarni uzatish tezligiga erishish imkonini beradigan apparatli amalga oshirish bo'yicha paketlarning an'anaviy kommutatsiyasidan farq qiladigan raqamli texnologiya.

Izoh – Paketlarni tez kommutatsiyalash kanallar kommutatsiyasiga asoslangan ilovalar (ayniqsa nutqni uzatish) da va vaqt bo'yicha multipleksorlash usullaridan foydalanganida qo'llanilishi mumkin.

Paketlash (inkapsulyatsiya)

ing. - encapsulation

rus. - пакетирование (инкапсуляция)

Ma'lumotlarni o'zgartirish jarayoni bo'lib, ularni tarmoq orqali ochiq rejimda uzatish imkonini beradi. Inkapsullangan paket sar-

lavha va qo'shimcha axborot qo'shish orqali shakllantiriladi. Ko'p sathli iyerarxiyaga ega tarmoqlarda inkapsullangan paket turli sathdagi bir nechta sarlavhadan iborat bo'lishi mumkin: dastlab fizik sath sarlavhasi ko'rsatiladi, keyin tarmoq sathining sarlavhasi, undan so'ng transport sathi sarlavhasi keladi. Bularning ketidan amaliy protokollarning ma'lumotlari joylashishi mumkin. Trafikni inkapsullashga qilinadigan o'tkazish qobiliyati resurslarining sarfi 2-3 foizdan oshmaydi.

Paketli fayl

ing. - package file

rus. - пакетный файл

Har bir satrini operatsion tizim o'zining komandalari sifatida talqin qiladigan matnli fayl. Paketli qayta ishlashni tashkil qilish uchun foydalaniladi. Bajariladigan fayl tur-laridan biri. Fayl nomida kengaytirish tizimi orqali aniqlanadi.

Paketli komanda fayli

ing. - batch command file

rus. - пакетный командный файл

Qanday yozilgan bo'lsa, xuddi shunday tartibda avtomatik chaqiriladigan diskli operatsion tizim dasturlari va komandalari ro'yxatini ichiga oladigan fayl yoki ularni bajarish tartibi shartli operatorlar tomonidan belgilanishi mumkin.

Paketli kommutatsiya

ing. - packet switch

rus. - пакетная коммутация

1. Paketlarning bir uzeldan ikkinchisiga ketma-ket uzatilishini ta'minlaydigan, ma'lumotlar uzatish usuli. Paketli kommutatsiya axborot almashinishning butun seansi mobaynida paketlar manbai va oluvchisi o'rtasida kanal band etilishini ko'zda tutmaydi.

2. Tayanch tarmoqda axborot uzatish texnologiyasi. Turli marshrutlar bo'ylab tarmoq orqali tayinlangan joyga o'tadigan axborot massivining ma'lumotlar paketlariga ajratilishini ko'zda tutadi, bu radiodiapazondan ma'lumotlarni haqiqatda uzatish vaqtida foydalanilganligi sababli, mobil foydalana olishda qulaydir. Kanallar kommutatsiyasi-

ning muqobili. GPRS mobil aloqa raqamli tarmoqlari uchun ishlab chiqilgan paketli texnologiyadir. Paketlar kommutatsiyasi tarmoqdagi ikki alohida mijozning birgalikda ishlashini sekinlashtiradi, lekin umuman olganda, tarmoqda uzatiladigan ma'lumotlar hajmini sezilarli oshirish imkonini beradi.

Paketli kommutatsiya umumiy radiotizimi

ing. - general packet radio service (GPRS)

rus. - общая радиосистема пакетной коммутации

Axborotni standart tovush kanaliga 9,6 Kbit/s (GSM) nisbatan ahamiyatli ravishda juda yuqori tezliklarda, mobil telefon yordamida olish va uzatish imkonini beradigan ma'lumotlarni paketli uzatish texnologiyasi.

Paketli qayta ishlash

ing. - batch processing

rus. - пакетная обработка

Operatsion tizim yordamida ma'lum bir izchillikda bir nechta dasturning bajarilishini tashkil qilish. Paketli qayta ishlash paketli fayllar yordamida tashkil qilinadi.

Paketli qayta ishlash tizimlari

ing. - batch-processing system

rus. - системы пакетной обработки

Tezkor natijalarni talab qilmaydigan, asosan hisoblash xususiyatidagi vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan tizimlar.

Paketli rejim

ing. - burst mode

rus. - пакетный режим

Ma'lumotlarni uzatish usuli, bunda axborot alohida simvollar ko'rinishida emas, balki paketlarga to'plangan holda, yuqori tezlikli kommunikatsiya vositalari yordamida uzatiladi. Paketli rejim har bir kanalga alohida xizmat ko'rsatish uchun multipleksorlardan foydalaniladigan tizimlarda keng qo'llaniladi. Ko'pgina lokal hisoblash tizimlari shunday rejimda ishlaydi.

Paketli topshiriq

ing. - batch job

rus. - пакетное задание

Paketli rejimida bajariladigan topshiriq.

Paketli uzatish rejimi

ing. - packet transfer mode

rus. - пакетный режим передачи

Uzatish va kommutatsiya qilish funksiyalari ko'p sonli bog'lanishlar o'rtasida resurslarni uzatish va kommutatsiya qilish muhitini dinamik ajratish uchun paketlar darajasida amalga oshiriladigan rejim.

Paketning mavjudlik vaqti

ing. - time to live (TTL)

rus. - время жизни пакета

TTL maydonidagi paket sarlavhasida ko'rsatilgan qiymat.

Izohlar

1. Bu qiymat IP-paket sarlavhasi qayta ishlanadigan har bir uzelda kamayadi.

2. Marshrutizator bilan tarmoqdagi IP-paketning mavjudlik vaqtini tekshirish va to'g'rilash bajariladi, zarur bo'lganda, paket sarlavhasining nazorat summasini standart bilan belgilangan saqlash sharti bilan paketning mavjudlik vaqti oshadi.

Panel

ing. - panel

rus. - панель

Oynaning, menyu yoki tugmalar to'plami joylashgan, to'g'riburchakli ajratilgan sohasi.

Papka

ing. - folder

rus. - папка

Obyektga yo'naltirilgan dasturlash nuqtai nazaridan qaraganda, kompyuter resurslari va fayllar uchun konteyner hisoblanadigan obyekt.

Parabolik antenna

ing. - parabolic aerial, parabolic antenna

rus. - параболическая антенна

Ko'zguili antenna, unda elektromagnit energiyani fokuslash uchun kerakli yo'nalishda qaytargich sifatida metall yoki metall bilan qoplangan parabolik shakldagi sindirib foydalaniladi, masalan aylantirish paraboloidi yoki parabolik silindr.

Parabolik profilli sindirish

ko'rsatgichiga ega tola

ing. - parabolic-index fiber

rus. - волокно с параболическим

профилем показателя преломления

Tarqalish o'qiga perpendikulyar kesim bo'ylab

parabolik qonuniyat bo'yicha o'zgaradigan va uning o'qida maksimal qiymatga ega bo'ladigan, gradiyent sindirish ko'rsatgichli optik tola.

Parabolik qaytargich

ing. - parabolic reflector

rus. - параболический отражатель

Aylanish paraboloidi shakliga ega (ya'ni, parabolaning o'z o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan) (yaxlit yoki qaytarilayotgan to'lqin uzunligiga nisbatan kichik o'lchamga ega teshikli) metall sirt.

Izoh - Parabolik qaytargich millimetrligi, santimetrligi va deksimetrligi, ba'zida esa metrli to'lqinlar antenalarida qo'llaniladi. Deksimetrligi va santimetrligi to'lqinlarda parabolik qaytargich yordamida yetarlicha tor yo'nalganlik diagrammalarini olish mumkin bo'ladi.

Paralel qayta ishlash

ing. - parallel processing

rus. - параллельная обработка

Kompyuterda bir nechta jarayonning bir vaqtda bajarilishi. Umumiy holda, bu jarayonning bajarilishi uchun ko'p protsessorli tizimlar zarur. Paralel qayta ishlash vazifalarning bajarilishini tezlashtiradi.

Paralel dasturlash

ing. - concurrent programming

rus. - параллельное программирование

Birgalikda ishlaydigan paralel jarayonlardan foydalanib dasturlash.

Paralel hisoblashlar uchun

dasturiy ta'minot

ing. - software for parallel calculations

rus. - программное обеспечение для

параллельных вычислений

Dasturlarni avtomatik dinamik parallellash dasturiy vositalari. Murakkab paralel dasturlarni ishlab chiqish hamda ulardan turli uskunalarda foydalanish jarayonini osonlashtiradi.

Paralel jarayonlar

ing. - concurrent processes

rus. - параллельные процессы

Har birini izchil dastur tavsiflaydigan va boshqalari bilan birgalikda ishlaydigan ikki yoki bir nechta jarayon.

Paralel kompyuter

ing. - parallel computer

rus. - параллельный компьютер

Operatsiyalar ko'plab arifmetik va mantiqiy bloklar (protsessorlar)da paralel bajariladigan ko'p protsessorli hisoblash tizimi.

Paralel kompyuter tizimlari

ing. - parallel computer systems

rus. - параллельные

компьютерные системы

Bir nechta bevosita o'zaro hamkorlikda ishlaydigan protsessorlarning multiprotsessorli tizimlari.

Paralel port

ing. - parallel port

rus. - параллельный порт

Ma'lumotlarning baytlar bilan (barcha bitlar bir vaqtda) kiritilishi/chiqarilishini amalga oshiradigan port. Paralel port ma'lumotlarni ketma-ket portga nisbatan tezroq uzatadi, odatda unga printer ulanadi.

Paralel siljitgich

ing. - parallel shifter

rus. - параллельный сдвигатель

Protsessorning, bir takt ichida kirish so'zini istalgan tomonga berilgan bitlar soniga surish imkonini beradigan, ichki registrlilik sxemasi.

Paralel (solishtirma) testlash

ing. - back-to-back testing

rus. - параллельное

(сравнительное) тестирование

Ayni bir kirish ma'lumotlarini modul yoki tizimning ikki yoki undan ko'p nusxasiga uzatish ko'zda tutiladigan, dasturiy mahsulotlarni testlash metodologiyasi, olinadigan chiqish ma'lumotlarini (natijalarini) taqqoslash va mos tushmasliklarini tahlil qilish, agar shunday holat aniqlansa.

Paralel summator

ing. - parallel adder

rus. - параллельный сумматор

Bir nechta razryadning bir vaqtda qo'shilishini amalga oshiradigan mantiqiy qurilma.

Parallel uzatish

ing. - parallel transmission

rus. - параллельная передача

Simvol, manzil yoki ma'lumotlarni bir nechta alohida liniya orqali uzatish.

Parallel shina

ing. - parallel bus

rus. - параллельная шина

Bir vaqtning o'zida n-razryadli axborot signallari, boshqaruvchi signallar va manzillar uzatilishi mumkin bo'lgan bog'lovchi liniya.

Parallelizm

ing. - concurrency

rus. - параллелизм

Platforma (masalan, operatsion tizim, JVM va sh.k.) yoki dasturning xossasi. Operatsion tizim jarayoni bir nechta parallel (yoki vaqt bo'yicha tartibsiz) bajariladigan oqimdan iborat bo'lishi mumkinligini bildiradi. Bir xil vazifalarni bajarganda kompyuter resurslarini samaraliroq ishlatishga erishish mumkin.

Parametr

ing. - parameter

rus. - параметр

Qiyamati kichik dasturga (protseduraga, funksiyaga) tashqi muhitdan beriladigan o'zgaruvchan kattalik. Rasmiy va haqiqiy parametrlar ajratiladi. O'z nomi bilan keltirilgan o'zgaruvchilar rasmiy parametrlar deb ataladi. Umuman olganda, ular ustida kichik dasturlarni yozishda zarur bo'lgan barcha harakatlar amalga oshiriladi. Kichik dasturlardan rasmiy parametrlar o'miga foydalanishda taqdim etilgan o'zgaruvchilar yoki ularning qiymatlari haqiqiy parametrlar deb ataladi.

Parametrlar assotsiatsiyasi

ing. - association of parameters

rus. - ассоциация параметров

Rasmiy va haqiqiy parametrlar o'rtasida muvofiqlikni o'rnatish mexanizmi.

Parametrlarni berish

ing. - parameter passing

rus. - передача параметров

Ma'lumotlar tuzilmasi, registrlar, taqsim-

lanishi va chaqiruvchi dastur tomonidan chaqiriluvchi dasturga obyektlar va ustida amallar bajarilishi kerak bo'lgan qiymatlar-ni ko'rsatish uchun amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha kelishuv. Dasturlashda chaqiriladigan funksiyaga, quyi dasturga yoki protseduraga parametrlar berishning bir nechta asosiy usuli mavjud. Ulardan asosiyari havola bo'yicha berish va qiymat bo'yicha berish. Beriladigan parametrlar-ni soni va ularning turlari funktsiya yoki protsedura tavsifida qilingan e'lonlarga mos kelishi kerak. Aks holda, xato yuzaga keladi.

Parametrlarning

o'zgarishiga qarab qayd qilish

ing. - parameter-change registration

rus. - регистрация по

изменению параметров

Mobil stansiyalarni qayd qilish usuli. Uzatiladigan kodli ketma-ketlikni davriy ravishda tahlil qilishga asoslangan. Ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan etalon bilan mos tushmaganda, takror qayd etish amalga oshiriladi.

Parazit tok

ing. - sneak current

rus. - паразитный ток

Kabel bo'ylab o'tadigan, o'ta qizish tufayli aloqa liniyasidagi uskunani shikastlaydigan, hosil qilingan tok. Uning darajasi himoya tizimi ishlab ketishi uchun yetarli emas.

Parazit tokdan muhofazalash

ing. - sneak current

rus. - защита от паразитного тока

Qurilmalardan parazit tokdan himoyalash uchun, zanjimi uzish yoki o'tkazgichni yerga ulash orqali foydalanish.

Parazit viruslar

ing. - parasitic viruses

rus. - паразитические вирусы

Nusxalarini tarqatishda, fayllarni to'liq yoki qisman ishlash qobiliyatini saqlagan holda, faylga o'zining kodini qo'shish orqali fayllarning ichidagini albatta o'zgartiradigan viruslar.

Izoh - Virus kodi virusni dasturga kiritish joyiga bog'liq ravishda dastur oldidan, undan keyin yoki dastur bilan birga bajariladi.

Parchalash
ing. - splitting
rus. - расщепление

Xizmat ko'rsatish zonasini, ma'lumotlar oqimini yoki signalni bir necha qismga bo'lish.

«Parking» rejimidagi chaqiruvni o'rnatish

ing. - call park
rus. - установка вызова в режим «паркинг»

«Parking» rejimidagi chaqiruvni o'rnatish uni shu abonent tomonidan (erkin foydalanish kodini terish) yoki guruhning boshqa raqamidan (boshqa abonent tomonidan) keyinchalik tutib qolish uchun bajarish imkonini beradigan xizmat.

Parol
ing. - password
rus. - пароль

1. Autentifikatsiya qilish axboroti sifatida foydalaniladigan simvollar ketma-ketligi.
2. Erkin foydalanish subyekting siri bo'lib hisoblanadigan identifikator.
3. Foydalanuvchining muhofaza qilingan ma'lumotlardan erkin foydalanishi uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan belgilar satrini o'zida aks ettiruvchi maxfiy autentifikatsiya qilish axboroti.
4. Elektron hisoblash mashinasiga terminal klaviaturasidan yoki identifikatsion (kodli) karta yordamida kiritiladigan, harf, harf-raqam yoki raqam shaklidagi kodli so'zni o'zida ifodalovchi, erkin foydalanishni identifikatsiyalovchi vosita.

Parol bilan muhofaza qilish

ing. - password protection

rus. - защита паролем

1. Tizimdan foydalana olishni boshqarish mexanizmi bo'lib, tizim yoki tarmoq ichida dasturiy ta'minot yaxlitligi saqlanishini ta'minlaydi.
2. Ma'lumotlarni muhofaza qilish usuli, bunda ma'lumotlardan foydalana olish uchun parol kiritish zarur.

Parol bo'yicha identifikatsiyalash

ing. - password identification

rus. - идентификация по паролю

Nusxasi tizimda saqlanadigan parol bo'yicha

foydalanuvchini qat'iy identifikatsiyalash imkonini beradigan protsedura. Foydalanuvchining tizim resurslaridan foydalanish yuzasidan huquqlari hamda vakolatlarini aniqlash maqsadida bajariladi.

Parollarni egallab oluvchilar

ing. - password hook

rus. - захватчики паролей

Operatsion tizimga aldamchi ta'sirlar ko'rsatish orqali parollarni o'g'irlovchi dasturlar.

Parollarni keshlash

ing. - password caching

rus. - кэширование паролей

Lokal kompyuterda parollarni va foydalanuvchi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni saqlash.

Parollarni ochuvchi

ing. - password discriminator

rus. - вскрыватель паролей

Parollarning tanlanishini va aniqlanishini amalga oshiruvchi dastur.

Parollashtirish

ing. - determination of password

rus. - паролитрование

Kompyuter tizimi va uning fayllariga kira olishni cheklash usullaridan biri.

Parolni ko'rsatish

ing. - sign-on

rus. - предъявление пароля

Identifikatsiyalashning tugallanishi va foydalanuvchining haqiqiyiligi o'rnatish.

Parolni tez-tez o'zgartirish bilan qilinadigan hujum

ing. - leapfrog attack

rus. - атака с частой сменой пароля

Ko'p darajali muhofaza tizimiga qilinadigan aktiv hujum turi, bunda jinoyatkor begona identifikatsion ma'lumotlardan foydalana-di, birinchi chaqiruv qaycrdan kelganligini aniqlash mumkin bo'lmaydigan tarzda izlarni chigallashtirib, ularni muntazam o'zgartiradi.

Parolsiz

ing. - no password

rus. - без пароля

Pochta mijozi yoki Internetni ko'ruvchi (brauzer)ni sozlashdagi biron-bir dasturiy mahsulotni o'tatish jarayonida xavfsizlikni kamaytirish maqsadida foydalaniladigan atama.

Parsing

ing. - parsing

rus. - парсинг

Yuqori daraja dasturlash tilida yozilgan jumlani, uni kompilyatsiyalash paytida tahlil qilish.

Pasayib boradigan ishlanma

ing. - top-down development

rus. - нисходящая разработка

Loyihalar, tizimlar, dasturlar ishlab chiqish usuli, bunda ishlab chiqish yuqoridan pastga tomon amalga oshiriladi. Tuzilmaviy aktivlashning asosiy usullaridan biri. Pasayib boradigan dasturlash pasayib boradigan ishlanmaning xususiy holdir.

Pasayib boruvchi kanal

ing. - downlink channel

rus. - нисходящий канал

Tayanch stansiyadan foydalanuvchi uskunasi tomon yo'nalgan uzatish kanali.

Pasayib boruvchi trafik

ing. - downstream traffic

rus. - нисходящий трафик

Tarmoq markaziy uzeldan periferik uzeltarga uzatiladigan trafik, masalan, Internet dan telefon modemiga, tayanch stansiyadan abonent stansiyasiga va h.k.

Pasaytirmoq

ing. - downgrade

rus. - понижать

Detallarni eskirog'iga almashtirish yo'li bilan kompyuter quvvatini pasaytirish. Kompyuterning kam energiya sarflashi yoki narxini pasaytirish uchun xizmat qiladi.

Pasayuvchi oqim

ing. - downstream

rus. - нисходящий поток

1. Kabelli televideniye tarmog'ida o'zaro

bog'lanish interaktiv kanalining bevosita (bosh stansiya - abonent) trakti.

2. Yo'ldoshdan Yer stansiyasigacha bo'lgan kanal.

Passiv antenna panjarasi

ing. - passive array

rus. - пассивная антенная решетка

Aktiv qurilmalarni o'z ichiga olmaydigan antenna panjarasi.

Passiv hujum

ing. - passive attack

rus. - пассивная атака

1. Kriptotizim yoki kriptografik protokollga hujum, bunda raqib va/yoki buzg'unchi uzatiladigan shifrlangan xabarlarini kuzatadi va ulardan foydalanadi, ammo qonuniy foydalanuvchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatmaydi.

2. Uzatilayotgan ma'lumotlarni tutib olish yoki monitoring qilish xususiyatiga ega hujum. Bu holatda buzg'unchining maqsadi uzatilayotgan axborotni olish hisoblanadi.

Passiv konsentrator

ing. - passive hub

rus. - пассивный концентратор

Tarmoqdagi bir nechta stansiyadan keladigan simlarni, signallarni qayta ishlamasdan yoki ularni regeneratsiya qilmasdan, birlashtiruvchi ulanish qurilmasi.

Passiv rejim

ing. - passive mode

rus. - пассивный режим

Abonent stansiyasi boshqa stansiyalarning boshqaruvida ishlaydigan va mustaqil tarzda aloqaga chiqish huquqiga ega bo'lmagan aloqa rejimi.

Passiv tahdid

ing. - passive threat

rus. - пассивная угроза

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi holatini o'zgartirmasdan, axborot mazmunini ruxsat etilmagan tarzda, ochishga bo'lgan tahdid.

Izoh - Amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilib, uzatilgan ma'lumotlardan ta'sirchan axborotni tiklash imkonini bo'lgan tahdid passiv tahdidga misol bo'lib hisoblanadi.

2. Tizimning ishlash rejimini o'zgartirmasdan axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish imkoniyati.

Past tezlikli qo'shma boshqaruv kanali

ing. - slow associated control channel (SACCH)

rus. - низкоскоростной совмещенный канал управления

Ikki tomonlama kanal, odatda, undan mobil aloqa tarmoqlaridagi quvvatni boshqarish uchun foydalaniladi. Tayanch stansiya tomonidan uzatgichning chiqish quvvati darajasini o'zgartirish komandalari beriladi, mobil stansiyadan tayanch stansiyaga esa, qabul qilgichning kirish signali darajasini o'lchash ma'lumotlari uzatiladi.

Past chastotalar

ing. - low frequencies

rus. - низкие частоты

30 kHz dan 300 kHz gacha bo'lgan diapazondagi chastotalar sohasi.

«Pastdan yuqoriga» dasturlash

ing. - programming «bottom up»

rus. - программирование «снизу в вверх»

Umumiy sxemani ishlab chiqish yakunlanmagan bir vaqtda, protseduralar, kichik dasturlarni ishlab chiqishdan boshlanadigan dasturlarni ishlab chiqish metodikasi. Bunday metodika, ko'pincha ma'qul bo'lmagan natijalarga, qayta ishlashlarga va ishlab chiqish vaqti oshib ketishiga olib keladi. Ikkinchi nomi – ko'tarilib boradigan dasturlash.

Pastga mexanik og'ish

ing. - mechanical downtilt

rus. - механический наклон вниз

Antennaning, antenna tuzilmasini mustahkamlash fizik korrektirovka yo'li orqali amalga oshiriladigan, pastga og'ishi.

Pastga og'ish burchagi, antennaning

pastga og'ish burchagi

ing. - downtilt angle, antenna downtilt angle

rus. - угол наклона вниз,

угол наклона антенны вниз

Asosiy yaproq va gorizontal tekislik yo'nalishi o'rtasidagi burchak.

Pastki kolontitul

ing. - footer

rus. - нижний колонтитул

Har bir sahifaning ostiga qo'yiladigan yoki avtomatik tarzda takrorlanadigan bitta yoki bir nechta satr. Tez-tez yangilanib turiladigan hujjatning bob, versiya nomini va tuzilish sanasini joylashtirish uchun foydalaniladi.

Paufa

ing. - idle time, space

rus. - пауза

1. Oldingi aloqa seansi tugagan payt bilan keyingi aloqa seansi boshlangan payt orasidagi vaqt intervali.

2. Ikki moduliyatsiya usullarida signal bo'lmaydigan, uning qiymati esa, mantiqiy nolga teng bo'ladigan holat.

Paufada qayta ulash

ing. - idle handover

rus. - переключение в паузе

Aloqa mavjud bo'lmagan vaziyatda mobil stansiyaning bir tayanch stansiyadan boshqasiga qayta ulash protsedurasini.

Perfokartalarni uzatish

ing. - card feed

rus. - подача перфокарт

Perfokartani kirish kolodasidan o'qish yoki perforatsiya blokiga ko'chirish jarayoni.

Periferik qurilma

ing. - peripherals

rus. - периферийное устройство

Kompyuterga kiritish/chiqarish portlari orqali ulanadigan va keng ko'lamdagi vazifalar hal qilinishini ta'minlaydigan qurilmalar.

Periferik shina

ing. - peripheral bus

rus. - периферийная шина

Periferik qurilmalarni kompyuter bilan bog'laydigan kiritish-chiqarish shinalarining umumiy nomi.

Periferiya asbob-uskunalarini

ing. - peripheral equipment

rus. - периферийное оборудование

Alohida kompyuter bilan o'zaro ishlashi va u tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan

har qanday qurilma. Masalan, kiritish-chiqarish qurilmasi, tashqi xotira.

Perigey

ing. - perigee

rus. - перигей

Yer yo'ldoshi orbitasidagi, Yer markazidan minimal masofada joylashgan nuqta. Perigey Yer yo'ldoshining periapsisi hisoblanadi.

Periskopik antenna

ing. - periscope antenna

rus. - перископическая антенна

Machta yoki minoraning asosi va u uning cho'qqisiga tegishli ravishda joylashtiriladigan ikkita alohida: nurlantiruvchi va qayta nurlantiruvchi antennalardan tashkil topgan murakkab ko'zguli antenna.

Lzoh - Radioreleli aloqa liniyalarida qo'llaniladi.

Periteleviziye

ing. - peritelevision

rus. - перитеlevision

Televizordan, boshqa apparatura bilan birgalikda, televizion dasturni to'g'ridan-to'g'ri ko'rishdan farq qiluvchi maqsadlarda foydalanishga imkon beradigan uskuna.

Misollar - Videoo'yinlar, videograflar, maishiy videomagnitofon yoki maishiy kompyuterdan foydalanish.

Peritelevizion ajratgich

ing. - peritelevision connector

rus. - перитеlevisionный разъём

Ayrim turdagi televizorlarda, tashqi uskunani ulash, odatda, periteleviziyeni qo'llash uchun ko'zda tutilgan ko'p kontaktli ajratgich.

Pero

ing. - calligraphic pen

rus. - перо

Kiritish qurilmasi; ko'rinishiga qarab, displey ekranida yoza oladigan avtoruchkani o'zida ifodalaydi. Juda qulay kiritish vositasi, ayniqsa grafik ma'lumotlar uchun. Pero bilan qo'lyozma matnni ham kiritish mumkin, agar simvollarni optik aniqlash dasturi bo'lsa.

Peroli kompyuter

ing. - pen-based computer

rus. - перьевой компьютер

Ma'lumotlarni kiritish pero (yoki qalam) yordamida amalga oshiriladigan kompyuter.

Persepsion kodlash

ing. - perceptual coding

rus. - перцепционное кодирование

Raqamli audio yoki videosignallarni kodlash uchun zarur bo'lgan bitlar sonini, odam idrok etishi nuqtai nazaridan, ahamiyatli bo'lmagan axborotni tushirib qoldirish hisobiga kamaytirish usuli.

Perspektivaning buzilishi

ing. - garbling of prospect

rus. - искажение перспективы

Ko'z va uzatuvchi TV kamera bilan turli ko'rish burchaklari ostida qaraladigan cheklangan muhit.

Petabayt

ing. - peta byte (PB)

rus. - петабайт

Bir million gigabaytga teng xotira hajmining o'lchov birligi. Petabayt hajmli bazalar asosan telekompaniyalarda videoarxivlar uchun yaratiladi.

Petch-kord (qayta ulash shnuri)

ing. - patch cord

rus. - пэтч-корд (шнур переключения)

1. Krossda telekommunikatsiya sxemalarini ulash uchun foydalaniladigan, bir yoki har ikkala uchida konnektorlari bo'lgan kabel bo'lagi.

2. Petch-panelda ulanishlarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan, egiluvchan kabel birligi yoki konnektorli element.

Petch-panel (qayta ulash paneli)

ing. - patch panel

rus. - пэтч-панель (панель переключения)

1. Biriktirilgan konnektorlardan iborat, boshqarishni osonlashtiruvchi kross-tizim.

2. Petch-kordlardan foydalanish uchun loyihalashtirilgan kross. Ko'chishlarda va o'zgarishlar kiritishda boshqaruvni osonlashtiradi.

Peyjer**ing.** - pager**rus.** - пейджер

Radiopeyjing – shaxsiy radiochaqiruv tizimi orqali uzatiladigan xabarlarni qabul qiladigan individual abonent qurilmasi.

Peyjerli aloqa**ing.** - pager communication**rus.** - пейджерная связь

Alifbo-raqamli bir tomonlama radioaloqa tizimi. Tizim uzulida o'ta yuqori chastotalarda ishlaydigan radiouzatgich o'rnatiladi. Tizim abonentlari har doim o'z'lari bilan xabarlarni qabul qiluvchi qurilma – peyjer olib yuradilar. Peyjer – bu, xabar aks etadigan displeyli qabul qilgichdir. Xabarni peyjeriga uzatish uchun, peyjerli aloqa tizimi operatorining telefon raqamini va peyjer raqamini bilish zarur. Operator telefon orqali uzatiladigan xabarni olgach, uni kompyuterga kiritadi. Kompyuter peyjeriga alifbo raqamli radioxabar jo'natadi.

Peyjing**ing.** - paging**rus.** - пейджинг

Radioaloqa (telekommunikatsiya) xizmati bo'lib, abonentlarga bir yo'nalishda akustik chaqiruv signallarini uzatish uchun mo'ljallangan. qabul qiluvchi displeyida chaqiruvni aks ettirish uchun zarur ma'lumotlar ham uzatiladi.

Pikouya**ing.** - picocell**rus.** - пикосота

Mobil aloqa tizimidagi, ta'sir doirasi juda kichik (10–100 m) bo'lgan, xizmat ko'rsatish sohasi. Pikouya aholi zichligi yuqori bo'lgan yerlarda, masalan, yirik supermarketda, ofis va boshqalarda vujudga keltiriladi.

Piksel, nuqta**ing.** - pixel**rus.** - пиксель, точка

Tasvirming minimal elementi. Tasvirlarning ajrata olish qobiliyatini o'lchash uchun xizmat qiladi. Videotasvirda to'g'ri burchak, fotokadrlarda kvadrat shakliga ega.

Piktogramma**ing.** - icon (pictogram)**rus.** - пиктограмма

Qandaydir harakatning, ogohlantirishning, obyektning (dastur, fayl) yoki tushunchaning grafik tasviri. Grafik interfeyslarda tezda tushunish va o'zlashtirish uchun foydalaniladi, bunda eng umumiy, tushunarli obrazlar tanlanadi.

Pilot-signal**ing.** - pilot**rus.** - пилот-сигнал

1. **Eltuvchi** chastotada nurlanadigan va odatda sinxronlashtirish uchun foydalaniladigan modulyatsiyalanmagan signal. Radio-to'lqinlarning tarqalish sharoitlarini nazorat qilish uchun bitta yoki turli eltuvchi chastotada nurlanadigan bir nechta pilot-signal qo'llaniladi.

2. **Spektri kengaytirilgan** tizimlarda – umumiy chastotalar polosasida boshqa foydali signallar bilan birgalikda uzatiladigan kodli ketma-ketlik.

Izoh – Pilot-signalning nurlanishi, shuningdek, berilgan tayanch stansiya xizmat ko'rsatadigan zonada joylashgan barcha mobil stansiyalar qabul qila olishi uchun, keng eshittirish rejimida ham amalga oshiriladi. Pilot-signal yordamida kadmi sinxronlash va eltuvchining kogerent tiklanishi ta'minlanadi, shuningdek, bu xil signal stansiyani tezda izlab topish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni ham ichiga olishi mumkin.

Pilot-signal kanali**ing.** - pilot channel**rus.** - канал пилот-сигнала

Pilot-signal kodli ketma-ketligi uzatiladigan kanal.

Izoh – IS-95 standartida «faqat nollan» nuridagi ketma-ketlik. Pilot-kanal dastlabki sinxronlashni o'rnatish, radiokanalning uzatish koeffitsiyenti va qabul qilinadigan signallar fazasini baholash, uyalarni izlashda tayanch stansiyalarni identifikatsiyalash hamda xendoverni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Ping**ing.** - ping**rus.** - пинг

Ingilzchadan tarjimai «taqillatmoq» so'zini bildiradi. Tarmoq kompyuteri o'rtasida paketlarning o'tish vaqtini o'lchash ping buyrug'i orqali amalga oshiriladi. Domen va istalgan tarmoq qurilmasining IP-man-

zili orasida muvofiqlikni o'ratish imkonini beradi.

Pir

ing. - peer

rus. - пир

Tarmoqning, servislarni teng darajadagi tarmoqning boshqa qatnashchilariga taqdim etadigan va o'zi ham ularning servislaridan foydalanadigan teng huquqli qatnashchisi (foydalanuvchi).

Izohlar

1. Ko'pincha, fayl almashinadigan tarmoqlarda tarqatishda ishtirok etadigan mijoz pir deb ataladi.

2. Pir mijoz-server arxitekturasida mijoz yoki serverning qarama-qarshisi hisoblanadi, chunki servislarni ifodalaydi va ulardan foydalanadi.

Piring

ing. - peering

rus. - пиринг

Internet operatorlarining o'z tarmoqlari orasida trafik almashish. Piring tarmoqlar orasida paketlarni uzatish marshrutlarini qisqartirish va trafik xarajatlarini kamaytirishga imkoniyat yaratadi. Trafik almashishning shahar yoki milliy nuqtalarini yaratish bitta shahar yoki mamlakat pro-vayderlari o'rtasida ma'lumotlarni uzatganda shaharlararo va xalqaro aloqa kanallaridan foydalanmaslikka imkon beradi.

«Pirpirak»

ing. - turnstile

rus. - «вертушка»

Solaris operatsion tizimidagi sinxronlanuvchi primitiv. Sinxronlash uchun zarur bo'lganda, yoki adaptiv myuteksdan, yoki o'quvchilar-yozuvchilarni blokirovkalovchidan foydalanishga imkon beradi.

Piyoda abonent

ing. - pedestrian user

rus. - абонент-пешеход

Abonentlar toifasi. Yer usti mobil aloqa tarmoqlarining barcha abonentlari shartli ravishda uch toifaga ajratilgan: tez harakatli, kam harakatli va statsionar (turg'un). Kam harakatli obyektlar toifasiga, harakat tezligi 3 km/h, ma'lumot uzatish teziigi esa 384 Kbit/s gacha bo'lgan piyoda abonentlar kiradi.

«Pishloq» turidagi antenna (segment-parabolik antenna)

ing. - cheese antenna

rus. - антенна типа «сыр»

(сегментно-параболическая антенна)

Parabolik silindr (yarim silindr) ko'rinishidagi ko'zgu va o'qqa nisbatan siljigan nurlagichdan iborat segment-parabolik antenna.

Plagin

ing. - plugin

rus. - плагин

Asosiy dasturga dinamik tarzda ulanadigan, dasturning imkoniyatlarini kengaytirish va/yoki undan foydalanish uchun mo'ljallangan mustaqil ishga tushuriluvchi dasturiy modul. Plaginlar odatda taqsimlangan bibliotekalar ko'rinishida ishlaydi.

Planar to'lqin o'tkazgich

ing. - planar waveguide

rus. - планарный волновод

Yassi va tekis taglikka kiritilgan yassi tuzilmalar asosidagi to'lqin o'tkazgich.

Plank chizig'i

ing. - Planckian locus

rus. - линия Планка

Turli temperaturaga ega bo'lgan Plank nur tarqatgichlari (mutlaq qora jism) ranglilik nuqtalarining geometrik o'rimi.

Planshetli kompyuter

ing. - tablet PC

rus. - планшетный компьютер

Ekran bilan bog'langan qo'lda kiritish planshet qurilmasi bilan jihozlangan noutbuklar turkumi. Planshet kompyuter stilus yoki barmoqlar yordamida, klaviatura va «sichqoncha»siz ishlashga imkon beradi. Foydalanuvchi matnini qo'lyozmani aniqlash dasturi, ekrandagi (virtual) klaviatura, nutqni tanish dasturi yoki oddiy klaviatura orqali kiritishi mumkin.

Planshetli skaner

ing. - flatbed scanner

rus. - планшетный сканер

Fotosuratlar, qog'oz hujjatlar, slaydlar ni skanlash uchun foydalaniladigan sahifa skanerlarining keng tarqalgan va arzon turidan biri.

Plastik karta**ing.** - plastic card**rus.** - пластиковая карта

Kartadan foydalanuvchi shaxsга tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz haq to'lash, shuningdek, to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan bank bo'limlarida va bankomatlardan naqd pul mablag'larini olish imkonini beruvchi shaxsiylashtirilgan to'lov vositasi.

Plastik optik tola**ing.** - plastic optical fiber**rus.** - пластическое оптическое волокно

Plastikdan tayyorlangan optik tolali kabel. Shisha tolaga nisbatan kattaroq so'nish va sochilish qobiliyatiga ega.

«Plastik» rouming**ing.** - «plastic» roaming**rus.** - «пластиковый» роуминг

Abonentning mahalliy operator bilan uning xizmat ko'rsatish imkoniyati to'g'risida oldindan kelishib oladigan va undan xizmat ko'rsatadigan operatorga taalluqli boshqa abonent raqamini, unga o'zining mobil raqamiga kiruvchi barcha chaqiruvlarni qayta manzillash bilan oladigan «mexanik» rouming turi.

Plata**ing.** - card**rus.** - плата

IBM-PCli kompyuterlar arxitekturasining qo'shimcha, alohida elementi.

Platadagi kompyuter**ing.** - board computer**rus.** - компьютер на плате

Bitta platada amalga oshirilgan (bajarilgan) bita kompyuter.

Platani identifikatsiya qilish tuzilmasi**ing.** - card identification structure (CIS)**rus.** - структура идентификации платы

Kompyuterga o'z xarakteristikalarini - xotira va bufferlarning mavjudligini, uzatiladigan ma'lumotlarning formati va h.k.larni yetkazish imkonini beradigan tuzilma.

Platforma**ing.** - platform**rus.** - платформа

Oddiy kompyuterlarda yoki mobil tele-

fonlarga o'rnatilgan operatsion tizim turi. Zamonaviy smartfonlar uchun 4 ta asosiy turdagi platforma mavjud: Palm OS, Symbian, Linux va Pocket PC/Windows Mobile.

Platformaning barqarorligi**ing.** - platform stability**rus.** - стабильность платформы

Tizimni ta'mirlash yoki modernizatsiya qilish uchun qo'shimcha komponentlarning mavjudligi, shuningdek, uchinchi tomon dasturiy ta'minot qismlarini qo'llab-quvvatlash yoki ulami almashtirish imkoniyati uchun ijobiy prognoz.

Platformaning ko'lamdorligi**ing.** - scalable platform**rus.** - масштабируемость платформы

Platformaning komponentlarni modernizatsiyalash hisobiga samaradorlikni oshirishga tayyorligi.

Plazmalı antenna**ing.** - plasma aerial**rus.** - плазменная антенна

Metall o'tkazgichlarning o'miga radio-to'lqinlarni qabul qilish va uzatish uchun ionlangan gaz - yuqori elektr o'tkazuvchanlikka ega plazma ishlatiladigan radioantennalar turi.

Plazmalı display**ing.** - plasma display**rus.** - плазменный дисплей

Yuzasiga o'rnatilgan parallel elektrodlar bilan ikki mustahkamlangan shisha platalari orasiga neon/ksenon gazlari aralashmasini zichlash yo'li bilan ishlovchi yassi paneli display turi. Platalar elektrodlar to'g'ri burchaklarni tashkil qilib piksellarni yaratishi mumkin bo'lgan holda mustahkamlanadi. Ikkita elektrod orasida kuchlanish impulsi o'tganda, gaz bo'linib, ultrabinafsha nurlanishni chiqaruvchi kuchsiz ionlangan plazmani ishlab chiqaradi. Ultrabinafsha nurlanish rang fosforlarini aktivlashtiradi va har bir pikseldan ko'zga ko'rinadigan yorug'lik chiqadi.

Plenum**ing.** - plenum**rus.** - пленум

1. Bino ichidagi havo quvuri, u orqali ka-

bel tortilishi yoki unda kabel o'ratilishi mumkin.

2. Havo taqsimlash tizimining bir qismini tashkil etuvchi, bitta yoki undan ortiq havo o'tkazuvchi kanal ulanadigan bo'shliq yoki xona.

Pleziokxon raqamli iyerarxiya

ing. - plesiochronous digital hierarchy (PDH)

rus. - плезиохронная цифровая иерархия
Ma'lumotlarni yuqori tezlikda pleziokxon (deyarli sinxron) uzatish konsepsiyasi. O'tgan asrning 80-yillari boshida ishlab chiqilgan. Hozirgi vaqtda iyerarxik tezliklarning uch sathi keng tarqalgan. Ular tezligi 64 kbit/s bo'lgan DSO raqamli kanal asosida qurilgan. Evropada boshlang'ich tezlik sifatida 2,048 Mbit/s, AQSh da esa, 1,544 Mbit/s tanlangan.

Pleziokxon signallar

ing. - plesiochronous signals

rus. - плезиохронные сигналы

Nominal tezliklari bir xil, biroq taktil signal manbalari turlicha bo'lgan sinxron signallar, shu sababli joriy tezlik qiymatlari, ruxsat etilgan chegarada farq qilishi mumkin.

Pleziokxon tarmoq

ing. - plesiochronous network

rus. - плезиохронная сеть

Tayanch generatorlar chastotalari bir-biridan amalda farq qilmaydigan tarmoq. Buning oqibatida belgilarning o'tib ketishini keltirib chiqaradigan yo'qotishlar juda kam bo'ladi.

Plombir puansoni

ing. - puncheon sealing tool

rus. - пуансон пломбира

Pochta buyumlari, pochta, kuryerlik jo'natmalari va shuningdek qimmatbaho buyumlar saqlanadigan omborxonalar va magistral pochta yo'nalishlari bo'yicha pochtni tashiydigan pochta avtomashinalarining plombalanadigan pochta aloqasi obyektini nomining izini plastmassa yoki qo'rg'oshin plomblarga tushirish uchun mo'ljallangan maxsus qurilma.

Plotter

ing. - plotter

rus. - плоттер

Grafik axborotni qog'oz tashuvchiga yoki

boshqa bir tashuvchiga chiqarish qurilmasi. Izoh - Peroli, qalamli, purkagichli, elektrostatik grafituzgichlar, tasvir to'g'ridan-to'g'ri chiqariladigan plotterlar, termoplotterlar va lazer grafituzgichlar ajratiladi.

«Plyus» xizmati

ing. - service «Plus»

rus. - услуга «Плюс»

Ob-havo ma'lumoti, valyuta kursi, abonentning hisob holati, oxirgi to'lov to'g'risidagi ma'lumotlar, shoshilinch xizmatlarning telefon raqamlari to'g'risida va boshqa ma'lumotlarni olish imkoniga ega xizmat.

Podkasting

ing. - podcasting

rus. - подкастинг

Inglizcha «iPod» va «broadcasting» so'zlaridan kelib chiqqan. Vebda audio eshitirishlar yoki video ko'rsatuvlar (podkastlar)ni yaratish va tarqatish jarayoni. Odatda podkastlar muayyan mavzu va chop etilish doimiyligiga ega bo'ladi. Podkastlarni eshitish yoki ko'rish uchun maxsus dasturiy mahsulotlar mavjud.

Podyezd pochta yo'nalishi

ing. - access postal route

rus. - подъездной почтовый маршрут

Pochta aloqasi obyektini (tuman yoki shahar pochta aloqasi bog'lamasini, pochta aloqasi bo'limi, pochta almashinuv punkti)ni pochta almashinuvi amalga oshiriladigan temir yo'l stansiyasi, aeroport bilan bog'lovchi pochta yo'nalishi.

Polibiy kvadrati

ing. - Polybius checkerboard

rus. - квадрат Полибия

Grek tarixchisi Polibiy tomonidan tavsiflangan bir alifboli kriptotizim. O'zida 5x5 kvadratni ifodalaydi. Ochiq matnning har bir simvoli ochiq matnning simvoli joylashgan ustun va satrni ko'rsatuvchi juft simvollar bilan almashtiriladi.

Polimorf viruslar

ing. - polymorphic viruses

rus. - полиморфные вирусы

Zararlangan dasturlarda o'z kodini, aynan bir virusning ikkita nusxasi birorta ham bitda mos tushmaydigan qilib o'zgartiradigan viruslar.

Polimorfizm

ing. - polymorphism

rus. - полиморфизм

Kichik dasturlar (protseuralar, funksiyalar) ning, ma'lumotlarni ularning turiga bog'liq holda turli algoritm bo'yicha qayta ishlash xususiyati; obyektga yo'naltirilgan dasturlashda keng foydalaniladi.

Polosa

ing. - bandwidth

rus. - полоса

Chastotaning ikki qo'shni qiymatlari o'rtasidagi o'zgarmas chastotalar diapazoni. Shuningdek, chastotalar polosasini deb ham ataladi.

Izoh - Optik-tolali kabelni tavsiflashda bu atamadan faqat ko'p modali tolalarning o'tkazish qobiliyatini aniqlashda foydalaniladi. Bir modali tolalar uchun «dispersiya» atamasi ishlatiladi.

Polosa filtri

ing. - bandpass filter

rus. - полосовой фильтр

Qirqimning yuqori va nolinchisi bo'lmagan quyi chastotasi bilan cheklangan muayyan chastotalar polosasini o'tkazuvchi filtri. Berilgan polosadan tashqarida qolgan barcha chastotalar filtri tomonidan bostiriladi. Qirqimning quyi chastotasi nolinchisi, yuqori chastotasi esa oxirgi chastota bo'lsa, u holda bunday filtri quyi chastotalar filtri deyiladi. Qirqimning uzluksiz katta yuqori chastotasi-ga hamda quyi chegara bo'yicha cheklashga ega bo'lgan filtri yuqori chastotalar filtri deb ataladi.

Polosadan tashqari nurlanish

ing. - out-of-band emission

rus. - внеполосное излучение

Modulyatsiya jarayoni natijasi bo'lgan, lekin nomaqbul nurlanishlarni ichiga olmaydigan, chastotalar polosasining zarur kengligiga bevosita tutashadigan chastota yoki chastotalardagi nurlanish.

Polosalar qadami

ing. - step of bands

rus. - шаг полос

Bitta rangning qo'shni piksellari o'rtasidagi masofani o'lchash usuli, apertura panjarali monitorlarda qo'llaniladi. Polosalar qadami vertikal polosalar orasidagi masofa sifatida o'lchanadi.

Polosali liniya

ing. - strip line

rus. - полосковая линия

O'rtasidan ensiz metall tasma ko'rinishidagi o'tkazgich o'tgan, bir-biriga qaratilgan keng sirtlar orqali yaqin joylashgan ikki metall tasma hosil qilgan uzatish liniyasi. Metall tasmlar o'rtasiga dielektrik sirtiga yuqqa surtilgan folga qatlamlar qo'llanilishi mumkin.

Polosali to'lqin o'tkazgich

ing. - strip waveguide

rus. - полосковый волновод

Dielektrik bilan ajratilgan metall polosalardan iborat to'lqin o'tkazgich.

Polosali vibrator

ing. - strip dipole; strip vibrator

rus. - полосковый вибратор

Ochiq polosasini liniya kesimi ko'rinishidagi dielektrik qatlamida joylashgan vibrator.

Port

ing. - port

rus. - порт

1. Tashqi qurilmani mikroprotsessorning ichki shinasiga ulash nuqtasi.

Izoh - Dastur ma'lumotlarni portga yuborish yoki ularni portdan olishi mumkin.

2. Biriktirish qurilmasi, uning yordamida kompyuterning tezkor xotirasini yoki markaziy protsessor ma'lumotlar uzatish maqsadida boshqa qurilmalar bilan bog'lanishi mumkin.

Port tartib raqami

ing. - port number

rus. - номер порта

Bitta kompyuterda tarmoq orqali aloqa qila oladigan bir necha dasturni yurgizish mumkin. Ushbu dasturlarni ajratish uchun ularga yurgizilish paytida shaxsiy port tartib raqami beriladi. Port tartib raqami URLga kompyuter nomidan keyin yoziladi. Masalan, <http://www.site.com:80>

Portal

ing. - portal

rus. - портал

1. Internetga yoki Internet texnologiyasiga qurilgan korporativ tarmoqqa kirishning asosiy nuqtasi.

2. Spetsifik auditoriya uchun mo'ljallangan va axborot to'ldirish (kontent) birlashtirilishini, ushbu auditoriya uchun muhim bo'lgan axborot yetkazilishini; birgalikda ishlashni va jamoaviy xizmatlarni; tanlangan auditoriya uchun mo'ljallangan, shaxsiylashtirish asosida taqdim etiladigan xizmatlardan va ilovalardan foydalanishni ta'minlaydigan veb-sayt.

Izoh – Portallar vazifasiga bog'liq holda umumfoydalanadigan (universal va ixtisoslashtirilgan) portallarga va korporativ (axborot va bilimlarni boshqarish) savdo (iste'mol va korporativaro) portallariga bo'linadi.

Portativ kompyuter

ing. - portable computer

rus. - портативный компьютер

Avtonom ta'minot manbaidan ishlay oladigan o'lchami kichik, ko'tarib yuriladigan shaxsiy kompyuter.

Portativ radiostansiya

ing. - walkie-talkie

rus. - портативная радиостанция

Nutqning past sifat bilan uzatilishini ta'minlaydigan va konvensional mobil radioaloqa tarmoqlari uchun mo'ljallangan stansiya.

Portlar skaneri

ing. - port scanner

rus. - сканер портов

Kerakli portlar ochiq bo'lgan tarmoq xostlarini izlash uchun xizmat qiladigan dasturiy vosita. Mazkur dasturlar odatda tizim administratorlari tomonidan o'z tarmoqlarining xavfsizligini tekshirish va badniyat shaxslar tomonidan tarmoqni buzish maqsadida qo'llaniladi.

Portlarni birlashtirish

ing. - port trunking

rus. - объединение портов

Ikki ta portni bir nechta (odatda, to'rttagacha) parallel liniya yordamida mustahkam bog'lash texnologiyasi. Birlashgan portning unumdorligi ishga solingan liniyalar unumdorligining yig'indisiga teng. Liniyalarning biri ishdan chiqsa, yuklama qolgan liniyalar o'rtasida teng taqsimlanadi.

Portlash

ing. - blowup

rus. - взрыв

Hisoblash tizimlarida – xato to'g'risida xabar berish bilan, dasturning keyinchalik

bajarilishiga to'sqinlik qiladigan avariyaaviy to'xtash.

Portni kengaytirgich

ing. - port expander

rus. - расширитель порта

Bir nechta (ketma-ket) liniyani kompyuterning bitta porti bilan bog'laydigan quzilma.

Posilka

ing. - package

rus. - посылка

O'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarida belgilangan, jo'natishga ruxsat etilgan sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, madaniy-maishiy va boshqa tovarlar solingan pochta, kuryerlik jo'natmasi.

Postfiks

ing. - postfix

rus. - постфикс

Asosiy element orqasidan yoziladigan, operator, komandani tavsiflash elementi; o'zining operandan keyin yoziladigan operatsiya. Masalan, Si tilida x**.

Postfiltratsiya

ing. - post-filtering

rus. - постфильтрация

1. Televizion videosignalni raqamli-analog signalga o'zgartirishdan keyin chastotaviy filtrlash.

2. Videoma'lumotlarni MPEG-dekodlashdan so'ng qayta ishlash jarayoni. Signalni yanada aniqroq tiklashga ko'maklashadi.

Postmaster

ing. - postmaster

rus. - постмастер

Pochta serverining turli sozlamalarini boshqarish uchun mo'ljallangan ma'muriy qayd yozuvi.

Postuslovie

ing. - post-condition

rus. - постусловие

Haqiqiyliги protsedura yoki sikl jismi bajarilgandan keyin tekshiriladigan shart.

Potensial imkoniyatlar

ing. - capacity

rus. - потенциальные возможности

Mahsulot yoki tizim parametrlari chekka qiymatlarining talablarga mos kelishlik darajasi.

Potensial kalit

ing. - candidate key

rus. - потенциальный ключ

Ortiqcha axborotsiz axborot bazasida qatorni aniqlaydigan atributlar kombinatsiyasi. Har bir jadval bir nechta potensial kalitga ega bo'lishi mumkin. Bularidan biri asosiy kalit sifatida tanlanadi.

Potensial zaiflik

ing. - potential vulnerability

rus. - потенциальная уязвимость

Taxmin qilinayotgan, lekin tasdiqlanmagan zaif joy.

Izoh - FXTni o'zgartirish maqsadida, hujumlarning bo'lish ehtimoli taxminiga asoslanadi.

Poynting vektori

ing. - Poynting vector

rus. - вектор Пойнтинга

Elektromagnit maydon energiyasi oqimini-ning vektor zichligi.

Pozitiv modulyatsiya (televideniya)

ing. - positive modulation (in television)

rus. - позитивная модуляция

(в телевидении)

Modulyatsiyalovchi videosignalda qoradan oqgacha bo'lgan o'zgarish amplitudaviy modulyatsiyada modulyatsiyalovchi signal amplitudasining oshishiga yoki chastotaviy modulyatsiyada oniy chastotaning oshishiga mos keladigan modulyatsiya.

Pozitiv (negativ) amplitudaviy modulyatsiya

ing. - positive (negative)

amplitude modulation

rus. - позитивная

(негативная) амплитудная модуляция

Tasvir eltuvchini televidizion videosignal bilan amplitudaviy modulyatsiyalash. Bunda signal ko'lamining oshishi modulyatsiyalangan eltuvchi ko'lamining oshishiga (kamayishiga) olib keladi.

Pozitiv uzatish

ing. - positive transmission

rus. - позитивная передача

Tasvir axborotini shunday usulda uzatishki, bunda dastlabki jadallikning oshishi uzatildigan quvvatning oshishiga olib keladi.

Pozitiv videosignal

ing. - positive video signal

rus. - позитивный видеосигнал

Oniy qiymatlari qoradan oqga o'tishda ko'payadigan videosignal.

Pozitsion sanoq tizimi

ing. - positional computation system

rus. - позиционная система счисления

Sonlarni yozishda raqamlarning joylashgan o'rni ahamiyatga ega bo'ladigan sanoq tizimi. Har bir pozitsion sanoq tizimida asos mavjud bo'ladi. Har qanday son asos raqamlardan tuzilgan ketma-ketlik ko'rinishida yoziladi. Asos raqamlari soni asosning o'ziga teng bo'ladi. Asos, har bir raqamning salmog'i katta qo'shni razryadda turgan raqam salmog'idan necha marta kichikligini ko'rsatadi. Qurilgan pozitsion sanoq tizimlarining soni har qanday bo'lishi mumkin. Informatikada asosan to'rtta tizimdan: o'nlik, ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik tizimdan foydalaniladi. Pozitsion sanoq tizimlari hisoblashlar, ham butun, ham kasr sonlarni ko'rsatish uchun juda qulay.

Pochta

ing. - post

rus. - почта

1. Pochta, kuryerlik jo'natmalari va pochta buyumlarining majmui.

2. Odamlarning o'zaro muloqot qilish usullaridan biri. Haqiqiy hayotda ham, Internet tarmog'ida ham mavjud. Bu jarayonda ikki tomon ishtirok etadi: jo'natuvchi va qabul qiluvchi. Jo'natuvchi boshqa odamga yoki odamlar guruhiga xat yozayotgan tomon, oluvchi esa xatni qabul qilishi ko'zda tutilgan odam yoki odamlar guruhidir.

Pochta almashinuv punkti

ing. - postal exchange office

rus. - почтовый обменный пункт

Pochta aloqasi obyekti va transport o'rtasida pochtni vaqtinchalik saqlash, ishlov berish va almashish maqsadida tashkil etilgan pochta aloqasi obyekti.

Pochta almashinuvi

ing. - mail exchange

rus. - обмен почты

Transport yordamida pochta aloqasi obyekti.

lari va pochta aloqasi obyektini xodimlari va transport o'rtasidagi pochtni qabul qilish-topshirish jarayoni.

Izoh – Pochta faqat qabul qilinishi yoki faqat topshirishi amalga oshirilsa, bunda almashuv faqat bir tomonlama hisoblanadi.

Pochta aloqasi

ing. - postal telecommunication

rus. - почтовая связь

Pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berishni (topshirishni) ta'minlovchi texnika va transport vositalarining yagona ishlab chiqarish-texnologiya majmuidan iborat aloqa turi.

Pochta aloqasi bog'lamasi

ing. - postal communication node

rus. - узел почтовой связи

Pochta yo'nalishlarining kesishgan yoki tutashgan punktida joylashgan, birlashtirilgan hududda pochta va kuryerlik jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish), pochtaga ishlov berish va uning almashuvini bo'yicha o'zaro bog'liq vazifalar bajarilishini ta'minlovchi pochta aloqasi obyektini.

Pochta aloqasi bo'limi

ing. - post office

rus. - отделение почтовой связи

Foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini, boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, pochtaga ishlov berish va uning almashuvini amalga oshiruvchi pochta aloqasi obyektini.

Pochta aloqasi obyektlari

ing. - postal objects

rus. - объекты почтовой связи

Pochta aloqasi operatorlarining alohida bo'linmalari (pochtamtlar, pochta aloqasi bog'lamalari, bo'limlari, punktlari, shuningdek, boshqa bo'linmalar).

Pochta aloqasi operatori

ing. - postal operator

rus. - оператор почтовой связи

Mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida pochta aloqasi tarmog'iga egalik qiluvchi va faoliyatning asosiy turi sifatida

pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs.

Pochta aloqasi provayderi

ing. - postal service provider

rus. - провайдер почтовой связи

Foydalanuvchilarga pochta aloqasi operatorlarining tarmog'i orqali pochta, kuryerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Pochta aloqasi tarmog'i

ing. - postal network

rus. - сеть почтовой связи

Pochta aloqasi obyektlari va pochta yo'nalishlari majmuidan iborat aloqa turi.

Pochta aloqasi tayinlangan operatori

ing. - designated postal service provider

rus. - назначенный

оператор почтовой связи

O'zbekiston Respublikasi hududida pochta aloqasini amalga oshirish va Umumjahon pochta ittifoqining xujjatlaridan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan pochta aloqasi operatori.

Pochta aloqasi vositalari

ing. - means of postal communication

rus. - средства почтовой связи

Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish uchun foydalaniladigan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, asbob-uskunalar, texnika va transport vositalari, shuningdek, pochta konvertlari, varaqchalari va taralar.

Pochta aloqasi xizmatlari

ing. - postage services

rus. - услуги почтовой связи

Pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta va kuryerlik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha faoliyatini.

Pochta aloqasi xizmatlari uchun tarif

ing. - tariff for postal services

rus. - тариф на услуги почтовой связи

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish uchun maxsus vakolatli organ, pochta aloqasi operatori yoki provayderi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilanadigan to'lov miqdori.

Pochta aloqasining asosiy xizmatlari

ing. - basic postal services

rus. - основные услуги почтовой связи

Pochta aloqasining pochta, kuryerlik jo'natmalari, shuningdek, pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha xizmatlari.

Pochta aloqasining hududiy

(viloyat) tashkiloti

ing. - regional (oblast) postal organization

rus. - региональная (областная)

организация почтовой связи

Pochta aloqasi obyektlariga birlashtirilgan hududda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qiluvchi pochta aloqasi operatorining hududiy tarkibiy bo'linmasi.

Pochta aloqasining ishlab

chiqarish jarayoni

ing. - manufacturing process of post office

rus. - производственный

процесс почтовой связи

Pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha qat'iy tartibga solingan va o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish operatsiyalarining kompleksini tashkil qiluvchi xodimlarning barcha harakatlari va ishlab chiqarish uskunalari jami.

Pochta aloqasining milliy operatori

ing. - national operator of postal service

rus. - национальный оператор

почтовой связи

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan zimmasiga O'zbekiston Respublikasi doirasida majburiy ravishda universal xizmatlar ko'rsatish vazifasi yuklatilgan pochta aloqasi operatori.

Pochta aviajo'natmasi

ing. - postal airmail

rus. - почтовое авиаотправление

Havo transporti orqali jo'natiladigan (barcha yo'llarda yoki uning ayrim uchastkalarida) pochta jo'natmasi.

Pochta-bagaj poyezdi

ing. - postal and baggage train

rus. - почтово-багажный поезд

Pochta va bagajni tashish uchun o'z tarkibi-

da asosan pochta hamda bagaj vagonlariga ega bo'lgan maxsus tuzilgan poyezd.

Pochta bloki

ing. - postage block

rus. - почтовый блок

Maxsus varaqda bir va undan ortiq qatorda bosilgan hamda markalarga nisbatan kengroq hoshiya bilan ajratilgan bitta yoki bir nechta pochta markasi.

Pochta bombasi

ing. - mail bomb

rus. - почтовая бомба

Saytni, pochta serverini ko'p sonli xatlarni yuborish orqali posilkasi bilan ishdan chiqarish yo'li bilan blokirovkalash. Sayt orqali hujum chog'ida xatlar olinishini bartaraf qilish yoki o'ch olish maqsadida ishlatiladi.

Pochta buyumi

ing. - mail item

rus. - почтовая вещь

Belgilangan tartibda yopilgan hamda rasmiy yashtirilgan qop yoki pochta konteyneri.

Pochta indeksi

ing. - post code

rus. - почтовый индекс

Pochta aloqasi obyekti manzilingizni shartli belgisi.

Pochta jo'natishning oddiy protokoli

ing. - simple mail transfer protocol (SMTP)

rus. - простой протокол пересылки почты

IP-protokollari to'plamiga kiruvchi protokol. RFC 0821da tavsiflangan I4 ta komandadan iborat. Internetda elektron pochtoni marshrutizatsiyalash uchun ishlatiladi (e-mail, IMAP, POP, TCP/IP).

Pochta jo'natmalari

ing. - postal item

rus. - почтовые отправления

Manzili ko'rsatilgan yozma xat-xabarlar, posilkalar va tegishli o'rovdagi bosma nashrlar.

Pochta konteyneri

ing. - postal container

rus. - почтовый контейнер

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini tashish va vaqtinchalik saqlash uchun mo'ljallangan maxsus konteyner.

Pochta konverti

ing. - postal envelope

rus. - почтовый конверт

Yozma xabarni o'rash uchun xizmat qiladigan, yelimlash uchun klapanlari bo'lgan, belgilangan o'lchamlardagi to'g'ri burchak shaklidagi qog'ozli qobiq.

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini ochiq holda jo'natish

ing. - open forwarding of postal, courier items

rus. - открытая пересылка почтовых, курьерских отправлений

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini pochta tarasiga berkitmasdan jo'natish.

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini yopiq holda jo'natish

ing. - secret forwarding of postal, courier items

rus. - закрытая пересылка почтовых, курьерских отправлений

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini pochta tarasida jo'natish.

Pochta, kuryerlik jo'natmasi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasini qayta jo'natish

ing. - sending postal, courier, postal money transfer

rus. - досылка почтового, курьерского отправления, почтового перевода денежных средств

Pochta, kuryerlik jo'natmasi, pul mablag'larining pochta o'tkazmasini arizaga asosan yangi manzil bo'yicha yoki yetkazib berishga asosan pochta aloqasi obyektining manzili bo'yicha yo'llashdan iborat ishlab chiqarish operatsiyasi.

Pochta, kuryerlik jo'natmasini indekslash

ing. - postal indexing, courier delivery

rus. - индексирование почтового, курьерского отправления

Pochta, kuryerlik jo'natmasiga jo'natilishi belgilangan joy pochta aloqasi obyektining pochta indeksini yozish.

Pochta ko'prigi (filtri)

ing. - mail bridge

rus. - почтовый мост (фильтр)

Bir nechta kompyuter tarmog'ini birlashtiradigan va ular o'rtasida elektron pochtni yuborish imkoniyatini ta'minlaydigan, shuningdek, berilgan manzilar bo'yicha uni saralaydigan (filtrlaydigan) qurilma.

Pochta manzili

ing. - post address

rus. - почтовый адрес

Tegishli pochta aloqasi obyektining pochta indeksi ko'rsatilgan foydalanuvchining turar joyi.

Pochta manzillari ro'yxati

ing. - mail list

rus. - список рассылки

Qabul qiluvchilarning elektron manzillari ro'yxati. Xat jo'natilayotganda «Kimga» jo'natilayotgani to'g'risida yoziladigan joyda manzillar ro'yxatini kiritish mumkin va bu xatni ro'yxatdagi barcha qabul qiladi.

Pochta markalari seriyasi

ing. - postage stamp series

rus. - серия почтовых марок

Yagona mavzuga yoki muayyan voqeaga bag'ishlangan, o'xshash rasmiylashtirish uslubiga ega.

Pochta markasi

ing. - postage-stamp

rus. - почтовая марка

Badiiy tasvirga ega bo'lgan, nominal qiymati va mamlakatini ko'rsatgan holda, bosma usulda tayyorlangan pochta to'lovining davlat belgisi.

Pochta markasining asli

ing. - original postage stamp

rus. - оригинал почтовой марки

Pochta markasi eskizini tayyorlash uchun dastlabki asos bo'lib hisoblanadigan rasm.

Pochta markasining eskizi

ing. - sketch of a postage stamp

rus. - эскиз почтовой марки

Pochta markasining namunasi tayyorlash uchun dastlabki asos bo'lib hisoblanadigan rasm.

Pochta markasining namunasi

ing. - sample postage stamp

rus. - образец почтовой марки

Pochta markasining eskiziga muvofiqligi ni tekshirish va keyingi nashr etishga tasdiqlash uchun qimmatli qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarish huquqiga ega tashkilotlar tomonidan tayyorlangan, «Namuna» yozuvi.

Pochta markasining nominal qiymati

ing. - nominal value postal stamp

rus. - номинальная стоимость почтовой марки

Yozma xat-xabarlarini jo'natish bo'yicha xizmatlarning pochta markasida arab raqamlari yoki lotin harflari bilan ko'rsatiladigan qiymati.

Pochta mijosi

ing. - mail client

rus. - почтовый клиент

Xatlarni o'qish, qabul qilish, jo'natish va ular ustida boshqa operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan dastur. Ushbu dastur yordamida foydalanuvchi pochta va News-serverlar bilan ishlashi mumkin bo'ladi.

Pochta mulki

ing. - mails stores

rus. - почтовое имущество

Pochta aloqasi obyektlarida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish imkonini beruvchi predmetlar va moslamalar.

Izoh - Pochta mulkiga nomli buyumlar, shiampilar, tayanch punktlarning javonlari, seyflar, metall qutilar va javonlar, reklama uchun vitrinalar, pochta tamsi va h.k.kiradi.

Pochta protokoli

ing. - post office protocol (POP)

rus. - почтовый протокол

Serverdan elektron pochta olish uchun mo'ljallangan eng ommaviy protokol.

Pochta qoidalari

ing. - postal manual

rus. - почтовые правила

Pochta, kuryerlik jo'natmalari, shu jumladan, xalqaro pochta jo'natmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) tartibini belgilovchi hujjat.

Pochta qurti

ing. - email-worm

rus. - почтовый червь

Elektron pochta orqali har bir yetkazib berish ro'yxatidagi adresatlarga mustaqil tarzda tarqalish qobiliyatiga ega bo'lgan dastur.

Pochta qutisi

ing. - postbox

rus. - почтовый ящик

Pochta aloqasi milliy operatorining manzili ko'rsatilgan oddiy xatlar va pochta varaqchalarini yig'ish uchun mo'ljallangan, belgilangan shakl va o'lchamdagi qullfanadigan maxsus qutisi.

Pochta qutisi (elektron xabarlar saqlanadigan joy)

ing. - mailbox

rus. - почтовый ящик (хранящее

электронных сообщений)

Aniq foydalanuvchiga manzillangan, elektron pochta xabarlari to'planadigan xotira sohasi.

Pochta ro'yxatlari

ing. - mailing lists

rus. - почтовые списки

Global tarmoq servis turlaridan biri, tarmoqda ko'plab foydalanuvchilar - tarqatish ro'yxatining muayyan obunachilari uchun umumiy hisoblanadigan elektron pochta manzili ajratilganda, foydalanuvchi-obunachilar o'z xabarlarini umumiy manzil bo'yicha yuboradilar va bu xabarlar ushbu tarqatish ro'yxatiga obuna bo'lganlarning barchasiga jo'natiladi.

Pochta serveri

ing. - mail server

rus. - почтовый сервер

So'rovlar bo'yicha elektron pochta orqali fayllar yoki axborot jo'natadigan dastur.

Pochta taqvim shtempeli

ing. - postal date stamp

rus. - почтовый календарный штемпель

Pochta markalarini hisobdan chiqarish va/yoki pochta, kuryerlik jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari blanklari va/yoki ilova hujjatlari, kvitantsiyalarga pochta aloqasining tegishli

obyeti nomi, pochta vagoni, yo'nalishi, sanani tushirish uchun mo'ljallangan maxsus shtempel.

Pochta tarasi

ing. - postal tare

rus. - почтовая тара

Pochta, kuryerlik jo'natmalarini jo'natish uchun qo'llaniladigan maxsus qoplar, konteynerlar.

Pochta transporti yo'nalishi

ing. - mail transport route

rus. - маршрут почтового транспорта

Pochta tashiladigan temir yo'l, avtotrakt uchastkasi.

Pochta to'lovining davlat belgilari

ing. - state emblem postage

rus. - государственные

знаки почтовой оплаты

Pochta markalari hamda frankirlash mashinalarining pochta jo'natmalariga pochta aloqasi xizmatlari haqi to'langanligini tasdiqlash uchun tushiriladigan tamg'asi.

Pochta vagoni

ing. - postal van

rus. - почтовый вагон

Poyezd harakatlanayotgan yo'lda pochta tashish, ishlov berish va almashish uchun mo'ljallangan maxsus konstruksiyadagi temir yo'l vagoni.

Pochta varaqchasi

ing. - postcard

rus. - почтовая карточка

O'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalari-da belgilangan, ochiq holda jo'natiladigan maxsus blankdagi pochta, kuryerlik jo'natmasining turi.

Pochta xizmatlari

ing. - postal service

rus. - почтовые услуги

Pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta jo'natmalarini, shuningdek, pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha faoliyati.

Pochta yo'nalishi

ing. - postal route

rus. - почтовый маршрут

Transportning, pochta aloqasi o'rtasidagi, belgilangan tartibda o'zgaruvchi harakatlanish yo'li.

Pochta yo'nalishi rejasi

ing. - mail forwarding plan

rus. - план направления почты

Pochta yo'nalishining turli yo'llari mavjud bo'lganda, pochta jo'natish va o'tishining optimal tartibini belgilaydigan hujjat.

Pochta shlyuzi

ing. - mail gateway

rus. - почтовый шлюз

Ikki yoki bir necha turli elektron pochta tizimini bog'laydigan va ular o'rtasida xabarlar uzatilishini ta'minlaydigan mashina.

Pochtamt

ing. - postmaster office

rus. - почтамт

Shaharning markaziy qismida joylashgan, unga bo'ysunadigan pochta aloqasi bog'lamalari va/yoki bo'limlarida rahbarlikni amalga oshiradigan hamda pochta, kuryerlik jo'natmalari va pul mablag'larining pochta o'tkazmalarini jo'natish hamda yetkazib berish (topshirish)ni ta'minlaydigan pochta aloqasi obyekti.

Predikat

ing. - predicate

rus. - предикат

Predikatlarni hisoblashda mohiyatlar - dalillarning oxirgi to'plami o'rtasidagi muayyan munosabatni aks ettiruvchi maxsus belgi. Predikatlarni hisoblashning odatiy variantida keltirilgan dalillar to'plamida predikatning qiymati sifatida ikkita - chin va yolg' on qiymat ishtirok etadi.

Predmet sohasi modeli

ing. - domain model

rus. - модель предметной области

1. Bilimlar yoki tajriba muayyan sohasining modeli.
2. O'rganilishi, boshqa bir tizim to'g'risida axborot olish uchun vosita bo'lib xizmat qiladigan tizim.

3. Qandaydir real jarayon, qurilma yoki konsepsiyani taqdim etish.

Preprotessor

ing. - preprocessor

rus. - препроцессор

Ma'lumotlarning asosiy qayta ishlash jarayoniga qadar, masalan, kompilyatsiyadan oldin dastlabki qayta ishlashini bajaradigan dastur. Kompilyatorida bir nechta turli preprotessor bo'lishi mumkin, masalan, makroprotessor, fayllar qo'shish preprotessori, til kengaytmalarini qayta ishlash preprotessori.

Press-kit

ing. - press kit

rus. - пресс-кит

Loyiha, tashkilot yoki voqea to'g'risida batafsil axborot bo'lgan bir qancha matli, audio va vizual hujjatlar to'plami.

Press-reviz

ing. - press release

rus. - пресс-релиз

Matbuot uchun mo'ljallangan, joriy yoki yaqinlashib kelayotgan tadbirlar, voqealar to'g'risida muhim, jiddiy axborot bo'lgan maxsus byulleten.

Preyskurantdagi narx

ing. - listing price

rus. - прейскурантная цена

Milliy operator tomonidan pochta markalari va bloklari kolleksiyasi uchun belgilanadigan, preyskurantda qayd qilingan narx.

Primitiv

ing. - primitive

rus. - примитив

1. Dasturlarning bajarilish tezligini oshirish uchun, dasturlash tillariga kiritilgan funktsiya yoki operator.
2. Dasturni tuzishda foydalaniladigan asosiy element.

Print-server

ing. - print-server

rus. - принт-сервер

Lokal tarmoqda, ushbu tarmoqning barcha ishchi stansiyalari tomonidan, bitta printer-dan foydalanish qurilmasi.

Printer

ing. - printer

rus. - принтер

Ma'lumotlarni kompyuterdan qog'ozga, plyonkaga o'qish uchun qulay ko'rinishda chiqarish uchun xizmat qiladigan qurilma. Printerlar bosish usuli, vazifasi va bosma ranglari soni bo'yicha farqlanadi. Bosish usuliga ko'ra, matrisali, termik, purkagichli va lazer printerlarga bo'linadi; vazifasiga ko'ra, ko'tarib yuriladigan (bloknotli shaxsiy kompyuterlar uchun) shaxsiy, muassasa, mini tipografyalar; ranglar soniga ko'ra, bir rangli, rangli. Asosiy xarakteristikallari: chop etish tezligi (sekundiga belgi, minutiga sahi-fa, varaq); chop etish sifati (nuqta/dyuym).

Printerning ajrata olishi

ing. - printer resolution

rus. - разрешение принтера

Tasvirni chop etishda bir dyuymda yotgan nuqtalar soni. Masalan, 300-dpi (300 dyuymga 300 nuqta) ajrata olishga ega printer 1 dyuym chiziqqa 300 nuqtani choplay oladi. Bu degani u bir dyuym kvadratga 90 mingta nuqtani chop etishi mumkin.

Privatlik, xususiylik

ing. - privacy

rus. - приватность

Xususiy shaxsning shaxsiy hayoti yoki ishi-ga aralashuv natijasida shu shaxs ma'lumot-larini to'plash va ulardan foydalanish favqu-lodda yoki qonunga xilof ravishda bo'lgan-da bu aralashuvni taqiqlash.

Profillangan ko'zgu

ing. - shaped reflector, zoned mirror

rus. - профилированное зеркало

1. Maxsus profilga ega sirtqi antenna ko'zgu-si, uning shakli elektromagnit maydonni antennaning ochilishidagi taqsimlanishini aniqlab beradi.
2. Sirt profili antenna yo'nalganlik diagram-masining talab qilinadigan shaklidan kelib chiqib tanlanadigan ko'zgu.

Profillangan yo'nalganlik diagrammasi

ing. - contour beam

rus. - профилированная

диаграмма направленности

Xizmat ko'rsatish zonasining konturini,

xalaqitlarning darajasini pasaytirish maqsadida, uzatilayotgan trafikka muvofiq turli qismlari bo'yicha yoki alohida yo'nalishlar bo'yicha antennani kuchaytirishni o'zgartirishga imkon berib, takrorlaydigan murakkab shakldagi yo'nalganlik diagrammasi.

Profillangan yo'nalganlik diagrammasiga ega antenna

ing. - shaped antenna radiation pattern

rus. - антенна с профилированной диаграммой направленности

Yo'ldosh bort retransiyatorining antennasi, uning nurlantiruvchi xususiyatlari xizmat ko'rsatiladigan geografik mintqa hududini hisobga olib, tanlangan.

Programmator

ing. - programmer

rus. - программатор

Ma'lumotlarni, shu jumladan, dasturlarni doimiy xotira qurilmasiga yozish qurilmasi. Ma'lumotlar doimiy xotira qurilmasida elektron sxemalar ko'rinishida saqlanadi. Programmator qattiq ultrabinafsha nurlanish vujudga keltiradi, uning yordamida elektron sxemalar o'zgaradi.

Programmofon

ing. - softphone

rus. - программофон

Shaxsiy kompyuterdan telefon sifatida foydalanish imkonini beradigan dasturiy mahsulot. Programmofondan foydalanish uchun modem, mikrofon va radiokamay bilan jihozlangan kompyuter zarur bo'ladi.

Progressiv (satrma-satr) yoyish

ing. - progressive (line-be-line) scanning

rus. - прогрессивная (построчная) развертка

1. To'g'ri chiziqli yoyish, bunda galma-gal yoyiladigan satrlarning markazlari orasidagi masofa satrning nominal kengligiga teng bo'ladi.

2. Tasvir bitta maydon davomida to'liq yoyiladigan yoyish turi (televideniya).

Proksi server

ing. - proxy server

rus. - прокси сервер

Lokal kompyuter tarmog'i va Internet o'rta-

sida uzatiladigan paketlar filtrlashini amalga oshiradigan dasturiy ta'minot. Eng ko'p so'raladigan hujjatlarni keshlash hisobiga, tarmoq trafiginu kamaytirish va lokal tarmoq xavfsizligini oshirish uchun mo'ljallangan.

Prolog

ing. - prolog

rus. - пролог

Sun'iy intellekt masalalari, tabiiy va boshqa tillarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan deklarativ dasturlash tili.

Propriyatar dasturiy ta'minot

ing. - proprietary software

rus. - проприетарное

программное обеспечение

Mualliflar yoki huquq egalaring shaxsiy mulki bo'lgan dasturiy ta'minot. U erkin dasturiy ta'minot g'oyalarga to'g'ri kelmaydi. Erkin dasturiy ta'minot jamg'armasi nuqtai nazaridan qaraganda, u yarim erkin dasturiy ta'minot ham emas. Huquqqa ega tomon uni butunlay yoki muhim tomonlarini ishlatishda, nusxa ko'chirishda va o'zgartirishda monopolistik imkoniyatga ega. Propriyatar dasturiy ta'minotni erkin bo'la oladigan tijorat dasturiy ta'minoti bilan adashtirmaslik kerak.

Propriyatar texnologiya

ing. - proprietary technology

rus. - проприетарная технология

Bozoring aniq bir qatnashchisi tomonidan nazorat qilinadigan ma'lumotlar formati, texnologiya, elektron hisoblash mashinasi uchun dastur. Ular bozoring raqobatlashuvchi qatnashchilariga yoki boshqa foydalanuvchilarga bu format yoki texnologiyani erkin o'rganish, tarqatish, o'zgartirish yoki o'zlarining mos ishlanmalarini yaratish imkonini bermaydi.

Protector

ing. - protector

rus. - протектор

Metall telekommunikatsiya o'tkazgichlarida zararli yot kuchlanishlarni cheklash uchun foydalaniladigan qurilma.

Protokol

ing. - protocol

rus. - протокол

1. Ikki yoki bir nechta mustaqil qurilma yoki jarayon o'rtasida ma'lumotlar uzatish formati va tartibini tartibga soluvchi qoidalar va kelishuvlar majmui.

2. Ma'lum bir natijaga erishish maqsadida ikki va undan ko'p sub'ekt tomonidan berilgan ketma-ketlikda bajariladigan harakatlar (yo'riqnomalar, komandalar, hisoblashlar, algoritmlar)ning majmui.

Protokol identifikatori

ing. - protocol identifier

rus. - идентификатор протокола

Paket sarlavhasidagi, ma'lumotlar maydonida joylashtirilgan axborotni qayta ishlashda foydalaniladigan muayyan protokol turini ko'rsatuvchi maydon.

Protokollar analizatori

ing. - protocol analyzer

rus. - анализатор протоколов

Paketlarni aniqlashi va ayrim maydonlar mazmunini rasshifrovka qilgan (o'qigan) holda dekodlovchi yordamchi apparat-dasturiy kompleks. Zamonaviy analizatorlar turli protokollarning ma'lumotlarini qayta ishlashi mumkin.

Protokollar steki

ing. - protocol stack

rus. - стек протоколов

Ma'lum kommunikatsiya arxitekturasini amalga oshirib, birgalikda ishlaydigan, darajalarga bo'lingan protokollar to'plami. Odatda, u yoki bu darajaning vazifasi bitta yoki bir nechta protokol bilan amalga oshiriladi. Protokollar stekiga TCP/IP misol bo'ladi.

Prototip

ing. - prototype

rus. - прототип

Tizimning boshlang'ich versiyasi, uni baholash va/yoki muammo mohiyatini va talablarning to'g'riligini chuqurroq tushunish uchun xizmat qiladi.

Protsedura

ing. - procedure

rus. - процедура

Dasturning, umumiy holda kirish parametrlariga bog'liq bo'lgan ba'zi standart operatsiyalarni bajaradigan qismi. Protsedurani kichik dastur deb hisoblash mumkin.

larga bog'liq bo'lgan ba'zi standart operatsiyalarni bajaradigan qismi. Protsedurani kichik dastur deb hisoblash mumkin.

Izoh - Protseduralar standart protseduralar va foydalanuvchi protseduralarga, dasturga nisbatan tashqi va ichki protseduralarga bo'linadi. Standart protsedura dasturlash tili tarkibiga kiradi va tegishli biblioteka tarkibida yetkaziladi, foydalanuvchi protsedurasini har bir ishlab chiquvchi mustaqil yaratadi. Tashqi protsedura dasturga bog'liq bo'lmagan tarzda saqlanadi, ichki protsedura dastur tarkibiga kiradi.

Protsedura firibgarligi

ing. - procedural fraud

rus. - процедурное мошенничество

Aloqa xizmatlari to'lovini kamaytirish maqsadida, rouming va boshqa tarmoq protseduralaridan (masalan, billingdan) va-kolatsiz foydalanish.

Protsedura tili

ing. - procedural language

rus. - процедурный язык

Dasturchi natija olish uchun bajarilishi kerak bo'lgan qadamlar ketma-ketligini (yechim algoritmini) tavsiflaydigan dasturlash tili.

Protseduraga yo'naltirilgan dasturlash tili

ing. - procedure-oriented language coding

rus. - процедурно-ориентированный язык программирования

Asosiga «masalani hal qilish uchun nima qilish kerak» ish prinsipi qo'yilgan yuqori daraja dasturlash tili. Ishlar operatorlar tomonidan yoziladi va bajariladi. Pirovard natijani olish uchun bajarilishi zarur bo'lgan operatorlar ketma-ketligi to'planadi. Bunday ketma-ketlik dastur deb ataladi. Protsedura tillarini oddiy (BASIC, Fortran, COBOL) va blokli (modulli) (Pascal, Modula-2 va Si) tillarga ajratish mumkin. Protsedura tillari shuningdek, operator tillari yoki imperativ tillar deb ham ataladi.

Protseduralar bo'yicha xavfsizlik

ing. - procedural security

rus. - процедурная безопасность

Axborotning muhofaza qilinishiga kritik bo'lgan ma'lumotlar uchun, talab qilinadigan xavfsizlik darajasini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan tegishli boshqarish usullari.

Protseduraning lokal chaqiruvi**ing.** - local procedure call (LPC)**rus.** - локальный вызов процедуры

Lokal mashinada mijoz va server jarayonlari o'rtasidagi so'rovlar va natijalami uzatuvchi Windows protseduralarni chaqirishning tizimli mexanizmi. Operatsion tizimning turli kichik tizimlari xizmatlariga so'rov berish uchun foydalaniladi.

Protseduraning uzoqlashgan chaqiruvi**ing.** - remote procedure call (RPC)**rus.** - удаленный вызов процедуры

Sun firmasi tomonidan ishlab chiqilgan, lokal tarmoqning boshqa kompyuterida mijozda va axborotni hamda tartibga soladigan parametrlarni uzatadigan serverda protsedura-tiqinlardan foydalanib, protsedurani chaqirish mexanizmi va uzoqlashgan protseduraning natijasi.

Protseduraviy bo'lmagan til**ing.** - non procedural language**rus.** - непроцедурный язык

Relyatsion ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlarni boshqarish, o'zgartirish, yaratish uchun qo'llaniladigan universal kompyuter tili.

Protsessing markazi**ing.** - procession center**rus.** - процессинговый центр

To'lov tizimining xizmat ko'rsatish nuqtalaridan yoki ekvayrerlardan mualliflash-tirishga va/yoki tranzaksiyalar protokollariga kelib tushadigan rasmiy talablar qayta ishlanishini ta'minlaydigan, ixtisoslashgan servis tashkilot.

Protsessor**ing.** - processor**rus.** - процессор

Operatsion tizim dasturlari belgilagan arifmetik operatsiyalarning bajarilishiga javob beradigan va kompyuterning boshqa barcha qurilmalari ishini muvofiqlashtiradigan apparat ta'minoti.

Protsessor registri**ing.** - processor register**rus.** - регистр процессора

O'lchami odatda bir yoki ikki mashina so'zi-

ga teng bo'lgan, asosiy yoki oraliq ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan va mashina komandalarni bajarishda foydalaniladigan protsessor xotirasi.

«Protsessor – xotira» shinasi**ing.** - processor – memory bus**rus.** - шина «процессор – память»

Protsessor va xotira o'rtasida bevosita aloqaborot almashinish kanali.

Protsessor (yadro) ning takt chastotasi**ing.** - processor speed**rus.** - тактовая частота процессора (ядра)

Bitta eng oddiy mashina komandasini bajarish vaqti.

Protsessor yadrosi**ing.** - processor core**rus.** - ядро процессора

Kesh-xotiradan tashqari, protsessorning barcha bloklarini ichiga oladigan mikrosxema. Chip markazida odatda «yadro» deb nomlanadigan narsa joylashgan. Bu hamma hisoblashlar, yuklama va saqlashga so'rovlar, saqlashlar bajariladigan kremniy bo'lagidir.

Protsessordan foydalanish**ing.** - CPU utilization**rus.** - использование процессора

Protsessorni maksimal vaqt davrida bandlik rejimida ushlab turish. Optimallashtirish mezonlari: ushbu ko'rsatkichni maksimalashtirish.

Protsessordan**foydalanishga yo'naltirilgan****ing.** - central processing unit-bound**(CPU-bound)****rus.** - ориентированный на

использование процессора

Asosiy vaqtini hisoblashlarga ketkazadigan jarayon.

Protsessorni yuklashni rejalashtirish**ing.** - CPU scheduling**rus.** - планирование загрузки процессора

Algoritmlarning operatsion tizimlarida xotiraga yuklangan vazifalar to'plamidan galdagi vazifani tanlash va markaziy protsessorning vaqt kvantini navbatdagi tanlangan vazifaga ajratishni amalga oshirish.

Provayder**ing.** - Internet services provider (ISP)**rus.** - провайдер**Qar.** - Internet-provayder.**Proyeksiyon televizor****ing.** - projection television set**rus.** - проекционный телевизор

Televizion dasturlar tasvirini ekranga optik proyeksiyalash orqali (videoprojektordan foydalangan holda) tiklash uchun mo'ljallangan televizor.

Proyeksiyon texnologiya**ing.** - projection technology**rus.** - проекционная технология

DLP (Digital Light Processing) tizimini qo'llashga asoslangan texnologiya. DMD (Digital Micromirror Device) mikrosxemasi mikroskopik ko'zgularidan tuzilgan yuzada tasvirni shakllantiradi. Proyeksiyon lampadan chiquvchi yorug'lik rangli selektorlari bo'lgan disk orqali mikroko'zgularga yo'naltiriladi. Tasvir mikroko'zgularidan qaytadi va aniq optika yordamida ekranga proyeksiyalanadi. Natijada rang uzatish, o'ta ravshanlik va kontrastlikning o'ziga xos sifatiga ega bo'lgan keng formatli tasvir olinadi.

Proshivka**ing.** - firmware**rus.** - прошивка

Kompyuter yoki har qanday raqamli hisoblash qurilmasi – mikrokalkulyator, mobil aloqa qurilma, GPS navigatorming, ichida mikrodasturi bo'lgan energiyaga bog'liq bo'lmagan xotirasining ichidagi. «Proshivka» so'zi bilan ba'zan, xotiraga tegishli qurilmani, uning mikrodasturini yangilash maqsadida yozish uchun mo'ljallangan doimiy xotira qurilmasining obrazi, shuningdek, bu obrazni qurilmaning energiyaga bog'liq bo'lmagan xotirasiga yozish jarayonining o'zi nomlanadi.

Psevdo-bayt kod**ing.** - pseudo-code**rus.** - псевдо-байт код

Quyi darajadagi mashina-mustaqil kodi, kompilyator bilan generatsiya qilinadi va virtual mashina tomonidan bajariladi. Shuningdek, u algoritmlarni tavsiflash tili hi-

soblanib, dasturlash tillarining kalit so'zlarini ishlatadi va qo'shimcha ma'lumotlarni va maxsus sintaksisni qoldirib ketadi.

Psevdografika**ing.** - alphamosaic graphics**rus.** - псевдографика

Klaviatura klavishlariga birlashtirilgan simvollar yordamida matn rejimida displey ekranida olingan grafik tasvir.

PsevdoКАД**ing.** - pseudoframe**rus.** - псевдокадр

Televizion tasvirning MPEG-2 raqamli siqish usullaridan biri orqali kodlangan, sarlavha bilan ta'minlangan hamda televizion tasvirning aktiv sobasini tashkil etuvchi slayslar guruhidan iborat kadri.

PsevdoКАД-КАД**ing.** - pseudoframe-frame**rus.** - псевдокадр-кадр

Makrobloklari televizion tasvirning ikkita maydonidagi birgalikda kodlanadigan satrlaridan tuzilgan psevdokadr.

PsevdoКАДrlar guruhi**ing.** - group of pseudoframes**rus.** - группа псевдокадров

Televizion tasvirning o'zaro bog'langan I-, P-, B-psev-dokadrlari qatori. IzoH – Odatda guruh I-psev-dokadrdan boshlanadi, keyin R- va V- psevdokadrlar keladi.

PsevdoКАДrlar ketma-ketligi**ing.** - sequence of pseudo frames**rus.** - последовательность псевдокадров

Tarkibida psevdokadrlarni aks ettirish va dekodlashning zarur vaqt onlari to'g'risidagi axborot saqlanadigan psevdokadr guruhlaridan iborat ketma-ketlik.

IzoH – PsevdoКАДrlarning ketma-ketligi raqamli televizion signal ma'lumotlarining paketlangan oqimini hosil qiladi.

PsevdoКАДr-maydon**ing.** - pseudoframe-field**rus.** - псевдокадр-поле

Makrobloklari televizion tasvir bir maydonning boshqa maydon satrlariga bog'liq bo'lmagan tarzda kodlanadigan satrlaridan tuzilgan psevdokadr.

Psevdokod**ing.** - pseudocode**rus.** - псевдокод

1. Dasturlash tilini eslatadigan va dastur tuzilmasini tavsiflash uchun foydalaniladigan til.

2. Operatsiyalar va operatorlarni belgilash uchun mo'ljallangan, simvollarning ixtiyoriy tizimi.

Psevdosiljish; psevdoshovqinli siljish**ing.** - PN offset

rus. - псевдосдвиг; псевдошумовой сдвиг
CDMA texnologiyasi asosidagi tizimlarda foydalaniladigan, kodli ketma-ketliklar o'rtasidagi minimal siljish. Aynan bir kodli ketma-ketlikning psevdosiljish kattaligiga qarab, mobil stansiya bir tayanch stansiyaning ikkinchisidan farqlaydi.

Psevdotasodifiy ketma-ketlik**ing.** - pseudorandom sequence**rus.** - псевдослучайная

последовательность

Determinallangan tarzda generatsiyalanadigan, biroq, tasodifiy signalga xos bo'lgan barcha xossalarga ega simvollarning davriy ketma-ketligi. Bunday ketma-ketliklar teskari bog'lanishli siljish registrlari yordamida amalga oshiriladi.

Psevdotasodifiy shovqin**ing.** - pseudorandom noise**rus.** - псевдослучайный шум

Additiv «oq» shovqinga xos barcha xossalarga ega jarayon yoki signaning o'zgarishi shovqinsimon xususiyatdaligini ko'rsatuvchi alomat.

Psevdotasodifiy sonlar**ing.** - pseudorandom number**rus.** - псевдослучайные числа

1. Qandaydir algoritmi bo'yicha olingan, amalda esa tasodifiy sonlar sifatida foydalaniladigan sonlar.

2. Qandaydir formula bo'yicha hosil qilingan va tasodifiy kattalik qiymatlarini imitatsiya qiluvchi sonlar. «Imitatsiya qiluvchi» so'zi deganda, agar bu sonlar bu tasodifiy kattalikning qiymatlari bo'lganidek, bu sonlar bir qator testlarga javob berishi ko'zda tutiladi.

Psevdotranning**ing.** - pseudotrunking**rus.** - псевдотранкинг

Bo'sh kanallar markazlashtirilmagan tarzda taqsimlanadigan tranning aloqa rejimi. Bu rejimda har bir abonent stansiyasibo'sh kanalni, foydalanish mumkin bo'lgan barcha ishchi chastotalarni skanlash orqali avtonom izlaydi. Psevdotranningda ajratilgan boshqarish kanali mavjud bo'lmaydi, xizmat aloqasi ikki tonalli, ko'p chastotali signalizatsiya yordamida amalga oshiriladi.

Pufakchali diagramma**ing.** - bubble chart**rus.** - пузырьковая диаграмма

Obyektlar doirachalar (pufakchalar) yordamida tasvirlanadigan, munosabatlar doirachalar o'rtasida keltirilgan havolalar bilan ko'rsatiladigan diagramma.

Pul**ing.** - pool**rus.** - пул

Abonentlar guruhiga ajratilgan, dinamik taqsimlanadigan resurslar majmui.

Pul mablag'larining**gibrid pochta o'tkazmasi****ing.** - hybrid money transfer**rus.** - гибридный перевод

денежных средств

Pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta aloqasi tarmog'i va telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalangan holda pul mablag'larini jo'natish bo'yicha xizmati.

Pul mablag'larining ichki**pochta o'tkazmasi****ing.** - internal postal money order**rus.** - внутренний почтовый

перевод денежных средств

O'zbekiston Respublikasi hududida jo'natish va adresatga yetkazib berish (topshirish) uchun qabul qilinadigan pul mablag'larining pochta o'tkazmasi.

Pul mablag'larining pochta o'tkazmasi**ing.** - postal money order**rus.** - почтовый перевод

денежных средств

Pochta aloqasi va telekommunikatsiya

tarmoqlaridan foydalangan holda, pul mablag'larini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha pochta xizmati.

Pul mablag'larining xalqaro pochta o'tkazmasi

ing. - international postal money order

rus. - международный

почтовый перевод денежных средств

O'zbekiston Respublikasi doirasidan tashqariga jo'natiladigan va uning hududiga boshqa davlatlardan keladigan pul mablag'larining pochta o'tkazmasi.

Pullarning birlamchi taklif qilinishi

ing. - initial coin offering

rus. - первичное предложение монет

Investitsiyalarni yangi kriptovalyutalarni investorlarga sotish va emissiya ko'rinishida yangi texnologik loyihalarga va startaplarga jalb qilish.

Izoh - Shuningdek, «tokenlarning birlamchi taklif qilinishi» ko'rinishida ham qo'llaniladi.

Pulsatsiya

ing. - breathing, pulsation

rus. - пульсация

Televizion tasvir yorqinligi, rangi yoki o'lchamining sekin ritmik o'zgarishi.

Purkagichli printer

ing. - ink-jet printer

rus. - струйный принтер

Bosuvchi kallak soplosidan otiladigan juda mayda siyoh tomchilari yordamida qog'ozda tasvir yuzaga keltiradigan kontaktsiz printer.

Putur yetkazuvchi nurlanish

ing. - compromising emanation

rus. - компрометирующее излучение

Компьютерlar yoki boshqa uskunaning, tutib olinishi va uzatiladigan axborotni tahlil qilish uchun tutib olinishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha nurlanishi.

Q

Qabul qiladigan antenna

ing. - receiving antenna

rus. - приёмная антенна

Radioto'lqinlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan antenna.

Qabul qilgich

ing. - receiver

rus. - приемник

Signallarni aniqlash va ularni qayta ishlash yoki idrok etish uchun qulay shaklga aylantiradigan qurilma.

Qabul qilgichning asosiy ranglari

ing. - primary colours of receiver

rus. - основные цвета приемника

Boshqa ranglarni hosil qilish uchun tegishli mutanosiblikda foydalaniladigan, qabul qilgich tomonidan yuzaga keltiriladigan doimiy ranglilik va o'zgaruvchan yorqinlikdagi ranglar.

Izoh - Odatda uchta asosiy rangdan foydalaniladi: qizil, yashil va ko'k.

Qabul qilgichning tanlovchanligi

ing. - selectivity of a receiver

rus. - избирательность приемника

Qabul qilgichning xalaqit beruvchi signallar aralashmasidan o'zi sozlangan foydali signalni ajrata olish qobiliyatining o'lchovi.

Qabul qilgich-uzatgich (transiver)

ing. - transceiver

rus. - приемопередатчик (трансивер)

Bitta korpusdagi, portativ hamda mobil foydalanish uchun mo'ljallangan uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalar birikmasi. Bunda signallarni uzatish va qabul qilish uchun zanjimning oddiy komponentlaridan foydalaniladi, simpleks operatsiyalar bajariladi.

Qabul qiluvchi antenning

effektiv maydoni

ing. - effective area of receiving antenna

rus. - эффективная площадь

приёмной антенны

Yassi tushuvchi radioto'lqinda maydon birligiga keladigan quvvatga moslashgan

Pseudokod

ing. - pseudocode

rus. - псевдокод

1. Dasturlash tilini eslatadigan va dastur tuzilmasini tavsiflash uchun foydalaniladigan til.

2. Operatsiyalar va operatorlarni belgilash uchun mo'ljallangan, simvollarning ixtiyoriy tizimi.

Pseudosiljish; pseudoshovqinli siljish

ing. - PN offset

rus. - псевдосдвиг; псевдошумовой сдвиг
CDMA texnologiyasi asosidagi tizimlarda foydalaniladigan, kodli ketma-ketliklar o'rtasidagi minimal siljish. Aynan bir kodli ketma-ketlikning pseudosiljish kattaligiga qarab, mobil stansiya bir tayanch stansiyaning ikkinchisidan farqlaydi.

Pseudotasodifiy ketma-ketlik

ing. - pseudorandom sequence

rus. - псевдослучайная

последовательность

Determinallangan tarzda generatsiyalanadigan, biroq, tasodifiy signalga xos bo'lgan barcha xossalarga ega simvollarning davriy ketma-ketligi. Bunday ketma-ketliklar teskari bog'lanishli siljish registrlari yordamida amalga oshiriladi.

Pseudotasodifiy shovqin

ing. - pseudorandom noise

rus. - псевдослучайный шум

Additiv «oq» shovqinga xos barcha xossalarga ega jarayon yoki signaning o'zgarishi shovqinsimon xususiyatdaligini ko'rsatuvchi alomat.

Pseudotasodifiy sonlar

ing. - pseudorandom number

rus. - псевдослучайные числа

1. Qandaydir algoritim bo'yicha olingan, amalda esa tasodifiy sonlar sifatida foydalaniladigan sonlar.

2. Qandaydir formula bo'yicha hosil qilingan va tasodifiy kattalik qiymatlarini imitatsiya qiluvchi sonlar. «Imitatsiya qiluvchi» so'zi deganda, agar bu sonlar bu tasodifiy kattalikning qiymatlari bo'lganidek, bu sonlar bir qator testlarga javob berishi ko'zda tutiladi.

Pseudotranning

ing. - pseudotrunking

rus. - псевдотранкинг

Bo'sh kanallar markazlashtirilmagan tarzda taqsimlanadigan trunking aloqa rejimi. Bu rejimda har bir abonent stansiyasibo'sh kanalni, foydalanish mumkin bo'lgan barcha ishchi chastotalarni skanlash orqali avtonom izlaydi. Pseudotranningda ajratilgan boshqarish kanali mavjud bo'lmaydi, xizmat aloqasi ikki tonalli, ko'p chastotali signalizatsiya yordamida amalga oshiriladi.

Pufakchali diagramma

ing. - bubble chart

rus. - пузырьковая диаграмма

Obyektlar doirachalar (pufakchalar) yordamida tasvirlanadigan, munosabatlar doirachalar o'rtasida keltirilgan havolalar bilan ko'rsatiladigan diagramma.

Pul

ing. - pool

rus. - пул

Abonentlar guruhiga ajratilgan, dinamik taqsimlanadigan resurslar majmui.

Pul mablag'larining

gibrid pochta o'tkazmasi

ing. - hybrid money transfer

rus. - гибридный перевод

денежных средств

Pochta aloqasi operatori yoki provayderining pochta aloqasi tarmog'i va telekommunikatsiyalar tarmog'idan foydalangan holda pul mablag'larini jo'natish bo'yicha xizmati.

Pul mablag'larining ichki

pochta o'tkazmasi

ing. - internal postal money order

rus. - внутренний почтовый

перевод денежных средств

O'zbekiston Respublikasi hududida jo'natish va adresatga yetkazib berish (topshirish) uchun qabul qilinadigan pul mablag'larining pochta o'tkazmasi.

Pul mablag'larining pochta o'tkazmasi

ing. - postal money order

rus. - почтовый перевод

денежных средств

Pochta aloqasi va telekommunikatsiya

tarmoqlaridan foydalangan holda, pul mablag'larini jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha pochta xizmati.

Pul mablag'larining xalqaro

pochta o'tkazmasi

ing. - international postal money order

rus. - международный

почтовый перевод денежных средств

O'zbekiston Respublikasi doirasidan tashqariga jo'natiladigan va uning hududiga boshqa davlatlardan keladigan pul mablag'larining pochta o'tkazmasi.

Pullarning birlamchi taklif qilinishi

ing. - initial coin offering

rus. - первичное предложение монет

Investitsiyalarni yangi kriptovalyutalarni investorlarga sotish va emissiya ko'rinishida yangi texnologik loyihalarga va startaplarga jalb qilish.

Izoh - Shuningdek, «tokenlarning birlamchi taklif qilinishi» ko'rinishida ham qo'llaniladi.

Pulsatsiya

ing. - breathing, pulsation

rus. - пульсация

Televizion tasvir yorqinligi, rangi yoki o'lchamining sekin ritmik o'zgarishi.

Purkagichli printer

ing. - ink-jet printer

rus. - струйный принтер

Bosuvchi kallak soplosidan otiladigan juda mayda siyoh tomchilari yordamida qog'ozda tasvir yuzaga keltiradigan kontaktsiz printer.

Putur yetkazuvchi nurlanish

ing. - compromising emanation

rus. - компрометирующее излучение

Компьютерlar yoki boshqa uskunaning, tutib olinishi va uzatiladigan axborotni tahlil qilish uchun tutib olinishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha nurlanishi.

Q

Qabul qiladigan antenna

ing. - receiving antenna

rus. - приёмная антенна

Radioto'lqinlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan antenna.

Qabul qilgich

ing. - receiver

rus. - приемник

Signallarni aniqlash va ularni qayta ishlash yoki idrok etish uchun qulay shaklga aylantiriladigan qurilma.

Qabul qilgichning asosiy ranglari

ing. - primary colours of receiver

rus. - основные цвета приемника

Boshqa ranglarni hosil qilish uchun tegishli mutanosiblikda foydalaniladigan, qabul qilgich tomonidan yuzaga keltiriladigan doimiy ranglilik va o'zgaruvchan yorqinlikdagi ranglar.

Izoh - Odatda uchta asosiy rangdan foydalaniladi: qizil, yashil va ko'k.

Qabul qilgichning tanlovchanligi

ing. - selectivity of a receiver

rus. - избирательность приемника

Qabul qilgichning xalaqit beruvchi signallar aralashmasidan o'zi sozlangan foydali signalni ajrata olish qobiliyatining o'lchovi.

Qabul qilgich-uzatgich (transiver)

ing. - transceiver

rus. - приемопередатчик (трансивер)

Bitta korpusdagi, portativ hamda mobil foydalanish uchun mo'ljallangan uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalar birikmasi. Bunda signallarni uzatish va qabul qilish uchun zanjirning oddiy komponentlaridan foydalaniladi, simpleks operatsiyalar bajariladi.

Qabul qiluvchi antenning

effektiv maydoni

ing. - effective area of receiving antenna

rus. - эффективная площадь

приемной антенны

Yassi tushuvchi radioto'lqinda maydon birligiga keladigan quvvatga moslashgan

tezlikli dvigatel va yupqa plyonkali o'qish/ yozish kallaklari bilan birga germetik korpusga joylashtiriladi. Qattiq disklarning sig'imi turlicha – 20 Mbyte dan 9,1 Gbyte gacha bo'ladi.

Qat'iy sinxronlash (TV)

ing. - hard synchronizing (TV)

rus. - жесткая синхронизация (ТВ)

Har bir satr va kadr yoyishning boshlanish onlari sinxronlash impulslari bilan boshqariladigan sinxronlash.

Qayd etilgan bo'sh joy

ing. - fixed space

rus. - фиксированный пробел

Matn protsessorlarida – ikkita so'z yoki simvol o'rtasidagi doimiy bo'sh joy.

Qayd etilgan marshrutlash

ing. - fixed routing

rus. - фиксированная маршрутизация

Marshrutlash usuli, bunda ikkita tarmoq uzellari o'rtasidagi tarmoq paketining yo'li oldindan aniq bo'ladi va faqat tarmoq qurilmalari nosoz bo'lgan vaqtdagina o'zgaradi.

Qayd etilgan/mobil konvergensiya

ing. - fixed mobile convergence

rus. - конвергенция фиксированная/мобильная

Qayd etilgan va mobil abonentlar uchun nutq va ma'lumotlarni uzatish xizmatlarini umumiy tavsiyalar paketiga birlashtirish.

Izoh – Konvergensiyaning maqsadi – «bitta odam – bitta telefon» prinsipini amalga oshirishdir, ya'ni abonentni, abonent qayerdaligidan qat'i nazar, yagona raqam va bitta aloqa qurilmasi bilan ta'minlashdir.

Qayd etish

ing. - capture

rus. - регистрирование

Hujjatlarni boshqaradigan tizimda hujjatni qayd etish, tasniflash, metama'lumotlarni qo'shish va saqlash.

Qayd etishning o'tishi (axborot tizimida)

ing. - passage of registration

(information system)

rus. - прохождение регистрации

(в информационной системе)

Foydalanuvchini autentifikatsiya qilish va unga u o'zining hisobga olish yozuvini

yaratadigan axborot tizimidan foydalanish huquqini berish uchun, foydalanuvchi to'g'risida elektron shaklda saqlanadigan ma'lumotlar majmuini shakllantirish.

«Qaynoq» almashtirish

ing. - hot swapping

rus. - горячая замена

Periferik qurilmalarni tizim modullari yoki boshqa bloklarini, uning shakllanishini to'xtatmay turib ulash va uzish.

«Qaynoq» klavish

ing. - hotkey

rus. - «горячая» клавиша

Birgalikda bosilishi bilan aniq bir komandani bajarishga dasturlashtirilgan klaviaturadagi bitta yoki bir nechta klavishning birikmasi. Bunday klavishlar birikmasidan foydalanish ishlarni tezlashtiradi va klaviatura yordamida bajarish mumkin bo'lgan operatsiyalar sonini oshiradi.

«Qaynoq» liniya

ing. - hot line

rus. - «горячая» линия

Alohida ajratilgan liniya, unda aloqa go'shak ko'tarilgan zahoti, ya'ni raqam terilmasdan va operator aralashuvizis o'rnatiladi.

Izoh – Bunday liniyadan shoshilinch aloqani ta'minlashda foydalaniladi, boshqa abonent bu liniyani band qila olmaydi.

«Qaynoq» nuqta

ing. - hot spot

rus. - «горячая» точка

1. Dasturning eng ko'p foydalaniladigan qismi; parallel superkompyuter xotirasining, bir vaqtda ko'plab protsessorlar murojaat qilinadigan yacheykasi.

2. «Sichqoncha» ko'rsatgichidagi, ekraning «sichqoncha» ishtirokidagi operatsiya, masalan, tugmani bosish taalluqli bo'lgan elementini belgilaydigan nuqta (bir piksel o'lchamdagi).

«Qaynoq» rezervlash

ing. - hot sparing

rus. - «горячее» резервирование

Rezervlash usuli bo'lib, qo'shimcha qurilma asosiy qurilma bilan parallel ishlaydi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash bo'yicha bir xil operatsiyani baja-

radi. Asosiy vositalar to'liq yoki qisman ishlamay qolganda, ular ishida kamchilik aniqlanganda rezervga o'tish mumkin.

«Qaynoq» start

ing. - hot start

rus. - «горячий» старт

Operatsion tizimni kompyuterni uzib qo'ymasdan/ulamasdan turib qayta yuklash. MS-DOS operatsion tizimli kompyuterlarda bu - uchta, Ctrl, Alt, Delete klavishlarini bir vaqtda bosish (Ctrl+Alt+Delete ko'rinishda yoziladi).

«Qaynoq» ulanish

ing. - hot plugging

rus. - «горячее» подключение

Kompyuter tizimlarida uskunalarning ular ishlab turgan vaqtda (ta'minotni o'chirmasdan, protsessorni to'xtatmasdan) almashtirilishi. Bu prinsippga ko'ra, uskunalar «qaynoq» almashtirilishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan qurilmalarga bo'linadi. «Qaynoq» almashtirilishi mumkin bo'lgan qurilmaga tipik misol - USB.

Qayta dasturlanadigan xotira

ing. - erasable (electrically)

programmable read-only memory

rus. - перепрограммируемая память

Ultrabinafsha orqali o'chiriladigan qayta dasturlanadigan doimiy xotira mikrosxemalarining bir turi.

Qayta eshittirish qurilmasining gammasi

ing. - gamma of reproduced device

rus. - гамма

воспроизводящего устройства

Logarifmik shkalada ekran elementi yorug'ligining tegishli videosignalning ko'lamiga bog'liqligini aks ettiradigan egri approssimatsiyalaydigan ishchi uchastkasining to'g'ri maksimal og'ishi.

Qayta ishga tushirish

ing. - restart

rus. - перезапуск

Shaxsiy kompyuterlar olamida atama operatsion tizimlarda qayta yuklash ko'rinishida kelsa, katta mashinalar olamida esa, dasturni nazorat nuqtasidan ishga tushirish yoki dasturning ishlash jarayonini tiklashni anglatadi.

Qayta ishga tushirish tugmasi

ing. - reset button

rus. - кнопка перезапуска

Shaxsiy kompyuter tizim blokining old tomonida joylashadigan va tizimning «issiq» restartini bajarish, ya'ni elektr manbaini uzib qo'ymasdan tizimni qayta ishga tushirish imkonini beradigan tugma.

Qayta ishlamoq

ing. - develop

rus. - разрабатывать

Dasturlarni yozish, dizaynni ishlab chiqish.

Qayta ishlash vaqti

ing. - processing time

rus. - время обработки

Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun dastur tomonidan sarflangan vaqt.

Qayta ishlovchi

ing. - handler

rus. - обработчик

Qandaydir hodisa yuz berganda ishga tushiriladigan, hodisalarni qayta ishlovchi Qayta ishlovchi parametrlarga bog'lic ravishda hodisadan uzatilgan tegishli operatsiyalarni bajaradi.

Qayta kodlash va uzatish

tezligi bo'yicha moslash bloki

ing. - transcoding rate

adaptation unit (TRAU)

rus. - блок перекодирования и адаптации по скорости передачи

Alohida dekodlashsiz (raqamli o'zgartirish yo'li bilan) turli uzatish tezligidan modulyatsiyalash usullaridan foydalaniladigan nutq kanallarining qo'shilishini ta'minlaydigan raqamli qurilma.

Izoh - Bunday qurilma avtonom hisoblanadi, lekin mobil kommunikatsiya markazi tarkibiga ham kirishi mumkin.

Qayta manzillashni

masofadan turib aktivlash

ing. - remote activation call

forwarding (racf)

rus. - дистанционная активация

услуг передерасации

Abonentga turli qayta manzillash xizmatlarini aktivlash/deaktivlash, shuningdek, boshqa liniyadan (masofadan turib) qayta

manzillangan raqamni o'zgartirish imkonini beradigan xizmat. Abonent qayta manzillash xizmatlari funksiyasini RACF raqamini tebricha qayiradi.

Qayta nomlash

ing. - rename

rus. - переименовать

Fayl yoki katalogning nomini o'zgartirish.

Qayta nurlantiruvchi antenna panjarasi

ing. - retrodirective array; reradiating array

rus. - перензлучающая антенная решетка

Qabul qilingan signalni teskari yo'nalishda qayta nurlantiradigan antenna panjarasi.

Qayta tiklash

ing. - rendition

rus. - воспроизведение

Foydalanuvchi foydalanishi mumkin bo'lgan ko'rinishda taqdim etilgan elektron hujjat.

Qayta ulanadigan konsentratordi halqa

ing. - ring with a wiring concentrators

rus. - кольцо с переключающими концентраторами

O'zaro bog'langan bir yoki bir nechta guruh yulduzlar shaklida ifodalangan halqa tarmog'i. Ulanib turadigan konsentratordi vazifasi davriy halqaning ishonchli ishlashini ta'minlashdir. Buning uchun konsentratordi yoylarni bir-biri bilan shunday ulaydiki, topologiya ma'nosida yulduzsimon tarmoq hosil bo'ladi. Natijada barcha ulanish bloklari orqali o'tadigan yagona halqa paydo bo'ladi. Yoyda yoki abonent tizimida nosozlik paydo bo'lishi bilan konsentratordi tegishli yoyni halqadan o'chiradi. Shuning evaziga halqaning qolgan qismi odatdagi ishini davom ettiraveradi.

Qayta yo'naltirish

ing. - redirect

rus. - перенаправление

1. URLni qayta marshrutlash. Veb-sayt yoki veb-sahifaga boshqa manzil orqali kira olishni ta'minlash usuli. Veb-sayt manzilining o'zgarishi yoki foydalanuvchi tomonidan noto'g'ri yozilishida (masalan, maktab.uz o'rninga matkab.uz) to'g'ri veb-saytga marshrutlash uchun ishlatiladi. Ba'zi

hollarda uzun URL o'rninga uning qisqa variantini ishlatish ham mumkin.

2. Informatikada komanda qobiqlariga (masalan, UNIX) xos xususiyat bo'lib, u standart oqimlarni foydalanuvchi tomonidan belgilangan joyga, masalan, faylga qayta marshrutlash imkonini beradi.

Qayta yozadigan viruslar

ing. - rewriting viruses

rus. - перезаписывающие вирусы

Dastur kodi o'rninga, bajariladigan fayl nomini o'zgartirmagan holda, o'z jismini yozadigan viruslar. Buning oqibatida, dastlabki dasturni ishga tushirish mumkin bo'lmay qoladi. Dasturni ishga tushirishda dasturning o'zi emas, balki virus kodi bajariladi.

Qayta yoziladigan kompakt-disk

ing. - compact disk re writable (CD-RW)

rus. - перезаписываемый компакт-диск

Kompakt-disklardagi ma'lumotlarni o'qish va yozish uchun xizmat qiladigan qurilma.

Qayta yozish

ing. - overwrite

rus. - перезаписать

Eski ma'lumotlar ustidan yangilarini yozish. Masalan, o'zgartirilgan eski faylni o'sha eski nomi bilan o'zgartirib saqlash (qayta yozish).

Qayta yozish rejimi

ing. - overwrite mode

rus. - режим перезаписи

Matnini kiritishda tahrir qilishning ikki tartibidan biri, bunda yangi matn kursordan o'ngda turgan simvollarini o'chirib tashlaydi (o'rningi oladi).

Qayta yuklash

ing. - reboot

rus. - перезагрузка

Kompyuterni klaviaturadan yoki maxsus tugma yordamida qayta ishga tushirish. Qayta yuklash odatda, dastur osilib qolganidan keyin talab etiladi.

Qayta-qayta chaqiruv

ing. - multiple call

rus. - многократный вызов

Bog'lanish o'rnatishga ko'p marta urinish

yo'li bilan amalga oshiriladigan shoshibilinch chaqiruv rejimi.

Qayta qo'ng'iroq qilish

ing. - call-back

rus. - обратный вызов

Chaqiruvchi terminalni autentifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan protsedura: dastlab ma'lumotlarni qayta tiklash tizimi chaqiruvchi terminalni identifikatsiya qiladi, keyin chaqiruvning uzilishi yuz beradi, so'ngra chaqiruvchi terminal raqami teriladi.

Qayta chizish

ing. - redisplay

rus. - перерисовать

Displayda aks etgan tasvirdagi rasmni yangilash uchun uni «qaytadan chizish».

Qaytar yo'qotishlar

ing. - return loss

rus. - возвратные потери

Uzatish liniyasi yoki kabelida ularning impedansi va oxirgi (terminal) yuklama mos kelmasligi tufayli vujudga keladigan yo'qotishlar.

Lzoh - O'xshash tarzda, tushayotgan elektromagnit energiya oqimining qaytgan oqimga nisbati ko'rinishida, quvvat bo'yicha teskari yo'qotishlar hisoblanadi.

Qaytarish manzili

ing. - return address

rus. - адрес возврата

Protsedura, funksiya yoki quyi dastur chaqirilganda stekka yoziladigan, operator yoki navbatdagi komanda manzili.

Qaytarish qobiliyati

ing. - albedo, reflectance, reflectivity

rus. - отражательная способность

Jism sirtining yoki ikkita muhitni bo'lish chegaralarining unga tushuvchi elektromagnit nurlanish oqimini qaytarish qobiliyatini tavsiflovchi kattaligi.

Qaytarishlarning keragidan ortiqchaligi

ing. - backtracking

rus. - перебор с возвратами

Mantiqiy dasturlash tillarida yechim izlash usuli.

Qaytaruvchi antenna panjarasi

ing. - reflector array

rus. - отражательная антенная решетка

Fazoviy qo'zg'atilishga yoki fazoviy va fider qo'zg'atilishning birikmasiga ega antenna panjarasi, unda radioto'lqinlarni dastlabki nurlagichdan qabul qilishni va ularni fazoda nurlantirishni aynan bir xil nurlantiruvchi elementlar amalga oshiradi.

Qaytaruvchi yo'ldosh

ing. - reflecting satellite

rus. - отражающий спутник

Radioaloqa signallarini qaytarishga mo'ljallangan yo'ldosh.

Qaytish ko'effitsiyenti

ing. - coefficient of reflection

rus. - коэффициент отражения

Nurlanish qaytgan oqimining tushuvchi oqim nisbatiga teng ko'effitsiyent yoki qaytgan to'lqinning tuchuvchi to'lqinga intensivligi.

Qaytishdagi optik yo'qotishlar

ing. - optical return loss (ORL)

rus. - оптические потери при отражении

Komponent yoki qurilma qaytargan optik quvvatning bu komponent yoki qurilma liniyaga yoxud tizimga ulanganda komponent kirishida o'lchangan optik quvvatga nisbati.

Qaytishdagi yo'qotishlar

ing. - return loss

rus. - потери при отражении

Telekommunikatsiyalar tizimining istalgan ikki nuqtasi o'rtasida quvvatning kamayishi.

Qidirish algoritmi

ing. - search algorithm

rus. - алгоритм поиска

Ma'lumotlar yoki fayllar joylashgan yerni topish algoritmi.

Qidirish kaliti

ing. - search key

rus. - ключ поиска

Axborotni izlash amalga oshirilayotgan maydon, qiymat, identifikator.

Qidiruv serveri

ing. - search server

rus. - поисковый сервер

Internet tarmog'ining barcha resurslarini

avtomatik ravishda ko'rib chiqish vaqtida so'ralgan resursni topishi mumkin bo'lgan va ularning mazmunini indekslashi mumkin bo'lgan maxsus dasturiy ta'minot.

Qirmizi ranglar chizig'i

ing. - purple boundary

rus. - линия пурпурных цветов

Spektral ranglar chiziqlari oxirini ulaydigan to'g'ri chiziq.

Qisman parallel arxitekturali hisoblash tizimi

ing. - small-scale parallel system

rus. - вычислительная система с

частично параллельной архитектурой
Protsessorlarning hammasi emas, balki bir qismi ma'lumotlarning parallel qayta ishlanishini bajarishi mumkin bo'lgan ko'p protsessorli tizimlar.

Qisqa muddatli rejalovchi (protsessor rejalovchisi)

ing. - short-duration planner (planner processor)

rus. - кратковременный планировщик (планировщик процессора)

Qaysi jarayon bajarilishi kerakligini va protsessor qaysi jarayonlarga berilishi kerakligini aniqlaydigan operatsion tizim rejalovchisi.

Qisqa muddatli xalaqit

ing. - short-term interference, buzz

rus. - кратковременная помеха

Qat'iy belgilangan sharoitlarda o'lgangan davomiyligi berilgan texnik vosita uchun qat'iy belgilangan qandaydir kattalikdan kichik bo'lgan elektromagnit xalaqit.

Qisqa to'lqinlar

ing. - short waves

rus. - короткие волны

To'lqin uzunligi 100 m dan 10 m gacha (chastotasi 3 MHz dan 30 MHz) gacha bo'lgan radioto'lqinlar.

Qisqa xabarlarini uzatish

ing. - short message transfer

rus. - передача коротких сообщений

Telefon tarmog'ining foydalanuvchisiga, MAT tizimining mobil abonentiga qisqa harf-raqamli xabarni uzatish yoki undan

shunday xabarni qabul qilish imkoniga ega xizmat (agar mobil stansiyada ushbu xizmatni bajarish vositalari mavjud bo'lsa va qisqa xabarlar markaziga ega bo'lsa).

Qisqartirilgan komandalar to'plamiga ega kontroller

ing. - controller having

reduced instruction set

rus. - контроллер с

сокращенным набором команд

Oddiy qurilmalarni boshqarishning cheklangan operatsiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan mikrosxema.

Qisqartirilgan komandalar to'plamiga ega mikrosxema

ing. - reduced instruction setchi (RIS)

rus. - микросхема с сокращенным набором команд

Qisqartirilgan komandalar to'plamiga asoslangan protsessorlar arxitekturasi. Qisqartirilgan uzunlikdagi komandalar, katta miqdordagi registrlar, registr-registr turidagi operatsiyalar, bilvosita manzillashning yo'qligi bilan tavsiflanadi.

Qisqartirilgan raqam terish xizmati

ing. - abbreviated dialling

rus. - услуга сокращенного набора номера
Abonent uchun to'liq telefon raqami o'miga raqamni qisqartirib terish yo'li orqali bog'lanishni o'rnatish imkonini beradigan xizmat.

Qiya

ing. - italic

rus. - курсив

Harflar o'ng tomonga egilgandagi shriftning tuzilishi. So'zni, jumlani yoki sarlavhani belgilashda ishlatiladi.

Qiya chiziq

ing. - slash

rus. - наклонная черта

Dasturlash tillarida bo'lish operatori sifatida keng qo'llaniladigan simvol.

Qiyalik bo'yicha ortiqcha yuklanish

ing. - overloading on steepness

rus. - перегрузка по крутизне

Taxminlash signalida frontlarning cho'zilisini tavsiflovchi buzilishlar.

Qiyamat
ing. - value
rus. - значение

Ifoda yoki o'zgaruvchining aniq bir mazmuni; har doim yo'l qo'yiladigan qiymatlar sohasiga tegishli bo'lishi kerak.

Qiyamat bo'yicha chaqiruv

ing. - call by value

rus. - вызов по значению

Parametrlarni berish usuli, bunda chaqiruvchi modul chaqiriladigan modulga uzatiladigan parametrning haqiqiy (aniq) qiymatini taqdim etadi.

Izoh - Bu usul yordamida chaqiriladigan modul chaqiradigan modul saqlagan parametr qiymatini o'zgartira olmaydi.

Qiyamati e'lon qilingan banderol

ing. - insured letter packet

rus. - бандероль с

объявленной ценностью

Qiyamati jo'natilayotganda foydalanuvchi tomonidan e'lon qilingan bosma nashrlar, madaniy-maishiy va ishlab chiqarishga mo'ljallangan predmetlar jo'natiladigan ichki pochta jo'natmasi.

Izoh - Qiyamati e'lon qilingan banderollarda yuborishga ruxsat etilgan buyumlarning to'liq ro'yxati Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarini bilan belgilanadi.

Qiyamati e'lon qilingan jo'natmalar

ing. - items with declared value

rus. - отправления с

объявленной ценностью

Qiyamati jo'natilayotganda foydalanuvchi tomonidan e'lon qilingan predmetlar va hujjatlar jo'natiladigan pochta jo'natmasi.

Izoh - Qiyamati e'lon qilingan xatlarda jo'natishga ruxsat etilgan buyumlarning to'liq ro'yxati Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini bilan belgilanadi.

Qiyamati e'lon qilingan posilka

ing. - insured parcel

rus. - посылка с объявленной ценностью

Joylanma qiymati jo'natilayotganda foydalanuvchi tomonidan e'lon qilingan posilka.

Qiyamati e'lon qilingan xat

ing. - letter of declared value

rus. - письмо с объявленной ценностью

Qiyamati jo'natilayotganda foydalanuvchi tomonidan e'lon qilingan predmetlar va hujjatlar jo'natiladigan pochta jo'natmasi.

Izoh - Qiyamati e'lon qilingan xatlarda jo'natishga ruxsat etilgan buyumlarning to'liq ro'yxati Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarini bilan belgilanadi.

Qizil kitob

ing. - red book

rus. - красная книга

1. AQSH Mudofaa vazirligi tomonidan kompyuter tarmoqlarini baholash bo'yicha yo'riqnomaga sifatida chiqarilgan kitobi. National Computer Security Center nashri. U hisoblash tarmoqlari uchun Trusted Computer System Evaluation Guidelines (TCSEC)HU ta'riflab bergan. Qizil muqovalla ikkita alohida kitobdan iborat. Birinchisi Trusted Network Interpretation of the Trusted Computer System Evaluation Criteria (NCSC-TG-005) nomi bilan chop etilgan va 1987-yil 31 iyulda tasdiqlangan. Ikkinchisi Trusted Network Interpretation Environments Guideline: Guidance for Applying the Trusted Network Interpretation (NCSC-TG-011) nomi bilan chop etilgan va 1990-yil 1 avgustda tasdiqlangan.

2. ITU-T X.400 Message Handling System (MHS) tavsiyanomasi elektron pochta saqlash va jo'natishga oid xalqaro ikkita standartning birini (ikkinchi standart - SMTP) bildiradi. U ifodalashni, uzatishni va yetkazib qo'yishni muhofazalashning turli usullarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. X.400 standartini uning muqovasi sababli qizil kitob deb ham atashadi.

Qizil-yashil-ko'k

ing. - red-green-blue (RGB)

rus. - красный-зелёный-синий

RGB rang uzatish tizimi, rangli monitor-da chiqarish uchun ranglar tizimi. Atama monitor turi va ranglar modelini belgilashda ishlatiladi. Kerakli rang uchta birlamchi ranglarni kerakli proporsiyada aralashtirish yordamida olinadi - bular qizil (R), yashil (G) va ko'k (B). Birlamchi ranglarning yo'qligi qora rangni beradi. 1931-yilda bazaviy ranglar standartlashtirilgan: R-700 Hm; G-546,1 Hm; B-435,8 Hm.

Qobiq

ing. - shell

rus. - оболочка

Ekspert tizimlarini loyihalash va yaratishdagi instrumental vosita. Qobiqning tarkibiga

bilimlarni turli xil shakllarda taqdim etish va vazifalarni hal qiluvchi vositalarning ishlash rejimini tashlash orqali bilimlar bazalarini loyihalash vositalarini o'z ichiga oladi. Muayyan mavzu sohasi uchun fanlar bo'yicha muhandis kerakli bilimlarni taqdim etish va vazifalarni hal qilish strategiyalarini aniqlaydi, keyin esa, ularni qobiqqa kiritib, muayyan ekspert tizimini yaratadi.

Qobiq (optik tola qobig'i)

ing. - cladding

rus. - оболочка (оптического волокна)

O'zakni o'rab turadigan, kichik sindirish ko'rsatgichiga ega, yuqori o'tkazuvchan optik material.

Qoidabuzar modeli

ing. - infringer model

rus. - модель нарушителя

Qoidabuzarning amaliy va nazariy imkoniyatlari, oldingi bilimlari, harakat vaqti va joyi va h.k.ni aks ettiruvchi mavhum (rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan) tavsifi.

Qoidalar asosida

ing. - rule-based

rus. - на основе правил

Natija olish uchun qoidalardan (sonli amallardan emas) foydalanishga asoslangan hisoblashlar. Ekspert tizimlarida qo'llaniladi.

Qoldiq axborot

ing. - data remanence

rus. - остаточная информация

Xotira qurilmasida operatsion tizim tomonidan rasman o'chirilgan ma'lumotlardan qolgan axborot. Axborot faylning rasman o'chirilishi yoki xotira qurilmalarining fizik xususiyatlari sababli qolishi mumkin. Qoldiq axborot, agarda ma'lumotlar ombori nazorat zonasidan tashqari chiqib ketisa (masalan, «axlat» bilan tashlab yuborilsa yoki uchinchi tomonga berilsa), konfidensial axborotning ixtiyorsiz tarqalishiga olib kelishi mumkin.

Qoldiq bo'yicha nazorat, n moduli bo'yicha nazorat

ing. - residue check, modulo-n- check

rus. - контроль по остатку,

контроль по модулю n

Xatolarni aniqlashning, ma'lumotlarning

ayrim to'plami yoki dasturning ayrim qismini tahlil qilishga asoslangan, oddiy usuli. Agar bu to'plam, m bit uzunlikdagi bloklarning jami o'zida ifodalasa, n moduli bo'yicha summa olinadi, bunda $n = 2^{**}m$, va to'plamning oxiriga qo'yiladi. Keyinchalik (masalan, ma'lumotlar to'plami boshqa joyga o'tkazilgach) nazorat summasini takroriy hisoblashni amalga oshirish mumkin, bunda bitlar darajasidan ayrim xatolar aniqlanadi. ($m = 1, n = 2$) usulining oddiy varianti juftlikni nazorat qilish hisoblanadi.

Qoldiq risk

ing. - residual risk

rus. - остаточный риск

Risk qayta ishlanganidan so'ng qoladigan risk.

Izohlar

1. Qoldiq risk noaniq riskdan iborat bo'lishi mumkin.

2. Qoldiq risk ba'zida «saqlanadigan risk» deb ataladi.

Qoldiq zaiflik

ing. - residual vulnerability

rus. - остаточная уязвимость

BO ishlash sohasidagi foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan, biroq buzg'unchi tomondan BO ishlashning oldindan belgilangan muhiti uchun mo'ljallangan qaraganda, yuqori hujum potentsiali bilan FXT buzilishi uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan zaif joy.

Qoldiq yaproq

ing. - vestigial lobe

rus. - остаточный лепесток

Antenna tizimida yo'nalganlik diagrammasi bilan to'liq kompensatsiyalanmagan yon yaproq.

Qonuniy foydalanuvchi

ing. - legal user

rus. - легальный пользователь

Berilgan resurslar va servislardan erkin foydalanish uchun qonuniy asosga ega bo'lgan foydalanuvchi.

Qonuniylikni o'zi

ta'minlaydigan protokol

ing. - self maintain law protocol

rus. - протокол,

самообеспечивающий законность

Kriptografik protokollarning uchinchi to-

monga ehtiyot bo'lmagan eng yaxshi turlaridan biri. Protokol barcha qoidalarga rioya qilinishini kafolatlaydi. Bunday protokol bir tomonda aldov paydo bo'lganda, boshqa tomon har doim buni aniqlashi mumkin bo'lgan tarzda tuzilgan.

Qora daraja

ing. - level of black

rus. - уровень черного

1. Yorqinlikning muayyan minimal darajasiga mos keladigan videosignal darajasi.
2. Yorqinlik signalining obyektidagi qora rangni uzatishdagi minimal darajasi.

Qora darajani qayd etish

ing. - black-level clamping

rus. - фиксация уровня черного

So'ndirish darajasi ma'lum qiymatda ushlab turiladigan darajani qayd etish.

Izoh - Satrlar sinxronizatsiyasining impulsli signalida qora darajani qayd etish satrlarni sinxronlovchi impulsning orqa maydonida amalga oshiriladi.

Qora darajaning siljishi

ing. - shift of level of black

rus. - сдвиг уровня черного

Videosignalning yoki tasvir signalida doimiy tashkil etuvchi noto'g'ri uzatilganligi yoki tiklanganligi tufayli paydo bo'lgan nuqson.

Qora darajasi va so'nish darajasi

o'rtasidagi tirqish (qorani belgilash)

ing. - clearance between level black and level of extinguish (installation black)

rus. - зазор между уровнем черного и уровнем гашения (установка черного)

Televideniyeda qoraning etalon darajasi va oqning etalon darajasi o'rtasidagi nisbat, bunda ikkalasi ham so'nish darajasiga qarab o'lchanadi. Odatda, foizlarda ifodalangan.

Qora (oq) notekisligini tuzatish

ing. - correction to unevenness

of black (of white)

rus. - коррекция

неравномерности черного (белого)

Bir tekis qora (oq) tasvirni uzatishda televizion tasvir yorqinligi yoki rangining notekisligini videosignalni qayta ishlash orqali bartaraf etish.

Qora ro'yxat

ing. - blacklist

rus. - чёрный список

Qoidani buzgan foydalanuvchilarning e-mail yoki IP-manzili ro'yxati. Ushbu ro'yxatdagi foydalanuvchilarga ba'zi resurslardan foydalana olish/kira olish huquqlari man etiladi yoki umuman tizimdan o'chiriladi. Yetakchi pochta kompaniyalari odatda spamerlarning umumiy qora ro'yxatiga ega bo'ladilar.

Qoradan qoraroq daraja

ing. - black-than-black level

rus. - уровень чернее черного

Sinxronlash impulslarining tasvir signalidan boshqa tomon bo'ylab qoraning darajasiga nisbatan joylashgan eng yuqori darajasi.

Qorani siqish (televizion tasvirda)

ing. - compression of black

(of a television picture)

rus. - сжатие черного

(в телевизионном изображении)

Tasvir qorog'ri uchastkalari kontrastligini sezilarli kamaytirish.

Qoraning etalon darajasi

ing. - reference level of black

rus. - эталонный уровень черного

Qora yo'nalishida tasvir signalining muayyan maksimal kirishiga mos keladigan daraja.

Qoraning yorqinligi

ing. - brightness of black

rus. - яркость черного

Ranglilik signali nolga teng, yorqinlik signali esa qora darajaga ega bo'lgandagi televizion ekran yorqinligi.

Qotil ilova

ing. - killer application

rus. - приложение-убийца

1. Potensial xavfli ilova bo'lib, ishlash uchun tizimning ulkan resurslarini (kanallarning o'tkazish qobiliyati, xotira va h.k.) talab qiladi. Qandaydir resursni egallab (ba'zan monopoli tarzda) olgach, bunday ilova boshqalarini siqib chiqarishga («o'ldirishga») qodir.
2. Aloqa xizmatlari bozoridagi yangi taklif, uncha ommaviy bo'lmagan ilovalarni siqib chiqaradi.

Qotil paketlar

ing. - packets-killer

rus. - пакеты-убийцы

Tizimning ishini avariya yiv tugatish uchun tarmoq dasturlaridagi xatolardan foydalanadigan Ethernet yoki IP-paketlarini yuborish yo'li bilan, axborot tizimini ishdan chiqarish usuli.

Qog'ozsiz texnologiya

ing. - paperless technologe

rus. - безбумажная технология

Axborotning asosiy tashuvchisi qog'oz emas, balki, mashina eltuvchida (kompyuter xotirasida) shakllantiriladigan va foydalanuvchiga displey ekranini orqali yetkaziladigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadigan texnologiya.

Qulflar va kalitlar tizimi

ing. - locks and keys (system)

rus. - система замков и ключей

Xotirani muhofaza qilish tizimi. Unda xotira segmentlariga operatsion tizim tomonidan identifikatsion raqamlar – qulflar, ro'yxatga olingan foydalanuvchilarga esa, sonli kodlar – kalitlar beriladi.

Qumdon

ing. - sandbox

rus. - песочница

Kompyuter xavfsizligida dasturlarning xavfsiz bajarilishi uchun mo'ljallangan mexanizm.

Qurilma

ing. - device

rus. - устройство

Kompyuter yoki tarmoq uskunasining har qanday apparat birligi. Bu mikrosxema, masalan, takt generatori ham, alohida funktsional qurilma: printer, monitor, diskovod, modem va h.k. ham bo'lishi mumkin.

Qurilma drayveri

ing. - device driver

rus. - драйвер устройства

Operatsion tizim tomonidan shu qurilmani boshqarish funksiyasini ta'minlash maqsadida mazkur qurilma uchun maxsus yozilgan dastur.

Qurilma manzili

ing. - device address

rus. - адрес устройства

Tezkor xotira manzil fazosining, ham mikroprosessor, ham tashqi qurilma undan o'qiy va yoza oladigan yacheykasi.

Qurilma nomi

ing. - device name

rus. - имя устройства

Operatsion tizimga kompyuter tizimi qurilmasini tanish (identifikatsiyalash)da yordam beradigan qurilma.

Qurilmalar holatining jadvali

ing. - device table of states

rus. - таблица состояния устройств

Operatsion tizimda saqlanadigan va ishlatiladigan jadval, bunda har bir qurilmaga qurilmaning turini, uning manzili va holatini o'z ichiga oladigan element, band qurilmaga esa unga bo'lgan qayta ishlanadigan so'rovlarning navbatiga havola mos keladi.

Qurilmalarning tekshirilishi

bo'yicha so'rov

ing. - polling

rus. - опрос устройств

Barcha portlar va tashqi qurilmalarning davriy tekshirilishi bo'yicha, vaqt davomida o'zgarishi mumkin bo'lgan operatsion tizim harakati.

Qurilmani qo'shish

ing. - add hardware

rus. - добавьть аппаратуру

MS Windows operatsion tizimidagi boshqaruv panelining qismi. Kompyuterga yangi qurilma o'rnatish va o'rnatilgan uskunani o'chirish, shuningdek, drayverni yangilash imkonini beradi.

Qurilmani zaxiralash

ing. - device allocation

rus. - резервирование устройства

Operatsion tizim tomonidan kiritish-chiqarish qurilmasidan foydalanish jarayonlarining monopol foydalana olishini ta'minlash.

Qurilmaning mantiqiy raqami

ing. - logical unit number

rus. - логический номер устройства

Qurilmaga beriladigan (0 dan 7 gacha) raqam. Kichik raqamga birmuncha yuqori ustuvorlik to'g'ri keladi.

Qurt

ing. - worm

rus. - червь

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlarida yoki kompyuter tarmoqlarida o'z-o'zidan tarqalish qobiliyatiga ega bo'lgan mustaqil dastur.

Izoh - Qurtlar, ko'pincha mumkin bo'lgan, resurslardan, masalan, xotira hajmi yoki qayta ishlash vaqtdan foydalanish uchun ishlab chiqiladi.

2. Tarmoq bo'ylab tarqaladigan, o'zining nusxalarini tarmoq uzellari orqali tarqatish uchun tarmoq protokollari yoki dasturlarining zaif tomonlaridan foydalanadigan dastur.

3. O'zining nusxalarini magnit tashuvchida qoldirmagan holda, tarmoq bo'ylab tarqaladigan, tarmoq kompyuterlarining manzillarini hisoblab chiqadigan va bu manzillar bo'yicha o'z nusxalarini yozadigan zararli dastur.

Izoh - Odatda, «qurt» topib bo'lmaydigan holatda qolib, tizimda axborotni qayta ishlash jarayonini to'xtatib qo'yadi, so'ng o'zini o'zi yo'q qiladi.

Qutblangan diagramma

ing. - polarization pattern

rus. - поляризационная диаграмма

Antenna maydonining qutblanishini uzoq zonadagi yo'nalishga bog'liqligini aks ettiradigan diagramma.

Qutblangan elektromagnit to'lqini

ing. - polarized electromagnetic wave

rus. - поляризованная

электромагнитная волна

To'lqin tarqalishining yo'nalishiga perpendikulyar tekislikdagi turli yo'nalishlarda magnit va tegishli ravishda elektr maydonning bir xil bo'lmagan amplitudalariga ega elektromagnit to'lqin.

Qutblanish

ing. - polarization

rus. - поляризация

Elektromagnit maydon elektr maydoni kuchlanganligi vektorining yo'naltirilganligi.

Qutblanish koeffitsiyenti

ing. - polarization factor

rus. - коэффициент поляризации

Asosiy qutblanish yo'nalishidagi nurlanish quvvatining antenna ochilishidagi nurlanish to'liq quvvatiga nisbati.

Qutbsizlanish

ing. - depolarization

rus. - деполяризация

Aniq belgilangan qutblanish bilan uzatilgan radioto'lqinlar quvvatining barchasi yoki bir qismi tarqatilgandan so'ng ushbu qutblanishga ega bo'lmaydigan hodisa.

Quvvatni boshqarish bitlari

ing. - power control (PC) bits

rus. - биты управления мощностью

Tayanch stansiya uzatadigan, mobil stansiya uzatgichi uchun boshqaruvchi bo'lib hisoblanadigan, quvvatni boshqarish signali. Uzatgich quvvatini berilgan diskret qiymatga (masalan, 0,5 yoki 1dB) oshirish yoki kamaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Quvvatni bo'luvchi

ing. - power divider

rus. - делитель мощности

Radiouzatgich vositasida antennalar yoki antennalarning elementlari o'rtasida quvvatni ma'lum bir nisbatlarda taqsimlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Quvvatning o'rtacha qiymati

ing. - average value of power

rus. - среднее значение мощности

1. Bitta kanalning polosa kengligiga ega (uzatilgan yoki qabul qilingan) LTE moduliyatsiyalangan signal quvvatining (davomiyligi 1 ms bo'lgan subkadmning kamida bitta o'tish davri ichida, radiofoydalanish rejimida o'lgan) qiymati.

2. Radiofoydalanish rejimida chip tezlik $(1+\alpha)$ polosa kengligiga ega (uzatilgan yoki qabul qilingan) WCDMA moduliyatsiyalangan signali quvvatining, kamida bitta vaqt intervali ichida o'lgan qiymati.

Izoh - Kodli sohada barcha quvvatlar yig'indisi, radiofoydalanish rejimida chip tezlik $(1+\alpha)$ polosa kengligiga ega signal o'rtacha quvvatining qiymatiga teng.

Quy

ing. - bottom

rus. - низ

Obyektlarni vertikal holatda to'g'rilash uchun ishlatiladigan yakorlardan biri. To'g'rilash obyektlarning quyi qismidan amalga oshiriladi.

Quy daraja tili

ing. - low level language

rus. - язык низкого уровня

Kompyuter apparaturasini bevosita boshqarish uchun mo'ljallangan, assembler turidagi til. Quy daraja tilining o'ziga xos xususiyati til har bir instruksiyasining unga mos keladigan bitta mashina komandasiga o'zgartirilishida namoyon bo'ladi. Quy daraja tilidagi dasturlar mashinaga bog'liq bo'ladi, shuning uchun ularni boshqa platformalarga o'tkazish birmuncha qiyin.

Quy darajadagi formatlash

ing. - low-level formatting

rus. - форматирование низкого уровня

Yozilmagan qattiq yoki yumshoq diskda sektorlar va yo'lkalarning boshlang'ich, dastlabki belgilanishini yaratish jarayoni yoki ularni to'la qayta formatlash.

Quy dasturga murojaat

ing. - subroutine call

rus. - обращение к подпрограмме

Komandalar to'plami yoki parametr va boshqarishni quyi dasturga uzatadigan operator.

Quy diapazon

ing. - subband

rus. - поддиапазон

Ishchi chastotalar diapazonining, radiostan-siyaning ishi ta'minlanadigan bir qismi.

Quy meny

ing. - submenu

rus. - подменю

O'zidan oldingi meny tomonidan chaqirilgan meny, ya'ni sarlavhasi boshqa menyuning elementi bo'lgan meny.

Quy registr

ing. - lowercase

rus. - нижний регистр

Matn yoki ma'lumotlarni kichik (katta) harflarda kiritish rejimi.

Quy sathli dasturlash

ing. - low-level programming

rus. - низкоуровневое программирование

Kompyuterning apparat imkoniyatlaridan va/ yoki quyi sath tillaridan foydalanib dasturlash.

Quy satr

ing. - substring

rus. - подстрока

WWW izlash serverlaridagi so'rovlarda nomning yoki kalit so'zning bir qismi. Dasturlashda – satrli o'zgaruvchi yoki konstantaning har qanday qismi, ya'ni boshqa satrning bir qismi bo'lgan satr.

Quy tarmoq

ing. - subnetwork

rus. - подсеть

1. Tarmoqning, o'zining elementlari uchun umumiy xarakteristikalari to'plamiga, muayyan chegaralarga ega bo'lgan va mustaqil tarmoq sifatida qaraladigan bir qismi.

2. IP-tarmog'ining qismi. Har bir tarmoq qismi o'zining tarmoqdagi noyob raqamiga ega bo'ladi.

3. OSI-tarmoqlarida – bitta administrativ domenda boshqariladigan hamda tarmoqdan foydalana olishning bitta protokolidan foydalanadigan oxirgi va oraliq tizimlar guruhi.

Quy tarmoq manzili

ing. - subnet address

rus. - адрес подсети

Kichik tarmoq identifikatori sifatida kichik tarmoq maskasi bilan beriladigan IP-manzil qismi.

Quy tizim

ing. - subsystem

rus. - подсистема

Tizimning, tizimdagi qandaydir funksiyani bajaradigan qismi.

Quyi хотira

ing. - low memory

rus. - низкая память

Manzillashning eng quyi raqamlariga ega bo'lgan хотira yacheikalari.

Quyi Yer atrofi orbitasi

ing. - low earth orbit (LEO)

rus. - низкая околоземная орбита

700 km dan 2000 km gacha bo'lgan ballandlikda joylashgan doiraviy orbita. Bu ballandliklardagi yo'ldoshning aylanish davri 100 min dan 120 min gacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. Radioko'rinish zonasida kosmik apparatning maksimal bo'lish vaqti 10-15 min dan oshmaydi. Global qamrovni ta'minlash ushun orbital guruhdagi yo'ldoshlar soni 48 tadan kam bo'lmisligi kerak.

Quyi yon polosani bostirish

(tasvir uzatgich)

ing. - suppression of the lower lateral band (image transmitter)

rus. - подавление нижней боковой полосы (передатчик изображения)

Modulyatsiya mahsulotlarining, tasvir uzatgichi eltuvchisining chastotasidan past bo'lgan chastotali amplituda-chastota xarakteristikasi.

Quyi chastotalar filtri

ing. - low-frequency filter

rus. - фильтр нижних частот

Berilgan qirqim chastotasidan past o'tkazish polosasiga va pastroq chastotalar uchun tutib qolish polosasiga ega bo'lgan elektr chastota filtri.

«Quyuq» dasturiy ta'minot

ing. - fatware

rus. - «жирное» программное обеспечение
Funksional jihatdan keragidan ortiq va resurs sig'imi katta bo'lgan dasturiy ta'minot.

Qo'l skaneri

ing. - handheld scanner

rus. - ручной сканер

O'qiydigan kallagini skanlanadigan muhit ustida siljitish foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan portativ kompyuter turi.

Qo'lda kiritish qurilmasi

ing. - manual input device

rus. - устройство ручного ввода

Foydalanuvchi ma'lumotlarni qo'lda kiritadigan qurilma, misol uchun klaviatura.

Qo'llaniladigan maydon kuchlanganligi

(qo'llaniladigan quvvat oqimi zichligi)

ing. - usable field-strength, (usable power flux density)

rus. - применимая напряженность поля (применимая плотность потока мощности)

Maydon kuchlanganligining (quvvat oqimi zichligining) aniq vaziyatlarda yoki chastota rejaları yoki kelishuvlarida belgilangan kabi, qabul qilishning tabiiy va sanoat shovqini hamda xalaqitlar mavjud bo'lgan muayyan sharoitlarida, talab etilgan qabul qilishning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal miqdori.

Izoh - «Qo'llaniladigan maydon kuchlanganligi» atamasi XEIning ko'plab matnlarida ishlatiladigan «zarur maydon kuchlanganligi» atamasiga muvofiq keladi.

Qo'llanish sobasi

ing. - scope

rus. - область действия

Ma'lumotlarning aniq bir elementidan foydalanish mumkin bo'ladigan dastur fragmenti.

Qo'llanishlik to'g'risidagi bayonot

ing. - statement of applicability

rus. - заявление о применимости

Tashkilot axborot xavfsizligini boshqarish tizimiga mos keladigan va qo'llaniladigan boshqarish vositalari va maqsadlarni tavsiflovchi hujjatlashtirilgan bayonoma.

Qo'llanmalari to'plami kompleks

qisqartirilgan protsessor

ing. - complex-reduced-instruction-set processor (CISC)

rus. - процессор с комплексно

уменьшенными наборами инструкций

Komandalar to'plami qisqartirilgan protsessor; CRISP arxitekturali protsessor RISC va CISC protsessorlari va arxitekturalari o'rtasidagi oraliq variant protsessori bo'lib hisoblanadi.

Qo'llash

ing. - apply

rus. - применить

Sozlash oynasidagi tugma, uni bosish orqali formadagi barcha ma'lumotlar saqlanadi va formani berkitmagan holda qo'llaniladi. Kiritilgan o'zgartirishlarni oldindan ko'rib chiqish uchun xizmat qiladi.

«Qo'lyozma» ilovalar

ing. - pen-based computing

rus. - «рукописные» приложения

Kompyuterdan «qo'lda», ya'ni qo'l harakati orqali boshqariladigan klaviaturasi bo'lmagan kiritish quilmalari (pero, (sensorli) planshet) asosida foydalanish uslubi.

Qo'lyozma matnini tanish

ing. - handwriting recognition

rus. - распознавание рукописного текста

Qo'lyozma matn ramzlarini kodlar ketma-ketligiga aylantirish texnologiyasi. Qo'lyozma matnini tanish, matni skaner yoki yorug'lik perosi yordamida axborot tizimiga kiritish imkonini beradi.

«Qo'ng'iroq»

ing. - bell

rus. - звонок

Simvol kodi, unga qarab kompyuter yoki terminal foydalanuvchi yoki operator e'tiborini tortadigan standart tovush signalini beradi.

Qo'ng'iroq qilish

ing. - dial-up

rus. - позвонить

Kompyuterga modem va umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'idan foydalanib, ma'lumotlarni uzatish seansini o'zlashtirish uchun boshqa kompyuterga ulanish imkonini beruvchi xizmat (masalan, Internet tarmog'idan foydalana olish yoki Fidonet uzeli bilan bog'lanish uchun).

Qo'ng'iroqni qayta manzillash

ing. - call diversion

rus. - переадресация звонка

Abonentning raqamidan kelib tushgan qo'ng'iroqlarning barchasini yoki qismini istalgan boshqa (boshqa mobil, oddiy shahar, shaharlararo, xalqaro) raqamga yoki tovushli pochtaga o'tkazish imkonini beradigan xizmat.

Qo'riqlanadigan axborot

ing. - protected information

rus. - охраняемая информация

1. Axborot mulkdori yoki mulkdor vakolat bergan shaxs tomonidan, kuchga ega qonunchilikka binoan muhofaza qilish rejimi o'rnatilgan axborot.

2. Foydalanish va almashuv bilan bog'liq jarayonlarda, ishlatilishi, qonunchilik bilan o'rnatilgan qoidalariga mos bajariladigan axborot.

Qo'sh mustaqil shina arxitekturasini

ing. - architecture of doubleindependent tire

rus. - архитектура двойной

независимой шины

Protssessorni qurish arxitekturasini, bunda ma'lumotlar bir vaqtda bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda ikkita shina orqali parallel uzatiladi. Kompyuter platformalari o'tkazish qobiliyatining ko'pgina muammolarini hal qiladi. Amaliy dasturlarning talablarini qondirish va protssessorlarning yangi avlodlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini ta'minlash uchun, Intel firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Qo'sh telefon raqamlari xizmati

ing. - dual telephone numbers service

rus. - услуга двойных телефонных

номеров

Bitta abonent ikkita teleqon raqamini oladigan xizmat. Bitta raqam hammaga ma'lum, boshqasi abonent tomonidan cheklangan shaxslarga ma'lum qilinadi. Birinchi raqamga nisbatan abonent «Chaqiruvni boshqa raqamga o'tkazish» yoki «Bezovta qilinmasin» xizmatlaridan foydalanganda, uning ikkinchi raqamini bilgan shaxslar u bilan bog'lanishlari mumkin.

Qo'sh uzatish

ing. - simulcast

rus. - спаренная передача

Televizion dasturni televizion uzatish tarmog'idan va tegishli tovush jo'rligidagi alohida tovushli eshittirish uzatish tarmog'idan, televideniyedagi stereofonik tovushni ta'minlash uchun bir vaqtda uzatish.

Qo'shiladigan yozuv

ing. - addition record

rus. - добавляемая запись

Fayl qayta ishlanayotgan vaqtda yaratilgan yozuv.

Qo'shilgan menu

ing. - cascading menu

rus. - вложенное меню

Bir nechta daraja elementlaridan tuzilgan menu. Birinchi daraja elementini tanlash qo'shimcha tanlash imkonini beradi.

Qo'shimcha

ing. - insert

rus. - вставка

Qandaydir tartiblashtirilgan tuzilmaga (mas-siyga, ro'yxatga, faylga) tegishli joyga yangi elementni qo'shish protsedurasi. Mantiqiy va fizik darajalarda qilinishi mumkin.

Qo'shimcha bog'lanish texnologiyasi

ing. - advanced technology

attachment (ATA)

rus. - технология

дополнительного соединения

IBM AT kompyuterlarida qattiq diskdan foydalanishda ilk bor qo'llanilgan dastlabki interfeys va protokolga havola. IDE nomi bilan ham mashhur.

Qo'shimcha bo'lim

ing. - extended partition

rus. - дополнительный раздел

Qattiq diskning nollı yo'lkasidan tashqarida yaratilgan bo'lim. Primary-bo'limidan farqli o'laroq, ularning soni cheksiz bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha kanal

ing. - supplemental channel

rus. - дополнительный канал

Yuqori tezlikli axborotni uzatish uchun foydalanilishi va turli xizmatlarni ko'rsatishga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yordamchi kanallardan biri (IS-95 va CDMA2000 standartlarida).

Izoh - Qo'shimcha kanal bo'ylab uzatish tezligi qayd etilgan yoki o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. shu bilan birgalikda, qabul qilgichda tezlikning aniqlanishi kirish signali bo'yicha avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Qo'shimcha klaviatura

ing. - keypad

rus. - дополнительная клавиатура

1. Kompyuter standart klaviaturasining o'ng tomonidagi klavishlar guruhi.

2. Klavishlar soni ko'p bo'lmagan maxsus funksional klaviatura.

Qo'shimcha kodli so'z

ing. - supplementary codeword

rus. - дополнительное кодовое слово

Autentifikatsiya qilish vositasi. Parol ko'rsatilgandan keyin foydalanuvchidan qo'shimcha ravishda so'raladigan kodli so'z.

Qo'shimcha manzillash

ing. - subaddressing

rus. - подадресация

Xizmat ko'rsatilayotgan foydalanuvchiga uning bitta berilgan raqamidan ortiq manzillash qobiliyatini kengaytirish imkonini beradigan qo'shimcha xizmat.

Qo'shimcha nusxa

ing. - backup

rus. - резервная копия

Asosiy eltuvchidagi ma'lumotlarning buzilish, shikastlanish yoki yo'qolish hollarida, keyinchalik tiklash uchun alohida fayllar, fayllar guruhi (katalog) ning nusxasi.

Qo'shimcha protsessor

ing. - coprocessor

rus. - сопроцессор

Asosiy protsessorning funksional imkoniyatlarini oshiradigan qo'shimcha protsessor.

Qo'shimcha ranglar

ing. - additional colour

rus. - дополнительные цвета

Aralashmada oq rang hosil qiladigan juft ranglar. Ko'k-yashil (havorang) va qizil; yashil-qizil (sariq) va ko'k; ko'k-qizil (qirmizi) va yashil qo'shimcha ranglar bo'lib hisoblanadi.

Qo'shimcha raqam guruhi

ing. - extension dialing

rus. - набор добавочного номера

Foydalanuvchilarni guruhning ichki qo'shimcha raqami orqali to'plash imkonini beradigan xizmat.

Qo'shimcha simvol

ing. - extended character

rus. - дополнительный символ

Alifboda mavjud bo'lmagan yoki raqamli bo'lmagan simvol. Masalan: ♪, ►, ♫, ✕.

Qo'shimcha tarkibiy qism

ing. - add-on

rus. - дополнительный компонент

Dasturga yangi imkoniyatlar qo'shuvchi dastur bibliotekasi. Plaginlardan farqli ravishda, o'rnatilgan addon o'chirilishi mumkin emas. Ko'pincha, dasturni ishga tushirishda foydalanuvchidan original dasturdan yoki addondan foydalanishi to'g'risida so'raladi.

Qo'shimcha xizmatlar

ing. - supplementary services

rus. - дополнительные услуги

Alohida taqdim etilmaydigan, balki xizmat ko'rsatishning asosiy turlariga, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirgan holda qo'shimcha sifatida xizmat qiladigan aloqa xizmatlari.

Qo'shimcha xizmatlar provayderi

ing. - value-added service provider

rus. - провайдер дополнительных услуг
Telefon kompaniyalari an'anaviy ravishda ta'minlab kelayotgan xizmatlardan tashqari, ixtisoslashgan aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi provayder.

Qo'shimcha yo'lka

ing. - extra track

rus. - дополнительная дорожка

Nusxa ko'chirishdan himoya qilish usulining qismi, bunda diskka standart miqdordagi yo'lkalardan yana bitta yo'lka yoziladi.

Qo'shimcha, orqa tomondan mahkamlanadigan

ing. - backpack

rus. - дополнительный, прикрепляемый сзади

Kompyuter korpusining orqa tomonidagi, qurilmalarni o'rnatish uchun mo'ljallangan port yoki uya.

Qo'shimchalar

ing. - add-ins

rus. - добавки

Alohida o'rnatiladigan va dasturga yangi operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan qo'shimchalar.

Qo'shish ko'prigi

ing. - combining unit

rus. - мост сложения

Umumiy antenna bilan uzatish uchun tur-

li kanallarda ishlaydigan bir nechta uzatgichlardan televizion signallarni kombinatsiyalash imkonini beradigan qurilma.

Qo'shmoq

ing. - add

rus. - добавит

Avvaldan mavjud ro'yxatga yangi elementni qo'shish.

Qo'yilganlik

ing. - nesting

rus. - вложенность

O'xshash yoki boshqa bir konstruksiyaga kirish yuz beradigan algoritmlar, dastur, komanda tuzilmasi. Masalan, sikldagi sikl, shartli operatoridagi shartli operator.

Qo'yish

ing. - paste

rus. - вставить

Obyekt (fayl, matn, tasvir va sh.k.lar)ni almashinuv buferidan olib qo'yish.

Qo'yish nuqtasi

ing. - insertion point

rus. - точка вставки

Axborot (ma'lumot) kiritiladigan joyni belgilaydigan, ekrandagi lipillaydigan tik chiziq, kursor.

Qo'zg'atish

ing. - excitation

rus. - возбуждение

Elektromagnit tebranishlarning, to'lqino'tkazgich yoki yorug'lik o'tkazgich kirishiga uzatilishi.

Qo'zg'atgich

ing. - exciter

rus. - возбудитель

1. Uzatgichdagi yuqori chastotali, masalan, koaksial-tiriqshli yoki to'lqin o'tkazgich turidagi generatsiya.

2. Modulyator va chastotalarning ishini to'rini shakllantiruvchi chastotalar sintezatorini o'z ichiga oluvchi qurilma. Qo'zg'atgich tarkibiga signalni oldindan kuchaytirish qurilmasi kirishi mumkin.

R

Rad etib bo'lmashlik

ing. - non-repudiation
rus. - неотказуемость

1. Muayyan hodisa yoki faoliyatning yuzaga kelishini isbotlash va ularni initsiatsiya qiluvchi mantiqiy obyektlarni aniqlash imkoniyati.

2. Xabarlarini kafolatli yetkazib berish bilan elektron hujjatlarni almashish protsedurasi. Bunday protsedura natijasida jo'natuvchi uzatish faktini, oluvchi esa xabar muddatida yetkazilmaganligini rad etolmaydi.

Rad etish

ing. - refuse

rus. - отклонить

Biror bir foydalanuvchi tomonidan bajarilgan hujjatdagi yoki moslamalardagi o'zgarishlarni rad etish va avvalgi konfiguratsiyaga yoki hujjatga qaytish.

Rad etish (radiokanaldan foydalanishni)

ing. - retinquisition

rus. - отказ (от радиоканала)

Kanaldagi sifat yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada past bo'lishi tufayli, aloqa xizmatlaridan foydalanishning to'xtatilishi.

Rad etmoq

ing. - deny

rus. - отказать

Foydalanuvchi tomonidan, qurilma, fayl, papkadan foydalanishga urinish yoki yetarli huquqlarga ega bo'lmay turib, biror-bir dasturni bajarish uchun ruxsatni rad etish.

Radial tizim

ing. - star system

rus. - радиальная система

Barcha abonent liniyalari bitta nuqtadan boshlanadigan kabel taqsimlash tizimi.

Radial-kommutatsion tizim

ing. - switched-star system

rus. - радиально-коммутационная система

Abonent liniyalarining har biri alohida ulanishi mumkin bo'lgan radial yoki ko'p radial tizim.

Radiatsion himoya; **nurlanishdan himoya qilish**

ing. - radiation protection

rus. - радиационная защита;

защита от излучения

1. Ham tabiiy, ham sun'iy xarakterdagi ionlashtiruvchi nurlanishlar ta'siridan odamlar va uskunalarni himoya qilish.

2. Ekranlash va nurlanish darajasini kuchsizlantirish imkonini beradigan boshqa texnik chora-tadbirlar.

Radio aks sado

ing. - radioecho

rus. - радиозэхо

Signalning tarqalish yo'lida joylashgan obyektдан qaytgan va undan keyingi kuza-tish punktida qabul qilingan elektromagnit signal. Barcha zamonaviy radiolokatsiya radio aks sadosining obyektдан kuzatuv punktigacha o'tish vaqtini o'lchashga asoslangan.

Radiolaloqa

ing. - radio communication

rus. - радиосвязь

Radioto'lqinlar yordamida amalga oshiriladigan aloqa.

Radiolaloqa reglamenti

ing. - Radio regulations

rus. - Регламент радиосвязи

Radiolaloqa xizmatlari tomonidan radiochastota spektridan foydalanish tartibini aks etiruvchi asosiy hujjat.

Radioelektron qurilma

ing. - radio electronic device

rus. - радиоэлектронное устройство

Bitta yoki bir nechta radiouzatish va/yoki qabul qilish vositasi hamda yordamchi uskunasiidan tashkil topgan texnik qurilma.

Radioelektron vosita

ing. - radio electronic tool

rus. - радиоэлектронное средство

Radioto'lqinlar uzatishga va qabul qilishga mo'ljallangan bitta yoki bir nechta radiouzatuvchi yoki qabul qiluvchi qurilma yoki ularning birkmasi va yordamchi uskunalaridan iborat bo'lgan texnik vosita. Bu vosita uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan, o'z ishida chastotasi 5 KHzdan yuqori

bo'lgan elektromagnit tebranishlardan foydalanadigan radiostansiyalar, radiotelefonlar, radionavigatsiya va radioaniqlash tizimlari, kabel teleko'rsatuvlari tizimi hamda boshqa vositalardan iborat.

Radioelektron vositaning ta'sirchanligi

ing. - susceptibility of radioelectronic device

rus. - восприимчивость

радиоэлектронного средства

Radioelektron vosita va uning tarkibiy qismlarining, antenna orqali yoki antennadan tashqarida bo'ladigan elektromagnit, elektr, magnit maydonlar ko'rinishidagi yoki fiderdagi, ta'minot, boshqaruv, axborotni uzatish, kommutatsiyalash va yerga ulash zanjirlaridagi kuchlanishlar yoki toklar ko'rinishidagi radioxalaqitlarga javob qaytarish xususiyati.

Radioeshittirish diapazoni

ing. - radiobroadcasting band

rus. - радиовещательный диапазон

Radioeshittirish xizmati uchun Xalqaro elektraloqa ittifoqi Radioaloqa reglamenti tomonidan ajratilgan chastotalar polosasi.

Radiokanal

ing. - radio channel

rus. - радиоканал

Ma'lumotlar uzatish uchun radionurlanishdan foydalanadigan kanal. Radiokanal radio-uzatgich va radio qabul qiluvchidan tarkib topadi. Radionurlanish chastotasi radiokanal vazifasiga ko'ra tanlanadi. Axborot tarmoqlarida radiokanallar ikki maqsadda ishlatiladi. Birinchisi – abonent tizimini kabellar guruhi asosida qurilgan tarmoq bilan ulash. Bunga yer bo'ylab kabel tortish iloji bo'lmasa yoki tizim bir joydan boshqasiga ko'chib yursa ehtiyoj tug'iladi. Ikkinchisi – radiotarmoq yaratishda ishlatiladi.

Radiomayoq kanali

ing. - bearer channel

rus. - канал радиомаяка

Simsiz kira olish tarmoqlarida, tayanch stansiyalar marker signalini uzatish uchun foydalanadigan kanal.

Izoh – Qabul qilinayotgan signal darajasini o'lchash orqali mobil abonent aloqaning sifatini baholash va

aloqa davomida qabul qilishning eng yaxshi sharoitlari ta'minlanadigan tayanch stansiyaning tanlashi mumkin. Tayanch stansiya bilan aloqa oldindan so'rovlar va boshqa xizmat komandalarini uzatmasdan amalga oshiriladi.

Radionurlanish

ing. - radio-frequency radiation

rus. - радиоизлучение

Elektromagnit spektrda infraqizil nurlanishdan oldin joylashgan elektromagnit nurlanish. Tebranish chastotasi 3-30 KGsdan 300-6000 GGsgacha bo'lgan elektromagnit to'lqinlari radionurlanishga oiddir. Bu chastotalar polosasini olti diapazonga bo'lish qabul qilingan. Bu diapazonlar radionurlanishlar tarqalishi xususiyatini belgilab beruvchi turli xil radioto'lqinlarga tegishli. Shuni nazarda tutish kerakki, bu polosalar doimiy bo'lmay, radiotexnika rivojlangan boran sari kengayib boradi.

Radionurlanishning zarur chastotalar polosasi

ing. - necessary baseband of radio radiation

rus. - необходимая полоса частот радиоизлучения

Signalni talab qilingan tezlik va sifat bilan uzatish uchun yetarli bo'lgan berilgan turkumdagi radionurlanish chastotalarining minimal polosasi.

Radiooptik antenna panjarasi

ing. - radio-optical array

rus. - радиооптическая антенная решетка

Kogerent optika va golografiya vositalarida yo'nalganlikning fazoviy xarakteristikalarini shakllantirishga ega antenna panjarasi.

Radiopeleng

ing. - radio bearing

rus. - радиопеленг

Radiopelengatorming antenna tizimi o'rnatilgan joydan radiosignallar nurlatadigan obyektga bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalish, gorizontal tekislikdagi radiopelengatorming antenna tizimi o'rnatilgan joyi orqali o'tuvchi haqiqiy yoki magnit meridianning shimoliy yo'nalish bilan bu joydan obyektning gorizontal tekislikka proeksiyasiga bo'lgan yo'nalish orasidagi, 0° dan 360° gacha hisoblanadigan burchak bilan o'lchanadi.

Radioqabul qilgichning

shovqin koeffitsiyenti

ing. - factor of noise of a radio receiver

rus. - коэффициент

шума радиоприемника

Signal manbaining temperaturasi 293 K bo'lganda, detektor kirishida yoki radioqabul qilgich chiziqli qismining chiqishida o'lgan shovqin darajasining, tegishli chiqishda bo'lishi mumkin bo'lgan shovqin quvvatiga nisbati (agar signal manbai yagona shovqin manbai bo'lishi mumkin bo'lganda).

Radioqidiruv xizmati

ing. - radio search service

rus. - служба радиопонска

Abonentga belgilangan zonada ishlab turgan shaxsiy qurilma yordamida umumiy foydalanishdagi tarmoqning istalgan telefon apparatidan chaqiruv to'g'risida radio orqali ogohlantirishni olish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - Ogohlantirish tovushli xabarnoma yoki kodlangan shakldagi vizual indikatsiya bilan kuzatilishi va chaqiruvchi shaxsdan kelib tushishi yoki tarmoqning o'zida generatsiya qilinishi mumkin.

Radiorazvedka; radio tutib olish

ing. - radio reconnaissance

rus. - радиоразведка; радиоперехват

Spektral tarkibini, modulyatsiya turini va ishlayotgan bir radiostansiyani boshqasidan ajratish imkonini beruvchi boshqa aloqatarni tahlil qilish maqsadida, aloqa vositalari yordamida nurlantiriladigan signallarni qabul qilish.

Radioreleli kanal

ing. - radio-relay channel

rus. - радиорелейный канал

Televizion radioreleli signalni uzatishda foydalaniladigan chastotalar polosasi.

Radioreleli liniya

ing. - microwave radio

rus. - радиорелейная линия

O'ta yuqori chastota diapazonida ishlaydigan radiokanal. Radioreleli liniya 2, 7, 13, 15, 18, 23, 38 GGs chastotalarda ishlaydigan, o'tkazish polosasining kengligi 3,5-28 MGs bo'lgan, 50 km uzoqlikkacha

ma'lumotlarni uzata oladigan yerusti radio tarmog'ining tarkibiy qismidir.

Radioreleli qabul qilgich

ing. - radio-relay receiver

rus. - радиорелейный приемник

Kirishiga televizion radioreleli liniya signali keladigan, chiqishidan esa radioreleli liniyaning chiquvchi televizion signali olinadigan apparatura kompleksi.

Radioreleli uzatgich

ing. - radio-relay transmitter

rus. - радиорелейный передатчик

Muayyan bir apparatura kompleksi, uning kirishiga radioreleli liniyaning kiruvchi televizion signali keladi, chiqishida esa, radioreleli liniyaning chiquvchi televizion signali mavjud bo'ladi.

Radiosignal eltuvchisini raqamli

televizion signal bilan kvadratura

fazaviy manipulyatsiya qilish

ing. - quadrature phase shift keying

rus. - квадратурно-фазовая манипуляция несущей радиосигнала цифровым телевизионным сигналом

Modulyatsiyalovchi diskret raqamli televizion signalning har bir ahamiyatli holati radiosignal eltuvchisi fazasining raqamli televizion signal oldindagi elementining radiosignal eltuvchisi fazasiga nisbatan diskret o'zgarishi orqali ifodalangan eshittirish tevideniysi radiosignali eltuvchisining fazaviy manipulyatsiyasi.

Radiosignalning

kvadraturaviy diagrammasi

ing. - quadrature pattern

rus. - квадратурная

диаграмма радиосигнала

Eshittirish tevideniyesi radiosignalining, kvadraturaviy modulyator chiqishidagi radiosignallar fazasini mos tarzda aks ettirish uchun koordinatalarning to'g'ri burchakli koordinatalar tizimiga aylantirilgan qutbiy diagrammasi.

Izoh - I gorizontal o'q bo'yicha radiosignalning sin-fazali kanalidagi darajasi, Q vertikal o'q bo'yicha esa, kvadratura kanalidagi darajasi ajratiladi.

kuzatish, undan foydalanishni baholash, radiochastota spektri to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va bartaraf etish uchun mo'ljallangan tashkiliy-texnik tadbirlar kompleksi.

Radiochastota spektridan foydalanuvchi

ing. - user of a frequency spectrum

rus. - пользователь

радиочастотного спектра

Radiochastotalardan foydalanish va radioelektron vositalar yoki yuqori chastotali qurilmalarni ekspluatatsiya qilish uchun radiochastota idorasining tegishli ruxsatiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Radiochastota spektrining bandligi

ing. - employment of

radiofrequency spectrum

rus. - занятость радиочастотного спектра

Ma'lum vaqt oralig'ida bitta chastotada, bita radiochastota kanalida yoki chastotalar polosasida nurlanish mavjudligining davomiyligi.

Radiochastotalar diapazoni

ing. - radio frequency range

rus. - диапазон радиочастот

Tebranishlar o'xshash xossalarga ega bo'ladigan uzluksiz chastotalar intervali.

Radiochastotalar diapazoni (quyi diapazoni)ning qoplash koeffitsiyenti

ing. - overlapping coefficient band (sub-band) of the radio frequency bandwidth

rus. - коэффициент перекрытия

диапазона (поддиапазона) радиочастот Ishchi chastotalar diapazoni (quyi diapazoni) eng yuqori chastotasining shu diapazon (quyi diapazon) ning eng yuqori chastotasiga nisbati.

Radiochastotali ma'lumotlar

uzatish vositalari

ing. - radio frequency

facility of data migration

rus. - радиочастотные средства

передачи данных

Fayllarni radiokanal orqali (to'g'ri ko'rinishsiz) kompyuterdan printerga, ma'lumotlar to'plagichga 9-12 m ga uzatish uchun xizmat qiladigan elektron qurilmalar va das-

turiy vositalar. Ishlashda qulaylik yaratadi, ulardan foydalanilganda qurilmalarni o'zaro birlashtiradigan kabellar kerak bo'lmaydi.

Ramdrayv

ing. - ram drive

rus. - рамдрайв

Tezkor xotirada modellashtiriladigan psevdodisk; mantiqiy diskni imitatsiya qilishi uchun ajratilgan kompyuter tezkor xotirasining bir qismini o'zida ifodalaydi

Ramkasimon antenna

ing. - loop antenna

rus. - рамочная антенна

Asosiy elementi ixtiyoriy shakldagi, bir yoki ko'p o'ramli ramka bo'lgan antenna.

Ramziy havola

ing. - symbolic link

rus. - символическая ссылка

Haqiqiy faylga ko'rsatgich bo'lgan faylning maxsus bir turi. Siz havola bilan ishlayotganingizda, aslida haqiqiy fayl bilan ishlayotgan bo'lasiz.

Ramziy mantiq

ing. - symbolic logic

rus. - символическая логика

Xulosalar chiqarish uchun tabiiy til ifodalaridan emas, balki simvollardan foydalaniladigan matematik mantiq.

Ramziy manzil

ing. - symbolic address

rus. - символический адрес

Dasturchu uchun qulay shaklda ifodalangan va absolyut manzilni avtomatik tarzda aniqlash imkonini deradigan manzil.

Randevu

ing. - rendezvous

rus. - randevу

Jarayonlar kommunikatsiyasi mexanizmi, bunda ikkala jarayon xabarlarini uzatish tugagunga qadar to'xtatiladi.

Randomizatsiya(lash)

ing. - randomisation

rus. - рандомизация

Ma'lumotlarda identik bloklar mavjudligini yashirish maqsadida, ma'lumotlarning psevd-

dotasodifiy ketma-ketligidan foydalanib, shifrlashdan oldin yoki shifrlash paytida boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartirish.

Rang balansi, balans

ing. - colour balance

rus. - цветовой баланс, баланс

Asosiy ranglar signali darajasining normalangan axromatik obyektlarni tahlil yoki axromatik tasvirlarni sintez qilishda tayanch oqning rangliliigi bilan tengligi.

Izoh - Axromatik obyektlar oq, kul rang yoki qora rangda bo'lishi mumkin.

Rang buzilishlari

ing. - colour distortions

rus. - цветовые искажения

Obyekt ranglari va qayta tiklanayotgan tasvirning tegishli ranglari o'rtasidagi sezilarli farq.

Rang kontrasti

ing. - colour contrast

rus. - цветовой контраст

Rang grafida ikkita ranglilikni bog'lovchi to'g'ri chiziqda yotuvchi rang chegaralarining soni bilan o'lchanadigan ranglilikdagi farq.

Rang koordinatalari

ing. - tristimulus values

rus. - координаты цвета

Namunaga mos kelishi uchun aralashtirilishi kerak bo'lgan asosiy ranglar miqdori.

Izoh - YoXK (Yoritish bo'yicha xalqaro komissiya) tizimida X, Y, Z simvollarini bilan belgilanadi.

Rang koordinatalarini o'zgartirish

ing. - transformation of colour coordinates

rus. - преобразование

цветовых координат

Asosiy ranglarning bir tizimiga tegishli bo'lgan ranglarning rang koordinatalarini asosiy ranglarning boshqa tizimiga tegishli bo'lgan aynan o'sha ranglarning rang koordinatalari bo'yicha hisoblash.

Rang parametrlari

ing. - colour parameters

rus. - параметры цвета

Rangning uchta subyektiv, ajralmas sifati: rang toni, to'yinganligi va yorqinligi.

Rang signali

ing. - chromatic signal, colour signal

rus. - цветовой сигнал

Rangli televizion tasviring rangliliğini to'liq yoki qisman aks ettiruvchi elektr signali.

Rang sinxronizatsiyasi

ing. - chromatic synchronization,

colour synchronization

rus. - цветовая синхронизация

Ranglilik signallarining sinxronligi va/yoki sinfaziligini o'rnatish hamda saqlab turish.

Rang sinxronizatsiyasi signali

ing. - signal of chromatic (colour)

synchronization

rus. - сигнал цветовой синхронизации

Muayyan shakldagi impulslar bilan molyatsiyalangan rang quyi eltuvchi signali.

Rang temperaturasi

ing. - colour temperature

rus. - цветовая температура

Tiklanadigan tasvir rang tonining obyektiv o'lchovi. U yorug'lik manbai nurlanishining spektral tarkibini, shuningdek, yorug'lik manbai rangidan olinadigan obyektiv taassurotni tavsiflaydi. Ekkranda oq rangning «oqlik darajasi»ni belgilaydi (Kelvinda o'lchanadi).

Rang teranligi

ing. - color depth

rus. - глубина цвета

Tasvirning bitta pikselini kodlash uchun kerak bo'lgan bitlar soni.

Rang turi

ing. - shade

rus. - оттенок

Rangning spektrdagi o'mini aniqlaydigan qiymat. Masalan, yashil rang sariq va moviy ranglarning orasida joylashadi. Ishchi stolda bu atributni boshqaruv paneli orqali ham berish mumkin.

Rang uzatish indeksi

ing. - color rendition index

rus. - индекс цветопередачи

Muayyan kuzatish sharoitlarida tadqiq etilayotgan va standart yorug'lik manbalari bilan yoritilgan rangli obyektini ko'rish orqali idrok etishning muvofiqlik o'lchami.

Rang uzatish ishonchligi

ing. - color rendition fidelity

rus. - верность цветопередачи

TV tasvir ranglarining etalon sifatida qabul qilingan ranglarga mos kelish darajasi.

Rang uzatish sifati

ing. - color depth

rus. - качество цветопередачи

Qar.: Rang teranligi.

Rang videosignali

ing. - colour video signal

rus. - цветовой видеосигнал

Rangli televizion tasvir xarakteristikalarini aks ettiruvchi elektr signali.

Ranglar sxemasi

ing. - color schema

rus. - цветовая схема

Ekran elementlari uchun o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ranglar kombinatsiyasi.

Ranglarni aralashtirish

ing. - registration

rus. - сведение

Tegishli tasvirlar mos tushishiga erishilgunga qadar, ya'ni qizil, yashil va ko'k elektron nurlarining bir pikselda uchrashguniga qadar asosiy ranglar maydonlarining uchta yoyish rastrlarini rostdash. Yomon aralash-tirish monitoring ruxsat etish qobiliyatini pasaytirib oq piksellar rangini kirlantiradi.

Ranglarni tiklash ishonchligi

ing. - colour reproduction faithfulness

rus. - верность воспроизведения цветов

Ikkita rang shkalasi bo'yicha pasaytirilgan to'yinganlik shkalasi bo'yicha «oq» ning darajasi 75 foiz, «qora»ning darajasi 37,5 foiz va darajasi 75/0 75/0 bo'lgan signallar orqali shakllantirilgan yuqori to'yinganlik shkalasi bo'yicha vizual baholash.

Ranglarning uzilishi

ing. - colour breakups

rus. - разрывы цветов

Kuzatish sharoitlaridagi farq tufayli ikki maydon orasida paydo bo'ladigan har qanday soxta rang. Kuzatish sharoitlarining tez o'zgarishi tufayli tasvirning tiklash qurilmasida rangli tasvir asosiy rang tashkil etuvchilariga qisman ajralishi yoki har qanday yoyilib ketishi.

Rangli polosalar

ing. - coloured bands

rus. - цветные полосы

1. Rangli signalning sifatini baholash uchun vertikal rangli polosalar hosil qiluvchi televizion sinov jadvali.

Izoh - Odatda, bu jadval oq, sariq, havo rang, yashil, to'q qizil, qizil, ko'k va yashil ranglarga mos keluvchi sakkizta polosadan iborat bo'ladi.

2. Belgilangan ketma-ketlikda joylashgan asosiy, qo'shimcha, qora va oq ranglarning vertikal yoki gorizontal polosalaridan tashkil topgan elektr sinov jadvali.

Rangli quyi eltuvchi fazasi

inversiyasining qo'zg'almas o'qi

ing. - stationary c-p-a axis

rus. - неподвижная ось

инверсии фазы цветовой поднесущей

Qayd etilgan etalon faza, unga nisbatan ranglilik signali rangli quyi eltuvchida doimiy ranglilik uchun keyingi maydonlar vaqtida teng va qarama-qarshi burchak qiymatlarini oladi, bu etalon faza barcha ranglilik uchun yagonadir.

Rangli quyi eltuvchi fazasining

inversiyasi

ing. - chromatic subcarrier phase alternation

rus. - инверсия фазы

цветовой поднесущей

Ranglilik signali quyi eltuvchisining bitta yoki bir nechta tashkil etuvchisi rangli fazasining ikkita belgilangan qiymat o'rtasida davriy o'zgarishi.

Rangli rirproyeksiyaga kiritish

ing. - introduction of chromatic projection.

rus. - введение цветовой рирпроекции

Rangli rirproyeksiya tizimini boshqarish. Bu bir videosignalni boshqasining ustiga elektron tushirish jarayonidir. Ustiga tushirish maydoni yoki zonasi signallardan birining rang to'yinganlik darajasi bilan belgilanadi. Ustiga tushirishni amalga oshirish uchun rang to'yinganlik alohida xususiy ajrata olish xossasiga yoki chastotalar polosasiga ega bo'lishi kerak.

Rangli tasvir signali

ing. - signal of chromatic image

rus. - сигнал цветного изображения

Barcha sinxronlovchi signallardan boshqar...

rangli tasvir to'g'risidagi to'liq axborotni ichiga oluvchi elektr signali.
Izoh - Rangli tasvir signalining bir turi monoxrom tashkil etuvchini va ranglilik axboroti modulyatsiyalagan quyi etuvchini ichiga oladi.

Rangli televideniyening bir vaqt­dagi satr­navbat­ma­navbat tizimi
ing. - simultaneous line sequential colour television system

rus. - одновременная строчно­поочередная система цветного телевидения

Rangli televideniye­ning, yorug'lik signali uzluksiz uzatiladigan, ranglilikni uzatish uchun navbat­ma­navbat satr bo'yicha almashinib, lekin yorug'lik signali bilan bir vaqtda uzatiladigan ikkita signaldan foydalaniladigan tizimi.

Rangli televideniyening bir vaqt­dagi tizimi

ing. - simultaneous colour television system

rus. - одновременная система цветного телевидения

Rangli televideniye­ning, asosiy ranglarga mos keladigan signal tashkil etuvchilari bir vaqtda uzatiladigan tizimi.

Rangli televideniyening komponent tizimi

ing. - component colour television system

rus. - компонентная система цветного телевидения

To'liq videosignal bir nechta alohida tashkil etuvchilar shaklida mavjud bo'ladigan rangli televideniye tizimi.

Rangli televideniyening maydon­navbat­ma­navbat tizimi

ing. - field sequential colour television system

rus. - полево­поочередная система цветного телевидения

Rangli televideniye­ning navbat­ma­navbat tizimi, bunda asosiy ranglarga mos keluvchi signal tashkil etuvchilari maydon bo'y­lab navbat bilan almashinib uzatiladi.

Rangli televideniyening navbat­ma­navbat tizimi

ing. - sequential colour television system

rus. - поочередная система цветного телевидения

Rangli televideniye­ning, asosiy ranglarga mos keluvchi signal tashkil etuvchilari navbat­ma­navbat uzatiladigan tizimi.

Rangli uzatish

ing. - colour transmission

rus. - цветовая передача

Qayta tasvirlashni turli rang toni, to'y­ingan­lik hamda yorqinlik qiymatlari bilan ta'minlashi mumkin bo'lgan rangli televideniye signalini uzatish.

Ranglilik diagrammasi

ing. - chromaticity diagram

rus. - диаграмма цветности

Ranglilik uchta koordinatasidan birining boshqasiga bog'liq ravishda tuzilishidan hosil bo'lgan diagramma.

Ranglilik grafigi

ing. - diagram of chromaticity

rus. - график цветностей

Rangning ranglilik koordinatalarini o'zida aks ettiradigan ma'lum o'qlar bo'y­lab o'lchanadigan masofa tekis grafigi.

Izohlar

1. Odatda, ikkita ortogonal o'q, xususan, ranglilik grafigida - xy yoki Xalqaro yoritish bo'y­icha komissiya­ning ranglilik teng kontrastlilik grafigida uv foydalaniladi.

2. Ranglilik grafigida real ranglar monoxromatik ranglarni aks ettiruvchi nuqtalarni va boshqa tomondan, bu egri chiziqning to'q qizil ranglilik liniyalari deb nomlanadigan to'g'ri liniyasi bilan cheklangan sath qismini egallaydi.

(Ranglilik grafikasidagi) oq zona

ing. - white zone

(in a chromaticity diagram)

rus. - зона белого

(на графике цветностей)

Axromatik sezgirlikni kuzatish sharoitlarida yetarlicha yaxshi mos keladigan ranglilikni taqdim etadi, deb hisoblash mumkin bo'lgan ranglilik grafikasidagi zona.

Ranglilik kanali

ing. - chrominance path

rus. - канал цветности

Televizion uskunaning ushbu blokidan ranglilik signali bilan o'tadigan yo'l.

Ranglilik modulyatori

ing. - modulator of chromaticity

rus. - модулятор цветности

Rangli televizion uzatishda ranglilik signali va rang quyi eltuvchisining videochastotaviy tashkil etuvchilaridan ranglilik signalini hosil qilish uchun qo'llaniladigan modulyator.

Ranglilik quyi eltuvchisining signali

ing. - chrominance sub-carrier signal

rus. - сигнал поднесущей цветности

Modulyatsiyalangan ranglilik quyi eltuvchisining rangga oid axborotni uzatish uchun monoxrom signalga qo'shiladigan yon polosalari.

Ranglilik signali

ing. - signal of chrominance

rus. - сигнал цветности

1. Rangli axborotni ko'chirishda yorqinlik signaliga qo'shiladigan elektr signal. Bu signal amalda ikki ayirmarang signal bilan modulyatsiyalangan ikkita tashkil etuvchidan iborat bo'ladi.

2. Ayirmarang signallar bilan modulyatsiyalangan bitta yoki bir nechta ranglilik quyi eltuvchisi va rang sinxronizatsiyasi signali.

Ranglilik signali eltuvchisi

ing. - chrominance signal carrier

rus. - несущая сигнала цветности

Qar.: Ranglilik signalining quyi eltuvchisi.

Ranglilik signali eltuvchisining chastota etaloni

ing. - standard of carrier

frequency of chrominance signal

rus. - эталон несущей

частоты сигнала цветности

Ranglilik signalining quyi eltuvchisi ega bo'lgan chastotaga va rang chaqnashiga nisbatan qayd etilgan fazaga ega uzluksiz signal. Bu signal etalon hisoblanadi.

Ranglilik signalining kanali

ing. - chrominance signal channel

rus. - канал сигнала цветности

Rangli televideniye tizimidagi ranglilik signalini rangli quyi eltuvchiga o'tkazish uchun mo'ljallangan har qanday trakt.

Ranglilik signalining quyi eltuvchisi

ing. - chrominance signal subcarrier

rus. - поднесущая сигнала цветности

Rang axborotini uzatish uchun monoxrom signalga modulyatsiya yon polosalari qo'shiladigan eltuvchi. Ranglilik axboroti modulyatsiyalaydigan eltuvchi.

Ranglilik signalining tashkil etuvchisi

ing. - component of signal of chrominance

rus. - составляющая сигнала цветности

Ranglilik signalining quyi eltuvchi kuchlanishini tegishli fazada ranglilik asosiy rang signali bilan modulyatsiyalashda olinadigan tashkil etuvchisi.

Ranglilik vektori

ing. - chrominance vector

rus. - вектор цветности

Rang fazosidagi va doimiy yorug'lik tekisligidagi vektor, uning boshlanishi yorug'lik o'qida, tugashi esa rangli nurlanishni aks ettiradigan o'qda joylashgan.

Ranglilik vektori tashkil etuvchilari

ing. - components of vector of chrominance

rus. - составляющие вектора цветности

Ranglilik vektorining doimiy yorug'lik tekisligidagi ikkita o'qqa taalluqli, rangli fazo yorug'lik o'qida umumiy boshlanishga ega ikkita tashkil etuvchisi.

Ranglilik vektorining o'qi

ing. - axis of vector of chrominance

rus. - ось вектора цветности

Rangli fazo doimiy yorug'ligi sirtidagi ikkita o'qdan biri, ular bo'ylab ranglilik vektorining tashkil etuvchilari ajratib qo'yiladi.

Ranglilikni uzgich

ing. - colour killer

rus. - выключатель цветности

Rangli televizordagi, qabul qilinayotgan signalda rangli axborot mavjud bo'lmagan-

da, ranglilik kanalini yopish yo'li bilan qora-oq tasvimi qayta tiklashni ta'minlash uchun xizmat qiladigan qurilma.

Ranglilikning asosiy dag'al rangi

ing. - basic coarse colour of chrominance

rus. - основной грубый цвет цветности

Uzatishning, yorqinligi nolga teng, ranglilikni chastotalar polosasining minimal kengligi bilan uzatishga mos keladigan va rangli tasvirning subyektiv aniqligiga nisbatan kam ta'sir etishi hisobiga tanlangan asosiy rangi.

Ranglilikning asosiy nozik rangi

ing. - basic fine colour of chrominance

rus. - основной тонкий цвет цветности

Uzatishning, yorqinligi nolga teng, ranglilikni chastotalar polosasining maksimal kengligi bilan uzatishga mos keladigan va rangli tasvirning subyektiv aniqligiga ta'sir etishi muhimligi uchun tanlangan asosiy rangi.

Ranglilikning asosiy rangi

ing. - basic colour of chrominance

rus. - основной цвет цветности

Yorqinligi nolga teng bo'lgan uzatishdagi ikkita asosiy rangdan biri.

Ranglilikning miltillashi

ing. - chromaticity flicker

rus. - мерцание цветности

Faqat ranglilikning o'zgarishlari natijasida paydo bo'ladigan miltillash.

Ranglilikning to'yinganligi

ing. - saturation of chrominance

rus. - насыщенность цветности

Berilgan nurlanish ranglilikini sezishning oqning ranglilikini sezishdan farqlash darajasi.

Ranglilik-yorqinlik kesishuvchi buzilishi

ing. - chrominance-brilliance

cross-distortion

rus. - перекрестное искажение

цветность-яркость

Yorqinlik signalining ranglilik signali keltirib chiqaradigan buzilishi.

Rangni kodlash tizimi

ing. - colour system of coding

rus. - цветовая система кодирования

Rang koordinatalari yorqinlik signali va ayimarang signallar orqali belgilanadigan rang koordinata tizimi.

Rangni tiklash tizimi

ing. - reproduction colour system

rus. - цветовая система воспроизведения

Qayta tiklash qurilmasi uchta asosiy rangning nominal rangliliigi va tayanch oqning rangliliigi bilan belgilanadigan uch rangli kolorimetrik tizim.

Rangning bir xilligi

ing. - homogeneity of colour

rus. - однородность цвета

Katta uzunlikdagi yirik oq, kul rang va qora uchastkalardagi ishchi maydon bo'ylab nazorat qilinadigan tasvir.

Rangning «sudralish»

ing. - chroma creep

rus. - «наполнение» цвета

Tasvir nuqsoni, bunda to'yingan ranglar, ayniqsa, vertikal qizil chiziqlar «shovqinli» bo'lib qoladi.

Rangning to'yinganligi

ing. - saturation (of a colour)

rus. - насыщенность цвета

Rang bo'yicha ko'rib chiqilayotgan rang omili bilan tenglashadigan ma'lum axromatik oxirgi omilning additiv aralashmasidagi monoxromatik rang omilining ulushi bilan tavsiflanadigan rang belgisi.

Izohlar

1. Televideniya to'yinganlik tushunchasi kolorimetriyada qo'llaniladigan rang tozaligi tushunchasiga o'xshash.

2. Rangning to'yinganligi uning monoxromatik rangga yaqinlashgani sari ortib boradi.

3. Qimmizi stimullarida monoxromatik stimullar qimmizi ranglilik liniyalaridagi tegishli nuqtadagi stimullar bilan almashtiriladi.

Ranjirlash

ing. - ranking

rus. - ранжирование

Obyektlar yoki ma'lumotlarni, tasniflash

maqsadida darajalar bo'yicha qandaydir belgilarga ko'ra taqsimlash. Tasniflanadigan obyektlar yoki ma'lumotlar taqsimlanadigan darajalar ranglar deb ataladi.

Raqam-analogli o'zgartirgich
ing. - digital-to-analog converter

rus. - цифро-аналоговый преобразователь

Raqamli kod ko'rinishidagi diskret signallarni, ularga ekvivalent bo'lgan analog (vaqt davomida uzluksiz bo'lgan) signallarga avtomatik o'zgartiradigan qurilma.

«Raqam bilan bog'lanish mumkin emas» tonal signali

ing. - number-unobtainable tone
rus. - тональный сигнал

«номер недоступен»
Chaqiruvchi abonentga chaqiriluvchi abonentning raqamiga bog'lanish mumkin bo'lmagan holatda uzatiladigan tovushli signalizatsiya (masalan, chiqariluvchi, ret-ranslyatorning ta'sir zonasidan tashqarida yoki uning radiostansiyasi o'chirilgan bo'lsa). Agar liniya band bo'lsa yoki abonent javob bermasa, bunday vaziyatda «raqam bilan bog'lanish mumkin emas» signali hosil qilinadi.

Raqam termasdan bog'lanish
(yarim doimiy bog'lanish)

ing. - semipermanent connection
rus. - соединение без набора номера (полупостоянное соединение)

Raqam termasdan bog'lanishni ta'minlovchi xizmat.

Izoh - MML komandasi yordamida operator foydalanuvchini oldindan buyurtma berilgan manzil bilan bog'laydi.

Raqam teruvchi
ing. - dialer

rus. - набиратель номера
Foydalanuvchi kompyuteriga keyinchalik yuklanadigan va ishga tushiriladigan unchalik katta bo'lmagan ushbu dastur modem aloqasini to'lovli modem puli orqali amalga oshirishga harakat qiladi.

Raqamdan universal foydalanish xizmati
ing. - universal access number service
rus. - услуга универсального доступа к номеру

Mamlakatning turli qismlarida mamlakatning istalgan nuqtasidagi bir nechta telefon apparatlariga ega bo'lgan abonent bilan, bitta aniq raqamni terish orqali bog'lanish imkoniga ega xizmat. Mamlakatning o'zaro bog'langan zonalarida joylashgan telefon stansiyalariga ulangan abonentlar tomonidan chaqiruvlar ushbu zonalaridagi shu xizmatlardan foydalanadigan telefon apparatlariga (ayrim cheklashlar bilan) yo'llanadi.

Raqamlarni siklik saralash
ing. - tumbling

rus. - циклический перебор номеров
O'xshash telefonlarning raqamlarini siklik saralash orqali yopiq klonlash, unda har bir keyingi chaqiruv yangi raqam bilan amalga oshiriladi.

Raqamlash (nomerlash)
ing. - numbering, numeration

rus. - нумерация
Tarmoq obyektlari o'rtasida raqamlarni taqsimlash jarayoni, bunda ularning bir ma'noili identifikatsiya qilinishi kafolatlanadi.

Raqamlash tizimi
ing. - numbering system

rus. - система нумерации
Operatorlar, provayderlar va foydalanuvchilarning oxirgi (terminal) uskunasi o'rtasida raqamlash va taqsimlash tartibi hamda qoidalari.

Raqamlashtirish
ing. - digitization

rus. - оцифровка
Analog signalni diskret signalga aylantirish jarayoni, ya'ni analog ma'lumotlarni raqamli, kompyuter muhitida mavjud bo'la oladigan va mashina o'qiydigan tashuvchilarda saqlanadigan shaklga o'tkazish. Analog tasvirlarni raqamlash ko'pincha skaner yordamida bajariladi.

Raqamli
ing. - digital

rus. - цифровой
Ma'lumotlarning qandaydir chekli to'plam-

dan bo'lgan belgilar ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etilishini tavsiflaydi. Kompyuter texnikasida «raqamli» atamasi «ikkili» atamasining sinonimi hisoblanadi, chunki kompyuterlarda axborot ikkili raqamlar (0,1) ko'rinishida taqdim etiladi.

Raqamli abonent liniyasi

ing. - digital subscriber line (DSL)

rus. - цифровая абонентская линия

Mis simlar bo'yicha diskret signallarni translyatsiya qilishning fizik va kanal darajalar maxsus protokollari bilan aniqlangan fizik liniyalar bo'yicha ma'lumotlarni yuqori tezlikli uzatish texnologiyasi.

Izoh - Shunga o'xshash raqamli aloqa liniyasini tashkil etish uchun provayderda o'rnatilgani kabi oxirgi foydalanuvchida ham o'rnatilishi zarur bo'lgan maxsus uskuna qo'llaniladi.

(Raqamli) alohida kodlash

ing. - separate coding (digital)

rus. - раздельное кодирование

(цифровое)

Rangli televizion signalni analog-raqamli o'zgartirish usuli, uni uchta tashkil etuvchilardan har biri alohida qayta tashkil qilinadi, masalan, yorug'lik signali va ikkita ayirmarang signal.

Raqamli-analog o'zgartirish

ing. - digital-to-analog

conversion, D/A conversion

rus. - цифро-аналоговое преобразование

Raqamli signallarni, muhim axborotni saqlab qolgan holda, analog signallarga o'zgartirish jarayoni.

Raqamli audio kasseta

ing. - digital audio tape

rus. - цифровая аудио кассета

Ham tovush signallarini, ham ma'lumotlarni yuqori sifatli raqamli yozish va qayta eshittirish uchun mo'ljallangan magnet tasmali, uncha katta bo'lmagan kasseta. Raqamli audio kassetalardan ma'lumotlarni arxivlashda foydalaniladi.

(Raqamli) dekodlash

ing. - decoding

rus. - декодирование (цифровое)

1. Dastlabki signalni, qayta tiklash maqsa-

didida, razryadlar ketma-ketligiga nisbatan qo'llaniladigan jarayon.

2. Rangli televideniya - rangli videosingnaldan uchta asosiy rangga mos keladigan signallarni olish jarayoni.

Raqamli diskli videomagnitofon

ing. - digital disc-recorder

rus. - цифровой дисковый

видеомagnитofон

Axborot eltuvchi sifatida disklardan foydalaniladigan «plyonkasiz» videomagnitofon.

Raqamli (elektron) diplomatiya

ing. - digital diplomacy, (e-diplomacy)

rus. - цифровая

(электронная) дипломатия

Internet tarmog'i imkoniyatlaridan va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan diplomatik vazifalarni hal etishda foydalanish. Raqamli diplomatiya doirasida global tarmoqda yangi media, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va shunga o'xshash mediamaydonchalardan foydalaniladi. Elektron diplomatiyada davlat muassasalari, birinchi navbatda, tashqi siyosat, hukumat organlari, shuningdek, faoliyati tashqi siyosiy kun tartibini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan nohukumat tashkilotlari ishtirok etadilar. Raqamli diplomatiyaning asosiy maqsadlari - tashqi siyosiy manfaatlarni ilgari surish, Internet-televideniye, ijtimoiy tarmoqlar, mobil telefonlar orqali, omma ongiga va siyosiy elitaga yo'naltirilgan axborot targ'ibotidan iborat.

Raqamli eshittirish televideniyesi tizimi

ing. - digital broadcast TV system

rus. - система цифрового

вещательного телевидения

Raqamli eshittirish televideniyesining televizion tasvir, tovush va xizmatga oid axborot to'g'risidagi ma'lumotni shakllantirish, uzatish va qabul qilish usullarini belgilaydigan texnik vositalari hamda tegishli texnik parametrlari va tavsiflarining majmui.

(Raqamli eshittirish televideniyesi)

transport oqimidagi xatolik bayrog'i

ing. - error flag

rus. - флаг ошибки в транспортном

потоке (цифрового вещательного

телевидения)

Raqamli eshittirish televideniyesining ma'lumotlar transport oqimi tegishli darajasi sarlavhasida bo'lgan, bu oqimni shakllantirish, uzatish yoki qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan muayyan turdagi xatolar to'g'risidagi axborotni tashuvchi bitta yoki bir nechta bit.

(Raqamli eshittirish televideniyesida transport oqimi paketlarini) randomizatsiyalash

ing. - randomization of

transporta stream packets

rus. - рандомизация (пакетов транспортного потока цифрового вещательного телевидения)

Raqamli eshittirish televideniyesi ma'lumotlari transport oqimi paketlarini modulyatsiyalangan televizion signal energiyasini radiokanal polosasida yanada tekisroq taqsimlash va raqamli oqim ma'lumotlarining bitlari o'rtasidagi o'tishlarni tasodifiy statistikaga yaqinlashtirish uchun skremblerlashni amalga oshirish operatsiyasi.

(Raqamli eshittirish televideniyesining) dasturiy oqimi

ing. - programme stream

(of digital broadcast television)

rus. - программный поток цифрового вещательного телевидения)

Bitta umumiy taktli chastotaga ega bo'lgan video, audio ma'lumotlari va xizmatga oid axborotlar elementar oqimlarini multiplepsorlash yo'li bilan hosil qilingan hamda eshittirish televideniyesi o'zgaruvchan uzunlikdagi dasturiy paketlaridan tuzilgan ma'lumotlar oqimi.

Raqamli filtrlash

ing. - digital filtering

rus. - цифровая фильтрация

Raqamli signal chastota spektrining ba'zi komponentlarini raqamli filtr bilan bostirish.

Raqamli guruh hosil qilish iyerarxiyasi

ing. - hierarchy of digital trunking

rus. - иерархия цифрового группообразования

Raqamli multipleksorlarning bosqichlar bo'yicha o'tkazish qobiliyatiga muvofiq, biron tartibdagi guruh hosil qilishlar, har biri quyi darajadagi belgilarni uzatish tezligiga

ega va shu tezlikdagi boshqa raqamli signal bilan keyingi, yanada yuqori darajadagi raqamli multipleksor yordamida bundan keyingi birlashish uchun yaroqli bo'lgan raqamli signalga birlashishni ko'zda tutadigan tarzda joylashadigan qatori.

Raqamli imzo

ing. - digital signature

rus. - цифровая подпись

1. Xabarga qo'shimcha qilinadigan hamda xabar oluvchiga jo'natuvchining haqiqiyligini tekshirish imkonini beradigan ma'lumotlar.

2. Ma'lumotlar blokiga yoki uni kriptografik qayta o'zgartirish natijasiga qo'shimcha qilinadigan ma'lumotlar ketma-ketligi, u ma'lumotlar oluvchisiga manba va ma'lumotlar blokining yaxlitligini tekshirish, shuningdek, soxtalashtirishdan yoki almash-tirishdan muhofaza qilish imkonini beradi.

Raqamli imzo sxemasi

ing. - digital signature scheme

rus. - схема цифровой подписи

Raqamli imzoni shakllantirish va uni tekshirish algoritmlarining majmui. Raqamli imzo sxemasining ishonchligi maxfiy ka-lit egasi bo'lmagan shaxs uchun quyidagi uchta vazifani hal qilish murakkabligi bilan belgilanadi: raqamli imzoni qalbakilashtirish, ya'ni berigan hujjat tagidagi imzoning qiymatini hisoblash; imzolangan xabarni yaratish, ya'ni imzoning to'g'ri qiymatiga ega hech bo'lmasa bitta imzoni topish (raqamli imzoni ekzistensial qalbakilashtirish); xabarni almashtirish, ya'ni imzoning bir xil qiymatlariga ega ikkita turli xabarni tanlash.

Raqamli imzo tizimi

ing. - digital signature system

rus. - система цифровой подписи

1. Ma'lumotlar manbaini autentifikatsiyalovchi yoki xabarni autentifikatsiyalovchi kriptografik tizim. Subyektlarning ular avvalroq bajargan xatti-harakatlarini rad etish-laridan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan.

2. Oluvchiga, olingan ma'lumotlar to'plama-nining haqiqiyligini va ma'lumotlarning, aynan, nomidan xabar yuborilgan jo'natuvchi tomonidan yuborilganlik faktining ishonchligini ta'minlaydigan protsedura hamda vositalar.

Raqamli imzoli xabar

ing. - digital signature message

rus. - сообщение с цифровой подписью
Shifrlanmagan, lekin raqamli imzoga ega bo'lgan xabar.

Raqamli imzoni shakllantirish algoritmi

ing. - digital signature formation algorithm

rus. - алгоритм формирования

цифровой подписи

Dastlabki ma'lumotlari sifatida xabar, imzo kaliti va raqamli imzo sxemasi parametrlaridan foydalaniladigan algoritmi, natijada raqamli imzo shakllanadi.

Raqamli imzoni tekshirish algoritmi

ing. - digital signature checking algorithm

rus. - алгоритм проверки

цифровой подписи

Dastlabki ma'lumotlar sifatida imzolangan xabar, tekshirish kaliti va raqamli imzo sxemasi parametrlaridan foydalaniladigan, raqamli imzoning to'g'riligi yoki xatoligi to'g'risidagi xulosa esa natijasi bo'lib hisoblanadigan algoritmi.

Raqamli iqtisodiyot

ing. - digital economics

rus. - цифровая экономика

1. Ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli shakldagi ma'lumotlar hisoblanadigan xo'jalik faoliyati, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ularni ta'lim qilish natijalaridan foydalanish, xo'jalik yuritishning an'anaviy shakllariga nisbatan, ishlash chiqarishning har xil turlari, texnologiyalar, uskunalari, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish, yetkazib berish samaradorligini sezilarli oshirish imkonini beradi.

2. Onlayn-xizmatlar taqdim etish bo'yicha servislar, elektron to'lovlar, Internet-savdo, kraudfanding va boshqalar kiradigan raqamli kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyat. Odatda, elektron tijorat, Internet-banking elektron to'lovlar, Internet-reklama, shuningdek, Internet-o'yinlar, raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlari sifatida tilga olinadi.

Raqamli «iz»

ing. - digital fingerprint

rus. - цифровой «отпечаток»

Ma'lumotlar elementining xarakteristika-

si, masalan, kriptografik nazorat qiymati yoki ma'lumotlarga nisbatan bir tomonlama xeshlash funksiyasini bajarish natijasi.

(Raqamli) kadr

ing. - frame (digital)

rus. - кадр (цифровой)

Signalning to'liq siklini tashkil etuvchi ketma-ket taym-slotlarning takrorlanuvchi to'plami, bunda har bir taym-slotning nisbiy pozitsiyasi identifikatsiyalanadi.

Raqamli kira olish va

kommutatsiyalash tizimi

ing. - digital access and

cross connect system (DACS)

rus. - система цифрового

доступа и коммутации

DS-0 (64 kbit/s) darajasiga T1 va E1 li-niyalarini elektron usulda aks etirish imkonini beradigan kommutator; DCS va DXS deb ham ataladi.

Raqamli klaviatura

ing. - numeric keypad

rus. - цифровая клавиатура

Standart klaviaturaning o'ng tomonidagi, Num Lock indikatorini yonib turganda sonli ma'lumotlarni tezda kiritish uchun mo'ljallangan klavishalar bloki.

Raqamli kompyuter

ing. - digital computer

rus. - цифровой компьютер

Diskret ma'lumotlarni qayta ishlash yo'li bilan masalalarni hal etadigan kompyuter; bitta yoki undan ko'p diskret o'zgaruvchilar shaklida keyingi barcha funksiyalarni bajara oladigan, ya'ni a) kiritiladigan ma'lumotlarni qabul qiladigan; b) doimiy yoki o'zgaradigan saqlash quurilmalarida ma'lumotlar yoki komandalarni saqlaydigan; c) o'zgarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalarning yozilgan ketma-ketligi vositasida ma'lumotlarni qayta ishlaydigan; d) ma'lumotlar chiqarilishini ta'minlaydigan apparatura.

Raqamli konvert

ing. - digital envelope

rus. - цифровой конверт

1. Xabarga qo'shimcha qilinadigan hamda mo'ljallangan oluvchiga xabar mazmunining yaxlitligini tekshirish imkonini beradigan ma'lumotlar.

shifrlash uchun simmetrik kriptotizimdan, maxfiy kalitlarni shifrlash uchun esa asimmetrik kriptotizimdan foydalaniladigan mexanizm. Shu tarzda uzoq muddatli kalit asimmetrik kriptotizimga, seansli kalit simmetrik kriptotizimga tegishli bo'ladi.

Raqamli ko'p maqsadli disk

ing. - digital versatile disk (DVD)

rus. - цифровой многоцелевой диск

DVD-diskka yuqori sifat bilan yozilgan videofayl. MPEG-2 tasvir siqishda va Dolby Digital standartidagi tovushda ishlatiladi. Kinoqarqchilik bilan kurashish maqsadida har bir DVD da region kodi ko'rsatiladi, DVD-proigriyatellar esa disk-larni faqat regioning tegishli kodi bilan qayta tiklashi mumkin.

Raqamli ma'lumotlar bazasi

ing. - numerical database

rus. - числовая база данных

Raqamli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi.

Raqamli mikrouyali simsiz aloqa tizimi

ing. - digital enhanced cordless telecommunications (DECT)

rus. - цифровая микросотовая система беспроводной связи

1. O'z foydalanuvchilariga, ruxsat etilgan tarzda foydalana olishdan himoyalangan yuqori sifatli barqaror aloqani ta'minlaydigan tizim. DECT standarti nutqli va faksimil aloqani, shuningdek, ma'lumotlar uzatishni ta'minlaydi.

2. Yevropa raqamli simsiz telekommunikatsiyalari. Yevropa simsiz telefon aloqa standarti. TDMA texnologiyasi asosida 1,8 GHz va 1,9 GHz chastota diapazonida ishlaydi. Kanalni dinamik tanlash/ajratish texnologiyasidan foydalanish bir nechta DECT telefoni foydalanuvchilariga so'zlashuvni aynan bitta tayanch chastotada olib borish imkonini beradi. Paketlarni kommutatsiyalash usulini qo'llash hisobiga, DECT ma'lumotlarni simsiz uzatish tezligi 522 Kbit/s gacha, kelajakda esa, 2 Mbit/s gacha yetishini ta'minlaydi. DECT/GSM ikkita standartli mobil tarmoqlar tarqalishi bilan DECT yanada ommaviylashadi.

Raqamli miksher

ing. - digital mixer

rus. - цифровой микшер

Raqamli televizion signalning bir nechta ma'lumotlar oqimini qayta ishlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Raqamli modem

ing. - digital modem

rus. - цифровой модем

Axborot uzatish uchun analog modemlarga nisbatan, yuqoriroq chastotalardan (4 kHz dan (1-2) MHz gacha) foydalanadigan modem.

Raqamli multipleks iyerarxiyasi

ing. - digital multiplex hierarchy

rus. - иерархия цифрового мультиплекса

Multipleksorlashning bir qator darajalari, bunda har bir daraja aniq bitreyt bilan tavsiflanadi va har bir daraja past darajadagi bitreyt bilan multipleksorlangan signalardan tashkil topgan raqamli signallar bilan ishlaydi.

Izoh - XEI standartizatsiya sektori raqamli multipleks iyerarxiya-ning ikkita: pleziixon raqamli iyerarxiya va sinxron raqamli iyerarxiya turini standartlashirgan.

Raqamli oqimlar va kanallarni

ajratish apparaturasi

ing. - equipment of the separation

digital flow and channel

rus. - аппаратура выделения

цифровых потоков и каналов

Bo'shagan pozitsiyalarga kiritiladigan signallar guruhiga kiradigan, iyerarxiya oldingi bosqichining qat'iy belgilangan raqamli oqimiga tegishli bo'lgan pozitsiyalarni raqamli signallar guruhidan ajratib olinishini ta'minlovchi apparatura.

Raqamli oqimlarni uzatishning

ko'p tezlikli texnologiyasi

ing. - multirate single pair DSL

rus. - многоскоростная технология

передачи цифровых потоков

Ikki simli tarmoqdan ma'lumotlar o'tish tezligini 2 Mbit/s gacha ta'minlab beruvchi texnologiya. Modulyatsiya usuli - 2B1Q. Barcha o'tkazish yo'li E1 butun kanali va bir nechta nutq kanallari o'rtasida bo'linadi.

Raqamli ovoz yoziladigan kompakt disk
ing. - compact disk-digital audio
rus. - компакт-диск с цифровой звукозаписью
Disk tovush yo'lkalaridan tuzilgan bo'lib, u 73 min davomida yuqori sifatli jarangli ma'lumotlarni berish imkoniga ega. Musiqani diskdan kompyuterga ko'chirib olish maxsus dastur – grabberlar orqali amalga oshiriladi.

Raqamli resurslarni boshqarish
ing. - digital asset management (DAM)
rus. - управление цифровыми ресурсами
Video, audio va fotoalbomlarga tez kira olish va kataloglash uchun mo'ljallangan dasturiy vosita. Bunga Google Picasa ni yorqin misol qilib keltirish mumkin.

Raqamli savodxonlik
ing. - digital literacy
rus. - цифровая грамотность
Raqamli kompetentlikka (chuqur bilimga ega bo'lishlikka) erishish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan ish, dam olish, muloqot uchun qat'iy va tanqidiy foydalanish uchun zarur bo'lgan malaka.

Raqamii sertifikat
ing. - digital certificate
rus. - цифровой сертификат
Foydalanuvchi, kompyuter, server, kompaniya yoki boshqa obyektни identifikatsiya qilish uchun va ochiq kalitni obyekt bilan bog'lash uchun xizmat qiladigan elektron hujjat. Raqamli sertifikat sertifikat (Certification Authority) tomonidan beriladi va shu sertifikatning raqamli imzosi bilan ta'minlanadi.

Raqamli signallar protsessori
ing. - digital signal processor
rus. - цифровой процессор сигналов
Analog signallarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan protsessor (mikrosxema). Tovush kartalarida, ma'lumotlar to'plash tizimlarida va tasvirlarga ishlov berishda foydalaniladi.

Raqamli tafavut
ing. - digital divide
rus. - цифровой разрыв
Internetga kirish huquqi bo'lganlar, Butunjahon o'rgimchak to'rida taklif qilinadigan

yangi xizmatlardan foydalana oladiganlar bilan, bu xizmatlardan chiqarib tashlanganlar o'rtasidagi farq.
Izoh – Tayanch darajada fuqarolar va korxonalarining axborot jamiyatida ishtirok etishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga, ya'ni kompyuterlar va Internet ulanishlar kabi elektron qurilmalar mavjudligiga bog'liq. Raqamli tafavutni yosh, ma'lumot, jins, daromad, ijtimoiy guruhlar yoki geografik o'ringa bog'liq holda ishtirok etishdagi farqni tavsiflaydigan mezonlarga muvofiq tasniflash mumkin.

Raqamli tarmoq
ing. - digital network
rus. - цифровая сеть
Ikki yoki bir nechta punkt o'rtasida aloqani tashkil qilish maqsadida ular o'rtasidagi raqamli bog'lanishlarni yaratish uchun foydalaniladigan raqamli uzeltlar va raqamli ulovchi liniyalar majmui.

Raqamli tarqosimon filtr
ing. - digital comb-filter
rus. - цифровой гребенчатый фильтр
Televizion eshittirishda aralashib ketgan yorqinlik va ranglilik signallarini ajratadigan filtr. Bu texnologiya signalning buzilishini, rang shovqinlarini, «nuqtalarning sirpanishi» effektlarini pasaytirish imkonini beradi. Televizion dasturlarda ba'zida kesishuvchi rang buzilishlari paydo bo'ladi, (masalan, ko'rsatuv boshlovchisi yo'l-yo'l kostyum yoki mayda xol-xol ko'ylak kiygan hollarda). Tarqosimon filtr bu buzilishlarni bartaraf etadi. Natijada tasvir aniqroq va tozaroq chiqadi.

Raqamli tasvir kanali
ing. - digital video channel
rus. - цифровой канал изображения
Eshittirish televideniyesi raqamli traktining raqamli televizion videosignallarni shakllantirish, uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan qismi.

Raqamli televideniye
ing. - digital television
rus. - цифровое телевидение
Axborot raqamli signallar yordamida ifodalanadigan televideniye.

Raqamli televizion bog'lovchi liniya
ing. - digital television interconnecting line
rus. - цифровая телевизионная соединительная линия
Eshittirish televideniyesi raqamli traktining

qismlari o'rtasida, raqamli televidion video-signal va tovush signallarini, shuningdek, translyatsiya qilinishi zarur bo'lgan maxsus ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan liniya.

Raqamli televidion dekoder

ing. - digital television decoder

rus. - цифровой телевизионный декодер

Televidion videosignalni raqamli dekodlash qurilmasi.

Raqamli televidion eshittirish

ing. - digital television broadcasting

rus. - цифровое телевизионное вещание

Raqamli eshittirish televideniyesining iste'molchiga televidion dasturlar va xizmatga oid axborotni uzatish uchun mo'ljallangan tarkibiy qismi.

Izoh - Xizmatga oid axborot deganda, metama'lumotlar, iste'molchining ma'lumotlari va h.k. lar tushuniladi.

(Raqamli televidion eshittirish fizimining) global modeli

ing. - global model (of system of digital television broadcasting)

rus. - глобальная модель (системы цифрового телевизионного вещания)

XEI tomonidan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti bilan birgalikda yaratilgan va iste'molchilarga ommaviy ko'p maqsadli axborot xizmatlari ko'rsatishda raqamli televidion eshittirishdan foydalanishni ko'zda tutadigan model.

Raqamli televidion kamera

ing. - digital TV camera

rus. - цифровая телевизионная камера

Tasvir signalini raqamli qayta ishlaydigan va chiqish televidion signallari raqamli bo'lgan televidion kamera.

Raqamli televidion koder

ing. - digital encoder

rus. - цифровой телевизионный кодер

Televidion videosignalni raqamli kodlash qurilmasi.

Raqamli televidion qo'shimcha moslama

ing. - set top box

rus. - цифровая телевизионная приставка
Raqamli televidion signalni qabul qilish va analog signalga o'zgartirish uchun mo'ljallangan, analog televidizorga qo'yi-

ladigan qo'shimcha moslama.

Izoh - Qo'shimcha moslamaga multimedia funksiyalari yuklatilishi mumkin.

Raqamli televidion signal ma'lumotlar oqimini yashirin markalash

ing. - watermarking

rus. - скрытая маркировка потока данных цифрового телевизионного сигнала

Raqamli televidion signal ma'lumotlar oqimiga maxsus kalitsiz aniqlab bo'lmaydigan va o'chirilmaydigan kodni kiritish.

Izoh - Bu kod materialning aslignini tekshirish imkonini beradi hamda yashirin axborotni tashish vosiasini taqdim etadi.

Raqamli televidion signallar regeneratori

ing. - regenerator of digital

television signals

rus. - регенератор цифровых телевизионных сигналов

Raqamli televidion videosignallar va tovush signallarining taktli sinxronlanishini tiklash uchun mo'ljallangan qurilma.

Raqamli televidion sinov jadvali

ing. - digital television testing table

rus. - цифровая телевизионная испытательная таблица

Elementlari eshittirish televideniyesining raqamli traktida yoki uning qismlarining chiqishida televidion tasvir parametrlari va xarakteristikalarini baholash uchun xizmat qiladigan standart tasvir.

Raqamli televidion videosignal

ing. - digital video signal

rus. - цифровой телевизионный видеосигнал

Analog televidion videosignalni raqamli kodlash natijasida olingan televidion videosignal.

Raqamli televidion yo'ldoshi liniya

ing. - digital television satellite line

rus. - цифровая телевизионная спутниковая линия

Raqamli televidion videosignallar va tovush signallarini, shuningdek, translyatsiya qilinishi zarur bo'lgan maxsus ma'lumotlarni bitta yoki bir nechta aloqa yo'ldoshi orqali uzatuvchi va qabul qiluvchi yer stansiyalari o'rtasida uzatish uchun mo'ljallangan radio-liniya.

Raqamli (televizion)

matritsali kommutator

ing. - digital (television) matrix switcher

rus. - цифровой (телевизионный)

матричный коммутатор

Raqamli televizion signal ma'lumotlarining kirish va chiqish oqimlarini qo'shimcha tarzda qayta ishlash imkoniyati bilan, o'z portlari o'rtasida iste'molchilarning manzillarini hisobga olgan holda fizik bog'lanishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Raqamli televizion o'lchash

signallari generatori

ing. - generator of digital television

measuring signals

rus. - генератор цифровых

телевизионных измерительных сигналов

Raqamli televizion o'lchash signallarining parallel yoki ketma-ketlikdagi oqimlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Raqamli televizor

ing. - digital TV set

rus. - цифровой телевизор

Televizion videosingallarni, sinxronizatsiya signallarini va tovush jo'rligi signallarini raqamli qayta ishlash jarayonini o'z ichiga olgan televizor.

Raqamli texnologiyalar asri

ing. - digital age

rus. - век цифровых технологий

Raqamli texnologiyalar global ravishda tarqalganda yuzaga kelgan atama. Bu jarayon zamonaviy hayotning ijtimoiy-madaniy jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli tovush kanali

ing. - digital sound channel

rus. - цифровой канал звука

Eshittirish televideniyesi raqamli traktining raqamli televizion tovush signallarini shakllantirish, uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan qismi.

Raqamli ulanish

ing. - digital connection

rus. - цифровое соединение

Telekommunikatsiyalar tarmog'ining punktlari o'rtasida raqamli signallarni uzatish uchun tashkil qilingan raqamli kanallar, kommutatsion va boshqa funksional bloklarni ketma-ket birlashtirish.

Raqamli universal disk

ing. - digital versatile disc (DVD)

rus. - цифровой универсальный диск

Axborot tashuvchining turi. Bir qatlamli bir tomonlama «oddiy» DVD diskning sig'imi 4,7 Gb ga (DVD-4,7) teng. Ikki tomonlama (DVD-10) hamda ikki qatlam (DVD-9) DVD-disklar mavjud. Ikki qatlamli ikki tomonlama super DVD disk (DVD-18) o'zining axborot «sig'imiga» ko'ra, to'rtta «oddiy» diskka teng.

Raqamli valyutalarni

almashish onlayn-servisi

ing. - digital currency exchanger

rus. - онлайн-сервис

обмена цифровых валют

Mijozlarga raqamli vositalarni boshqa aktivlarga, jumladan, milliy valyutalarga va boshqa raqamli valyutalarga ayirboshlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan veb-xizmat.

Izoh - Bu atama bilan bir qatorda, «raqamli valyutalar birjasi», «raqamli valyutalar bilan savdolarni tashkil-lashtiruvchi», «savdo servisi», «elektron ayirboshlash maydoni» ta'riflari ham ishlatiladi. Bunday xizmatlar odatda, faqat onlayn-servislar taqdim etadi, barcha operatsiyalarni elektron shaklda amalga oshirgan holda. Biroq, valyutalarni ayirboshlashning an'anaviy usullari ham taklif qilinishi mumkin. Odatda operatsiyalar uchun vestichilik haqi olinadi. Bank kartalari bo'yicha operatsiyalar, pul o'tkazmalari, shu jumladan pochta o'tkazmalari yoki raqamli valyutalarga ayirboshlash evaziga boshqa to'lov shakllari amalga oshirilishi mumkin. Mijozdan raqamli valyutalar sotib olinganda, pul mablag'lari bank hisobraqamlariga, shu jumladan, kartochka hisobraqamlariga o'tkazilishi mumkin.

Raqamli video

ing. - digital video

rus. - цифровое видео

Raqamli shaklda yoziladigan va qayta ishlanadigan videosingal.

Raqamli videointerfeys

ing. - digital visual interface (DVI)

rus. - цифровой видеointерфейс

Interfeys standarti va videotasvirlarni suyuq kristalli monitor, televizor, proyektor kabi raqamli aks ettirish qurilmalariga uzatish uchun mo'ljallangan tegishli razyom. Digital Display Working Group konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli (video) kamera

ing. - digital (video) camera

rus. - цифровая (видео) камера

Bevosita raqamli shaklda (harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan) tasvirni yaratadigan, shuning uchun tasvirni xotiraga yozib olishdan yoki aloqa liniyasi bo'ylab uzatishdan avval analog-raqamli o'zgartirish talab etilmaydigan kamera.

Raqamli videosignal yozilgan

interaktiv kompakt disk

ing. - CD-digital video interactive

rus. - интерактивный компакт-диск с

цифровой записью видеосигнала

CD-ROMning bir turi bo'lib, foydalanuvchining diskdan maxsus yozish formatiga ega, tasvir hamda tovush fayllarini ijro etishning sifatini oshirib beruvchi ma'lumotlarni o'qishda (yozishda) boshqarishga xizmat qiladi. Raqamli videointeraktiv (DVI) formati ushbu disklar uchun muqobil format hisoblanadi.

Raqamli xavfsizlik

ing. - digital digital security

rus. - цифровая безопасность

Axborotning konfidensialligini, yaxlitligini va undan foydalana olishlikni, viruslar hujumidan va ruxsiz aralashuvdan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi.

(Raqamli) tasvirni kodlash

ing. - coding of (digital) picture

rus. - кодирование

(цифрового) изображения

Tasvir (kadr) to'g'risidagi axborotning har bir elementi, masalan, kvantlangan qiymat belgilangan qoidalarga muvofiq, razryadlar ketma-ketligida taqdim etiladigan jarayon.

Izoh - «Kodlash» atamasi rangli televideniya boshqa mazmunga ega.

Raqamli yo'ldoshli televideniyada

eshittirish

ing. - satellite digital television

broadcasting

rus. - спутниковое цифровое

телевизионное вещание

Aloqa yo'ldoshlarida va kosmik stansiyalarda joylashtiriladigan televideniyadan retranslyatorlar orqali amalga oshiriladigan raqamli televideniyada eshittirish.

Raqamli o'zgartirgich

ing. - digitizer

rus. - цифровой преобразователь

Nuqtalar koordinatalarini avtomatik raqamlash yo'li bilan grafik axborotni (sxemalarni, chizmalarni) kiritish qurilmasi.

Raqamli chiqish

ing. - digital output

rus. - цифровой выход

Raqamli oqimni uzatish imkonini beradi. Fizik jihatdan elektrik (RCA ajratgich) yoki optik (Toslink ulagich) bo'lishi mumkin.

Raqamni aniqlamaydigan qurilma

ing. - number identifying blocker

rus. - антиопределитель

Abonentga boshqa telefonlar tomonidan o'z raqamini aniqlashni taqiqlash imkonini beradigan xizmat.

Raqamni avtomatik

aniqlash apparaturasi

ing. - automatic number identification

(ANI) equipment

rus. - аппаратура автоматического

определения номера

Chaqirayotgan abonent oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasining kategoriyasi va raqamini aniqlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Raqamni ko'chirish

ing. - number portability (NP)

rus. - перенос номера

Bir operatordan boshqasiga o'tishda abonent raqamini saqlash imkonini beradigan xizmat.

Raqamni qayta manzillash

bilan chaqiruv

ing. - call rerouting

rus. - вызов с переадресацией номера

Abonent raqami band bo'lganda yoki ma'lum vaqt davomida javob bermaganida, barcha kiruvchi chaqiruvlarni saqlab qolish imkonligi.

Izoh - Barcha chaqiruvlar avtomatik ravishda boshqa raqamga o'tkaziladi va ulardan navbat shaklida beriladi. Shuningdek, xabarlar abonentning tovushli pochta qutubxonasiga jo'natilishi ham mumkin.

Raqamni takrorlash xizmati

ing. - number repetition service

rus. - услуга повторения номера

Abonent uchun qisqa kodni terish orqali avval terilgan raqam bilan takroran bog'lanish imkonini beradigan xizmat.

Rasm (shakl)

ing. - figure

rus. - рисунок

Veb-sahifada illyustratsiya vazifasini bajaruvchi rasm. Texnik matnlar o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

Rasm va matn

ing. - picture and text

rus. - картинка и текст

Ikki ta tyunerli televizorlarda mumkin bo'lgan, ekranning chap tomonida telematn, o'ng tomonida esa o'lchami rostlanadigan tasvir proyeksiyalanadigan dinamik funktsiya.

Rasmda rasm (videokameralarda)

ing. - picture in picture (video camera)

rus. - картинка в картинке (в видеокамерах)

Qandaydir yozuv yoki rasm yoxud obyektни suratga olib, keyin uni harakatlanmaydigan tasvir ko'rinishida xotiraga kiritish.

Rasmiy hujjat matni

ing. - official document text

rus. - текст официального документа

Axborotning biror bir tashuvchisida qayd etilgan va hujjatdagi axborot nutqining bar-chasini yoki asosiy qismini o'zida aks ettiruvchi axborot.

Rasmiy hujjat sanasi

ing. - date of official document

rus. - дата официального документа

Hujjat tuzilgan yoki imzolangan sanani o'z ichiga oluvchi rasmiy hujjat rekviziti.

Rasmiy hujjat sarlavhasi

ing. - title of the official document

rus. - заголовок официального документа

Hujjatning mazmunini qisqa bayon qiluvchi hujjat rekviziti.

Rasmiy hujjatni rasmiylashtirish

ing. - official document registration/

registration of the official document

rus. - оформление официального документа

Zarur rekvizitlarni qo'yish.

Rasmiy parametr

ing. - formal parameter

rus. - формальный параметр

Protsedura sarlavhasida, protsedura e'lon qilinadigan paytda ko'rsatiladigan parametr. Protsedurani chaqirishda unga aniq (aktual) parametrlar beriladi.

Rasmiy til

ing. - formal language

rus. - формальный язык

Sintaksisi va semantikasi ochiq ko'rinishda, undan foydalangunga qadar berilgan til. Rasmiy tillarga, xususan, dasturlash tillari kiradi.

Rastr

ing. - raster

rus. - растр

Tasvirlarni to'g'ri burchakli matritsaviy tasvir elementlari – piksellar shaklida taqdim qilish raqamli vositasi. Ular tasvirlarni yoki fazoviy obyektlarni rastri ifodalash asosidir.

Rastrlash

ing. - rasterisation

rus. - растрезация

Vektor formatidagi ikki o'lchamli tasviri displey yoki printeriga chiqarish uchun piksellar yoki nuqtalarga o'girish. Vektorlashga tekari bo'lgan jarayon. Atama XIX asrning o'rtalarida chop etishning ofset usuli va sifatli chop etish uchun zarur bo'lgan rastr texnologiyasi yaratilishi bilan paydo bo'lgan.

Rastrli

ing. - bitmap

rus. - растровый

Grafik obyektни bitli ko'rinishda, rastri tasvirlanishi. Tasvir va shriftlarni «katakchali» ko'rinishda ifodalash uchun qo'llaniladi. Rastrli tasvirlarni taqdim etish formati, tasvirning har bir pikseliga uning rangini ifodalovchi bir nechta ikkilik razryad mos keladi.

Rastrli grafika

ing. - raster graphics

rus. - растровая графика

Tasvir nuqtalar to'plami ko'rinishida taqdim etiladigan grafika. Har bir nuqta rastr elementi deyiladi, uning tavsifi maxsus rastrli fayllarda saqlanadi. Rastrli fayllarning bir nechta formati bor, masalan, Windows da foydalaniladigan, apparat jihatdan mustaqil rastrli format DIB (Device Independent Bitmap).

Rastrli operatsiyalar kodi

ing. - raster operation code

rus. - код растровых операций

Eski va yangi tasvir piksellerini tenglash yo'li ko'rsatgichi. Odatda boshlang'ich tasvir oddiygina natija tasvir bilan qayta yoziladi.

Rastrli protsessor

ing. - raster processor

rus. - растровый процессор

Rastrli tasvirlarni fototerish avtomatida yoki raqamli bosma tizimda chiqarish vositasi.

Rastrli tasvir

ing. - raster image

rus. - растровое изображение

Alohida oddiy elementlar bo'lmish piksel-lardan qatorlab shakllantirilgan tasvir. Tasvir matritsasi ko'p sonli piksel-lar uning shunday shaklini ta'minlaydiki, unda nuqtalar bir biri bilan deyarli qo'shilib ketadi. Rastrli grafikaning muhim fazilati bo'lib, u tasvirlarga ishlov berishni ancha yengillash-tirish, tasvirning har bir elementini tahrir qilish imkonidir. Rastrli tasvirlarning kamchiligi ohista o'zgaradigan egri chiziqlarni yaratma olmasligidir. Masalan, aylana har doim siniq egri chiziq shaklida tasvirlanadi. Bu sinishlarni tasvir rasmi nuqtalari soni-ni oshirish hisobiga kamaytirish mumkin, ammo to'liq yo'q qilib bo'lmaydi.

Rastrli to'sig'i (parallaks to'sig'i)

bo'lgan stereoskopik kineskop (display)

ing. - raster-barrier stereoscopic picture tube

rus. - стереоскопический кинескоп

(дисплей) с растровым барьером (с параллаксным барьером)

Stereoskopik kineskop, bunda to'r shaklidagi niqob ekranning old qismida ikki tomonga

yo'naltirilgan yorug'lik bo'lgich (tasvir ajratgich) ni hosil qiladi, shuning uchun, chap va o'ng ko'z uchun navbatma-navbat ko'rsatiladigan tasvirlarni ajratish uchun boshqa vositalar (masalan, ko'zoynak)ga zarurat bo'lmaydi.

Rastrli-vektorli o'zgartirish

ing. - raster-to-vector transformation

rus. - растрово-векторное преобразование
Obyektlarni rastrli ifodalashdan vektorli shaklga avtomatik yoki yarimavtomatik ravishda aylantirish.

Rashifrovkalash

ing. - deciphering

rus. - расшифрование

Oldindan aniqlangan algoritm yordamida shifrlangan matni o'qish uchun yaroqli matnga o'girish jarayoni. Shifrlash jarayoni-ga teskari operatsiya.

Raund

ing. - round

rus. - раунд

Faystel shifridagi va arxitektura jihatdan unga yaqin bo'lgan shifrlardagi shifrlashning bitta qadami. Shifrlash jarayonida shifrlanadigan blokning bitta yoki bir nechta qismi o'zgarishga uchraydi.

Raund kaliti

ing. - round key

rus. - раундовый ключ

Kriptoalgoritm kalitidan olinadigan va shifrlashning bir raundida Feystel shifri hamda o'xshash kriptoalgoritmlar tomonidan foydalaniladigan maxfiy element.

Ravon to'liqin o'tkazgichli o'tish

ing. - waveguide taper

rus. - плавный волноводный переход

Ko'ndalang kesimi asta-sekin o'zgaradigan to'liqin o'tkazgichli seksiya. Kesimi turlicha bo'lgan to'liqin o'tkazgichlarni birlashtirish uchun qo'llaniladi.

Razryad

ing. - discharge

rus. - разряд

Pozitsion sanoq tizimida raqam egalaydigan, tartib raqamiga ega joy. So'zda har qanday simvolning joyi. Razryad raqami birdan boshlab chapdan o'ngga hisoblanadi.

Razryadlarning umumiy soni so'zning uzunligini belgilaydi.

Razryad ahamiyati
ing. - significant value

rus. - значимость разряда
Razryadning kodli so'zdagi pozitsiyasi bilan ifodalanadigan qiymat.

Real ochiq tizim xavfsizligi
ing. - real open system security
rus. - безопасность реальной открытой системы

Ushuna, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni, tasodifiy hamda ataylab qilinadigan o'zgartirishlardan, ochish va buzishdan muhofaza qilish uchun, real ochiq tizimda qo'llaniladigan texnologik va ma'muriy himoya chora-tadbirlari.

Real vaqt rejimi
ing. - real-time mode
rus. - режим реального времени
Hisoblash tizimining ishlash rejimi, bunda tashqi muhitda yuz beradigan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, jarayonlar o'zi kechadigan sur'atda kechadi.

Real vaqt rejimida hisoblashlar
ing. - real-time computing
rus. - вычисления в режиме реального времени
Foydalanuvchi yoki tashqi protsesslar tezligida axborotni qayta ishlash rejimi.

Real vaqt tizimlari
ing. - real-time systems
rus. - системы реального времени
Real vaqt rejimida turli xil texnik, harbiy va boshqa obyektlarni boshqarish uchun mo'ljallangan hisoblash tizimlari. Apparaturaga va dasturiy ta'minotga, shu jumladan, operatsion tizimga: tizim javob vaqtining, ya'ni operatsion tizim bajarilishi kutilayotgan vaqtning oshishiga yo'l qo'ymasdik uchun qo'yiladigan asosiy talab bilan tavsiflanadi.

Real vaqtda uzatish protokoli
ing. - real-time transport protocol (RTP)
rus. - протокол передачи в реальном времени
IPv6 (Internet protocol, ver.6) protokoli tarkibiga kiradigan protokollardan biri.

Ko'p yoki bir manzilli xizmatlardan foydalanib, ma'lumotlarni real vaqtda (masalan, audio va videoma'lumotlar yoki modellar ma'lumotlari) uzatuvchi tarmoqda ilovalar uchun ochiq uzatish funksiyasini ta'minlash uchun loyihalashtirilgan. RTP protokoli foydali yuklama turini identifikatsiyalash, ketma-ketliklarni raqamlash, vaqt belgilari bilan ta'minlash va real vaqt ilovalarini yetkazish monitoringi kabi xizmatlarni taqdim etadi.

Redaktor
ing. - editor
rus. - редактор
Foydalanuvchiga klaviaturadan dasturlarning boshlang'ich matnini kiritish va o'zgartirish, shuningdek, ixtiyoriy matnli fayllar bilan ishlash imkonini beradigan dastur.

Redirekt
ing. - redirect
rus. - редирект
Qar.: Qayta marshrutlash.

Referer
ing. - referrer
rus. - реферер
HTTP protokolida mijoz so'rovlar sarlavhalaridan biri. So'rov manbainig URL manzilini saqlaydi. Biror bir veb-sahifadan boshqa sahifaga o'tganda referer birinchi sahifaning manzilini saqlab qoladi. HTTP serverida o'rnatilgan dasturiy ta'minot referer tahlil qilib, undan turli ma'lumotlarni olishi mumkin.

Regenerator
ing. - regenerator
rus. - регенератор
Uzatish jarayonida qisman buzilgan raqamli signalni dastlabki signalga aylantiruvchi qurilma.

Regeneratsiya qilish
ing. - refresh
rus. - регенерация
Qisman buzilgan raqamli axborot va tasvir elementlarini tiklash tartiboti.

Region; zona; rayon
ing. - region
rus. - регион; зона; район
Yer sharining, doirasida chastotalar polo-

salari taqsimlanishining yagona qoidalari amal qiladigan qismi. Butun Yer shari shartli ravishda uchta rayonga bo'lingan bo'lib, (ITU tavsiyalari), Radioaloqalar Reglamentida ularning har biri uchun tegishli talablar mavjud.

Regional hisoblash tarmog'i

ing. - metropolitan area network
rus. - региональная вычислительная сеть
Masshtab bo'yicha lokal va global tarmoqlar o'rtasidagi oraliq tarmoq.

Registr

ing. - register
rus. - регистр
Jismonan protsessorlarda joylashgan va katta bo'lmagan ma'lumotlarni vaqtincha saqlash, ulardan tez foydalanish imkonini beradigan qurilma.

Registr nomi

ing. - register name
rus. - имя регистра
Protsessorming har bir registrini aniqlaydigan identifikator (harfli yoki harf-raqamli belgi).

Registr uchun ta'sirli

ing. - case sensitive
rus. - чувствительный к регистру
Harflar registrlarini taniydigan ma'lumotlar. Bular «password» turidagi maydonlar, konsol komandalari va *nix kabi operatsion tizimlardagi fayllarning nomlari.

Registr uchun ta'sirli bo'lmagan

ing. - case insensitive
rus. - нечувствительный к регистру
Bosh va kichik harflar bir xil ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar. Bular Windows operatsion tizimining matnli maydonlari va konsol komandalaridir.

«Registrlar tablosi» usuli

ing. - register scoreboarding
rus. - метод «табло регистров»
RISC-protsessorlarda konveyerlar samarali yuklanishini ta'minlash va komandalarning o'tish tartibi o'zgartirilgan holda, ularning birgalikda bajarilishini tashkil qilish uchun qo'llaniladigan usul.

fayl

ing. - register file
rus. - регистровый файл
Dasturchi foydalana olishi mumkin bo'lgan protsessor registrlarining jami.

Registrlil manzillash

ing. - register addressing
rus. - регистровая адресация
Operand maydonida komandara, xotiraning bajaruvchi manzilini ichiga oladigan umumiy maqsadlardagi registrlardan birining raqami beriladigan manzillash usuli.

Registrlil o'zgaruvchi

ing. - register variable
rus. - регистровая переменная
Translyator tezkor xotira ucheykasini emas, balki protsessor registrini ajratadigan o'zgaruvchi.

Reglament

ing. - regulation
rus. - регламент
Odatda, bosqichlarning talab qilinadigan bajarilish muddatlari ko'rsatilgan holda, biznes-jarayonni bajarish uchun, qatnashchilar guruhi bosib o'tadigan bosqichlar tartib bilan tavsiflanadigan va sanab o'tiladigan hujjat.

Regressiv testlash

ing. - regression testing
rus. - регрессионное тестирование
Tahrir qilingan dasturiy ta'minotni, avval ishlagan funksiyalarning ishlash qobiliyatini tekshirish maqsadida testlash.

Regressiya

ing. - regression
rus. - регрессия
Ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish texnikasi. Bir necha ko'paytmali tenglamalarda ishlatiladi. Regressiyaning eng sodda turi chiziqli regressiyadir.

Reinjining

ing. - reengineering
rus. - реинжиниринг
Axborot texnologiyalari asosida biznes jarayonlarni takror, takomillashtirilgan tarzda loyihalash.

Rejalashtirish**ing.** - scheduling**rus.** - планирование

Ketma-ket bajarilishi (yoki erishilishi) tizim oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga olib keladigan harakatlar, kichik vazifalar, operatsiyalar, kichik maqsadlar ketma-ketligini tuzish jarayoni. Intellektual tizimlarda rejalashtirish vazifalar makonida yoki holatlar makonida amalga oshirilishi mumkin.

Rejalashtirmoq**ing.** - schedule**rus.** - планировать

Rejalar tuzish, vazifalarni hal qilishning borishi, ularning ketma-ketligi va x.k. bilan bog'liq harakat.

Rejalashtiruvchi**ing.** - planner**rus.** - планировщик

Harakatlar rejasini izlash uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar kompleksi.

Rejektorli filtr**ing.** - rejection filter**rus.** - режекторный фильтр

Uncha qimmat bo'lmagan televizorlarda taroqsimon filtrning o'rini bosuvchi sxema. Yorqinlik va ranglilik signallarini ajratadi.

Rejim biti**ing.** - mode bit**rus.** - бит режима

Tizim registrida saqlanadigan va tizim rejimi uchun 0 ga teng va foydalanuvchi rejimi uchun 1 ga teng komandalarni bajarishning joriy rejimini belgilaydigan bit.

Rejimli obyektlar**ing.** - secret entities**rus.** - режимные объекты

Texnologik ishlab chiqarishi, hisobotlari davlat siri hisoblanadigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan tashkilotlar.

Reklama**ing.** - advertising**rus.** - реклама

Qar.: Internet reklama.

Reklama dasturiy ta'minoti**ing.** - adware**rus.** - рекламное программное обеспечение

Foydalanuvchining ruxsati bilan yoki ruxsatisiz reklamani namoyish qiluvchi dastur. Bunday dasturiy ta'minot yashirin tarzda yoki foydalanuvchini chalkashtirib ishlamaydi, balki foydalanuvchiga yangi xizmatlarni taklif etadi.

Reklama maydonchasi**ing.** - banner area**rus.** - рекламная площадка

Veb-sahifada grafik yoki matnli reklama bannerlari materiallarini joylashtirish uchun ajratilgan o'rin. Reklama o'rinlari odatda standart o'lchamlarga ega bo'ladi (masalan, 100x100, 468x60, 600x90 piksel).

Reklama tarmog'i**ing.** - banner network**rus.** - рекламная сеть

Muayyan reklama o'rinlarida reklama materiallarini joylashtirishni boshqarish tizimi. Tarmoqlar turli reklama maydonchalaridagi reklama o'rinlarini birlashtirishi mumkin (masalan, banner ayirboshlovchi tarmoq, banner xarid tarmoqlari) yoki bir saytning yoki portalning ichida (ichki tarmoqlar) ishlatiladi.

Reklama o'rni**ing.** - banner place**rus.** - рекламное место

Qar.: Reklama maydonchasi.

Rekombinatsiya koeffitsiyenti**ing.** - coefficient of recombination**rus.** - коэффициент рекомбинации

Hajm birligidagi ionlashtirilgan zarralarni vaqt birligiga birlashtirish ehtimolligini tavsiflovchi koeffitsiyent.

Rekursiv filtr**ing.** - recursive filter**rus.** - рекурсивный фильтр

Chiqishdan kirishga teskari bog'lanishga va tuganmas impulsli javobga ega raqamli filtr.

Rekursiv funktsiya**ing.** - recursive function**rus.** - рекурсивная функция

O'ziga-o'zi murojaat qiladigan funktsiya.

Rekursiv funksiyalardan funksional dasturlash tillarida, xususan, LISP tilida keng foydalaniladi.

Rekursiya

ing. - recursion

rus. - рекурсия

Kichik dastur yoki funksiyaning, bajarilish paytida iterativ operatsiyani bajarish uchun o'zini-o'zi chaqirish qobiliyati.

Relevantlik

ing. - relevance

rus. - релевантность

Izlash mashinalarida – tanlangan axborotning izlash mezonlariga mos kelish darajasi.

Reley qonuni

ing. - law of Relay

rus. - закон Рэлея

Sochilgan yorug'lik intensivligi yorug'lik to'liq uzunligining to'rtinchi darajasiga teskari proporsional bo'lishini belgilaydigan fizik qonun.

Relyatsion ma'lumotlar bazasi

ing. - relational database

rus. - реляционная база данных

O'zaro bog'langan ikki o'lchamli (relyatsion) jadvallar yig'indisi. Har bir jadval bitta mohiyatni aks ettiradi. Relyatsion ma'lumotlar bazasida ikkita jadval orasidagi aloqalar aloqa kaliti (bosh jadval kaliti) orqali ta'minlanadi. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun, jadvallardan, shakllar, so'rovlar, hisobotlar, makroslar va modullardan foydalaniladi. Jadvallar ma'lumotlar bazasida axborotni saqlash uchun foydalanuvchilar tomonidan tuziladi, bunda har bir mohiyatga bitta jadval mos keladi. Jadval (maydon) ustunlari rekvizitlarning qiymatlarini, jadval (yozuv) satrlari esa, mohiyat nusxalarini ichiga oladi.

Relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (RMBBT)

ing. - relational database

management system (RDMS)

rus. - реляционная система

управления базой данных (PCУБД)

Relyatsion model asosida tuzilgan, relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi. Har bir relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi – bu, jadvallarni qayta ish-

lashga spetsifik yetarlicha kuchli dasturlash tilidir. Bu tizimlarning oxirgi versiyalari na faqat yaxshi tezlik sifatlariga, balki qulay foydalanuvchi interfeysiga ham ega. Bu tizim tarkibiga odatda tuzimlasirilgan so'rovlar tili kiradi. Shaxsiy kompyuterlar uchun belgilangan ko'plab relyatsion ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi tarkibiga uchta modul: komanda tili, talqin qiladigan va/yoki kompilyatsiyalovchi tizim va foydalanuvchi qobig'i kiradi.

Relyatsion model

ing. - relational model

rus. - реляционная модель

Ma'lumotlar tuzilmasini, ma'lumotlar ushidagi yo'l qo'yiladigan operatsiyalar, ma'lumotlarning yaxlitligi ta'minlanadigan maxsus qoidalar tavsiflangan ma'lumotlar modeli. Edgar Kodd tomonidan IBM firmasida 1970-yilda ishlab chiqilgan. An'anaviy nazariy ko'plik operatsiyalar (birlashtirish, kesishish, farq va dekart ko'paytmasi) va maxsus relyatsion operatsiyalar (seleksiya, proeksiya, birlashtirish va bo'lish) yo'l qo'yiladigan ikki o'lchamli jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi. Modeldan foydalanish, ham relyatsion ma'lumotlar bazalarini, ham relyatsion ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimini yaratish imkonini berdi.

Remultipleksorlash

ing. - remultiplexion

rus. - ремультимплексирование

Mahalliy transport oqimiga aloqa liniyasi bo'yicha keluvchi, boshqa vaqt bazasiga ega bo'lgan «begona» transport oqimini kiritish.

Rendering

ing. - rendering

rus. - рендеринг

1. Ekranida rang, soylarni (uch o'tohammi electron grafikada) qo'shish uchun matematik modellari (formulalar)dan foydalanib amaliy tasvirlarni yaratish jarayoni.
2. Kompyuter dasturi yordamida (masalan, ma'lumotlar tuzilmasi ko'rinishida) tasvir olish, vizuallashtirish.

Repiter (takrorlagich)

ing. - repeater

rus. - репитер (повторитель)

Tarmoq elementlari orasida kabel uzunligi oshganda, kompyuter tarmog'idagi signalni

kuchaytiradigan va regeneratsiyalaydigan elektron qurilma.

Repozitoriy

ing. - repository

rus. - репозиторий

Qandaydir ma'lumotlar saqlanadigan va ta'minlanadigan joy, omborxonona. Ma'lumotlar repozitoriyda ko'pincha, keyinchalik tarqatmoq bo'ylab tarqatish mumkin bo'ladigan fayllar ko'rinishida saqlanadi.

Reselling

ing. - reselling

rus. - реселлинг

1. Xosting resellingi. Serverni qismlarga ajratib, uning quvvatlarini boshqa provayderlarga sotish.

2. Domenlar resellingi. Domen administratoridan domen nomlarini sotib olib, ularni boshqalarga sotish.

Resiver

ing. - receiver

rus. - ресивер

Qar.: Raqamli televizion qo'shimcha moslama.

Resurs

ing. - resource

rus. - ресурс

1. Tizimning, foydalanuvchiga yoki jarayonga ajratilishi mumkin bo'lgan, mantiqiy yoki fizik qismi.

2. Hisoblash tizimi komponentlaridan istalgani va u taqdim etadigan imkoniyatlar.

Resurs bloki

ing. - resource block

rus. - ресурсный блок

LTE kanalida uzatish resursi birligi, 0,5 ms vaqt intervali mobaynida egallanadigan 12 ta subchastota intervalidan tashkil topgan. Summar resurs bloki chastotalar polosasi 180 kHz ga teng. Binobarin, maksimal chastotalar diapazonidagi resurs bloklari soni $36 \text{ MHz} / 180 \text{ kHz} = 200$.

Resurslarni boshqarish kichik tizim

ing. - resource allocator

rus. - подсистема управления ресурсами
Kompyuterning tezkor va tashqi xotirasi, protsessor va b.q. hisoblash resurslarini boshqaradigan operatsion tizimning bir qismi.

Resurslarni rejalash

ing. - resource planning

rus. - планирование ресурсов

Ko'p sonli foydalanuvchilar, jarayonlar yoki kanallar o'rtasida resurslarni dinamik yoki statik taqsimlash tartiboti. Rejalashtirish algoritmlari potensial ehtiyojlarining tahlili, resurslarning kelib tushgan so'rovlariga muvofiq ravishda taqsimlanishi, taqsimlangan resurslardan foydalanish samaradorligini kuzatib borish va bo'sh resurslarni aniqlash, shuningdek, bir nechta foydalanuvchining aynan bir resursga bir vaqtda murojaat qilishi oqibatida yuzaga keladigan itiloflarning hal etilishiga asoslanadi.

Resurslarni zaxiralash protokoli

ing. - resource reservation protocol

rus. - протокол резервирования ресурсов
IP-protokolida ishlaydi. Vaqtinchalik uzilishlarga sezgir trafikni Internet orqali uzatishda xizmat qiladi.

Retranslyator

ing. - retranlator

rus. - ретранслятор

Interfeyslararo almashinishda, ma'lumotlarning o'zgartirilishini ta'minlaydigan qurilma.

Retranslyator-o'zgartirgich, transpozzer

ing. - transposer

rus. - ретранслятор-преобразователь, транспозер

Kelayotgan signal chastotasi qayta nurlanishgacha demodulyatsiyasiz o'zgaradigan retranslyator.

Retranslyatsion antenna

ing. - back-to-back antenna

rus. - ретрансляционная антенна
Machtaga o'matilgan, ikkita qarama-qarshi yo'naltirilgan ko'zguli antenna.

Retranslyatsion qabul qilgich

ing. - rebroadcast receiver

rus. - ретрансляционный приемник

Tovushli yoki televizion radioeshittirish uzatgichlaridan eshittirishni qabul qilish va retranslyatsiya qilish uchun tovushli va videochastota dasturiy signallarini uzatish uchun maxsus loyihalashtirilgan radioqabul-qilgich.

ing. - rebroadcasting

rus. - ретрансляция

Tovushli yoki televizion ehshtirish dasturini qabul qilish va bir vaqtda uni qayta nurlantirish.

Izoh – Taalluqli atama «retranslyatsiya qilish».

Retranslyatsiya qilish bilan yomon niyatda qilinadigan ta'sir

ing. - relay attack

rus. - злонамеренное воздействие с ретрансляцией

ретрансляцией

Autentifikatsiyaga yomon niyatda ta'sir ko'rsatish. Bunda autentifikatsion axborot almashinuvi tutib olinadi va darhol retranslyatsiya qilinadi.

Retranslyatsiya qilish tizimi

ing. - relay system

rus. - ретрансляционная система

Ma'lumotlar uzatish yoki protokollarni o'zgartirishga mo'ljallangan axborot tizimi. Turli arxitekturaga ega bo'lgan tarmoqlarni birlashtiradi. Qayta uzatish tizimlarida har bir tarmoq to'la muxtoriyatga va o'zining boshqarish vositalariga ega. O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun, qayta uzatuvchi tizimlar quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma'lumotlar kommunikatsiyasi va ularni marshrutlash;

- ulanadigan kommunikatsiya tarmoqlarida yoki tarmoqlar qismlarida protokollarni moslash;

- ma'lumotlar bloklarini tarmoqlar yoki ularning qismlari orasida uzatish;

- ma'lumotlar bloklarini, agar tarmoqlarda (ularning qismlarida) ular turli

o'lchovlarga ega bo'lsalar, yiriklashtirish yoki kichraytirish;

tizimlar buferlari toshib ketishi va yuz bergan nosozliklar to'g'risida xabar berish;

- rad qilishlar va nosozliklardan so'ng ishni qayta tiklash;

- ulanayotgan tarmoqlar yoki ularning qismlari holatini aniqlash.

Retranslyatsiya stansiyasi

ing. - relay station

rus. - ретрансляционная станция

Bitta yoki bir nechta retranslyatoridan iborat bo'lgan, ular uchun antenna va tegishli uskunalarga ega stansiya.

ing. - receptor

rus. - рецентр

Elektromagnit signal va/yoki elektromagnit xalaqitni sezuvchi texnik vosita.

Revers

ing. - backspace

rus. - реверс

Odatda oldingi simvolni o'chirish bilan ekrandagi kursorni orqaga qaytarishni boshqaruvchi simvol (CTRL-H yoki ASCII jadvalidagi 08h simvoli) yoki klavish. Odatda matn kiritilayotganda terish xatolarini to'g'rilashda qo'llaniladi. Boshqa qurilmalarda esa (masalan, teletayp yoki matrisali printerlarda) ushbu simvol bosmaga chiqaruvchi printer kallagini oldingi holatiga qaytarish vazifasini o'taydi.

Revers-injining

ing. - reverse engineering

rus. - реверс-инжиниринг

Ma'lum qurilma yoki dasturni, shuningdek, ularning hujjatlarini, ishlash tamoyilini tushunish maqsadida va ko'pincha ushbu qurilma, dastur yoki boshqa obyektning to'liq nusxalamasdan, ularning o'xshash funksiyali analogini yaratish maqsadida tadqiq etish. Odatda original obyektning yaratuvchisi o'sha obyektning tuzilmasi va yaratish (ishlab chiqarish) usuli to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etmagan holda qo'llaniladi. Revers-injiningdan foydalanish mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun va patent qonunchiligiga zid bo'lishi mumkin.

Reyestr

ing. - registry

rus. - реестр

Metama'lumotlar sxemalaridan foydalanishga asoslangan, doimiy identifikator uchun reyestrda izlash imkoniyati bilan ta'minlaydigan raqamli obyektlar to'g'risidagi meta-ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish va metama'lumotlar sxemalarini saqlash mexanizmi.

Rezerv qurilma

ing. - backup

rus. - резервное оборудование

I. Asosiy uskuna nosoz holatida bo'lganda, ishonchlikni oshirish uchun xizmat qiladigan qo'shimcha qurilma.

2. Hujjat, xabar yoki faylning asli shikastlanganda foydalanish uchun yaratiladigan zaxira nusxasi.

Rezerv so'z

ing. - reserved word

rus. - резервированное слово

Protsedura, funktsiya yoki biror operatorning yoki xizmatga oid o'zgaruvchining nomi (identifikatori) bo'lib, dasturchining o'zi kiritadigan o'zgaruvchi, protsedura yoki funktsiyaning nomi sifatida ishlatib bo'lmaydi.

Rezident

ing. - resident

rus. - резидент

Qar.: Rezident dastur.

Rezident bo'lmagan tom

ing. - non resident volume

rus. - нерезидентный том

Operatsion tizimning katalogi joylashgan tom.

Rezident dastur

ing. - resident program

rus. - резидентная программа

Operatsion tizim qobig'iga boshqaruvni, yoki operatsion tizim ustidan sozlashni (Norton Commander va sh.k.) qaytarib bergan, lekin shaxsiy kompyuterining tezkor xotirasida qolgan operatsion tizimdagi MS-DOS dasturi.

Rezident viruslar

ing. - resident viruses

rus. - резидентные вирусы

Kompyuterni zararlashda tezkor xotirada o'zining rezident qismini qoldiradigan viruslar. Bu rezident qism operatsion tizimning zararlangan obyektarga (fayllarga, disklarning yuklash sektorlariga) murojaatini tutib oladi va ularga kiradi. Rezident viruslar xotirada bo'ladi va kompyuter o'chirilgunga yoki qayta yuklangunga qadar aktivligicha qoladi.

Rezistor

ing. - resistor

rus. - резистор

Elektronikada qo'llaniladigan, elektromagnit nurlanishni energiyaning boshqa turlariga aylantirishni ta'minlaydigan yarimo'tkazgichli asbob.

Rezonans antenna

ing. - resonant antenna

rus. - резонансная антенна

Chastotalarning tor intervalida o'z xarakteristikalarini va parametrlarini saqlab qoladigan antenna.

Rid-Mueller kodi

ing. - Reed-Mueller code

rus. - код Рида-Муллера

Uzunligi $2n$ bo'lgan biortogonal kodning ko'rinishlaridan biri hisoblanadigan ikkilik siklik kodlar turkumi, bu yerda n - butun son.

Rid-Solomon kodi

ing. - Reed-Solomon code

rus. - код Рида-Соломона

1. Blokning berilgan uzunligida, so'zlar o'rtasidagi minimal masofani ta'minlaydigan 2^m o'lchamli ikkilik bo'lmagan blokli kodlarning quyi toifasi. Blokda xatolar tuzatilisini ta'minlaydi.

2. MPEG-2 transport paketlari baytlarida xatolarni tuzatishga imkon beradigan ikkilik bo'lmagan siklik kod.

Rirproyeksiya

ing. - rearpoection

rus. - рирпроекция

Elektron apparatura yordamida ikkita (yoki undan ko'p) alohida tasvirdan tashkil topgan, jamlanganda ma'no jihatidan tugallangan sahna ko'rinishini hosil qiluvchi, kombi-natsiyalangan televizion tasvimi olish usuli.

Risk

ing. - risk

rus. - риск

Maqsadga ta'sir ko'rsatishning noma'lum natijasi.

Izohlar

1. Ta'sir ko'rsatish natijasi - bu, taxmin qilingan maqsaddan chega chiqishdir (ijobiy va/yoki salbiy).
2. Maqsadlar turli aspektlarga ega bo'lishi (masalan, moliyaviy, xodimlar xavfsizligi va salomatligini saqlash, axborot xavfsizligi, ekologik) va turli darajalarda (strategik, tashkilot, loyiha, mahsulot yoki jarayon darajasida) qo'llanilishi mumkin.
3. Risk odatda, potensial voqea-hodisalar va oqibatlar bilan yoki ularning birkmasi bilan tavsiflanadi.
4. Axborot xavfsizligi riski odatda, axborot xavfsizligi voqea-hodisalarining oqibatlari birkmasi ko'rinishida va ular bilan bog'liq bo'lgan yuzaga kelish ehtimolligi ko'rinishida ifodalanadi.

bilish, uning oqibatlari yoki yuzaga kelish ehtimolligi bilan bog'liq axborotning yetarli bo'lmashlik (hatto qisman bo'lsa ham) holatidir.

6. Axborot xavfsizligi riski axborot aktivlari zaifliklaridan yoki tahdidlar amalga oshirilishida axborot aktivlari guruhining zaifliklaridan foydalaniladigan holda tashkilotga zarar yetkazish ehtimolligi bilan assotsiatsiyalanadi

Risk darajasi

ing. - level of risk

rus. - уровень риска

Risk oqibatlari va ular ehtimolligi birkimasini ifodalaydigan risk kattaligi.

Risk egasi

ing. - risk owner

rus. - владелец риска

Riskni boshqarish bo'yicha javobgar bo'lgan va vakolatga ega jismoniy shaxs yoki mantiqiy obyekt.

Risk mezonlari

ing. - risk criteria

rus. - критерии риска

Riskning ahamiyatini baholaydigan belgilar.

Izohlar

1. Risk mezonlari tashkilot maqsadlariga, shuningdek, ichki va tashqi vaziyatlarga asoslanadi.
2. Risk mezonlari standartlar, qonunlar, siyosatlar va boshqa talablardan olinishi mumkin.

Risk taqsimoti

ing. - risk sharing

rus. - разделение риска

Bir nechta tomonlar o'rtasida riskning kelishilgan holda taqsimlanishini ichiga oladigan riskni qaya ishlash shakli.

Izohlar

1. Qonuniy yoki majburiy talablar, risk taqsimlanishi o'tkazilishini cheklashi, ta'qiqlashi yoki buyurishi mumkin.
2. Riskning taqsimlanishi o'zida sug'urta qilishni ifodalashi yoki shartnoma (kontrakt) shaklini olishi mumkin.
3. Risk taqsimlanishi bo'yicha shartnoma shartlarida riskning aniqligi va mazmunan bir xilligiga bog'liq bo'lgungacha bo'lgan daraja.
4. Riskni ko'chirish riskni taqsimlash shakli hisoblanadi.

Risklar turkumi

ing. - risk category

rus. - класс рисков

Ma'lum bir, masalan, muayyan kichik tizimga yoki resurs turiga tegishli belgiga qarab ajratilgan, axborot xavfsizligiga bo'ladigan ko'plab tahdidlar.

Risklarni boshqarish

ing. - risk management

rus. - управление рисками

1. Tizimlar yoki tarmoqlar xavfsizligi sohasida boshqarish amaliyoti davomida ishlab chiqilgan operatsiyalar ketma-ketligi.
2. Risklarni baholashga muvofiq, qarshi chora-tadbirlarni belgilash jarayoni.
3. Riskka nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va uni boshqarish bo'yicha muvofiqdastirilgan faoliyat.

Izoh - Risklarni boshqarish, odatda, risklarni aniqlash, risklarni qayta ishlash, risklarni qabul qilish va risklar to'g'risida xabar berishni o'z ichiga oladi.

Risklarning asosiy tahlili

ing. - baseline risk analysis

rus. - базовый анализ рисков

Axborot xavfsizligi asosiy darajasining talablariga muvofiq o'tkaziladigan riskni tahlil qilish.

Riskni aniqlash

ing. - risk assessment

rus. - определение риска

Riskni identifikatsiya qilish, risk tahlili va riskni baholashni ichiga oladigan jarayon.

Riskni baholash

ing. - risk evaluation

rus. - оценка риска

1. Riskni tahlil qilish natijalarini risk va/ yoki uning kattaligi maqbul yoki yo'l qo'yib bo'lishligini aniqlash uchun risk mezonlari bilan taqqoslash jarayoni.

Izoh - Riskni qiyosiy baholashdan riskni qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qilishda foydalanilishi mumkin.

2. Ma'lum bo'lgan va taxmin qilinayotgan tahdidlar va zaif tomonlarni tahlil qilish ushli. Kutilayotgan zarar miqdorini va uning tizim ishi uchun maqbullik darajasini aniqlash imkonini beradi.
3. Risklarni identifikatsiya qilish, ularni tavsiflash uchun parametrlar tanlash va bu parametrlar bo'yicha baho olish.

Riskni boshqarish jarayoni

ing. - risk management process

rus. - процесс управления риском

Tashkilotni boshqarish siyosati, protseduralari va usullariga muvofiq bajariladigan, axborot almashtiruvchi, maslahatlashuvlar, maqsadlarni belgilash, qo'llash sohasi, riskni identifikatsiya qilish, tadqiq qilish, baho-

Ish, qayta ishlash, monitoring va tahlil qilish bo'yicha o'zaro bog'langan xatti-harakatlar.
Izoh – Riskni boshqarishni to'liq tavsiflash uchun «jarayon» atamasidan foydalaniladi. Riskni boshqarish jarayoni doirasidagi elementlar «faoliyat deb ataladi.

Riskni identifikatsiya qilish
ing. - risk identification

rus. - идентификация риска

Riskni aniqlash, ro'yxatini tuzish va tavsiflash jarayoni.

Izohlar

1. Riskni identifikatsiya qilish riskning manbalarini, hodisalarini, ularning sabablari va ro'y berishi mumkin bo'lgan oqibatlarini o'z ichiga oladi.

2. Riskni identifikatsiya qilish, shuningdek, xronologik ma'lumotlar tahlilini, ekspert baholashlarni va manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini o'z ichiga oladi.

Riskni qabul qilish

ing. - risk acceptance

rus. - принятие риска

1. Riskni qabul qilish qarori.

2. Ma'muriyatning, qoida bo'yicha, texnik yoki moliyaviy sabablarga ko'ra riskning ba'zi bir darajasini ma'qul deb hisoblaydigan qarori.

Riskni qayta ishlash

ing. - risk treatment

rus. - обработка риска

Riskni modifikatsiyalash jarayoni.

Izohlar

1. Riskni qayta ishlash:

- risk jarayoni yoki uning natijasida xavfli hodisa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan faoliyatni boshlamaslik yoki davom ettirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish yordamida riskning oldi olinishini;

- yanada keng imkoniyatlarni ta'minlash uchun riskning qabul qilinishini yoki riskning oshirilishini;

- risk manbai bartaraf etilishini;

- xavfli hodisa ehtimolligi o'zgarishini;

- xavfli hodisa oqibatlari o'zgarishini;

- boshqa tomon yoki tomonlar bilan riskning taqsimlanishini (shartnomalarga kiritish va riskni qayta ishlashni moliyalashtirish yo'li bilan);

- riskni saqlash to'g'risida asoslangan qarorni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Riskni qayta ishlash riskning bartaraf etilishi, oldi olinishi yoki kamaytirilishini o'z ichiga olishi mumkin.

3. Riskni qayta ishlashda yangi risklar vujudga kelishi yoki mavjud risklar o'zgartirilishi mumkin.

Riskni tahlil qilish

ing. - risk analysis

rus. - анализ риска

1. Risk tabiati va xususiyatini o'rganish va risk darajasini aniqlash jarayoni.

Izohlar

1. Riskni tahlil qilish riskni baholash va riskni qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Riskni tahlil qilish riskning miqdor jihatdan baholanishini o'z ichiga oladi.

2. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi resurslarini, bu resurslarga tahdidlarni va bu tahdidlarga nisbatan tizimning zaifliklarini identifikatsiya qilish proseduralarining muntazam bajarilishi.

3. Umuman tizim xavfsizligiga va uning alohida (nafaqat texnik) komponentlariga tahdidlarni, tahdidlar xarakteristikasini va ular amalga oshirilganda yetkazilishi mumkin bo'lgan potensial zararni aniqlash, shuningdek, himoya choralarini ishlab chiqish jarayoni.

Riskni to'liq tahlil qilish

ing. - full risk analysis

rus. - полный анализ риска

Axborot xavfsizligi sohasida oshirilgan (muhofaza qilinganlikning bazaviy darajasiga qaraganda yuqoriroq bo'lgan) talablar qo'yadigan axborot tizimlari uchun risklarni tahlil qilish.

Izoh – Risklarni to'liq tahlil qilish resurslarning qimmatligi aniqlanishini, tahdidlar va zaifliklar baholanishini, adekvat qarshi choralar tanlanishini va ularning samaradorligi baholanishini ko'zda tutadi.

Riskning pasayishi

ing. - risk reduction

rus. - снижение риска

Risk bilan bog'liq bo'lgan ehtimollikni, salbiy oqibatlarni yoki har ikkisini birgalikda kamaytirish uchun amalga oshiriladigan ishlar.

Rivest-Shamir-Adleman

usuli bilan shifrlash

ing. - RSA encryption

rus. - шифрование методом

Ривеста-Шамира-Адлемана

Ochiq kalit bilan shifrlash usuli bo'lib, shifrlash uchun foydalaniladigan kalit shifrni ochish uchun mo'ljallangan kalit bilan mos tushmaydi (shifrni ochish kaliti oluvchiga ma'lum bo'lishi kerak).

Rivojlantirilgan mobil telefon xizmati,

AMPS standarti

ing. - advanced mobile

phone service (AMPS)

rus. - развитая мобильная телефонная

служба, стандарт AMPS

AQShda keng tarqalgan analog mobil aloqa tizimlaridan biri. Mobil terminallarni

tayanch stansiyalar bilan radioaloqasi (qabul qilish kanali) uchun (825-845) MHz chastotali diapazondan foydalanadi. 600 kanalidan har birining chastotalar polosasi kengligi 30 kHz ni tashkil etadi.

Robastlik

ing. - robustness

rus. - робастность

Hisoblash tizimining ham ichki, ham tashqi xato holatlar yuz berganda qayta tiklana olish qobiliyatining o'Ichovi.

Robot

ing. - robot

rus. - робот

1. Tashqi ta'sirlarni qabul qila oladigan va ularga javob beradigan, shuningdek, mustaqil ravishda turli xil, odatda, intellektual operatsiyalarni bajaradigan mashina.

2. Ikki va undan ortiq o'q bo'yicha dasturlanadigan, o'z ishchi muhiti ichida harakatlanadigan va belgilangan vazifalarni bajaradigan yuritmali mexanizm.

Izohlar

1. Robot boshqarish tizimi va boshqaruv tizimining interfeysini o'z ichiga oladi.

2. Robotlarni sanoat robotlariga va xizmat ko'rsatuvchi robotlarga ajratish ularning vazifasiga muvofiq bajariladi.

Rol

ing. - role

rus. - роль

Muayyan ko'plikdagi foydalanuvchilarga tizim funksional imkoniyatlaridan erkin foydalanish ruxsatnomalarining majmui.

Rollar asosida foydalana

olishni boshqarish

ing. - role based access control

rus. - управление доступом

на основе ролей

1. Foydalanish huquqini aniq belgilash tizimining modeli, bunda rollardan turli vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi, operatsiyalarni bajarishga ruxsat esa, rollarga bog'lanadi.

2. Foydalanuvchilarga rollarni belgilash va bu rollar uchun ruxsat o'tatish orqali ma'muriy boshqarishni soddalashtiradigan, xavfsizlikni ta'minlashning umumiy modeli.

Rombsimon antenna

ing. - rhombic antenna

rus. - ромбическая антенна

Yer ustida osilgan romb tomonlarini hosil qiluvchi sim ko'rinishidagi antenna.

Rostlash

ing. - adjustment

rus. - регулировка

Tizimning alohida komponentlarini to'g'ri va qulay ishlashini ta'minlash uchun sozlash.

Rotor mashinasi

ing. - rotor machine

rus. - роторная машина

Umumiy o'q atrofida erkin aylanadigan disklardan iborat kriptografik mashina. U mexanik va elektromexanik bo'lishi mumkin. Mashinaning disklari (rotori) bir biriga nisbatan harakatlanadi, shu bilan har bir taktda burchak holatlaridan noyob birikma hosil bo'ladi. Mashinaning hamma disklari qo'zg'almas bo'lganda, rotor mashinasi bir diskli oddiy ekvivalent almashtirishni bajaruvchiga o'xshab qolgan bo'lar edi. Disklar soni yetarlicha (odatda 5-10) bo'lsa, disklarning to'g'ri tanlangan soxta tasodifiy harakatida rotor mashinasi yuqori kriptobar-doshlilikni ta'minlaydi.

Roumer

ing. - roamer

rus. - роумер

Bir tizimda qayd qilingan, lekin vaqtincha boshqasida ishlayotgan abonent mobil stansiyasi. Abonent bir tizim qoplash zonasidan boshqa tizimning qoplash zonasiga o'tganida stansiya ana shu - keyingi tarmoqda qayd etiladi. Qayd etish ma'lumotlari VLR - tizimining vizit registrida saqlanadi.

Roumer abonent

ing. - nomadic user (sin. roaming user)

rus. - абонент-роумер

1. Bir xizmat ko'rsatish zonasidan boshqasiga ko'chib yuruvchi mobil abonent.

2. O'zi doimiy qayd etilgan «uy» zonasidan tashqarida vaqtincha xizmat ko'rsatiladigan Yer usti yoki yo'ldoshli aloqa tarmog'ida abonent.

Rouming

ing. - roaming

rus. - роуминг

1. Radioqurilmaning tayanch stansiya ta'sir doirasidan tashqarida harakatlanish imkoniyati va «mehmon» stansiya ta'sir zonasida bo'la turib, «o'zining» tarmog'idan foydalana olishi. Simsiz tarmoqlarda rouming, tarmoq xizmatlaridan foydalanish yo'qolmasdan va bog'lanish uzilmasdan, bitta foydalanish nuqtasidan boshqasiga o'tishni bildiradi. Rouming foydalanuvchilarga, Internet va elektron pochtdan foydalanish saqlangan holda, erkin harakatlanish imkoniyatini beradi.

2. Asosan, yer usti mobil aloqa tarmoqlariga xos bo'lgan maxsus xizmat. Roumingga ehtiyoj abonent o'z o'mini o'zgartirganida va o'zining uy tarmog'idan (abonent doimiy qayd etilgan) boshqa operatorga qarashli o'xshash tarmoqqa o'tganida yuzaga keladi. Lokal, milliy va xalqaro rouminglar bo'ladi. Qayd etish usuliga ko'ra, qo'lda va avtomatik amalga oshiriladigan rouminglar farqlanadi.

Rouming hududlari

ing. - roamed territories

rus. - роуминговые территории

Rouming to'g'risida o'zaro bitim tuzgan turli operatorlar tomonidan mobil aloqa xizmatlari taqdim etiladigan geografik rayonlar.

Router

ing. - router

rus. - роутер

1. Tarmoq trafiginu uzatishning bitta yoki bir nechta marshrutini tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilishga javobgar tizim yoki qurilma. Mazkur vazifani bajarish uchun tarmoq to'g'risidagi axborotni va marshrutlash metrikasi deb nomlangan bir nechta mezon asosida eng yaxshi marshrutni tanlash algoritmlariga ega marshrutlash protokolidan fodalaniyadi. Xabarlarini tezkor va eng samarali marshrutlash uchun marshrutizatorlar bir-biri orasida tarmoqning ayni paytdagi holati to'g'risidagi ma'lumotlarni almashish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. Tarmoqda paketlarni marshrutlash, ya'ni paketlarning tarmoq bo'ylab uzatilishida

eng qisqa marshrutni tanlab berish bilan shug'ullanuvchi tarmoq kompyuteri.

3. Ma'lumotlar bloklarini marshrutlash bilan shug'ullanuvchi qayta uzatish tizimi.

Runet

ing. - runet

rus. - рунет

Internetning Rossiyaga bag'ishlangan va rus tilida bo'lgan qismi. Runetga.ru domenidagi saytlardan tashqari, barcha rusiyzabon saytlarni ham kiritsa bo'ladi.

Rupor-linzali antenna

ing. - horn-lens antenna

rus. - рупорно-линзовая антенна

Katta ochilish burchagiga ega rupordan va uning chiqishiga qo'yilgan, rupordagi sferik yoki silindrsimon to'lqin frontini yuziga o'zgartiradigan linzadan iborat antenna.

Rupor-parabolik antenna

ing. - horn-parabolic antenna

rus. - рупорно-параболическая антенна

Konussimon rupor va aylanish paraboloidi uchastkasi ko'rinishidagi qaytargichning birikmasini o'zida aks ettiradigan antenna.

Ruporli antenna

ing. - horn antenna

rus. - рупорная антенна

1. Nurlantiruvchi elementi, o'ziga ulangan to'lqin o'tkazgichdan to'yinadigan rupor bo'lgan yuqori chastotali diapazon antenasi.

2. Oxiri ochiq bo'lgan tomonga tekis ko'ndalang kesim bilan kengayuvchi to'lqin o'tkazgich ko'rinishidagi antenna.

Ruporli nur tarqatgich

ing. - flare

rus. - рупорный излучатель

Rupor, reflektor yoki shunga o'xshash nurlantiruvchi qurilmaning ochiq uchi.

Ruporli nurlagich

ing. - feed horn

rus. - рупорный облучатель

Ko'zgu va linzali antennalarda nurlagich sifatida ishlatiladigan ruporli antenna.

Ruslashtiruvchi drayver

ing. - cyrillic driver

rus. - драйвер-русификатор

Kirill kodli sahifada 128 dan 255 tagacha

simvolni ko'rsatish uchun mo'ljallangan rezident dastur. DOS uchun taniqli ruslash-tiruvchi drayver keyrus.com edi.

Rutkit

ing. - rootkit

rus. - руткит

Tizimda jinoyatkor shaxs yoki zararli dasturning borligi izlarini yashirish uchun ishlatiladigan dastur yoki dasturlar to'plami. Rutkit buzuvchiga buzilgan tizimda o'mashib olish va fayllar, jarayonlar hamda tizimda rutkit borligini yashirish orqali o'z faoliyati izlarini yashirishga imkon beradi.

Ruxsat, ajratish

ing. - permissions

rus. - разрешение

Obyekt bilan bog'liq qoida, u foydalanuvchilarni shu obyektga kira olishini boshqarishda qo'llaniladi. Ruxsat obyektning egasi tomonidan beriladi va bekor qilinadi.

Ruxsat berish

ing. - clearance

rus. - допуск

Shaxsga, darajasi belgilangan yoki birmuncha past bo'lgan xavfsizlik ma'lumotlari yoki axborotdan foydalana olish huquqiga berilgan ruxsat.

Ruxsat etilgan foydalana olish kanali

ing. - access grant channel

rus. - канал разрешенного доступа

Tayanch stansiya tomonidan istalgan mobil stansiyaga to'g'ridan-to'g'ri kirishni tashkil etish uchun foydalaniladigan, ajratilgan boshqaruv kanali.

Ruxsat etilgan foydalanish (kirish)

ing. - granted access (син. legitimate access)

rus. - санкционированный доступ

Huquqlari autentifikatsiya qilish jarayonida tasdiqlangandan so'ng, qayd etilgan foydalanuvchilarning tizimdan foydalana (tizimga kira) olishiga beriladigan ruxsat.

Ruxsat etilgan foydalanish siyosati

ing. - acceptable use policy (AUP)

rus. - политика допустимого

(разрешенного) использования

Ko'pgina tarmoqlar undan foydalanish mumkin bo'lgan usullarni cheklashni ko'zda tutadi. Masalan, ayrim tarmoqlarda AUP un-

dan tijorat maqsadlarida foydalanilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ruxsat etilgan holat

ing. - authorized (allowed) state

rus. - санкционированное состояние

Imtiyozga ega bo'lmagan dastur boshqa sharoitlarda erkin foydalanish mumkin bo'lgan resurslardan foydalana oladigan holat.

Ruxsat etilgan imkoniyat

ing. - resolution

rus. - разрешающая способность

Grafik kiritish-chiqarish qurilmasi tomonidan (ekran, printer, skaner) tiniq aks ettiriluvchi (yoki qabul qilinuvchi) tasvir elementlari soni. Agar ish maydonining o'lchamlari chegaralangan bo'lsa (monitor ekranidagidek), unda o'lchamlar gorizontal va vertikal nuqtalar soni bilan o'lchani (yozilishi XXXX×YYYY ko'rinishda bo'ladi, masalan, 480×640), aks holda bu o'lchamlar dyuym sanog'ida beriladi. Hosil qilinadigan tasvirning tiniqlik darajasi past, o'rta va yuqori bo'lishi mumkin. Bunday ajratish uchun belgilangan chegaralar yo'q bo'lib, u hozirgi texnologiyaga bog'liqdir.

Ruxsat etilgan chaqiruv

ing. - authorized call

rus. - санкционированный вызов

Belgilangan (ma'lum) foydalanuvchiga ruxsat etilgan, tizimni, dastur yoki ma'lumotlarni chaqirish. Odatda, parolni kiritish va uni tekshirish orqali bajariladi.

Ruxsat etilganlar ro'yxati

ing. - allow list

rus. - список разрешённых

Biron bir amalni bajarishga ruxsat berilgan yoki resurslardan erkin foydalanish uchun ruxsat etilgan foydalanuvchilar yoki dasturlar ro'yxati.

Ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish

ing. - unauthorized access

rus. - несанкционированный доступ

1. Subyektning obyektidan yoki axborotdan, tizimda belgilangan foydalanishni chegaralash qoidalarini buzgan holda foydalana olishi.

2. Tarmoq resurslaridan o'rnatilgan muhofazani chetlab o'tib foydalana olish.

3. Muhofaza obyektidan reglamentlangan tarzda foydalana olishning buzilishi.

Ruxsat taqiqlangan

ing. - permission denied

rus. - разрешение запрещено

Resurslardan ruxsat berilmagan holda foydalanilganda paydo bo'ladigan xabar. Agar foydalanuvchi qandaydir resurslardan (fayllar, hujjatlar, musiqa va h.k.) foydalanish uchun kerakli huquqlarga ega bo'lmasa, operatsion tizim bu haqda xabar beradi.

Ruxsatsiz faoliyat

ing. - unauthorized action

rus. - несанкционированное действие

Belgilangan qoidalarni buzgan holdagi faoliyat.

Ruxsatsiz foydalana

olishdan muhofaza qilish

ing. - protection from unauthorized access

rus. - защита от

несанкционированного доступа

Muhofaza qilinadigan axborotdan foydalana olishning huquqiy hujjatlari bilan yoki axborot mulkdori (egasi) tomonidan belgilangan huquqlar yoki qoidalar buzilgan holda manfaatdor subyekt tomonidan muhofaza qilinadigan axborotni olishning oldini olish bo'yicha faoliyat.

Ro'yxat

ing. - list register

rus. - список

1. Tartiblashtirilgan elementlar to'plami.
2. Dasturlashda – faqat kompyuter xotirasi bilan chegaralangan, ixtiyoriy uzunlikdagi turli elementlarni birlashtiradigan ma'lumotlar tuzilmasi. Uzunligi nolga teng ro'yxat bo'sh ro'yxat deb ataladi. Ro'yxatning kamchiligi, uning elementiga ro'yxatdagi pozitsiyasidan kelib chiqib to'g'ridan-to'g'ri murojaat eta olmasligidadir.

Ro'yxatga olingan drayver

ing. - signed driver

rus. - подписанный драйвер

Operatsion tizim bilan birgalikda ishlash uchun tekshirilgan va tasdiqlangan drayver. Imzolanmagan drayverlarni o'rnatish shaxsiy kompyutrlarga va periferiya asboriga zarar keltirishi mumkin.

Ro'yxatga olingan foydalanuvchi

ing. - registered user

rus. - зарегистрированный пользователь

1. Berilgan jamoa bo'lib foydalanish tizimida ustovor raqamga ega bo'lgan foydalanuvchi.

2. Elektron hisoblash mashinasidagi ishlar grafigiga kiritilgan foydalanuvchi.

Ro'yxatga olish

ing. - registration

rus. - регистрация

1. Hujjatga tizim noyob identifikatorini berish jarayoni.

2. Hujjat to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni ro'yxatga olish-nazorat qilish kartochkasiga kiritish va unga ro'yxatga olish raqamini berish yo'li bilan hujjat tuzilganligi yoki olinganligini tasdiqlash.

Ro'yxatga olish organi

ing. - registration authority

rus. - орган регистрации

1. Sertifikatlar subyektlarini identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish yuzasidan javobgar, biroq, sertifikatlash organi ham, atributlar berish organi ham bo'lmagan qandaydir obyekt.

2. Ro'yxatga olish xizmatini taqdim etish huquqi berilgan va ishonib topshirilgan organ.

Ro'yxatga olish ssenariysi

ing. - logon script

rus. - сценарий регистрации

Tarmoq administratori tomonidan foydalanuvchiga belgilangan va foydalanuvchini tizimda ro'yxatga olish paytida bajariladigan kichik dastur, komanda fayli yoki makros.

Ro'yxatlarni qayta ishlash

ing. - list processing

rus. - обработка списков

1. Ma'lumotlarning ro'yxat tuzilmalarini qayta ishlash dasturiy vositalari. Ular «keraksiz narsalar»ni yig'gan holda va ro'yxatlarni tuzish hamda tahlil qilish yordamida xotiraning dinamik taqsimlanishini ta'minlaydi.
2. Ro'rsatgichlar bilan bog'langan bir xil pozitsiyalardan iborat ma'lumotlar tuzilmasini o'zgartirish jarayonlarini dasturlash. Ro'yxatlarni qayta ishlashda xotiradan foydalanishning qulay usuliga asoslangan ro'yxatlarni qayta ishlash tillari ishlatiladi.

S

Sahifa

ing. - page

rus. - страница

1. Ikkining darajalariga karrali (odatda 512 byte dan 16 kbyte gacha) qayd etilgan o'lchamdagi xotira bloki. Blok o'lchami konkret mikroprosessor arxitekturasiga bog'liq bo'ladi.

2. Bitta to'la ekranli tasvirni o'zida saqlovchi videoxotira qismi.

3. Berilgan formatdagi, bitta chop etiladigan sahifadan oshmaydigan hujjat qismi.

4. Veb-uzel sahifasi, shuningdek, vebda e'lon qilingan hujjat.

Sahifa bloki

ing. - page frame

rus. - страничный блок

Virtual xotira sahifasi ko'rsatilishi mumkin bo'lgan fizik manzillar diapazoni.

Sahifa fayli

ing. - swap file

rus. - файл страничный

Qattiq diskdagi, Windows da tezkor xotiraga sig'magan dasturlar va ma'lumot fayllarining bir qismini saqlash uchun qo'llaniladigan yashirin fayl.

Sahifa pastga

ing. - Page Down

rus. - страница вниз

Hujjatni bitta ekran sahifasiga pastga siljish uchun mo'ljallangan klavish.

Sahifa skaneri

ing. - page scanner

rus. - страничный сканер

Hajmi katta bo'lmagan tashuvchilardan matnlar va tasvirlarni kiritadigan skaner.

Sahifa tavsifining standart tili

ing. - standard page

description language (SPDL)

rus. - стандартный язык

страничных описаний

Mashina tili talablariga muvofiq keladigan fayllarni ishlab chiquvchi va foydalanuvchidan faylni tuzish uchun zarur komandalarni kiritishni talab qilmaydigan usullar va apparaturalar.

Sahifa xotirasini boshqarish bloki

ing. - paged memory management unit

rus. - блок управления

страничной памятью

Virtual xotira bilan ishlaydigan turli ilovalar yoki operatsion tizimlar foydalanadigan xotiradan erkin foydalanish va bu xotirani boshqarish operatsiyalarini bajaradigan qurilma.

Sahifa yuqoriga

ing. - Page UP

rus. - страница вверх

Hujjatni bitta ekran sahifasiga yuqoriga siljish uchun mo'ljallangan klavish.

Sahifalar jadvali

ing. - page table

rus. - таблица страниц

Operatsion tizim jarayoniga uning mantiqiy manzillarini jismoniyga translyatsiya qilish uchun ajratiladigan tizim tuzilmasi.

Sahifalar jadvalining registri

ing. - page table base register (PTBR)

rus. - регистр таблицы страниц

Sahifalar jadvalini va uning uzunligini saqlaydigan registri.

Sahifalarni ajratgich

ing. - page break

rus. - разделитель страниц

Bosiladigan hujjatda, hisobotda yoki shaklda printerga yangi sahifa boshlanishini ko'rsatadigan boshqaruvchi simbol.

Sahifalarni almashtirish

optimal algoritmi

ing. - optimal page replacement algorithm

rus. - оптимальный

алгоритм замещения страниц

Sahifalarni almashtirish algoritmi, bunda uzoq vaqt davomida ishlatilmagan sahifa almashtiriladi.

Sahifalarni rad etish koeffitsiyenti

ing. - page fault rate

rus. - коэффициент отказов страниц

0 dan 1 gacha bo'lgan, sahifalarni rad etish ehtimolligini tavsiflaydigan son.

Sahifalarning iyerarxik jadvali

ing. - hierarchical page table

rus. - иерархическая таблица страниц

Sahifalar jadvalini iyerarxik (odatda, ikki

darajali) ko'rinishda tashkil qilish. Jismoniy xotiraning aniq (haqiqiy) sahifasi adresi foydalana olishning natijasi hisoblanadi.

Sahifalarning xeshlangan jadvali

ing. - hashed page table

rus. - хэшированная таблица страниц
Mantiqiy sahifaning raqami xeshlanishiga asoslangan qidiruv amalga oshiriladigan sahifalar jadvali.

Sahifali printer

ing. - page printer

rus. - страничный принтер

Sahifaning tasviri to'la-to'kis chiqariladigan alohida qog'oz varaqlarini uzatadigan va bosadigan printer.

Sahifani almashtirish

ing. - page replacement

rus. - замещение страницы

Operatsion tizim tomonidan murojaat qilingan sahifani boshqa sahifa o'rniga, agar talab qilinsa oxirgi sahifani olish bilan, chiqarish.

Sahifani to'ldirish

ing. - page padding

rus. - заполнение страницы

Ma'lumotlar blokiga ahamiyatli bo'lmagan axborotning oxirgi, to'liq to'ldirilmagan sahifasini yozish usuli.

Sahifani o'tkazish

ing. - form feed

rus. - перевод страницы

Printerda bosib chiqarishda yangi sahifaga o'tish uchun foydalaniladigan boshqaruvchi simbol.

Sahifaning assotsiativ xotirasi (kesh),

manzillarni translyatsiya qilish buferi

ing. - translation lookaside buffer (TLB).

rus. - ассоциативная память (кэш)

страниц, буфер трансляции адресов
Tez-tez ishlatiladigan sahifalarning raqamini o'z ichiga oladigan va ularning manzilini asosiy xotirada saqlaydigan o'ta tez harakatlanadigan assotsiativ xotira.

Sahifaning invertirlangan jadvali

ing. - inverted page table

rus. - инвертированная таблица страниц
Sahifalar jadvali, unga murojaat etilganda, talab etilayotgan jismoniy sahifani izlash ja-

rayon raqami va sahifaning mantiqiy raqami bo'yicha amalga oshiriladi.

Sahifaning ishlamay qolishi

ing. - page fault

rus. - отказ страницы

Asosiy xotirada sahifa yo'qligi tufayli uzilish.

Sahnani raqamli boshqarish

ing. - digital scene control

rus. - цифровое управление сцены

Televizion tasvir kontrastligini optimallashtirish funksiyasi. Juda keskin kontrastlikda tasvirmoq oq qismlari, masalan matnlar juda aniq hamda ortiqcha yorqin shu'lalanishsiz qayta tiklanadi. Biroq, ushbu funktsiya kul rangning gradatsiyasini o'zgartirmaydi, u tufayli tasvir o'zining tabiiyligini saqlab qoladi.

Sakkizlik sanoq tizimi

ing. - octal number system

rus. - восьмеричная система счисления

8 razryadli sanoq tizimi. Unda 0 dan 7 gacha bo'lgan raqamlar ishlatiladi. Sakkizlik sanoq tizimi raqamli qurilmalar bilan bog'liq joylarda ishlatiladi. Sakkizlik sanoq sonlari ikkilik sanoqni triadalariga aylantirish osonligi bilan tavsiflanadi. Oldin dasturlashda va umuman kompyuter hujjatlarida ishlatilar edi, lekin hozirga kelib o'n oltilik sanoq tizimi tomonidan siqib chiqarilgan.

Sakrash

ing. - surge

rus. - выброс

Signalning keskin o'zgarishi, shovqinning kuchayishi yoki elektr ta'minot tarmog'idagi kuchlanishning to'satdan sakrashi.

Salbiy ta'sir etish

ing. - adverse actions

rus. - негативные воздействия

Tahdid agentining aktivga ko'rsatadigan ta'siri.

Samaradorlikning muhim ko'rsatgichlari

ing. - key performance indicators

rus. - ключевые показатели

эффективности

Qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lishlik o'lchovlarini o'zida ifodalaydigan ko'rsatgichlar. Bu ko'rsatgichlar boshqaruv funksiyalari, jarayonlar, harakatlar samaradorligi

va natijaliligini baholash uchun foydalaniladigan tizimni hosil qiladi. Bunday ko'rsatgichlardan, shuningdek, tashkilot boshqaruvining barcha sohalari: biznes jarayonlari, ishlab chiqarish sohasidagi texnologik jarayonlarni, xodimlarni boshqarish tizimini, moliyaviy operatsiyalarni rejalashtirish va tahlil qilishda ham foydalaniladi.

Samarali boshqaruv

ing. - good governance

rus. - эффективное управление

Davlat boshqaruvining yangi konsepsiyasi. Samarali davlat boshqaruvini barcha darajalarda mamlakat ishlariga rahbarlik qilish maqsadida, iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy hokimiyatning amalga oshirilishi sifatida qarab chiqiladi. Boshqaruv huquqlarning ajratilishi, xalq hokimiyati, yuqori mansabdor shaxslarni saylov yo'li bilan tayinlash va almashtirib turish, ijro etuvchi hokimiyat institutlarining hisobdorligi, qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, prinsiplari asosida quriladi.

Samba

ing. - samba

rus. - самба

GNU General Public License litsenziyasi asosida ishlab chiqarilgan SMB/CIFS protokoli bo'yicha ishlash uchun bepul tarqatiladigan dasturiy ta'minot. Uchinchi versiyadan boshlab Samba Microsoft Windows tarmog'i mijozlari uchun fayllarni boshqarish va chop etish xizmatlarini taqdim etadi va Windows Server bilan yo domenning asosiy kontrolleri, yoki domen a'zosi sifatida uyg'unlashishi mumkin. U shuningdek, Active Directory domenining qismi bo'lishi mumkin. Samba GNU/Linux, Solaris kabi va BSD turli variantlarida, shu jumladan Mac OS X Server kabi Unix va Unix o'xshash tizimlarda ishlaydi.

Sana

ing. - date

rus. - дата

Kompyuterning CMOS-xotirasida saqlanadigan sana. Hujjat yaratilgan vaqtni aniqlash uchun xizmat qiladi va sinxronlashda yordam beradi.

Sana va vaqtga bog'liq chaqiruvlarni qayta manzillash

ing. - time dependent call forwarding

rus. - переадресация вызова в зависимости от даты и времени суток

Kiruvchi chaqiruvni belgilangan vaqt davomida boshqa abonent raqamiga qayta manzillash imkonini beradigan xizmat. Bir kecha-kunduzdagi turli vaqlar uchun qayta manzillashning turli raqamlari belgilanishi mumkin.

Sanani eslatish xizmati

ing. - diary service

rus. - услуга напоминания даты

Abonentning telefon apparatiga aniq kun va vaqtda oldindan belgilangan ko'rsatma bo'yicha chaqiruv va ushbu chaqiruvga javoban magnit tasmaga avtomatik tarzda yoziladigan hamda abonentga har qanday ma'lum hodisa (masalan, qarindoshlarning tug'ilgan kuni) to'g'risida eslatuvchi xabarini uzatadigan xizmat.

Izoh - Ushbu xizmatning ikkita varianti ko'zda tutiladi: - har bir alohida holatda abonent uzatilishi kerak bo'lgan tegishli xabarni aytib turadi; - oldindan yozilgan ko'pgina xabarlardan uzatilishi kerak bo'lgan xabar tanlanadi.

Sanoat josusligi

ing. - industrial espionage

rus. - промышленный шпионаж

Egasiga zarar yetkazuvchi yoki yetkazishi mumkin bo'lgan noqonuniy harakatlar. Bunda tijorat sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarni to'plash, egallab olish va uzatish nazarda tutiladi.

Sanoq tizimi

ing. - numbering system

rus. - система счисления

Sonlarni aks ettirish usuli va ular ustida bo'ladigan operatsiyalar qoidalari. Pozitsion va nopozitsion sanoq tizimlari farqlanadi. Kompyuterda hisoblashlarda pozitsion sanoq tizimlaridan foydalaniladi.

Sanoqlar tuzilmasi

ing. - structure of samples

rus. - структура отсчетов

Sanoqlarning televizion tasvirdagi o'zaro nisbiy joylashuvi.

Santimetrli to'liqlar

ing. - centimetric waves

rus. - сантиметровые волны

To'liqin uzunligi 10 sm dan 1 sm gacha (chastotasi 3 GHz dan 30 GHz gacha) bo'lgan radioto'liqlar.

Saqlash

ing. - saving

rus. - сохранение

Ma'lumotlarni xotira qurilmasiga kiritish jarayoni.

Saralash

ing. - search

rus. - перебор

Qandaydir ko'plikdagi kerakli elementni izlab topish usuli. To'la saralash usullari real vazifalarda juda ko'p mashina vaqtini talab qiladi, shuning uchun, imkoni bo'lsa, yo'naltirilgan izlab topish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Saralash kaliti

ing. - sort key

rus. - ключ сортировки

Yozuvlarni saralash ketma-ketligini belgilaydigan maydon yoki maydonlar. Dastlab saralash asosiy kalit maydonidagi qiymatlar bo'yicha boradi, keyin esa, maydonda bir xil ma'lumotlarga ega bo'lgan yozuvlar ikkilamchi kalitlar qiymatlari bo'yicha saralanadi.

Saralash, tartiblash

ing. - sort

rus. - сортировка

Ketma-ket keluvchi ma'lumot elementlarini (masalan, jadvallar satri yoki ma'lumotlar bazasi yozuvlarini) biror bir berilgan qoida asosida saralash, tartiblash, odatda qiymatlar kalit maydonlar bo'yicha o'sishi yoki kamayishi bo'yicha tartiblanadi.

«Sariq kitob»

ing. - yellow book

rus. - «жёлтая книга»

Yetti pog'onali tarmoq modelining transport darajasidagi standart protokoli ta'rifini o'zida aks ettirgan sariq rangdagi kitob.

Sarlavha

ing. - banner

rus. - заголовок

Fayl yoki xabarning, asosiy axborotni o'z ichiga olgan birinchi so'zi.

Sarlavha belgisi

ing. - header label

rus. - метка заголовка

Faylni yozishdan oldin keladigan va uning boshlanishini hamda ichidagini identifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan xizmatga oid belgi.

Sarlavha satri

ing. - title bar

rus. - строка заголовка

Foydalanuvchining grafik interfeysida - dialog oynasining nomi va boshqarish tugmalari bo'lgan ingichka gorizontaal chiziq. Amaliy dasturlarda qayta ishlanadigan fayl nomini ham ichiga olishi mumkin.

Sath

ing. - level

rus. - уровень

Axborotni o'tkazish nuqtai nazaridan tarmoqning iyerarxik tuzilmasini bayon etish uchun foydalaniladigan element.

Izoh - «Sath» tushunchasi OSI modelidagi «sath» tushunchasiga mos keladi.

Satr

ing. - string

rus. - строка

Simvollarning tartiblashtirilgan ketma-ketligi. Dasturlash tillarida - tegishli operatsiyalar - konkatenatsiya, nisbatlar belgilangan ma'lumotlar turi. Satrni simvollarning bir o'lchamli massivi sifatida ham ta'riflash mumkin.

Satr konstantasi

ing. - string constant

rus. - строковая константа

Qo'shtirmoq yoki qo'sh qo'shtirmoq ichiga olingan simvollar ketma-ketligi.

Satr ko'chirish simvoli

ing. - newline character

rus. - символ перевода строки

Simvol yoki matn satri tugaganini bildiradigan va ekrandagi kursorni yoki printer bosuvchi kallagini navbatdagi satr boshiga ko'chiradigan simvollar ketma-ketligi.

Satr osti indeksi

ing. - subscript

rus. - подстрочный индекс

Ko'plik elementlari yoki element raqamini aniqlash uchun identifikatordan pastda yoziladigan harf yoki simvol.

Satr usti indeksi**ing.** - superscript**rus.** - надстрочный индекс

Matn satridan yuqoriroqda nisbatan kichikroq bitta yoki bir nechta belgi.

Satrbay printer**ing.** - line printer**rus.** - построчный принтер

Birdaniga matnning butun satrini va minutiga 3000 tagacha satrni bosib chiqaradigan, katta mashinalar uchun mo'ljallangan, tez ishlaydigan printer. Shovqin darajasi anchagina yuqori.

Satrga ko'chirish**ing.** - wrap**rus.** - перенос на строку

Matnni aks ettirishda yangi satrga avtomatik ravishda (so'z ichida ko'chirishsiz) o'tish.

Satrlar jadvali**ing.** - string table**rus.** - таблица строк

Ishga tushirish komandalarini turli vaqtlarda berishda foydalaniladigan nomlangan belgili satrlar jadvali.

Satrlar juftligi**ing.** - line pairing (twinning)**rus.** - спаривание строк

Yoyish satrlarini navbatma-navbat yoyishning takomillashmaganligi.

Satrlar orasiga kirish**ing.** - between-the-lines entry**rus.** - вход между строк

Qonuniy foydalanuvchining resurslari bilan bog'liq bo'lgan, ma'lumotlar uzatish kanalini qisqa vaqtga o'chirish paytida buzg'unchi tomonidan aktiv tutib olish vositasida olingan kirish huquqi.

Satrlar sezilarliligi**ing.** - line visibility**rus.** - заметность строк

Ekrandan normal masofada turgan kuza-tuvchiga tasvirning satr tuzilmasi sezilarli bo'lgan sharoit.

Satrlar yorqinligining har xilligi**ing.** - diverse brilliance of lines**rus.** - разнорядность строк

Televizion tasvir qo'shni satrlari yorqinli-

gining ranglilik-yorqinlik kesishuvchi buzilishlari keltirib chiqargan parazit farqi.

Satrlar chastotasini rostdash**ing.** - regulation of frequency of lines**rus.** - регулировка частоты строк

Satr bo'yicha yoyish generatorining erkin tebramishlar davrini o'zgartiradigan sozlash.

(Satrlarni sinxronlovchi impuls)**oldingi maydoni****ing.** - front porch

(of line-synchronizing signal)

rus. - передняя площадка

(синхронизирующего импульса строк)

Satrlarni sinxronlovchi impulsdan oldin joylashgan satr o'chirish intervalining uchastkasi.

(Satrlarni sinxronlovchi**impulsning) orqa maydoni****ing.** - back porch (of line-synchronizing signal)**rus.** - задняя площадка

(синхронизирующего импульса строк)

Satrlarni sinxronlovchi impulsdan tashqari-da joylashgan satr so'ndirish intervalining uchastkasi.

Satrlarni chiqarish**ing.** - tearing, line tearing**rus.** - выбивание строк

Satr sinxronizatsiyasining yo'qolishi tufayli tasvir bitta yoki bir nechta qismining uzluksiz yoki doimiy siljishi.

Satrlarning yopishib qolishi**ing.** - sticking of lines**rus.** - слипание строк

Satr oralatib yoyishning buzilishi. Bunda bir maydonning satrlari boshqa maydon satrlariga yaqinlashadi. Satrlarning to'liq yopishib qolishida satr oralatib yoyish satrlarning soni ikki marta kam bo'lgan progressiv yoyishga aylanadi.

Satirma-satr yo'naltirilgan**ing.** - line-oriented**rus.** - построчно-ориентированный

Foydalanuvchi bilan birgalikda ishlashda grafik interfcysdan emas, balki komanda satridan foydalaniladigan dastur.

Satrlning nominal kengligi

ing. - nominal width of string

rus. - номинальная ширина строки

Satrlar yo'nalishidagi uzunlik birligiga to'g'ri keladigan satrlar soniga teskari kat-talik.

Savatcha

ing. - recycle bin

rus. - корзина

Chiqarib tashlangan fayllarni Windows muhitida saqlash joyi. Savatcha yordamida xato bo'yicha chiqarib tashlangan fayllarni tiklash, yoki diskning ichidagi kerak bo'lmagan ma'lumotlarni tozalab joyini bo'shatish mumkin.

Savdo (tijorat) banki

ing. - acquiring bank

rus. - торговый (коммерческий) банк

Servis yoki savdo korxonasi bilan hisob-kitoblarni tranzaksiyalarni to'lov tizimiga uzatish va mualliflashtirish natijalarini qaytarish yo'li bilan amalga oshiradigan moliya tashkiloti.

Sayt

ing. - site

rus. - сайт

Umumiy nom, mavzu va navigatsiya tizimi bilan bog'langan veb-sahifalar to'plami. Matn, grafika, animatsiya, tovush sifatida talqin qilinadigan dastur. Saytni rasmiylashtirish HTML, Java tillari yordamida amalga oshiriladi.

Saytlararo printing

ing. - cross site printing

rus. - межсайтовый принтинг

Qar.: XSP.

Saytlararo skripting

ing. - cross-site scripting

rus. - межсайтовый скриптинг

Qar.: XSS.

Saytni indekslash

ing. - site indexing

rus. - индексирование сайта

Ishlatilayotgan so'zlar va iboralar ro'yxatini tuzish maqsadida saytning matn materiallarini mantiqiy tahlil qilish. Shu tarzda tuzilgan ro'yxat foydalanuvchi so'rovi bo'yicha

saytda axborotni izlashda ishlatiladi. Indeks-lash avtomatik rejimda izlash robotlari deb nomlangan maxsus dasturlar tomonidan amalga oshiriladi.

Seans darajasi

ing. - session layer

rus. - сеансовый уровень

Tizimlar o'rtasidagi dialog boshqaruvini yuritish usullarini ta'minlaydigan OSI mo-delining beshinchi sathi.

Seans darajasidagi shlyuz

ing. - circuit-level gateway

rus. - шлюз сеансового уровня

Tarmoqlararo ekranni amalga oshirish va-riantlaridan biri. Mualliflashtirilgan mijoz bilan tashqi xost o'rtasida bevosita o'zaro hamkorlikni istisno qiladi. Vakolatli mi-jozning muayyan xizmatlarga bo'lgan so'-rovini qabul qiladi, so'ralgan seansga kira olish huquqi tekshirilgandan so'ng, tashqi xost bilan bog'lanishni amalga oshiradi. Bundan keyin shlyuz paketlar filtratsiya-sini bajarmasdan, ikkala yo'nalishda bu paketlardan nusxa oladi.

Seans kaliti

ing. - session key

rus. - сеансовый ключ

Bir seansga teng bo'lgan cheklangan vaqt oralig'ida shifrlash uchun ishlatiladigan krip-tografik kalit; uzatish tugagandan so'ng kalit avtomatik ravishda o'chib ketadi.

Segment

ing. - segment

rus. - сегмент

Tezkor xotiraning, dastur, ma'lumotlar yoki ma'lumotlar stekini saqlash uchun operat-ion tizim ajratadigan sohasi.

Segmentlar jadvali

ing. - partition table

rus. - таблица сегментов

Xotirani segmentli tashkil qilishda man-tiqiy manzillarni jismoniy manzillarda aks ettirish uchun mo'ljallangan tizimli jadval. Uning har bir elementi jismoniy xotiradagi segmentning dastlabki manzilini, segment uzunligini va himoya belgilarini o'z ichiga oladi.

Segmentlar jadvalining uzunlik registri
ing. - segment-table length register (STLR)
rus. - регистр длины таблицы сегментов
Dastur tomonidan ishlatiladigan segmentlar sonini o'z ichiga oladigan registr.

Segmentlar jadvalining tayanch registri
ing. - segment-table base register (STBR)
rus. - базовый регистр таблицы сегментов
Xotiradagi segmentlar jadvalining manzilini o'z ichiga oladigan registr.

Segmentlash
ing. - segmentation
rus. - сегментирование

Bir jinsli qismlarga oldindan ajratish. Keyin bu qismlar alohida yoki guruhlab kodlanadi. Siqishning barcha usullarida ma'lumotlar turi o'zgarganda o'tish juda yomon kodlanadi. Shunday holatda segmentlash qo'llaniladi.

Sekin tinishlar
ing. - slow fading
rus. - медленные замирания

Signal og'ib o'tuvchisining silliq o'zgarishlari; ular, odatda, radioto'lqin tarqalishi yo'lining, uning to'lqin uzunligidan ancha katta masofaga o'zgarishi oqibatida hosil bo'ladi.

Izoh - Tinishlarning bunday turi mobil aloqa radio-kanaliga xosdir. Ko'p yillik kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, refraksiya sharoitlarining o'zgarishi va atmosfera quyi qatlamlarining holati bilan bog'liq bo'lgan sekin tinishlarni logarifmik normal qonun bilan tavsiflash qulaydir. Sekin tinishlarning yana bir sababi abonentning ko'chib yurishi chog'ida joy relefining o'zgarishi bo'lishi mumkin.

Sekinlashuv
ing. - slowdown
rus. - замедление

1. Protessor yoki boshqa elektron sxemaning pasaytirilgan takt chastotasida ishlashi.
2. Abonent trafinging uzatish tezligi pasayishiga asoslangan, tarmoq liniyalari yoki kanallarning ortiqcha yuklanishiga qarshi kurash mexanizmi.

Sekogramma
ing. - secogramme
rus. - секограмма

Ko'zi oqizlar uchun muassasalar tomonidan pochta aloqasi tarmog'i orqali jo'natiladigan, ko'zi oqizlar uchun ochiq holda berila-

digan yozma xat-xabarlar, bosma nashrlar, ko'zi oqizlar uchun yozuv tizimining belgilariga ega tamg'a, shuningdek ko'zi oqizlar uchun mo'ljallangan ovoqli yozuvlar va maxsus qog'oz.

Sektor
ing. - sector
rus. - сектор

Egiluvchan yoki magnit qattiq disk yo'lkasining, ma'lumotlar yozilgan qismi. Sektor - xotiraning o'z manziliga ega bo'lgan eng kichik birligi.

Sektorlangan uya
ing. - sectorized cell
rus. - секторизованная сота

Abonentlarga sektorli antennasi bo'lgan tayanch stansiya xizmat ko'rsatadigan uya. Har tomonga yo'nalgan antennadan foydalanishga nisbatan, aloqani tashkil etishning ushbu varianti tizimning chastotavaqt resursidan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Sektorli antenna
ing. - sector antenna
rus. - секторная антенна

Yo'nalganlik diagrammasining kengligi qoplash zonasini sektorining burchak o'lchamiga mos keladigan antenna.

Sektorni to'g'rilash
ing. - sector alignment
rus. - выравнивание сектора

Nusxa ko'chirishdan muhofaza qilish usuli, sektorlarning yo'lkadagi yo'lkaga to'g'ri o'rnatilganligini tekshirishda disk ruxsat etilmagan nusxa bo'lib hisoblanishi yoki hisoblanmasligini aniqlash imkonini beradi.

Sekunddagi chiplar soni, chip/s
ing. - chips per second (cps)
rus. - число чипов в секунду, chip/s
Kengaytirilgan spektrli signallarni uzatish tezligining o'lchov birligi.

Sekundiga bit, bit/s
ing. - bit in a second, bit/s
rus. - бит в секунду, bit/s
Aloqa kanalidagi bir sekund ichida uzatiladigan bitta ikkilik birligiga teng bo'lgan tezlikning o'lchov birligi.

Sekundiga mcgachip, Mcip/c
ing. - Mcps (mcgachip per second)
rus. - мегачип в секунду, Mcip/c
Shovqinsimon signal elementlarini uzatish tezligining o'lchov birligi (CDMA texnologiyasida).

Sekundiga million signal
ing. - million signal per second (MSPS)
rus. - миллион сигналов в секунду
Ma'lumotlarni raqamli qayta ishlash qurilmasiga signallar kelib tushish tezligining o'lchov birligi.

Selektiv foydalana olish
ing. - selective availability (S/A)
rus. - селективный доступ
Navigatsiya signalini generatsiya qilish rejimi. GPS dan harbiy maqsadlarda foydalanishning oldini olish maqsadida, AQSH mudofaa vazirligi tomonidan qo'llaniladi.

Semafor
ing. - semaphore
rus. - семафор
Ba'zi dasturlash tillarida ma'lumotlarning maxsus turi. Kompyuterning, turli jarayonlar intiladigan ba'zi resurslaridan foydalanishni boshqaradi, ya'ni jarayonlar bajarilishini sinxronlashtiradi.

Semantik moslik
ing. - semantic interoperability
rus. - семантическая совместимость
Axborot tizimlarining ma'lumotlarni taqin qilishning o'xshashligi darajasida birgalikda ishlay olish qobiliyati.

Semantik tarmoq
ing. - semantic network
rus. - семантическая сеть
Bilimlarni intellektual tizimlarda, uchlari obyektlar yoki tushunchalarni bildiradigan nomlangan uzellarni, ularni birlashtiradigan nomlangan yo'ylar esa, obyektlar o'rtasidagi munosabatni o'zida ifodalaydigan ustun (grafa) ko'rinishida taqdim etish usuli.

Semantik xato
ing. - semantic error
rus. - семантическая ошибка
Dasturlashdagi xato dasturlash u yoki bu konstruksiyasining ma'nosini, ahamiyatini yoki ishini tushunmaslik tufayli yuzaga keladi.

Semantika
ing. - semantics
rus. - семантика
1. Semiotikaning jihatlaridan biri. Belgi adresati kim bo'lishidan qat'i nazar, belgilarning belgilanganiga (belgilar tarkibi) nisbatini qarab chiqadi.
2. Belgi alohida birliklarining qiymatlari.
3. Tilning alohida birliklarini o'rganish - elementar o'rganish obyekti belgilovchi, belgilanuvchi va denotat kabi uchta obyektning birligidan iborat bo'lgan tilshunoslik semantikasi. Belgilovchi - tashqi element (tovushlar yoki belgilar ketma-ketligi), denotat - haqiqatning belgilanadigan obyekti va belgilanuvchi - ushbu obyektning inson ongida aks etishi.

Sensorli ekran
ing. - touchscreen
rus. - сенсорный экран
Monitor ekranidagi grafik tugmalarga yoki piktogrammalarga barmoq yoki peroni tegizish orqali kompyuterda ishlash imkonini beradigan ekran - kiritish qurilmasi.

Sensorli panel
ing. - touchpad
rus. - сенсорная панель
Barmoqning harakatlanishi paytida qurilma yuzasidagi elektr maydonning o'zgarishidan ishlaydigan manipulyator.

Sentreks xizmati
ing. - centrex
rus. - услуга Центрекс
Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'ining abonentlariga virtual tarmoqni tashkil qilish uchun umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmog'ining resurslaridan foydalangan holda, virtual MI-ATS funksiyalari va servis xarakteristikalaridan foydalanish imkonini beradigan xizmat.

Seriya raqami
ing. - serial number
rus. - серийный номер
Analog mahsulotlar o'rtasida dasturiy ta'minoti, uskunani belgilaydigan noyob identifikator.

Seriylar uzunligi bo'yicha kodlash
ing. - runlength encoding (RLE)
rus. - кодирование по длинам серий
Ma'lumotlarni siqishning oddiy algoritmi

bo'lib, bitta simvol ketma-ket bir necha mar-ta takrorlanuvchi ketma-ketlikdan tuzilgan ma'lumotlar seriyasi bilan ishlaydi. Kod-lashtirishda takrorlanuvchi belgilar satri shu belgining o'zi va uning takrorlanishlari soni bilan almashtiriladi.

Seriyali chaqiruv

ing. - serial ringing

rus. - серийный звонок

Chaqirilayotgan abonent band bo'lganda yoki javob bermaganda abonentlar ro'y-xatidagi boshqa abonent tomonidan chaqi-ruvni qayta yuborish imkonini beradigan xizmat.

Sertifikat

ing. - certificate

rus. - сертификат

Xavfsizlikni ta'minlash organi yoki ishonch qozongan uchinchi tomon bergan, xavfsiz-likni ta'minlashga taalluqli bo'lgan, ma'lu-motlar manbaini autentifikatsiya qilishni ta'minlash xizmatlarini taqdim etish uchun foydalaniladigan, xavfsizlik to'g'risidagi axborot bilan birgalikdagi, ma'lumotlar majmui.

Sertifikat yo'li

ing. - certification path

rus. - путь сертификата

Obyektlar sertifikatlarining, katalogning ax-borot daraxtidagi tartiblashtirilgan ketma-ketligi bo'lib, berilgan yo'l boshlang'ich obyektining ochiq kaliti bilan birga shu yo'l oxirgi obyektining ochiq kalitini olish maqsadida qayta ishlanishi mumkin.

Sertifikatlash

ing. - certification

rus. - сертификация

1. Qandaydir faktni tasdiqlash protsedurasi.
2. Ishchi tizim yoki kompyuter tizimi uchun tanlab olingan nazorat va xavfsizlik cho-ralari talablarga mos kelishligi va normal ishlayotganligi texnik tasdiqlash.
3. Dasturni rasman attestatsiya qilish.
4. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi yoki uning qismi xavfsizlik talablariga mos kelishini uchinchi tomon kafolatlaydigan protsedura.

Sertifikatlash organi

ing. - certification authority

rus. - орган сертификации

1. Bitta yoki bir nechta foydalanuvchi to-monidan ochiq kalitlar sertifikatlarini tuzish va taqsimlash ishonib topshirilgan organ.
2. Xavfsizlikni ta'minlashga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarning bitta yoki undan ortiq turkumini ichiga olgan xavfsizlik sertifikatlarini tuzish ishonib topshirilgan obyekt (xavfsizlikni ta'minlash siyosati kontekstida).

Sertifikatlash artefakti

ing. - certification artifact

rus. - сертификационный артефакт

Sertifikatlash jarayonining ko'rinib turgan natijalari.

Misol – tekshiruvlarning nazorat ro'yxat-lari, ko'rsatgichlar, muammolar to'g'risi-dagi hisobotlar.

Server

ing. - server

rus. - сервер

1. Kompyuterga, boshqa bir kompyuter-ga xizmat ko'rsatish imkonini beradigan apparat va dasturiy ta'minot majmui (server-dastur).

2. Tarmoq kompyuteri uchun belgilan-gan, bir kompyuter xizmatini boshqa bir kompyuterga taqdim etish imkonini beradi-gan dastur.

Izoh – Xizmat ko'rsatiladigan kompyuterlar server das-tur bilan foydalanuvchi dasturi (mijoz dastur) yordami-da bog'lanadi.

3. Tarmoq resurslarining muayyan turini boshqaradigan hisoblash mashinasi (tizimi).
Izoh – Fayl-server, ilovalar serveri, faks-serverlar, poch-ta, kommunikatsiya serverlari, veb-serverlar ajratiladi.

Server bek-end

ing. - server back-end

rus. - серверный бэк-энд

Katta ishonchlilik va katta hajmdagi re-surslarni taqdim etish maqsadida bitta server o'rniga ishlatiladigan server kompyuterla-rining lokal tarmoqqa bog'langan guruhi (puli).

Servislarni identifikatsiya qilish

ing. - identifying services

rus. - идентификация сервисов

Aniqlangan ochiq portlarni tarmoq o'zaro ishlaydigan aktiv komponentiga solishtirish.

Sessiya

ing. - session

rus. - сессия

1. Foydalanuvchi va kompyuter yoki ikki kompyuter o'rtasidagi aktiv bog'lanish.
2. Tarmoqning stansiyalari o'rtasida bog'lanishni tashkil etish, ma'lumot almashish va bog'lanishni tugatish operatsiyalarining ketma-ketligi.

Sferik antenna panjarasi

ing. - spherical array

rus. - сферическая антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari sferik yuzada joylashgan sirtli antenna panjarasi.

Sferik radioto'lqin

ing. - spherical radio wave

rus. - сферическая радиоволна

Teng fazalarning sirti konsentrik sferani o'zida aks ettiradigan ko'ndalang radio-to'lqin.

Sifat shkalasi

ing. - scale of quality

rus. - шкала качества

Kuzatishning ma'lum sharoitlarida tasvirning texnik sifatini miqdor jihatidan subyektiv baholash imkoniyatini beradigan beshta, olitla yoki yettita bosqichga ega shkala.

Sifatning maqsadi

ing. - quality goal

rus. - цель качества

Milliy operatorning pochta aloqasi sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan pochta aloqasi xizmatlarining o'rnatilgan sifat normativlariga erishish bo'yicha majburiyati.

Sigara shaklidagi antenna

ing. - cigar antenna

rus. - антенна сигарообразной формы

To'g'ri simdan tashkil topgan o'q bo'ylab nurlanadigan antenna. Sim bo'ylab ma'lum nuqtalarda turli o'lchamdagi yaproqli metallardan iborat yassi elementlar bir-biriga nisbatan parallel joylashgan.

Signal

ing. - signal

rus. - сигнал

Vaqt bo'yicha o'zgaruvchi, turli xildagi axborotlarni uzatish, shuningdek, qandaydir voqea yoki obyektlarning holati to'g'risida

xabar berish uchun foydalaniladigan fizik kattalik.

Signal bazasi

ing. - bandwidth-duration product

rus. - база сигнала

Signal spektri kengligining uning davomiylikiga ko'paytmasi.

Signal kechikishining buzilishi

ing. - signal delay garbling

rus. - искажение задержки сигнала

Uzatish uchun zarur bo'lgan chastotalar diapazoni bo'yicha sxema (tizim) dagi og'ib o'tuvchining kechikichi doimiy bo'lmagan holda yuzaga keladigan buzilish turi.

Signal manbalari

ing. - sources of signal

rus. - источники сигнала

Tele-, radioqabulqilgich apparaturalar, yo'ldoshi qabul qiluvchi tizimlar, videomagnitofonlar, lazer disklar va DVD proqriyatellarga audio va videosignallar uzatadigan qurilmalar signal manbalari bo'lib hisoblanadi.

Signal yulduzi

(signalning yulduz ko'rinishi)

ing. - signal constellation

rus. - сигнальное созвездие

Modulyatsiyalangan radiosignalning kompleks tekisligida nuqtalar ko'rinishida ifodalanishi. Bunda nuqtalarning har biri alohida modulyatsiya simvoliga, ularning pozitsiyasi esa amplituda va fazaning muayyan qiymatiga mos keladi.

Signal/xalaqit nisbati

ing. - signal/interference ratio

rus. - отношение сигнал/помеха

Odatda, detsibellarda ifodalanadigan uzatish kanalining ma'lum nuqtasidagi muayyan sharoitlarda o'lchanadigan foydali signal quvvatining, xalaqit beruvchi signallar va shovqinning umumiy quvvatiga nisbati.

Signal/shovqin nisbati

ing. - signal-to-noise ratio (SNR)

rus. - отношение сигнал/шум

1. Ma'lum vaqt davomida qabul qilgichning belgilangan nuqtasida, masalan, demodulya-

toming kirishida, o'Ichangan foydali signal quvvatining additiv shovqinning spektral zichligiga nisbati.

2. Ma'lum vaqt davomida qabul qilgichning belgilangan nuqtasida o'Ichangan foydali signal kuchlanishining shovqin kuchlanishiga nisbati.

Izoh - Har ikki holatda ham signal/shovqin nisbati detsibellarda ifodalanadi, biroq uni aniqlash paytida shovqin turini aniq tafovutlash lozim. Jumladan, agar shovqin impulsi bo'lsa, uning cho'qqi qiymati, agar shovqin tasodifiy bo'lsa, uning o'rtacha kvadratik qiymati hisobga olinadi.

Signalizatsiya

ing. - signalling

rus. - сигнализация

Bog'lanishlarni o'rnatish, bo'shatish va boshqarishning boshqa operatsiyalariga, shuningdek, bog'lanishlarni o'rnatishning avtomatik usulida telekommunikatsiyalar tarmog'ini boshqarishga taalluqli bo'lgan, nutqli bo'lmagan axborot almashinuvi jarayoni.

Signalizatsiya zvenolari guruhi

ing. - group of signaling links

rus. - группа звеньев сигнализации

Signalizatsiya bo'g'inlari majmui. Ushbu bo'g'inlar ikki punktni bevosita bog'laydi va bir xil fizik xususiyatlarga (bitlar tezligi, tarqalish vaqti va h.k.) ega.

Signalizatsiya kanali

ing. - signaling channel

rus. - канал сигнализации

Boshqaruv signallarini uzatish uchun foydalaniladigan alohida yoki ishchi kanal bilan birlashtirilgan xizmat kanali. Uning funksiyalari va tuzilmasi aloqa tizimida foydalaniladigan aniq algoritmlar va almashinish protokollari bilan belgilanadi.

Signalizatsiya marshruti

ing. - signaling route

rus. - маршрут сигнализации

Signalizatsiya punktlari ketma-ketligi sifatida oldindan belgilangan marshrut. Undan signalizatsiya punkti tomonidan muayyan belgilangan punktga yo'naltirilgan signal xabarlarini uzatilishi mumkin.

Signalizatsiya shlyuzi

ing. - signalling gateway

rus. - шлюз сигнализации

KAT va boshqa tarmoqlar o'rtasidagi (masalan, KAT va STP dagi yoki SS7 dagi SSP chaqiruv serverlari o'rtasidagi) chaqiruvni polosadan tashqari boshqarish signallari o'zgartirilishini bajaradigan blok.

Signalizatsiyaning mantiqiy kanali

ing. - logical signalling channel

rus. - логический канал сигнализации

Xizmatlar va signalizatsiya belgisi kanallar bilan ta'minlanadigan interfeys tuzilmasi. Interfeysning belgisi tuzilmasi siklik interfeysda yoki o'z-o'zini ajratadigan belgisi interfeysda amalga oshishi mumkin.

Signallar (UNIX da)

ing. - signal (on UNIX)

rus. - сигналы (в UNIX)

Xatoli holatlarni qayta ishlashning quyi darajali mexanizmi.

Signallar ansambli

ing. - ensemble of signals

rus. - ансамбль сигналов

(I, Q) koordinatalar tizimida (I+Q) vektorlar to'plami cho'qqi holatlarining majmuasi.

Signallar qayta ishlanadigan

antenna panjarasi

ing. - array with the signal processing

rus. - антенная решетка с

обработкой сигналов

Funksional elementlarga ega bo'lgan, u qabul qilgan signallarni o'zgartirishga imkon beradigan antenna panjarasi.

Signallar raqamii qayta ishlanadigan

antenna panjarasi

ing. - array with digital signal processing

rus. - антенная решетка с цифровой

обработкой сигналов

Signallar element bilan qayta ishlanadigan antenna panjarasi, bunda nurlantiruvchi elementlardan signallar ma'lum algoritmlar bo'yicha keyingi qayta ishlash uchun analog-raqamli qayta tiklashga uzatiladi.

Signallar ushlab turiladigan liniya

ing. - delay line

rus. - линия задержки

Tarmoqlagichlari bo'lgan passiv to'rt qutb-

lagichni o'zida ifodalovchi, signallarni ma'lum bir vaqtga ushlab turish uchun mo'ljallangan qurilma.

Signallar shaklining koderi

ing. - waveform coder

rus. - кодер формы сигналов

Ish prinsipi, analog signallarni ixcham qayta o'zgartirishga va ular shaklini vaqt birligi ichida tiklashga asoslangan, nutqli kodlovchi qurilmalar toifasi.

Izoh - Uzatish tezligining 16 Kbit/s dan 64 Kbit/s gacha bo'lishini ta'minlaydi. PCM, ADPCM, CVSD, RELP lar shunga o'xshash toifadagi koderlar hisoblanadi.

Signalni qayta ishlash

ing. - modulation processing,

signal processing

rus. - обработка сигнала

Dasturiy signal bilan tovush yoki tasvimi uzatish, ularni qabul qilish, maxsus effektlar yoki tovushli effektlarni kiritish shartlariga muvofiqligini ta'minlash yoki qo'shni kanallardagi xalaqitlarni kamaytirish uchun bajariladigan turli faoliyatlar.

Signalni qayta ishlash antenasi

ing. - signal-processing antenna

rus. - антенна с обработкой сигнала

Antenna elementlari bilan qabul qilingan signallar maxsus qayta ishlanishi talab etiladigan, shundan so'ng natijaviy signal qabul qiluvchi qurilmaga to'g'rilanadigan qabul qiluvchi antenna.

Signalni uzatish

ing. - signal transmission

rus. - передача сигнала

To'g'ridan-to'g'ri yoki kodlangan axborotni tashuvchi elektromagnit impuls.

Signalning buzilishi

ing. - distortion of signal

rus. - искажение сигнала

U yoki bu aloqa tizimi bo'ylab uzatilgan signalning boshlang'ich signalga mos kelmasligi. Chastotaviy, nohiziqli, fazaviy buzilishlar buzilishlarning asosiy turlaridir. Turli xil buzilishlarning sezilarlilikiga bog'liq holda, ularning yo'l qo'yiladigan qiymatlariga va apparatura sifati toifalariga normalar belgilanadi.

Signalning so'nishi (susayishi)

ing. - attenuation of signal, damping of signal, extinction of signal

rus. - затухание (ослабление) сигнала

Signal quvvatining, uzatuvchi muhit orqali o'tishi natijasida kamayishi. Signal so'nishining asosiy sabablari radio-to'liqlanaming yutilishi va qaytishi, difraksiya va refraksiya hisoblanadi.

Signalning tinish darajasi

ing. - depth of fading of signal

rus. - глубина замирания сигнала

Tinishlar paytidagi qabul qilinuvchi signal og'ib o'tuvchisining maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi farq.

Signalning yo'qolishi

ing. - loss of signal (LOS)

rus. - потеря сигнала

Qabul qilgich tomonidan signalning uzatilishi to'xtab qolganini bildirish uchun yuboriladigan xavotirlik signali. Masalan, LOS optik-tolali kabel orqali uzatilganda va qabul qilish uchun uchida hech qanday signal qabul qilinmay qolganda e'lon qilinadi. LOS signali qo'lda bekor qilinmaguncha yoki muammo hal bo'lmaguncha uzatilaveradi.

Signalning chiqish quvvati

ing. - signal output power

rus. - выходная мощность сигнала

Tayanch stansiya uzatgichi chiqishida, uzatgichning nominal to'la chiqish qarshiligiga teng bo'lgan qarshilik bilan yuklamaga uzatiladigan bitta eltuvchi o'rtacha quvvatining qiymati.

Signatura

ing. - signature

rus. - сигнатура

1. Tizimning dasturiy usulda tekshirish mumkin bo'lgan noyob xarakteristikasi. Original-diskning identifikatsion belgisi sifatida qo'llaniladigan diskning ikkinchi belgisi signaturaga misol bo'ladi. Bu belgidan dasturiy usulda nusxa ko'chirish mumkin emas.

2. Dastur doimiy kodining qismi, unga qarab, virusga qarshi dasturlar dasturlarning virus dasturlarga va dasturlarning boshqa

nomaqbul turlariga mansubligini aniqlaydi.
3. Bostirib kiritilish (hujum)ining, uni aniq-
lashda qo'llaniladigan, oziga xos belgilari.

Sikl

ing. - loop

rus. - цикл

Ma'lum bir sharoit buzilmaguncha ko'p marta bajarilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar yoki komandalar ketma-ketligi.

Sikl parametri

ing. - loop variable

rus. - параметр цикла

Sikl bajarilishini boshqaradigan o'zgaruvchi. Dasturning har bir siklida o'z qiymatini sikl jismining har bir o'tishida o'zgartiradigan parametr mavjud. Agar bunday parametr bo'lmasa, sikl noto'g'ri tuzilgan va sikllanish imkoniyati yuzaga keladi. Dasturlashda ba'zan «abadiy» sikllar quriladi, ulardan chiqib ketish maxsus komandalar orqali amalga oshiriladi. Bunday sikllarda sikl parametrlari bo'lmaydi, bu esa, dasturlash uslubini buzadi.

Sikl sarlavhasi

ing. - loop header

rus. - заголовок цикла

Sikl operatorining bir qismi yoki hisoblagichning boshlang'ich qiymatlarini, sikl qadamini va davom etirish yoki tugallash shartini belgilaydigan alohida operator.

Siklik ortiqcha kod

ing. - cyclic redundancy check

rus. - циклический избыточный код

Asosan xatolarni aniqlash maqsadida, siklik koddan foydalanib xatolarni nazorat qilish usuli.

Izoh - Himoya qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotlar blokining bitlari berilgan generator polinomi yordamida 2 moduli bo'yicha bo'linadigan polinom koefitsiyentlari sifatida ishlatiladi, qoldiq koefitsiyentlari bo'lishdan so'ng blokning tekshiriluvchi ketma-ketligi ko'rinishida ma'lumotlar blokiga qo'shiladi.

Siklik siljish

ing. - circular shift

rus. - циклический сдвиг

Registrlarning bir uchidan suriladigan razryadlar boshqa bir uchiga kelib tushadigan siljish operatsiyasi.

Silindrsimon antenna panjarasi

ing. - cylindrical array

rus. - цилиндрическая антенная решетка
Nurlantiruvchi elementlari silindr sirtida joylashgan sirtqi antenna panjarasi.

Silindrsimon radioto'lqin

ing. - cylindrical wave

rus. - цилиндрическая радиоволна

Ko'ndalang radioto'lqin, uning teng fazalari sirti konsentrik silindrlarni o'zida aks ettiradi. Ularga urinmalar urilish nuqtasida to'lqin tarqalishi yo'nalishiga perpendikulyardir.

Siljigan nurlagichga ega parabolik ko'zgu (offset antenna)

ing. - offset parabolic reflector

rus. - параболическое зеркало со смещенным облучателем (оффсетная антенна)

Nurlanishning asosiy yo'nalishidan tashqariga chiqarilgan nurlagichli o'qqa nosimmetrik parabolik ko'zgu (parabola segmenti). Bunday konstruksiyada antenna ko'zgusi sirtining soylanishiga yo'l qo'yilmaydi va yon yuproqlar bo'yicha nurlanish darajasi pasayadi.

Siljigan yo'lka

ing. - offset track

rus. - смещенная дорожка

Nusxa ko'chirishdan himoya qilish usulining qismi, bunda diskdagi yo'lka nostandart pozitsiyaga yoziladi.

Siljish

ing. - offset

rus. - смещение

Nisbiy manzillash usulida xotira yacheykasining tayanch manzilga nisbatan siljishini, ya'ni xotiraning ikki yacheykasi o'rtasida manzillanadigan elementlar sonini (masofani) ko'rsatadigan kattalik.

Siljish registri

ing. - shift register

rus. - сдвиговой регистр

Barcha bitlari har bir siklda o'ngga yoki chapga bir razryadga suriladigan registr mikroshemasi.

Siljish vektori

ing. - displacement vector

rus. - вектор перемещения

Harakatni kompensatsiyalashda tayanch kadrda makroblok siljishining yo'nalishi va kattaligini ifodalaydigan ikki o'lchovli vektor.

Siljitish

ing. - scroll

rus. - перемещать

Siljitish lineykasi yordamida rasm yoki boshqa turdagi fayllarni ko'rish oynasi tashqarisidagi mazmunini ko'rish uchun oynani yuqoriga, pastga, chapga va o'ngga siljitish. Matnli hujjatlarda oynani satr yoki sahifa bo'yicha siljitish mumkin.

Siljitish registri

ing. - relocation register

rus. - регистр перемещения

Operatsion tizim tomonidan xotiraga yuklangan dastur uchun ajratilgan xotira sohasining dastlabki msnzilini o'z ichiga oladigan registr.

Siljitish chizig'i

ing. - scroll box

rus. - полоса прокрутки

Ekraning pastiga va/yoki oynaning o'ng tomoniga joylashgan ingichka to'rtburchak tasma. Oynadagi ma'lumotlar o'rini «sichqoncha» kursori yordamida o'zgartirish uchun qo'llaniladi.

Silliq xendover; bog'lanishni

uzmasdan qilinuvchi xendover

ing. - seamless handover

rus. - плавный хэндовер; хэндовер без

разрыва соединения

Mobil stansiya tomonidan o'rnatilgan bog'lanish yangi bog'lanish o'rnatilgan guncha uzilmasdan bajariladigan xendover protsedurasi. Silliq xendoverda aloqa sifati qayta ulanish paytida yomonlashmaydi.

Simli antenna

ing. - wire antenna

rus. - проволочная антенна

Elektromagnit to'lqinlarni nurlantirish yoki qabul qilish uchun bitta yoki bir nechta metall sim yoki shtirdan iborat muayyan konstruksiya.

Simmetrik autentifikatsiya qilish usuli

ing. - symmetric authentication method

rus. - симметричный метод

аутентификации

Ikkala obyekt umumiy autentifikatsiya axborotidan birgalikda foydalanadigan autentifikatsiya qilish usuli.

Simmetrik kabel

ing. - symmetrical cable

rus. - симметричный кабель

Uchta o'tkazgich bo'ylab simmetrik signal uzatuvchi kabel.

Simmetrik klasterizatsiya

ing. - symmetric clustering

rus. - симметричная кластеризация

Klastering barcha mashinalari bitta katta ilovaning turli qismlarini bir vaqtda bajaranda kompyuter klasterini tashkil qilish.

Simmetrik kriptografik algoritim

ing. - symmetric cryptographic algorithm

rus. - симметричный

криптографический алгоритм

Shifrlash va deshifrlash uchun aynan bitta kalitdan foydalaniladigan, shifrlash yoki tegishli deshifrlashni bajarish algoritmi.

Simmetrik kriptografiya

ing. - symmetric cryptography

rus. - симметричная криптография

Shifrlash va deshifrlash uchun bitta kalitdan foydalaniladigan kriptografiya.

Simmetrik ko'p

protessorli qayta ishlash

ing. - symmetric multiprocessing (SMP)

rus. - симметрическая

мультипроцессорная обработка

Parallel hisoblashda qo'llaniladigan, bir turdagi protsessor elementlari yagona operatsion tizim tomonidan boshqarilishi bilan bog'liq tizimni anglatadi. Bunda har bir protsessor bitta kiritish-chiqarish qurilmasiga ega bo'ladi va barcha protsessorlar umumiy fazoni bo'lib oladi. Vazifalar (oqimlar) turli protsessorlar orasida taqsimlanadi. Bunda barcha protsessorlar ekvivalent sifatida qaraladi va yangi vazifa u taqsimlanayotgan vaqtda eng kam yuklamaga ega protsessorga beriladi.

ing. - symmetric multiprocessing

rus. - симметричная многопроцессорная система

Parallel hisoblashlarda qo'llaniladigan, bir turdagi protsessor elementlari yagona operatsion tizim tomonidan boshqarilishi bilan bog'liq tizim. Bunda har bir protsessor bitta kiritish-chiqarish qurilmasiga ega bo'ladi va barcha protsessorlar umumiy fazoni bo'lib olishadi. Vazifalar (oqimlar) turli protsessorlar orasida taqsimlanadi. Bunda barcha protsessorlar ekvivalent sifatida qaraladi va yangi vazifa u taqsimlanayotgan vaqtda eng kam yuklamaga ega bo'lgan protsessorga beriladi.

Simmetrik operatsion tizim

ing. - symmetrical operation system

rus. - симметричная операционная система

Protsessorlarning barcha pullarini, tizimli va amaliy vazifalar o'rtasida taqsimlab ishlatadigan to'liq markazlashtirilmagan operatsion tizim.

Simmetrik raqamli abonent liniyasi

ing. - symmetric digital subscriber line (SDSL)

rus. - симметричная цифровая абонентская линия

Axborotning, har bir aloqa yo'nalishida bitta o'ralgan juft orqali 2,048 Mbit/s tezlik bilan dupeks uzatilishini ta'minlaydigan, yuqori tezlikli abonent foydalanish liniyasi.

Simmetrik shifr

ing. - symmetric cipher

rus. - симметричный шифр

Simmetrik kriptografik tizim bo'lgan, ya'ni shifrlash va rasshifrovka qilish uchun anyan bir kalitdan yoki biri orqali boshqasi oson olinadigan turli kalitlardan foydalaniladigan shifr.

Simmetrik siqish

ing. - symmetrical compression

rus. - симметричное сжатие

Tasvimi siqish va tiklash uchun teng hisoblashlarni talab etuvchi siqish tizimi. Siqishning bu shaklidan qo'shimchalarda, tasvimi ham siqish, ham tiklash sifatida foydalaniladi.

Ma'lumotlar bazasida harakatlanmaydigan tasvirlarni saqlash, rangli tasvirlarni uzatish (rangli faksimil aloqa), video ishlab chiqarish, videopochta, videotelefon hamda videokonferens aloqa.

Simmetrik vibrator

ing. - balanced vibrator, Center-fed dipole, double

rus. - симметричный вибратор

Bitta tekislikda simmetrik joylashgan, bir xil uzunlik va shakldagi o'tkazgichlar ko'rishidagi vibrator, uning tutashgan uchlariga fider ulanadi.

Simpleks interfeys

ing. - simplex interface

rus. - симплексный интерфейс

Ma'lumotlarni faqat bitta yo'nalishda uzatadigan interfeys; bir tomonga yo'naltirilgan interfeys.

Simpleks ulanish

ing. - simplex connection

rus. - симплексное соединение

Orasida faqat bir yo'nalishda ma'lumotlar uzatilishi amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki nuqtaning mantiqiy va fizik birkishi.

Simmetrik chiqish

ing. - symmetrical output

rus. - симметричный выход

Ba'zi A/V qurilmalarning simmetrik signalni uchta o'tkazgich orqali uzatish uchun mo'ljallangan ajratgich. Konstruktiv jihatdan simmetrik chiqish XLR turidagi ajratgichlarda bajariladi. Faqat high-end turkumidagi apparaturada va professional texnikada uchraydi.

Simsiz abonent liniyasi

ing. - wireless local loop (WLL)

rus. - беспроводная абонентская линия

Stasionar aloqa tarmoqlarida foydalaniladigan va simli aloqa liniyalarini simsiz aloqa liniyalari bilan almashtirish uchun mo'ljallangan radio kira olish texnologiyasi. Abonent chaqiruvlarining umumiy foydalanish tarmoqlariga chiqishi, simsiz abonent liniyasining majburiy talabi hisoblanadi. Stasionar terminallar sifatida, multipleksor yordamida birlashtirilgan, telefon apparatidan, maishiy televizion pristavka hamda shaxsiy kompyuterdan foydalaniladi.

Simsiz aloqa

ing. - wireless communications

rus. - беспроводная связь

Ma'lumotlarni uzatish elektromagnit to'liqlar vositasida amalga oshiriladigan aloqa.

Simsiz aloqa modeli

ing. - wireless modem

rus. - модем беспроводной связи

Ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish uchun mobil aloqa operatorlari tarmoqlaridan foydalanuvchi modem.

Simsiz aloqada shifrlash protokoli

ing. - wireless encryption protocol (WEP)

rus. - протокол шифрования в беспроводной связи

RC4 shifrlash sxemasiga asoslanadi, ma'lumotlar radiokanali bo'yicha uzatiladigan 40-razryadli shifrlashni ta'minlaydi. 802.11b standartining qismi. Ishonchiligi bilan farqlanmaydi, chunki bitta kalitning o'zidan foydalanishni nazarda tutadi.

Simsiz aniqlik

ing. - wireless fidelity (Wi-Fi)

rus. - беспроводная точность

1. Simsiz aloqa uchun Wi-Fi standarti; usku-na WECA assotsiatsiyasi tomonidan sertifikatlangandan so'ng beriladigan va LAN simsiz PC-kartalari, turli ishlab chiqaruvchilarning qurilmalari va foydalana olish nuqtalari o'rtasida interaperabellikni kafolatlaydigan logotip.

2. Wi-Fi-ultra qisqa radioto'liqlarlarda ma'lumotlarni uzatish texnologiyasi. 1990-yillarning oxirida paydo bo'lgan. IEEE (Institute of Electrical and Electronics Engineers) da standartlashtirilgan. Hozirda zamonaviy kompyuterlarning ko'pi shu aloqa vositasi bilan jihozlangan. Wi-Fi kompyuter, noutbuk bilan simsiz tarmoq ulanishiga yoki muammolarsiz mavjud Wi-Fi tarmog'iga ulanishga imkon beradi.

Simsiz belgilash tili

ing. - wireless markup language (WML)

rus. - беспроводной язык разметки

Simsiz tizimlarni belgilash tili – XML spetsifikatsiyasiga mos keluvchi sintaksisli WWW sahifalarini yaratish tili. Soddalashtirilgan HTML ga o'xshaydi.

Simsiz biznes-kommunikatsiya

ing. - cordless business communication

rus. - беспроводная бизнес-коммуникация

UMTS tarmoqlarida radioulash uchun DECT texnologiyasini qo'llash imkoniyatlarini namoyish qilishga qaratilgan Yevropa loyihasi.

Izoh – Asosiy maqsadi – mobil aloqa tizimlarining 2G va 3G o'rtasida oraliq bo'lgan amaldagi kommunikatsiya tizimi namunasini yaratishdir.

Simsiz erkin foydalanish protokoli

ing. - wireless access protocol (WAP)

rus. - протокол беспроводного доступа

Barcha turdagi mobil radioaloqa tizimlarini, portativ kompyuterlarni Internet tarmog'iga ulash uchun belgilangan spetsifikatsiyalar to'plami. Mobil qurilmalarda WWW resurslarini qarab chiqish imkonini beradigan ilovalarni yaratish uchun WML tili tavsiya qilinadi. Bu protokol negizida WAP tarmoqlar quriladi. WAP protokoli 1997-yilda kompaniyalar guruhi (200 dan ortiq, shu jumladan, Motorola, Nokia, Ericsson va b.lar.) kompaniyalar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan.

Simsiz foydalana olish

ing. - wireless access

rus. - беспроводный доступ

1. Tarmoq uzellari yoki serverlardan radio-kanallar orqali olisdan foydalana olish.

2. Mobil (uyali va simli aloqa o'rtasida oraliq o'rinni egallovchi erkin foydalanish texnologiyasi.

Izoh – Farq qiluvchi jihatlari: abonentlarning harakatlanish tezligi uncha yuqori emasligi (10 km/h gacha), abonentlarning yuqori zichligi va xizmat ko'rsatish maydon birligiga to'g'ri keladigan tayanch stansiyalar sonining ko'pligi. Piko va mikrouyali arxitekturalardagi aloqa tizimlari o'kazuvchanlik qobiliyati 10000 Er/km² gacha bo'lgan rayonlarga xizmat ko'rsatishga qodir, biroq ta'sir radiusi, odatda, 300 m dan oshmaydi. Abonent qurilmalarida nutqning uzatilish sifatini simli aloqadagiga yaqinlashishini ta'minlovchi kam quvvatli uzatgichlar (1–10) mW va nutq kodeklari ishlatiladi.

Simsiz foydalana olish tizimi

ing. - wireless local loop (WLL)

rus. - система беспроводного доступа

Qayd etilgan abonent terminalari (telefon apparatlari) va ATS o'rtasidagi uchashtkada, umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'ining simli abonent qismi o'rni-ga foydalaniladigan ko'p stansiyali kira olish radioaloqa tizimi.

Simsiz gipermatnli belgilash tili

ing. - wireless markup language (WML)

rus. - беспроводной язык

гипертекстовой разметки

Har ikkala yo'nalishda WAP funksiyalari bo'lgan mobil telefonga ma'lumotlar uzatish uchun, WAP texnologiyasida foydalaniladigan mobil (simsiz) dasturlar uchun mo'ljallangan gipermatnli belgilash tili.

Izoh - Dasturlar ishlab chiqish uchun WML standart gipermatnli XML va HTML tillaridan foydalanish imkonini beradi. WML Phone.com kompaniyasi tomonidan yaratilgan HDML tilidan kelib chiqqan, biroq u HDML ko'rinishi hisoblanmaydi: HDML ning ba'zi imkoniyatlari WML da yo'q.

Simsiz global tarmoq

ing. - wireless worldwide

area network (WWAN)

rus. - беспроводная глобальная сеть

O'lchamiga ko'ra, mamlakat yoki kontinent bilan tenglashtiriladigan katta geografik zonalarda bog'lanishlarga bo'lgan ehtiyojni qondiruvchi tarmoq. Simsiz global tarmoqlarda radiosignallarni uzatish uchun yo'ldoshlardan foydalaniladi.

Simsiz ilovalar protokoli

ing. - wireless application protocol

rus. - протокол беспроводных приложений

Simsiz qurilmalar (mobil telefon, cho'ntak kompyuteri) yordamida WML tilida yaratilgan Internet resurslaridan foydalanishni ta'minlovchi protokol.

Simsiz intellektual tarmoq

ing. - wireless intelligent network (WIN)

rus. - беспроводная

интеллектуальная сеть

Simsiz tarmoqlarni intellektual nazorat qilish va boshqarish tizimi. O'z ichiga signal protokolini, shuningdek, tranzaksiyalar jarayonini va servislarini boshqarish komponentlarini oladi.

Izoh - Tizim IS-41 va ANSI-41 sifatida ham ma'lum.

Simsiz klaviatura

ing. - wireless keyboard

rus. - беспроводная клавиатура

Tizim bloki bilan infraqizil interfeys yordamida simsiz aloqaqa ega kompyuter klaviaturasi.

Simsiz lokal tarmoq

ing. - Wireless LAN (WLAN)

rus. - беспроводная локальная сеть

Ham ofisda, ham uyda, 30 m dan 150 m gacha qisqa masofada ikkita va undan ortiq qurilmani bog'lovchi simsiz tarmoq. WLANning yetakchi standarti Wi-Fi hisoblanadi.

Izoh - Simsiz lokal tarmoq foydalanuvchilarning tarmoq qurilmalarida erkin ko'chib yurishini ta'minlaydigan lokal hisoblash tarmog'ining simsiz ko'rinishidir. Ma'lumotlar uzatish tezligi 802.11b standarti tarmoqlarida 11 Mbit/s ni, 802.11a standarti tarmoqlarida 54 Mbit/s ni tashkil etadi. Simsiz lokal tarmoqlar, odatda, 802.11 standarti asosida quriladi. Lokal tarmoqlarning simsiz texnologiyalari tarmoq bilan bog'lanishni yo'qotmagan, shaxsiy kompyuterini bir joydan boshqa bir joyga erkin ko'chirish imkoniyatini ta'minlagan holda, kabellar yotqizmasdan, tezda tarmoqni yo'yish imkonini beradi.

Simsiz ofis tizimi

ing. - wireless office system (WOS)

rus. - беспроводная офисная система

Foydalanuvchiga qo'ng'iroqlarni mobil telefonga o'tkazib yuborish imkonini beradigan texnologiya.

Simsiz qurilma

ing. - wireless device

rus. - беспроводное устройство

Simsiz ulanish imkoniyatiga ega bo'lgan har qanday qurilma. Masalan: eshittish vositalari, klaviatura, «sichqoncha».

Simsiz tarmoq

ing. - wireless network

rus. - беспроводная сеть

Simsiz uzatishdan foydalanmaydigan kompyuter tarmog'i.

Simsiz tayanch stansiya

ing. - wireless base station (WBS)

rus. - беспроводная базовая станция

Mikrouyali aloqa tarmoqlarida aloqani tashkil etish uchun ishlatiladigan stasionar stansiya.

Simsiz texnologiyalar

ing. - wireless technologies

rus. - беспроводные технологии

Axborotni, simlar bilan bog'lanish talab qilinmagan holda, ikki va undan ko'p nuqta o'rtasida masofaga uzatish uchun xizmat qiladigan axborot texnologiyalarining kenja sinfi.

Izoh - Axborotni uzatish uchun radioo'lqinlardan, shuningdek infraqizil, optik yoki lazer nurlanishdan foydalanilishi mumkin.

Simsiz shahar tarmog'i

ing. - wireless metropolitan area network (WMAN)

rus. - беспроводная городская сеть

Shahar miqyosidagi zonalarda radiokanal yordamida bog'lanishlarga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan tarmoq.

Izoh - Har bir 25 MHz radiokanalning o'tkazish qobiliyati 120 Mbit/s ni tashkil qiladi. Simsiz shahar tarmoqlari 802.16 standartiga va patentlangan standartlarga mos keladi.

Simvol

ing. - symbol

rus. - символ

Belgilarni ifodalash uchun foydalaniladigan moddiy predmetlar kelishilgan to'plamining elementi.

Simvol kodi

ing. - character code

rus. - код символа

Mashinaviy taqdim etishda berilgan simvolni bildiradigan son. Kompyuterda ishlatiladigan simvollar to'plamidan bo'lgan har bir simvol kodi standartlashtirilgan kod jadvalidan olinadi.

Simvolga qaytarish

ing. - backspace

rus. - возврат на символ

Boshqaruvchi simvol yoki ekranda kursorni, odatda oldingi simvolni chiqarib tashlagan holda, bitta simvolga orqaga qaytaruvchi klavishalar. Matni kiritishda terishdagi xatoliklarni tuzatish uchun qo'llaniladi.

Simvollar jadvali

ing. - character table

rus. - таблица символов

Obyekt modulidagi yoki yuklanadigan moduldagi, kodning modulida aniqlangan yoki ishlatiladigan simvollarni (o'zgaruvchilar, protseduralar va b.q.) o'z ichiga oladigan jadval.

Simvollar to'plami

ing. - character set

rus. - набор символов

Harflar, sonlar va u yoki bu tilda foydalaniladigan simvollar to'plamini tashkil qiladigan boshqa belgilar to'plami, shuningdek, muayyan kompyuter va kiritish/chiqarish qurilmasi kodlash uchun qabul qiladigan simvollar ro'yxati.

Simvollararo interferensiya

ing. - intersymbol interference

rus. - межсимвольная интерференция

Radioto'lqinlar ko'p nurlu tarqaladigan kanalda signal qo'shni simvollarini uzunligi bo'yicha to'sishda sodir bo'ladigan beixtiyoriy effekt. Simvollararo interferensiya signal buzilishiga olib keladi.

Simvollarini optik aniqlash dasturi

ing. - the program of

optical-recognition of symbols

rus. - программа оптического

распознавания символов

Simvolning (mashinada yoki qo'lda yozilgan) grafik obrazini kompyuterdagi simvol kodi bilan muvofiqlikka keltiradigan dastur. Odatda, skanerlar orqali yoki pero yordamida kiritilgan matni qayta ishlashda foydalaniladi. Hozirgi vaqtda mashinada yozilgan matni talqin qilish aniqligi 95 foizdan ko'proq.

Simvollarini tanish

ing. - character recognition

rus. - распознавание символов

Kompyuterga kiritiladigan simvollarini tanish uchun mo'ljallangan dastur.

Simvollarining ikki baytli kombinatsiyasi

ing. - double-byte character set

rus. - двухбайтовая комбинация символов

Ideografik belgilarni qo'llaydigan, tillarni taqdim etish uchun mo'ljallangan simvollar to'plami. Bir baytli va ikki baytli simvollar kombinatsiyasidan iborat.

Sinaps

ing. - sinaps

rus. - синапс

Neuron tarmoqlar tushunchasi. Sinaps - neyronlar o'rtasidagi bog'lanishdir. Bir neyrondan chiqadigan chiqish signali, bu boshqa neyronga uzatadigan sinapsga kelib tushadi. Bunda signal o'zgartirilishi mumkin. Murakkab sinapslarda xotira bo'lishi mumkin.

Sinergetika

ing. - synergetics

rus. - синергетика

Fizik, ximik va biologik ochiq tizimlarda yuqori tartiblashtirilgan tuzilmalarning

(o'z-o'zidan) hosil bo'lishini o'rganadigan fan.

Sinfaz antenna

ing. - cophasal (cophased) antenna

rus. - синфазная антенна

Bir xil fazadagi radiochastota toklari bilan qo'zg'atiladigan nur tarqatgich panjarasi ko'rinishidagi antenna.

Sinfaz antenna panjarasi

ing. - cophasal (cophased) antenna array

rus. - синфазная антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlarini qo'zg'atish fazasi bir xil bo'lgan chiziqli yoki yassi antenna panjarasi.

Sinfazlik

ing. - equiphase condition

rus. - синфазность

Bir xil vaqtdagi ikkita tebranishning faza bo'yicha mos kelishi.

Sinov jadvali generatori

ing. - generator of test pattern

rus. - генератор испытательной таблицы

Oddiy yo'yish blokidan foydalanmasdan televizion sinov jadvalining videosignali hosil qilinadigan qurilma.

Sinov signali generatori

ing. - generator of test signal

rus. - генератор испытательного сигнала

Televizion qabul qilgichlarning asosiy sifat ko'rsatgichlarini tekshirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Sinov vektorlari fayli

ing. - test-vector file

rus. - файл тестовых векторов

SCF kanalli fayllar uchun vektorlar tavsifini o'z ichiga oladigan ASCII formatidagi .vec turidagi fayl.

Sintaksis

ing. - syntaxis

rus. - синтаксис

Til yoki tizimda matn so'zlari, konstruksiyalari va tuzilmalarini qurish qoidalari to'plami. Ba'zi mualliflar sintaksisga alifboni ham kiritadilar. Til sintaksisini tavsiflashning ko'plab usullari mavjud, ularning ichida eng ko'p tarqalganlari – sintaktik diagrammalar va kengaytirilgan Bekus-Naur shakli. Dasturni yozishda paydo bo'ladigan va faqat

sintaksisga taalluqli xatolar, translyator amalga oshiradigan sintaktik tahlil paytida aniqlanadi.

Sintaksisni tekshirish

ing. - syntax checking

rus. - проверка синтаксиса

Kompilyator yoki interpretatorning leksik analizatori bajaradigan operatsiya. Zamonaviy dasturlash tizimlarida sintaksisni avtomatik tekshirish, dastur matnini yozish paytida amalga oshiriladi.

Sintaktik analizator

ing. - syntax analyzer

rus. - синтаксический анализатор

Kompilyatorning, dastur boshlang'ich matnining sintaktik tahlilini amalga oshiradigan qismi.

Sintaktik diagramma

ing. - syntactic diagram

rus. - синтаксическая диаграмма

Dasturlash tili sintaksisining grafik ko'rsatilishi. Sintaktik diagrammalar kengaytirilgan Bekus-Naur shakliga to'g'ri keladi va dasturlash tilini tavsiflashda foydalaniladi.

Sintaktik tahlil

ing. - syntax analysis

rus. - синтаксический анализ

Dasturni translyatsiya qilishning, uni leksik tahlil qilishdan keyin keladigan bosqichi.

Sintaktik xato

ing. - syntax error

rus. - синтаксическая ошибка

Dasturdagi, berilgan til sintaksis qoidalarini buzadigan simvollar ketma-ketligi.

Sintezlangan ochilishga ega

antenna panjarasi

ing. - array with synthesized aperture

rus. - антенная решетка с

синтезированным раскрытием

Fazoda nurlantiruvchi elementlarning biri yoki elementlar guruhining siljishi jarayonida amalga oshiriladigan, signallar qayta ishlanadigan antenna panjarasi.

Sinxron dinamik tezkor xotira qurilmasi

ing. - synchronous DRAM (SDRAM)

rus. - синхронное динамическое

оперативно запоминающее устройство

Oddiy tezkor xotira qurilmasidan maxsus mantiqiy blok va ikki bankli tuzilmasi mavjudligi bilan farq qiladigan xotira qurilmasi. Barcha o'qish/yozish operatsiyalari asosiy takt signali bilan sinxronlanadi. 168-kontaktli DIMM modullari yoki 144-kontaktli SO-DIMM modullari ko'rinishida joylashtiriladi.

Sinxron interfeys

ing. - synchronous interface

rus. - синхронный интерфейс

Bir vaqtda yuz beradigan ikki yoki undan ortiq jarayon. Sinxron interfeys bir vaqtning o'zida bir nechta o'zaro bog'liq bo'lmagan signalni nazorat qiladi.

Sinxron kiritish-chiqarish

ing. - synchronous I/O (input-output)

rus. - синхронный ввод-вывод

Kiritish-chiqarish operatsiyasiga so'rov bergan vazifa supervizor tomonidan buyurtma qilingan operatsiyani tugatishni kutish holatiga o'tkaziladi. Supervizor tugatish seksiyasidan operatsiya tugagani to'g'risidagi xabarni olgach, vazifani bajarishga tayyor holatga keltiradi va bajarilishda davom etadi.

Sinxron raqamli abonent liniyasi

ing. - symmetrical digital

subscriber line (SDSL)

rus. - синхронная цифровая

абонентская линия

O'ralgan juft uchun HDSL varianti, 3-4 km gacha masofada oqimni 2048 kbit/s dupleks uzatishni ta'minlaydi. Symmetric DSL nomi ikkala yo'nalishdagi oqimlar tezligining simmetrik ekanligini ta'kidlaydi.

Sinxron raqamli iyerarxiya

ing. - synchronous digital hierarchy (SDH)

rus. - синхронная цифровая иерархия

Uzatishning fizik tarmoqlari bo'ylab mos ravishda adaptatsiya qilingan yuklamani tashish uchun standartlashtirilgan raqamli transportli tuzilmaning iyerarxiya to'plami.

Izoh - SDH texnologiyasi 2 Mbit/s dan 10 Gbit/s gacha qayd etilgan tezliklardagi raqamli trafik uzatilishini ta'minlaydi.

Sinxron transport moduli

ing. - synchronous transport module (STM)

rus. - синхронный транспортный модуль

SRI seksiyalari qatlamida ulanishlarni tash-

kil qilish uchun ishlatiladigan axborot tuzilmasi. 125 mks takrorlanish davriga ega bo'lgan blokli cho'qqi tuzilmaga birlashtirilgan (SOH) seksiya sarlavhasi va axborot yuklamasidan iborat. Bu axborot mos ravishda tarmoq bilan sinxronlashtirilgan tezlikda ketma-ket uzatish uchun tayyorlangan. Tayanch STM 155520 kbit/s tezlikka ega va STM-l deb ataladi. Yuqori STMlarning tezligi n marta ortiq. $n=4$ va $n=16$ ekanligi aniqlangan. Yuqoriroq bo'lgan qiymatlar o'rganilmoqda. STM-l bir guruhli ma'muriy blok (AUG) va SOHni o'z ichiga oladi. STM-n o'z ichiga n AUG va SOH ni oladi. n qiymatlari CPI darajalariga mos keladi.

Sinxron uzatish

ing. - synchronized transmission

rus. - синхронная передача

Raqamli signalni taktli chastota signali bilan bir vaqtda yoki uni qabul qilinayotgan signaldan ajratgan holda uzatish.

Sinxron uzatish rejimi

ing. - synchronous transfer mode (STM)

rus. - режим синхронной передачи

Signallarni uzatish rejimi. Kanallari vaqt bo'yicha taqsimlangan ko'p kanalli siklda har bir ulanishga belgilangan uzunlikdagi kodlangan so'zning davriy ravishda taqdim etilishini ko'zda tutadi. Kodlangan so'zlarning ketma-ketlik chastotasi doimiy va foydali axborotni uzatish tezligiga bog'liq bo'lmaydi.

Sinxronizatsiya

ing. - synchronization

rus. - синхронизация

1. Axborotni uzatish va qabul qilish paytlari orasida aniq muvofiqlikni o'rnatishga imkon beradigan protsedura.

Izoh - Sinxronizatsiyaning uchta asosiy usuli farq qilinadi: yuqori (eltuvchi) chastota bo'yicha, taktli impulslar bo'yicha va kadrlar bo'yicha.

2. Chastotani egallash yoki eltuvchi chastotadan foydalanib sinxronlikka kirish.

3. Qurilmani, u o'zining asosiy funksiyalarini bajara oladigan ma'lum bir holatda qayd etish.

Sinxronizatsiya signali, sinxrosignal

ing. - synchronizing signal

rus. - сигнал синхронизации,

синхросигнал

1. Uzatish va qabul qilishda yoyish jarayonlarini vaqt bo'yicha kelishtirishda foydalaniladigan signal.

2. Satrlar, maydonlar sinxronlovchi impulslaridan hamda tenglashtiruvchi impulslardan iborat signal.

Sinxronizm

ing. - synchronism

rus. - синхронизм

Ikki ta yoki bir nechta signal yoki davriy ravishda takrorlanuvchi jarayonlarning vaqt bo'yicha aniq mos tushishi ta'minlanadigan holat.

Sinxronlanuvchi oqimli kriptotizim

ing. - data-flow synchronizing cryptosystem

rus. - криптосистема потоковая

синхронизирующаяся

Kalit oqimi ochiq matn va shifmatnga bog'liq bo'lmagan tarzda ishlab chiqiladigan oqim kriptotizimi. Shifmatning biror-bir simvoli uzatishda yo'qolgan bo'lsa, oluvchi shifr matnning keyingi belgilarini to'g'ri rasshifrovka qilish uchun, kalit oqimining tegishli simvolini olib tashlab, o'zining kalit oqimini qayta sinxronlashi kerak.

Sinxronlash darajasi

ing. - level of synchronization

rus. - уровень синхронизации

To'liq videosignalning satr sinxronlovchi impulsi cho'qqi qiymatiga mos keladigan darajasi.

Sinxroregenerator

ing. - synchronizing pulse regenerator

rus. - синхрорегенератор

Buzilgan videosignalning sinxronizatsiya signallarining to'g'ri turini va ko'lamini tiklash uchun mo'ljallangan uskuna.

Sinxroselektor

ing. - synchronization pulse separator

rus. - синхроселектор

To'liq videosignalning sinxronizatsiya signallarini ajratish uchun mo'ljallangan qu-rilma.

Sinxrosignalidagi tovush

ing. - sound-in-synсs

rus. - звук в синхросигнале

Satrlar sinxronizatsiyasi signaliga qo'yilgan

raqamli signal ko'rinishidagi tovush signali-ni uzatish usuli.

Siqib chiqarmaydigan ko'p vazifalilik

ing. - nonpreemptive multitasking

rus. - невытесняющая многозадачность

Ko'p vazifalilik turlaridan biri, bunda operatsion tizim ikki va undan ortiq dasturni bir vaqtda xotiraga yuklaydi, lekin protsessor vaqti faqat asosiy dastur uchun taqdim qilinadi. Fondagi dasturni bajarish uchun u aktivlashtirilishi lozim.

Siqilmagan videotasvir uchun port

ing. - zoomed video port (ZVP)

rus. - порт для несжатого

видеоизображения

RS Card uyasi orqali videoma'lumotlarni tizim shinasidan aylanib o'tib katta tezlikda, to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishni ta'minlaydigan arxitektura.

Siqish koeffitsiyenti

ing. - compression ratio

rus. - коэффициент сжатия

1. Siqish amaldan so'nggi axborot hajmining siqish amaligacha bo'lgan axborot hajmiga nisbati.

2. Siqish amaldan so'nggi ma'lumotlar oqimi bitreytining siqish amaligacha bo'lgan ma'lumotlar oqimi bitreytiga nisbati.

Sir

ing. - secret

rus. - секрет

Faqat vakolatli foydalanuvchiga ma'lum bo'lgan va/yoki baholash obyektining xavfsizlik funksiyasi uchun belgilangan xavfsizlik funksiyasi siyosatini amalga oshiradigan axborot.

Siri bo'lgan bir tomonlama funksiya

ing. - one-sided secret function

rus. - односторонняя функция с секретом

k parametrga bog'liq bo'lgan $f(x)$ funksiya, bu shunday funksiya, k ma'lum bo'lganda, barcha x lar uchun $f_k(x)$ ni, barcha y lar uchun $f_k^{-1}(y)$ ni oson hisoblab chiqarish imkonini beradigan E_k va D_k polinomial algoritmlarni topish mumkin. K ni bilmasdan turib,

$f^{-1}(y)$ ni topish, hatto E_k algoritmi ma'lum bo'lganda ham, hisoblab chiqarish murakkab bo'lgan vazifa (polynomial algoritmi mavjud emas). Siri bo'lgan bir tomonlama funktsiya tushunchasi asosida, kalitlarni ochiq taqsimlash, uning natijasida ochiq kalitli kriptotizim prinsipi taklif qilingan.

Sirkulyar bog'lanish

ing. - broadcasting

rus. - циркулярная связь

Foydalanuvchiga $n+1$ MChU o'rtasida bog'lanishni o'rnatish imkonini beradigan abonentlar uchun fakultativ xizmat. Bosh MChU deb ataladigan bitta MChU n ta bochqa tobe MChUga uzatadi.

Sirkulyator

ing. - circulator

rus. - циркулятор

Uchta va undan ko'p yelkali (to'lqin o'tkazgichli sirkulyator holatida) passiv qurilma, unda har qanday yelkaga keltiriladigan ta'minot ketma-ket ravishda keyingisiga uzatiladi, shu bilan birga, tartib bo'yicha oxirgisidan keyin keladigan yelka birinchi hisoblanadi.

Sirlarning taqsimlanishi

ing. - secret sharing scheme

rus. - разделение секретов

Siri taqsimlash sxemasi, uning asosiy g'oyasi maxfiy kalitni bir nechta subyekt o'rtasida, ular birga to'planib, kalitni bir nechta qismlardan tiklashlari mumkin bo'ladigan tarzda ajratishda ifodalanadi.

Sirt effekti

ing. - skin effect

rus. - поверхностный эффект

O'tkazgichdagi elektr toki zichligining o'tkazgichning sirtidan ichiga kirib yo'qotib borgan sari elektromagnit maydonning o'tkazgichiga singadigan so'nish bilan sodir etilgan kamayish hodisasi.

(Sirt nuqtasidagi) yoritilganlik (E simvol)

ing. - illuminance (of an elementary

surface) (symbol: E)

rus. - освещенность (в точке

поверхности) (символ: E)

Elementar sirtga tushadigan, shu sirt maydoniga bo'lingan yorug'lik oqimi.

Izoh - SI birliklar tizimida yoritilganlik kvadrat metrga (lm/m^2) lyukslarda (lx) yoki lyumen (lm) larda ifodalanadi.

Sirtqi antenna panjarasi

ing. - surface antenna array

rus. - поверхностная антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari ayrim sirtni hosil qiladigan antenna panjarasi.

Sirtqi radioto'lqin

ing. - surface radio wave

rus. - поверхностная радиоволна

Ikki ta muhim ajratuvchi sirt bo'yulab tarqaladigan, uning xarakteristikalari esa shu muhitning xususiyatlari bilan aniqlanadigan radioto'lqin.

Sirtqi to'lqin antenasi

ing. - aerial of surface wave

rus. - антенна поверхностной волны

Yo'naltirilgan nurlanishi sirt to'lqinning tarqalishini ta'minlovchi ko'ndalang yoki bo'yula tuzilma (metaldagi, tekis yoki qirrali silindrsimon metall sirtidagi dielektrik qatlam) yordamida ta'minlanadigan antena. Sirt to'lqin antenasi nurlatgich va aytib o'tilgan tuzilmadan tashkil topgan. Uchish apparatlarida bo'rtib chiqmagan antena, antenna panjarasi elementi va h.k.lar sifatida qo'llaniladi.

Sirtmoq

ing. - loop

rus. - петля

Dasturlashdagi sikl - maxsus hisoblagich (sikl hisoblagichi) yordamida, shuningdek, uning davomiyligi yoki tugallanish mantiqiy sharti bo'yicha nazorat qilinadigan operatorlar ketma-ketligini takroran bajarish.

Sizish

ing. - leakage

rus. - просачивание

1. Signal yoki taktli impulslar bir qismining qurilma chiqishiga o'tishi.

2. Kompyuterga virus kirganda, simvollar ketma-ketligining uning xotirasiga o'tib olishi.

«Sichqoncha»

ing. - mouse

rus. - «мышь»

Displayda ma'lumotlarni tanlash, grafik ma'lumotlarni kiritish imkonini beradigan

manipulyator.

shuningdek, ikkita asosiy tugmadan iborat bo'lgan pozitsion qurilmani o'zida ifodalaydi. Qurilma XX asrning 60-yillarida AQShda, Dug Engelbart tomonidan ixtiro qilingan.

«Sichqoncha» kursori

ing. - mouse cursor

rus. - курсор «мышь»

«Sichqoncha»ning harakatiga monand indikator vazifasini bajaruvchi ko'rsatkich.

«Sichqoncha» nishonchasi

ing. - mouse icon

rus. - значок «мышь»

Kursor tasviri. Ilovdan yoki bajarayotgan vazifasidan qat'i nazar o'zining ko'rinishini o'zgartira oladi. Qoida bo'yicha, strelka ko'rinishiga egadir. «Sichqoncha» nishoni animatsiyali bo'lishi ham mumkin, bunda maxsus dizaynerlar tomonidan yaratilgan kursorlardan foydalanish mumkin, buning uchun kursorlarning nomiga qarab ularni joy-joyiga qo'yib chiqish kifoyadir.

«Sichqoncha» tugmasi

ing. - mouse button

rus. - кнопка «мышь»

Dasturni boshqarish amalga oshiriladigan «sichqoncha»ning ishchi elementi. Avval «sichqoncha» bir tugmali bo'lib, hozirgi vaqtga kelib ularning soni vazifasiga qarab ikkitaga oshdi. Oddiy ikki tugmali va bir g'ildirakchali «sichqoncha»larda g'ildirakcha o'z navbatida tugma vazifasini ham bajaradi, masalan, AutoCAD dasturida bu tugmani bosib ish maydonining holatini o'zgartirish mumkin, bu esa foydalanuvchilar uchun ancha qulaylik yaratadi.

«Sichqoncha»ni bosib raqam terish

ing. - click-to-dial

rus. - набор номера щелчком мыши

Foydalanuvchiga tanlangan raqamni bosish yo'li bilan telefon chaqiruvini amalga oshirish, xizmat ko'rsatuvchiga esa foydalanuvchiga aniq xizmatni chaqirish uchun raqam (bir nechta raqam) tavsiya qilish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - Xizmat, telefoniya xizmatlari foydalanuvchilariga tavsiya qilingani kabi, Internet xizmatlari foydalanuvchilariga ham tavsiya qilinishi mumkin.

«Sichqoncha» tugmachasini bosish

ing. - clicking the mouse button

rus. - щелкать кнопкой мыши

Kompyuterga tegishli komandani berish uchun «sichqoncha» tugmachasini bosish.

Skalyar protsessor

ing. - scalar processor

rus. - скалярный процессор

Skalyar kattaliklarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan protsessor. Bitta arifmetik mantiqiy qurilmasi bor va bir vaqtning o'zida (bir mashina sikli davomida) faqat bitta komandani qayta ishlaydi.

Skан-kod

ing. - scan code

rus. - скан-код

Klaviaturadagi klavishlar bosilganda va qo'yib yuborilganda generatsiyalanadigan kod. Har bir klavish, tayanch kiritish/chiqarish tizimi ASCII kodiga aylantirilgan o'zining noyob kodiga ega.

Skaner

ing. - scanner

rus. - сканер

Tasvimi ikki o'lchamli sirdan kompyuterga kiritish qurilmasi.

Izoh - To'rt turdagi skaner farqlanadi: qo'l skaneri, varaqli skaner, planshetli skaner, barabanli skaner.

Skанlash

ing. - scan

rus. - сканирование

Maxsus qurilma - skanerdan foydalanib tasvimi elektron ko'rinishda olish jarayoni.

Skанlash tezligini modulyatsiyalash

ing. - scanning velocity modulation

rus. - модуляция скорости сканирования
Televizorlarda qo'llaniladigan, ekran uchastkasining yorqinligiga bog'liq holda signalni skanlash tezligini tuzatuvchi texnologiya.

Skrembler

ing. - scrambler

rus. - скремблер

1. Elektraloqa raqamli signalning tuzilmasini, signal simvollarini uzatish tezligi saqlangan holda uning xossalarini tasodifiy signal xossalariga yaqinlashtirish maqsadida

o'zgartirish uchun mo'ljallangan qurilma.
2. Pulli (yopiq) yo'ldoshli kanallarni mualliflashtirilgan tarzda ko'rishda qo'llaniladigan video va audio signallarni kodlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Skremblerlangan nutq

ing. - scrambled speech

rus. - скремблированная речь

Spektrining ayrim qismlari invertirlangan va chastota bo'yicha siljigan nutq signali.

Skremblerlangan televideniye,

shifrlangan televideniye

ing. - scrambled television;

ciphered television

rus. - скремблированное телевидение,

шифрованное телевидение

Dastlabki tasvir qabul qilgichlar tomonidan faqat tegishli dekoderlar bilan tiklanishi mumkin bo'lgan televideniye.

Skremblerlash

ing. - scrambling

rus. - скремблирование

1. Ma'lumotlar oqimini uning sinxronlovchi xususiyatlarini yaxshilash maqsadida, aralashtirish protsedurasini. Boshlang'ich kod va hisoblashlarning oldingi sikllarida olingan natijalovchi kod simvollarini ikkinchi moduli bo'yicha bitma-bit qo'shishga asoslangan usul. Skremblerlash, shuningdek, signalning eng kuchli spektral tarkibiy qismlarini, ularni chastotalarning keng polosasi bo'yicha yoyib yuborish bilan bostirish imkonini beradi.

2. Analog signalni boshlang'ich signal uchashtalarining o'rini o'zgartirish va ularni inversiyalash yo'li bilan maxfiylashtirish usuli.

3. Televideniye – televideniye signal xarakteristikalarini, axborotni toza shaklda ruxsat etilmagan tarzda qabul qilishni bartaraf etish uchun o'zgartirish.

4. Skremblerlash belgilangan tartibda shartli foydalanish tizimi nazorati ostidagi jarayonni o'zida aks ettiradi.

4. Raqamli uzatishda – psevdotasodifiy ketma-ketlikdagi raqamli signalni birlashtirish uchun va uzatishga imkon beradigan o'sha axborotni ko'chiradigan tasodifiy raqamli signalni olish uchun ishlatiladigan jarayon.

Skremblerlashning yagona algoritmi

ing. - united algorithm of scrambling

rus. - единый алгоритм скремблирования

DVB Project da qabul qilingan, barcha shartli foydalanish tizimlari uchun bir xil lashtirilgan, raqamli oqimni skremblerlash algoritmi.

Skrembrlangan кадр

ing. - scrambled frame

rus. - скремблированный кадр

Turli abonentlarning ma'lumotlarini uzatish uchun ajratilgan vaqt intervallari psevdotasodifiy qonunga ko'ra navbatlashtirilgan кадр.

Skrinshot

ing. - screenshot

rus. - скриншот

Foydalanuvchi buyrug'i bo'yicha kompyuter tomonidan olingan va monitor ekranini yoki boshqa chiqish qurilmasida ko'rinayotgan obyektini ko'rsatuvchi tasvir.

Skript

ing. - script

rus. - скрипт

Operatsion tizim yoki dastur muayyan holatda ishga tushiradigan komandalar va/yoki harakatlar ketma-ketligi, kichik dastur yoki makros. Ssenariylar ko'pincha matnli fayllarda saqlanadi.

Skript kiddi

ing. - script kiddie

rus. - скрипт кидди

Buzish uchun qo'llaniladigan xakerlik vositalarining ishlash tamoyillarini tushunmaydigan odam. Zaiflikni aniqlash yoki eksploitni yozish qo'lidan kelmasdan, u faqat tayyor narsalardan – eng keng tarqalgan zaifliklar, mavjud bo'lgan eksploitalardan foydalanadi. Ma'lum holatlarda skript kiddilar virus konstruktorlaridan foydalanib, dasturlash tilini bilmasdan, turli xavf darajasiga ega viruslarni yaratadi va ulardan o'z maqsadlarida foydalanadi.

Slays

ing. - slide

rus. - слайд

Videokadrda yagona kvantlash shkalasi orqali birlashtiriladigan ketma-ket bloklar guruhi.

ing. - slot

rus. - слот

Raqamli oqim kadridagi vaqt intervali. Kadrlarning to'rtidan bir qismini egallaydi va radiokanalidagi bitta axborot kanalining signalini uzatish uchun mo'ljallangan.

Slotlar tuzilmasining jadvali

ing. - time-slot composition table

rus. - таблица структуры слотов

Har bir slotning parametrlarini – simvol tezligini, kodlashning nisbiy tezligini, preambulani, foydali yuklama mazmunini ichiga oladigan jadval.

Smurfing

ing. - smurfing

rus. - смарфинг

Xakerlarning provayder serveriga qiladigan hujum usuli. Teskari manzili soxta bo'lgan ko'plab ping so'rovlarni yuborishda ifodalanadi.

Smart-karta

ing. - smart card

rus. - смарт-карта

Mikroprotsessor o'rnatilgan intellektual plastik kartochka. Foydalanuvchi to'g'risidagi zarur bo'lgan barcha identifikatsion, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlar (bankdagi hisob raqami, sug'urta polisi va boshqalar) ni ichiga oladi. Bu kartochkadan ko'pincha foydalanuvchining chetki uskunasi (masalan, mobil telefonda) foydalaniladi, u tarmoqqa ruxsat etilgan tarzda kirishni ta'minlaydi.

Smart shartnoma

ing. - smart contract

rus. - смарт-контракт

Blokcheynda shartnomalar bajarilish jarayonini avtomatlashtirishga mo'ljallangan elektron algoritim.

Smartbuk

ing. - smartbook

rus. - смартбук

ARM arxitekturasi asosidagi 3G moduli integratsiya qilingan va uzoq vaqt mustaqil ishlaydigan noutbuk.

Smartfon

ing. - smart phone

rus. - смартфон

Cho'ntak shaxsiy kompyuterining funktsionalligi qo'shilgan mobil telefon.

Smaylik, «tabassumcha»

ing. - smiley

rus. - смайлик, «улыбочка»

His-tuyg'uni bildiruvchi ideogramma. Turli xil, jumladan, xizmatga oid belgilardan tashkil topgan. Internet va SMS da «tabassumcha» keng tarqalgan, keyingi vaqtlarda u hamma joyda ishlatilmoqda.

Sniffer

ing. - sniffer

rus. - sniffер

Kanal orqali uzatiladigan ma'lumotlarni (ehtimol, ruxsat etilmagan tarzda) kuzatib borish dasturi.

Sniffing

ing. - sniffing

rus. - sniffинг

Uzatiladigan parollar, kalitlar va boshqa identifikatsion yoki autentifikatsion axborotni to'plash maqsadida, trafikni eshitish.

Snippet

ing. - snippet

rus. - снippet

Qayta ishlanishi mumkin bo'lgan dastlabki kod yoki matn qismini bildiradigan dasturiy atama. Inglizchadan tarjimasi – «parcha», «bo'lak». Snippetlar tartibot, funksiya yoki tuzilmaviy dasturlashning shunga o'xshash boshqa atamalarini o'rini bosmaydi. Ular odatda funksiyalar kodining o'qilishini osonlashtirish yoki kodning bir xil bo'lgan umumiy qismini takrorlamalik uchun ishlatiladi.

Soat

ing. - clock

rus. - часы

Ona plataga o'rnatilgan va batareyka orqali ta'minlanadigan soat. Sana/vaqtning ko'rsatish va vaqt sikllari bilan to'g'ri ishlash imkonini beradi.

Softfon

ing. - softphone

rus. - софтфон

Shaxsiy kompyuter yordamida Internet orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga

o'zgarish uchun mo'ljallangan dastur. Odatda kompyuterga ulangan garnitura yoki mikrofon va dinamiklar bilan ishlatiladi.

Soket

ing. - socket
rus. - сокет

Transport sathidagi turli obyektlar o'rtasida tarmoqlararo o'zaro ishlay olishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan parametrlar to'plami bilan tavsiflanadigan interfeys nuqta. TCP/IP atamashunosligida identifikatsiyalovchi parametrlar to'plami: port raqami, tarmoq manzili hamda oxirgi uzul raqami.

Soket tarmog'i adapteri

ing. - adapter of socle network
rus. - адаптер цокольной сети

Kompyuterni lokal kompyuterlar tarmog'iga ulash uchun mo'ljallangan adapter.

Solishtirish shkalasi

ing. - scale of comparison
rus. - шкала сравнения

Kuzatishning ma'lum sharoitlarida ikkita berilgan tasvirming texnik sifatidagi tafovutlarni miqdor jihatidan subyektiv baholash imkonini beradigan yettita bosqichli shkala.

Solishtirma tahlil natijalari bazasi

ing. - benchmarking experience base
rus. - база результатов

сопоставительного анализа

Solishtirma tahlil harakatlari va axborot mahsulotlarini baholashlar, shuningdek, solishtirma testlash va tahlil vaqtida to'plangan butun tajriba saqlanadigan ma'lumotlar bazasi.

Solishtirma yutilish koeffitsiyenti

ing. - specific energy absorption rate (SAR)
rus. - коэффициент удельного

поглощения

1. Ma'lum shakl (odatda, kub) va berilgan solishtirma zichlikka ega jismning massa birligi tomonidan yutiladigan quvvatga qiymati jihatidan teng ko'rsatgich.

2. Ayrim mamlakatlarda solishtirma yutilish koeffitsiyenti biologik xavfsizlik normasi hisoblanadi.

2. p zichligidagi dV hajmi elementida mavjud bo'lgan dm massa elementi bilan yutiladigan (sochiladigan) dW elektromagnit energiyasining vaqt bo'yicha hosilasi.

«Sovuq» qayta yuklash

ing. - cold restart

rus. - холодная перезагрузка

Tizimning to'liq qayta ishga tushirilishi bo'lib, bunda elektr ta'minoti uziladi va tezkor xotira ichidagi yo'qoladi.

«Sovuq» start

ing. - «cold» start

rus. - «холодный» старт

Tizimning barcha qurilmalarini uzib qo'yish, so'ng ulash bilan tizimning barcha qismlarini qayta yuklash. «Issiq» start ishlamagan hollarda qo'llaniladi.

Soxta konturlar

ing. - mistaken contours

rus. - ложные контуры

Raqamli televizion tasvirlarda dastlabki analog signalni uzatish uchun foydalanilgan kvantlash intervallari sonining yetarli emasligi natijasida yuzaga keladigan effekt.

Soxta «naqsh»

ing. - false «pattern»

rus. - ложный «узор»

Tasvirlarning aksariyatida bo'lmaydigan va na foto, na kino mahsulotlarida paydo bo'lmaydigan detallar.

Soxta pochta markasi

ing. - false postage stamp

rus. - фальшивая почтовая марка

Firibgarlik maqsadida norasmiy ravishda bosib chiqarilgan pochta markasi.

Soxtashtirish

ing. - tampering

rus. - подделка

Jinoyatkor tomonidan tutib olingan paketlar mazmunining, ularning yaxlitligi buzilishiga olib keladigan tarzda o'zgartirilishi.

Soya hududi; qabul yo'q zona

ing. - shadow area (shadow zone)

rus. - область тени; зона

отсутствия приема

Radioko'rinish hududidan tashqarida joylashgan, yer yuzasidagi zona. Soya hududining yaqin chegarasi to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish masofasida bo'ladi, olis chegarasi esa, to'lqinlarning atmosfera refraksiyasi musbat bo'lganda ufq orqasiga tarqalishi shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

ing. - umbrella antenna

rus. - зонтичная антенна

Vertikal konus hosil qiluvchi o'tkazgichlardan iborat antenna. Konus cho'qqisida joylashgan o'tkazgichlar oxiri antennani pasaytirish vertikal simi bilan birlashtirilgan va bog'langan.

Soyalanish

ing. - shadowing

rus. - затенение

Joy relyefi va shahar imoratlarining to'suvchi ta'siri tufayli, uzatgich va qabul qilgich o'rtasidagi trassadagi sekin asta tinishlar.

Misol – Shahar sharoitida 36 km/h tezlikda harakat qiluvchi abonentlarga mobil aloqa tarmoqlarida bu xildagi tinishlar masofaning har 12-60 metri uchun xosdir (vaqt intervali 1,2 s-6 s).

Sozlanadigan havolalar

ing. - adaptable links

rus. - настраиваемые ссылки

Obyekt ostida avtomatik ravishda tuzatiladigan havolalar. Havolalar, ular havola qilinadigan obyekt ko'chirilganda, sozlanadi va baribir xuddi shu obyektga havola qilinadi.

Sozlanadigan yagona qidiruv tizimi

ing. - configurable unified search

interface WWW (CUSI)

rus. - настраиваемая

единая система поиска

Muayyan foydalanuvchining sozlashlarini saqlaydigan va bir nechta toifa bo'yicha qidiruvni amalga oshiradigan qidiruv mashinasi.

Sozlangan antenna (rezonans antenna)

ing. - tuned antenna

rus. - настроенная антенна

(резонансная антенна)

Yo'naltirilgan nurlantiruvchi xususiyatlari antennaning ishchi chastotasiga bevosita yondashgan chastotalarning cheklangan polosasi uchun belgilanadigan tor polosali antenna.

Sozlash

ing. - settings

rus. - настройка

Foydalanuvchi tomonidan uskuna, dasturiy ta'minotlarni to'g'ri (istalgan tarzda) ishlatish uchun sozlanishi.

ing. - debugging statement

rus. - оператор отладки

Sozlanadigan dasturga qandaydir shartni yoki o'zgaruvchilar qiymatlarining chiqarilishini tekshirish uchun kiritiladigan operator. Bunday operatorlar sozlangan dasturdan yoki chiqarib tashlanadi yoki sharhlar satrlariga aylantiriladi.

Sozlash registri

ing. - debug register

rus. - отладочный регистр

Dasturlarni sozlash jarayonini tezlashtirish uchun xizmat qiladigan maxsus registr.

Sozlik

ing. - sanity

rus. - исправность

Televizor (element) ning ma'lum bir vaqtda barcha talablarga mos keladigan holati.

Sozlovchi

ing. - debugger

rus. - отладчик

Dasturiy ta'minotdagi xatolarni aniqlash uchun mo'ljallangan dastur yoki qurilma.

Sochilish

ing. - scatter

rus. - рассеяние

To'siqlardan qaytish natijasida yoki bir xil bo'lmagan muhit orqali o'tishda radioto'lqinlar tarqalish yo'nalishining o'zgarishi.

Spam

ing. - spam

rus. - спам

Foydalanuvchining so'rovisiz, majburiy tarzda jo'natiladigan keraksiz ma'lumotlar. Bunga misol tariqasida turli telekonferensiyalarda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilarga diskussiya olib borish qoidalarini ma'lum qilish, yoki reklamalar va boshqalar kiradi. Yana bu turli xildagi «elektron axlat»ni atashda ham ishlatiladi. Spamni yashirish yo'llari mavjud bo'lib, stealth spam deb ataladi.

Spamni yuborish

ing. - spamming

rus. - рассылка спама

Tizimni o'ta band qiladigan, so'ralmagan ma'lumotlarni yuborish.

Spektr

ing. - spectrum

rus. - спектр

Signal amplitudasi va fazasi o'zgarishining chastotaga bog'liqligini tavsiflovchi hamda uning xossalari va xarakteristikalarini qat'iy belglovchi funksiya.

Spektral ranglar chizig'i

ing. - locus of spectrum colours

rus. - линия спектральных цветов

Nuqtalarning ranglilik diagrammasidagi geometrik o'rimi.

Spektral samaradorlik

ing. - spectral efficiency

rus. - спектральная эффективность

1. Mobil aloqa tarmoqlarida fazo, chastota va vaqtdan foydalanishning samaradorligini tavsiflovchi integral ko'rsatgich.

2. Vaqt birligi ichida 1 Hz kenglikdagi polosada uzatilgan ma'lumotlarning maksimal miqdori sifatida aniqlanadigan samaradorlik ko'rsatgichi bo'lib, u modulyatsiyaning turli usullaridan foydalanib raqamli axborotni uzatishda ishlatiladi.

Spektral sezgirlik

ing. - spectral responsivity

rus. - спектральная чувствительность

Optik asbobning muayyan to'liq uzunligidagi elektromagnit tebranishlarning ta'siriga bog'liq bo'lgan sezgirligi.

Spektral tuzilma bo'yicha

identifikatsiyalash

ing. - radio-frequency fingerprinting

rus. - идентификация по спектральной структуре

Tarqalayotgan signalning spektri bo'yicha radiostansiya (mobil telefon)ni tanib olish jarayoni.

Izoh - Bu usul klonlash bilan bog'liq aldamchilikning oldini olish uchun ishlatiladi, chunki klonlangan telefon legal mobil telefon bilan bir xil elektron identifikatsiyalash raqamiga ega bo'ladi, biroq nurlanayotgan signalning spektral tarkibi bo'yicha farqlanadi. Legal radiostansiyaning tanib olishdagi radio-signal spektrogrammasi, amalda, shaxsiy identifikatsiyalashdagi barmoq izlari kabi rol o'ynaydi.

Spektral xarakteristika

ing. - spectral characteristic

rus. - спектральная характеристика

Alohida rang kanallari sezgirligining to'liq uzunligiga bog'liqligini ko'rsatadigan spektral egri chiziqlar guruhi.

Izohlar.

1. Atama tegishli aniqlashtirish kiritilishi mumkin, masalan, yorug'likni signalga aylantirish qurilmasi-ning spektral tavsifi yoki studiya kamerasining spektral tavsifi.

2. Nochiziqlik oqibatida ba'zi spektral tavsiflar ularni o'z ichida foydalaniladigan nurlanish miqdoriga bog'liq bo'ladi.

3. Kanallarda matritsalar va nochiziqlikni kiritish operatsiyalari bajarilishi mumkin.

Spektral zichlik

ing. - spectral density

rus. - спектральная плотность

Signal o'rtaqa quvvatining, chastotaga bog'liq holda taqsimlanish zichligi. Spektral zichlik cheklangan chastotalar polosasida aniqlanadi. Spektral zichlik modulining kvadrati signalning energetik spektral zichligi deyiladi.

Spektrlni ustama qo'yilishidan muhofazalash

ing. - anti-aliasing

rus. - защита от наложения спектров

telekom. Diskretlashda yuzaga keladigan xatolarni tuzatish imkonini beradigan filtrlash tartiboti.

Spektrning infraqizil sohasi

ing. - infrared region of spectrum

rus. - инфракрасная область спектра

Asosiy spektri 0,76 mkm dan 1000 mkm gacha bo'lgan chegaralarda yotadigan to'liq uzunliklarida to'plangan optik nurlanish.

Spektrning ko'rinadigan sohasi

ing. - visible spectrum

rus. - видимая область спектра

To'liq uzunliklari 0,4-0,75 mkm bo'lgan optik nurlanish spektri sohasi.

Spetsifikatsiya

ing. - specification

rus. - спецификация

Tizimning maqsadi va funksional imkoniyatlarini belgilaydigan tavsif. Qoidaga ko'ra, tizimni ishlab chiqish paytida foydalaniladi. Dastur spetsifikatsiyasi kirish va chiqish ma'lumotlari tavsiflanishini ko'zda tutadi.

Spiral antenna

ing. - spiral antenna

rus. - спиральная антенна

1. Metall spirali ko'rinishida bajarilgan aylanadigan qutblanishga ega antena.
2. O'q bo'ylab nurlanish va aylanadigan qutblanishga ega yuguruvchi to'lqin rejimida foydalaniladigan metall (silindrsimon, konussimon yoki yassi) spirali ko'rinishidagi antena.

Spiral yo'lka

ing. - spiral track

rus. - спиральная дорожка

Nusxa ko'chirishdan himoya qilish usulining qismi, bunda diskka spirali shaklidagi yo'lka yoziladi.

Splayn

ing. - spline

rus. - сплайн

Kompyuter grafikasida – bir nechta nuqta bo'yicha tuzilgan egri chiziq. Egri chiziqning tavsifi qandaydir darajadagi polinom bilan beriladi.

Spays-plastina

ing. - splice plate

rus. - сплайс-пластина

O'tkazuvchi optik kabelni tarmoqlash uchun uning to'larini qisqa optik tarmoqlagich bilan ulaydigan plata. Bu tarzda tarmoqlagichlar yordamida optik-tolali kabelni optik taqsimlash qutisining o'tish rozetkalariga ulash ta'minlanadi.

Splitter

ing. - splitter

rus. - сплиттер

Turli chastotalar signallarini ajratish imkonini beruvchi qurilma. Masalan, ADSL – splitter telefon aloqasining past chastotali signali va ADSLHU[^] yuqori chastotali signalini ajratadi.

Sprayt

ing. - sprite

rus. - спрайт

1. Videoobyektning uzoq vaqt mobaynida deyarli o'zgarishsiz shu obyektida bo'ladigan qismi.
2. Ekranida tasvirning boshqa qismlaridan qati nazar siljiydigan, odatda fon bo'lib hisoblanadigan grafik obyekt.

Spufing

ing. - spoofing attack

rus. - спуфинг

Muayyan shaxs (yoki dastur) o'zini boshqa

birov sifatida bildiradigan va buning natijasida o'zi uchun qo'shimcha (odatda no-Bunday hujumlarga misollar:
- Man-in-the-middle (qar.: MITM);
- URL spufing va fishing – URL manzilni almashtirish (qar.: Fishing).

Spuler

ing. - spooler

rus. - спулер

Ma'lumotlarni fon rejimida qabul qiladigan va qayta ishlaydigan (masalan, bosadigan) qurilma yoki dastur.

Ssenariy

ing. - script

rus. - сценарий

Operatsion tizim yoki dastur tomonidan muayyan holatda ishga tushiriladigan komandalar va/yoki harakatlar ketma-ketligi, kichik dastur yoki makros. Ssenariylar ko'pincha oddiy matn fayllar ko'rinishida saqlanadi.

Ssenariylar tili

ing. - script language

rus. - язык сценариев

Ssenariylar yoziladigan til yoki komanda fayliga to'plangan tizim komandalarining oddiy to'plami.

Ssintillyatsiya

ing. - scintillation

rus. - сцинтилляция

Lyuminessensiyaning bir ko'rinishi, tez harakatlanuvchi zaryadlangan zarra kinetik energiyasini yorug'lik chaqnash energiyasiga aylantirish jarayoni.

Staffing

ing. - staffing

rus. - стаффинг

Raqamli oqim tezligini to'g'rilash uchun qo'shimcha «bo'sh» bitlarni kiritish.

Standart

ing. - standard

rus. - стандарт

Tizimlarning birgalikda ishlash va birikish imkoniyatini yaratish maqsadida, texnik, dasturiy, axborot ta'minotiga ko'rsatiladigan talablar.

Izoh – Standartlar ikki turda bo'ladi: deyure, standartlar rasman e'lon qilinadi va ma'qullanadi; de-fakto,

ko'pchilik standartlardan haqiqatda foydalanadi, lekin rasmiy ravishda ular rasmiylashtirilmagan bo'ladi. Ba'zan, firma ichida foydalanish uchun ishlab chiqilgan standart umumqabul qilingan standart bo'ladi.

Standart .NET Framework klasslari bibliotekasi

ing. - NET Framework Class Library (FCL)

rus. - библиотека стандартных классов .NET Framework

Tayanch klasslar bibliotekasi, barcha .NET-dasturlari ushbu biblioteka asosida quriladi. Qisqartmasi FCL - «.NET Framework» platforma klasslarining standart bibliotekasi. .NET platformasida ishlaydigan ixtiyoriy dasturlash tilida yozilgan dasturlar FCL ning usullari va klasslaridan foydalanishlari mumkin.

Standart dasturiy ta'minot

ing. - bundled software

rus. - стандартное программное обеспечение

Компьютер, периферик qurilmalar yoki boshqa paketlar bilan birga yetkazib beriladigan dasturiy ta'minot.

Standart kanal

ing. - standard channel

rus. - стандартный канал

Telefon GSM bog'lanish yordamida ma'lumotlar uzatish kanali. Bog'lanish tezligi pastligi (9600 bit/s gacha) tufayli, GPRS dan orqada. Tarif GPRS dagi bog'lanishga qaraganda yuqori. Bu xizmatdan foydalanish mumkin bo'lmagan hududlarda GPRS ga muqobil sifatida foydalaniladi.

Standart kuzatuvchi

ing. - standard observer

rus. - стандартный наблюдатель

Ko'rish orqali idrok etish mexanizmi x, y, z solishtirma koeffitsiyent jadvali hamda teng energetik spektrning x, y, z ranglilik koordinatalari ko'rinishidagi kolorimetrik xossalarga ega gipotetik kuzatuvchi.

Standart operatsion protseduralar

ing. - standard operating procedure (SOP)

rus. - стандартные

операционные процедуры

Apparat va dasturiy ta'minot bilan bog'liq masalalarni bajarishda eng yaxshi amaliy uslubni tavsiflash uchun qo'llaniladigan protsedura.

Standart pochta markasi

ing. - standard postage stamp

rus. - стандартная почтовая марка

Muomalaga ommaviy adad bilan chiqariladigan va yodgorlik bo'lib hisoblanmaydigan pochta markasi.

Standart qo'shimchalar

ing. - accessories

rus. - стандартные приложения

Operatsion tizim bilan birga ishlab chiqiladigan standart dasturlar, ya'ni kalkulyator, o'yin, matn va grafik redaktorlar.

Standartlar profili

ing. - standards profile

rus. - профиль стандартов

Hisoblash texnikasini ishlab chiqish va/yoki xarid qilish uchun qo'llaniladigan ochiq tizimlar standartlarining majmui.

Standartlarni o'zgartirish

ing. - conversion of standards

rus. - преобразование стандартов

Eshitirish televideniyesi bitta tizimiga muvofiq kodlangan televizion videosignalni boshqa tizimga, xususan, boshqa yoyish chastotalari bilan mos keladigan signalga o'zgartirish.

Standartlarni amalga oshirish va

qo'llashga ko'maklashish guruhi

ing. - standards promotion and

application group (SPAG)

rus. - группа содействия

реализации и применения стандартов

Tarmoqlar uchun xalqaro standartlarni qo'llashga ko'maklashadigan tashkilot. SPAG 1986-yilda Yevropa ittifoqi komissiyasi, hamda YEElga a'zo davlatlarning iqtisodiyot va sanoat vazirliklari tomonidan yaratilgan. SPAGning vazifalari bo'lib, Xalqaro standartlar tashkilotining hujjatlarini sanoatga tatbiq qilish, shu standartlarni amalga oshirishdagi testlash va sertifikatlashni o'tkazish hisoblanadi.

Stansiya

ing. - station

rus. - станция

Tarkibida qabul qilgich-uzatgich (ba'zan faqat uzatgich yoki faqat qabul qilgich), shuningdek, aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun kerakli yordamchi va interfeys uskunani saqlovchi uskunalar komplekti.

Izoh - Axborotni uzatish uchun foydalaniladigan radiokanal turiga bog'liq ravishda, diostansiyalar yo'ldoshi, uyali, trunking, radioreleli, troposferaviy va b.larga bo'linadi.

Stansiya ichidagi liniya**ing.** - cross-site link**rus.** - внутростанционная линия

Yerdagi stansiyaning turli qismlarini o'zaro bog'laydigan ulovchi liniya. Bunday liniya odatda, antennali uzatgichni yoki boshqarish pulti chiqarilgan uzatgichni bog'laydi.

Stansiya ichidagi telefon yuklama**ing.** - intraoffice telephone traffic**rus.** - внутростанционная

телефонная нагрузка

Kommunatsiya stansiyasiga ulangan oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmalari vujudga keltiradigan, shu stansiyaning boshqa oxirgi (terminal) telefon abonent qurilmalari uchun mo'ljallangan telefon yuklama.

Start-bit**ing.** - start bit**rus.** - старт-бит

Keema-kech kanal orqali simvolni uzatish boshlanishini ko'rsatadigan bit (signal).

Statik kompanovka**ing.** - static linking**rus.** - статическая компоновка

Bajariladigan dasturga bibliotekalardan olingan standart funksiyalarni, dasturning bajariladigan faylga ularni joylashtirish yordamida qo'shish usuli, ya'ni statik kompanovkada biblioteka obyekti bevosita dasturning bir qismiga aylanib ketadi. Diskli operatsion tizim boshqaruvdagi tillarda foydalaniladi.

Statik konstanta**ing.** - compile-time constant**rus.** - статическая константа

Qiymati dasturni translyatsiya qilish paytida aniqlanadigan konstanta.

Statik linklanadigan biblioteka**ing.** - statically linked library**rus.** - статически линкуемая библиотека

Aloqa va yuklashni tahrir qilish bosqichida yuklash modulida uning obyekt modullaridan foydalanadigan kod bilan birlashadigan kichik dasturlar bibliotekasining kodi.

Statik marshrutlash**ing.** - static routing**rus.** - статическая маршрутизация

Marshrutlash turi, bunda ma'lumotlar ma'lum marshrut bo'yicha uzatiladi; agar tegishli yo'l yopiq bo'lsa, uzatish kechikadi.

Statik tekshiruv**ing.** - compile-time check**rus.** - статическая проверка

Dasturni translyatsiya qilish vaqtida amalga oshiriladigan tekshiruv.

Statik tezkor xotira**ing.** - static random-access memory**rus.** - статическая оперативная память

Yarimo'tkazgichli tezkor xotiraning bir turi. Har bir ikkilik razryad (bit) to'rtta tranzistor va ikkita rezistordan iborat sxemada saqlanadi. Sxemada kondensator yo'qligi uchun zaryadlash kerak bo'lmaydi. Statik tezkor xotira dinamik tezkor xotiraga qaraganda tezroq ishlaydi. Lekin qimmat va ko'p joyni egallaydi.

Statik xotira**ing.** - static memory**rus.** - статическая память

Ikki barqaror holatga ega elektron sxemalar (triggerlar) asosida qurilgan energiyaga bog'liq tezkor xotira qurilmasi. Dinamik xotiradan farqli ravishda, xotira yacheykalarini davriy regeneratsiyalash signallarini talab qilmaydi.

Statistik multipleksorlash**ing.** - statistical multiplexing**rus.** - статистическое

мультиплексирование

Tasvirning har bir dasturdagi mavjud xossalarni hisobga olish bilan, ko'p dasturli raqamli oqimdagi koderlar o'rtasida bitlar resursini dinamik qayta taqsimlash.

Statistik paket**ing.** - statistics package**rus.** - статистический пакет

Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash uchun mo'ljallangan belgilangan dasturiy mahsulot, qabul qilinadigan qarorlar sifatini oshirishning ishonchli vositasi. Paketga amaliy grafika, dispersion tahlil, regression tahlil, vaqt qatorlari tahlili va boshqalar kiradi.

Statsionar abonent**ing.** - landside party**rus.** - стационарный абонент

Mobil aloqa tarmog'ining, aloqa vositalari «yurganda» ishlashga mo'ljallanmagan har qanday abonent.

Steganografiya

ing. - steganography

rus. - стеганография

Ochiq axborot massivlarida konfidensial axborotni yashirishning matematik usullarini o'rganuvchi fan sohasi.

Stegokalit

ing. - stegokey

rus. - стегоключ

Axborotni yashirish (shifrlash) uchun zarur bo'ladigan maxfiy kalit.

Stegokanal

ing. - stegochannel

rus. - стегоканал

Axborotni yashirin uzatish kanali.

Stek

ing. - stack

rus. - стек

Xotiraning, protseduralar va funksiyalardan qaytish manzillari, ularning parametrlari va chaqirilgan protsedura yoki funktsiya nusxasiga taalluqli bo'lgan boshqa ma'lumotlar saqlanadigan, ya'ni dasturda ma'lumotlarni vaqtinchalik saqlash uchun foydalaniladigan qismi. Stekka joylashtiriladigan oxirgi element u yerdan birinchi bo'lib olinadi.

Stek ko'rsatgichi

ing. - stack pointer (SP)

rus. - указатель (вершины) стека

Stekning joriy uchini ko'rsatib turuvchi prosessor registri yoki o'zgaruvchi (keyingi element joylashadigan yacheyka). Stek bilan bog'liq barcha operatsiyalar shu ko'rsatgichni ishlatish orqali amalga oshiriladi.

Steker

ing. - stacker

rus. - стекеп

Bitta to'plagichi va qat'iy belgilangan tartibda to'plagichga uzatiladigan bir nechta kartriji bo'lgan qurilma. Ma'lumotlar bita kartrijga sig'maganda zaxira nusxa olish uchun foydalaniladi.

Stekning to'lib ketishi

ing. - stack overflow

rus. - переполнение стека

Stekka keragidan ortiq elementlarni joylashtirishga harakat qilinganda yuzaga keladigan xato. Stekni apparat nazorat qilish bo'lmaganda, ma'lumotlar sohasi yoki das-

tur kodining bir qismi o'chib ketishiga olib keladi.

Stereofonik televideniye

ing. - stereophonic television

rus. - стереофоническое телевидение

Tovush jo'rliigi stereofonik tarzda uzatiladigan televideniye.

Stereoskopik kineskop (display)

ing. - stereoscopic picture tube

rus. - стереоскопический кинескоп (дисплей)

Stereoskopik televizion tasviri shakllantirish uchun ikkita tasviri bir vaqtda tiklash kineskopi.

Stereoskopik ko'zoynak

ing. - stereoscopic glasses,

stereoscopic spectacles

rus. - стереоскопические очки

Har bir ko'z uchun stereoskopik televizion tasvirning alohida tasvirlarini taqdim etishda ikki tomonga yo'naltirilgan yorug'lik bo'lgichni (tasvir ajratgichni) hosil qiladigan ko'zoynak.

Stereoskopik televideniye, 3

D-televideniye

ing. - stereoscopic television,

three-dimensional television

rus. - стереоскопическое телевидение,

3 D-телевидение

Tomoshabinda kuzatilayotgan tasvirlarning teran va yaqqol (uch o'lchamli) ekanligi to'g'risida taassurot hosil qilishni ta'minlaydigan televideniye tizimi. Hajmli (uch o'lchamli) idrok qilish binokulyar ko'rishga asoslangan. Shuning uchun stereoskopik televideniya bir xil obyektlarning tasviri bir biridan ayrim masofada joylashgan ikkita pozitsiyadan uzatiladi, shunday qilib, obyektning stereofonik tasviri hosil qiluvchi ikkita tasviri shakllanadi. Qabul qiluvchi tomondan ular tomoshabinga alohida: chap ko'zga - stereofonikning chap tasviri, o'ng ko'zga - stereofonikning o'ng tasviri kabi ta'sir etadi.

Stereoskopik televizion kamera

ing. - stereoscopic television camera

rus. - стереоскопическая

телевизионная камера

Stereoskopik televideniye uchun signal-lar hosil qilishga mo'ljallangan televizion kamera.

Stereoskopik televizion proyektor
ing. - stereoscopic television projector
rus. - стереоскопический

телевизионный проектор

Stereoskopik televizion tasvimi tiklash uchun mo'ljallangan televizion proyektor.
Izoh - Chap va o'ng ko'z uchun tasvirlar yo proyeksiyaning ikkita alohida qurilmasidan bir vaqtda yoki proyeksiyaning bitta qurilmasidan ketma-ket taqdim etiladi.

Stereoskopik televizion qabul qilgich
ing. - stereoscopic television receiver
rus. - стереоскопический

телевизионный приемник

Stereoskopik televizion tasvimi tiklash uchun mo'ljallangan televizion qabul qilgich.

Stereotovushli televizor

ing. - stereosound television set
rus. - стереозвуковой телевизор

Qabul qilish va tiklashni stereotovush jo'rli-gida ta'minlaydigan televizor.

Stil

ing. - style
rus. - стиль

Matn protsessori va stol noshirlik tizimida - matnni formatlash parametrlarining nomlangan to'plami (shriftning o'lchami va garniturasini, satrlarni to'g'rilash (tekislash), sahifada joylashtirish va h.k.).

Stillarning kiritilgan jadvallari

ing. - cascading style sheets
rus. - вложенные таблицы стилей

HTML-sahifalar bilan ishlashda muayyan elementlar uchun shablon tuzish imkonini beruvchi standart. U o'zida shriftning rangi, o'lchovi, bo'sh joylar va boshqalarni ifodalaydi.

Stol tizimlarini boshqarish interfeysi

ing. - desktop management interface
rus. - интерфейс управления

настольными системами
Shaxsiy kompyuterining dasturiy va apparat komponentlarini (ishlab chiqaruvchi, mahsulot nomi, seriya raqami, installyatsiya vaqti hamda sanasini) avtomatik identifikatsiyalash imkonini beradigan interfeys.

Stop-kadr

ing. - still
rus. - стоп-кадр

Bitta yoki bir nechta maydondan hosil qili-

nib, ma'lum bir vaqt mobaynida oddiy harakatlanayotgan tasvirning o'rmini bosadigan tasvir.

Stornett-Xaber algoritmi

ing. - Stornett Khaber algorithm

rus. - алгоритм Сторнетта-Хабера
Hujjatlarining vaqt bo'yicha, ularni qalbaki-lashtirish imkoniyati bo'lmaydigan tarzda, imzolanishini ta'minlovchi algoritmi.

Stratovideniye

ing. - stratovision

rus. - стратовидение

Samolyot yoki aerostat bortiga joylashtirilgan uzatgichdan uzatiladigan televizion eshittirish.

Strimer

ing. - streamer

rus. - стример

Ma'lumotlarni magnit tasmada uzoq muddat saqlash uchun mo'ljallangan qurilma. Ma'lumotlarning zaxira nusxalarini tuzish uchun qo'llaniladi. Sig'imi 80 Mbyte dan boshlab (siqishsiz), saqlanishlik muddati katta, saqlash qiymati nisbatan arzon

Studiyadan uzatgichgacha

radioreleli uzatish tizimi

ing. - system of radio-relay transmission from studio to transmitter

rus. - система радиорелейной передачи от студии до передатчика
Televizion signalni dasturning qayd etilgan manbaidan statsionar eshittirish uzatgichigacha uzatish tizimi.

Stvol

ing. - stem

rus. - ствол

Yo'ldoshdagi, ma'lum bir chastotalar polosasida signallarni retranslyatsiya qilish uchun foydalaniladigan, qabul qiluvchi va uzatuvchi uskuna komplekti.

Subdiskretlash

ing. - sub-sampling

rus. - субдискретизация

Kotelnikov (Naykvist) chastotasidan past diskretlash chastotasi bilan diskretlash jarayoni.

Subkalit

ing. - subkey

rus. - субключ

Asosiy kalit tarkibiga kiritiladigan va istalgan vaqtda asosiy kalit uchun salbiy oqibatlarisiz bekor qilinishi mumkin bo'lgan kalit.

Submagistral liniya

ing. - branch feeder

rus. - субмагистральная линия

Taqsimlash punktini uy taqsimlash tarmoqlari bilan birlashtiradigan liniya.

Submillimetrli radioto'lqinlar

ing. - submillimetric waves

rus. - субмиллиметровые радиоволны

THF (Tremendously High Frequency) (300-3000 MHz) chastotalar diapazoniga mos keladigan 1 mm dan 0,1 mm gacha bo'lgan to'lqin uzunligidagi radioto'lqinlar.

Sub-polosali kodlash

ing. - sub-band coding

rus. - суб-полосное кодирование

Analog televizion signal chastotalari polosa filtrlar bankida bir necha kichik polosa-larga ajratiladigan va har bir kichik polosa alohida kodlanadigan manbani kodlash turi. Izoh - Kichik polosalar teng yoki teng bo'lmagan polosa kengligiga ega bo'lishi mumkin.

Subtitr

ing. - subtitle

rus. - субтитр

Film yoki ko'rsatuvlarning ovozi bilan birga uning matnini ovozdagi tilda yoki tarjima qilingan boshqa tilda taqdim qiladigan matn.

Subyekt vakolatlari darajasi

ing. - subject privilege

rus. - уровень полномочий субъекта

Foydalana olish subyektining foydalana olish yuzasidan huquqlarining majmui.

Sukunat zonasi

ing. - dead space

rus. - зона молчания

Radioto'lqinlarning o'tish shartlari bo'yicha radioqabul amaliy jihatdan mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan, radiostansiyaning harakat radiusi chegarasidagi fazo.

Summator

ing. - suminator

rus. - сумматор

Ikki sonni razryadma-razryad qo'shish amalga oshiriladigan sxema. Alohida mikro sxema ham, mikroprotessor arifmetik-mantiqiy quzilmasining tarkibiy qismi ham bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellekt

ing. - artificial intelligence (AI)

rus. - искусственный интеллект

1. Ilmiy tadqiqotlarning fanlararo faol rivojlanayotgan yo'nalishi va intellektual kompyuter tizimlarini, ya'ni inson ongiga qo'shimcha ravishda yozib qo'yiladigan imkoniyatlarga - bilimlari olish va saqlash, undan samarali foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan tushuncha. Sun'iy intellekt inson zakovatining alohida funksiyalarini, masalan, avval olingan tajriba va tashqi ta'sirlarni oqilona tahlil qilish asosida maqbul qarorlarni tanlash va qabul qilish qobiliyatini o'ziga oladigan avtomatik tizimlarning xususiyati sifatida talqin qilinadi.

2. Muayyan avtonomlik darajasida ma'lumotni qabul qilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, odamning xatti-harakatlarini imitatsiya qilish asosida o'rganish va qarorlar qabul qilishga layoqatli bo'lgan dasturiy ta'minot va/yoki apparat vositalari tizimi.

Sun'iy neyron tarmoq

ing. - artificial neural network

rus. - искусственная нейронная сеть

Odam asab tizimi hujayralarining (neuronlarning) o'zaro ta'sirlashuv prinsiplari asosida qurilgan tarmoqni modellashtiruvchi dastur yoki apparatura. Apparat ko'rinishda sun'iy neyron tarmoq o'zida, har biri uncha katta bo'lmagan lokal xotiraga va boshqa protses-sorlar bilan kommunikatsion bog'lanishga ega bo'lgan oddiy protses-sorlar ko'pligini ifodalaydi. Kiruvchi bog'lanishlar orqali sonli ma'lumotlar, chiquvchi bog'lanishlar orqali esa, ularni qayta ishlash natijalari uzatiladi. Bunday tarmoqlardan obrazlarni, natqni aniqlashda, moliya sohasida vaziyatni prognozlashda va h.k. foydalaniladi.

Sun'iy til

ing. - artificial language

rus. - искусственный язык

Foydalanish uchun qoidalari qat'iy belgilangan til.

ing. - superframe

rus. - суперкадр

DVB-T tizimining 4 kadridan iborat chasto-ta-vaqt bo'yicha strukturasi.

Superkadr tarkibi jadvali

ing. - superframe composition table

rus. - таблица состава суперкадра

Interaktiv tarmoqda resursning superkadr va kadrlarga bo'linishini tasvirlaydi.

Superkompyuter

ing. - supercomputer

rus. - суперкомпьютер

Eng yuqori tezlikda ishlaydigan va katta hajmdagi xotiraga ega bo'lgan ko'p protsessorli kompyuter.

Superskalyar arxitektura

ing. - superscalar architecture

rus. - суперскалярная архитектура

Bir vaqtda bittadan ortiq oddiy (skalyar) mashina komandasini bajarish mumkinligi ko'zda tutilgan bir necha konveyerli protsessor arxitekturasi.

Supervideografik matritsa

ing. - super video graphics matrix

rus. - супервидеографическая матрица

Display ekranida 256 rangda 1280x1024 pikselni hamda 16 million rangda 1024x768 pikselni aks ettirishi mumkin bo'lgan videoadapter.

Supervizor

ing. - supervisor

rus. - супервизор

Operatsion tizimda resurslardan foydalanishni muvofiqlashtiradigan va markaziy protsessor orqali operatsiyalarning bajarilishini ta'minlaydigan dasturlar yoki dastur; operatsion tizimning, ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash tizimida boshqa dasturlarning bajarilishini boshqarish uchun mo'ljallangan qismi.

Suqulib kirish

ing. - penetration

rus. - проникновение

1. Ham tasodifiy, ham ataylab ruxsat etilmagan tarzda kira olish natijasida, tizim himoyasining yengib o'tilishi.

2. Region yoki butun mamlakat masshtabida muayyan turdagi (masalan, uyali) aloqa

xizmatlarining tarqatilishi (foizlarda hisoblanadi).

Suqulib kirish yo'li

ing. - penetration route

rus. - путь проникновения

Muhofazalangan tizimga suqulib kirish paytida, foydalanuvchi ruxsat etilmagan harakatlarining ketma-ketligi.

Suqulib kirishga sinash

ing. - penetration test

rus. - испытание на проникновение

Muhofaza qilish vositalarini tekshirish maqsadida tizimni sinab ko'rish (xususan, ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan).

Suqulib kirishga testlash

ing. - penetration testing

rus. - тестирование на проникновение

Kompyuter xavfsizligini chetlab o'tish usullarini izlab topish maqsadida, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi funksiyalarini tadqiq etish.

Suriluvchi vergul (nuqta)

ing. - floating point

rus. - плавающая запятая (точка)

Kompyuterda haqiqiy sonlarni taqdim etish va qayta ishlash tizimi.

Suriluvchi vergulli protsessor

ing. - floating-point processor

rus. - процессор с плавающей запятой

Suriluvchi vergulli sonlar bilan hisoblashlar bajaradigan soprotsessor.

Surish

ing. - shift

rus. - сдвиг

Ma'lumotlarni xotira maydonlarida (registorlarida) chapga yoki o'ngga ko'chirish.

Sust yo'naltirilgan antenna

ing. - weakly-directional antenna

rus. - слабонаправленная антенна

Nurlantirish xususiyatlari vaqtning istalgan onida barcha yo'nalishlar bo'yicha amaliy jihatdan bir xil bo'lgan antenna.

Sutka davomidagi yuklama

ing. - full-time traffic

rus. - круглосуточная нагрузка

Aloqa liniyasi yoki kanalning bir sutka davomidagi yig'indi yuklamasi.

Sutkadagi chaqiruvlar (soni)

ing. - calls per day

rus. - (число) вызовов в сутки

Bitta abonent uchun bir sutka davomida to'g'ri keladigan telefon yuklamasi jadalligini tavsiflovchi ko'rsatkich.

Suyuq kristalli display

ing. - liquid-crystal display

rus. - жидкокристаллический дисплей

Suyuq kristaldan iborat massivlar boshqarish signaliga bog'liq holda yorug'likni o'tkazadigan yoki ushlab qoladigan tasvir yoki matnli axborotni aks ettiruvchi qurilma.

Suyuq kristalli ekran

ing. - liquid-crystal display (LCD)

rus. - жидкокристаллический экран

Portativ shaxsiy kompyuterlarning yassi ekranlarida, soatlarda, kalkulyatorlarda va boshqa qurilmalarda qo'llaniladigan display turi. Suyuq kristallar o'zining molekulyar tuzulishini o'zgartirish orqali, elektr signalari yordamida ular orqali o'tuvchi yorug'lik oqimini boshqaradi.

Suyuq kristalli proyektor

ing. - liquid-crystal projector

rus. - жидкокристаллический проектор

Uchta suyuq kristalli panel va cho'g'lanma lamp ko'rinishidagi yorug'lik manbaidan tuzilgan proyektor.

Sug'urta muhri

ing. - insurance stamp

rus. - печать страховая

Qiymati e'lon qilingan xatlar va qiymati e'lon qilingan banderollar, posilkalar, sug'urta qoplari, brezent sumkalar, konteynerlar, shuningdek, qimmatbaho buyumlar saqlanadigan joylarni surg'uch bilan muhrash uchun mo'ljallangan maxsus muhr.

Sug'urta qopi

ing. - insurance bag

rus. - страховой мешок

Belgilangan talablarga muvofiq muhrlangan (plombalangan), ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari (qiymati e'lon qilingan jo'natmalar, mayda paketlar, odatdagi posilkalar) joylangan maxsus qop.

Sxemalarni qayta ulash

ing. - switching scheme

rus. - переключение схем

Tarmoq ulanishi usuli, bunda kommunikatsiyaning hamma vaqti uchun doimiy fizik ulanish o'rnatiladi.

So'ndirish darajasining uzilishi

ing. - discontinuity of blanking level

rus. - разрывность уровня гашения

So'ndirish va maydonlar davrining qolgan qismi davomida so'ndirish darajalari o'rtasidagi farq.

«So'nggi milya» dagi bog'lanish

ing. - last-mile connection

rus. - соединение на «последней миле»

Olisdagi abonentning, magistral aloqa liniyasiga ulanishini ta'minlaydigan bog'lanish.

So'nggi cheklovchi

ing. - end delimiter (ED)

rus. - конечный ограничитель

Token Ring tarmoq texnologiyasidagi markerning so'nggi maydoni. O'zida axborot ma'lumotlari bilan adashtirib bo'lmaydigan elektr impulslarining noyob seriyasini saqlaydi.

So'nish koeffitsiyenti

ing. - coefficient of attenuation

rus. - коэффициент затухания

1. Tarqalish koeffitsiyentining haqiqiy qismi.
2. So'nuvchi tebranishlar amplitudasining kamayishini tavsiflaydigan koeffitsiyent.

So'nuvchi maydon

ing. - evanescent field

rus. - затухающее поле

Amplitudasi ko'ndalang tarzda bir tekis pasayib boradigan to'lqin o'tkazgichning ochiq uchi yaqinidagi, fazaviy siljimgan nostansionar elektromagnit maydon.

So'ralmagan axborot

ing. - nonrequested information

rus. - незапрошенная информация

1. Elektron pochtdan foydalanib, pochta qutisi egasiga so'rovsiz yoki uning oldindan roziligisiz yuborilgan xabar ko'rinishidagi axborot.
2. Odatda, reklama xarakteridagi katta miqdordagi xabarlamning, ulami buyurtma qilmagan oluvchilarga yuborilishi.

ning bitta yoki bir nechta bog'langan manzila, ularni o'ta yuklash va boshqa foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatilishini rad etish maqsadida (hujum usuli sifatida) yuborilishi.

So'roqlash

ing. - polling

rus. - опрос

Umumiy aloqa liniyasiga ulangan olisdagi terminallardan, markazlashtirilgan tarzda ma'lumotlar to'plash usuli. So'rov izchil amalga oshiriladi, bu esa, qisqa vaqt ichida xizmat ko'rsatilishiga ehtiyoji bo'lgan barcha terminallarni aniqlash imkonini beradi.

So'rov

ing. - request

rus. - запрос

Elektron pochta orqali jo'natilgan, muayyan turdagi xizmatlar taqdim etilishi so'ralgan, muayyan standartga muvofiq rasmiylashtirilgan va IP-tarmoqlar ma'lumotlar bazasida axborot kiritilishi/o'zgartirilishi talab qilingan xabar.

So'rov bo'yicha video

ing. - video on demand

rus. - видео по запросу

TV eshittirishni, abonent buyurtma qilingan dasturini ko'rish uchun oladigan, tashkil qilish usuli.

So'rov rejasi

ing. - query plan

rus. - план запроса

Ma'lumotlar ustida, foydalanuvchining MB ga qiladigan muayyan so'rovini amalga oshirish uchun bajarilishi zarur bo'lgan harakatlar ketma-ketligi.

So'rov/javob

ing. - challenge/response

rus. - запрос/ответ

Autentifikatsiya usuli, unga ko'ra, bir tomon shifrlangan so'rov jo'natadi, ikkinchi tomon esa, aynan bitta autentifikatsiya algoritmi yordamida javob beradi.

So'rovlar kompilyatori

ing. - query compiler

запрос
Foydalanuvchining ma'lumotlar bazasiga so'rovini sintaksik va semantik tahlil qiladigan, so'rovni so'rov plani deb ataladigan ichki formatga ko'chiradigan, shuningdek, so'rov planini optimallashtiradigan dasturiy ta'minot.

So'z

ing. - word

rus. - слово

1. Berilgan alifboda simvollarning muayyan ma'noga ega bo'lgan tartiblashtirilgan to'plami.

2. Protseссораda ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatishda bir butun deb qaraladigan ma'lumotlar birligi. Odatda, bitlarda yoki ikkilik razryadlarda o'lchanadi. Qoidaga ko'ra, mashina so'zi deb ataladi.

So'z o'lchami

ing. - word size

rus. - размер слова

Protseссора arxitekturasini tavsiflaydi va bir vaqtda ma'lumotlar shinasini orqali uzatilishi yoki protseссора registrlarida saqlanishi va qayta ishlalishi mumkin bo'lgan razryadlar soni bilan belgilanadi. Odatda, bu 8, 16, 32 yoki 64 razryad.

So'zlashuv vaqti

ing. - talk time

rus. - время разговора

Portativ yoki olib yuriladigan terminal yordamida abonent batareyani qayta zaryadlamasdan aloqani ushlab tura oladigan vaqt. Batareyaning sig'imi, odatda, terminalning aktiv rejimda o'rtacha ishlash vaqti bilan tavsiflanadi.

So'zlashuvga avtomatik

tarzda buyurtma berish xizmati

ing. - automatic booked call service

rus. - услуга автоматического

заказа разговора

Abonentning oldindan berilgan buyurtmasi bo'yicha, unga telefon apparatidan ma'lum kun va soatda, muayyan telefon raqami yoki xizmati (uyg'otish xizmati bundan mustasno) bilan bog'lanish avtomatik tarzda taqdim etilishi mumkin bo'lgan xizmat.

T

Tabiiy til

ing. - natural language

rus. - естественный язык

1. Inson muloqoti, fikrlashi uchun xizmat qiladigan tovushlar, lug'at va grammatik vositalar tizimi.

2. Qoidalari aniq ifodalanmasada, zamonaviy so'z ishlatishga asoslangan til.

Tabiiy xalaqit

ing. - natural noise

rus. - естественная помеха

Manbai tabiatdagi fizik hodisalar bo'lgan elektromagnit xalaqit.

Tabulyatsiya

ing. - tabulation

rus. - табуляция

Axborotni jadval ko'rinishida taqdim etish.

Tadbirkor xonasi

ing. - cabinet of the businessman

rus. - кабинет предпринимателя

Yuridik shaxsning shaxsiy xonasi, tadbirkorlik faoliyati uchun xos bo'lgan yo'nalishlar, aynan yuridik shaxs rekvizitlari, kommunal xo'jalik, soliqqa tortish, statistik hisobot taqdim etish, avtotransport vositalarini ro'yxatga olish bo'yicha bloklarni o'zida ifodalaydi.

Tadqiqot olib borish

ing. - explore

rus. - исследовать

Biror-bir predmet ustida ilmiy ish olib borish. Yangi dastur yoki algoritmi yoki ularga bo'lgan ehtiyoj tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin.

Tafsilotlar

ing. - details

подробно

O'rnatish, disklarga yozish, nusxa ko'chirish va h.k. jarayonlar to'g'risidagi qo'shimcha axborotni olishda foydalaniladi.

Taftish

ing. - auditing

rus. - ревизия

Tarmoqdagi, tarmoqning muhofazalangan-

ligiga u yoki bu darajada ta'sir etishi mumkin bo'lgan barcha voqealarni kuzatib borish jarayoni, shuningdek, tranzaksiyalar qayta ishlanishi to'g'riligini tekshirish. Tekshiruv paytida fayllar va kataloglar yaratish va ularni yo'q qilishga, shuningdek, ularga murojaat qilishga urinishlar, ayniqsa, diqqat bilan o'rganiladi. Ushbu barcha voqealar to'g'risidagi yozuvlar mahsus muhofaza qilingan fayl-protokolda saqlanadi. Bu fayl-protokollar alohida vakolatlarga ega bo'lgan foydalanuvchilar tomonidagina ko'rib chiqilishi mumkin.

Taglik

ing. - baseplate

rus. - подложка

Planar texnologiya kirishiga taglik deb ataluvchi plastina kiritiladi. Taglik materiali - kristall tuzilmadan tortib atomlararo masofalargacha va kristallografik yo'nalganlik qat'iy nazorat qilinadi. Texnologik jaryon davomida taglikda turli xildagi o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan maydonlar hosil qilinadi, bu esa yarim o'tkazgich asbobining yoki integral mikrosxemaning tuzilmasini tashkil qiladi.

Tahdid

ing. - threat

rus. - угроза

1. Kompyuter xavfsizligi buzilishining potensial imkoniyati.
2. Ma'lumotlarni buzish, ochish yoki o'zgartirish va/yoki xizmat ko'rsatishni rad etish shaklida tizimga zarar yetkazish sababchisi hisoblanishi mumkin bo'lgan har qanday holat yoki voqea.
3. Tizim yoki tashkilotga zarar keltirishi mumkin bo'lgan nomaqbul insidentning potensial sababi.
4. Raqib oldida turgan konfidensiallik, yaxlitlik, kuzatib bo'lmasilikni buzish vazifasi (kriptografik protokolning turiga bog'liq holda istalgan kombinatsiyada).

Tahdidlar manbalari

ing. - threat source

rus. - источники угроз

Potensial antropogen, texnogen yoki tabiiy (stixiyali) xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarni tarqatuvchilar.

ing. - threat model

rus. - модель угроз

Axborot xavfsizligi tahdidlari xarakteristikalarini yoki xususiyatlarining fizik, matematik, tavsifiy taqdim etilishi.

Tahdidlarning tahlili

ing. - threat analysis

rus. - анализ угроз

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan harakatlar va hodisalarni tadqiq etish.

Tahlil

ing. - analysis

rus. - анализ

Haqiqiy yoki tasavvur qilinadigan obyekt tarkibiy qismlarga (elementlarga) ajratiladigan hamda bu elementlar va ular o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladigan tadqiqot usuli, turi.

Tablilchi

ing. - analyst

rus. - аналитик

Axborot texnologiyasi sohasidagi tahlilchi bevosita muammo mavzusidagi axborotni yig'adi, uni tizimlashtiradi va formalizatsiya qiladi. Bundan tashqari axborot oqimlari modelini, biznes jarayonlarning yuz berishini o'rganadi. Shular asosida biznes reja tuzadi.

Tahrir qilish

ing. - editing

rus. - редактирование

Biron-bir turdagi axborotga o'zgartirish kiritish. Maxsus dastur (redaktor)lar yordamida amalga oshiriladi.

Tahrir qilish rejimi

ing. - edit mode

rus. - режим редактирования

Dastur ishining maxsus rejimi bo'lib, unda matn, ma'lumotlar tasvir va sh.k. tahrir qilinishi amalga oshiriladi. Tahrir qilishni foydalanuvchi uchun yanada qulayroq qilish maqsadida joriy qilingan.

Tajribaviy ekspluatatsiya qilish

ing. - experienced operation

rus. - опытная эксплуатация

Televizor (yoki uning elementi) dan maxsus tashkil etilgan ekspluatatsiya qilish, u nor-

mal sharoitlarga maksimal yaqinlashtirilgan vaziyatlarda bajariladi, bunda televizor xossalari (yoki uning elementi) ning ekspluatatsion nazorat olib boriladi.

Taklif

ing. - prompt

rus. - подсказка (приглашение)

Matn interfeysiga ega tizimlarda - ekranda aks etgan qisqa so'z yoki belgi (masalan, « > »), foydalanuvchiga dastur komandani bajarishga tayyorligi to'g'risida xabar beradi.

Takomillashtirilgan

ing. - advanced

rus. - продвинутый, улучшенный

Oddiy qurilmaga nisbatan yaxshilangan qurilma yoki dasturiy ta'minot. Odatda advanced-versiya qo'shimcha narxga sotiladi.

Takomillashtirilgan, energiya iste'moli

va joylashishni boshqarish interfeysi

ing. - advanced configuration and

power Interface (ACPI)

rus. - усовершенствованный интерфейс

управления конфигурированием и энергопотреблением

Intel, Microsoft va Toshiba korporatsiyalari tomonidan 1996-yilda ishlab chiqilgan ochiq standart. Kompyuterlarning energiya-ga bo'lgan ehtiyojini tayanch kiritish-chiqarish tizimi tomonidan emas, balki operatsion tizim tomonidan to'liq boshqarilishini (alohida qurilmalarni yoqish va o'chirib qo'yish imkoniyati bo'lgan holda) amalga oshirish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan grafika adapteri

ing. - enhanced graphics adapter

rus. - усовершенствованный

графический адаптер

16 rangli grafika rejimini saqlab turuvchi videoadapter:

- 640 x 350 piksel;

- 640 x 200 piksel;

- 320 x 200 piksel.

Takomillashtirilgan

intellektual (magnit) tasma

ing. - advanced intelligent tape

rus. - усовершенствованная интеллектуальная (магнитная) лента

Tasmali to'plagichlar va magnit tasmadagi ommaviy xotira tizimlari uchun mo'ljallangan standart.

Takomillashtirilgan

mobil telefon aloqa xizmati

ing. - advanced mobile

phone service (AMPS)

rus. - усовершенствованная служба

мобильной телефонной связи

FDMA texnologiyasiga asoslangan mobil aloqa xizmati standartlaridan biri.

Takomillashtirilgan raqamli yozuv

ing. - advanced digital recording (ADR)

rus. - усовершенствованная

цифровая запись

Philips kompaniyasi tomonidan 90-yillarda

ishlab chiqilgan 8-mm li magnit tasmaga

yo'zish texnologiyasi. Kasseta sig'imi 15 dan

60 Gb gacha bo'ladi.

Takomillashtirilgan ta'minotni

boshqarish qurilmalari

ing. - advanced power management (APM)

rus. - усовершенствованные

средства управления питанием

Shaxsiy kompyuterlarda ta'minotni bosh-

qarish uchun mo'ljallangan Microsoft spet-

sifikatsiyasi va tizimi (Intel ishtirokida).

Klavishlarni bosish orasidagi vaqtda ener-

giya iste'molini kamaytiradi.

Takomillashtirilgan tayanch kiritish-

chiqarish tizimi

ing. - advanced basic input/output system

rus. - усовершенствованная базовая

система ввода-вывода

Mikrokompyuterlarga o'rnatilgan va

ko'p vazifali rejimni ta'minlash uchun

mo'ljallangan kiritish-chiqarish servis

dasturlari to'plami.

Takomillashtirilgan tovushli kodlash

ing. - advanced audio coding (AAC)

rus. - усовершенствованное

звуковое кодирование

Panasonic, Samsung kabi firmalar qo'llaydi-

gan tovushni kodlash (siqish) texnologiyasi.

Dolby Laboratories kompaniyasi AAC ni

Dolby Digital AC-3 ga muqobil sifatida qa-

ramoqda.

Takomillashtirilgan uzatish tezligi

o'zgaruvchan nutq kodeki

ing. - enhanced variable rate codec (EVR)

rus. - усовершенствованный кодек речи с

переменной скоростью передачи

Motorola kompaniyasi tomonidan ishlab

chiqilgan, o'zgaruvchan uzatish tezligiga

ega vokoder Uzatishning o'rtacha tezligi -

8,5 Kbit/s (IS-127).

Takomillashtirish

ing. - betterment

rus. - усовершенствование

Avvalgi mahsulotni takomillashtirish uchun

belgilangan qurilma va/yoki dasturiy mah-

sulot. Avvalgi versiyani to'ldiradi. O'rnatil-

gandan so'ng tizim yangi mahsulotning

funksional imkoniyatlarini oladi.

Takror uzatishni avtomatik so'rash

ing. - automatic request for repeat (ARQ)

rus. - автоматический запрос

повторной передачи

1. Xalaqitlardan himoyalashning mexanizmi,

bunda ma'lumotlarni uzatish bloklar bo'yi-

cha amalga oshiriladi. Qabul qilish tomoni-

da xatolarni nazorat qilish va axborotning

xato qabul qilingan qismini takroran uza-

tish to'g'risidagi so'rovni generatsiyalash

ta'minlanadi.

2. Ma'lumotlarni qayta uzatish mexanizmi

mavjud aloqa liniyalarida uzatgich va qabul

qilgich o'rtasida o'zaro ishlash signallari

bilan almashuv protsedurasini belgilaydigan

protokol.

Takror chaqiruv, chaqiruv-eslatish

ing. - recall

rus. - повторный вызов,

вызов-напоминание

1. Telefon liniyasining bandligida ko'p mar-

ta uzatiladigan chaqiruv.

2. Telefon xizmatining bir turi bo'lib, uni

amalga oshirishda abonentga aynan bitta

xabar bir necha marta jo'natiladi.

Takror(lash)

ing. - replay

rus. - повтор

Tarmoqqa qilinadigan hujumning oddiy turi,

bunda jinoyatkor xabarni tutib oladi va uni

o'zgartirmasdan, birmuncha kechroq takror-

laydi.

ing. - requery

rus. - запросить повторно

Tizimni aniq bir vazifani bajarishga yo'naltiruvchi qandaydir bir xabar, masalan, kiritish-chiqarish yoki tranzaksiyalarni qayta ishlash.

Takroriy tasvir

ing. - repeated scene

rus. - повторное изображение

Aks sado signallari keltirib chiqaradigan ikkita yoki undan ortiq (gorizontal yo'nalishda siljirilgan) tasvirning mavjudligi.

Takrorlanish

ing. - repetition

rus. - повторение

Algoritmni tuzishda foydalaniladigan uchta asosiy tuzilmadan biri; sharoitga bog'liq ravishda, algoritmnining ayrim qadamlarini bir necha marta bajarish imkonini beradi. Ba'zi manbalarda bu tuzilma sikl deb ataladi.

Takrorlanuvchi kodlar

ing. - repetition codes

rus. - коды с повторением

Xatolarni tuzatuvchi mukammal siklik blokli kodlar turkumi, unda kalit so'zlar xabaridagi so'zlarni r marta oddiy takrorlash bilan shakllanadi. Agar bu kodlarni (n, k) parametrlarga ega kodlar deb qaralsa, ularda istalgan k uchun $n = rk$ bo'ladi.

Takrorlash

ing. - redo

rus. - повторить

Matnli protsessorlardagi komanda, u hujjatni Undo operatsiyasidan oldingi holatga qaytaradi.

Taksofon

ing. - coin-box telephone

rus. - таксофон

Telefon bog'lanishlarni o'rnatish, foydalanuvchilarga so'zlashuvlar va qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan, foydalanuvchilar bilan tangalar yoki naqd pulsiz to'lov vositalari (maxsus jetonlar, to'lov kartalari) yordamida zudlik bilan hisob-kitob qilish qurilmasidan iborat, shuningdek, ko'rsatilgan telefon aloqa

to'lov tangalar, jetonlar, yordamida qabul qilinadigan so'zlashuv punktlarida o'rnatilgan oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasi.

Taksofon orqali ko'rsatiladigan telefon aloqa xizmati

ing. - pay-phone services

rus. - услуга телефонной связи с таксофона

Telefon bog'lanishlarni o'rnatish, foydalanuvchilarga so'zlashuvlar va qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan hamda tanga yoki naqd pulsiz to'lov vositalari (maxsus jetonlar, to'lov kartalari) yordamida foydalanuvchilar bilan darhol hisob-kitob qilish uchun mo'ljallangan texnik vositalarni o'z ichiga olgan taksofon - oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasidan taqdim etiladigan telefon aloqa xizmati.

Takt intervali

ing. - pulsing interval

rus. - тактовый интервал

Takt chastotasi davri.

Takt signali

ing. - pulsing signal

rus. - тактовый сигнал

Impulslar ketma-ketligi ko'rinishidagi, ayrim elementlar ishini sinxronlaydigan va raqamli qurilmaning ishlash ritmini belgilaydigan maxsus davriy signal.

Takt chastota generatori

ing. - clock speed generator

rus. - генератор тактовой частоты

Teng vaqt oraliklaridan so'ng impulslar ketma-ketligini ishlab chiqaradigan qurilma. Ikkita ketma-ket impuls o'rnatidagi vaqt takt deb ataladi. Protsessorning ba'zi komandalari bir nechta takt ichida chiqariladi. Kompyuterining barcha elementlari orqali o'tadigan impulslar ularni yagona taktida - sinxron ishlashga majbur qiladi. Takt impulslarning generatsiya chastotasi kompyuterining tez ishlashini belgilaydi.

Takt chastotasi

ing. - clock frequency

rus. - тактовая частота

Takt chastotasi generatori vaqt birligida bajaradigan tebranishlar soni. Kompyuter

diskret, qadamlar (taktlar) bo'yicha ishlaydi, shuning uchun barcha operatsiyalarning bajarilish tezligi, kompyuterning yagona ishlash ritmini belgilaydigan protsessorning takt chastotasiga bog'liq. Takt chastotasi gertsalarda o'lchanadi, takt chastotasi qancha katta bo'lsa, qayta ishlash tezligi shuncha yuqori bo'ladi.

Taktlanadigan halqa tarmog'i

ing. - slotted-ring network

rus. - кольцевая тактируемая сеть

Halqa tarmog'i. Bunda tarmoq ish vaqti bir bitli oraliqlarga bo'lish evaziga, ma'lumotlar uzatish amalga oshiriladi. Tarmoq halqa kanali, takrorlagichlar va foydalanish bloklaridan tashkil topgan. Foydalanish bloklariga ma'muriy tizim va abonent tizimlari ulanadi. Halqa kanalini ikki o'rma juft simlari tashkil qiladi. Ular bo'ylab ma'lumotlar, sinxronlovchi signallar, takrorlagichlarga ozuqa, ozuqani yoqish-o'chirish signallari uzatiladi.

Taktli impuls

ing. - clock pulse

rus. - тактовый импульс

Sinxronlash yoki vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish uchun foydalaniladigan davriy uzatiluvchi impuls.

Taktli impulslar davri; takt

ing. - clock cycle

rus. - период тактовых импульсов; такт
Uzluksiz keladigan ikkita impuls o'rtasidagi vaqt intervali.

Taktli impulslar generatori

ing. - clock pulse generator

rus. - генератор тактовых импульсов

Berilgan takrorlanish davri bilan impulslar ketma-ketligini generatsiyalovchi qurilma.

Taktli sinxronlash

ing. - bit synchronization

rus. - тактовая синхронизация

Qabul qilinadigan signal bilan taktli impulslar ketma-ketligi o'rtasida vaqt jihatidan aniq muvofiqlikni o'rnatish jarayoni.

Taktli chastotani tiklash

ing. - recovering of pulsing frequency

rus. - восстановление тактовой частоты

Qabul qilingan ma'lumotlar signalidan taktli chastota signalini ajratish.

Talab bo'yicha kanallarni ajratish yo'li

ing. - demand assigned multiple access

rus. - многосторонний доступ с

выделением каналов по требованию

Yo'ldoshli radioaloqada ishlatiladigan standart. Markaziy stansiya seansda ishtirok etayotgan barcha terminallar va yo'ldoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun mavjud puldan kanallarni so'rovga muvofiq ajratib beradi.

Talab etilgan

ing. - required

rus. - требуемый

Amalning (harakatning) bajarilishi uchun talab etiladigan (zarur bo'lgan) shart yoki parametr.

Talabga ko'ra o'tkazish qobiliyati

ing. - bandwidth on demand

rus. - пропускная способность

по требованию

Global tarmoqlar funksiyasi, foydalanuvchiga, uning tomonidan foydalaniladigan ilova talablariga muvofiq, qo'shimcha o'tkazish qobiliyatini taqdim etish imkonligida ifodalanadi. Bu funksiya tufayli, foydalanuvchilar faqat o'zlari foydalanadigan o'tkazish qobiliyati uchun haq to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Talabga ko'ra sahifali tashkil qilish

ing. - paging on demand

rus. - страничная организация по

требованию

Virtual xotiraning sahifali tashkil qilishga asoslangan tashkil qilish usuli, bunda har bir sahifa, faqat, agar u dasturni bajarish vaqtida aniq talab etilsa, xotiraga yuklanadi va murojaat qilingan kod yoki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Talabga ko'ra segment tashkil qilish

ing. - segmentation on demand

rus. - сегментная организация по

требованию

Segment tashkil qilishga asoslangan virtual xotira tashkil qilish usuli, bunda faqat agar murojaat qilingan kod yoki ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dasturni bajarish vaqtida haqiqatdan talab qilinsa, har bir segment xotiraga yuklanadi.

ing. - video mail at the request

rus. - видеопочта по требованию

Abonent qayd etilgan vaqt intervali (15 yoki 30 minut) davomida buyurtma qilingan dasturni oladigan «talabga ko'ra video» ning bir ko'rinishi.

Talqin qiluvchi dastur

ing. - interpreter program

rus. - интерпретирующая программа

Dasturni dasturlash tilida, uni darhol bajarilmasdan mashina tilidagi dasturga o'giradigan kompilyatordan farqli ravishda, dasturlash tilida yozilgan komandalarni darhol bajaradigan va rasshifrovka qiladigan dastur.

Tanaffus bilan uzatish

ing. - discontinuous

transmission mode (DTX)

rus. - передача с перерывом

Energiya tejaydigan funksiya. Bunday funksiya mavjudligida, so'zlashuvdagi pauzalar vaqtda telefon uzatishga ishlamaydi, bu bilan batareyaning energiya sarfi kamayadi. Bu funksiya ishga tushganda tovush sifati yomonlashadi.

Tanho egalik

ing. - monopoly

rus. - монополия

Biror narsaga alohida huquq. Informatikada foydalanuvchi tanho ravishda abonent tizimidan foydalanishi mumkin, abonent tizimi esa tanho ravishda kanalni egallashi mumkin, masalan, kanallarni kommutatsiyasida.

Tanib farqlash

ing. - identification

rus. - опознание

Qabul qilish jarayonining, buyum umumiy belgilarini ajratishning keyinchalik signalning to'liq qaytishi bilan almashinadigan dastlabki bosqichini o'z ichiga oladigan, markaziy zvenosi.

Tanishtiruvchi fayl

ing. - readme file

rus. - ознакомительный файл

Dasturlar uchun mualliflar tomonidan yoziladigan readme fayli. Bu faylda biror dasturni qanday o'rnatish va u bilan qanday ishlash to'g'risida bilib olish mumkin.

hisob-kitob xizmati

ing. - selective accounting service

rus. - услуга выборочного расчета

Alohida telefon hisoblarining ayrim soni ulanish uskunasi bo'yicha telefon stansiyasida guruhlanadigan, hisob raqami esa, ushbu so'zlashuv uchun to'lov yozilishi kerak bo'lgan debetga chaqiruvlarni o'rnatishda aniqlanadigan xizmat.

Tanlab-tanlab olish

ing. - selection

rus. - выборка

Saralash maqsadida, ma'lumotlarni qandaydir belgilariga ko'ra bir joydan boshqa bir joyga ko'chirish yoki ulardan nusxa olish, natijalovchi hujjatlarni tuzish jarayoni.

Tanlanadigan

ing. - custom

rus. - выборочный

Tanlash elementlaridan biri. Oldindan aniqlangan moslamalar to'plamlaridan farqli ravishda, foydalanuvchi o'z moslamasi parametrlarini tanlashi va o'rnatishi mumkin.

Tanlangan

ing. - favourite

rus. - избранный

Ko'p ishlatadigan operatsiyalar yoki ulanishlar. Brauzerlarda tanlangan operatsiyalarning ro'yxatini ulardan tezroq foydalana olishni ta'minlash va ulanishni yengillatirish uchun avtomatik ravishda tuzish imkoniyati mavjud.

Tanlash

ing. - select

rus. - выбрать

Keyinchalik ular ustida amal bajaradigan menyu punktlari, grafik obyekt qismi yoki matn qismini tanlash.

Tanlash operatori

ing. - case statement

rus. - оператор выбора

Dasturlash tillarida ko'rsatilgan ifodaning qiymatiga bog'liq ravishda bir necha amaldan bittasini tanlash imkonini beradigan boshqaruv konstruksiyasi.

Tanlash sikli

ing. - fetch cycle

rus. - цикл выборки

Protssorning mashina komandasini qayta

ishlashidagi birinchi bosqich. Komandani kesh-xotira yoki tezkor xotira qurilmasidan komandalar registriga olish va uni dekodlashga tayyorlashdan iborat.

Tanlovchanlik

ing. - selectivity

rus. - избирательность

1. Berilgan chastota kuchlanishining televizor kirishidagi tasvir eltuvchi chastotasi kuchlanishiga, uning chiqishidagi kuchlanish doimiy bo'lgandagi, nisbati.

2. Qabul qilgichning spektral tashkil etuvchilarini chastotalar shkalasi bo'yicha, turli taqsimlashlardan foydalangan holda, foydali signalni xalaqit qiluvchi signaldan ajrata olish qobiliyati.

Taqiqlangan komanda

ing. - illegal instruction

rus. - запрещенная команда

Kodi berilgan protsessorning komandalar kodi ro'yxatida bo'lmagan yoki uning berilgan ishlash rejimida bajarilmaydigan komanda.

Taqiqlangan xabar

ing. - forbidden message

rus. - запрещенное сообщение

Darhol uzatib bo'lmaydigan xabar. Uzatilishiga taqiq bekor qilingan zahoti xabar uzatiladi.

«Taqiqlovchi (nazorat qiluvchi) kalit»

ing. - parental key

rus. - «родительский ключ»

Kanallar va dasturiy funksiyalarni parol yordamida yopish imkoniyati.

Taqqoslash

ing. - associate

rus. - сопоставить

Bir qiymatni boshqasiga akslantirish jarayoni. Virtual xotirali tizimlarda kompyuter virtual xotira manzilini fizik xotira manziliga taqqoslaydi.

Taqsimlagich

ing. - coupler

rus. - распределитель

Optik quvvatni taqsimlashda foydalaniladigan ko'p portli qurilma.

Taqsimlanadigan xotira

ing. - shared memory

rus. - разделяемая память

1. Ko'p vazifali rejimda bir nechta dastur foydalana olishi mumkin bo'lgan xotira.

2. Ko'p protsessorli parallel tizimlarning bir nechta dasturida birgalikda foydalaniladigan xotiraning bir qismi.

Taqsimlangan, ajratiladigan

xotirali arxitektura

ing. - non-uniform memory architecture

rus. - архитектура с распределенной разделяемой памятью

Ko'p protsessorli tizim xotirasining arxitekturasi. Bunda xotiradan erkin foydalanish vaqti uning joylashishiga bog'liq bo'ladi. Buning uchun, protsessorlar, har biri o'zining umumiy tezkor xotira qurilmasi puliga ega bo'lgan kichik guruhlariga birlashtiriladi.

Taqsimlangan fayl tizimi

ing. - distributed file system

rus. - распределенная файловая система

Fizik jihatdan kompyuter tarmog'ining turli qismlarida joylashgan fayllardan foydalanishni soddalashtirish imkonini beradigan tizim.

Taqsimlangan hisoblashlar

ing. - distributed computing

rus. - распределенные вычисления

Unumdorlikni oshirish maqsadida, bajarilishi hisoblash kompyuter tizimining turli uzellari bo'ylab taqsimlanadigan hisoblashlar.

Taqsimlangan hisoblashlar muhiti

ing. - distributed computing environment

rus. - среда распределенных вычислений

Taqsimlangan dasturlarning birgalikda ishlashini tashkillashtirish texnologiyasi. Bu muhit tarkibiga taqsimlangan fayllarga xizmat ko'rsatish, nomlar berish, vaqtni nazorat qilish, protseduralarni olisdan chaqirish, oqimlarga xizmat ko'rsatish, xavfsizlikni ta'minlash funksiyalari kiradi.

Taqsimlangan ilova

ing. - distributed application

rus. - распределенное приложение

Komponentlari, ma'lumotlarni tarmoq orqali almashgan holda, turli kompyuterlarda va platformalarda bajariladigan ilova.

Taqsimlangan kommunikatsiyalar

ing. - peer-to-peer communications

rus. - распределенные коммуникации

Tarmoqda kommunikatsiyani tashkil qilish turi. Bunda kommunikatsion jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar, aloqa seansini (sessiyasini) boshlab berishda, qo'llab-quvvatlashda, yakunlashda teng huquqlarga egadirlar. U xost (bosh uzal, server) qanday jarayonlar (kompyuterlar) aloqa seansini boshlab berishini belgilaydigan katta-bo'y sunuvchi (master-slave communications) shajarasidan keskin farq qiladi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasi

ing. - distributed database

rus. - распределенная база данных

Ikki yoki undan ortiq kompyuterda joylashtiriladigan, foydalanuvchi tomonidan yaxlit, bir butun ma'lumotlar bazasi sifatida tushuniladigan ma'lumotlar bazasi.

Taqsimlangan ma'lumotlar banki

ing. - distributed data bank

rus. - распределенный банк данных

Hududiy tarqoq ma'lumotlar banklari tizimi. Hisoblash texnikasi vositalari bilan birlashgan va yagona boshqaruv ostida faoliyat ko'rsatadi.

Taqsimlangan parametrlarga ega

liniyadagi susayish koeffitsiyenti

ing. - attenuation factor in line with the distributed parameters

rus. - коэффициент ослабления в

линии с распределенными параметрами
Taqsimlangan parametrlar liniyasida (muhitida) yuguruvchi to'lqin elektromagnit maydoni kuchlanganligi amplitudasining, to'lqinning uzunlik birligiga siljishida, pasayishi bilan tavsiflanadigan kattalik.

Taqsimlangan qayta ishlash

ing. - distributed processing

rus. - распределенная обработка

Ma'lumotlarni qayta ishlash uchun, hisoblash tarmoqlariga ulangan katta miqdordagi kompyuterlarning qo'llanilishi; ikki yoki undan ko'p kompyuterni, yagona dastur boshqaruvi ostida shart emas, aynan bir topshiriq ustida birgalikda ishlaydigan qilib ulash. Barcha qayta ishlash bitta katta kompyuterda bajariladigan markazlashtirilgan qayta ishlashdan farqli ravishda, taqsimlangan qayta ishlashda topshiriq

bitta tarmoqqa birlashtirilgan ko'plab meyn-freymlar, mini-kompyuterlar, shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ishchi stansiyalar o'rtasida bo'linadi.

Taqsimlangan sun'iy intellekt

ing. - distributed artificial intelligence (DAI)

rus. - распределенный

искусственный интеллект

Taqsimlangan apparat va/yoki dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladigan sun'iy intellekt tizimi.

Taqsimlangan tarmoq

ing. - distributed network

rus. - распределенная сеть

Boshqarish barcha serverlar o'rtasida taqsimlangan, resurslar (apparat, dasturiy resurslar, ma'lumotlar) va foydalanuvchilar alohida serverlarga birlashtirilmagan, balki butun tarmoqqa tegishli bo'lgan kompyuter tarmog'i.

Taqsimlangan tizim obyektlari modeli

ing. - distributed system

object model (DSOM)

rus. - модель распределенных системных объектов

IBM firmasining OS/2 uchun maxsus yaratilgan texnologiyasi.

Taqsimlangan tizimlar

ing. - distributed systems

rus. - распределенные системы

Simli yoki simsiz tarmoqqa birlashtirilgan bir nechta kompyuterdan iborat tizim.

Taqsimlangan xesh-jadval

ing. - distributed hash table (DHT)

rus. - распределенная хэш-таблица

Xesh-funksiyalarni bajarishga asoslangan IP-tarmog'i ko'plab uzellari o'rtasidagi tez-kor o'zaro ishlash usuli.

Taqsimlash

ing. - share

rus. - делить

Lokal tarmoqda resurslarni taqsimlashga yo'naltirilgan harakat. Masalan, tarmoqdagi printerni (skanemi va sh.k.) o'rnatish.

Taqsimlash liniyasi

ing. - distribution link, distribution circuit

rus. - распределительная линия

Dastur signallarini dastur ishlab chiqish markazidan uzatgichga yoki kabel taqsimlash tizimi bosh stansiyasiga uzatish uchun mo'ljallangan liniya.

Taqsimlash paneli

ing. - distribution frame

rus. - распределительная панель

1. Kabel juftlarini ulash uchun foydalaniladigan, protektorlari yoki terminal bloklari (yoki har ikkalasi) bo'lgan, devorga yoki polga o'rnatiladigan vertikal metall rama.
2. Kabel segmentlarini o'zaro ulash yoki kross-ulash oson bajariladigan tarzda ulash uchun mo'ljallangan qurilma.

Taqsimlash punkti

ing. - distribution point

rus. - распределительный пункт

Signallar, uni submagistral liniyaga yoki uy taqsimlash tarmog'i liniyalari taqsimlash uchun, magistral liniyadan yoki submagistral liniyadan olinadigan nuqta.

Taqsimlash signali

ing. - order signal

rus. - распорядительный сигнал

Studiya yoki eshittirish dasturining boshqa manbaiga dasturining normal borishiga aralashish uchun yuboriladigan oldindan tanlangan signal.

Taqsimlash xizmati

ing. - distribution service

rus. - услуга распределения

Tarmoqdan berilgan punktdan boshqa (bir nechta) punktlar tomonga bir yo'nalisli axborot oqimi bilan tavsiflanuvchi xizmat.

Izoh - Taqsimlash xizmati ikki sinfga: axborotni individual boshqaruvsiz taqdim etish va axborotni individual boshqaruvli taqdim etishga bo'linadi.

Taqsimlash zanjiri

ing. - allocation chain

rus. - цепочка распределения

Fayl egallagan klasterlar ro'yxati.

Taqsimlash shkafigacha

o'tkazilgan optik tola

ing. - fiber-to-the-curb (FTTC)

rus. - оптическое волокно до

распределительного шкафа

Tarmoq qurish konsepsiyasi. Unga ko'ra, ATS magistral optik-tolali aloqa liniyasi yordamida konsentratör bilan bog'lanadi. Konsentratörda optik signal, optik signallar

o'ralgan juft orqali uzatiladigan, elektr signallarga aylantiriladigan, abonentda joylashgan, oxirgi optik o'zgartirgichlari bo'lgan optik-tolali kanallar bo'yicha taqsimlanadi.

Taqsimlovchi fiderli liniya

ing. - feeder

rus. - распределительная фидерная линия

Abonent liniyalari yoki uy tarmoqlari ta'minoti uchun mo'ljallangan liniya.

Taqvim bo'yicha vaqt birligi

ing. - calendar unit

rus. - единица времени по календарю

Loyihani rejalashtirishda foydalaniladigan eng kichik vaqt birligi.

Tarifkatsiya o'lchov birligi

ing. - tariffing unit

rus. - единица тарификации

Telefonda so'zlashish (ulanish) davomati uchun to'lanadigan birlik. U telekommunikatsiya operatori tomonidan tanlangan (to'la daqiqalar yoki davriy impulslar bo'yicha hisob) tarifkatsiya tizimiga bog'liq.

Tariflash

ing. - tariffing

rus. - тарификация

To'lov asosida xizmat ko'rsatish va shu xizmatlar uchun to'lov narxlarini taqsimlash.

Tarix paneli

ing. - history

rus. - панель истории

Brauzerlarda - foydalanuvchi kirgan veb-sahifalar xronologiyasini ichiga oladigan panel.

Tarkib

ing. - content

rus. - содержание

Web-resurslarni tashkil qiluvchi matn-tasviri va boshqa axborotlar.

Tarkibiy hujjat

ing. - compound document

rus. - составной документ

Elektron hujjatning bir turi, o'z ichiga ma'lumotlarning har xil turlariga ega elementlarni, masalan, matndan tashqari, jadvallarni, grafik materiallarni, foto, boshqa ilovalar (masalan, ma'lumotlar bazasi, elektron jadval) ma'lumotlarini olishi mumkin.

Tarkibiy ishonch paketi

rus. - составной пакет доверия
Xavfsizlikning ishonch talablari bo'lgan, (asosan, ASO klassi talablari) va ishonch shkalasida joylashgan ishonch paketi.

Tarkibiy shifr

ing. - product cipher

rus. - составной шифр

Ma'lumotlarni shifrlash va rasshifrovka qilishda ma'lum bir ketma-ketlikda foydalaniladigan bir nechta oddiyroq bo'lgan shifrdan tuzilgan shifr.

Tarmoq

ing. - network

rus. - сеть

Texnik vositalar, ma'lumotlar, dasturlar tashkil qilish tuzilmasi. Graflar yordamida tavsiflanadi va tadqiq qilinadi. Qurilmalar o'rtasidagi ulanishlar bo'lib, foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash, ular bilan almashinish, ularga murojaat qilish imkonini yaratadi. Tarmoqqa asosan mikrokompyuterlar, minikompyuterlar, meyn-freymlar, terminallar, printerlar, fakslar, peyjerlar va turli ma'lumot saqlaydigan qurilmalar ulanadi.

Tarmoq adapteri

ing. - network adapter

rus. - сетевой адаптер

Kompyuterlarni lokal hisoblash tarmog'i bilan bog'lash uchun mo'ljallangan, kengaytirish platasi ko'rinishidagi uskuna.

Tarmoq administratori

ing. - network administrator

rus. - администратор сети

Kompyuter tarmog'ining ishlay olishi uchun, ishchi stansiyalar qo'shilishi, foydalanuvchilarni mualliflashtirish, fayllarni arxivlash va tiklash protseduralari hamda ko'plab boshqa funksiyalar uchun javob beradigan shaxs.

Tarmoq analizatori

ing. - network analyzer

rus. - сетевой анализатор

1. Signallarning asosiy xarakteristikalarini o'lchash, aloqa kanallari sifatini baholash (xato kadrlar protsenti va sh.k. ko'rinishida), tarmoq monitoringi funksiyasini amalga oshirish va trafikning statistik tahlilini o'tka-

beradigan, keng maqsadlardagi diagnostika vositasi.

2. Tarmoq trafiginı «eshitishni» va trafikdan avtomatik ravishda foydalanuvchilar nomlarining, parollar, kredit kartochkalar nomlarining, va boshqa shunga o'xshash axborotning ajratib olinishini amalga oshiradigan dasturlar.

Tarmoq arxitekturasi

ing. - network architecture

rus. - сетевая архитектура

1. Tarmoqning o'tkazish qobiliyatini va boshqa xarakteristikalarini belgilovchi tarmoq elementlari (uzellari, marshrutizatorlari, kommutatorlari va b.lar), ma'lumotlarni almashish protseduralari va protokollari, xabarlar formatlari, tarmoq ichi va tarmoqlararo interfeyslar, tarmoqni boshqarish prinsiplari majmui.

2. Mantiqiy tuzilma va hisoblash tarmog'ining ishlash prinsiplari.

Izoh - Hisoblash tarmog'ining ishlash prinsiplari o'z ichiga xizmatlar, funksiyalar, protokollarga taalluqli prinsiplarni oladi.

Tarmoq boshqaruv tizimi

ing. - network operating system

rus. - система сетевого управления

Tarmoqni boshqarish va nazorat qilishning apparat va dasturiy vositalari majmui, tarmoqni boshqaradigan kompyuterda joylashtirilgan dasturdan; tarmoq abonentlarining kompyuterlarida joylashtirilgan apparat va dasturiy agentlardan iborat. Tarmoqlarni boshqarishning umumqabul qilingan protokoli - SNMP (Simple Network Management Protokol) - oddiy tarmoqni boshqarish protokoli mavjud, bu protokol hatto turli xil abonentlar bo'lgan tarmoqni ham boshqarish imkonini beradi. Tarmoqni boshqarishning asosiy funksiyalari: tarmoqni skanlash va SNMP protokoli bo'lgan qurilmalar mavjudligini aniqlash; tarmoq holatini aniqlash, portlar darajasida abonentlarni masofadan diagnostika qilish, parol bo'yicha foydalanishga cheklashlar belgilash, 7/01 tarmoq jurnalini yuritish va boshqalar, ya'ni tarmoq administratorini ma'lumotlarni boshqarish uchun barcha zarur narsalar bilan ta'minlash.

Tarmoq brandmaueri

ing. - firewall gateway

rus. - сетевой брандмауэр

Ikki yoki bir nechta tarmoq o'rtasida himoya

to'sig'i (tarmoqlararo ekran)ni vujudga keltiruvchi apparat-dasturiy kompleks. Muhofaza qilinadigan tarmoqqa tashqaridan ruxsatsiz kira olishni bartaraf etish hamda kirayotgan va chiqayotgan ma'lumotlarni nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Brandmauer muhofaza qilinadigan tarmoq chegarasida o'rnatiladi, uning mavjudligi tarmoq uzellari uchun sezilmisligi kerak.

Tarmoq dasturiy ta'minoti

ing. - network

rus. - сетевое программное обеспечение
Kompyuterlarning hisoblash tarmog'ida ishlashini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot.

Tarmoq fayl tizimi

ing. - network file system (NFS)

rus. - сетевая файловая система

UDP transport protokoliga asoslangan, fayl tizimidan erkin foydalana olish uchun mo'ljallangan protokollar to'plami. NFS UNIX, PC (Windows asosida) va Macintosh mashinalarida (ya'ni, turli operatsion tizimlarda) ishlaydigan kompyuterlarda) alohida kompyuterda fayllarning ko'p sonli nusxalarini saqlamasdan, ulardan mahalliy tarmoqda birgalikda foydalanish imkonini beradi.

Tarmoq foydalanuvchisi identifikatori

ing. - network user identifier

rus. - идентификатор пользователя сети
Paketlarni kommutatsiyalash xizmati tomonidan foydalanuvchini identifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan noyob kod.

Tarmoq grid-hisoblashlari

ing. - grid computing

rus. - сетевые grid-вычисления

Atama global, regional va muassasa kompyuter tarmoqlari arxitekturasiga tegishli, berilgan onda bo'sh tarmoq resurslaridan alohida olingan kompyuter uchun juda murakkab bo'lgan vazifalarni hal etishda foydalanilishini ko'zda tutadi va maxsus dasturiy ta'minotni talab qiladi.

(Tarmoq) hujumlarini aniqlash tizimi

ing. - intrusion detection system

rus. - система обнаружения

(сетевых) атак

Kompyuter tizimlariga qilinadigan hujumlarni aniqlashda ishlatiladigan turli apparat va dasturiy vositalar (ba'zi hollarda dasturiy ta'minot turkumi sifatida qaraladi).

Tarmoq identifikatori

ing. - network ID

rus. - сетевой идентификатор

Bitta lokal tarmoqda joylashgan kompyuterlar va qurilmalar guruhini identifikatsiya qiladigan IP-manzilning bir qismi.

(Tarmoq) kataloglaridan erkin foydalanish osonlashtirilgan protokol

ing. - lightweight directory access protocol (LDAP)

rus. - облегченный протокол

доступа к (сетевым) каталогам

University of Washington tomonidan ishlab chiqilgan, Netscape va yana 40 ta firma tomonidan qo'llab-quvvatlangan, Internet orqali aloqa o'rnatmagan holda uning kataloglarga murojaat qilish uchun mo'ljallangan sanoat standarti. X.5 standartlariga kiruvchi DAP protokoliga yo'naltirilgan soddalashtirilgan versiyaga ega.

Tarmoq kompyuteri

ing. - network computer

rus. - сетевой компьютер

Terminal sifatida global yoki korporativ tarmoqlarda ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter. An'anaviy shaxsiy kompyuterlardan tarmoqqa ulash uchun mo'ljallangan o'rnatiladigan vositalar va qattiq diskning bo'imsligi bilan farqlanadi. Tarmoq kompyuterini IBM, Apple, Sun kabi mashhur firmalar kiradigan konsorsium ishlab chiqadi. Tarmoq kompyuterlari asosan uyda qo'llash uchun yaratiladi, Internet tarmog'iga standartlariga asoslanadi.

Tarmoq magistrali

ing. - back bone (backbone network)

rus. - магистраль сети

Global tarmoqning tarmoq segmentlarini yagona tizimga birlashtiradigan yuqori tezlikli liniya yoki kommunikatsiya tizimining bir nechta liniyasi.

Tarmoq magistrali bilan ulash porti

ing. - backbone port

rus. - порт соединения с

сетевой магистралью

Kompyuterlarni kommunikatsiya tarmog'iga liniyalariga ulash uchun mo'ljallangan qurilma.

Tarmoq manzili

ing. - network address

rus. - сетевой адрес

Jo'natuvchi/oluvchi manzilining standart atributi.

Tarmoq ma'lumotlar bazasi

ing. - network data base

rus. - сетевая база данных

Elementlari o'zaro ixtiyoriy ravishda bog'langan ma'lumotlar bazasi. Nazariy jihatdan har bir element bazaning istalgan boshqa bir elementi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Graf yordamida tavsiflanadi.

Tarmoq niqobi

ing. - netmask

rus. - маска сети

Internet-manzilning tarmoqqa, kichik tarmoqqa va yetakli uzulga taalluqli qismlarga ajralishini aniqlaydigan 32-bitli shablon.

Tarmoq operatori

ing. - network operator

rus. - оператор сети

Tarmoqning ekspluatatsiya qilinishini amalga oshiruvchi va uning ishga layoqatli holatini saqlab turuvchi kompaniya. Tarmoq operatori bir vaqtning o'zida xizmatlar ta'minotchisi ham bo'lishi mumkin.

Tarmoq operatsion tizimi

ing. - network operating system

rus. - сетевая операционная система

Tarmoqning ishini ta'minlaydigan operatsion tizim. Asosiy funksiyalari: xabarlar uzatilishini boshqarish, ma'lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash, kataloglarni boshqarish, elektron pochta. Lokal tarmoqlarda Novell firmasining NetWare tarmoq operatsion tizimidan keng foydalaniladi.

Tarmoq printeri

ing. - network printer

rus. - сетевой принтер

Lokal hisoblash tarmog'ida ko'plab foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan, bitta yoki bir nechta tarmoq interfeysiga ega, yuqori tezlikda ishlaydigan printer.

Tarmoq protokoli

ing. - network protocol

rus. - сетевой протокол

Aloqaning o'ziga xos turiga qaratilgan qoidalar to'plami. Turli protokollar ko'p hollarda bir turdagi aloqaning turli taraflarini tavsiflaydi; birgalikda ular protokollar stekini hosil qiladi. «Protokol» va «protokollar steki» nomlari protokol yaratiluvchi dasturiy ta'minotni xam ko'rsatadi. Internetga yangi protokollar IETF, boshqa protokollar esa - IEEE yoki ISO tomonidan belgilanadi. ITU-T telekommunikatsiya protokollari va formatlari bilan shug'ullanadi. OSI modeli tarmoq protokollarini tasniflash tizimining eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi.

dalar to'plami. Turli protokollar ko'p hollarda bir turdagi aloqaning turli taraflarini tavsiflaydi; birgalikda ular protokollar stekini hosil qiladi. «Protokol» va «protokollar steki» nomlari protokol yaratiluvchi dasturiy ta'minotni xam ko'rsatadi. Internetga yangi protokollar IETF, boshqa protokollar esa - IEEE yoki ISO tomonidan belgilanadi. ITU-T telekommunikatsiya protokollari va formatlari bilan shug'ullanadi. OSI modeli tarmoq protokollarini tasniflash tizimining eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi.

Tarmoq provayderi

ing. - network provider

rus. - провайдер сети

Abonentlik punkti va bevosita tarmoq abonentlariga tarmoq xizmatlarini ko'rsatuvchi vakolatli tashkilot.

Tarmoq qismiga kira olish protokoli

ing. - subnetwork access protocol (SNAP)

rus. - протокол доступа к подсети

Tarmoqlarda IEEE 802.2, LLC va boshqa protokollardan foydalanib, multipleksorlashni ta'minlaydigan mexanizm bo'lib, u 8 bitli maydonlarga ajratilishi mumkin.

Tarmoq resurslari

ing. - network resources

rus. - ресурсы сети

Tarmoq abonentlari foydalanishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazalari, dasturlar, alohida qurilmalar (masalan, printer, diskli to'plagichlar).

Tarmoq samaradorligi

ing. - network performance

rus. - производительность сети

Tarmoqning ma'lumotlar uzatish tezligini, ishonchligini va b.q.larni ko'rsatadigan xarakteristikalar majmui.

Tarmoq sathi

ing. - network layer (NWL)

rus. - сетевой уровень

Axborot oqimlarini manzillash va marshrutlashni ta'minlaydigan OSI tarmoq modelining uchinchi sathi. Tarmoq sathida tarmoq xizmatlari tomonidan protokollarni tanish, paketlarni identifikatsiyalash, shuningdek, mobillikni boshqarish bilan bog'liq funksiyalar amalga oshiriladi.

Tarmoq segmenti

ing. - segment of network

rus. - сегмент сети

Bitta marshrutlovchi qurilma (kommutator, marshrutizator) ga ulangan va bitta fizik protokol bo'yicha ishlaydigan tarmoq uzellari.

Tarmoq serveriga kira olish nuqtasi

ing. - network service access point

rus. - точка доступа к сетевому серверу

Tarmoq xizmatidan transport qatlamida erkin foydalanish mumkin bo'ladigan nuqta; NSAP OSI ning tarmoq manzillari orqali ishlaydi.

Tarmoq serverlari

ing. - networked servers

rus. - сетевые серверы

Oddiy abonent tizimi kabi ishlash imkoniyatiga ega umumiy foydalanishning tarmoq resurslarini taqsimlashni boshqarish funksiyasini bajaradigan apparat-dasturiy tizim.

Tarmoq skaneri

ing. - network scanner

rus. - сетевой сканер

Hujumlardan potensial yaxshi muhofazalanmagan dasturlar va kompyuterlarni topish maqsadida, tarmoq to'g'risida axborot to'plovchi dastur.

Tarmoq tahdidlariga qarshi harakat

ing. - network threat counteraction

rus. - противодействие сетевым угрозам

Tarmoq infratuzilmasini jinoyatkorlarning hujumlaridan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan xavfsizlik choralarini kompleksini.

Tarmoq tayanch kiritish-chiqarish tizimi interfeysi

ing. - network basic input/output

system interface

rus. - интерфейс сетевой

базовой системы ввода/вывода

IBM PC va mos keladigan tizimlar uchun taklif qilingan standart tarmoq interfeysi - olisdagi kompyuterning kiritish/chiqarish bo'yicha so'rovlarini yuborish va qabul qilish imkonini beradigan dasturlash interfeysi. Tarmoqning texnik qismini dasturlardan yashiradi.

Tarmoq tizimining arxitekturasi

ing. - systems network architecture

rus. - архитектура сетевых систем

Korporativ tizimlar uchun mo'ljallangan kompyuter tarmog'i arxitekturasi.

Tarmoq trakti

ing. - network link

rus. - сетевой тракт

Kirishi va chiqishida traktning shakllantirish apparaturasi ulangan namunaviy guruhli trakt yoki bir nechta ketma-ket bog'langan namunaviy guruhli traktlar.

Tarmoq ustidagi aloqa tarmog'i

ing. - overlay telecommunication network

rus. - наложенная сеть связи

Mavjud tarmoqqa parallel ravishda quriladigan tarmoq tuzilmasi.

Tarmoq uzeling interfeysi

ing. - network node interface (NNI)

rus. - интерфейс сетевого узла

Tarmoqlar yoki tarmoq uzellari o'rtasidagi standart tutashish.

Tarmoq va Internet ulanishlar

ing. - network and internet connections

rus. - сеть и Интернет соединения

Windows XPdan boshlab Windows operatsion tizimi boshqaruv panelining qismi. Internet bilan ulanish usuli va lokal tarmoq parametrlarini sozlashga yordam beradi.

Tarmoq xavfsizligi

ing. - network security

rus. - безопасность сети

Axborot tarmog'ini ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan, normal ishlashga tasodifiy yoki qasddan bo'ladigan aralashuvlardan, uning komponentlarini buzishga urinishlardan saqlovchi chora-tadbirlar. Axborot tarmog'ining xavfsizligi uskuna, dasturiy ta'minot, ma'lumot va personalning muhofazasini o'z ichiga oladi.

Tarmoq xavfsizligini ta'hlil qiluvchi administrator vositalari

ing. - security administrator tool for

analysing networks (SATAN)

rus. - средства администратора для

анализа безопасности сети

Tarmoq xostlari to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, testlash va hisobotlar tuzish uchun mo'ljallangan vositalar tizimi. Qulay HTML-interfeysida bajarilgan. U dastlabki eng qulay portlar skaneridir.

Tarmoq xizmatining zaifligi

ing. - vulnerability of network service

rus. - уязвимость сетевой службы

Tegishli dasturiy ta'minot nuqsoni, undan

foydalanish hisobiga quyidagilarni amaiga oshirish mumkin: bufering to'lib ketishi, DoS-hujumlardan bo'sh himoyalanganlik, xizmatning xato konfiguratsiyasi, kuchsiz parolli himoya, foydalanuvchining imtiyozlarini oshirish imkoniyati, SQL-inyeksiya, kod in'eksivasi, skriptlarni saytlararo bajarish.

Tarmoq xizmatlari markazi

ing. - network service center (NSC)

rus. - Центр сетевых услуг

Transport darajasida tarmoq xizmatiga murojaat qilish mumkin bo'ladigan nuqta.

Tarmoq xizmatlarini yetkazib beruvchi

ing. - network service provider

rus. - поставщик сетевых услуг

Axborot xizmatlarini va kompyuter tarmoqlariga ulanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxs.

Tarmoq yuklamasi

ing. - network loading

rus. - сетевая нагрузка

Tarmoqqa ulangan barcha axborot manbalari vaqt birligida generatsiyalaydigan trafikning jami hajmi.

Tarmoq (yuklanganligidan)

foydalanish koeffitsiyenti

ing. - fill network

rus. - коэффициент использования

(загруженности) сети

Tarmoqning foydalanish xarakteristikalarini belgilaydi va uning arxitekturasini optimallashtirish uchun ishlatiladi, tarmoq bo'ylab uzatiladigan trafik uning maksimal o'tkazish qobiliyatiga bo'lgan nisbatiga teng.

Tarmoq choki

ing. - network wearing

rus. - прошивка сети

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimidan beruxsat foydalanish usuli. Tarmoq choki foydalanishga ruxsat olish uchun payqash va foydalanish yo'llarini ta'qib qilish tizimini chetlab o'tib, turli aloqa tarmoqlaridan foydalanishga asoslanadi.

Tarmoqdagi kolliziya

ing. - collision on network

rus. - коллизия в сети

Bir nechta tizim bir vaqtning o'zida tarmoqning bitta uchasikasiga axborotni uzatish uchun murojaat qilgan vaqtdagi holat.

Tarmoqdan erkin

foydalanishni himoyalash

ing. - network access protection

rus. - защита доступа к сети

Foydalanishni chekllovchi va tarmoq xavfsizligini ta'minlovchi protseduralar va sozlashlar. Simsiz tarmoqlar uchun ahamiyali.

Tarmoqdan foydalana olish nuqtasi

ing. - network access point

rus. - точка доступа к сети

Tarmoq operatori foydalanuvchiga xizmatlarni ko'rsatadigan nuqta, ya'ni ekspluatatsiya qilish sharoitlarida operator javobgarligi va foydalanuvchi javobgarligini ajratish nuqtasi.

Tarmoqdan foydalanish

ing. - network utilization

rus. - использование сети

Tarmoqdagi trafik o'lchovi. Tarmoqning o'tkazish polosasi kattaligiga nisbatan foizlarda ifodalanadi. Tarmoqning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

Tarmoqlagich

ing. - coupler, shifter

rus. - ответвитель

1. Energiyaning bir qismini bir liniyadan boshqasiga yoki bir nechta tarmoqlangan liniyalarga tarmoqlash uchun mo'ljallangan taqsimlash tarmog'i elementi.

2. Radiosignal (opik signal) energiyasining bir qismini bitta yoki bir nechta yo'nalishlarga tarmoqlanishini ta'minlaydigan liniya tarmoq elementi.

Tarmoqlangan aralash

yuqori chastotalar

ing. - derived mixed high-frequencies

rus. - ответвленные

смешанные высокие частоты

Rang quyi eltuvchisi modulyatori yoki demodulyatorini aylanib o'tuvchi, aralash yuqori chastotalar signali.

Tarmoqlangan bog'lanish

ing. - furcation coupling

rus. - разветвленное соединение

Bir nechta optik toladan keladigan signallarni umumiy optik-tolali trakt orqali, umumiy guruh signaliga birlashtirilayotgan signallarning barcha komponentlarini o'z ichiga oladigan tarzda o'tkazish hisobiga aralashtrish.

Tarmoqlangan monoxrom signal

ing. - derived monochromic signal

rus. - ответвленный монохромный сигнал
Ranglilic signali modulyatori yoki demodulyatorini chetlab uzatiladigan monoxrom signal.

Tarmoqlangan so'nish

ing. - attenuation of divarication

rus. - затухание разветвления

Radiosignalning kirish va taqsimlagichning har bir chiqishlari o'rtasida so'nishi.

Tarmoqlangan tizim; daraxtsimon tizim

ing. - ramifede system;

system in form of tree

rus. - разветвленная система;

древовидная система

Bitta yoki bir nechta liniyaga ega kabel taqsimlash tizimi, ulardan turli nuqtalarda abonent liniyalari tarmoqlanadi.

Tarmoqlanish

ing. - branching

rus. - ветвление

Algoritm lami tuzishda foydalaniladigan uchta asosiy tuzilmadan biri. Sharoitga bog'liq holda, algoritm turli tarmoqlarini bajarish imkonini beradi. Ba'zi manbalarda bu tuzilma tanlash deb ataladi. Tarmoqlanishga yuqori daraja dasturlash tilaridagi if... then... else; case... of kabi komandalar kiradi.

Tarmoqlararo almashuv protokoli

ing. - internet protocol (IP)

rus. - протокол межсетевого обмена

Internet protokollari to'plamidan tarmoq sathi protokoli.

Tarmoqlararo aloqa liniyasi

ing. - bridge link

rus. - межсетевая линия связи

Ikkita lokal tarmoq bog'lamlarini birlashtiruvchi aloqa liniyasi. Uzatish uchun mos keladigan almashinuv protokollaridan foydalaniladi.

Tarmoqlararo birikish

ing. - bridging

rus. - межсетевое сопряжение

1. Formatlar o'zgarishi mumkin bo'lgan holda, bir xil qurilmalar o'rtasidagi birikish.
2. Telefon liniyalarining parallelashtirilishi.

Tarmoqlararo ekran administratori

ing. - firewall administrator

rus. - администратор межсетевого экрана
Tarmoqlararo ekranning kuzatib borilishi yuzasidan javobgar shaxs.

Tarmoqlararo ekran, brandmauer

ing. - firewall

rus. - межсетевой экран, брандмауэр

Tizimga kelib tushadigan va/yoki tizimdan chiqib ketadigan axborotning nazorat qilinishini amalga oshiradigan lokal (bir komponentli) yoki funksional taqsimlangan dasturiy (dasturiy-apparat) vosita (kompleks).
Izohlar

1. Tarmoqlararo ekran axborotni filtrlash, ya'ni mezonlar majmui bo'yicha tahlil qilish va uni berilgan qoidalar asosida tizimga (tizimdan) tarqatish to'g'risidagi qarorni qabul qilish yordamida tizim muhofaza qilinishini ta'minlaydi. Shu yo'l bilan subyektning bir tizimdan turib boshqa tizim obyektidan foydalanishini chegaralash amalga oshiriladi.

2. Trafikdan bitta tarmoqni muhofaza qiladigan ikkita tarmoqning tutashgan joyida o'rnatiladigan, boshqa tarmoqqa aylanadigan va tashqaridan hujumlarning oldini olish uchun xizmat qiladigan muhofaza qilish vositasi.

Tarmoqlararo hamkorlikning

tayanch mexanizmi

ing. - basic interworking facility

rus. - базовый механизм межсетевого

взаимодействия

Hisoblash operatsiyalarini modellashtiradigan hisoblash signallari bilan to'g'ri-dan-to'g'ri muvofqlikda bo'lgan xizmat primitivlari to'plami.

Tarmoqlararo interfeys

ing. - network node interface (NNI)

rus. - межсетевой интерфейс

Boshqa tarmoq uzellari bilan o'zaro aloqa qilish uchun mo'ljallangan interfeys.

Tarmoqlararo texnologiyalar

ing. - internetworking technologies

rus. - межсетевые технологии

Kommunikatsiya tarmog'i orqali marshrutlarni o'tkazishning turli protokollaridan foydalanish uslubiyatlari. Bitta tarmoqda tarmoq pog'onasidagi turli protokollar ish-lashini ta'minlash zaruriyati «asinxron uzatish usulidan foydalanuvchi ko'p protokollar», ya'ni MPAO deb nomlangan texnologiyaning yaratilishiga olib keldi. Mazkur texnologiya tezkor tarmoqlarda samarali ishlovchi asinxron uzatish usuliga asoslangan.

Tarmoqlararo ulanishlar (kanal)

ing. - network link

rus. межсетевые соединения (канал)
Foydalanuvchilar o'rtasida axborotni uzatish va qabul qilishni ta'minlovchi turli telekommunikatsiyalar operatorlarining telekommunikatsiyalar tarmoqlari o'rtasidagi texnologik o'zaro hamkorligi.

Tarmoqlararo o'zaro ishlash
ing. - internetworking

rus. - межсетевое взаимодействие
Umumiy vazifalarni bajarish maqsadida texnologik birlashtirilgan tarmoqlarning birgalikda ishlashi.

Izoh. Bajariladigan vazifalarga bog'liq holda, o'zaro ishlash texnologik, iqtisodiy va huquqiy bo'lishi mumkin.

Tarmoqlararo chaqiruv
ing. - interconnect call

rus. - межсетевой вызов
Mobil abonent bilan umumiy foydalanish tarmog'i o'rtasida amalga oshiriladigan chaqiruv.

Izoh - Agar chaqiruvning tashabbuskori mobil stansiya bo'lsa, chaqiruv mobil aloqa tizimida autentifikatsion tekshiruvdan o'tadi va qayd etiladi. Agar mobil abonentiga shahar telefon raqami berilgan bo'lsa, aloqa odatdagi telefon chaqiruv kabi amalga oshiriladi.

Tarmoqlarni loyihalash bo'yicha sertifikatga ega mutaxassis
ing. - cisco certified design professional (CCDP)

rus. - сертифицированный специалист по проектированию сетей
Cisco Systems korporatsiyasi mahsulotlari bo'yicha sertifikatlangan o'qitish tizimida o'zlashtiriladigan unvonlardan biri .

Tarmoqni boshqarish bloki
ing. - network control block

rus. - блок управления сетью
Redirektor tomonidan qayta yo'naltirilgan SMB (Server Message Block) so'rovlarini o'z ichiga oladigan va tarmoq orqali uzoqdaqi qurilmaga jo'natiladigan tuzilma.

Tarmoqni boshqarish platformasi
ing. - network management platform

rus. - платформа управления сетью
Tarmoq va unga kiruvchi tizimlarni boshqarishga mo'ljallangan dasturlar kompleks. Platforma bilan ishlash uchun administratorga abonent tizimlari (konsollar)dan biri yoki bir nechta taqdim qilinadi. Odatda platforma SNMP protokoli asosida yaratiladi. Platforma qurilmalar ishi va kabellar holatining nazorati, ishchi protseduralar nazorati,

tarmoq ishini boshqa aspektlari nazorati kabilarni ta'minlaydi.

Tarmoqni boshqarish oddiy protokoli
ing. - simple network managing protocol (SNMP)

rus. - простой протокол управления сетью
Turli xil lokal hisoblash tarmoqlarining ishlash qobiliyatini aniqlash protokollaridan biri. Lokal hisoblash tarmog'i administratoriga tarmoqning uzoqda joylashgan uzellarini nazorat qilish imkonini beradi. RFC 1157da standart sifatida belgilangan.

Tarmoqni rejalashtirish axborot xizmati
ing. - network information service (NIS)

rus. - информационная служба сетевого планирования
Tizimga/tarmoqqa kirishlarni va parollar sozlanishini soddalashtirgan holda, TCP/IP tarmoq bo'yicha foydalanuvchilarning byudjetlari markazlashtirilgan tarzda boshqarilishini amalga oshirish imkonini beradigan xizmat.

Tarmoqni tashkil etish;
tarmoq hosil qilish

ing. - networking
rus. - организация сети; сетевобразование
Marshrutizatorlar, kommutatorlar va turli xil aloqa liniyalari (kabelli, radioreleli, yo'ldoshli va boshqalar) yordamida abonent stansiyalari va aloqa uzellarini tarmoqqa birlashtirish.

Tarmoqning ishonchliligi
ing. - network reliability

rus. - надежность сети
Tarmoqning, berilgan rejimlarda va foydalanish hamda texnik xizmat ko'rsatish sharoitlarida, talab qilinadigan funksiyalarni bajarish qobiliyatini tavsiflovchi barcha parametrlar qiymatlarini belgilangan chegarada vaqt bo'yicha saqlash xususiyati.

Tarmoqning o'ta yuklanishi
ing. - network congestion

rus. - перегрузка сети
Ma'lumotlar uzatish tarmoqlarida kuzatiladigan hodisa. Tarmoq bog'lanishi yoki uzeli orqali uzatiladigan ma'lumotlarning katta hajmda bo'lishi, xizmatlar sifati darajasining pasayishiga olib kelishida ifodalanaadi.
Izoh - Tarmoqning o'ta yuklanishi uzatishda ko'chikishlarga, ma'lumotlar paketlari yo'qolishiga yoki yangi bog'lanishlar blokirovka qilinishiga olib keladi.

Tarmoqqa ulanishlar

ing. - network connections

rus. - сетевые подключения

Lokal tarmoqda tarmoq resurslari va funksiyalariga murojaat qilish uchun qo'llaniladigan komponent. «Tarmoq ulanishlari» papkasi tarmoq ulanishlarini yaratish, sozlash, saqlash va nazorat qilish imkonini beradi.

«Tarmoq-Tarmoq» interfeysi

ing. - network to network interface (NNI)

rus. - интерфейс «Сеть-Сеть»

ATM kommutatorlarining o'zaro ishlashini aniqlaydigan tarmoqlararo interfeys.

Taroqsimon filtr

ing. - comb filter

rus. - гребенчатый фильтр

Almashinib keladigan bir nechta o'tkazish va tutib turish polosasiga ega bo'lgan elektr chastota filtri.

Tarqalish

ing. - diffusion

rus. - рассеивание

Shifrlash jarayoni, bunda ochiq matnning har qanday belgisini yoki kalitni o'zgartirish shifrlash belgilarining ko'plab soniga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ochiq matnning statistik xususiyatlarini berkitadi.

Tarqalish koeffitsiyenti

ing. - coefficient of propagation

rus. - коэффициент распространения

To'lqinlarning tarqalish (uning susayishi va tarqalish tezligi) xususiyatini aniqlovchi koeffitsiyent.

Tarqalishdagi so'nish

ing. - attenuation during propagation

rus. - затухание при распространении

Signal quvvatining, uning uzatgichdan qabul qilgichgacha tarqalishiga ko'ra, pasayishi. Izo - Tarqalish trassasiga va signal-chastota spektri, quvvanish, quvvat parametrlariga bog'liq.

Tarqatilmagan pochta, kuryerlik

jo'natmalari, pul mablag'larining

pochta o'tkazmalari

ing. - nondelivered postal items,

courier items, postal money orders

rus. - нерозданные почтовые,

курьерские отправления, почтовые

переводы денежных средств
Belgilangan muddat davomida, ayrim sabablarga ko'ra, adresatga yoki jo'natuvchiga yetkazib berilmagan (topshirilmagan)

pochta, kuryerlik jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari.

Tarqatish karralligi

ing. - order of diversity

rus. - кратность разнесения

Tarmoq qabul qilishda foydalaniladigan turli radiosignallarning soni.

Tarmoq kanallar kogerentligi

ing. - branch coherence

rus. - когерентность разнесенных каналов

Amaliyotda muhim bo'lgan, qabul nuqtasiga turli yo'llar bilan keladigan aynan bir signal nusxalarining o'zaro bog'langanlik darajasini aniqlovchi shart.

Tarmoq kanali xendover

ing. - diversity handover

rus. - хэндовер с разнесением каналов

Kanallarni o'zaro qayta ulash protsedurasida, bunda chastotalarni almashtirish vaqtida mobil stansiya bilan aloqa kamida ikki kanal bo'yicha saqlab turiladi. Bu aloqa sifati eng yaxshi bo'lgan signalni tanlab olish va kanallarni qayta ulashda ehtimoli bo'lgan kechikishni bartaraf etish imkonini beradi.

Tarmoq qabul zonasi

ing. - area of diversity reception

rus. - зона разнесенного приема

Bir nechta aloqa yo'nalishidan, masalan bir nechta tayanch stansiyadan bir vaqtda signallar qabul qilinadigan zona.

Tartib

ing. - mode

rus. - режим

Biror bir vazifaning ishlash tartibi. Uni ishgatish parametrlariga qarab vazifalarning ishlash tartibi o'zgarishi mumkin.

Tartibga solish

ing. - regulation

rus. - регулирование

Axborotni muhofaza qilish usuli. Muhofaza qilinayotgan axborotni avtomatlashtirilgan qayta ishlash, uni saqlash va uzatishning shunday sharoitlari yaratiladiki, natijada axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olish imkoniyatlari minimumga keltiriladi.

Tartiblash

ing. - marshaling

rus. - сортировка

Chiqarib tashlangan protsedura (usul) pa-

ta'moqda
oqim ko'rinishida uzatish uchun o'zgartirish mexanizmi.

Tasdiqlamoq

ing. - submit

rus. - подтверждать

Yetarlikni mustaqil aniqlash bilan nimadir batafsil ko'rilganligini bildirish.

Izoh - Detallashtirishning talab etilayotgan darajasi qarab chiqiladigan predmet turiga bog'liq bo'ladi. Bu atama faqat baholovchining harakatida qo'llaniladi.

Tasdiqlash

ing. - acknowledge (ACK)

rus. - подтверждение

Xabar jo'natuvchiga xabar yetkazilganligi to'g'risida tasdiqni so'rash va uni olish imkonini beradigan funktsiya.

Tasdiqlash grifi

ing. - label of approval

rus. - гриф утверждения

Hujjat mazmuniga normativ yoki huquqiy xarakter beradigan rasmiy hujjat rekviziti.

Tasdiqlovchi markaz

ing. - certification centre

rus. - удостоверяющий центр

1. Himoyalangan hujjat aylanishining boshqa bir qatnashchilar ochiq kalitlari sertifikatlarini chiqarishga ixtisoslashgan qatnashchisi.

2. Elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlarini chiqaradigan tashkilot yoki tashkilotning bo'linmasi.

Tasnif indeksi

ing. - classification index

rus. - классификационный индекс

Biror bir tasnif tizimida bo'linishlarning raqamli yoki harf-raqamli ramzlardagi shartli belgisi.

Tasniflagich

ing. - classifier

rus. - классификатор

Har biriga muvofiqlikda noyob kod berilgan nomlangan obyektlarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Tasniflash

ing. - classification

rus. - классификация

Ko'plab obyektlarda yoki ularni turkumlar o'rtasida «jins-tur», «element-turkum», «butun-qism» va sh.k. munosabatlarni o'rnatish

turkumlarga ajratish imkonini beradigan hodisalarga munosabatlarni joriy qilish.

Tasodifiy foydalana olish

ing. - random access

rus. - случайный доступ

Foydalana olish usuli, bunda bir nechta stansiya paketlarni bir-biriga bog'liq bo'lmagan vaqt onlarida uzatgan holda, umumiy aloqa kanali orqali bog'lanish o'rnatishga urinadi. Agar, uzatishda to'qnashuv yuz bersa, qayta urinish tasodifiy tanlangan vaqt intervali orqali amalga oshiriladi.

Tasvir elementi

ing. - element of image

rus. - элемент изображения

Tasvirning eng kichik detali, uning ichida yorqinlik va rang yot hisoblanadi, ya'ni element ichida yorqinlik va rangning bir tekis emasligini ko'z bilan ajratib bo'lmaydi.

Tasvir-tovush kesishuvchi buzilishi

ing. - image-sound cross-distortion

rus. - перекрестное искажение

изображение-звук

Tovush jo'rligidagi signalning tasvir radio-signali yoki televizion videosignal keltirib chiqaradigan buzilishi.

Tasodifiy parollar generatori

ing. - randompassword generator

rus. - генератор случайных паролей

Parollar sifatida foydalaniladigan tasodifiy sonlar generatorini o'zida ifodalaydigan dasturiy-apparat vosita.

Tasodifiy son

ing. - random challenge

rus. - случайное число

1. Pseudotasodifiy sonlar generatori yordamida shakllanadigan va autentifikatsiya qilishda, shifrlashda, yaxlitlikni tekshirishda foydalaniladigan kod.

2. Sonlarning ma'lum to'plamidagi har bir son bir xil ehtimollik bilan tanlab olinishi mumkin bo'lgan, ushbu sonlar to'plamidan tanlab olingan son.

Tasodifiy sonlar generatori

ing. - random number generator

rus. - генератор случайных чисел

1. Tasodifiy sonlar ishlab chiqadigan qurollar yoki dastur. Haqiqatda tasodifiy sonlarni olish juda qiyin, amalda natijada doim pseudotasodifiy sonlar paydo bo'ladi.

2. Berilgan ehtimoliy va algebraik xarakteristikalar bilan tasodifiy vektorlar (qiyamatlar, sonlar)ni hosil qilish (ishlab chiqish) algoritmi.

Tasodifiy tahdidlar

ing. - accidental threats

rus. - случайные угрозы

Qasddan qilingan niyat bilan bog'liq bo'lmagan tahdidlar. Masalan, tizim ishlashining buzilishi, qo'pol ekspluatatsion xatolar va dasturiy ta'minotdagi xatolar.

Tasodifiy xato

ing. - random error

rus. - случайная ошибка

Tasodifiy tarzda olingan qiymat bilan biror bir formula yoki qoida asosida hisoblangan qiymat orasidagi farq.

Tasvir

ing. - image

rus. - изображение

Grafik ma'lumotlarni chiqarish qurilmalari (printer, displey, proyektor va b.q) orqali taqdim etish.

Tasvir buferi

ing. - image buffer

rus. - буфер изображения

Tasvirning bir kadri (ikkita yarim kadri) to'g'risidagi axborotni saqlay oladigan qurilma. Bu kompyuter xotirasidagi, tasvirni qayta ishlash paytida tasvir joylashgan zonadir.

Tasvir buzilishlari

ing. - image distortion

rus. - искажения изображения

Ekkranda ko'rinishchi tasvirning texnologiyaning nomukammalligi, geomagnit, elektr va boshqa maydonlarning ta'siri oqibatida yuzaga keladigan geometrik, chiziqli bo'lmagan va koordinata buzilishlari farqlanadi. Natijaviy signal shaklining boshlang'ich signaldan, sanab o'tilgan omillar tufayli og'ishi buzilishlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Tasvir chetlaridagi yorug'lik

ing. - edge flare

rus. - засветка по краям

Tasvirning chetlarida paydo bo'ladigan beixtiyoriy qo'shimcha nurlanish.

Tasvir eltuvchisi

ing. - image carrier

rus. - несущая изображения

Videosignal orqali modulyatsiyalangan eltuvchi.

Tasvir fayli

ing. - image file

rus. - файл изображения

Grafik axborotni mavjud formatlardan birida o'z ichiga olgan fayl.

Tasvir formati

ing. - image format

rus. - формат изображения

Tasvir tomonlarining nisbatini ko'rsatadi. U standart televideniye uchun 4:3, keng ekranli televideniye uchun 16:9 ni tashkil etadi. Katta kinoteatrlarda, shuningdek, 21:9 nisbatdagi keng formatli varianti ham mavjud.

Tasvir o'lchamlarini avtomatik o'rnatish

ing. - image size automatic installation

rus. - автоматическая установка

размеров изображения

Turli videorejimlarda, tasvirning doimiy o'lchamini saqlash monitor orqali qo'llab-quvvatlanganda, tasvir o'lchamlarini avtomatik tarzda aniq o'rnatish. Tasvir o'lchamlarini avtomatik tarzda o'rnatish rejimi oldindan dasturlanishi yoki foydalanuvchi tomonidan belgilanishi mumkin.

Tasvir radiosignali

ing. - radio signal of image

rus. - радиосигнал изображения

1. To'liq videosignal yoki to'liq rangli videosignal bilan modulyatsiyalangan tasvir eltuvchi signal.

2. To'liq videosignal tasvirining eltuvchisini modulyatsiyalashdan olinadigan radiochastota signali.

Tasvir radiouzatgichi

ing. - radiotransmitter of picture

rus. - радиопередатчик изображения

Televizion dasturning vizual mazmunini tashuvchi radiochastota signallarini hosil qilishda foydalaniladigan televizion radioeshittirish uzatgichining qismi.

Tasvir shaklining koeffitsiyenti

(kadr formati)

ing. - image form coefficient (frame format)

izobrajening (format kadra)
Tasvir (kadr) enining uning balandligiga nisbati.

Tasvir signali liniyaviy kuchaytirgichining chiqishi
ing. - output of linear amplifier of image signal

rus. - выход линейного усилителя сигнала изображения
Tasvir signali liniyaviy kuchaytirgichining chiqish qisqichlari radioreleli uzatgich, tasvir uzatgich yoki tarmoqni ta'minlovchi studiya uskunasi va liniyaning ulanish joyi hisoblanadi.

Tasvir signalining qutbliligi
ing. - polarity of signal of image
rus. - полярность сигнала изображения
Signalning sahna (manzara) ning qorong'i uchastkasini ifodalaydigan qismi potentsialining, signalning yorug' maydonini ifodalaydigan qismi potensialiga nisbatan belgisi. Qutblilik «musbat qora» yoki «manfiy qora» so'zlari orqali belgilanadi.

Tasvir signallari
ing. - signals of image
rus. - сигналы изображения
Tevideniye va fototelegrafiyada tasvirning yoyilishidan olinadigan kuchlanish (yoki tok). Tasvir signallari satr bo'ylab tasvir elementlarining yorqinligi (ranglili) to'g'risidagi axborotni tashiydi.

Tasvir uzatgich
ing. - image transmitter
rus. - передатчик изображения
Faqat tasvir signallarini uzatish uchun mo'ljallangan radiuskuna. Standart chiqish signalini olish uchun talab etiladigan radiochastotaviy zanjirlar va modulyatsion uskuna.

Tasvir uzatgich quvvati
ing. - image transmitter capacity
rus. - мощность передатчика изображения
Standart televizion signalni uzatish paytida cho'qqi chiquvchi quvvat.

(Tasvir) sinxronizatsiya(si) dagi uzilish
ing. - loss of synchronization (of a picture)
rus. - срыв синхронизации (изображения)

maydon yoki satr yoki doimiy yo'qolishi.
Izoh - Taalluqli atama «sinxronizatsiyani yo'qotish».

Tasvirda soxta konturlarning paydo bo'lishi
ing. - appearance of false outlines in image
rus. - появление ложных контуров в изображении
Nomaqbul effekt signalni qayta ishlash jarayonida, signal darajalarini kvantlash yetarlicha bo'lmagan raqamli tizimlarda kuzatiladi, ya'ni, bu - yorqinlik yoki ranglilik kvantlash shkalasining dag'allashish effektidir.

Tasvirdan so'ng
ing. - image retention
rus. - послезображение
Tasvir almashinuvida kuzatiladigan, oldingi tasvirning ijobiy yoki salbiy qoldig'i yangi tasvirga tushadigan effekt.

Tasvirlarni aniqlash
ing. - image recognition
rus. - распознавание изображений
Funksional blok yordamida tasviri, uni tashkil etadigan obyektlarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini va fazoviy o'zaro munosabatlarini idrok etish va tahlil qilish.

Tasvirlarni mashtablash
ing. - image scaling
rus. - масштабирование изображений
Tasvir o'lchamini proporsiyalarni saqlagan holda o'zgartirish. Mashtablash deganda tasvir o'lchamini kattalashtirish ham, kichraytirish ham tushuniladi. Grafika turiga qarab (rastrl, vektorli), mashtablash turli algoritmlar asosida bajariladi. Vektorli grafikada mashtablash tasvir sifatining yomonlashishiga olib kelmaydi, rastrl grafikada esa tasvir sifati yomonlashadi.

Tasvirlarni mikshirlash
ing. - image mixing
rus. - микширование изображений
Ikkita kamcradan chiquvchi signallarni ustma-ust tushirish yo'li bilan va signallar yig'indisini oq rang sathidan oshirmasdan, ular qiymatini ohista rostlash tasviri asta-sekin almashtirish.

Tasvirlarni qayta ishlash
ing. - image processing

rus. - обработка изображений
Vizual axborotni qayta ishlash bilan bog'liq jarayon (masshtabni o'zgartirish, konturlarni ajratish, tasvirning ko'rinadigan va ko'rinmas qismlarini aniqlash va sh.k.lar).

(Tasvirni) diskret-kosinus o'zgartirish, DKO'
ing. - discrete-cosine transformation of picture (DCT)
rus. - дискретно-косинусное преобразование (изображения), ДКП
Raqamli tasvirning sanoqlar blokidagi ortiqchalikni identifikatsiya qilish uchun koeffitsiyentlar to'plamini shakllantirishni ta'minlovchi tasvirni spektral o'zgartirish.

(Tasvirni kodlashdagi) taxminlash
ing. - prediction (in coding of image)
rus. - предсказание (в кодировании изображения)
Kadring fazo va vaqt bo'yicha qo'shni elementlarini taqdim etuvchi signal qiymatlaridan kelib chiqib, kadr elementini ifodalaydigan signal qiymatini baholash jarayoni.

Tasvirni markazlashtirish
ing. - centring of image
rus. - центровка изображения
Tasvirni gorizontal va vertikal yo'nalishlarda ekranda to'g'ri joylashtirish maqsadida siljitish.

Tasvirni qayta tiklash
ing. - reproduction of image
rus. - воспроизведение изображения
Videoaxborot tashuvchi elektr signallarni tasvirni kuzatish uchun qulay bo'lgan, ko'rinadigan tasvirga aylantirish.

(Tasvirni) siqish; (tasvirni) kengaytirish
ing. - compression (of a picture); expansion (of a picture)
rus. - сжатие (изображения); расширение (изображения)
Tasvirni gorizontal yoki vertikal yo'nalishda cho'zish yoki siqish yo'li bilan ataylab buzish.

Tasvirni yoyish
ing. - scanning of image
rus. - развертка изображения
Tasvirni tahlil yoki sintez qilishda yoyuvchi elementning berilgan davriy qonun bo'yicha siljishi.

Tasvirning bitligi
ing. - image depth
rus. - битность изображения
Qar.: Rang teranligi.

Tasvirning gorizontal bo'yicha aniqligi
ing. - definition of image along horizontal line
rus. - четкость изображения по горизонтали
Guruh aniqligi shtrixli o'lcham bilan baholanadigan mayda oq-qora detallarni qayta tiklash sifati.

Tasvirning granulyar shovqini
ing. - granulate noise of image
rus. - гранулярный шум изображения
Signal shaklining past-balandligi bilan bog'liq shovqin.

Tasvirning noebiziqli buzilishlari
ing. - nonlinear image distortion
rus. - нелинейные искажения изображения
Yoyish tezligi doimiy bo'lmasligi keltirib chiqaradigan, uzatish obyekti normalangan o'lchamining uni satrlar bo'ylab yoki satrlarga ko'ndalang ravishda ko'chirish vaqtidagi o'zgarishida ko'rinadigan koordinata buzilishlari.

Tasvirning televidion tahlili
ing. - television analysis of image
rus. - телевизионный анализ изображения
Obyekt tasvirining rangi yoki yorqinligini vaqtda hamda fazoda elektr signallarga izchil o'zgartirish jarayoni.

Tasvirning vertikal bo'yicha aniqligi
ing. - definition of image along vertical line
rus. - четкость изображения по вертикали
Satr oralatib yoyish sifati sinov elementlaridagi qiya oq liniyalarning tiklanishini baholash orqali bilvosita baholash.

Tasvirning vertikal bo'yicha nominal aniqligi
ing. - nominal definition of image through vertical line
rus. - номинальная четкость изображения по вертикали
Rastming diskret tuzilmasi va Z ga teng bo'lgan tasvir ajralish satrlari soni orqali aniqlanadigan kattalik.

ing. - unique image format

rus. - единая форма изображения

Amerika va Yevropa standartlari uchun yuqori aniqlikdagi televideniye signallari parametrlarining ba'zi umumiy qiymatlarini belgilaydigan XE1-R BT.709 Tavsiyalarida qabul qilingan format.

Tavsiflash sxemasi

ing. - description scheme

rus. - схема описания

MPEG-7 da kontentni, deskriptor va tavsiflash sxemalari o'rtaqidagi bog'lanishlar tuzilmasi hamda semantikasini belgilaydigan tavsiflash vositasi.

Taxallus

ing. - alias

rus. - псевдоним

1. Ismlar fazosining muqobil nomi, ya'ni tez-tez takrorlashda foydalanish qulay bo'lgan qisqartma ism. Taxallus mavjud ism bilan mos tushmasligi kerak. Ismlarning mos tushishi aniqlanganda, kompilyator taxallusni boshqasiga almashtirishni taklif qiladi.

2. Kimgadir yoki nimagadir havola qilish uchun foydalaniladigan ism, jumladan, foydalanuvchi tizimga ma'lum bo'lgan ismlar va elektron manzillar majmui.

Taxminiy ishonch darajasi

ing. - evaluation assurance level

rus. - оценочный уровень доверия

Berilgan ishonch shkalasida ma'lum joyni band etib va ishonch paketini tashkil etadigan, xavfsizlikning ishonch talablari majmui.

Taxminlangan qiymat

ing. - predicted value

rus. - предсказанное значение

Taxminlash yordamida olingan signal qiymati.

Taxminlash

ing. - predicting

rus. - предсказание

Signalning joriy sanoq qiymatini bitta yoki bir nechta undan oldin keladigan sanoq asosida baholash.

Taxminlash bilan adaptiv kodlash vektori

ing. - vector of adaptive predictive coding

rus. - вектор адаптивного

с предсказанием

Axborot uzatishning eng past guruhii tezliklarida foydalanish uchun dastlab kiritilgan nutq signalini kodlash uchun ishlab chiqilgan alqoritm.

Taxminlash bilan kodlash

ing. - predictive coding

rus. - кодирование с предсказанием

Taxminlashdan foydalanib manbani kodlash usuli.

Tayanch bevosita foydalana olish usuli

ing. - basic direct access method

rus. - базовый прямой метод доступа

Yozuv fayl ichidagi yozuv raqami bilan yoki qurilmadagi fizik manzil bilan identifikatsiya qilinadigan quyi sath foydalana olish usuli.

Tayanch dizayn

ing. - baseline design

rus. - базовый дизайн

Tizimni ishlab chiqishda barcha mafaaddor tomonlar bilan kelishilgan, tizim dizayni.

Tayanch etalon model

ing. - basic reference model

rus. - базовая эталонная модель

Ochiq tizimlar o'zaro bog'liqligining umumiy prinsiplarini ifodalaydigan va OSI standartlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib hisoblangan model.

Tayanch foydalana olish usuli

ing. - basic access method

rus. - базисный метод доступа

Dastlabki shaxsiy kompyuterlarda foydalanilgan yuqori daraja protsedura tili.

Tayanch ketma-ket foydalana olish usuli

ing. - basic sequential access method

rus. - базисный последовательный

метод доступа

Fizik fayl yozuvlarini ketma-ket qayta ishlash imkonini beradigan quyi darajali foydalana olish usuli.

Tayanch kiritish/chiqarish tizimi parametrlarining bloki

rus. - блок параметров базовой

системы ввода/вывода

ing. - basic input/output system parameter block

Tizim diskining yuklash sektoridagi, bu diskning tuzilmasini tavsiflaydigan jadval.

Tayanch kiritish-chiqarish manzili

ing. - base input/output address

rus. - базовый адрес ввода-вывода

Kiritiladigan-chiqariladigan ma'lumotlarning boshlang'ich manzili.

Tayanch kiritish-chiqarish tizimi

ing. - basic input/output system (BIOS)

rus. - базовая система ввода-вывода

Shaxsiy kompyuterlarda ishga tushirish vaqtida qurilmalarni tekshirish, operatsion tizimni yuklash hamda qurilmalar o'rnatiladigan ma'lumot almashinuvini ta'minlash uchun kerak bo'lgan asosiy dasturiy ta'minot. Tayanch kiritish-chiqarish tizimi doimiy xotira qurilmasida bo'lgan dasturni o'zida aks ettiradi.

Tayanch kompyuter

ing. - mainframe

rus. - базовый компьютер

Axborot tizimida ko'p sonli chekka-tashqi (chegara) qurilmalari (diskli to'plovchi, printerlar va boshqalar) bilan ulanadigan katta quvvatli kompyuter. Undan korporativ pog'onada ko'p masalali muhitda foydalaniladi. Tayanch kompyuter yuqori tezlik bilan ishlaydi, nisbatan katta tezkor xotiraga ega va yechilayotgan masalalarning keng doirasini qamrab oladi. Tayanch kompyuter kommunikatsiya tarmog'i orqali o'zining resurslarini ko'p sonli foydalanuvchilarga taqdim qiladi va ma'lumolarni qayta ishlashda asosiy oqimlarni o'z zimmasiga oladi.

Tayanch liniya funksiyalarini hisoblash

ing. - baseline function point count

rus. - подсчет функций базовой линии

Muayyan vaqt onida funktsionallik sifatida olingan, ilova funksiyalari nuqtalarining soni.

Tayanch manzil

ing. - base adress

rus. - базовый адрес

1. Hisoblash mashinasining absolyut manzilini hisoblash uchun boshlang'ich kattalik sifatida foydalaniladigan manzil.

2. Periferik qurilmalardan foydalanish amalga oshiriladigan portlarning qo'shni manzilari guruhidan eng kichigi.

Tayanch muhofaza choralarini

ing. - base protection means

rus. - базовые меры защиты

Bitta tizim yoki butun tashkilot uchun o'rnatilgan xavfsizlik choralarning minimal to'plami.

Tayanch nuqta

ing. - anchor point

rus. - опорная точка

Dasturiy ta'minotni rejalashtirishning, loyiha hayotiy siklining asosiy o'tishi yuz beradigan bosqichi.

Tayanch oq rang

ing. - reference white

rus. - опорный белый цвет

Asosiy ranglarni matritsialashda olinadigan, ushbu o'rab turuvchi yoritishda oqning taasurotni beradigan muayyan rang omili.

Izoh - Rangli televideniya tayanch oq rang uskunani sozlashda ishlatiladi.

Tayanch platforma

ing. - delivery platform

rus. - базовая платформа

Instrumental dasturlar tizimiga ega bo'lgan, ishlab chiqilgan dasturlardan foydalanish va qo'llab-quvvatlash imkoniyatini ta'minlaydigan bazaviy kompyuter.

Tayanch qiymatini tanlash

ing. - base value base choice

rus. - выбор базовой стоимости

Kirish parametrining, tayanch tanlovni testlashda foydalaniladigan, parametr uchun tipik bo'lgan qiymat asosida tanlanadigan qiymat.

Tayanch radiostansiya

ing. - base radio station

rus. - базовая радиостанция

Mobil stansiyalar o'rnatilgan aloqani tashkil etish uchun bitta yoki bir nechta retranslyatori bo'lgan qabul qiluvchi-uzatuvchi stansiya.

(Tayanch) rang chaqnashi

ing. - colour (supporting; reference) flash

rus. - цветовая (опорная) вспышка

Ranglilik signali quyi eltuvchisi chastotasi ega sinusoidal to'liqlarning bir nechta davridan iborat bo'lgan to'liq rangli signalning bir qismi, u ranglilik signalini demodulyatsiyalashda etalon vazifasini bajaradi.

ing. - base register

rus. - базовый регистр

Tayanch manzilni va unga nisbatan manzillashni saqlash uchun foydalaniladigan registrlar.

Tayanch retranslyator

ing. - home repeater

rus. - базовый ретранслятор

O'ziga biriktirilgan abonentlar guruhi foydalana oladigan retranslyator.

Izoh - Uning yordamida abonentlar ayni paytda band bo'lmagan retranslyatorlar mavjudligi to'g'risida bilib oladilar, agar tayanch retranslyator band bo'lsa, abonentga boshqa, ayni vaqtda bo'sh bo'lgan retranslyator taqdim etiladi.

Tayanch sahifa

ing. - base page

rus. - базовая страница

Elektron hisoblash mashinalarining ba'zi arxitekturalarida - tezkor xotiraning birinchi sahifasi.

Tayanch signallar generatori

ing. - reference generator

rus. - генератор опорных сигналов

Tizim ayrim elementlarining ishini sinxronlash uchun foydalaniladigan qurilma. Ishlab chiqariladigan impulslar doimiy takrorlanish chastotasiga, davomiylik va amplitudaga ega bo'ladi, ularning vaqt bo'yicha holati esa, yuqori aniqlikdagi vaqt shkalasiga bog'langan.

Tayanch sinovlar

ing. - baseline

rus. - базовые испытания

Normal ish rejimi sifatida qarash taxmin qilinadigan rejimda ishlaganda, tarmoqning samaradorligi bilan bog'liq xarakteristikalarini aniqlash va hujjatlashtirish jarayoni. Bu xarakteristikalar o'z ichiga xatolarning paydo bo'lish chastotasi va ma'lumotlar uzatish tezligi, shuningdek, eng faol foydalanuvchilar va ular tomonidan ishlatiladigan ilovalar to'g'risidagi ma'lumotni olishi mumkin.

Tayanch stansiya

ing. - base station

rus. - базовая станция

1. Qurulmaga ko'chma xizmatning quruqlikdagi stansiyasi.
2. Checklangan geografik zonada mobil abonentlar bilan aloqa o'rnatish uchun foy-

kanalli yoki ko'p kanalli stasionar qabul qiluvchi-uzatuvchi stansiya. «Tayanch stansiya» atamasi trunking aloqa tizimini qoplash zonasiga, uyaga, uya ichidagi sektorga yoki uyalar guruhiga tegishi bo'lishi mumkin.

Tayanch stansiya kontrolleri

ing. - base station controller (BSC)

rus. - контроллер базовой станции

Mobil yoki trunking aloqa tarmog'ining, u bir nechta qabul qiluvchi-uzatuvchi tayanch stansiya ishini boshqaradigan element.

Tayanch stansiya uskunasi

ing. - base station system (BSS)

rus. - оборудование базовой станции

Mobil stansiyalar va mobil aloqa kommunikatsiya markazi kommunikatsiya markazi o'rtasida interfeysni ta'minlovchi va o'z tarkibiga tayanch stansiya kontrolyori, bir nechta qabul qiluvchi-uzatuvchi tayanch stansiyani va radioresurslarni boshqarish qurilmasini oluvchi uskuna.

Tayanch tarmoq

ing. - backbone

rus. - опорная сеть

Global tarmoqning tarmoq segmentlarini yagona tizimga birlashtiruvchi yuqori tezlikdagi liniya yoki bir nechta liniyalar (10 Base5, optik-tola), Atama kommunikatsiya tarmog'ini, foydalana olish qurilmalari o'rtasida o'tkazuvchi tarmoq trafignini ta'riflashda ishlatiladi. Magistralling o'tkazish qobiliyati odatda sekundiga yuz va ming megabitdan oshadi.

Tayanch tur

ing. - base type

rus. - базовый тип

Obyektga o'zgaruvchiga, yozuv maydoni funksiyasiga, konstantaga, massivga va sh.k.larga) ochiq yoki ochiq bo'lmagan holda beriladigan tavsif.

Tayanch to'plam

ing. - basis set

rus. - базовый набор

Multiko'plikni yaratish uchun foydalaniladigan obyektlar to'plami.

Tayanch yacheyka

ing. - anchor cell

rus. - базовая ячейка

Elektron jadvallarda – yacheykalar diapazonining boshlanishi sifatida chiqadigan qayd etilgan yacheyka.

Tayanch Yer stansiyasi

ing. - base terrestrial station

rus. - базовая земная станция

Quruqlikdagi ko'chma yo'ldoshli xizmatga fiderli liniyani ta'minlash uchun, quruqlikdagi ma'lum zona chegarasida yoki ma'lum punktda joylashgan muqim yo'ldoshli xizmatning yoki ba'zi hollarda, quruqlikdagi ko'chma yo'ldoshli xizmatning Yer stansiyasi.

Tayanch chastota generatori

ing. - reference oscillator

rus. - генератор опорной частоты

Ishchi chastotalar to'rini tuzishda asos sifatida foydalaniladigan tayanch tebranishlar hosil qiluvchi generator.

Izoh – Amaliyotda, etalon chastotalar generatorlarining seziiyli, rubidiyli va kvarsli turidan foydalaniladi.

Tayinlangan abonent

chaqiruvini tutib qolish

ing. - call interception by

dedicated subscriber

rus. - перехват вызова

назначенным абонентом

Abonentga, boshqa abonentning kiruvchi chaqiruviga, tegishli prefiks va chaqiriluvchi abonent raqamini terish yordamida javob berish imkonini beradigan xizmat.

Tayinlangan manzil

ing. - destination address

rus. - адрес назначения

Ma'lumotlarni oluvchi qurilmaning tarmoq manzili.

2. Ma'lumotlar nusxa ko'chiriladigan, yuboriladigan yoki suriladigan yozuv, fayl, katalog yoki qurilma.

Tayinlash, o'zlashtirish

ing. - assign

rus. - задать

Ayrim o'zgaruvchiga yangi, tashqi qiymatni berish yoki taqqoslash. Dasturlashda bu maxsus operator yordamida bajariladi.

Taym-aut

ing. - time out

rus. - тайм-аут

Aniq bir faoliyatning ma'lum bajarilish vaqtini ta'siflovchi tushuncha. Masalan, veb-technologiyalarda sessiyaning yashash vaqti tushunchasini beradi.

Taym-kod

ing. - time code

rus. - тайм-код

Video tasvir kadrlarini aniq markalashning elektron usuli. Har bir kadrda soat, minut, sekund va kadrlarda ifodalangan raqam beriladi.

Taym-slot

ing. - time-slot

rus. - тайм-слот

Istalgan vaqt bo'yicha interval siklik va poyob tarzda aniqlangan va belgilangan bo'lishi mumkin.

Izoh – Vaqt bo'yicha ajratish bilan multipleks uzatish hollarida har bir alohida signalga alohida taym-slot tayinlanadi.

Taymer

ing. - time register

rus. - таймер

Videoapparat yoki boshqa radioelektron apparatni vaqinchalik dasturlash qurilmasi. Apparatni berilgan vaqtda avtomatik yoqish, uning ma'lum bir funksiyalari (yozish, qayta eshiritish va sh.k.lar)ni boshqarish va berilgan vaqt oralig'idan keyin apparatni o'chirish uchun mo'ljallangan.

Taymer bo'yicha uzilishlar

ing. - clock interrupt

rus. - прерывания по таймеру

Qurilmalar va operatsion tizimning boshqa zarur muntazam harakatlarining so'rovi uchun mo'ljallangan vaqtning ma'lum kvantitorni orqali vaqti-vaqti bilan uzilishlari.

Tayyor jarayonlarning navbati

ing. - ready queue

rus. - очередь готовых процессов

Asosiy xotirada mavjud bo'lgan va bajarilish uchun tayyor bo'lgan barcha jarayonlarning to'plamini o'z ichiga oladigan navbat.

Tayyorlik

ing. - availability

rus. - готовность

Tizim, mahsulot yoki komponentning ishlay olish qobiliyati va foydalana olishlilik darajasi.

ing. - high-availability system

rus. - система высокой готовности

Ishlamay qolishlarga chidamli kompyuter tizimi. Unda ishlamay qolish yuz bergan holda, bir necha minut ichida ishlash qobiliyatining avtomatik tarzda tiklanishi va ma'lumotlar bazasi yaxlitligining saqlanishi kafolatlanadi.

Tashimoq va tashlamoq

ing. - drag and drop

rus. - перетаскивать и бросить

«Sichqoncha» yordamida amalga oshiriladigan operatsiya. Biron-bir obyektни «sichqoncha» bilan ushlab, uning chap tugmasini qo'yib yubormagan holda amalga oshiriladi. Odatda fayllardan nusxa ko'chirishda yoki ochilgan dasturning ichidagi faylni ochishda qo'llaniladi.

Tashish (uzatish)

ing. - transport

rus. - транспортирование

Turli punktlar o'rtasida axborot uzatishning funksional jarayoni.

Tashkiliy-farmoyish hujjati

ing. - organizational-administrative document

rus. - организационно-распорядительный документ

Ma'muriy va tashkiliy masalalarni, shuningdek, hukumat organlari, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, ularning bo'linmalari va mansabdor shaxslarining faoliyatini boshqarish, o'zaro hamkorlik qilish, ta'minlash va tartibga solish masalalarini hal qilish vazifalari qayd etiladigan hujjat turi.

Tashkiliy-huquqiy shakl

ing. - legal form of organization

rus. - организационно-правовая форма

Mamlakat qonunlari va boshqa huquqiy normalari bilan ko'zda tutilgan, korxonalar, kompaniya, korporatsiyalar tuzilmasi barpo etilishining turi va usuli.

Izoh - Tashkiliy-huquqiy tuzilma mulkchilik shakliga, egalarining javobgarlik darajasiga, korxonalar, kapitalni shakllantirish yo'llariga, kompaniya tarkibiy qismlarining birlashish va teng huquq asosida bo'ysunish xususiyatiga bog'liq.

Tashkiliy rahbarlik

ing. - organizational governance

rus. - организационное руководство

Tashkilot o'zining operatsion va strategik harakatlarini yo'naltirishiga, nazorat qilishiga, shuningdek, qatnashchilarning qonuniy huquqlariga, talablari va kutishlariga munosabatini bildiradigan jarayon. Tashkiliy rahbarlik lavozim vazifalarini, xulq-atvor qoidalarini belgilaydi. Shuningdek, tashkilotlar tomonidan qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan hujjatlar ishlab chiqadi.

Tashkilotning xavfsizlik siyosati

ing. - organizational security policy

rus. - политика безопасности организации
Tashkilotdagi xavfsizlik bo'yicha qoidalar, protseduralar yoki tavsiyalar majmui.
Izoh - Siyosat muayyan ishlash muhitiga taalluqli bo'ladi.

Tashlab yuborilgan paket

ing. - aborted packet

rus. - отброшенный пакет

Qabul qilish tomonida axborotning ishonchlilik ko'rsatgichi past bo'lganda yoki yo'q bo'lganda darajada uzoq kechik-kanda tashlab yuboriladigan paket. Bunday vaziyat tarmoq o'ta yuklanish ostida bo'lganda, paketni adresatga yetkazib berish vaqti aloqa protokoli bilan belgilanadigan chegaradan oshganda vujudga keladi.

Tashlash

ing. - reset

rus. - сброс

Registr yoki hisoblagichni boshlang'ich holatga o'rnatish; boshlang'ich holatga qaytish. Tizimning joriy holatdan, boshlang'ich holatga o'tish.

Tashqariga uzatiladigan

ma'lumotlar protokoli

ing. - external data representation (XDR)

rus. - протокол внешнего

представления данных
Geterogen tarkibli muhitlar uchun taqsimlangan dasturlarni ishlab chiqishni osonlashtiradigan protokol bo'lib, platformalarning apparat xususiyatlarini hisobga olishni o'z zimmasiga oladi.

Tashqi antenna

ing. - outdoor antenna, outside antenna

rus. - наружная антенна
Ochiq havoda ekspluatatsiya qilish shartlari-
li qanoatlantiruvchi antenna.

Tashqi belgi

ing. - external label
rus. - внешняя метка

Dasturning boshqa protsedurasida (moduljida) aniqlangan belgi.

Tashqi blok

ing. - outdoor unit
rus. - наружный блок

Uskunaning foydalanuvchi binosidan tashqariga o'rnatiladigan va atrof-muhit haroratida ekspluatatsiya qilinadigan qismi.

Masalan - VSAT stansiyalarida tashqi blok kam shovqinli kuchaytirgich va qabulqilgich-uzatgichdan iborat bo'ladi. Antennafider traktidagi yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida kam shovqinli kuchaytirgich bevosita nurlagichga o'rnatiladi, qabulqilgich-uzatgich esa, antenna konstruksiyasining elementlariga joylashtiriladi.

Tashqi bostirib kirish usullari

ing. - external intrusions techniques

rus. - методы внешних вторжений

Tashqi muhitda ta'sir manbaini topish o'ziga xos xususiyati hisoblanadigan, qo'yilgan maqsadlarga erishish usullari majmui.

Izoh - Tashqi bostirib kirishlarda quyidagi usullardan foydalanilishi mumkin: liniyaga (aktiv yoki passiv) ulanish; nurlanishni tutib olish; tizim vakolatli foydalanuvchisi yoki uning komponentlari ostida niqoblanish; autentifikatsiya yoki kira olishni boshqarish mexanizmlarini chetlab o'tish.

Tashqi fotoeffekt

ing. - external photoeffect

rus. - внешний фотоэффект

Elektronlarning nurlanish ta'sirida vakuumda yoki boshqa muhitda qattiq jismlar (metallar, yarimo'tkazgichlar, dielektriklar) dan uchib chiqishi.

Tashqi fragmentatsiya

ing. - external fragmentation

rus. - внешняя фрагментация

Tizimda katta bo'sh xotira mavjud bo'lgan, lekin u uzluksiz deb hisoblanmagan holat.

Tashqi giperhavola

ing. - external hyperlink

rus. - внешняя гиперссылка

Aktiv veb-sayt qismi bo'lmagan sahifa yoki faylga ko'rsatuvchi giperhavola.

Tashqi havola

ing. - external reference

rus. - внешняя ссылка

Dasturdan boshqa bir dasturiy modulda bo'lgan identifikatorga qilinadigan havola. Tashqi havolalar mexanizmidan modullarni alohida kompilyatsiyalashda foydalaniladi.

Tashqi himoya

ing. - outer protection

rus. - внешняя защита

Armaturalangan simdan yoki metall tasmadan tayyorlangan, kabel qobig'ini qoplovchi materialning tashqi qatlami. Tashqi himoya rodentlar (kemiruvchilar), ko'chadigan toshlar kabi tashqi ta'sirlardan qo'shimcha mexanik himoyalash talab qilingan holdarda qo'llaniladi.

Tashqi (ikkilamchi) xotira

ing. - secondary storage

rus. - внешняя (вторичная) память

Katta hajmdagi barqaror (saqlanadigan) xotiraning funktsionalligini ta'minlovchi asosiy xotirani kengaytirish.

Tashqi kalit

ing. - foreign key

rus. - внешний ключ

Relyatsion ma'lumotlar bazasi nazariyasining tushunchasi. Boshqa jadvalning birlamchi kalitni saqlashga mo'ljallangan jadvalning maydoni. Ushbu tashqi kalit ikkita jadval o'rtasida aloqani o'rnatish uchun kirtiladi.

Tashqi koder (dekoder)

ing. - external coder (decoder)

rus. - внешний кодер (декодер)

Kaskadli kodlashda kanalga nisbatan tashqi koder (dekoder).

Tashqi crossover uchun kirish

ing. - x-over input, bypass, direct

rus. - вход для внешнего кроссовера

Faqat tashqi quyi chastotalar filtri bilan sozlangan past amplitudali signalga yoki maxsus past chastotali kanalni kommutatsiyalash uchun mo'ljallangan kirish.

Tashqi ko'rinish (bezash) va mavzular

ing. - appearance and themes

rus. - оформление и темы

MS Windows operatsion tizimi boshqaruv panelining qismi bo'lib, foydalanuv-

interveys, grafikasini
xohishiga ko'ra moslash imkonini beradi.

Tashqi magistral

ing. - interbuilding backbone

rus. - внешняя магистраль

Kampus kichik tizimining bir qismi hisoblanadigan, bir binoni boshqasi bilan bog'lovchi magistral telekommunikatsiya kabeli (kabellari).

Tashqi marshrutlash protokoli

ing. - exterior gateway protocol (EGP)

rus. - протокол внешней маршрутизации
Internet yadrosidagi ikki darajali tarmoq shlyuzlaridan foydalaniladigan marshrutlash protokoli.

Tashqi qurilma

ing. - external device

rus. - внешнее устройство

Kompyuterning markaziy protsessori bilan bevosita ishlamaydigan qurilma.

Tashqi qurilmalar shinasi

ing. - micro channel architecture (MCA)

rus. - шина внешних устройств

33 MGz chastotada ishlash uchun mo'ljallangan 32 razryadli tizim shinasi.

Tashqi raqamli klaviatura

ing. - external numeric keypad

rus. - внешняя цифровая клавиатура

Shaxsiy kompyuter standart klaviaturasi o'ng qismidagi klavishlar bloki. Num Lock klavishi ishga tushirilganda sonli ma'lumotlarni tez kiritish uchun mo'ljallangan.

Tashqi saralash

ing. - external sort

rus. - внешняя сортировка

Tashqi xotira qurilmalarining xotirasidan foydalanib bajariladigan saralash.

Tashqi taqdim etish shakli

ing. - form of external representation

rus. - форма внешнего представления

Elektron hujjatni displey ekranida, qog'oz eltuvchida yoki boshqa shunga o'xshash eltuvchida vizual anglash uchun tushunarli yoki inson idrok etishi uchun yaroqli shaklda qayta tiklash.

Tashqi uskuna

ing. - peripheral equipment

rus. - внешнее оборудование

1. Muayyan markaziy protsessorga nisba-

protessor foydalanuvchi o'rtasida
ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan har
qanday qurilma.

2. Kompyuter tashqi qurilmalari kompleksi.

Tashqi uzilish

ing. - external interrupt

rus. - внешнее прерывание

Mikroprotsessorga nisbatan tashqi bo'lgan qurilma yoki kontroller keltirib chiqaradigan apparat uzilish.

Tashqi xalaqit (hisoblash texnikasi vositasiga)

ing. - external disturbance to a computer

rus. - внешняя помеха (средству вычислительной техники)

Tashqi zanjirlarda va/yoki atrof-muhitda har qanday tashqi mamba vujudga keltiradigan, hisoblash texnikasi vositasiga bo'ladigan elektromagnit xalaqit.

Tashqi xotira

ing. - storage

rus. - внешняя память

Ma'lumotlarni saqlaydigan tashqi qurilma.

Tashqi xotira qurilmasi

ing. - external storage

rus. - внешнее запоминающее устройство
Kompyuter tizim blokidan tashqarida joylashgan qurilma. Protessor faqat kiritish-chiqarish kanallari orqali foydalanishi mumkin bo'lgan xotira.

Tashqi yo'qotishlar

ing. - extrinsic loss

rus. - внешние потери

Tolali ulanishlardagi, tola sifatiga bog'liq bo'lmagan, balki konnektor yoki mufta yordamida bajarilgan sifatsiz ulanish keltirib chiqaradigan yo'qotishlarning bir qismi.

Tashrif buyuruvchi

ing. - visitor

rus. - посетитель

Tarmoqning muayyan resurslaridan foydalanuvchi shaxs. Ba'zi server (yoki sayt) egalari sahifalarda tashrif buyuruvchilar soni hisoblagichini joylashtiradi.

Tashrif buyurish

ing. - hit

rus. - посещение

Foydalanuvchining veb-sahifaga murojaat qilishi. Murojaatlar soni, reklamani joylash-

tirishda hisobga olinadigan sahifa omma-bopligining (qancha odam kirayotganligi-ning) ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi.

Tashrif buyuruvchilar soni

ing. - web-traffic

rus. - посещаемость

Muayyan vaqt birligi davomida (kun, oy va h.k.) veb-saytga (yoki uning ma'lum sahifasiga) tashrif buyurganlar soni.

Tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirish

ing. - extra counting

rus. - накрутка

Maxsus yaratiladigan (bir nechta) sayt, mazmunan hech qanday axborotga ega bo'lmay asosan uchinchi saytga bo'ladigan tashriflarni (ishoralar indeksini) sun'iy ravishda ko'paytirishga yo'naltirilgan. Qo'lda yoki maxsus yaratiladigan dasturiy ta'minot vositasida avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Tashuvchi

ing. - media

rus. - носитель

Ma'lumotlarni turli shaklda saqlaydigan yoki ularni o'zi orqali uzatishga imkon beradigan axborot uzatish vositalari. Masalan: qattiq disklar, egiluvchan disklar, magnit tasmalar, kompakt disklar.

Ta'minlangan Internet dasturlari

ing. - rich Internet application (RIA)

rus. - оснащенные Интернет приложения
An'anaviy Desktop-dasturlarning o'ziga xosligi va funktsionalligini o'zida namoyon qiluvchi veb-sahifa, dastur. RIA foydalanuvchi interfeysiga kerakli bo'lgan jarayonlarni Web-Clientga o'tkazishga asoslanadi, shu bilan birga barcha ma'lumotlar (ma'lumotlar oqimi)ni server dasturlari ko'magida saqlaydi.

Ta'minlovchi kichik tizimlar

ing. - supporting subsystems

rus. - обеспечивающие подсистемы

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimining, asosiy funktsional nimitizimlari mo'tadil faoliyatini ta'minlab beruvchi nimitizimlar guruhi. Ularga tashkiliy, iqtisodiy, matematik, axborot, texnik, huquqiy va boshqa ta'minotlar kiradi.

Ta'minot

ing. - securing

rus. - обеспечение

Faoliyatning qandaydir turlarini amalga

oshirish uchun xizmat qiladigan usullar, vositalar to'plami. Tizimning texnik ta'minoti - bu, tizimga kiradigan texnik vositalar to'plamidir. Dasturiy ta'minot - dasturlar va ularni qo'llash yuzasidan yo'l-yo'riqlar yig'indisi. Tizim dasturiy ta'minoti - operatsion tizim va ma'lumotlar muhofaza qilinishini, ularni arxivlash va dearkxivlashni amalga oshiradigan yordamchi dasturlar to'plami, har xil testlar, ma'lumotlarni tiklash dasturlaridir.

Ta'minot shinasi

ing. - power bus

rus. - шина питания

Qurilmalarni kuchlanish manbaiga ulash uchun xizmat qiladigan ta'minot liniyasi.

Ta'mirga yaroqlilik

ing. - maintainability

rus. - ремонтпригодность

1. Televizor (element) ning sozligini tiklashga bo'lgan moslashuvchanligida, berilgan texnik resursni nosozliklar va ishlamay qolishlarning oldini olish, aniqlash hamda bartaraf etish orqali saqlab turishda ifodaladigan xususiyati.

2. Tuzatib bo'lmaydigan buyum (element) ning ta'mir yaroqliligi deganda, uning texnik holatini tekshirishga hamda qulay tarzda almashtirishga bo'lgan moslashuvchanligi tushuniladi.

Ta'rif

ing. - description

rus. - описание

Biror atama yoki tushuncha to'g'risidagi kengaytirilgan axborot.

Ta'sir etish

ing. - attack

rus. - воздействие

Tizim ishini buzishga urinish bilan, masalan, xalaqitlarni generatsiyalash yoki signalning «nozik tuzilmasini» konfidensial axborot olish maqsadida tahlil qilish yo'li bilan bog'liq har qanday yomon niyatdagi harakat.

Ta'sir etuvchi tashqi omil

ing. - external influencing factor

rus. - воздействующий внешний фактор

Muhofaza qilinadigan axborotning buzib ko'rsatilishiga, yo'q qilinishiga yoki blokirovkalanishiga olib keluvchi, axborotga yoki uni tashuvchiga ko'rsatiladigan tashqi ta'sir.

Ta'sirchan (kritik) axborot**ing.** - sensitive information**rus.** - чувствительная (критичная)

информация

Ochilishi, o'zgartirilishi, yo'q qilinishi yoki yashirilishi kimgadir yohud nimagadir sezilarli ziyon yetkazishi mumkin bo'lganligi uchun, vakolatlangan organ tomonidan muhofaza qilinishi zarur deb belgilangan axborot.

Ta'sirchanlik, kritiklik**ing.** - sensitivity**rus.** - чувствительность, критичность

1. Axborotning, uning egasi tomonidan belgilanadigan va axborot muhofaza qilinishi zarurligini ko'rsatadigan muhimlik darajasi.
2. Tarmoq resursining xarakteristikasi bo'lib, uning muhimlik darajasini belgilaydi. Tarmoqning zaif tomonlarini ham ichiga olishi mumkin.

Ta'sirchansizlik (elektromagnit)**ing.** - immunity**rus.** - невосприимчивость

(электромагнитная)

Texnik vositaning elektromagnit xalaqit ta'siriga qarshi tura olish qobiliyati.

Teg**ing.** - tag**rus.** - тер

HTML tilida - hujjatning bo'linishini, matni formatlash usulini yoki boshqa operatsiyalarni belgilovchi maxsus simbol. «<» belgisi bilan boshlanib, «>» belgisi bilan yakunlanadi. Odatda HTML da teglardan juft holda foydalaniladi. Yopadigan teg o Chadigan tegdan, chap burchakdagi qavsdan keyin keladigan qiya chiziq bo'lishi bilan farq qiladi.

Tegishli o'ramdagi bosma nashr**ing.** - printed edition in

appropriate packaging

rus. - печатное издание в соответствующей упаковке

O'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarida belgilangan, manzil tizimi bo'yicha ekspeditsiya qilinadigan bosma nashrlar (gazetalar, jurnallar) joylangan pochta jo'natmasining turi.

Tekis qoplamali uya**ing.** - uniform-coverage cell**rus.** - сота с равномерным покрытием
Signalning yo'l qo'yib bo'lmaydigan past darajali uchashtalari yoki soyali joylari yo'q bo'lgan uya.**Tekis tinishlar****ing.** - smooth fading**rus.** - гладкие замирания

Qabul qilinadigan signalning barcha chastotaviy tashkil etuvchilari amplitudasi va boshlang'ich faza siljishi taxminan bir xil (tasodifiy) o'zgaradigan, ular o'rtasidagi kechikish bo'yicha farq esa 1/F dan kichik bo'lgan tinishlar, bunda F - uzatiladigan signalning chastotalari farqi.

Tekislash**ing.** - alignment**rus.** - выравнивание

Matn va/yoki grafik obyektlarni kolonka ichida va/yoki sahifa markaziga, chap va o'ng chekkalariga nisbatan joylashtirish. Tekislash vertikal va gorizontaal bo'yicha, kolonkaning o'ng yoki chap cheti, shuningdek, markaz bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Tekshirish maqsadida o'qish**ing.** - file interrogation**rus.** - контрольное считывание

Fayl yoki uning qismlarini, ma'lumotlar yaxlitligini tekshirish maqsadida o'qish. Bunda fayl ichidagi o'zgarimaydi.

Tekshirish oynasi**ing.** - viewport**rus.** - окно проверки

Tuzilmalar, massivlar va ma'lumotlar elementlari qiymatlarini o'zgartirish va tekshirish uchun foydalaniladigan oyna.

Tekshiruvchi simvollar**ing.** - checking symbols**rus.** - проверочные символы

Korreksiyalovchi koddagi xatolarni aniqlash va tuzatish uchun xizmat qiladigan ortiqcha simvollar.

Teksturani kodlash**ing.** - texture coding**rus.** - кодирование текстуры

MPEG-4 da fraktal yoki tasvirni konturli - asoslangan kodlash (TKAK) deb nomlanadigan texnologiya elementi. Kontur bu figuraning chegaralarini tekislikda ifodalay-

digan liniya. Tekstura – tasvir yuzasi tuzilmasini ifodalaydi. TKAK tasvimi tekstura qismi (tekstura bilan to'ldirilgan qismlar) ni og'ib o'tuvchi konturlar kabi taqdim etadi.

«Telefaks» xizmatlari

ing. - «Telefax» service

rus. - услуги службы «Телефакс»

Faksimil qurilmalar o'rtasida hujjatlat (matnlar, grafik tasvirlar) uzatilishini ta'minlaydigan xizmatlar.

Telefon aloqa

ing. - telephony

rus. - телефонная связь

Abonentlar va/yoki operatorlar o'rtasida berilgan chastotalar polosasi bilan nutqni ifodalaydigan signallarning masofaga uzatilishini ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar turi.

Telefon aloqa ilovalarini

dasturlash interfeysi

ing. - telephony application

programming interface (TAPI)

rus. - интерфейс программирования

приложений телефонной связи

Dasturlar tomonidan ma'lumotlarni, faks va ovozlari xatlamini (HyperTerminal, Dial-up Networking, Phone Dialer va Windows NT ni boshqa kommunikatsion amaliy qo'llanmalari kabi) uzatish uchun ishlatiladigan amaliy dasturlash interfeysi (API).

Telefon aloqa yo'nalishining

o'tkazuvchanlik qobiliyati

ing. - telephone network

routing traffic capacity

rus. - пропускная способность

направления телефонной связи

Telefon chaqiruvlarga belgilangan yo'nalishda berilgan xizmat ko'rsatish sifati bilan, telefon aloqa yo'nalishida xizmat ko'rsatilgan telefon yuklama jadalligi.

Telefon apparati

ing. - telephone set

rus. - телефонный аппарат

Nutqni uzatish va qabul qilish uchun mo'ljallangan oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasi.

Telefon avtojavob bergich

ing. - answering machine

rus. - телефонный автоответчик

Telefon aloqani ta'minlash maqsadida nutq-

li xabarlarining avtomatik ravishda yozilishini va qayta eshittirilishini ta'minlaydigan qurilma.

Telefon bandligining davomiyligi

ing. - seizure duration

rus. - длительность телефонного занятия

Telefon tarmog'i liniyasi, kanali yoki kommutatsion aloqa asbobi bitta telefon chaqiruvga xizmat ko'rsatish bilan band bo'ladigan vaqt intervali.

Telefon bog'lanishining davomiyligi

ing. - call connection duration

rus. - длительность телефонного

соединения

Telefon chaqiruv kommutatsiya stansiyasiga yoki uzeligga kelgan paytdan telefon tarmog'i liniyalari, kanallari va kommutatsion aloqa asboblari bo'shaydigan va ular boshlang'ich holatga qaytgungacha bo'lgan vaqt intervali.

Telefon bog'lanishning

o'rnatilish davomiyligi

ing. - call setup duration

rus. - длительность установления

телефонного соединения

Telefon chaqiruv kommutatsiya stansiyasiga yoki uzeligga kelgan paytdan telefon tarmog'i abonentiga chaqiruv signali yuborilgan paytgacha bo'lgan vaqt intervali.

Telefon-kompyuter

ing. - telephone computer

rus. - телефон-компьютер

Radiotelefon va shaxsiy kompyuter imkoniyatlari bo'lgan qurilma. Mobil aloqa qurilmasi, Pentium protsessori, sensorli ekran, modem va amaliy dasturlarni o'zida ifodalaydigan sanoat mahsulotlari mavjud.

Telefon qaroqchisi (telefon

tarmoqlarini buzuvchi)

ing. - phreaker

rus. - телефонный пират

(взломщик телефонных сетей)

Xaker malakasiga ega professional aloqachi bo'lgan firibgar. Telefon tarmoqlariga ulanish va ularning resurslaridan tegishli to'lovlarisiz foydalanish imkonini beradigan elektr qurilmalarni yaratadi.

Telefon stansiyasi

ing. - telephone exchange

rus. - телефонная станция

Abonentlarni telefon aloqasi bilan ta'min-

uchun mo'ljallangan kommutatsiya stansiyasi.

Telefon so'zlashuvining davomiyligi
ing. - call duration

rus. - длительность телефонного разговора
Chaqirilayotgan abonentning javob signali olingan paytdan, o'tboy signali olingan paytgacha bo'lgan vaqt intervali.

Telefon so'zlashuvlar qiymatini vaqtbay hisobga olish apparaturasi
ing. - automatic message accounting (AMA) equipment

rus. - аппаратура повременного учета стоимости телефонных разговоров
Telekommunikatsiyalar xizmatlarini tariflashirish maqsadida, chaqirayotgan abonent oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasing kategoriyasi va raqamini aniqlash uchun mo'ljallangan qurilma.

Telefon tarmog'i abonentga qo'shimcha xizmat turini ko'rsatish
ing. - supplementary services

rus. - дополнительный вид обслуживания абонента телефонной сети
Telefon aloqadan foydalanishda kengaytirilgan imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida, telefon tarmog'i abonentining buyurtmasi bo'yicha taqdim etiladigan, telefon tarmog'i abonentiga xizmat ko'rsatish turi.

Telefon tarmog'ining ajratilgan signalizatsiya kanali
ing. - telephone network signalling associated channel

rus. - выделенный канал сигнализации телефонной сети
Kommutatsiya stansiyalari bilan telefon tarmog'ining kommutatsiya uzellari o'rtasida telekommunikatsiya signallarini almashish uchun foydalaniladigan individual (so'zlashuv kanalidan alohida bo'lgan) kanal.

Telefon tarmog'ining bog'lovchi liniyasi
ing. - telephone network trunk (interoffice)

rus. - соединительная линия телефонной сети
Telefon tarmog'ining, telefon stansiyalari va uzellarini o'zaro hamda podstansiyani mahalliy telefon tarmog'ining tayanch stansiyasi bilan bog'laydigan liniyasi.

Telefon tarmog'ining signalizatsiya tizimi
ing. - telephone network signaling system
rus. - система сигнализации телефонной сети

Avtomatik kommutatsiya qurilmalari normal ishlashini, shuningdek, yarim avtomatik aloqada operatorga, avtomatik aloqada abonentga zarur va yetarlicha axborotni ta'minlaydigan, telekommunikatsiya signallari hamda ularni almashish algoritmlarining majmui.

Telefon tarmog'ining umumiy signalizatsiya kanali
ing. - telephone network common channel signaling

rus. - общий канал сигнализации телефонной сети (ОКС)
Telefon tarmog'ining, kommutatsiya stansiyalari va telefon tarmog'ining kommutatsiya uzellari o'rtasida signallar almashinishda foydalaniladigan guruhli ajratilgan signalizatsiya kanali.

Telefon trafik (telefon yuklamasi)
ing. - telephone traffic

rus. - нагрузка телефонная
Vaqt intervali ichida telefon tarmog'i liniyalari, kanallari yoki kommutatsion aloqa asboblari guruhli telefon bandligining jami vaqti.

Telefon yuklama intensivligi
ing. - telephone traffic intensity

rus. - интенсивность телефонной нагрузки
Vaqt birligi, odatda, bir soat ichidagi telefon trafik. Telefon yuklama intensivligini o'lchash birligi erlang hisoblanadi. Bir erlang bir soat ichidagi bir bandlik soatini o'zida ifodalaydi.

Telefon yuklama manbai
ing. - telephone traffic source

rus. - источник телефонной нагрузки
Oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasi, telefon tarmog'i kanali yoki liniyasi, yoki kommutatsion aloqa asbobi. Trafik ulardan telefon tarmog'iga yoki uning alohida qismlariga keladi.

Telefon zichligi
ing. - telephone density

rus. - плотность телефонная
100 ta yashovchiga to'g'ri keladigan telefon

apparatlari soni. Telefon zichligi foizlarda o'lchanadi

Telefon chaqiruvi

ing. - telephone call

rus. - телефонный вызов

Oxirgi (terminal) abonent telefon qurilmasidan telefon stansiyasiga kelib tushgan, bog'lanishni o'rnatishga bo'lgan telefon talabnoma.

Telefon chaqiruvlar oqimlariga xizmat ko'rsatish intizomi

ing. - telephone call service procedure

rus. - дисциплина обслуживания потоков телефонных вызовов

Kommutatsiya stansiyasidan keladigan telefon chaqiruvlar oqimi o'zaro bog'lanish algoritmining xarakteristikasi, telefon chaqiruvlarga xizmat ko'rsatish usuli va tartibini ichiga oladi.

Telefon chaqiruvlariga xizmat ko'rsatish sifati

ing. - quality of service of telephone calls

rus. - качество обслуживания телефонных вызовов

Axborotni taqsimlash tizimining xususiyati, telefon yo'qotishlar va telefon chaqiruvlariga xizmat ko'rsatilishini kutishni ehtimoliy baholashlar majmui orqali aniqlanadi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasi

ing. - telecommunications infrastructure

rus. - телекоммуникационная инфраструктура

Telekommunikatsiyalar tizimi barcha tarkibiy qismlarining yordamchi quyi tizimlar va abonent uskunasi bilan birgalikdagi majmui.

Telekommunikatsiya liniyasi (telekommunikatsiya kanali)

ing. - telecommunication line

rus. - телекоммуникационная линия (телекоммуникационный канал)

Ma'lumotlarni uzatish uchun foydalaniladigan istalgan fizik muhit, masalan, telefon simi yoki radioto'lqinlar.

Telekommunikatsiya

operatorining xizmat doirasi

ing. - activity zone of telecommunications operator

rus. - зона действия оператора телекоммуникаций

Telekommunikatsiya operatori o'z aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan hudud.

Telekommunikatsiya transport tarmog'i

ing. - telecommunication transport network

rus. - телекоммуникационная транспортная сеть

Tarmoq uzellari va/yoki tarmoq stansiyalari va ularni birlashtiruvchi aloqa liniyalari negizida tashkil etilgan, namunaviy fizik zanjirlar, namunaviy uzatish kanallari va tarmoq traktlarining majmui.

Telekommunikatsiya vositalari

ing. - telecommunication means

rus. - средства телекоммуникаций

Elektromagnit yoki optik signallarni hosil qilish, uzatish, qabul qilish, qayta ishlash, kommutatsiya qilish hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi texnik qurilmalar, asbob-uskunalar, inshootlar va tizimlar. (qonun).

Telekommunikatsiya shkafi

ing. - telecommunications closet

rus. - телекоммуникационный шкаф

Telekommunikatsiya uskunasi, kabel va krosslarni ulash nuqtalarini o'rnatish uchun mo'ljallangan berk bo'shliq. Shkaf magistral va gorizontal kabel tizimlarining krossi joylashgan er hisoblanadi.

Telekommunikatsiyalar inshooti

ing. - telecommunication structures

rus. - сооружения телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar tarmoqlari va vositalarining ishlashi hamda ulardan foydalanishni ta'minlovchi binolar, qurilmalar, telekommunikatsiyalar liniyalari, moslamalar, tayanchlar, machталar va boshqa inshootlar.

Telekommunikatsiyalar kanali

ing. - telecommunication circuit;

telecommunication channel

rus. - канал телекоммуникаций

Kommutatsiya stansiyalari va uzellari yordamida ketma-ket ulangan kommutatsiya tarmog'i kanallari va liniyalaridan tashkil topgan, abonent oxirgi (terminal) qurilmalari (terminallari) uning uchlariga ulanganda xabarning manbadan oluvchiga (oluvchilarga) uzatilishini ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar signallarining o'tish yo'li.

makroiqtisodiyoti

ing. - macroeconomics of telecommunications
rus. - макроэкономика телекоммуникаций
Iqtisodiyot sohasi. U mamlakatda telekommunikatsiyalar rivojini statistik qonuniyat asosida jamiyatning iqtisodiy darajasi bilan o'zaro bog'liqlikda belgilaydi.

Telekommunikatsiyalar mikroiqtisodiyoti

ing. - microeconomics of telecommunications
rus. - микроэкономика телекоммуникаций
Ayrim telekommunikatsiya subyektlari, masalan, telekommunikatsiyalar operatori, aloqa tashkillashtiruvchisi faoliyati bilan bog'liq iqtisodiyot sohasi.

Telekommunikatsiyalar operatori

ing. - communication operator
rus. - оператор телекоммуникаций
Mulk huquqi yoki boshqa ashvoviy huquq asosida telekommunikatsiyalar tarmog'iga ega bo'lgan, uning ishlashi, rivojlanishini ta'minlovchi va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Telekommunikatsiyalar tarmog'i

ing. - telecommunication network
rus. - сеть телекоммуникаций
1. O'zbekiston Respublikasi hududida barcha yuridik shaxslarga yagona xizmat ko'rsatish prinsiplari ularni taqdim qilish tartibi asosida telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan tarmoq.
2. Telefon, telegraf, faksimil kabi uzatishlarining bir yoki bitta necha turini, ma'lumotlar va hujjatli xabarlarining boshqa turlari uzatishini, televizion va radioeshittirish dasturlari traslyatsiyasini ta'minlaydigan telekommunikatsiyalar vositalari majmui.

Telekommunikatsiyalar

tarmog'i abonent
ing. - subscriber of telecommunication network
rus. - абонент сети телекоммуникаций
Telekommunikatsiyalar operatori bilan muayyan turdagi aloqa xizmatlari ko'rsatishi yuzasidan shartnoma munosabatlariga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligi
ing. - information security of telecommunications network

информационная безопасность сети телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar tarmog'ining, buzg'unchilarning tarmoq obyektlariga, ular-da aylanadigan ma'lumotlarga va tarmoqni boshqarish axborotiga, ular bilan tanidida bo'ladigan muayyan (berilgan) maqsadga tasodifiy va ataylab qilinadigan ta'sirlardan (xavfsizlikka tahdidlaridan) yoki uzatish jarayonida telekommunikatsiyalar tarmog'ining ishlash jarayonlarini izdan chiqarish uchun blokirovka qilishdan muhofaza qilinganlik holati.

Telekommunikatsiyalar

tarmog'ining texnologik xavfsizligi

ing. - technological security of telecommunications network
rus. - технологическая безопасность сети телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar tarmog'i apparatdasturiy ta'minotining, qo'poruvchilik turidagi jinoyatkorona nuqsonlarga, ya'ni ma'lum vaqt o'tgandan so'ng yoki komanda bo'yicha nomaqbul oqibatlariga olib keluvchi harakatni amalga oshirishga qodir vositalarga ega bo'lmaslik xususiyati.

Telekommunikatsiyalar

tarmog'ining to'xtovsiz ishlashi

ing. - non-failure operation of telecommunication networks
rus. - безотказность сети телекоммуникаций
Telekommunikatsiyalar tarmog'ining uzluksiz ishchi holatini biror vaqt davomida yoki biror ishini saqlab qolish xususiyati.

Telekommunikatsiyalar

tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi

ing. - communication networks interconnection
rus. - взаимосвязь сетей телекоммуникаций
Tarmoqlarning o'zaro hamkorligi bo'lib, bunda birgalikda ishlaydigan tarmoqlarning abonentlari o'rtasida aloqaning ma'lum turi ta'minlanadi.

Telekommunikatsiyalar tashkiloti

ing. - telecommunication company
rus. - организация телекоммуникаций
Mulkchilik turidan qat'iy nazar, telekommunikatsiya xizmatlarini jismoniy va

yuridik shaxslarga o'zining asosiy faoliyat turi sifatida taqdim qiladigan yuridik shaxs.

Telekommunikatsiyalar tizimi (tarmog'i) ning ishonchligi
ing. - reliability of telecommunication system (network)

rus. - надежность системы (сети) телекоммуникации

Telekommunikatsiyalar tizimining (tarmog'ining) vaqtda, belgilangan chegaralarda, berilgan qo'llash va texnik xizmat ko'rsatish sharoitlarida talab qilinadigan funksiyalarni bajara olish qobiliyatini tavsiflovchi muayyan parametrlar qiymatlarini saqlash xususiyati.

Telekommunikatsiyalar tizimi (tarmog'i)ning barqarorligi
ing. - stability of the telecommunication system (network)

rus. - устойчивость системы (сети) телекоммуникации

Telekommunikatsiyalar tizimi (tarmog'i) talab qilinadigan funksiyalarni normal foydalanish sharoitlarida ham, beqarorlashtiruvchi tashqi omillar ta'sirida vujudga keladigan sharoitlarda ham bajara olish qobiliyati.

Telekommunikatsiyalar tizimi (tarmog'i)ning yashovchanligi
ing. - fail-safety

rus. - живучесть системы (сети) телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar tizimi (tarmog'i) ning, uning barqarorligini buzuvchi tashqi omillar ta'sirida talab qilingan funksiyalarni bajarish qobiliyatini saqlab qolish xususiyati; yashovchanlik koeffitsiyenti orqali tavsiflanadi.

Telekommunikatsiyalar xizmati
ing. - telecommunication service

rus. - услуга телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar xabarlarini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va yetkazib berish bo'yicha faoliyat mahsuli.

Telekommunikatsiyalar xizmatlari
ing. - telecommunication facilities

rus. - услуги телекоммуникаций

Operator va provayderning signallar hamda boshqa axborot turlarini telekommunikatsiya tarmoqlari orqali qabul qilish, uzatish, qayta ishlashga doir faoliyati mahsuli.

Telekommunikatsiyalar xizmatlari foydalanuvchisi
ing. - communication service user

rus. - пользователь услуг телекоммуникаций

Telekommunikatsiyalar xizmatlarining iste'molchisi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Telekommunikatsiyalarni boshqarish tarmog'i

ing. - telecommunication management network (TMN)

rus. - сеть управления телекоммуникациями

Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan standartlashtirilgan yagona interfeyslar va protokollar asosida, turli telekommunikatsiyalar tarmoqlarining komponentlari bilan o'zaro aloqani tashkillashtirish orqali telekommunikatsiyalar tarmoqlari va ularning xizmatlari boshqarilishini ta'minlaydigan maxsus tarmoq.

Telekommunikatsiyalarni boshqarish tizimi arxitekturasini

ing. - architecture of telecommunication management system

rus. - архитектура системы управления телекоммуникацией

Telekommunikatsiyalarni boshqarish tizimi apparat-dasturiy vositalarining, ularning tarkibini, konfiguratsiyasi, strukturasi, axborot o'zaro hamkorlik prinsiplarini belgilovchi umumiy tuzilishi.

Telekommunikatsiyalarning asosiy (bazaviy) xizmati

ing. - basic (base)

telecommunications service

rus. - услуга телекоммуникаций основная (базовая)

Telekommunikatsiyalar xizmatining asosiy vazifasini aniqlaydigan, foydalanuvchiga, uning telekommunikatsiyalar xizmatiga qilgan har bir murojaati bo'yicha taqdim etiladigan xizmat.

Izoh - Asosiy (bazaviy) xizmatlar u yoki boshqa telekommunikatsiyalar xizmatlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar umumiy hajmining eng katta ulushini tashkil etadi. Ularga mahalliy va xalqaro telefon so'zlashuvlar, radionuqtadan foydalanish, oddiy telegrammalarni jo'natish kiradi.

buyurtma xizmati, buyurtma bo'yicha xizmat ko'rsatish

ing. - reserved circuit service, reserved circuit telecommunication service

rus. - заказная услуга телекоммуникаций, обслуживание по заказу

Telekommunikatsiyalar xizmatining turi, bunda aloqa trakti foydalanuvchi tomonidan oldindan aniqlanadigan vaqtda foydalanuvchi-tarmoq signalizatsiyasi vositasida amalga oshirilgan foydalanuvchining so'roviga javoban belgilanadi.

Izoh - Foydalanuvchi aloqa davomiyligini yoki aloqa trakti uzilishi kerak bo'lgan vaqtni oldindan aniqlashi mumkin.

Telekommunikatsiyalarning darhol xizmati, so'rov bo'yicha xizmat ko'rsatish

ing. - demand service, demand telecommunication service

rus. - немедленная услуга телекоммуникаций, обслуживание по запросу

Telekommunikatsiyalar xizmatining turi, bunda aloqa trakti, foydalanuvchi-tarmoq signalizatsiyasi yordamida amalga oshirilgan, foydalanuvchining so'roviga javoban amaliy tarzda zudlik bilan o'rnatiladi.

Telekommunikatsiyalarning qo'shimcha (fakultativ) xizmati

ing. - additional (facultative) telecommunications service

rus. - дополнительная (факультативная) услуга телекоммуникаций

Foydalanuvchining talabi bo'yicha asosiy xizmatga (yoki xizmatlariga) qo'shimcha qilib xizmat (yoki tarmoq) tomonidan taqdim etiladigan telekommunikatsiyalarning istalgan xizmati.

Izoh - Qo'shimcha xizmatlarga misol bo'lib, telefon xizmati tomonidan yangi chaqiruv to'g'risidagi xabar-noma, chaqiruvlarni qayta manzillash, raqamni qisqartirib berish, foydalanuvchiga so'zlashuv punkti kabina-sidan xalqaro telefon so'zlashuvi vaqtida magnitofonni ulash imkoniyatining, teleqrammalar xizmati uchun esa - shoshilinch teleqrammalarni, badiiy blankda teleqrammalarni uzatish kabi imkoniyatlarning taqdim etilishi hisoblanadi.

Telekomyuting

ing. - telecommuting

rus. - телскомьютинг

Kompyuter tarmog'ini orqali ofis bilan bog'lanadigan xodimning shaxsiy kompyuterda masofadan ishlash rejimi.

ing. - teleforum

rus. - телеконференция

Foydalanuvchilarning o'rtasida munozaralar o'tkazish usuli. Real vaqt yoki hujjatlarni qo'rib chiqish rejimida amalga oshiriladi.

Telematn

ing. - teletext

rus. - телетекст

Telematn televizion qabul qilgich kineskopi ekranida standart TV tarmoqdan foydalan-gan holda matnli va oddiy grafik axborotni uzatish hamda aks ettirish tizimi.

Telematn adapteri

ing. - teletext adapter

rus. - адаптер телетекста

Kadr bo'ylab nurning qaytishi mobaynida uzatiladigan televizion dasturlarning ma'lumotnoma alifbo-raqamli axborot elektr signallarini, keyinchalik televizion qabul qilgich yoki maishiy videomonitor ekranida aks ettirish bilan qabul qilish va xotirada saqlash uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat.

(Telematn tizimini) tiklash sifati

ing. - quality of display (of a teletext system)

rus. - качество воспроизведения (системы телетекста)

Telematn tizimining, belgilarning turi, o'lchami va rangi hamda fon va har qanday chaqnashlarga nisbatan ularning kontrastligi bilan tavsiflanadigan, aniq tasvir hosil qiladigan xususiyati.

Teleport

ing. - teleport

rus. - телепорт

Yo'ldoshli va yer usti aloqa tizimlari o'rtasida interfeysni ta'minlovchi yirik yer stan-siyasi.

Telepyuter

ing. - teleputer

rus. - телепьютер

O'zida televizor, kompyuter, DVD va kommunikatorni birlashtiradigan multimedia-qurilma.

Teleskopik antenna**ing.** - telescopic antenna**rus.** - телескопическая антенна

Shtirli antenaning bir qator biri biridan tortib chiqariladigan (bu antenani ishlaymaydigan vaqtda kompakt holatga keltiradi) trubalardan iborat bir turi.

Teleskopik machta**ing.** - telescopic mast**rus.** - телескопическая мачта

Bir nechta biri biridan tortib chiqariladigan seksiyalardan iborat antenna machtasi.

«Teleteks» xizmatining xizmatlari**ing.** - «Teletex» service**rus.** - услуги службы «Телетекс»

Abonentlarga ISDN orqali teleteks kodlangan axborotini o'z ichiga olgan hujjatlar shaklidagi ishga oid xat-xabarlar almashish imkonini beradigan xizmatlar; almashinuv xotiradan xotiraga avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Teletyuner**ing.** - teletuner**rus.** - телетюнер

Eshittirish televideniyesi radiosignallarini qabul qilish va uni videosignallarga hamda tovush chastotasining elektr signallariga o'zgartirish uchun mo'ljallangan maishiy radioelektron apparat, ulami tiklash maishiy videomonitor orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, «Tyuner»ga qar.

Televideniye**ing.** - television**rus.** - телевидение

Harakatlanmaydigan yoki harakatlanadigan obyektning bir-birini almashtiradigan tasvirlarini uzatish uchun mo'ljallangan elektroloqa turi.

Izoh - Umuman olganda, televideniye asosiy qo'llanilishi televideniye eshittirish hisoblanadi, lekin televideniye, shuningdek, sanoatda, fanda, meditsinada va boshqa sohalarda ham qo'llaniladi.

(Televideniye) kommutatsion-taqsimlash apparatxonasi**ing.** - programme switching**centre (of television)****rus.** - коммутационно-распределительная аппаратная (телевидения)

Dastur signallarini turli manbalardan oladigan va ularni boshqa kommutatsiya-taqsimlash apparatxonalariga, dasturlash ap-

paratxonalariga yoki uzatish stansiyalariga yetkazib beruvchi kommutatsiya markazi.

(Televideniye) kontrast diapazoni**ing.** - contrast range (in television)**rus.** - диапазон контраста (в телевидении)

Uzatilayotgan ko'rinishdagi yoki tiklanayotgan tasvirdagi maksimal yorug'likning minimal yorug'likka nisbati.

Televizion adaptiv kodlash**ing.** - television adaptive coding**rus.** - телевизионное адаптивное кодирование

Algoritmi uzatiladigan tasvirning joriy fazoviy va/yoki vaqt bo'yicha xarakteristikalariga moslanadigan raqamli oqimni qisqartirish maqsadida kodlash.

Televizion antenna kuchaytirgichi**ing.** - television aerial amplifier**rus.** - телевизионный антенный усилитель

Antenna qabul qilgan eshittirish televideniyesi radiosignallarini, bog'lovchi antenna kabelida yuzaga keladigan yo'qotishlarni kompensatsiya qilish maqsadida kuchaytirish uchun mo'ljallangan, yordamchi maishiy radioelektron qurilma.

Televizion belgilar generatori**ing.** - television symbol generator**rus.** - телевизионный знакогенератор

Elektr vositalar yordamida harf-raqamli va grafik simvollar televideniye videosignallarini ishlab chiqaradigan televideniye datchik.

Televizion blokli kodlash, blokli kodlash**ing.** - television block coding**rus.** - телевизионное блочное кодирование

Raqamli oqimni qisqartirish maqsadida, uzatiladigan tasvir sanoqlarini bitta, ikkita yoki uchta o'lchamli blokklarga guruhlash hamda bir blokka kiruvchi sanoqlarni birgalikda kodlashga asoslangan, kodlash.

Televizion dasturlarni ko'p**nuqtali taqsimlash tizimi****ing.** - multipoint system of distribution of**television programmes****rus.** - многоточечная система

распределения телевизионных программ Mobil aloqa prinsipi bo'yicha qurilgan va foydalanuvchilarga 40,5 GHz dan 42,5 GHz gacha chastotalar diapazonida ko'p dasturlar

yuqori
da uzatish va interaktiv teleeshittirishlarning turli xizmatlarini taqdim etadigan, yuqori tezlikli simsiz foydalana olish tarmog'i.

Televizion datchik

ing. - TV-sensor

rus. - телевизионный датчик

1. To'liq videosignal, to'liq rangli videosignal yoki asosiy ranglar signallarini ishlab chiqaruvchi qurilma.

2. Obyektdan qaytgan va o'zgartirgichning fotosezgir sirtiga proyeksiyalangan yorug'lik energiyasini elektr signallar ketma-ketligiga o'zgartirgich.

Televizion eshittirish

ing. - TV-broadcasting

rus. - телевизионное вещание

Televizion dasturlarni eshittirish televideniyesi vositalari orqali uzatish.

Televizion eshittirish stansiyasi

ing. - TV-broadcasting station

rus. - телевизионная вещательная станция

Televizion eshittirish diapazonida ishlaydigan, aholi tomonidan qabul qilish uchun mo'ljallangan tovush va tasvir signallarini bir vaqtda uzatuvchi stansiya.

Televizion eshittirish

chastotalari diapazoni

ing. - TV-broadcasting frequency range

rus. - диапазон частот телевизионного вещания

Televizion eshittirish stansiyalari uchun ajratilgan 54 MHz dan 800 MHz gacha bo'lgan oraliqdagi chastotalar diapazoni.

Televizion kanal

ing. - television channel, TV-channel

rus. - телевизионный канал

Televizion dasturlarni metrli va detsimetrli to'liqlar diapazonida uzatish uchun ajratiladigan, 8 MHz (Yevropada 7 MHz, AQSh da 6 MHz) kenglikdagi chastotalar polosasi.

Televizion ko'rsatuvlarni

olisdan qabul qilish

ing. - distant reception of TV transfers

rus. - дальний прием

телевизионных передач

Televizion signallarni uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalar o'rtasida, bevosita ko'rinish masofasidan bir necha marta ortiq bo'lgan masofada qabul qilish.

qilgich

ing. - TV-receiver

rus. - телевизионный приемник

Efiridan va/yoki kabeldan eshittirish televideniyesi radiosignalini, shuningdek, tiktofonlar va DVD-proigriatellar) va boshqa mumkin bo'lgan manbalardan signalni qabul qilish va televizion dastur tasvirini, tovush jo'rligini va ma'lumotlarni tiklash uchun mo'ljallangan radioelektron qurilma.

Televizion qabul qilgich

geterodinining nurlanishi

ing. - TV receiver oscillator radiation

rus. - излучение гетеродина

телевизионного приемника

Televizion qabul qilgich geterodinining parazit nurlanishi oqibatida hosil bo'ladigan va xalaqit deb hisoblanadigan elektromagnit maydoni.

Televizion qabul qilgichning tasvir kanali

ing. - TV receiver image channel

rus. - канал изображения

телевизионного приемника

Televizion qabul qilgichning radiosignalni televizion tasvirga aylantirish uchun mo'ljallangan qismi.

Televizion (radioeshittirish) uzatgichi

ing. - television broadcasting transmitter

rus. - телевизионный

(радиовещательный) передатчик

Modulyatsiyalovchi signallar o'zida, televizion eshittirish dasturini aholi tomonidan bevosita qabul qilib olinishini ifodalaydigan radiouzatgich. Antennali tizim ko'pincha uzatgichning qismi kabi ko'rib chiqiladi.

Televizion radiosignalni bir

o'Ichamli taxminlash

ing. - TV video signal one-dimensional

prediction; 1-D predicton

rus. - одномерное предсказание

телевизионного видеосигнала

Raqamli televizion videosignal joriy sanog'i izlanayotgan qiymatining, shu joriy sanoq olingan televizion tasvir satridagi bita yoki bir nechta qo'shni sanoqlar qiymatlari asosida shakllantirish.

Televizion radiouzatgichning tasvir kanali

ing. - television radio transmitter image channel
rus. - канал изображения

телевизионного радиопередатчика
Televizion radiouzatgichning to'liq rangli televizion signalni tasvir radiosignaliga o'zgartirish va uni nurlantirish uchun mo'ljallangan qismi.

Televizion raqamli dekoder

ing. - television digital decoder
rus. - телевизионный цифровой декодер
Televizion videosignalni raqamli dekodlash qurilmasi.

Televizion raqamli koder

ing. - television digital coder, encoder
rus. - телевизионный цифровой кодер
Televizion videosignalni raqamli kodlash qurilmasi.

Televizion rastrlarning ustma-ust tushishi

ing. - superposition of television rasters
rus. - совмещение телевизионных растров
Tasvirlarning asosiy ranglarda yoki yorug'lik-signal o'zgartirgichlarida optik tasvirli rastrlarning fazoviy mos kelishini ta'minlash.

Televizion retranslyator

ing. - TV-retransmitter
rus. - телевизионный ретранслятор
Eshittirish televideniyesi radiosignalini qabul qilish va uni takroran nurlantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Televizion server

ing. - TV-server
rus. - телевизионный сервер
Eshittirish televideniyesining raqamli televizion videosignallarini va tovush signal-larini magnit disk'larga yozish hamda tiklash uchun mo'ljallangan qurilma.

Televizion signal

ing. - TV-signal
rus. - телевизионный сигнал
Videochastotalarning boshlang'ich polosasi-dagi televizion signal.

Televizion signallarni magnit yozish

ing. - TV-signals magnetic record
rus. - магнитная запись телевизионных сигналов

Televizion dasturlarni harakatlanuvchi ferromagnit tasma bo'ylab, televizion eshittirish elektr signallariga mos bo'lgan o'zgaruvchan qoldiq magnitlanishni hosil qilish orqali (amplituda, chastota va faza bo'yicha) konservatsiyalash.

Televizion signalni diskretlash

ing. - TV signal digitization
rus. - дискретизация телевизионного сигнала
Uzluksiz analog TV signalini shu signalning vaqt bo'yicha alohida sanoqlari ketma-ketligi bilan almashtirish.

Televizion signalning oldindan buzilishi

ing. - emphasis of TV-signal
rus. - предрискажение телевизионного сигнала
Signalning dastlabki qayta ishlanishi, quyi chastotalarning nihoyatda pasayishida va yuqori chastotalarning birmuncha ko'tarilishida ifodalangani.

Televizion sinov jadvali

ing. - television test pattern;
television test card
rus. - телевизионная испытательная таблица
1. Televizion ko'rsatuvlar yoki televizion uskuna ishining sifatini aniqlashda optik yoki elektron vositalarda hosil qilinadigan standart tasvir.
2. Elementlari eshittirish televideniyesi traktining yoki eshittirish televideniyesi trakti zvenolarining tasvir parametrlari va tavsiflarini baholash uchun xizmat qiladigan standart tasvir.

Televizion standart

(eshittirish televideniyesining)
ing. - television standard
(of broadcast television)
rus. - телевизионный стандарт (вещательного телевидения)
Eshittirish televideniyesi tizimini aniqladigan normalangan parametrlarning majmui.

Televizion standartni o'zgartirgich

ing. - converter of television standard
rus. - преобразователь телевизионного стандарта
Eshittirish televideniyesi bitta televizion standartning to'liq videosignali yoki to'liq rang videosignalini boshqa bir televizion standartning to'liq videosignali yoki to'liq rang videosignaliga o'zgartirish qurilmasi.

(Television studiya) apparatxonasi**ing.** - control room (television studio)**rus.** - аппаратная (телевизионной студии)

Videosignallar va tovush jo'rligi signallari qayta ishlanadigan, xususan, signal darajasini rostdash, turli manbalar kommutatsiyasi va signallar nazorati amalga oshiriladigan television studiya xonasi. U, shuningdek, studiya uchun talab qilinadigan turli uskunalarni ham o'z ichiga oladi.

Television tanish signali**ing.** - TV recognition signal**rus.** - телевизионный сигнал опознавания

Television dastur shakllantiriladigan yoki sinov satrlar signallari kiritiladigan punkt-ni belgilash uchun, maydonlarni so'ndirish intervalining belgilangan satrlariga kiritiladigan impulslarning kodli ketma-ketligi.

Television tasvir**ing.** - TV image**rus.** - телевизионное изображение

Tiklash qurilmasi ekranida television sintez orqali olingan tasvir.

Television tasvir makrobloki (slaysi, kadri) ning sarlavhasi**ing.** - headline of TV image**macro-block (slice, frame)****rus.** - заголовок макроблока (слайса, кадра) телевизионного изображения

Television tasvir makrobloki (slaysi, kadri) ning boshlanishiga qo'shiladigan, ularni to'g'ri talqin etish va marshrutlash uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xizmatga oid axborot.

Television tasvir ranglarining surkalib ketishi**ing.** - TV image colour blurring**rus.** - размытие цветов

телевизионного изображения

Ranglilik boshlang'ich signallarining ustma-ust tushmasligidan kelib chiqadigan va ekranda tasvirning rangli konturlari paydo bo'lishiga hamda yorqinlikning tebranishlariga olib keladigan rang uzatish buzilishlari.

(Television tasvirdagi) shovqin**ing.** - noise (on a television picture)**rus.** - шум (в телевизионном

изображении)

Tasvirdagi fazoda va vaqtda tartibsiz paydo bo'ladigan va videosignal datchigidagi yoki

bo'ladigan, yo kvantlash tufayli sodir nallar holatlarida paydo bo'ladigan yorqinlik yoki ranglilikning buzilishlari. Izoh - Taalluqli atama («shovqinlilik»).

Television tasvirning bloklligi**ing.** - modularity of television image**rus.** - блочность телевизионного изображения

Raqamli eshittirish televideniyesi ma'lumotlar oqimini kadr ichida kodlashda vizual ravishda kuzatiladigan, television tasvirning turli uchastkalarida sezilarli chegaralari bo'lgan, television tasvir bloklari ko'rinishidagi buzilishlar.

Izoh - Bloklar chegarasi ko'z tomonidan bir blokdan boshqasiga o'tilganida yorqinlikning sakrab o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Television tasvirning fazoviy ortiqchaligi**ing.** - TV image spatial redundancy**rus.** - пространственная избыточность

телевизионного изображения

Bitta kadr yoki maydon doirasida, television tasvirning qo'shni elementlari o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya bilan belgilanadigan ortiqchalik.

Television tasvirning miltillashi**ing.** - TV image flickering**rus.** - мерцание телевизионного

изображения

Television tasvirda, yorqinlikning kritik chastotadan kichik bo'lgan chastota bilan yuz beradigan nomaqbul davriy o'zgarishlari.

Television tasvirning mozaika effekti**ing.** - TV image mosaic effect**rus.** - мозаичный эффект

телевизионного изображения

Raqamli eshittirish televideniyesi ma'lumotlar oqimini kadr ichida kodlashda vizual kuzatiladigan, television tasvir kadrlarining alohida uchastkalarida chegaralari deyarli sezilmaydigan television tasvir bloklari ko'rinishidagi buzilishlar.

Television tasvirning**psixovizual ortiqchaligi****ing.** - TV image psychovisual redundancy**rus.** - психовизуальная избыточность

телевизионного изображения

Ko'zning television tasvirdagi mayda detal-larni va rang o'tishlarini farqlay o'lmasligi bilan aniqlanadigan ortiqchalik.

Televizion tasvirning sintezi

ing. - TV image synthesis

rus. - синтез телевизионного изображения
Elektr signallarni vaqt hamda fazoda uzluksiz ravishda televizion tasvirning rangi yoki yorqinligiga aylantirish.

Televizion tasvirning vaqt bo'yicha ortiqchaligi

ing. - temporary redundancy of television image

rus. - временная избыточность телевизионного изображения

Televizion tasvirning qo'shni kadrlari yoki maydonlari o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya orqali aniqlanadigan ortiqchalik.

Televizion tasvirning qo'shni kadrlari yoki maydonlari o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya orqali aniqlanadigan ortiqchalik.

Televizion uzatish

ing. - television transmission

rus. - телевизионная передача

Eshittirish tashkilotlari o'rtasida televizion eshittirish dasturlari almashinuvi uchun telekommunikatsiyalar tarmog'i bo'ylab videosingnallarni uzatish.

Televizion videosingnal

ing. - TV video signal

rus. - телевизионный видеосигнал

Videochastotalarning boshlang'ich polosasidagi televizion signal.

Televizion videosingnalni diskret veyvlet-o'zgartirish

ing. - TV video signal discrete wavelet transformation

rus. - дискретное вейвлет-преобразование телевизионного видеосигнала

Televizion tasvirni yaxlit qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan veyvlet-jarayon yordamida, o'zgartirish va kodlash jarayonida nolli koeffitsiyentlarni chiqarib tashlash yo'li bilan erishiladigan televizion videosingnalni spektral o'zgartirish.

Televizion tasvirni yaxlit qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan veyvlet-jarayon yordamida, o'zgartirish va kodlash jarayonida nolli koeffitsiyentlarni chiqarib tashlash yo'li bilan erishiladigan televizion videosingnalni spektral o'zgartirish.

Televizion tasvirni yaxlit qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan veyvlet-jarayon yordamida, o'zgartirish va kodlash jarayonida nolli koeffitsiyentlarni chiqarib tashlash yo'li bilan erishiladigan televizion videosingnalni spektral o'zgartirish.

Televizion videosingnalni ikki o'lchamli taxminlash

ing. - TV-video signal two-dimensional prediction; 2-D prediction

rus. - двухмерное предсказание телевизионного видеосигнала

Raqamli televizion videosingnal joriy sanog'i yoki joriy sanoqlar guruhining izlanayotgan qiymatini shu joriy sanoq olingan televizion tasvir maydoni yoki kadrdagi joriy va qo'shni satrlardan olingan qator qo'shni sanoq qiymatlari asosida shakllantirish.

Raqamli televizion videosingnal joriy sanog'i yoki joriy sanoqlar guruhining izlanayotgan qiymatini shu joriy sanoq olingan televizion tasvir maydoni yoki kadrdagi joriy va qo'shni satrlardan olingan qator qo'shni sanoq qiymatlari asosida shakllantirish.

Televizion videosingnalni uch o'lchamli taxminlash

ing. - TV-video signal three-dimensional prediction

rus. - трехмерное предсказание телевизионного видеосигнала

Raqamli televizion videosingnal joriy sanog'i yoki joriy sanoqlar guruhining izlanayotgan qiymatini, ham shu joriy sanoq olingan televizion tasvir maydoni yoki kadrlaridagi, ham televizion tasvirning qo'shni maydonlari yoki kadrlaridagi joriy va qo'shni satrlardan olingan qator qo'shni sanoq qiymatlari asosida shakllantirish.

Raqamli televizion videosingnal joriy sanog'i yoki joriy sanoqlar guruhining izlanayotgan qiymatini, ham shu joriy sanoq olingan televizion tasvir maydoni yoki kadrlaridagi, ham televizion tasvirning qo'shni maydonlari yoki kadrlaridagi joriy va qo'shni satrlardan olingan qator qo'shni sanoq qiymatlari asosida shakllantirish.

(Televizion videosingnalni) raqamli kodlash

ing. - digital coding

(of television videosingnal)

rus. - цифровое кодирование (телевизионного видеосигнала)

Kiruvchi analog televizion videosingnalni raqamli televizion videosingnalga o'zgartirish.

Kiruvchi analog televizion videosingnalni raqamli televizion videosingnalga o'zgartirish.

Izoh - Raqamli kodlashda raqamli oqimni siqish usulidan foydalanish mumkin.

Televizion o'lchash signali

ing. - television test signal

rus. - телевизионный измерительный сигнал

Televizion uskunaning yoki uzatish kanalining ma'lum bir parametrlari yoki xarakteristikalarini o'lchash uchun mo'ljallangan, o'rnatilgan cheklovlarga ega bo'lgan, berilgan shakldagi videosingnal.

Televizion uskunaning yoki uzatish kanalining ma'lum bir parametrlari yoki xarakteristikalarini o'lchash uchun mo'ljallangan, o'rnatilgan cheklovlarga ega bo'lgan, berilgan shakldagi videosingnal.

Televizor

ing. - television (TV)-set

rus. - телевизор

Maishiy televizion qabul qilgich.

Televizorning eskirishi

ing. - TV depreciation

rus. - изнашивание телевизора

Televizor (elementlar) parametrlarining, mavjudligi faqat uning ish rejimi bilan aniqlanadigan, mexanik, elektr, issiqlik va boshqa yuklamalar ta'siri keltirib chiqaradigan, asta-sekin o'zgarish jarayoni.

Teng amplitudali antenna panjarasi

ing. - uniform array

rus. - равноамплитудная антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari bir xil amplitudalar bilan qo'zg'atiladigan antenna panjarasi.

Nurlantiruvchi elementlari bir xil amplitudalar bilan qo'zg'atiladigan antenna panjarasi.

sinxronlanadigan tarmoq
ing. - democratically synchronized network
rus. - равноправно синхронизируемая сеть
Tayanch generatorlari bir xil maqomga ega bo'lgan hamda tarmoqning barcha sozlanmaydigan tayanch generatorlarining o'rtacha statistik chastotasi sifatida belgilanadigan ishchi chastotaga bir xil ta'sir ko'rsatadigan tarmoq.

Tenglashtirgich

ing. - justifier
rus. - выравниватель

Kodlangan ma'lumotlar oqimi kanal tezligini radiokanalidagi qayd etilgan ma'lumotlar uzatish tezligi bilan moslashtirish maqsadida tenglashtirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Tenglashtiruvchi impuls

ing. - equalizing pulse
rus. - уравнивающие импульсы

Ayrim eshittirish televideniyesi tizimlarida bevosita kadr sinxronlovchi impulslardan avval va ulardan keyin joylashuvchi ikkilangan satr chastotali impuls. Ular satr oralatib yoyishda tiklash qurilmasida qo'shni maydonlar satrlarining aniq almashinib kelishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Izoh - Tenglashtiruvchi impuls satr chastotali impulsning satrlar almashinishiga ta'sirini minimal darajagacha kamaytiradi.

Terabayt

ing. - Tbyte
rus. - терабайт

Xotira hajmi yoki ma'lumotlar miqdorining o'lchov birligi. $2^{40} = 1099511627776$ byte. Ba'zida 1 trillion Tbyte - $10^{12} = 1000\ 000\ 000\ 000$ byte deb hisoblanadi. Farq salkam 10 foizni tashkil qiladi.

Term

ing. - term
rus. - терм

Tashkil etuvchilarga bo'linmaydigan, arifmetik, simvolli yoki mantiqiy ifoda elementlari.

Terminal

ing. - terminal
rus. - терминал

1. Telkommunikatsiya yoki aloqa liniyalari orqali axborot olish va/yoki uzatish uchun mo'ljallangan qurilma.
2. Ma'lumotlarni kiritish/chiqarish quril-

Mikrokompyuter yoki meynfreymdan kam darajada bo'lishi bilan farqlanadi.
3. Ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va olingan natijalarni chiqarish uchun mo'ljallangan elektron (odatda klaviaturali monitor) yoki elektromexanik qurilma. Bu ommabop atama yana ko'p foydalaniladigan tizimlarda ham ishlatiladi.

Terminal serveri

ing. - terminal server
rus. - терминальный сервер

Ko'plab terminallarni lokal tarmoq bilan bitta tarmoq ulanishi vositasida bog'lovchi qurilma.

Terminalni identifikatsiya qilish

ing. - terminal identification
rus. - идентификация терминала
Ulanish o'rnatilgan uzoqdagi abonent terminali (terminallari)ga taalluqli belgilangan identifikatorni abonent terminaliga avtomatik uzatish jarayoni.

Terminalni ko'chirish imkoniyati

ing. - terminal portability (TP).
rus. - возможность переноса терминала
Foydalanuvchiga terminalni chaqiruvning aktiv holati davomida bitta berilgan bazaviy foydalana olish doirasida bir rozetkadan boshqasiga o'tkazish imkonini beradigan terminalni ko'chirish qo'shimcha xizmati.

Terminalning mobilligi

ing. - terminal mobility
rus. - мобильность терминала
Mobil aloqa olib yuriladigan yoki tashiladigan terminalning chaqiruv maqomini o'zgartirmagan holda, tarmoqqa ulanish joyini o'zgartira olish qobiliyati. Terminalning qayta ulanishi avtomatik ravishda, ya'ni bog'lanishni uzmasdan va raqamni qayta termasdan sodir bo'ladi.

Terminator

ing. - terminator
rus. - терминатор

Shina topologiyasiga ega kompyuter tarmoqlarida qo'llaniladigan elektron sxema. Shinning passiv holatida signalning ma'lum bir sathini saqlab turish va signalning qaytishlarini bostirish uchun shina oxiriga ulanadi.

Termografik printer**ing.** - thermal printer**rus.** - термографический принтер

Kontaktisiz, shovqin chiqartmaydigan printer.
Termokallakka ega, maxsus ishlov berilgan qog'ozga bosib chiqaradi.

Termopayvandlash**mashinasining plastinasi****ing.** - plate heat sealing machine**rus.** - пластина термосварочной машины

Pochta aloqasi obyektining nomi o'yib yozilgan metall plastina bo'lib, banderollarni o'rab joylashda termopayvandlash mashinalarida polietilen plyonkalarini payvandlash uchun, shuningdek keluvchi mayda paketlarni polietilen paketlarga joylash bilan bir vaqtda ularga pochta indeksi izini va pochta aloqasi obyektining nomini tushirish uchun mo'ljallangan.

Teskari almashlash**ing.** - deinterleaving**rus.** - депережежение

Simvollarini qabul qilinadigan ketma-ketlikda almashlash (operatsiya, teskari almashlash) sodir bo'lgan raqamli signalning dastlabki tuzilmasini tiklash maqsadida o'rin almashtirish usuli.

Teskari aloqa**ing.** - feedback**rus.** - обратная связь

Tizim chiqish parametrlarining tizimning ishlashiga ta'sir ko'rsatishi. Teskari aloqa prinsipi kibernetika tizimlaridagi asosiy prinsipdir. Masalan, odam - kompyuter teskari aloqa bo'lgan tizimdir: odam kompyuterdagi o'z ishining natijasini ko'radi va natijaga bog'liq ravishda keyingi ishini amalga oshiradi.

Teskari injiniring, teskari ishlanma**ing.** - reverse engineering**rus.** - обратная разработка

Qar.: Revers-injiniring.

Teskari izlash**ing.** - backward search**rus.** - обратный поиск

Ma'lumotlar bazalarida, elektron jadvallarda, matn protsessorlarida - joriy pozitsiyadan hujjat (fayl) boshlanishiga qarab izlash.

Teskari kanal**ing.** - reverse channel**rus.** - обратный канал

Axborotni abonent terminalidan tayanch stansiyaga uzatish kanali.

Teskari kuzatish**ing.** - backtracing**rus.** - обратное прослеживание

Signalning teskari yo'nalishda (zanjir chiqishidan uning kirishi tomon) o'tish yo'lini kuzatish.

Teskari moslik**ing.** - backward compatibility**rus.** - обратная совместимость

Yangi protsessoridagi mashinaning eski dasturlarni, ularga o'zgartirishlar kiritish zaruratsiz bajara olish qobiliyati.

Teskari mulohazalar zanjiri**ing.** - backward chaining**rus.** - обратная цепочка рассуждений

Ekspert tizimlarda yechim izlash usullaridan biri. Bunda mulohaza yuritish, oqibatdan uni keltirib chiqargan sabablarga (faktlarga) tomon boradi.

Teskari qiya chiziq**ing.** - backslash**rus.** - обратная косая черта

Bir qancha operatsion tizimlarda kataloglarni ajratish uchun ishlatiladigan simvol.

Teskari tiklash**ing.** - backward recovery**rus.** - обратное восстановление

Ma'lumotlarning jumalga yozilgan oxirgi versiyasidan ma'lumotlarning dastlabki versiyasini tiklashda foydalanish.

Test**ing.** - test**rus.** - тест

Tizimdagi xatoliklarni aniqlash yoki ishlash unumdorligini baholash uchun ishlatiladigan dastur yoki dasturlar to'plami.

Test-dastur**ing.** - test program**rus.** - тест-программа

Elektron hisoblash mashinasi protsessori va tashqi qurilmalar ayrim bloklari, uzellari ishlashining to'g'riligini tekshirish uchun mo'ljallangan dastur.

ing. - testing

rus. - тестирование

Butun kompyuter va uning dasturiy ta'minoti yoki ayrim uzellari ishlashining to'g'riligini aniqlash jarayoni. Dasturiy ta'minotni testlashning ikki bosqichi ajratiladi: alfa-testlash – maxsus tuzilgan masalalarda tayyor mahsulotni testlash. Beta-testlash – potentsial foydalanuvchilarga bepul tarqatilgan dasturiy mahsulotni haqiqiy masalalarda sinab ko'rish.

Texnik boshqaruv hujjati

ing. - technical guidelines

rus. - технический руководящий материал

Qo'llanilishi shart bo'lgan, texnik talablar va telekommunikatsiyalar tarmoqlari apparaturasining o'zaro aloqada ishlash protokollarini aks ettirgandigan hujjat.

Texnik ekspluatatsiya markazi

ing. - operation and maintenance centre

rus. - центр технической эксплуатации

Texnik vositalar va telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan foydalanish hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish yuzasidan javobgar texnik xodimlar bilan butlangan bo'linma.

Texnik moslik

ing. - technical compatibility

rus. - техническая совместимость

Axborot tizimlarining o'zaro birgalikda ishlash protokollari, dasturlash tillari, ma'lumotlarning formatlari, elektron hisoblash mashinasi apparat interfeyslari darajasida birgalikda ishlay olish qobiliyati.

Texnik muhofaza qilish qurilmasi

ing. - technical protection device

rus. - техническое устройство защиты

Elektron yoki boshqa turdagi qurilma. Bunday qurilmaga ega bo'lmagan shaxslarga dastur bilan ishlash imkoniyati berilmaydi.

Texnik nazorat vositalari

ing. - technical control facilities

rus. - технические средства контроля

Xavfi pochta, kuryerlik jo'natmalarini aniqlash uchun qo'llaniladigan maxsus texnika (metallodetektorlar, rentgen texnikasi, dozimetrlar, gazanaliza torlari va boshqalar).

Texnik qo'llab-quvvatlash markazi

ing. - technical assistance center (TAC)

rus. - центр технической поддержки

Texnik qo'llab-quvvatlash markazi mansub bo'lgan, ishlab chiqaruvchi firmaning mahsulotini ishlatish mobaynida foydalanuvchiga yordam ko'rsatuvchi tashkilot, mutaxassislar guruhi.

Texnik radionazorat stansiyasi, texnik radionazorat markazi

ing. - monitoring station, monitoring centre

rus. - станция технического

радиоконтроля, центр технического

радиоконтроля

Eshittirish dasturlarini nazorat qilish yoki yozib olish maqsadida, ularni qabul qilish uchun mo'ljallangan stansiya.

Texnik topshiriq

ing. - technical task

rus. - техническое задание

Axborot tizimini yaratish talablari va tartibini belgilaydigan asosiy hujjat. Axborot tizimini ishlab chiqish hamda amalga kiritishda uni qabul qilish shu hujjat asosida olib boriladi.

Texnik vositalarni tavsiflash tili

ing. - hardware description languages (HDL)

rus. - язык описания технических средств

Diskret signallarni qayta ishlashga mo'ljallangan qurilmalarni modellashtirish, ishlab chiqish va testlash jarayonlarining ixtisoslashgan tili.

Texnik vositalarning

elektromagnit moslashuvi

ing. - EMC of technical means

rus. - электромагнитная

совместимость технических средств

Texnik vositalarning ma'lum bir elektromagnit vaziyatda, berilgan sifat bilan ishlash va boshqa texnik vositalarga yo'l qo'yilmaydigan elektromagnit xalaqitlar vujudga keltirmaslik qobiliyati.

Texnik shartlarga muvofiqlikni tekshirish

ing. - acceptance test

rus. - проверка соответствия

техническим условиям

Foydalanuvchilar tomonidan yangi yoki takomillashtirilgan tizimni tasdiqlash va uni yakuniy chiqarish uchun o'tkaziladigan testlash.

Texnologik bog'liqlik

ing. - technological dependence

rus. - технологическая зависимость

Dasturiy ta'minotdan foydalanuvchi yetkazib beruvchining texnologik, strategik, narx bilan bog'liq qarorlariga bog'liq bo'lgan vaziyat, shuningdek, yetkazib beruvchi dasturiy ta'minotni qo'llab-quvvatlashdan voz kechgan hollarda, dasturiy ta'minot ekspluatatsion yaroqliligi yo'qolish xavfining mavjudligi.

Texnologiyalar egasi

ing. - technologies

rus. - владелец технологий

Qonun tomonidan belgilangan chegaralar doirasida texnologiyalarga ega bo'lgan va foydalanilayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.

Texnologiyalar va ularni ta'minlash vositalarining mulkdori

ing. - proprietors of technologies and means of their provision

rus. - собственник технологий и средств их обеспечения

To'liq hajmda ko'rsatilgan obyektlarga ega-lik qilish, foydalanish, tasarruf etish vakolatlarini amalga oshiradigan subyekt.

Tez ishlaydigan infraqizil port

ing. - fast infrared port

rus. - быстрый инфракрасный порт

Periferik qurilmalarni simsiz ulash uchun mo'ljallangan port. Mobil kompyuterlarda qo'llaniladi.

Tez kira olish yo'li

ing. - speedbar

rus. - полоска быстрого доступа

Biror-bir tez-tez ishlatiladigan komandalardan «sichqoncha» tugmasini bir marta bosish orqali tez foydalanish uchun mo'ljallangan uncha katta bo'lmagan panel.

Tez klavisha

ing. - shortcut

rus. - быстрая клавиша

Klaviaturadagi yakka klavisha yoki klavishalar birikmasi. Ularning bosilishi menyuni punkti tanlanishiga yoki muayyan komanda berilishiga mos keladi.

Tez tinishlar

ing. - short-term fading

rus. - быстрые замирания

Qabul qilinadigan signal og'ib o'tuvchisining tez o'zgarishlari, ular qabul qilish nuqtasida turli amplituda, boshlang'ich faza, ushlanib qolish va chastotalarning Doppler siljishiga ega nusxalarning interferensiyasi natijasida hosil bo'ladi.

Izoh - Tez tinishlar og'ib o'tuvchisining qiymati, odatda, Reley qonuniga binoan taqsimlanadi.

Tezarus

ing. - thesaurus

rus. - тезарус

Bilimning qandaydir sohasiga tegishli bo'lgan so'zlar tematik prinsip bo'yicha joylashtirilgan va leksik birliklar o'rtasidagi semantik (turjins, sinonimik) munosabatlar ko'rsatilgan lug'at. Axborot-izlash tezaruslarida matnning leksik birliklari deskriptorlar bilan almashtiriladi.

Tezkor beysik

ing. - QBASIC

rus. - быстрый бейсик

Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan BASIC dasturlash tilining dialekti, shuningdek, dasturlarni shu tilda yozish, ishga tushirish va kuzatib borish imkoniyatini beruvchi ishlab chiqish muhiti.

Tezkor fayl tizimi

ing. - high-performance file system

rus. - быстродействующая

файловая система

OS/2 operatsion tizimining fayllarni nomlashda 254 ta belgidan foydalanish va fayllarni minimal fragmentlashni ta'minlaydigan fayl tizimi.

Tezkor ma'lumotlar

ing. - on-line data

rus. - оперативные данные

Onlayn rejimida olingan ma'lumotlar.

Tezkor paket

ing. - fast packet

rus. - быстрый пакет

Kanal pog'onasida, foydalanuvchi tizimlar va ma'muriy tizimlar o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlar bloki.

pochta

ing. - expedited post

rus. - ускоренная почта

Pochta jo'natmalarini tezkor rejimda jo'natish va yetkazib berish (topshirish) bo'yicha pochta xizmati.

Tezkor pochta rejimdagi

ichki pochta jo'natmasi

ing. - internal mail in express mail mode

rus. - внутреннее почтовое отправление

в режиме ускоренной почты

O'zbekiston Respublikasi doirasida tezkor pochta rejimida jo'natiladigan va adresatga yetkazib beriladigan (topshiriladigan) pochta jo'natmasi.

Tezkor pochta rejimdagi

xalqaro pochta jo'natmasi

ing. - international postage in

express mail mode

rus. - международное почтовое

отправление в режиме ускоренной почты Jo'natilishi va yetkazib berilishi (topshirilishi) «EMS» tezkor pochta tizimi bo'yicha Umumjahon pochta ittifoqining hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan pochta jo'natmasi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi (TQTT)

ing. - Lawfull Interception

rus. - система оперативно-розыскных мероприятий (СОРМ)

Huquqni muhofaza qilish organlarining (TQTT dan foydalanuvchilar) olisda joylashgan boshqarish punktidan, bu punktning stansiya uskunasi bilan birgalikda ishlash yo'li bilan, oldindan tanlangan abonent raqamlarining ulanishlarini yoki liniyalar va kanallar orqali o'tadigan ulanishlarni tezkor nazorat qilish uchun mo'ljallangan tizim.

Tezkor xotira

ing. - main storage

rus. - оперативная память

Ma'lumotlar va komandalar joylashtiriladigan, dasturga yo'naltiriladigan barcha xotira.

Tezkor xotira qurilmasi

ing. - random access memory (RAM)

rus. - оперативное

запоминающее устройство

Ma'lumotlarni yozish va o'qish uchun mo'ljallangan yarimo'tkazgichli qurilma.

Oddiy kompyuterlarda - dastur bajarilishi uchun yuklanadigan joy. Doimiy xotiradan farqli o'laroq, tezkor xotira qurilmasi xotirasidagi ma'lumotlarga istalgan tarzda o'zgartirish va istalgan tartibda murojaat qilish mumkin.

Tezkor xotira qurilmasining interfeysi

ing. - memory interface

rus. - интерфейс оперативно

запоминающего устройства

PC Card kartasining andoza interfeysi. Xotira bilan bog'liq operatsiyalarni bajaradi hamda tezkor xotira qurilmasi va kiritish-chiqarish kartalari uchun qo'llaniladi.

Tezkor xotira qurilmasining platasi

ing. - ram card

rus. - плата оперативного

запоминающего устройства

Tezkor xotira qurilmasining mikrosxemalari va ulanish paytida interfeysni ta'minlaydigan sxemali bosma platasi.

Tezkorlik

ing. - performance

rus. - быстрдействие

Tizimdan tashqaridagi kattalik, bajarilgan ish hajmining u bajarilgan vaqtga bo'lgan nisbatiga teng.

Tezlashtirilgan grafika porti

ing. - accelerated graphics port (AGP)

rus. - ускоренный графический порт

Videoadapter va tizim platasi mikrosxemalari o'rtasidagi interfeys. PSI shinasiga asoslanadi. 1997-yilning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan. AGP ning bir nechta realizatsiyalari mavjud: AGP 1x, AGP 2x, AGP 4x lar mos ravishda 266, 533 va 1066 Mbyte/s uzatish tezligiga ega. Ayni vaqtda PCI-Express grafika porti ularning o'rini egallagan.

Tezlatgich

ing. - accelerator

rus. - ускоритель

Kompyuter biror-bir kichik tizimining ishlash tezligini oshiruvchi qo'shimcha apparat ta'minoti (buyurtma mikrosxema, kengaytmali plata, ustun).

Tezlik bo'yicha moslashish

ing. - rate adaptation

rus. - адаптация по скорости

Tizimning yuklanganlik darajasi yoki radio-

to'liqlarning tarqalish sharoitlariga bog'liq holda, kanalda axborot uzatish tezligining o'zgarishi.

Tez-tez qayta ulash bilan

kuzatiladigan xendover

ing. - ping-pong handover

rus. - хэндовер с частым переключением

Mobil aloqa tarmoqlarida uchraydigan nomaqbul hodisa. Abonent stansiyasi ikki qo'shni tayanch stansiyaning xizmat ko'rsatish zonasi doirasida bo'lganda vujudga keladi. Qabul qilinadigan signallar darajasining fluktuatsiyasi natijasida abonent stansiyasining bir tayanch stansiyadan boshqasiga, ko'p marotaba qayta ulanishi sodir bo'ladi. Bu tarmoqning umumiy o'tkazish qobiliyati pasayishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish maqsadida gisterezis bilan qayta ulash sxemasidan foydalaniladi.

Teshik

ing. - loophole

rus. - дыра

Hisoblash texnikasida – dasturiy ta'minot yoki apparaturadagi, foydalana olishni boshqarish jarayonlarini chetlab o'tish imkonini beruvchi xatolar, kamchiliklar.

Teshik, tuynuq

ing. - flaw, loophole

rus. - брешь, лазейка

1. Vakolatlarni belgilashdagi, ishlab chiqishdagi xato. Muhofaza mexanizmlarini chetlab o'tish yoki ularni ishdan chiqarish imkonini beradi.

2. Kompyuterning biror portini ochadigan va xakerga tizimdan foydalanish/tizimga kirish imkonini yaratib beradigan josus-dastur.

Teshik chelak algoritmi

ing. - leaky bucket algorithm

rus. - алгоритм «дырявое ведро»

Tizimning yuklanishi ortib ketganda, aloqa sifatini eng yomon bo'lgan kanallarni vaqtincha uzib qo'yish bilan xatolardan himoyalash usuli. Texnik ta'minot tizimning har bir abonent uchun aloqa sifati to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladigan o'z hisoblagichini tuzadi. Bunday axborot asosida boshqaruv tizimi past sifatli «yomon» kanallarni saralaydi. Natijada qolgan abonentlardagi aloqa sifatining ko'rsatgichlari yaxshilanadi.

Tijorat dasturiy ta'minoti

ing. - commercial software

rus. - коммерческое программное обеспечение

Tijorat tashkiloti tomonidan foyda olish maqsadida yaratilgan dasturiy ta'minot. Foydalanuvchiga dasturiy ta'minot nusxalarini sotishdan foyda keladi. Ko'pchilik odamlar tijorat dasturiy ta'minot erkin dasturiy ta'minotga qarama-qarshi deb xato qilishadi. Bular orasidagi farq unchalik yaqqol emas. Erkin dasturiy ta'minot – bu muallif tomonidan erkin o'zgartirishga, tarqatishga va foyda olish huquqini berishdir. Shundan kelib chiqqan holda, erkin dasturlar tijorat mahsulotlari ham bo'lishi mumkin.

Tijorat siri

ing. - commercial confidentiality

rus. - коммерческая тайна

Davlat yoki xususiy korxonada faoliyatining istalgan sohasidagi konfidensial xarakterdagi ma'lumotlar, ularning tarqatilishi egalari yoki foydalanuvchilariga (yuridik shaxslarga) moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazishi mumkin. Tijorat sirini saqlash uning egasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tijoratga oid axborot

ing. - commercial information

rus. - коммерческая информация

Faqat egasining xohishiga ko'ra va uning shartlari asosida tarqatiladigan kompaniyalar, firmalar, korporatsiyalar bo'yicha ularning faoliyati va ishlab chiqaradigan mahsulotlari, moliyaviy ahvoli, amaliy aloqalar, bitimlar, rahbarlar to'g'risidagi axborot, shuningdek, axborot xizmatlari tomonidan taqdim etiladigan iqtisodiyot va biznes sohasidagi ishga oid yangiliklar.

Tiklamoq

ing. - resume

rus. - восстановить

Ma'lum bir vaqtga to'xtatib qo'yilgan jarayonni to'xtatilgan joyidan qaytadan tiklash.

Tiklash

ing. - restore

rus. - восстановление

1. Registr va o'zgaruvchilarning oldingi holatini tiklash.
2. Oldingi joyga qaytarish, oldingi holatiga qaytarish, misol uchun, ma'lumotlar bazasini oldingi holatiga qaytarish.

ing. - protection point

rus. - точка восстановления

Foydalanuvchi tomonidan sozlanadigan kompyuterdagi xususiyatlar, u o'ratgan dasturlar va ma'lumotlarni zaxiralash, kerak bo'lganda operatsion tizimdagi avvalgi holatni qaytarish maqsadida yaratiladi. U tiklash nuqtasi deb ataladi.

Tiklash qurilmasi

ing. - reproducing device

rus. - воспроизводящее устройство

Televizion tasvir sintezini amalga oshiradigan qurilma.

Tiklash qurilmasining asosiy ranglari

ing. - primary colours of reproduced device

rus. - основные цвета

воспроизводящего устройства

Qabul qilgich hosil qiladigan doimiy ranglilik va o'zgaruvchan yorqinlikdagi ranglar, ulardan, tegishli mutanosiblikda aralashtirgan holda, boshqa ranglarni olishda foydalaniladi.

Izoh - Odatda uchta asosiy rangdan foydalaniladi: qizil, yashil va ko'k rang.

Tiklash rejasi

ing. - disaster recovery plan

rus. - план восстановления

Tizimni yuz bergan falokatdan keyin tiklash rejasi.

Tiklash standartini o'zgartirgich

ing. - converter of standard of reproduction

rus. - преобразователь стандарта

воспроизведения

Standart satr oralatib televizion ko'rsatishdan maydonlarning chastotasi yuqori bo'lgan satrma-satr tiklashga o'tish qurilmasi.

Tiklash tartibotlari

ing. - recovery procedures

rus. - восстановительные процедуры

Avariya yoki to'xtab qolishdan so'ng tizimning axborotni qayta ishlash qobiliyatini tiklash uchun bajariladigan harakatlar hamda ma'lumotlar to'plamlarini tiklash.

Tiklash tizimi

ing. - recovery system

rus. - система восстановления

Ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlashga

qaratilgan dasturlar hamda boshqaruvchi jadvallar kompleksi. Ma'lumotlar bankida va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlarda foydalaniladi.

Til

ing. - language

rus. - язык

Axborot uzatish uchun foydalaniladigan qoidalar, kelishuvlar, tavsiyalar to'plami.

Til protsessori

ing. - language processor

rus. - языковой процессор

Ixtisoslashtirilgan tilda yozilgan komandalarni idrok qilish va mashina kodiga trantslyatsiya qilish uchun mo'ljallangan qurilma yoki dastur.

Til standarti

ing. - locale

rus. - языковой стандарт

Mahalliy o'ziga xoslik. Tizim yoki dastur ishlayotgan milliy va madaniy muhit.

Tilni kengaytirish

ing. - language extension

rus. - расширение языка

Dasturlash tili spetsifikatsiyasiga, uni muayyan mashinada amalga oshirishda qilingan qo'shimchalar.

Tilning amalga oshirilishi

ing. - language implementation

rus. - реализация языка

Dasturlash tilining muayyan platformada kompilyator yoki interpretator ko'rinishida amalga oshirilishi. Amalga oshirilish har doim ham til spetsifikatsiyasiga mos kelmasligi, shuningdek, uni turli xil kengaytirishlarni ichiga olishi mumkin.

Tinish

ing. - fading

rus. - замирание

1. Manbadan katta masofada qabul qilinadigan radiosignallar darajasini qisqa muddatli yoki uzoq muddatli kamayishi (yo'qolishi).
2. Uzatuvchi muhit (temperatura, namlik, bosim) parametrlarining tasodifiy o'zgarishlari bilan asoslangan, shuningdek qabul qilish nuqtasiga turli yo'llar bilan keladigan radioto'lqinlarning interferensiyasi tufayli radiosignalning to'satdan susayishi yoki hat-toki to'liq yo'qolishi.

Tinislarga zaxira

ing. - fade margin

rus. - запас на замирения

Tinishlar mavjud kanalda qabul qilinuvchi signalning quvvat darajasi oshirilishi lozim bo'lgan shunday kattalikka, bunda signal/shovqin nisbatining tinishlarsiz kanalidagi kabi nisbati ta'minlanadi.

Tiqilish

ing. - jam

rus. - затоп

Tarmoqdagi konflikt, tarmoqda paketlarning to'qnashishi oqibatida vujudga keladi va uning o'ta yuklanishiga sababchi bo'ladi.

Tiqin

ing. - stub

rus. - заглушка

Tuzilmaviy dasturlashda (dasturni normal bajarish va kompilyatsiyalash mumkin bo'lishi uchun) amalda dasturlashning har bir qadamida dasturga kiritiladigan ahamiyatsiz protsedura.

Tirqishli antenna

ing. - slot antenna

rus. - щелевая антенна

Elektromagnit to'lqinlarni nurlantirish va qabul qilish to'lqin o'tkazgichda yoki hajmli rezonatorida o'yilgan bitta yoki bir nechta tirqish orqali amalga oshiriladigan antenna.

Tirqishli niqob

ing. - slotted mask

rus. - щелевая маска

Soya niqobi va panjara aperturasining birikmasi. Bunda lyuminofor elementlar vertikal elliptik yacheykalarda joylashgan, niqob esa vertikal chiziqlardan qilingan bo'ladi.

Tirqishli nur tarqatgich

ing. - slot radiator

rus. - щелевой излучатель

To'lqin o'tkazgich devoridagi yoki dastlabki nur tarqatgich rolini bajaradigan tor o'tkazuvchi listdagi tirqish.

Tishlatish

ing. - perforate

rus. - зубцовка

Qog'ozni bo'lish turi bo'lib, unda qog'oz ajratilmaydi, balki unda teshiklar yoki uncha katta bo'lmagan kertiklar hosil qilinadi.

Titrash

ing. - jitter

rus. - дрожание

Raqamli signallar qiymatining qisqa mudatli o'zgarishlari. **Impuls** frontlarining ularning vaqtidagi ideal holatiga nisbatan tasodifiy fluktuatsiyalari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Faza titrashlari. Fazaning tez og'ishi yoki chastotaning siljishi. Aloqa sifati yomonlashishiga yoki sinxronizatsiya buzilishiga olib keladi.

Titrni ushlab turgich

ing. - caption frame

rus. - держатель титра

Televideniya yozuvlar yoki hujjatlar ko'rsatuvi uchun maxsus yasalgan qurilma.

Titul varag'i

ing. - banner page

rus. - титульный лист

Bosib chiqarilgan matnning birinchi sahifasi, topshiriq, foydalanuvchi nomi va boshqa hisobga olish ma'lumotidan tashkil topadi.

Tizim

ing. - system

rus. - система

Qo'yilgan vazifa (vazifalar) ni birgalikda hal etish maqsadida bog'langan dasturlar, modullar, obyektlar majmui. Masalan, operatsion tizim foydalanuvchi bilan shaxsiy kompyuter o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Tizim administratori

ing. - system administrator

rus. - системный администратор

Tizimning ekspluatatsiya qilinishi va ishchi holatda saqlab turilishi yuzasidan javobgar shaxs.

Tizim arxitekturasi

ing. - system architecture

rus. - архитектура системы

Hisoblash tizimining funksional komponentlar (shinalar, signallar, protokollar, interfeyslar va h.k.lar), ularning tashkil qilinishi va o'zaro aloqadorligi yig'indisi sifatida taqdim etilishi.

Tizim dasturchisi

ing. - system software developer

rus. - системный программист

Tizimli dasturiy ta'minot ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan dasturchi.

ing. - system program

rus. - системная программа

Operatsion tizim tarkibiga kiradigan, yoki operatsion tizimlar bilan, kompyuter tizimiga yoki uning alohida qurilmalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq funksiyalarni bajaradigan dastur.

Tizim dasturiy ta'minoti

ing. - operational software

rus. - системное программное

обеспечение

Foydalanuvchilarga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini beradigan va bu ishni osonlashtiradigan dasturiy ta'minot. Operatsion tizim tizimli dasturiy ta'minotning asosiy qismi hisoblanadi. Tizimli dasturiy ta'minotga translyatorlar, qobiqlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari kiradi.

Tizim diski

ing. - system disk

rus. - системный диск

Operatsion tizimning asosiy fayllarini ichiga oladigan disk.

Tizim fayli

ing. - system file

rus. - системный файл

Operatsion tizimning to'g'ri ishlashi uchun zarur fayl.

Tizim gammasi (televideniya)

ing. - gamma of system (in television)

rus. - гамма системы (в телевидении)

Logarifmik shkalada qayta tiklanadigan tasvir element yorug'ligining obyekt tegishli elementining yorug'ligiga bog'liqligini aks ettiradigan egri approksimatsiyalaydigan ishchi uchastkasining to'g'ri og'ishi.

Tizim ichidagi radioxalaqit

ing. - intrasystem interference

rus. - внутрисистемная радиопомеха

Radioelektron vositaga, radioelektron tizimning radioelektron vositasi bilan hosil qilinadigan, ataylab qilinmaydigan radioxalaqit.

Tizim ichidagi xalaqit

ing. - intra-system disturbance

rus. - внутрисистемная помеха

Manbai ko'riladigan tizim ichida bo'lgan elektromagnit xalaqit.

Tizim integratori

ing. - systems integrator

rus. - системный интерпратор

Turli yetkazib beruvchilardan olingan tarkibiy qismlarni birlashtirish yo'li bilan to'liq kompyuter tizimlarini qurishga ixtisoslashgan shaxs yoki kompaniya. Dasturlarni ishlab chiqaruvchilardan farqli o'laroq, tizim integratorlari hech qanday dastlabki kod ishlab chiqmaydi. Buning evaziga ular kompaniyalarni ularning hisoblash ehtiyojlarini qondirish uchun do'konlarda sotilmaydigan kompyuter va dastur paketlaridan foydalanishga undaydi.

Tizim integratsiyasi

ing. - system integration

rus. - системная интеграция

Umumiy ko'p tarmoqli axborot tizimlarini yaratish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan loyiha ishlari hamda xarid operatsiyalarining majmui.

Tizim jarayoni

ing. - system process

rus. - системный процесс

Operatsion tizimni yuklashda hosil qilinadigan jarayon. Operatsion tizimning to'g'ri ishlashi uchun zarur.

Tizim jurnali

ing. - system log

rus. - системный журнал

Tizimda kechayotgan hamma jarayonlar, yuzaga kelayotgan xatoliklar va h.k.lar yozib boriladigan fayl. Avariya holatlarida hodisalarning borishini tiklash, oldingi holatga qaytarish va h.k.larni bajarish maqsadida yuritiladi.

Tizim kaliti

ing. - system key

rus. - системный ключ

Tizim vositalarining ruxsat etilmagan tarzda erkin foydalanishdan muhofaza qilinishini ta'minlaydigan kalit.

Tizim katalogi

ing. - system catalog

rus. - системный каталог

Operatsion tizim o'rnatilayotganda tuziladigan standart papka. Bu papkada tizimning barcha bibliotekalari, uning standart dasturlari va boshqalar saqlanadi.

Tizim muhandisi

ing. - system engineer

rus. - системный инженер

Tizim dasturiy ta'minotini ishlatish va kuzatib borish bilan shug'ullanuvchi shaxs (odatda muhandis-dasturlashtiruvchi). Ba'zi hollarda tizim muhandisi tizim administratori vazifasini ham bajaradi.

Tizim obrazi

ing. - system image

rus. - образ системы

Fayl yaratilish mobaynida tizimning hamma sozlashlarini o'zida saqlovchi fayl. Tizimni to'xtat qolishdan keyin tiklash uchun zarur.

Tizim operatori

ing. - system operator (SysOp)

rus. - системный оператор

Server, kichik tarmoq yoki BBS ning ishga layoqatligini ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish kabi xizmatlarni bajaruvchi shaxs (operator va kopincha egasi).

Tizim papkasi

ing. - system folder

rus. - системная папка

Tizimning ishlashi uchun zarur bo'lgan dastur va modullar joylashtiriladigan katalog.

Tizim platasi

ing. - motherboard

rus. - системная плата

Shaxsiy kompyuterning, protsessor, tezkor xotira qurilmasi, asosiy kiritish-chiqarish portlari va kengaytirish shinalarining ajratgichlari joylashtiriladigan asosiy platasi.

Tizim reestri

ing. - registry

rus. - системный реестр

Iyerarxiy Windows 95, 98, 2000 va NT dagi tarmoq orqali foydalanish mumkin bo'lgan, shaxsiy kompyuterni boshqarish, dasturiy ta'minot distributsiyasini ta'minlash, tizimni ma'muriy boshqarish va masofadan sozlash uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi.

Tizim resursi

ing. - system resource

rus. - системный ресурс

Markaziy protsessor vaqti, tezkor xotira qurilmasi sig'imi, disk xotirasi, periferik qurilmalar yoki bajarish vaqtida ilovalarda foydalaniladigan boshqa tizim komponentlari.

Tizim resurslarini hisobga olish

ing. - accounting

rus. - учет системных ресурсов

Tarmoqda foydalaniladigan resurslarni belgilash yo'li. Bunda, tarmoq administratori har bir foydalanuvchi uchun, ular tomonidan o'qilgan yoki yozilgan ma'lumotlar hajmini, foydalanuvchi va tarmoq o'rtasida bog'lantirish o'rnatilgan vaqtini, bu foydalanuvchi foydalanadigan disk hajmini, shuningdek, turli xizmatlarga qilingan so'rovlarni qayd etib borishi mumkin.

Tizim soatiga havola

ing. - reference to system watch

rus. - ссылка на системные часы

90 kHz chastota davrida tizim vaqtini ko'rsatadigan hamda koder va dekoderning taktili chastotalarini sinxronlash uchun xizmat qiladigan 33 bitli son.

Tizim tahlilchisi

ing. - system analyst

rus. - системный аналитик

Amaliy muammolarga tavsif beruvchi, tizim spetsifikatsiyalarini belgilovchi, qurilmalarni o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar beruvchi, ma'lumotlarga ishlov berish tartibotlarini va ko'zda tutilgan ma'lumotlar tuzilmalarini loyihalashtiruvchi mutaxassis.

Tizim takt generatori

ing. - clock

rus. - системный тактовый генератор

Ma'lumotlar uzatish yoki boshqa qurilmalarni sinxronlash uchun foydalaniladigan davriy signallarni generatsiyalaydigan qurilma.

Tizim utilitasi

ing. - system utility

rus. - системная утилита

Tizimning ishga yaroqliligini diagnostika qilish, modifikatsiyalash va h.k. uchun ishlatiladigan dasturiy ta'minot.

Tizim vazifasi

ing. - system task

rus. - системная задача

Tizimning to'g'ri ishlashini ta'minlaydigan va fon rejimda amalga oshiriladigan jarayon.

Tizim xotirasi

ing. - system memory

rus. - системная память

Tizim platasi dagi tezkor xotira qurilmasi.

ing. system kernel
rus. - ядро системы
Operatsion tizimning asosiy moduli.

Tizim (yuklanuvchi) qismi

ing. - boot partition
rus. - системный (загрузочный) раздел
Qattiq diskning operatsion tizim o'z-o'zini yuklashi uchun zarur bo'lgan tashkiliy fayllari joylashgan qismi.

Tizim shinas

ing. - system bus
rus. - системная шина
Amaliy dasturda operatsion tizim u yoki bu tizim funksiyasini bajarishi uchun foydalaniladigan mexanizm.

Tizim shrifti

ing. - system font
rus. - системный шрифт
Grafik interfeysli tizimlarda – ekranga xabarlar, menyu va sh.k.larni chiqarish uchun foydalaniladigan shrift.

Tizim chaqiruvi

ing. - system call
rus. - системный вызов
Operatsion tizim u yoki bu tizim funksiyasini bajarishi uchun amaliy dastur foydalanadigan mexanizm. Operatsion tizim odatda, himoyalangan tizimda bajarilishi hisobga olinsa, u holda tizim chaqiruvlarini tashkil qilish uchun bitta yoki bir nechta dasturli uzilish zaxiralanadi, masalan, MS-DOS da int 21 h.

Tizimdan foydalana olishlik

ing. - system availability
rus. - доступность системы
Tegishli vakolatlari bo'lgan subyektlarning axborotdan o'z vaqtida hech qanday to'siqlarsiz foydalana olishini ta'minlash qobiliyatini tavsiflovchi axborot (uni qayta ishlash vositalari va texnologiyalari) aylanadigan (tarqaladigan) tizimning xususiyati.

Tizimdan chiqish

ing. - logoff (logout)
rus. - выход из системы
Foydalanuvchining kompyuter tizimidan chiqish jarayoni.

Tizimga

ing. - login (logon)
rus. - вход в систему
Foydalanuvchi tomonidan, uni identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarning (masalan, nomi, domeni va paroli) taqdim etilishi, haqiqiylikni tekshirish va foydalanuvchining ish seansini tashkil qilish.

Tizimlararo xalaqit

ing. - intersystem disturbance
rus. - межсистемная помеха
Manbai ko'rilayotgan tizimga tegishli bo'lmagan tizimda joylashgan elektromagnit xalaqit.

Tizimlarni boshqarish serveri, qisqa xabarlar xizmati

ing. - systems management server, short message service (SMS)
rus. - сервер управления системами, служба коротких сообщений
1. Microsoft Windows NT Back Office dasturii paketining tarkibiy qismi.
2. Mobil aloqa tarmoqlaridagi qisqa xabarlar xizmati.

Tizimlashtirilgan kabel tizimi

ing. - structured cabling system (SCS)
rus. - структурированная кабельная система
Ofis binolarida nutq va ma'lumotlarni uzatish uchun maxsus loyihalashtirilgan kabel tarmog'i hisoblanadi, masalan AT&T korporatsiyasining SYSTIMAX tizimi ekranlashtirilmagan o'ralgan juftlikda. Ma'lumot o'tkazuvchanlik imkoniyati bo'yicha mis kabelli strukturalangan qabul tizimi turli standartlarda toifalar va turkumlarga bo'linadi.

Tizimlashtirilgan so'rovlar til

ing. - structured query language (SQL)
rus. - язык структурированных запросов
Ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga mo'ljallangan xalqaro standart til.

Tizimli blok

ing. - system unit
rus. - системный блок
Shaxsiy kompyuterning, ta'minot bioki, asosiy plata, kengaytirish platasi, magnit va optik disklardagi to'plagichlar joylashgan qismi.

Tizimli dasturlash

ing. - systems programming

rus. - системное программирование

Tizim va/yoki tarmoq dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va ta'minlash.

Tizimli (imtiyozga ega) rejim

ing. - system mode, kernel mode, monitor mode

rus. - системный

(привилегированный) режим

Komandalarni bajarishning alohida rejimi, bunda imtiyozga ega bir qator, masalan, xotira va registrlarning tizimli sohalarini o'zgartirish operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'yadigan operasion tizim yadrosining moduli bajariladi.

Tizimli navbatlar sohasi

ing. - system queue area

rus. - область системных очередей

Umumiy tizim jadvallari, boshqaruv bloklari va navbatlarini, tizim konfiguratsiyasini aniqlaydigan tarkib va mazmunni hamda ish jarayonida tuziladigan umumiy sonda-gi manzilli fazolarni joylashtirish uchun xizmat qiladi.

Tizimli oqim

ing. - system flow

rus. - системный поток

MPEG-1 standartida bir dasturga tegishli bo'lgan hamda umumiy taktli sinxronlash orqali birlashtirilgan paketlangan elementar oqimlarni yig'ish.

Tizimli tahlil

ing. - systems analysis

rus. - системный анализ

Takomillashtirish yoki yangi tizim ishlab chiqish maqsadida, tizimni va uning o'zaro bog'langan kichik tizimlarini tadqiq qilish.

Tizimli yondashuv

ing. - system concept

rus. - системный подход

Har bir masala, vazifa, hodisa, obyektning birmuncha keng yaxlit va ajralmas butun-ning - o'zaro bog'lagan tarkibiy elementlar tizimining bir qismi sifatida qarab chiqish usuli. Tizim ishlashining maqsadlari aniqlanishini, uning boshqa tizimlar bilan aloqalari ajratib ko'rsatilishini ko'zda tutadi; vazifa-

ning hal etilishi o'zaro bog'langan vazifalar va yuqoriroq darajadagi muammolar hal etilishiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Tizimni muhofaza qilish

ing. - system security

rus. - защита системы

Dasturlar va tizim ma'lumotlaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishni yoki tizim ishiga tasodifiy aralashishni bartaraf etish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar majmui.

Tizimni optimallashtirish

ing. - system optimization

rus. - оптимизация системы

Optimallashtirish mezonlari, optimallashtirish parametrlari va cheklashlar belgilanadigan, tizimni takomillashtirish jarayoni.

Tizimni to'la qayta yuklash

ing. - hard boot

rus. - полная перезагрузка системы

Tizimni, ko'pincha kompyuter ta'minot manbaini uzib-ulash orqali takroriy yuklash.

Tizimning minimal talablari

ing. - minimum system requirements

rus. - минимальные системные требования

Texnik va dasturiy vositalarga, elektron hujjat aylanishi imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qo'yiladigan, minimal zarur bo'lgan talablar.

Tizimning yaxlitligi

ing. - system integrity

rus. - целостность системы

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimining, o'zining tezkor vazifasini bajarish bilan bir vaqtda, ro'yxatga olinmagan foydalanuvchilar tomonidan resurslardan foydalanishning yoki o'zgartirilishining oldini olish, shuningdek, ro'yxatga olingan foydalanuvchilar tomonidan ularga tegishli bo'lmagan resurslardan foydalanishning yoki o'zgartirilishining oldini olish xususiyati.

Tizimning o'tkazish qobiliyati

ing. - throughput

rus. - пропускная способность системы

Jarayonlarning bir vaqt birligi ichida o'z ishini tugatishining (o'rta) soni.

ing. - subprocess

rus. - подчиненный процесс

Ona-jarayonga bog'liq jarayon, ona-jarayon yo'q qilinganda yo'q qilinadi, ona-jarayon tugallanishdan oldin barcha o'ziga tobe jarayonlarning tugashini kutib turishi kerak.

Toifalashish sxemasi

ing. - categorization scheme

rus. - схема категоризации

Dasturiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan toifalalar va turlarning tartiblashtirilgan birikmasi.

Toifalashish makoni

ing. - categorization space

rus. - пространство категоризации

Tizimlar va dasturiy ta'minotning, o'zining individual o'lchovi sifatida bitta yoki bir nechta tasniflashga ega bo'lgan manfaatdor tomonlarning toifalash bo'yicha muammolari ifodalangan universal to'plami.

Token

ing. - token

rus. - токен

Pul mablag'lari evaziga investor kompaniyadan oladigan raqamli aktiv.

Tola

ing. - fiber

rus. - волокно

1. Ingichka shisha ip.

2. Yadro va demperdan iborat, axborotni yorug'lik ko'rinishida uzata oladigan optik to'lqin o'tkazgich.

Tola (optik tola)

ing. - fiber

rus. - (оптическое) волокно

Elektromagnit nurlanishni atmosfera orqali bo'ladigan optik aloqaga nisbatan uzoqroq masofaga uzatish uchun mo'ljallangan tola. Optik tolalarning barchasi o'zak va qobiq diametri, shuningdek, sindirish ko'rsatgichi profili bilan farq qiladi.

Tola optikasi

ing. - fiber optics

rus. - волоконная оптика

Telekommunikatsiya maqsadlarida, yorug'lik diodi yoki lazer bilan generatsiyalanadigan yorug'lik nurlanishini uzatish uchun shishali yoki polimer yo'naltiruvchi tuzilma (optik tola).

ing. - splicing

rus. - сращивание

O'xshash yoki yaqin tola uchlarini konnektordan foydalanmasdan doimiy ulash.

Tolali kanal

ing. - fiber optical channel

rus. - волоконный канал

Tolali tarmoqning asosiy va o'ta yuqori tezlikli ishchi stansiyalari o'rtasida ma'lumotlar uzatish vositalari uchun maxsus ishlab chiqilgan standart. Unda ma'lumotlar uzatishning turli tezliklaridan va masofalardan, bir modali yoki ko'p modali tolalardan foydalaniladi.

Tolali yorug'lik o'tkazgich

ing. - fiber guide

rus. - волоконный световод

Doiraviy kesimga ega va ikkita konsentrik dielektrik qatlamdan iborat yorug'lik o'tkazgich. Uning ishlashi optik to'lqinning optik xossalari turlicha bo'lgan ikki muhit chegarasida sinish jarayonlaridan foydalanishga asoslangan.

Tom

ing. - volume

rus. - том

Fayl tizimida foydalanish uchun formatlashtirilgan, diskning bir nechta bo'limi yoki bo'limi; o'qish va yozish uchun mumkin bo'lgan axborot tashuvchi alohida blokning bir qismi. Operatsion tizim ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanadigan joyni o'zida ifodalaydi. Har bir tom noyob belgiga, ko'pincha, tomni kompyuterda belgilaydigan disk harfiga ega. Tom diskni, diskning bir qismini, bir qancha diskning qismlarini yoki magnit tasmani ichiga olishi mumkin. Tomlar, shuningdek, «disk tomlari» yoki «mantiqiy disklar» deb ham ataladi. Har bir tom o'zining mustaqil yuklash yozuvini, o'zak katalogini va papkalar daraxtini ichiga oladi.

Tom nomi

ing. - volume name

rus. - имя тома

Ma'lumot tashuvchi (qattiq disk) formatlanayotganda yoki maxsus utilita yordamida beriladigan nom. Har bir jismoniy disk tomi dasturni arxivlashda zarur bo'ladigan o'zining nomiga ega bo'ladi. Tom nomi bilan ishlash operatsion tizim tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Tonal chastotani uzatish kanali

ing. - tonal frequency transmission channel
rus. - канал передачи тональной частоты
300-3400 Gs chastota kengligiga ega bo'lgan
namunaviy analog uzatish kanali.

Tonal ko'p chastotali raqam terish

ing. - dual-tone multi-frequency
signal (DTMF)

rus. - тональный

многочастотный набор номера
Raqamlarni DTMF ikkita tovush signalining
qo'shilishi yordamida kodlash usuli. Turli
chastotadagi signallarni tarmoq orqali uza-
tish - telefonning sonli tugmalari bosilgan-
da tarmoqqa yakka signal uzatiladi. Bunday
imkoniyat ba'zi bir tarmoq funksiyalaridan
(ovozli pochta, E-mail) foydalanish uchun
zarur.

Tonal tayyorlik signali

ing. - go-ahead tone

rus. - тональный сигнал готовности

Stansiyaning xabarlamini qabul qilishga
tayyor ekanligini bildiruvchi tovush signali.

Topologiya

ing. - topology

rus. - топология

1. Telekommunikatsiyalar tizimining umum-
jismaniy yoki mantiqiy konfiguratsiyasi: jis-
moniy topologiya - komponentlarni kabel-
lar va simlar bilan ulash sxemasi, mantiqiy
topologiya esa xabarlar tarmoqdan qanday
o'tishini tavsiflaydi.

2. O'zaro aloqalar, o'zaro ulanishlarni
o'rganish. Windows tarmog'i komponent-
lari o'rtasidagi munosabat tizimi. Active
Directory replikatsiyasiga qo'llash mumkin,
topologiyasi ma'lumotlarni bir-biri bilan
almashish uchun domen kontrollerlari to-
monidan ishlatiladigan ulanishlar to'plami-
dan iborat.

Topshiriq

ing. - job

rus. - задание

Kompyuter bajaradigan ish hajmi. U ma'lumotlar, dasturlar, fayllar va mashina uchun ko'rsatmalar majmuidan iborat. Ixtiyoriy topshiriq bir necha bosqichda bajarilishi mumkin, ularning bir qismi o'zidan avvalgilarning natijalariga bog'liq bo'ladi. Topshiriqlar ikki xil rejimda, ya'ni bir dasturli va ko'p dasturli rejimda bajarilishi mumkin. Oxirgi holda, tizimda qandaydir vaqt

mobyaynida topshiriqlar majmui bajariladi. Uni maxsus rejalovchi dastur boshqarib, u amaliy jarayonlar tomonidan qo'shma resurslarni ishlatish tartibini belgilaydi.

Toq

ing. - odd

rus. - нечетный

Ikkiga qoldiqsiz bo'linmaydigan sonlar.

Tor nurga ega antenna

ing. - pencil-beam antenna

rus. - антенна с узким лучом

Keskin yo'naltirilgan antenna.

Tor polosali antenna

ing. - narrow-banded antenna

rus. - узкополосная антенна

Chastotalar ishchi polosasi kengligining polosaning o'rta chastotasiga kichik (0,1 dan kam) nisbati bo'lgan antenna.

Tor polosali xalaqit

ing. - narrowband disturbance

rus. - узкополосная помеха

Spektr kengligi retseptorning o'tkazish polosasi kengligidan kichik yoki unga teng bo'lgan elektromagnit xalaqit.

Tortqichli machta

ing. - guyed mast

rus. - мачта с оттяжками

Qishloq joylarida radioreleli aloqa liniyalari tez yo'yish uchun mo'ljallangan anten-
naning oddiy turi.

Izoh - Odatda, bir-biri bilan mexanik bog'langan uch-
burchak kesimli bir nechta seksiyadan iborat. Antennani
vertikal holatda ushlab turish metall troslar yordamida
amalga oshiriladi.

Tortqichsiz machta

ing. - free-standing mast

rus. - мачта без оттяжек

Konstruksiyasi dala sharoitlarida mahkam-
lashning qo'shimcha vositalaridan foydalan-
masdan yo'yishga imkon beradigan antenna
machtasi.

Tovush balandligini avtomatik rostlagich

ing. - automatic volume control

rus. - автоматический регулятор

громкости

Bir kanaldan boshqasiga o'tilganda yoki reklama roliklari uzatilganda, tovush balandligi darajasining yoqimsiz sakrashlarini avtomatik tarzda bartaraf etadigan tizim, bunda tovush balandligi bir xil darajada saqlanadi.

ing. - sound file

rus. - звуковой файл

Nuqtama-nuqta kodlangan tovush bo'laklaridan iborat fayl. Bundan tashqari, tovush fayli dasturlar va qurilmalar tomonidan ishlatiladigan boshqaruvchi kodlami ham o'z ichiga oladi. Tovush fayllarining namunaviy kengaytmalari:

- Microsoft Windows-wav;
- MPEG (Moving Pictures Expert Group) Layer-3;
- .mp3;
- Apple-aif;
- MIDI-mid;
- Windows Media Audio-wma.

Tovush jo'rligi

ing. - sound tracking

rus. - звуковое сопровождение

Televizion dasturning tovushli tashkil etuvchisi.

Tovush jo'rligidagi eltuvchi

ing. - sound carrier

rus. - несущая звукового сопровождения

Tovush jo'rligidagi signal bilan televizion dasturni modulyatsiyalash uchun mo'ljallangan eltuvchi.

Tovush jo'rligidagi radiosignal

ing. - sound tracking radio signal

rus. - радиосигнал звукового сопровождения

Tovush jo'rligidagi signal bilan modulyatsiyalangan tovush jo'rligidagi eltuvchi signal.

Tovush jo'rligidagi radiouzatgich

ing. - radiotransmitter of sound accompaniment

rus. - радиопередатчик звукового сопровождения

Radiochastota signallarini yaratishda foydalaniladigan, televizion dasturning tovush jo'rligini tashuvchi televizion radioeshittirish uzatgichining qismi.

Tovush jo'rligidagi uzatgichning o'rtacha chastotasi

ing. - average frequency transmitter of sound tracking

rus. - средняя частота передатчика звукового сопровождения

Sinusoidal signal modulyatsiyalagan nurlantiruvchi to'liqning o'rtacha chastotasi.

to'liqning modulyatsiya bo'lmagandagi chastotasi.

(Tovush jo'rligidagi) tasvir kanali

ing. - image (sound accompaniment) channel

rus. - канал изображения

(звукового сопровождения)

Eshittirish televideniyesi trakti yoki trakti zvenosining, (tovush jo'rligidagi) televizion tasvimi uzatish uchun mo'ljallangan qismi.

Tovush kanali

ing. - sound channel

rus. - канал звука

Tovush eshittirish signallari yoki tovush jo'rliqi signallarini uzatishga mo'ljallangan namunaviy uzatish kanali.

Tovush kanalidagi tovush bosimi bo'yicha nochizikli

buzilishlar koeffitsiyenti

ing. - nonlinear distortion factor in sound channel on sound pressure

rus. - коэффициент нелинейных искажений в канале звука по звуковому давлению

Televizioning akustik tizimi tomonidan kuchaytiriladigan tovush bosimi garmonikalari amaldagi qiymatining, asosiy chastota va uning garmonikalarining amaldagi qiymatiga nisbati.

Tovush kartasi

ing. - sound card

rus. - звуковая карта

Kompyuterlashtirilgan qurilmalarda tovushni qayta ishlash uchun qo'llaniladigan elektron qurilma.

Tovush kodeki

ing. - audio codec

rus. - звуковой кодек

Tovushni kodlash/dekodlash uchun mo'ljallangan dasturlar. Kodlangan tovush o'z sifatini qariyb yo'qotmaydi va xotiradan kamroq joy egallaydi.

Tovush miksheri

ing. - audio-mixer

rus. - звукомикшер

Tovush jo'rligidagi signallarni shakllantirish maqsadida bir necha manbadan keladigan tovush signallarini birlashtiruvchi qurilma.

Tovush oldi buzilishlari

ing. - sound emphasis

rus. - звуковые предискажения

Uzatuvcchi tomonda tovush signalini dastlabki qayta ishlash, bunda yuqori chastotalar ma'lum logorifmik qonunga asosan ko'tariladi. Qabul qiluvchi tomonda old buzilish bartaraf etiladi. Old buzilishlardan maqsad - signalning xalaqitga bardoshlilikini oshirishdir. Yuqori chastotalarni ko'tarish, ularning xalaqitlarga uchrash ehtimoli ko'pligi bilan bog'liqdir. Bartaraf etiladigan old buzilishlarning noto'g'ri tanlovi, qabul qiluvchi tomondan tovushni tiklashga imkon bersa ham uning sifatini sezilarli pasaytiradi.

Tovush platasi

ing. - audioadapter

rus. - звуковая плата

Shaxsiy kompyuterlar uchun tovushlarni yozish va qayta eshittirish imkonini beruvchi qo'shimcha plata.

Tovush-tasvir kesichuvchi buzilishi

ing. - sound-image cross distortion

rus. - перекрестное искажение звук-изображение

Tasvir videosignali yoki televizion video-signalning tovush jo'rligidagi signal keltirib chiqaradigan buzilishi.

Tovush va tasvirning nosinxronligi

ing. - picture-sound lag picture-sound desynchronization

rus. - несинхронность звука и изображения

Tasvir va tovush jo'rligi o'rtasidagi aniq sezilarli vaqt oraliqi.

Tovush shovqinini pasaytirish

(kompandirlash)

ing. - sound noise reduction (companding)

rus. - звуковое шумопонижение (компандирование)

Audiosignalning, boshlang'ich signal amplitudaviy spektrini siqishdan iborat bo'lgan, xalaqitbardoshlilikini oshirish usuli, bunda amplitudaning quyi chegarasi ehtimol tutilgan shovqin darajasidan yuqori bo'ladi, yuqoridagisi esa joyida qoladi. Qabul qilish tomonda signal tiklanadi.

Tovush chastotasi

ing. - audio frequency

rus. - звуковая частота

20 Hz dan 20 kHz gacha diapazondagi chastota.

Tovush chastotasi bo'yicha

nochiqliki buzilish

ing. - audio-frequency harmonic

distortion (aural transmitter)

rus. - нелинейное искажение по звуковой частоте

Kirish signalidagi garmonikalar tarkibining, uning uzatgichdan o'tishi natijasida o'zgarishi.

Tovushli axborotni qayta ishlash

ing. - speech processing

rus. - обработка речевой информации

Tovushli axborotni qayta ishlovchi dasturlarda qo'llaniladigan algoritm.

Tovushli axborotni tanlash xizmati

ing. - sound retrieval service

rus. - услуга выборки звуковой информации

Foydalanuvchi tomonidan (talabi bo'yicha) musiqiy yoki boshqa audio-konferensiyani tashabbusli tanlash.

Tovushli kodlar

ing. - beep codes

rus. - звуковые коды

Xatoliklar to'g'risida tovush signallari bilan xabardor qilish tizimi. tezkor-himoya qurilmasi, kesh-xotira yoki protessor xatoliklarini aniqlashda ishning dastlabki bosqichida tayanch kiritish/chiqarish tizimi (BIOS) da foydalaniladi. Xatolik turi qisqa va uzun gudoklar soni hamda ularning ketma-ketligi bilan belgilanadi.

Tovushli ma'lumotlarni

qayta ishlash darajasi

ing. - level of processing of sound data

rus. - уровень обработки звуко данных

Tovushli ma'lumotlar oqimini kodlashda foydalaniladigan algoritmlar majmui. Siqilish darajasi hamda koder va dekoderning murakkabligini belgilaydi.

Tovushli pochta

ing. - voice mail

rus. - голосовая почта

Telefon band bo'lganda, javob bermaganda, yoki mobil telefon mobil aloqaning xizmat ko'rsatish zonasidan tashqarida joylashgan yoki o'chirib qo'yilganda, xabarni qabul

tirilgan analogi.

Izoh – Tovushli pochta uchun abonentga kelib tushgan sanasi va vaqtli ko'rsatiladigan xabarlarini saqlash uchun yana bitta telefon raqami – «quti» raqami taqdim etiladi.

Tovushli signal

ing. - sound signal

rus. - звуковой сигнал

Tovush chastotasining, televizion tasvimga tovushli dasturi yoki tovush jo'rligini aks ettiruvchi, dasturiy signali.

Tovushni boshqarish

ing. - volume control

rus. - управление звуком

Chiquvchi audio qurilma, odatda kolonkadan chiqadigan tovushlarni boshqarish uchun utilita. Tovushning past-balandligini o'zgartirish mumkin.

Tovushni zichlash – MP3 texnologiyasi

ing. - MPEG-1 Audio Layer 3 (MP3)

rus. - технология сжатия звука – MP3

Tasvirni hamda MPEG-1 va MPEG-2 tovushlarni raqamli siqish standartlarini yo'qotish bilan Layer 3 tovushli axbotini siqish va saqlash formati. 10-12 kompressiyaning keng tarqalgan koeffitsiyenti. Format katta formatdagi musiqali fayllarni Internet orqali uzatishni soddalashtirish va arzonlashtirish maqsadida yaratilgan. Oddiy tinglovchining eshitish qobiliyati farqlay olmaydigan yozuvdagi tovush chastotalarini olib tashlashga imkon beradigan siqishning maxsus algoritmidan foydalaniladi; shunga muvofiq yozuvning hajmi ancha qisqaradi. Shu bilan birga, format professional foydalanish uchun nobop hisoblanadi.

Toza

ing. - blank

rus. - чистый

Odatda, ushbu atama Internet Explorer moslamalarida qo'llaniladi, agar ushbu moslama tanlansa, kuzatib boruvchi andoza bo'yicha Internet Explorer ishga tushirilganda Internetga ulanmagan holda toza sahifani ochadi.

Tozalash

ing. - cleanup

rus. - очистка

Vaqtinchalik fayllarni o'chirish. Diskdagi bo'sh joyni ko'paytirish uchun xizmat qiladi.

ing. - purity

rus. - чистота

1. Ustunlik qiluvchi va qo'shimcha to'lqin uzunligi bilan tavsiflanuvchi aralashmalar-dagi spektral hamda axromatik tashkil etuvchilarning nisbiy yorqinligi rangning tozaligi orqali aniqlanadi va uni belgilaydi.

2. Ushbu rangni tashkil qiluvchi sof spektral rangning oq va spektral rang yig'indisiga nisbati bilan belgilanadigan rang xarakteristikasi.

Toshiba korporatsiyasi

ing. - Toshiba corporation

rus. - корпорация Toshiba

1875-yil Yaponiyada tashkil qilingan yirik xalqaro konsern. Faoliyatining asosiy yo'nalishlari – elektrotexnika, elektronika va tibbiyot uskunalarini.

Trafik

ing. - traffic

rus. - трафик

Ma'lumotlarning uzatiladigan muhitdagi harakati, masalan, ma'lumotlarning lokal yoki global tarmoqdardagi oqimi. Tarmoqning bandligi (xuddi avtomobil yo'llaridagi harakat kabi).

Trafik analizatori

ing. - packet analyzer

rus. - анализатор трафика

Boshqa bog'lamlar uchun mo'ljallangan tarmoq trafiginu ushlab qolish va keyingi tahlil yoki faqat tahlil qilishni amalga oshiradigan dastur yoki dasturiy-apparat vosita. Analizator ishlayotganda tarmoq interfeysi «tinglash rejimiga» o'tadi va bu unga tarmoqdagi boshqa interfeyslarga yuborilgan paketlarni qabul qilish imkonini beradi.

Trafik kanal

ing. - traffic channel

rus. - трафик канал

Abonent va tayanch stansiyalar o'rtasida foydali va xizmatga oid axborotni uzatish kanali. Bu tushunchaga to'g'ri va teskari kanallar ham kiritiladi.

Trafikni nazorat qilish

ing. - traffic control

rus. - контроль трафика

Ortiqcha yuklanishning oldini olish uchun barcha tarmoq elementlarida tarmoq tomonidan bajariladigan operatsiyalar.

Trafikni tahlil qilish

ing. - traffic analysis

rus. - анализ трафика

Trafik oqimlarini kuzatish paytida olingan axborot tahlili. Masalan, trafik mavjudligi, mavjud emasligi, hajmi, yo'nalishi va chastotasining tahlili.

Trafikni tiqishtirish

ing. - traffic stuffing

rus. - набивка трафика

Axborot muhofaza qilish sohasida - aksil chora. U trafikni tahlillashni yoki shifrlangan matnini ochiq matnga o'girishni murakkablashtirish uchun uzatish muhiti; ma'nosiz ma'lumotlarni yaratib ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, ramzlar ketma-ketligi sifatida kodlangan xabar uzatishda ketma-ketlikning ayrim xonalarni yaratilgan ramzlar bilan to'ldirish tushuniladi.

Trafikni o'rniga qo'yish (to'ldirish)

ing. - traffic padding

rus. - подстановка (заполнение) трафика

1. Soxta ulanishlarni aniqlash, qalbaki ma'lumotlar bloklarini va/yoki ma'lumotlar bloki ichidagi alohida qalbaki ma'lumotlarni generatsiyalash.

2. Ma'lumotlar bloki doirasida noto'g'ri aloqa voqealarini, noto'g'ri ma'lumotlar blokini va/yoki noto'g'ri ma'lumotlarni generatsiyalash.

Trafikning konfidensialligi

ing. - traffic confidentiality

rus. - конфиденциальность трафика

1. Trafik (xabarlar oqimi)ni tahlildan muhofaza qilinishini ta'minlovchi konfidensiallik xizmatlari.

2. Aloqa tizimining raqib va/yoki axborotni buzuvchining tizimda uzatilayotgan ma'lumotlar va/yoki trafikni tahlil qilish orqali tizimning umuman ishlashi to'g'risidagi axborotni olishidan muhofazalanganligini tavsiflovchi xususiyat. Trafikni tahlil qilishdan himoyalash identifikatorlar hamda jo'natuvchi va oluvchining manzillarini, paketlar uzunligini, uzatishlar jadalligini yashirish yo'li va sh.k.orqali ta'minlanadi.

Traktning uzatish koeffitsiyenti

ing. - transmission gain of path

rus. - коэффициент передачи тракта

Traktning chiqishdagi berilgan kesimida tushuvchi to'liqning normalangan kuchla-

nishi yoki toki kompleks amplitudasining, chiqishda qaytuvchi to'liqin bo'lmagan-da, traktning kirishdagi berilgan kesimida tushuvchi to'liqning normalangan kuchlanishi yoki toki kompleks amplitudasiga nisbati.

Tranking

ing. - trunking

rus. - транкинг

Abonent so'roviga muvofiq taqdim etiladigan, bo'sh kanallarni taqsimlashning avtomatik usuli; bunda har bir terminal ajratilgan diapazonning bir nechta qayd etilgan chastotalarning istalgan birida ishlashi mumkin.

Transdyuser o'zgartirgich

ing. - transducer

rus. - преобразователь трансдюсер

Energiyani bir shakldan boshqasiga, masalan, optik energiyani elektr energiyasiga aylantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Transformatsiya (turini o'zgartirish)

ing. - transform

rus. - трансформация (видоизменение)

Administrator tomonidan o'atiladigan kiruvchi va chiquvchi xabarlar qo'shiladigan domen nomlarini qo'shish, olib tashlash va o'zgartirish qoidalari.

Transiver (qabul qilgich-uzatgich)

ing. - transceiver

rus. - трансивер (приемник-передатчик)

Ethernet dagi kabi xost interfeysini lokal tarmoq bilan bog'laydigan fizik qurilma.

Izoh - Ethernet transiverlari kabelga signalni uzatuvchi va detektorlovchi elektron qurilmadan iborat.

Transkoderlash (rangli televideniya)

ing. - transcoding (in colour television)

rus. - транскодирование

(в цветном телевидении)

Rangli televideniyaning bitta tizimiga muvofiq kodlangan rangli videosignalni xuddi shunday satr va maydonlar chastotasiga ega bo'lgan boshqa tizimiga muvofiq kodlangan signalga o'zgartirish.

Translyator

ing. - translator

rus. - транслятор

Dastur yoki dasturning translyatsiya qilinishini bajaradigan texnik vosita. Translyatsiyani bajaradigan texnik vosita. Translyatsiyani bajaradigan texnik vosita.

aniqlanishini bajaradi, bosib chiqarish uchun dastur matnlarini beradi.

Translyatorga ko'rsatma

ing. - compiler directive

rus. - директива транслятора

Dastur mazmunini o'zgartirmaydigan, lekin translyator ishini boshqaradigan yoki unga qandaydir parametrlar beradigan, kirish tili konstruksiyasi.

Translyatsiya

ing. - transmission translation

rus. - трансляция

1. Bir dasturlash tilida yozilgan dasturni boshqa bir tildagi dasturga o'zgartirish jarayoni. Translyatsiya – bu, bajarilishi mumkin bo'lgan, mashina kodlaridagi dasturni tuzishdir; biblioteka kichik dasturlari, modullar, protseduralarni mashina tilidagi yakuniy dasturga qo'shilishini ta'minlaydi.

Izoh – Translyatsiyaning ikki turi farqlanadi: kompilyatsiya – natija, dasturning boshlang'ich matnidan mustaqil bajariladigan tayyor dastur ko'rinishida olinadi; interpretatsiya – dasturning bajarilishi va translyatsiya qilinishi komandalar bo'yicha yuz beradi.

2. Elektraloqa signallarini (tovush yoki televizion eshittirish signallarini, telefon so'zlashuvlarni, telegraf xabarlarini va shu kabilarni) oraliq (translyatsion) stansiya orqali uzatish.

Translyatsiya davri o'zgaruvchisi

ing. - compile-time variable

rus. - переменная периода трансляции

Makrobelgilashlar va translyatorga ko'rsatmalarda foydalaniladigan o'zgaruvchi.

Translyatsiya qilishdagi xato

ing. - compile-time error

rus. - ошибка при трансляции

Dastur matnidagi, translyator aniqlaydigan xato.

Transponder (retranslyator)

ing. - transponder (retranslyator)

rus. - транспондер (ретранслятор)

Ko'plab yer stansiyalaridan signallarni qabul qiladigan va ularni boshqa chastotalar diapazonida Yerga qayta nurlantiradigan yo'ldoshli qabul qilgich-uzatgich. Retranslyatorning kirish va chiqishidagi signallarning tuzilmasi odatda o'zgar olmaydi.

Transport darajasi

ing. - transport layer

rus. - транспортный уровень

Oxirgi (terminal) quрилmalar o'rtasida ma'lumotlarni ishonchli uzatish uchun javob beruvchi OSI modelining to'rtinchi sathi.

Transport oqimi

ing. - transport stream

rus. - транспортный поток

Xatolarni to'g'rilash va o'zining sinkronlash manbalaridan mustaqil izohlashga ega doimiy uzunlikdagi dasturiy paketlardan shakllangan raqamli eshittirish televideniyesi ma'lumotlarining bir nechta dasturiy oqimlarining to'plami.

Transport protokoli, transport darajasidagi protokol

ing. - transport protocol

rus. - транспортный протокол,

протокол транспортного уровня

OSI modelining transport darajasidagi funksiyalarini bajaruvchi tarmoq protokoli.

Transpyuter

ing. - transputer

rus. - транспьютер

Ko'p protsessorli hisoblash tizimlarida parallel hisoblashlar uchun foydalanishga mo'ljallangan, maxsus arxitektura protsessori.

Tranzaksiya

ing. - transaction

rus. - транзакция

Obyektlarning vaqt bo'yicha qisqa birgalikda ishlash sikli. O'z ichiga «so'rov – topshiriqning bajarilishi – javob»ni oladi. Odatda, dialog rejimida amalga oshiriladi.

Tranzaksiyalar jurnaliga ega fayl tizimi

ing. - log structured filesystem

rus. - файловая система с

журналом транзакций

Har qanday o'zgarishni tranzaksiya kabi qayd qiladigan fayl tizimi. Barcha tranzaksiyalar jurnalga yoziladi.

Tranzaksiyalar protsessori

ing. - transaction processor

rus. - процессор транзакций

Tranzaksiyalar qayta ishlamishini rejalashtirish bilan shug'ullanadigan va ularning bir-biridan alohida ajralib turishini ta'min-

lash uchun javob beradigan, shuningdek, tranzaksiyalarni qayta ishlash protokollashtirilishini ta'minlaydigan, ma'lumlar bazasini boshqarish tizimining kichik tizimlaridan biri.

Tranzaksiyalardan nusxa ko'chirish

ing. - transactional replication

rus. - копирование транзакций

Tranzaksiyalardan nusxa ko'chirish - bu muntazam tarzda o'zgaradigan ma'lumotlar bazalari uchun qulay yechim. Tranzaksiyalardan nusxa ko'chirishda nusxa ko'chirish agenti asosiy bazadagi o'zgarishlarni obunachilarga yuboradi. Bu o'zgarishlar ayni paytda yoki muntazam ravishda yuborilishi mumkin.

Tranzaksiyalarni tezkor qayta ishlash

ing. - on-line transaction processing

rus. - оперативная обработка транзакций

Real vaqt rejimida tranzaksiyalarning (so'roq berish va natija olish jarayonlarining) bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan, ma'lumotlar bazalarini boshqarish turi.

Tranzit

ing. - transit

rus. - транзит

Chastotalar polosasi yoki uzatish tezligi o'zgartirilmagan, telekommunikatsiyalar signallari o'tishini ta'minlaydigan, bir xil uzatish kanallari yoki traktlarining ulanishi.

Trassa

ing. - pathway

rus. - трасса

Telekommunikatsiyalar kabelini o'rnatish uchun mo'ljallangan vosita (muhit, fazo).

Trassadagi oraliq masofa

ing. - path clearance

rus. - просвет трассы

Trassaning eng yuqori geografik nuqtasidan qabul qiluvchi va uzatuvchi antennalarning fazaviy markazlarini birlashtiruvchi to'g'ri liniyagacha bo'lgan raqamli eng kichik masofa.

Trassalashtirish

ing. - tracing

rus. - трассировка

Dastur har bir komandasining bajarilishi natijalarini aks ettirish. Bunda o'zgaruvchilar, funksiyalar, ifodalarning qiymatlari beriladi. Trassalashtirishdan dasturni sozlashda foydalaniladi.

Trek

ing. - track

rus. - трек

Magnit disk. Har birini diskning aylanadigan plastinasi sirtida qo'zg'almas o'qish/yozish kallagi qoldiradigan halqa ko'rinishida tasavvur qilish mumkin bo'lgan magnit yo'laklar majmuini o'zida ifodalaydi. Yo'laklar 0 dan boshlab, chetki qismidan markaz tomon raqamlab boriladi. Disk formatlanganda, har bir yo'laka sektorlarga bo'linadi.

Trekbol

ing. - trackball

rus. - трекбол

Kompyuter tizimlari tarkibida ishlash uchun mo'ljallangan grafik manipulyator. Harakatlanishi nazorat qilinadigan shar - shar shaklidagi va «sichqoncha»ning o'mini bosadigan 2ta yoki 3 ta tugmadan iborat maxsus qurilma.

Trekpoint

ing. - track point

rus. - трекпойнт

Displeyda ma'lumotlarni tanlash, grafik ma'lumotlarni kiritish imkonini beradigan qurilma. Displey ekranida kursor yordamida barmoqning unga bo'ladigan bosimi yo'nalishini kuzatib boradigan tugmani o'zida ifodalaydi. Odatda, klaviatura o'rtasida o'rnatiladi.

Trellis kodlash

ing. - trellis coding

rus. - треллисное кодирование

Maxsus tanlangan yoyish kodi va bitlarni simvollarga joylashtirish algoritmining kombinatsiyasi. u ortiqchalikni uncha ko'paytirmasdan, energiyadan sezilarli yutishni ta'minlaydi.

Trevoga

ing. - alarm

rus. - тревога

Viruslar xavfi tug'ilganda, xavfsizlik buzilganligi to'g'risidagi xabarda, ruxsat etilmagan foydalanish/ kirish amalga oshirilganda uzatiladigan tovushli yoki vizual trevoga signali.

Trevoga signalini berish qurilmasi

ing. - alert signal transmitting device

rus. - устройство выдачи сигнала тревоги

Ruxsat etilmagan tarzda foydalanishga ur-

nish bo'lganda, nazorat postiga tovush va/ yoki yorug'lik signali uzatilishini ta'minlovchi dasturiy-apparat qurilma.

Triada

ing. - triad

rus. - триада

Uchta: qizil, ko'k va yashil rangdan iborat lyuminofor guruh.

Trigger

ing. - trigger

rus. - триггер

Ikki yoki undan ko'p barqaror holatga ega elektron qurilma. Triggerlar integral sxemalar tarkibiga kiradi. Asosan, xotira sifatida foydalaniladi.

Trilateratsiya

ing. - trilateration

rus. - трилатерация

Mobil obyekt joylashgan yerni aniqlashning, bir vaqtda tarmoqning uchta stansiyasidan obyektgacha bo'lgan masofani o'lchashga asoslangan usuli.

«Troya oti»

ing. - Trojan horse

rus. - «троянский конь»

Ma'lumotlarni ruxsat etilmagan tarzda to'plash, falsifikatsiya qilish yoki yo'q qilishni amalga oshirish imkonini beradigan, funksional foydali bo'lib ko'rinadigan, zarar yetkazuvchi dastur.

Tugallash, tamomlash

ing. - end

rus. - окончание, завершение

Operator yoki blokning oxirini (tugashini) ko'rsatadigan xizmatga oid so'z.

Tugatish

ing. - terminated

rus. - завершение

Jarayonning, uning dasturini bajarish tugallanganligini bildiradigan holati.

Tugma

ing. - button

rus. - кнопка

Shaklning asosiy elementlaridan biri. To'g'riburchakni o'zida aks ettiradi, uni bosish natijasida biror harakat yuz beradi.

Tugmadagi tasvir

ing. - button face

rus. - рисунок на кнопке

Tugma yuzida tasvirlangan piktogramma. Matnga muqobil hisoblanadi.

Tugmalar paneli

ing. - button

rus. - панель кнопок

Bevosita menyu satri ostida joylashgan va nusxa ko'chirish, ma'lumotlarni surish, olib tashlash kabi, tez-tez talab qilinadigan operatsiyalarni bajarish imkonini beradigan tugmalar qatori.

Tuman pochta aloqasi bog'lamasi

ing. - main district exchange of postal service

rus. - районный узел почтовой связи

Tuman markazlarida tashkil etiladigan pochta aloqasi bog'lamasi.

Tumanichi pochta yo'nalishi

ing. - intra-district postal route

rus. - внутрирайонный почтовый маршрут

Bitta tuman pochta aloqasi obyektlarini bog'lovchi pochta yo'nalishi.

«Tungi servis» xizmatini ta'minlash

ing. - night service support

rus. - поддержка услуги «ночной сервис»

Tungi vaqtlarda chaqiruvlarni muqobil (belgilangan) raqamga qayta yuborish imkonini beradigan xizmat. Xizmatni aktivlashtirish ikkita:

- avtomatik, ko'p liniyalı bog'lam guruhining barcha a'zolari band bo'lganda;

- qo'lda, ko'p liniyalı bog'lam guruhı a'zolaridan biri tomonidan aktivlashtirish usuli orqali amalga oshiriladi.

Izoh - Xizmat ko'p liniyalı bog'lam guruhları uchun mo'ljallangan.

Tungi televideniye

ing. - night television

rus. - ночное телевидение

10⁻⁴ ěk dan 10⁻³ ěk gacha yetadigan, o'rta 10⁻² ěk dan 10⁻³ ěk gacha tashkil etadigan tungi tabiiy yoritilganlikdagi televizion uzatish.

Tur

ing. - type

rus. - тип

Dasturlash tillarida foydalaniladigan ma'iu-

motlar ko'rinishi (masalan, simvolli, butun sonli va h.k.)

Turbo

ing. - turbo
rus. - турбо

1. Protssessorning ishlash chastotasi oshirilgan kompyuterning ishlash rejimi. Turbo rejimi i80286 protssordan boshlab asosiy hisoblanadi. Eskirgan dasturlar bilan ishlashda bu rejim uzib qo'yiladi. Pentium protssorli kompyuterlarda foydalanilmaydi.
2. Borland firmasining savdo markasi. Mashhur Turbo Paskal, Turbo C, Turbo Prolog mahsulotlari bir xil muhitga va sifatli translyatorlarga ega.

Turbo-kodlash

ing. - turbo-coding
rus. - турбокодирование

Parallel ulangan bir nechta koder orqali simvolli ketma-ketlikni kodlash.

Turkumlar verifikatori

ing. - class verifier
rus. - верификатор классов

Turkumni yuklashda uning bayt-kodi, turlarining nazorati va boshqa zarur tekshirishlarni bajaradigan JVM tarkibiy qismi.

Turlarni o'zgartirish

ing. - type conversion
rus. - преобразование типов

Bir turdan boshqa turga o'zgartirish operatsiyasi, masalan, «1234» qatori 1234 butun raqamiga aylantirilishi mumkin.

Turli tomonga yo'naltiriladigan

antennalardan foydalanib yoyish

ing. - directivity diversity
rus. - разнесение с использованием разнонаправленных антенн

Harakatdagi (masalan, poyezdga o'rnatilgan) radiostansiyalar uchun katta kuchayish koeffitsiyentiga ega antennani avtotanlashga asoslangan signallarni qabul qilish usuli.

Turniket antenna

ing. - turnstile antenna
rus. - турникетная антенна

Ta'minoti fazalarni 90° ga burish bilan uzatiladigan bir nechta o'zaro perpendikulyar vibratordan antenna bo'ylab joylashadigan masha (shtanga)ni o'zida aks ettiradigan antenna.

Turg'un qoplanish zonasi

ing. - signal-strength coverage
rus. - устойчивая зона покрытия
Radiosignal ishonchli qabul qilish uchun yetarli darajada nurlanadigan zona.

Turg'un to'lqin

ing. - standing wave
rus. - стоячая волна

1. Qarama-qarshi yo'nalishlarda tarqaladigan, ulardan biri to'g'ri, ikkinchisi esa uzatish liniyasining olisdagi uchidan qaytuvchi ikki to'lqinning ustma-ust tushishidan hosil bo'ladigan to'lqin. Turg'un to'lqinda kuchlanish va tok faza bo'yicha 90° ga surilgan, amplitudalari ba'zi nuqtalarda maksimumga (bog'lamlilik maksimumiga), ba'zilarida esa, nolga (uzellar) yetgan holda, aloqa liniyasi bo'ylab o'zgaradi.

2. Bir xil amplitudali, bir-biriga tomon tarqaladigan hamda vaqt va fazoda o'zgaradigan ikkita yuguruvchi elektromagnit to'lqin interferensiyasi paytida fazoda yuzaga keladigan elektromagnit to'lqin.

Turg'un to'lqin koeffitsiyenti (TTK)

ing. - standing wave ratio (SWR)
rus. - коэффициент стоячей волны (КСВ)

1. Uzatish liniyasidagi turg'un to'lqin elektr yoki magnit maydoni kuchlanganligi amplitudasi eng yuqori qiymatining eng kichik qiymatga nisbati.

2. Uzatish liniyasidagi turg'un va yuguruvchi to'lqin amplitudalari o'rtasidagi o'zaro nisbatni tavsiflovchi ko'rsatgich bo'lib, $SWR = (1 + k)/(1 - k)$ tarzida aniqlanadi, bunda k – qaytish koeffitsiyenti.

Turg'un to'lqinlar rejimi

ing. - standing-wave mode
rus. - режим стоячих волн

1. Liniyada teng amplitudali tushuvchi va qaytgan to'lqinlar mavjud bo'ladigan, yo'qotishsiz uzun liniyaning ishlash rejimi.

2. Liniya yuklamasi yo'naltiriladigan energiyasini to'liq qaytaradigan rejim.

Tutash huquqlarni qo'riqlash nishoni

ing. - adjacent right symbol
rus. - знак охраны смежных прав
Fonogrammaning har bir nusxasida va/yoki uning har bir g'ilofida joylashtiriladigan nishon. U uch elementdan iborat bo'ladi: aylanada «R» lotin harfi; alohida tutash huquqlari

egasining ismi (rasmiy nomi); fonogramma birinchi marta chop etilgan yil.

Tutashtirgich

ing. - jumper

rus. - перемычка

1. Har ikki uchida konnektorlari bo'lgan optik-tolali kabel.

2. Krossda yarim doimiy ulanishlar uchun foydalaniladigan konnektorsiz kabel birligi yoki elementi.

3. Konnektorlarsiz o'ralgan juftlar asosidagi, krossda telekommunikatsiya sxemalari/liniyalarini ulash uchun foydalaniladigan qurilma.

Tutib olish xizmati

ing. - call interception

rus. - услуга перехвата

Agar chaqiruv mavjud bo'lmagan yoki o'zgartirilgan raqamga chaqiruv yuborilsa yoki chaqiruv vaqtida marshrut vaqtincha blokirovkalangan bo'lsa, yoki chaqiruv yuborilganda abonent noto'g'ri harakat qilsa, chaqiruv avtomatik tarzda tutib qolinadi va kommutatsiya uskunasi orqali keraksiz bog'lanishni o'rnatishning oldini olish uchun, chaqiruvlarni tutib olish qurilmasiga uzatiladi.

Tuzatilgan versiya

ing. - bug fix

rus. - исправленная версия

Apparat yoki dasturiy vositaning aniqlangan barcha xatoliklar tuzatilgan va qo'shimcha hech qanday funksiyalari bo'lmagan versiyasi.

Tuzatmoq

ing. - debug

rus. - отладка

Xatolarni izlash va tuzatish amali. Ma'lumot kiritish orqali dastur instruksiyasini qadam-baqadam bajarish orqali amalga oshiriladi.

Tuzatuvchi kod

ing. - correcting code

rus. - корректирующий код

Uzatiladigan xabarga ba'zi bir ortiqchalilik kiritilishi orqali xatolarni tuzatuvchi kod.

Tuzatuvchi qurilma

ing. - corrector

rus. - корректор

Aloqa kanalida yoki axborotni qayta ish-

lashda vujudga keladigan muntazam (tasodifiy bo'lmagan) xatolarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan qurilma. Kanal tuzatuvchi qurilmasining ishlash prinsipi signal xarakteristikalarini aloqa kanalining uzatish funksiyasi bilan moslashtirishga asoslangan.

Tuzilma

ing. - structure

rus. - структура

Bitta yoki bir nechta, balki har xil turdagi elementlardan iborat ma'lumotlar elementi.

Tuzilmaviy dasturlash

ing. - structured programming

rus. - структурное программирование

Har birida bitta kirish va bitta chiqish nuqtalari bo'lgan, iyerarxik ixcham modulardan tashkil topgan (Edsger Dijkstra tomonidan yaratilgan) dasturlarni loyihalash metodologiyasi. Bundan tashqari tuzilmaviy dasturlash GOTO operatorini ishlatishni cheklab qo'yadi.

Tuzish va yig'ishning quyi darajasi

ing. - segmentation and reassemble (SAR)

rus. - подуровень сегментации и сборки

ATM tarmoqlarida AAL ning ikkita darajasidan biri. Nisbatan yuqori darajadagi kiruvchi ma'lumotlar oqimini 48 byte li yacheykalarga bo'ladi va u yacheykalardan chiquvchi ma'lumotlarni yig'adi. Odatda tarmoq kontrollerida alohida mikrosxemalar ko'rinishida amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yacheykalarga ajratish usullarini aniqlovchi turli standartlar mavjud. Ular ATM Adaptation Layers deyiladi.

Tuzoq

ing. - honeypot, penetration entrapment

rus. - ловушка

Jinoyatkorning har qanday harakatini sinchiklab protokollashtiradigan kompyuterdagi ma'lumotlar servislar (pochta, Telnet va sh.k.) ishini tezlashtiradigan dastur.

Tuzoqlardan foydalanish

ing. - entrapment

rus. - использование ловушек

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimiga, oshkora kamchiliklarni (zaifliklarni) atayin kiritish. Buzg'unchi bu kamchiliklardan (zaifliklardan) foydalanganda, uni chalg'itish uchun yoki kirishga urinishlarni aniqlash uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi
ing. - creator
rus. - создатель
Faylni yaratadigan maxsus dastur.

Tushadigan menyu
ing. - pull-down menu
rus. - спускающееся меню
Barcha oynalarga qo'llaniladigan komandalar menyusi; displey ekranining yuqori burchagida joylashgan sarlavhasi ko'rsatilgan holda chaqiriladigan, bevosita shu sarlavha ostida paydo bo'ladigan va komanda tanlangandan so'ng yo'qoladigan menyu. Shuningdek, «global menyu» deb ham ataladi.

Tushuvchi radioto'lqin
ing. - incident radio wave,
impinging radio wave
rus. - падающая радиоволна
O'z yo'lida ikkita muhitning ajralish sirtiga yoki muhitning bir xil emasligiga duch keladigan radioto'lqin.

Tushuvchi to'lqin
ing. - incident wave
rus. - падающая волна
Manbadan tarqaladigan yuguruvchi to'lqin.

TV ko'rsatuvlarini keyinga qoldirib ko'rish
ing. - time shifting
rus. - отложенный просмотр ТВ-передач
Kontentni kechikish bilan (odatda 1 soatga karrali) uzatuvchi kanal yordamida ko'rsatuvning yoqib qolgan fragmentlarini takrorlash imkoniyati.

TV signalning inersioniligi
ing. - sluggishness of TV signal
rus. - инерционность ТВ сигнала
Fotoelektron o'zgartirgich chiqishidagi TV signal o'zgarishining uning fotosezgir yuzasi yoritilganligining o'zgarishiga nisbatan kechikishini tavsiflaydigan parametr.

TV signalning ortiqchaligi
ing. - TV signal redundancy
rus. - избыточность ТВ сигнала
Axborotning sezilarli ortiqchaligi yoki ko'rish apparati imkoniyatlarining cheklanganligi.

TV tasvirlarning sifati
ing. - TV-image quality
rus. - качество ТВ изображений
TV tasvirlarning universal optik yoki elektron televizion sinov jadvallarining tasviri bo'yicha, vizual baholanadigan parametrlari.

Tyuner
ing. - tuner
rus. - тюнер
Ma'lum chastotalardagi televizion signallarni ajratadigan va uni audio va videoaxborotga o'zgartiradigan qabul qiluvchi qurilma.

Tyuner sezgirligi
ing. - tuner sensitivity
rus. - чувствительность тюнера
Kirish signali darajasi, bunda tyuner sifatli (ma'lum bir standart mezonlar bo'yicha) qabulni ta'minlaydi.

Tyuring mashinasi
ing. - Turing machine
rus. - машина Тьюринга
1936-yilda ingliz matematigi Alan Tyuring tomonidan algoritim rushunchasini rasmiylashtirish va algoritmlar murakkabligini (murakkablik toifalarini) o'rganish vositasi sifatida taklif qilingan gipotetik hisoblagich. Tyuringning maqsadi hisoblash mashinasi nimani bajara olishi va nimani bajara olmasligi o'rtasidagi chegarani tavsiflashdan iborat edi. Tyuring mashinasi bu matematik jihatdan ideallashtirilgan kompyuter bo'lib, u hech qachon xato qilmaydi. istaganingizcha uzoq vaqt ishlaysi va cheksiz xotira hajmiga ega. Umumiy foydalanishdagi zamonaviy protsessorlar, ularda cheksiz xotira hajmi mavjud emasligini hisobga olmaganda, Tyuring mashinasiga juda o'xshashdir. Determinallangan va determinallanmagan Tyuring mashinalari farqlanadi.

Tyuring testi
ing. - Turing test
rus. - тест Тьюринга
Ingliz matematigi Alan Tyuring (1912-1954) tomonidan «Hisoblash mashinalari va intellekt» (1950-yilda «Mind» jurnalida chop etilgan) eng muhim maqolasida sun'iy intellekt tizimlarini intellekt mavjudligiga tekshirish uchun taklif qilingan test. Ushbu testdan o'tish uchun boshqa xonada joylashgan odam («tergovchi») bilan shunday

tarzda suhbat qurishi kerakki, bunda odam kompyuter bilan suhbatlashayotganini payqamasligi kerak. Bir kishi teletaypda (hozirgi vaqtda klaviaturada) mashinaga bir nechta savollarni kiritadi, mashina esa javoblarni monitor ekranida aks ettiradi. Faqatgina ushbu matnli xabar orqali u suhbatdoshining mashina yoki odam ekanligini aniqlashi kerak. Agar test o'tkazuvchi odam bilan gaplashayotganiga ishonsa, u tomonidan baholanayotgan mashina sun'iy intellektga ega bo'ladi. Tyuring testi va testga tanqidiy yondashuv sun'iy intellekt rivojlanishida ijobiy rol o'ynadi. Shuningdek, sun'iy intellektda, kompyuterning ko'rish va harakatlana olish qobiliyatini qo'shimcha ravishda tekshiradigan umumiy Tyuring testi tushunchasi mavjud.

To'la dupleks

ing. - bisynchronous

rus. - полный дуплекс

Qurilmaning bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda – signalni qabul qilish va uzatishda ishlash qobiliyati.

To'la ekranli dastur

ing. - full-screen program

rus. - полноэкранный программа

To'la ekran rejimida ishlaydigan dastur.

To'la matnli izlash

ing. - full text search

rus. - полнотекстовый поиск

Zarur axborotni olish uchun, hujjatlar to'plamidagi har bir so'z bo'yicha izlash.

To'la matnli ma'lumotlar bazasi

ing. - full-text database

rus. - полнотекстовая база данных

To'la matnli hujjatlar yoki ularning qismlari saqlanayotgan ma'lumotlar bazasi.

To'la sug'urta nusxalash

ing. - full backup

rus. - полное страховое копирование

Disk ichidagi barcha narsadan yoki ma'lumotlar bazasidan rezerv zaxira ko'chirish.

To'ldirib yuborish hujumi

ing. - flooding attack (overflow)

rus. - атака переполнения

Katta hajmdagi soxta trafikni kiritish hisobiga tarmoq uskunasi (marshrutizator, kommutator va b.larning) sun'iy ravishda o'ta yuklanishini vujudga keltirish.

To'ldiriladigan operatsion kod

ing. - added operational code

rus. - дополняемый операционный код

Komandaning boshqa qismidan olingan axborot orqali qo'shimcha aniqlanadigan operatsion kod.

To'ldirish bayrog'i

ing. - overflow flag

rus. - флаг переполнения

Protessorlardagi holat registri bayroqlaridan biri.

To'lib ketish

ing. - overflow

rus. - переполнение

Ma'lumotlarning katta hajmini tasodifan yoki qasddan kiritish, uning natijasida xizmat ko'rsatishning rad etilishi yuz beradi.

To'liq ajratib bajariladigan hujum, brutfors

ing. - exhaustive attack, brute-force attack

rus. - атака полным перебором, брутфорс

Parol va kalitlarning mumkin bo'lgan variantlarini tanlab, sinashlar va xato qilishlar usulida kompyuter xavfsizligini buzishga urinish.

Izoh - To'liq ajratib bajariladigan hujum analitik hujumning aksi hisoblanadi.

To'liq aylanadigan antenna

ing. - fully steerable antenna

rus. - полноповоротная антенна

Fazoning istalgan nuqtasiga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan antenna.

To'liq bog'langan topologiya

ing. - fully interconnected topology

rus. - полносвязная топология

Bog'lagichlarning har bir jufti uchun eng kamida bitta aloqa mavjud bo'lgan konfiguratsiya.

To'liq kadrning vaqt bo'yicha kodi

ing. - time code of composite frame

rus. - временной код полного кадра

Kadrlar bilan haqiqiy vaqt o'rtasida muvofiqlik o'rnatilishi o'rninga kadrlarning aniq sonini hisoblash yuz beradigan videotasmadagi kadrlarni manzillash uchun mo'ljallangan SMPTE standarti.

To'liq maydondagi telematn

ing. - full-field teletext

rus. - телетекст в полном поле

Axborot televizion tasvir signallari mavjud

omasligida va bu signallar bilan shug'ullanuvchi vaqt davomida uzatiladigan telematn.

To'liq mos kelishlik

ing. - full compatibility

rus. - полная совместимость

Ikkita yoki undan ko'p kompyuter foydalanuvchilari uchun hech qanday cheklashsiz texnik, dasturiy va axborot uyg'unligi.

To'liq rang sinxronlash signali

ing. - chromatic synchronization composite signal

rus. - полный сигнал цветовой синхронизации

Rangli tevideniye qabul qilgichi to'g'ri ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha sinxronlovchi signallarni ichiga olgan signal.

To'liq rang videosignali

ing. - composite chromatic (colour) signal

rus. - полный цветовой видеосигнал

To'liq yorqinlik signali hamda ranglilik signallardan iborat televizion videosignal.

To'liq saralash

ing. - exhaustive search

rus. - полный перебор

To'g'ri kriptografik kalitni barcha mumkin bo'lgan kalitlar ichidan uni to'liq saralash yo'li bilan izlashning asosiy usuli. Shifrlash algoritmi yoki kalitlarni ishlab chiqishda zaipliklar topilganda, kalitlar sonini qisqartirish mumkin bo'ladi.

To'liq tasvir signali

ing. - composite image signal

rus. - полный сигнал изображения

So'ndiruvchi impulsli tasvir signali hamda sinxronlovchi signallardan iborat signal.

To'liq tasvir signalidagi

oqning etalon darajasi

ing. - reference level of white in composite signal of image

rus. - эталонный уровень белого в полном сигнале изображения

Signalni sinxronlovchi signalning cho'qqisidan uzoqlashtirilgan (oqning yo'nalishida) daraja.

(To'liq tasvir signalining) qulochi

ing. - swing (of composite signal of image)

rus. - размах (полного сигнала изображения)

To'liq tasvir signali kuchlanishining eng

katta musbat va eng katta manfiy potensiallari o'rtasidagi farq.

To'liq ulangan tarmoq

ing. - fully connected network

rus. - полностью соединенная сеть

Har qanday mashina boshqa har qanday mashina bilan ulangan tarmoq.

To'liq videosignal

ing. - complete video signal

rus. - полный видеосигнал

Videosignalning sinxronizatsiya signali bilan kombinatsiyasi.

To'liq yorqinlik signali

ing. - composite brightness signal

rus. - полный сигнал яркости

Yorqinlik va sinxronlash signallaridan iborat signal.

To'lov to'g'risidagi ma'lumotlarni

avtomatik tarzda uzatish xizmati

ing. - automatic verbal announcement of charges applied service

rus. - услуга автоматической

передачи сведений об оплате

Abonentga bog'lanish uchun to'lovni to'lashga taalluqli barcha ma'lumotlar yoki ularning qismi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradigan xizmat.

To'lqin kiritish-chiqarish multipleksori

ing. - wavelength add-drop multiplexer (WADM).

rus. - волновой мультиплексор

ввода-вывода

To'lqinli multipleksorlashdan foydalanadigan, kiritish-chiqarish multipleksori.

To'lqin qarshilik

ing. - wave impedance

rus. - волновое сопротивление

1. Liniyaning to'lqin qarshiligi, shu liniya bo'ylab taqsimlangan sig'imga liniya bo'ylab taqsimlangan induktivlik kvadrat nisbatining ildiziga teng.

2. Berilgan tarqalish muhitida ma'lum turdagi to'lqin uchun elektr va magnit maydonlari kuchlanganlik qiymatlarining nisbati.

To'lqin uzunligi

ing. - wavelength

rus. - длина волны

1. Fazodagi ikki nuqta o'rtasida yotuvchi eng

qisqa masofa, unda elektromagnit to'liqin fazasi 2π ga o'zgaradi.

2. Tebranishlar bir xil fazaga ega bo'lgan, to'liqin tarqalish yo'nalishi bo'ylab joylashgan ikki nuqta o'rtasidagi eng kichik masofa.

To'liqin uzunligi bo'yicha ajratish bilan multipleksorlash

ing. - wavelength division

multiplexing (WDM)

rus. - мультиплексирование с разделением по длине волны

1. Liniya agregat kanali to'liqin uzunligi bo'yicha turlicha n ta kanalni (modulyatsiyalovchi signal texnologiyasiga ko'ra o'xshash bo'lmagan) birlashtirish yo'li bilan shakllantiriladigan multipleksorlash.

2. Signallarni multipleksorlash usuli. Bit-ta optik-tolali kabel orqali to'liqin uzunligi turlicha bo'lgan bir nechta (odatda, 16 tagacha) yorug'lik dastasini uzatish imkonini beradi. To'liqin uzunligiga ko'ra, multipleksorlash signalning minimal so'nishi (bir modali to'liqin uchun 0,2 dB/km gacha) ta'minlanadigan 1530-1560 nm chegarada amalga oshiriladi.

To'liqin uzunligi bo'yicha ajratish bilan zichlashtirish

ing. - wavelength division

multiplexing (WDM)

rus. - уплотнение с разделением по длине волны

Optoelektron signallarni, quyi chastotalarda qo'llaniladigan chastotaviy zichlashtirishga o'xshash, yuqori tezlikli uzatish usuli. Texnologiya optik tolali muhitda bir nechta mustaqil trafiklarni spektral tashkil etuvchilar (tonlar) o'rtasida kesishmaydigan ko'plikka rangni ajratish mumkinligi hisobiga uzatish imkoniyatidan foydalanadi. Kanallar 4, 16 ta va undan ko'p bo'lishi mumkin.

To'liqin uzunligi bo'yicha multipleksorlash

ing. - dense wavelength division

multiplexing, dense WDM (DWDM)

rus. - мультиплексирование по длине волны

Turli uzunlikdagi yorug'lik to'liqlaridan foydalanishga asoslangan spektral zichlashtirish texnologiyasi va DWDM texnologiyalari. Bu optik-tolali kabellarda 1022

tagacha turli hajmdagi kanal hosil qilish imkonini beradi.

To'liqin o'lchagich

ing. - wavemeter

rus. - волномер

Radiochastotalar diapazonida to'liqin uzunligini yoki elektromagnit tebranishlar chastotasini o'lchaydigan asbob.

To'liqin o'tkazgich

ing. - waveguide, duct

rus. - волновод

1. Bo'sh metall truba yoki dielektrik sterjen, uning ichida o'q bo'ylab radioto'liqlar qaytgan to'liqlarning ichki devorlari va interferensiyasidan ko'p martali qaytishlar natijasida tarqaladi.

2. Energiyani masofaga uzatish maqsadida kanal hosil qiladigan har qanday tuzilma. To'liqin o'tkazgichning quyidagi turlari mavjud: radio, atmosfera, yorug'lik o'tkazgich va plazmalii.

To'liqin o'tkazgich traktining germetik elementi

ing. - sealing element of waveguide channel

rus. - герметизирующий элемент

волноводного тракта

To'liqin o'tkazgich traktini quritish tizimi uchun yopiq hajm hosil qiluvchi maxsus to'liqino'tkazgishli qo'shimcha.

To'liqin o'tkazgichli antenna

ing. - waveguide antenna

rus. - волноводная антенна

To'liqin o'tkazgich kesmasi ko'rinishidagi, oxiri ochiq antenna.

To'liqin o'tkazgichli kallak

ing. - waveguide mount

rus. - волноводная головка

Quvvatni o'lchash va indikatsiyalash uchun mo'ljallangan qurilma. Odatda detektor va moslovchi elementlari ulangan to'liqin o'tkazgich bo'lagi ko'rinishida tayyorlanadi.

To'liqin o'tkazgichli koaksial o'tish

ing. - waveguide-to-coaxial adapter

rus. - волноводно-коаксиальный переход

To'liqin o'tkazgichli kirish va koaksial chiqishga ega o'ta yuqori chastota uzatish liniyasining o'tish seksiyasi.

To'liqin o'tkazgichli moda

ing. - waveguide mode

rus. - волноводная мода

Metall to'liqin o'tkazgichda qo'zg'atiladigan, elektromagnit maydon va chastota tuzilmasi bilan tavsiflanadigan to'liqin turi.

To'liqin o'tkazgichli tarqalish

ing. - ducting, waveguide propagation

rus. - волноводное распространение

Radioto'liqlarning ma'lum cheklovchi sirtlar o'rtasida tarqalishi, bunda shu sirtlar o'rtasidagi to'liqinli maydonlar bir xil muhitdagiga qaraganda masofa bilan sekin kamayadi.

To'liqlar dispersiyasi

ing. - dispersion of waves

rus. - дисперсия волн

Tarqalish muhitida garmonik to'liqlar fazaviy tezligining chastotaga bog'liqligi. To'liqlar dispersiyasi, masalan, ionosferada, to'liqin o'tkazgichlarda radioto'liqlarning tarqalish jarayonida kuzatiladi.

To'liqlar interferensiyasi

ing. - interference of waves

rus. - интерференция волн

Fazoda bir xil davriylikdagi ikkita (yoki bir nechta) to'liqinning qo'shilishi, buning natijasida fazoning turli nuqtalarida qo'shiladigan to'liqlarning fazalari o'rtasidagi nisbatlarga bog'liq bo'lgan to'liqlar natijaviy amplitudalarining ko'payishi yoki kamayishi yuzaga keladi.

«To'liqinli kanal» antennasi

(direktorli antenna)

ing. - «wave channel» antenna

(director-type antenna)

rus. - антенна «волновой канал»

(директорная антенна)

Liniya bo'ylab bitta tekislikda joylashgan, maksimal nurlanish va/yoki qabul qilish bilan mos keladigan bir qator parallel vibratorlardan (aktiv vibrator, passiv reflektor va bir nechta passiv direktordan) iborat yo'naltirilgan antenna.

To'liqinli kodlash

ing. - wave coding

rus. -

Har bir bosqichda ketma-ket ikki marta filtrlash va detsimatsiyalash tufayli kichiklashtirilgan tayanch hamda bitlar sonining kichik yig'indisiga ega uchta tasvir hosil bo'ladi, iteratsion kodlash algoritmi.

To'liqinli marshrutlash; ko'chkili marshrutlash

ing. - flooding routing

rus. - волновая маршрутизация;

лавинная маршрутизация

Marshrutlashni amalga oshirishning eng oddiy, bog'langanlik jadvali tuzilishini talab qilmaydigan, usullaridan biri. Har bir aloqa uzeldan olinadigan so'rov bir vaqtda barcha qo'shni uzellarga uzatiladi, qandaydir paket avval olinganligi aniqlansa, marshrutizator uni chiqarib tashlaydi. To'liqin usuli ortiqcha trafikni keltirib chiqaradi, shuning uchun uzellar soni ko'p bo'lgan tarmoqlarda uning samaradorligi past.

To'liqinning kritik uzunligi

ing. - critical wavelength, cutoff wavelength

rus. - критическая длина волны

To'liqinning erkin fazodagi eng katta uzunligi, berilgan turdagi to'liqlarning to'liqino'tkazgichda undan yuqori tarqalishi mumkin bo'lmay qoladi.

To'liqinning ustuvor

uzunligi (grafik ta'rif)

ing. - dominant wavelength

(graphical determination)

rus. - преобладающая длина волны

(графическое определение)

Ranglilik diagrammasida tanlangan boshlang'ich nuqtadan namuna rangini ifodalovchi nuqta orqali o'tkazilgan to'g'ri chiziqning spektral ranglar chizig'i bilan kesishishiga mos keladigan to'liqin uzunligi.

To'plagich

ing. - holding bin

rus. - накопитель

Ma'lumotlarni muayyan tashuvchiga yozish/o'qish uchun mo'ljallangan qurilma. To'plagichlar tashqi xotira qurilmalariga kibradi.

Izoh - Disklardagi, lentaldagi, kartalardagi to'plagichlar farqlanadi. Tashuvchilari olinadigan

to'plagichlar, bu holda ma'lumotlar tashuvchisini almashtirish mumkin bo'ladigan tashuvchilari olinadigan to'plagichlar (masalan, egiluvchan magnit disklar, magnit lentalar, kompakt-disklar, DVD) va, tashuvehi to'plagichga o'matilgan, uni almashtirish mumkin bo'lmaydigan doimiy tashuvchili to'plagichlar (masalan, qattiq magnit disk) farqlanadi.

To'plagichning tez ishlashi

ing. - quick action of accumulating

rus. - быстродействие накопителя

To'plagichdagi ma'lumotlarni o'qish/yozish tezligi. Ikki parametrlar bilan: o'rtacha foydalanish vaqti hamda ma'lumotlar uzatish tezligi bilan belgilanadi.

To'plam

ing. - set

rus. - множество

Bir butun yaxlit sifatida qarab chiqish mumkin bo'lgan bir jinsli elementlar majmui. Ba'zi dasturlash tillarida «to'plam» ma'lumotlar turi mavjud. «To'plam» ma'lumotlarda birlashtirish, kesishish, kirish operatsiyalariga to'g'ri keladi.

To'plamli pochta jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari

ing. - batch postage, postal transfers of monetary resources

rus. - партионные почтовые отправления, почтовые переводы денежных средств
Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan bir va bir nechta manzilga topshiriladigan beshta va undan ortiq bir turdagi ro'yxatga olinadigan pochta jo'natmalari, pul mablag'larining pochta o'tkazmalari.

To'plangan ma'lumotlar bazasi

ing. - consolidated database

rus. - консолидированная база данных

Ko'plab manbalardan va ko'pincha o'zaro mos kelmaydigan tizimlardan olingan ma'lumotlar birlashtiriladigan MB.

To'plash buferlari

ing. - accumulation buffers

rus. - буферы накопления

Uch o'Ichamli grafikada – ketma-ket keladigan kadrlarni saqlash uchun mo'ljallangan maxsus buferlar.

To'plash orqali muhofaza qilish

ing. - security by generation

rus. - защита накоплением

Tashqi hotirada saqlanadigan ma'lumotlarni tiklash usuli. Qo'shimcha tashuvchiga ma'lum bir muddatdan keyin yaratilgan fayllar ko'chirilishida ifodalangani.

To'plovchi summator

ing. - accumulator

rus. - накапливающий сумматор

Registr yoki arifmetik yo mantiqiy amal natijasi joylashtiriladigan xotira seksiyasi.

To'q ranglar

ing. - saturated colors

rus. - насыщенные цвета

Rangning to'qligi, uning yorqinligiga nisbatan rang kuchini tavsiflaydi. Rangning «intensivligi» deb ham ataladi.

«To'q sariq» kitob

ing. - «orange» book

rus. - «оранжевая» книга

1985-yil dekabr oyida Trusted Computer System Evaluation Criteria (DoD 5200.28 STD) (Kompyuter tizimlarining ishonchidan foydalanuvchilarni baholash mezonlari) kitobida nashr etilgan, kompyuter dasturlariga tegishli yaroqlik mezonlarini o'ratuvchi, Kompyuter xavfsizligi bo'yicha Milliy kengash standarti.

To'rsimon tarmoq

ing. - spidemet

rus. - паутинообразная сеть

Gibrid yoki yulduzsimon tarmoq, o'rgimchak to'ri topologiyasini hosil qiladigan bit-ta yoki bir nechta halqali tarmoq.

«To'rt so'zli» xotira qurilmasi

ing. - quad-data ram

rus. - «четырёхсловное»

запоминающее устройство

Ma'lumotlar to'rtta so'zini bir vaqtda tanlab-tanlab oladigan tezkor xotira qurilmasi.

To'rtinchi avlod (4G)

ing. - fourth generation (4G)

rus. - четвертое поколение (4G)

Mobil aloqa tizimlarining istiqbolli texnologiyalari. Ularning asosini, axborot uzatish tezligi 10-44 Mbit/s bo'lishini ta'min-

laydigan multimedia va mobil teleeshittirish xizmatlari tashkil etadi.

To'rtinchi avlod kompyuteri

ing. - fourth generation computer

rus. - компьютер четвертого поколения
Katta integral sxema va o'ta kata integral sxema ko'rinishidagi element bazasidan foydalaniladigan kompyuterlar.

To'rtinchi avlod tili

ing. - fourth generation language (4GL)

rus. - язык четвертого поколения

Lug'atlarga asoslangan dasturlash tillari. Tizimlarni ishlab chiqish unumdorligini oshirish imkonini beradi. 4 GL ga so'rovlar va hisobotlar tillari mansub.

To'siq

ing. - interference

rus. - препятствие

Muhofaza qilinadigan axborot va obyektдан foydalana olishga tashkiliy, texnik, dasturiy jihatdan to'sqinlik qilish usuli.

To'suvchi filtr

ing. - rejector

rus. - заграждающий фильтр

Chastotalarning muayyan polosasidagi elektr tebranishlarni o'tkazmaydigan qurilma; barcha boshqa chastotalarning tebranishlari o'tkaziladi. To'suvchi filtrlar yaqin joydagi kuchli radiostansiyalardan radioqabul qilish xalaqitlarini kuchsizlantirish, teleko'rsatuv dasturlarini olib borishda tovush chastotalarini bostirish uchun qo'llaniladi.

To'suvchi radioxalaqit

ing. - barrage jamming

rus. - заградительная радиопомеха

Bostirilayotgan signal spektriga nisbatan ancha kengroq spektrga ega, ataylab qilingan aktiv radioxalaqit.

To'xtab-to'xtab uzatish

ing. - discontinuous transmission (DTX)

rus. - прерывистая передача

Uzatgichni pauzalarda yoki so'zlashuv oxirida uzib (o'chirib) qo'yish hisobiga aloqa liniyasining spektral samaradorligini oshirish usuli.

To'xtash

ing. - halt

rus. - остановка

Kompyuter ishlashini apparatli to'xtatish. Unga monand o'chirish va o'chirib-yoqishdan farqli ravishda, bu holda tezkor xotira qurilmasidagi ma'lumotlar yo'qolmaydi. Tizim dasturiy ta'minotini sozlashda, shuningdek, tizimning buzilish oqibatlarini tekshirishda foydalaniladi.

To'xtash nuqtasi

ing. - breakpoint

rus. - точка останова

Dasturdagi, muayyan ish (amal) bajarilishi kerak bo'lgan nuqta.

To'xtashni (ishlamay qolishni)

ro'yxatga olish

ing. - failure logging

rus. - регистрация сбоя (отказа)

Ta'minotda uzilish bo'lganda yoki fatal xatoga yo'l qo'yilganda, ma'lumotlarning va protsessor registrlari ichidagining saqlanishi.

To'xtatish

ing. - abort

rus. - прервать, прекратить

Ilovalar bajarilishi jarayonidagi tanlov varianti. Bajarilayotgan jarayonning, saqlanmagan ma'lumotlarning yo'qolish bilan, to'xtashi tushuniladi. Odatda bu biror bir xatoliklardan kelib chiqadi. Masalan, mavjud faylni qayta yozishga unisbda.

To'xtatuvchi (uzuvchi) guruh

ing. - aborting group

rus. - прерывающая группа

Tranzaksiyalarni uza oladigan tarmoq uzeltarining majmui.

To'xtovsiz ishlash

ing. - non-failure operation

rus. - безотказность

Obyektning berilgan sharoitlarda muayyan vaqt oralig'i davomida talab qilingan funksiyalarni bajara olish qobiliyati.

To'yinganlik

ing. - intensity

rus. - насыщенность

Rangli tonni qabul qilish xarakteristikasi,

unga o'xshash axromatik rang sezishdan uning farqlanishini belgilaydi.

To'yinganlikni (rangni) rostdlash

ing. - control of saturation (of colour)

rus. - регулировка насыщенности (цвета)
Rangning to'yinganligini rostdlashga imkon beradigan rangli televizor kanalida ranglikni kuchaytirishni rostdlash.

To'yinish

ing. - saturation

rus. - насыщение

Chiqishi va kirishidagi signallar o'rtasida nochiziqli bog'lanish bo'lgan kuchaytirgichning ish rejimi. To'yinish sohasida chiqish signali darajasi maksimal qiymatga yetadi va kirish signali kuchayganda (oshganda) deyarli o'zgar olmaydi.

To'yinmagan ranglar (rangli fotosurat)

ing. - desaturated colours

(colour photography)

rus. - ненасыщенные цвета

(цветная фотография)

To'yinganligi standart to'yinganlikka qaraganda sezilarli darajada kam bo'lgan ranglar.

To'g'ri sim

ing. - direct (telephone) line

rus. - прямой провод

Telefon kabellarida juftliklarni band qilish yo'li bilan tashkil qilingan krosslar va/yoki taqsimlash qutilari orqali o'zaro bog'langan, shuningdek, stansiyalararo, magistral yoki taqsimlash tarmog'i uchastkalarining qanchasi to'g'ridan-to'g'ri aloqa uchun band qilinishidan qat'i nazar, raqamli aloqa kanallari hisobiga tashkil qilingan ikkita oxirgi punktlar o'rtasidagi ikki simli qayd etilgan, kommutatsiya qilinmaydigan to'g'ridan-to'g'ri aloqa.

To'g'ri chiziqli yoyish

ing. - rectilinear scanning

rus. - прямоугольная развертка

Televideniyeda, maydonni oldindan belgilangan tor, to'g'ri parallel chiziqlar ketma-ketligi bo'yicha yoyish jarayoni.

To'g'ridan-to'g'ri aloqa rejimi

ing. - direct mode

rus. - режим прямой связи

Abonent radiostansiyalari tayanch stansiyanini chetlab o'tgan holda, o'zaro bevosita bog'lanishni o'rnatadigan rejim.

To'g'ridan-to'g'ri erkin foydalanish

ing. - direct access

rus. - прямой доступ

Manzil yoki yozuv kaliti bo'yicha ma'lumotlardan erkin foydalanish usuli.

To'g'ridan-to'g'ri eshittirish yo'ldoshi

ing. - direct broadcasting satellite

rus. - спутник прямого вещания

Signallarni orbitadan to'g'ridan-to'g'ri kichik, uncha qimmat bo'lmagan yer stansiyalariga, bevosita turar joy yoki mikrostanoyalardagi oluvchilarga uzatish uchun yetarli quvvatga ega bo'lgan yo'ldoshli tizim.

To'g'ridan-to'g'ri ketma-ketlikdan

foydalanib, kodli ajratish orqali

ko'plab foydalana olish

ing. - direct sequence code division

multiple access (DS-CDMA)

rus. - множественный доступ с кодовым разделением с использованием прямой последовательности

Spektrni to'g'ridan-to'g'ri kengaytirish va kanallarni kodli ajratish bilan ko'p stansiyon foydalana olish. CDMA tizimlarida signallarni keng polosali uzatish usuli, kodlangan ma'lumotlar oqimini ikki bosqichli modulyatsiyalashdan foydalanishga asoslangan.

Izoh - Modulyatsiyalashning birinchi bosqichida kodlangan ma'lumotlar oqimi eltuvchini modulyatsiyalaydi (odatda, BPSK yoki QPSK usuli bilan), ikkinchi bosqichda esa, to'g'ridan-to'g'ri ketma-ketlikdan foydalanib, spektrni kengaytirish bilan modulyatsiyalash amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri ko'rinish

ing. - line-of-sight

rus. - прямая видимость

Uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalar o'rtasida geometrik (optik) ko'rinishning mavjudligi.

Izoh - Atama, shuningdek «to'g'ridan-to'g'ri ko'rinish chegarasida» yoki «radioreleli» (trassa to'g'risida) mazmunlarida ham qo'llaniladi.

To'g'ridan-to'g'ri manzillash

ing. - direct addressing

rus. - прямая адресация

Komandaning manzil qismi operand manzilini ichiga oladigan manzillash usuli.

To'g'ridan-to'g'ri televizion

eshittirish yo'ldoshi

ing. - direct broadcast satellite

rus. - спутник непосредственного

телевизионного вещания

Geostatsionar orbitadagi, foydalanishdagi qabul stansiyalariga teledasturlarni translyatsiya qilish uchun mo'ljallangan yo'ldoshi. To'g'ridan-to'g'ri televizion eshittirish yo'ldoshi chastotalarning Ku – diapazonida (11/14 GHz) kichik diametrliligi (0,4-1,2 m) parabolik antennalar («tarelkalar») ga qabulni ta'minlaydi.

To'g'ridan-to'g'ri uzatish

(to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya)

ing. - live broadcast

rus. - прямая передача (прямая трансляция)

Dasturni yaratish va uzatish bir vaqtda amalga oshiriladigan tovushli yoki televizion dastur.

To'g'ridan-to'g'ri chiquvchi terish

ing. - direct outgoing dialling

rus. - прямой исходящий набор

Xususiy tarmoqda terminalga ushbu xususiy tarmoq operatorining aralashuvsiz boshqa tarmoq bilan bog'lanishni o'rnatish imkoniga ega xizmat.

To'g'rilamoq

ing. - justify

rus. - выравнивать

Matn ko'rinishidagi ma'lumotlarning qandaydir qoidaga binoan o'zgarishi. Odatda hujjatda o'rta, o'ng, chap tomonlarga tekislanadi.

U

U boshdan bu boshga signallar uzatish

ing. - end-to-end signalling

rus. - сигнализация из конца в конец

Foydalanuvchiga, talab qilinadigan asosiy yoki qo'shimcha xizmatni taqdim etish maqsadida, oxirgi (terminal) punktga tegishli bo'lgan signalli axborotni, bevosita oxirgi (terminal) punktlar orasida uzatish mumkinligi.

Uda-Yagi antennasi («to'liq kanal»

antennasi, direktorli antenna)

ing. - Uda-Yagi antenna

rus. - антенна Уда-Яги (антенна

«волновой канал», директорная антенна)

«To'liq kanal» turidagi antenna, bitta aktiv yarimto'liqni vibratordan va bir nechta passiv (bitasi reflektor deb, qolganlari esa direktorlar deb nomlanadigan) elementlardan iborat.

«Ula va ishla»

ing. - plug-n-play

rus. - «подсоединяй и работай»

Kompyuterga ulanadigan qo'shimcha uskuna: modem, printer, audikartani tezda ulash va avtomatik tarzda konfiguratsiyalash spetsifikatsiyalari to'plami. Kompyuterga o'rnatiladigan qurilmalarni avtomatik tarzda aniqlash va sozlash, shuningdek, tegishli drayverlarni o'rnatish imkonini beradi. Almashtirish ulagichlar va peremichkalarini o'rnatish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qiladi.

«Ula va o'yna»

ing. - plug and play

rus. - «подключи и играй»

Zamonaviy BIOS, operatsion tizimlar va apparat vositalarini qo'llovchi, kompyuterga qo'shimcha uskunani tez ulash va tizimning o'z-o'zini konfiguratsiyalash xususiyati va prinsipi. Operatsion tizim qaytadan ulangan qurilmani aniqlaydi, tekshiradi, tizimga mosligini aniqlaydi va har bir qurilmaning optimal o'rnatilishini ta'minlaydi.

Ulanadigan autentifikatsiya modullari

ing. - pluggable authentication modules

rus. - подключаемые

модули аутентификации

Foydalanuvchilarning Linuxda ishlatiladi-

gan dinamik ulanadigan autentifikatsiya modullari.

Ulanadigan dastur

ing. - plug-in

rus. - подключаемая программа

Asosiy amaliy dasturda qo'shimcha funksiyalarni bajaradigan yordamchi dastur. Ilova bilan bir vaqtda yuklanishi va tegishli menyuda opsiya sifatida ko'rinishi mumkin.

Ulanadigan modul

ing. - plugin module

rus. - подключаемый модуль

Qar.: Plagin.

Ulanadigan (tarmoq)

qurilmalar interfeysi

ing. - attachment unit interface (AUI)

rus. - интерфейс подключаемых

(сетевых) устройств

Ethernet tarmog'idagi IEEE 802.3 standartining 7-bo'limida bayon qilingan, to'rt juft ekranlangan o'tkazgich yoki koaksial kabel va MAU qurilmasini ulash uchun ajratgich turidagi interfeys.

Ulangan

ing. - online

rus. - подключённый

1. Doim yoqilgan holatdagi (qurilma), avtonom bo'lmagan ish yoki ishlash jarayoni.

2. Tezkor, dialogli, interaktiv, onlaynli ish yoki ishlash jarayoni.

3. Kompyuter tarmog'iga doimo ulangan holatdagi ishlash jarayoni.

Ulangan abonent raqami

identifikatsiya qilinishini taqiqlash

ing. - connected line

identification restriction (COLR)

rus. - запрет идентификации

номера подключённого абонента

Chaqiruvchi tomonga chaqiriluvchi abonent raqamini aniqlash imkoniyatining oldini olishga imkon beruvchi, chaqirilayotgan abonent raqami identifikatsiya qilinishini taqiqlash xizmati.

Ulangan abonent raqamini

identifikatsiya qilish

ing. - connected line presentation (COLP)

rus. - идентификация номера

подключённого абонента

Chaqiruvchi tomonga chaqiriluvchi abonentning raqami identifikatsiya qilinishini qabul qilish imkonini ta'minlaydigan xizmat.

Ulanish

ing. - attach

rus. - подключение

Ishchi stansiya bilan tarmoq fayl-serveri o'rtasida bog'lanish o'rnatish; qandaydir server bilan ishlash seansi ochilgandan so'ng, ishchi stansiya qo'shimcha serverlarga ulanishi mumkin.

Ulanish joyi

ing. - interconnect

rus. - межсоединение

Aktiv uskuna kabellari patch-kordlar yoki tutashtirgichlardan foydalanmasdan, kabel kichik tizimlariga ulanadigan joy.

Ulanish, qo'shilish

ing. - bending, connection

rus. - соединение

1. Bir nechta ma'lumotlar kanalining yagona mantiqiy kanalda birlashishini ta'minlovchi xalqaro standart. Bu standart videokonferensiyalarni tashkillashtiruvchi dasturlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

2. Boshqa kompyuter yoki tarmoqqa ulanish.

Ulanish turi

ing. - connection type

rus. - тип соединения

Ulanishlar to'plamining bitta yoki bir nechta ulanish atributining berilgan qiymatlaridan iborat tavsifi.

Ulanish xizmati

ing. - interconnection service

rus. - услуга присоединения

Aloqa operatorlarining elektraloqa tarmoqlarining birgalikda ishlashini tashkil qilishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan xizmat. Bunda birgalikda ishlaydigan elektraloqa tarmoqlarining foydalanuvchilari o'rtasida axborot uzatish va bog'lanish o'rnatilishi ta'minlanishi kerak.

Ulanma

ing. - coupler

rus. - сцепка

Tasviri bo'yicha turlicha bo'lgan, lekin umumiy mavzu, yozuv yoki bezalish g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan, bir varaqda bosiladi-

gan va bir-biri bilan ulangan ikki yoki undan ortiq pochta markasi.

Ulash

ing. - mount

rus. - монтировать

*nix tizimlarida – uskunadagi fayl tizimidan foydalanish uchun uni tizimdagi biror bir katalogga (odatda /mnt dagi biror katalogga) ulash.

Ulash nuqtasi

ing. - mount point

rus. - точка монтирования

Fayl tizimining katalogi, papkasi (*nix tizimlarida odatda /mnt), qurilmalarni o'rnatish joyi.

Ulash yaqinidagi shlyuz

ing. - interconnection border gateway

rus. - приграничный шлюз присоединения

Xizmatlarni taqdim etuvchilarning ikki tayanch tarmog'i o'rtasida paketlarning o'zaro hamkorligi uchun javob beradigan uzul.

Ultra qisqa to'liqlar

ing. - ultrashort waves

rus. - ультракороткие волны

Detsimetrl, santimetrl, millimetrl va detsimillimetrl to'liqlar diapazonlarining radio-to'liqlari.

Ultra yuqori chastota

ing. - ultrahigh frequency

rus. - ультравысокая частота

0,3 GHz dan 3 GHz gacha bo'lgan diapazon-da yotuvchi ultra yuqori chastotalar sohasi.

Umum foydalanishdagi axborot tizimi

ing. - information common use system

rus. - информационная система

umumiy foydalanish uchun umumiy foydalanish uchun ochiq va ushbu shaxslarga xizmatlari rad etilishi mumkin bo'lmagan axborot tizimi.

Umum foydalanishdagi

telekommunikatsiyalar tarmog'ining

axborot xavfsizligi mexanizmi

ing. - public switched telecommunications

network information security mechanism

rus. - механизм информационной

безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Tarmoqning belgilangan axborot xavfsizligi siyosatiga muvofiq, bir-birini to'ldiruvchi uchta – buzish ko'rsatadigan ta'sirning oldini olish, jinoyatkor tomonidan yetkazilgan oqibatlarni aniqlash, bu oqibatlarni tiklash (bartaraf qilish) kabi, muhofaza qilish toifasining biriga muvofiq, tarmoqni axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlardan muhofaza qilishning bitta yoki bir nechta aspektini amalga oshiradigan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligini ta'minlash tizimining apparat-dasturiy va tashkiliy vositalari.

Izoh – Tarmoqda xabarlar uzatish jarayonini muhofaza qilishda umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligi mexanizmlariga erkin foydalanishni nazorat qilish mexanizmi, xabarlarini autentifikatsiya qilish mexanizmi, almashuv autentifikatsiya mexanizmi kiradi.

Umumfoydalaniladigan axborot

ing. - public information

rus. - общедоступная информация

Hammaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar va foydalanilishi cheklanmagan boshqa axborot.

Umumfoydalaniladigan fayl

ing. - public file

rus. - общедоступный файл

Boshqa kompyuterda joylashgan fayl va bu faylga tarmoqdagi hamma kompyuterlar uchun ochiq huquq berilgan.

Umumiy

ing. - public

rus. - общий

Dasturlashda dasturning barcha pseduralaridan foydalanish mumkin bo'lgan umumiy o'zgaruvchilarni e'lon qilishda foydalaniladigan operatorlardan biri.

Umumiy antennali televidion tizim

ing. - television system with

common antenna

rus. - телевизионная система

с общей антенной

Qar.: Kabelli televideniye.

Umumiy apparat platformasi,

tasnifi (arxitekturasi)

ing. - common hardware reference

platform (CHRP)

rus. - общая аппаратная платформа,

спецификация (архитектура)

MacOS, Windows NT va OS/2 operatsion tizimlari bilan ishlashni ta'minlaydigan Apple, IBM va Motorola kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy kompyuter. 1995-yildan ishlab chiqarilishi boshlangan prototipning tayanch konfiguratsiyasi o'z ichiga PowerPC, 8 Mbyte RAM (1 Gbyte gacha kengaytiriladigan) va PCI shinasini olgan.

Umumiy arxitektura standarti

ing. - overall architecture standard

rus. - общий стандарт архитектуры

Mikrosxemalar ishlab chiqaruvchilar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan asosiy platalar arxitekturasining umumiy standarti; asosiy plataning funksional bloklarga ajratilishini tartiblashtiradi. Standartning asosini PCI shinasi tashkil qiladi.

Umumiy axborot nazariyasi

ing. - united information theory

rus. - общая теория информации

Ilmiy bilimlarning fundamental sohalaridan biridir. U tabiiy va jamiyatning rivoji asosida yotgan, axborot voqeiylikining namoyon bo'lishiga oid eng umumiy qonuniyatlarga asoslanadi.

Umumiy blok

ing. - common block

rus. - общий блок

FORTLAN tilida – bir nechta dastur qismlarining umumiy o'zgaruvchilari joylashadigan xotira sohasi.

Umumiy bo'g'in

ing. - common link

rus. - общее звено

Monokanalning bir qismi, u orqali har bir ma'lumotlar bloki barcha abonent tizimlarga uzatiladi. Umumiy bo'g'in o'rama juft, yassi kabel, koaksial kabel, optik kabel yoki radio-kanal asosida yaratiladi.

Umumiy foydalana olish

ing. - shared access

rus. - общий доступ

Umumiy identifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanib resurs yoki dasturdan foydalana olish.

Umumiy foydalana olish mumkin

bo'lgan mobil radioaloqa tizimi

ing. - public access mobile radio (PAMR)

rus. - система мобильной радиосвязи с общим доступом

Umumiy foydalanishdagi tarmoqqa kira olishni ta'minlaydigan va PMR tizimdagiga qaraganda, foydalanuvchilarning keng doirasiga mo'ljallangan xizmatlar to'plamiga ega trunking aloqa tizimi.

Umumiy foydalana olish profili

ing. - generic access profile

rus. - общий профиль доступа

Tarmoq bilan ishlashda foydalaniladigan foydalana olish profili. Bunda foydalanuvchi serverda – domen kontrollerida o'z sozlashlari va afzalliklarini saqlaydi. Tizimga birinchi kirishda yangi kompyuterda sozlash serverdan nusxa qilib olinadi va o'rnatiladi, bu tizimni har safar yangitdan sozlash zaruriyatidan xalos etadi.

Umumiy foydalana olish siyosati

ing. - shared access policy

rus. - политика общего доступа

Identifikatsion ma'lumotlar yoki identifikatsion ma'lumotlar puli vositasida umumiy foydalanish uchun a'zolarni mualliflashtirish siyosati. Identifikatsion ma'lumotlarning muayyan puli uchun muayyan identifikatsion ma'lumotlar, barcha pullar yoki tashkilot konteynerining bitta kontekstiga ega identifikatsion ma'lumotlar siyosatini qo'llash mumkin.

Umumiy foydalanishdagi mobil telefon

aloqaning istiqbolli Yer usti tizimlari

ing. - future public land

mobile communication system

rus. - перспективная система

мобильной наземной связи

общественного пользования

Xalqaro elektraloqa ittifoqi (ITU) tomonidan ishlab chiqilgan, uchinchi avlod (3G) aloqa xizmatlarining dastlabki konsepsiyasi.

Izoh – Multimedia axborot uzatilishini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Lekin bu konsepsiya yagona global standart yaratish mumkin emasligi ma'lum bo'lgach, rad etildi. Keyinchalik IMT-2000 standartlar turkumi paydo bo'ldi.

Umumiy foydalanishdagi

telefon tarmog'i (UFTF)

ing. - public switching

telephone network (PSTN)

rus. - телефонная сеть общего

пользования (ТФОП)

Автоматик telefon stansiyalari, kommutat-

siya uzellari, telefon tarmog'i liniyalari, kanallari, oxirgi (terminal) abonent qurilmalari majmuini o'zida ifodalaydigan, aholi, muassasalar, korxonalar hamda tashkilotlarning telefon tarmog'i xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydigan telefon tarmog'i.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i
ing. - public communication network
rus. - сеть телекоммуникаций общего пользования

O'zbekiston Respublikasi hududida barcha yuridik shaxslarga telekommunikatsiya xizmatlarini xizmat ko'rsatishning yagona prinsiplari, ularni taqdim etish va haq to'lash tartibi asosida ko'rsatish uchun mo'ljallangan telekommunikatsiyalar tarmog'i.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligi
ing. - public switched telecommunications network information security
rus. - информационная безопасность сети телекоммуникаций общего пользования

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot resurslarining, xizmat sifati darajasining pasayishiga yoki tarmoq ishi sifat xarakteristikalarining yomonlashishiga olib keluvchi, shu bilan uning egasi yoki foydalanuvchilarga ziyon yetkazuvchi tahdidlardan muhofaza qilinganlik holati (darajasi).

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligi obyekti
ing. - public switched telecommunications network information security object
rus. - объект информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i obyekt(lar)i, jinoyatkormog'ning unga (ularga) bo'ladigan ta'siri umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligiga tahdid amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi
ing. - public switched telecommunications

network information security system
rus. - система обеспечения информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования
Umumiy foydalanishdagi muayyan telekommunikatsiyalar tarmog'idagi, bu tarmoqning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik tadbirlar, axborot xavfsizligi xizmatlari va mexanizmlari, normalar, boshqaruv organlari va bajaruvchilar majmui.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligiga tahdid
ing. - public switched telecommunications network information security threat
rus. - угроза информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'iga jinoyatkormog' ko'zda tutilgan ta'siri, uning tarmoq vositalari bilan bartaraf qilinmagani, aniqlanmagani va yo'q qilinmagani umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligini ta'minlashning berilgan darajasi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligi siyosati
ing. - public switched telecommunications network information security policy
rus. - политика информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Tarmoq administratori tomonidan, muhofaza qilinadigan resurslarning qiymati va umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligini ta'minlash tizimining bahosini hisobga olib, tarmoqning axborot xavfsizligiga bo'ladigan ma'lum tahdidlarga qarshi harakat qilish maqsadida ishlab chiqilgan, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligi obyekti (obyektlari) uchun mo'ljallangan talablar va qoidalari ning majmui.

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining axborot xavfsizligi xizmati
ing. - public switched telecommunications network information security service

rus. - служба информационной безопасности сети телекоммуникаций общего пользования

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i axborot xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan, axborot xavfsizligining belgilangan mexanizmlari asosida belgilangan muhofaza protseduralarini amalga oshiruvchi, umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'ining tashkiliy-texnik tuzilmasi.

Umumiy interfeys

ing. - common interface

rus. - общий интерфейс

Yangi raqamli modullar – Digital-TV Retrofit 2 St-CI yoki Twin-Sat-CI da mavjud bo'lgan ikkita standart ajratgich, ular tegishli dekodlovchi qurilmalar va ularda oson o'rnatiladigan, raqamli kanal egasining smart-kartasi bilan birgalikda, kodlangan dasturlarning qabul qilinishini ta'minlaydi.

Umumiy ishonchlilik (ishonchlik)

ing. - general reliability (reliability)

rus. - общая надежность (надежность)
Televizor (element) ning, uning to'xtamasdan ishlashi, chidamliligi va ta'mirga yaroqliligi bilan bog'liq bo'lgan hamda berilgan funksiyalarning televizor (element) uchun belgilangan hajmda normal bajarilishini ta'minlash xususiyati.

Umumiy kalit

ing. - public key

rus. - общий ключ

Simmetrik kriptotizimdagi, ikki yoki bir nechta foydalanuvchi tomonidan birgalikda ishlatiladigan maxfiy kalit.

Umumiy kechikish

ing. - over-over delay

rus. - общая задержка

Signalni uzatishdan to uning qabul qilinganligi tasdiqlanguncha o'tgan to'liq kechikish vaqti.

Umumiy maqsadlardagi kolonna

ing. - utility column

rus. - колонна общего назначения

Shift va pol orasida joylashgan, shift taqsimlash tizimlari bilan bog'langan kabel kanali. Shift bo'shlig'idan ish o'rinarligiga boradigan telekommunikatsiya hamda elektr simlari va kabellarini joylashtirish uchun foydalaniladi. Sinonimlari: Shift ustuni; Katta

kuchlanishli ustun; Shift kapiteli; Ta'minot liniyasining tayanchi.

Umumiy maqsadlardagi registr

ing. - general-purpose register

rus. - регистр общего назначения

Markaziy protsessorning, ma'lumotlar yuborish operatsiyalaridan tashqari, mantiqiy va arifmetik komandalarni ham bajarish mumkin bo'lgan registri.

Umumiy ma'lumotlar uchun raqobat

ing. - race condition

rus. - конкуренция за общие данные

Birgalikda ishlaydigan jarayonlar hech qanday sinxronlashsiz umumiy ma'lumotlarga parallel (bir vaqtda) murojaat qilishi mumkin bo'lgan holat.

Umumiy muammolarni hal qiluvchi

ing. - general problem solver

rus. - общий решатель проблем

Sun'iy intellekt usullaridan foydalanib, vazifalarning katta turkumini hal qilish uchun mo'ljallangan dastur.

Umumiy navbatni tashkil etish

ing. - shared queueing

rus. - организация общей очереди

Navbatni tashkil etish usuli, bunda ma'lumotlar kommutatsiya elementlarining kirishi va chiqishi bilan bog'langan bufer xotira qurilmasida to'planadi.

Umumiy obyekt xizmatlari

ing. - common object services

rus. - общие объектные услуги

CORBA texnologiyasi obyektlarining bazaviy funksiyalarini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan va obyekt interfeysi bilan ta'minlangan xizmatlar kolleksiyasini taqdim etuvchi servis.

Umumiy oraliq format

ing. - common intermediate format

rus. - общий промежуточный формат

Videokonferensiyalarda qo'llaniladigan video uzatuvchi baza formatining nomi (ITU-T H.261 spetsifikatsiyasi bilan solishtirganda), tasvir imkoniyati va uning uzatilish tezligi bilan beriladi. Bir nechta modifikatsiyalari mavjud.

Umumiy ochiq litsenziya

ing. - GNU general public license (GPL)

rus. - общая открытая лицензия

Erkin dasturiy ta'minot fondi tomonidan

ishlab chiqilgan litsenziya kelishuvi bo'lib, erkin dasturiy ta'minotning tarqatilishini boshqaradi.

Umumiy paketli uzatish radioxizmati
ing. - general packet radio service (GPRS)

rus. - общая радиослужба пакетной передачи
GSM tizimi doirasida tuzilgan, ma'lumotlarni paketli uzatish xizmati.

Izoh - GPRS texnologiyasi GSM tizimidan IMT-2000 tizimga evolyutsion o'tishning bosqichi sifatida qaraladi va u mavjud infrastrukturani amalda o'zgaritmasdan yangi imkoniyatlar berilishini ta'minlaydi. Bunda axborotni paketli uzatish tezligi 115 Kbit/s dan ortiq bo'lmaydi.

Umumiy papka
ing. - public folder
rus. - общая папка

Hamma foydalanuvchilarga tarmoq orqali foydalana olishlari uchun ruxsat etilgan boshqa kompyuterdagi papka.

Umumiy resurs
ing. - shared resource
rus. - общий ресурс

Bittadan ortiq qurilma yoki dasturda foydalaniladigan har qanday qurilma, ma'lumotlar yoki dastur (masalan, katalog, fayllar, printertlar, nomlangan kanallar).

Umumiy resurs nomi
ing. - share name
rus. - имя общего ресурса
Identifikator (nom), u yoki bu taqsimlangan resursni aniqlashda ishlatiladi. Masalan, tarmoqdagi printerning nomi.

Umumiy semafor
ing. - counting semaphore
rus. - общий semaфор
S butun o'zgaruvchi, bunda ikkita wait (S) va signal (S) atomar semafor operatsiyalar aniqlangan.

Umumiy signalizatsiya kanali bo'yicha signalizatsiya
ing. - common channel signalling
rus. - сигнализация по общему каналу сигнализации
Telekommunikatsiya signallarini uzatish usuli, bunda liniya signallarini va so'zlashuv kanallari muayyan guruhi telefon tarmog'ini boshqarish signallarini almashish uchun, telefon kanalining alohida (ajratilgan) signalizatsiya kanaliqan foydalaniladi.

Umumiy tarmoqlararo fayl tizimi
ing. - common internet file system (CIFS)
rus. - общая межсетевая файловая система
Masofadagi kompyuterda saqlanayotgan faylni, FTP protokollari kabi, Internetda ishlashda yuzaga keladigan lokal mashinaga ko'chirishni talab qilmasdan masovita o'qish/yozishni ta'minlaydigan tizim.

Umumiy titrash
ing. - timing jitter
rus. - общее дрожание
10 Hz dan yuqori bo'lgan chastotalar polosasidagi nominal pozitsiyalarga nisbatan impulslar frontining tasodifiy siljishi.

Umumiy xotirali displey
ing. - bit-map(ped) display
rus. - дисплей с общей памятью
Rastrli displeyning protsessor bilan birgalikda ishlashini tashkil qilish, bunda tasvirning har bir nuqtasiga elektron hisoblash mashinasi manzil fazosidagi xotiraning bitta yoki bir nechta razryadi to'g'ri keladi; dastur xotira yacheykalari ichidagini o'zgartirgan holda, ekrandagi tasvirni o'zgartiradi.

Umumiy shina
ing. - utility bus
rus. - общая шина
Periferik qurilmalar ulanadigan kompyuterda elektr signallarni uzatish uchun mo'ljallangan yagona kanal. Kompyuter tarmog'ining sxemasi - barcha kompyuterlar va tarmoq qurilmalari ma'lumotlar uzatiladigan yagona tarmoq kanaliga ulanadi.

Umumiy shlyuz interfeysi
ing. - common gateway interface
rus. - общий шлюзовой интерфейс
HTTP-server dasturlarini yaratish uchun mo'ljallangan, NCSA tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq standarti. Veb-serverlarda ssenariylar yoki dasturlar orasida ma'lumotlar almashishda, keyin veb-sahifa yoki brauzerga ma'lumotlarni uzatishda qo'llaniladi. CGI ssenariylari odatda, Perl tilida yoziladi va veb-sahifaning dinamik mazmunini generatsiya qiladi (masalan, elektron tijoratda buyurtmalar savatini hosil qiladi).

Umumjahon o'rgimchak to'g'ri konsorsiumi
ing. - World Wide Web Consortium (W3C)
rus. - консорциум Всемирной паутины (W3C)

1994-yili tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Uning maqsadi – WWWdan global foydalanish xizmati uchun standartlar, protokollar, amaliy dasturlar ishlashni qo'llash va muvofiqlashtirish. CERN (q: CERN) ishtirokida asos solingan, WWW dunyoga kelgan ilmiy markazda bugungi kunda Konsorsium uch tashkilot asosida ishlamoqda: AQShdagi Massachusetts texnologiyalar instituti (Massachusetts Institute of Technology, Laboratory for Computer Science), Fransiyadagi informatika va avtomatika sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (Institut National de Recherche en Informatique et en Automatique) va Yaponiyadagi Keio universiteti. Konsorsium saytida (<http://www.w3.org>) WWW rivojlanishi tarixi va dunyoda WWWhu^ hozirgi kundagi ahvoli to'g'risida umumiy axborot, Konsorsiumning yangiliklari, WWW bo'yicha konferensiya materiallari bilan tanishish mumkin. WWW bilan bog'liq barcha texnik materiallarning katta kolleksiyasi (arxitektura, protokollar, foydalanuvchi interfeysi) muhim amaliy ahamiyatga ega.

Umumkanal signalizatsiyasi tizimi

ing. - common channel signaling system

rus. - система общеканальной

сигнализации

Kommutatsiya kanallari bog'lami uchun umumiy bo'lgan maxsus signalizatsiya kanali orqali stansiyalararo signalizatsiyani uzatish tizimi.

Unar operatsiya

ing. - unary operation

rus. - унарная операция

Bitta argument ustida bajariladigan operatsiya.

Unifikatsiyalashtirilgan

buferli kesh-xotira

ing. - uniform buffer cache

rus. - унифицированная

буферная кэш-память

Bitta kesh sahifani keshlash uchun va xotirada aks etadigan fayllarni hamda fayl tizimi orqali odatdagi operatsiyalarni kiritish-chiqarishda ishlatiladigan kesh-xotira.

Unifikatsiyalashtirilgan modellashtirish tili

ing. - unified modeling language (UML)

rus. - унифицированный язык

моделирования

Dasturiy ta'minot ishlab chiqish sohasida, obyektلامي modellashtirish uchun grafik tasvirlash tili. UML ko'p sohalarda foydalanish uchun mo'ljallangan til hisoblanadi, bu UML model deb ataluvchi, tizimning abstrakt modelining grafik ko'rinishini tasvirlovchi ochiq standartdir. UML dasturiy tizimda aniqlik kiritish, tasvirlash, loyihalash va hujjatlashtirish uchun yaratilgan. UML dasturiy ta'minotda foydalanish bilan cheklanib qolmaydi. Uni shu kabi biznes-jarayonlarni modellashtirish, tizimli loyihalash va tashkilotlar tuzilmasini tasvirlashda qo'llash mumkin. UML dasturiy ta'minot dasturchilariga umumiy tushunchalarni (klass, komponent, umumlashtirish, bir-lashtirish va o'zini tutish kabi) tasvirlashni grafik izohlashda kelishuvga erishish hamda loyihalash va arxitekturada ko'proq e'tibor qaratishga imkon beradi.

Unifikatsiyalashtirilgan

resurs identifikatori

ing. - uniform resource identifier, URI

rus. - унифицированный

идентификатор ресурса

Mavhum yoki jismoniy resursni identifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan simvollar-ni qisqa satri. Rasman RFC 2396da belgilangan. vebda ishlatiladigan URI URL deb nomlanadi.

Unifikatsiyalashtirilgan resurs nomi

ing. - uniform resource name (URN)

rus. - унифицированное имя ресурса

Abstrakt yoki fizik resursni identifikatsiya qiluvchi simvollarning doimiy ketma-ketligi.

Unifikatsiyalashtirilgan

xotira arxitekturasi

ing. - Unified Memory Architecture (UMA)

rus. - унифицированная

архитектура памяти

Tizim platosida joylashgan tezkor xotiraning bir qismidan video xotira sifatida foydalanish ko'zda tutiladigan tizim platalari arxitekturasi.

Unitar korxonalar

ing. - unitary enterprise

rus. - унитарное предприятие

Yuridik shaxsning alohida tashkiliy-huquqiy shakli. Mulk egasi tomonidan o'ziga birkelib qo'yilgan mulkka egalik qilish huquqi be-

rilmagan tijorat tashkiloti. Mulk bo'linmas hisoblanadi va hissalar (ulushlar, paylar) ga qarab, jumladan, korxonada ishchilari o'rtasida taqsimlanmaydi.

Universal elektron karta

ing. - universal electronic card

rus. - универсальная электронная карта
O'zida vizual (grafik) va elektron (mashinada o'qiladigan) shakllarda qayd etilgan kartadan foydalanuvchi to'g'risidagi axborotni saqlaydigan moddiy tashuvchi.

Universal interfeysli shina

ing. - general purpose interface bus

rus. - универсальная интерфейсная шина
Kompyuterga ulash uchun foydalaniladigan, 24 shtirli parallel interfeys shinasini.

Universal ketma-ket shina

ing. - universal serial bus

rus. - универсальная последовательная шина
1995-yilda yettita yetakchi kompyuter va telekommunikatsiya firmalari (Compaq, IBM, Intel, NEC, Micrisoft, Digital, Northern Telecom) konsorsiumi tomonidan taklif etilgan, shaxsiy kompyuter va o'rtacha tezlikli periferik qurilmalar o'rtasida uncha qimmat bo'lmagan shina orqali ma'lumotlar almashinish uchun belgilangan standart. Qurilmani ulash, kompyuter qayta yuklanishini, tizim qayta konfiguratsiyalanishini yoki interfeysli karta o'ratilishini talab qilmaydi. Qurilmani aniqlash va tegishli drayverni o'rnatish kompyuterda avtomat ravishda odamning aralashuvizis bajariladi.

Universal resurs identifikatori

ing. - uniform resource identifier (URI)

rus. - универсальный идентификатор ресурса
Qandaydir resurs: hujjat, tasvir, fayl, xizmat, elektron pochta qutisini identifikatsiya qilish imkonini beradigan simvolli satr.

Universal resurs ko'rsatgichi

ing. - Universal Resource Locator (URL)

rus. - универсальный указатель ресурса
Veb-brauzer orqali Internet tarmog'ida resursni izlashda ishlatiladigan manzil. Tim Berners Li tomonidan kiritilgan. U, o'zida resurs, hujjat yoki uning qismining Internetdagi joylashgan o'rini ko'rsatuvchi simvolning standartlashtirilgan satrini ifodalay-

di. Odatda, protokolning turini ko'rsatish bilan boshlanadi (masalan, FTP://, agar hujjat FTP-server yoki http:// da bo'lsa), keyin aniq axborot identifikatori keladi, masalan, server taalluqli bo'lgan domen nomi, tashkilot nomi yoki shu serverdagi fayl nomining yo'li.

Universal simvollar to'plami

ing. - universal character set (UCS)

rus. - универсальный набор символов
ISO 10646, Unicode ko'pligi, 31-bit li kodli fazoga ega.

Universal tovush

ing. - universal sound

rus. - универсальный звук

Kuchaytirishni avtomatik tarzda nazorat qilish asosida to'plangan tovush obyektlarining keng doirasini kodlash algoritmilarining MPEG-4 da qabul qilingan majmui.

Universal xizmatlar

ing. - universal facilities

rus. - универсальные услуги

Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmog'i bo'yicha barcha foydalanuvchilarga taqdim etiladigan belgilangan sifatdagi majburiy xizmatlar to'plami (foydalanuvchilarning ushbu tarmoqdan foydalana olishini ta'minlash, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari, telegrammalarni jo'natish va boshqalar).

Universal xizmatlarga tarif

ing. - tariff for universal services

rus. - тариф на универсальные услуги

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan universal xizmatlar ko'rsatish uchun to'lov miqdori.

Universitet tarmog'i

ing. - campus network

rus. - университетская сеть

Bitta o'quv dargohi kompyuterlarini tarmoqqa birlashtirish. Odatda, bu tarmoqda veb-portal, forum va ko'chirib olish uchun o'quv materiallari mavjud bo'ladi.

Urinish

ing. - try

rus. - попытка

Biror bir operatsiyani bajarish va chiquv-

chi natijalarni tekshirish. Agar natija to'g'ri bo'lsa, urinish samarali hisoblanadi va bajarilgan o'zgarishlar saqlanadi. Aks holda tizim dastlabki holatga qaytadi.

Uskunani identifikatsiya qilish registri

ing. - equipment identification register (EIR)

rus. - регистр идентификации оборудования

Aloqa tizimining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi, u odatda, mobil stansiyalar uskunalari identifikatsiya raqamlari (IMEI) ning uchta ro'yxatini saqlaydi: oq, qora va kul rang. Oq ro'yxatda ayni paytgacha ro'yxatdan o'tgan stansiyalarning raqami saqlanadi. Qora ro'yxatga o'g'irlangan stansiyalar yoki xizmat ko'rsatish rad etilgan abonentlarning raqami kiritilgan. Kul rang ro'yxatga hali qora ro'yxatga ko'chirilmagan, ro'yxatdan o'tish bilan bog'liq muammolari bo'lgan barcha stansiyalarning raqami kiritiladi.

Uskunaning identifikatsion raqami

ing. - hardware ID

rus. - идентификационный номер оборудования

Dasturning buzilishi va uni tarqalib ketishidan himoyalash usullaridan biri. Bunda dastur o'rnatilish vaqtida uni aktivlashtirish uchun identifikatsion raqamni generatsiya qiladi. Bu raqam apparat ta'minotning seriyali raqami bilan bog'langan bo'lib joriy dasturni boshqa kompyuterlarda shu kalit bilan aktivlashtirish mumkin emas.

Ustama bosish

ing. - overwrite

rus. - надпечатка

Pochta markasining yangi nominal qiymatini belgilash yoki markaning boshqa elementlarini o'zgartirish uchun bosilgandan keyin uning old tomoniga tushirilgan har qanday matn yoki rasm.

Ustama qo'yumq

ing. - superimposition

rus. - наложение

Eshittirish dasturiga qisqacha axborot xabarini uni uzatish jarayonida ustama qo'yish.

Ustama to'lov bilan yuboriladigan pochta jo'natmasi

ing. - mailed items, sent with cash on delivery

rus. - почтовое отправление, посылаемое с наложенным платежом

Jo'natuvchi topshirayotganda mo'ljallangan joyning pochta aloqasi obyektiga adresatdan belgilagan pul summasini undirish va uni jo'natuvchining manziliga yuborish uchun topshiriq beradigan qiymati e'lon qilingan pochta jo'natmasi.

Ustivorlik, imtiyoz

ing. - priority

rus. - приоритет

Uzilishga, vazifa yoki jarayonga belgilangan, ularning bajarilish yoki ularga xizmat ko'rsatish navbatini belgilaydigan son.

Ustma-ust tushish (qayta tiklash qurilmasida)

ing. - convergence (in a display)

rus. - совмещение

(в воспроизводящем устройстве)

Proyeksiya tizimidan keladigan yorug'lik nurlari yoki ko'p projektorli tiklash qurilmasining elektron nurlari ekranga kerakli vaqtda kerakli joyga tushishini, uchta asosiy rangga mos keladigan tasvir to'g'ri joylashtirishini bajarish sharti.

Ustma-ust tushmaslik

ing. - faulty convergence,

superposition error

rus. - рассовмещение

Asosiy ranglardagi uchta tasvirning video-signal datchigida yoki tiklash qurilmasida noto'g'ri ustma-ust tushishi.

Ustun

ing. - column

rus. - столбец

Jadval ustuni. Qoidaga ko'ra, ustun barcha elementlari bir xil ma'lumotlar turiga ega.

Ustuvor bo'lmagan pochta jo'natmalari

ing. - non-priority postal items

rus. - неприоритетные

почтовые отправления

Jo'natuvchi arzon tarif tanlaganda jo'natish

va yetkazib berish (topshirish) uchun uzoq muddat taxmin qilinadigan jo'natmalar.

Ustuvor bo'lmagan rejalash

ing. - non-preemptive scheduling

rus. - неприоритетное планирование

Operatsion tizimdagi rejalash shakli. Topshiriqlar tezkor xotirada bir birini qoplamasdan yakka tarzda ishlatilishi mumkin.

Ustuvor loyiha

ing. - priority project

rus. - приоритетный проект

Oldiga ustuvor vazifa yechimi qo'yilgan loyiha.

Ustuvor pochta jo'natmalari

ing. - priority mail items

rus. - приоритетные почтовые отправления

Yuqori tarif belgilangan, ustuvor tartibda ishlov beriladigan va eng tezkor yo'l bilan tashiladigan (havo yoki yer usti) jo'natmalar.

Ustuvor vazifa

ing. - foreground task

rus. - приоритетная задача

Ko'p vazifali tizimlarda - aktiv oynada bajariladigan vazifa.

Usul

ing. - method

rus. - метод

Qandaydir vazifani hal qilish mexanizmi. Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tushunchasi. Obyekt bajaradigan protseduralar ko'rinishidagi ishlar.

Usulning uzoqlashgan chaqiruv

ing. - remote method invocation (RMI)

rus. - удаленный вызов метода

Sun firmasi tomonidan ishlab chiqilgan, obyektga yo'naltirilgan Java mexanizmi - Java usulini protseduraning uzoqlashgan chaqiruviga o'xshash tarmoqning boshqa kompyuterida chaqirish texnologiyasi.

Utilita (xizmat ko'rsatuvchi dastur)

ing. - utility

rus. - утилита

(обслуживающая программа)

Xizmat ko'rsatadigan tizim dasturi, (yordamchi) xizmatga oid funksiyalarni, masalan, diskni belgilashlarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Uy (asosiy) holat registri

ing. - home location register (HLR)

rus. - домашний (основной) регистр

положения

Aloqa tarmog'ining ma'lumotlar bazasi; unda tarmoqda doimiy qayd etilgan abonentlar to'g'risidagi axborot (raqamlari va manzillari, ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va b.lar) saqlanadi.

Izoh - Amalda, uy registrida abonentlar joylashgan yer to'g'risidagi axborotning, kommutatsiya markazi tomonidan mobil stansiyalarga chaqiruvlarni marshrutlash imkonini beradigan qismi saqlanadi.

Uy katalogi

ing. - home directory

rus. - домашний каталог

Foydalanuvchining ma'lumotlari, sozlamalari va h.k. saqlanayotgan operatsion tizimdagi shaxsiy katalogi. Uy katalogining nomi va joylashishi operatsion tizim turiga bog'liq - masalan, Windows XRda u Documents and Settings papkasida (Windows Vistada - Users), Linuxda esa - /home papkasida joylashadi.

Uy kompyuteri

ing. - home computer

rus. - домашний компьютер

Uyda foydalaniladigan, universal, ko'p funksiyali, muomala qilish oson bo'lgan, ishonchli, yuqori unumli, arzon, zamonaviy dizaynga ega kompyuter.

Uy sahifasi

ing. - home page

rus. - домашняя страница

Web-saytga tashrif qiluvchi tushadigan va saytni ko'rib chiqish boshlanadigan boshlang'ich veb-sahifa.

Izoh - Uy sahifasiga qarab, tashrif qiluvchi qayerga tushganligi va saytning boshqa sahifalarida nimani ko'rish mumkinligi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi.

Uya ichidagi xalaqit

ing. - intracell intereference

rus. - внутрисотовая помеха

Bitta tayanch stansiyaning ta'sir doirasida, bitta ishchi chastotada ishlayotgan boshqa uzatgichlarning signallari keltirib chiqaradigan xalaqit.

Uya ichidagi xendover

ing. - intracell handover

rus. - внутрисотовый хэндовер

Abonent stansiyasining ishchi parametrlari-

ni, odatda, chastota yoki kanal intervali raqamini, aynan shu abonent stansiyasi bilan aloqa paytida almashtirish protsedurasini.

Uya, yacheyka

ing. - cell

rus. - сота, ячейка

Bitta tayanch stansiyaning geografik qoplash zonasi.

Uyalarni retranslyatsiya qilish

ing. - cell relay

rus. - ретрансляция ячеек

Ma'lumotlarning tezkor kommutatsiyasini apparat bilan ta'minlovchi tarmoq texnologiyasi. Uyalarga taxlab joylashtirilgan ma'lumotlarni qayta uzatib to'g'ridan-to'g'ri kommutatsiyalanadi. Birinchi navbatda, asosiy tarmoqlarda ishlatiladi. U kadrlarni qayta uzatishdan, bu tarmoqlar orqali o'zgarmas uzunlikdagi, uya deb ataluvchi ma'lumotlar blokini uzatishni ta'minlashi bilan farqlanadi. Uyalarni qayta uzatish birlashgan kommutatsiya bog'lamlarida bajariladi.

Uyali tarmoq

ing. - cellular network

rus. - сотовая сеть

Markazida, oltita qo'shni tayanch stansiya bilan birgalikda ishlaydigan tayanch stansiyalar joylashgan ko'plab yacheykalar (uyalar)dan iborat tarmoq. Signal bir tayanch stansiyadan boshqasiga uyali tarmoqning butun qamrov zonasi bo'ylab uzatiladi. Tarmoqning bunday tuzilmasi abonentga mobil telefondan erkin harakatlangan holda, ayni paytda qaysi tayanch stansiyaga ulanganligi to'g'risida o'ylamay foydalanish imkonini beradi.

Uyani e'lon qilingan qayta tanlash

ing. - announced cell reselection

rus. - объявленный повторный выбор соты

Mobil radiostansiyaning aloqa kanalining xarakteristikalari birmuncha yaxshi bo'lgan yangi uya aniqlanganda, o'z uyasini yangisiga almashtirishi.

Izoh - Uyani almashtirishdan oldin, u hozir xizmat ko'rsatayotgan tayanch stansiyaga bu haqda xabar beradi, bunda yangi tayanch stansiyaga o'tishning turli variantlari bor: yangi tayanch stansiya qaysi ekanligini bildirib yoki bildir-masdan, joriy bog'lanishni tugatib yoki uni uzmasdan o'tish.

Uyanning e'lon qilinmagan qayta tanlanishi

ing. - unannounced cell reselection

rus. - необъявленный

повторный выбор соты

Mobil aloqa tarmog'ida uyanning almashish jarayoni bo'lib, odatda mobil radiostansiyaning tayanch stansiyada ro'yxatdan o'chishi bilan birga amalga oshadi.

Izoh - Biroq, bunday vaziyat har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Masalan, bog'lanishning uzilishi to'satdan sodir bo'lib, mobil stansiya esa bu vaqtda ikki yoki undan ortiq tayanch stansiyalarning ta'sir zonasida joylashgan bo'lsa, radiostansiya uyalarni skanlash orqali uzilgan bog'lanishni tiklashga urinadi. Mobil stansiya yangi uyani egallagandan so'ng, unda ro'yxatdan o'chishga, shu bilan birga, aloqa uzilgan paytda u qayta ro'yxatdan o'tishga ulgurmagani sababli, «keski» uyada ro'yxatdan o'tganligicha qolaveradi.

Uyanning «nafas olishi»

ing. - cell breathing

rus. - «дыхание» соты

Tarmoq uyuklamasi, xalaqitli vaziyat va boshqa omillarga bog'liq ravishda, yacheyka (uya) o'lchamlarining o'zgarishi.

Uyanning ogohlantirishsiz qayta tanlanishi

ing. - undeclared cell reselection

rus. - повторный выбор соты без

оповещения

Mobil stansiya ishchi holatda turgan, biroq, axborot uzatmayotgan vaqtda, tranking aloqa tarmog'ida uyanning almashtirish jarayoni. Izoh - Tarmoqni boshqarish tizimi, abonent aloqaga kinishga va yangi uyada ro'yxatdan o'tishga urinmaguncha, uning turgan joyi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmaydi.

Uyanning cho'qqi tezligi

ing. - peak cell rate (PCR)

rus. - пиковая скорость ячейки

Virtual zanjir bo'ylab uya uzatilishi mumkin bo'lgan maksimal tezlik. Bir sekunda uzatiladigan uylar bilan o'lchanadi hamda bir uyanning oxirgi bitini va keyingi uyanning birinchi bitini uzatish o'rtasidagi intervalni belgilaydi.

Uygacha o'tkazilgan optik tola

ing. - fiber-to-the-home (FTTH),

fiber-to-the-building (FTTB)

rus. - оптическое волокно до дома

Tarmoq qurish konsepsiyasi. Unga ko'ra, optik-tolali liniyalar har bir xonadongacha yetkaziladi. Asosiy bog'lamani abonent bilan bog'lash uchun passiv optik taqsimlash

qurilmalaridan foydalaniladi. Bu qurilmalar yordamida ko'p simli magistral kabeldan kam tolali kabelga o'tish ta'minlanadi. Abonentni ulash uchun ikki simli optik kabeldan foydalaniladi.

Uyg'otish xizmati

ing. - wake-up call
rus. - услуга побудки

Abonent tomonidan oldindan belgilangan soatda yoki soatlarda o'z liniyasida u uchun uyg'otish chaqiruvi yoki chaqiruvlarini shart qilish va ushbu chaqiruvga javob bergandan keyin tegishli xabaromani eshiti sh imkonini beradigan xizmat.

Uzatish

ing. - transmission
rus. - передача

Axborotni, aloqa kanali bo'ylab manbadan qabul qilgichga ko'chirish jarayoni.

Uzatish (eshittirishda)

ing. - transmission (in broadcasting)
rus. - передача (в вещании)

1. Radioto'lqinlar yoki signallarni eshittirish uzatgichida nurlantirish.
2. Dastur yoki uning ma'lum bir qismi.

Uzatish kanali

ing. - transmission circuit;
transmission channel
rus. - канал передачи

Telekommunikatsiyalar signalini muayyan chastotalar polosasida yoki berilgan uzatish kanali uchun xos bo'lgan uzatish tezligi bilan tarmoq stansiyalari, tarmoq uzellari o'rtasida yoki tarmoq stansiyasi va tarmoq uzeli, shuningdek, tarmoq stansiyasi yoki uzeli hamda telekommunikatsiyalar transport tarmog'ining oxirgi (terminal) qurilmasi o'rtasida uzatilishini ta'minlaydigan texnik vositalar kompleksi hamda uzatish muhiti.

Uzatish liniyalari

ing. - transmission line
rus. - линии передачи

Energiyani belgilangan yo'nalishda uzatish qurilmalari.

Izoh - Ekranlangan (koaksial liniyalar, naychasimon to'g'ri burchakli, dumaloq yoki maxsus shakldagi metall to'lqino'tkazgichlar), qisman ekranlangan (ikki sim-

li, polosali, mikropolosali, tirqish liniyalar) va ekranlanmagan (ochiq dielektrik va nur to'lqino'tkazgichlar) ajratiladi.

Uzatish liniyasi dispersiyasi

ing. - dispersion of transmission line
rus. - дисперсия линии передачи

Uzatish liniyasining, fazaviy tezlikni chastotaga bog'liq holda o'zgartirishni tavsiflaydigan xususiyati.

Uzatish muhitiga kira olish

qurilmasining interfeysi
ing. - access unit interface (AUI)
rus. - интерфейс устройства

доступа к среде передачи

Ekranlangan simlarning to'rtta o'ralgan juftidan iborat, Ethernet tarmog'ining magistral kabeliga ulanadigan interfeys kabeli.

Uzatish radiotizimi

ing. - transmission radio system
rus. - радиосистема передачи

Telekommunikatsiya signallari ochiq fazoda radioto'lqinlar tarzida tarqatiladigan uzatish tizimi. Radioto'lqinlarning tarqalish muhiti va shakliga qarab, uzatish radiotizimi: to'g'ri ko'rinadigan radioreleli, troposferali, yo'ldosh aloqali, ionosferali va h.k. deb ataladi.

Uzatish sifati

ing. - quality of transmission
rus. - качество передачи

Uzatuvchi foydalanuvchidan qabul qiluvchi foydalanuvchiga kelayotgan telekommunikatsiya signalini qayta tiklash darajasi.

Uzatish tezligi

ing. - baud rate
rus. - скорость передачи

1. Ketma-ket kanal orqali ma'lumotlar uzatish tezligi.
2. Shina, kanal va h.k.larning o'tkazuvchanlik xususiyati.

Uzatish tizimi

ing. - transmission system
rus. - система передачи

Birlamchi tarmoq liniya traktlari, namunaviy guruh traktlari va uzatish kanallari-ning hosil qilinishini ta'minlovchi texnik vositalar kompleksi.

Izohlar

1. Liniya trakti bo'ylab uzatilayotgan signallarning turi-ga qarab uzatish tizimi analog yoki raqamli deb ataladi.
2. Elektroloqa signallarining tarqalish muhitiga qarab, simli uzatish tizimi va uzatish radiotizimi deb ataladi.

Uzatishni boshqarish protokoli

ing. - transmission control protocol (TCP)

rus. - протокол управления передачей
O'rnatilgan ulanish bilan ma'lumotlarni to'liq dupleksli ishonchli uzatishni ta'minlaydigan transport sathidagi protokol. TCP/IP guruhi protokollari tarkibiga kiradi.

Uzatishning asosiy ranglari

ing. - primary colours of transmission

rus. - основные цвета передачи

Uchta haqiqiy yoki haqiqiy bo'lmagan asosiy ranglar guruhi, ular, odatda, yorug'likni uzatish uchun bitta asosiy rang va ranglikning ikkita asosiy rangidan tarkib topgan, ularning har biri miqdor jihatdan rangli tasvir signali tarkibida bor bo'lgan uchta mustaqil signalning biriga mos keladigan qilib tanlanadi.

Uzatishning to'xtab qolishi

ing. - interruption of transmission

rus. - сбой передачи

Dasturlarni uzatishning to'satdan to'xtab qolishi.

Uzatuvchi muhit

ing. - transmission media

rus. - передающая среда

Axborotni uzatish uchun foydalaniladigan, turli xil Yer usti radioaloqa vositalari, yo'ldoshli, kabelli va optik-tolali liniyalarining jami.

Uzatuvchi optoelektron modul

ing. - transmitting optoelectronic module

rus. - передающий оптоэлектронный модуль

Elektr signallarni optik signallarga aylantirish uchun mo'ljallangan optoelektronika asbobi.

Uzatuvchi radioeshittirish tarmog'i

ing. - broadcast transmitter network

rus. - радиовещательная передающая сеть

1. Bitta dasturni bir vaqtda uzatish uchun mo'ljallangan tovushli yoki televizion radioeshittirish uzatgichlari guruhi.

2. Shu tashkilot, hudud yoki mamlakatga

taalluqli tovushli yoki televizion radioeshittirish uzatgichlari guruhi.

Uzatuvchi radioeshittirish stansiyasi

ing. - radiobroadcast transmission station

rus. - радиовещательная

передающая станция

Bitta yoki bir nechta uzatgichni ularning antennalari va tegishli uskunalari bilan o'z ichiga olgan tovushli yoki televizion eshittirish markazi.

Misollar - Uzatuvchi radio(eshittirish) stansiyasi, uzatuvchi televizion stansiya.

Uzaytirilgan tola

ing. - concatenated fiber

rus. - наращенное волокно

Birga ulangan ikkita yoki undan ortiq optik toladan iborat tola. Tolalarning uzaytirilishi ajratgichli ulanishga qaraganda yaxshiroq xarakteristikalarni hamda yo'qotishlar kam bo'lishini ta'minlaydi.

Uzel

ing. - node

rus. - узел

1. Tarmoqqa ulanish nuqtasi, tarmoqqa ulangan qurilma; kompyuter tarmog'idagi yoki ma'lumotlar uzatish tarmog'idagi bir xil protokoldan foydalanadigan ikkita tarmoqni bog'laydigan kompyuterni o'zida ifodalaydigan uzal. Ikkita o'xshash tarmoqdagi ikki mos dasturning bog'lanishini ta'minlaydi. Uzatiladigan paketlarda bo'ladigan manzilli axborotdan foydalanadi. Tarmoq uzellari marshrutizatorlar kabi, ko'priklardan farqli ravishda, tarmoq darajasidagi qurilmalar hisoblanadi.

2. Iyerarxik tuzilmada: tuzilma elementi, masalan, «gipermatn uzeli».

3. Ikki komponent o'rtasidagi bog'lovchi nuqta.

4. Windows 2000/XP operatsion tizimida: boshqarish konsoliga tatbiqan, har qanday boshqariladigan obyekt, topshiriq yoki tur. masalan, kompyuterlar, foydalanuvchilar, veb-sahifalar.

Uzeln dinamik

konfiguratsiyalash protokoli

ing. - dynamic host

configuration protocol (DHCP)

rus. - протокол динамического конфигурирования узла
32-razryadli IP-manzillarning yetishmaslik muammosini yengillashtirish uchun ularning Internet dagi ish vaqtida IP-manzillarni lokal tarmoqning uzellariga (ishchi stansiyalariga) dinamik tayinlash uchun uzelnin dinamik konfiguratsiyalash protokoli.
Uzellariga manzillarni o'zlashtirish manzillarning markazlashtirilgan pulida amalga oshirilishi sababli, ularning noyobligi va nizoli manzillarning bo'lmasligi kafolatlanadi.

Uzib qo'yish

ing. - disable

rus. - отключить

Qurilmaning ishlashini to'xtatish. Masalan, uskunaning biror konfiguratsiyasida uzib qo'yilgan qurilmaga, uskunaning shu konfiguratsiyasidan foydalanlayotganda, kira olish imkoni bo'lmaydi. Bu qurilmalar band qilgan resurslarni bo'shatish imkonini beradi.

Uzib qo'yishning rad etilishi

ing. - disengagement denial

rus. - отказ в разъединении

Uskunaning nosozligi oqibatida yuzaga keladigan, ulanishni uzib qo'yishga bo'lgan muvaffaqiyatsiz urinish. Bu, liniyaning uzib qo'yilish davri juda uzoq bo'lishiga olib keladi.

Uzilish

ing. - interrupt

rus. - прерывание

Kompyuter dasturning bajarilishini to'xtatadigan va xizmat dasturi bajarilishini boshlaydigan signal.

Uzilish to'g'risidagi

niqoblanadigan signal

ing. - maskable

rus. - маскируемый сигнал о прерывании

Uzilishni inkor qilish yoki ushlab qolish maqsadida blokirovkalangan uzilish to'g'risidagi signal.

Uzilishlar bilan boshqariladigan dastur

ing. - interrupt-driven program

rus. - программа, управляемая

прерываниями

Markaziy protsessor (masalan, operatsion

tizim) da uzilish sodir bo'lganda avtomatik ravishda ishga tushadigan dastur.

Uzilishlar kontrolyori

ing. - interrupt controller

rus. - контроллер прерываний

Apparat uzilishlarni boshqarish uchun tizim platosiga o'ratiladigan mikrosxema.

Uzilishlar navbati

ing. - interruption queue

rus. - очередь прерываний

Barcha sodir bo'lgan uzilishlarni navbati bilan qayta ishlashni ta'minlaydigan operatsion tizimning tizimli tuzilmasi.

Uzilishlar vektori

ing. - interrupt vector

rus. - вектор прерываний

Tezkor xotiradagi rezident massiv, unda quyi dastur-uzilishlarni qayta ishlagichlarning (operatsion tizim modullarining) manzili uzilishlar raqamlari bo'yicha saqlanadi.

Uzilishlarning yo'qligi

ing. - non interrupt

rus. - отсутствие прерываний

Resursni faqat o'z ishini tugatgach, ixtiyoriy ravishda bo'shatish mumkin bo'lgan jarayon.

Uzilishni qayta ishlovchi

ing. - hook for interrupts

rus. - обработчик прерывания

Berilgan raqam bilan uzilishni qayta ishlashni amalga oshiradigan operatsion tizim yadrosining moduli.

Uzish

ing. - unmount

rus. - отсоединить

Ushbu atama odatda Linux operatsion tizimlarida ishlatilib, kompyuter tizimidan biron bir qurilmani uzish ma'nosini anglatadi.

Uzluksiz bloklar yoki uzluksiz rejim

ing. - continuous units or continuous mode

rus. - непрерывные блоки или

непрерывный режим

Minimal yo'qotish bilan bir faylni chiqarib olish uchun, butun arxivni emas, faqat bitta uzluksiz blokni ochish zarur bo'lgan siqish usuli.

Uch zvenoli model

ing. - three-tier model

rus. - трёхзвенная модель

Oraliq zveno (kompyuter) ikki sathli model mijoz kompyuteri va server kompyuteri orasida joylashtiriladigan hamda tranzaktsiyalarni qayta ishlaydigan monitor yoki obyektlarga bo'ladigan so'rovlar vositachisi sifatida ishlaydigan mijoz-server tizimi.

Uch o'lchamli grafika

ing. - three-dimensional graphics (3D)

rus. - трехмерная графика

Kompyuter grafikasida ishlatiladigan atama bo'lib, obyektlarning ustida uch o'lchamli fazoda operatsiyalar bajarish uchun algoritmlar va dasturiy mahsulotlarni hamda ularning natijalarini o'z ichiga oladi.

Uch o'lchamli taxminlash,

3-D taxminlash

ing. - three-dimensional prediction,

3-D prediction

rus. - трехмерное предсказание,

3-D предсказание

Taxminlangan qiymat, o'sha maydonning yoki bitta yo bir nechta oldingi maydon satrlaridan kadring qo'shni elementlaridan kelib chiqib olinadigan taxminlash.

Uch o'lchamli televideniye,

3-D televideniye

ing. - three-dimensional

television, 3-D television

rus. - трехмерное

телевидение, 3-D телевидение

Sahning uch o'lchamli ko'rinishi amalga oshiriladigan televideniye.

Izoh - Uch o'lchamli ko'rinish amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jarayonlar stereoskopik televideniye va golografik televideniye o'z ichiga oladi.

Uchastkalar bo'yicha signalizatsiya

ing. - link-by-link signaling

rus. - сигнализация по участкам

Xizmatga oid barcha axborot bitta kommunikatsiya stansiyasidan boshqasiga ketma-ket uzatiladigan signalizatsiya usuli. Har bir aloqa uzulida bu axborot ajratib olinadi va tahlil qilinadi.

Uchinchi avlod (3G)

ing. - third generation (3G)

rus. - третье поколение (3G)

Uchinchi avlod raqamli mobil aloqa tizimlari. Multimediani ta'minlaydi, uzatish tezligi 2 Mbit/s gacha.

Uchinchi darajali kesh xotira

ing. - level 3 cache (3 cache)

rus. - кэш-память третьего уровня

Tizim platasida ikkinchi kesh va tezkor xotira qurilmasi o'rtasida o'rnatiladigan qo'shimcha kesh xotira. Bu turdagi kesh xotira birlamchi (L1) va ikkilamchi (L2) kesh xotiralar ishlab chiqaruvchilar tomonidan protsessor ichiga o'rnatila boshlangandan keyin paydo bo'ldi.

Uchta abonentning ulanishi

ing. - three-party service

rus. - связь трех абонентов

Boshqa foydalanuvchi bilan aloqada ishtirok etuvchi foydalanuvchining, ushbu aloqani buzmasdan, uchinchi foydalanuvchi bilan qo'shimcha ulanish, bir aloqadan boshqasiga ko'p marotaba (ularning har birini sir saqlagan holda) qayta ulanish va/yoki qolganlariga qaytgan holda ushbu aloqalardan birini buzush imkonini beradigan qo'shimcha xizmat.

Izoh - Xizmatdan foydalanuvchi abonent ushbu ikkita aloqani bitta uch tomonlama aloqaga birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgandagi xizmat varianti ko'zda tutilgan.

V

Vakillik serveri

ing. - proxy server

rus. - представительский сервер

To'siq hosil qiluvchi kompyuter yoki unda ishlovchi dasturiy ta'minot. Vakillik serveri ikki tarmoq o'rtasida joylashib, biri uchun foydalanish chetdan mumkin bo'lsa, boshqasiga esa mumkin bo'lmaydi. Ichki tarmoqni ajratib, Internetda uning vakili sifatida bo'ladi. Uning asosiy vazifasi – tarmoq mijozlarining so'rovlarini Internet bog'lamlariga uzatish va talab qilingan axborotni mijozga qaytarish.

Vakolatlar

ing. - authority

rus. - полномочия

Foydalanuvchilarga nimanidir yaratish, o'zgartirish yoki o'chirishga berilgan huquq va imkoniyatlar.

Vakolatlar matritsasi

ing. - privilege matrix

rus. - матрица полномочий

Elementlari muayyan obyektning muhofaza qilinadigan ma'lumotlarga nisbatan huquqlarini (vakolatlarini, imtiyozlarini) belgilaydigan jadval.

Vakolatlar profili

ing. - authorized profile

rus. - профиль полномочий

Har bir subyekt bilan assotsiatsiyalangan tizimning muhofaza qilinadigan obyektlari va ulardan erkin foydalanish huquqlari ro'yxati. Obyektga murojaat qilishda subyekt profili foydalanishning tegishli huquqlari mavjudligiga tekshiriladi. Profil erkin foydalanish matritsasining satri ko'rinishida taqdim etiladi.

Vakolatli foydalanuvchi

ing. - authorised user

rus. - уполномоченный пользователь

Xavfsizlik funksiyasi siyosatiga muvofiq, har qanday operatsiyani bajarishga ruxsat etilgan, baholash obyekti foydalanuvchisi.

Vaksina-dastur

ing. - vaccine program

rus. - программа-вакцина

Boshqa dasturlar va disklarni, ularning ishiga

ta'sir qilmaydigan darajada o'zgartiradigan dastur. Biroq, vaksinatsiya manbai bo'lgan virus bu dasturlar yoki disklar zararlanib bo'lgan deb hisoblaydi.

Vaksinalash

ing. - inoculate

rus. - вакцинирование

Berilgan (ma'lum bir) virus turi tomonidan zararlanishni aniqlash (topish) uchun foydalaniladigan shart-sharoitlarni imitatsiyalovchi, ya'ni virusni «aldaydigan» rezident vaksina dasturlarni ishga tushirish.

Valid-invalid biti

ing. - bits valid invalid

rus. - бит valid-invalid

Sahifa jarayonning mantiqiy xotirasiga taalluqli yo taalluqli emasligini ko'rsatadigan sahifalar jadvalining element biti.

Validatlash

ing. - validation

rus. - валидация

Dasturiy mahsulotni unga qo'yiladigan barcha talablarga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholash.

Vaqt belgisi

ing. - time stamp

rus. - метка времени

Yagona vaqt tizimiga nisbatan vaqt onini ko'rsatadigan ma'lumotlar elementi. Izob - Vaqt belgisidan hujjatning yaratilish vaqti aniqligini va elektron raqamli imzo aktualigini saqlanganligini tekshirish uchun foydalaniladi.

Vaqt bombasi

ing. - time bomb

rus. - временная бомба

Muayyan vaqtda aktivlashtirilishi mumkin bo'lgan mantiqiy bomba.

Vaqt bo'yicha ajratish bilan dupleks uzatish

ing. - time division duplex (TDD)

rus. - дуплексная передача

с временным разделением

Bitta kadming turli vaqt intervallarida, uzatish va qabul qilish kanallarini zichlash bilan bitta el-tuvchida raqamli axborotni ikki tomonlama uzatish. Vaqt bo'yicha ajratish bilan dupleks uzatish, birinchi navbatda, abonentlar cheklangan makonda nisbatan past tezlikda harakatlanadigan piko- va mikrouyalar uchun mo'ljallangan.

Vaqt bo'yicha ajratish bilan multipleksorlash

ing. - time division multiplexing (TDM)

rus. - мультиплексирование с временным разделением

Aloqada va ajratilgan taym-slotlardan foydalanilgan holda, raqamli ma'lumotlarni uzatishdagi multipleksorlash texnikasi (usuli).

Vaqt bo'yicha ajratish bilan ko'plab foydalana olish

ing. - time division multiple access (TDMA)

rus. - множественный доступ с разделением по времени

1. Bitta chastota slotida bir nechta abonent bo'ladigan, turli abonentlar uzatish uchun turli vaqt slotlaridan foydalanadigan spektrdan foydalanish usuli.

Izoh – TDMA prinsipidan GSM, D-AMPS va PDC (Yaponiya standarti) standartlarida foydalaniladi.

2. Signallarni 2G mobil va yo'ldoshli tarmoqlar orqali uzatish usuli, bunda har bir signalning o'z chastota-vaqt intervali bo'ladi. GSM TDMA texnologiyadan foydalanishga asoslangan. 2,5G tarmoqlari 3G tarmoqlar bilan almashtirilsa, TDMA katta o'tkazish polosidan foydalaniladigan CDMA texnologiyasi tomonidan qisman siqib chiqariladi.

3. Barcha abonentlarning axboroti bitta el-tuvchi chastotada, biroq, o'rtasida himoya oraliqlari kiritilgan turli vaqt intervallari («darchalar») da uzatiladigan foydalana olish usuli.

4. D-AMPS (IS-136) raqamli mobil aloqa tizimi standartining yangi nomi.

5. VSAT tarmog'ining ish rejimi bo'lib, bunda ko'p sonli stansiyalar bir vaqtning o'zida yo'ldoshli retranslyatorning umumiy kanalidan kanallar vaqt bo'yicha ajratilgan rejimda dinamik foydalana olishlari mumkin bo'ladi.

Vaqt bo'yicha asinxron multipleksorlash

ing. - asynchronous time-division multiplexing

rus. - асинхронное временное мультиплексирование

Uzatish vositalarining foydalaniladigan resursi har bir foydalanuvchining shu vaqtdagi haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, axborotning yacheykalari bilan to'ldiriladigan vaqt bo'yicha intervallardan oldin belgilanmaydigan ketma-ketlikdan iborat bo'lgan multipleksorlash usuli.

Vaqt bo'yicha belgi qo'yish

ing. - time stamping

rus. - маркировка по времени

Axborotni uzatish jarayonida almashtirilish yoki o'zgartirilishdan muhofaza qilish usuli. Har bir xabarga ma'lumotlar bilan qat'iy bog'liq bo'lgan vaqtinchalik belgilarni kiritishga asoslanadi.

Vaqt bo'yicha kommutatsiya

ing. - time switching

rus. - временная коммутация

Telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan kommutatsiya tarmog'i vaqt kanallarining vaqt bo'yicha pozitsiyalarini bog'lash orqali amalga oshiriladigan kommutatsiya.

Vaqt bo'yicha siqish

ing. - temporary compression

rus. - временное сжатие

Ma'lumotlarni xotiraga bir taktli chastota bilan yozish va boshqa taktli chastota bilan o'qish orqali amalga oshiriladigan signalni vaqt bo'yicha siqish operatsiyasi.

Vaqt bo'yicha o'zgartirish

ing. - temporary conversion

rus. - временное преобразование

Signal vaqt o'qida gi diskret sanoqlar holatining, ularning amplitudaviy qiymatlari saqlangan holda o'zgaradigan aylantirish.

Vaqt bo'yicha chaqiruvlarni cheklash

ing. - time limitation (per call)

rus. - ограничение вызовов по времени

Xizmat abonentni tomonidan boshlab berilgan, har bir chaqiruvning so'zlashuv davomiyligini cheklaydigan xizmat. Abonent so'zlashuvining davomiyligi berilgan cheklanishdan oshsa, tizim bog'lanishni majburan uzadi.

Vaqt domeniga ega optik reflektometr

ing. - optical time domain reflectometer (OTDR)

rus. - оптический рефлектометр

с временным доменом

Optik tolalarni, qaytgan yorug'likni detektorlashga asoslangan (optik «radar»), testlash usuli. Tola so'nishini o'lchash, muftali va konnektorli ulanishlar sifatini baholash hamda uzilish joylarini aniqlashda foydalaniladi.

Vaqt intervallarining qayta taqsimlanishi

ing. - time-slot stealing

rus. - перераспределение

временных интервалов

Vaqt bo'yicha ajratilgan foydalana olishda ishlatiladigan, kanal intervallari abonentlarga qat'iy tarzda emas, balki tizimning real yuklanishiga bog'liq holda, mos ravishda qayta taqsimlanadigan protsedura. Kanallarning yangi

taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar, xizmat kanali orqali shu yoki undan keyingi kadrda uzatiladi.

Vaqt kvanti

ing. - time slice

rus. - квант времени

Ko'p vazifali muhitdagi, mikroprotessor alohida bajariladigan vazifani boshqaradigan qisqa vaqt davri.

Vaqt oralig'i (paketlararo interval)

ing. - interpacket gap

rus. - временной зазор

(межпакетный интервал)

Paketni jo'natgan uzatish qurilmasi, paket keyingi gal yuborilgunga qadar kutishi zarur bo'lgan, mikrosekundlarda o'lchanadigan vaqt.

Vaqtbay tarif

ing. - time rate

rus. - повременный тариф

Telekommunikatsiya xizmatlari uchun kanal yoki aloqa liniyasi band etilgan vaqt bilan bog'liq differensiallangan to'lov.

Vaqtda o'zgaruvchi kod

ing. - time variant code

rus. - код изменяющийся во времени

So'zlari ish jarayonida biror-bir tarzda o'zgaradigan kod.

Vaqtga qarab ochiladigan kriptotizim

ing. - cryptosystem with temporary disclosure

rus. - криптосистема

с временным раскрытием

Faqat berilgan vaqt intervali tugagandan so'ng muhofazalangan axborotni rasshifrovka qilish imkonini beradigan kriptografik tizim. Hozirgi vaqtda bunday tizimlarni amalga oshirishning ikkita varianti mavjud:

- vaqtinchalik qulfovchi sharadalar;

- berilgan vaqt intervali mobaynida axborotni ochmaslik majburiyatini zimmasiga olgan ishonchli agentlardan foydalanish. Agentlardan foydalanishga to'g'ri kelganda ularga nisbatan ishonch muammosi yuzaga keladi, buni sirlarni taqsimlash mexanizmini qo'llash hisobiga qisman hal qilish mumkin.

Vaqtinchalik bog'langanlik

ing. - temporal cohesion

rus. - временная связность

Funksiyalari deyarli bir vaqtda bajarilishi zarur bo'lgan modul xarakteristikalarini.

Izoh - Initsializatsiya moduli, qayta tiklanish moduli va ishini tugatish moduli vaqtinchalik bog'langanlik modullariga misol bo'ladi.

Vaqtinchalik fayl

ing. - temporary file

rus. - временный файл

Operatsion tizim yoki amaliy dastur tomonidan, vaqtinchalik (oralig) ma'lumotlarni saqlash uchun yaratiladigan fayl. Ba'zan, vaqtinchalik fayllar bilan ishlash tugatilganidan so'ng, ular o'chirib tashlanadi.

Vaqtinchalik ortiqchalik

ing. - time redundancy

rus. - временная избыточность

Tizimning ishlash imkoniyatini qayta tiklash uchun ketadigan maksimal vaqt.

Vaqtinchalik qator

ing. - time series.

rus. - временной ряд

Vaqt ichida o'zgaradigan ma'lumotlar to'plami.

Vaqtinchalik xotira

ing. - temporary storage

rus. - временная память

Hisoblashlarda oralig ma'lumotlarni saqlash uchun vaqtinchalik ajratiladigan xotira qismi.

Vaqtinchalik yashirin kanal

ing. - covert timing channel

rus. - временный скрытый канал

Yashirin kanal, unda bir jarayon axborotni boshqasiga tizim resurslaridan (masalan, markaziy protsessorning bandlik vaqtidan) foydalanishni modulyatsiyalash vositasida, bu modulyatsiyalash boshqa jarayon tomonidan aniqlanishi va detektorlanishi mumkin bo'ladigan tarzda uzatadi.

Vaqtini ajratish tizimi

ing. - time sharing system

rus. - системы разделения времени

Foydalanuvchi-dasturchini uning vazifalarini bajaruvchi jarayondan izolyatsiyalash - paketli qayta ishlash tizimining asosiy kamchiligini tuzatish uchun mo'ljallangan. Vaqtini ajratish tizimining har bir foydalanuvchisiga o'zining dasturi bo'yicha dialog olib borishi mumkin bo'lgan terminal taqdim etiladi.

Vaqtini belgilash xizmati

ing. - time stamping service

rus. - услуга отметки времени

Ma'lum bir vaqt onida elektron ma'lumotlar mavjudligini tasdiqlaydigan xizmat.

Izoh – Vaqtni belgilash xizmatlari foydali, shuningdek, uzoq muddat mobaynida raqamli imzolar tekshiruvini olib borish uchun mutlaqo zarur.

Vaqtni taqsimlash

ing. - time-sharing

rus. - разделение времени

Kompyuterning bitta markaziy protsessor bilan ishlash rejimi, bunda protsessor muntazam ravishda bir vazifani hal qilishdan boshqasiga o'tib turadi. Vaqtning taqsimlanishini operatsion tizim amalga oshiradi. Bu rejimdan ko'p dasturli «bir vaqtda» ishlash uchun foydalaniladi. Protsessor barcha ishlarni izchil, lekin juda tez bajaradi. Shuning uchun, har bir vazifaga juda qisqa muddatga protsessor resurslari ajratilsa, foydalanuvchiga ishlar parallel bajarilayotgandek tuyuladi. Vaqtni taqsimlash rejimi UNIX va Windows tizimlarida yaxshi amalga oshirilgan. Masalan, vaqtni taqsimlash rejimida bir vaqtda matn redaktori bilan ishlash, qandaydir faylni bosib chiqarish va ma'lumotlarni tarmoq orqali qabul qilish mumkin.

Vardrayving

ing. - wardriving

rus. - вардрайвинг

Wi-Fi simsiz tarmoqlariga kirish nuqtalarini izlash va buzish jarayoni. Wi-Fi adapterli tashuvchan kompyuterga ega shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Nuqtani makonda izlash va aniqlashda transport vositasi ishlatilgani uchun «urush haydashi» deyiladi.

Varez

ing. - warez

rus. - вarez

Muallif ruxsatisiz noqonuniy yo'llar bilan (kamdan-kam hollarda simvolli plata uchun eltuvchilarda) tekin tarqatiladigan tijorat dasturi. Tekin foydalanishga imkon beruvchi o'zgarishlar va/yoki qo'shimchalarni albatta o'z ichiga oladi.

Vayp

ing. - wipe

rus. - вайп

Axborotning to'liq o'chirilishi. Oddiy o'chirishdan (ma'lumotlar bloklari foydalanish uchun bo'sh deb ko'rsatilishi) farqli o'laroq axborot saqlangan hamma bloklar majburiy tozalanadi. Fayl vaypi holatida quyidagi operatsiyalar bajariladi: faylning har bir biti nol-

ga almashtiriladi; fayl hajmi nolga keltiriladi; faylning nomi ixtiyoriy nomga o'zgartiriladi va fayl o'chiriladi. Bu nafaqat fayldan axborotning o'chirilishini, balki fayl mavjudligining barcha (bilvosita) belgilarining ham yo'q qilinishini kafolatlaydi. Qar.: Qoldiq axborot.

Vazifa

ing. - task

rus. - задача

Avtonom, mustaqil bajariladigan amaliy dastur.

Vazifa identifikatori

ing. - task identifier

rus. - идентификатор задачи

Bajariladigan yoki bajarishga tayyor vazifaga beriladigan ramziy kod.

Vazifalar dispatcheri

ing. - task manager

rus. - диспетчер задач

Kompyuterda bajariladigan dasturlar va jarayonlar to'g'risida ma'lumot beruvchi Windows operatsion tizimining dasturi. Vazifalar dispatcheri yordamida dasturlarni ishga tushirish yoki to'xtatish, jarayonlarni to'xtatish va tizimning bandlik darajasi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

Vazifalar navbati

ing. - job queue

rus. - очередь заданий

1. Operatsion tizimlarda bajarishga tayyor bo'lgan vazifalarning qaysidir qiymatiga ko'ra tuzilgan ro'yxat.
2. Tizimdagi barcha jarayonlarning to'plamini o'z ichiga oladigan navbat.

Vazifalar paneli

ing. - task bar

rus. - панель задач

Windows operatsion tizimida ekranning pastki qismidagi vazifalar ro'yxatini ko'rsatuvchi gorizontal yo'lakcha. Vazifalar panelidagi tugmalar yordamida ishlab turgan dasturlarni unisidan bunisiga o'tkazish, hamda vazifalar panelini ekranning yuqori yoki yon tomoniga ko'chirish va yashirish mumkin.

Vazifalar panelini blokirovkalash

ing. - lock the taskbar

rus. - блокировка панели задач

Vazifalar panelining holati, bunda vazifalar paneliga bevosita dasturlarga tez murojaat etish yorlig'ini joylashtirish mumkin bo'lmaydi.

Vazifalar ro'yxati**ing.** - tasklist**rus.** - список задач

Ishga tushirilgan dasturlar va bajariladigan jarayonlar ro'yxati. Kompyuter resurslari harajatlarning monitoringi uchun xizmat qiladi.

Vazifalarni boshqarish**ing.** - task management**rus.** - управление задачами

Operatsion tizimning ko'p vazifali rejimda hisoblash jarayonini boshqarish bo'yicha funktsiyalari.

Vazifalarni rejalashtiruvchi**ing.** - task planner**rus.** - планировщик задач

Dasturlarni belgilangan vaqtda, belgilangan tartibda ishlashini ta'minlaydi.

Vaziyat xatosi**ing.** - situation bug**rus.** - ситуационная ошибка

Muayyan vaziyatlarda operatsion tizim yoki dasturda yuz beradigan xatolik.

Vaznlangan (TV) shovqin**ing.** - weighted noise (TV)**rus.** - взвешенный шум (ТВ)

Ko'rinadigan fluktuatsion xalaqitlarning ko'z bilan baholanadigan jadalligi.

Vaznlovchi filtr**ing.** - weighting filter**rus.** - взвешивающий фильтр

Amplituda-chastotaviy xarakteristikasi fluktuatsion xalaqitning vazniy funksiyasini modellashtiradigan elektr filtr.

Veb-...**ing.** - web-...**rus.** - веб-...

WorldWideWeb ga, WWWga yoki WorldWideWeb prinsipi bo'yicha tashkil qilingan korporativ ma'lumotlar almashinish tarmog'iga mansublikni bildiradigan old qo'shimcha.

Veb-anjuman**ing.** - web-conference**rus.** - веб-конференция

Internet orqali real vaqt rejimida onlayn uchrashuvlar o'tkazish va birgalikda ishlash uchun texnologiyalar va vositalar. Veb-anjumanlar onlayn taqdimotlar o'tkazish, hujjat va ilovalar bilan birgalikda ishlash, saytlarni, video-

ayllarni va tasvirlarni sinxron ko'rish imkonini beradi.

Veb-bord**ing.** - web-board**rus.** - веб-бордин

Qar.: E'lonlar taxtasi.

Veb-brauzer**ing.** - web-browser**rus.** - веб-браузер

Veb-sahifalarni ko'rish va tasvirlash uchun mo'ljallangan dastur. Gipermatnli hujjatlarni tasvirlash va veb-resurslar orqali harakatlanish imkonini beradi.

Izoh - Veb-brauzer tarmoqdagi server yoki boshqa kompyuterlardan o'zida gipermatn, audio va video fayllarni saqlovchi veb-hujjatlarni olishi va lokal kompyuterda ko'rinishi mumkin. Bugungi kunda eng ko'p qo'llaniladigan veb-brauzerlar Microsoft Internet Explorer va Mozilla Firefox hisoblanadi.

Veb-dizayn**ing.** - web-design**rus.** - веб-дизайн

Veb-sahifalarini bezash. Veb-dizayn qog'oz nashri uchun poligrafik dizayn va sahifalash qanday vazifani bajarasa, sayt uchun ham xuddi shunday vazifani bajaradi. Veb-dizayn deganda odatda nafaqat sayt uchun grafik elementlarni yaratishni, balki uning tuzilmasi, navigatsiyasi va ba'zan sayt ishi uchun zarur bo'lgan skriptlarni loyihalash, ya'ni saytni to'liq yaratish nazarda tutiladi. Dizayn saytning aqlli tuzilishi ma'nosida uning «chiroyliligi»dan ancha muhimroq. Sayt dizayni odatda ixtisoslashtirilgan veb-dizayn studiyalari tomonidan bajariladi. Sayt uchun dizayn yaratish bahosi sayt hajmi, grafik elementlar soni, uning ustida ishlovchi mutaxassislar saviyasi, dasturlash zarurligi va h.k.larga bog'liq.

Veb-hujjat**ing.** - web-document**rus.** - веб-документ

HTML yoki XML tilida yozilgan va Internet tarmog'iga joylashtirish uchun tayyor bo'lgan hujjat.

Veb-interfeys**ing.** - web-interface**rus.** - веб-интерфейс

Foydalanuvchiga veb-brauzer orqali turli dasturlar bilan o'zaro ishlash imkonini beruvchi interfeys (masalan, o'z buyurtmasini boshqarish, Internet do'konida yoki tarmoq printerini sozlash). veb-interfeyslarning qulayligi shundaki, ular bitta ofisda joylashmagan xodimlarga birga-

likda ish yuritish imkonini beradi. Masalan, veb-interfeyslar turli ma'lumotlar bazalarini to'ldirish yoki Internet OAVda materiallarni chop etish uchun ishlatiladi.

Veb-kamera

ing. - webcam

rus. - веб-камера

Ko'chmas kamera bo'lib, u bilan olingan tasvirlar Internetdagi muayyan saytda ko'rsatiladi. Odatda bu video oqimi emas, balki muayyan muddatlardan keyin masalan, har 20 sekundda yangilanuvchi statik tasvir. Odatda videokameralar saytga tashrif buyuruvchilar ko'nglini ovlash uchun ishlatiladi.

Veb-portal orqali statistikani ko'rish

ing. - web portal call logs (with CDS)

rus. - просмотр статистики

через веб-портал

O'z qo'ng'iroqlari statistikasini ko'rib chiqish (Call Detail Server mavjud bo'lganda ishlaydi) imkoniyatini beradigan xizmat.

Veb-ranglar

ing. - web-colors

rus. - веб-цвета

Rasmlarda ranglarni aniq solishtirish va aks ettirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan 256 ta rangdan 216tasini o'z ichiga olgan ranglar jadvali. Qolgan 40 ta rang ishlatilmaydi, chunki ular kompyuterlarda rang uzatish sifatining sozlanganligiga ko'ra turlicha aks ettirilishi mumkin. Veb-standart palitra odatda xavfsiz ranglar palitrası deyiladi.

Veb-sahifa

ing. - web-page

rus. - веб-страница

Veb orqali erkin foydalanish mumkin bo'lgan HTML hujjat. Gipermatn yoki gipermedia ko'rinishidagi axborotni ichiga oladi.

Veb-sahifa sarlavhasi

ing. - web-page title

rus. - заголовок веб-страницы

Veb-sahifani aynanlashtiruvchi tavsiflovchi matn. Ochiq sahifa nomi veb-brauzeri oynasining sarlavha qatorida aks o'tiriladi.

Veb-sayt

ing. - web-site

rus. - веб-сайт

Ma'no jihatidan birlashtirilgan, umumiy tuzilma va navigatsiyaga ega bo'lgan veb-sahifalar majmui.

Veb-saytni optimallashtirish

ing. - website optimization

rus. - оптимизация веб-сайта

Qar.: SEO.

Veb-saytning ko'chirma indeksi

ing. - website page rank

rus. - индекс цитирования веб-сайта

Veb-saytga boshqa Internet resurslaridan ishoratlar soni asosida hisoblanadigan qidiruv tizimi ko'rsatgichi. Ko'chirma indeksining eng oddiy shaklida faqat ishoratlar soni hisobga olinadi. Tematik ko'chirma indeksida veb-saytga ishoratlarga ega bo'lgan resurslarining mavzusi, o'lgan ko'chirma indeksida esa o'sha resurslarning mashhurligiga e'tibor beriladi.

Veb-server

ing. - web-server

rus. - веб-сервер

1. Bitta yoki bir nechta veb-uzel ishini ta'minlaydigan dasturiy ilova.

2. Serverning dasturiy ta'minoti bilan ta'minlangan va Internet mijozlaridan rasmiy talablar olish, ularni qayta ishlash va bajarish uchun mo'ljallangan kompyuter.

Veb-server imkoniyatlarini tahlil qilish asbobi

ing. - microsoft web capacity

analysis tool (WCAT)

rus. - инструмент анализа

возможностей веб-сервера

Ko'plab ko'zda tutilgan yuklamalardan foydalanib, mijoz-server konfiguratsiyasini testdan o'tkazadigan, skriptlar bilan boshqariladigan utilita.

Veb-standartli palitra

ing. - web-standards palette

rus. - веб-стандартная палитра

Qar.: Veb-ranglar.

Veb-televizor

ing. - web-TV

rus. - веб-телевизор

Internet tarmog'i orqali tashkil qilinadigan teskari kanalli teleko'rsatuvlarni interaktiv ko'rish imkoniyatini ta'minlaydigan televizor va kompyuter kombinatsiyasi.

Veb-usta

ing. - web-master

rus. - веб-мастер

Veb-uzel yaratilishi va uni boshqarish yuzasidan javobgar bo'lgan, veb-uzel administratori.

Veb-uzel

ing. - web-component

rus. - веб-узел

Maxsus dasturlar – veb-sharhlovchilar yordamida kompyuter tarmog'i orqali ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan, o'zaro bog'langan axborot onlayn resurslar to'plami.

Izoh – Veb-uzel elektron ko'rinishdagi hujjatlar to'plamini, onlayn xizmatni o'zida ifodalashi mumkin.

Veb-xosting

ing. - web-hosting

rus. - веб-хостинг

«Xosting» so'zi to'laqonli ikki tomonlama aloqa bilan ta'minlangan tarmoqdagi kompyuteri bildiruvchi xost so'zidan olingan (qar.: xost). Xosting pulli va tekin, oddiy va muammallashgan bo'lishi mumkin. Xosting provayderini tanlayotganda quyidagi tavsifnomalarga e'tibor berish lozim: 1) disk makoni; 2) Internet kanalining o'tkazish qobiliyati (kengligi); 3) fayllarni boshqarish usullari: veb-forma yoki FTP protokoli orqali foydalanish; 4) standart skriptlar to'plami; 5) server tomonida dasturlash mumkinligi (SSI, PHP, ASP larni qo'llab-quvvatlash, cgi-bin katalogi); 6) serverda ma'lumotlar bazalaridan foydalanish – o'z ma'lumotlar bazalarini yaratish va ishlatish mumkinligi; 7) Shell dan foydalanish; 8) .htaccess fayli orqali serverni konfiguratsiyalash mumkinligi; 9) log-fayllardan foydalanish; 10) uchinchi darajali domenlarni taqdim etish (name.your-name.uz, name1.your-name.uz va boshqa turdagi manzil); 11) bitta yoki bir necha pochta qutisini qo'llab-quvvatlash; 12) uzluksiz elektr energiya bilan ta'minlash.

Veb-shablon

ing. - web-template

rus. - веб-шаблон

Mundarijani veb-sahifa dizaynidan ajratish uchun va veb-hujjatlarni ko'plab ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan moslama. Veb-shablondan istagan inson yoki tashkilot o'zining veb-saytini yaratishda foydalanishi mumkin. Shablon sotib olingandan yoki saqlab olingandan so'ng, foydalanuvchi barcha shablonning asosiy ma'lumotlarini o'zining tashkiloti yoki mahsuloti ma'lumotlari bilan to'ldiradi.

Veb 2.0

ing. - web 2.0

rus. - веб 2.0

WWW rivojlanishining ikkinchi avlodini belgilovchi atama. Veb 2.0 ning asosiy xususiyati – ko'p sondagi foydalanuvchilarning kontentni

yaratish va ma'lumotlar almashishdagi bevosita ishtiroki.

Misol – ijtimoiy tarmoqlar, videoxosting saytlari, viki, bloglar, folksonomiya.

Vektor

ing. - vector

rus. - вектор

Sonli qiymat va yo'nalish bilan tavsiflanadigan, to'g'ri kesma bilan tasvirlanadigan matematik kattalik.

Vektorlash

ing. - vectorization

rus. - векторизация

Rastr grafikasini vektor grafikasiga o'girish, rastrlashga teskari bo'lgan jarayon. Rastrlashdan farqli o'laroq ushbu jarayon juda murakkab bo'lib, uni to'liq avtomatik tartibda bajarib bo'lmaydi.

Vektorli displey

ing. - vector display.

rus. - векторный дисплей

Ishda vektor grafikadan foydalanadigan kompyuter displeyi.

Vektorli grafika

ing. - vector graphics

rus. - векторная графика

Tasvimi, har qanday usul bilan, shu jumladan, grafik komandalar bilan tavsiflangan grafik elementlar yig'indisi sifatida taqdim etish usuli. Ko'pincha, ikkilik koddagi fayllar sifatida taqdim qilinadi.

Vektorli kodlash

ing. - vector coding

rus. - векторное кодирование

Kodlash usuli, bunda kanal bo'yicha tasvir sanog'i blokining qiymatlari emas, blokning kod daftaridagi uzatilayotganga eng yaqin manzili jo'natiladi.

Vektorli kompyuter

ing. - vector computer

rus. - векторный компьютер

Vektorlarni (bir o'lchamli ma'lumotlar mas-sivlarini) qayta ishlash uchun mo'ljallangan kompyuter.

Vektorli protsessor

ing. - vector processor

rus. - векторный процессор

Bir o'lchovli raqamli ma'lumotlar massivlari (vektorlar) ustida bir vaqtda hisoblashlar uchun komandalar to'plami bo'lgan kompyuter.

Vektorli yoyish

ing. - vector scanning

rus. - векторная развертка

Ektranda sintezlangan tasvirni qayta tiklash usuli, bunda yoyuvchi element tasvirni olish uchun zarur bo'lgan faqat qisqa yo'l bo'yicha, ularning joylashishidan qat'i nazar, bevosita bir nuqtadan boshqasiga harakatlanadi.

Vergullar bilan ajratilgan qiymatlar

ing. - comma-separated values (CSV)

rus. - значения, разделенные запятыми

Jadvalli ma'lumotlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan matnli format. Faylning har bir satri – bu jadvalning bir satridir. Alohida ustunchalarning ma'nolari ajratish simvoli masalan, vergul, nuqtali vergul va tabulyatsiya simvollarini yordamida ajratiladi.

Verifikator

ing. - verifier

rus. - верификатор

Autentifikatsiyalangan identifikatsiya qilish talab qilinadigan yoki uni ko'rsatadigan obyekt. Verifikator autentifikatsiya maqsadlarida almashinuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan funksiyalarni o'z ichiga oladi.

Verifikatsiyalash

ing. - verification

rus. - верификация

1. Belgilangan talablar bajarilganligining obyektiv isbotlarini taqdim etish yo'li bilan tasdiqlash.

Izoh – Verifikatsiyalashni muvofiqlikka testlash deb ham atash mumkin.

2. Hisoblash texnikasi vositalari yoki avtomatlashtirilgan tizimlar spetsifikatsiyalarining ikki darajasini tegishli muvofiqlikka taqqoslash jarayoni.

3. ID-kartaga kiritilgan biometrik ma'lumotlarning ID-karta egasining biometrik ma'lumotlariga mosligini maxsus texnik qurilma yordamida tekshirish.

Verifikatsiyalash qoidasi

ing. - validation rule

rus. - правило верификации

Dastur talablariga muvofiq kelishini tekshirish maqsadida, kiruvchi ma'lumotlarning dastlabki qayta ishlanishini belgilovchi qoida.

Verifikatsiyalash va tasdiqlash

ing. - verification and validation

rus. - верификация и утверждение

Tekshirishlarning to'la to'plami bo'lib,

tizimning o'zi mo'ljallangan maqsadlarga muvofiqligini kafolatlash uchun kerak.

Izoh – Funksionl testlarni qat'iy tnlash, o'tkazish qobiliyatini nazorat qilish, ishonchlilikni tekshirish va sh.k. tekshirishlar qatoriga kiradi.

Vernam kriptotizimi

ing. - Vernam cryptosystem

rus. - криптосистема Вернама

Kriptotizim, xuddi shunday Vernam shifri deb ham ataladi, tamomila tasodifiy ravishda hosil qilinadigan bit satrini ishlatadi. Kalitlar oqimining uzunligi dastlabki matn uzunligiga teng, dastlabki matn va tasodifiy bit satri shifrlangan matn hosil qilish uchun, XOR amalidan foydalanib aralashtiriladi. Bunday algoritim o'ta maxfiylikka ega. Ushbu kriptotizim omilkor emas, chunki katta o'lchamdagi kalitlardan foydalanishga to'g'ri keladi. U asosan, harbiy va diplomatik maqsadlarda ishlatiladi. Bu shifrnig asosiy kamchiligi kalitlarni boshqarish qiyinligi.

Versiya

ing. - version

rus. - версия

Dasturiy mahsulotning, ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan varianti. Turli versiyalar quyidagi tarzda indekslanadi: jiddiy o'zgartirishlar nuqtagacha raqam bilan oraliq variantlar nuqtadan keyingi raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Versiya raqami

ing. - version number

rus. - номер версии

Ishlab chiqish va/yoki ishlab chiqarish paytida dasturiy ta'minotga beriladigan belgi. Odatda, versiya raqami X, Y ko'rinishida yoziladi, bu erda X – versiyaning bosh raqami, Y esa, reliz raqami. Reliz raqamining o'zgartirilishi mahsulotga ba'zi o'zgartirishlar kiritilganligini bildiradi. Versiya raqami qancha katta bo'lsa, mahsulot shuncha ko'p rivojlanish bosqichlarini o'tgan hisoblanadi. Versiyalar raqamlaridan versiyalarni boshqarish tizimlarida foydalaniladi.

Vertikal menyu

ing. - vertical menu

rus. - вертикальное меню

Navigatsiya nuqtalari vertikal (yuqoridan pastga tomon) joylashgan menyuning ko'rinishi.

Vertikal portal

ing. - vertical portal

rus. - вертикальный портал

Ma'lum mavzu yo'nalishidagi, ushbu mavzu

doirasida turli xizmatlarni taqdim etuvchi veb-sayt. Eng istiqbolli axborot resursi va uskunasi bo'lib, butun dunyo bo'ylab o'z izdoshlariga ega.

Vertikal qutblangan to'liq
ing. - vertically polarized wave

rus. - вертикально поляризованная волна
Elektr maydonining kuchlanganlik vektori yer sirtiga nisbatan har doim vertikal, magnit maydonining kuchlanganlik vektori esa, gorizontal yo'nalgan, chiziqli qutblangan elektromagnit to'liq.

Izoh - To'liqning tarqalish yo'nalishi yuqorida ko'rsatilgan har ikki vektorga ortogonal bo'lib, ularning vektor ko'paytmasi bilan belgilanadi.

Vertikal qutblanishga ega antenna

ing. - antenna with vertical polarization

rus. - антенна с вертикальной поляризацией
Yer sirtiga perpendikulyar joylashgan va gorizontal tekislikda yo'nalganlik doiraviy diagrammasiga ega chiziqli simmetrik vibrator ko'rinishidagi antenna.

Vibrator

ing. - vibrator

rus. - вибратор

To'g'ri chiziqli simning bo'lari, unda uzun liniya bo'lagidagi kabi xususiy elektr tebranishlar paydo bo'lishi hamda turg'un elektromagnit to'liqlar hosil bo'lishi mumkin. Vibrator eng sodda (uzatuvchi yoki qabul qiluvchi) antennani o'zida ifodalaydi.

Vibratorli antennalar

ing. - vibrator antennas

rus. - вибраторные антенны

Bazaviy elementi vibrator hisoblanadigan antennalar.

Video

ing. - video

rus. - видео

Aniq yoki tasvirlashning u yoki bu usuli bilan yaratilgan kadrlarning ma'lum chastotaga ega o'zgaruvchan ketma-ketligi. Kino va televideniye videoning bir turi hisoblanadi.

Video disk

ing. - video disk

rus. - видеодиск

Qar.: Lazer disk.

Video ketma-ketlik

ing. - video sequence

rus. - видеопоследовательность

Ixtiyoriy uzunlikdagi videokadrlar ketma-ketligi.

Video kirish

ing. - video input

rus. - видео ввод

Foydalanuvchining shaxsiy kompyuter yordamida ko'ngil ochar yoki ishga oid dasturlari va Internet resurslari bilan fizik o'zaro ishlashni ta'minlaydigan moslama. Ushbu istiqbolli texnologiya insonni virtual dunyoga «olib kiradi».

Videoadapter

ing. - video adapter

rus. - видеоадаптер

Shaxsiy kompyuterning, tasvirlarning monitorga chiqarilishini boshqaradigan kengaytirish platasi.

Videografik adapter

ing. - video graphics adapter (VGA)

rus. - видеографик адаптер

Eskirgan videostandart va displeyning 1987-yil 2 aprelda IBM kompaniyasi tomonidan birinchi marta joriy qilingan 256 palitradan 2 yoki 16 rangli 640x480 piksellarning videokrandagi maksimal hal qilinishiga mos keluvchi videoadapter. VGA matli va grafik rejimni qo'llab-quvvatlaydi. Matli rejim 80x25 simvollarning va 16 ranglarning (9x16 piksellarining simvol hajmi) qobiliyatini maksimal hal qilishda qo'llab-quvvatlanadi.

Videografik matritsa

ing. - videographic matrix

rus. - видеографическая матрица

Displey ekranida 640x480 pikselni 256 rangda aks ettira oladigan videoadapter.

Videoografiya

ing. - videography

rus. - видеография

Axborot asosan, raqamli shaklda uzatiladigan axborotni tanlash hamda matli yoki grafik shaklda displey ekranida, masalan, televizor ekranida qayta tiklash imkonini beradigan aloqa turi.

Izoh - Telematn va teleografiyaning har xil turlari videografiyaga taalluqli emas.

Videokadr

ing. - videoframe

rus. - видеокадр

Boshlang'ich tasvirming bitta kadri yoki ikkita maydonini tasvirlaydigan videoma'lumotlar to'plami. Yorqinlik va ayirma rang signallarining sanoqlarini ifodalovchi 8 bitli sonlarning uchta to'g'ri burchakli matritsadan tashkil topgan.

Videokadrlar guruhi

ing. - group of video

rus. - группа видеок кадров

Raqamli signal ko'p sonli davrlarining ustma-ust tushishidan boshlanadigan videoketma-ketlikning qismi.

Videokonferens aloqa

ing. - videoconferencing

rus. - видеоконференц-связь

Bir-biridan olisda bo'lgan foydalanuvchilar o'rtasidagi ko'p tomonlama aloqa usuli, bunda ular real vaqtda video hamda audiosignallarni qabul qilishi va aks ettirishi mumkin.

Izoh - Uzatish tezligi uzatiladigan videosuyujetning sifatiga qo'yiladigan talablarga bog'liq bo'lib, o'zgarishi mumkin, masalan, ISDN tarmog'ida 128 (BRI) dan 384 (3BRI) Kbit/s gacha.

Videokuchaytirgich o'tkazish

polosasining kengligi

ing. - bandwidth of video amplifier

rus. - ширина полосы

пропускания видеоп усилителя

Videosignal chastotalari polosasining kengligi, bunda signalning so'nish darajasi ma'lum bir kattalikdan, masalan, 3 dB dan oshmaydi.

Videoma'lumotlarni qayta ishlash darajasi

ing. - level of processing of videodata

rus. - уровень обработки видеоданных

Raqamli oqim asosiy parametrlarini o'zgartirishning yo'l qo'yiladigan chegarasini belgilaydigan ko'rsatmalar majmui.

Videoma'lumotli kompakt-disk

ing. - compact disk-video

rus. - компакт-диск с видеопформацией

Analog-raqamli lazerli disklar uchun standart nomi.

Videomiksher

ing. - video mixer

rus. - видеомикшер

Kombinatsiyalangan tasvirni shakllantirish

maqsadida bir nechta televizion datchik videosignallarini birlashtirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Videomontaj apparatxonasi

ing. - videomontage room

rus. - видеомонтажная аппаратная

Elektron videomontaj tizimi bilan ta'minlangan hamda televizion dasturlarni tuzish uchun mo'ljallangan videoyozuv apparatxonasi.

Videonazorat qurilmasi,

videomonitor, monitor

ing. - monitor

rus. - видеоконтрольное устройство,

видеомонитор, монитор

Kirishiga to'liq videosignal yoki to'liq rangli videosignal yoki asosiy rang signallari uzatiladigan, televizion tasvirni kuzatish va/yoki nazorat qilish uchun mo'ljallangan tiklash qurilmasi.

(Videoni) siqish, videokompressiya

ing. - compression (of video)

rus. - сжатие (видео), видеокompрессия

Videoaxborot hajmini axborot ortiqchaligini bartaraf etish yo'li bilan, masalan, kadrlararo va kadr ichida korrelyatsion hamda statistik bog'lanishlarini hisobga olgan holda qisqartirish.

Izoh - Siqish darajasi siqish koeffitsiyenti bilan belgilanadi.

Videoqurilmalar interfeysi

ing. - video device interface (VDI)

rus. - интерфейс видео-устройств

Videoqurilmani boshqarish uchun mo'ljallangan dastur-drayver (odatda videokarta deyiladi). Qoida bo'yicha ishlab chiqaruvchi tomonidan diskda videoqurilma bilan yetkazib beriladi.

Videorekorder

ing. - videorecorder

rus. - видеорекодер

Televizion signallarni yozish va qayta tiklash uchun mo'ljallangan uskuna.

Videoretush

ing. - videoretouching

rus. - видеоретушь

Olingan video kadrdan «keraksiz» obyektlarni: binolar, telefon ustunlarini olib tashlash yoki unga nimanidir qo'shish uchun qo'shimcha surrat chizish.

Videoserver

ing. - video server

rus. - видеосервер

1. Axborot uzatish yuqori tezligiga ega lokal va global tarmoqlarga ulangan, hajmi terabitlarda o'lganadigan disk xotirali nutq va harakatlanadigan tasviri saqlaydigan fayllar serveri.

2. So'rovga ko'ra, video ilovalarga oqimli videoni yetkazib beradigan kompyuter yoki dasturiy ta'minot.

Videosignal

ing. - video signal

rus. - видеосигнал

Tasvir paydo qilish uchun mo'ljallangan elektr signal.

(Videosignal) bitreytini pasaytirish

ing. - bit-rate reduction (of a video signal)

rus. - снижение битрейта (видеосигнала)

Video raqamli signalini, tasvining yo'l qo'yiladigan sifatini saqlashda, bitreyt (bitlarni uzatish tezligi) ni pasaytirish uchun qayta ishlash. Izo - Bitreytini pasaytirish manbani kodlashda bajariladi.

(Videosignal datchigidagi) optik tasvir

ing. - optical image (in pickup of videosignal)

rus. - оптическое изображение

(в датчике видеосигнала)

Videosignal datchigida yorug'lik sezgirik sirtining optik vositalari bilan hosil qilinadigan tasvir.

Videosignal datchigining gammasi

ing. - gamma of device of video signal

rus. - гамма датчика видеосигнала

Loqarifmik shkalada videosignal ko'laminning obyekt tegishli yorug'ligiga bog'liqligini aks ettiradigan egri approksimatsiyalaydigan ishchi uchastkasining to'g'ri maksimal og'ishi.

(Videosignal datchigining)

kontrast diapazoni

ing. - contrast range

(of a picture signal source)

rus. - диапазон контраста

(датчика видеосигнала)

Videosignal datchigi chiqish signallari darajalarining maksimal nisbati.

Videosignal kuchlanishi o'zgaranda

sinxronlashning saqlanishi

ing. - conservation of synchronization at

change of voltage of videosignal

rus. - сохранение синхронизации при

изменении напряжения видеосигнала

Barqaror sinxronlash saqlanganda videosignal kuchlanishi ijobiy (musbat) yoki manfiy (salbiy) o'zgarishining videosignal nominal kuchlanishiga nisbati.

(Videosignalni) raqamli siqish

(tavsiya qilinmaydigan)

ing. - digital compression (of a video signal)

rus. - цифровое сжатие

(видеосигнала) (не рекомендуемое)

Videosignalni tasvir sifatini ta'minlashda zurur bo'lgan yuborishga bitlar sonini kamaytirish maqsadida notekis kvantlash jarayoni.

(Videosignalning) doimiy tashkil etuvchisi

ing. - DC component (of a video signal)

rus. - постоянная составляющая

(видеосигнала)

Tasvining o'rtacha yorug'ligiga va ayrim hollarda ayimmarang tashkil etuvchi o'rtacha qiymatga bog'liq va bir kadrda boshqasiga o'zgarishi mumkin bo'lgan videosignalning belgilangan tashkil etuvchisi.

Videosignalning o'rtacha darajasi

ing. - average picture-signal level

rus. - средний уровень видеосигнала

O'chirish intervalidan tashqari, kadrlar o'tish vaqti mo-baynida videosignalning o'rtacha darajasi.

Izo - Videosignalning o'rtacha darajasi odatda o'chirish darajasi va oq daraja o'rtasidagi farqlar o'chirish darajasiga nisbatan foizlarda ifodalangani.

Videoteks

ing. - videotext

rus. - видеотекст

Televizion qabul qilgich kineskopining ekraniga telefon tarmog' orqali matnli va grafik axborotni uzatish tizimi.

Videoteks xizmatlari

ing. - videotext service facility

rus. - услуги службы видеотекст

Videoteks xizmatida amaliy darajani amalga oshiruvchi va videoteks foydalanuvchilari uchun muayyan, aniq belgilangan xizmatni ta'minlaydigan xizmatlar.

Izo - Videoteks xizmati foydalanuvchilarga bunday xizmatlardan bir nechtasini taqdim etadi.

Videotelefon

ing. - videophone

rus. - видеотелефон

Telefon so'zlashuvlari vaqtida foydalanuvchilarning bir-birini ko'rishlariga imkon

beruvchi telefon va televizion usullarini bir-lashtirish.

Videoto'plagich

ing. - video store

rus. - видеонакопитель

Videokadrlar to'plamini yozish, saqlash va qayta ko'rsatish uchun mo'ljallangan qurilma.

Videouzatish

ing. - video transmission

rus. - видеопередача

Televizion tasvirlarni muayyan joyga, ba'zida tovush jo'rligida uzatish.

Videoxotira

ing. - video memory

rus. - видеопамять

Displayda sifatli tasvirni ta'minlash uchun mo'ljallangan qo'shimcha xotira. Videoadap-terning qismi hisoblanadi, bir necha megabayt-gacha hajmga ega. Videoxotirada bitta yoki bir nechta ekranning tasviri shakllanadi, displayga uzatiladi. Ba'zi kompyuterlarda videoxotira tezkor xotiradan ajratiladi.

Videoo'yin qurilmasi

ing. - videogame device

rus. - видеоигровое устройство

Televizion qabul qilgich yoki maishiy video-monitor ekranida o'yin axborotini aks ettirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Vidjet

ing. - widget

rus. - виджет

1. Interfeys vidjeti. Foydalanuvchi grafik inter-feysining stardartlashtirilgan elementi (matn maydoni, tugma, ro'yxat, menyu va h.k.).

2. Veb-vidjet. Veb-sahifa ichida yoki kompyu-ter ish stolida joylashgan va tashqi resurslar-ning ma'lumotlari yoki funksionalidan foyda-lanish uchun mo'ljallangan kod parchalari yoki kichik dasturlar (ob-havo, taqvim, lug'at va h.k.).

Mobil vidjet. Mobil telefonda biror bir dastur yoki tarmoq resurslari bilan ishlab, foydala-nuvchi imkoniyatlarini kengaytiruvchi qo'l-lanma.

Vijener kvadrati

ing. - Vigenere square

rus. - квадрат Виженера

Ko'p alifboli mashhur kriptotizimlardan biri. Vijener kvadrati n2 elementlar bo'lgan kvadrat

matritsani ifodalaydi, bunda n – foydalaniladi-gan alifbo simvollarining soni. Kvadratning har bir satri alifboni bir simvolga siklik silji-tish bilan to'ldiriladi. Qadamdan qadamgacha Sezar kriptotizimiga o'xshash o'zgaradigan kalit so'z shifrlash kaliti hisoblanadi. Har bir ustun 0, 1, ..., 25 kalitlari bo'lgan Sezar kri-ptotizimi sifatida qaralishi mumkin. Kalit so'z, odatda ochiq matndan qisqa bo'lgani uchun, undan davriy ravishda foydalaniladi.

Viki

ing. - wiki

rus. - вики

Veb-sayt, saytning o'zi taqdim qilgan instrumentlar yordamida foydalanuvchi uning shakli va tarkibini o'zgartirishi mumkin. Eng katta va mashhur viki sayt – Vikipediya.

Vikpediya

ing. - Wikipedia

rus. - википедия

Ko'p tillik erkin onlayn ensiklopediya. U ko'pchilik tomonidan yoziladi va uni yozishda hech qanday cheklanishlar quyilmaydi. Ushbu loyiha 15 yanvar 2001-yil mutaxassislar-ga mo'ljallangan Nupediara to'ldiruvchi sifatida yaratilib, hozirda uni notijorat Wikimedia Foun-dation tashkiloti boshqaradi. Vikipediyaning eng katta ingliz tili bo'limi 2009-yil oxirida 3 milliardga yaqin maqolaga ega edi (taqqoslash uchun: qog'oz nashrdagi ensiklopediyalar ora-sida eng katta bo'lmish VgKappuyadagi maqo-lalar soni 130 ming atrofidadir). Bundan tash-qari Vikipediyaning juda mashhur bo'lib ketishi tufayli unga yo'ldosh Wiktionary, Wikibooks, Wikiquote, Wikisource hamda Wikinews kabi loyihalarning ham paydo bo'lganidir.

Vilka

ing. - plug

rus. - вилка

Ajratgichning shtirli yoki o'tkazuvchan chiquvchi kontaktlari bo'lgan qismi.

Viloyat ichi pochta yo'nalishi

ing. - intraregional postal route

rus. - внутриобластной почтовый маршрут
Viloyat pochta almashinuv punktini viloyat (Qoraqalpog'iston Respublikasi)ning tuman-lararo, tuman, shahar pochta aloqasi bog'lama-lari bilan bog'lovchi pochta yo'nalishi.

Vinchester

ing. - hard disk
rus. - винчестер

Ma'lumotlarni saqlash qurilmasi, qattiq magnit diskdagi to'plagichning o'zi IBM firmasi tomonidan 1973 yilda ishlab chiqilgan. Diskning xarakteristikalarini quyidagicha edi: sig'imi 30 Mbyte, foydalanish vaqti 30 ms. Boshqa versiyaga ko'ra, to'plagich har biri 30 Mbyte bo'lgan ikkita diskdan iborat bo'lgan.

Virtual

ing. - virtual
rus. - виртуальный

Amalda mavjud bo'lmagan, lekin ma'lum sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan obyekt yoki holat.

Virtual bank

ing. - virtual bank
rus. - виртуальный банк

Mijozlarga xizmat ko'rsatish Internet tarmog'idan foydalanib bajariladigan bank. Izohta - Brauzerlardan yoki maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanadigan mijozlar real bankda amalga oshiriladigan aksariyat operatsiyalarni bajarishlari va axborot olishlari mumkin.

Virtual bog'lanish

ing. - virtual connection
rus. - виртуальное соединение

Paketlarni kommutatsiyalash bilan ma'lumotlar uzatish xizmatlarining xizmatlaridan biri, bunda bog'lanishni o'rnatish va uzatish protsedurasi ma'lumotlar uzatish uchun oxirgi (terminal) uskunaning ikkita qurilmasini bog'lash davrini belgilaydi, bu davr mobaynida foydalanuvchilardan ma'lumotlar tarmoq bo'ylab paket rejimida uzatiladi. Barcha ma'lumotlar, foydalanuvchilardan qabul qilingan tartibda, tarmoqdan kelib tushadi.

Virtual disk

ing. - virtual disk
rus. - виртуальный диск

Tezkor xotira qismidan dasturiy tarzda yaratilgan, psevdodiskli to'plagich. Operatsion tizim u bilan, haqiqatda mavjud bo'lgan disk bilan ishlagandek ishlaydi. Ikki holatda, moddiy mavjud bo'lgan diskni vaqtinchalik takrorlash uchun va ma'lumotlardan foydalanishni tezlashtirish maqsadida foydalaniladi, chunki tezkor xotira diskli xotiraga nisbatan ancha tez. Ko'pincha elektron disk deb ataladi.

Virtual fayl tizimi

ing. - virtual file system (VFS)
rus. - виртуальная файловая система

Fayl tizimlarini amalga oshirishning obyektga yo'naltirilganligini ta'minlovchi fayl tizimi. Fayl tizimlarini qo'shgan holda, fayl tizimlarining turlari uchun tizimli chaqiruvlarning yagona interfeysi.

Virtual hamjamiyatlar

ing. - virtual communities
rus. - виртуальные сообщества

Internetning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan ushbu atama quyidagilarni bildiradi:

1. Elektron makonda paydo bo'lib faoliyat yurizuvchi uyushmalarning yangi turi.
2. Tarmoq foydalanuvchilarining elektron makonda ishlash uchun bir xil qiziqishlarga ega bo'lgan guruhlariga birlashishi. Ushbu atama Veb 2.0 asosiy atamalaridan biridir.

Virtual iqtisodiyot

ing. - virtual economy
rus. - виртуальная экономика

Elektron makonda iqtisodiy operatsiyalarni bajarish.

Virtual kanal

ing. - virtual channel
rus. - виртуальный канал

1. Paketli kommutatsiya tarmog'ida dastlabki ketma-ketlikni saqlagan holda, hattoki paketlar ikkita uzellar o'rtasida turli fizik yo'nalishlar bo'yicha uzatilsa ham, paketlar uzatilishini ta'minlaydigan vositalar. Virtual kanal chaqiruv vaqtida o'rnatiladi va aloqa seansidan keyin bekor qilinadi.
2. Virtual kanal identifikatori deb nomlanadigan identifikatoming umumiy noyob (yagona) qiymatiga ega ATM yacheykasining bir yo'nalishli o'tkazish tavsifi uchun foydalaniladigan tushuncha.
3. Ikki tarmoq qurilmasi o'rtasida ishonchli aloqani ta'minlash uchun hosil qilinadigan mantiqiy kanal. Virtual kanal sonlar juftligi: virtual yo'l identifikatori (VPI) va virtual kanal identifikatori (VCI) bilan identifikatsiya qilinadi, doimiy (PVC) yoki kommutatsiyalanadigan (SVC) bo'lishi mumkin. Virtual kanallar Frame Relay va X.25 texnologiyalarida ishlatiladi. ATM tarmoqlarida Virtual Channel deb ataladi.

Virtual kanal identifikatori

ing. - virtual channel identifier (VCI)
rus. - идентификатор виртуального канала

ATM tarmog'idagi har bir virtual kanalni iden-

tifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan, ATM yacheykasi sarlavhasidagi 16 bitli maydon bilan belgilanadigan yagona raqamli yorliq.

Virtual kanal zvenosi

ing. - virtual channel link

rus. - звено виртуального канала

Virtual kanal identifikatorining qiymati aniqlanadigan nuqta va ushbu qiymatlar o'zgaradigan yoki o'chiriladigan nuqta o'rtasida ATM yacheykalarini bir yo'nalishda uzatish vositasi.

Virtual kanallar kommutatori

ing. - virtual channel (VC) switch

rus. - коммутатор виртуальных каналов

Virtual kanallar zvenolarini bog'laydigan, virtual yo'llar bog'lanishini tugatadigan tarmoq elementi.

Virtual kanalning ulanishi

ing. - virtual connection

rus. - соединение виртуального канала

Adaptatsiya darajasidan foydalana olishni ta'minlaydigan ikki nuqta o'rtasida amalga oshiriladigan virtual kanal zvenolarining ketma-ket ulanishi.

Virtual kompaniya

ing. - virtual company

rus. - виртуальная компания

Muayyan maqsadlarga erishish uchun, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, birgalikdagi kelishilgan faoliyatni amalga oshiradigan turli sohalarida ixtisoslashgan jismoniy va yuridik shaxs.

Virtual korxon

ing. - virtual enterprise

rus. - виртуальное предприятие

1. Faoliyat jarayonida elektron aloqa vositalaridan foydalangan holda eng kam yoki umuman bo'lmagan shaxsiy, bevosita aloqasiz muloqotda bo'ladigan, o'zaro ishlaydigan geografik nuqtai nazardan ajratilgan xodimlar uyushmasidan iborat bo'lgan korxon.

2. Bitta tashkilotning bir-biridan hududiy ajratilgan va axborot-kommunikatsiya tarmoqlari yordamida o'zaro ishlaydigan tuzilmalari.

Virtual lokal tarmoq

ing. - virtual LAN (VLAN)

rus. - виртуальная локальная сеть

Tarmoq turi, bunda kommunikatsiya va erkin foydalanish tarmoq tuzilmasini yoki aniq resursning joylashgan o'rini bilmasdan turib amalga oshiriladi.

Virtual manzil

ing. - virtual address

rus. - виртуальный адрес

Dasturlarda xotiraga murojaat qilish uchun qo'llaniladigan virtual xotira tizimidagi manzil. Jismoniy xotiradan ma'lumotlarni o'qish yoki unga ma'lumotlarni yozishda yadro va xotirani boshqarish bloki tomonidan virtual manzil jismoniy manzilga aylantiriladi.

Virtual mashina

ing. - virtual machine

rus. - виртуальная машина

Kompyuterda dasturiy ta'minot yaratadigan, fizik qurilma modellashtiriladigan muhit. Windows da virtual mashinalar, har biri o'zining xususiy xizmatlariga, jumladan, xotira resurslariga, fayl tizimi serverlariga, qurilmalar drayverlariga, periferiyadan foydalanish huquqiga ega bo'lgan alohida kompyuterlarni modellashtiradi. Windows virtual mashinalarining ikkita asosiy turini ichiga oladi: Windows ilovalarini ishga tushirish uchun foydalaniladigan System VM va Windows da bajariladigan MS-DOS ning har bir ilovasi uchun yaratiladigan DOS VM.

Virtual mobil aloqa operatori

ing. - mobile virtual network

operator (MVNO)

rus. - виртуальный оператор мобильной связи

Boshqa bir operatorning mavjud infratuzilmasidan foydalanadigan, biroq xizmatlarni o'z nomi ostida sotadigan uyali aloqa operatori. Odatda, bazaviy operator bilan birgalikda umumiy uyali tarmoqdan va kommutatorlardan, ko'pincha, umumiy billing tizimidan foydalaniladi. Ishning bunday sxemasi virtual operatorga uyali tarmoqni qurish va uni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yirik kapital mablag'lar sarfiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

Virtual ofis

ing. - virtual office

rus. - виртуальный офис

Geografik jihatdan bir-biri bilan bog'lanmagan kompaniya xodimlariga, axborot hamda boshqariluvchi ta'sirlarni almashish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun tashkiliy ravishda yagona tizim vositasida o'zaro hamkorlik qilishga imkon beradigan internet-resurs yoki uning bir qismi.

Virtual port

ing. - virtual port

rus. - виртуальный порт

Aniq moddiylikda mavjud bo'lmagan, tashqi qurilmalarni qayta ishlashni unifikatsiya qilish uchun operatsion tizimda tashkil qilinadigan va installatsiya qilinadigan port; odatda simsiz aloqa qurilmalari, masalan, mobil telefonlar va organayzerlar bilan almashinishda qo'llaniladigan katta sonli (COM10, COM15) kommunikatsiya porti.

Virtual reallik

ing. - virtual reality

rus. - виртуальная реальность

1. Zamonaviy texnik va dasturiy vositalar bilan real dunyoni imitatsiya qilish.

2. Kuzatuvchini ekran ortidagi tasavvur dunyosiga olib o'tuvchi vizual va tovush effektlarini ta'minlaydigan kompyuter tizimlari. Bunda foydalanuvchi, kompyuter yordamida paydo qilingan, reallik taassurotini beruvchi tasvir va tovushlar bilan o'rab olinadi. Foydalanuvchi turli sensorlar, masalan, o'z harakati va taassurotlarini hamda audiovizual effektlarni bog'laydigan shlem va qo'lqoplar yordamida sun'iy dunyo bilan o'zaro bog'lanadi. Virtual reallikka oid kelgusidagi tadqiqotlar kuzatuvchining reallikka bo'lgan hissini orttirishga yo'naltirilgan.

Virtual server

ing. - virtual server

rus. - виртуальный сервер

O'z veb-serverni tashkil qilish, qo'llab-quvvatlash va doimiy ravishda Internetga ulanishni talab qilmaydigan, WWWda axborotni joylashtirish uchun qo'llaniladigan usul. Bu holda siz yaratgan axborot mavjud bo'lgan provayder yoki biron bir uchinchi shaxs ulanish bo'lmaganda doimiy ulanish uchun to'lashga qaraganda o'nlab va yuzlab marotaba arzonroqdir.

Virtual serverni tashkil etish

ing. - virtual server development

rus. - организация виртуального сервера

Xususiy veb-serverni tashkil etish va quvvatlash, hamda doimiy Internetga ulanish zaruratini chetlab, WWWda axborotni joylashtirish uchun ishlatiladigan usul. Bu holda, siz yaratgan axborot (bepul yoki qandaydir to'lov bilan) provayderning yoki uchinchi shaxsning mavjud veb-serverida joylashtirildi. Virtual server domen nomiga ega bo'lishi

mumkin. Bitta kompyuterda bir nechta virtual serverni joylashtirish mumkin.

Virtual tarmoq operatori

ing. - virtual network operator

rus. - оператор виртуальной сети

Boshqa operatorning ijaraga olinadigan resurslari va tarmoq infratuzilmasi negizida o'zining virtual tarmog'ini yaratuvchi kompaniya. Virtual tarmoq operatori xizmat ko'rsatish bozorida, o'z savdo markasi ostida, o'z xizmatlar paketi va tariflarini tavsiya qiladi.

Virtual tarmoq texnologiyalari

ing. - virtual networking

rus. - виртуальные сетевые технологии

Virtual lokal tarmoqlar ichidagi va ular o'rnatilgan kommunikatsiyalar yoki Internetdan olisdagi bo'linmalar bilan bog'lanish uchun xususiy tarmoq o'rnida foydalanish.

Virtual tarmoq tizimi

ing. - virtual networking system (VINES)

rus. - виртуальная сетевая система

Hududiy tarmoq orqali o'zaro hamkorlik qiluvchi lokal tarmoqlar assotsiatsiyasi tuzilishini ko'zda tutadigan, Banyan Systems korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq operatsion tizimi. Bunda lokal tarmoqlar quyi sathlarda bir xil bo'lmagan tuzilmaga ega bo'lishi mumkin (turli ishlab chiqaruvchilar uskunasi).

Virtual tashkilot

ing. - virtual company

rus. - виртуальная организация

Qo'shma, kelishilgan faoliyat bajaruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U odatda turli sobalarda, aniq maqsadlarga erishish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanadi.

Virtual tezkor xotira

ing. - swap

rus. - виртуальная оперативная память

Qattiq diskdan rezerv qilingan xotira. Agarda biror-bir dasturni yuklash uchun tezkor xotira yetishmasa, yangi jarayonlarni ishga tushirish uchun tezkor xotirani bo'shatish maqsadida, ayni vaqtda aktiv bo'lmagan jarayonlar qattiq diskka «tashlanadi».

Virtual reallikni modellashtiradigan til

ing. - virtual reality

modeling language (VRML)

rus. - язык, моделирующий

виртуальную реальность

HTML tilining uch o'lchamli analogi hisoblanadigan til; WWW texnologiyasida ilovalar yaratish uchun foydalaniladi. Silicon Graphics kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Virtual xosting

ing. - virtual hosting

rus. - виртуальный хостинг

Bitta Internet provayderi (xosting provayderi) serveri bir necha (yuz va minglab) kichik va katta hajmdagi virtual veb-saytlarning faoliyatini ta'minlaydigan xizmat. Ushbu xizmat virtual serverlar xosting deb ham nomlanadi.

Virtual xotira

ing. - virtual memory

rus. - виртуальная память

Kompyuterning qattiq diskda tezkor xotira bilan kabi ishlash usuli. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi va ko'p vazifali ishlash rejimini ta'minlaydi.

Virtual xususiy tarmoq

ing. - virtual private network

rus. - виртуальная частная сеть

Korporativ tarmoqning, olisdagi foydalanuvchilarning bu tarmoqqa xavfsiz kirishini ta'minlaydigan kichik (quyi) tarmog'i.

Virtual xususiy tarmoqlarni, jumladan, VPN IP tashkil etish

ing. - virtual private

networks including IP VPN

rus. - организация виртуальных частных сетей, включая IP VPN

Ajratilgan tarmoqning (statistik yoki dinamik) foydalanuvchilari umumiy foydalanishdagi tarmoqning ochiq kanallari bo'yicha bog'lanadigan «virtual kanallar» asosida xususiy raqamlash rejasi bilan ajratilgan tarmoqni tashkil etish.

Izoh - Tarmoqni muhofaza qilish bosqichini buyurtmachi belgilaydi.

Virtual yo'l identifikatori

ing. - virtual path identifier (VPI)

rus. - идентификатор виртуального пути

ATM yacheykasi sarlavhasidagi, yacheyka yo'llanadigan virtual yo'lni belgilaydigan 8 bitli maydon.

Virtual yo'l zvenosi

ing. - virtual path link

rus. - звено виртуального пути

Virtual yo'l identifikatori (VYI) qiymati aniqlanadigan nuqta va VYI qiymati o'zgar-

digan nuqta o'rtasidagi VYI umumiy qiymatiga ega virtual kanallar zvenolarining guruhi.

Virtual yo'llar kommutatori

ing. - virtual path (VP) switch

rus. - коммутатор виртуальных путей

Virtual yo'llar liniyalarini bog'laydigan tarmoq elementi.

Virtual yo'lining ulanishi

ing. - virtual path connection

rus. - соединение виртуального пути

Kanallar identifikatorlarining qiymatlari aniqlanadigan nuqta va ushbu qiymatlar o'zgaradigan nuqta o'rtasida amalga oshiriladigan virtual trakt zvenolarining ketma-ket ulanishi.

Virtual zanjir

ing. - virtual chain

rus. - виртуальная цепочка

Ikkita tarmoq uzeli o'rtasidagi tarmoq paketlarining yo'li bitta aloqa seansida qayd etiladigan marshrutlash usuli.

Virus signaturasi

ing. - virus signature

rus. - сигнатура вируса

Bitlarning, spetsifik virusning har bir nusxasiga xos bo'lgan va uning mavjudligini aniqlash uchun skanlovchi dastur tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan, yagona ketma-ketligi.

Virusga qarshi dastur

ing. - antivirus program

rus. - антивирусная программа

Kompyuterning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan virus-dasturlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan maxsus dastur.

Virusga qarshi dasturiy ta'minot

ing. - antivirus software

rus. - антивирусное

программное обеспечение

Zararli dasturlarni bartaraf qilish, aniqlash va chiqarib tashlash uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

Virusli litsenziya

ing. - viral license

rus. - вирусная лицензия

Bu mualliflik huquqini bildiradi. Teng tarzda barcha qilingan ishlarga tegishli litsenziya. Bu litsenziyalar keng ko'lamda va cheksiz qo'llanila boshlaydi va kopileft raqiblariga (aynan Microsoft korporatsiyasidan) uni viruslar bilan ishlatishga bahona bo'ldi.

Virusni «davolash»**ing.** - virus treatment**rus.** - «лечение» вируса

Zararlangan obyektдан virusni chiqarib tashlash va bu obyektning (faylning, disk yuklanadigan qismining) virus bilan zararlangunga qadar bo'lgan holatini tiklash jarayoni.

Vizit registri**ing.** - visitor location register (VLR)**rus.** - визитный регистр

Tashrif registri (roumer – abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ichiga oladigan ma'lumotlar bazasi).

Vizual dasturlash**ing.** - visual programming**rus.** - визуальное программирование

Ko'rgazmali vositalar yordamida ilovalar yaratish ko'zda tutiladigan dasturlash. Dasturchi dastur matnini yaratmaydi, balki natijada nima bo'lishini ko'rsatadi. Dastur matni vizual prototip yordamida avtomatik tarzda yuzaga keladi. Vizual dasturlash obyektga yo'naltirilgan dasturlashga va OLE texnologiyalarga yoki unga o'xshash texnologiyalarga asoslanadi.

Vizual harf-raqamli indikatsiya xizmati**ing.** - subscriber's alpha-numerical display**rus.** - услуга визуальной буквенно-цифровой индикации

Umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'iga uzatilgan yoki ushbu tarmoqdan olingan axborotning vizual indikatsiyasini abonentning telefon terminalida taqdim etadigan xizmat. Izo – Axborotni ekranda chiqarish chiquvchi va/yoki kiruvchi chaqiruvlar uchun amalga oshiriladi.

Vizual komandalar tizimi**ing.** - visual instruction set (VIS)**rus.** - визуальная система команд

48 komandadan iborat bo'lgan, UltraSPARC protsessorlariga SUN Microsystems firmasi tomonidan multimedia dasturlari, video muhoqotlari, videolarni siqish uchun qo'shilgan grafika bilan ishlash komandalari. Birinchi bor Photoshop tizimi tomonidan ishlab chiqilgan.

Vizual komponentlar bibliotekasi**ing.** - visual component library (VCL)

rus. - библиотека визуальных компонент
Ilovalarni tez ishlab chiqish uchun Borland C++ Builder va Delphi instrumental paketlarda ishlatiladigan, obyektga qaratilgan biblioteka. O'zida 100 dan ortiq foydalanish uchun tayyor komponentlarni mujasamlashtirgan bo'lib, ularni takomillashtirish yoki bo'lmasa ular asosida boshqa yangi komponentlarni yaratish imkonini beradi.

Voqealarni qayta ishlagich**ing.** - event handler**rus.** - обработчик событий

Foydalanuvchi, tizim yoki dastur keltirib chiqaradigan qandaydir voqea tugagandan so'ng, har gal avtomatik tarzda chaqiriladigan maxsus protsedura.

Voqeyi-boshqariladigan dasturlash**ing.** - event-driven programming**rus.** - событийно-управляемое программирование

Dastur turli voqealarga (foydalanuvchining harakatlariga) qanday javob berishi tavsiflanadigan dasturlash. Obyektga yo'naltirilgan dasturlashning bir turi.

Vositachi**ing.** - проху**rus.** - посредник

Shlyuzda bajariladigan, mualliflashtirilgan mijoz va tashqi xost o'rtasida paketlarni uzatuvchi ilova (dastur). Vositachi Internetning ma'lum servislarini uchun mijozdan so'rov qabul qiladi, keyin, mijoz nomidan harakat qilib (ya'ni uning vositachisi bo'lib), rasmiy ravishda so'rab olingan servis uchun ulanishni o'rnatadi. Amaliy darajadagi barcha shlyuzlar ilovalar bilan bog'liq dasturiy vositalardan foydalanadi. Seans darajasidagi ko'pchilik shlyuzlar so'rovlarni qayta yo'naltirishning aynan bir xil funksiyalarini ta'minlaydigan, lekin TCP/IP servislarining katta qismini tutib turadigan kanal vositachilardir.

X

Xab

ing. - hub

rus. - Хаб

Yulduz topologiyasida tarmoq uzellari bir-lashtiriladigan konsentrator yoki takror-lagich.

Xabar

ing. - message

rus. - сообщение

1. Cheklangan uzunlikdagi bitlar satri.

2. Muayyan shaklda ifodalangan va turli fizik tabiatga ega bo'lgan signallar yordamida axborot manбайдan uni oluvchiga uzatish uchun mo'ljallangan axborot.

Xabar adresati

ing. - message receiver

rus. - адресат сообщения

Jo'natuvchining o'zi yoki uning nomidan jo'natilgan xabarni oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

Xabar berish

ing. - alert

rus. - оповещение

Tahdid qilayotgan xavf yoki bo'lishi mumkin bo'lgan muammo to'g'risida ogohlantirish yoki xabar berish uchun mo'ljallangan xabar.

Xabar yaxlitligi kodi

ing. - message integrity check

rus. - код целостности сообщения

Dashtabki matn va kalitdan muayyan qoida bo'yicha hosil qilingan tayinli uzunlikdagi ma'lumotlar ketma-ketligi.

Xabarlar bilan almashinish xizmati

ing. - messaging service

rus. - услуга обмена сообщениями

Pochta qutisi va/yoki xabarlamni qayta ishlash (masalan, tahrir qilish, qayta ishlash va o'zgartirish) funksiyalarini bajarish bufe-rizatsiyali xotira qurilmasi orqali foydalanuvchi-foydalanuvchi aloqani ta'minlaydigan interaktiv xizmat.

Xabarlar bilan juda tez almashinuv

ing. - instant messaging

rus. - мгновенный обмен сообщениями

SIP foydalanuvchilarga qisqa xabarlar bilan

juda tez almashinish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - MSRP (Message Session Relay Protocol) protokoli foydalanuvchilarga fayllarni uzatish imkonini beradi.

Xabarlar kommutatsiyasi

ing. - message switching

rus. - коммутация сообщений

Kommutatsiya stansiyasi yoki tarmoq uzellidagi, to'liq xabarni qabul qilish, yig'ish, so'ng undagi manzil belgisiga ko'ra uzatish-dan iborat operatsiyalar majmui.

Xabarlar navbati

ing. - message queue

rus. - очередь сообщений

Jarayonlar o'rtasida xabarlamni saqlash uchun mo'ljallangan tizimli tuzilma (bufer).

Xabarlar uchun slotlar

ing. - message slots

rus. - слоты для сообщений

Halqali topologiyaga ega tarmoqdagi kommunikatsiya usuli, bunda qayd qilingan o'lchamdagi xabarlar uchun bir nechta slot tizimda muntazam aylanadi.

Xabarlamni ajratish

ing. - message splitting

rus. - разделение сообщений

Abonentga yonma-yon bosib chiqarilgan xabarlar o'rtasidagi bo'sh joylarni ta'minlash uchun, otboydan oldin har bir amalga oshirilgan bog'lanish oxirida bir nechta satr ko'chirish belgilarini uning terminaliga tarmoqdan uzatilishini so'rash imkonini beradigan xizmat.

Xabarlamni autentifikatsiya qilish kodi

ing. - message authentication code

rus. - код аутентификации сообщений

1. Ikkala ma'lumotning (ochiq matn yoki shifmatn) hamda maxfiy kalitning funksiyasi bo'lgan bitlar ketma-ketligi. Ma'lumotlarni autentifikatsiya qilishni ta'minlash uchun ularga qo'shiladi.

Izoh - Xabarlamni autentifikatsiya qilish kodini generatsiyalash uchun foydalaniladigan funksiya, ko'pchilik hollarda, bir tomonlama funksiya hisoblanadi.

2. Berilgan algoritim bo'yicha tasodifiy kirish oqimi va shifrlash kalitidan tuziladigan, qayd qilingan uzunlikdagi kod.

Xabarlamni qayta ishlash tizimi

ing. - message handling system (mhs)

rus. - система обработки сообщений
Foydalanuvchi xabarlarining agentlari, xabarlarni uzatish, xabarlarni saqlash va ruxsat berish qurilmalari agentlarining, elektron pochta ishini ta'minlaydigan tizim.

Xabarlarni tutib qolish

ing. - message wiretapping

rus. - перехват сообщений

Maxsus terminalni telekommunikatsiyalar liniyasiga ruxsatsiz ulash, abonent punktlari bilan elektron hisoblash mashinasi o'rtasida aylanadigan xabarlarni qabul qilish va ulardan foydalanish.

Xabarlarni uzatish agenti

ing. - message transfer agent (MTA)

rus. - агент передачи сообщений

Xabarlarni saqlash va jo'natish uchun foydalaniladigan OSI amaliy jarayoni.

Xabarlarni uzatish tizimi uchun amaliy dasturlash interfeysi

ing. - messaging application programming interface (MAPI)

rus. - интерфейс прикладного программирования систем

передачи сообщений

Microsoft Windows operatsion tizimida elektron pochta bilan ishlaydigan dasturlar interfeysi. Shunday dasturlardan biri Microsoft Outlook.

Xabarlarni o'tkazish

ing. - message switch

rus. - переключение сообщений

Tarmoq ulanishi usuli, bunda xabarlarni uzatishda vaqtinchalik ulanish o'rnatiladi.

Xabarni autentifikatsiya qilish

ing. - message authentication

rus. - аутентификация сообщения

Tayinlangan jo'natuvchining xabari belgilangan oluvchiga shikastlanmasdan va o'zgartirmasdan uzatilganligini verifikatsiyalash.

Xabarning haqiqiylikini o'rnatish kodi

ing. - message authentication code

rus. - код установления

подлинности сообщения

Xabarga jo'natuvchi tomonidan qo'shiladigan, kriptografiya jarayoni orqali xabarni qayta ishlash natijasi hisoblanadigan kod.

Xabarnoma

ing. - notification

rus. - извещение

Muhim ma'lumotni yetkazish maqsadida, tizim yoki amaliy dasturiy ta'minot chiqaradigan axborot xabari.

Xaffman kodi

ing. - Huffman code

rus. - код Хаффмана

Prefiksli kod, unda kodli kombinatsiyaning uzunligi kodlashtiriladigan elementning paydo bo'lish chastotasiga teskari proporsional (element qancha ko'p uchrasa, kodli kombinatsiya shuncha qisqa).

Xaffman kodlash usuli

ing. - Huffman coding

rus. - метод кодирования Хаффмана

Alohida elementlar uchrashining nisbiy chastotasini qo'llash asosida ma'lumotlarni siqish usuli Ko'p uchraydigan elementlar nisbatan qisqa bitlar ketma-ketligi orqali kodlanadi.

Xaker

ing. - hacker

rus. - хакер

Tarmoqdagi axborotni o'g'irlash istagi va imkoniyati bo'lgan odam. Xakerlar, ko'pincha hazil tariqasida simsiz tarmoqlarning zaifliklaridan foydalangan holda, korporativ tizimlarga suqulib kirishga harakat qiladilar.

Xakerlik frodi

ing. - hacking fraud

rus. - хакерский фрод

Tarmoq muhofazasini buzish va tarmoq resurslaridan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish bilan bog'liq firibgarlik turi.

Xalaqit beruvchi signal

ing. - unwanted signal

rus. - мешающий сигнал

Texnik vositaning ishlash sifatini yomonlashtiradigan elektromagnit signal.

Xalaqit kuchlanishi

ing. - interference voltage

rus. - напряжение помехи

Signal kanalida mavjud bo'lgan har qanday chetki kuchlanish.

Xalaqit manbai

ing. - source of disturbance

rus. - источник помехи

Elektromagnit xalaqitni yuzaga keltiradigan

yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, ke-
lib chiqishi tabiiy yoki sun'iy manba.

Xalaqitga chidamlilik darajasi
(hisoblash texnikasi vositalari)

ing. - immunity level of a computer
rus. - уровень помехоустойчивости
(средства вычислительной техники)
Parametrlarining qiymatlari qat'iy belgilan-
gan tashqi xalaqitning maksimal darajasi,
bunda hisoblash texnikasi vositasi belgilan-
gan ishlash sifatini saqlab qoladi.

Xalaqitga chidamlilik normasi
(hisoblash texnikasi vositalarining)

ing. - immunity limit of a computer
rus. - норма на помехоустойчивость
(средства вычислительной техники)
Hisoblash texnikasi vositasi xalaqitga chi-
damlilik darajasining qat'iy belgilangan
minimal qiymati.

Xalaqitlar

ing. - interference
rus. - помехи
Radioaloqa tizimida bitta yoki bir nechta
nurlanish, radiatsiya yoki induksiya kelti-
rib chiqaradigan beixtoriy energiyaning
qabulga ta'siri. Bu energiyaning ta'siri ax-
borot sifatining har qanday yomonlashu-
vida, xatolarda yoki yo'qotishlarda (bunday
beixtoriy energiya ta'siri bo'limganda,
ularni chetlab o'tsa bo'lar edi) namoyon
bo'ladi.

Xalaqitlar analizatori

ing. - interference analyzer
rus. - анализатор помех
Vaqt bo'yicha seleksiyalash qurilmasi bilan
jihozlangan xalaqitlarni o'lchagich.

Xalaqitlar uzatgichi

ing. - interfering transmitter
rus. - передатчик помех
Foydali signallarni qabul qilish chastotalar
polosasida foydali signallarni buzish yoki
butunlay bostirish maqsadida xalaqitlarni ge-
neratsiyalash uchun mo'ljallangan maxsus
radiouzatgich.

Xalaqitlarni bostirish

ing. - interference suppression,
interference elimination
rus. - подавление помех
Xalaqitlar ta'sirini bartaraf etishga yoki
kamaytirishga qaratilgan tadbirlar.

Xalaqitning ta'siri

ing. - influence of interference
rus. - влияние помехи
Elektromagnit xalaqit ta'sirida texnik
ta ishlashidagi sifat ko'rsatgichlarining
sayishi.

Xalaqitning yuqori darajali zonasi

ing. - area with high level of
interference, blanketing area
rus. - зона с высоким уровнем помех
Uzatgichdan bevosita yaqinda joylashga
zona, bunda xalaqit darajasi shunchalik
zilarliki, qo'shni chastotalarda ishlaydigan
boshqa stansiyalar qabul qilgichlarining
blokirovkalanishi mumkin.

Xalqaro aloqa tarmog'i

ing. - international
telecommunication network
rus. - международная сеть связи
Turli milliy tarmoqlar abonentlarini xalqa-
ro aloqa bilan ta'minlaydigan xalqaro stan-
siyalar hamda ularni bog'laydigan kanallar
majmui.

Xalqaro avtomatik boshqaruv
federatsiyasi

ing. - International federation
of automatic control (IFAC)
rus. - Международная федерация по
автоматическому управлению
Avtomatik boshqaruv nazariyasini rivoj-
lantirish bilan shug'ullanuvchi olimlar-
ni birlashtiruvchi xalqaro tashkilot. IFAC
1957-yilda turli mamlakatlardagi mutaxas-
silar o'rtasida ijodiy aloqa o'rnatish hamda
ular orasida axborot almashinuvini yo'lga
qo'yish uchun yaratilgan.

Xalqaro axborot almashinuvi

ing. - international information interchange
rus. - международный
информационный обмен
Mamlakatning davlat chegarasi orqali ax-
borot mahsulotlarini olish va uzatish, shu-
ningdek, axborot xizmatlarini ko'rsatish.

Xalqaro axborotni qayta
ishlash federatsiyasi

ing. - International federation for
information processing (IFIP)
rus. - Международная федерация по
обработке информации
Ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari

nazariyasini rivojlantirish va ulardan foydalanishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. IFIP 1959-yilda turli mamlakatlardagi olimlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida axborot almashish va ish aloqalarini o'rnatish uchun tashkil etilgan.

Xalqaro dengiz yo'ldoshi aloqa konsorsiumi

ing. - International Maritime Satellite Organization

rus. - Международный консорциум морской спутниковой связи

1979-yil 16 iyulda tashkil topgan. 75000 tadan ortiq ko'chma obyektlarga (ularning ichidi 42000 ta dengiz kemasi) turli aloqa xizmatlarini va maxsus xizmatlarni taqdim etadi. To'rtta geostatsionar yo'ldoshdan iborat tizimga asoslanadi.

Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (XEK)

ing. - International electrotechnical commission (IEC)

rus. - Международная электротехническая комиссия (МЭК)

Elektrotexnika sohasida standartlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi tashkilot. Elektrotexnik apparat va mashinalar uchun standartlardan tashqari XEK elektron qurilmalar uchun hujjatlarni ham ishlab chiqadi.

Xalqaro kommutatsiya markazi

ing. - international switching centre

rus. - международный центр коммутации

Chiquvchi, kiruvchi va tranzit xalqaro trafik o'tishini ta'minlaydigan stansiya.

Xalqaro kuryerlik jo'natmasi

ing. - international courier

rus. - международное курьерское отправление

O'zbekiston Respublikasi bo'xona hududi doirasidan tashqariga pochta aloqasi operatori va provayderlari tomonidan jo'natiladigan, O'zbekiston Respublikasi hududiga pochta aloqasi operatori va provayderlari manziliga keladigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda o'tadigan kuryerlik jo'natmasi.

Xalqaro pochta almashinuvi joyi

ing. - international postal exchange office

rus. - место международного почтового обмена

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan, boshqa davlatlardan keladigan va tranzit tarzda jo'natiladigan xalqaro pochta, kuryerlik jo'natmalariga ishlov berish va mo'ljallangan joyiga jo'natishni amalga oshiruvchi pochta aloqasi tayinlangan operatorning tarkibiy bo'linmasi.

Xalqaro pochta almashinuvi punkti

ing. - point of international postal exchange

rus. - пункт международного почтового обмена

Boshqa davlatlar bilan, bevosita xalqaro pochta almashinuvi amalga oshiruvchi pochta aloqasi tayinlangan operatorning punkti.

Izoh - Ayrim hollarda pochta vagonlari xalqaro pochta almashinuvi punktlari bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro pochta jo'natmasi

ing. - international mail

rus. - международное почтовое отправление

O'zbekiston Respublikasining bo'xona hududi doirasidan tashqariga pochta aloqasi tayinlangan operatori tomonidan jo'natiladigan, O'zbekiston Respublikasi hududiga pochta aloqasi operatori manziliga keladigan yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda o'tadigan pochta jo'natmasi.

Xalqaro pochtaamt

ing. - international post office

rus. - международный почтаamt

Xalqaro pochta almashinuvi joyi bo'lib hisoblangan, xalqaro pochta, kuryerlik jo'natmalarini jo'natish, topshirish, pochmani birkiritilgan magistral yo'nalishlar bo'yicha tashish, tranzit, chiquvchi va keluvchi pochta almashinuvi ishlov berish, shuningdek, foydalanuvchilarga pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etishni amalga oshiruvchi pochta aloqasi milliy operatorning tarkibiy bo'linmasi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti

ing. - International Standard Organization (ISO)

rus. - Международная организация по стандартизации

Ko'plab sohalarda, shu jumladan hisoblash texnikasi va aloqa sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiqish bilan shug'ullandigan, shtab kvartirasi Jenevada joylash-

gan ko'ngilli notijorat Xalqaro standartlash-tirish tashkiloti. 1946-yilda tuzilgan.

Xalqaro telefon stansiyasi

ing. - international exchange

rus. - международная станция телефонная
Xalqaro kanalning bir uchida joylashgan va boshqa mamlakatga yo'naltirilayotgan yoki boshqa mamlakatdan chiqayotgan ulanishlarni ta'minlaydigan stansiya.

Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi (XTI)

ing. - International

telecommunications union (ITU)

rus. - Международный союз

электросвязи (МСЭ)

Elektraloqasidan foydalanish va uni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot. XTI Jeneva (Shveysariya) da joylashgan bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan boshqariladi. XTI 1865-yilda yaratilib, 1932-yilgacha Xalqaro telegraf ittifoqi deb atalgan. XTI maqsadi barcha aloqa turlaridan mintaqaviy foydalanishda xalqaro hamkorlikni ta'minlash va kengaytirish, texnik vositalarini mukammallashtirish va ulardan samarali foydalanishdir. XTI, shuningdek, simsiz tarmoqlar uchun chastotalarni ro'yxatga olishga ham javobgardir.

Xalqaro yozma xat-xabarlar

ing. - international letter post

rus. - международная

письменная корреспонденция

O'zbekiston Respublikasi doirasidan tashqariga jo'natish uchun qabul qilinadigan va uning hududiga xorijiy davlatdan keladigan yoki tranzit tarzda o'tadigan yozma xat-xabarlar.

Xalqaro 3GPP2 guruhi

ing. - 3rd Generation Partnership

Project 2 (3GPP2)

rus. - международная группа 3GPP2

AQSh, Yaponiya va janubiy Koreya mamlakatlarining standartlashtirish institutlari tomonidan CDMA2000/1MT-MC standarti ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish maqsadida ITU doirasida tuzilgan xalqaro guruh.

Xarajatlar (foйда)ni tahlil qilish

ing. - costbenefit analysis

rus. - анализ затрат (выгоды)

Tizimni ishlab chiqish yoki ishlashidagi

bosqich bo'lib, bunda axborot tizimidagi ma'lumotlarning talab etiladigan darajada muhofaza qilinishini ta'minlash qiymati aniqlanadi. Ba'zida bu qiymat ostida, muhofaza qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning yo'qolishi yoki putur yetkazilishi (obro'sizlantirilishi) oqibatida yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar tushuniladi.

Xarakteristikali impedans

ing. - characteristic impedance

rus. - характеристический импеданс

Elektr jihatidan bir turdagi uzatish liniyasining yakunlovchi qarshiligi.

Xat

ing. - letter

rus. - письмо

O'lchamlari, og'irligi va o'rash tartibi Pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatish qoidalarida belgilangan, ichida yozma xabar, hujjatlar bo'lgan pochta, kuryerlik jo'natmasining turi.

Xato

ing. - error

rus. - ошибка

Dasturning normal bajarilmasligi oqibatida yuzaga keladigan holat. Asosan dastur kodidagi xatoliklar yoki foydalanuvchining noto'g'ri harakatlari oqibatida yuzaga keladi.

Xato bitlar intensivligi

ing. - bit error rate (BER)

rus. - интенсивность ошибочных битов

Ma'lumotlarni uzatishda olingan xato bitlarning paydo bo'lish foizi.

Xato bo'yicha uzilish

ing. - error interrupt

rus. - прерывание по ошибке

Xatoni qayta ishlash uchun, dasturning ap-parat yoki dasturiy uzilishi.

Xato to'g'risida xabar

ing. - error message, report bug

rus. - сообщение об ошибке

1. Operatsion tizim yoki dastur ishida yuz bergan xato to'g'risidagi ma'lumot bo'lib, uni yo'qotish uchun foydalanuvchining aralashuvi kerak bo'ladi.

2. Dasturda biror bir xatolik chiqa o'sha xatolik to'g'risida xabar berish. Odatda, xatolik kodi va qisqacha tavsifini (ayrim hollarda uni barataraf qilish bo'yicha tavsiyalarni) o'zida saqlaydi.

Xato ruxsat (tizimga kirish uchun)

ing. - false positive

rus. - ошибочный допуск (к системе)

Biometrik nazorat qilish (identifikatsiyalash) vositalari boshqa bir odamni ro'yxatga olingan foydalanuvchi deb qabul qiladigan va unga tizimdan erkin foydalanishga yanglishib ruxsat beradigan vaziyat.

Xato yacheyka

ing. - invalid cell

rus. - ошибочная ячейка

Xatolarni nazorat qilish jarayoni amalga oshirilgandan keyin sarlavhada xatolar aniqlangan yacheyka.

Xatolar bo'lganda tiklash

ing. - error recovery

rus. - восстановление при ошибках

Tizimning belgilangan holatini tiklash imkoniyatini beradigan, nosozlikni tuzatish yoki aylanib o'tish jarayoni.

Xatolar ehtimolligini baholash asbobi

ing. - bit error rate tester

rus. - прибор оценки вероятности ошибок

Test ketma-ketligini shakllantiradigan, uning uzatilishi, qabul qilinishi, qayta ishlanishini ta'minlaydigan, dekodlaydigan, uzatilgan va qabul qilingan ketma-ketliklarni taqqoslaydigan hamda xato qabul qilingan bitlar sonini hisoblaydigan qurilma. Asbobdan odatda telefon aloqa kanallari orqali ishlaydigan modemlar signallarini qabul qilish ishonchliligini baholashda foydalaniladi.

Xatolar koeffitsiyenti

ing. - error ratio

rus. - коэффициент ошибок

Xato qabul qilingan raqamli signal elementlari sonining berilgan vaqt intervali davomida uzatilgan elementlarning umumiy soniga nisbati.

Izoh - Elementlar razryadlar, kodli so'zlar yoki bloklar ni o'zida aks ettirishi mumkin.

Xatolardan notekis muhofazalanganlik

ing. - unequal error protection (UEP)

rus. - неравномерная защита от ошибок

Qurilma chiqishida ishlatiladigan, raqamli tovushli oqimni xatolardan himoyalash usuli, unda axborot qiymati yuqori bo'lgan belgilar yuqori darajadagi xalaqitdan himoyalanganlik bilan uzatiladi, qiymati pastroq belgilar esa, pastroq himoyalanganlik bilan yoki umuman kodlanmasdan uzatiladi.

Xatolarni aniqlaydigan kod

ing. - error detection code (EDC)

rus. - код с обнаружением ошибок

Uzatiladigan signalga kam sonli ortiqcha simvollarni kiritish hisobiga, xatolarni avtomatik ravishda aniqlovchi, FEC turidagi kodlar toifasi.

Xatolarni aniqlash

ing. - detection of errors

rus. - обнаружение ошибок

Xatolarni, tegishli koddan foydalanib, qabul qilingan signalda xato elementlarning mavjudligini aniqlash uchun, nazorat qilish usuli.

Xatolarni nazorat qilish,

xatolardan himoya

ing. - error control, error protection

rus. - контроль ошибок, защита от ошибок

Raqamli signalda yozish, qayta ishlash va uzatish jarayonida sodir bo'ladigan xatolarning ta'sirini kamaytirish uchun ishlatiladigan usullar.

Izoh - Xatolarni nazorat qilishda xatolarni aniqlash, xatolarni tuzatish va xatolarni alohida, yoki uyg'unlikda niqoblash usullaridan foydalanilishi mumkin.

Xatolarni niqoblash

(raqamli televideniya)

ing. - error concealment

(in digital television)

rus. - маскирование ошибок

(в цифровом телевидении)

Subyektiv effektlar aniqlangan, lekin tuzatilmagan xatolarning ta'siri tufayli kamayishi mumkin bo'lgan xatolarni nazorat qilish usuli.

Izoh - Xatolarni niqoblash xatolardan xoli sanoqlarning qo'shni qiymatlari interpolyatsiyasi yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xatolarni qayta ishlagich

ing. - error handler

rus. - обработчик ошибок

Dasturni bajarishda yuzaga keladigan muayyan xato vaziyatni qayta ishlash uchun avtomatik chaqiriladigan kod qismi (protsedura). Dasturda xatolarni qayta ishlagich bo'lmasa, tizim dasturiy ta'minotiga o'rnatilgan qayta ishlagichdan foydalaniladi. Apparatura, shuningdek, markaziy protsessor holati saqlanilishini va bu holat, xatolarni qayta ishlagichning ishi tuga-gandan so'ng tiklanishini amalga oshiradi.

ing. - error handling

rus. - обработка ошибок

Bajarish paytida xatolar aniqlanganda das-turning ishlashi, ogohlantirish va tugallash kabi standart harakatlardan iborat bo'lishi mumkin, biroq jiddiy ilovalar va tizim das-turlarida alohida e'tibor talab qilinadi.

Xatolarni topish va vizuallashtirish usuli

ing. - error detection and handling

rus. - метод обнаружения и визуализации ошибок

Raqamli eshittirish televideniyesining izchil transport ma'lumotlar oqimida televizion tasvirming o'tuvchi va uning ketidan keluvchi kadrning shakllanish jarayonida hisoblanadigan, ortiqcha siklik tekshiruv kodi-ning nazorat so'zlarini solishtirishdan iborat bo'lgan xatolarni diagnostika qilish usuli.

Xatolarni tovushli kodlash tizimi

ing. - beep codes

rus. - система звукового кодирования ошибок

Xatolar to'g'risida tovush signallari bilan xabar berish tizimi. Kompyuter ishga tushishi bilan ishlab ketadi va xatolik kodiga bog'liq ravishda turli signallar beradi. Qurilmalar muvaffaqiyatli tekshirilganda bitta qisqa signal chiqaradi.

Xatolarni tuzatish

ing. - error correction

rus. - исправление ошибок

Xatolarni tegishli koddan foydalanib, qabul qilingan signalda xato deb tan olingan elementlarning qismini tuzatish uchun, nazorat qilish usuli.

Xatolarni to'g'rilash kodi

ing. - error correction code (ECC)

rus. - код корректировки ошибок

Uzatiladigan signalga ortiqcha simvollarni kiritish hisobiga, xatolarni avtomatik ravishda tuzatuvchi, FEC turidagi kodlar toifasi.

Xatolik jiddiyligining kodi

ing. - severity level

rus. - код серьезности ошибки

Muayyan xatolikning dasturga ta'siri darajasini aniqlaydigan kod. Ular tizimning osilib qolishiga olib keluvchi - fayllar-ni buzuvchi va yo'qotuvchi; foydalanuv-

ohlagan operatsiyani bajarishiga yo'l qo'ymaydigan - funksional; lokallashtirish va kosmetik; trivial xatoliklarga bo'linadi. Joriy kod tester xatoliklarini o'zlashtiradi.

Xatoni qarshi yo'nalishda tarqatish

ing. - back-propagation

rus. - обратное распространение ошибки
Нейрон tarmoqni o'rganish usuli.

Xatcho'p

ing. - bookmark

rus. - закладка

Ma'lumotlar bazasidagi yozuv yoki satrni, dastur matmidagi satrni yoki matn redaktori faylidagi joyini noyob tarzda identifikatsiya qiluvchi marker.

Xavf omili

ing. - treat factor

rus. - фактор опасности

Axborotni texnik vositalar bilan qayta ish-lashda, uning xavfsizligi uchun tahdidlar paydo bo'lishini shartlovchi sabab.

Izoh - Yondosh elektromagnit nurlanishlar va to'g'ri-lashlar, axborotdan shtat texnik vositalari bilan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish, maxsus elektron o'ma-tuvchi qurilmalar; axborot resursiga bo'ladigan tashqi ta'sirlar texnik vositalar bilan qayta ishlanadigan ax-borot uchun asosiy xavf omillari hisoblanadi.

Xavfli bo'lmagan viruslar

ing. - harmless viruses

rus. - неопасные вирусы

Kompyuter ishiga xalaqit bermaydigan, le-kin bo'sh tezkor xotira va disklardagi xotira hajmini kamaytiradigan viruslar. Bunday viruslarning ta'siri, odatda, qandaydir grafik yoki tovush effektlarida namoyon bo'ladi.

Xavfli pochta, kuryerlik jo'natmalari

ing. - dangerous postal, courier items

rus. - опасные почтовые,

курьерские отправления

Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoida-larining 3-ilovasi 1-bandi «a» va «b» kichik bandlarida ko'rsatib o'tilgan predmetlar va moddalar yoki ularning belgilarini o'z ichi-ga olgan jo'natmalar.

Xavfli viruslar

ing. - harmful viruses

rus. - опасные вирусы

Kompyuter ishida turli buzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan viruslar.

Xavfsirash, vahimaga tushish,

gumonstrash

ing. - fear, uncertainty and doubt (FUD)

rus. - опасение, боязнь и неуверенность

Elektron pochtdan qabul qilingan abreviatura. IBM kompaniyasi menejerlariga, raqobatchilarning mahsulotlarini mijozlar bilan muhokama qilayotganda, mahsulotni yomonlamasdan, faqatgina FUD bilan kifoyalanish tavsiya etilgan.

Xavfsiz dasturiy ta'minot

ing. - security software

rus. - безопасное программное

обеспечение

Tizim yoki tarmoqda ma'lumotlarning xavfsiz qayta ishlanishini amalga oshiruvchi, tizim resurslaridan xavfsiz foydalanuvchi umumiy maqsadlardagi hamda amaliy dastur va vositalar.

Xavfsiz holat

ing. - secure state

rus. - состояние безопасное

Baholash obyektining xavfsizlik funksiyasi ma'lumotlari ziddiyatsiz bo'lgan va baholash obyektining xavfsizlik funksiyasi, xavfsizlikning funksional talablarini samarali bajarishda davom etadigan holat.

Xavfsiz kompyuter

ing. - safe computer

rus. - безопасный компьютер

Ishlash paytida odamlar salomatligiga xavf tug'dirmaydigan kompyuter. Asosiy zararli ta'siri elektron-nurli trubka bazasidagi monitor, kompyuter vujudga keltiradigan elektromagnit maydonlar ko'rsatadi. Kompyuterning zararli ta'sirini cheklash maqsadida, MPR I standarti (Shvetsiya) qabul qilingan.

Xavfsiz operatsion tizim

ing. - secure operating system.

rus. - безопасная операционная система

Tizim tomonidan nazorat qilinadigan ma'lumotlar va resurslar mazmuniga mos keladigan muhofaza darajasini ta'minlash maqsadida, apparat va dasturiy vositalarni samarali boshqaradigan operatsion tizim.

Xavfsiz rejim

ing. - safe mode

rus. - безопасный режим

Windows operatsion tizimidagi yuklash rejimlaridan biri, bunda faqat eng zarur

modullar va dasturlar yuklanadi, bu tizimni tiklash yoki boshqa profilaktika ishlarini o'tkazishga imkon beradi.

Xavfsiz ulanishlar protokoli

ing. - secure sockets layer

rus. - протокол безопасных соединений

Birgalikda ishlaydigan tomonlarni autentifikatsiya qilish va trafikni protokollar tutashtan tarmoqlarda, jumladan, Internetda shifrlash uchun belgilangan protokol.

Izoh - Odatda, ushbu protokoldan, xabarlar almashinish yaxlitligini, autentifikatsiya qilinishini, konfidensiallikni ta'minlagan holda, veb-serverlar va brauzerlar o'rtasida himoyalangan ulanishni tashkil qilish uchun foydalaniladi.

Xavfsiz vaqt

ing. - security time

rus. - безопасное время

Ma'lumotlardan foydalanishning mumkin bo'lgan variantlarini statistik sinash orqali muhofaza tizimining ochilish vaqtini matematik kutish.

Xavfsizlik

ing. - security

rus. - безопасность

1. Tizim yoki tarmoqning, axborotning muhofaza qilinishini, haqiqiylikni va ishonchli saqlanishini ta'minlash qobiliyati.
2. Obyektning tasodifiy va qasddan qilinadigan tahdidlar ta'siriga qarshi tura olish qobiliyati.

Xavfsizlik atributi

ing. - security attribute

rus. - атрибут безопасности

Subyektlar, foydalanuvchilar xarakteristikasi (shu jumladan tashqi axborot texnologiyalari mahsulotlari), obyektlar, axborotlar, seanslar va/yoki resurslar, funksional xavfsizlik talablari shakllanishida va funksional xavfsizlik talablarini amalga oshirishda foydalaniladigan qiymatlar.

Xavfsizlik audit

ing. - security audit

rus. - аудит безопасности

Tizimning boshqaruvchi funksiyalarini adekvatlikka tekshirish, qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga va operatsion protseduralarga muvofiqlikni ta'minlash, xavfsizlikning buzilishlarini aniqlash hamda boshqaruvda, xavfsizlik siyosatida va protseduralarda har qanday muayyan o'zgarishlar bo'yicha tav-

siyalar berish maqsadida, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimi yozuvlarini va uning ishini mustaqil ko'rib chiqish va tahlil qilish.

Xavfsizlik auditori

ing. - security auditor

rus. - аудитор безопасности

Xavfsizlikni tekshirishga oid ma'lumotlardan foydalanish va tekshiruv to'g'risida hisobotlar tuzish ruxsat etilgan shaxs yoki jarayon.

Xavfsizlik axboroti

ing. - security information

rus. - информация безопасности

Xavfsizlikni ta'minlash xizmatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot.

Xavfsizlik belgisi

ing. - security mark

rus. - метка безопасности

Resurs (ma'lumotlar bloki bo'lishi mumkin) bilan bog'langan, berilgan resurs xavfsizlik atributlarining nomini yoki belgilanishini aniqlaydigan markalash.

Xavfsizlik bo'yicha topshiriq

ing. - security target

rus. - задание по безопасности

1. Muayyan baholash obyektini baholash uchun asos sifatida foydalanishga mo'ljallangan, xavfsizlik talablari va spetsifikatsiyalar majmui.

2. Ayrim aniq belgilangan baholash objekti uchun amalga oshirilishiga bog'liq bo'lgan, xavfsizlik yuzasidan ehtiyojlar bayoni.

Xavfsizlik darajasi

ing. - security level

rus. - уровень безопасности

1. Obyektning shaxs foydalanish huquqi toifasiga sezgirligini ko'rsatadigan iyerarxik maxfiylik grifi va xavfsizlik toifasi majmui.

2. Axborotning kritiklik (sezgirlik) darajasini ko'rsatuvchi, noiyerarxik toifa va iyerarxik tasniflash (foydalana olish darajasi) birikmasi.

Xavfsizlik deskriptori

ing. - security descriptor

rus. - дескриптор безопасности

Xavfsizlik tizimi uchun axborotga ega bo'lgan obyekt atributi. Obyekt egasining xavfsizlik identifikatorini, erkin foydalanishni nazorat qilishning diskretion va tizimga oid ro'yxatlarini o'z ichiga oladi.

Xavfsizlik domeni

ing. - security domain

rus. - домен безопасности

1. Yagona xavfsizlik siyosatiga va yagona xavfsizlik ma'muriyatiga bo'ysunuvchi foydalanuvchilar, tizimlar yoki resurslar majmui.

2. Aktiv mantiqiy obyekt foydalana olish huquqiga ega resurslar majmui.

Xavfsizlik filtri

ing. - security filter

rus. - фильтр безопасности

Tizimda aylanuvchi ma'lumotlarning xavfsizlik siyosatini amalga oshiradigan ishonchli kompyuter tizimi.

Xavfsizlik funksiyasi siyosati

ing. - security function policy

rus. - политика функции безопасности

Baholash objekti xavfsizlik funksiyalari amalga oshiradigan aniq xavfsizlik rejimini tavsiflaydigan va funksional xavfsizlik talablari yig'indisi ko'rinishida ifodalangan qoidalarni majmui.

Xavfsizlik holati

ing. - security state

rus. - состояние безопасности

Ochiq tizimda saqlanadigan va xavfsizlik xizmatlarini taqdim etish uchun talab etiladigan, holat to'g'risidagi axborot.

Xavfsizlik identifikatori

ing. - security id

rus. - идентификатор безопасности

Xavfsizlik tizimi subyekting global noyob identifikatori. Hisobga olinadigan yozuvlarning xavfsizlik identifikatorlari va hamмага ma'lum xavfsizlik identifikatorlari farqlanadi.

Xavfsizlik jurnali

ing. - security log

rus. - журнал безопасности

Audit siyosatida ko'rsatilgan tizim xavfsizligi xabarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida saqlaydigan xabarlar jurnali.

Xavfsizlik konfiguratsiyasi

ing. - security configuration

rus. - конфигурация безопасности

Tanlangan xavfsizlik siyosatining parametrlarining majmui. Xavfsizlik konfiguratsiyasi fayllar shaklida (standart konfiguratsiyalar mavjud) saqlanib, ularni, xusu-

siy konfiguratsiyalarni yaratib turlash va kompyuterlarga tatbiq qilish mumkin.

Xavfsizlik maqsadi

ing. - security objective

rus. - цель безопасности

Belgilangan tahdidlarga qarshi tura olish va/ yoki tashkilotning belgilangan xavfsizlik siyosatini va/ yoki taxminlarni qanoatlantirishning ifodalangan maqsadi.

Xavfsizlik markazi

ing. - security center

rus. - центр безопасности

Operatsion tizimning barcha xavfsizlik bo'yicha moslamalari to'plangan tizimdagi joy. «Xavfsizlikni ta'minlash markazi» xavfsizlikni ta'minlovchi muhim moslamalar holatini kuzatib turish imkonini beradi.

Xavfsizlik markeri

ing. - security token

rus. - маркер безопасности

Telekommunikatsiyalar obyektlari o'rtasida uzatiladigan, ma'lumotlarni taqdim etishda foydalaniladigan xavfsizlik axboroti bilan birga, bitta yoki bir nechta xavfsizlik xizmati tomonidan muhofazalangan, ma'lumotlar to'plami.

Xavfsizlik ma'lumotlari almashinuvi

ing. - security exchange

rus. - обмен данными безопасности

Ochiq tizimlar o'rtasida boshqarish-protokol ilova ma'lumotlarini uzatish yoki uzatishlar ketma-ketligi. Bitta yoki bir nechta xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarining ishi hisoblanadi.

Xavfsizlik (muhofaza qilish)

administratori

ing. - security (safety) administrator

rus. - администратор

безопасности (защиты)

1. Tizim xavfsizligini ta'minlash, o'rnatilgan ma'muriy muhofaza choralarini amalga oshirish va ularga rioya qilinishining uzluksizligi uchun javobgar, qo'llaniladigan jismoniy va texnik muhofaza vositalari ishlashini tashkiliy jihatdan muntazam qo'llab-quvvatlashini amalga oshiruvchi vakolatli vakil (shaxs yoki shaxslar guruhi).

2. Telekommunikatsiyalar tarmog'i (tizimlari)ning axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilinishi yuzasidan javobgar, foydalanish subyekti.

3. Avtomatlashtirilgan tizimning axborotdan ruxsat etilmagan tarzda foydalanishdan muhofaza qilinishi uchun javobgar bo'lgan foydalana olish subyekti.

Xavfsizlik normasi

ing. - safety standard

rus. - норма безопасности

Xavfsizlik toifasiga bog'liq ravishda o'rnatiladigan, axborot xavfsizligi mezonining miqdor qiymati.

Xavfsizlik obyekti

ing. - security object

rus. - объект безопасности

Xavfsizlik siyosati qo'llaniladigan, tizimning passiv tashkil etuvchisi.

Xavfsizlik organi

ing. - security authority

rus. - орган безопасности

1. Xavfsizlik siyosatining belgilanishi, amalga oshirilishi va bajarilishi yuzasidan javobgar obyekt.
2. Xavfsizlik domenida xavfsizlik siyosatini boshqarish yuzasidan javobgar obyekt.
3. Xavfsizlik siyosati amalga oshirilishi yuzasidan javobgar administrator.

Xavfsizlik paketi

ing. - NTLM

rus. - пакет безопасности

Foydalanuvchilar va serverlar o'rtasidagi haqqoniylikni ta'minlab beradigan paket.

Xavfsizlik sertifikati

ing. - security certificate

rus. - сертификат безопасности

Xavfsizlik organi yoki ishonch qozongan uchinchi tomon bergan xavfsizlik bilan bog'liq ma'lumotlarning, ma'lumotlar manbaini autentifikatsiya qilish va ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlash uchun foydalaniladigan xavfsizlik axboroti bilan birgalikdagi, to'plami.

Xavfsizlik siyosati

ing. - security policy

rus. - политика безопасности

1. Kompyuter xavfsizligini ta'minlash uchun qabul qilingan harakatlar rejasini yoki dasturi.
2. Qonunlar, qoidalar va amaliy tizimiy-nomalar to'plami, unga asosan taqdimdagi muhofaza qilinayotgan axborotni boshqarish, muhofaza qilish va taqsimlash yo'lga qo'yiladi. U, turli vaziyatlarda tizim o'zini qanday tutishini belgilagan holda, axborotni

qayta ishlash jarayonining barcha xususiyatlarini qamrab oladi.

Xavfsizlik obyektlari va subyektlari berilgan ko'pligining xavfsizligini ta'minlash prosedura va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to'plami.

4. Tizimning ma'lum tahdidlardan muhofaza qilinishini ta'minlashda tayanish mumkin bo'lgan mezonlarning, ayniqsa, tezkor mezonlarning rasmiy belgilanishi.

5. Tashkilotda ahamiyatli axborotning qayta ishlanishini, muhofaza qilinishini va tarqatilishini tartibga soladigan qonunlar, normalar, qoidalar, amaliy tavsiyalar va usullar to'plami.

Xavfsizlik siyosatining formal modeli

ing. - formal security policy model

rus. - формальная модель политики безопасности

Tizim boshlang'ich holati tavsifini, tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish usullarini, shuningdek, xavfsiz holat aniqlanishini nazarda tutuvchi, xavfsizlik siyosatining qat'iy matematik tavsifi. Bella-Lapadula modeli rasmiy modelga misol bo'ladi.

Xavfsizlik siyosatining modeli

ing. - security policy model

rus. - модель политики безопасности

Tizim uchun ishlab chiqilgan xavfsizlik siyosatining rasmiy ko'rinishi. U ahamiyatli axborotning boshqarilishi, taqsimlanishi va muhofazasini belgilovchi talablarning rasmiy tavsifini o'z ichiga olishi lozim.

Xavfsizlik siyosatining qoidalari

ing. - security policy rules

rus. - правила политики безопасности

Tanlab olingan xavfsizlik xizmatlarini hisobga olgan holda, qo'llash uchun xavfsizlik mexanizmlarini, jumladan, ushbu mexanizmning ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha parametrlarni belgilaydigan mahalliy axborot.

Xavfsizlik skaneri

ing. - security scanner

rus. - сканер безопасности

Tarmoq xavfsizligini tahlil va avtomatlashtirilgan nazorat qilish, tarmoq birgalikda ishlash aktiv komponentlarini aniqlash va ularning zaif tomonlarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan dasturiy vosita.

Xavfsizlik subyekti

ing. - security subject

rus. - субъект безопасности

Xavfsizlik siyosati tatbiq qilinadigan aktiv tizim tashkil etuvchisi.

Xavfsizlik talabi

ing. - security requirement

rus. - требование безопасности

Standartlashtirilgan tilda ifodalangan, baholash obyektining xavfsizlikka erishish maqsadida, ko'maklashishga mo'ljallangan talab.

Xavfsizlik tizimidagi hisobga olish

ma'lumotlari administratori

ing. - security accounts manager

rus. - администратор учетных данных в системе защиты

Foydalanuvchilar ustunliklari, parollari va sh.k. darajalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, foydalanuvchilarning hisob yozuvlari bazasi yuritilishini ta'minlaydigan kichik tizim.

Xavfsizlik toifasi

ing. - security category

rus. - категория безопасности

Faqat iyerarxik maxfiylik grifini qo'llashdan ko'ra, juda aniq bo'lgan ma'lumotlardan erkin foydalanishni boshqarishda qo'llaniladigan nozik axborotni noiyerarxik guruhlash.

Xavfsizlik uzeli

ing. - security host

rus. - узел безопасности

Uzoqda joylashgan abonentga uzoqdagi server bilan bog'lanish huquqini, ro'yxatga olingan mijozlarga RAS serveridan xavfsiz foydalanishni ta'minlagan holda, tekshiradigan autentifikatsiya qurilmasi.

Xavfsizlik vazifasi

ing. - security problem

rus. - задача безопасности

Baholash obyektiga manzillash taxmin qilinadigan xavfsizlik harakatlari sohasi va xarakteri belgilanadigan formal izoh bayon. Izoqlar - Xavfsizlik vazifasi:

- baholash obyektini qarshi tura olishi lozim bo'lgan tahdidlarni;
- baholash obyektini tomonidan amalga oshiriladigan tashkilotning xavfsizlik siyosatini;
- baholash obyektidan foydalanish hamda ishlash muhitiga oid taxminlarni o'z ichiga oladi.

Xavfsizlik vositalarini boshqarish

ing. - security facilities administration

rus. - администрирование

средств безопасности

Xavfsizlik servislarning ishlashi uchun zarur bo'lgan axborotning tarqatilishini, shuningdek, ularning ishlashi to'g'risidagi axborotni to'plash va tahlil qilishni ichiga oladigan jarayon. Masalan, kriptografik kalitlarning tarqatilishi, foyalana olish huquqlarining o'rnatilishi, audit jumalining tahlili va sh.k.

Xavfsizlik xizmati

ing. - security service

rus. - услуга безопасности

Ochiq tizimlar o'zaro bog'liqligining qandaydir darajasi taqdim etadigan xizmat. Ma'lumotlar uzatish tizimlari yoki jarayonlarining yetarlicha muhofaza qilinishini kafolatlaydi.

Xavfsizlik xizmati administratori

ing. - security service administrator

rus. - администратор службы безопасности

Bitta yoki bir nechta xavfsizlikni ta'minlash tizimi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lgan, ularning loyihalashtirilishini va ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi shaxs (yoki shaxslar guruhi).

Xavfsizlik yadrosi

ing. - security kernel

rus. - ядро безопасности

Ishonchli hisoblash bazasining, havolalar monitori konsepsiyasini amalga oshiradigan dasturiy va apparat elementlari. Ular subyektlarning obyektlardan erkin foydalanishga bo'lgan barcha urinishlarini ajratishi, o'zgartirishlardan muhofazalangan bo'lishi va o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish yuzasidan tekshirilishi kerak.

Xavfsizlik zonasi

ing. - security zone

rus. - зона безопасности

1. Axborot muhofaza qilinishining talab etiladigan darajasi ta'minlanadigan makon.

2. Internet-serverlar guruhi uchun xavfsizlik sozlanishlari o'rnatilishiga imkon beruvchi Microsoft kompaniyasining Microsoft Internet Explorer brauzerida belgilangan mexanizm.

Izoh. Zonalarning har biri uchun shu server uchun yo'l qo'yiladigan, mumkin bo'lgan harakatlarni belgilovchi

xavfsizlikning turli darajalarini qo'llash mumkin (Java-appletlarini, ActiveX boshqaruvchi elementlarini ishga tushirish, SSL protokoli bo'yicha muhofazalangan ulanishni o'rnatish va sh.k.).

Xavfsizlikka tahdid

ing. - security threat

rus. - угроза безопасности

Axborotning buzib ko'rsatilishi va yo'qolish xavfi bo'lishida ko'rinadigan, mulkdorga yoki foydalanuvchiga zarar yetkazadigan, muhofaza obyektiga (axborot resurslariga) qarshi yo'naltirilgan qandaydir harakatni amalga oshirishning mumkin bo'lgan (potensial yoki real mavjud) xavfi.

Xavfsizlikni baholash

ing. - security evaluation

rus. - оценка безопасности

Tizimni, belgilangan muhofaza modeliga, muhofaza qilishni ta'minlash standarti va texnik shartlarga mos kelish darajasini aniqlash maqsadida tekshirish.

Xavfsizlikni boshqarish

ing. - security control

rus. - управление безопасностью

Tarmoq resurslaridan erkin foydalanishni boshqarish va nazorat qilish xizmati. Tashqi hujumlardan muhofaza qilish mexanizmi ishga tushirilishini amalga oshiradi va ma'lumotlarning, ularni saqlash va tarmoq orqali uzatishda yaxlitligini tekshiradi.

Xavfsizlikni ta'minlash rejimi

ing. - security ensuring mode

rus. - режим обеспечения безопасности

Hamma foydalanuvchilar barcha foydalanish toifalarining tavsifi. U tizimda saqlanadigan va qayta ishlanadigan, axborot muhofazasiga oid barcha toifalar bilan bog'liq holda beriladi.

Xavfsizlikni ta'minlash

sohasidagi standart

ing. - security implementation standard

rus. - стандарт в области

обеспечения безопасности

Xavfsizlikni ta'minlash usullarini belgilab beradigan rasmiy qabul qilingan hujjat.

Xavfsizlikni tekshirish

ing. - security inspection

rus. - проверка безопасности

Tizimni nazorat qilish vositalarining yetarlicligini, qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga

va ma'lumotlarni qayta ishlash protseduralariga mosligini, xavfsizlik buzilishlarini aniqlash, nazorat vositalari va xavfsizlik protseduralarini o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, tizim jurnallarini mustaqil ko'rib chiqish, o'rganish va ishlashi ustidan kuzatish olib borish.

Xavfsizlikni tekshirish ma'lumotlari

ing. - security audit trail

rus. - данные проверки безопасности

Xavfsizlikni tekshirishga ko'maklashish maqsadida to'plangan va foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar

Xemming kodi

ing. - Hamming code

rus. - код Хемминга

Yakka xatolarning tuzatilishini ta'minlovchi minimal ortiqchalikka ega kod.

Xendover

ing. - handover

rus. - хэндовер

1. So'zlashayotgan (yoki ma'lumot uzatayotgan) mobil foydalanuvchi yacheykadan yacheykaga ko'chayotganda, boshqaruvning bir tayanch stansiyadan boshqasiga uzatilishi.

2. Tayanch stansiyalar o'rtasida bog'lanish (aloqa) jarayonida abonent stansiyasining boshqaruvni bir tayanch stansiyadan boshqasiga uzatishi.

Xendover hisobiga yutish

ing. - handover gain

rus. - выигрыш за счет хэндовера

Xendover samaradorligining ko'rsatgichi; son jihatdan muvaffaqiyatli o'tishlar sonining, o'tishga bo'lgan barcha urinishlar soniga nisbati sifatida

Xendover uchastkasi

ing. - handover leg

rus. - участок хэндовера

Mobil abonent bir tayanch stansiyadan boshqasiga o'tishi mumkin bo'lgan yo'nalishlardan biri.

Xesh-funksiya (xeshlash funksiyasi)

ing. - hash-function

rus. - хэш-функция (функция

хэширования)

1. Bitlar satrini belgilangan uzunlikdagi bitlar satriga aylantirish funksiyasi.

2. Ixtiyoriy o'lchamdagi ma'lumotlar massivini matematik almashirish va uning uchun uncha uzun bo'lmagan belgilangan yagona ketma-ketlikni hisoblash.

Xeshlash

ing. - hashing

rus. - хэширование

1. Xesh-funksiya qiymatlarini hisoblash jarayoni.

2. Ba'zi bir matn bo'laklarida dastlabki massivning o'mini bosishga xizmat qiluvchi ixtiyoriy o'lchamdagi ma'lumotlar massivini belgilangan o'lchamdagi ma'lumotlar blokiga almashtirish.

Xeshlash vositalari

ing. - hashing facilities

rus. - средства хэширования

Elektron hujjat nazorat tavsifi qiymatining hisob-kitobini ta'minlaydigan va muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan dasturiy-texnik vositalar.

Xeshreyt

ing. - hashrate

rus. - хэшрейт

Bitkoyn tarmog'idagi hisoblash quvvatining o'lchov birligi.

Xit, mos kelish

ing. - xit

rus. - хит, совпадение

1. Sahifani qayta yuklash mustasno qilinganda, foydalanuvchining veb-sahifaga murojaat qilishi.

2. Fayl ichidagini tiklashda va profilaktik tekshirishda – asosiy yozish va joriy yozish o'rtasida muvofiqlikni topish.

Xizmat biti

ing. - overhead bit

rus. - служебный бит

Foydali axborotni o'z ichiga olmagan hamda uni bir abonent terminalidan boshqasiga tashishda yordamchi ma'lumotlar (masalan, sarlavha, xatolarni aniqlash bitlari va boshqalar) ni uzatish uchun mo'ljallangan ikkilik raqamli signal.

Xizmat kanali

ing. - engineering circuit

rus. - служебный канал

Texnik xarakteristikalarini, texnik xizmat

ko'rsatilishini tekshirish yoki xizmatga oid axborotni almashish uchun foydalaniladigan tovush yoki ma'lumotlarni uzatish kanali. Yo'ldoshli aloqa liniyalarida bunday kanalerdagi stantsiyalar va boshqarish markazlari o'rtasida tashkil qilinadi.

Xizmat ko'rsatilgan telefon trafik

ing. - carried telephone traffic
rus. - обслуженная телефонная нагрузка
Telefon tarmog'i liniyalari, kanallari yoki kommutatsion aloqa asboblarning qarab chiqiladigan vaqt intervali ichida telefon chaqiruvlar bilan band bo'lishining jami vaqti.

Xizmat ko'rsatilgan telefon chaqiruv

ing. - carried telephone call
rus. - обслуженный телефонный вызов
Bog'lanish o'rnatilganda, liniyalar (kanallar) bog'lami, kommutatsion aloqa asboblari va boshqaruvchi qurilmalar taqdim etilgan telefon chaqiruv.

Xizmat ko'rsatish darajasi to'g'risidagi kelishuv

ing. - service level agreement
rus. - соглашение об уровне обслуживания
Buyurtmachi va yetkazib beruvchi o'rtasidagi, xizmatlar hujjatlashtirilgan va xizmatlarning darajalari kelishib olingan yozma kelishuv.

Xizmat ko'rsatish platformasi

ing. - service platform (SP)
rus. - платформа обслуживания
Foydalanuvchilarga foydalanish va KAT bilan tarmoq orqali aloqa o'rnatish tizimining oxirgi qurilmalar (ya'ni, oxirgi (terminal) uskuna: shaxsiy kompyuter, telefon apparati, mobil telefon va h.k.lar) va xizmat ilovalarida qo'llaniladigan server (ya'ni, server ilova, uzatish muhiti serveri va h.k.lar.) ni tasvirlashda qo'llash imkonini beradigan uskuna.

Xizmat ko'rsatish turkumi

ing. - class of service (CoS)
rus. - класс обслуживания
Foydalanuvchiga taqdim etiladigan xizmatlar turini tavsiflaydigan ko'rsatgich.
Izoh - Xizmat ko'rsatish turkumiga ajratiladigan uchta asosiy belgi: axborotni uzatish tezligi, yetkazish tezligi (ustuvorlik) va bog'lanish rejimi (kanallar yoki paketlar kommutatsiyasi, sinxron yoki asinxron) mavjud.

Xizmat ko'rsatish yoyi

ing. - arc of service
rus. - дуга обслуживания
Geostatsionar yo'ldoshlar orbitasining yoyi, uning chegarasida kosmik stansiya xizmat ko'rsatish zonasida mavjud bo'lgan, shu kosmik stansiya bilan bog'liq bo'lgan barcha Yer stantsiyalari uchun talab qilinadigan xizmatni ta'minlashi mumkin.

Xizmat ko'rsatish zonasi

ing. - service area
rus. - зона обслуживания
1. To'g'ri va teskari yo'nalishlarda abonent hamda tayanch stansiyalardan keladigan radiosignallarning ishonchli qabul qilinishi kafolatlanadigan geografik zona.
2. Yer sirtidagi, Yer usti stansiyalardan yoki yo'ldosh retranslyatorlaridan signallar barqaror qabul qilinishi ta'minlanadigan va talab qilinadigan aloqa sifati kafolatlanadigan soha.

Xizmat ko'rsatishdagi

taqsimlangan rad javobi
ing. - distributed denial of service (DDoS)
rus. - распределенный отказ в обслуживании

Saytga kompyuter hujumi turi. Saytga turli kompyuterlardan katta oqim bilan murojaat qilinishi natijasida aloqa kanali yoki server dasturiy ta'minotining ishdan chiqishi. Birinchi DDoS hujumlari to'liqini 2000-yilning fevralida kuzatilgan edi.

Xizmat ko'rsatishni rad etish

ing. - denial of service (DoS)
rus. - отказ в обслуживании
Serverga tizim tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan ko'plab talablar kelib tushishidan iborat Internet tarmog'iga hujum turi. Server o'z resurslarini ulanishni o'rnatishga va unga xizmat ko'rsatishga sarflaydi va so'rovlarning ma'lum oqimida ularni uddalay olmaydi.

«Xizmat ko'rsatishni rad etish»

turidagi hujum
ing. - denial of service attack
rus. - атака типа «отказ в обслуживании»
Qonuniy foydalanuvchilar tizim yoki uskuna yordamida taqdim etiladigan resurslardan foydalana olmasligi mumkin bo'lgan yoki ularga foydalana olishda qiyinchilik

tug'diradigan sharoitlarni yaratish maqsadida axborot tizimiga yoki uskunaga qasd-dan ta'sir etish.

Xizmat sifati

ing. - quality of service (QoS)

rus. - качество услуги

Foydalanuvchining taqdim etiladigan xizmatlardan qoniqqanlik darajasining kompleks xarakteristikasi. Xizmatlar sifati barcha xizmatlarga qo'llasa bo'ladigan quyidagi xarakteristikalar bilan ifodalanadi: operabelligi; xizmatdan foydalana olishlik; xizmatning ishonchliligi; xizmatning yaxlitligi; har bir xizmat uchun spetsifik bo'lgan boshqa omillar.

Xizmat siri

ing. - official secret

rus. - служебная тайна

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi mamlakat qiziqishlariga oshkor etilishi zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Xizmat siri harbiy sir va davlat siri bilan bir qatorda davlat sirlari turlarining biri hisoblanadi.

Xizmat taqdim etiladigan zona

ing. - service providing zone

rus. - зона предоставления услуги

Xizmat ko'rsatilishi aloqa operatori tomondan kafolatlanadigan hududiy zona (mobil aloqa qurilmasi aloqa ta'sir zonasi bilan mos kelmasligi mumkin).

Xizmatga bo'lgan sifat standarti

ing. - standard of quality of service

rus. - стандарт качества на услугу

Xizmatning vazifasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida, xizmat qanoatlantirishi kerak bo'lgan talablarni belgilaydigan standart.

Xizmatga buyurtma (berish)

ing. - order of service

rus. - заказ на услугу

Iste'molchi va xizmatni taqdim etuvchi o'rtasidagi shartnoma, tomonlarning yuridik, iqtisodiy va texnik munosabatlarini belgilaydi.

Xizmatga oid hisobga olish ma'lumotlari

ing. - service credent

rus. - служебные учетные данные

Hisobga olish predmetlariga taalluqli bo'l-

magan va faqat hisobga olishni yuritish funksiyalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq holda to'planadigan, qayta ishlanadigan va saqlanadigan ma'lumotlar.

Xizmatga oid pochta jo'natmasi

ing. - service postal matter

rus. - служебное почтовое отправление

Umumjahon pochta ittifoqi a'zo mamlakatlari va ularning muassasalari, pochta aloqasining milliy operatori (pochta aloqasining hududiy (viloyat) tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari) tomonidan pochta yig'implarini undirmasdan jo'natiladigan pochta jo'natmasi.

Xizmatga oid so'z

ing. - unique word

rus. - служебное слово

Dasturlash tillarida yoki boshqa tizimlarda maxsus qiymatga ega bo'lgan so'z. Xizmatga oid so'zdan belgilanmagan maqsadda foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Xizmatlar iste'molchisi

ing. - service consumer

rus. - потребитель услуг

Xizmat ko'rsatadigan shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida Internet tarmog'i kanallari orqali nomidan yoki nomiga ma'lumotlar uzatiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Xizmatlar provayderi

ing. - service provider

rus. - провайдер услуг

1. Foydalanuvchilarga operatorlar tarmog'i orqali tijoriy asosda xizmatlar ko'rsatadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

2. Axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatadigan va o'zining telekommunikatsiyalar infratuzilmasiga ega bo'lmagan yuridik shaxs.

Xizmatlar sifatini nazorat qilish metodikasi

ing. - method of control quality of service

rus. - методика контроля качества услуг

Sifat ko'rsatgichlarini aniqlash va aloqa tarmog'ida ta'minlanadigan sifat ko'rsatgichlari qiymatlarining o'rnatilgan talablarga mos kelishini tekshirish operatsiyalari va qoidalarining belgilangan majmui.

Xizmatlar to'g'risidagi

ing. - information about services

rus. - информация о службах

Qabul qilgichlarni sozlash uchun zarur bo'lgan eshittirish oqimlari, dasturlari va boshqa parametrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadvallarning majmui.

Xizmatlardan foydalanish qulayligi

ing. - service accessibility

rus. - доступность услуг

Xizmat ko'rsatishning qulayligi va abonentlarga telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etilishining tezkorligini tavsiflovchi ko'rsatgich.

Xizmatlari integratsiyalashgan

raqamli tarmoq

ing. - integrated services

digital network (ISDN)

rus. - цифровая сеть интеграцией услуг
Kommutatsiyalanadigan telefon liniyasi bo'ylab o'tadigan raqamli aloqa xalqaro standarti, kompyuter va multimedia (ovoz, video) trafikini uzatishda foydalaniladi. Odatda, foydalanuvchining ISDN liniyasi ikkita 64 kbit/s tezlikli kanal orqali ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydi, 16 kbit/s tezlikli kanaldan boshqaruvchi axborotni uzatish uchun foydalaniladi. Lokal tarmoqlar ISDN kanalga marshrutizator orqali, alohida foydalanuvchilar esa, ISDN modem orqali ulanadi. Tashkilotlar uchun, 23x64 kbit/s ISDN kanalni - boshqaruvchi kanalni ulash imkoniyati mavjud.

Xizmatlarni boshqarish uzeli

ing. - service control point

rus. - узел управления услугами

Intellektual tarmoqda xizmatlarni boshqarish funksiyalari bajarilishini ta'minlaydigan fizik qurilma.

Xizmatlarni oluvchi

ing. - recipient of services

rus. - получатель услуг

Professional ehtiyojlar yoki boshqa ehtiyojlar uchun axborot xizmatlaridan, ayniqsa, axborotni izlash yoki undan foydalanish maqsadida foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Izoh - Xizmatlarni oluvchi iste'molchi bisoblanadi, agar u ushbu shaxsning savdosi, biznesi yoki kasbi bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarda ish ko'rayotgan jismoniy shaxs bo'lsa.

Xizmatlarni taqdim etuvchi

ing. - service provider (SP)

rus. - поставщик услуг

Foydalanuvchilarga o'z telekommunikatsiyalar tarmog'idan erkin foydalanishni taqdim etuvchi telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatori.

Xizmatlarning maxsus turlari

ing. - special kinds of services

rus. - специальные виды услуг

Manfaatdor Ma'muriyatlar o'rtasida kelishuv bo'yicha xalqaro telefon aloqadan foydalanuvchiga taqdim etiladigan xizmatlar.

Izoh - Maxsus xizmatlarga quyidagi xizmat turlari kiradi:

- a) shaxsiy so'zlashuvlar;
- b) ma'lumotlar uzatish;
- c) chaqirilayotgan shaxs hisobidan so'zlashuvlar;
- d) kredit kartochka bo'yicha so'zlashuvlar;
- e) konferens-aloqa;
- f) mamlakat bilan to'g'ridan-to'g'ri so'zlashuv (boshqa mamlakat operatorini to'g'ridan-to'g'ri chaqirish) va h.k.

Xizmatni bajaruvchi

ing. - performer of service

rus. - исполнитель услуги

Iste'molchiga xizmat ko'rsatadigan korxonalar, tashkilot yoki tadbirkor.

Xodimlarni boshqarish

ing. - human resources management

rus. - управление персоналом

Tashkilotni, o'ziga yuklatilgan mehnat vazifalarini bajarishga qodir sifatli xodimlar bilan ta'minlashga va undan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat va bilimlar sohasi. Xodimlarni boshqarish, tashkilotni boshqarish sifatli tizimlarining ajralmas qismidir.

Xomaki bosma

ing. - draft mode

rus. - черновая печать

Matritsali va boshqa turdagi printerlarning tez, lekin past sifatli bosib chiqarish rejimi.

Xost

ing. - host

rus. - хост

1. Tarmoq mashinasi.
2. Asosiy kompyuter.
3. Tarmoq funksiyalaridan (tarmoqqa xizmat ko'rsatish, xabarlarini uzatish) tashqari, foydalanuvchi topshiriqlari (dasturlar, hisob-

kitoblar)ni ham bajaradigan tarmoq kompyuteri.

4. Tarmoqda nafaqat ma'lumotlar uzatish funksiyalarini, balki amaliy dasturlarning ishi bilan bog'liq boshqa ba'zi bir funksiyalarni ham bajaradigan, o'zining axborot va hisoblash resurslarini terminallarga taqdim etadigan kompyuter.

Xost nomi

ing. - hostname

rus. - имя хоста

1. Kompyuter tarmog'idagi asosiy mashinaning nomi.

2. Asosiy va tobe kompyuterlar bo'lgan tarmoqdagi asosiy uzelnig nomi. Kompyuterning tarmoqdagi, xost boshqa bir kompyuter orqali topish uchun foydalaniladigan nomi.

Xosting

ing. - hosting

rus. - хостинг

Ma'lumotlar bazasi va veb-ilovalarni joylashtirish uchun xosting-provayderlar tomonidan taqdim etiladigan xizmat.

Xosting Internet-xizmatlari

ing. - hosting Internet-service

rus. - Интернет-услуги хостинга

Internet provayderining Internetdan foydalanuvchilarga xizmat iste'molchisining axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish bo'yicha harakati yoki faoliyati.

Xosting xizmatlari provayderi

ing. - hosting service provider

rus. - провайдер услуг хостинга

Boshqa yuridik shaxslarning veb-uzellari uchun Internetga muntazam kirishni ta'minlash, kuzatib borish va o'zida joylashtirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs.

Xot-spot

ing. - hot-spot

rus. - хот-спот

Umumfoydalaniladigan simsiz lokal tarmoq tashkil qilingan joy. «Qaynoq nuqtalar» aeroportlar, mehmonxonalar, syezdlar saroyi va kafelar kabi kompyuter qurilmalari bo'lgan, odamlar gavjum zonalarda joylashtiriladi. 802.11 turkum standartlari (masalan, mobil yoki cho'ntak shaxsiy kompyuterlari) simsiz aloqa qo'llanilgan qurilmalar, foydalanuvchilarga Internetdan, shuningdek, provayderning maxsus xizmatlaridan foydalana olish imkonini beradi.

Xot-spot operatori

ing. - hotspot operator (HSO)

rus. - оператор хот-спот

Kafe, vokzallar va aeroportlarda tijorat xot-spotlari o'rnatgan va ularga xizmat ko'rsatuvchi kompaniya.

Izoh - Wi-Fi kompaniyalarning tarixan turli tumanligi sababli, xot-spot operatorlar Quantum kabi agregatorlar orqali rouming munosabatlariga kirishib, HSO bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qilishga intilmoqda. Bu barcha Wi-Fi tarmoqlari o'rnatilgan rouming va xizmatlarga qo'shimcha talabni ta'minlaydi.

Xotira

ing. - memory

rus. - память

Kompyuterning, ma'lumotlarning saqlanishi va uzatilishini ta'minlaydigan funksional qismi.

Xotira ajratish birligi (bloki)

ing. - allocation unit

rus. - единица (блок) выделения памяти

Faylga ajratiladigan diskli xotira birligi.

Xotira dampi

ing. - memory dump

rus. - дамп памяти

Tezkor xotiradagi ma'lumotlarni qattiq diskka yozish. Tizim ishida buzilish ro'y berganda, avtomatik tarzda yoki tizim foydalanuvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Xotira elementi

ing. - remembering element

rus. - запоминающий элемент

«0» yoki «1» ko'rinishdagi ikki holatdan birini qabul qilishi va saqlashi mumkin bo'lgan raqamli qurilma.

Xotira hajmi

ing. - memory capacity

rus. - объем памяти

Xotirada saqlanishi mumkin bo'lgan axborotning maksimal miqdori.

Xotira kartasi

ing. - storage map

rus. - карта памяти

Tezkor yoki doimiy xotiraning taqsimlanish sxemasi.

Xotira kassetasi

ing. - memory cartridge

rus. - кассета памяти

Ixtiyoriy foydalana olinadigan, energiyaga

bog'liq bo'lmagan xotira mikrosxemalarini ichiga oladigan, almashtiriladigan modul.

Xotira manzili

ing. - memory address

rus. - адрес памяти

Qurilma uchun ajratiladigan yoki dastur yo operatsion tizim tomonidan ishlatiladigan kompyuter xotirasining bir qismi.

Izoh - Qurilmaga odatda manzillar diapazoni ajratiladi.

Xotira qulfi

ing. - memory lock

rus. - замок памяти

Xotiraning muhofaza tizimi tomonidan foydalanishni cheklash uchun ishlatiladigan, segment deskriptoridagi kod yoki virtual xotira sahifasi kodi. Bunda segmentga o'z deskriptorida tegishli kalitga ega bo'lgan jarayonlarga murojaat qila oladi.

Xotira qurilmasi

ing. - data storage device

rus. - запоминающее устройство

Ma'lumotlarni yozish, saqlash va berish uchun mo'ljallangan funksional qurilma. Xotira qurilmalarini ko'plab parametrlar bo'yicha tasniflash mumkin. Ma'lumotlarni uzoq muddatli va tezkor saqlash, energiyaga bog'liq bo'lmagan va energiyaga bog'liq; faqat ma'lumotlarni o'qish (doimiy xotira qurilmasi, kompakt-disklar) va ham o'qish, ham yozish uchun mo'ljallangan qurilmalar farqlanadi. Ma'lumotlarni saqlashning fizik prinsiplariga bog'liq ravishda, magnit, magnitoptik va yarimo'tkazgichli qurilmalar farqlanadi. Xotira qurilmasining asosiy texnik xarakteristikalarini ularning sig'imi va tez ishlashidir. Xotira qurilmasi ko'pincha xotira deb ataladi.

Xotira tizimi

ing. - memory system

rus. - система памяти

Ma'lumotlarni saqlash tizimi.

Xotira yacheykasi

ing. - storage cell

rus. - ячейка памяти

Tezkor yoki doimiy xotiraning eng kam manzillanadigan qismi.

Xotirada aks etadigan fayl

ing. - memory-mapped file

rus. - файл, отображаемый в память

Bloklari sahifalar jadvali orqali asosiy xotirada aks etgan fayl.

Xotiradan bevosita

foydalanish kontrolleri

ing. - DMA Controller (DMAC)

rus. - контроллер прямого доступа памяти
Xotiradan bevosita foydalanish imkonini beradigan ixtisoslashgan kontroller, shuningdek, xotiradan bevosita foydalanish rejimi zarur bo'lgan kiritish-chiqarish qurilmalari tarkibiga ham kiritish mumkin. Protssessor kontrollerga manzil, qayerdan ma'lumotlarni olish, ularni qayerga joylashtirish va blok uzunligi to'g'risida xabar beradi.

Xotiradan diskka va diskdan xotiraga

ing. - swapping

rus. - откатка и подкатка

Diskdan xotiraga vazifalarni yuklash va ularni xotiradan diskka yuklash.

Xotiradan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish

ing. - direct memory access

rus. - прямой доступ к памяти

Protssessoridan foydalanmasdan (uni chetlab o'tib) umumiy shina bo'yicha tezkor xotira qurilmasi va periferik qurilmalarga (masalan, qattiq diskka) ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatish usuli. Bu vaqtda protssessor barcha shinalardan uziladi.

Xotiraga ega yashirin kanal

ing. - covert storage channel

rus. - скрытый канал с памятью

Xotira maydoniga bir jarayon tomonidan bevosita yoki bilvosita yozishni va bu axborotning boshqa jarayon tomonidan o'qilishini ta'minlovchi yashirin kanal.

Ilova - Yashirin kanal xavfsizlik darajasi turlicha bo'lgan ikkita subyekt bilan ajratiladigan cheklangan hajmdagi resurslardan (masalan, diskdagi sektorlardan) foydalanish bilan bog'liq.

Xotiraga kira olishni blokirovkalash

ing. - memory lockout

rus. - блокировка доступа к памяти

Xotiraning cheklangan uchashtkasiga, masalan, disk yo'lkasiga, bu uchashtkada aniqlangan nuqsonlar oqibatida kira olishning taqiqlanishi. Dasturiy yoki apparat vositalar tomonidan bajariladi.

Xotiraga yozishni blokirovkalash

ing. - memory write lockout

rus. - блокировка записи в память

Ma lumotlar almashinishda vujudga keladigan vaziyat. Tashqi eltuvchidan o'qiladigan yozuv asosiy xotiraga ko'chirilmasligi bilan tavsiflanadi.

Xotirali kartalar

ing. - memory card

rus. - карты с памятью

Xotira qurilmasi sifatida xotira mikrosxemasiga ega bo'lgan, oddiy mikroprotessorli kartalar.

Izoh - Magnit chiziq kartaning orqa tomonida joylashadi va uchta yo'l kadan iborat.

Xotirali kommutatsiyalash

ing. - store-and-forward

rus. - коммутация с запоминанием

Kommutatsiyalash usuli. Bunda qayta uzatish tizimi tomonidan ma'lumotlar bo'lagi ichidagi narsa to'la qabul qilingandan so'ng uzatiladi. Kommutatsiyalash xotiraga olish mumtoz texnologiyalardan bo'lib, u paketlar kommutatsiya va xabarlar kommutatsiyasida ishlatiladi. Uning mohiyati shundaki, qayta uzatish tizimi qabul qilgan paketdan yoki xabardan sarlavha, oxirgi qism va undagi uzatilayotgan axborot chiqarib olinadi. So'ngra, xatolarni «davriy ortiqchilik bilan nazorat» CRC (q: CRC) yordamida tekshiriladi. Ko'rilayotgan kommutatsiyalash oddiy, lekin qayta uzatish tizimida yuz beradigan operatsiyalar kechikib amalga oshadi. Shu sababdan u tezkor tarmoqlarda to'g'ri boradigan kommutatsiyalash bilan almashtiriladi.

Xotirani avtomatik boshqarish

ing. - automatic storage management

rus. - автоматическое

управление памятью

Xotirani taqsimlash algoritmi, bunda quyi sathning bajaruvchi (boshqaruvchi) tizimi xotiraning foydalanish imkoniyati bo'lmagan bloklarini (binobarin, keraksizlarini) topish va ulardan takror foydalanilishiga javob beradi.

Xotirani boshqarish bloki

ing. - memory control block

rus. - блок управления памятью

Axborotni yozish va o'qish jarayonlarini boshqarish uchun mo'ljallangan elektron qurilma.

Xotirani boshqarish qurilmasi

ing. - memory management unit (MMU)

rus. - устройство управления памятью
Virtual xotira ishini boshqaruvchi dasturiy-apparat vositalari.

Xotirani dinamik taqsimlash

ing. - dynamic memory allocation

rus. - динамическое

распределение памяти

Xotirani taqsimlash usuli, bunda dasturlar va ma'lumotlarning joylashgan o'rni, zarur paytda beriladigan mezonlar bo'yicha belgilanadi.

Xotirani fragmentlash

ing. - storage fragmentation

rus. - фрагментация памяти

Bo'sh xotirani, operatsion tizimdan bo'sh va talab qilinadigan xotira uchastkalari mos kelmasligi natijasidagi so'rovlar vaqtida mayda qo'shni bo'lmagan uchastkalarga bo'lish.

Xotirani muhofaza qilish

ing. - memory protection

rus. - защита памяти

1. Ishlab chiqilgan murojaatlarni hisobga olgan holda, xotiraning qandaydir qismiga kira olishni mexanik nazorat qilish.

2. Yozilgan ma'lumotlarning doimiyligini saqlash maqsadida, xotiraning ba'zi bir qismlariga ruxsat etilmagan tarzda kirishning oldini olish vositalari hamda usullari.

Xotirani muhofaza qilish kaliti

ing. - protection key

rus. - ключ защиты памяти

Dastur uchun ajratilgan xotira blokiga berilgan va muhofaza qilish maqsadida dastur xotiraga murojaat qilishi uchun ishlatiladigan kod. Muhofaza kaliti bilan mos kelishi kerak; mos kelmaganda topshiriq avariya bilan tugaydi.

Xotirani muhofaza qilish registrlari

ing. - base-bound registers

rus. - регистры защиты памяти

Virtual xotirali tizimlarda - topshiriq uchun mumkin bo'lgan xotira segmenti boshlanish manzili va uzunligini ko'rsatadigan bir juft registr.

Xotirani qisman buzib yozish usuli

ing. - corruptable store method

rus. - метод записи с частичным

разрушением памяти

Xotiraning qisman buzilish jarayonini bosh-

qarish yo'li bilan, uning kristall noyob shakli- ni yaratishga imkon beruvchi usul.

Xotirani sahifali tashkil qilish
ing. - paging

rus. - страничная организация памяти
Xotirani boshqarish strategiyasi, bunda mantiqiy va jismoniy xotira bir xil uzunlik- dagi sahifalarga bo'linadi va asosiy xotirada mantiqiy sahifalarning obrazi ixtiyoriy tarz- da joylashtirilishi mumkin.

Xotirani segmentli manzillash

ing. - segmented memory addressing
rus. - сегментная адресация памяти
Manzil maydoni alohida segmentlarga bo'lingan xotira.

Xotirani segmentli tashkil qilish

ing. - segmental store organization
rus. - сегментная организация памяти
Xotirani taqsimlashning foydalanuvchi talqiniga, ya'ni dastur va ma'lumotlarning mantiqiy tuzilmasiga mos keladigan, o'zga- ruvchan uzunlikdagi segmentlar ko'rinishi- dagi sxemasi.

Xotirani segment-sahifali tashkil qilish

ing. - segment-page store organization
rus. - сегментно-страничная организация памяти
Fragmentatsiya bilan kurashish uchun, har bir segmentni sahifali tashkil qilishga asos- langan xotirani segmentli tashkil qilish mod- ifikatsiyasi.

Xotirani taqsimlash

ing. - memory allocation
rus. - распределение памяти
Xotira resurslarini ayrim vazifalarni hal qilish uchun birlashtirish.

Xotirani testdan o'tkazish

ing. - memory test
rus. - тестирование памяти
Kompyuter yuklanayotganda tezkor xotira hajmini aniqlash jarayoni.

Xotirani to'ldirish

ing. - character fill
rus. - заполнение памяти
Xotira qismini ko'rsatilgan simvol bilan to'ldirish.

Xotirani yonma-yan taqsimlash

ing. - neighbouring memory allocation

rus. - смежное распределение памяти
Asosiy xotiraning bitta qo'shni sohasidagi foydalanish jarayonlari uchun xotirani taq- simlash.

Xotiraning yo'qolishi

ing. - memory leak
rus. - утечка памяти
Tezkor xotira bo'sh qismining hajmi doimiy tarzda qisqarib boradigan, nazorat qilib bo'lmaydigan jarayon. Asosan das- turiy ta'minotdagi xatoliklar tufayli yuzaga keladi.

Xulosa

ing. - inference
rus. - вывод
1. Kompyuter tizimidan uzatilayotgan ix- tiyoriy turdagi ma'lumotlarni uzatish.
2. Boshqa dasturga uzatiladigan yoki tarmoq orqali uzatiladigan, kompyuter ekraniga yoki boshqa tashqi qurilmalarga chiqariladi- gan natijalar, chiquvchi ma'lumotlar.
3. Hisoblashlar natijasi.
4. Chiquvchi (signal, kontakt va h.k.)

Xususiy

ing. - private
rus. - частный
Obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari- da (C++, C#) ishlatiladigan kirish huquqi. U o'zgaruvchilar, klasslar va usullarning qo'shimcha parametrlarini ko'rsatishga xiz- mat qiladi. Mazkur kirish huquqi o'zgaruv- chi u mansub bo'lgan turga kirish mumkin ekanligini bildiradi, klass faqatgina o'zi tegishli bo'lgan yig'maga va usul faqat o'zining turiga tegishli usullarga ochilishini bildiradi.

Xususiy ichki tarmoq

ing. - private area network (PAN)
rus. - частная внутренняя сеть
Xususiy ulanish tarmog'i. O'zidan kichik ra- diusda (taxminan 10 m gacha) simsiz bog'la- nishni ta'minlovchi tarmoqni tashkil qiladi.

Xususiy maydon

ing. - eigenfield
rus. - собственное поле
Elektromagnit to'lqin (moda)ning, u boshqa to'lqinlarning ta'siri hisobga olinmaydigan va yo'qotishlar bo'lmagan to'lqin o'tkazgich yoki yorug'lik o'tkazgichda tarqalayot- gandagi maydoni.

Y

Yadro

ing. - kernel

rus. - ядро

Operatsion tizimning, ilovalarga protsessor vaqti, xotira, tashqi apparat ta'minoti, axborotni kiritish va chiqarish tashqi qurilmasi kabi kompyuter resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan markaziy qismi. Yadro, shuningdek, fayl tizimi va tarmoq protokollari servislarini ham ifodalaydi.

Yadro oqimi

ing. - kernel thread

rus. - поток ядра

Operatsion tizim yadrosi darajasida ushlab turilgan va qo'llanilgan quyi darajali tizim oqimi, foydalanuvchi darajasi oqimlarini amalga oshirishda ishlatiladi.

Yadro rejimi

ing. - kernel mode

rus. - режим ядра

Protsessoring imtiyozli ishlash rejimi, bunday dasturda butun xotiradan foydalanish mumkin bo'ladi va protsessoring har qanday komandalari bajarilishiga ruxsat etiladi.

Yadroning yuklanuvchi moduli

ing. - loadable kernel module (LKM)

rus. - загружаемый модуль ядра

Yadro kodining, yadroning qolgan qismidan qat'i nazar, alohida modullarini kompilyatsiyalash, yuklash va bo'shatish imkonini beradigan Linux mexanizmi.

Yagona axborot makoni

ing. - unified information space

rus. - единое пространство информационное

Ma'lumotlar bazalari va banklari, ularni yuritish va ishlatish texnologiyalari, tashkilotlar va fuqarolarning axborot almashinuvini, shuningdek, ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini ta'minlaydigan yagona prinsiplar va umumiy qoidalar asosida ishlaydigan axborot-kommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarining majmui.

«Yagona darcha»

ing. - «one-window»

rus. - «одно окно»

Davlat xizmatlari ko'rsatilishiga bo'lgan yangicha yondashuv. Xizmatlar taqdim etilish usulini o'zgartirish yo'li bilan protsedura qadamlari sonini qisqartirishga ko'maklashadi.

Izoh – Yangilikning mohiyati shundaki, aholi uchun mo'ljallangan davlat va ijtimoiy xizmatlarning ko'pchiligi bir joyda to'planadi, bu fuqarolarga vaqt sarflamasdan ma'lumotnomalar, litsenziyalar, akkreditlash va boshqa xizmatlarni olish imkonini beradi.

Yagona identifikatsiya va autentifikatsiya qilish tizimi

ing. - unified system of

identification and authentication

rus. - единая система

идентификации и аутентификации

Axborot o'zaro hamkorlik qatnashchilarning (ariza beruvchi fuqarolar va ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining) davlat axborot tizimlarida va boshqa axborot tizimlarida bo'lgan axborotdan ruxsat etilgan tarzda foydalana olishini ta'minlaydigan axborot tizimi.

Yagona manzil

ing. - unique address

rus. - однозначный адрес

Tarmoqdagi takrorlanmaydigan resurs manzili. Aks holda tarmoqda xato yuzaga keladi va ish buziladi.

Yagona qayd etish

ing. - single sign-on (SSO)

rus. - единая регистрация

Foydalanuvchiga bir nechta tizimlar yoki ilovalardan, foydalanuvchining ID va parolini kiritgan holda, bir marta foydalana olish imkonini beradigan autentifikatsiya jarayoni.

Yagona ro'yxatga olish tartibi

ing. - single sign on

rus. - единый порядок регистрации

Tasdiqlovchi markazda autentifikatsiya qilingan foydalanuvchini boshqa servisdan avtomatik tarzda autentifikatsiya qilish imkonini beradigan texnologiya.

Yagona tarmoq manzili

ing. - network-wide addressing

rus. - единая сетевая адресация

Tarmoqning kichik tarmoqlarga bo'linishi

ni hisobga olmagan holda, butun tarmoq doirasida qabul qilingan umumiy manzillash tizimi.

Yakka protsessorli

ing. - uni-processor

rus. - однопроцессорный

Bitta protsessor bilan ishlaydigan kompyuter yoki operatsion tizim.

Yakka-ko'pchilikka munosabati

ing. - one-to-many relationships

rus. - отношение один-к-многим

A jadvalning bitta qatoriga V jadvaldagi bir nechta qator muvofiq bo'lsa, lekin V jadvalning har bir qatoriga A jadvalda faqat bitta qator muvofiq bo'lsa, birga-ko'pchilik munosabati namoyon bo'ladi.

Yakka-yakkaga munosabati

ing. - one-to-one relationships

rus. - отношение один-к-одному

A jadvalning bitta qatoriga V jadvalda faqat bitta qator muvofiq bo'lsa, yakka-yakkaga munosabati namoyon bo'ladi.

Yakor (HTML elementi)

ing. - anchor

rus. - якорь (элемент HTML)

Veb-hujjatlarni birlashtiradigan HTML tili. Odatda, yakor boshqa rang bilan ajratiladi. Yakor foydalanuvchilarga boshqa veb-sahifalarga o'tish imkonini beradi. Bundan tashqari yakor bu gipermatn ilovasi bog'langan so'z yoki so'zlar guruhidir.

Yalang integral sxema

ing. - bare integrated circuit

rus. - голая интегральная схема

Qar.: Korpussez integral sxema.

Yaltirashga qarshi ustki qatlam

ing. - antiglare covering

rus. - антибликовое покрытие

Display yuzasiga maxsus, odatda ko'p qatlamli, purkash. Tushayotgan yorug'likni taqsimlab, yaltirashlar paydo bo'lishining oldini oladi. Yaltirashga qarshi ustki qatlamli displeylarda hatto juda yorug' xonalarda ham tasvir har doim keskin farqlanadi va yorqin bo'ladi.

Yamoq

ing. - patch

rus. - заплатка

Bajariladigan dasturda xatolarni tezda barta-

raf qilish va to'g'rilash uchun foydalaniladigan kod. Ba'zan bu usuldan ilovaga yangi funktsionallik qo'shishda ham foydalaniladi.

Yangi

ing. - new

rus. - новый

Operatsion tizim tomonidan yaratilgan, lekin bajarish boshlanmagan jarayon holati.

Yangi axborot resursi

ing. - new information resource

rus. - новый информационный ресурс

Birinchi marta yaratilgan va o'zida bir xillikni yoki o'xshashlikni takrorlamaydigan axborot resursi.

Yangi axborot texnologiyalari

ing. - new information technologies

rus. - новые информационные технологии

Ham kompyuterlarning, ham ularning yordamida qurilgan tizimlarning yanada rivojlanirishi bilan bog'liq bo'lgan axborot texnologiyalari. Yangi axborot texnologiyalari kompyuter tarmoqlarini, multimedia tizimlarini va virtual borliqni joriy qilishga va rivojlantirishga asoslanadi. Tibbiyotda, boshqarishda, ta'limda, moliyada va elektron ommaviy axborot vositalari tizimida keng qo'llaniladi.

Yangi texnologiya fayl tizimi

ing. - new technology file system (NTFS)

rus. - файловая система новой технологии Microsoft Windows NT operatsion tizimlar oilasi uchun belgilangan standart fayl tizimi.

Yangilash chastotasi

ing. - update rate

rus. - частота обновления

Miltillashni bartaraf etish uchun ekrandagi tasvimi yangilash chastotasi.

Yangilash

ing. - update

rus. - обновлять

Mavjud paketlarni xatolarni tuzatish yoki funktsional imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida modifikatsiyalash.

Yangilash paketi

ing. - service pack

rus. - пакет обновления

Alohida modul va bibliotekalarni almash-

tirish, ularga tuzatishlar kiritish orqali dasturiy tizim xatoliklarini yo'qotuvchi yoki ularni neytral holatga keltiruvchi dasturiy vosita.

Yangiliklarni uzatuvchi tarmoq protokoli

ing. - network news transfer protocol

rus. - сетевой протокол передачи новостей
Internetdagi NNTP serverlari va NNTP mijozlari o'rtasida yangiliklarni uzatishda foydalaniladigan protokol; yangiliklarni taqsimlash, izlash, parcha ko'chirish va yuborishni ta'minlaydi; NNTP protokoli serverning markaziy ma'lumotlar bazasida yangiliklarni saqlash imkonini beradi.

Yangilash rad etish (erkin foydalanishni)

ing. - false negative

rus. - ошибочный отказ (в доступе)

Ro'yxatga olingan foydalanuvchi biometrik atributlar bo'yicha (masalan, barmoq izlariga qarab) identifikatsiyalashdan o'tishga urinib ko'radi, biroq nazorat qilish vositalari yaxshi ishlamasligi tufayli rad javobini oladigan vaziyat.

Yaproq kengligi

ing. - lobewidth

rus. - ширина лепестка

Antennaning nurlanishi minimal darajada bo'ladigan ikki yo'nalish bilan chegaralangan soha ichidagi burchak sektori.

«Yaqin-uzoq» effekti

ing. - near-far effect

rus. - эффект «ближний-дальний»

Mobil aloqa tarmoqlarida kuzatiladigan hodisa bo'lib, bir chastotada ishlaydigan stansiyalarning bir-biriga xalaqit berishida namoyon bo'ladi. Masalan, agar bir mobil stansiya tayanch stansiya yaqinida bo'lib, boshqasi esa xizmat ko'rsatish zonasi chegarasida joylashgan bo'lsa, qabul qilinayotgan signallar darajasidagi farq 80 dB va undan ko'pga yetadi. Bu hodisa barcha ko'p stansion foydalana olish texnologiyalariga xosdir, ammo barcha qo'shni tayanch stansiyalar bir chastotada ishlaydigan DS-CDMA tizimining ishida eng ko'p seziladi.

«Yaqin-uzoq» muammosi

ing. - near-far problem

rus. - проблема «ближний-дальний»

Qabul qilgich kirishida uzatgich bilan yon-

ma-yon joylashgan va aynan o'sha chastotada ishlayotgan stansiyalarning kuchli signallari ta'sirida uzoq stansiyalardan keluvchi kuchsiz signallarning bostirilishi.

Izoh - Bunda asosiy kurash choralari sifatida qabul qilish dinamik diapazonini kengaytirishdan, mobil stansiya uzatgichi quvvatining boshqarilishidan, shuningdek, chastota-hududiy rejallashtirishdan foydalaniladi.

Yaqin zona

ing. - near-field region (near-field zone)

rus. - ближняя зона

Nurlantiruvchi antennaga bevosita yaqinlikda joylashgan, elektromagnit maydonning burchak taqsimlanishi nurlanish manbaigacha bo'lgan masofaga bog'liq soha.

Izoh - Elementar elektr vibrator uchun yaqin zona $2\pi/\lambda \ll r$ shart bilan belgilanadi, bunda: λ - nurlanish to'lqin uzunligi; r - antennaning fazaviy markazidan kuzatish nuqtasigacha bo'lgan masofa.

Yaqinlashtirish

ing. - zoom in

rus. - приблизить

Tasvir masshtabini kattalashtirish.

Yaratish

ing. - create

rus. - создать

Yangi obyektни yaratish. Odatda, yangi obyektда axborot mavjud bo'lmaydi yoki u qandaydir shablondan olinadi.

Yarim avtomatik xendover

ing. - mobile assisted handover (MAHO)

rus. - полуавтоматический хэндовер

Abonentni bir tayanch stansiyadan boshqasiga avtomatik tarzda qayta ulash usuli, bunda uning mobil stansiyasi signal darajasini o'lchaydi va bu ma'lumotlar (o'lchash natijalari)ni tayanch stansiyaga uzatadi.

Yarim bayt

ing. - nibble

rus. - полубайт

To'rt bitga teng bo'lgan axborotning o'lchov birligi.

Yarim dupleks aloqa

ing. - semi-duplex

rus. - полудуплексная связь

Aloqa liniyasining, liniyaning bir uchida dupleks stansiyasidan, ikkinchi uchida esa, simpleks stansiyadan foydalaniladigan ishlash rejimi. Tayanch stansiya, odatda, dupleks rejimda, mobil stansiya esa, simpleks rejimda ishlaydi.

Yarim dupleks uzatish

ing. - half duplex

rus. - полудуплексная передача

Ikki yo'nalishda amalga oshiriladigan, biroq har vaqt onida ma'lumotlar faqat bitta yo'nalishda uzatilishi mumkin bo'lgan aloqa kanalida ma'lumotlar uzatish rejimi.

Izoh - Konsentratorlar ham to'liq dupleks, ham yarim dupleks rejimda uzatishni amalga oshira oladigan kommutatorlardan farqli ravishda, faqat yarim dupleks rejimda ishlashi mumkin.

Yarim kadr

ing. - half frame

rus. - полукадр

1. Tasvir to'liq kadrining faqat juft yoki toq satrlardan iborat qismi. Yarim kadrlar odatda, bir-biriga bog'liq bo'lmagan tarzda qayta ishlanadi va uzatiladi.

2. Yoyiladigan satrlarning almashinib keladigan ikki to'plamidan biri, ular birgalikda televizion kadmi tashkil qiladi. NTSC standarti sekundiga 60 ta, PAL da 50 ta yarim kadrдан iborat chastota bilan o'qiladi.

Yarim summator

ing. - half adder

rus. - полусумматор

Ventillar to'plamidan iborat mantiqiy sxema. Ikkita kirishi va ikkita chiqishi bor. Ikkita ikkilik raqamni qo'shadi va ko'chirish signalini beradi.

Yarim tezlikli kanal

ing. - half-rate channel

rus. - канал с половинной скоростью

TDMA kadrinda, boshqa kanal bilan birgalikda ajratilgan vaqt intervali.

Izoh - Ikkita axborot manbaidan olingan ma'lumotlar galma-gal, ya'ni qo'shni kadrlarda oralatib uzatiladi. Bir abonent xabarlarini uzatish uchun, odatda, faqat juft kadrlardan, ikkinchi abonent xabarlarini uzatish uchun esa, toq kadrlardan foydalaniladi.

Yarim ton (gradatsion)

buzilishlarni minimallashtirish

ing. - minimization of halftone

(gradation) distortions

rus. - минимизация полутоновых

(градационных) искажений

Tasvirlar (TV signallar maksimal ko'lamining) yorqinligi va kontrastligining optimal qiymatlarini tanlash yordamida TV tasvirlarni yanada yaxshiroq tiklash amalga oshiriladigan operatsiya (yorqinlik shkalasi-ning gradatsiyasi 8-9 ga teng bo'lishi kerak).

Yarim to'liqinli (bir to'liqinli)

simmetrik vibrator

ing. - half-wave dipole (full-wave dipole)

rus. - полуволновый симметричный

(одноволновый) вибратор

Uzunligi to'liqin (to'liqinining bitta uzunligi) uzunligining yarmiga teng liniyaviy simmetrik vibrator.

Yarim o'tkazgichli xotira

ing. - semiconductor memory

rus. - полупроводниковая память

Axborotni saqlash elementlari elektron yarimo'tkazgichli komponentlar (tranzistorli integral sxemalar) asosida yasalgan xotira qurilmasi.

Yaroqli/yaroqsiz

ing. - stun/unstun

rus. - пригодный/непригодный

O'g'irlangan radiostansiyani jinoyatkor foydalanishi uchun yaroqsiz holatga keltirish imkonini beruvchi funktsiya.

Yassi antenna panjarasi

ing. - plane array, flat array

rus. - плоская антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari tekislikda joylashgan sirtli antenna panjarasi.

Yassi (xotira) modeli

ing. - flat (memory) model

rus. - плоская модель (памяти)

Bir darajali segmentlanmagan xotira (xotirani tashkil qilishning) (chiziqli) modeli.

Yaxlitligi muhofazalangan ma'lumotlar

ing. - integrity-protected data

rus. - данные с защитой целостности

Yaxlitlik muhofazalangan muhitdagi ma'lumotlar va barcha tegishli atributlar.

Yaxlitlik

ing. - integrity

rus. - целостность

1. To'g'rilik va to'liqlikni saqlab qolish xususiyati.

2. Axborot va uning tashuvchisining holati bo'lib, bunda unuman va uning alohida tarkibiy qismlarining bo'linmasligi va ruxsat etilmagan tarzda yoki qasddan yo'q qilinishi, buzilishi, chiqib ketishi, o'g'irlanishi, qalbakilashtirilishining oldini olish ta'minlanadi.

3. Kriptografiyada yaxlitlik ushbu muayyan kriptografik protokolning har bir ishtirokchi-

si uchun alohida belgilanadi va protokolni bajarish jarayonida ushbu ishtirokchi uchun nomaqbul bo'lgan oqibatlariga olib kelgan faol raqibning aralashuvi bo'lmaganligining kafolatini bildiradi.

Yaxlitlik kaliti

ing. - integrity key

rus. - ключ целостности

Axborotni o'zgartirilishdan yoki almashtirilishdan yo tarmoq orqali uzatish jarayonida muhofaza qilish uchun qo'llaniladigan shifrlash kaliti.

Yaxlitlik muhofaza qilingan muhit

ing. - integrity-protected environment

rus. - среда с защитой целостности

Ma'lumotlarning ruxsat etilmagan tarzda o'zgartirilishi (jumladan, yaratilishi va chiqarib tashlanishi)ning oldi olinadigan yoki aniqlanadigan muhit.

Yaxlitlik muhofaza qilingan kanal

ing. - integrity-protected channel

rus. - канал с защитой целостности

Xavfsizlikni ta'minlash xizmati qo'llanilgan telekommunikatsiyalar kanali.

Yaxlitlik xizmati

ing. - integrity service

rus. - услуга целостности

Almashinadigan ma'lumotlar to'g'riligini, almashinadigan ma'lumotlarning o'zgarishlardan, chiqarib tashlashlardan, yaratish (kiritish) va takror foydalanishdan muhofaza qilinishini kafolatlash usullarining taqdim etilishi.

Yaxlitlikni tekshirish

ing. - integrity checking

rus. - проверка целостности

Ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimida - ma'lumotlar bazasi yozuvlarining to'g'riligini tekshirish. Ma'lumotlarni yuklash paytida amalga oshiriladi.

Yaxlitlikning buzilishi

ing. - integrity violation

rus. - нарушение целостности

1. Fayl yozuvlari yoki ma'lumotlar bazasi tarkibidagilarning mashina bilan bog'liq uzilishlar, dasturdagi xatolar, shuningdek, foydalanuvchilarning noto'g'ri harakatlari oqibatida yuz beradigan o'zgarishi.

2. Ma'lumotlarni maqsadli yaratish, almash-

tirish va buzish yo'li orqali ma'lumotlarning muvofiqlashtirilganligini obro'sizlantirish.

Yashash vaqti

ing. - life time

rus. - время жизни

Dastur obyekti (masalan, o'zgaruvchi) o'z ahamiyatini saqlab turadigan dasturning bajarilish intervali.

«Yashil» shaxsiy kompyuter

ing. - green PC

rus. - «зеленый» персональный

компьютер

Elektr energiyasining eng kam darajada («tinch» rejimda 30 W ga yaqin) iste'mol qilinishini ta'minlaydigan shaxsiy kompyuterlar. Bunday kompyuterlar ekranni avtomatik ravishda o'chiradi va foydalanuvchining faolligi kuzatilmaydigan hamda diskka murojaat qilishning belgilangan vaqtida diskovodning aylanishini to'xtatadi.

Yashirin boshqarish utilitalari

ing. - latent administration utilities

rus. - утилиты скрытого

администрирования

Olisdagi kompyuterlarning ruxsat etilmagan tarzda boshqarilishini amalga oshirish, ya'ni, fayllarni qabul qilish/jo'natish, ulami ishga tushirish yoki yo'q qilish, xabarlamini chiqarish, axborotni o'chirish, kompyuterni qayta yuklash va h.k. uchun mo'ljallangan dasturlar.

Yashirin eshitish

ing. - eavesdropping

rus. - подслушивание

1. Jinoyatkor tomonidan, tarmoq bo'ylab uzatiladigan axborotni, muhofaza tizimining zaif joylarini aniqlash va keyinchalik undan foydalanish maqsadida tutib olish.

2. Konfidensial axborotni tutib olish bilan bog'liq har qanday harakatlar, shu jumladan, qo'shni kanallar orqali nurlanishlarni qabul qilish hisobiga.

Yashirin fayl

ing. - hidden file

rus. - скрытый файл

Nomi, ma'lumotlar xavfsizligini oshirish maqsadida katalogning fayllar ro'yxatida ko'rsatilmaydigan fayl. Buning uchun faylga maxsus belgi (atribut) beriladi (belgilanadi).

Yashirin kalit

ing. - sealed key

rus. - скрытый ключ

Stansiyada ochiq ko'rinishda saqlanmaydigan, har safar kriptografik algoritmlar yordamida qayta ishlab chiqiladigan shifrlash kaliti.

Yashirin kanal

ing. - covert channel

rus. - скрытый канал

1. Ma'lumotlarni, xavfsizlik siyosatini buzadigan usulda uzatish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan uzatish kanali.

2. Foydalanuvchiga yashirin tarzda ko'p darajali foydalanishni chegaralash siyosatini va baholash obyekti uchun kuzatib bo'lmalik talabini buzishga imkon beradigan deklaratsiya qilinmagan uzatish kanali.

Yashirin matn

ing. - hidden text

rus. - скрытый текст

Tahrir qilinadigan hujjat matnining ekran-da ko'rinmaydigan qismlari. Yashirin matn ko'rinishida hujjatga, masalan, muallif sharhlari kiritilishi mumkin.

Yashirin maydon

ing. - hidden field

rus. - скрытое поле

Veb-sahifada ko'rinmaydigan va foydalanuvchi ma'lumot kirita olmaydigan forma maydoni. Yashirin maydonlarning maqsadi - serverga texnik yoki xizmat ma'lumotini uzatish. Ko'pincha forma ma'lumotlarini bir sahifadan boshqa sahifaga uzatish uchun qo'llaniladi.

Yashirin papka

ing. - hidden folder

rus. - скрытая папка

Operatsion tizimga tegishli muhim fayllar va foydalanuvchi sozlamalarini yashirish uchun mo'ljallangan papka.

Yashirin reklama

ing. - hidden advertising

rus. - скрытая реклама

Reklama deb belgilanmagan, joylashtirilishi va ko'rinishi bo'yicha boshqa materiallardan farq qilmaydigan, shaxsiy xabar sifatida yuborilgan va shularga o'xshash axborot. Yashirin reklama foydalanuvchi anglay olmaydigan holda uning ongiga ta'sir qiladi.

Yashirin xotira

ing. - shadow memory

rus. - тенева́я память

Xotirani tashkil qilish usuli, bunda bir xotiraga BIOS dasturlar yozilgan boshqa bir blok bilan almashtiriladi.

Yashirish

ing. - hiding, concealment

rus. - сокрытие

Axborotni texnik muhofaza qilish usuli bo'lib, axborot tashuvchilarni aniqlash va axborotni olish sharoitlarini yomonlashtirishdan iborat.

Yashovchanlik

ing. - liveness, survivability

rus. - живучесть

To'xtalishlar, ishlamay qolishlar, ilosiz va boshqa noqulay vaziyatlarda tizimning muvaffaqiyatli ishlash qobiliyati.

Yacheyka

ing. - cell

rus. - ячейка

Tezkor xotira qurilmasining minimal manzillanadigan sohasi yoki massivning manzillanadigan elementi.

Yacheyka sarlavhasi

ing. - cell header

rus. - заголовок ячейки

Tarmoq bo'yicha yacheykaning foydali yuklanishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan funksiyalarni bajarish uchun ajratilgan yacheykalar ichidagi bitlar.

Yacheyka (uya) geometriyasi

ing. - cell geometry

rus. - геометрия соты

Yacheyka (uya) konfiguratsiyasi; amalda u hech qachon qat'iy geometrik shaklga ega bo'lmaydi.

Izoh - Yacheyka (uya)ning real chegaralari, odatda, qat'iy belgilanmagan bo'ladi va radioto'lqinlarning turli yo'nalishlarda tarqalish sharoitlariga bog'liq ravishda surilishi mumkin. Signallarning susayishi joyning relyefiga, imoratlarning zichligiga, yer usti qoplamasi va boshqalarga bog'liq.

Yacheyakalararo xendover

ing. - intercell handover

rus. - межсотовый хэндовер

Abonentning yangi tayanch stansiya (uya)ga ko'chib ulanishi, odatda, bunday qayta ulanish ma'lumotlarni uzatish yoki qabul qilish uchun ajratilgan chastota va/yoki vaqt intervalining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi.

Yacheykalarni uzatishdagi kechikish**ing.** - cell-transfer delay (CTD)**rus.** - задержка при передаче ячеек

ATM tarmoqlarida xizmatlar sifatining parametrlaridan biri, ular bog'lanish o'rnatilayotganda tarmoq qurilmalari bilan mos kelishi lozim. U yacheykalarning jo'natuvchidan oluvchiga uzatishdagi maksimal kechikish kattaligini tavsiflaydi.

Yacheykalarni uzatishning yo'li**qo'yiladigan tezligi****ing.** - allowed cell rate (ACR)**rus.** - допустимая скорость передачи ячеек

ATM tarmoqlarida ATM Forum assotsiatsiyasi tomonidan belgilangan trafikni boshqarish parametri. ACR minimal (MCR) va eng yuqori uzatish tezligi (PCR) orasida kanalning yuklanishini boshqarish orqali o'zgaradi.

Yacheykali avtomat**ing.** - cellular automaton**rus.** - ячеечный автомат

Har biri qo'shni munosabat qoidalarini bilan bog'langan, parallel ishlaydigan yacheykalar to'ridan iborat bo'lgan model yoki moslama. Har bir yacheyka qo'shnilarining holati bilan bog'liq bo'lgan berilgan holatlardan birida bo'lishi mumkin. Har bir yacheykadagi holatning o'zgartirilishi vaqtning diskret onida sinxron tarzda sodir bo'ladi.

Yacheykani maydalash**ing.** - cell splitting**rus.** - дробление соты

Yacheyka (uya)ni harakat doirasi kichik bo'lgan bir nechta yacheykaga bo'lish usuli, odatda, intensiv trafikli rayonlarda xizmat ko'rsatish xarakteristikalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Izoh - Yacheykalar maydalanganda, tarmoqdagi tayanch stansiyalarning soni ortadi, biroq tayanch va mobil stansiyalar uzatgichlarining nurlanish quvvati kamayadi.

Yacheykani qayta tanlash**ing.** - cell reselection**rus.** - повторный выбор соты

Mobil abonentning harakatlanish jarayonida bir tayanch stansiyadan boshqasiga o'tishida yacheykaning almashishi.

Izoh - Jumladan, TETRA standartida yacheyka almashinuvining 5 ta rejimi nazarda tutilgan: uchtasi tayanch stansiyani ogohlantirish bilan va ikkitasi uni ogohlantirmasdan.

Yacheykasimon topologiya**ing.** - meshed typology**rus.** - ячеистая топология

Kompyuterlarni tarmoqqa birlashtirish sxemasi, bunda yonma-yon turgan barcha kompyuterlar bilan fizik aloqa liniyalari o'rnatilgan bo'ladi. Bu topologiyaning afzaligi, uning yuklanishlarga chidamliligida.

Yelka osha yashirinch qarash**ing.** - keeking behind shoulder**rus.** - подглядывание из-за плеча

Parollar yoki PIN-kodlarni, ularning klaviaturada terilishini kuzatish yo'li bilan o'g'irlash.

Yelkasimon yuproq**ing.** - shoulder lobe**rus.** - плечеобразный лепесток

Antenna yo'nalganlik diagrammasining o'qiga nisbatan siljigan va yo'nalganlik diagrammasining asosiy yuproq'i bilan kesishuvchi yon yuproq.

Yerning sun'iy yo'ldoshi**ing.** - artificial earth satellite**rus.** - искусственный спутник Земли

Yer atrofiga chiqarilgan va Yer atrofini kamida bir marta aylanib chiqqan kosmik apparat.

Yetakchi signallar**ing.** - driving signals**rus.** - ведущие сигналы

Televideniya - uzatiladigan sahna optik tasvirini elektr signallariga aylantirish joyida yoyish maydoni yoki satr boshlanish vaqtini boshqaruvchi signallar.

Yetakchi stansiya**ing.** - master station**rus.** - ведущая станция

Tarmoqning barcha trafigini sinxronlaydigan va bir nechta yetaklanuvchi (bo'ysunuvchi) stansiya ishini boshqaradigan stansiya. Vaqtning har bir daqiqasida sinxronlash tarmog'ida faqat bitta yetakchi stansiya mavjud bo'ladi, garchi stansiyaning bunday maqomi vaqtinchalik va ish jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lsa ham.

Yetaklanuvchi (boshqariladigan) stansiya**ing.** - slave station**rus.** - ведомая станция

Yetakchi stansiya boshqaruvida ishlaydi-

gan va o'zining avtonom generatori chiqish chastotasini yetakchi stansiyaning tayanch generatori chastotasiga sozlay oladigan bo'ysunuvchi stansiya.

Yetarli

ing. - sufficient

rus. - достаточный

Operatsion tizim yoki biror-bir uskuna tomonidan ularning to'g'ri ishlashi uchun qo'yiladigan talablarning qanoatlantirilishi.

Yetarli darajadagi maxfiylik

ing. - pretty good privacy (PGP)

rus. - достаточно хорошая секретность

Ochiq kalit sxemasidan foydalanib assimetrik shifrovchi ochiq dastur. Muallifi - Filip Simmerman. Algoritm va dastur 1992-yilda yaratilgan.

Yetarli huquqlar

ing. - sufficient permission

rus. - достаточные права

Foydalanuvchi uchun kerak bo'lgan fayllar yoki papkalar ustida operatsiyalar bajarish uchun kerakli bo'lgan huquqlar.

Yetkazib berish uchastkasi

ing. - delivery area

rus. - доставочный участок

Shahar, posyolka yoki qishloq tumani hududining bitta pochta yon tomonidan xizmat ko'rsatilishi mo'ljallangan qismi.

Yetkazib berishlar zanjirini boshqarish

ing. - supply chain management

rus. - управление цепями поставок

Korxonaning logistik va ishlab chiqarish jarayonlarida vujudga keladigan va o'zgaradigan xom ashyo, materiallar, mahsulotlar, xizmatlar to'g'risida o'lchanadigan jami iqtisodiy samaraga qaratilgan (chiqimlarni kamaytirish, pirovard mahsulotga bo'lgan talabni qondirish) butun axborot oqimini rejalashtirish va boshqarishga bo'lgan yaxlit yondashuvdan iborat tashkiliy konsepsiya va tashkiliy strategiya.

Izoh - Konsepsiya 1982-yilda Keyt Oliver tomonidan taklif qilingan, keyinchalik rivojlantirildi va amaliy dasturiy ta'minot-yetkazib berishlar zanjirini boshqarish tizimidan foydalangan holda, amalda qo'llandi.

Yevropa axborot va hisoblash tizimlarini standartlashtirish assotsiatsiyasi

ing. - European association for standardizing information & computer systems (ECMA)

rus. - Европейская ассоциация по стандартизации информационных и вычислительных систем

Faoliyati axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini standartlashtirishga bag'ishlangan assotsiatsiya. U uchta maqsadni nazarda tutadi: axborot va tarmoq tizimlarini qo'llab-quvvatlash va standartlashtirishda foydalaniladigan standartlar va texnik hisobotlarni tuzish, standartlarning to'g'ri qo'llanilishini kengaytirish, standartlar hamda texnik hisobotlarni qog'oz ko'rinishida va elektron variantda tarqatish.

Yevropada OSI tarmoqlarini birlashtirish

ing. - cooperation for open systems interconnection networking in Europe

rus. - объединение OSI-сетей в Европе

OSI asosida Yevropa kuzatish ishlarini olib boradigan tarmoqlarni birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, Yevropa komissiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan dastur.

Yechim

ing. - solution

rus. - решение

Buyurtmachining talab va ehtiyojlariga qaratilgan dasturlar va dasturiy vositalar, shuningdek, xizmatlar birikmasi.

Yechimlar daraxti

ing. - decisions tree

rus. - дерево решений

Yechimlar qabul qilish uzellari va ushbu uzellarga mos keladigan muqobillardan iborat tuzilma. Yechimlar daraxti bo'ylab harakat tasodifiy tarzda yoki uzellarda mavjud bo'lgan lokal ma'lumotlarga asoslanib amalga oshirilishi mumkin. Muvaffaqiyatli izlash natijasida, yechimlar daraxtida daraxt ildizidan (boshlang'ich vaziyat) maqsadli vaziyatga muvofiq keladigan, daraxtning uzelliga olib boradigan yo'l hosil bo'ladi. Yechimlar daraxti bo'ylab harakatlanish jarayonida ko'pincha, bektreking protsedurasi yordamida amalga oshiriladigan, ilgari o'tilgan uzellarga qaytish zarurati yuzaga keladi.

«Yilning eng yomon soati»

ing. - «worst hour of year»

rus. - «наихудший час года»

Radioto'lqinlarning tarqalish trassasidagi maksimal ehtimoliy yo'qotishlar davri. Troposfera va ionosfera aloqa liniyalari uchun zaxira tanlashda hisobga olinadi.

Yirik detallardagi kontrastlilik

ing. - contrast range in lump size details

rus. - контрастность в крупных деталях

Maksimal oq va maksimal qora maydonlar yorqinliklarining nisbati (tashqi yoritish bo'lmaganda).

Yig'ish

ing. - collapse

rus. - свернуть

«Yig'ish» (oyna sarlavhasining o'ng qismi) tugmasini bosish yordamida oyna o'lchamini vazifalar panelidagi tugma o'lchami darajasigacha kichraytirish. Bunga «ALT+BO'Sh JOY» keyin «S» klavishlarini ketma-ket bosish bilan ham erishsa bo'ladi.

Yig'ish, qurish

ing. - build

rus. - сборка

Dasturni yig'ish (kompanovka qilish). Relizdan farqi shundaki, unda o'zidan oldingi versiyadagi kod saqlanib qoladi, dastlabki kodda o'zgarish bo'lmaydi.

Yig'uvchi

ing. - collector

rus. - сборщик

Yozib olingan yozuvlarni qabul qilib oladigan va ularni saqlashning doimiy muhitida saqlaydigan veb-xizmat.

Yolg'on

ing. - false

rus. - ложный

Mantiqiy ifoda bilan qabul qilinadigan ikki yigmatdan biri.

Yolg'on o'tkazish koeffitsiyenti

ing. - false accept rate (FAR)

rus. - коэффициент ложного пропуска

Bioidentifikatsiya tizimi tizimda ro'yxatdan o'tmagan foydalanuvchi barmoq izlarining haqiqiylikni xato qilib qayd etish ehtimoligi. U qancha past bo'lsa, tizim shuncha ishonchli ishlaydi.

Yomon niyatda qilinadigan ta'sir

ing. - attack

rus. - злонамеренное воздействие

Tizimning xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini chetlab o'tish yoki ularning kamchiliklaridan foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan harakat.

Izohlar

1. Tizimga bevosita yomon niyatda ta'sir ko'rsatilganda, bazaviy algoritmlarning xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining prinsiplari yoki xususiyatlari kamchiliklaridan foydalaniladi.

2. Bilvosita yomon niyatda qilinadigan ta'sir xavfsizlik mexanizmini chetlab o'tish yoki tizimni bu mexanizmdan noto'g'ri foydalanishga majbur qilish orqali amalga oshiriladi.

Yomon niyatli chaqiruvlarni

aniqlash xizmati

ing. - malicious call identification

rus. - услуга определения

злонамеренных вызовов

Ma'muriyatning ixtiyori bo'yicha abonentga niyati buzuq, bezovta qiluvchi yoki yomon niyatdagi chaqiruvlar manbaini aniqlash uchun yordam beradigan xizmat.

Izoh - Bunda chaqiruvchi va chaqiriluvchi abonentlar raqami, chaqiruv (so'rov) vaqti va sanasi ko'rsatiladi. Xizmat aniq vaqt davomida bog'lanish vaqtida yoki bog'lanishning aktiv fazasida so'ralishi kerak. U tarqoqda avtomatik tarzda (unda barcha kiruvchi chaqiruvlarning ma'lumotlari qayd etiladi) yoki abonent tomonidan (abonent tugmani bosadi yoki aniq raqamni teradi) ishga tushirilishi mumkin.

Yomonlashuv birligi, imp

ing. - impairment unit, imp

rus. - единица ухудшения, имп

Sifat shkalasi yoki yomonlashuv shkalasidan foydalanishda o'rtacha bahoga ega tayanch tasvirdan olinadigan kuzatishning ma'lum sharoitlarida tasvirming yomonlashuvini subyektiv baholaydigan birlik.

Izoh - Muayyan sharoitlarda imp birligi o'zaro bog'lanmagan bir nechta nuqsonning subyektiv yomonlashuvi, shu nuqsonlarning alohida namoyon bo'lishi tufayli yomonlashuvining yig'indisiga teng deb jamlanadi.

Yomonlashuv shkalasi

ing. - scale of deterioration

rus. - шкала ухудшения

Kuzatishning ma'lum sharoitlarida, berilgan beixtiyoriy effekt tufayli tasvirning texnik yomonlashuvini miqdoriy subyektiv baholash imkonini beradigan, odatda, beshta, ol-tita yoki yettita bosqichli shkala.

Yomg'ir vaqtidagi qutbsizlanish

ing. - rain depolarization

rus. - деполаризация при дожде

Yomg'ir tomchilarining shakli nosferik bo'lishi tufayli yuzaga keladigan, atmosfera yog'inlarida radioto'lqinlar qutblanishining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan effekt.

Izoh - Radioto'lqinlar gorizontal va vertikal tashkil etuvchilarining tarqalish bir xil bo'lmashligi natijasida amplituda va faza siljishida tafovut paydo bo'ladi, bu esa qabul qilish nuqtasida kross-qutblanish komponenti paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yon polosa

ing. - sideband

rus. - боковая полоса

Sinusoidal eltuvchi chastotadan yuqori yoki quyida joylashgan va modulyatsiya jarayonida hosil bo'lgan muhim spektral tashkili eltuvchilarni o'z ichiga olgan chastotalar polosasi.

Yon polosani bostirish filtri

ing. - vestigial sideband filter

(in a vision transmitter)

rus. - фильтр подавления боковой полосы

Tasvir radiosignalining bitta yon polosasi qismini susaytiruvchi filtr.

Yon yuproqdagi uzilish

ing. - sidelobe null

rus. - провал на боковом лепестке

Xalaqitlarni fazoviy rezeksiyalash maqsadida shakllanadigan antenna yo'nalganlik diagrammasining yon yuproq'idagi chuqur uzilish.

Yon yuproqlarni bostirish

ing. - side-lobe suppression

rus. - подавление боковых лепестков

1. Antenna yo'nalganlik diagrammasining yon yuproqlari bo'yicha nurlanishni susaytirish uchun joy relyefining ekranlashtiruvchi ta'siridan foydalanish.

2. Xalaqitlar seleksiyasining fazoviy usuli, unda antenna yo'nalganlik diagrammasida fazoviy holati yo'nalishi bilan halaqit manbaiga mos keladigan yon yuproq o'mida pasayish shakllanadi.

Yondosh elektromagnit nurlanish

ing. - spurious electromagnetic radiation

rus. - побочное электромагнитное

излучение

Istalmagan axborotli elektromagnit nurlani-

sh. U axborotni texnik vositalar bilan qayta ishlash paytida va axborot sizib chiqib ketishiga olib kelishi mumkin bo'lgan elektr zanjirlarda nohiziqi jarayonlar natijasida paydo bo'ladi.

Yonlama nurlanishdagi yo'qotishlar

ing. - spillover loss; lateral radiation losses

rus. - потери на боковое излучение

Energiyaning antenna ko'zgunining chetidan sizib chiqishi hisobiga yo'qotishlar.

«Yopiq antenna»

ing. - loop antenna, closed antenna

rus. - «замкнутая антенна»

Chiqish uchlari uzatgich yoki qabul qilgichning fiderli liniyasi ulangan, ixtiyoriy konfiguratsiyaning yopiq konturini o'zida aks ettiradigan ramkasimon antenaning bir turi.

Yopiq arxitektura

ing. - closed architecture

ing. - закрытая архитектура

Yagona ishlab chiqaruvchining texnik va dasturiy ta'minotiga mos keladigan arxitektura.

Yopiq dastlabki kod

ing. - closed source software

rus. - закрытый исходный код

Yopiq dastlabki kod - ochiq kodning antonimi. Ochiq kod tushunchasiga kirmaydigan ixtiyoriy dastur va litsenziyalar. Bunda, faqat binar (kompilyatsiya qilingan) dastur versiyalari tarqatiladi. Litsenziya mavjudligi dastlabki kodga kirish imkoniyati yo'qligini bildiradi. Dasturni o'zgartirishni texnik jihatdan bajarib bo'lmaydi. Dastlabki kodga kirish imkoniyati uchinchi tarafga faqat ovoz qilmaslik kelishuviga qo'l qo'yilgandan keyin beriladi. Yopiq kodli dasturiy ta'minot propriyetar (shaxsiy mulk) dasturiy ta'minoti hisoblanadi.

Yopiq elektron raqamli imzo kaliti

ing. - private key of the electronic digital signature

rus. - закрытый ключ электронно-цифровой подписи

1. Elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keladigan, axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoning haqiqiyiligi tasdiqlash uchun mo'ljallangan simvollar ketma-ketligi.

2. Elektron raqamli imzoni ishlab chiqish uchun mo'ljallangan va faqat vakolatli shaxsga ma'lum bo'lgan simvollar ketma-ketligi.

Yopiq kalit

ing. - private key

rus. - закрытый ключ

1. Nosimmetrik shifrlash tizimining kalitlaridan biri. Xabarlarini rasshifrovka qilishda va elektron imzoni shakllantirishda ishlatiladi.

2. Ochiq kalitli shifrlash tizimidagi juft kriptografik kalitlarning yopiq (maxfiy) qismi.

Yopiq kanal

ing. - closed channel

rus. - закрытый канал

Ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanishdan muhofazalangan mantiqiy kanal. Bunday mantiqiy kanallarning protokollari transport pog'onasidan yuqorida joylashgan bo'ladi va o'zaro aloqadagi foydalanuvchilar orasidagi uzatishning konfidensialligini kafolatlaydi.

Yopiq (muhofazalangan) ma'lumotlar

ing. - private data

rus. - закрытые (защищенные) данные

Foydalanuvchilarning tor doirasiga mo'ljallangan ma'lumotlar. Qoidaga ko'ra, erkin foydalanishning cheklanishi parollar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yopiq obyekt

ing. - closed object

rus. - закрытый объект

Obyektning yopiq yoki butunlay chegaralangan muhitga mansubligi.

Yopiq tarmoq

ing. - closed network

rus. - закрытая сеть

Cheklangan miqdordagi qayd qilingan foydalanuvchilar kira oladigan ajratilgan aloqa tarmog'i.

Yopiq televideniye

ing. - closed-circuit television

rus. - замкнутое телевидение

Tasvimi nisbatan qisqa masofaga, odatda, kabel bo'yicha uzatishga imkon beradigan va foydalanuvchilarning ma'lum guruhlari uchun mo'ljallangan televideniye.

Misol – jamoat joylari, xavfli yoki kirish qiyin bo'lgan joylarni, jarrohlik operatsiyalari va h.k.larni kuzatish.

Yopiq televiden tizimlar

ing. - closed television systems

rus. - замкнутые телевизионные системы

Cheklangan auditoriyaga vizual axborotni uzatish uchun mo'ljallangan televiden tizimlar.

Misol – Qo'riqlash televideniyesi tizimi.

Yopiq trassa

ing. - shadowed path

rus. - закрытая трасса

Profili mahalliy relyef bilan qorong'ilangan trassa, buning oqibatida uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalarning fazaviy markazlari o'rtasidagi to'g'ri ko'rinish ko'rinmaydi.

Izoh – Yopiq trassalar uchun yorug'lik kattaligi har doim salbiy.

Yopiq xavfsiz muhit

ing. - closed-security environment

rus. - безопасная замкнутая среда

Ma'lumotlar va resurslarni tasodifiy yoki qasddan qilinadigan harakatlardan (mualliflik, ruxsat berish kategoriyalari, konfiguratsiyani boshqarish va h.k. ko'rinishda) muhofaza qilishga alohida e'tibor beriladigan muhit.

Yopish

ing. - close

rus. - закрыть

Ilovani tugallashga olib keladigan harakat.

Yoppasiga qoplash

ing. - seamless coverage

rus. - сплошное покрытие

Ma'lum geografik mintaqaning xizmat ko'rsatish zonasi, unda abonent radioliniyasining turg'un ishlashi uchun kerakli energetik nisbat ta'minlanmagan birorta ham uchastka bo'lmaydi.

Yoqilgan

ing. - on

rus. - включен

Tizim ishga (ma'lumotlarni qabul qilishga) tayyor holatda bo'lgan rejim.

Yoqmoq

ing. - enable

rus. - включить

Qurilmaning ishga tushirilishini anglatadi. Masalan, biron-bir qurilma moslamasi-ning parametrlarida yoqiq deb ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu qurilma moslamasidan foydalana olishga ruxsat etiladi.

Yordam va qo'llab-quvvatlash

ing. - help and support

rus. - помощь и поддержка

Xizmatning ichki va tashqi buyurtmachilarini texnik qo'llab quvvatlovchi, foydalanuvchilarni kompyuterning apparat va dasturiy ta'minot bilan bog'liq muammolarini hal qiluvchi axborot tizimi. Axborot texnologiyalari infratuzilmalarining muammoli qismlarini aniqlash, axborot texnologiyalari bo'limining ish samaradorligini baholash imkonini beruvchi axborot texnologiyalari infratuzilmasi bibliotekasining muhim funksional tashkil etuvchisi.

Yordam, ma'lumot berish tizimi

ing. - help

rus. - помощь, справочная система

O'zida dasturiy ta'minot bilan ishlash bo'yicha maqolalar (maslahatlar)ni saqlovchi ma'lumot berish tizimi.

Yordamchi protsessor

ing. - back-end processor

rus. - вспомогательный процессор

Fon rejimidagi yoki maxsus masalalarni bosh protsessoridan ajratib olgan holda bajaradigan kompyuter tizimidagi ikkilamchi protsessor.

Yordamchi retranslyator

ing. - auxiliary repeater

rus. - вспомогательный ретранслятор

Radiosoya zonasini qoplashda ishlatiladigan retranslyator.

Yordamchi texnologiyalar

ing. - assistive technologies

rus. - вспомогательные технологии

Tizimga qo'shilgan yoki kiritilgan apparat yoki dasturiy ta'minot.

Yordamchi xizmat

ing. - make-up service

rus. - вспомогательная служба

Telefon orqali qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish; masalan, belgilangan vaqtda abonentni ogohlantirish (xabardor qilish) va boshqalar.

Yordamchi xotira

ing. - auxiliary memory

rus. - вспомогательная память

Axborotni yodda tutish va saqlashning, elektron hisoblash mashinasining asosiy, ichki manzillanadigan xotira qurilmasiga kirmaydigan vositalari.

Yorqinlik gradatsiyasi

ing. - gradation of brightness

rus. - градация яркости

Normalangan axromatik gradatsion ponaning qo'shni uchastkalari yorqinliklarining farqi.

Yorqinlik kanali

ing. - brightness channel

rus. - яркостный канал

Rangli televideniye tizimidagi yorqinlik signalini o'tkazish uchun mo'ljallangan har qanday trakt.

Yorqinlik kanalidagi rejektor

ing. - luminance trap

rus. - режектор в канале яркости

Dekoderdagi ranglilik-yorqinlik kesishuvchi xalaqitlarini yoki koderdagi yorqinlik-ranglilik kesishuvchi xalaqitlarini kamaytirish maqsadida yorqinlik kanaliga kiritiladigan filtr.

Yorqinlik koeffitsiyentlari

ing. - brightness coefficients

rus. - яркостные коэффициенты

Har qanday rangning tegishli rang koeffitsiyentiga bo'lgan doimiy ko'paytiruvchilar.

Yorqinlik signali

ing. - brightness signal

rus. - сигнал яркости

Televizion tasvir elementlarining yorqinligi to'g'risidagi axborotni tashuvchi elektr signal.

Izoh - Rangli televideniye da yorqinlik signali uchta asosiy rang signallarining muayyan chiziqli kombinatsiyasi ko'rinishida hosil qilinadi.

Yorqinlik signalidagi

oqning etalon darajasi

ing. - reference level of white in

brightness signal

rus. - эталонный уровень белого в

яркостном сигнале

Oq yo'nalishida yorqinlik signalining muayyan maksimal kirishiga mos keladigan daraja.

Yorqinlik signalining

nochiqliq buzilishlari

ing. - nonlinear garbling of

brightness signal

rus. - нелинейные искажения

сигнала яркости

Uzatish trakti amplitudaviy tavsifining no-

chiziqli shakli tufayli yuzaga keladigan, pog'onali yoki arrasimon signallar yordami-da baholanadigan buzilishlar.

Yorqinlik va ranglilik signallarining vaqt davomidagi farqi

ing. - divergence in time of signals of luminance and chrominance
rus. - расхождение во времени сигналов яркости и цветности
Yorqinlik va ranglilik signallarining kechikishidagi, tegishli yorqinlik uchastkasi-dan rangning chap yoki o'ngga o'tishiga olib keladigan, farq.

Yorqinlik, ravshanlik

ing. - brightness
rus. - яркость
Piksel bilan birlashtirilgan va kul rangning (oqdan qoragacha bo'lgan) kattaligini aks ettiradigan qiymat. Shuningdek, foydalanuvchi monitorida qoradan oqqacha shkala bo'yicha rang yorqinligini bildiradi.

Yorqinlikni rostdlash

ing. - brightness control
rus. - регулировка яркости
Qabul qiluvchi televizion trubkada silji-tuvchi kuchlanishni qo'lda sozlash. Izoh - Yorqinlikni sozlash tasvirning o'rta-cha yorqinli-giga ham, kontrastlilikka ham ta'sir etadi.

Yorqinlik-ranglilik kesichuvchi buzilishi

ing. - brilliance-chrominance cross-distortion
rus. - перекрестное искажение яркость-цветность
Ranglilik signalining yorqinlik signali spektrining ranglilik signalining chastotalar polosasida yotuvchi tashkil etuvchilari keltirib chiqaradigan buzilishi.

Yorqinlik-ranglilik kesishuvchi shovqini

ing. - cross noise brilliance-chrominance
rus. - перекрестный шум яркость-цветность
Tasvirdagi yorqinlik kanalidan ranglilik kanaliga shovqinni kiritish tufayli yuzaga keladigan nomaqbul rang effekti. Izoh - Bu yomonlashuv, xususan, kompozit rang video-signallardan foydalanadigan tizimlarda yuzaga keladi.

Yorug'lik aberratsiyasi

ing. - aberration of light
rus. - aberrация света
Yorug'lik nuri yo'nalishining kuzatuv-

chining yorug'lik manbaiga nisbatan hara-
katlanishi oqibatida o'zgarishi.

Yorug'lik diodi

ing. - light-emitting diode
rus. - светодиод
Elektr tokini yorug'lik nurlanishiga aylanti-radigan, nanoo'lchamli geterotuzilmalarga asoslangan asbob.

Yorug'lik perosi

ing. - light pen
rus. - световое перо
Ekran nuqtalari koordinatasini olishda kerak bo'lgan yoruqlikka sezgir qurilma. Yorug'lik perosi ma'lumotlarni chiqarishda ishlatiladi va maxsus ekranni talab qilmaydi. Yorug'lik perosi uchiga o'rnatilgan maxsus fotoelement, peroni ekran bilan ta'sir nuqta-sidan uzatilayotgan yorug'lik signalini seza-di. Signal paydo bo'lishi bilan tasvirning ochilishi sinxrosignalni taqqoslash yorug'lik perosining ekrandagi joylashuvini aniqlash imkonini beradi.

Yorug'lik (rang) ning maydon bo'ylab notekisligi

ing. - unevenness of brilliance (of colour) through field
rus. - неравномерность яркости (цвета) по полю
Qayta tiklanayotgan televizion tasvir maydoni bo'yicha yorug'lik va/yoki rangning beixtiyoriy o'zgarishi.

Yorug'lik sarfi

ing. - light efficiency
rus. - световая отдача
Tarqalayotgan yorug'lik oqimining iste'mol qilingan quvvatga nisbati. Yorug'lik sarfi-ning birligi lyumen/vatt. (lm/W).

Yorug'lik sochilishini tuzatish

ing. - correction of light scattering
rus. - коррекция светорассеяния
Telekameraning optik tizimida yorug'lik sochilishi ta'sirida qora darajasida buzilgan videosignal shaklini tuzatish.

Yorug'lik to'lqinlari

ing. - lightwaves
rus. - световые волны
0,4 mkm dan 0,76 mkm gacha bo'lgan dia-pazondagi elektromagnit to'lqin uzunliklari.

Yorug'lik va sinxronizatsiya signallarining nisbati

ing. - luminance/synchronizing ratio

rus. - отношение сигналов

яркости и синхронизации
Oq darajaning sinxronizatsiya darajasiga, ikkalasi ham so'ndirish darajasiga nisbatan ifodalangandagi, nisbati.

Yorug'lik xarakteristikasi

ing. - light characteristic

rus. - световая характеристика

O'zgartirgich chiqishidagi signal tokining uning fotosezgir yuzasi yoritilganligiga bog'liqligi.

Yorug'lik o'qi

ing. - luminance axis

rus. - ось яркости

Har bir rang uchun yorug'lik tashkil etuvchisi ajratiladigan tayanch oq rangni o'z ichiga oladigan rangli fazo o'qi.

Yorug'lik o'tkazgich

ing. - lightguide

rus. - световод

Silindr shaklidagi, ikki qavat ingichka shisha o'tkazgich ko'rinishida yasalgan optik to'lqin o'tkazgich. Uning bo'ylab to'lqin uzunligi 400 nm dan 3000 nm gacha bo'lgan elektromagnit nurlanish uzatiladi.

Yorug'likka sezgirlikning mutlaq chegarasi

ing. - absolute threshold of light sensitivity

rus. - абсолютный порог световой

чувствительности

Qorong'ulikka moslashish sharoitida qora fonda ko'z ilg'aydigan yorug'lik dog'i yorqinligining eng kichik (chegaraviy) qiymati.

Yorug'likning kombinatsion sochilishi (Raman effekti)

ing. - combinational dissipation

of light (Raman's Effect)

rus. - комбинационное рассеяние

света (Эффект Рамана)

Modda tomonidan sochilgan yorug'lik chastotasining o'zgarish hodisasi.

Yorug'likning yutilish koeffitsiyenti

ing. - luminous absorptance coefficient

rus. - коэффициент поглощения света

Jism yutgan yorug'lik miqdorining jismga tushadigan yorug'lik miqdoriga nisbati.

Yoyiladigan ko'zgu

ing. - deployable reflector

rus. - развертываемое зеркало

Ko'plab seksiyalardan iborat bo'lgan katta antenna ko'zgu. Yo'ldoshi aloqa tizimlarida qo'llaniladi.

Yoyish

ing. - scanning

rus. - развертка

1. Signal datchigida - elektr signalni olish uchun, har bir elementning yorug'lik xarakteristikalarini aks ettiradigan, sirtning har bir element bo'yicha tizimli o'tishi.

Izoh - Taalluqli atama «ochib ko'rsatish».

2. Televideniyeda - to'g'riburchakli sirt elementlari to'g'riburchakning katta tomoniga parallel bo'lgan bir binga nisbatan teng uzoqlashirilgan to'g'ri liniyalar bo'yicha doimiy aniq tezlik bilan aylangandagi yoyish.

Yoyish davri

ing. - period of scanning

rus. - период развертки

To'g'ri va teskari yoyilish yo'llarining vaqt yig'indisi.

Yoyish qadami

ing. - scanning step; scanning pitch

rus. - шаг развертки

Televizion rastr ikkita qo'shni satrlarining o'qlari orasidagi masofa. Yoyish qadami satrlarning aktiv soniga bo'lingan tasvir (kadr) balandligiga teng bo'lishi kerak.

Yoyish signali

ing. - sweep signal

rus. - сигнал развертки

Yoyuvchi element harakatini boshqaruvchi signal.

Yoyish tezligi

ing. - scanning speed

rus. - скорость развертки

Yoyuvchi element yoyiladigan sirt bo'ylab o'tadigan liniyaviy tezlik.

Yoyli antenna panjarasi

ing. - arc array

rus. - дуговая антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari egri chiziq qismida joylashgan antenna panjarasi.

Yoymoq

ing. - maximize

rus. - развернуть

Oynani uning yuqori o'ng burchagidagi

yoyish tugmasini bosib, maksimal o'Ichamga yetguncha kattalashtirish.

Yozib olingan xabar

ing. - recorded message

rus. - записанное сообщение

Kelib tushgan xabarlarni yozish uchun qurilmaga chaqiruvluchi abonentga kelib tushadigan chaqiruvlarni uzatish imkonini beradigan, ushbu abonent yoki oxirgi (terminal) tarmoq tomonidan taqdim etiladigan xizmat.

Yozib olingandan so'ng uzatish

ing. - recorded broadcast

rus. - передача с записи

Efiirga, faqat yozib olingandan so'ng uzatiladigan tovushli yoki televizion dastur.

Yozib olishdan muhofaza qilish

ing. - write protect

rus. - защита от записи

Diskdagi axborotni, 5,25» disketalarida solishtirib o'qish belgisini yopishtirish va 3,5» disketalarida solishtirib o'qish belgisini surib, muhofaza qilish usuli, bu yangi ma'lumotlar yozib olishning oldini oladi va mavjud ma'lumotlarni yo'qolishdan saqlaydi.

Yozib olishga ruxsat

ing. - write access

rus. - доступ на запись

Ma'lumotlarni yozib olish uchun ruxsat beradigan foydalana olish huquqi.

Izoh - Yozib olishga ruxsat ma'lumotlarni to'ldirish, o'zgartirish, o'chirish yoki yaratishga ruxsat hisoblanadi.

Yozish vaqtida nusxalash

ing. - copy-on-write

rus. - копирование при записи

Jarayonni yaratish strategiyasi, bunda yangi jarayon adres fazosini bosh jarayon bilan manzil fazosining birinchi yozuviga cha ajratadi, shundan so'ng shu'ba jarayon uchun yangi manzil fazosi yaratiladi.

Yozishdagi xato

ing. - write error

rus. - ошибка записи

Axborotni tezkor xotiradan ma'lumotlarni saqlash yoki chiqarish qurilmasiga uzatish paytida yuz beradigan xato.

Yozma xat-xabarlar

ing. - letter post

rus. - письменная корреспонденция

Oddiy, buyurtma, qiymati e'lon qilingan xat-

lar va banderollar, oddiy, buyurtma pochta varaqchalari hamda oddiy, buyurtma seko-grammalar, shuningdek, mayda paketlar.

Yozma xat-xabarlarga shtempellash

ing. - stamping of written correspondence

rus. - штемпелование письменной корреспонденции

Pochta markalarining va/yoki yozma xat-xabarlarning jo'natilishi belgilangan manzildagi pochta aloqasi obyektiga kelib tushgan sanasini hisobdan chiqarish yo'li bilan qabul qilish joyi va sanasini belgilash maqsadida unga taqvim shtempeli izini tushirishni o'z ichiga olgan yozma xat-xabarlarga ishlov berish.

Yozmoq

ing. - write

rus. - записывать

Ma'lumotlarni tezkor xotira qurilmasidan tashqi qurilmaga yoki protsessordan tezkor xotira qurilmasiga uzatish.

Yozuv

ing. - record

rus. - запись

1. Dasturlash tillarida ma'lumotlar tuzilmasi - yaxlit bir butun sifatida qaralishi mumkin bo'lgan, bir jinsli bo'lmagan tizimlashtirilgan elementlar to'plami. Har bir element yozuv maydoni deb ataladi, u nomga va turiga ega bo'ladi. Muayyan yozuv maydonida saqlanadigan ma'lumotlardan foydalanish uchun, yozuvni saqlaydigan o'zgaruvchi nomi ko'rsatiladi, keyin nuqtadan so'ng maydon nomi keladi.

2. Magnit tashuvchidagi, masalan, magnit tasmasdagi ma'lumotlar bloki.

Yozuv agenti

ing. - recording agent

rus. - агент записи

Kuzatib boriladigan ilova jarayonining fazoda yuklangan kadmi qamrab oladigan umumiy bibliotekasi.

Yozuv demoni

ing. - recording daemon

rus. - демон записи

Kuzatiladigan dastur joylashgani kabi oxirgi nuqtada ishlaydigan va kengaytirilgan vakolatlar talab qilinadigan operatsiyalarni bajaradigan imtiyozli jarayon.

Yuguruvchi nurli kamera

ing. - running ray camera

rus. - камера с бегущим лучом

Tasvirlarni yuguruvchi yorug' dog' orqali yoyishga asoslangan uzatish qurilmasi.

Yuguruvchi to'liqin

ing. - traveling wave

rus. - бегущая волна

Uzatish liniyasida, uzatuvchi muhitning xossalari bilan belgilanadigan tezlikda faqat bir yo'nalish bo'ylab tarqaladigan elektromagnit to'liqin.

Yuguruvchi to'liqin antenasi

ing. - aerial of running wave

rus. - антенна бегущей волны

Geometrik o'qi bo'ylab elektromagnit tebranishlarning yuguruvchi to'liqlarini tarqaladigan yo'naltirilgan antenna.

(zoh - Yuguruvchi to'liqin antennalariga «to'liqli kanal» turidagi antenna, spiral antenna, dielektrik antenna, rombsimon antenna va boshqa qator antennalar kiritiladi.

Yuguruvchi to'liqin koeffitsiyenti

ing. - travelling-wave factor

rus. - коэффициент бегущей волны

Uzatish liniyasidagi to'liqin elektr yoki magnit maydoni eng kichik amplituda kuchlanilganligi nisbatiga teng koeffitsiyent.

Yuklab olish

ing. - download

rus. - скачать

Internet tarmog'idan faylni olish.

Yuklagich

ing. - loader

rus. - загрузчик

Boshqa dasturlarni ularni amalga oshirishi uchun tezkor xotiraga yuklovchi tizim dasturi. Boshlang'ich yuklovchining farqli tomoni, u BIOS da joylashgan bo'lib, u operatsion tizimni yuklaydi va unga boshqaruvni uzatadi, shuningdek yuklovchilar operatsion tizimning o'zida ham mavjud.

Yuklama koeffitsiyenti

ing. - loading coefficient

rus. - коэффициент нагрузки

Foydalanishning ma'lum sharoitlarida elementga ta'sir etadigan ishchi yuklanamaning nominal (standartlar, foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa tegishli hujjatlar bilan belgilangan) yuklamaga nisbati.

Yuklama konsentratori

ing. - overload concentrator

rus. - концентратор нагрузки

Ma'lumotlarni uzatish tarmog'ida paketlarni kommutatsiya markaziga ulanadigan va paketlarni yig'ish-sochish operatsiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan texnik vosita.

Yuklamoq

ing. - upload

rus. - загружать

Ma'lumotlarni boshqa kompyuterga (tarmoq orqali) yuklash.

Yuklanish paytida

ing. - on boot

rus. - при загрузке

Operatsion tizim yoki dasturning xotiraga yuklanishida bajariladigan protseduralar yoki dasturlar.

Yuklanishdagi tasvir

ing. - boot splash

rus. - изображение при загрузке

Operatsion tizimning nomini va logotipini aks ettiruvchi tasvir.

Yuklanishni balanslash

ing. - load balancing

rus. - балансировка загрузки

Klaster serverlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida, hisoblash klasterida yuklanishni taqsimlash.

Yuklanishni initsializatsiya qilish

ing. - boot initialization (BOOT.INI)

rus. - инициализация загрузки

Windows NT/2000/XP/10 operatsion tizim yuklanishini initsializatsiya qiladigan fayl. Operatsion tizimlarni yuklash usullarini ifodalaydi.

Yuklanuvchi disk

ing. - boot disk

rus. - загрузочный диск

Operatsion tizimni yuklash yoki qayta yuklash amalga oshiriladigan qattiq disk (disketa).

Yuklanuvchi drayver

ing. - loadable driver

rus. - загружаемый драйвер

Tezkor xotiraga faqat kerak vaqtda yuklanuvchi drayver. Bunday drayverlar tezkor xotirani tejashni va protsessor resursining bekor sarflanishini oldini oladi.

Yuklanuvchi sektor, butsektor

ing. - boot sector, volume boot sector

rus. - загрузочный сектор, бутсектор

Axborotni saqlaydigan qattiq disk, disketa yoki boshqa disk qurilmasidagi muhim sektor. Disketa va optik disk uchun bu birinchi jismoniy sektor, qattiq disk uchun har bir bo'limning birinchi jismoniy sektori. Flesh-kada yuklash sektori bo'lmaydi.

Yuklanuvchi virus

ing. - boot virus

rus. - загрузочный вирус

Kompyuterni yuklashda bajariladigan va qattiq yoki egiluvchan magnit diskning yuklash sektoridagi dasturni zararlaydigan virus.

Yuklash

ing. - loading, booting

rus. - загрузка

1. Ishga tushayotgan dastur, jarayon va sh.k. fayllarni dasturning keyingi ishini ta'minlash uchun tezkor xotiraga yuklash jarayoni.
2. Kompyuterni operatsion tizim yadrosini yuklash orqali ishga tushirish.

Yuklash manzili

ing. - load address

rus. - адрес загрузки

Tezkor xotira qurilmasining manzili, undan boshlab dastur xotirada joylashtiriladi. Absolyut dasturlarda yuklash manzili qayd etilgan bo'ladi va dasturchi tomonidan beriladi. Yuklash paytida suriladigan dasturlardan (chiziqli xotiraga ega kompyuterlarda) manzillarni sozlash amalga oshiriladi. Bu sozlash suriladigan barcha manzillarni yuklash manziliga teng bo'lgan konstantaga oshirishda ifodalangani.

Yuklash qurilmasi

ing. - boot drive

rus. - загрузочное устройство

Olinadigan yoki doimiy yuklash diski qurilma.

Yuklash vaqti (fazasi)

ing. - time (phase) load

rus. - время (фаза) загрузки

Dasturning xotiradagi binar obrazini olish uchun aloqa redaktori va yuklagichni chaqirish fazasi.

Yuklash vaqtida manzillarni bog'lash

ing. - load-time

rus. - связывание

адресов во время загрузки

Manzillash sxemasi, bunda generatsiyalanadigan kod ma'lumotlarni va dasturni qiymati dasturni yuklashda aniqlanadigan ko'chirish registriga nisbatan manzillaydi.

Yuklash yozuvi

ing. - loading recording

rus. - загрузочная запись

Disketdagi birinchi fizik sektor yoki qattiq disk bo'limining birinchi mantiqiy sektori. Bitta yoki bir nechta sektordan iborat bo'lishi mumkin. Yuklovchi yozuvning birinchi sektori yuklovchi sektorning imzosi bilan tugallanadi. Yuklovchi disklarda, shuningdek, operatsion tizim yuklaydigan dastur ham bo'ladi. Ba'zida yuklash sektor deb ataladi.

Yuklashni balanslash klasterlari

ing. - load-balancing clusters

rus. - кластеры с балансировкой загрузки
Server bek-endi kompyuterlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydigan, (front-ends) so'rovlarni balanslaydigan bir nechta kirish kompyuterlariga ega kompyuter klasterlari.

Yulduz

ing. - star

rus. - звезда

Kompyuterlarni tarmoqqa birlashtirish usuli: bitta kompyuter ajratiladi va u asosiy (bosh) kompyuter ataladi, qolgan barcha kompyuterlar u bilan bevosita ulanadi. Ma'lumotlar bitta periferik kompyuterdan boshqasiga faqat bosh kompyuter orqali uzatilishi mumkin. Bosh kompyuter ishlamay qolsa, butun tarmoq ishlash qobiliyatini yo'qotadi.

«Yulduz» topologiyasi

ing. - star topology

rus. - топология «звезда»

Lokal hisoblash tarmog'ining uchta tayanch fizik topologiyasidan biri. Bunda kompyuterlar va qurilmalar markaziy uzal bilan radial liniyalar orqali ulanadi.

Yulduzcha, «*» simvoli

ing. - asterisk, symbol «*»

rus. - звёздочка, символ «*»

Qator operatsion tizimlarda faylning umumlashtirilgan nomini berish uchun foydalaniladigan simvol. Tizim yulduzcha simvoli

o'rinda ixtiyoriy
simvolni qo'yishi mumkin. iborat ixtiyoriy

Yulduzsimon tarmoqlagich

ing. - star coupler

rus. - звездообразный ответвитель

1. Bitta kirish va ikkitadan ko'p chiqish optik qutblari bo'lgan optik tarmoqlagich.
2. Signal energiyasini o'zining chiqish uchlari o'rtasida bir tekis taqsimlaydigan (chiqish uchlari kamida to'rtta bo'lgan) passiv qurilma.

Yulduzsimon topologiya

ing. - star topology

rus. - звездообразная топология

«Yulduz»ni eslatuvchi topologik sxema. Undagi har bir olisdagi tarmoq uzeli bitta markaziy kommutator, uzal stansiyasi yoki kanallar konsentratori bilan bog'lanadi. «Yulduz»simon topologiyali tarmoq mahalliy foydalanuvchilar uchun trafikni tarmoqlash (ajratish) va olisdagi foydalanuvchilar o'rtasida qayta taqsimlash imkonini beradi.

Yulduzsimon to'rtlik

ing. - star quad

rus. - звездчатая четверка

Birga buralgan, to'rtta izolyatsiyalangan o'tkazgichdan iborat kabel elementi. Ikki qarama-qarshi o'tkazgich uzatuvchi juftlikni hosil qiladi. Yulduzsimon to'rtligi bo'lgan kabellar, ularning elektr xarakteristikalarini aynan shu spetsifikatsiyalar talablariga javob beradigan hollarda, juftliklardan iborat kabellar bilan o'zaro almashinuvchan bo'lishi mumkin.

Yumshoq xendover

ing. - soft handover

rus. - мягкий хэндовер

Axborotni yo'qotmay turib, ishchi kanalni bir tayanch stansiyadan boshqasiga avtomatik tarzda qayta ulash. Yumshoq qayta ulash rejimi bir vaqtda, bittadan ko'p tayanch stansiya bilan ishlash imkoniyatini nazarda tutadi.

Izoh - O'xshash protsedura ko'p yo'ldoshli aloqa tizimida ham mavjud bo'lib, unda yer stansiyasining bitta kosmik apparat (tushayotgan)dan boshqa kosmik apparat (ko'tariluvchi) ga qayta ulanishi sodir bo'ladi.

Yumshoqroq xendover

ing. - softer handover

rus. - более мягкий хэндовер

Ishchi kanallarni bir sektorli antennadan

boshqasiga qayta o'zgartirish, bitta tayanch stansiyada amalga oshirilishi tufayli, sinxronizmga qayta kirish protsedurasi talab qilinmaydigan xendover.

Yuqori

ing. - top

rus. - верх

Obyektning ma'lum bir chegaralarga nisbatan yuqori joylashgan o'ri.

Yuqori aniqlikdagi televideniye (YuAT)

ing. - high definition TV (HDTV)

rus. - телевидение высокой четкости (ТВЧ)

Vertikal va gorizontal bo'yicha taxminan ikki marta kattalashtirilgan aniqlikka ega va standart aniqlikdagi televideniye bilan solishtirganda kadrlarning kattalashtirilgan formatiga ega televideniye.

Yuqori aniqlikdagi TV (HDTV) va

oddiy sifatli TV dasturlarini

taqsimlash xizmatlari

ing. - high definition TV and ordinary

TV distribution services

rus. - услуги распределения программ

ТВ высокой четкости (HDTV) и ТВ обычного качества

HDTV xarakteristikalariga yoki oddiy tasvir sifatiga ega televizion dasturlarni taqsimlash imkonini beradigan xizmatlar.

Yuqori daraja tili

ing. - high-level language

rus. - язык высокого уровня

Uchinchi avlod va undan yuqori darajadagi dasturlash tillari, ya'ni assemblerlarga qaraganda, abstraktlashning birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydigan tillar.

Yuqori elliptik orbita (yo'ldoshning)

ing. - high-elliptical orbit (of satellite)

rus. - высокоэллиптическая

орбита (спутника)

Yo'ldoshning ellips shaklidagi aylanish orbitasi, uning fokuslaridan birida Yer markazi joylashadi va uning o'qlari yulduzlarga nisbatan ma'lum yo'nalishda bo'ladi.

Izoh - «Molniya» yo'ldoshlari yuqori elliptik orbitasining apogey balandligi 40000 km ga yaqin, perigey balandligi 500 km, ekvator tekisligiga og'ishi 63,4° ga teng.

Yuqori huquqlar bilan ishga tushirmoq
ing. - run elevated

rus. - запустить с повышенными правами
Bir foydalanuvchi ega bo'lgan huquqlardan ko'proq huquqlarga ega foydalanuvchi nomidan dasturni ishga tushirish. Masalan, kichkina sozlashlarda ishlatilishi mumkin.

Yuqori indeks

ing. - superscript

rus. - верхний индекс

Matn satri harflaridan yuqorida bosilgan bit-ta yoki bir nechta simvol.

Yuqori natija

ing. - high score

rus. - лучший результат

Yuqori baho va eng yuqori balli natija

Yuqori pog'ona domeni

ing. - top level domain

rus. - домен верхнего уровня

Qar.: gTLD, ccTLD.

Yuqori quvvatli eltuvchi

ing. - large carrier (LC)

rus. - несущая с большим

уровнем мощности

Energiyasining asosiy qismi eltuvchi chastotada to'plangan, modulyatsiyalangan signal.

Yuqori registr

ing. - upper case

rus. - верхний регистр

Klaviaturadan kiritish Caps Lock klavishi bosilganda amalga oshiriladigan rejim. Bunda matn katta harflar bilan kiritiladi.

Yuqori sifatli keng polosali

videokonferensaloqa xizmatlari

ing. - high quality broadband

videoconference service

rus. - услуги высококачественной

широкополосной видеоконференцсвязи

Ikkita yoki undan ortiq punkt o'rtasida konferens-aloqani ta'minlash uchun turli axborotni, jumladan, avvalo nutq (tovush), oddiy videofilmlar, harakatdagi tasvirlar va qo'shimcha ravishda, videoskanlaydigan harakatsiz tasvirlar, hujjatlar hamda boshqa videoaxborotni yuqori sifatli uzatish bilan abonent-abonent yoki guruh-guruh (abonentlar) aloqa imkoniyatini ta'minlaydigan xizmatlar.

Yuqori sifatli rang

ing. - high color

rus. - высококачественный цвет

Rangni 15- va 16-bitli kodlash orqali (multi-mediali shaxsiy kompyuterlar grafik kontrollerining platalarida) monitorda bir vaqtning o'zida 32 K yoki 64 K ranglarni ko'rsatish imkoniyati. U tasvir sifatini rangli fotosurat sifatiga yaqinlashishini ta'minlaydi.

Yuqori texnologiyalar kompaniyalari

ing. - hi-tech companies

rus. - компании высоких технологий

Asosiy aktivlari intellektual mulk va yuqori malakali mutaxassislar bo'lgan kompaniyalarning shartli nomi. Faoliyat sohasi - yuqori va postindustrial texnologiyalar. Bu turdagi kompaniyalarga odatda quyidagilar kiradi: internet kompaniyalari; dasturiy ta'minot va yarimo'tkazgichli qurilmalar ishlab chiqaruvchilar; mobil va kosmik aloqa operatorlari; biotexnologiya kompaniyalari; ilmiy-tekshirish tajriba konstruktorlik ishlanmalari sohasidagi kompaniyalar; yuqori texnologiyali uskunalar ishlab chiqaruvchilar va h.k.

Yuqori tezlikdagi raqamli abonent

liniyasi texnologiyalarining turkumi

ing. - x Digital S Line (xDSL)

rus. - семейство технологий

высокоскоростной цифровой

абонентской линии

DSL standartining protokollar majmui, unda «x» simvoli o'rniqa DSL (ADSL, HDSL, SDSL) standartining quyi turini belgilaydigan harflardan istalganini qo'yish mumkin.

Yuqori tezlikli foydalana olish klasterlari

ing. - high-availability clusters, (HA)

rus. - кластеры с

высокоскоростным доступом

Klaster kompyuterlari taqdim etadigan resurslardan, masalan, ma'lumotlar bazasidan optimal foydalana olishni ta'minlaydigan kompyuter klasterlari.

Yuqori tezlikli raqamli abonent liniyasi

ing. - very high-bit-rate digital

subscriber line/loop (VDSL)

rus. - высокоскоростная цифровая

абонентская линия

O'tkazish qobiliyati 10 Mbit/s dan ortiq bo'lgan asimmetrik hamda simmetrik aloqa liniyalarini yaratish uchun mo'ljallangan abonent foydalanish texnologiyasi.

Yuqori unumli fayl tizimi

ing. - high performance file system

rus. - высокопроизводительная

файловая система

IBM va Microsoft tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan, operatsion tizim uchun mo'ljallangan fayl tizimining nomi. Windows NT tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Yuqori xotira

ing. - high memory

rus. - верхняя память

MS DOS operatsion tizimiga oid atama. Birinchi 640 kbyte xotiradan tashqarida joylashtirilgan tezkor xotirani anglatadi. To'g'ridan-to'g'ri ishlatilmagan, bu esa dasturlarni birmuncha chegaralaydi.

Yuqori xotira sohasi

ing. - high memory area

rus. - область высокой памяти

Qo'shimcha xotiraning dastlabki 64 kB i.

Yuqori xotira tizimi

ing. - HIMEM.SYS

rus. - система верхней памяти

Yuqori tezkor xotiraning ulanish drayveri. Bu drayversiz operatsion tizim faqatgina BIOS bilan belgilab qo'yilgan 640 kilobayt quyi xotiradagina foydalana oladi. Windows da bu muammo o'zining dolzarbligini yo'qotgan.

Yuqori zichlikli bipolyar kodlash

ing. - high density bipolar coding (HDB)

rus. - высокоплотное

биполярное кодирование

Modifikatsiyalangan bipolyar RZ kodi yordamida kodlash usuli. Bunda majburiy inversiya (qutblilikni o'zgartirish) vositasida takrorlanadigan simvollarning davomiy ketma-ketligi chiqarib tashlanadi. Natijada davomli pauzalarsiz kod shakllanadi, bu esa, xabarlarini qabul qilishda sinxronlash buzilishlarini bartaraf etish imkonini beradi.

Yuqori chastotalar

ing. - high frequency

rus. - высокие частоты

3 MHz dan 30 MHz gacha diapazondagi chastotalar sohasi. Ko'rsatilgan chastotalarga dekametri (qisqa) to'lqinlar ($\lambda=100-10$ m) mos keladi.

Yuqori chastotalar filtri

ing. - filter of high frequencies

rus. - фильтр высоких частот

Berilgan qirgim chastotasidan yuqori o'tkazish polosasiga va pastroq chastotalar uchun tutib qolish polosasiga ega bo'lgan elektr chastota filtri.

Yuqori chastotali kabel

ing. - high-frequency cable

rus. - высокочастотный кабель

Elektromagnit energiyani yuqori chastotalarda kichik yo'qotishlar bilan uzatish uchun mo'ljallangan kabel.

Yuqori chastotali qurilmalar

ing. - high-frequency devices

rus. - высокочастотные устройства

Radioto'lqinlarni qabul qilish yoki nurlantirishda foydalanishdan tashqari, sanoat, ilmiy, tibbiy, maishiy yoki boshqa maqsadlarda radiochastota energiyasini generatsiyalash va undan foydalanish uchun mo'ljallangan uskuna yoki asboblari.

«Yuqoridan pastga» dasturlash

ing. - top-down programming

rus. - программирование «сверху вниз»

Dasturlarni ishlab chiqish metodikasi, bu metodikaga ko'ra, ishlab chiqish muammoni hal qilish maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi, shundan keyin batafsil dastur bilan tugaydigan izchil detallashtirish ketadi. Strukturaviy dasturlash texnologiyasiga kiradi. Ikkinchi nomi pasayib boradigan dasturlash.

Yuridik shaxs

ing. - corporate customer

rus. - юридическое лицо

Alohida mulkka ega bo'lgan, o'z majburiyatlarini yuzasidan javob beradigan, o'z nomidan fuqarolik huquqlarini amalga oshiradigan va oladigan, fuqarolik majburiyatlarini ko'taradigan, sudda da'vogar va javobgar bo'ladigan tashkilot.

Yuritgich

ing. - engine

rus. - движок

Qur.: CMS.

Yutilish

ing. - absorption

rus. - поглощение

1. Optik quvvatning metallar va gidrok-

sil ionlar kabi iftoslanishlari mavjudligi, shuningdek, radiatsion nurlanishga ta'sirchanlik orqasida kelib chiqadigan issiqlikka aylanishi natijasida optik tolada quvvatning yo'qolishi.

2. Elektromagnit to'lqinlarning energiyaning boshqa turiga, odatda, issiqlikka aylanishi oqibatida radioto'lqinlarning so'nishi.

Yutuvchi attenuator

ing. - absorptive attenuator

rus. - поглощающий attenuator

Signal quvvatini kamaytirish katta yo'qotishli materiallarda energiyaning yutilishi hisobiga yoki yarimo'tkazgichli diodlar qarshiligida sodir bo'ladigan attenuator.

Yuvilish

ing. - blooming

rus. - размывание

Oqdan oq soha dastlabki holatdagiga qaraganda ko'p yuklangan tasvir ko'rinishi, uzatuvchi trubka nishoni, yorug'lik elektr o'zgartirgich yoki televizion ekran qismlarining to'yinganligi tufayli sodir bo'ladi.

Yo'l

ing. - path

rus. - путь

Diskda fayl, katalog yoki papkaning joylashgan o'rini belgilaydigan satrli ifoda.

Yo'l qo'yiladigan radioxalaqit

ing. - permissible radiointerference

rus. - допустимая радиопомеха

Ta'sirida radioelektron vositaning talab qilinadigan ishlash sifati saqlanib qoladigan radioxalaqit.

Yo'l qo'yiladigan xalaqit

ing. - permissible disturbance

rus. - допустимая помеха

Xalaqit ta'siriga tushgan texnik vositaning ishlash sifati belgilangan darajada saqlanib qoladigan elektromagnit xalaqit.

Yo'l qo'yilmaydigan

ing. - invalid

rus. - недопустимый

Qayta ishlab bo'lmaydigan xatoni keltirib chiqargan ruxsat berilmagan harakatni amalga oshirgan biron-bir harakat yoki operatsiya, komanda yoki yo'riqnomalar natijasi.

Yo'l qo'yilmaydigan xalaqit

ing. - intolerable (inadmissible) disturbance

rus. - недопустимая помеха

Ta'siri texnik vositaning ishlash sifatini yo'qo'yib bo'lmaydigan darajagacha pasaytiradigan elektromagnit xalaqit.

(Yo'ldosh) elliptik orbitasi

ing. - elliptical orbit (of a satellite)

rus. - эллиптическая орбита (спутника)

Ekssentrisitet koeffitsiyenti katta bo'lgan, ya'ni apogey balandligi perigey balandligidan birmuncha oshadigan orbita. Yer gravitatsiya maydonining bir xil emasligi tufayli elliptik orbitaning katta o'qi apogeydagi kichik yo'ldosh nuqtasi kengligining tebranishlariga olib keladigan aylanish onini sezadi. Elliptik orbitaning doimiyligini ta'minlash uchun, tekisligining ekvatorga nisbatan og'ish kattaligi ikkita qiymatdan (63,4° yoki 116,6°) biriga ega bo'lishi kerak. Yo'ldoshli aloqa tizimlarida elliptik orbitaning: yuqori elliptik orbita (HEO), o'rtacha balandlikdagi orbita (MEO), Yer atrofidagi quyi orbita (LEO) orbitalaridan foydalaniladi.

(Yo'ldosh) orbita davri,

(yo'ldosh) aylanish davri

ing. - orbital period (of a satellite),

period of revolution (of a satellite)

rus. - период орбиты (спутника),

период обращения (спутника)

Orbitaning bitta nuqtasi orqali yo'ldoshning ikki marta ketma-ket o'tishi o'rtasidagi vaqt oralig'i orqali aniqlanadigan, Yer atrofini to'liq aylanish vaqti.

Yo'ldoshli antenna/tarelka

ing. - satellite antenna

rus. - спутниковая антенна/тарелка

Yo'ldosh signallarini qabul qilish/uzatish uchun mo'ljallangan qabul qiluvchi/uzatuvchi tarelkasimon parabolik antenna.

Yo'ldoshli eshittirish

ing. - direct broadcasting by satellite

rus. - спутниковое вещание

Kosmik stansiyalardan uzatishlar aholi tomonidan bevosita qabul qilinishi uchun mo'ljallangan radioeshittirish xizmati. Izohtar

1. Aholining qabul qilishi individual qabulni ham, jamoaviy qabulni ham o'z ichiga oladi.

2. Taalluqli atama «yo'ldoshli televideniye».

Yo'ldoshli Internet

ing. - satellite internet

rus. - спутниковый Интернет

Internet global tarmog'idan yo'ldoshli aloqa kanallari orqali foydalanish.

Yo'ldoshli provayderlar

ing. - satellite providers

rus. - спутниковые провайдеры

Yo'ldoshli aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar.

Yo'ldoshli (raqamli televidion) eshittirish tizimi

ing. - system of satellite (digital television) broadcasting

rus. - система спутникового

(цифрового телевизионного) вещания

Televidion dasturlarni bevosita raqamli televizorlarga, shuningdek, jamoa bo'lib foydalaniladigan yo'ldoshli televidion antennalari bo'lgan tizimlarga ulangan raqamli televizorlarga yetkazish uchun mo'ljallangan raqamli televidion eshittirish tizimi.

Yo'ldoshli televideniyeing kabel orqali taqsimlanishi

ing. - cable satellite television distribution

rus. - кабельное распределение спутникового телевидения

Kosmik stansiyadan yer stansiyalari orqali qabul qilgan va kabelli televideniye tizimlarining asosiy stansiyalariga uzatilgan televidion dasturlarni kabelli tizimlar orqali taqsimlash.

(Yo'ldoshning) geostatsionar orbitasi

ing. - geostationary orbit

rus. - геостационарная орбита (спутника)

To'g'ri va doiraviy orbitasi Yer ekvatori tekisligida yotadigan geosinxron yo'ldosh orbitasi yoki geostatsionar yo'ldoshlar orbitasi. Orbitaning ekvordan balandligi, yo'ldoshning aylanish davri 23 h 56 min 4 s ga teng bo'lgan holda, 35787 km.

(Yo'ldoshning) o'rta

balandlikdagi orbitasi

ing. - medium earth orbit (MEO)

rus. - средневысотная орбита (спутника)

5000-15000 km balandlik diapazonida joylashgan orbita.

Yo'lka

ing. - tract

rus. - дорожка

Ma'lumotlarning konsentrik aylana ko'rinishidagi disk xotirasida o'rni va joylashishi. Magnit yozish usulida ma'lumotlar bu konsentrik aylana bo'ylab ketma-ket joylashadi. Kompakt-disklarda ma'lumotlar bitta spiralsimon yo'lka bo'ylab yoziladi. Ba'zan trek deb ataladi.

Yo'ning optik uzunligi

ing. - optical length of way

rus. - оптическая длина пути

Yorug'lik nuri yo'lining muhit sindirish ko'rsatgichiga ko'paytmasi. Yo'ning optik uzunligi miqdor jihatdan yorug'lik nurining shu vaqt ichida vakuumda o'tgan yo'lga teng.

Yo'nalganlik diagrammasining oraliq burchagi

ing. - beamwidth of directivity pattern

rus. - угол раствора диаграммы направленности

Yo'nalganlik diagrammasi bosh yaproq'ining burchak kengligiga teng. Uning chegarasida nurlanish quvvati maksimal quvvatning kamida yarmini tashkil etadi.

Yo'nalish

ing. - route

rus. - маршрут

Ma'lumotlar uzatish tarmog'i uzellarining ketma-ketligi, unda ma'lumotlar paketi manbadan qabul qilgichga uzatiladi.

Yo'nalish bort antennasi

ing. - airborne antenna

rus. - бортовая курсовая антенна

Samolyot bortidagi, radiolokatsion qo'nish tizimining yo'nalish (glissada, marker) radiomayog'i radiosignallarining qabulini ta'minlaydigan antenna.

Yo'naltirilgan antenna

ing. - directional antenna

rus. - направленная антенна

Muayyan yoki ma'lum yo'nalishlarda, boshqa yo'nalishlarga nisbatan radioto'lqinlarning nurlanishi yoki qabul qilinishini samarali ta'minlaydigan antenna.

Yo'naltirilgan graf**ing.** - oriented graph**rus.** - ориентированный граф

Har bir qiratasi yo'nalishga ega bo'lgan graf.

Yo'naltirilgan interfeys**ing.** - directional interface**rus.** - направленный интерфейс

Qar.: Birga yo'naltirilgan interfeys.

Yo'naltirilgan optik tarmoqlagich**ing.** - directed optical**rus.** - направленный оптический

разветвитель

Optik qutblar o'rtasidagi uzatish koeffitsiyentlari optik nurlanishning tarqalish yo'nalishiga bog'liq optik tarmoqlagich.

Yo'naltirilmagan antenna**ing.** - nondirectional antenna**rus.** - ненаправленная антенна

Berilgan tekislikda barcha yo'nalishlar bo'yicha radioto'lqinlar tarqalishi yoki qabul qilinishining bir xil samaradorligini ta'minlaydigan antenna.

Yo'naltirilmagan optik tarmoqlagich**ing.** - not directed optical**rus.** - ненаправленный

оптический разветвитель

Optik qutblar o'rtasidagi uzatish koeffitsiyentlari optik nurlanishning tarqalish yo'nalishiga bog'liq bo'lmagan optik tarmoqlagich.

Yo'q qilish**ing.** - destruction**rus.** - уничтожение

Hujjatlarni yo'q qilish yoki chiqarib tashlash jarayoni, bu jarayondan so'ng hujjatlarni qayta tiklab bo'lmaydi.

Yo'qotilgan klaster**ing.** - lost cluster**rus.** - потерянный кластер

Tizim xatoliklari yoki foydalanuvchining ba'zi harakatlari natijasida (mashina ilova yopilmagan paytda o'chirilganda) diskli xotira elementlarining, ya'ni ma'lumotlar bo'lgan faylning bir qismi «yo'qoladigan» vaziyat. Yo'qotilgan klasterlar foydalanuv-

chi uchun foydalanish mumkin bo'lgan xotira hajmini kamaytiradi.

Yo'qotilgan telefon yuklama**ing.** - rejected telephone traffic**rus.** - потерянная телефонная нагрузка

Qarab chiqiladigan vaqt intervali ichida keladigan va xizmat ko'rsatilgan telefon yuklamalar o'rtasidagi farq.

Yo'qotilgan telefon chaqiruvi**ing.** - rejected telephone call**rus.** - потерянный телефонный вызов

Xizmat ko'rsatilishi bo'sh va soz holatdagi kommutatsion aloqa asboblari hamda telefon tarmog'i bog'lamida liniyalar, kanallar bo'lmashligi tufayli bog'lanish o'rnatilishi bilan tugamagan telefon chaqiruv.

Yo'qotilgan chaqiruv**ing.** - lost call**rus.** - потерянный вызов

Aloqa o'rnatish jarayonida yakunlanmasdan qolgan chaqiruv. Abonentning bandligi tufayli chaqiruvga bo'lgan muvaffaqiyatsiz urinish yo'qotilgan chaqiruv hisoblanmaydi.

Yo'qotish, yo'qotishlar**ing.** - loss**rus.** - потеря, потери

Signallarning radioto'lqinlar tarqaladigan muhitda va signallarni o'zgartiradigan qabul qiluvchi-uzatuvchi uskunada susayishi.

Yo'riqnoma, komanda**ing.** - instruction**rus.** - инструкция, команда

1. Tizim, qurilma yoki alohida dastur bilan ishlash tartibini reglamentlaydigan hujjat. So'nggi vaqtda kompyuterlar yoki dasturiy mahsulotlar uchun yo'riqnoma ko'pincha, mashina tashuvchilardagi matnli fayl sifatida yetkazib berilmoqda.

2. Kompyuter dasturi bo'lib, o'zida protessor yoki yo'riqnoma interpretatori tomonidan bajariladigan ketma-ketlikni aks ettiradi. Dasturlashga tatbiqan preprotessor yo'riqnomasi tushunchasi mavjud. Kompilyator dasturning o'zidan nusxa ko'chirishdan oldin bajarilishi kerak bo'lgan operatsiyalar.

Yo'nalganlik diagrammasining

notekislik koeffitsiyenti

ing. - irregularity coefficient of the antenna pattern

rus. - коэффициент неравномерности

диаграммы направленности

θ O'zgarmas burchakda amplitudaviy

yo'nalganlik diagrammasi darajasining uning maksimal qiymatidan nisbatan og'ishi.

Yo'nalganlik kross-qutblanish

diagrammasi

ing. - cross-polarized pattern

rus. - кросс-поляризационная

диаграмма направленности

Kross-qutblanishli tashkil etuvchi uchun

yo'nalganlik diagrammasi.

«Yo'g'on» mijoz

ing. - fat client

rus. - «толстый» клиент

«Ta'sirchan» mijozning aksi bo'lib, o'zining

ko'p hisoblash resurslariga ega tarmoqdagi shaxsiy kompyuter.

«Yo'g'on» Ethernet (10Base5)

ing. - yellow Ethernet (10Base5)

rus. - «толстый» Ethernet (10Base5)

10Base5 spetsifikatsiyasi. Ethernet standartini RG9 turidagi «yo'g'on» koaksial kabeldan (u sariq rangda bo'ladi) foydalanib amalga oshiriladi. U stansiyalar orasidagi masofani 500 m gacha bo'lishini ta'minlaydi. (3COM uskunasidan foydalanib masofani 1000 m gacha uzaytirish mumkin).

Z

Zaiflik

ing. - vulnerability

rus. - уязвимость

1. Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimidagi kamchilik, undan foydalanish tizim yaxlitligi buzilishiga va noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

Izohlar

1. Yaxshi himoya qilinmaganlik dasturlash xatolari, tizimni loyihalashda yo'lqo'yilgan kamchiliklar, ishonchli bo'lmagan parollar, viruslar yoki boshqa zararli dasturlar ta'sirlari va sh.k. natijasi bo'lishi mumkin.

2. Agar yaxshi himoya qilinmaganlik mavjud bo'lganda tegishli tahdid bo'lsa, unda risk ham mavjud bo'ladi.

3. Tizim xavfsizlik siyosatini buzish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan, protseduralar, loyihadagi, amalga oshirishdagi, tizimni ichki nazorat qilishdagi xatolar yoki kamchiliklar keltirib chiqargan, tizim muhofaza vositalaridagi kamchilik.

4. Muhofazani yengib o'tishga olib kelishi mumkin bo'lgan, tizimning muhofaza vositalarini ishlab chiqish, amalga oshirish yoki boshqarishdagi yo'qotishlar yoki vakolatlarni tayinlashdagi xato.

5. Aktivlar yoki boshqarish vositalarining bir yoki undan ko'p tahdid foydalanishi mumkin bo'lgan zaifligi.

6. Tizimning tahdid yuzaga kelganda, muhofaza qilinishi buzilishiga olib keladigan xususiyati. Zaiflik mos darajada loyihalanganlik yoki to'la sozlanmaslik tufayli tasodifan yuzaga kelishi yoki yomon niyat natijasi bo'lishi mumkin.

Zaifliklar tahlili

ing. - analysis vulnerability

rus. - анализ уязвимостей

TCP- va UDP-portlarni skanlashni va tegishli servislar identifikatsiya qilinishini, operatsion tizimlarni masofadan identifikatsiya qilishni, tarmoq xizmatlarining zaif joylarini aniqlashni, shuningdek, tegishli hisobotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladigan faoliyat.

«Zangori» shovqin

ing. - «blue» noise

rus. - «голубой» шум

Spektral zichligi chastota o'zgarishiga qarab chiziqli oshib boradigan shovqin.

«Zarang yaprog'ib» turidagi antenna

ing. - type antenna maple leaf,

clover-leaf antenna

rus. - антенна типа «кленовый лист»

O'qqa nisbatan radial simmetrik bo'lgan uchta yoki to'rtta o'xshash komplanar yopiq konturlardan iborat antenna.

Zarar

ing. - loss

rus. - ущерб

1. Obro'sizlantirish natijasida yuzaga kelgan zarar yoki ziyonning miqdoriy o'lchovi.

2. Tizim komponentlaridan birining ochiq shikastlanishi yoki tizim komponentlarining ishlash qobiliyati yo'qolgan holatga tushib qolishi, shuningdek, axborotning turli ko'rinishda chiqib ketishi hamda tizim ba'zi fizik va mantiqiy xarakteristikalarining o'zgarishi.

Zararlangan

ing. - corrupted

rus. - повреждённый

Noto'g'ri hisoblanadigan (disklar ishlashidagi yoki tarmoqdagi to'xtalish sababli), shuningdek, nazorat summasi buzilgan ma'lumotlar ishdan chiqqan hisoblanadi. Ularning keyinchalik qo'llanilishi, tabiiyki, mumkin emas.

Zararli dastur

ing. - malicious logic

rus. - вредоносная программа

Apparat, dasturiy-apparat yoki dasturiy usulda amalga oshirilgan va biror-bir ruxsat etilmagan yoki jinoyatkorona harakatlarni bajarish uchun mo'ljallangan dastur.

Izoh - Zararli dasturlarga mantiqiy bomba, troyan oti, virus, qurt misol bo'la oladi.

Zararli xalaqit

ing. - harmful interference

rus. - вредная помеха

Radionavigatsiya xizmati yoki boshqa xavfsizlik xizmatlari faoliyatiga xalal beradigan yoki sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradigan, Radioaloqa reglamentiga muvofiq ishlaydigan radioaloqa xizmatlari faoliyatini qiyinlashtiradigan yoki bir necha marta to'xtashiga olib keladigan xalaqit.

Zastavka, tizimning boshlang'ich ekrani

ing. - splash screen

rus. - заставка, начальный экран системы

Odatda logotip, dastur versiyasi, mualliflik va/ yoki litsenziya huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadi.

Zaxira nusxa ko'chirish serveri

ing. - backup server

rus. - сервер резервного копирования

Fayllardan, har bir faylning ikkita nusxasi har doim mavjud bo'ladigan tarzda nusxa ko'chirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot yoki apparat vositalari.

Zaxiralash

ing. - redundancy

rus. - резервирование

1. Ma'lumotlarni uzatish vaqtida xatolarni aniqlash yoki ularni avtomatik tarzda to'g'rilash imkonini beradigan ortiqcha bitlarni kirish.

2. Ishga yaroqsiz element funksiyalarini avtomatik tarzda doimo tayyor holatda bo'lgan zaxira elementiga uzatuvchi o'ta muhim tizim elementlarining takrorlanishi.

Zaxiralash tarkibi (to'plami)

ing. - backup set

rus. - состав (набор) резервирования

Zaxira nusxani tashkil qiladigan fayllar majmui.

Zaxiralash tartiboti

ing. - backup procedure

rus. - процедура резервирования

To'xtab qolish yoki avariya dan keyin ma'lumotlarning qayta tiklanishini ko'zda tutuvchi tartibot. Masalan, zaxira fayllarni yaratish.

Zayom

ing. - borrow (borrow flag)

rus. - заём

Operandlar (razryadlar) raqamlarining farqi manfiy bo'lganda, protsessorning chiqarib tashlash (ayirish) operatsiyalarida bayroqni shakllantirishi.

Ziddiyatsizlik

ing. - consistent

rus. - непротиворечивый

Ikki yoki undan ko'p mantiqiy obyekt orasidagi bog'langanlik xarakteristikasi, ular orasida qandaydir ochiq ziddiyatlar yo'qligini ko'rsatadi.

«Zip» arxivatori

ing. - zip

rus. - архиватор «zip»

Shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan ommaviy fayllar arxivatorlaridan biri. Internetda keng tarqalgan arxivlar formati. Arxivlangan siqilgan fayllar odatda, «zip» kengaytmasiga ega bo'ladi.

Zich bufer

ing. - tight buffer

rus. - плотный буфер

Har bir tola diametri 900 mikrongacha bo'lgan termoplastik himoya qobig'i bilan zich o'tra-

ladigan kabel konstruksiyasi. U orqali tola chegaraviy tortish kuchining yuqori ko'rsatgichiga erishiladi, bu esa montaj, ekspluatatsiya qilish va ulanishlar bajarilishining pishiqligi hamda ishonchligini ta'minlaydi.

Zich to'laqinli multipleksorlash

ing. - dense wavelength division

multiplexing (DWDM)

rus. - плотное волновое

мультиплексирование

Kanallar o'rtasida 100 GHz va undan kam bo'lgan masofa bilan 16 gacha va undan ko'p multipleks kanallarini tola bo'ylab uzatish imkonini beradigan 1550 nm oynada kanallarni zich joylashtirish texnologiyasi.

Izohlar

1. DWDM texnologiyasi 2,5 Gbit/s dan 160 Gbit/s gacha tezlik bilan keng polosali signalni uzatish imkonini beradi.

2. SDH va DWDM texnologiyasi o'lkazish qobiliyati bo'yicha 2,5 Gbit/s dan 10 Gbit/s gacha uzatish tezligi diapazonini qoplash imkoniyatiga ega bo'lgan o'zaro to'ldiruvchi texnologiyalar hisoblanadi.

Zombi kompyuter

ing. - zombie computer

rus. - компьютер-зомби

Uchinchi shaxslar tomonidan egasining xabarizis yopiq yoki tijorat tarmog'i (masalan, Internet)ga kirish, hisoblash resurslaridan foydalanish (klasterizatsiya), spam jo'natish va h.k. uchun ishlatilayotgan tarmoqdagi kompyuter. Jo'natma kompyuter egasining xabarizis amalga oshiriladi. Zombi kompyuterlaridan, shuningdek, ochiq proksi ishlatiladigan maqsadlarda ham foydalaniladi.

Zona

ing. - zone

rus. - зона

1. Umumiy tarzda bu atama makon va zamon-dagi har qanday berilgan soha yoki uchastkani bildiradi, masalan, aloqa tizimi qamrab oladigan geografik hudud, signallar fazasining chastotaviy sohasi, xotira uchastkasi va b.lar.

2. Hududning, ichida ma'lum ish sharoitlari ta'minlanadigan qismi.

3. Global tarmoqlarda - yirik tarmoqning quyi (kichik) tarmog'i. Macintosh muhitida, serverlar va printerlar kabi tarmoq resurslarini izlashni osonlashtiradigan tarmoq komponentalarining mantiqiy birlashishi. DNS ma'lumotlar bazasida DNS serveri bilan boshqariladigan, ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi birlik.

Zona bo'yicha qayd qilish

ing. - zone-based registration

rus. - зонная регистрация

Autonom qayd qilish usuli, unda mobil stansiya xizmat ko'rsatish zonasiga har bir kirisbda qayd qilinadi.

Izoh - Bunday qayd qilish usulida mobil stansiyaning tezkor xizmat qurilmasida ruxsat etilgan aloqa zonalarining ro'yxati bo'lishi shart emas.

Zona kodi

ing. - zone code

rus. - код зоны

Geografik zona kodi. DVD-disklar bilan ishlashni va ularga cheklovlar qo'yishni yengillashtirishga mo'ljallangan. Bundan tashqari telekommunikatsiyada shahar kodining boshida bo'lgan uchta raqamdan iborat kod bo'lib, aholi yashash punkti joylashgan hududni ifodalaydi.

Zummerlash

ing. - zooming

rus. - зуммирование

1. Obyektivning fokus masofasini o'zgartirish tufayli tasvirning o'lchamini kattalashtirish yoki kichraytirish.

2. Ekranida obyektning kattalashtirish yoki kichraytirish.

Zveno; trakt

ing. - link

rus. - звено; тракт

Aloqa tizimining yoki ketma-ketlikdagi bir nechta uchastkadan iborat bo'lgan, boshdan oxir daxldorlikdagi birikmaning bir qismi.

Zveno-viruslar

ing. - unit viruses

rus. - вирусы-звенья

Dastur kodini o'zgartirmaydigan, balki operatsion tizimni zararlangan dastur diskida joylashgan manzilni o'z manziliga o'zgartirgan holda, o'zining kodi bajarilishiga majbur qiladigan viruslar. Virus kodi bajarilgandan so'ng, boshqarish odatda, foydalanuvchi tomonidan chaqiriladigan dasturga beriladi.

Zvenogo kira olish tartiboti

ing. - LAP for the D channel (LAPD)

rus. - процедура доступа к звену

«D» kanali uchun ma'lumotlar uzatish zvenosiga kira olish protokoli. OSI ning 2-pog'onasi protokoli. «Nuqta-nuqta» rejimida ISDN ikki qo'shni uzul o'rtasida bog'lanish o'rnatilishida foydalaniladi.

O'

vibratorlar, ularning orasidagi masofa gorizontal tekislikdagi to'liq uzunligining yarimiga teng.

O'qib bo'ladigan

ing. - readable

rus. - читабельный

Obyekt (fayl, disk va sh.k.)larning mazmunini o'qish imkonini tavsiflaydigan xususiyat.

O'qib bo'linganni bo'shatish

ing. - free-behind

rus. - освобождение прочитанного

Diskdan foydalana olishni optimallashtirish usuli, o'qib bo'lingan bloklarning nusxalari saqlangan asosiy xotira keyingi bloklarni hisoblashda avtomatik tarzda bo'shatiladi.

O'qitadigan (o'rgatadigan) dastur

ing. - tutorial

rus. - обучающая программа

Diskda yozilgan interaktiv darslar to'plami yoki elektron darslik ko'rinishida taqdim etilgan muayyan materialni o'rganish uchun mo'ljallangan dasturiy vositalar.

O'qitish tizimi

ing. - training system

rus. - обучающая система

Foydalanuvchilarni o'qitib o'rgatish uchun mo'ljallangan tizim. Sun'iy tafakkur va bilimlar bazasini ishlatishga asoslanadi. Asosiy masala foydalanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga va ularning olingan axborotni o'zlashtirishiga qarab, bilimlarni samarali uzatishdir. Muxtor (ayrim shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan) va tarmoq (Internet serverlarida joylashgan) ta'lim tizimlari farqlanadi. O'qitish tizimi g'oyalarning rivojlanishi masofadan o'qitishning tarmoq vositalari yaratilishiga olib keldi.

O'qish

ing. - perusal

rus. - чтение

Tashqi xotirga qurilmalaridagi ma'lumotlarni tezkor xotiraga qaytadan yozish jarayoni. Bunda tashqi qurilmadagi ma'lumotlar saqlanadi.

O'qish uchun ruxsat

ing. - read access

rus. - доступ на чтение

Ma'lumotlarni o'qish uchun ruxsat beradigan foydalana olish huquqi.

«O'limni anglatuvchi ko'k ekran»

ing. - blue screen of death (BSOD)

rus. - «синий экран смерти»

Windows operatsion tizimidagi o'ta jiddiy xato to'g'risida xabar. Ish jarayonini faqat kompyuterni qayta yuklabgina tiklash mumkin.

O'n oltinchi sanoq tizimi

ing. - hexadecimal

rus. - шестнадцатеричная

система счисления

Asosi 16 bo'lgan (0-9 raqamlari va A, B, S, D, E, F) sanoq tizimida sonlarni aks ettirish.

O'ng stereoskopik televideniy tasvir

ing. - right-eye stereoscopic

television picture

rus. - правое стереоскопическое

телевизионное изображение

O'ng ko'zga stereoskopik televideniye vositalari orqali taqdim etilgan alohida tasvir.

O'nli sanoq tizimi

ing. - decimal number system

rus. - десятичная система счисления

Hozirda qabul qilingan sanoq tizimi. Unda 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlardan foydalaniladi. Uning har bir razryadi 10^n ga teng.

O'nlik tabulyatsiya belgisi

ing. - decimal tab

rus. - метка десятичной табуляции

O'nlik nuqtali jadvalda sonlarning tartiblanishini ta'minlaydigan belgi.

O'q bo'ylab nurlatishga teskari antenna

ing. - backfire antenna

rus. - антенна обратного

осевого излучения

Odatda, antenna ko'zgusining fokusida joylashgan, markaziy nurlagichli o'qqa nisbatan simmetrik antenna.

O'qdosh (koaksial) antenna

ing. - coaxial antenna

rus. - соосная (коаксиальная) антенна

Bir nechta bir-biriga parallel va bitta gorizontal tekislikda joylashgan yarim to'liqimli

O'qishdan ilgari lab ketish

ing. - read-ahead

rus. - опережающее считывание

Faylning navbatdagi bloki bilan birga asosiy xotirada va bir nechta keyingi bloklarda o'qiladigan diskdan foydalana olishni optimallashtirish usuli.

O'qishdan muhofaza qilish

ing. - read protection

rus. - защита от чтения

Ma'lumotlarni o'qish uchun faylga murojaat qilishning taqiqlanishi. Faqat ma'lumotlarni yozishga ruxsat etiladi.

O'qqa simmetrik parabolik antenna

ing. - center-fed parabolic reflector

rus. - осесимметричная параболическая антенна

O'qqa simmetrik parabolik ko'zgu ko'rinishidagi, uning F fokusida joylashgan nurlagichli antenna.

O'quv televideniyesi xizmati

ing. - instructional television fixed service/ITFS

rus. - служба учебного телевидения

Asosan, ta'limda foydalaniladigan mikroto'lqinli, o'ta yuqori chastotali televideniya eshittirish usuli.

«O'quvchilar-yozuvchilar»

ing. - «readers-writers»

rus. - «читатели-писатели»

Jarayonlarning o'zaro hamkorlik sxemasi, bunda umumiy resurs va jarayonlarning ikkita: o'quvchilar (resursni faqat o'qishlari mumkin, lekin uni o'zgartira olmaydilar) va yozuvchilar (resursni o'zgartiradilar) guruhlar mavjud. Har bir onda resurs bilan bir nechta o'quvchilar (resurs yozuvchilar tomonidan o'zgartirilmaganda) ishlashlari mumkin, lekin bitta yozuvchidan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'ralgan juft

ing. - twisted pair

rus. - витая пара

Bir-biriga o'ralgan va simmetrik uzatish liniyasini hosil qiluvchi izolyatsiyalangan ikkita sim. O'rashda simlar bir-biriga nisbatan qandaydir burchak ostida bo'ladi, bu ular o'rtasidagi sig'im va induktiv bog'lanishni pasaytiradi. Bundan tashqari, o'ralgan juft bo'lagining simmetrik bo'lishi uning to'g'rilashlarga, birinchi galdagi differensial

xalaqitlarga sezgiriligini pasaytiradi. O'rash qadami qancha kichik bo'lsa, har tomonlama xalaqitlarning darajasi shuncha past, biroq, kabelning uzunlik bo'yicha so'nishi va signalning tarqalish vaqti shuncha katta bo'ladi.

O'ram

ing. - handy pack

rus. - упаковка

Ma'lumotlarni, ularni qayta ishlash uchun mo'ljallangan standart shakldan, saqlash va aloqa kanallari orqali uzatish uchun ixcham holda taqdim etiladigan shaklga o'zgartirish jarayoni. Bu operatsiyani turli algoritmlar va turli siqish koeffitsiyentlari bilan amalga oshiradigan ko'plab dasturlar mavjud. Joylashtirish mustaqil operatsiya, lekin arxivlashda ham foydalanilishi mumkin. Ba'zan, arxivlash yoki siqish deb ataladi.

O'ramli almashlash

ing. - convolution interleaving

rus. - сверточное перемежение

Ma'lumotlar ikki o'lchamli matritsada hisoblab chiqiladigan va matritsaning har bir qatori uning matritsasi pozitsiyasiga muvofiq vaqt bo'yicha kechikadigan almashlash usuli. Matritsadan ma'lumotlar bloklarini hisoblab chiqishda ularning tartibi o'zgarishi sodir bo'ladi.

O'rgatuvchi ketma-ketlik

ing. - midamble sequence

rus. - обучающая последовательность

Radioto'lqinlar tarqalish kanalining xarakteristikalarini baholash uchun ishlatiladigan ketma-ketlik. O'rgatuvchi ketma-ketlikning belgilari, odatda kadr o'rtasida joylashadi.

O'rgimchak

ing. - spider

rus. - пауk

Tarmoqni doimiy ravishda kezib veb-sahifalardan axborot yig'ib yuruvchi (ularni indekslovchi) maxsus dastur (izlash roboti, avtomati, agenti, o'rgimchak, qurt). Odatda «o'rgimchak» o'z e'tiborini hujjat tavsifiga va sarlavhalarga qaratadi, ba'zan hujjat matnini ko'rib chiqadi va qaysi so'zlar va iboralar kalitli ekanligini tushunishga harakat qiladi.

O'rnatilgan dasturiy ta'minot**ing.** - embedded software**rus.** - встроенное программное

обеспечение

Dasturiy ta'minotning turkumi, bu turkumga tayanch kiritish chiqarish tizimi (BIOS), sozlovchi monitor, kiritiladigan testlar, kiritiladigan interpretator va maxsus ilovalar kiradi.

O'rnatilgan dasturiy ta'minot auditi**ing.** - software audit**rus.** - аудит установленного

программного обеспечения

Tashkilotning barcha kompyuterlarida o'rnatilgan dasturiy ta'minotning qonuniyligini, ishlash qobiliyatini, muntazam tekshirish, shuningdek, dasturiy ta'minotni kuzatib borish va foydalanuvchilarni texnik qo'llab-quvvatlash.

O'rnatilgan kompyuter**ing.** - embedded computer**rus.** - встроенный компьютер

Hisoblash tizimining uzeli sifatida foydalaniladigan kompyuter.

O'rnatilgan operatsion tizim**ing.** - embedded operating system**rus.** - встроенная операционная система

Printerlar, kassa apparatlari va boshqa tashqi qurilmalarga o'rnatiladigan oddiy operatsion tizim. U tashqi qurilmaning tarmoqqa bog'lanishini ta'minlaydigan mikroyadro va funktsional bloklardan iborat.

O'rnatilgan qurilma**ing.** - bug device**rus.** - закладочное устройство

Axborotni olish mumkin bo'lgan joyga (shu jumladan to'siqqa, konstruksiyaga, uskuna-ga, interyer predmetiga, transport vositalariga, shuningdek, axborotni qayta ishlash texnik vositalariga va tizimiga) yashirin joriy qilinadigan (qo'yiladigan yoki kiritiladigan) axborotni olish vositasining elementi.

O'rnatilgan tezkor xotira qurilmasi**ing.** - built-in random access memory**rus.** - встроенное ОЗУ

Mikrokontoller mikrosxemasiga ichiga o'rnatilgan tezkor xotira qurilmasi.

O'rnatilgan tizim**ing.** - embedded system**rus.** - встроенная система

Boshqa uskuna bilan birga ishlaydigan va u bilan bitta konstruksiyada yoki berilgan uskuna ichida joylashtiriladigan kompyuter tizimi.

O'rnatilgan xotira**ing.** - embedded memory**rus.** - встроенная память

Mikroprotessor mikrosxemasiga, masalan, grafik tezlatgichga o'rnatilgan xotira.

O'rnatilgan shrift**ing.** - internal font**rus.** - встроенный шрифт

Printerning doimiy xotira qurilmasida saqlanadigan shrift.

O'rnatish, installatsiya**ing.** - installation**rus.** - инсталляция

Foydalanuvchi-odam tomonidan bajariladigan, BOni qo'llaniladigan muhitga o'rnatish hamda uni ishchi holatga keltirish jarayoni. Izoh - Bu jarayon odatda, faqat bir marta BOni qabul qilgandan va olingandan keyin bajariladi.

O'rnida yo'q abonentlar xizmati**ing.** - absent user service**rus.** - служба отсутствующих абонентов

Kiruvchi chaqiruvlarga avtomatik javob berishni amalga oshiruvchi va chaqiruvlar mazmunini yozib olish imkoniga ega bo'lgan xizmat.

O'rniga qo'yish**ing.** - substitution**rus.** - подстановка

1. Bitlar yoki simvollar ketma-ketligi boshqa bitlar yoki simvollar ketma-ketligi bilan almashtiriladigan shifrlash.

Izoh - Olingan shifmatni o'rniga qo'yish shifri deb ataladi.

2. Bir blokni boshqasiga bilan almashtirish bilan bog'liq va ma'lum koddan foydalanuvchi kriptografik operatsiya.

O'rnini bosish**ing.** - replay (attack)**rus.** - замещение

Kriptotizim yoki autentifikatsiya qilish tizimidagi hujum turi. Bunda xabar yodda saqlanadi va boshlang'ich xabarning o'rnini bosgan yoki takrorlagan holda, keyinroq yana uzatiladi.

O'rni (tartibini) almashtirish

ing. - permutation

rus. - перестановка

1. Ma'lumotlar blokidagi ayrim bitlar yoki simvollarning o'tish tartibini o'zgartirish bilan bog'liq kriptografik operatsiya.

2. Bitlar yoki belgilar ma'lum sxema bo'yicha almashtiriladigan shifrlash.

Izoh - Olingan shifrlash o'rni almashtirish shifri deb ataladi.

O'rta balandlikdagi Yerga yaqin orbita

ing. - medium earth orbit (MEO)

rus. - средневысотная околоземная орбита

9000 km dan 13000 km gacha bo'lgan balandlikda joylashgan doiraviy orbita. Orbitada 8-12 ta yo'lodosh mavjud bo'lganda, Yer yuzasining uzluksiz global qamrab olinishi ta'minlanadi.

O'rta to'lqinlar

ing. - medium waves

rus. - средние волны

To'lqin uzunligi 1000 m dan 100 m gacha bo'lgan radioto'lqinlar, MF (0,3-3 MHz) chastotalar diapazoniga to'g'ri keladi.

O'rtacha chastotalar

ing. - medium frequency

rus. - средние частоты

0,3 MHz dan 3 MHz gacha diapazonda yotadigan chastotalar sohasi. Bu chastotalarga o'rta to'lqinlar mos keladi ($\lambda = 100-1000$ m).

O'rtachalash koeffitsiyenti (o'rtachalash)

ing. - averaging factor (averaging)

rus. - коэффициент усреднения

(усреднение)

Impuls davomiyligining, ikki qo'shni impuls o'rtasidagi intervalning davomiyligiga nisbati.

O'rtachalashtirilgan fikr ko'rsatgichi

ing. - mean opinion score (MOS)

rus. - показатель усредненного мнения

Nutq tushunariligidan o'rtacha ekspert bahosi. Nutq sifatini subyektiv testlash usuli. Nutq kodeklarining xarakteristikalarini taqqoslash uchun foydalaniladi. Bunda tinglovchilar besh balli tizim bo'yicha baho qo'yadilar. MOS natijalovchi bahosi katta sondagi baholashlar uchun o'rtacha arifmetik sifatida hisoblab chiqariladi.

O'sib boruvchi tizim

ing. - extensible system

rus. - наращиваемая система

Yangi xizmatlarning kiritilishi mavjud aloqa xizmatlarining minimal o'zgarishlari bilan kechadigan, qurilmalarning qo'shilishi esa, amaldagi arxitektura chegarasi ichida amalga oshadigan tizim.

O'simlik qoplamidagi so'nish

ing. - vegetation attenuation

rus. - затухание в растительном покрове
Yer sirtidagi o'simlik qoplamida radioto'lqinlarning susayishi diffuziya xarakteriga ega.

Izoh - Radioreleli trassada o'simliklar mavjud bo'lgan nisbatan uncha kana bo'lmagan uchastkalarda, masalan, tekis joydagi o'tli qoplam qaytish koeffitsiyentini jiddiy o'zgartirishi va radioto'lqinlarning tarqalish sharoitlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'ta aktiv axborot tizimi

ing. - extraactive information system

rus. - экстраактивная

информационная система

Kodlovchi va dekodlovchi qurilmalarni har xil materialli obyektlar sifatida ifoda etadigan axborot tizimi.

O'ta katta integral sxema

ing. - superlarge-scale integration

rus. - сверхбольшая интегральная схема

Elementlar soni juda katta (50 mingdan 100 minggacha) bo'lgan integral sxema.

O'ta kuchlanishdan himoyalash

ing. - overvoltage protection

rus. - защита от перенапряжения

Apparaturaning o'ta kuchlanishdan himoya qilinishini ta'minlaydigan gaz-razryad lampalar, yarimo'tkazgichli varistorlar va boshqa asboblardan foydalanish.

O'ta uzun ketma-ketlik

ing. - knapsack

rus. - сверхдлинная последовательность

Yuqori kriptobardoshlilik va o'ta uzun takrorlanish davriga ega psevdotasodifiy ketma-ketlik.

O'ta yuqori chastotalar

ing. - super-high frequencies

rus. - сверхвысокие частоты

Santimetrl to'lqinlarni qamrab oluvchi, 3 GHz dan 30 GHz gacha bo'lgan radiochastotalar sohasi. O'ta yuqori chastotalar diapazonidan asosan, radiolokatsiyada, radio-

aloqada, shuningdek radiospektroskopiyada foydalaniladi.

O'ta yuqori chastotalarni uzatish liniyasi

ing. - superhigh-frequency transmission line

rus. - линия передачи

сверхвысоких частот

Elektromagnit tebranishlarning tarqalish sohasini chegaralovchi va o'ta yuqori chastotali elektromagnit energiyali oqimni berilgan yo'nalishda yo'naltiruvchi qurilma.

O'ta yuqori chastotali kirish,

O'YuCh-kirish

ing. - superhigh frequency enter. SHF-enter

rus. - сверхвысокочастотный

вход, СВЧ-вход

Signallarni konvertor chiqishidan qabul qilish uchun mo'ljallangan kirish ajratgichi.

O'tish

ing. - transition

rus. - переход

1. Holat yoki ish rejimining almashinishi, masalan, bo'sh liniyaning egallagan holatga almashinishi.

2. Ko'ndalang kesimi turlicha bo'lgan ikkita to'lqin o'tkazgichni ulash yoki to'lqin o'tkazgichli va koaksial uzatish liniyalarini birlashtirish uchun xizmat qiladigan element.

O'tish nuqtasi

ing. - transition point

rus. - переходная точка

1. Yassi, pol ostidan o'tadigan kabel terminal yoki shkafdan keladigan oddiy dumaloq telekommunikatsiya simlari yoki kabellari bilan ulanadigan joy.

2. Gorizontal kabel tizimidagi kabelning shakli o'zgaradigan, masalan, yassi kabel dumaloq kabel bilan yoki elementlari soni turlicha bo'lgan kabellar bilan ulanadigan joy.

O'tishdagi kesishuvchan xalaqitlar

ing. - crosstalk

rus. - переходные перекрестные помехи

Bir signal yo'nalishini boshqa biriga elektromagnit to'g'rilash keltirib chiqaradigan shovqin va xalaqitlar. Ularning xarakteristiklari odatda detsibelda ifodalanadi.

O'tishdagi so'nish

ing. - coupling loss

rus. - переходное затухание

Signalni bir zanjirdan boshqasiga uzatishda vujudga keladigan quvvat yo'qotishlari. So'nishlar odatda, quvvat birligida ifodalangani.

O'tkazgich

ing. - wire

rus. - проводник

1. O'rangan juft hosil qilishda foydalaniladigan yoki erga ulash simi sifatida qo'llaniladigan, alohida izolyatsiyalangan bitta simli mis o'tkazgich.

2. Kataloglar tizimida navigatsiya vositasi (hujjatlar, rasm ko'rinishidagi axborot va fayllarni boshqarish) yoki boshqaruv pulti.

O'tkazib yuborish

ing. - skip

rus. - пропустить

Bitta yoki bir nechta pozitsiyalardan sakrab o'tishni anglatuvchi harakat.

O'tkazish ko'effitsiyenti

ing. - transmission factor

rus. - коэффициент пропускания

Modda qatlamidan chiqqan nurlanish oqimining, unga tushayotgan nurlanish oqimiga nisbati.

O'tkazish polosasi

ing. - bandwidth, passband

rus. - полоса пропускания

Uzatuvchi kanalning chastotalari diapazonida eng baland va eng past chastotalar o'rtasidagi gerslarda ifodalangan farq - chastotalar diapazonining o'tkazish polosasi kengligi. Bu atama bilan ko'pincha kompyuter tarmog'i bo'yicha ma'lumotlar uzatishning yuqori qismi belgilanadi.

O'tkazish qobiliyati

ing. - throughput capacity

rus. - пропускная способность

1. Blokda (masalan, LAPD kadrdagi manzilli maydon va qiyoslash kombinatsiyasining maydoni o'rtasida) va birlik vaqtda bog'lanish seksiyasi orqali bir yo'nalishda muvaffaqiyatli uzatiladigan ma'lumotlardagi bitlarning soni.

2. Ma'lumotlar uzatish tizimi orqali o'tishi mumkin bo'lgan axborotning chegaraviy yo'l qo'yilgan hajmi.

3. O'rta va cho'qqi tezlik bilan tavsiflanuvchi tarmoqdagi paketlarni uzatish tezligi.

O'tkazish qobiliyati,

ing. - capacity

rus. - пропускная способность, емкость

1. Vaqt birligi ichida kanal yoki tizim o'qqa-li uzatilishi mumkin bo'lgan axborot bir-ligining maksimal miqdorini belgilovchi ko'rsatgich. Kanalning o'tkazish qobiliyati fundamental nazariy tushuncha bo'lib, ka-nalning mavjud imkoniyatlarini belgilaydi. Tizimning o'tkazish qobiliyati - bu amalga oshirish murakkabligi va qiymati hisobga olingan uzatish tezligini belgilovchi texnik xarakteristikadir.

2. Xotira qurilmasida saqlanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning maksimal miqdori. Sig'im baytlarda, bitlarda, kodli so'zlar sonida o'lchanishi mumkin.

O'tkazishga moyillik

ing. - off-duty factor

rus. - скважность

Impuls signali takrorlanish davrining yakka impuls davomiyligiga nisbat.

O'tkazmaslik

ing. - imperviousness

rus. - непроницаемость

Kabel qobig'i o'rqali yuz beradigan energiya yo'qotishlaridan himoyalanganlik.

O'tuvchi antenna panjarasi

(linzali antenna panjarasi)

ing. - transmissive array

(antenna lens array)

rus. - проходная антенная решетка

(линзовая антенная решетка)

Fazoviy qo'zg'atilishga ega, yoki fazoviy va fider qo'zg'atilishdan iborat antenna panjarasi, unda radioto'lqinlarni birlamchi nurlagichdan bitta nurlantiruvchi element bilan, fazoga nurlanish esa boshqa nurlan-tiruvchi elementlar bilan amalga oshiriladi.

O'xshashlik

ing. - identity

rus. - идентичность

Tanib olinayotgan va ayrim etalon obyektlar o'rtasida, qator o'ziga xos belgilarga ko'ra, moslikning o'rnatilishi.

O'yin

ing. - game

rus. - игра

Ilmiy tushuncha, qayerda ishlatilishiga bog'liq ravishda turli ma'noga ega bo'ladi.

O'yin plansheti

ing. - gamepad

rus. - игровой планшет

Kompyuter o'yinlarini boshqarish uchun mo'ljallangan, planshet ko'rinishidagi qu-rilma. Planshetda dasturlashtiriladigan tug-malar, kursorni boshqaradigan 4 yoki 8 pozitsiyali ko'rsatgich, mikrojoystiklar, yur-gizgichli regulyatorlar va sh.k. joylashtirili-shi mumkin.

O'yin porti

ing. - game port

rus. - игровой порт

Kompyuterga o'yinlarni boshqarish uchun, joystik yoki boshqa qurilmani ulaydigan ajratgich (raz'yom).

O'yma

ing. - inset

rus. - врезка

Oldindan tanlangan geometrik shakning, unda boshqa tasvir qayta tiklanadigan kichik qismi.

O'z mamlakati chegarasidan chiqib

ketilganda barcha kiruvchi

chaqiruvlarni taqiqlash

ing. - incoming call barring

when roaming (BIC-Roam)

rus. - запрещение всех входящих

вызовов при переезде за пределы страны Mobil abonent o'z mamlakatining MAT chegarasidan tashqariga ko'chib o'tganda, barcha MAT va istalgan mamlakatning bog'langan TFOP/ISDN kiruvchi chaqiruv-larini qabul qila olmaydigan xizmat.

Izoh - Abonent o'z mamlakatida bo'lganda, taqiq amal qilmaydi.

O'z mamlakatining MAT chaqiruvidan

tashqari barcha chiquvchi xalqaro

chaqiruvlarni taqiqlash

ing. - all international outgoing call barring

except of home country (BIOC-еНС)

rus. - запрещение всех исходящих

международных вызовов, кроме вызова

СПС своей страны

Mobil abonentga chiquvchi chaqiruvlarni faqat o'zining MAT va bundan tashqari, o'z mamlakatining MAT abonentiga jo'natish imkonini beradigan xizmat.

Izoh - Abonent o'z mamlakatida bo'lganda, u chaqiruvlarni faqat o'z hududidagi MAT abonentlariga jo'natishi mumkin. Mobil abonent, barcha kiruvchi chaqiruvlar taqiqlanganda, kiruvchi chaqiruvlarni qabul qilmasligi mumkin.

ror belgini ko'rsatish uchun mo'ljallanmagan bo'lsada, boshqa klavishlar ishlash tartibini o'zgartira oladi.

O'zgartirishga bo'lgan ma'qullangan so'rov

ing. - approved change request

rus. - одобренный запрос на изменение

O'zgartirishga bo'lgan, o'zgartirishlarni boshqarishning bir butun yaxlit jarayoni yordamida qayta ishlangan va ma'qullangan so'rov.

O'zgaruvchan attenuator

ing. - attenuator variable

rus. - переменный аттенюатор

Kiritiladigan so'nishni rostlaydigan attenuator.

O'zgaruvchan tezlik

bilan adaptiv kodlash

ing. - adaptive multi-rate (AMR)

rus. - адаптивное кодирование с

переменной скоростью

Nutq chastotalar diapazonida signalni siqish uchun maxsus mo'ljallangan, tovushli fayllarni kodlash formati.

Izoh - Yevropa telekommunikatsiyalarni standartlashtirish instituti (ETSI) tomonidan standartlashtirilgan.

O'zgaruvchan tezlikli kod

ing. - variable-rate code

rus. - код с переменной скоростью

Kodli qism bloklarning uzunligi vaqt bo'yicha o'zgaradigan, axborot qism bloklarining uzunligi doimiylikicha qoladigan yuqori aniqlikdagi kodlarni tavsiflashda qo'llaniladigan kod.

O'zgaruvchan

uzunlikdagi so'z bilan kodlash

ing. - variable-length coding

rus. - кодирование с

переменной длиной слова

Paydo bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan signal qiymatiga qisqa kodli so'zlar, paydo bo'lish ehtimoli past bo'lgan signal qiymatiga uzun kodli so'zlar belgilanadigan entropiyaviy kodlash turi.

O'zgaruvchi

ing. - variable

rus. - переменная

Dasturlash tili obyekt. Algoritmik tillarda o'zgaruvchi - bu, xotiraning nomlangan qismidir. Xotiraning bu qismiga o'zgaruvchi-

ning turli qiymatlari joylashtirilishi mumkin, lekin har bir vaqt onida bu yagona qiymat bo'lishi kerak.

O'zgaruvchini bog'lash

ing. - binding of variable

rus. - связывание переменной

O'zgaruvchiga qiymatlar berilishi.

O'zi fazalanadigan antenna panjarasi

ing. - self-phased array

rus. - самофазирующаяся

антенная решетка

Har bir element traktida signallarning bog'liq bo'lmagan fazalanishi hisobiga nurlantiruvchi to'lqinning kelish yo'nalishidan qat'i nazar, uning alohida elementlari bilan qabul qilingan signallarning sinfaz qo'shilishi amalga oshiriladigan antenna panjarasi.

O'zini-o'zi kodlash

ing. - intrinsic coding

rus. - самокодирование

Axborotni, kalit sifatida axborotning o'zidan foydalanib kodlash.

O'zini-o'zi testlash tizimi (dasturi)

ing. - power-on self test (POST)

rus. - система (программа)

самотестирования

Doimiy xotira qurilmasidagi, kompyuter ta'minoti ulangan holatda, operatsion tizim, klaviatura, diskovod va sh.k.larni testlash bajariladigan mikrodastur.

O'zlashtirish

ing. - borrowing

rus. - заимствование

Boshqa uyaga doimiy asosda ajratilgan tarqoq resurslari (masalan, chastota kanallari) dan vaqtincha foydalanish.

O'zlashtirma (tutib olingan) kanal

ing. - stealing channel

rus. - заимствованный

(захваченный) канал

1. Xizmat axboroti vaqtincha uzatib turiladigan axborot kanali.

Izoh - TETRA standartida bunday kanal shoshitinch chaqiruvlarni uzatish uchun tashkil etiladi.

2. Radiotarmoqning ish jarayonida axborotli simvollarning uncha katta bo'lmagan qismini boshqaruv kanallari va xizmat simvol-lariga almashtirish yo'li bilan tashkil etiladigan kanal.

Izoh - Bunday almashtirish foydali signalning buzilishi-

shiga olib kelishi
day buzilishlar oson, masalan, delta-modulyatsiyadan
foydalanish yo'li bilan bartaraf etiladi.

O'z-o'zidan mahkamlanadigan ajratgich
ing. - socket zero insertion force socket
rus. - разъем с нулевым усилием
сочленения

Mikrosxema kontaktlarini qisish va bo'shatish imkonini beradigan, maxsus dastakli ajratgich. Protessorlarning xotira mikrosxemalarini o'rnatish uchun uya sifatida foydalaniladi.

O'z-o'zidan sinxronlanuvchi oqimli kriptotizim

ing. - data-flow selfsynchronizing cryptosystem

rus. - криптосистема потоковая самосинхронизирующаяся

Kalit oqimining har bir belgisi vaqtning istalgan onida shifmatn oldingi belgilarining qayd qilingan soni orqali aniqlanishi bilan tavsiflanadigan oqimli kriptotizim.

O'z-o'zidan yuklash dasturi

ing. - bootstrap

rus. - программа самозагрузки

Operatsion tizimni yuklash uchun zarur bo'lgan komandalarning minimal ko'pligi.

O'z-o'ziga tutashuv

ing. - loopback

rus. - замыкание на себя

Signal kommunikatsiya kanali bo'yicha har ikki yo'nalishdan o'tib, uzatuvchi qurilmaga qaytadigan diagnostik test turi.

O'z-o'zini tekshirish imzosi

ing. - self-verifying signature

rus. - самопроверяющаяся подпись

Haqiqiyliги imzo qo'yuvchi shaxsning roziligisiz istalgan vaqtda tekshirilishi mumkin bo'lgan raqamli imzo. Bu toifaga ochiq kalitli istalgan raqamli imzo kiritilishi mumkin.

O'g'irlangan telefon bilan bog'liq firibgarlik

ing. - stolen phone fraud

rus. - мошенничество с украденным телефоном

O'g'irlangan yoki yo'qotilgan mobil aloqa qurilmasidan, cgasi uni yo'qotgani to'g'risi-

da xabar bergungacha, operator esa raqamni blokirovka qilgungacha, ruxsat etilmagan tarzda foydalanish.

O'chirilgan

ing. - off

rus. - выключен

Tizim ishlamayotgan holatdagi rejim.

O'chirish

ing. - delete

rus. - удалить

Папка yoki faylni o'chirish operatsiyasi. Qoida bo'yicha operatsion tizimlarda o'chirish operatsiyasi fayl tarkibidagi matni emas, faqat jadvalda joylashgan fayl nomini o'chiradi. Keyinchalik bu yerga boshqa axborot yozilmasa, faylni qandaydir qisman ehtimollikda qayta tiklash mumkin. Zamonaviy operatsion tizimlarda o'chirilgan fayllar batamom o'chib ketmaydi, balki ular qayta tiklash yoki umuman o'chirib tashlash mumkin bo'lgan «axlat qutisi»ga borib tushadi. Bu muhim axborotlar yo'qolishining oldini oladi.

O'chirish darajasi

ing. - level of blanking

rus. - уровень гашения

1. Yorqinlikning nazariy nolinci darajasiga mos keladigan videosignal darajasi.
2. So'ndiruvchi impulslarning yassi qismiga mos vaqtidagi videosignal darajasi.
3. To'liq tasvir signalidagi, tasvir axboroti sohasini sinxronlash axboroti sohasidan ajratadigan darja.

O'chirish intervali

ing. - blanking interval, blanking period

rus. - интервал гашения

Tasvirni o'chirish amalga oshiriladigan vaqt intervali.

Misol – Satr o'chirish intervali, maydon o'chirish intervali.

G'

G'alayonlanish

ing. - perturbation

rus. - возмущение

Radioto'lqinlar tarqalish sharoitlarining yoki atrof-muhit xarakteristikalarining to'satdan o'zgarishi, signalning parazit fluktuatsiyalari yoki shovqinlar oqibatida aloqa vositalari ishining buzilishi.

G'araz niyatdagi chaqiruv

ing. - malicious call

rus. - злонамеренный вызов

Qandaydir do'q-po'pisa yoki ogohlantirish mazmunidagi, odatda, anonim chaqiruv.

G'araz niyatdagi chaqiruvlarni

identifikatsiyalash

ing. - malicious call identification

rus. - идентификация

злонамеренных вызовов

Abonentga, maxsus so'rovga ko'ra, yomon niyatdagi chaqiruv qilingan telefon raqamini aniqlash va shu raqam bilan bog'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradigan xizmat.

Sh

Shablon

ing. - template

rus. - шаблон

Bir xil turdagi hujjatlarni vyorstkalash yoki kiritishda ishlatiladigan polosani tayyorlash uchun mo'ljallangan shablon.

Shaffof foydalana olish

ing. - transparent access

rus. - прозрачный доступ

Abonent o'ziga kerakli resursning qayerda – aloqa kompyuterida, server yoki olisdagi uzelda ekanligini sezmaydigan foydalana olish. Ochiq rejimda aloqa turli liniyalar (yer usti, yo'ldoshi) orqali amalga oshirilishi mumkin, shu bilan birga, bunday aloqa abonent uchun sezilmasdan qolishi lozim.

Shaffof interfeys

ing. - seamless interface

rus. - прозрачный интерфейс

Tutashuvchi dasturiy-apparat vositalarga o'zgarish va qo'shimchalar kiritilishini talab qilmaydigan interfeys (foydalanuvchiga sezilmaydigan interfeys).

Shaffof tizim

ing. - transparent system

rus. - прозрачная система

Foydalanuvchilarga va ilovalarga yagona kompyuter muhiti sifatida taqdim etiladigan taqsimlangan tizim.

Shaffoflik

ing. - transparency

rus. - прозрачность

Taqsimlangan tizim foydalanuvchiga oddiy markazlashtirilgan tizim kabi taqdim etilishi kerak bo'lgan tarmoqni tashkil qilishga bo'lgan talab.

Shahar kirgichi (kirish yo'li)

ing. - entrance facility

rus. - городской ввод

Jamoat va xususiy tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi kabellarning (jumladan, antenna kirgichining) binoga kirish joyi, bino devoriga yoki xonagacha kirish nuqtasi yoki kirish xonasi bilan birgalikda.

Shahar (megapolis) tarmog'i

ing. - metropolitan area network (MAN)

rus. - городская сеть; сеть мегаполиса

Global va lokal tarmoqlar o'rtasida oraliq holatni egallaydigan aloqa tarmog'i. Yirik shaharlar (megapolislar) hududiga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Yuqori tezlikli magistral optik-tolali aloqa liniyalari bunday tarmoqning asosi hisoblanadi.

Shahar pochta aloqasi bog'lamasi

ing. - city post office

rus. - городской узел почтовой связи

Shaharlarda tashkil etiladigan pochta aloqasi bog'lamasi.

Shahar pochta yo'nalishi

ing. - city postal route

rus. - городской почтовый маршрут

Bitta shaharning pochta aloqasi obyektlarini bog'lovchi pochta yo'nalishi.

Shahar telefon

ing. - urban local exchange (LE)
 rus. - городская телефонная станция
 Shahar abonentlarining telefon aloqasini ta'minlovchi telefon stansiyasi.

Shahar zonasi abonent

ing. - residential user
 rus. - абонент городской зоны
 Shahar hududi doirasida xizmat ko'rsatiladigan abonent.
 Izoh - Aloqa ochiq fazodan ham, binolar ichkarisidan ham ta'minlanishi mumkin.

Shaharlararo aloqa liniyasi

ing. - long-distance line
 rus. - междугородная линия связи
 ATS hamda kanallarni kommutatsiyalash markazlarini o'zaro bog'lovchi ko'p kanalli, yuqori o'tkazish qobiliyatiga ega aloqa liniyasi.

Shaharlararo avtomatik telefon stansiyasi (ShATS)

ing. - automatic toll exchange
 rus. - автоматическая междугородная телефонная станция (АМТС)
 Zona ichidagi va shaharlararo bog'lanishlar o'rnatilishini ta'minlaydigan shaharlararo avtomatik telefon stansiyasi.

Shaharlararo (hududlararo) kommutatsiya markazi

ing. - Intercity (interzone) switching centre.
 rus. - междугородный (межзоновый) центр коммутации
 Hudud ichida va hududlararo telefon bog'lanishlar o'rnatilishini ta'minlaydigan uskunalarni majmui.

Shaharlararo telefon tarmog'i

ing. - toll telephone network
 rus. - междугородная телефонная сеть
 Telefon tarmog'ining, shaharlararo telefon stansiyalari avtomatik kommutatsiya telefon uzellari hamda telefon tarmog'i kanallarining majmuini o'zida ifodalaydigan, ulami o'zaro bog'laydigan va turli raqamlash zonasidagi abonentlarni telefon aloqasi bilan ta'minlaydigan qismi.

Shakl bo'yicha so'rov

ing. - query-by-form
 rus. - запрос по форме
 Rejyatsion ma'lumotlar bazasiga yo'llanadigan so'rov turi.

Shakl, ko'rinish

ing. - forms
 rus. - форма
 Axborotni chiqarish uchun zaxiraga qo'yilgan, shuningdek, ko'pincha maxsus kodlash uchun joyga ega bo'lgan bo'sh joyli (probeli) tarkibiy hujjat yoki shablon.

Sharh

ing. - comment
 rus. - комментарий
 Dasturlashda - til konstruksiyasi bo'lib, dasturga yoki komanda fayliga uni hujjatlashtirish maqsadida tushuntiruvchi matn sifatida qo'shiladi. Dastur boshlang'ich matni translyatsiya qilinganda va komandalar fayli bajarilishi paytida sharhlar tashlab ketiladi.

Sharqiy mintqa vaqti

ing. - eastern daylight time (EDT)
 rus. - восточное поясное время
 Shimoliy Amerikadagi vaqt zonasi. GMT dan 5 soatga (GMT-05) farq qiladi. Yozgi vaqtga o'tish mavjud (GMT-04).

Shart

ing. - condition
 rus. - условие
 Sikl va tramoqlanish tuzilishlarda foydalaniladigan, «chin» yoki «yolg'on» qiymat oladigan mantiqiy ifoda. Masalan, a=2 shart, a 2 qiymatga ega bo'lsagina «chin» qiymat oladi, boshqa har qanday qiymatlar-da a shart «yolg'on» bo'ladi.

Shartlar verifikatori

ing. - assertion checker
 rus. - верификатор условий
 Dasturning muayyan nuqtalarida bajarilishi kerak bo'lgan nazorat shartlari va operatorlari bilan ta'minlangan boshqa dasturning matnini tahlil qiluvchi hamda berilgan sharoitlarda dasturlarning haqiqiylikini isbotlovchi dastur.

Shartli-bepul dasturiy ta'minot

ing. - shareware
 rus. - условно-бесплатное программное обеспечение
 Uncha qimmat bo'lmagan, bepul tarqatiladigan, biroq qayd qilish va ta'minlash bo'yicha xizmatlar uchun haq to'lanadigan dasturiy ta'minot.

Shartli-bepul xayriya dasturiy ta'minoti

ing. - *careware*

rus. - *благотворительное условно-
бесплатное программное обеспечение
Dastur egasi unga to'lanadigan mablag'lar xayriya uchun sarflanishini talab qiladi. Shuningdek, dasturga ijtimoiy yo'naltirilgan bannerlarni ham joylashtirish mumkin. Masalan, vim matn redaktoridagi «Ugandadagi qashshoq bolalarga sizning yordamingiz kerak» degan yozuv.*

Shartli boyliklar

ing. - *conditional values*

rus. - *условные ценности*

Pochta to'lovining davlat belgilari, markalangan varaqchalar va konvertlar, xalqaro javob kuponlari.

Shartli foydalana olish tizimi

ing. - *system of conditional access*

rus. - *система условного доступа*

Raqamli televizion dasturlardan foydalana olishni cheklash uchun mo'ljallangan dasturiy-apparat mexanizmi. Cheklash televizion signalni maxsus himoyalangan algoritmlar bilan shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Shartli foydalana

olishning yagona interfeysi

ing. - *conditional access united interface*

rus. - *единый интерфейс*

условного доступа

Shartli foydalana olishning turli tizimlarida, berilgan tizim uchun qabul qilgich-dekoderda diskremblerlashning barcha funksiyalarini bajaradigan almashinuvchi moduldan foydalanish yo'li bilan qabul qilinishini ta'minlash.

Shartli foydalanishga ega televideniye

ing. - *conditional access television*

rus. - *телевидение с условным доступом*

Dasturlari aholining muayyan maxsus guruhlari uchun mo'ljallangan shifrlangan televideniye.

Misol - Tibbiyot xodimlari uchun maxsus dasturlar.

Shartli ifoda

ing. - *conditional*

rus. - *условное выражение*

«Agar A va V» ko'rinishidagi mantiqiy ifoda.

Shartli translyatsiya

ing. - *conditional compilation*

rus. - *условная трансляция*

Dasturlash tili vositasi bo'lib, ba'zi konstantaning qiymatiga bog'liq ravishda, dastur bir qismi translyatsiya qilinishi yoki qilinmasligiga imkon beradi.

Shartli verifikator

ing. - *assertion checker*

rus. - *условный верификатор*

Dasturning ma'lum bir nuqtalarida bajarilishi kerak bo'lgan nazorat operatorlari va shartlari bilan ta'minlangan boshqa bir dastur matnini tahlil qiladigan va berilgan dastlabki sharoitlarda ularning haqiqiyliigi yoki soxtaligini isbotlaydigan dastur.

Shartli o'zgaruvchi

ing. - *conditional variable*

rus. - *условная переменная*

Operatsion tizimlarda wait va signal operatsiyalari bilan ishlatiladigan sinxronlashtiradigan obyekt.

Shaxs identifikatori jetoni

ing. - *intelligent token*

rus. - *жетон идентификатора личности*

Tarkibida mikroprotessor va xotira bo'lgan, terminalda ishlash paytida shaxsiy guvohnoma sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ixcham qurilma.

«Shaxsan qo'liga topshirilsin» belgili

pochta jo'natmasi

ing. - *postal matter*

with the mark «by hand»

rus. - *почтовое отправление*

с отметкой «С нарочным»

Pochta aloqasi obyektidan adresatga kuryer tomonidan yetkazib berilishi amalga oshiriladigan xalqaro pochta jo'natmasi.

Shaxsga doir axborot

ing. - *private information*

rus. - *персональная информация*

Oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan axborot. Ularni telekommunikatsiya kanallari orqali tarqatish maxsus xavfsizlik choralari-ga rioya qilinishini talab etadi.

Shaxsiy blokirovkadan chiqarish kaliti

ing. - *personal unblocking key (PUK)*

rus. - *персональный ключ разблокировки PIN-kod noto'g'ri kiritilganda, SIM kar-*

lani blokirovka mo'ljallangan kalit. GSM tarmog'idagi har bir abonent PUK kodini oladi. Bu kodni o'zgartirish mumkin emas.

Shaxsiy hayot sirini muhofazalash
ing. - protection of privacy of personal life
rus. - защита тайны личной жизни

Shaxsiy hayot sirlarini ta'minlash uchun bajarilayotgan tadbirlar. Ushbu tadbirlar, ayrim shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni muhofazalash va ularni yig'ish, to'plash va ularni qayta ishlashga cheklovlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy identifikatsiya raqami
ing. - personal identification number (PIN)
rus. - персональный идентификационный номер

1. Smart-kartada saqlanadigan va foydalanuvchining shaxsini autentifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan noyob kod.
2. Qandaydir shaxsning, unga boshqariladigan tizimga kirish imkonini beradigan shaxsiy kodi.
3. Tizimga kirishga ruxsat olish uchun magnet karta bilan birga terminalga ko'rsatiladigan parol turi.

Shaxsiy imzo kaliti
ing. - private signature key
rus. - личный ключ подписи
Aniq shaxsga tegishli bo'lgan va elektron raqamli imzoni yaratishda qo'llaniladigan ramzlarning tartiblangan to'plami.

Shaxsiy imzo kalitining egasi
ing. - owner of private key
rus. - владелец личного ключа подписи
Shaxsiy imzo kaliti va unga mos imzoni tekshirish kalitini yaratgan aniq jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Shaxsiy imzo kaliti egasi o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni sir tutishi va tasodifan yo'qolishi yoki o'zgartirilishidan muhofaza qilishi shart. q: elektron raqamli imzo (ERI).

Shaxsiy kalit
ing. - private key
rus. - личный ключ
Deshifrlash uchun mo'ljallangan va faqat uning egasi tomonidan foydalaniladigan kalit.

Shaxsiy kod
ing. - native code
rus. - собственный код
Kompyuterning ichki kodi. Standart interfeyslar orqali markaziy protsessor resurslariga to'g'ridan-to'g'ri kira olishni ta'minlaydi.

Shaxsiy kompyuter
ing. - personal computer
rus. - персональный компьютер
Individual foydalanish uchun mo'ljallangan kompyuter. Kompyuterni shaxsiy kompyuterlar tarkumiga kiritishning asosiy mezonlari: o'lchamlarining kichikligi, ularga xizmat ko'rsatish zaruratining yo'qligi, narxining pastligi, funksional universalligi va modernizatsiyalashning soddaligi. Shaxsiy kompyuterlarning yaratilish tarixi 1974-yildan boshlanadi. Shu yili MTTs (AQSh) firmasi Intel 8080 mikroprotsessori asosida Altair kompyuterini ishlab chiqdi. 1975-yilda Stefan Voznyak va Stiv Jobs Apple nomi ostida kompyuter ishlab chiqdilar va dastlabki 200 ta kompyuterni yig'dilar. 1976-yilning oxirida ular shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan Apple firmasini tuzdilar.

Shaxsiy kompyuter kartasi
ing. - PC card
rus. - карта PC
Shaxsiy kompyuterga ulanadigan uncha katta bo'lmagan tashqi qurilma. 32-razryadli PC Card texnologiyasi dastlab ixcham shaxsiy kompyuterlarga tashqi xotira qurilmagini ulash uchun ishlab chiqilgan. Shaxsiy kompyuterlarga mo'ljallangan bu yechim shunchalik muvaffaqiyatli bo'lib chiqdiki, PC kartalar kompyuterlarning turli rusumlarida ishlatila boshlandi. Shu bilan birga, ulanadigan obyektlar ro'yxatiga turli tashqi qurilmalar, modemlar, tasvir va tovush kiritish qurilmalari, faks-apparatlar va tarmoqlar kiritildi.

Shaxsga doir ma'lumotlar
ing. - personal data
rus. - персональные данные
1. Fuqaroning shaxsini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi dalillar, voqealar va hayot sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar.
2. Har qanday moddiy tashuvchida qayd etilgan muayyan odam to'g'risidagi ma'lumot.

Shaxsga doir ma'lumotlar subyekti**ing.** - subjects of the personal data**rus.** - субъект персональных данных

Tegishli shaxsiy ma'lumotlar daxldor bo'lgan jismoniy shaxs.

Shaxsiy mobillik**ing.** - personal mobility**rus.** - персональная подвижность

Foydalanuvchining shaxsiy identifikator asosida istalgan terminalda telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalana olish va tarmoqning, foydalanuvchi uchun xizmatlar profiliga muvofiq, ushbu xizmatlarni ta'minlay olish imkoniyati.

Izoh - Shaxsiy harakatchanlik foydalanuvchi chaqiruvlarini manzillash, marshrutlash va taksatsiyalash maqsadlarida foydalanuvchi bilan bog'liq bo'lgan terminal joylashgan joyini aniqlash uchun tarmoq imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Shaxsiy papka**ing.** - personal folder**rus.** - личная папка

Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari (sozlash) uchun mo'ljallangan papka, ulardan erkin foydalanish boshqa foydalanuvchilar uchun cheklangan.

Shaxsiy radiochaqiruv**ing.** - personal wireless**rus.** - персональный радиовывоз

Qar.: Peyjing.

Shaxsiy raqamli kotib**ing.** - personal digital assistant**rus.** - персональный цифровой секретарь

Odatda, klaviaturasi bo'lmaydigan portativ kompyuterning bir turi. Ma'lumotlarni sensorli panelga kiritish/chiqarish maxsus ruchka yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun, ba'zan qo'lda yozish bilan kiritiladigan kompyuter deb ham ataladi. Shaxsiy raqamli kotib katta tezkor va doimiy xotiraga ega. Parallel yoki ketma-ket interfeys orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumotlar almashinish mumkin. Maxsus operatsion tizim boshqaruvi ostida ishlaydi. Shaxsiy raqamli kotibning eng mashhuri Apple firmasining Newton cho'ntak kompyuteridir.

Shaxsiy raqamli uyali aloqa tizimi**ing.** - personal digital cellular (PDC)**rus.** - персональная цифровая система сотовой связи

Yaponiya milliy mobil aloqa standarti.

Izoh - Avvalgi nomi JDC.

Shaxsiy sirni muhofaza qilish**ing.** - privacy protection**rus.** - защита личной тайны

Shaxsiy sirning saqlanishini kafolatlovchi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi. Bu chora-tadbirlarga shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish hamda ularni to'plash, umumlashtirish va qayta ishlanishini cheklashlar kiradi.

Shaxsiy xavfsizlik muhiti**ing.** - personal security environment**rus.** - среда личной безопасности

Obyektning shaxsiy kaliti saqlanadigan xavfsiz mahalliy joy, bevosita ishonch qozongan sertifikatlash organining kaliti va mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Izoh - Obyekt xavfsizligini ta'minlash siyosatiga yoki tizimga qo'yiladigan talablarga bog'liq ravishda, bu muhit, masalan, kriptografik muhofazalangan fayl yoki qasddan shikastlashlardan muhofazalangan apparat vositalar markeri bo'lishi mumkin.

Shaxsiylashtirish**ing.** - personalization**rus.** - персонализация

Plastik kartaga, kartani va uning egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan ma'lumotlarni kiritish, shuningdek, kartaning to'lov qobiliyati tekshirilishini amalga oshirish jarayoni.

Shaxsning autentifikatsiya qilish,**shaxsning haqiqiylikini tasdiqlash****ing.** - identity authentication, identity validation.**rus.** - аутентификация личности,

подтверждение подлинности личности

Ma'lumotlarni qayta ishlash tizimiga man-tiqiy obyektlarni aniqlab olish imkonini beradigan tekshiruvlar (masalan, parol yoki token)ning bajarilishi.

Shaxsning axborot erkinligi**ing.** - information freedom**rus.** - информационная свобода личности

Insonning o'z hayoti, kasbiy faoliyati va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axborotni olish imkoniyati. Shu bilan birga, u yoki bu tabiiy yoki ijtimoiy hodisalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini ifoda etish, axborotni boshqa odamlarga berish, ya'ni uni jamiyatda tarqatish ham tushuniladi.

Shiddatli manzillash**ing.** - avalanche-type addressing**rus.** - лавинная адресация

Xizmat qilishni rad etishga olib keluvchi

kutilmagan
dagi ma'lumotlarni kiritish.

hajm-

Shiddatli oqim

ing. - bit torrent

rus. - стремительный поток

Fayllarni Internet orqali kooperativ almashinish uchun belgilangan tarmoq protokoli. Protokol Brem Koen tomonidan yaratilgan. Fayllarni alohida fragmentlarga bo'lish va ularni tarmoqning turli uzellarida saqlash hisobiga, ayrim foydalanuvchilar o'rtasida trafikning taqsimlanishini ko'zda tutadi (ayman bitta faylga qancha ko'p odam murojaat qilsa, uni shuncha tez ko'chirib olish mumkin bo'ladi).

Shifr

ing. - cipher, cypher

rus. - шифр

Kalitlarni qo'llagan holda ma'lum qoidalar bo'yicha amalga oshiriladigan ko'plab ochiq (dastlabki) ma'lumotlarni ko'plab mumkin bo'lgan shifrlangan ma'lumotlarga qaytuvchan almashtirishlar majmui.

Shifr gammasi

ing. - key stream, gamma of the cipher

rus. - гамма шифра

1. Ochiq ma'lumotlarni shifrlash va shifrlangan ma'lumotlarni dastlabki matnga o'giri-sh uchun berilgan algoritim bo'yicha ishlab chiqiladigan tasodifiy yoki psevdotasodifiy ikkilik ketma-ketlik.

2. Axborotni shifrlash uchun muayyan algoritim bo'yicha ishlab chiqiladigan psevdotasodifiy ketma-ketlik.

Shifratör (televideniya)

ing. - scrambler; cryptographic

device (in television)

rus. - шифратор (в телевидении)

Televizion signalni shifrlash qurilmasi.

Shifrlagich

ing. - encoder, encipher

rus. - шифратор

Shifrlash algoritmlarini amalga oshiradigan elektron qurilma yoki dastur.

Shifrlamoq

ing. - encrypt

rus. - шифровать

Ma'lumotni shifrlangan holda joylashtirish. U maxfiy ma'lumotlarni ishonchli bo'lmagan joyda saqlashda yoki himoyalannagan aloqa kanali bo'yicha uzatishda ishlatiladi.

Shifrlangan fayl tizimi

ing. - encrypting file system

rus. - шифрованная файловая система

Ma'lumotlarni shifrlash algoritmlari orqali fayllar va kataloglarni ruxsat etilmagan tarzda foydalana olishdan muhofaza qilish imkonini beruvchi fayllar tizimi.

Shifrlangan matn

ing. - ciphertext

rus. - зашифрованный текст

1. Qandaydir algoritim yordamida algoritimni bilmasdan turib yoki maxsus kalitsiz uni o'qib bo'lmaydigan holatga keltirilgan matn. Maxfiy ma'lumotni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladi.

2. Tuzilmasi kriptografik algoritmlardan foydalanib o'zgartirilgan matn yoki xabar-larning boshqa turi.

Shifrlangan matnga hujum

ing. - attack on encrypted text

rus. - атака на зашифрованный текст

Faqat shifrlangan matn asosida kriptoolitiki uyushtirayotgan tahliiliy hujum.

Shifrlangan ma'lumotlar

ing. - cipher data

rus. - зашифрованные данные

Elektron hisoblash mashinasida shifrlangan ko'rinishda saqlanadigan axborot, ya'ni kriptografik muhofaza qilish usullari qo'llanilgan ma'lumotlar.

Shifrlangan nutq

ing. - encrypted voice

rus. - зашифрованная речь

Maxsus shifrlash algoritmlari yordamida qayta ishlangan va ochiq aloqa kanallari orqali uzatiladigan nutq signali.

Shifrlash

ing. - encoding

rus. - шифрование

1. Kriptotizimlardagi asosiy o'zgartirish, konfidensial axborotni jo'natuvchi tomonidan bajariladi. Shifrlashni o'zgartirish juft (ochiq matn, shifrlash kaliti)ni shifrlatmaga o'tkazadi.

2. Ma'lumotlarni, ularning yashirin uzatilishini ta'minlovchi maxsus algoritmlardan foydalanib, qayta ishlash usuli. Axborotning o'zgartirilishi kodlash birliklari, odatda, mazmunli so'z yoki jumlar bo'lgan kriptografik usullardan farqli o'laroq, bitlar yoki ularning ketma-ketligi darajasida amalga oshiriladi.

Shifrlash algoritmi

ing. - encryption algorithm

rus. - алгоритм шифрования

Shifrlash funksiyasini amalga oshiradigan algoritm.

Shifrlash funksiyasi

ing. - encryption function

rus. - функция шифрования

Shifrdan ma'lumotlarni kalitni qo'llagan holda o'zgartirish uchun foydalaniladigan funksiya.

Shifrlash kaliti

ing. - encryption key

rus. - ключ шифрования

Ma'lumotlarni shifrlash va deshifrlash jarayonlarini boshqaruvchi simvollar ketma-ketligi.

Izoh - Shifrlash kalitni muayyan foydalanuvchining apparaturasi shunday generatsiya qilindiki, natijada uni hech kim, jumladan, kriptotizimni ishlab chiqqan shaxsning o'zi ham, unda kalitli axborotdan foydalana olishga ruxsati bo'lmagan vaziyatda, ocha olmaydi.

Shifrlash rejimiga o'tish komandasi

ing. - ciphering mode command

rus. - команда перехода в режим шифрования

Bazaviy stansiya tomonidan uzatiladigan va mobil stansiyada shifrlash rejimi o'rnatilishini boshlab beruvchi komanda.

Shifrlash vositalari

ing. - facilities of cryptooperation

rus. - средства шифрования

Axborotni almashtirish kriptografik algoritmlarini amalga oshiruvchi va axborotni qayta ishlash, saqlash hamda aloqa kanallari bo'ylab uzatishda uni ruxsatsiz foydalana olishdan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan apparat, dasturiy yoki apparat-dasturiy vositalar.

Shifrmatn

ing. - ciphertext

rus. - шифртекст

1. Ochiq matnga nisbatan shifrlash algoritmini qo'llash natijasi.
2. Dastlabki ochiq matnni uning ma'nosini yashirish maqsadida amalga oshiriladigan, shifrmatnga o'girish natijasi.

Shifrnin kalitsiz ochish (deshifrlash)

ing. - decryption

rus. - дешифрование

1. Shifrlash kalitini bilmasdan shifrlangan

matndan dastlabki matnni tiklash bilan tugallanadigan kriptotahlil jarayoni.

2. Raqib va/yoki buzg'unchi tomonidan ochiq xabarni kriptografik tizimning barcha elementlarini oldindan to'liq bilmasdan turib tahliliy ochish jarayoni.

3. Televideniya - shartli foydalanishni ta'minlash maqsadida shifrlangan axborotni interpretatsiya qilish jarayoni.

Shifrtizim

ing. - cryptosystem

rus. - шифросистема

Axborotning konfidensialligini shifrlash yo'li bilan ta'minlaydigan kriptografik tizim.

Shikastlangan sektor

ing. - bad sector

ru - «битый» сектор, поврежденный сектор

Axborotni o'qish/yo'zishda xatoga yo'l qo'yilgan qattiq disk sohasi.

Izoh - Operatsion tizim diskni formatlayotganda va o'qish-yozish operatsiyalarini bajarayotganda shikastlangan sektorlarni aniqlaydi, uni tashkil etuvchi klasterlarni FAT ga disk xotirasini taqsimlashda foydalanish mumkin bo'lmaydigan qilib belgilab qo'yadi.

Shina

ing. - bus

rus. - шина

1. Ma'lumotlarni uzatish yo'li (kanali). Odatda, shina bitta yoki bir nechta o'tkazgich bilan elektr jihatdan bog'lanish ko'rinishida amalga oshiriladi va shinaga ulangan barcha qurilmalar signalni bir vaqtda oladilar.

2. Kompyuterlarda - protsessorni kompyuterning barcha elementlari bilan bog'lash uchun belgilangan o'tkazgichlar va yordamchi elementlar tizimi. Kompyuter tizimining asosiy komponentlari, jumladan, markaziy protsessor, xotira, kontrollerlar, tashqi qurilmalar ulanadigan parallel o'tkazgichlar to'plamini o'zida ifodalaydi.

Shina interfeysining bloki

ing. - bus interface unit.

rus. - блок интерфейса шины

Kod va ma'lumotlar aralashmasini protsessorga qabul qilib, ishlatishga tayyor bo'lgunga qadar ajratadigan yoki shina orqali hisob-kitob natijalarini yuborgan holda birlashtiradigan blok.

Shina kontrolyori

ing. - bus controller

rus. - шинный контроллер

Standartga muvofiq, shina bo'ylab uzatiladigan ma'lumotlar oqimi tuzilishini ta'minlaydigan va shina bo'ylab signallar uzatilishini boshqaradigan kontroller.

Shina topologiyasi

ing. - bus topology

rus. - шинная топология

Barcha abonentlar ma'lumotlar uzatishning bir magistraliga (shinaga) chiziqli ulanadigan lokal tarmoq topologiyasi.

Shinani boshqarish

ing. - bus mastering

rus. - управление шиной

Shinani boshqarish rejimi, bunda muayyan tashqi qurilma, masalan, qattiq disk qandaydir ahamiyatli va katta hajmdagi vazifani bajarar ekan, shinadagi boshqa qurilmalarga ishni vaqtinchalik to'xtatish va o'zi shinani boshqarishni (ma'lumotlar yuborish, boshqaruv signallari va komandalarini berish) boshlashi to'g'risida komanda beradi. Bunday yondashuvdan odatda, protsessorni bitta shinadagi ikki qurilma o'rtasida ma'lumotlar va/yoki komandalar yuborish operatsiyalaridan ozod qilish uchun foydalaniladi.

Shkaf

ing. - cabinet

rus. - шкаф

Kommutatsiya qurilmalari, ulanish nuqtalari, elektr o'tkazgich yoki aktiv uskunani o'z ichiga oladigan xona.

Shleyf

ing. - stub

rus. - шлейф

Ma'lum nuqtalarda uzatish liniyasiga ulangan va liniyadagi reaktiv qarshilikni kompensatsiyalash uchun xizmat qiladigan va shu bilan birga liniyani yuklama yoki generator bilan moslashishi uchun xizmat qiladigan liniya bo'lagi.

Shlyuz

ing. - gateway

rus. - шлюз

1. Bitta tizimda foydalaniladigan axborot taqdim etish, qayta ishlash yoki uzatish standartlarini tegishli, lekin boshqa bir tizimda qo'llaniladigan standartlarga

o'zgartirish maqsadida, dasturiy ta'minot va uskuna birikmasi bilan birgalikda amalga oshiriladigan funksiya.

2. Ma'lumotlar uzatishning turli protokollari bo'yicha ishlaydigan elektron tizimlar o'rtasida ma'lumotlar jo'natish imkonini beradigan va tarmoqlararo aloqani ta'minlaydigan apparat yoki dasturiy vositalar.

Shovqin faktori (shovqin koeffitsiyenti)

ing. - noise factor

rus. - шум-фактор (коэффициент шума)

Belgilangan tranzistor tomonidan signal kuchaytirilganda signal/shovqin nisbati necha marta yomonlashishini ko'rsatadigan koeffitsiyent.

Shovqin nurlanish

ing. - noise emission

rus. - шумовое излучение

Kuchaytirgichlar, ko'paytirgichlar, generatorlar, chastota o'zgartirgichlar va sintezatorlarda vujudga keladigan issiqlik shovqinlari va boshqa omillar bilan bog'liq parazit nurlanish.

Shovqin; xalaqit

ing. - noise

rus. - шум; помеха

Amplituda, chastota yoki fazaning tasodiy qiymatlariga ega parazit elektromagnit tebranishlar. Kelib chiqishiga ko'ra, ichki (apparaturaning xususiy shovqinlari) va tashqi shovqinlar ajratiladi. Xususiy shovqinlarning asosiy manbai apparatura elementlaridagi zaryadlangan zarralarning issiqlik harakati hisoblanadi. Tashqi shovqin yoki xalaqitlar ham tabiiy (kosmik shovqinlar va b.), ham sanoat nurlanish manbalaridan chiqadigan umumiy signal (aralashma) ni o'zida ifodalaydi.

Shovqinga qarshi korreksiya

ing. - antinoise correction

rus. - противошумовая коррекция

Televizion tizimlarning videokuchaytirish traktida tasvir signalining shovqinliligini kamaytirish va tasvirda xalaqitlarning sezilarliligini pasaytirish uchun ko'riladigan qator choralar.

Shovqinlarni bostirish

ing. - quieting

rus. - подавление шумов

Foydali signal mavjud bo'lmagan vaqtda qa-

bul-qilgichni o'chirib qo'yishga asoslangan, uzatish pazularida shovqinlarni chiqarib tashlash usuli.

Shovqinlarni raqamli boshqarish

ing. - digital noise control

rus. - цифровое управление шумов

Tasvir mazmuniga bog'liq holda dinamik shovqinni bostirish funksiyasi.

Shovqinning detsibellarda ifodalangan o'lchangan quvvati

ing. - decibels adjusted (dBA)

rus. - взвешенная мощность шума, выраженная в децибелах

Shovqin quvvati darajasini o'lchash birligi. Shovqin darajasining 3,16 nW (- 85 dBm) nazorat darajasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu nuqtada shovqin o'lchangan quvvatining qiymati 0 dBA ga teng.

Shovqinsimon signalli radiotarmoq

ing. - spread spectrum radio network

rus. - радиосеть с шумоподобными сигналами

Shovqinsimon signallar uzatiladigan lokal radiotarmoq. Bu tarmoqning ishlash tamoyili kodli ajratishdan foydalanib ko'p tomonlama foydalanishni qo'llashga asoslangan. Bu tarmoqda signallarni uzatishda, ma'lumotlarning har bir bloki, chips deb ataluvchi bitlar ketma-ketligi bilan kodlanadi. Chipslar shovqinsimon signalga tiziladi va efir orqali uzatiladi. Uzatilgan diskret signalni qayta tiklash maxsus protsessor yordamida amalga oshiriladi. Shovqinsimon signalli radiotarmoq tizimlari ixcham, arzon va elektromagnit xalaqit beruvchi to'siqlar ta'sirida ham ishonchli ishlaydi.

Shoshilinch aloqa xizmati

ing. - emergency communication service

rus. - услуга экстренной связи

Mobil stansiyadan mobil abonent joylashgan yer hududidagi shoshilinch xizmatlarga to'lovsiz nutqli bog'lanish o'rnatilishini ta'minlaydigan xizmat.

Shoshilinch chaqiruv

ing. - emergency call

rus. - экстренный вызов

Mobil aloqa tizimlaridagi eng yuqori ustuvorlikka ega chaqiruv.

Shrift

ing. - font

rus. - шрифт

Yozilish shakli va o'lchami bir bo'lgan belgilarning to'liq to'plami.

Izoh - Kompyuterlarda foydalaniladigan shriftlarning katta soni mavjud. Printerlar uchun ichiga o'rnatilgan va ta'minlanadigan shriftlar bo'ladi. Ichiga o'rnatilgan shriftlar printerning doimiy xotirasida saqlanib, foydalanishga doim tayyor turadi. Ta'minlanadigan shriftlar mashinaning tezkor xotirasi orqali ishlaydi, protsessor resurslarini va xotirasini band etadi, ularning soni faqat tegishli dasturlarning mavjudligi bilan cheklanadi.

Shrift kartriji

ing. - font cartridge

rus. - шрифтовой картридж

Turli xil shriftlarni ichiga oladigan, printerga o'rnatilgan doimiy xotira qurilmasi. Kartrij bilan komplektda stol noshirlik tizimlari va ma'lum redaktorlar uchun drayverlar yetkazib beriladi.

Shrift to'yinganligi

ing. - font saturation

rus. - насыщенность шрифта

Turli chizishlarda bir xildagi belgilarning asosiy va bog'lovchi chiziqdagi kengligi bilan belgilanadi. Bitta garnitura doirasida to'liqlik eng ochdan to eng to'qqacha o'zgarishi mumkin.

Shrift o'lchami

ing. - font size

rus. - размер шрифта

Shrift simvollarining punktlardagi balandligi (bir dyuymda 72 ta punkt bo'ladi).

Shrift shakli

ing. - typeface

rus. - гарнитура шрифта

Umumiy dizayn bilan birlashtirilgan (masalan, Gelvetika) shriftlar turkumi.

Shriftlar redaktori

ing. - font editor

rus. - редактор шрифтов

Yangi shriftlar yaratish yoki mavjud shriftlarni to'ldirish va o'zgartirish imkonini beradigan dastur.

Shriftlar turkumi

ing. - font family

rus. - семейство шрифтов

O'lchami, kengligi va stili bilan biri-biridan farq qiladigan bir garnituradagi shriftlar to'plami.

Shriftni tanlash

ing. - font map per

rus. - подбор шрифта

Shriftning stili, o'lchami va rangini tanlash.

Shriftni o'rnatish

ing. - internal font

rus. - встраивание шрифта

True Type shriftlarining biri bilan tayyorlangan matn, bunday shrift bo'lmagan boshqa kompyuterga ko'chirilganda, baribir ayni shunday shriftli printerda o'qiladigan, bosiladigan texnologiya. Shrift matn bilan birga uzatiladi, undan faqat shu matn va matn tayyorlangan muhit (ilova) bilan foydalanish mumkin. Windows muhitida ishlaydi.

Shtatdagi texnik vosita

ing. - staff technical means

rus. - техническое штатное средство

Obyektida o'rnatilgan hisoblash texnikasi vositalari komplektiga kiradigan texnik vosita.

Shtir

ing. - pin

rus. - штырь

To'liq o'tkazgich traktida o'rnatilgan, sterjen (o'zak) ko'rinishidagi moslashtiruvchi element.

Shtirli antenna

ing. - spike antenna

rus. - штыревая антенна

Qattiq yoki egiluvchan metall sterjen ko'rinishidagi vertikal antenna. Shtirli antennaning uning o'qiga perpendikulyar tekislikda nurlanishi maksimal va o'q bo'ylab yo'nalishda mavjud emas.

Shtorka orqali siqib chiqarish

ing. - wipe

rus. - вытеснение шторкой

Bir televizion tasvirning boshqa tasvir bilan almashinish usuli, bunda tasvirlar o'rtasidagi chegara bir tekisda siljiydi.

Ch

Chap

ing. - left

rus. - левый

Klaviaturaning foydalanuvchining chap tomonida bo'lgan klavishlariga nisbatan qo'llaniladi. Odatda standart klaviaturada ikkitadan bo'lgan Alt, SHIFT, Ctrl klavishlari nomi bilan uchratish mumkin.

Chap qo'shtirnoq

ing. - left brace

rus. - левая кавычка – «ёлочка»

Matnda biror-bir nomni ajratib ko'rsatishda ishlatiladi va ochuvchi << va yopuvchi klavishlarga bo'linadi >>.

Chap stereoskopik televizion tasvir

ing. - left-eye stereoscopic

television picture

rus. - левое стереоскопическое

телевизионное изображение

Chap ko'zga stereoskopik televizioniye vositalari orqali taqdim etilgan alohida tasvir.

Chapga ko'rsatgich

ing. - left arrow

rus. - стрелка влево

Klaviaturadagi alifbo tugmalaridan o'ngda joylashgan klavish. Chapga qaratilgan ko'rsatgichdan farqlash mumkin. Asosan matndagi harf va so'zlarni joylashtirishda va o'zgartirishda qo'llaniladi.

Chaqirayotgan abonent

nomini aks ettirish

ing. - calling name delivery

rus. - отображение имени

вызывающего абонента
Telefon displeyida chaqirayotgan abonent raqami va nomini, agar telefon bu funksiyani ta'minlasa, aks ettirish xizmati. Agar chaqirayotgan abonent bu ma'lumotlar uzatishini blokirovkalagan bo'lsa, ular ma'lumotlarning (manzil kitobining) lokal bazasidan olinadi.

Chaqirayotgan liniyaning

identifikatsiya qilinishini

taqiqlashni aylanib o'tish

ing. - evasion of calling line

identification restriction

rus. - обход запрета идентификации вызывающей линии

Abonentning telefon apparatida, ushbu xizmatga ega, barcha hollarda chaqiruvchi abonentlarning raqamlarini aks ettirish imkonini beradigan xizmat.

Chaqirilayotgan abonent hisobidan tanlab bog'lanish

ing. - selective reverse charging

rus. - избирательные соединения за счет вызываемого абонента

Foydalanuvchiga chaqiruvchi abonentlarning ma'lum raqamlaridan kiruvchi chaqiruvlarga haq to'lash imkonini beradigan xizmat. Chaqiruvchi abonentlarning bunday raqamlari ro'yxatga kiritiladi va saqlanadi. Ro'yxatni foydalanuvchi tartibga soladi. Shuningdek, ushbu funksiyadan foydalanishni PIN kod yordamida himoya qilish mumkin.

Chaqirilayotgan abonent hisobidan to'lovni undirish ichki xizmati

ing. - internal freephone service

rus. - внутренняя услуга взимания оплаты за счет вызываемого абонента

To'lov undirilishi kerak bo'lgan abonentga maxsus raqam birlashtiriladigan va ushbu raqam bo'yicha barcha chaqiruvlar chaqiruvchi abonent tomonidan emas, balki mos ravishda ushbu abonent tomonidan to'lanadigan xizmat.

Chaqirilayotgan liniya identifikatsiya qilinishini taqiqlashni doimiy rezervlash

ing. - permanent (continuous) calling line identification restriction

rus. - постоянное резервирование запрета идентификации вызывающей линии

Chaqirilayotgan abonentga C turkumi abonentning raqamini barcha hollarda, agar C turkumi abonenti chaqirilayotgan abonent raqamidan oldin raqamni berish uchun ma'lum prefiksni tergan hollarda ham berishga ruxsat etilmaydi.

Chaqirilayotgan liniya identifikatsiyasini taqdim etish

ing. - calling line identification presentation

rus. - представление идентификации вызывающей линии

Tizimga, chaqirilayotgan abonentga chaqiruvchi abonentning raqamini yuborish va uni

telefon apparati yoki chaqiriluvchi abonent terminalida aks ettirish imkonini beradigan xizmat.

Chaqirilayotgan liniya identifikatsiyasini taqiqlash

ing. - calling line identification restriction

rus. - запрет идентификации вызывающей линии

Chaqiruvchi abonentga chaqirilayotgan abonentning telefon apparatida uning raqami aks etishini taqiqlash imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruv

ing. - call (син. calling)

rus. - вызов

1. Chaqirilayotgan bir yoki bir nechta abonent bilan bog'lanishga urinish.
2. Chaqirilayotgan abonent bilan aloqani o'rnatish yoki dasturga uni bajarish maqsadida murojaat etish jarayoni.

Chaqiruv to'g'risida xabar

ing. - call alert

rus. - оповещение о вызове

Tovush signalini uzatish yoki chaqiruvchi abonent raqamini displey ekranida yoritish orqali amalga oshiriladigan signalizatsiya. Izoh - Agar so'zlashuv olib borayotgan yoki harakat zona-sidan tashqarida turgan abonentni chaqirish zarur bo'lsa, chaqiruv tizim tomonidan eslab qolinadi va abonent bilan bog'lanishning imkoniyati tug'ilganda, chaqiruv avtomatik tarzda yoki operator komandasiga binoan takrorlanadi.

Chaqiruv harakati boshlandi

ing. - call originated

rus. - вызов инициирован

Abonentning chaqiruvni boshlash niyati borligi, lekin hali raqam terishni boshlamaligini ko'rsatuvchi belgi.

Chaqiruv-javob

ing. - challenge-response

rus. - вызов-ответ

Parolni tekshirish mexanizmi. Server mijozga «chaqiruv»ni uzatadi, u parol yordamida uni qayta o'zgartiradi va natijani serverga «javob» sifatida uzatadi. Server «javob» «chaqiruv»dan to'g'ri parol yordamida olinmaligini tekshiradi.

Chaqiruv parametrlari yozuvi

ing. - call detail records (CDR)

rus. - записи параметров вызова

Abonent chaqiruvlarining qayd etiladigan

parametrlari, ular ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va kelgusida billing operatsiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Chaqiruv trassirovkasi

ing. - call trace

rus. - трассировка вызова

Terminal abonentiga oxirgi qo'ng'iroq qilgan IP-manzil trassirovkasi.

Chaqiruvga aralashish

ing. - call intercept

rus. - вмешательство в вызов

Ishlamaydigan raqamga qo'ng'iroq qilinda abonentni xabardor qilish, yoki uni muqobil raqamga qayta yo'llash.

Chaqiruvlar dispetcheri

ing. - call dispatcher-sequencer

rus. - диспетчер вызовов

Berilgan qayta manzillash dasturiga va ustuvorliklarga muvofiq, chaqiruvlarning aloqa liniyasida o'tish tartibini belgilovchi qurilma.

Chaqiruvlar grafigi

ing. - call graph

rus. - график вызовов

Tizim yoki kompyuter dasturida modullarni identifikatsiyalaydigan va qanday modullar bir-biriga qo'ng'iroq qilayotganligini ko'rsatadigan diagramma.

Chaqiruvlar navbatini shakllantirish

ing. - call queueing

rus. - формирование очереди вызовов

Kelayotgan barcha chaqiruvlarni qayta ishlash jarayonini tartibga solish protsedurasini. Aloqa kanalining taqdim etilishi chaqirilayotgan abonent raqami bo'shshiga qarab yoki chaqiruvlarni boshqa raqamga o'tkazish hisobiga amalga oshiriladi. Kutish vaqtida chaqirayotgan abonentga kerakli liniya bo'shshisi bilan uning chaqiruviga javob berilishi to'g'risida ogohlantiradigan maxsus xabar signali yoki nutqli xabar jo'natiladi.

Chaqiruvlar ro'yxati

ing. - call list

rus. - список вызовов

Dasturiy modulni chaqirishda foydalani-ladigan argumentlarning tartiblashtirilgan ro'yxati.

Chaqiruvlar to'g'risida kelishuv

ing. - calling conventions

rus. - соглашение о вызовах

Dasturlashda – protsedura yoki funksiyani chaqirishda, argumentlar berish tartibini va komandalar ketma-ketligini belgilaydigan kelishuvlar. Argumentlar registrlarda, stek, xotiraning umumiy sohasi orqali berilishi mumkin. Stekda ular, protsedurani chaqirish satridagi argumentlar ro'yxati bo'yicha chapdan o'ngga yoki o'ngdan chapga (ya'ni, teskari tartibda) siljishi mumkin. Argumentlar soni o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

Chaqiruvlarni avtomatik taqsimlash

ing. - automatic call distribution

rus. - автоматическое

распределение вызовов

Aloqa tarmoqlaridagi, chaqiruvlarni qayta manzillash dasturi va ustuvorliklarga muvofiq, boshqa raqamlarga yo'naltirish imkoniyatini beradigan xizmat.

Chaqiruvlarni birgalikda qabul

qilishni amalga oshiruvchi abonentlar

guruhi (seriyali izlash guruhleri)

ing. - hunt groups

rus. - группы абонентов,

осуществляющих совместный прием вызовов (группы серийного искания)

Kichik guruhni, unga kiruvchi chaqiruvlarni taqsimlash qoidalarini belgilash uchun, guruhga qo'shish imkonini beradigan xizmat.

Quyidagi rejimlardan foydalanish mumkin:

- berilgan ro'yxat bo'yicha kichik guruhning birinchi band bo'lmagan terminaliga kiruvchi chaqiruvni yuborish, bunda keyingi chaqiruv oxirgi chaqiruvni qabul qilgan terminaldan boshlab, ro'yxatni birma-bir saralaydi;

- berilgan ro'yxat bo'yicha kichik guruhning birinchi band bo'lmagan terminaliga kiruvchi chaqiruvni yuborish, bunda keyingi chaqiruv ro'yxatni uning boshidan boshlab, birma-bir saralaydi;

- chaqiruv bir vaqtda kichik guruhning barcha terminaliga keladi, ulanish go'shakni birinchi ko'targan abonent uchun amalga oshiriladi;

- chaqiruvni oxirgi qabul qilgan ro'yxatning oxiriga joylashtiriladi – abonentlarni bir tekis yuklash ta'minlanadi.

Chaqiruvlarni qayd qilish

ing. - call logging

rus. - регистрация вызовов

Ma'lum raqamga kelib tushadigan barcha chaqiruvlarni eslab qolish va statistik to'plam faylida chaqiruvlar to'g'risidagi batafsil axborotni qayd qilish.

Chaqiruvlarni qayta manzillash ro'yxati

ing. - call forwarding list

rus. - список переадресации вызовов

Xizmat abonentni chaqiruvlarini qayta manzillash ro'yxatida tegishli yozuvlar aktivizatsiyasi yoki deaktivizatsiyasida ishlatiladigan xizmat.

Chaqiruvlarni qayta manzillash uchun qo'ng'iroq o'rnatish

ing. - call forwarding ring splash

rus. - установка звонка для

переадресаций вызовов

Call Forwarding Unconditional, Call Forwarding Selective va Do Not Disturb funksiyalarini ulashda terminalda tegishli tovushli signallarni o'rnatish imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruvlarni saralash

ing. - call screening

rus. - фильтрация вызовов

Qaysi raqam terilganligiga qarab, kiruvchi chaqiruvlarning uzatilishini taqiqlovchi yoki unga ruxsat beruvchi protsedura. Ustuvor foydalanishni tashkil etishda yoki ruxsat etilmagan chaqiruvlarning oldini olishda foydalaniladi.

Chaqiruvlarni so'zsiz qayta manzillash

ing. - call forwarding unconditional

rus. - безусловная переадресация вызовов

Xizmat abonentiga kiruvchi chaqiruvlarni, xizmat abonentni holatidan qat'i nazar, boshqa belgilangan raqamga avtomatik tarzda qayta manzillash imkonini beruvchi xizmat.

Chaqiruvlarni tanlab qabul qilish

ing. - selective call acceptance (SCA)

rus. - выборочный прием вызовов

Raqamlar ro'yxatini tuzish imkonini beradigan xizmat, bunda abonent (kiruvchi chaqiruv) tuzilgan ro'yxatdan qo'ng'iroq qilsa, chaqiruv qabul qilinadi; agar chaqiruvchi abonent raqami ro'yxatda yo'q bo'lsa, chaqiruv tovushli pochtaga qayta manzillanadi.

Chaqiruvlarni tanlab qayta manzillash

ing. - selective call forwarding (SCF)

rus. - выборочная переадресация вызовов

Raqamlar ro'yxatini tuzish imkonini beradigan xizmat, bunda abonent (kiruvchi chaqiruv) tuzilgan ro'yxatdan qo'ng'iroq qilsa, chaqiruv boshqa raqamga yoki tovushli pochtaga qayta manzillanadi.

Chaqiruvlarni tanlab rad etish

ing. - selective call rejection (SCR)

rus. - выборочное отклонение вызовов

Raqamlar ro'yxatini tuzish imkonini beradigan xizmat, bunda abonent (kiruvchi chaqiruv) tuzilgan ro'yxatdan qo'ng'iroq qilsa, chaqiruv qabul qilinmaydi; agar chaqirayotgan abonent raqami ro'yxatda yo'q bo'lsa, kiruvchi chaqiruvga oddiy (normal) chaqiruv kabi xizmat ko'rsatiladi.

Chaqiruvlarni taqsimlash

ing. - call distribution

rus. - распределение вызовов

Abonentga beriladigan imkoniyat, u kiruvchi chaqiruvlarni boshqa raqamlarga, o'zi belgilagan qayta manzillash va ustuvorlik qoidalariga muvofiq yuborishi mumkin. Navbatdagi chaqiruv yuborilishi kerak bo'lgan terminalni tanlash, doiraviy navbat bo'yicha yoki abonentlar ro'yxatida ko'rsatilgan ustuvorliklarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Chaqiruvlarni chegaralash

bo'yicha xizmat

ing. - calls restriction service

rus. - услуга по ограничению вызовов

Mobil abonentga kiruvchi yoki chiquvchi chaqiruvlarning muayyan toifasini uning mobil stansiyasi uchun blokirovkalash imkonini beradigan xizmat. Bu chaqiruvlar asosiy aloqa xizmatlarining barcha yoki muayyan turiga taalluqli bo'lishi mumkin.

Izoh - Mobil abonent, o'z ixtiyori bo'yicha, ushbu blokirovkani bekor qilish yoki xizmatning amal qilinishini to'xtatish va uning amal qilish davomiyligi davrini aniqlash uchun parolga ega bo'lishi mumkin. Agar u tanlagan bo'lsa, unda o'zi parolni o'zgartirishi mumkin.

Chaqiruvlarni cheklagich

ing. - call limiter

rus. - ограничитель вызовов

Abonentning ma'lum raqamiga bir vaqtda kelib tushadigan chaqiruvlarning muayyan soniga (chegara qiymatiga) sozlangan hisoblagich.

Izoh – Cheklash chegarasi sutkaning ma'lum vaqtiga yoki foydalanuvchi tomonidan beriladigan biron-bir boshqa parametrlarga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin.

Chaqiruvni aniq tutib qolish

ing. - directed call pickup

rus. - явный перехват вызова

Guruhning boshqa terminaliga kelgan kiruvchi qo'ng'iroqni qabul qilish imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruvni boshqa manzilga yo'llash

ing. - call forwarding

rus. - пересылка вызова

Abonent raqami band bo'lganda yoki telefon javob bermaganda, chaqiruvni boshqa manzilga yo'llash mumkinligi.

Izoh – Chaqiruv manzilini o'zgartirishning uch usuli ma'lum. Ulardan eng oddiyi – uzatilishi kerak bo'lgan barcha kiruvchi chaqiruvlarni abonent ko'rsatgan raqamga jo'natish. Ikkinchi usulda faqat asosiy raqam band bo'lgan paytda kelib tushuvchi chaqiruvlarga boshqa manzilga yo'llanadi. Uchinchi usul abonent javob bermagan hollarda nazorat vaqti (taym-aut) davomida berilgan algoritim bo'yicha avtoqo'ng'iroq imkoniyatini ko'zda tutadi va chaqiruv faqat bu vaqtdan oshib ketgandagina boshqa manzilga yo'llanadi. Xizmatning ulanishi yoki uzib qo'yilishini foydalanuvchining o'zi bajarishi ham mumkin.

Chaqiruvni kutish

ing. - call waiting

rus. - ожидание вызова

Chaqirilyotgan abonent liniyasi band bo'lganda, unga yangi chaqiruv kelib tushganligi to'g'risida xabar berib, chaqiruvni navbatga qo'yish.

Chaqiruvni kutish xizmatidan foydalanishda (ikkinchi) chaqirayotgan abonentni identifikatsiya qilish

ing. - calling identity delivery on call waiting (CICDW) – call waiting deluxe

rus. - идентификация (второго)

вызывающего абонента при использовании услуги ожидание вызова
Band abonentga uni chaqirayotgan abonentni identifikatsiya qilish imkonini beradigan xizmat.

Izoh – Chaqirayotgan abonent raqamini va/yoki nomini identifikatsiya qilish uchun chaqirilyotgan abonent chaqiruvni kutish xizmatiga ega bo'lishi kerak.

Chaqiruvni ko'chirish

ing. - call transfer

rus. - перевод вызова

Chaqiruvni uchinchi abonentga o'tkazish

protsedurasi. Unda dastlab aktiv ulanish ushlab turish rejimiga o'tkaziladi, so'ngra boshqa abonent bilan ulanish amalga oshiriladi va nihoyat, chaqirayotgan abonentga ulanish sodir bo'ladi (ushlab turiladigan ulanish).

Izoh – Xizmat ko'rsatishning bu turi xizmatlarning «call forwarding» turidan shu bilan farqlanadiki, unda chaqiruv yo'nalishining o'zgarishi, ulanish o'rnatilgandan keyingina sodir bo'ladi.

Chaqiruvni qabul qilish

ing. - call acceptance

rus. - прием вызова

Chaqiruv qabul qilingan, lekin chaqiruvchi va chaqiriluvchi tomonlar o'rtasida hali bog'lanish o'rnatilmagan holat.

Chaqiruvni qayta manzillash

ing. - call forwarding

rus. - переадресация вызова

Telefon tarmog'i abonentiga xizmat ko'rsatishning qo'shimcha turi. Abonentga, raqami kommutatsiya stansiyasiga oldindan abonent tomonidan xabar qilinadigan boshqa telefon apparatga, o'ziga kelayotgan chaqiruvni uzatish imkonini beradi.

Chaqiruvni qayta ulash

ing. - call handoff

rus. - переключение вызова

Telefon so'zlashuvi davomida, chaqirilyotgan abonent raqamini qayta termasdan turib, aloqa kanalini bir tayanch stansiyadan boshqasiga qayta ulash.

Chaqiruvni qo'lga kiritish

ing. - call pickup, interception of call

rus. - перехват вызова

1. Abonentga, u bilan bitta yoki boshqa abonent guruhida bo'lgan boshqa abonentga yo'naltirilgan kiruvchi chaqiruvga javob berish imkonini beradigan xizmat.

2. Zarur bo'lgan raqamga yetib bormagan chaqiruvlarni nazorat qilish yo boshqa shaxsga yoki qurilmaga qayta manzillash maqsadida qo'llaniladigan qo'lga kiritish turlaridan biri.

Chaqiruvni taqiqlash-blokirovkalash

ing. - call barring-blocking

rus. - запрет вызова-блокировка

Abonentga go'ng'iroqlarning muayyan turiga vaqtinchalik taqiqni kiritish imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruvni tugallash strategiyasi**ing.** - call-completion objective**rus.** - стратегия завершения вызова

Chaqirilayotgan abonent band bo'lganda, bog'lanishni o'rnatish mexanizmi. Bog'lanishning o'rnatilish protsedurasini yakunlashning turli variantlari mavjud: qayta manzillash, chaqiruvni ushlab qolish va sh.k.

Chaqiruvni ushlab turish**ing.** - call hold**rus.** - удержание вызова

1. Chaqiruvning, tarmoq orqali uning keyingi uzatilish yo'lini tanlash jarayoni tugamaguncha, liniyada saqlab turilishi.

2. Bog'lanishni uzmay turib aloqani vaqtincha to'xtatish, bunda kiruvchi chaqiruv liniyada saqlanib qoladi, pauzalar paytida, odatda, musiqa yoki nutqli xabarlar uzatiladi.

3. Amalga oshirilgan so'zlashuvni uzib qo'ymasdan boshqa qo'ng'iroqqa javob berish yoki so'zlashib turgan suhbatdoshini uzib qo'ymasdan abonentga qo'ng'iroq qilish, ya'ni bir-birini eshitmaydigan bir nechta suhbatdoshlar bilan navbatma-navbat so'zlashish imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruvni o'tkazish**(qayta yo'naltirish) xizmati****ing.** - call transfer**rus.** - услуга перевода**(перенаправления) вызова**

Olingan chaqiruvni boshqa abonentga o'tkazish (qayta jo'natish) imkonini beradigan xizmat.

Chaqiruvning o'tmayotganligi**to'g'risidagi signal****ing.** - out-of-order signal**rus.** - сигнал о непрохождении вызова

Chaqiriluvchi terminalning egallab bo'linmasligi yoki nosozlik oqibatida chaqiruvning yakunlanmasdan qolishi mumkinligi to'g'risida xabar beruvchi signal; bu signal chaqiruvchi terminalga uzatiladi.

Chaqiruvchi abonentni identifikatsiya**qilish va identifikatsiyani taqiqlash****ing.** - calling identity**delivery and suppression****rus.** - идентификация вызывающего**абонента и запрет идентификации**

Chaqirilayotgan abonentga boshqa abonentni chaqirishda o'z raqami va nomini maxsus

kodlarni tergan holda taqdim etish va o'z raqami va nomini berishni taqiqlash imkonini beruvchi xizmat.

Chastota**ing.** - line-locked frequency**rus.** - частота

Davriy jarayonning, vaqt birligida bajariladigan davrlar soniga teng bo'lgan miqdor xarakteristikasi.

Chastota bo'yicha ajratish**bilan optik multipleksorlash****ing.** - optical frequency division**multiplexing (OFDM)****rus.** - оптическое мультиплексирование с частотным разделением

Yaqin joylashgan optik eltuvchilarda uzatiladigan kanallarni zichlash usuli. Bu texnologiyadan foydalanib, bitta tolaga yuztagacha va undan ortiq aloqa kanalini «joylashtirish» mumkin.

Chastota etaloni, chastota standarti**ing.** - frequency standard**rus.** - эталон частоты, стандарт частоты

Chiqish signali chastota etaloni sifatida qo'llaniladigan generator.

Chastota manipulyatsiyasi**ing.** - frequency manipulation**rus.** - частотная манипуляция

Modulyatsiyalash usuli, bunda eltuvchi signal chastotasi sal o'zgartirilishi hisobiga, axborotni havo muhiti orqali uzatish uchun qulay bo'lgan usulda taqdim etish amalga oshiriladi.

Chastotaga bog'liq bo'lmagan antenna**ing.** - frequency-independent antenna**rus.** - частотно-независимая антенна

Chastotalarning keng diapazonida amaliy jihatdan o'zgarmas xarakteristikalariga ega antenna.

Chastotalar diapazoni**ing.** - frequencies range**rus.** - диапазон частот

1. Chastotalari uchun tebranishlar va to'liqinlar solishtiriladigan xossalarga ega bo'lgan uzluksiz chastota intervali.

2. Qurilma sozlanishi mumkin bo'lgan chastota intervali.

Chastotalar polisasi

ing. - frequency band

rus. - полоса частот

Ikki muayyan cheklovchi chastotalar o'rtasida joylashgan chastotalarning uzluksiz majmui.

Izoh - Chastotalar polisasi o'zining chastotalar polosasida o'rni belgilab beradigan ikki katalik bilan, masalan, uning quyi va yuqori cheklovchi chastotalari bilan tavsiflanadi.

Chastotalar polosasining kengligi

ing. - bandwidth

rus. - ширина полосы частот

Chastotalar polosasining quyi va yuqori chegaralari o'rtasidagi farq.

Chastotalararo xendover

ing. - interfrequency handoff

rus. - межчастотный хэндовер

Bir tayanch stansiyadan boshqasiga ko'chish paytida mobil stansiya chastotasining avtomatik ravishda o'zgarishi.

Chastotalarning egallangan polisasi

ing. - occupied frequency band

rus. - занимаемая полоса частот

Quyi va yuqori chegaralaridan tashqarida nurlanadigan o'rtacha quvvatining har biri berilgan nurlanish o'rtacha quvvatining ma'lum foizi $\beta/2$ ga teng bo'lgan chastotalar polisasi. Agar XEI-R nurlanishning tegishli toifasi uchun hech qanday ko'rsatmalar bermasa, $\beta/2$ qiymatini 0,5 foizga teng deb olish kerak.

Chastotalarning himoya polisasi

ing. - guard band

rus. - защитная полоса частот

Chastotalarning, chastotalarning ikkita qo'shni kanalini ajratadigan va o'zaro xalaqitlardan himoya maydonini ta'minlash uchun mo'ljallangan tor polisasi.

Chastotalarning optik diapazoni

ing. - optical band

rus. - оптический диапазон частот

1013 Gs dan 1015 Gs gacha bo'lgan chastotalar diapazoni. Ko'rsatilgan chastotalarga to'liq uzunligi 0,01 dan 1000 mkm gacha bo'lgan elektromagnit tebranishlar mos keladi. Fizik xossalariga ko'ra, optik diapazon bir xil emas. U elektromagnit to'liqlarning fizik xossalari bir xil bo'lmagan uchta quyi diapazonga bo'linadi: ultrabinafsha nurlanish, ko'rinadigan nurlanish va infraqizil nurlanish.

Chastotalarning qo'shilib ketishi

ing. - frequency interlace

rus. - переплетение частот

Televideniya - davriy xalaqit signalining chastota spektri hamda yo'yish chastotalari garmonikalarining spektri o'rtasidagi to'g'ri qo'shilib ketish. Bu narsa xalaqitning sezilarligini, uning shakli keyingi yo'yishlarda o'zgarishi tufayli, minimumga keltiradi.

Chastotalarning takroran ishlatilishi

ing. - frequency reuse

rus. - повторное использование частот

Xizmat ko'rsatishning turli zonalarida, aynan bir chastotani qayta ishlatishga asoslangan, aloqani tashkil etish usuli.

Izoh - Chastotaviy-hududiy rejalashtirishda chastotalarning takroran ishlatilishi, chastota kanallari cheklangan tarmoqlar o'tkazish qobiliyatini oshirishga imkon beradi.

Chastotani stabillash

ing. - frequency stabilization

rus. - стабилизация частоты

Generator hosil qiladigan chastotaning doimiyligini saqlab turish.

Chastotani o'zgartirish

ing. - out-tuning

rus. - отстройка

Radiostansiyaning ishchi polosasidagi xalaqitlar darajasini pasaytirish maqsadida, qabulqilgich ishchi chastotasini o'zgartirish.

Chastotaning musbat Doppler siljishi

ing. - up Doppler

rus. - положительный

доплеровский сдвиг частоты

Mobil obyekt tayanch stansiyaga yaqinlashganida chastotaning Doppler ortish effekti.

Chastotaning nostabilligi

ing. - frequency instability

rus. - неустойчивость частоты

Generator chastotasining, uning tebranish konturlari o'zgarmasdan sozlanganda yuz beradigan o'zgarishi.

Chastotaning og'ishi

ing. - deflection of frequency

rus. - отклонение частоты

Nurlanuvchi to'liq chastotasining o'rtacha chastotadan modulyatsiya keltirib chiqargan oniy og'ishi. Chastotaviy modulyatsiyada

oniy chastota maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi cho'qqi farq.

Chastotaning sekin

sakrashsimon o'zgarishi

ing. - slow frequency hopping

rus. - медленное скачкообразное

изменение частоты

Ishchi chastotani psevdotasodifiy qayta sozlash usuli, unda chastotani almashtirish vaqti bitta axborot simvoliga to'g'ri keladigan vaqt intervali uzunligidan ancha kattadir, ya'ni bitta chastotada doimo bittadan ko'p axborot simvoli uzatiladi. Xalaqitlardan himoyalashning ushbu usuli mobil stansiyalarning kichik ko'chish tezligida eng samarali bo'ladi.

Chastotaviy qoplash

ing. - frequency overlap

rus. - частотное перекрытие

Rangli televideniye tizimida chastotalar polosasining monoxrom kanal va ranglilik signali kanali uchun umumiy bo'lgan qismi. Izoñ - Chastotaviy qoplash - spektrlarni birlashtirishning bir shaklidir.

Chastotaviy skanlanadigan

antenna panjarasi

ing. - frequency-scanned array

rus. - антенная решетка

с частотным сканированием

Nurning elektr skanlanishi qo'zg'atiluvchi manba chastotasini o'zgartirish orqali amalga oshiriladigan antenna panjarasi.

Chastotaviy tavsifning notekisligi

ing. - unevenness of f

requency characteristic

rus. - неравномерность

частотной характеристики

Berilgan turdagi radiokarnayning texnik shartlarida ko'rsatilgan ishchi chastotalar diapazoni chegaralarida tovush bosimi eng ko'p va eng kam qiymatlari darajalarining farqi. Odatda, chastotaviy tavsifning notekisligi detsibellarda (dB) ifodalanadi va 15 dB dan 18 dB gacha bo'lishiga yo'l qo'yiladi (0 dB 1000 Hz chastotadagi tovush bosimiga mos keladi).

Chat

ing. - chat

rus. - чат

Internet foydalanuvchilari o'rtasida real vaqtda matnli xabarlar almashinish.

Chegara

ing. - border

rus. - граница

Qandaydir kattalik o'zgarishining ozirgi nuqtasi; xotira, fayldagi muayyan interval.

Chegara registri

ing. - limit register

rus. - регистр границы

Xotirani himoya qilishda ishlatiladigan va xotira sohasining uzunligini o'z ichiga oladigan, foydalanish dasturiga ajratilgan tizimli registr.

Chegaradan tashqari to'lqin o'tkazgich

ing. - ultraboundary waveguide,

below-cutoff waveguide

rus. - запредельный волновод

O'zining kritik chastotasidan past chastotada foydalaniladigan to'lqin o'tkazgich.

Chegaraviy foydalana olish shlyuzi

ing. - access border gateway

rus. - пограничный шлюз доступа

IP-tarmoqlarida: kichik tarmoqning belgilangan manzili bilan identifikatsiya qilindigan tarmoq. Kichik tarmoqlar ulangan tarmoqlarni manzillashning murakkabligiga qarab kichik tarmoqni bir vaqtda muhofaza qilish uchun marshrutlashning ko'p darajali iyerarxik tuzilmasini ta'minlash maqsadida tarmoq administratori tomonidan segmentlangan tarmoqni o'zida aks ettiradi. OSI-tarmoqlarida kichik tarmoq deb, bir administrativ domenda boshqariladigan va tarmoqdan foydalana olishning bitta protokolidan foydalanuvchi oxirgi va oraliq tizimlari guruhiga aytiladi.

Chegaraviy qiymat

ing. - boundary value

rus. - граничное значение

Ma'lumotlarning, tizim yoki komponent uchun ko'rsatilgan eng kichik yoki eng katta kirish, ichki yoki chiqish qiymatiga mos keladigan qiymati.

Chegaraviy (chekka) marshrutizator

ing. - border router

rus. - граничный маршрутизатор

Tarmoq chegarasidagi, xabarlarning berilgan tarmoq orqali keyinchalik yo'llanishini ta'minlamaydigan marshrutizator.

Chek list

ing. - checklist

rus. - чек лист

Qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida alohida tarzda tizimlashtirilgan omillar, xos-salar, parametrlar, aspektlar, komponentlar, mezonlar yoki vazifalar (masalalar) ro'yxati.

Cheklangan bufer

ing. - bounded buffer

rus. - ограниченный буфер

Jarayonlarning o'zaro ta'sir sxemasi, bunda cheklangan uzunlikdagi sikl buferi yordamida o'zaro harakat qiluvchi jarayon-ishlab chiqaruvchi va jarayon-iste'molchi mavjud bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi axborot elementlarini generatsiyalaydi va buferga yozadi, iste'molchi bufer axborot elementlaridan foydalanadi va ularni yo'q qiladi.

Cheklashni tekshirish

ing. - limit check

rus. - проверка ограничения

Ma'lumotlarning qiymatlari berilgan qiymatdan yuqorida yoki quyida turganligini yoki belgilangan cheklashga yetganligini aniqlash maqsadida bajariladigan tekshirish.

Cheklov

ing. - constraint

rus. - ограничение

Kompyuter funksionalligiga oldindan o'ratilgan cheklovlar. Biror bir manbadan bolalarning foydalanishlarini chegaralash yoki kompyuterdan kechki payt foydalanilishining oldini olish uchun xizmat qiladi.

Chertish

ing. - click

rus. - щелчок

Kursorni siljitmasdan «sichqoncha» tugmasini bosish.

Chetdan kiritish

ing. - import

rus. - импортирование

Axborot obyektini (masalan, hujjat, matn, grafiklar, ma'lumotlarni), u saqlanadigan joydan (fayl, ma'lumotlar bazasi) chiqarib tashlamasdan joriy ilovaga, formatni o'zgartirgan holda, ko'chirib yozish.

Chetki avtomat

ing. - finite automat

rus. - конечный автомат

Axborotni qayta ishlashga mo'ljallangan,

chekli xotira qurilmasining modeli. Chekli avtomatlarning ikki xil, ya'ni, sinxron va asinxron turkumi farqlanadi. Chekli avtomatlar integral sxemalar asosida yaratiladi.

Chetlab o'tish rejimi

ing. - by-pass mode

rus. - режим обхода

Ma'lumotlarni shifrlash uskunasi ish-lash rejimi bo'lib, bunda ochiq matn buzilmasdan uzatiladi.

Chin

ing. - true

rus. - истина

Mantiqiy mulohaza tavsifi. Mantiqiy ifoda dasturlash tillarida olishi mumkin bo'lgan qiymat.

Chinlik jadvali

ing. - truth table

rus. - таблица истинности

Mantiqiy funksiyani tavsiflaydigan jadval. Berilgan holda «mantiqiy funksiya» deganda, o'zgaruvchilarning (funksiya parametrlarining) qiymatlari va funksiyaning o'z qiymati mantiqiy chinlikni ifodalaydi. Masalan, ikki belgili mantiqda ular «chin» yoki «yolg'on» qiymatni olishi mumkin. Chinlik jadvallari asosan Bul algebrasida va raqamli elektron texnikada mantiqiy sxemalar ishini tavsiflashda qo'llaniladi.

Chip

ing. - chip

rus. - чип

1. Davomiyligi axborot oqimidan bir necha marta kichik bo'lgan, murakkab signal elementi.

2. Kristaldagi yarimo'tkazgichli mikro-sxema.

Chip tarmoq

ing. - chip set

rus. - чипсет

Markaziy protsessorning periferik qurilmalar bilan ishlashini ta'minlash uchun asosiy platada o'rnatiladigan integral sxemalar to'plami.

Chip tezligi

ing. - chip rate

rus. - чиповая скорость

Taktili chastotasi kirish axborot tezligidan

bir necha marta yuqori bo'lgan keng spektrli signallarning elementlarini uzatish tezligi. Chip tezligi, odatda, Mchip/s da o'lchanadi (masalan, IS-95 standartida 1,2288 Mchip/s ga teng).

Chiqarib olish vositasi

ing. - retriever

rus. - средство для извлечения

Saqlangan yozuvlardan foydalana olish imkonini beradigan veb-ilova.

Chiqarib tashlash (ayirish) bloki

ing. - subtractor

rus. - блок вычитания

Protssessorning chiqarib tashlash bloki operatsiyalarini bajaradigan qurilmasi.

Chiqarib tashlash tuzog'i

ing. - reset trapping

rus. - ловушка сброса

Boshqaruvning foydalanuvchiga qaytishining oldini olish maqsadida, kompyuterning shtat rejimida ishlashini buzadigan har qanday urinishni yo'qqa chiqarishning dasturiy usuli.

Chiqarish

ing. - eject

rus. - извлечь

Olib qo'yiladigan disklarni (floppi, CD yoki DVD) kompyuterdan uzishni amalga oshiradigan komanda.

Chiqarishni buferlash

ing. - spooling

rus. - буферизация вывода

Bufering har bir vazifasi uchun (xotira yoki fayl sohasi ko'rinishida) uni chiqarish uchun saqlash, buferda topshiriq bilan chiqariladigan axborotni to'plash va uni topshiriq bajarilgandan so'ng qurilma (printer) orqali chiqarish.

Chiqish

ing. - quit

rus. - выход

Tizimdan, dasturdan chiqish, seansni yakunlash.

Chiqish ma'lumotlari, natijalar

ing. - output data

rus. - выходные данные, результаты

Qaysidir vazifani hal qilish natijasi sifatida kompyuterdan olinadigan ma'lumotlar.

Chiqish quvvatining

maksimal o'rtacha qiymati

ing. - maximum average output power

rus. - максимальное среднее значение выходной мощности

Uzatiladigan signallarning har qanday kombinatsiyasida o'rinni bo'lgan modulyatsiyaning eng uzun takrorlanuvchi sikli bo'yicha o'rtachalangan maksimal radiochastotaviy chiqish quvvati.

Chiqish uchlari bir qator

joylashgan xotira moduli

ing. - single in-line

memory module (SIMM)

rus. - модуль памяти с однорядным расположением выводов

Xotira modulining keng ishlatiladigan qisqartmasi; tezkor xotira standartlaridan biri. Kompyuterlarda tezkor xotira qurilmasini kuchaytirish uchun foydalaniladi. Tezkor dinamik xotira integral mikroshemalari o'rnatilgan, uncha katta bo'lmagan bosma plata-modul ko'rinishida chiqariladi. Hajmi odatda, 1 Mb dan 64 Mb gacha bo'ladi.

Chiqish uchlari to'rt

tomonida joylashgan yassi korpus

ing. - quad flat package (QFP)

rus. - плоский корпус с

четырёхсторонним расположением выводов

Planar chiqish uchlari to'rt tomon bo'ylab joylashgan mikroshemalar korpuslarining turkumi. QFP mikroshemalar chiqish uchlaring soni odatda, 200 dan oshmaydi, qadami 0,4 mm dan 1,0 mm gacha.

Chiqishni sozlash

ing. - regulation of output

rus. - регулировка выхода

Uzatilayotgan tasvirning o'rtacha yorqinligini o'zgartirgan holda, signalning cho'qqi amplitudasini o'zgartirish.

Chiqmoq

ing. - sign out

rus. - выйти

Oldindan tanlangan pozitsiyalardan voz kechishga yo'naltirilgan harakat. Masalan, yangilik jo'natmalaridan voz kechish. Tizimdagi ishni tugatish.

Chiquvchi

ing. - outbox

rus. - исходящие

Elektron pochtaga ishlov berish bo'yicha dasturlardagi papka, ushbu papkada jo'natishga tayyor, lekin serverga hali yetkazilmagan xatlar saqlanadi. Xatlar serverga yetkazilgandan so'ng, «Jo'natilganlar» papkasiga o'tkaziladi.

Chiquvchi fayl

ing. - output file

rus. - файл вывода

Chiquvchi ma'lumotlardan (qayta ishlangan ma'lumotlardan) iborat fayl.

Chiquvchi hujjat

ing. - outgoing document

rus. - исходящий документ

Tashkilotdan jo'natiladigan rasmiy hujjat.

Chiquvchi liniya

ing. - outbound link (син. outgoing line)

rus. - исходящая линия

1. Axborot oqimi aloqa stansiyasi yoki retranslyatoridan abonentga uzatiladigan liniya.

2. Kanallar konsentratori yoki kommutatori chiqishini olisdagi abonent bilan bog'lovchi liniya.

Chiquvchi oqim

ing. - output stream

rus. - выходной поток

Ishga tushirilgan dasturdan chiquvchi ma'lumot oqimi. Dastur ishining bosqichlarini aks ettirishda yoki boshqa dastur bilan ma'lumot almashinishda ishlatiladi.

Chiquvchi telefon yuklama

ing. - outgoing telephone traffic

rus. - исходящая телефонная нагрузка

Qarab chiqiladigan telefon yuklama manbalariga nisbatan tashqi bo'lgan liniya (kanal)lar bog'lamiga yoki kommutatsion aloqa asboblari guruhiga yo'naltirilgan telefon yuklama.

Chiquvchi chaqiruvlarni

chegaralash xizmatlari

ing. - outgoing calls barring services

rus. - услуги ограничения

исходящих вызовов

Abonentga barcha yoki muayyan chiquvchi chaqiruvlarni o'rnatishga va/yoki o'zining telefon apparatidan xizmat ko'rsatuvchi buyurtmalarga to'sqinlik qilish imkonini beradigan xizmat.

Chiquvchi chaqiruvni saralash

ing. - original call screening

rus. - просеивание исходящего вызова

Abonentga, berilgan apparatdan terilishi taqiqlangan raqamlar ro'yxatini belgilash imkonini beradigan xizmat turi. Taqiq maxsus kod kintilgandan keyingina olib tashlanadi.

Chiquvchi cho'qqi quvvat

ing. - peak output power

rus. - пиковая выходная мощность

Uzatiladigan signallarning har qanday kombinatsiyasida mumkin bo'lgan maksimal cho'qqi amplituda sharoitida, radiochastotaviy tebranish davri ichida o'rtaqalashtirilgan chiquvchi quvvat.

Chiziqli algoritim

ing. - serial algorithm

rus. - линейный алгоритм

Barcha qadamlari bir marta va qat'iy ravishda ketma-ket bajariladigan sodda algoritim.

Chiziqli antenna

ing. - linear antenna

rus. - линейная антенна

Bitta o'lchami to'liq uzunligidan katta yoki o'lchovdosh bo'lgan antenna, bunda ikkita boshqa o'lcham to'liq uzunligidan ancha kam bo'ladi.

Chiziqli antenna panjarasi

ing. - linear array

rus. - линейная антенная решетка

Nurlantiruvchi elementlari to'g'ri chiziqda joylashgan antenna panjarasi.

Chiziqli bashoratlash

ing. - linear prediction

rus. - линейное предсказание

Tovush signalini dekodlashda qo'llaniladigan bashoratlash usuli. Bunda tovush sigalining so'rov paytida taxmin qilinayotgan kattaligi oldin tanlangan kattaliklarning chiziqi o'lchangan yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Chiziqli kriptotahlil

ing. - linear cryptanalysis

rus. - линейный криптоанализ

Blokli shifrlar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan kriptotahlil usuli. Bu kriptotahlil usuli ma'lum ochiq matn bo'yicha kriptotahlil usuliga asoslanadi.

Chiziqli manzil makoni

ing. - linear address space

rus. - линейное адресное пространство

Ba'zi bir protsessorlarda foydalaniladigan, xotirani manzillash sxemasi. Unda barcha tezkor xotira qurilmalaridan registrda yoki komandada bo'lgan yagona manzil yordamida foydalanish mumkin bo'ladi.

Chiziqli printer

ing. - line printer

rus. - линейный принтер

Bir paytning o'zida butun qatomi chop etuvchi yuqori tezlikka ega bo'lgan printer. Chiziqli printerlarning kamchiligi ularning grafikani chop etaolmasligi, past chop etish sifati va ish paytida qattiq shovqinlar bo'lishidir.

Chiziqli qutblanish

ing. - linear polarization

rus. - линейная поляризация

Elektromagnit to'lqinning kuchlanganlik vektori bitta qayd qilingan liniyaga parallel bo'lib qoladigan elektromagnit to'lqin qutblanishi.

Chiziqli simmetrik vibrator

ing. - line dipole

rus. - линейный симметричный вибратор

O'tkazgichlarining o'qlari bir to'g'ri chiziqda yotuvchi simmetrik vibrator.

Chiziqli qo'shish

ing. - equal gain combining

rus. - линейное сложение

Tarqoq (yozilgan) qabul qilish usuli. Bunda bir xil vazn koeffitsiyentiga ega bo'lgan turli kanallarning signallari daraja bo'yicha tenglashtirilgach qo'shiladi.

Chop etish versiyasi

ing. - print version

rus. - версия для печати

Veb-sayt sahifasining chop etish uchun mo'ljallangan, ya'ni dizayn elementlarisiz, faqat matndan iborat xili.

Chop etish spulteri

ing. - print spooler

rus. - спулер печати

Chop etish uchun yuborilayotgan hujjatlarni qabul qiladigan, qayta ishlaydigan, dispatcherizatsiya qilib, taqsimlab beradigan DLL to'plami.

Chuqurlik

ing. - depth

rus. - глубина

1. Signalning maksimal va minimal qiymatlari o'rtasidagi farq, masalan, amplitudali modulyatsiya chuqurligi.
2. Sxemada ketma-ket ulangan elementlar sonini, iyerarxik tuzilmadagi pog'onalarni, maksimal tanlash hajmini tavsiflovchi o'lchov.

Cho'ntak

ing. - bin

rus. - карман

Xotiraning tizim tomonidan ajratiladigan, nusxa ko'chirish yoki ko'chirish uchun ma'lumotlar vaqtincha joylashtiriladigan qismi.

Cho'ntak shaxsiy kompyuteri

ing. - pocket PC

rus. - карманный персональный компьютер
Portativ kompyuterning bir turi, o'lchamlari va og'irligiga ko'ra elektron yon daftarchani eslatadi, funksional imkoniyatlariga ko'ra stol kompyuteriga deyarli o'xshash. Bunday kompyuterning tezkor xotirasi uzoq muddatli xotira funksiyasini bajaradi va bir necha megabayt o'lchamga ega. Qattiq disk yo'q. Odatda, Windows CE ostida ishlaydi, boshqa kompyuterlar bilan interfeysga, o'rnatilgan integ-ratsiyalashgan tizimlarga ega. Displeyi suyuq kristalli.

Cho'qqi quvvat

ing. - peak power

rus. - пиковая мощность

Sinxronlovchi signallar cho'qqi amplitudasiga mos keladigan, radiochastotaviy tebranish davri ichidagi quvvat.

Cho'qqi chiqish quvvatini rostlash

ing. - output peak-power control

rus. - регулировка пиковой

выходной мощности

Uzatgichning chiqish quvvatini muayyan chegarada uzoq vaqt oralig'i mobaynida ushlab turish uchun mo'ljallangan qo'lda yoki avtomatik tarzda sozlash.

Cho'tka

ing. - brush

rus. - кисточка

Turli grafik dasturlardagi «cho'tka» asbobi. Rangning o'zgaradigan qalinligi va inten-

sivligiga ega. Nuqtalarning ketma-ketligini («sichqoncha» tugmasini bosganda) chizadi.

Cho'zilgan impuls

ing. - stretched pulse

rus. - растянутый импульс

Qabul qilgich kirishidagi davomiyligi signalning ko'p nurli buzilishlari yuzaga kelishi bilan bog'liq boshlang'ich impuls davomiyligidan sezilarli katta bo'lgan impuls.

Abandonware

ing. - abandonware

rus. - abandonware

Ishlab chiqaruvchi kompaniya tomonidan sotuvga qo'yilmayotgan va ishlab chiqaruvchi undan foyda olmayotgan dasturiy mahsulot (operatsion tizim, matn protsessori, kompyuter o'yini yoki media-fayl).

AC-3 formati

ing. - AC-3

rus. - формат AC-3

Dolby Laboratories firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan tovushli fayl formati. 6 ta tovush kanaliga ega. Frontal: chap, o'ng va markaziy kanallar tovushning aniq joylashuvini aniqlab beradi. Orqa chap va o'ng kanallar hamda qo'shimcha past chastotali kanal 3-120 Hz esa «yaqinda bo'lish effekti» ni qo'shadi. Muqobil nomi 5.1 formati.

AC''97

ing. - Audio Codec''97 (AC''97)

rus. - AC''97

Kompyuter audio apparaturalarining asosiy standarti. Audio tizimlarni kompyuterga joylashtirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha plata formatini tavsiflaydi.

ACE standarti

ing. - advanced computing environment

rus. - стандарт ACE

Foydalanuvchilarning x86 shaxsiy kompyuterlaridan MIPS turidagi RISC mashinalariga o'tish imkonini beruvchi ochiq standart. Universal operatsion tizimni tuzish bo'yicha loyihaning bir qismi.

ACPI spetsifikatsiyasi

ing. - advanced configuration and power (management) Interface (ACPI) specification

rus. - спецификация ACPI

Intel, Microsoft va Toshiba korporatsiyalari tomonidan 1996-yilda ishlab chiqilgan

ochiq standart. Kompyuterlarning energiyaga bo'lgan etijojini BIOS tomonidan emas, balki operatsion tizim tomonidan to'liq boshqarilishini (alohida qurilmalarni yoqish va o'chirib qo'yish) amalga oshirishga imkon beradi.

ActiveX

ing. - ActiveX

rus. - ActiveX

COM modeli asosidagi obyekt komponent ilovalarini dasturlash uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar guruhining nomi. Dasturiy ta'minot komponentlarining bir-birlari bilan, ularning yaratilishi uchun bevosita ishlaladigan dasturlash tillariga bog'liq bo'lmagan holda, tarmoq muhitida o'zaro ishlashlariga imkon yaratuvchi texnologiyalar to'plami.

ActiveX ma'lumotlar obyekti

ing. - ActiveX data objects (ADO)

rus. - объекты данных ActiveX

Ma'lumotlardan foydalana olish interfeysi. Mijoz ilovalariga fayllar yoki serverlarda bo'lgan ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlardan foydalanish va ularni boshqarish imkonini beradi.

ACTOR tili

ing. - ACTOR

rus. - язык ACTOR

Whitewater Group kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, Windows da ishlaydigan dasturlarni yaratishga mo'ljallangan, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tili. Paskal dasturlash tiliga xos sintaksisiga ega.

Ada tili

ing. - Ada

rus. - язык Ada

Boshqariladigan elektron hisoblash mashinalari bo'lgan, o'rnatilgan tizimlarda foydalanish uchun ishlab chiqilgan dasturlash tili. Bunday tizimlarda operatsiyalarning parallel bajarilishi talab etiladi va amalga oshirish vaqtiga qat'iy cheklovlar qo'yiladi. Shuning uchun ham, Ada real vaqt tizimlari tili hisoblanadi.

ADB shinasini

ing. - apple desktop bus (ADB)

rus. - шина ADB

Macintosh shaxsiy kompyuteridagi tizim shinasini.

Address Resolution Protocol

ing. - address resolution protocol (ARP)

rus. - address resolution protocol

MAC-manzillarni IP-manzillarda aks ettirishda ishlatiladigan Ethernet-tarmoqlardagi quyi daraja protokoli.

A-diapazon operatori

ing. - A-Band carrier

rus. - оператор А-диапазона

Chastotalarning A-diapazonida ishlash uchun litsenziyaga ega bo'lgan mobil aloqa kompaniyasi.

Izoh - Atama Amerika tizimlari uchun xos bo'lib, ularda mobil aloqa uchun ajratilgan butun (800-900) MHz chastota diapazoni, shartli ravishda A va B operatorlari sifatida nomlangan ikki operator o'rtasida taqsimlangan. Tarixan, A operator bir vaqtning o'zida simli va simsiz telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya hisoblanadi. Barcha mobil telefonlar faqat bitta (A yoki B) diapazonda ishlash uchun dasturlashtirilgan bo'lib, bu ularning faqat bir turdagi boshqaruv kanallarini izlash imkoniyatini ifodalaydi.

Adobe

ing. - adobe

rus. - adobe

1982-yilda asos solingan dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi Amerika kompaniyasi. PDF formatning muallifi va egasi hisoblanadi. Yaqinda MacroMedia kompaniyasini sotib oldi.

Adobe firmasining (shriftlar) menejeri

ing. - adobe type manager

rus. - менеджер (шрифтов) фирмы Adobe
Adobe Systems firmasining shriftlarni qo'llab-quvvatlash (kuzatib borish) tizimi.

AES/EBU signali

ing. - AES/EBU signal (Audio Engineering Society/European Broadcasting Union)

rus. - сигнал AES/EBU

MPEG koderlari uchun manba sifatida qo'llaniladigan, har bir sanoqqa 20 dan 24 bit gacha kvantlash razryadlanishiga ega, ikki kanalli raqamli tovush signali.

Air interface texnologiyasi

ing. - Air interface

rus. - технология Air interface

Efir interfeysi - operatorning tayanch stantsiyalari va mobil qurilmalar o'rtasida ma'lumotlar almashinish amalga oshiriladigan texnologiya. Har bir operator o'zining efir interfeysiga ega.

AIT standarti

ing. - advanced intelligent tape

rus. - стандарт АИТ

Takomillashtirilgan intellektual (magnit) tasma.

Algol

ing. - algol

rus. - algol

Ilmiy-texnik masalalarni hal qilish uchun foydalaniladigan, ma'lumotlarni qayta ishlashning prosedura tili; ilmiy hisoblashlar uchun mo'ljallangan yuqori darajali til.

ALPHA

ing. - ALPHA

rus. - ALPHA

RISC turidagi, 64 razryadli ma'lumotlar shinasini, 64 razryadli manzil shinasini, tezkor xotira va protsessor o'rtasida ma'lumotlar uzatish uchun mo'ljallangan 128 razryadli shinaga ega bo'lgan mikroprotsessor. DEC firmasi tomonidan 1992-yilda ishlab chiqilgan. Takt chastotasi 300 MHz ga yetadi.

Alt klavishasi

ing. - Alt key

rus. - клавиша Alt

Kompyuterlarda: bosilishi vaqtida klaviatura boshqa klavishalarining skan-kodlarini o'zgartirish imkonini beradigan klavisha. Yangi klavishlar qo'shmasdan turib klaviatura funktsionalligini kengaytiradi.

AMR spetsifikatsiyasi

ing. - audio/modem riser (AMR)

rus. - спецификация AMR

Tizim platasini va interfeysini kengaytirish imkonini beruvchi, audio qurilmalar kabi modemni ham qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan platalarning ochiq sanoat standarti hisoblanadi. AC'97 spetsifikatsiyasi asosida yaratilgan. AMR platalar (modemlar, tovush kartalari) tizim platasiga PCI shinasidan foydalanilgan holda ulanadi.

AMR-WB kodeki

ing. - adaptive multi-rate

wideband, AMR-WB

rus. - кодек AMR-WB

Ixtisoslashtirilgan ko'p tezlikli kodek, odatda, keng polosali mobil aloqa tizimlari uchun qo'llaniladi. U, muayyan tezliklar diapazonida (6,6 Kbit/s dan 23,85 Kbit/s gacha) ovoqli oqim siqilishini ta'minlaydi.

ANSI kodi

ing. - ANSI code

rus. - код ANSI

Simvollarini sakkiz razryadli ikkilik sonlar (1 byte) bilan kodlash standarti. Windows da foydalaniladi.

ANSI simvollar to'plami

ing. - ANSI character set

rus. - набор символов ANSI

Amerika milliy standartlar instituti (ANSI) tomonidan ishlab chiqilgan, Windows da 256 ta boshqaruvchi va alifbo-raqamli simvollarini taqdim etishda foydalaniladigan 8 bitli kod jadvali.

AOL

ing. - America OnLine (AOL)

rus. - AOL

AQSH hududida joylashgan eng katta Internet provayderi. ICQ AIM Internet-peyjer xizmatining egasi. Onlayn-xizmatlar va elektron e'lonlar taxtalarini yetkazib beruvchi. 1998-yilda Netscape kompaniyasini sotib oldi va uning asosida o'zining brauzerini chiqardi.

API antivirusi

ing. - anti virus API

rus. - антивирусный API

Pochta xabarlarini skanlash va aniq vaqt rejimida viruslarni aniqlashga imkon beradigan amaliy dasturlash interfeysi.

Izoh - Elektron pochta bo'yicha tarqaladigan viruslarni aniqlash imkoniyati va AVAPI server ishiga ta'sir etmasligi uning ustunligidir.

APL tili

ing. - a programming language (APL)

rus. - язык APL

Juda yuqori darajadagi protsedura tili. Maxsus klaviatura talab qiladi. Dastlab algoritmlarni yozish uchun notatsiya (shartli belgilar) bo'lib xizmat qildi. Birinchi varianti APL/360 - 1966 yil.

A-profil

ing. - A-profile

rus. - А-профиль

Amaliy profil. CAN tarmog'ining (abonent foydalana olish tarmog'ining) har bir qurilmasi uchun barcha kommunikatsion va amaliy obyektlarni belgilaydi.

A-qonuni

ing. - A-law

rus. - закон А

Tovush koderlaridagi RSM va ADPCM da qo'llaniladigan, tovush signali dinamik diapazonini siqish qonuni. Katta amplitudali signallar uchun logarifmik siqish algoritmidan, kichik amplitudali signallar uchun chiziqli siqish algoritmidan foydalanishga asoslangan. Bu esa kichik daraja signallarini tiklashda signal/shovqin nisbati doimiy bo'lishligini ta'minlaydi.

ARJ

ing. - ARJ

rus. - ARJ

Robert Jang tomonidan ishlab chiqilgan fayl arxivatori.

ASII kodi

ing. - ASII code

rus. - код ASII

Bir baytli (1 byte=8 bit) ikkilik kod ko'rinishida lotin alifbosi simvollarini, raqamlar, yordamchi simvollar yoki amallarni kodlash standarti. Dastlab standart 7 bitdan foydalanib (0 dan 127 gacha bo'lgan) 128 simvolnigina belgilagan edi. Barcha sakkiz bitdan foydalanish yana 128 simvolni kodlash imkonini beradi. Qo'shimcha simvollar har qanday bo'lishi mumkin. Ularga 128 dan 255 gacha bo'lgan kodlar ajratiladi.

ASN tarmog'i

ing. - access service network (ASN)

rus. - сеть ASN

Muayyan standartdagi (Mobile WIMAX) aloqa tarmog'idan foydalanish tarmog'i.

ASR parametri

ing. - answer seizure ratio (ASR)

rus. - параметр ASR

Qabul qilingan chaqiruvlar sonining, chaqirishga urinishlar soniga bo'lgan foiz nisbatini ko'rsatadigan, aloqa sifati parametri. Bu parametrning qiymati chaqiriluvchining harakatiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

AT - komandalar

ing. - AT commands

rus. - АТ-команды

Haycs Microcomputer Product firmasi tomonidan ishlab chiqilgan Hayes turidagi modemlarni boshqarish tili. De-fakto standarti hisoblanadi. Tilning har bir komandasi

«AT» dan boshlanadi. Inglizcha «at-tention» – «diqqat» soʻzidan olingan.

ATA ketma-ket porti

ing. - Serial ATA (SATA)

rus. - последовательный порт ATA

Shaxsiy kompyuterlarning tizim platalariga ulash uchun va maʼlumotlarni saqlash (qat-tiq disklar, DVD va CD-R/W diskovodlari) tez ishlovchi qurilmalarning arzon xizmat-lariga moʻljallangan ichkil interfeyslarning tasnifi. Maʼlumotlar uzatish tezligi: 150, 300 va 600 Mbit/s. Kabel uzunligi 1 m gacha.

ATDMA usuli

ing. - advanced time division multiple access (ATDMA)

rus. - метод ATDMA

Kanallarni vaqt boʻyicha ajratish bilan koʻp stansiyali foydalana olishning takomil-lashtirilgan usuli.

Izoh - UMTS dasturi doirasida ishlab chiqilayotgan aloqa tizimi loyihasining nomi, unda TDMA texnolo-giyasining radiotoʻlqinlarning koʻp nurli tarqalishida, tinishlarga ega boʻlgan kanallardagi imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish koʻzlangan.

Athlon

ing. - athlon

rus. - athlon

AMD kompaniyasi tomonidan 1999-yil iyun oyida eʼlon qilingan x86 arxitekturasi-ning mikroprotssessori. Yangi texnologiya Pen-tium protssessorining raqobatchisi boʻlishga imkon berdi. Athlon protssessorining eng katta kamchiligi, uning koʻp energiya sarf-lashi va buning oqibatida yuqori darajadagi issiqlikda ishlashidir. Athlon 462-pin li razʼyomda ishlaydi.

A-turidagi resurs yozuvi

ing. - A-type resource record

rus. - ресурсная запись типа-A

Domenga kiradigan kompyuterning xotira-sida saqlanadigan maʼlumot boʻlib, unda kompyuterning domen nomi (kompyuter-ning nomi) va domen hududiga tegishli kompyuter IP-manzili aks ettiriladi.

AVI formati

ing. - Audio Video Interleaved (AVI)

rus. - формат AVI

Tovush bilan sinxronlashgan videofilmlar (mini-kinofilmlar) ni saqlash uchun Micro-soft korporatsiyasining Multimedia Systems Group boʻlinmasi tomonidan ishlab chiqil-gan fayllar formati. Raqamli video va audio

yozuvlarning galma-gal almashinadigan for-matiga ega.

AWK dasturlash tili

ing. - AWK

rus. - язык программирования AWK

Skriptli, UNIX uchun dasturlash tili, mu-alliflari nomi bilan atalgan (Al V. Aho, Peter J. Weinberger hamda Brian W. Kernighan). 1977-yilda ilk versiyasi chiqqan.

B-diapazon operatori

ing. - B-Band carrier

rus. - оператор В-диапазона

Chastotalarning B-diapazonida ishlash uchun litsenziyaga ega boʻlgan mobil aloqa kompaniyasi.

Izoh - Atama Amerika tizimlariga xos boʻlib, ularda mobil aloqa uchun ajratilgan (800-900) MHz chastota-lar diapazonining barchasi shartli ravishda A va B tarzi-da nomlanuvchi ikki operator oʻrtasida teng boʻlingan. B-operatori tarixan simsiz foydalana olish xizmatlarini koʻrsatishga ixtisoslashgan kompaniyadir. Barcha mo-bil telefonlar faqat bitta (A yoki B) diapazonda ishlash uchun dasturlashtirilgan boʻlib, u faqat bitta turdagi boshqarish kanallarini qidirish imkoniyatini anglatadi (terminal dasturlashtirilgani kabi).

B kanallar, «tashuvchi kanallar»

ing. - B channels

rus. - В-каналы, «каналы-носители»

ISDN tarmogʻining nutqli yoki alifbo-raqamli maʼlumotlarni uzatish uchun moʻl-jallangan ikkita 64 kbit/s li kanali.

B-psevdokadr

ing. - B-pseudoframe;

bidirectionally - predictive picture

rus. - В-псевдокадр

Televizion tasvirming avval keluvchi va/yoki ketidan keluvchi tayanch kadrlari yoki may-donlari boʻyicha harakatni kompensatsiya-lash bilan taxminlash usulida shakllanadigan psevdokadr.

Base-64 kodi

ing. - Base 64

rus. - код Base-64

Elektron xabarlarini MIME bilan moslashgan kodlash usuli. Ixtiyoriy baytlar ketma-ket-ligini bosma ASCII-simvollar ketma-ketli-giga kodlaydi.

Bash

ing. - bourne again shell (Bash)

rus. - Bash

Bourne shell komandali qobiqning mukam-

mallashtirilgan va yangilangan variatsiyasi. Unix ning ommalashgan zamonaviy komandali qobiqlaridan biri. Ayniqsa GNU/Linux muhitida keng tarqalgan bo'lib, u bu muhitda boshlang'ich komanda qobig'i sifatida ishlatiladi.

BASIC

ing. - BASIC

rus. - BASIC

Dastlabki eng oddiy dasturlash tillaridan biri. 1964-yilda ishlab chiqilgan mazkur dasturlash tili professional bo'lmagan dasturchilarga mo'ljallangan. BASIC tili konstruksiyasining oddiyligi, shuningdek, kompyuter bilan dialog rejimda ishlash imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi.

BCD fayli

ing. - Boot configuratin data

rus. - файл BCD

Kompyuterda mavjud bo'lgan yuklanadigan operatsion tizimlar va ularning parametrlari to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladigan fayl. Aktiv bo'limda Boot papkasida saqlanadi. BCD fayl o'chirib tashlanganda, shikastlanganda yoki noto'g'ri sozlanganda operatsion tizim yuklanishdan to'xtaydi.

BDE

ing. - borland database engine (BDE)

rus. - BDE

Borland firmasining ma'lumotlar bazasidan foydalana olish interfeysi. U dasturlarga ma'lumotlar bazasidagi xabarlardan foydalana olish imkonini yaratadi.

BEDO DRAM xotirasi

ing. - burst extended data out DRAM

rus. - память BEDO DRAM

Tezkor xotiraning bir turi. SDRAM ning arzon analogini yaratish maqsadida tuzilgan. Lekin keng tarqalmagan.

Belady anomaliasi

ing. - anomaly Biladi

rus. - аномалия Belady

FIFO algoritmidagi, uchta erkin freymlardagi sahifalarning rad etish soni bilan solishtirish jarayoniga ko'ra, to'rtta erkin freymdagi sahifalar rad etish sonining ortib borishi.

BeOS operatsion tizimi

ing. - Be operating system (BeOS)

rus. - операционная система BeOS

Dastlab BeBox uchun bazaviy operatsion

tizim sifatida ishlab chiqilgan operatsion tizim. Ko'p oqimlilik, mikroyadrolik, ko'p protessorli arxitekturaning, 64 bitli jurnali fayl tizimining qo'llanilishi, juda qulay va oddiy foydalanuvchi interfeysi BeOS ning ajratib turadigan afzal jihatlaridir.

Betacam formati

ing. - betacam

rus. - формат Betacam

Yarim dyuymli magnit tasмага ma'lumot yozish uchun Sony firmasi tomonidan taqdim etilgan yozuv formati.

BGP protokoli

ing. - border gateway protocol (BGP)

rus. - протокол BGP

EGP (External Gateway Protocol) protokoli o'miga ishlab chiqilgan mashrutlash protokoli bo'lib, turli standartlar asosida ishlaydigan tarmoqlar o'rtasida aloqani ta'minlashga mo'ljallangan. EGP protokolinig vositalaridan farqli o'laroq, BGP protokolinig vositalari optimal marshrutni tanlash uchun barcha mumkin bo'lgan marshrutlarni baholay oladi.

Big endian

ing. - big endian

rus. - big endian

Kompyuter xotirasining arxitekturasi, bunda baytlarni raqamlash xotira har bir so'zida chapdan boshlanadi, ya'ni katta bitlardan boshlab raqamlanadi.

BITNET tarmog'i

ing. - because it's time network (BITNET)

rus. - сеть BITNET

IBM firmasining dastlabki meynfreymi (1981-yil) asosida qurilgan birmuncha arzon va past tezlikka ega xalqaro kompyuter tarmog'i bo'lib, 52 mamlakatning kollej va universitetlarini birlashtirgan. Hozirgi vaqtda CREN tarmog'ining bir qismidir.

Blackberry OS

ing. - Blackberry OS

rus. - Blackberry OS

Smartfonlarda va Research and Motion (RIM) firmasining kommunikatorlarida ishlaydigan ilovalarning asosiy to'plamiga ega mobil quрилmalar uchun mo'ljallangan operatsion tizimlar.

Blowfish algoritmi

ing. - Blowfish

rus. - алгоритм Blowfish

1993-yil Bryus Shneyyer tomonidan ishlab chiqilgan shifrlash standarti.

Izoh - U simmetrik blokli shifrlash bo'lib, blokining o'lchami 64 bit, kalitining uzunligi esa o'zgaruvchidir (32 dan 448 bit gacha). Internetda ushbu algoritmining dastlabki kodlari mavjud bo'lib, litsenziya talab etmaydi.

Bluetooth

ing. - Bluetooth

rus. - Bluetooth

Tovush va ma'lumotlarni uzatish uchun turli xildagi qurilmalarni birlashtirish imkonini beradigan simsiz qisqa to'liqlik (30 m gacha) yaqin radioaloqa texnologiyasi. Uni ishlab chiqish va rivojlantirish bilan Bluetooth SIG assotsiatsiyasi shug'ullanadi. U IEEE 802.15 belgilanishli standartni oldi. U 2,4 GHz chastotadagi ishini aniqlaydi va 10 m masofagacha (722-784) kbit/s tezlikda ma'lumot uzatadi.

BluRay-disk

ing. - BluRay

rus. - BluRay-диск

Katta hajmli (25-50 Gbayte) kompakt-disklarning bir turi.

BMP formati

ing. - BMP

rus. - формат BMP

Grafik fayllarning siqilmagan standart formati bo'lib, bitta nuqta uchun 4,8 yoki 24 bit ni ko'zda tutadi.

BOOTP protokoli

ing. - bootstrap protocol

rus. - протокол BOOTP

Qattiq diskka ega bo'lmagan uzellar bilan birgalikda ishlash protseduralarini aniqlab beruvchi tarmoq protokoli. Dastlab TCP/IP tarmoqlarida disksiz ishchi stansiyalarni sozlashda ishlatilgan protokol. DHCP - o'z navbatida shu protokolni qo'llagan yuklash konfiguratsiyasining tugab borayotgan protokolidir.

Borland obyekt

komponentlarining arxitekturasini

ing. - borland object component architecture (BOCA)

rus. - архитектура объектных

компонентов Borland

Borland firmasining (mavjud standart kom-

ponentlardan dasturlar tizim va komplekslarini yaratish uchun) obyekt-modulli arxitekturasini.

Bps (sekunddagi bitlar soni)

ing. - bits per second (Bps)

rus. - Bps (бит в секунду)

Bir sekund ichida uzatiladigan bitlar soni. Modem kabi ma'lumotlarni uzatishi mumkin bo'lgan qurilmaning tezligini o'lchash birligi sifatida foydalaniladi.

BREW platformasi

ing. - binary runtime environment for wireless (BREW)

rus. - платформа BREW

Qualcomm kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, CDMA standartidagi mobil qurilmalar uchun ilovalar platformasi (GSM uchun Java platformasining analogi).

BSC kodi

ing. - Base station code, BSC

rus. - код BSC

Tayanch stansiya kodi.

BSD

ing. - berkeley software distribution (BSD)

rus. - BSD

Kaliforniya universitetining dasturiy mahsuloti. Uning asosida FreeDSB, OpenBSD va NetBSD kabi qator operatsion tizimlar ishlab chiqilgan.

C Shell

ing. - C Shell (CSH)

rus. - C Shell

Komanda beruvchi interpretator. *nix-tizimlaridagi komanda satrini dasturlash tili.

C# tili

ing. - C#

rus. - C#

Ilovalar, veb-komponentlar, shuningdek, veb-xizmatlar tuzish uchun, Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturlash tili. O'zida C++, Java, Java Script, Visual BASIC tillarining eng yaxshi jihatlari birlashtirilgan kuchli dasturlash tili.

C++

ing. - C++

rus. - C++

Quyi darajali dasturlash imkoniyati bo'lgan, ANSI va ISO standartlariga javob beradigan,

obyektga yo'naltirilgan yuqori daraja tili, Ci (C) dasturlash tilining navbatdagi avlodi hisoblanadi. C**ning obyektga yo'naltirilganligi, u yirik mashtabli dasturlarni kodlash soddalashtiriladigan va ularning kengayuvchanligi ta'minlanadigan dasturlash uslubini qo'llab-quvvatlashini bildiradi.

C2 himoya darajasi

ing. - C2 security

rus. - уровень защиты C2

Axborotni muhofaza qilishga mo'ljallangan AQSh milliy standarti, foydalanuvchilarni yakka tartibda ro'yxatga olish, maxfiy so'z va vakolat berish mexanizmi mavjudligini talab qiladi.

Cairo tarmoq operatsion tizimi

ing. - cairo network operating system

rus. - сетевая операционная система Cairo Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan obyektga yo'naltirilgan arxitekturali tarmoq operatsion tizimi. Cairo tizimi ma'lumotlarni qayta ishlash taqsimlangan muhitini ta'minlaydi.

Caps Lock klavishi

ing. - Capitals lock (Caps.lock)

rus. - клавиша Caps Lock

Yuqori registrni qayd qilish klavishi.

CAS protokoli

ing. - communicating applications specification (CAS)

rus. - протокол CAS

Intel korporatsiyasining, o'atilgan menyu yordamida shaxsiy kompyuterlarning faksimil platalaridan bevosita foydalanishni ta'minlaydigan protokoli.

C_B signal

ing. - C_B signal

rus. - сигнал C_B

Rangli televideniyeining ayrim raqamli komponentli tizimlarida foydalaniladigan, mashtab koeffitsiyentiga ko'paytirilgan, ko'k ayirmarang signalga mos keladigan bir qutbli signal.

ccTLD

ing. - country-code Top-Level Domain

rus. - ccTLD

Yuqori pog'onali milliy yoki mamlakat domeni. ® Muayyan mamlakat uchun ajratiladi, masalan, O'zbekiston uchun .uz, Rossiya uchun .ru va h.k.

CD+MIDI formati

ing. - Compact Disc Plus MIDI

rus. - формат CD+MIDI

Raqamli ovoz va MIDI interfeysi bilan kengaytirilgan format.

C-diapazon

ing. - C-band

rus. - C-диапазон

Yo'ldoshi (FSS), radioreleli va boshqa xizmatlar o'rtasida taqsimlangan 4 GHz dan 8 GHz gacha chastotalar diapazonining xalqaro belgilanishi. Masalan, FSS yo'ldoshi aloqa xizmatiga 4/6 GHz diapazoni ajratilgan va u ikkita uchastkani o'z ichiga oladi: (3,4-4,2) GHz (liniya «pastga») va (5,7-6,7) GHz (liniya «yuqoriga»).

CD-I diskining umumiy tasnifi

ing. - CD-I media specification

rus. - общая спецификация диска CD-I Diskning, uning fizik formatini, shuningdek, turli ko'rinishdagi axborotni kodlash tartibi va uslublarini belgilaydigan tasnifi.

CDIF eksporter

ing. - CDIF exporter

rus. - CDIF экспортёр

CDIF uzatish faylini yaratadigan vosita.

CDIF grafik notatsiyasi

ing. - CDIF graphical notation

rus. - CDIF графическая нотация

Diagrammalarda CDIF modellash konsepsiyalarining taqdim etilishini belgilaydigan qoidalar to'plami.

CDIF importer

ing. - CDIF importer

rus. - CDIF импортёр

CDIF uzatish faylini o'zgartirishda va undan modelni yaratishda yoki o'zgartirishda foydalanadigan vosita.

CDIF metaindikator

ing. - CDIF metaidentifier

rus. - CDIF-метайндикатор

Metaobyektning uzatishning metamodel qismida qat'iy identifikatsiyalaydigan meta-atribut.

CDMA2000 1xEV-DV texnologiyasi

ing. - CDMA2000 1xEvolution

Data and Voice

rus. - технология CDMA2000 1xEV-DV

CDMA2000 standarti negizidagi ma'lumot-

larni simsiz uzatish texnologiyasi. Standart 2003-yilda ishlab chiqilgan. Radioefirda bitta eltuvchida bir vaqtda ham ovoz, ham ma'lumotlar uzatilishini ko'zda tutadi. Maksimal tezlik 3-5 Mbit/s gacha, normal o'tkazish qobiliyati 1,25 MHz kanalda 1 Mbit/s ni tashkil etadi.

CDMA2000 1x EV-DO Rel 0 texnologiyasi

ing. - Evolution-Data Optimized, Release 0
rus. - технология CDMA2000 1x EV-DO Rel 0

CDMA2000 standarti negizidagi ma'lumotlarni simsiz uzatish texnologiyasi. Ma'lumotlarni «pastga» (Down link (DL)) liniyada 2,4 Mbit/s gacha bo'lgan tezlik bilan, «yuqoriga» (Up link (UL)) liniyada 153 Kbit/s tezlik bilan uzatish imkoniyatini ta'minlaydi.

CDMA2000 1x EV-DO Rel A texnologiyasi

ing. - CDMA2000 1x EV-DO Rel A
rus. - технология CDMA2000 1x EV-DO Rel A

CDMA2000 standarti negizidagi ma'lumotlarni simsiz uzatish texnologiyasi. Ma'lumotlarni mobil terminaldan tayanch stansiya tomon yo'nalishda 1,8 Mbit/s gacha bo'lgan tezlik bilan uzatilishini, tayanch stansiyadan mobil terminal tomon yo'nalishda 3,1 Mbit/s gacha bo'lgan tezlik bilan olinishini ta'minlaydi. Kanalning talab qilinadigan kengligi 1,25 MHz, bu, spektrdan samarali foydalanish to'g'risida gapirish imkonini beradi. Hozirgi paytda 1x EV-DO Rel A texnologiya CDMA2000 tarmoqlari uchun tayanch texnologiya hisoblanadi va «to'rtinchi avlod» (4G) tarmoqlariga o'tishni amalga oshirish imkonini beradi.

CDMA2000 loyihasi

ing. - cdma2000
rus. - проект CDMA2000

Qualcomm kompaniyasi takliflari asosida, TIA TR 45.5 qo'mitasi (AQSh) tomonidan IMT-2000 dasturi doirasida ishlab chiqilgan keng polosalni tizimlar uchunchi avlod standarti loyihasining nomi.

CDMA2000 standarti

ing. - CDMA2000
rus. - стандарт CDMA2000

CDMA standarti versiyalaridan biri. Uchinchi avlod keng polosalni tizim standartining

loyihasi. TIA TR (AQSh) qo'mitasi tomonidan Qualcomm kompaniyasining ishlanmalari negizida yaratilgan. Aloqa kanallarining o'tkazish qobiliyatini oshirish yo'li bilan cdmOne standartining imkoniyatlarini kengaytiradi. CDMA2000 ga o'tishning birinchi bosqichi (Phase 1) ovozli va multimedia ma'lumotlar uzatish tezligini 144 Kbit/s gacha oshirishni ko'zda tutadi. Bu texnologiya uchun qator nomlanish mavjud: IS-2000, MC-1X, IMT-CDMA Multi-Carrier1x va 1xRTT. Ikkinchi bosqichda (Phase 2) ma'lumotlar uzatish tezligi 2 Mbit/s gacha oshirishi mumkin: 1xEV-Data Voice yoki 1xEV-DV standarti ovoz va ma'lumotlarni birgalikda uzatish uchun hamda 1xEV-DataOnly (Phase 1+) faqat ma'lumotlar uzatish uchun. Bundan tashqari, CDMA2000 ga o'tishning ikkinchi bosqichida birinchi bosqich texnologiyalari ta'minlaydigan, ma'lumotlar uzatish tezligini uch marta oshirish texnologiyasidan foydalanilishi mumkin. Bu texnologiya MC-3X, IMT CDMA MultiCarrier3x va 3xRTT sifatida ma'lum.

CDMAOne aloqa tizimi

ing. - cdmaOne system
rus. - система связи cdmaOne

IS-95 standarti negizida amalga joriy etilgan ikkinchi avlod aloqa tizimining nomi. Aloqa, (824-849) MHz (liniya «yuqoriga») va (869-894) MHz (liniya «pastga») chastotalar diapazonida, 45 MHz dupleks tarqoqlik bilan ta'minlanadi. Nutqni uzatish uchun 8 Kbit/s (kanal ichida 9,6 Kbit/s)ga teng tezlikni ta'minlaydigan CELP turidagi kodeklar ishlatiladi. cdmaOne tarmoqlarining asosiy texnik parametrlari TIA standartlarida (IS-95 va IS-96) belgilab qo'yilgan.

CD-R (yozish imkoniyatli kompakt-disk)

ing. - CD-Recordable (CD-R)
rus. - CD-R (записываемый компакт-диск)
Cheklanmagan marta o'qish, lekin faqat bir marta yozish va davomidan yozish mumkin bo'lgan kompakt-disk turi. Ma'lumotni o'chirish imkoniyati mavjud emas. Zamonaviy CD-R lar 650 dan 800 Mbyte gacha ma'lumotni saqlay oladi.

CD-ROM kengaytirilgan arxitekturasi

ing. - compact disc extended architecture
rus. - расширенная архитектура CD-ROM
Zichlashtirilgan audioma'lumotlarni saqlashni ta'minlaydi. Microsoft va Sony korpo-

ratsiyalari tomonidan 1990-yilda yaratilgan standart, bundan tashqari, bu ma'lumotlarni diskdan o'qish usulini ham bajaradi.

CD-ROM qurilmasi

ing. - Compact Disc Read-Only Memory (CD-ROM)

rus. - привод CD-ROM

Kompakt disklarni o'qish uchun mo'ljallangan qurilma. CD-ROMlarning tezligi audio-kompakt-diskni o'qish tezligi (150 kbit/s) bilan aniqlanadi. Ayni vaqtda, 56 tezlikka ega CD-ROMlar mavjud. Bundan buyon, ularning tezligini oshirish qiyin masala bo'lib turibdi.

Celeron

ing. - Celeron

rus. - Celeron

Intel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan arzon protsessorlar turkumi. Uning arzonligi Pentium protsessorli kompyuterlarga nisbatan samaradorligi pastligi bilan izohlanadi (kesh xotira qisqartirilgan). Dastlabki Celeron protsessori 1998-yilning aprel oyida paydo bo'lgan.

CentOS

ing. - CentOS

rus. - CentOS

Hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Linux distributivi. U Red Hat Linux ga to'liq asoslangan va u bilan mos ravishda ishlay oladi. Undan farqli ravishda, yopiq dasturlarni ishlatmaydi va butunlay bepul.

CERT

ing. - CERT (Computer emergency response team)

rus. - CERT

Kompyuter xavfsizligi sohasidagi ekspertlar guruhi. Kompyuter hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va tekshirish ishlarini olib boradi, kompyuter hodisalarining oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. CERT bazan CSIRT (Computer Security Incident Response Team) deb ham ataladi. Birinchi CERT 1988-yilda Karnegi-Melon (AQSH) universitetida Internetda Morris Worm qurtining tarqalishi munosabati bilan yaratilgan. Bugungi kunda CERT xizmatlari ko'p mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham mavjud. Katta tashkilotlar ham odatda o'z CERT bo'linmalariga ega bo'ladi. Qar.: UZ-CERT.

CGA grafik adapteri

ing. - color graphics adapter (CGA)

rus. - графический адаптер CGA

Rangli grafik adapter, CGA adapteri IBM PC XT turidagi mashinalarda ko'p ishlatilgan. Oq-qora rejimda 640x200 nuqtali o'lchamni va 320x200 - rangli rejimda esa 320x200 nuqtali o'lchamni ta'minlaydi.

CHILL dasturlash tili

ing. - CHILL language

rus. - язык программирования CHILL

Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan taklif qilingan va kommunikatsiya tarmoqlarida avtomatlashtirilgan komplekslarni dasturlash uchun xalqaro standart sifatida qabul qilingan yuqori daraja dasturlash tili.

Ci tili

ing. - C language

rus. - язык Си

Umumiy maqsadlardagi dasturlash tili, o'zining samaradorligi, tejamliligi va ko'chirib bo'lishiligi bilan ma'lum, bu esa, deyarli barcha turdagi dasturiy ta'minot yaxshi sifati bilan ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Si tilidan instrumental til sifatida foydalanish tez va ixcham dasturlar olish imkonini beradi.

CMEA algoritmi

ing. - Cellular Message Encryption Algorithm (CMEA)

rus. - алгоритм CMEA

Raqamli mobil aloqa tarmoqlarida xabarlarini shifrlash algoritmi.

C-MOS-xotira

ing. - complementary metallic oxide semiconductor (C-MOS memory)

rus. - C-MOS-память

Uncha katta tezlikka ega bo'lmagan va batareyadan kam quvvat talab qiladigan, energiyaga bog'liq bo'lmagan xotira. Bu xotiradan kompyuter uskunasi konfiguratsiyasi va tarkibi, shuningdek, uning, operatsion tizim ishga tushirilgunga qadar tizim starti va oldindan testlash uchun zarur bo'lgan ish rejimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi.

COBOL dasturlash tili

ing. - COBOL language

rus. - язык программирования COBOL

Iqtisodiy masalalar va tijoratga oid ma'lumotlarni saqlash uchun foydalaniladi.

motlarni qayta ishlash masalalari uchun mo'ljallangan dasturlash tili. COBOL dasturlash tili fayllar bilan ishlash vositasi va ingliz tiliga yaqin bo'lgan yozish shakli bilan farq qiladi. Hozirgacha eng ko'p kod qatori yozilgan dasturlash tili bo'lib qolmoqda.

COM obyekt

ing. - COM object
rus. - COM-объект

Boshqa obyektlarga va ilovalarga standartlashtirilgan COM-interfeys orqali o'z servislarini taklif qiladigan Com modeli asosida ishlab chiqarilgan dasturiy komponent ba'zi toifasining obyektini.

COM porti

ing. - COM port
rus. - COM порт

O'tkazish imkoniyati 115200 kbit/s bo'lgan, 9 kontaktli ketma-ket port. Kichik tezlikka ega qurilmalarning – «sichqoncha» va tashqi modemi ulash yoki ikkita kompyuter o'rtasida ulanishni yuzaga keltirish uchun qo'llaniladi.

Common LISP dasturlash tili

ing. - Common List Processing
rus. - язык программирования Common LISP

1981-yilda kompaniyalar konsorsiumi tomonidan standartlashtirilgan LISP dasturlash tilining dialekti. Konsorsium bu ishni DARPA rahbarligida bajardi. Common Lisp – bu bort tizimlarida keng foydalaniladigan katta va murakkab til.

Cookie fayli

ing. - Cookie
rus. - файл Cookie

Veb-server tomonidan foydalanuvchini ro'yxatga olish vaqtida qaytariladigan foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan satr. Dastur serverlari har bir foydalanuvchini afzal deb bilish mumkin va shunga bog'liq holda mijoz saytga kirgan vaqtda har safar aniq takliflar taqdim etishi mumkin.

Copland operatsion tizimi

ing. - copland operating system
rus. - операционная система Copland
Apple Computer korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan MacOS operatsion tizimining 32 turkumli (razryadli) rusumi. Copland operatsion tizimi ko'p vazifali va ko'p oqimli hisoblanib, u Apple firmasining shaxsiy kompyuterlari uchun mo'ljallangan.

COPS spetsifikatsiyasi

ing. - common open policy service
rus. - спецификация COPS
IETF qo'mitasining spetsifikatsiyasi. Tarmoq ma'muriy boshqarish tizimlarida foydalaniladi.

Core IDRAW

ing. - CoreIDRAW
rus. - CoreIDRAW

Kanadaning Corel korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan vektorli grafik redaktor. Mahsulotning shu kundagi versiyasi – CoreIDRAW Graphics Suite X3, faqat Microsoft Windows uchun ishlatish mumkin. Avvalgi versiyalar Apple Macintosh hamda GNU/Linux uchun ishlab chiqarilgan.

Core 2

ing. - Core 2
rus. - Core 2

Intel korporatsiyasi x86-64 arxitekturasi protsessorlarining oltinchi avlodi, Core protsessori arxitekturasi asoslangan.

C_R signal

ing. - C_R signal
rus. - сигнал C_R

Rangli televideniyeining ayrim raqamli komponentli tizimlarida foydalaniladigan, mashtab koeffitsiyentiga ko'paytirilgan, qizil ayirmarang signalga mos keladigan bir qutbli signal.

CSL

ing. - control and simulation language (CSL)
rus. - CSL
Boshqarish va modellarlash tili.

CSMA/CD

ing. - carrier sense with multiple access/collision detection (CSMA/CD)
rus. - CSMA/CD
Tarmoqlardagi kolliziyalarni hal qilishning keng tarqalgan usuli.

CSTA kompyuter telefoniyasi

ilovalarining xizmatlari
ing. - computer supported telecommunications applications (CSTA) services
rus. - услуги приложений компьютерной телефонии CSTA
CSTA kompyuter telefoniyasi ilovalari xiz-

matlari ATS va kompyuter yoki kompyuter tarmog'ining chetki integratsiyasu uchun xizmat qiladi.

Izoh - CSTA protokolini amalga oshirish ECMA-179 (Services for Computer Supported Telecommunication Applications) va ECMA-180 (Protocol for Computer Supported Telecommunication Applications), qisman ECMA-217 va ECMA-218 (Phase II), shuningdek, ECMA-269 (Phase III) standartlariga asoslanadi.

CULV

ing. - consumer ultra-low voltage (CULV)

rus. - CULV

Intel kompaniyasi tomonidan ishlab chiqiladigan kompyuter platformasi. Energiya iste'moli va issiqlik ajratishi kam bo'lganligi tufayli, CULV portativ kompyuterlarda batareyaning xizmat qilish muddati uzoq bo'lgan juda nozik kompyuter tizimlarini yaratish imkonini beradi.

C va Ku diapazonlari

ing. - ranges C and Ku

rus. - диапазоны C и Ku

Yo'ldoshli televidion eshittirish uchun ajratilgan ikki chastotaviy diapazon. «Yo'ldosh - qabul qiluvchi antenna» aloqa liniyasi uchun C-diapazonda 3,5 GHz dan 4,2 GHz gacha, Ku-diapazonda esa 10,7 GHz dan 12,75 GHz gacha chastotalar polosasidan foydalaniladi. C-diapazonida uzatiladigan televidion signal modulyatorga berishdan oldin inveratlanadi.

D sohasi

ing. - D-region

rus. - область D

Yer sirtidan taxminan 50-90 km o'rtasida joylashgan ionosferaning qismi.

D1 formati

ing. - D1 format

rus. - формат D1

4:2:2 komponent signalning 8 bit/sanoq turkumidagi raqamli videoyozuv formati.

D1 raqamli videoyozuv formati

ing. - D1 digital video recording format

rus. - формат цифровой видеозаписи D1

Raqamli videoyozuvning birinchi formati. 4:2:2 formatiga asoslangan; yorqinlik Y va ayirmarang R-Y hamda B-Y signallarning komponentli alohida yozuvi amalga oshiriladi. 286.875 mm/s tezlik bilan siljiydigan 19.01 mm kenglikdagi magnit tasma ishlatiladi; magnit tasma uchta: kichik, o'rta va

katta o'lchamdagi kassetalarga joylangan. Kassetalar mos ravishda, uzluksiz 11, 34 va 76 minutli yozuvni ta'minlaydi. Video va tovush xatolardan Rid-Solomon kaskadli kodlari bilan himoyalangan.

D2 raqamli videoyozuv formati

ing. - D2 digital video recording format

rus. - формат цифровой видеозаписи D2

Raqamli videoyozuv formati. 19.01 mm kenglikdagi magnit tasma ishlatiladi. D-2 formatidagi raqamli videomagnitofonlar PAL yoki NTSC to'liq (kompozit) signalining yozuvini amalga oshiradi.

Demon

ing. - daemon

rus. - демон

Fon rejimida ishlaydigan, foydalanuvchi bilan oshkor tarzda o'zaro ishlamaydigan dastur. Ko'p hollarda *nix tizimlariga nisbatan qo'llaniladi. Microsoft ning operatsion tizimlarida - rezident dastur yoki xizmat (Service) ga mos keladi.

D-AMPS standarti

ing. - digital advanced mobile phone system (D-AMPS)

rus. - стандарт D-AMPS

TDMA texnologiyasiga asoslangan, ikkinchi avlod raqamli mobil aloqa tizimi standarti (1999-yildan boshlab yangi nomi - TDMA). Standart AMPS (IS-54) analog tizimi bilan mos tushadi, shuningdek, bu standartning oxirgi modifikatsiyasi IS-136 o'z imkoniyatlari bo'yicha GSM ga yaqin keladi.

Datakit tarmog'i

ing. - Datakit

rus. - сеть Datakit

X.25 protokollli tarmoqqa o'xshash kanallarni kommutatsiyalash tarmog'i.

DataTAC standarti

ing. - Total Access Communication (DataTAC)

rus. - стандарт DataTAC

Paketlar kommutatsiyasiga asoslangan, past tezlikli simsiz aloqa ochiq standarti. Ishchi chastotalar diapazoni 800 MHz atrofida.

dBASE

ing. - dBASE

rus. - dBASE

Relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish

tizimi. Aih-ton-Tate firmasi (AQSh) tomonidan ishlab chiqilgan. Tizim muntazam ravishda takomillashtirilib boriladi, dBASE II, dBASE III, dBASE III Plus versiyalari o'zini yaxshi ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda Borland firmasi tomonidan tizimni takomillashtirish davom ettirilmoqda, dBASE IV va dBASE V versiyalar chiqarildi. Foydalanuvchi bilan rivojlangan interfeysga ega, lekin Fox tizimlaridan ishlash tezligi bo'yicha orqada.

DCS-1800 standarti

ing. - digital cellular system

1800 (DCS-1800)

rus. - стандарт DCS-1800

1800 MHz chastotalar diapazonida ishlaydigan mobil aloqa raqamli tizimining standarti.

DDCD formati

ing. - Double Density CD (DDCD)

rus. - формат DDCD

Sony va Philips korporatsiyalari tomonidan taqdim etilgan kompakt-disklarga ikki marta zichlikda yozish formati. Yozish jarayonida shakllanadigan pitlar uzunligini va yo'laklar oralig'idagi masofani qisqartirish hisobiga disklarning hajmi 1,3 Gbyte gacha oshirilgan. DDCD formati mavjud formatlar bilan muvofiqlikni saqlaydi.

DDR2 SDRAM

ing. - DDR2 SDRAM

rus. - DDR2 SDRAM

Hisoblash texnikasida tezkor hamda video-xotira sifatida foydalaniladigan tezkor xotira turi.

Debian

ing. - Debian

rus. - Debian

1993-yilda Yan Myordok tomonidan yaratilgan Linux distributivi. Bir maromda ishlashi bilan ajralib turadi, .deb xususiy paketlar formatiga ega. 100 dan ortiq Linux distributivlariga asos bo'lgan.

DECnet protokoli

ing. - DECnet

rus. - протокол DECnet

DEC kompaniyasi tarmoq arxitekturasining DEC kompyuterlarini DDCCMP protokoli bo'yicha bog'lash imkonini beradigan savdo markasi.

DECT profili

ing. - RLL access profile of DECT (RAP)

rus. - профиль DECT

DECT standarti tizimlarida abonent radio-ki-rish profili.

Delphi dasturlash tili

ing. - Delphi

rus. - язык программирования Delphi

Turbo Pascal tilining obyektga yo'naltirilgan versiyasiga asoslangan, Borland International firmasining yuqori darajali protsedurali obyektga yo'naltirilgan tili. Windows va mijoz-server dasturlarini yaratish uchun xizmat qiladi.

DHCP serveri

ing. - DHCP server

rus. - DHCP сервер

Mijozlarning IP-manzillarini avtomatik tarzda boshqaruvchi va tarmoqda unga muvofiq sozlash ishlarini bajaruvchi server. DHCP xizmatini bajaruvchi kompyuter IP-manzillarni va ularga bog'liq ma'lumotlarni DHCP mijozlariga dinamik taqsimlanishini ta'minlaydi.

Direct X texnologiyasi

ing. - Direct X

rus. - технология Direct X

Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan standart dasturiy uzilishlar to'plami. Dasturchilarga tovush, video va grafika bilan birmuncha tezroq usulda ishlash imkonini beradi.

Direct3D spetsifikatsiyasi

ing. - Direct3D

rus. - спецификация Direct3D

Microsoft korporatsiyasining Windows platformasi uchun grafik API dagi spetsifikatsiyasi.

Display Port

ing. - Display Port

rus. - Display Port

Raqamli displeylar uchun mo'ljallangan signal interfeysining standarti. VESA (Video Electronics Standart Association) tomonidan 2006-yilning mayida qabul qilingan. 1.1 versiyasi 2007 yil 2 aprelda, 1.2 versiya esa, 2010-yil 7 yanvarda qabul qilingan. Display Port dan audio-videoapparatlarni, birinchi navbatda, kompyuterni displey bilan yoki kompyuter va uy kinoteatri tizimlarini ulash uchun eng zamonaviy interfeys sifatida foydalanish ko'zda tutiladi.

DjVu

ing. - DjVu

rus. - DjVu

Tasviri yo'qotishlar hisobiga siqish. Sxema va formulalari ko'pligi tufayli hujjat mazmunini aniqlash qiyin bo'lgan skanlanadigan hujjatlarni saqlash uchun ishlab chiqilgan. O'z o'rnida to'laqonli ishlatilishi uchun ikkita rang yetarli bo'lgan kitoblarni saqlash standarti bo'lib qoladi. Hozirgi vaqtda, bu format Lizard Tech kompaniyasiga tegishli bo'lishiga qaramay, ochiq format hisoblanadi.

DNK kompyuteri

ing. - DNA computer

rus. - ДНК-компьютер

DNK hisoblash imkoniyatlarini ishlatadigan hisoblash tizimi.

Dolby AC-3 tovush uzatish tizimi

ing. - sound transmission sistem

rus. - система передачи звука Dolby AC-3
Dolby Surround Digital 5+1 kanal formatida ko'p kanalli uzatishni ta'minlaydigan va 384 kbit/s tezlikni talab qiladigan tovush uzatishning muqobil tizimi.

Dolby-Dolby Digital (AC-3) formati

ing. - format Dolby-Dolby Digital (AC-3)

rus. - формат Dolby-Dolby Digital (AC-3)
Audioaxborotni siqish formati, DVD va kinofilmlarni yozishda qo'llaniladi. Monofonik audiosignalni 5.1-kanalli hajmli ovozga aylantirishda qo'llaniladi.

Dongle qurilmasi

ing. - dongle

rus. - устройство dongle

Ajratgich (raz'yom) o'rnatilgan har qanday ixcham periferik qurilma (3G tarmoqlarida ishlash uchun USB modemlarga nisbatan qo'llaniladi).

DOS Navigator

ing. - DOS Navigator

rus. - DOS Navigator

Moldovaning Ritlabs kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, OS/2 va DOS uchun mo'ljallangan konsolli fayl menejeri.

Double bootable system

ing. - double bootable system

rus. - double bootable system

Ikkita (yoki undan ko'p) operatsion tizim o'rnatilgan kompyuter, u ulaganda foyda-

lanuvchiga aynan qaysi operatsion tizimni ishga tushirish kerakligini aniqlash

DPT texnologiyasi

ing. - dynamic packet transport (DPT)

rus. - технология DPT

Ochiq xalqaro standart SRP (protokoli) dan foydalanishga asoslangan IP-paketlarni dinamik uzatishning yuqori tezlikli texnologiyasi.

«Drag-and-drop» texnologiyasi

ing. - technology «Drag-and-drop»

rus. - технология «Drag-and-drop»

Hujjatda obyektini ajratish va uni ayni shu hujjatda yoki boshqa bir hujjatga ko'chirish texnologiyasi. Windows tizimida va amalda Microsoft firmasining barcha ilovalarida qo'llaniladi. Hujjatlar bilan ishlashni osonlashtiradi.

DragonFlyBSD

ing. - DragonFlyBSD

rus. - DragonFlyBSD

FreeBSD operatsion tizimining x86 platformasiga va ko'p protsessorli tizimlarga mo'ljallangan turi. Yangi, lekin tez rivojlanayotgan, mukammal tizimlardan hisoblanadi. Ushbu tizim serverda ham, ishchi stansiyada ham ishlatilishi mumkin. Distributivi kichik hajmga ega. 2003-yilning iyul oyida dunyo yuzini ko'rdi. Muallifi Mett Dilan.

DrakConfig

ing. - DrakConfig

rus. - DrakConfig

Mandriva operatsion tizimini sozlashda qo'llaniladigan grafik vosita. Tayyorlanmagan foydalanuvchiga tushunarli bo'lgan Linux operatsion tizimini o'rnatish va sozlash uchun birinchi vosita hisoblanadi.

DSA algoritmi

ing. - digital signature

rus. - алгоритм DSA

algorithm (DSA)

Ochiq kalitli shifrlash federal standarti. Kalit uzunligi 512 bit dan 1024 bit gacha. 1991-yilda NIST tomonidan ishlab chiqilgan va DSS standartida ishlatiladi.

DS-CDMA usuli

ing. - Direct Sequence CDMA (DS-CDMA)

rus. - метод DS-CDMA

CDMA tizimlarida signallarni keng polo-

sali uzatish usuli bo'lib, ma'lumotlarning kodlangan oqimini ikki bosqichli modulyatsiyalashga asoslangan.

Izoh - Modulyatsiyalashning birinchi bosqichida eltuvchi ma'lumotlarning kodlangan oqimi bilan, odatda, BPSK yoki QPSK usullarini qo'llagan holda, modulyatsiyalanadi. Ikkinchi bosqichda esa to'g'ri ketma-ketlik spektrini kengaytirish bilan modulyatsiyalash amalga oshiriladi.

DSS standarti

ing. - digital signature standard

rus. - стандарт DSS

NIST va NSA tomonidan Capstone loyihasining bir qismi sifatida elektron raqamli imzo uchun ishlab chiqilgan AQSh federal standarti.

DTDS turidagi disk massivi

ing. - disaster tolerant disk system (DTDS)

rus. - дисковый массив типа DTDS

Tizimlaridan biri butunlay ishdan chiqqanida ham foydalana olishni ta'minlash uchun bir nechta qismga ajratiladigan DTDS. Uning himoyasi tok manbaidagi uzilishlar, sovutish tizimining buzilishi, tok manbai va shina kabellarining uzilishi holatlarining oldini oladi.

Duron

ing. - Duron

rus. - Duron

AMD kompaniyasining tejamkor protsesorlari oilasi. 2000-yilning iyun oyida Intel Celeron raqobatchisi sifatida e'lon qilingan. 462 kontaktli Socket A razyomli tizim platalariga o'rnatish uchun mo'ljallangan.

DVB-H texnologiyasi

ing. - digital video broadcasting – handheld (DVB-H)

rus. - технология DVB-H

Mobil qurilmalar uchun maxsus ishlab chiqilgan, raqamli videosignalni qabul qilish imkonini beradigan texnologiya. Uning yordamida cho'ntak qurilmasi ekranida televidion eshittirishlarni ko'rish mumkin bo'ldi.

DVB-T tizimi

ing. - DVB-T system

rus. - система DVB-T

Televidion dasturlarni radiokanallar orqali yer usti uzatish markazlaridan foydalanagan holda iste'molchiga yetkazish uchun mo'ljallangan hamda videosignallarni,

tovush signallarini va qo'shimcha ma'lumotlarni kodlashni, shuningdek, paketlarni shakllantirish va transport oqimiga multipleksorlashni MPEG-2 standarti talablariga muvofiq amalga oshirishni ko'zda tutadigan raqamli televidion eshittirish tizimi.

Izoh - Ushbu tizimda radiosignalning kodlangan ortogonal eltuvchilarini umumlashtirishdan foydalaniladi.

DVD-Video formati

ing. - DVD-Video format

rus. - формат DVD-Video

DVD-disklarda saqlash uchun mo'ljallangan yuqori sifatli video formati. MPEG-2 kodlash ishlatiladi.

DVI

ing. - digital video interactive

rus. - DVI

1. Digital Video Interactive – Optik diska yoziladigan to'laekranli videotasvirlarni apparat usulida yuqori darajada siqishni ta'minlaydigan Intel standarti. DVI – shaxsiy kompyuterlardagi videotasvirlar uchun 1980-yillar o'rtasida ishlab chiqilgan birinchi standartdir.

2. Digital Visual Interface – Suyuq kristalli monitorlar va proyektorlar kabi raqamli aks ettirish qurilmalariga videotasvimi uzatishga mo'ljallangan interfeys va tegishli tushatirgich uchun standart, Digital Display Working Group konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan.

E sohasi

ing. - E-region

rus. - область E

Yer sirtidan taxminan 90-150 km o'rtasida joylashgan ionosferaning qismi.

E1

ing. - E-1

rus. - E-1

Uzatish tezligi 2,048 Mbit/s bo'lgan, kanallar vaqt bo'yicha multipleksorlangan tizimlar iyerarxiyasining birinchi darajasiga mos keluvchi raqamli interfeys. 64 kbit/s tezlik bilan 30 ta axborot kanali va ikkita xizmatga oid kanal uzatilishini ta'minlaydi (bunday tizim yana IKM-30 sifatida ham ma'lum).

Ebtibles

ing. - ebtibles

rus. - ebtibles

Linux dasturiy ko'priklar uchun belgilangan

paketlarni filtrlash vositasi. Ebtabs Iptables ga o'xshaydi, lekin uchinchi (tarmoq) sathida emas, balki tarmoq stekining ikkinchi (kanal) sathida ishlashi bilan farq qiladi.

Echo

ing. - Echo

rus. - Echo

UNIX operatsion tizimida matn qatorini ko'rsatish uchun mo'ljallangan komanda. Vaqt o'tishi bilan ko'pgina zamonaviy operatsion tizimlarda qo'llanila boshladi.

EDGE loyihasi

ing. - enhanced data rates for global evolution (EDGE)

rus. - проект EDGE

Aloqa tizimlarining global evolyutsiyasi uchun ma'lumotlar uzatishning yaxshilangan tizimi - GSM tizimlarini yaxshilash uchun mo'ljallangan standart loyihasi.

Izoh - UWC-136ning o'zi - Uzatish tezligini 384 Kbit/s gacha oshirish imkonini beradi. EDGE GSM radiokanali vaqt bo'lgan tuzilmasining ichida qo'llaniladigan yangi modulyatsiya sxemalarining to'plamini o'zida ifodalaydi. Faqat GSM da emas, shuningdek TDMA (IS-136) va AQSh da iDEN da ham joriy qilindi. 1-faza EDGE 1999 yil oxirida standartlashtirilgan. GPRS funksiyalaridan foydalanadi, ma'lumotlar uzatish tezligi 384 Kbit/s gacha. 2-faza EDGE real vaqt rejimida sifatli video va tovush uzatilishini ta'minlaydi.

EDGE texnologiyasi

ing. - enhanced data rates for GSM evolution (EDGE).

rus. - технология EDGE

GSM standartidagi mobil aloqa tarmoqlari uchun ma'lumotlar uzatish tezligini oshirish texnologiyasi. EDGE mavjud GSM radiokirish sxemasi ustidan quriladi va GPRS dagiga qaraganda, uzatish qobiliyati uch marta katta bo'lishini ta'minlaydi va uzatish tezligini 384 Kbit/s gacha oshirish imkonini beradi. Bu o'zida, qo'shimcha tarmoq elementlari kiritilmasdan dasturiy ta'minot yangilanishini ifodalaydi. EDGE ning qo'llanilishi, ma'lumotlarni yuqori tezlikda uzatishga asoslanadigan Internetdan foydalanish, videotelefoniyani, raqamli mobil televideniye kabi yangi xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

EFR texnologiyasi

ing. - Enhanced Full Rate (EFR) technology

rus. - технология EFR

To'liq chastotalar polosasi bo'ylab yaxshilangan kodlash texnologiyasi. Sifatli yer

usti liniyalariga yaqin. Mobil telefon akkumulyatorining sarfi, FR dagiga qaraganda 50 foizga ko'p. Bu rejim, mobil aloqa operatori tomonidan ta'minlanishi kerak.

EGSM standarti

ing. - extended GSM (EGSM)

rus. - стандарт EGSM

GSM tizimida foydalaniladigan GSM kengaytirilgan standarti. EGSM chastotalar diapazoni GSM 900 MHz standart diapazoniga nisbatan pastga 10 MHz ga kengaytirilgan. Shunday qilib, ushbu mobil aloqa protokoli (880-915) MHz va (925-960) MHz kengaytirilgan chastotalar diapazonida ishlaydi. Bu funksiyani ham telefon, ham mobil tarmoq tomonidan qo'llanilishi kerak.

EISA shinasi

ing. - extended industry standard architecture (EISA)

rus. - шина EISA

Shaxsiy kompyuterlarning 16 razryadli shina arxitekturasini kengaytiradigan 32 razryadli tizim shinasi. Bir nechta protsessor ishini ta'minlaydi.

EJB spetsifikatsiyasi

ing. - Enterprise Java Beans (EJB)

rus. - спецификация EJB

Server qismida ma'lumotlar bazalaridan va tranzaksiyalarni qayta ishlash tizimlaridan foydalanishni standartlashtiradi. Bu korporativ ilovalar uchun muhim, chunki ularning boshqa platformalarga ko'chirishini ta'minlaydi.

ELF

ing. - Executable and Linkage Format (ELF)

rus. - ELF

UNIX va Linux dagi bajariladigan kod faylining, faylni seksiyalarning majmui ko'rinishida taqdim etishga asoslangan mashhur formati.

EMC kodi

ing. - equipment manufacturer code (EMC)

rus. - код EMC

Uskunani ishlab chiqaruvchining kodi.

End klavishi

ing. - End key

rus. - клавиша End

Kursorni matn satri oxiriga, ekran chetiga yoki fayl oxiriga surish uchun ishlatiladigan klavish.

Energy star

ing. - Energy star

rus. - Energy star

Kompyuter iste'mol qiladigan energiya miqdorini kamaytirish hisobiga atrof muhitni muhofaza qilish dasturi. Energy star belgisi bo'lgan kompyuterlar kutish rejimida 60 W dan kam, monitor va tizim bloki 30 W dan kam energiya iste'mol qilishi kerak.

Enter klavishi

ing. - Enter key

rus. - клавиша Enter

Kiritish klavishi, uning bosilishi kompyuterga kiritish satri tugaganligi (abzats oxiri) to'g'risida, jadval katagiga formula yoki elementni qo'yish, yozishni tugallash va uni ma'lumotlar bazasiga kiritish komandalari bajarilishi to'g'risida xabar beradi.

EPIC texnologiyasi

ing. - EPIC explicitly parallel

instruction computing

rus. - технология EPIC

Intel va Hewlett-Packard korporatsiyalari tomonidan ishlab chiqilgan 64 razryadli Merced protsessori komandalari to'plamining IA-64 arxitekturasida qo'llaniladigan texnologiya. Bu texnologiyada kompilyator protsessorga qaysi komandalar parallel, qaysilari esa boshqa komandalarga bog'liq tarzda bajarilishini oshkor qiladi.

EPP

ing. - Extended Parallel Port (EPP)

rus. - EPP

LPT portining ikki tomonga yo'naltirilgan ish tartibi, bunda u nafaqat axborotni chiqarish uchun, balki kiritish uchun ham ishlashi mumkin.

E-praktikum

ing. - E-practicum

rus. - E-практикум

O'quvchilarni o'rgatish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot. «Korvet», «UKNS», «Yamaha» turidagi kompyuterlarda maktab informatika kursini qo'llab-quvvatlaydi. Tarkibida Pascal tiliga juda o'xshash bo'lgan ruscha leksikali til interpretatori bor; algoritmlar tushunchasini kiritish imkonini beradigan «chizmachi», «vezdexod» va boshqa bajaruvchilar to'plami mavjud. Akademi P.Yershov sharafiga nomlangan.

ER modeli

ing. - Entity Relationship

rus. - ER модель

Real tizimlarda ma'lumotlar oqimlarini tavsiflash modeli. Bu modelda ma'lumotlar ma'nosi va ular o'rtasidagi bog'lanish nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

ESSID identifikatsiya nomi

ing. - extended service set ID (ESSID)

rus. - идентификационное имя ESSID

802.11 tarmoqni identifikatsiyalovchi nom.

Izoh - Simsiz lokal tarmoqqa qo'shilish uchun, uning ESSID ni bilish zarur.

Ethernet

ing. - Ethernet

rus. - Ethernet

Kompyuter tarmoqlarining paketli texnologiyasi. Tarmoq uzellari koaksial yoki optik tolali kabel yoki o'ralgan juft orqali bog'langan. Axborot boshqaruvchi va manzilli, shuningdek, 1500 byte gacha ma'lumotni o'zida saqlovchi o'zgaruvchan uzunlikdagi kadrlar orqali uzatiladi. Ethernet standarti ma'lumotlar yuqori chastotali modulyatsiyalarsiz, sekundiga 10 Mbit/s tezlik bilan uzatilishini ta'minlaydi.

Ethernet tarmog'i

ing. - Ethernet

rus. - сеть Ethernet

Kompyuter tarmoqlari uchun belgilangan qurilmalar o'rtasida ma'lumotlarni paketli uzatish texnologiyalari turkumiga tegishli bo'lgan keng eshittirish kompyuter tarmog'i. Izoh - Ethernet standartlari fizik sathda (yoki darajada) simli ulanishlarni va elektron signallarni belgilaydi.

Ethernet texnologiyasi

ing. - Ethernet technology

rus. - технология Ethernet

Signallarni 10 Mbit/s gacha tezlikda uzatishni ta'minlaydigan va kanallar holatini so'rash hamda nizolarni aniqlash bilan ko'plab foydalanish usulidan tarmoq resurslaridan uzellarning foydalana olish usuli sifatida foydalaniladigan lokal kompyuter tarmog'ining texnologiyasi.

E-ulanish

ing. - c-inclusion

rus. - E-включение

Jamiyatdagi har bir kishi axborot jamiyatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan vaziyat. Buning uchun texnologiyalardan foydala-

nish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va xizmatlaridan foydalanishning qulayligi, shuningdek, odamlarning bu vositalardan foydalana olish ko'nikmasi talab etiladi.

EV-DO texnologiyasi

ing. - Evolution-Data Optimized

rus. - технология EV-DO

CDMA standarti tarmoqlarida ma'lumotlar uzatilishini ta'minlaydigan texnologiya. Rev.A ustqurma ma'lumotlar qabul qilish tezligini 3,1 Mbit/s gacha, uzatish tezligini esa, 1,8 Mbit/s gacha oshiradi. Bu, oqimli videoni ko'rib chiqish, videokonferensiyalar uyushtirish va yuqori tezlikli foydalanish talab qilinadigan boshqa xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi.

Excel

ing. - Excel

rus. - Excel

Hisoblashlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan dasturiy kompleks, kuchli elektron jadvallarni o'zida ifodalaydi. Do'stona interfeysga ega, Windows muhitida va Macintosh kompyuterlarida ishlaydi. Professional bo'lmagan foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladi. Excel Microsoft Office tizimi tarkibiga kiradi.

Express Card

ing. - Express Card

rus. - Express Card

Kompyuterga periferik quрилmalarni ulash imkonini beradigan interfeys.

eyeOS

ing. - eyeOS

rus. - eyeOS

Desktop Operating System («Ishchi stol» yechimi) qo'llanilgan operatsion tizim) prinsipiga asoslangan, ochiq kodli krossplatformali tarmoq operatsion tizimi. Bazaviy komplekt operatsion tizim va bir qancha ofis ilovalarini: matn redaktori, kalendar, fayllar menejeri, messenjer, brauzer, kalkulyator va boshqalarni o'z ichiga oladi.

F sohasi

ing. - F-region

rus. - область F

Yer sirtidan taxminan 150 km balandlikda joylashgan ionosferaning qismi.

Fast Ethernet

ing. - Fast Ethernet

rus. - Fast Ethernet

Ethernet tarmog'idagi 100 Mbit/s ma'lumotlar uzatish tezligiga ega spetsifikatsiyalar qatoridan biri. Fast Ethernet spetsifikatsiyasi 10 BaseT Ethernet spetsifikatsiyasiga qaraganda, ma'lumotlar uzatilishini o'n marta yuqori tezlik bilan ta'minlaydi, shu bilan birga kadr formati, muhitga kira olishni boshqarish mexanizmlari va uzatish blokining maksimal o'lchami kabi sifatlarni saqlab qoladi. Bunday o'xshashlik Fast Ethernet tarmoqlarida 10 BaseT tarmoqlari uchun tegishli ilovalar va boshqaruvning instrumental vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

FAT16

ing. - FAT16

rus. - FAT16

FAT tizimidan kelib chiquvchi fayllar tizimi. Abbreviaturadagi son jadval elementlarining bitlardagi o'lchamini ko'rsatadi. Taqsimlanadigan xotira birligi klasterdir. FAT da klaster raqami va uning holati to'g'risida ma'lumot yozib qo'yiladi (masalan, buzilgan klaster, bo'sh klaster). FAT16 dagi disk qismining o'lchami 2 Gbyte dan katta bo'lmaydi. Ko'pincha bu jadval nomidan kelib chiqib, uning asosi bo'lgan fayl tizimi FAT deb ataladi.

FDD texnologiyasi

ing. - frequency division duplex (FDD)

rus. - технология FDD

Eshitirish chastotalarini ajratish bilan, ikki tomonlama aloqani ta'minlash imkonini beradigan texnologiya, aloqa kanallarining o'tkazish qobiliyatini oshiradi. Bu texnologiya abonentlarning ko'chish tezligi va uyalarning o'lchami katta bo'lganda ancha samaralidir.

FDisk (dastur)

ing. - Fdisk

rus. - Fdisk (программа)

Diskni formatlash. Disk maydonini formatlashga tayyorlash uchun mo'ljallangan dasturiy vosita.

FDMA standarti

ing. - frequency division

multiple access (FDMA)

rus. - стандарт FDMA

Kanallar chastota jihatdan qat'iy ajratil-

gan aloqa tarmoqlarining standarti. AMPS, N-AMPS, NMT, ETACS da qo'llaniladi.

Fedora

ing. - Fedora

rus. - Fedora

Red Hat kompaniyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan Linux distributivi. Birinchi versiyasi 2003-yilning noyabr oyida yaratilgan. Red Hat Enterprise Linux ga kiritiladigan o'zgartirishlar oldin Fedora da testdan o'tkaziladi. Fedora 8 (werewolf) – so'nggi versiyasi 2007-yilning noyabr oyida chiqqan.

FHMA standarti

ing. - frequency-hopping

multiple access (FHMA)

rus. - стандарт FHMA

Eltuvchi chastota uzatish jarayonida psevdotasodifiy qonun bo'yicha berilgan chastotalar polosasida sakrashsimon o'zgaradigan foydalana olish usulidan foydalaniladigan aloqa tarmoqlarining standarti.

Fidolook

ing. - Fidolook

rus. - Fidolook

Microsoft Internet Explorer paketi tarkibiga kiruvchi mashhur Internet meyler-nyusri-der Outlook Express dasturiga o'rnatilgan qo'shimcha sifatidagi elektron pochta mijosi.

FIDONET

ing. - FIDONET

rus. - FIDONET

Global notijorat kompyuter tarmog'i. Telefon aloqa kanallari orqali ishlaydi. Tarmoqqa ulanish va unda ishlash bepul amalga oshiriladi (faqat telefon tarmog'i xizmatlarining haqi to'lanadi). Tarmoqdan pochta xabarlarini yuborish, telekonferensiyalar va e'lonlar taxtasi uchun foydalaniladi. Yoshlar orasida mashhur.

Fire Wire

ing. - Fire Wire

rus. - Fire Wire

Yuqori tezlikli periferik qurilmalar uchun mo'ljallangan shina. 63 tagacha qurilma, shu jumladan, raqamli videoni ulash imkoniyatini beradi. Apple firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Firefox

ing. - Firefox

rus. - Firefox

Mashhurliigi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi Internet-brauzer. 2004-yilda Mozilla kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Ochiq kodli brauzerlar orasida birinchi bo'lib shunday mashhurlikka erishdi. Firefox versiyasi qariyb barcha operatsion tizimlarga to'g'ri keladi, funktsionalligi esa plaginlarni ko'pligi bilan kengaytirilmoqda.

Flash texnologiyasi

ing. - Flash technology

rus. - технология Flash

Vektorli grafika va animatsiya bilan ishlash texnologiyasidan biri.

Fork

ing. - fork

rus. - fork

Dasturiy ta'minot (odatda, erkin va ochiq) rivojlanishining ikki yoki undan ortiq shohga ajralish jarayoni. Bunda har bir shoh bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda turli mualliflar tomonidan, birida bo'lmagan imkoniyatlarni ikkinchisida amalga oshirgan holda rivojlantiriladi.

Fort

ing. - Fort

rus. - Fort

Personal tizimlar bilan samarali ishlash uchun mo'ljallangan dasturlash tili. Prot-seduraga yo'naltirilgan tillarga kiradi, as-ssembler tiliga yaqin. XX asminga 70-yillari boshida AQShda Ch.Mur tomonidan ishlab chiqilgan.

FORTH dasturlash tili

ing. - FORTH language

rus. - язык программирования FORTH

Juda ixcham, oson kengayadigan, umumiy maqsadlardagi yuqori daraja tili. Taxminan 1970-yilda Arizona (AQSh) dagi Milliy radioastronomik observatoriya xodimi Charlz Mur tomonidan yaratilgan. Forth tilidagi dasturlar polyak invers yozuvda yoziladi va stek bilan ishlaydi. Boshqaruvchi tizim-larda, robototexnikada, ma'lumotlar to'p-lash va o'yinlarni dasturlash tizimlarida keng qo'llaniladi.

Fortran dasturlash tili

ing. - Fortran language

rus. - язык программирования Fortran

1956-yilda ishlab chiqilgan, matematik, ilm-

iy va muhandislik masalalarini yechishga mo'ljallangan dasturlash tili. Fortran hozirga qadar ishlatilmoqda, Fortran 2003 standartining oxirgi versiyasi hisoblanadi.

FR texnologiyasi

ing. - full rate (FR) technology

rus. - технология FR

Mobil telefon aloqa kanalida ma'lumotlar uzatishning to'la tezligidan foydalaniladigan nutqni kodlash texnologiyasi.

Frame Bursting texnologiyasi

ing. - Frame Bursting (FB)

rus. - технология Frame Bursting

Kadrlar (freymrlar) guruhli uzatilishini ta'minlaydigan texnologiya.

Frame Relay tarmog'iga

kira olish qurilmasi

ing. - frame relay access device (FRAD)

rus. - устройство доступа в

сети Frame Relay

Frame Relay tarmog'idagi har qanday qurilma. Bu marshrutizator yoki multiplexsor bo'lishi mumkin.

Frame Relay texnologiyasi

ing. - Frame Relay

rus. - технология Frame Relay

Marshrutizatorlar turidagi intellektual oxirgi (terminal) qurilmalar yoki Frame Relay tarmog'ida 56 kbit/s dan 1,544 Mbit/s gacha va undan yuqori tezlik bilan ishlaydigan boshqa qurilmalar o'rtasida ma'lumotlar uzatish uchun paketlarni kommutatsiya qilish uchun asoslangan yuqori tezlikli texnologiya.

FRDS turidagi disk massivi

ing. - failure resistant data systems (FRDS)

rus. - дисковый массив типа FRDS

Tizimning biror diski yoki biror boshqa komponenti ishdan chiqqanda undagi ma'lumotlarni himoyalash uchun mo'ljallangan qurilma. FRDS+ qo'shimcha tarzda disklarini avtomatik «qaynoq» (tizim faoliyatini to'xtatmasdan) almashtirish hamda kesh va ta'minot blokidagi nosozliklarda ma'lumotlarni muhofaza qilish imkoniga ega.

Free Radius

ing. - Free Radius

rus. - Free Radius

Ochiq boshlang'ich kodli Radius serveri. Bu boshqa tijorat Radius serverlarining muqo-

bidir, chunki u bugungi kunda modulli va funksionaldir. Bundan tashqari, yoyish va foydalanuvchilarning soni nuqtai nazaridan qaralganda, dunyo Radius serverlari beshligiga kiradi. Free Radius tez, moslashuvchan, sozlanadigan, shuningdek, ko'plab tijorat serverlariga nisbatan ko'proq autentifikatsiyalash protokollarini qo'llaydi. Hozirgi paytda tijorat Radius serverlarini ishlash chiqish uchun asos sifatida foydalaniladi.

FreeBSD operatsion tizimi

ing. - FreeBSD operating system

rus. - операционная система FreeBSD

BSD UNIX operatsion tizimining erkin tarqatiladigan (notijorat) realizatsiyasi. NetBSD, OpenBSD lar singari FreeBSD ham Bill Jolits tomonidan amalga oshirilgan 386BSD loyihasidan kelib chiqqan.

Front-end

ing. - front-end

rus. - front-end

Tizimning interfeysi va foydalanuvchi bilan birgalikda ishlashi uchun javob beradigan qismi.

FTP server

ing. - FTP server

rus. - FTP server

FTP protokoli bo'yicha erkin foydalanilishi mumkin fayllar joylashtiriladigan server.

FTPga anonim kirish

ing. - anonymous FTP authentication

rus. - анонимный вход на FTP

FTP-serverga kirish variantlaridan biri. Foydalanuvchi tizimda Anonymous logini bilan ro'yxatga olinadi, maxfiy so'z sifatida uning elektron pochta manzili ko'rsatiladi. Anonim foydalanuvchilar odatda, faqatgina ma'lumotlarni o'qish huquqiga ega bo'ladi-lar.

FWT terminali

ing. - fixed wireless terminal (FWT)

rus. - терминал FWT

Qayd qilingan simsiz aloqa terminali.

Gbyte (gigabayt)

ing. - Gigabyte (Gb)

rus. - Gbyte (гигабайт)

Axborot hajmining birligi. 1073741824 byte (2^{30}) yoki 1024 Mbyte yoki 1048576 kbyte ga teng.

GeForce**ing.** - GeForce**rus.** - GeForce

Iste'mol bozoriga yo'naltirilgan, NVIDIA kompaniyasi asosiy platalarining grafik protsessorlari va chipsetlari turkumining brendi. GeForce grafik protsessorlaridan asosan, shaxsiy va ko'tarib yuriladigan kompyuterlar uchun mo'ljallangan videoadapterlarda foydalaniladi.

Gerber formati**ing.** - Gerber**rus.** - формат Gerber

Sxema platalarini avtomatlashtirilgan loyihalashda va testlashda ma'lumotlarni taqdim etish uchun xizmat qiladigan format.

Gigabit Ethernet standarti**ing.** - Gigabit Ethernet**rus.** - стандарт Gigabit Ethernet

Ma'lumotlarning 1 Gbit/s gacha tezlik bilan uzatilishini ta'minlaydigan texnologiya. Uzatish muhiti sifatida kabellarning uch turidan – bir modali va ko'p modali optik-tolali kabellardan, shuningdek, ekranlanmagan o'ralgan juftdan foydalanishga yo'l qo'yiladi. So'nggi variant uchun IEEE 802.3 ab guruhi tomonidan alohida standart loyihasi ishlab chiqilgan.

Globally Unique Identifier**ing.** - Globally Unique Identifier**rus.** - Globally Unique Identifier

128-bitli statistik noyob disk yoki bo'lim identifikatori. Uning asosiy xususiyati – identifikatorlarning mos tushishi tufayli sodir bo'lgan ziddiyatlardan qo'rqmasdan kengayadigan servislar va ilovalarni yaratish imkonini beradi.

GMPCS tizimi**ing.** - global mobile personal

communications by satellite (GMPCS)

rus. - система GMPCS

Global shaxsiy yo'ldoshli aloqa mobil tizimi, yo'ldoshli aloqa uchun qo'llaniladigan mobil kommunikatsiyalar standart protokoli.

GNU operatsion tizimi**ing.** - GNU's Not Unix (GNU)**rus.** - операционная система GNU

Unix bilan o'zaro muvofiq ishlovchi operatsion tizim yaratish uchun GNU loyihasi. Loyiha 1983-yilda Richard Stolman tomoni-

dan UNIX o'rini bosa oladigan erkin tarqatish maqsadida MTI da ishlab chiqilgan. Loyiha doirasida kompilyatorlar va boshqa dasturiy ta'minotlar ishlab chiqiladi.

Google**ing.** - Google**rus.** - Google

Shu nomdagi qidiruv tizimiga egalik qiluvchi Amerika korporatsiyasi. 1998-yilda Larry Peyj va Sergey Brinlar tomonidan asos solingan. Kompaniya boshqa faoliyat (xabarlar qutisini taqdim etish, dasturiy ta'minot ishlab chiqish) bilan shug'ullanishiga qaramasdan, asosiy daromad va mashhurlik aynan qidiruv tizimiga tegishlidir.

Google Android**ing.** - Google Android**rus.** - Google Android

Operatsion tizim (Linux yadrosi bazasidagi), oraliq dasturiy ta'minot (middleware) va servis dasturlarni o'z ichiga oladigan mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan ilovalar steki.

GPRS kirish nuqtasi**ing.** - GPRS access point**rus.** - точка доступа GPRS

GPRS tarmog'i va tashqi ma'lumotlar tarmog'i, masalan, Internet tarmog'i o'rtasidagi interfeys. Mobil telefon GPRS modemi sifatida ishlashi, shuningdek, GPRS orqali WAP resurslaridan foydalanish uchun, kirish nuqtasi aniq belgilanishi zarur.

GPRS xizmati**ing.** - general packed radio services (GPRS)**rus.** - служба GPRS

Radiointerfeys orqali ma'lumotlarni paketli uzatish xizmati. GPRS axborot va ko'ngilochar xizmatlaridan foydalanish uchun, ma'lumotlar uzatish tarmog'iga doimiy ulanishni ta'minlaydi. Bog'lanish bir zunda o'rnatilishi, ma'lumotlar uzatish tezligi yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

GPS tizimi**ing.** - global positioning system (GPS)**rus.** - система GPS

Global pozitsiyalash tizimi – bu, navigatsion yo'ldoshlardan foydalaniladigan, joylashgan yerni aniqlash radiotizimidir. Bunday tizimlar tegishli uskunaga ega bo'lgan va yer sirtidagi yoki uning yaqinidagi foyda-

lanuvchilar uchun, uch o'lchamli holat, tezlik hamda vaqt to'g'risida kunu tun axborotni ta'minlaydi.

GPSS modellash tili

ing. - general purpose

simulation system language (GPSS)

rus. - язык моделирования GPSS

Turli tizimlarni, asosan ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlarini imitatsion modellash uchun foydalaniladigan dasturlash tili.

GSM 1900 standarti

ing. - GSM 1900

rus. - стандарт GSM 1900

1900 MHz chastotadagi GSM raqamli standarti, shuningdek, PCS sifatida ham ma'lum. AQSh, Kanada, Lotin Amerikasi va Afrikaning ayrim mamlakatlarida foydalaniladi.

GSM interfeyslari

ing. - GSM interface

rus. - интерфейс GSM

GSM tarmog'ida interfeyslarning ikki turi farqlanadi: tarmoqlararo va tarmoq ichi. Tashqi tarmoqlar bilan ulanish SS7 signalizatsiya tizimiga muvofiq amalga oshiriladi.

GSM mobil aloqasi

ing. - GSM mobile communications

rus. - мобильная связь GSM

Yevropada va dunyoning boshqa qismlarida keng foydalaniladigan raqamli mobil telefon tizimi. GSM ma'lumotlarni raqamlashtiradi, siqadi, keyin uni foydalanuvchilar ma'lumotlarining boshqa bir ikkita oqimi bilan, har biri o'zining vaqt intervalida, kanal orqali jo'natadi. GSM 900 MHz yoki 1800 MNz chastota polosasida ishlaydi.

GSM plus texnologiyasi

ing. - GSM-Plus

rus. - технология GSM плюс

Mobil aloqa texnologiyasining GSM standarti asosidagi takomillashtirilgan versiyasi bo'lib, uchinchi avlod tizimlarining asosiy talablarini qanoatlantiradi.

GSM tarmoqlari uchun

mo'ljallangan texnologiya

ing. - high speed circuit switched data

rus. - технология для сетей GSM

Ma'lumot uzatish tezligini 14,4 kbit/s gacha oshirishni, to'rtta kanalni bitta vaqt slotida multipleksorlashda esa 57,6 kbit/s gacha

o'shishni (Nokia firmasi) ta'minlaydigan texnologiya.

GSM mobil aloqa standarti

ing. - global system for mobile

communications (GSM)

rus. - стандарт сотовой связи GSM

Ikkinchi avlod (2G) mobil qujumlari uchun mo'ljallangan Yevropa standarti. GSM da 900 MHz va 1,8 GHz (Yevropada), 1,9 GHz (AQSh da) chastota diapazonlaridan foydalaniladi. GSM Yevropa va Osiyoda qabul qilingan umumiy simsiz standartlar va TDMA texnologiyasidan foydalanishni birlashtiradi. GSM SMS xabarlar uzatilishini va 9,6 Kbit/s tezlik bilan ma'lumotlar paketli uzatilishini amalga oshiradigan tarmoqlar bilan ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi. Bu standartda telefon raqami va abonent to'g'risidagi boshqa barcha ma'lumot, shartnoma tuzish vaqtida abonentga beriladigan va zarur diapazondagi GSM apparatga qo'yilishi mumkin bo'lgan SIM kartaga yoziladi.

GSM shlyuzi

ing. - GSM gateway

rus. - шлюз GSM

Statsionar liniyani o'rnatish imkoniyati yo'q yoki iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan, telefon aloqasi bo'lmagan obyektlarni telefonlashtirish imkonini beradigan shlyuz.

GSM/EDGE radiokirish tarmog'i

ing. - GSM/EDGE radio

access network (GERAN)

rus. - сеть радиодоступа GSM/EDGE

GSM/EDGE tizimining radio qismi, o'z ichiga tayanch stansiyalarni va tayanch stansiyalarning kontrollerlarini bog'lovchi tarmoqni oladi. Umum-foydalaniladigan telefon aloqa, Internet va abonentlar terminallari o'rtasida chaqiruvlar va paketli ma'lumotlar o'tadigan GSM tarmog'i uchun mo'ljallangan tayanch tarmoqni o'zida ifodalaydi. UMTS/EDGE tarmoqlar bilan bo'lgan holda, tarmoq bir qancha UTRAN bilan ulangan bitta yoki bir nechta GERAN dan iborat bo'ladi.

GSM-1800 standarti

ing. - GSM-1800

rus. - стандарт GSM-1800

GSM standartining (1710-1785) MHz va (1805-1880) MHz (avvalgi DCS 1800)

chastotalar diapazonida ishlaydigan tarmoqlar uchun mo'ljallangan versiyasi. GSM-1800 tarmog'ida ishchi chastotalar polosasining kengligi 75 MHz (GSM-900 ga nisbatan uch marta ortiq). Radioto'lqinlarning 1800 MHz chastotada tarqalishida 900 MHz chastotaga nisbatan qo'shimcha yo'qotishlar (6-10) dB sodir bo'ladi va ular bitta tayanch stansiya xizmat ko'rsatadigan hududning kichrayishiga olib keladi. Mobil telefonlarning maksimal nurlanish quvvati 1 W bo'lib, u GSM dagiga nisbatan 2 marta kamdir. Bu tizimda yashirin eshitish va raqamdan beruxsat foydalanishdan ancha yuqori himoyalaniish ta'minlangan.

GSM-400 standarti

ing. - GSM-400

rus. - стандарт GSM-400

GSM standartining modifikatsiyasi (NMT-450 analog tizimini modernizatsiyalash variantlaridan biri). GSM-400 tizimi 2x7,2 MHz polosalar kengligiga ega NMT-450 kengaytirilgan chastotalar diapazonida (450,4-457,6) MHz – liniya «pastga» va (460,4-467,6) MHz – liniya «yuqoriga») ishlash uchun mo'ljallangan. Ushbu diapazonda aloqa uzoqligi GSM-900 ga nisbatan ikki marta katta, bitta geografik mintaqadagi tayanch stansiyalarning maksimal miqdori 5,5:2,2:1 (GSM-1800/900/400) nisbat bilan aniqlanadi, ya'ni ayni bir xil qoplash zonasida GSM-1800 dan foydalanilganiga nisbatan 5,5 marta kamroq tayanch stansiyalar kerak bo'ladi. GSM-400 foydalanishning eng maqbul joylari uyalarning kichik trafikli va katta uzoqlikdagi hududlarida aloqani tashkil qilish bilan bog'liqdir (qishloq joylari, qirg'oq bo'ylari va avtostradalarda).

GSM-900 standarti

ing. - GSM-900

rus. - стандарт GSM-900

Chastotalarning 900 MHz diapazonida ishlaydigan tarmoqlar uchun GSM standartining asosiy versiyasi. Ko'pincha GSM-900 abbreviaturasi o'rmiga umumiyroq bo'lgan GSM atamasidan foydalaniladi.

GSM-R raqamli aloqa tizimi

ing. - global system for mobile railway (GSM-R)

rus. - цифровая система связи GSM-R

GSM standarti negizidagi raqamli aloqa tizimining spetsifikatsiyasi bo'lib (1994

yilda ishlab chiqilgan), u (876-880) va (921-925)MHz chastotalar diapazonida temir yo'l radioaloqa tizimini tuzishga mo'ljallangan. 500 km/h gacha bo'lgan harakat tezliklarida guruhii, ustuvor va shoshilinch chaqiruvlarni amalga oshirish hamda aloqani ta'minlash nazarda tutilgan. Maximal ulanish vaqti 1,5 s dan oshmaydi.

gTLD

ing. - generic Top-Level Domain

rus. - gTLD

Yuqori pog'onali umumiy domen. Dastlab tashkilotlarning turiga qarab ajratilishi ko'zga tutilgan bo'lsa, bugungi kunda cheklashsiz sotiladi. Turlari: .com, .net, .org, .info va .biz.

GUID Partition Table

ing. - GUID Partition Table (GPT)

rus. - GUID Partition Table

Bo'limlar jadvalarini fizik qattiq diskka joylashtirishning standart formati. Intel tomonidan BIOS o'rniga tavsiya qilingan (Extensible Firmware Interface, EFI) standart – kengaytiriladigan mikroodastur interfeysining bir qismi hisoblanadi.

H simon to'lqin o'tkazgich

ing. - H-shaped waveguide

rus. - H-образный волновод

H simon ko'ndalang kesimga ega bir aloqali to'lqin o'tkazgich.

Hands free tizimi

ing. - hands free

rus. - система hands free

Qo'llar yordamisiz telefonda so'zlashish va uni boshqarish imkonini beradigan tizim. Uning o'rniga ovozdin foydalaniladi. Ko'pincha, avtomobillarda qo'llaniladi.

Hard real-time

ing. - hard real-time

rus. - hard real-time

Real vaqt tizimi, bunda vaqtinchalik cheklashlar buzilganda u boshqaradigan obyekt-da kritik xatolik (ishlamay qolish) sodir bo'lishi mumkin.

HDDScan

ing. - HDDScan

rus. - HDDScan

Axborot to'plagichlarni testlash uchun belgilangan utilita (HDD, RAID, Flash). Dastur axborotni saqlash qurilmalarini BAD-

bloklari mavjudligiga diagnostika qilish, S.M.A.R.T-atrioutlarini ko'rib chiqish, maxsus sozlamalarni o'zgartirish (ta'minotni boshqarish, sbindel start/stopini, akustik rejimni rostdlash) uchun mo'ljallangan.

HDML tili

ing. - HDML (handheld device markup language)

rus. - язык HDML

Internetga simsiz qurilmalardan kirish uchun, Phone.com firmasi tomonidan ishlab chiqilgan til.

HDSL texnologiyasi

ing. - high-bit-rate digital subscriber line (HDSL)

rus. - технология HDSL

Uzunligi 4,5 km gacha bo'lgan to'rt simli liniya bo'ylab 2 Mbit/s tezlik bilan simmetrik ravishda ma'lumotlarni uzatish imkonini beradigan texnologiya. 1990-yilda Bellcore firmasi tomonidan tavsiya qilingan.

Hewlett-Packard korporatsiyasi

ing. - Hewlett-Packard

rus. - корпорация Hewlett-Packard
Elektron va hisoblash texnikasini ishlab chiqaruvchi kompaniya, shuningdek unga taalluqli savdo markasi.

HFS*

ing. - hierarchical file system (HFS*)

rus. - HFS*

Apple Inc tomonidan, oldin foydalanilgan HFS ni, Macintosh kompyuterlaridagi asosiy fayl tizimni almashtirish uchun ishlab chiqilgan fayl tizimi. HFS* MAC OS imkoniyatlarini kengaytirish uchun, HFS ning takomillashtirilgan versiyasi sifatida qarab chiqilishi mumkin. Ishlab chiqish vaqtida bu tizim Sequoia deb atalgan.

HomePNA spetsifikatsiyasi

ing. - Home phonline networking alliance

rus. - спецификация HomePNA

1998-yilda HPNA alyansi tomonidan ishlab chiqilgan telefon kabel tarmoqlari asosidagi 10 Mbit/s li uy tarmoqlari uchun spetsifikatsiya. 1.0 versiyasi 1 Mbit/s tezlik uchun mo'ljallangan. Ayni vaqtdagi 2.0 versiyasi 350 m dan ortiq masofada 10 Mbit/s tezlikda, 3.0 versiyasi esa, 32 Mbit/s tezlikda ma'lumot uzatish imkonini ta'minlaydi. HomePNA 25 tagacha tarmoq uzellarini qo'llab quvvatlaydi.

Hot Desking

ing. - Hot Desking

rus. - Hot Desking

Olisdagi telefonda uy ofisi telefoni kabi foydalanish imkonini beradigan xizmat. Bunda ikkala telefon ham bir xil imkoniyat (funksiya) ga ega bo'ladi.

Izoh - Ikkala telefon ham bir xil bo'lishi kerak, masalan ikkita SIP - telefoni.

Hot Java

ing. - Hot Java

rus. - Hot Java

Internet tarmog'ida WWW texnologiyasi bilan ishlash uchun belgilangan brauzer. Java tilida til imkoniyatlarini ko'rsatish uchun ishlab chiqilgan, lekin mustaqil ahamiyatga ham ega.

HSCSD texnologiyasi

ing. - high-speed circuit-switched data (HSCSD)

rus. - технология HSCSD

1. GSM standartidagi, ma'lumotlarni oshirilgan tezlikda (57 Kbit/s gacha) uzatish texnologiyasi. Bu texnologiyaning asosiy afzalligi, ma'lumotlar uzatish tezligining yuqoriligi. Bu, bog'lanishni o'rnatishga ketadigan vaqtni kamaytirish va pasturlar ishini tezlashtirish imkonini beradi. Ma'lumotlarni uzatish oldingiga nisbatan to'rt marta tez bajariladi, bu esa, kartalar va grafik interfeysdan foydalanib, mobil navigatsiya kabi xizmatlarni amalga oshirish imkonini beradi. HSCSD texnologiyasi kommutatsiyalanadigan tarmoqlarda qo'llanilishi tufayli, ma'lumotlar qisqa impulslar tarzida uzatiladigan elektron pochta uzatishga qaraganda, multimedia va videodasturlar ishi uchun yaxshiroq moslashtirilgan. Texnologiyadan GSM tarmog'ida foydalanishda uzatish tezligi 43,2 Kbit/s bo'lishiga erishiladi. Bu qiymat zamonaviy modemlardan foydalaniladigan simli tarmoqlar orqali ma'lumotlar uzatish tezligiga teng.

2. GSM mobil tarmoqlar ustqurmasi. 57,6 Kbit/s yuqori o'tkazish qobiliyatiga erishish uchun, to'rtta 14,4 Kbit/s past tezlikli kanalni birlashtirish imkonini beradi. GPRS dan farqli ravishda, kanallarni kommutatsiyalash usulidan foydalaniladi. HSCSD uskunasi multimedia ma'lumotlarni uzatish uchun mo'ljallangan videokonferens aloqa uchun ham to'g'ri keladi.

HSDPA texnologiyasi

ing. - high-speed downlink packet access (HSDPA)

rus. - технология HSDPA

Mobil aloqa standarti, mobil aloqa tarmoqlarining 4G avlodiga o'tish bosqichi. Ma'lumotlar uzatish tezligi taxminan 4 Mbit/s.

HSPA texnologiyasi

ing. - high speed packet access (HSPA)

rus. - технология HSPA

Ma'lumotlarni paketli uzatishga asoslangan, simsiz aloqa texnologiyasi; axborot uzatish tezligining yuqori bo'lishi asosiy jihati; WCDMA va UMTS kabi mobil tarmoqlarga qo'shimcha hisoblanadi.

HSUPA texnologiyasi

ing. - high-speed uplink packet access (HSUPA)

rus. - технология HSUPA

Mobil qurilma va operatorning mobil tarmog'i o'rtasida ma'lumotlar uzatish tezligini 5,8 Mbit/s gacha oshirish imkonini beradigan HSDPA texnologiyasining analogi.

HSWD texnologiyasi

ing. - high speed wireless data (HSWD)

rus. - технология HSWD

Yuqori tezliklarda ma'lumotlarni simsiz uzatish texnologiyasi.

Huper Transport

ing. - Huper Transport

rus. - Huper Transport

Yuqori o'tkazish qobiliyatiga va kichik kechikishlarga ega bo'lgan, ikki yo'nalishli ketma-ket/parallel kompyuter shinasini. To'liq o'lchamli, to'liq tezlikli 32 bitli shina ikki yo'nalishli rejimda o'tkazish qobiliyatini 51600 Mbyte/s gacha o'tkazish qobiliyatini ta'minlashi mumkin.

Hydra arxitekturasi

ing. - Hydra architecture

rus. - архитектура Hydra

IBM Personal Computer kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy kompyuterlar tizim platasi modulli arxitekturasi. Izoh - Arxitektura tizim komponentlari (tezkor xotira qurilmasi, protsessor, PCI) ning oson almashirilishi hisobiga modernizatsiya narxlarini qisqartiradi.

IACR assotsiatsiyasi

ing. - International Association

Cryptography Research

rus. - ассоциация IACR

Kriptografik tadqiqotlar bo'yicha xalqaro assotsiatsiyasi.

IBM kompaniyasi

ing. - International

Business Machines (IBM)

rus. - компания IBM

Dunyodagi dastlabki kompyuter kompaniyalaridan biri. Kompyuter texnologiyalari sohasida va savdo hajmi bo'yicha dunyo yetakchilaridan biri. IBM maynfreymlari odatda ko'k rang bilan bezatilganligi uchun, matbuotda bu korporatsiya «Ko'k gigant» deb ham ataladi. Kompaniya 1911-yilda to'rtta kompaniyaning birlashishi natijasida tashkil topgan. Bu kompaniyalardan biri - The Tabulating Machine Company tabulyatorlar ishlab chiqaruvchi kompaniya.

ICL korporatsiyasi

ing. - ICL corporation

rus. - корпорация ICL

Turli tarmoqlar uchun uskunalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korporatsiya. 1968-yilda Buyuk Britaniyada asos solingan.

ICMP protokoli

ing. - Internet Control

Message Protocol (ICMP)

rus. - протокол ICMP

RFC 792 da aniqlangan uzatiladigan ma'lumotlar statusi to'g'risidagi xabarlamini almashish uchun mo'ljallangan IP-protokolining kengaytmasi.

ICQ Internet-peyjeri yoki

«men seni izlayman»

ing. - I Seek You

rus. - Интернет-пейджер

ICQ или «я ишу тебя»

Internetda sherik qidirish va ular bilan real vaqtda xat orqali muloqot qilish imkonini beradigan interaktiv muloqot tizimi. Mirabilis kompaniyasi mahsuloti, hozirgi vaqtda America Online korporatsiyasiga tegishli.

ICQ xizmati

ing. - ICQ (I Seek You)

rus. - служба ICQ

1. Har bir foydalanuvchi o'z raqamiga ega bo'lgan, Internet yordamida qisqa xabarlamini uzatish bepul Internet-peyjing tizimi. Unda foydalanish uchun maxsus dastur zarur. Mobil telefondan/telefonga xabarlar uzatish mumkin.

2. Matnli xabarlar almashinish uchun mo'ljallangan dastur. Ishlab chiquvchi – Isroilning Mirabilis firmasi. Pochta xizmati bilan integratsiyalangan, fayillarni qabul qilish/uzatish imkoniyati bo'lgan, chat o'rnatilgan, xabarni uzatish tezligi yuqori bo'lgan, anchagina qulay mahsulotni o'zida ifodalaydi.

IDEN texnologiyasi

ing. - integrated digital enhanced networks (IDEN)

rus. - технология IDEN

Integratsiyalashgan raqamli kengaytirilgan tarmoqlar uchun, Motorola kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya. Asosi – GSM arxitekturasi, uzatishda 25 kHz li chastota kanallaridan foydalaniladi. Butun dunyoda keng qo'llaniladi.

i-mode texnologiyasi

ing. - i-mode

rus. - технология i-mode

1. O'tkazish qobiliyati 9,6 Kbit/s bo'lgan holda, doimiy ulanishni ta'minlaydigan texnologiya, bu DoCoMo ga GPRS dan avvalroq, IP-telefoniya asosida mobil dasturlar ishlab chiqishni boshlash imkonini berdi. Texnologiya HTML kompakt versiyasidan foydalanganligi uchun, WAP bilan ham raqobatlasha oladi, WAP esa, WML markerlarining maxsus tili bilan ishlaydi.

2. Yaponiyaning eng yirik mobil aloqa operatori bo'lgan NTT DoCoMo Internet-servisi. Servisdan foydalanuvchilar veb-sahifalar mazmuni bilan tanishishlari, elektron pochta, taqvim bilan ishlashlari va chat xabarlarini ayirboshlashlari mumkin. DoCoMo i-mode xizmatlarini 1999-yildan ko'rsata boshladi va shundan beri, Yaponiyada 18 milliondan ortiq foydalanuvchini o'ziga jalb qila oldi. i-mode servisi orqali ma'lumotlarni uzatish tezligi 9,6 Kbit/s, uchinchi avlod tarmoqlari ishiga tushirilishi bilan tezlik 384 Kbit/s gacha oshadi.

IMS Server

ing. - IMS Server

rus. - IMS Server

ISAM ESSO uchun, korxonaga himoyalangan foydalana olishning markazlashtirilgan boshqarish nuqtasini taqdim etadigan integratsiyalashgan boshqaruv tizimi. Foydalanuvchilarning identifikatorlari, Access-Profile va autentifikatsiya siyosatini markazlashtirilgan boshqarishga ruxsat beradi

va korxonaga uchun yo'qotishlar, sertifikatlar va auditni boshqarishni ta'minlaydi.

IMT-FT standarti

ing. - IMT-2000 Frequency Time (IMT-FT)

rus. - стандарт IMT-FT

Ham juft, ham juft bo'lmagan chastotalar polosalarida qo'llash uchun ishlab chiqilgan, kombinatsiyalangan chastota-vaqt dupleks tarqatishli DECT mikrouyali tizimi uchun mo'ljallangan standart nomi (DECT YeR loyihasi asoslangan).

IMT-SC standarti

ing. - IMT-2000 Single Carrier (IMT-SC)

rus. - стандарт IMT-SC

Bir chastotali TDMA tizimi uchun ishlab chiqilgan standart nomi, tizimni chastotalarning juft polosalarida belgilaydi (avvalgi UWC-136 loyihasi).

IMT-TC standarti

ing. - IMT-2000 Time-Code (IMT-TC)

rus. - стандарт IMT-TC

Vaqt bo'yicha dupleks tarqatish (TDD)li kombinatsiyalangan TDMA/CDMA tizimi uchun mo'ljallangan standart nomi, tizimni chastotalarning juft bo'lmagan polosalarida belgilaydi (UTRA TDD va SCDMA ning qo'shma taklifi).

IMT-2000 i

ing. - international mobile

telecommunications – 2000 (IMT-2000)

rus. - IMT-2000

ITU tomonidan uchinchi avlod (3G) standartlarining butun turkumini belgilash uchun foydalaniladigan atama. Beshta standartni o'z ichiga oladi: WCDMA, CDMA2000, TD-CDMA/TD-SCDMA (Xitoyning o'z standarti), DECT va UWC-136.

IMT-DS standarti

ing. - IMT-2000 Direct Spread (IMT-DS)

rus. - стандарт IMT-DS

Spektr to'g'ri kengaytiriladigan (DS-CDMA) va chastotaviy dupleks tarqatiladigan (FDD) keng polosali tizim uchun mo'ljallangan standart nomi, tizimni chastotalarning juft polosalarida ta'minlaydi (WCDMA va UTRA FDDning birgalikdagi taklifi).

IMT-MC standarti

ing. - IMT-2000 Multi Carrier (IMT-MC)

rus. - стандарт IMT-MC

Bir vaqtning o'zida bir nechta eltuvchini

uzatuvchi va chastotaviy dupleks tarqatishli ko'p chastotali tizim uchun ishlab chiqilgan standart nomi, tizimni chastotalarning juft bo'lmagan polosalarida ta'minlaydi (ishchi nomi – cdma2000).

Infiniband

ing. - Infiniband

rus. - Infiniband

Ham ichki (tizim ichidagi), ham tizimlararo ulanishlar uchun qo'llaniladigan, yuqori tezlikli kommutatsiyalanadigan ketma-ket shina. Ikki yo'nalishdagi ketma-ket shinadan foydalaniladi. Bazaviy tezlik har bir yo'nalishda 2,5 Gbyte/s.

Intel Core i5

ing. - Intel Core i5

rus. - Intel Core i5

Intel korporatsiyasining x86-64 protsessorlari turkumi. O'rnatilgan xotira kontrolleriga ega, Turbo Boost texnologiyasini qo'llaydi (protsessorni yuklama ostida avtomatik tarzda tezlash). Ko'pchiligida o'rnatilgan grafik protsessor bor. Chipset bilan Core i5 DMI shinasini orqali ulanadi. Stol kompyuterlari uchun mo'ljallangan dastlabki Core i5 2009 yilning senyabrda paydo bo'ldi, unda Nehalem arxitekturasi Lynnfield yadrosidan foydalanilgan.

Intel firmasining ikkilik moslashuv spetsifikatsiyasi

ing. - Intel binary compatibility specification 2

rus. - спецификация Intel на двоичную совместимость

Intel-arxitekturali kompyuterlarda har qanday ishlab chiqaruvchining UNIX operatsion tizimida ishlay olishi uchun, amaliy dastur qanoatlantirishi kerak bo'lgan shartlarni aniqlovchi standart.

Intel mikroprotsessori

ing. - Intel Itanium

rus. - микропроцессор от Intel

Hisoblarni oshkora parallelashtiradigan va xotirani 64-razryadli manzillashdan foydalanadigan mikroprotsessor turi.

IOS operatsion tizimi

ing. - Internetworking Operating System (IOS)

rus. - операционная система IOS

Sisco Systems kompaniyasi tomonidan mar-

shrutizatorlar uchun ishlab chiqilgan rezident operatsion tizimi. U marshrutizatorlarni sozlash va nazorat qilish uchun komandalar va funksiyalar to'plamini o'z ichiga oladi, shuningdek, turli protokollarning bajarilishini qo'llab-quvvatlaydi.

IP-adres

ing. - IP-address

rus. - IP-адрес

1. Uzellar yoki Internet tarmog'idagi kompyuterlarni identifikatsiya qiladigan noyob manzil.

2. Axborotni qabul qiluvchi yoki jo'natuvchini identifikatsiya qiluvchi 32 (IPv4) yoki 128 (IPv6) bitlar ketma-ketligi.

IP bo'yicha ovozli aloqa shlyuzi

ing. - voice over IP gateway

rus. - шлюз голосовой связи по IP

An'anaviy oxirgi (terminal) uskunani KAT bilan ulaydigan aloqa seansini amalga oshirish protokoli bazasidagi shlyuz. Analog liniyalarni ulashda IP bo'yicha ovozli aloqa shlyuzi kamida analog telefon adaptorni o'z ichiga oladi. IP bo'yicha ovozli aloqa shlyuzi, vositachi-server orqali chaqiruv seansini boshqarish funksiyasiga taalluqli IP-multimedia tizimlarining abonent apparatlarida alohida o'rin tutadi.

I-PIP tugmasi

ing. - push-button I-PIP

rus. - кнопка I-PIP

Reklama vaqtida bu tugma bosilsa, shu paytdagi dastur ekrandagi kichik darchaga joylashadi, ekranda esa bu paytda boshqa dastur namoyon bo'ladi. I-PIP tugmasi takror bosilganda, dastlabki dastur ekranda to'liq tiklanadi.

IP-manzillarni o'zgartirgich

ing. - IP-resolver

rus. - преобразователь IP-адресов

Ishchi stansiyada yoki xost kompyuterda o'rnatiladigan va nomlar serveriga so'rovlar yuborgan holda, xost-kompyuterlar nomlarini, ularning IP-manzillariga o'zgartiradigan dastur.

IP-paketdagi xatolik ehtimolligi

ing. - IP packet error rate.

rus. - вероятность ошибок пакета IP

Xato qabul qilingan IP-paketlar sonining uzatilgan IP-paketlarning umumiy soniga nisbati.

IP-paketi

ing. - packet-IP

rus. - пакет-IP

Manba va oluvchining adresi, ma'lumotlar va paket uzunligini belgilaydigan maydon, sarlavhaning nazorat summasi va paketni fragmentatsiya qilish to'g'risidagi bayroqlarni o'z ichiga olgan Internet tarmog'i orqali uzatiladigan axborotning fundamental birligi.

IP-protokol

ing. - IP-protocol

rus. - протокол IP

1. Internet tarmog'ining protokoli. Internet uzellari o'rtasida xabarlarining uzatilishi va marshrutlanishi uchun javob beradigan va ma'lumotlarni paketlarga ajratish qoidalarini belgilovchi tarmoq protokoli.

2. Tarmoqlararo protokol. IP-protokoli OSI 3-modeli (ochiq tizimlarning o'zaro aloqa modeli) sathida ishlaydi va internetnetwork tarmoqlarida IP-deytagrammalarni yuborish standarti hisoblanadi. IP-paketlar marshrutlanishini tavsiflaydigan, TCP/IP-protokolari stekining bir qismidir.

IPSec protokoli

ing. - IP Security

rus. - протокол IPSec

IETF tomonidan taklif etilgan xususiy virtual tarmoqlarda axborotni uzatish protokollari majmui bo'lib, IP-paketlarni autentifikatsiyalash, yaxlitligini tekshirish va shifrlashni ta'minlaydi. IPSec kriptografiyasi asosidagi standart xizmatlar va xavfsizlik protokollari to'plami TCP/IP ning barcha protokollari va Internet orqali L2TP dan foydalanib bog'lanishlar xavfsizligini ta'minlaydi.

I-psevdokadr

ing. - I-pseudo frame

rus. - I-псевдокадр

Televizion tasvir ma'lumotlar oqimini kadr ichida kodlashda shakllanadigan psevdokadr.

IP shlyuzi

ing. - IP gateway

rus. - шлюз IP

Turli xil tarmoqlarni birlashtirish, lokal tarmoqdan Internetga chiqish imkonini beradigan qurilma. Shlyuzda ma'lumotlarning bir protokoldan boshqasiga o'zgartirilishi ro'y beradi.

IPtables

ing. - IPtables

rus. - IPtables

Komanda satri utilitasi, 2.4 versiyadan boshlab Linux yadrolari uchun NET Filter tarmoqlararo ekran (brantmauer) ishini boshqarishning standart interfeysi hisoblanadi. IPTables utilitasidan foydalanish uchun super foydalanuvchi imtiyozlari talab qilinadi.

IP-tarmoqlar orqali tovush

(ovozli trafikni) uzatish

ing. - VoIP

rus. - передача голоса

(голосового трафика) по IP-сетям

Ovozni uzatish IP-tarmoqda, IP orqali ovoz, IP asosidagi telefoniya tarmog'ida paketlar kommutatsiyasi ovoz uzatish texnologiyasi bo'lib IP-protokoli negizida qurilgan. Xalqaro va shaharlararo qo'ng'iroqlarda mablag'ni tejash uchun ishlatiladi. Texnologiya nutq va ma'lumotlarni integratsiya qilish imkonini beradi.

IP-telefoniya

ing. - IP-telephony

rus. - IP-телефония

1. Internet tarmog'idan telefon so'zlashuvlar uchun foydalanish texnologiyasi. Kompyuter-kompyuter, kompyuter-telefon tarmoq ulanishlardan foydalanib, odamlar o'rtasida telefon aloqasini o'rnatish imkonini beradi.

2. IP-tarmoqlari bo'yicha ovozni uzatish texnologiyasi asosida nutqli axborotni almashish, shu jumladan mahalliy, shaharlara-ro va xalqaro aloqa xizmatlari.

IP-tranzit

ing. - IP-transit

rus. - IP-транзит

Mijozning IP-protokoli negizida IP-tarmoqqa ulanishining ikki nuqtasi o'rtasida ma'lumotlar uzatish.

IPX/SPX protokoli

ing. - IPX/SPX

rus. - протокол IPX/SPX

Novell NetWare tarmoqlarida ishlatiladigan, TCP/IP to'plamidagi TCP va IP-protokollariga mos keluvchi transport protokollari. IPX protokoli Windowsda NWLink protokoli orqali amalga oshiriladi.

IRC protokoli

ing. - idle receiver control (IRC)

rus. - протокол IRC

Band qilinmagan qabul qilgichni boshqarish

protokoli. Abonent bilan bog'lanish o'rnatilmagan paytda, uyada qabul qilgichni boshqarish protokoli.

IS-136 standarti

ing. - interim standard-136 (IS-136)

rus. - стандарт IS-136

Shimoliy Amerikada 800 MHz va 1,9 GHz chastota diapazonida ishlaydigan TDMA texnologiyasi asosidagi ikkinchi avlod mobil aloqa raqamli tizimlarining standarti. Birinchi marta 1994 yilda taqdim etilgan. DAMPS sifatida ham ma'lum.

IS-95 standarti

ing. - interim standard-95 (IS-95)

rus. - стандарт IS-95

Cdma One kabi, 800 MHz va 1,9 GHz chastota diapazonida ishlaydigan standart. Ma'lumotlarning ovoz qo'shilgan holda, 64 Kbit/s gacha tezlik bilan uzatilishini ta'minlaydi.

ISDN bazaviy foydalana olish interfeysi

ing. - basic rate interface

rus. - интерфейс базового доступа ISDN
Tovush, videotasvir va ma'lumotlarni kommutatsiyalanadigan kanallar bo'yicha uzatishda ishlatiladigan ikkita V-kanallar va bitta D-kanaldan tashkil topgan ISDN-interfeys.

ISDN interfeyslari

ing. - ISDN interfaces

rus. - интерфейс ISDN

Xizmatlari integratsiyalashgan raqamli tarmoqlarda foydalaniladigan interfeyslarning asosiy turlari beshta: R, S, T, U hamda V.

Java operatsion tizimi

ing. - Java operating system

rus. - операционная система Java

Java-ilovalarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan unchalik katta bo'lmagan, effektiv operatsion tizim. Ikki xil ko'rinishda uchraydi: JavaOS for Business va JavaOS for Consumers.

Java Script tili

ing. - Java Script

rus. - язык Java Script

Netscape Communication korporatsiyasi tomonidan 1995-yilda ishlab chiqilgan (Netscape Navigator 1.2 brauzerining tarkibiy qismi sifatida taqdim qilingan) va Java tiliga asoslangan, lekin undan ancha sodda

bo'lgan dasturlash tili. ECMA-262 spetsifikatsiyasiga mos keladi.

Java tili

ing. - Java language

rus. - язык Java

Sun Microsystems, Inc tomonidan ishlab chiqilgan yangi dasturlash tili. Java tilidan tarmoq ilovalarini (dasturlarini) ishlab chiqish uchun oddiy dasturlash tili sifatida, shuningdek, appletlar deb ataladigan uncha katta bo'lmagan ilovalarni yozishda foydalaniladi.

JDC standarti

ing. - japanese digital cellular (JDC)

rus. - стандарт JDC

Qayta nomlangan PDC Yaponiya mobil aloqa standarti. Unda 900 MHz va 1,5 GHz chastotadan foydalaniladi.

JEIDA standarti

ing. - JEIDA standard

rus. - стандарт JEIDA

Kompyuterga «kredit kartochka» turidagi har qanday qurilmalarni, jumladan, xotira kartalari, qattiq diskdagi to'plagichlar, modemlarni ulash ta'minlanadigan standart.

JFC bibliotekasi

ing. - java foundation classes (JFC)

rus. - библиотека JFC

Java tilidagi asosiy turkumlar bibliotekasi.

Jini texnologiyasi

ing. - Jini technology

rus. - технология Jini

O'zida Java tili kengaytmalarini ifoda etadigan Sun Microsystems texnologiyasi, uning yordamida Java tilida yozilgan dasturlar o'rnatilgan raqamli qurilmalar kompyuter tarmog'ida shaxsiy kompyuterlar yordamisiz muloqotga kirisha oladi.

JIT-kompilyatsiya

ing. - cannibalization

rus. - JIT-компиляция

Bevosita dasturning ishlash vaqtida bayt-kodni mashina kodiga kompilyatsiya qilish yo'li bilan bayt-koddan foydalaniladigan dasturiy tizimlarning unumdorligini oshirish texnologiyasi.

JPEG 2000 standarti

ing. - JPEG 2000

rus. - стандарт JPEG 2000

JPEG standartining yangi ochiq ko'rinishi.

Tasvimi 200 barobargacha siqish imkonini beradi. DCT dan emas, balki to'liq o'zgartirgich algoritmidan foydalanadi. Tasvir matematik jihatdan xuddi uzluksiz oqim singari tavsiflanadi.

JSQL dasturlash tili

ing. - Java SQL

rus. - язык программирования JSQL

Java tilida yozilgan dastur orqali ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish uchun SQL tili.

Just-In-Time

ing. - Just-In-Time (JIT)

rus. - Just-In-Time

Har bir usulning birinchi chaqiruvida, Java da dasturlarni bajarishning ishlab chiqarish yig'indisini oshirishga imkon beradigan, maqsadli platformaning (native – kod) obyektli kodiga uning kompilyatsiyasini bajaradigan JVM komponentining kompilyatori.

Ka-diapazon

ing. - Ka-band

rus. - Ка-диапазон

Asosan, yo'ldoshli aloqa va radiolokatsiya-da ishlatiladigan santimetrli va millimetrli uzunlikdagi to'liq chastotalari diapazoni. Diapazon shartli ravishda elektromagnit spektrining 26,5 dan 40 GHz gacha bo'lgan diapazonida yo'yiladi.

KEM-faktor

ing. - KEM-factor

rus. - КЕМ-фактор

Subyektiv sinovlar usuli, ajratib bo'ladigan qora va oq gorizontal chiziq hamda satrlar sonlari nisbatidir.

Kerberos texnologiyasi

ing. - Kerberos

rus. - технология Kerberos

Des standarti negizida Massachuset texnologiyalar instituti (MIT) tomonidan 1980-yil o'rtalarida yaratilgan, autentifikatsiya va ochiq kalit bilan shifrlash texnologiyasining nomi. RFC 1510 da ta'rif keltirilgan. Kerberos Windows da 2000 versiyasidan boshlab ishlatilib kelinadi.

K-faktor

rus. - К-фактор

ing. - K-factor, K-rating factor

Televizion tasvining. televizion ko'rsatu jarayonida qayta tiklash qurilmalariga ber-

iladigan turli impulslarning buzilishi bo'yicha aniqlanadigan signal shaklining ayrim liniyaviy buzilishlar tufayli sodir bo'ladigan subyektiv yomonlashuvi darajasini obyektiv baholash o'Ichovi.

Izoh – K-faktorni baholash usuli XEI-R-BT.654 Tavsiyalarida berilgan.

Ku-diapazon

ing. - Ku-band

rus. - Ку-диапазон

Yo'ldoshli televideniya-da ishlatiladigan santimetrli to'liqinlar chastotalarining diapazoni. Diapazon shartli ravishda 10,7 dan 18 GHz gacha yo'yiladi.

L2TP protokoli

ing. - layer 2 tunneling protocol (L2TP)

rus. - протокол L2TP

Cisco kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, L2F (Layer 2 Forwarding) protokolini va Microsoft kompaniyasining PPTP protokolini o'zida binktiruvchi kanal darajasida tunnellovchi tarmoq protokoli. Internetda tunnellar yaratish uchun mo'ljallangan standart protokol.

Lempel-Ziv-Welch (LZV) algoritmi

ing. - algorithm of

Lempel-Ziv-Welch (LZW)

rus. - алгоритм

Лемпеля-Зива-Велча (ЛЗВ)

Ma'lumotlarni yo'qotishsiz siqish algoritmi bo'lib, uni tuzgan ijodkorlarning nomlari bilan atalgan.

LAN emulyatsiyasi

ing. - LAN Emulation (LANE)

rus. - эмуляция LAN

ATM forumi tomonidan ishlab chiqilayotgan texnologiya. ATM tarmog'i virtual segmentlarini Ethernet va Token Ring virtual tarmoqlarini shaffof birlashtirish imkonini beradi.

LAN NetView platformasi

ing. - LAN NetView platform

rus. - платформа LAN NetView

Tarmoqni boshqarish amaliy jarayonlariga IBM korporatsiyasi tomonidan taklif etilgan platforma. Bu platforma turli xildagi xizmatlar boshqaruv ma'lumotlarini tarmoqdan uzatish, tarmoq ob'ektlarining holati to'g'risidagi ma'lumotni yig'ish, platforma vositalari bilan amalga oshiriluvchi dasturlardan jamoaviy foydalanishni ta'minlash,

tizim administratori interfeysini taqdim etish kabi funksiyalarni bajaradi.

LDAP protokoli

ing. - lightweight directory access protocol (LDAP)

rus. - протокол LDAP

Kataloglardan foydalanishning soddalashtirilgan protokoli, tarmoq kataloglariga kira olish imkonini beradi.

Linker and loader

ing. - linker and loader (LD)

rus. - линкер and лоджер

UNIX tizimidagi aloqalar redaktori va yuklagich.

Linux

ing. - Linux

rus. - Linux

Shaxsiy kompyuterlarga mos keladigan RS va ko'plab boshqa platformalarda Unix operatsion tizimini erkin amalga oshirish. Nomi tizim yadrosi ustida ish olib borgan fin dasturchisi Linus Torvalds nomidan kelib chiqqan. Birinchi versiyasi 1994-yilda paydo bo'lgan. Linux ning 64 razryadli versiyalari bor.

Linux proc

ing. - linux proc

rus. - linux proc

Kiritish-chiqarish uchun so'rovlarni bajarishda ma'lumotlarni aniq saqlash va ma'lumotlarni hisoblash yo'qligiga asoslangan Linux dagi fayl tizimi.

LISP dasturlash tili

ing. - LISP language

rus. - язык программирования LISP

Yuqori daraja universal dasturlash tili, funktsional turdagi deklarativ tillar qatoriga kiradi, ro'yxatlar ko'rinishida taqdim etilgan simvollar ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan. Funktsiyalar va rekursiv tuzilish tilning asosi hisoblanadi.

LISP-kompyuter

ing. - LISP machine

rus. - LISP-компьютер

Komandalar tizimida LISP tili asosiy funksiyalari va ro'yxatlar bilan ishlash operatsiyalari joriy qilingan kompyuter. Bunday kompyuterlarni intellektual kompyuterlar sinfiga kiritish mumkin.

Little endian

ing. - little endian

rus. - little endian

Kompyuter xotirasining arxitekturasi, bunda xotiraning har bir so'zidagi baytlarni raqamlash o'ng tomondan boshlanadi, ya'ni kichik bitlardan boshlab raqamlanadi.

Live CD

ing. - Live CD

rus. - Live CD

Operatsion tizimning ishlash varianti. Tizim yuklash kompakt-diskidan ishga tushiriladi va tezkor xotiraga yuklanadi, bunda vinchester ichidagi ma'lumotlar o'zgarmay qoladi. Kompyuterga o'rnatilgan operatsion tizimning ishlash holatini tiklashda yoki tizimni qattiq diskka o'rnatmasdan ko'rib chiqish imkonini beradi. Birinchi Live CD-distributivi Knoppix bo'ladi.

Longhorn operatsion tizimi

ing. - operating system Longhorn

rus. - операционная система Longhorn

Windows Vista va Windows Server 2008 operatsion tizimlarining dastlabki nomlanishi.

LPT

ing. - LPT

rus. - LPT

Dastlab, faqat chop etish qurilmasini ulash uchun ishlatilgan PC parallel portning belgilanishi.

LTE standarti

ing. - long term evolution (LTE)

rus. - стандарт LTE

Ma'lumotlarni mobil uzatish texnologiyalarini takomillashtirish: ma'lumotlar uzatish samaradorligi va tezligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ko'rsatiladigan xizmatlarni yaxshilash va kengaytirish uchun mo'ljallangan, 3GPP uyushmasi tomonidan yaratilgan standart.

LynxOS

ing. - LynxOS

rus. - LynxOS

O'rnatiladigan tizimlar uchun ishlab chiqilgan, POSIX standartlari bilan, so'nggi vaqtda Linux operatsion tizimi bilan moslashtirilgan, Unix ga o'xshash real vaqt operatsion tizimi.

LZW usuli

ing. - Lempel-Ziv-Welch (LZW)

rus. - метод LZW

Grafik tasvirlarni siqish usuli, faylda bir xil ketma-ketlikni qidirish algoritmiga asoslangan. Unisys firmasi nomi bilan patent ro'yxatidan o'tgan usul. 1978-yilda ishlab chiqilgan.

MAC drayver

ing. - media access

control driver (MAC driver)

rus. - MAC драйвер

OSI modeli muhitidan foydalana olishni boshqarish darajasida ishlaydigan qurilma drayveri bo'lib, tarmoq adapterlariga quyi darajadagi kira olishni ta'minlaydi.

MAC manzil

ing. - media access

control address (MAC Address)

rus. - MAC адрес

Lokal tarmoqqa ulangan har bir qurilmada bo'lishi kerak bo'lgan, kanal sathidagi standartlashtirilgan manzil. Tarmoqdagi boshqa qurilmalar bu adreslardan tarmoqdagi aniq qurilmalarning joylashgan o'rini topishda, shuningdek, marshrutlash jadvallari va ma'lumotlar tuzilmasini yangilashda foydalanadi. MAC-manzil lar uzunligi 6 bite. Shuningdek, apparatli manzil yoki fizik manzil deb ham ataladi.

Mac OS

ing. - Mac OS

rus. - Mac OS

Apple Macintosh kompyuterlarida ishlatiladigan operatsion tizim.

MAC OSX

ing. - MAC OSX

rus. - MAC OSX

Apple firmasining Macintosh kompyuterlari uchun mo'ljallangan operatsion tizimi. MAC OSX – bu, intuitiv grafik interfeysli o'xshash operatsion tizimdir. Darwin deb nomlanadigan yadro (operatsion tizimning, yadroning manzil fazosida bajariladigan dasturiy modullarni ichiga oladigan asosiy qismi) o'n mingdan ortiq dasturchi tomonidan ishlab chiqilgan. Tizim foydalanish uchun 2001-yilda qabul qilingan.

Mandriva

ing. - Mandriva

rus. - Mandriva

1998-yilda asos solingan kompaniya (dastlab MandrakeSoft deb atalardi). Red Hat Linux distributiviga asoslangan, mahsuloti bilan bir nomdagi muallif. Mandrake Linux birinchi versiyasi 1998-yilning iyul oyida paydo bo'lgan. 2005-yilning aprel oyida kompaniya Braziliyaning Connectiva kompaniyasini sotib oldi va nomini Mandriva ga o'zgartirdi.

MAS-manzil identifikatori

ing. - MAC-address

rus. - идентификатор MAC-адрес

Tarmoqdagi har qanday qurilmaning yagona identifikatori.

Mbit/sek

ing. - Mbps (Mbit/s)

rus. - Mbit/сек

Sekundiga megabit 1024 kbit/s. Yuqori tezlikdagi tarmoqlarda ma'lumotlar uzatish tezligining o'lchov birligi.

MD5

ing. - MD5

rus. - MD5

RSA Data Security firmasining asoschilaridan biri Ronald L.Rivest tomonidan 1991-yilda ma'lumotlarni shifrlash uchun ishlab chiqarilgan 128-bitli xeshlash algoritmi.

MDAPI spetsifikatsiyasi

ing. - multi-dimensional API (MDAPI)

rus. - спецификация MDAPI

Ochiq, obyektga yo'naltirilgan spetsifikatsiya. OLAP Council ma'lumotlarni onlayn analitik qayta ishlash kengashi, notijoriy, ko'p o'lchamli ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarini yetkazib beruvchilar assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilingan. Ilovalarga o'qish bo'yicha ko'p o'lchamli ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlaridan foydalanishni ta'minlaydi.

MDI ilova (dastur)

ing. - MDI application

rus. - MDI-приложение

Bir vaqtning o'zida bir nechta ochiq hujjat bilan ishlash imkonini beradigan dastur.

MDX tili

ing. - multidimensional expressions

rus. - язык MDX

OLAP serverlariga va ma'lumotlar bazasiga so'rovlar berish tili, OLE DB texnologiyasining tarkibiy qismi.

Memory map

ing. - memory map (mmap)

rus. - memory map

Solaris operatsion tizimidagi xotirada aks etadigan faylni tashkil qilish uchun mo'ljallangan komanda va tizim chaqiruvi.

MeXe standarti

ing. - mobile execution environment (MeXe)

rus. - стандарт MeXe

Mobil qurilmalar muhiti – WAP kengaytirilgan varianti, uchinchi avlod standarti, terminal uchun Java ilovalari, axborot yuklashda himoya funksiyalarini va ilovalar boshqarilishini, telefonning barcha funksiyalaridan foydalanish mumkin bo'lishi uchun, boshqa ishlab chiqaruvchilarning umumiy ilovalar interfeyslarini qo'shadi. UMTS standarti uchun virtual uy muhitini yaratishda muhim jihat bo'lgani holda, funksiyalar to'plami va imkoniyatlarni ta'minlaydi.

MGCP protokoli

ing. - media gateway control protocol

rus. - протокол MGCP

IP-telefoniya standarti bo'lib, u shlyuzlar va ulanishlarni boshqarish dasturi o'rtasida o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi.

Microsoft

ing. - Microsoft

rus. - Microsoft

Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi eng yirik firma. Dasturlardan tashqari, texnik vositalar: «sichqoncha»lar, klaviaturalar va ularga adapterlar ham chiqaradi. Uilyam Geyts va Pol Allen tomonidan 1975-yilda tashkil qilingan. Firmaning asosiy yutuqlari: MS-DOS, Windows operatsion tizimlari, Internetda ishlash uchun MS Office, MS Explorer dasturiy vositalari; BASIC, Quick C, Visual BASIC, Visual C++ dasturlash tillari.

Microsoft Azure Services Platform

ing. - Microsoft Azure Services Platform

rus. - Microsoft Azure Services Platform

Microsoft firmasining ishlab chiqarish

uchun va Microsoft.NET bazasida servislardan foydalanish uchun mo'ljallangan platformasi.

Microsoft kompaniyasining

diskli operatsion tizimi

ing. - Microsoft disk

operating system (MS-DOS)

rus. - дисковая операционная

система компании Microsoft

1981-yilda IBM PC birinchi 16-razryadli shaxsiy kompyuter uchun Microsoft va IBM korporatsiyalari tomonidan ishlab chiqilgan operatsion tizim. Bu operatsion tizim Microsoft kompaniyasining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1990-yillarda MS-DOS Windows tomonidan siqib chiqarildi. Boshqa, OS/2 kabi, operatsion tizimlarga o'xshab, u ham foydalanuvchining klaviaturada tergan komandalarini kompyuterda bajariladigan operatsiyalarga o'zgartiradi. MS-DOS bilan o'zaro bog'lanish komanda satridagi oynada shu bilan birga MS-DOS uchun mo'ljallangan dasturlar bilan o'zaro bog'lanish ish stoli yoriqlari yordamida amalga oshiriladi.

Microsoft Windows Azure

ing. - Microsoft Windows Azure

rus. - Microsoft Windows Azure

Operatsion tizim va firma asboblari to'plami.

MIMO texnologiyasi

ing. - multiple input,

multiple output (MIMO)

rus. - технология MIMO

Bitta tayanch stansiyada tarmoq sig'imini oshirish va signallarning so'nishi bilan kurashish uchun, ko'plab uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalardan foydalanish.

Minix

ing. - Minix

rus. - Minix

Unix asoslangan erkin mikroyadroli operatsion tizim. Endryu Tanenbaum Minix tizimini ta'lim tizimi uchun yaratgan.

MISD arxitekturası

ing. - multiple instruction

single data (MISD)

rus. - архитектура MISD

Parallel kompyuterning mumkin bo'lgan to'rtta arxitekturasidan biri. Bunda ma'lumotlar, har biri ma'lumotlarni qayta ishlash

bo'yicha o'zining dasturini hajaradigan protsessorlar to'plamiga uzatiladi.

MMDS texnologiyasi

ing. - Multichannel multipoint distribution service (MMDS) technology

rus. - технология MMDS

Simsiz tarmoqlar asosida ma'lumotlar uzatish texnologiyasi, teleeshitirishni o'rnatish uchun qo'llaniladi. Signalning uzatilishi 2868 MHz dan 2500 MHz gacha diapazonda yuz beradi.

MNP protokoli

ing. - maximum negative pressure (MNP) protocol

rus. - протокол MNP

Modemli aloqada ma'lumotlar uzatish sxemasini belgilaydigan protokol. Bu protokol bo'yicha ishlaydigan modem xatolar tuzatilishini va ma'lumotlar siqilishini amalga oshiradi. Protokol Microcom firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Mobile IP-protokoli

ing. - mobile IP

rus. - протокол mobile IP

IP-protokolini, Internet trafikni mobil foydalanuvchilarga qayta yo'llash imkonini beradigan tarzda kengaytirish. Texnologiya foydalanuvchining shaxsiy (korporativ) tarmog'ida, ham olisdagi tarmoqlarda joylashgan maxsus dasturiy agentlardan foydalanadi. Olisdagi tarmoqqa kirishda mobil foydalanuvchilar agent yordamida ro'yxatdan o'tadilar, undan so'ng ularning korporativ tarmog'idagi trafik turgan joy bo'yicha qayta yo'llanadi.

mP6

ing. - mP6

rus. - mP6

Rise Technology firmasi tomonidan ishlab chiqariladigan, arzon shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan protsessor turi.

MPE-FEC

ing. - MPE-FEC

rus. - MPE-FEC

Ko'p protokollni inkapsulyatsiya seksiyalari bo'yicha yetkazib berilgan dcytagrammalar uchun Rid-Solomon juftligini nazorat qilish ma'lumotlarini yetkazib berish usuli.

MPEG-1 videosignalini siqish usuli

ing. - MPEG-1 video signal compression method

rus. - метод сжатия видеосигнала MPEG-1
Raqamli videosignalni kodlash usuli, uni ifodalash uchun zarur bo'lgan bitlar soni 1,4 Mbit/s gacha pasayadi.

MPEG-2 profili

ing. - MPEG-2 profile

rus. - профиль MPEG-2

Kodlashning muayyan tizimini tashkil etuvchi, MPEG-2 standarti bo'yicha raqamli oqimni siqish qoidalarining to'plami.
Izoh - Oddiy, asosiy, ikkita mashtablanadigan, yuqori va professional profililar ajratiladi.

MPEG-2 standarti

ing. - MPEG-2 standard

rus. - стандарт MPEG-2

Siqilgan raqamli televizion videosignallar, tovush signallari va televizion axborot foydalanuvchisining ma'lumotlari to'plamini, raqamli paketlarni uzatish uchun mo'ljallangan oqimga multipleksorlash usullari bayon qilingan kodlash tizimi.

MPEG-2 videosignalini siqish usuli

ing. - MPEG-2 video signal

compression method

rus. - метод сжатия

видеосигнала MPEG-2

MPEG-1 ni siqishga nisbatan yuqori sifatlilikni siqish usuli versiyasi. DSS va DVD da foydalaniladi.

MS OFFICE

ing. - MS OFFICE

rus. - MS OFFICE

Hujjatga yo'naltirilgan ko'p funksiyali dasturiy mahsulot. Microsoft firmasi tomonidan ko'plab tashkiliy masalalarni avtomatlash-tirish uchun ishlab chiqilgan. MS Office tarkibiga quyidagi ilovalar kiradi: Word - matn redaktori, Excel - elektron jadvallar, Access - ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, Power Point - taqdimotlarni tayyorlash va o'tkazish tizimi. Barcha ilovalar amalda yagona interfeysga ega bo'lib, har qanday foydalanuvchi o'rganishi uchun qulay. Har bir ilovadan mustaqil foydalanilishi mumkin. Agar, standart vositalar bilan ilovani aniq bir vazifa uchun sozlash imkoni bo'lmasa, MS Office ga o'rnatilgan Visual BASIC for Application. Dasturlash tilidan foydalanilishi mumkin. MS Office Windows operatsion tizimi boshqaruvida va Apple firmasining kompyuterlarida ishlaydi.

MS-DOS operatsion tizimi**ing.** - MS-DOS**rus.** - операционная система MS-DOS

Microsoft va IBM korporatsiyalari tomonidan 1981-yilda IBM PC birinchi 16-razryadli shaxsiy kompyuter uchun ishlab chiqilgan operatsion tizim. OS/2 kabi boshqa operatsion tizimlarga o'xshab, u ham foydalanuvchining klaviaturada tergan komandalarini kompyuterda bajariladigan operatsiyalarga o'zgartiradi. MS-DOS bilan o'zaro bog'lanish komanda satridagi oynada amalga oshiriladi.

MSDSL texnologiyasi**ing.** - Multirate SDSL**rus.** - технология MSDSL

SDSL texnologiyasining takomillashtirilgan versiyasi, ma'lumotlar 64 Kbit/s dan 1152 Kbit/s gacha tezlikda uzatilishini ta'minlaydi.

MSIL tili**ing.** - microsoft

intermediate language (MSIL)

rus. - язык MSIL

CLR bilan mos kelgan holda, dasturning matnlarini ishga tushuruvchi oraliq darajadagi til. Java dan farqli ravishda, MSIL tushunarli til hisoblanmaydi. Kompilyatsiya natijasi CLR 2 da amalga oshiriladi.

Multilink PPP protokoli**ing.** - multilink point to

point protocol (Multilink PPP)

rus. - протокол Multilink PPP

Bir nechta PPP bog'lanishlarni birlashtiradigan protokol. Multilink PPP 112 Kbit/s yoki 128 Kbit/s yagona virtual raqamli bog'lanish hosil qilgan holda, ikkita 56 Kbit/s yoki 64 Kbit/s ISDN B-kanalni birlashtiradi.

MUMPS tili**ing.** - massachusetts general hospital utility multiprogramming system (MUMPS)**rus.** - язык MUMPS

1966-yilda tibbiy axborot tizimlari uchun ishlab chiqilgan. MUMPS rivojlanish natijasi - MUMPS-2 tili hisoblanadi.

Mylex**ing.** - Mylex**rus.** - Mylex

Tarmoq uskunalarini ishlab chiqaruvchi kompaniya.

META-tern**ing.** - Meta tags**rus.** - META-теги

Maxsus META-teglari, ular o'rtasida izlash serverlari uchun, ularda veb-server, sayt yoki sahifani qayd etishda kalit so'zlar joylashtiriladi. META-teglar muayyan mavzudagi axborotni izlashda saytni samarali taqdim etish uchun qo'llaniladi.

.Net**ing.** - .Net**rus.** - .Net

Veb-dasturlarni ham xuddi oddiy dasturlar singari tuzish imkonini beradigan dasturlash texnologiyasi (dastur tuzish uchun platforma sifatida dastlab Microsoft firmasi tomonidan tavsiya etilgan).

.Net framework**ing.** - .Net framework**rus.** - .Net framework

Microsoft .Net texnologiyasi bo'yicha ishlab chiqish uchun mo'ljallangan platformalardan birining nomi.

NAMPS standarti**ing.** - narrowband advanced**rus.** - стандарт NAMPS

mobile phone service (NAMPS)

Tor polosali mobil telefon aloqaning takomillashtirilgan xizmatlari. AMPS standarti mobil aloqa analog tizimining modifikatsiyalangan versiyasi bo'lib, u nutqni analog uzatishda raqamli signalizatsiyadan foydalanish hisobiga kengaytirilgan funksional imkoniyatlarga ega.

NBS sinov jadvali**ing.** - NBS lest chart**rus.** - испытательная таблица NBS

Teng kenglikdagi, lekin joylashishi va yo'naltirilganligi bo'yicha turlicha bo'lgan qora va oq polosalarning almashinishidan tashkil topgan aniqlikni tekshirish televizion jadvali.

NEC kompaniyasi**ing.** - NEC**rus.** - компания NEC

Protessorlar (VR turkumiga kiruvchi protessorlar), yarimo'tkazgichlar, elektron qu-rilmalar, aloqa vositalari, kompyuterlar va periferiyalar ishlab chiqaruvchi kompaniya, shuningdek unga tegishli savdo markasi.

Neptune

ing. - Neptune

rus. - Neptune

Windows 2000 asosida uyda foydalanishga mo'ljallangan operatsion tizimni ishlab chiqish loyihasi. Yagona beta-versiyasi 2000-yilning yanvarida namoyish etilgan, so'ngra loyiha yopilgan va Windows XP ustida ish boshlangan.

Nero Burning ROM

ing. - Nero Burning ROM

rus. - Nero Burning ROM

Kompyuter dasturlarining CD va DVD diskarga yozish hamda obrazlarini yaratish uchun mo'ljallangan ko'p funktsiyali tijorat paketi.

NEST operatsion tizimi

ing. - NEST operating system

rus. - операционная система NEST

Novell korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan sodda, ichki quriladigan operatsion tizim bo'lib, serverlardan tashqi qurilmalarga so'rovlarni yo'naltiradi.

Net BSD

ing. - Net BSD

rus. - Net BSD

UNIX operatsion tizimining erkin shakli bo'lib, BSD (Berkli universitetining UNIX tizimi)ga asoslangan tizimlardan birinchisi hisoblanadi. birinchi rasmiy NetBSD-0.8 versiyasi 1993-yil mayda chiqarilgan.

Net news

ing. - Net news

rus. - Net news

Internet global kompyuter tarmog'ining tarmoq yangiliklari xizmati. «Mijoz-server» arxitekturasiga ega. Foydalanuvchilarning turli mavzular bo'yicha elektron konferensiyalarda ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

NetLabs ochiq arxiv manbai

ing. - Netlabs Open Source Archive

rus. - открытый источник архива netlabs 1997-yilda asos solingan OS/2 operatsion tizimi uchun ochiq kodli dasturiy ta'minot arxivi. Hozirgi vaqtda joriy operatsion tizimda ishlovchilar uchun suhbatlashish markaziga aylanib qolgan.

NetPC spetsifikatsiyasi

ing. - NetPC

rus. - спецификация NetPC

Tarmoq shaxsiy kompyuteri lokal tarmoqlarda va Internetda Windows NT Server operatsion tizimi boshqaruvi ostida ishlashi uchun ega bo'ladigan xarakteristikalar va komponentlarning zarur to'plamini belgilaydigan spetsifikatsiya.

NetWare

ing. - NetWare

rus. - NetWare

Lokal hisoblash tizimlari uchun Novell firmasi tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq operatsion tizimi. Markazlashtirilgan, taqsimlangan va bir rangdagi tarmoqlar uchun chiqarilgan versiyalari mavjud. Eng keng tarqalgan tizimlardan biri. Net Ware 3-x va 4-x versiyalari ajratilgan serverli tarmoqlar uchun mo'ljallangan. 3-x va 4-x versiyalar asosan periferik qurilmalardan birgalikda ishlash imkoniyati bo'lgan, tez ishlaydigan fayl-serverli tizimlar sifatida loyihalashtirildi va rivojlantirildi.

NetWare kataloglarini

boshqarish xizmatlari dispatcheri

ing. - directory service

manager for NetWare

rus. - диспетчер сервисов

управления каталогами NetWare

Tizim administratoriga Windows NT domenlariga NetWare serverlarini qo'shish va ularni o'z vositalari bilan boshqarish imkonini beradigan Windows NT Server servising komponenti.

NetWare mijozlari uchun

fayl va printer xizmati

ing. - file and print services for NetWare

rus. - файловый и принтерный

сервис для клиентов NetWare

Windows NT Server boshqaruvida ishlaydigan kompyuterga NetWare mijoz-kompyuterlar uchun fayl va printer xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashga imkon beradigan Windows NT komponenti.

NetWare operatsion tizimi

ing. - operating system NetWare

rus. - операционная система NetWare

Novell kompaniyasining tarmoqlar uchun mo'ljallangan operatsion tizimi. Foydalanuvchilar va guruhlarining hisobga olish

ma'lumotlarini o'z ichiga oladigan Novell NetWare 3.x ma'lumotlar bazasi.

Network Computing

Devices kompaniyasi

ing. - Network Computing Devices

rus. - компания Network

Computing Devices

Windows-terminalini va tarmoq kompyuterlarini ishlab chiqaruvchi kompaniya.

NFC texnologiyasi

ing. - near field

communication (NFC) technology

rus. - технология NFC

Ta'sir doirasi kichik (10 sm gacha) bo'lgan, yuqori chastotali simsiz aloqani o'rnatish texnologiyasi. Qurilmalar o'rtasida aloqalar tutashganda yoki birmuncha masofada bo'lganda amalga oshiriladi. Shu paytning o'zida ISO 14443 standartini kontaktsiz kar-tochkalar va RFID bo'yicha oddiy kengaytirish hisoblanadi.

Nis.uz milliy axborot tizimi

ing. - national information system

rus. - национальная

информационная система nis.uz

Davlat organlarining axborot tizimlarini, tarmoq va hududiy axborot tizimlarini, shuningdek, yuridik vajismoniy shaxslarning axborot tizimlarini ichiga oladigan tizimlar majmui.

NLSP protokoli

ing. - network layer

security (NLSP) protocol

rus. - протокол NLSP

Ma'lumotlarning Netware muhitida uzatilishini ta'minlaydigan, tarmoqda optimal marshrut tanlash imkonini beradigan protokol. Novell firmasi tomonidan Netware tarmog'i uchun ishlab chiqilgan.

NSP texnologiyasi

ing. - technology NSP

rus. - технология NSP

Markaziy protsessordan foydalanishning yangi texnologiyasi, ba'zi qo'shimcha platalarsiz multimedia tizimlari qo'llanilishini ta'minlaydi. Texnologiya Intel korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, takt chastotasi 75 MHz dan kam bo'lmagan Pentium protsessorlariga asoslanadi; audio va video-signal qayta ishlanishi ta'minlanadigan

maxsus dasturiy ta'minot talab etiladi. NSP texnologiyasining ishlab chiqilishi shaxsiy kompyuterning yangi arxitekturasi paydo bo'lishiga olib kelishi kerak. Texnologiya-nomni inglizcha Native Signal Processing - signallarni tabiiy qayta ishlash so'zlaridan olingan.

NTFS fayl tizimi

ing. - NT File System (NTFS)

rus. - файловая система NTFS

Windows NT/2000/XP/2003/Vista obyektga yo'naltirilgan ilovalarni qo'llab quvvatlovchi fayl tizimi, unda fayllar foydalanuvchi yoki tizim tomonidan belgilangan xususiyatlarga ega obyekt sifatida qaraladi.

NVIDIA ION

ing. - NVIDIA ION

rus. - NVIDIA ION

NVIDIA kompaniyasi chipsetlari oilasi, netbuklar va nettoplar uchun mo'ljallangan platforma. Intel Atom (shu jumladan, ikki yadroli) protsessorlaridan va Ge Force 9400 M tizim logikasidan iborat. Chipsetlar DirectX 10 qo'llanilgan birgalikda integratsiyalangan videoyadro bilan jihozlangan. Chipsetlar bor-yo'g'i bitta mikrosxemani ichiga oladi, bu yechimlar sxemotexnikasini soddalashtiradi, energiya iste'moli va issiqlik ajralishini kamaytiradi.

Nvidia tizim vositalari

ing. - Nvidia sistem tools

rus. - системные инструменты Nvidia

Kompyuter tizimi komponentlarini sozlash, monitoring qilish, erkin foydalanish, jumladan, Windows dagi qulay boshqarish panellari yordamida kuchlanish va temperaturani nazorat qilish uchun mo'ljallangan utilitalar to'plami.

N-zvenoli model

ing. - N-tier model

rus. - N-звенноли модель

Hisoblash yuklamasining, ilovalarning bir necha serverida taqsimlanishidan foydalaniladigan mijoz-server modeli. Ikki zvenoli modelga qaraganda, mijoz o'rinlari sonini oshirish imkonini beradi.

Occam dasturlash tili

ing. - Occam

rus. - язык программирования Occam

Transpyuterlar va multitranspyuterli tizimlarni dasturlash uchun mo'ljallangan til.

ODA tarmoq xizmati

ing. - ODA network service

rus. - сетевая служба ода

Amaliy darajada joylashgan va matn, jadval, tasvir, nutqlarni o'zida aks ettirgan hujjatlar almashinuvini ta'minlovchi xizmat.

ODMA texnologiyasi

ing. - opportunity driven

multiple access (ODMA)

rus. - технология ODMA

UMTS tizimida foydalanish uchun ETSI tomonidan 1997-yilda tavsiya qilingan va CDMA/TDMA ni kod-vaqt bo'yicha ajratish usuliga asoslangan uyaali aloqa texnologiyasi. Ilgari bu usul E konsepsiyasi nomi bilan ma'lum edi. ODMA da qisqa zondlovchi paketlarni uzatish jarayoni maxsuslashtirilgan, uning yordamida mobil stansiya o'zining yaqin qo'shnilarini aniqlab oladi, bu unga yo mobil aloqa rejimida yoki tayanch stansiyani chetlab, qo'shni stansiyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash imkonini beradi.

OFDM modulyatsiya

ing. - orthogonal frequency division

multiplexing (OFDM)

rus. - модуляция OFDM

Modulyatsiyalash usuli, ortogonal chastotalar bo'yicha ajratish bilan multipleksorlash. Signal havo muhiti orqali uzatilishdan oldin, ko'plab quyi eltuvchilar bo'ylab taqsimlanadigan jarayon.

Izoh - 802.11 a va 802.11g standartlari simsiz lokal tarmoqlarining xarakteristikalarini yaxshilash maqsadida, shuningdek, ba'zi bir patentlangan simsiz regional tarmoqlarda foydalaniladi.

Off-line

ing. - off-line

rus. - off-line

«Onlayn» so'zining teskarisi, odatda, Internetga aloqasi bo'lmagan biror narsa yoki holatga nisbatan ishlatiladigan atama.

Off-line media

ing. - off-line media

rus. - off-line медиа

Boshqa bir uzoqdagi kompyuterga to'g'ridan-to'g'ri ulanmagan kommunikatsiya seansi. Bu holatda xatlarni olish yoki tayyorlangan xabarlarni uzatish individual dasturiy ta'minotning alohida komandalari orqali amalga oshiriladi.

OK

ing. - OK

rus. - OK

Asosan keyingi bosqichga o'tishga rozilikni yoki biror-bir operatsiyaning bajarilishini bildiradi.

OLE ixtisoslashtirilgan

boshqaruv elementlari

ing. - OLE control extensions (OCX)

rus. - специализированные

элементы управления OLE

Boshqa dasturlardan tushirilishi mumkin bo'lgan oddiy dasturiy asboblardan yoki katta amaliy tizimlarning bir qismi. OLE 2.0 texnologiyasining kengaytmasi hisoblanadi.

OLE nazorati

ing. - object linking and

embedding control (OLE control)

rus. - OLE контроль

OLE bazasi interfeysiga ega bo'lgan dasturlanadigan komponent-dasturlar, ularni boshqa dasturga osongina qo'shish mumkin. 1996-yildan boshlab ActiveX control deb ataladi.

OLE texnologiyasi

ing. - object linking and

embedding technology

rus. - технология OLE

Bir ilova tomonidan tuzilgan obyekt, elektron jadval yoki matn redaktorining fayli kabi boshqa bir ilova tomonidan tuzilgan hujjatga kiritish orqali, ilovalarning ma'lumotlardan birgalikda foydalanish va almashinish usuli. Obyektning qabul qiladigan hujjat mijoz, yetkazib beradigan server deb ataladi. OLE (Object Linking and Embedding - obyektning bog'lash va ulash) texnologiyasi Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Windows muhitida ishlaydi.

Olicom

ing. - olicom

rus. - olicom

Tarmoq jihozlarini ishlab chiqaruvchi Kanada kompaniyasi.

Olivetti

ing. - olivetti

rus. - olivetti

Mikrokompyuterlar ishlab chiqaruvchi korporatsiya.

On-line-maslahatchi

ing. - online-consultant

rus. - online-консультант

Foydalanuvchilarni onlayn yordam bilan ta'minlash, saytda turli mavzularni o'rnatish uchun maxsus mo'ljallangan dasturiy ta'minot.

On-line медиа

ing. - on-line media

rus. - On-line медиа

FTP, Gopher, WWW Internet protokollarini qo'llagan holda masofadagi foydalanuvchiga ma'lumotlar uzatish bilan bog'liq real vaqt rejimidagi kommunikatsiya seansi.

Open Server operatsion tizimi

ing. - Open Server operating system

rus. - операционная система Open Server
Unix operatsion tizimining Santa Cruz Operation korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan versiyasi bo'lib, u banklar, savdo tashkilotlari va hukumat muassasalari uchun mo'ljallangan. Open Server yuqori samaradorligi, tizim buzilishlariga nisbatan turg'unligi, katta fayllar bilan ishlashda oddiyliги, disklarni rezervlash va uzluksiz elektr ta'minotining manbaini nazorat qilishi bilan tavsiflanadi.

Open Solaris

ing. - open Solaris

rus. - open Solaris

Sun Microsystems kompaniyasining ochiq boshlangich kodli Solaris operatsion tizimini ishlab chiqish bo'yicha loyihasi.

OpenGL tasnifi

ing. - open graphics library (language)

rus. - спецификация OpenGL

Silicon Graphics kompaniyasining uch o'lchovli grafikasi va tasniflari standartlashtirilgan kichik dasturlarining va funksiyalarining erkin tarqatiladigan bibliotekasi. 80-yillar oxirlarida shu kompaniyaning IRIX nomli operatsion tizimi ishchi stansiyalarining 3D grafik API lari uchun ishlab chiqilgan.

Opera

ing. - opera

rus. - opera

Norvegiyada ishlab chiqilgan krossplatformali, multitable brauzer. Mahsulotning birinchi versiyasi 1994-yilda paydo bo'lgan.

Avval tijorat maqsadida ishlab chiqilgan, lekin 8.50 versiyasidan boshlab bepul bo'ldi. Brauzerning afzalliklari uni tez ishlashi va boshqaruv sozlashlarini, ham klaviatura yordamida, ham «sichqoncha»da to'g'rilay olish yengilligidir.

Orbcomm tizimi

ing. - Orbcomm system

rus. - система Orbcomm

Orbital Sciences (AQSh) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2000 yildan buyon ishlatib kelinayotgan yo'ldoshli mobil aloqa tizimining nomi. Tizimda 825 km balandlikdagi past orbitaga chiqarilgan, og'irligi 43 kg bo'lgan yengil yo'ldoshlardan foydalaniladi. Abonentlar ma'lumotlari (148-150) MHz (liniya «yuqoriga») chastotalar diapazonida 2,4 Kbit/s tezlik bilan uzatishlari va (137-138) MHz (liniya «pastga») chastotalar diapazonida 4,8 Kbit/s tezlik bilan qabul qilishlari mumkin.

OS/2 operatsion tizimi

ing. - OS/2 operating system

rus. - операционная система OS/2

IBM korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan operatsion tizim. Bir vaqtning o'zida ko'plab amaliy dasturlarni ishlatish, bitta amaliy dasturning bir necha vazifasi parallel bajarilishini, tashqi xotiraga ma'lumotlarni yozishda ularning zichlashtirilishini, zaxira nusxalar tashkillashtirilishini, xotira himoyasini, milliy tillarning qo'llanilishini ta'minlaydi.

OSI etalon modeli

ing. - OSI reference model

rus. - эталонная модель OSI

ISO va ITU-T tomonidan ishlab chiqilgan, tarmoqning arxitektura modeli. Model yetti sathdan tashkil topgan, ulardan har biri aniq tarmoq funksiyasini: manzillash, oqimni boshqarish, xatolarni boshqarish, inkapsulyatsiya va xabarlarini ishonchli jo'natishni belgilaydi. Eng quyi (fizik) sath boshqalarga qaraganda ma'lumotlar uzatish muhiti texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Ikki quyi sath apparat va dasturiy, yuqori besh sath esa - faqat dasturiy amalga oshiriladi. Eng yuqori sath (ilovalar sathi) foydalanuvchiga hammadan yaqin turadi. OSI etalon modeli, tarmoq orqali amalga oshiriladigan funksiyalarni tushuntirish va o'rganish usuli sifatida universal qo'llaniladi. Ba'zi jihatlari

bilan u SNA arxitektura modeliga o'xshab ketadi.

Osiris serversiz portal tizimi

ing. - Osiris serverless portal system

rus. - бессерверная

портальная система Osiris

Markazlashtirilgan serverlarga bog'liq bo'lmagan va P2P vositasida tarqatiladigan veb-portallarni yaratish va ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan bepul dastur.

Outlook

ing. - outlook

rus. - outlook

Microsoft Office dasturlari paketiga kiradigan, pochta mijosi va Maykrosoft kompaniyasining Groupware funksiyalariga ega organayzer dasturi.

Outlook Express

ing. - outlook Express

rus. - outlook Express

Maykrosoft kompaniyasining elektron pochta va yangiliklar guruhlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan dastur.

Parser

ing. - parser

rus. - parser

Sintaktik tahlil qilish vazifasini bajaradigan dastur yoki dastur qismi.

Pause Break klavishi

ing. - break key

rus. - клавиша Pause Break

Bosilishi, kompyuter o'z ishini to'xtatishi yoki joriy dasturning bajarilishi to'xtatib qo'yilishini bildiradigan klavish.

PCI Express shinasidagi mobil modul

ing. - mobile PCI Express module (MXM)

rus. - мобильный

модуль на шине PCI Express

Nvidia kompaniyasi va bir qancha mobil kompyuterlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan PCI Express shinasidan foydalaniladigan leptoplardagi grafik protsessorlar uchun belgilangan birgalikda ishlash standarti.

PCI shinasi

ing. - peripheral component

interconnect (PCI)

rus. - шина PCI

Unumdorligi yuqori bo'lgan (528 MB/s

gacha), markaziy protsessor bilan periferik qurilmalar o'rtasida ma'lumotlar yuborish uchun mo'ljallangan, 32 va 64 razryadli lokal shina.

PC-karta kengaytirish platasi

ing. - PC card

rus. - плата расширения PC-карта

Maxsus tashqi razyomga o'rnatiladigan icham plata. Kompyuter unumdorligi oshishini yoki funksional imkoniyatlari kengayishini ta'minlaydi. Modem qattiq disk kabi periferik kompyuter qurilmasini yoki ma'lumotlar saqlash qurilmasini o'zida ifodalaydi.

PCMCIA standarti

ing. - PCMCIA standart

rus. - стандарт PCMCIA

Tashqi qurilmalar (xotira, modemlar)ni bloknotli kompyuterlarga ulash uchun kartalar interfeysi va o'lchamlarini belgilaydigan standart. PCMCIA standartining yangi versiyasi. Uzatish tezligini 133 Mbyte/s gacha ta'minlay oladigan 32-razryadli shina interfeysi - CardBus qo'llaniladi; energiya iste'molini boshqarish vositalariga ega, xotiradan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish mumkin, ko'p funksional kartalarni qo'llaydi.

Lzob - O'zaro yuqoridan pastga moslashtirilgan PCMCIA - I, II, III kartalar (platalar) turi mavjud. I turdagi platalardan xotiraning turli xillarini ulash uchun foydalaniladi. qalinligi 3,3 mm II turdagi platalardan turli xil kintish/chiqarish qurilmalarini, egiluvchan magnit diskdagi to'plagichlarni, modemlar, tarmoq platalarini ulash uchun foydalaniladi. qalinligi chetlarida 3,3 mm. o'rtasida 5 mm III turdagi platalardan qattiq diskovodlarning turli xillarini, peyjerlarni ulash uchun foydalaniladi. qalinligi chetlarida 3,3 mm, o'rtasida 10 mm.

PCO-X shinasi

ing. - PCO-X

rus. - шина PCO-X

PCI shinasiga teskari mos keladigan 64 razryadli parallel shina. Takt chastotasi - 133 MGZ, o'tkazish qobiliyati 1,06 GB /s gacha. Serverlarda qo'llaniladi.

PCS 1900 shaxsiy aloqa xizmati

ing. - personal communications

services 1900 (PCS 1900)

rus. - служба персональной

связи PCS 1900

1900 MHz chastotalar diapazonidagi shaxsiy aloqa xizmati.

PDF

ing. - Portable Document Format (PDF)

rus. - PDF

Poligrafiya mahsulotlarini elektron ko'rinishda taqdim etishga mo'ljallangan format. PDF formati kerakli shriftlar, rasmlar va shakllarni qo'llash imkonini beradi. Bu formatda zamonaviy hujjatlarning katta qismi tarqatiladi.

Pentium

ing. - Pentium

rus. - Pentium

Intel firmasining ishlanmasi bo'lgan mikroprotessorlar turkumi, 32 razryadli manzil shinasini va 64 razryadli ma'lumotlar shinasiga ega.

Pentium III

ing. - Pentium III

rus. - Pentium III

Intel firmasining protessori. 1999-yilda chiqarilgan. Coppermine yadrosi bilan 0,18 μ m texnologiya bo'yicha, Tualatin yadrosi bilan 0,13 μ m texnologiya bo'yicha tayyorlangan. Ishchi chastotasi 533 MHz dan 1260 MHz gacha bo'lgan versiyalar chiqariladi. Protessor chastotasi 100-133 MHz bo'lgan «chipset-protessor» shinasidan (tizim shinasini) foydalanadi. Birinchi sath keshi xotira 32 kbyte, ikkinchi sath kesh-xotira 256 kbyte. Protessorning ta'minot kuchlanishi 1,7 V. Tranzistorlar soni – 28 mln.

Pentium IV

ing. - Pentium IV

rus. - Pentium IV

Intel firmasining protessori. 2001-yilda chiqarilgan. 0,18 μ m va 0,13 μ m texnologiyasi bo'yicha tayyorlangan. Ishchi chastotasi 1,3 GHz dan 2,4 GHz gacha bo'lgan versiyalar chiqariladi. Protessor chastotasi 400 MHz bo'lgan «chipset-protessor» shinasidan (tizim shinasini) foydalanadi. Birinchi daraja kesh-xotirasi 8 kbyte, ikkinchi daraja kesh-xotirasi – 256 kbyte. Protessorning ta'minot kuchlanishi 1,7 V va 1,3 V. Tranzistorlar soni – 42 mln.

Pentium mover drive

ing. - pentium mover drive

rus. - pentium mover drive

Pentium arxitekturasiga ega bo'lgan integral sxema. i486 protessorli kompyuterlarni modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan.

Perl arxivlarining

keng qamrovli tarmog'i

ing. - comprehensive perl

archive network (CPAN)

rus. - всеобъемлющая сеть архивов Perl
Perl tilida yozilgan dasturiy ta'minotning katta arxivi.

Personal Computer Interface

ing. - personal computer interface (PCI)

rus. - personal computer interface

Tizim shinasining, unga protessor, xotira, disklar, printer, modem va kompyuter tizimining boshqa tashqi qurilmalari ulangan, eng keng tarqalgan turi.

PGML tili

ing. - precision graphics

markup language (PGML)

rus. - язык PGML

Ustunimon diagrammalar, interfeys elementlari va logotiplarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan til.

PhishTank

ing. - PhishTank

rus. - PhishTank

Hamjamiyatning birgalikdagi ishidan foydalanuvchi fishing (Internet-fribgarlik) ga qarshi kurashga yo'naltirilgan xizmat turlaridan biri.

Ping

ing. - packet internet groper (Ping)

rus. - ping

Tamoqdagi bitta yoki bir nechta bir-biridan uzoqda joylashgan kompyuterlar bilan aloqani tekshiruvchi xizmat dasturi. Ping xizmat dasturi tarmoqqa ulangan va IP-protokolini ishlatuvchi kompyuterlarning ishga yaroqliligini tekshirish uchun aks sado so'rov va aks sado javob ICMP protokolining paketlaridan foydalanadi. IP-tarmog'ini yoki marshrutizator buzilishlarini diagnostika qilishda ping xizmat dasturidan foydalanish qulay.

PIN-kod

ing. - PIN

rus. - пин код (PIN-код)

Biror narsadan, masalan mobil telefondan foydalanish kodi.

Izoh – Bu atama nafaqat mobil aloqada, balki bank sohasida (masalan, kredit kartochkasidan foydalanish uchun), shuningdek, peyjing aloqa operatorlari va h.k. lar tomonidan ham ishlatiladi.

PL/M tili

ing. - PL/M

rus. - язык PL/M

Protsecuraviy mashinaga yo'naltirilgan tilyuqori daraja tili. Microcomputers Applications Associates firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pop-Port interfeysi

ing. - Pop-Port

rus. - интерфейс Pop-Port

Nokia telefonlarida foydalaniladigan interfeys.

Izoh — Bir nechta operatsiyada, masalan, qurilmani USB kabel yordamida ShK bilan ulashda, telefonni zaryadlashda, stereo garniturani ulashda qo'llanilishi mumkin. Pop-Port bitta qulay interfeys doirasida bir nechta funksiyani birlashtiradi. Masalan, qulaylik bilan raqamli kamerani, musiqa-
li pleyerni va stereo eshitish vositalarni kiritilgan telefon menyusi orqali boshqarish mumkin. Bundan tashqari, interfeys Nokia telefonlari interfeysi sifatida e'tirof qilingan, bu tashqi qurilmalarni yanada «intelektual tarzda» boshqarish imkonini beradi.

Postscript

ing. - postscript

rus. - postscript

Adobe Systems tomonidan lazer printerlarida chop etish uchun ishlab chiqarilgan sahifalarni tavsiflash tili (PDL).

Power PC

ing. - Power PC

rus. - Power PC

Kompyuterlar uchun markaziy protsektor sifatida foydalaniladigan mikroprotsektor. Intel protsektorlariga muqobil sifatida IBM, Motorola va Apple firmalari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan.

Power-On Self-Test

ing. - power-on self-test

rus. - power-on self-test

Kompyuterni ishga tushirishning dastlabki bosqichi — apparat ta'minotini testdan o'tkazish. Bu jarayon kompyuterni ulashda ona plataning BIOS dasturlarini terish orqali bajariladi.

PPP protokoli

ing. - point-to-point protocol (PPP)

rus. - протокол PPP

Bevosita ulanish aloqa kanalining protokoli,

«nuqta-nuqta» ulanish protokoli, kommutatsion va ajratilgan telefon kanallari orqali IP-paketlarni uzatish uchun mo'ljallangan PPP protokoli. TCP/IP protokoli tarkibidagi protokollardan biri. SLIP protokolinig o'miga ishlab chiqarilgan, solishtirilganda bir qator ustunliklarga ega: kanalni dinamik sozlashni ta'minlaydi, PAP va CHAP protokollari bo'yicha avtomatik autentifikatsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

P-pseudokadr

ing. - p-pseudo frame; predictive picture

rus. - p-псевдокадр

Televizion tasvirning avval keluvchi tayanch kadrlari yoki maydonlari bo'yicha harakatni kompensatsiyalash bilan taxminlash usulida shakllanadigan pseudokadr.

PPTP protokoli

ing. - point-to-point tunneling

protocol (PPTP)

rus. - протокол PPTP

Uzellar (nuqta-nuqta) oraliq'ida tunnellash protokoli. Xususiyy virtual tarmoqda foydalaniladigan to'rtta protokoldan (L2TP, RSVP, VPN) biri. PPP paketlarini qobiqqa o'rash yo'li bilan kriptografik himoyalangan bog'lanishni tuzishni ta'minlaydi. 3Com, ECI Telematics International, Microsoft korporatsiyalari tomonidan ishlab chiqilgan va ilgari surilyapti.

Print Screen klavishasi

ing. - Print Screen key

rus. - клавиша Print Screen

Ekkranda turgan ma'lumotlarni rasm ko'rinishida bufer xotirada saqlash imkonini beradigan klavisha. Bufer xotirasidagi rasmni Paint redaktori yordamida tahrir qilish yoki faylda saqlash mumkin.

Prolog

ing. - Prolog

rus. - Пролог

Sun'iy intellekt masalalari, tabiiy tillarni qayta ishlash va b.lar uchun mo'ljallangan deklarativ dasturlash tili.

PS/2 porti

ing. - PS/2

rus. - порт PS/2

«Sichqoncha» va klaviatura ulanishi uchun mo'ljallangan port.

PSCRIPT1 ma'lumotlar turi

ing. - PSCRIPT1

rus. - тип данных PSCRIPT1

PSCRIPT1 ma'lumotlari Postscript ma'lumotlari hisoblanadi. Ular Postscriptni qo'llab-quvvatlamaydigan printerlarda chop etish uchun mo'ljallangan. Chop etish protsessori Postscript komandalarini interpretatsiya qiladi va natijada RAW-faylga formatlangan natijani yozadi.

PSDN

ing. - public-switched data network (PSDN)

rus. - PSDN

Umumiy foydalanishdagi ma'lumotlar uzatishning kommutatsiyalanadigan tarmog'i.

PTT texnologiyasi

ing. - push-to-talk (PTT)

rus. - технология PTT

IP Multimedia Subsystem (IMS) texnologiyasi asosida yaratilgan texnologiya. Foydalanuvchiga, o'zining mobil telefonidan ratsiya sifatida foydalanish imkonini beradi. Muloqot qilish prinsipi ratsiyada bo'lgani kabi. Biroq, bu texnologiya faqat ikki foydalanuvchining o'zaro muloqoti bilan cheklanib qolmaydi. U bir paytda odamlar guruhi bilan ham muloqot qilish imkonini beradi. Foydalanuvchi do'stlar (bog'lanishlar) ro'yxatini tuzishi va real vaqtda online da kim borligini ko'rishi hamda kim bilan gaplashishni tanlashi mumkin. Push To Talk texnologiyasining ratsiyadan farq qiladigan yagona jihati, u mobil aloqa operatori tomonidan qo'llanilishi kerak.

PURL

ing. - persistent uniform

resource locator (PURL)

rus. - PURL

Resursning (turgan joyini aniqlaydigan) doimiy bir xil lokatori.

Python dasturlash tili

ing. - Python

rus. - язык программирования Python

Internet ilovalarni yozishda ssenariyalar tili sifatida qo'llaniladigan, mukammal, obyektga yo'naltirilgan yuqori daraja tili.

Q-Bus

ing. - Q-Bus

rus. - Q-Bus

Digital Equipment Corporation firmasining Micro VAX va PDP-11 kompyuterlarida

qo'llaniladigan shinalarning bir turi. Unibus shinasining arzonlashtirilgan varianti bo'lgan Q-Bus da multipleksorlashdan foydalaniladi, shu sababli, ma'lumotlar liniyalari va manzillarda ham ayni shu kontaktlardan foydalaniladi. Bu, amalda funkcionallik saqlangan holda, o'Ichamni kichraytirish, konstruktsiyani arzonlashtirish imkonini berdi. Birmuncha vaqt o'tgandan keyin, shinninganzil fazosi 16 bit dan 18 bit gacha, keyin 22 bit gacha oshirildi. Shuningdek, ma'lumotlar blokklarini yuborish rejimi qo'shildi.

Qi standarti

ing. - standart Qi

rus. - стандарт Qi

Ta'minot standarti, uning doirasida energiya induksiya vositalari orqali 4 sm gacha masofaga uzatiladi. Qi apparat ta'minoti uzatgich va uning plastinasi bilan amalga oshiriladi hamda ulangan qurilmadagi qabul qilgich bilan mostashtirilgan. Qi standarti uchun foydalaniladigan quvvatning ikki varianti ko'zda tutilgan: 0 dan 5 W gacha; 120 W gacha.

QoS o'lchovlar tizimi

ing. - quality of service (QoS)

rus. - Система мер QoS

Kafolatlangan o'tkazish polosalarini (ma'lumotlar uzatish tezliklarini) ta'minlash maqsadida, zamonaviy yuqori tezlikli ma'lumotlar uzatish tarmoqlarida qo'llaniladigan o'lchovlar tizimi.

QuickTime

ing. - QuickTime

rus. - QuickTime

Apple firmasining Macintosh kompyuterlaridagi OS System 7 operatsion tizimi kengaytmasi. OS System 7 da videofayllar formati, dinamik multimedia-ma'lumotlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

Qwerty klaviaturasi

ing. - Qwerty keyboard

rus. - клавиатура Qwerty

q, w, e, r, t, y harflari yuqori qatorda joylashgan standart klaviatura.

Race condition

ing. - race condition

rus. - race condition

Parallel jarayonlardan umumiy ma'lumotlarga o'tishdagi kelishilmagan foydalana olish.

RADIX-50

ing. - RADIX-50

rus. - RADIX-50

Bitta 16 bitli so'zda uchta simvolni yozish imkonini beradigan simvol kodi. Asosan, mini kompyuterlarda, RT-11 va RSX-11 operatsion tizimlarning fayl tizimlarida fayllar nomi, obyekt modullari va bibliotekalarda o'zgaruvchilar modullar nomlarini saqlash uchun foydalanilgan.

RAID disklar massivi

ing. - RAID disk array

rus. - массив дисков RAID

Konstruktiv jihatdan umumiy intellektual kontrollerli bitta blokka birlashtirilgan qat'iq diskovodlar to'plami. Odatda, serverlarda, ma'lumotlarning takrorlanishi hisobiga ishonchlikni oshirish maqsadida foydalaniladi. RAID ni amalga oshirishning, bir-biridan ortiqchalik darajasi, foydalanish usuli bilan farq qiladigan sakkiz darajasi (0 dan 7 gacha bo'lgan) mavjud. Yettinchi daraja standarti operatsion tizimning o'zi tomonidan ta'minlanadi va yuqori unumdorlikka ega. Inglizcha Redundant Arrays of Inexpensive Disks - ortiqchalikka ega uncha qimmat bo'lmagan disklar massivi so'zlaridan olingan.

RAM SSD

ing. - RAM SSD

rus. - РАМ SSD

Energiyaga bog'liq xotiradan foydalanish asosiga qurilgan to'plagichlar, axborotni o'ta tez o'qish, yozib olish va izlab topish bilan tavsiflanadi. Asosan, katta quvvatli grafik stansiyalarning va yirik ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarining ishini tezlashtirish uchun foydalaniladi. Bunday to'plagichlar, odatda, ta'minot yo'qolganda ma'lumotlarni saqlash uchun akkumulyatorlar bilan, bir-muncha qimmat turadigan modellar - zaxira va/yoki tezkor nusxa ko'chirish tizimlari bilan ta'minlangan.

RAR

ing. - RAR

rus. - RAR

Ma'lumotlarni siqish formati. Dasturchi Yevgeniy Roshal tomonidan ishlab chiqilgan. Arxiv bilan ishlash dasturlari shartli-bepul tarqatiladi. RAR algoritmi siqishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi.

RCA turidagi ulagich-rozetka

ing. - RCA type connector-wall-plug

rus. - соединитель-розетка типа RCA

Audio hamda videokomponentlarda foydalaniladigan ajratgich. Bunday ajratgichlar orqali liniya darajasida tovush signallari shuningdek, kompozit va komponent video-signal uzatiladi.

RDRAM

ing. - RDRAM

rus. - RDRAM

Rambus kompaniyasi tomonidan Intel bilan hamkorlikda 1996 yilda ishlab chiqilgan tezkor xotira standarti. Xotiraning o'tkazish qobiliyati 1 Gbite/s, keyinchalik 4 Gbite/s.

RDS standarti

ing. - radio data system (RDS)

rus. - стандарт RDS

Radiostansiyalarning uzatgichlari orqali raqamli matni uzatish xalqaro standarti.

Read-only memory of the basic input-output system

ing. - Read-only memory of the

basic input-output system (ROM BIOS)

rus. - Read-only memory of the

basic input-output system

Kompyuter tizimi modulining BIOS tarkibiga kiradigan, kompyuter ulangandan so'ng bevosita boshqaruv unga o'tkaziladigan doimiy xotirasi. Apparatura modullari uchun drayverlarning bir qismini o'z ichiga oladi.

Receive

ing. - receive

rus. - receive

Boshqa jarayondan xabarni olish operatsiyasi.

Red Hat

ing. - Red Hat

rus. - Red Hat

1993-yilda asos solingan AQSh dagi kompaniya. Linux ning Red Hat Enterprise Linux nomli tijorat versiyasini va uning Fedora Core nomli bepul versiyasini, shuningdek, ochiq kodga asoslangan boshqa dasturiy mahsulotlarni ham ishlab chiqaradi.

RIMM

ing. - RIMM

rus. - RIMM

Rambus kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 232 kontaktkli xotira modulining

formati. Juda katta tezlikda ma'lumotlarni uzatish imkoniga ega, hozirgi vaqtda amalda qo'llanilmaydi.

RLL texnologiyasi

ing. - radio local loop (RLL)

rus. - технология RLL

Olisdan bog'lanish va «oxirgi mil» muammosini hal etish imkonini beradigan, simsiz foydalanish texnologiyasi.

RLL/WLL texnologiyasi

ing. - radio in the local loop/wireless

local loop (RLL/ WLL)

rus. - технология RLL/WLL

Abonentlarning umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'iga kirishi amalga oshiriladigan, radioaloqa texnologiyasi. Bu turdagi texnologiyadan, shuningdek, o'zining tarmog'iga ega bo'lmagan operatorlar ham foydalanadilar.

Roll out/roll in

ing. - roll out/roll in

rus. - roll out/roll in

Ustuvorliklar bazasidagi xotiradan diskka va diskdan xotiraga ko'chirish. Yuqori ustuvor jarayonlar bajariladi, ustuvorligi pastroqlari esa diskka ko'chiriladi.

Root

ing. - Root

rus. - Root

UNIX turidagi operatsion tizimlardagi maxsus akkaunt, uning egasi barcha dasturlarni ishga tushirish huquqiga ega. Bunday sxema boshqarishni yengillashtirish uchun o'ylab topilgan.

Round Robin strategiyasi

ing. - strategy Round Robin

rus. - стратегия Round Robin

Barcha jarayonlarga navbati bilan vaqtning bir xil kvantlari beriladigan dispatcherizatsiya strategiyasi.

RS-232 interfeysi

ing. - RS-232 (Recommended Standart 232)

rus. - интерфейс RS-232

Asinxron aloqani qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlarni ikki yo'nalishli ketma-ket uzatish uchun mo'ljallangan standart interfeysi.

RS-422 protokoli (interfeysi)

ing. - RS-422

rus. - протокол (интерфейс) RS-422

Ma'lumotlarni asinxron uzatish uchun

mo'ljallangan EIA standarti. Kabel uzunligi o'n besh metrdan uzun bo'lganda, RS-232C o'miga tavsiya qilinadi. Macintosh shaxsiy kompyuteri uzviy portida ishlatiladi. 900 kbit/s gacha bo'lgan uzatish tezligini ta'minlaydi.

RSA kodlash

ing. - RSA encryption

rus. - RSA кодирование

Ochiq kalitlar bilan assimetrik shifrlash algoritmi.

RSS

ing. - rich site summary (RSS)

rus. - RSS

Yangiliklar tasmasi, maqolalar anonsi, bloglarlardagi o'zgarishlarni tavsiflash uchun mo'ljallangan XML-formatdagi fayllar oilasi. Turli manbalardan olinadigan RSS formatidagi ma'lumotlar maxsus aggregator-dasturlar yordamida yig'iladi, qayta ishlanadi va foydalanuvchiga qulay bo'lgan ko'rinishda taqdim etiladi.

RSXI xendover

ing. - RSSI handover

rus. - хэндовер RSSI

RSXI darajasini o'lchash asosidagi xendover. Ikki va undan ortiq tayanch stansiyadan keladigan signal darajasini o'lchashga asoslangan, abonent stansiyasini qayta ulash protsedurasini, tebranma jarayon (tez-tez qayta ulash)ning oldini olish maqsadida, qayta ulash darhol emas, balki muayyan gisterezis bilan, ya'ni bir signal boshqasidan qat'iy oshib borganda amalga oshiriladi.

RTLInux

ing. - RTLinux

rus. - RTLinux

Mikroyadroli qat'iy real vaqt operatsion tizimi. RTLinux ustidagi ishlar 2007-yilda tugallangan.

RUIM-karta

ing. - RUIM-card (removable user identity module)

rus. - RUIM-карта

CDMA tarmoqlaridagi SIM-karta analogi. Dongllarda (USB-modemlarda va h.k.) foydalaniladi.

S/MIME protokoli

ing. - secure MIME (S/MIME)

rus. - протокол S/MIME

RSA Data Security kompaniyasi tomonidan

ishlab chiqilgan elektron pochta xavfsiz uzatish protokoli. Ko'pgina ommaviy pochta dasturlarida, masalan, Netscape Messenger va Microsoft Exchageda qo'llaniladi. S/MIME xatlarini shifrlashda simmetrik algoritmlardan foydalanadi, unga qo'shiladigan kalit esa asimmetrik algoritim orqali hosil qilinadi.

SADT diagrammasi

ing. - SADT diagram

rus. - диаграмма SADT

Modellashtirish jarayonini integratsiyalovchi, loyiha konfiguratsiyasini boshqarishni, qo'shimcha til vositalaridan foydalanishni va o'z grafik tiliga ega loyihaga rahbarlikni amalga oshiruvchi tarkibiy tahlil va loyihalashtirish uslubi.

S-AIT standarti

ing. - super advanced intelligent tape, super-AIT (S-AIT)

rus. - стандарт S-AIT

Sony kompaniyasining tasmasli to'plagichlari va magnit tasmalardagi ko'plab ishlab chiqariladigan xotira tizimlari uchun AIT standartining rivojlanishi. Apparat orqali siqish amalga oshirilganda SAIT-1 standartidagi bitta kassetaning maksimal sig'imini 1,3 Tbit gacha yetkazish mumkin bo'ladi. O'rnatilgan rejimda yozish tezligi 30 Mbyte/s ni tashkil etadi.

Sandy Bridge

ing. - Sandy Bridge

rus. - Sandy Bridge

Intel firmasi tomonidan ishlab chiqilgan markaziy protsessorlar mikroarxitekturasi. 32 razryadli texnologik jarayonga asoslangan, o'rnatilgan videotezlatgichni ichiga oladi.

SARC

ing. - symantec antivirus research center (SARC)

rus. - SARC

Symantec korporatsiyasining virusga qarshi tadqiqot markazi.

SAS Institute kompaniyasi

ing. - SAS Institute

rus. - компания SAS Institute

Dasturiy ta'minot, jumladan, ma'lumotlar omborini ishlab chiqaruvchi kompaniya.

SASA

ing. - sybase adaptive server anywhere (SASA)

rus. - SASA

Kompakt mobil kompyuterlar uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi.

S-Bus

ing. - S-Bus

rus. - S-Bus

Yuqori tezlikli SPARC protsessorlari uchun mo'ljallangan yuqori tezlikli shina. 1989-yilda Sun Microsystems tomonidan taqdim qilingan. Hozirgi kunda S-Bus dan foydalanilmaydi.

SCSI-3 asosiy komandalari

ing. - SCSI-3 Primary Commands (SPC)

rus. - базовые команды SCSI-3

«Savol-javob» umumiy tamoyilga asoslangan, SCSI quirmalarning barcha modellari uchun umumiy bo'lgan asosiy komandalar to'plami.

SDK

ing. - SDK

rus. - SDK

Dasturiy ta'minot ishlab chiqish uchun mo'ljallangan vositalar to'plami. Dasturiy ta'minot yaratish jarayonini osonlashtiradi. Ishlab chiqish vositalari, utilitalar va hujjatlardan iborat bo'ladi.

SDR texnologiyasi

ing. - software defined radio (SDR)

rus. - технология SDR

Tayanch stansiyalarga radioqabulqilgichdan foydalanib, barcha turdagi (GSM/UMTS/CDMA/WiFi/ WiMax) signallarni qabul qilish imkonini beradigan texnologiya.

Shortest Job First strategiyasi

ing. - strategy Shortest Job First

rus. - стратегия Shortest Job First

Protsessor birinchi navbatda tizimdagi mavjud eng qisqa jarayonga beriladigan protsesorning dispatcherizatsiya strategiyasi.

SIM-karta

ing. - subscriber identity module (SIM)

rus. - сим карта (SIM-карта)

GSM standartidagi mobil aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi ma'lum bir abonent to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan chipi bo'lgan ixcham plastik karta. Izoh - Uning yordamida tarmoqdagi foydalanuvchini

barcha identifikatsiya qilish funksiyalari bajariladi (bir vaqtda «qiyofadosh» borligi tekshiriladi), abonentning haqiqiyliги, tayanch stansiya bilan aloqa tekshiriladi. SIM-kartada, shuningdek, apparatning tarmoqda ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha ko'rsatmalar ham bo'ladi. SIM-karta har uchala modifikatsiyalar – GSM-900, GSM-1800 va GSM-1900lar uchun bir xil. SIM-kartasiz va PIN-kodni bilmay turib, telefondan foydalanish mumkin emas. Apparatdan foydalanuvchi PIN-kodni uch marta ketma-ket noto'g'ri tersa, SIM-karta vaqtincha blokirovka qilinadi. Vaqtincha blokirovka qilingan SIM-kartani 8 belgili PUK-kod yordamida blokirovkadan chiqarish mumkin. PUK-kod yordamida faqat 10 marta ketma-ket blokirovkadan chiqarish mumkin, undan keyin SIM-karta to'liq blokirovka qilinadi.

SIMULA dasturlash tili

ing. - SIMULA language

rus. - язык программирования SIMULA
Murakkab tizimlarni modellashtirish tili. O'tgan asrning 60-yillari boshida ishlab chiqilgan. Obyektga yo'naltirilgan til. Keyingi varianti – Simula-67.

Sinclair QI

ing. - Sinclair QI

rus. - Sinclair QI

1984-yili Sinclair Research kompaniyasi tomonidan ZX Spectrum ning davomchisi sifatida chiqarilgan shaxsiy kompyuter. Sinclair QI havaskorlar auditoriyasiga, shuningdek kichik biznesga moljallangan, lekin tijorat muvaffaqiyatiga erisha olmagan.

Sinclair ZX81

ing. - Sinclair ZX81

rus. - Sinclair ZX81

1981-yili ZX81 Sinclair Research kompaniyasi tomonidan chiqarilgan shaxsiy kompyuter. Bu model ZX80 ning davomi bo'lib, ZX Spectrum ning ajdodi hisoblanadi.

SIP protokoli yordamida qayta manzillash xizmatlari yakuniy statusini indikatsiyalash

ing. - call forwarding

summary status indication via SIP

rus. - индикация итогового статуса услуг передерасации с помощью протокола SIP
SIP protokoli yordamida qayta manzillash xizmatlari yakuniy statusini indikatsiyalash xizmati SIP abonentlarga qayta manzillash xizmatlarining ko'plab turlari statusini yuborish imkonini beradi.

Izoh – Qayta manzillash xizmatlarining bitta turi aktiv bo'lganda ham, aktivlik statusi yuboriladi. Agar qayta manzillash xizmatlarining turlaridan hech biri aktivlashgan bo'lmasa, noaktivlik statusi yuboriladi.

Slackware

ing. - Slackware

rus. - Slackware

Linux ning dastlabki distributivlaridan biri. Birinchi versiyasi Patrik Folkerding tomonidan 1993-yilda chiqarilgan. Distributivning asosiy prinsipi – tizim qurilmasining oddiyliги.

SMS bo'yicha WAP xizmati

ing. - Wireless Application Protocol (WAP over SMS)

rus. - услуга WAP по SMS

Butun axborot SMS uzatish uchun mo'ljallangan kanallar orqali o'tayotganda WAP xizmatlarini taqdim qilish usuli. WAP resurslarini ko'rib chiqish vaqtida telefon orqali qo'ng'iroqlar qilish mumkin. Bu xizmatning mavjudligi operatorga bog'liq.

SMURF hujumi

ing. - a soundfont editor for linux SMURF

rus. - SMURF araka

Zarar ko'rgan kompyuter nomidan ommaviy ICMP so'rovlarini yuborishdan iborat hujum. Natijada bunday ommaviy paketlarni qabul qilgan kompyuter zarar ko'rgan kompyuterga javob sifatida uning uchun aloqa kanalini o'tkazish imkoniyatini pasaytiradi yoki qator hollarda tarmoqdan qilinayotgan hujumdan, ya'ni o'sha kompyuterdan o'zini butunlay izolyatsiya qiladi.

SNOBOL

ing. - SNOBOL

rus. - SNOBOL

Satrlar va matnni qayta ishlash uchun mo'ljallangan dasturlash tili.

Soft real-time

ing. - soft real-time

rus. - soft real-time

Real vaqt tizimi, bunda vaqtinchalik cheklashlarning buzilishi u boshqaradigan obyektlarni rad etishga olib kelmaydi.

Solaris

ing. - Solaris

rus. - Solaris

Sun Microsystems tomonidan ishlab chiqilgan, egalik huquqi yaratuvchida qoladigan operatsion tizim. Azaldan Solaris – yopiq kodli operatsion tizimligiga qaramasdan, dastur kodining katta qismi ochiq bo'lib, Sun Microsystems kompaniyasi tomonidan e'lon qilingan.

Sonet-ATM foydalanuvchilar tarmog'i (Saturn)

ing. - Sonet-ATM User Network

rus. - сеть пользователей

Sonet-ATM (Saturn)

155 Mbit/s tezlik uchun mo'ljallangan foydalanuvchining tarmoq interfeysi.

SSID identifikatori

ing. - service set identifier (SSID)

rus. - идентификатор SSID

Simsiz tarmoqni qat'iy identifikatsiyalovchi parametrlar. Simsiz foydalanish nuqtalari paketlar sarlavhalarida SSID identifikatori keng uzatilishini amalga oshiradi, bu oxirgi foydalanuvchilarga, ular ulanmoqchi bo'lgan simsiz tarmoqni identifikatsiyalash imkonini beradi.

Izoh - Turli SSID identifikatorlari bitta fizik muhitda bir nechta simsiz tarmoqni o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Simsiz tarmoqqa kirish uchun, simsiz foydalanish nuqtalarining va simsiz tarmoq adapterining SSID identifikatorlari mos kelishi kerak. Qurilma yagona SSID ni ko'rsatmaguncha, unga asosiy xizmatlar to'plami taqdim etilmaydi. Paketlardagi barcha SSID ochiq matn bilan uzatilishi sababli, SSID tarmoq xavfsizligini ta'minlash vositasi bo'la olmaydi. Simsiz tarmoq muhofaza qilinishini kuchaytirish uchun, tarmoq administratori ba'zi kirish nuqtalarining keng tarqatish funksiyalarini uzib, SSID identifikatori keng tarqatilishini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunday holda, oxirgi foydalanuvchi tarmoqqa ulanish uchun, SSID identifikatorini qo'lda ko'rsatishi kerak.

SSL protokoli

ing. - Protocol SSL (Secure Sockets Layer)

rus. - протокол SSL

Himoyalangan socketlar darajasi. Server va foydalanuvchi brauzeri o'rtasida xavfsiz ulanishni ta'minlaydi.

SUSE

ing. - SUSE

rus. - SUSE

Slackware distributiviga asoslangan Linux distributivi. Birinchi versiyasi 1994-yilning mart oyida paydo bo'lgan. 2003-yilning noyabr oyida Novell Inc. kompaniyasi tomonidan sotib olingan. 10-versiyasidan boshlab loyiha opensuse hamjamiyati tomonidan ishlab chiqilmoqda.

SVGA

ing. - super video graphics adapter (SVGA)

rus. - SVGA

Standart va uning grafik videoadapterini amalga oshiruvchi. VGA standartiga qaraganda o'ta yuqori ajratishni ta'minlaydi. 800×600, 1024×768, 1280×1024 (va undan

ko'p) nuqtalami ajrata olish bilan ish tartibini qo'llab-quvvatlaydi.

Swap (podkachka) fayli

ing. - Swap file

rus. - файл подкачки

Qattiq diskda ishlatiladigan yashirin fayl bo'lib, u tezkor xotiraga sig'magan dasturlar va ma'lumot fayllarining qismini saqlash uchun qo'llaniladi. Swap fayli va fizik (tezkor) xotira virtual xotirani tashkil qiladi. Zarurat tug'ilganda (dasturni ishga tushirish kerak bo'lsa) operatsion tizim ma'lumotlarni swap faylidan tezkor xotiraga ko'chiradi va aksincha (yangi ma'lumotlar uchun xotiradan joyni bo'shatadi). Swap fayli virtual xotira fayli deb ham ataladi.

Symbian OS

ing. - Symbian OS

rus. - Symbian OS

Symbian (Nokia, Ericsson, Psion, Motorola) konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan operatsion tizim.

Synchronous Digital Hierarchy

ing. - synchronous digital hierarchy

rus. - synchronous digital hierarchy (SDH)

Sinxron optik-tolali tarmoqlar texnologiyasini amalga oshiruvchi sinxron raqamli iyerarxiya tarmog'i. Standartlashtirishning yuqori darajasi, yuqori ishonchlilik, to'liq dasturiy nazoratning mavjudligi, talabga ko'ra xizmatlarni tezkor taqdim etish imkoniyati, tarmoq rivojlanishining nisbatan sodda sxemasi bilan farq qiladigan raqamli aloqaning yuqori tezlikli tarmoqlari.

TASM

ing. - Turbo Assembler (TASM)

rus. - TASM

Borland firmasining MS-DOS uchun mo'ljallangan assembleri.

Tbyte

ing. - Tbyte

rus. - Tbyte

Xotira sig'imining o'lchov birligi. Bir terabayt 240 byte ga yoki (1 099 511 627 776 byte ga), yoki 1024 Gbyte ga teng.

TCP protokoli

ing. - transmission control protocol (TCP)

rus. - протокол TCP

TCP/IP to'plamiga kiradigan transport sathi

tarmoq protokoli. Uzatiladigan ma'lumotlar paketlari zarur ketma-ketlikda yetkazilishini ta'minlaydi.

TCP/IP protokoli

ing. - transmission control protocol/internet protocol (TCP/IP)

rus. - протокол TCP/IP

Internet asoslanadigan tarmoq protokollari to'plami. Nomi ikkita asosiy protokolning qisqartmalari – TCP/IP dan tashkil topgan. Odatda, protokollarning stek ko'rinishidagi o'zaro ishlay olishini ifodalovchi OSI modeli bilan o'xshash tarzda tavsiflanadi. Bunday modelda har bir sath tor doiradagi vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, yuqoriroq sathlar uchun xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladi. Yuqori sathlar foydalanuvchiga yaqin bo'lib, ular eng abstrakt obyektlar bilan ishlaydi, quyi sathlar esa, ma'lumotlar uzatishning fizik muhitiga juda bog'liq.

TDM/TDMA rejimi

ing. - time division multiplexing/ time division multiple access (TDM/TDMA)

rus. - режим TDM/TDMA

«Yulduz» topologiyali VSAT-tarmoqlarining kombinatsiyalangan ish rejimi. Bunday tarmoqda markaziy yer stansiyasi birlashtirilgan chastotalarda shaffof retranslyator orqali TDM rejimida ishlaydi, VSAT-stansiyalarning kirishi esa TDMA rejimida amalga oshiriladi.

Izoh – Bunday asimmetrik trafik hisobiga yer stansiyasining energetikasiga bo'lgan talab kamaytiriladi, ammo bunda ushlanish «toza» TDMA rejimiga nisbatan ancha ortadi va bundan tashqari, «ikki marta sakrash» deb ataluvchi o'zgarish ham sodir bo'ladi.

TDM texnologiyasi

ing. - time division multiplexing (TDM)

rus. - технология TDM

Multipleksorlash (analog yoki raqamli) amalga oshirilishida ifodalanadigan texnologiya. Natijada yagona kommunikatsiya oqimida quyi kanallar ko'rinishida turli signallarning bir vaqtda uzatilishi yuz beradi. Ma'lumotlar muayyan uzunlikdagi vaqt intervallariga ajratilib uzatiladi.

TD-SCDMA standarti

ing. - TD-SCDMA

rus. - стандарт TD-SCDMA

Mobil aloqaning uchinchi avlodga o'tish standarti. Siemensning faol ishtirokida Xitoyda ishlab chiqilgan. Yevropadagi WCD-

MA standartiga qo'shimcha yoki muqobil sifatida qaraladi. TD-SCDMA texnologiya birmuncha tejamkor texnologiya hisoblanadi. Undan radiochastotalarning yuklanganlik darajasi yuqori bo'lgan rayonlarda tarmoqlar qurishda foydalansa bo'ladi.

TD-SCDMA texnologiyasi

ing. - time division synchronous code division multiple access (TD-SCDMA)

rus. - технология TD-SCDMA

Sinxron vaqt-kodli ko'p kanalli ajratiladigan tarmoqdan foydalanish imkoniyatini beradigan texnologiya.

Telnet

ing. - telnet

rus. - telnet

Terminalni emulyatsiya qiluvchi, tarmoq kompyuterlari tizimini mualliflashtirish uchun Internetda keng qo'llaniladigan protokol. «Telnet» so'zi foydalanuvchilarni shu protokol yordamida mualliflashtiradigan dasturga nisbatan ham ishlatiladi.

Teredo

ing. - Teredo

rus. - Teredo

IPv6 paketlarni IPv4 tarmoq orqali, xususan, NAT texnologiyasi bo'yicha ishlaydigan qurilmalar orqali, ularni UDP-deytagrammalarga inkapsulyatsiya yo'li bilan uzatish uchun mo'ljallangan tarmoq protokoli.

TFTS standarti

ing. - terrestrial flight

telecommunication system (TFTS)

rus. - стандарт TFTS

Samolyotlar radioaloqasi tizimi uchun mo'ljallangan ETSI standarti. Bu standartda nutqli aloqa (1670-1675) MHz («Yer-havo») va (1800-1805) MHz («havo-Yer») chastotalar diapazonida $\pi/4$ DQPSK turidagi modulyatsiyadan foydalangan holda ta'minlanadi.

Think Pad

ing. - think Pad

rus. - think Pad

IBM firmasining noutbuklari turkumi.

Threshing

ing. - threshing

rus. - threshing

Tizimdagi asosiy xotiraning kritik yetishmaslik holati, bunda protsessor asosan

sahifalarni xotiradan xotiraga ko'chirib olish bilan band bo'ladi.

T-impuls

ing. - T-pulse

rus. - Т-импульс

Eshittirish televideniyesining ko'rib chiqilayotgan tizimi videosignal polosasi nominal chegaraviy chastotasining yarim davriga taxminan teng T yarim ko'lamdagi davomiylik bilan sinus kvadratli impulsni o'zida aks ettiradigan televizion o'lchash signali. Izohtar

1. $2T, \dots, nT$ deb belgilanadigan $2T, \dots, nT$ yarim ko'lamdagi davomiylik bilan sinus kvadrat impulsnlari o'zida aks ettiradigan boshqa o'lchash signallari ham ishlatiladi.

2. 625 ta satrli eshittirish televideniyesi tizimlari uchun T qiymati standartlashtirilgan va 0,1 mks ga teng.

TIPHON loyihasi

ing. - telecommunications and Internet protocol harmonisation over networks (TIPHON)

rus. - проект TIPHON

Ovozli kommunikatsiyalar bozorini qo'llab-quvvatlash va ovoz diapazonida foydalanuvchilar o'rtasida axborotni uzatish uchun yaratilgan ETSI loyihasi.

Izoh - Bu loyiha, IP-tarmoqlarga ulangan foydalanuvchilar GSM kabi kanallar kommutatsiyalanadigan tarmoqlarning foydalanuvchilari bilan muloqot qila olishi uchun sharoit yaratishi zarur.

Tizimli (imtiyozga ega) rejim

ing. - system mode,

kernel mode, monitor mode

rus. - системный

(привилегированный) режим

Komandalarni bajarishning alohida rejimi, bunda imtiyozga ega bir qator, masalan, xotira va registrlarning tizimli sohalarini o'zgartirish operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'yadigan operatsion tizim yadrosining moduli bajariladi.

Tripwire

ing. - tripwire

rus. - tripwire

Ayrim fayllar va direktoriyalar, masalan parollari bo'lgan fayllar o'zgarmaganligini tekshiradigan (UNIX uchun mo'ljallangan) tizim dasturlari.

T-simon antenna

ing. - T-shaped antenna

rus. - Т-образная антенна

Yer sathida osilgan va vertikal pasayish

gorizontal qismining o'rtasiga ulanadigan gorizontal simlar ko'rinishidagi antenna.

TTY

ing. - TTY

rus. - TTY

UNIX va Linux terminal qurilmalarining an'anaviy belgilanishi.

Twitter standarti

ing. - Twitter

rus. - стандарт Twitter

Telekommunikatsiyalar uchun mo'ljallangan yangi avlod aloqa standarti. Qator talablar: odam salomatligi uchun xavfsizlik, aloqaning yuqori sifati va energiya samaradorligi bilan farqlanadi. Bu standartni joriy etish 2020 yilga rejalashtirilgan.

Т-тройник

ing. - T connector, waveguide tee

rus. - Т-тройник

1. To'lqin o'tkazgich bilan hosil qilinadigan, boshqa to'lqin o'tkazgichga nisbatan to'g'ri burchak ostida joylashgan T-simon ulanish.

2. T harfi shaklidagi ulagich. Odatda, kabelning ikkita kesmasini birlashtiradi va foydalanuvchining apparat vositalariga ulanishi uchun qo'shimcha ajratgichga ega bo'ladi.

Ubuntu

ing. - Ubuntu

rus. - Ubuntu

Canonical korporatsiyasi tomonidan ta'minlanadigan Debian ga asoslangan Linux distributivi. Hozirgi kunga kelib Linux-distributivlari o'rtasida eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Ilk versiyasi 2004-yil oktyabr oylarida paydo bo'lgan. Ubuntu ning omma-viyiligi CD foydalanuvchilarga Live+Install ni tekin tarqatilishi bilan izohlanadi.

UCS o'girmasi (UTF)

ing. - UCS transformation format (UTF)

rus. - преобразование UCS (UTF)

ASCII ga mos ko'p baytli kod bo'lib, Java dasturlash tilida va Plan 9 operatsion tizimida qo'llaniladi.

Ultra Sparc

ing. - Ultra Sparc

rus. - Ultra Sparc

Umumiy qo'llanishdagi, 64 razryadli, qisqartirilgan komandalar to'plamiga ega mikro-

protessor. 143, 167, 182, 200 MHz takt chastotasi bilan chiqariladi, 0,5 mikronli SMOS texnologiya bo'yicha qilingan, 5,2 mln tranzistorni ichiga oladi. Komandalar tizimi grafik ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ko'rsatmalarni ichiga oladi.

UMTS quruqlidagi radiofoydalanish olish (UTRA)

ing. - UMTS terrestrial radio access (UTRA)

rus. - наземный

радиодоступ UMTS (UTRA)

Standartlar turkumining uchinchi avlodini yaratish ishlari doirasida, radiointerfeys standarti loyihasi, UMTS tizimiga yer usti radiofoydalanishni ta'minlaydi, SMG2 (ETSI) ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. Makrouyalarda WCDMA (UTRA FDD) texnologiyasidan, mikrouyalarda esa, TD-CDMA (UTRATDD) gibrid foydalana olish usulidan foydalanadi. Ikki rejimdan birgalikda foydalanish tizimini moslashuvchan qiladi va uning o'tkazish qobiliyatini to'liq tarqalish sharoitlari, ajratilgan chastota resursi va xizmatlar turiga bog'liq ravishda o'zgartirish imkoniyatini beradi.

UMTS/WCDMA mobil aloqa tizimi

ing. - UMTS/WCDMA (universal mobile telecommunications system/ wideband code division multiple access)

rus. - система мобильной

связи UMTS/WCDMA

Universal mobil aloqa tizimi, IMT-2000 turkumiga kiradigan uchinchi avlod uyali aloqa standartlaridan biri. Boshqa bir nomi - WCDMA (Wideband CDMA - keng polosali CDMA). Texnologiya 5 MHz keng polosali (quyi eltuvchi) GSM tarmoqlarini (ikkinchi avlod uyali aloqa Yevropa standartini) takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. UMTS/ WCDMA texnologiyasi na faqat Yevropada, balki dunyoning barcha mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, ma'lumotlarni uzatishning tayanch tezligi 384 Kbit/s (UL va DL).

Unicode kod jadvali

ing. - Unicode

rus. - кодовая таблица Unicode

Barcha milliy alifbolar simvollarini kodlash ISO 10646 standarti. Bunda har bir simvol uchun 16-bitli (ikki baytli) noyob kombinatsiyadan foydalaniladi.

Unified Messaging xabarlarini qabul qilish va uzatish tizimi

ing. - Unified Messaging

rus. - система передачи и приёма сообщений Unified Messaging

Mobil aloqa muhitida xabarlarini qabul qilish va uzatishning birlashgan tizimi.

Izoh - Bu, har bir foydalanuvchi mobil telefon yordamida xabarlarining barcha formatlarini, jumladan, ovozli pochta, faksimil, peyjing, qisqa xabarlaridan, elektron pochtdan foydalana olishlari mumkinligini bildiradi. Hozirgi vaqtda xabarlar ko'p sonli manbalardan keladi, ular turli formatga ega. Birlashgan tizim foydalanuvchiga yuqori qulaylik bilan axborot resurslari va ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatini ta'minlagan holda, barcha xizmatlar va xabarlar formatlarini bir joyda to'plash imkonini beradi.

Universal mobil telekommunikatsiya tizimi

ing. - universal mobile

telecommunications system (UMTS)

rus. - система UMTS

Universal mobil aloqa tizimi, Yevropadagi uchinchi avlod uyali aloqa standarti, ETSI tomonidan ishlab chiqilgan. Grafik fayllarni olish, videokonferensiyalar va h.k. amalga oshirish imkonini beradi. Unda ma'lumotlarni uzatish tezligi, bitta uya chegarasida foydalanuvchilar soni ortib boradi. 120 km/h tezlik bilan harakatlanganda, ma'lumotlar uzatish 384 Kbit/s gacha, 10 km/h tezlik bilan harakatlanganda, 2 Mbit/s gacha yetadigan ma'lumotlarni uzatish universal mobil telekommunikatsiyalar tizimi.

UNIX (POSIX) ko'chiriladigan operatsion tizimining interfeysi

ing. - portable operating system interface for UNIX (POSIX)

rus. - интерфейс переносимой операционной системы UNIX (POSIX)

Operatsion tizim va amaliy dastur o'rtasidagi interfeyslarni tasvirolovchi standartlar to'plami.

UNIX operatsion tizimi

ing. - UNIX operating system

rus. - операционная система UNIX

Ko'p foydalanuvchili ochiq operatsion tizim. Asosiy versiyalari Amerikaning AT&T, UNIX Systems Laboratories, Sun Soft, NeXTComputer firmalari, shuningdek, Stendford va Berkli universitetlarining kompyuter tizimlarini tadqiq qilish guruhi tomonidan ishlab chiqilgan. Tizim konsept-

siyasining aniqligi, uning ko'chirib bo'lish-liligi va ko'lamligi, o'ratish va qo'llashning soddaligi, tarmoq komponentlarining tezkor tizimga o'ratib bo'lishlik, yuqori unumdorlik (tarmoq almashinish tezligi 1 Mbyte/s ga yetadi) tizimning aifzalliklariga kiradi. Tizim to'xtashlarga chidamli.

UNIX versiyasi

ing. - UNIX version

rus. - версия UNIX

Tarmoq operatsion tizimi. IBM korporatsiyasi tomonidan PS/2, RS/6000 va PowerPC kompyuterlari uchun UNIX operatsion tizimi negizida ishlab chiqilgan.

UNIX Ware operatsion tizimi

ing. - UNIX Ware operating system

rus. - операционная система UNIX Ware Grafik, 32 bitli operatsion tizim, UNIX ga asoslangan, Novell firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tizimda UNIX, MS-DOS, Windows uchun mo'ljallangan ilovalar bilan ishlash mumkin.

UPT standarti

ing. - universal personal telephony (UPT)

rus. - стандарт UPT

Turli xildagi qayd qilingan va simsiz aloqaning bir nechta tarmog'i doirasida individual mobil aloqani ta'minlash vositalari uchun mo'ljallangan standart.

UPT texnologiyasi

ing. - universal personal telephony (UPT)

rus. - технология UPT

Uchinchi avlod mobil aloqa tarmoqlari abonentlarining absolyut mobilligini ta'minlash texnologiyasi. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (ITU) tomonidan standartlashtirilgan. Bu texnologiyadan foydalanish, har bir abonent uchun yagona UPT raqam va qo'ng'iroqlarni qayta yo'llash, chaqiruvlarni amalga oshiish uchun aniq bir terminallarni belgilash imkonini beradigan profil, shuningdek, aloqa xizmatlari paketi yaratilishini ko'zda tutadi. UPT texnologiyasi tufayli abonentlar geografik joylashganlikdan va u yoki bu tarmoqda bo'lishdan qat'i nazar, aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

URL moniker

ing. - URL moniker

rus. - URL моникер

Ma'lumotlari URL yordamida aniqlanadigan obyektlar bilan ishlaydigan moniker.

USB - flesh-to'plagich

ing. - USB flash drive

rus. - USB - флэш-накопитель

Flesh-xotira tashuvchisi sifatida foydalaniladigan va USB interfeysi orqali kompyuterga yoki boshqa o'qish qurilmasiga ulanadigan xotira qurilmasi.

USB 2.0 shinas

ing. - USB 2.0

rus. - шина USB 2.0

Periferiya qurilmalari uchun mo'ljallangan, universal shinalar ketma-ketligi. USB shinas o'rta va past tezlikli periferiya qurilmalari uchun ma'lumotlar uzatish ketma-ketligi interfeysini o'zida aks ettiradi. Yuqori tezlikli uskunalar uchun FireWiredan foydalangan ma'qul. USB 2.0, USB 1.1 dan yuqori tezligi va Hi-speed (480 Mbit/sek) rejimidagi kichik o'zgarishlari bilan farqlanadi. Aslini olganda, nazariyada USB 2.0 tezlik 480 Mbit/sek ga erishishi mumkin, lekin amalda qattiq disk va umuman ixtiyoriy ma'lumot tashuvchilarida shindagi tezlik, uni rivojlantirish mumkin bo'lsa ham, bunday ko'rsatgichga erishmaydi. Buni ma'lumotlar uzatish va uzatishni boshlashdan oldingi so'rovlar o'rtasidagi USB shinalarining yetarlicha ko'p ushlab qolinishi bilan tushuntirish mumkin.

USB konnektorli «sichqoncha»

ing. - USB mouse

rus. - «мышь» с USB- коннектором

Standart RS/2 o'rta USB shtekeridan foydalanuvchi «sichqoncha».

USENET telekonferensiyalari tizimi

ing. - USENET

rus. - система телеконференций USENET Katta iyerarxik katalog sifatida tashkil qilingan, uning uzellari bo'lib ma'lum predmet sohalari bo'yicha yangiliklar guruhi hisoblanadi. Foydalanuvchilar tomonidan jo'natiladigan xabarlar, odatda tarmoqda besh kundan ko'p turib qolmaydi.

UTF-8**ing.** - UTF-8**rus.** - UTF-8

Universal kodlash usuli. Barcha milliy kodlash usullarini birlashtirish maqsadida yaratilgan.

UTRA loyihasi**ing.** - UTRA terrestrial radio access**(UTRA)****rus.** - проект UTRA

UMTS tizimiga yer usti radiokirishni ta'minlaydigan radiointerfeys standartining loyihasi.

Izoh - Yevropa telekommunikatsiyalarni standartlashtirish institutining SMG2 ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan.

UTRA standarti**ing.** - terrestrial radio access (UMTS)**rus.** - стандарт UTRA

Tizimdan yer ustida foydalana olish imkonini beradigan UMTS standartining loyihasi.

UTRAN tarmog'i**ing.** - UTRA terrestrial radio access network (UTRAN)**rus.** - сеть UTRAN

UTRA radiointerfeysi asosida qurilgan yerusti radiokirish tarmog'i. Magistral UMTS tarmoq bilan birgalikda ishlaydi.

UWB texnologiyasi**ing.** - ultra wide band (UWB) technology**rus.** - технология UWB

Kichik masofalarda va energiya sarfi kam bo'lgan sharoitda qo'llaniladigan simsiz aloqa texnologiyasi. UWB da eltuvchi rolini bajaradigan va quvvatning spektral zichligi juda kichik bo'lgan o'ta keng polosali signallardan foydalaniladi.

UWC birlashmasi**ing.** - universal wireless consortium (UWC)**rus.** - объединение UWC

IS-136 mobil aloqa standartini ishlab chiquvchilar va operatorlarining birlashmasi.

UWC-136 standarti**ing.** - UWC-136**rus.** - стандарт UWC-136

TDMA texnologiyasiga asoslangan, uchinchi

avlod tizimi standarti. UWCC konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan. Loyihada standart taraqqiyotining har xil turdagi kanallardan foydalanishga asoslangan uch bosqichi belgilangan: IS-136+ (30 kHz li kanal polosasini kengaytirmasdan), IS-136 HS (Outdoor/ Vehicular) 200 kHz kanal polosasi kengligida va IS-136 HS (Indoor Office) 1,6 MHz kanal polosasi kengligida.

UZ-CERT**ing.** - UZ-CERT (Uzbekistan Computer Emergency Response Team)**rus.** - UZ-CERT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PP-167-son Qaroriga binoan 2005 yilda yaratilgan milliy CERT (kompyuter hodisalariga chora ko'rish) xizmati. UZ-CERT milliy axborot tizimlari va Internet segmenti foydalanuvchilari uchun kompyuter hodisalariga bo'yicha ma'lumotlarni to'plovchi va tahlil qiluvchi hamda kompyuter xavfsizligiga tahdidlarning oldini olishda maslahat va texnik yordam ko'rsatuvchi yagona markazdir.

Qar.: CERT.

VBScript tili**ing.** - visual basic script language (VBScript)**rus.** - язык VBScript

Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, ssenariylar yozish uchun mo'ljallangan til. MS Internet Explorer brauzeri tomonidan qo'llaniladigan Visual Basic tilining dialektini o'zida ifodalaydi. Uncha murakkab bo'lmagan veb-ilovalar yaratish imkonini beradi.

Veb-servislarni tavsiflash tili**ing.** - web-services description language**rus.** - язык описания веб-сервисов

Xml tiliga asoslangan, veb-servislarni va ulardan foydalana olish tili.

Very Long Instruction Word**ing.** - Very Long Instruction Word (VLIW)**rus.** - Very Long Instruction Word

Keng komanda so'zlariga ega kompyuterlar - 1980-1990-yillardagi kompyuterlar arxitekturasiga yondashuv. Ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi - komandalar va kichik

komandalarning alohida ketma-ketligi darajasida kompilyator tomonidan parallel hisoblashni statik rejalashtirish. Ushbu arxitekturada har bir komanda «keng» (long) hisoblanadi va protsessorning bir nechta bir xil turdagi qurilmalaridagi bitta mashina takti davomida parallel bajariladigan bir nechta kichik komandalarni o'z ichiga oladi.

Viewpoint tili

ing. - Viewpoint language

rus. - язык Viewpoint

Texnik nuqtai nazardan, ochiq taqsimlangan qayta ishlash tizimi spetsifikatsiyasi uchun qoidalar va tushunchalarni belgilashning texnik tili.

Virtual Dos Machine

ing. - Virtual Dos Machine (VDM)

rus. - Virtual Dos Machine

MS-DOS ilovalari bilan moslikni ta'minlaydigan foydalanuvchi darajasidagi jarayon.

VMware ESX Server

ing. - VMware ESX Server

rus. - VMware ESX Server

VMware kompaniyasi tomonidan VMware vSphere (oldin VMware Infrastructure) komponenti sifatida taqdim etiladigan, faoliyat darajasini virtuallashtirish uchun belgilangan dasturiy mahsulot. ESX 5.0 versiyadan boshlab ESXi mahsuloti bilan almashtirilgan. ESX va ESXi o'rnatilgan gipervizorlar hisoblanadi, o'rnatish paytida mashinada belgilangan operatsion tizimning bo'lishi talab qilinmaydi. ESX/ESXi fizik kompyuterni virtual mashinalar deb ataladigan mantiqiy bo'limlarga ajratish imkonini beradi. O'z ichiga virtual resurslarni boshqarish vositalarini oladi. ESXi o'rnatilishi uchun kamida 2 Gbite tezkor xotira talab qilinadi.

VoiceXML tili

ing. - voiceXML language

rus. - язык voiceXML

Personallashtirilgan, interaktiv, ovozi javob beriladigan vebga yo'naltirilgan servislarini yaratish va uzatishni soddalashtirish hamda chaqiruvlarni qayta ishlash markazlarining integratsiyalashgan MB dan, shuningdek veb-uzellar va intratarmoqlardagi axborot-

dan telefonda va ovozi foydalana olishni ta'minlash uchun mo'ljallangan til.

V-simon antenna

ing. - V antenna

rus. - V-образная антенна

Bir-biriga nisbatan burchak ostida joylashgan to'g'ri o'tkazgichlar juftidan tashkil topgan va ta'minotni ular ulangan joyda oladigan yo'naltirilgan antenna.

Wake On LAN

ing. - Wake On LAN

rus. - Wake On LAN

Ona platadagi BIOS funksiyasi, uning yordamida kompyuterni tarmoq kartasiga lokal tarmoqdan maxsus signal jo'natib ishga tushirish mumkin.

Wallet

ing. - wallet

rus. - wallet

Foydalanuvchi identifikatsion ma'lumotlarining va foydalanuvchilarning ID raqamlarini, parolni, sertifikatlarni va shifrlash kalitini o'z ichiga oladigan to'plangan axborot to'g'risidagi ma'lumotlarning himoyalangan ombori.

WAP-banking xizmati

ing. - WAP-banking

rus. - услуга WAP-банкинг

Mobil telefondan shaxsiy bank hisobini boshqarish imkoniyati.

WCDMA texnologiyasi

ing. - wideband code division multiple access (WCDMA)

rus. - технология WCDMA

1. Uchinchi avlod xizmatlarini ta'minlash (qo'llab-quvvatlash) maqsadida, keng polosali radiokirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan, radiointerfeys texnologiyasi. Ushbu standartning tezligi (kichik masofalarda 2 Mbit/s gacha va to'liq mobillik bilan qayta masofalarda 384 Kbit/s) multimedia xizmatlari uzatilishini ta'minlash imkonini beradi.

2. Keng polosali raqamli radiokanallar orqali katta hajmdagi axborotni (Internet, multimedia ma'lumotlar, videoaxborot) uzatish uchun mo'ljallangan texnologiya. Nutq tasvir signallari, ma'lumotlar va videoaxborot avval tor polosali raqamli radio-signalga o'zgartiriladi, keyin signal turli foydalanuvchilarning signallarini farqlash

imkonini beradigan kodli ketma-ketlik bilan birlashtiriladi. Axborotning uzatilishini optimallashtirish uchun, WCDMA standartida signalni raqamli qayta ishlash paytida o'zgaruvchan kodlash tezligi texnologiyasidan foydalaniladi.

WDL bibliotekasi

ing. - windows driver library (WDL)

rus. - библиотека WDL

Microsoft Windows operatsion tizimi uchun mo'ljallangan, distributiv versiyaga qo'shil-magan drayverlar to'plami.

WHDI

ing. - wireless home digital interface

(WHDI)

rus. - WHDI

Videooqimni simsiz uzatish raqamli standarti. Asosiy ishlab chiquvchi va chiplarni yetkazib beruvchi Isroilning Amimon firmasidir. Translyatsiya 5 HHZ chastotada, 3 Gbyte/s tezlikda olib boriladi. Standartning asosiy xususiyati – videoni kodlashning yagona texnologiyasi «video-modem»dir, u tufayli yuqori darajada xalaqitdan himoyalanganlik, qabul qilish va uzatishda xatolardan xoli bo'lishlik, binobarin, uzatiladigan tasvirning yuqori sifati ta'minlanadi.

Whois xizmati

ing. - Whois

rus. - служба Whois

Suhbatdosh yoki domen to'g'risida ma'lumot beradigan maxsus xizmat.

WIDL dasturlash tili

ing. - web interface

definition language (WIDL)

rus. - язык программирования WIDL

XML tilining realizatsiyasi. Bu tilda modul vizual vositalar bilan loyihalashtiriladi, keyin esa uning kodi VBA qo'llab-quvvatlaydigan C, C++, Java, Java Script, VB yoki ActiveX elementiga generatsiya qilinadi.

Wi-Fi

ing. - Wireless Fidelity (Wi-Fi)

rus. - Wi-Fi

Simsiz qurilmalar uchun IEEE 802.11b standartiga mos keladigan protokol va uskuna-niing umumiy nomi. Wi-Fi simsiz lokal tar-moqlar yartaish va Internetga yuqori tezlikda simsiz ulanishlarni tashkillashtirish uchun mo'ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasi

(Wi-Fi simsiz uzatish)

ing. - Wi-Fi - Wireless Fidelity

rus. - технология Wi-Fi

(беспроводная передача Wi-Fi)

IEEE 802.11 [15] spetsifikatsiyalari asosida radiokanallar bo'yicha raqamli ma'lumotlar uzatish texnologiyasi.

Izoh – Standart 11 Mbps o'tkazish imkoniyati bilan 2,4 GHz chastotada ishlaydi.

WiMax texnologiyasi

ing. - WiMax –Worldwide

rus. - технология WiMax

Oxirgi foydalanuvchilarga IEEE 802.16 standartiga asoslangan yuqori tezlikli keng polosali foydalana olishni ta'minlash uchun mo'ljallangan standartlashtirilgan simsiz texnologiya. 2001-yil iyun oyida konsorsium (WiMAX Forum) tomonidan ishlab chiqilgan.

Win 32API

ing. - Win 32API

rus. - Win 32API

Windows 95/NT operatsion tizimlarida ishlaydigan 32 razryadli ilovalarni yaratish uchun belgilangan amaliy dasturlash interfeysi. Ikki mingdan ortiq funktsiya, makros, xabar, oldindan belgilangan konstantadan iborat to'plamni o'zida ifodalaydi. Dinamik komponovka bibliotekalari ko'rinishida rasmiylashtirilgan.

Win32 interfeysi

ing. - Win32

rus. - интерфейс Win32

Windows 95/98, Windows 2000 va Windows NT uchun mo'ljallangan 32-razryadli amaliy dasturlash interfeysi. 80386 va undan katta protsessorlarda qo'llash mumkin bo'lgan 32-razryadli komandalar unumdorligini oshirishga, ishlab chiquvchiga esa 16 va 32-razryadli Windows dasturini yaratishga imkon beradigan, bibliotekalar to'plamlari. Sanab o'tilgan operatsion tizimlarning har birida ko'plab Win.32 amalga oshirilgan. Unga taalluqli hujjatlardan <http://msdn.microsoft.com> saytida foydalanish mumkin.

Windows

ing. - Windows

rus. - Windows

Microsoft korporatsiyasining ommaviy operatsion tizimlari va grafik qobiqlari turkumi. Fayllar bilan bajariladigan operatsiyalarda

foydalaniladigan grafik interfeys – operatsion muhitni o'zida ifodalaydi. Zamonaviy Windows tizimi belgilangan ehtiyojlarga ko'ra, bir vaqtda ko'rish va foydalanish mumkin bo'lgan turli qog'ozlar va ko'plab papkalar joylashgan ish joyi ko'rinishida tasavvur qilinadi. Bu tizimning birinchi versiyasi Windows 1.0 bozorga 1983 yilning noyabrida chiqarilgan.

Windows (tizimining) ochiq xizmatlar arxitekturasi

ing. - Windows open services architecture (WOSA)
rus. - архитектура открытых служб (системы) Windows

API va SPI (xizmatlarni ta'minlash interfeysi) interfeyslari to'plami, ma'lumotni uning joylashish joyiga (shaxsiy kompyuter, server, xost-kompyuter) va formatiga bog'liq bo'lmagan holda uzatish imkonini beradi. WOSA uchta xizmat turini ta'minlay oladi: umumiy dasturlar, aloqalar va vertikal bozorlar. WOSA ga yana quyidagilar kiradi: MAPI, TAPI, SNA API, LSAPI.

Windows 2000 operatsion tizimi

ing. - operating system Windows 2000
rus. - операционная система Windows 2000
Microsoft korporatsiyasining, bir rangli va mijoz-server lokal tarmoqlari o'rnatilgan ko'p maqsadli modulli operatsion tizimi. Windows 2000 Professional shaxsiy stol kompyuterlari uchun mo'ljallangan operatsion tizimi. Windows 2000 Server – fayl-server, chop etish serveri, ilova serveri yoki veb-server mahsulotlarini o'z ichiga oladi. To'rttagacha mikroprotessorni ta'minlaydi. Windows 2000 Advanced Server – ilova server, sakkiztagacha protessorni ta'minlaydi. Windows 2000 Data-center Server – operatsion tizimning maxsus versiyasi bo'lib, ma'lumotlar ombori bilan ishlash uchun yaratilgan.

Windows 95 operatsion tizimi
ing. - operating system Windows 95 (Win95)
rus. - операционная система Windows 95
Windows operatsion tizimi versiyalaridan biri, mustaqil va to'liq operatsion tizim. Kodli nomlanishi – «Chicago». Tizim ko'p vazifalilikni siqib chiqaruvchi 32-razryadli dasturlarni, TCP/ IP, IPX, SLIP, PPP, Windows Sockets protokollarini qo'llab-quvvatlaydi, bundan tashqari foydalanuvchining grafik interfeysi kuchaytirilgan.

Windows 98 operatsion tizimi
ing. - operating system Windows 98
rus. - операционная система Windows 98
1998-yilda Microsoft kompaniyasi tomondan ishlab chiqarilgan operatsion tizim. Bu operatsion tizim «sichqoncha» bilan boshqariladigan ko'p vazifali oyna grafik interfeysiga ega bo'lib, MS-DOS kompyuterlarida ishlatilishi mumkin edi.

Windows katalog
ing. - Windows catalog
rus. - Windows каталог

Windows operatsion tizimi o'zining barcha bibliotekalarini, dasturlarini, hujjatlarini saqlaydigan katalog. Odatda «S:\Windows» ko'rinishiga ega.

Windows media proigrivatel

ing. - windows media player
rus. - windows медиа проигрыватель
Windows uchun mo'ljallangan tovushli va video fayllarning bepul proigrivateli, bundan tashqari Microsoft bu proigrivatel versiyalarini Mac OS va Solaris operatsion tizimlari uchun ham ishlab chiqaradi.

Windows Mobile

ing. - Windows Mobile
rus. - Windows Mobile
Microsoft firmasining mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan operatsion tizimlar turkumi.

Windows modellar drayveri

ing. - Windows driver model (WDM)
rus. - модель драйверов Windows
WDM spetsifikatsiyasi. drayverlarni ishlab chiqarishni yangilashtradi, ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq yozilgan qurilma drayveridan Windows NT 5.0 va Windows 98/2000 operatsion tizimlarida foydalanilishiga imkon yaratadi.

Windows muhitidagi testlar majmui
ing. - Windows Integrated Test Suite (WITS)
rus. - комплекс тестов в среде Windows
Windows muhitidagi testlar kompleksi, WITS testlarining nazorat to'plami.

Windows ni yangilash
ing. - Windows Update
rus. - обновление Windows

Internetdan ko'chirib olishni va operatsion tizim uchun yangilash (yamoq) o'rnatish

ni amalga oshiradigan Windows operatsion tizimi xizmati.

Windows nomlari xizmati

ing. - Windows name service (WINS)

rus. - служба имён Windows

Tarmoq kompyuterlari nomlariga IP-manzil tomonidan beriladigan nomlarga ruxsat berish xizmati. WINS-server nomlarni ro'yxatga olish, so'rovlar va b.q. ni boshqaradi. Kompyuter nomlariga (NetBIOS nomlariga) IP-manzillarini dinamik taqqoslaydigan dasturiy xizmat. Bu foydalanuvchilarga tanish va yodda saqlab qolish qiyin bo'lgan, IP-manzillar bo'yicha emas, nomlar bo'yicha resurslardan foydalanishni amalga oshirish imkonini beradi. WINS serverlari Microsoft Windows NT 4.0 operatsion tizimi va undan oldingi versiyalar bilan mijozlarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.

Windows NT operatsion tizimi

ing. - operating system Windows NT

rus. - операционная система Windows NT Ko'p vazifali, 32 razryadli tarmoq operatsion tizimi. Kodli nomi - «Cairo». Windows NT Workstation mijoz operatsion tizimi va Windows NT Server server operatsion tizimidan iborat.

Windows operatsion tizimi

ing. - operating system Windows

rus. - операционная система Windows

Grafik interfeysga ega ko'p vazifali muhit hisoblanadigan, Microsoft korporatsiyasining operatsion tizimi (Windows 1.0ning birinchi versiyasi 1985-yilda chiqarilgan).

Windows SE operatsion tizimi

ing. - operating system Windows CE

rus. - операционная система Windows CE

Kompakt mobil kompyuterlar uchun mo'ljallangan Windows operatsion tizimi.

Windows Sockets dasturiy ta'minoti

ing. - Windows Sockets

rus. - программное обеспечение

Windows Sockets

Dasturlash tillarida tarmoq bilan ishlash uchun klasslar, funksiyalar to'plami.

Windows Vista

ing. - Windows Vista

rus. - Windows Vista

Shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladigan, Mi-

crosoft Windows NT 6.0 ning versiyasi. 2007-yil 30 yanvarda ishlab chiqarilgan. Vista so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda «perspektiva» degan ma'noni anglatadi. Uning yangiliklaridan Windows Aero ishchi qamrovi, tizimni tezda ishga tushishini ta'minlaydigan aktiv bo'lmagan gibrid rejim va DRM - mazmuni nazorat qilish vositalaridir.

Windows XP operatsion tizimi

ing. - operating system Windows XP

rus. - операционная система Windows XP Microsoft korporatsiyasining, Windows 98 va Windows NT/2000 operatsion tizimining takomillashtirilishi natijasida paydo bo'lgan operatsion tizimi: unda Windows 2000 yadrosining bazasida multimediali funksiyalar qo'shilgan, ishonchligi oshirilgan va b.q. Windows XP Home Edition va Windows XP Professional Edition (Windows 2000 Professionalning davomchisi) variantlarida yetkazib beriladi.

Windowsga asoslangan terminal

ing. - Windows-based terminal (WBT)

rus. - Windows-терминал

Ko'plab foydalaniladigan Windows NT Server TSE yoki Windows 2000 boshqaruvida ishlaydigan server dasturlardan foydalanuvchining foydalana olishini qo'llab-quvvatlaydigan (masalan, Windows CE tizimida ishlaydigan) «nozik» mijoz. Microsoft tomonidan tarmoq kompyuterga muqobil qilib ishlab chiqariladi.

WINE bu emulyator emas

ing. - WINE Is Not Emulator (WINE)

rus. - WINE - это не эмулятор

Unix tizimining dasturi, MS Windows muhiti uchun yozilgan dasturlarni ishga tushiradi. Barcha API va bibliotekalar qaytadan yozib chiqilgan. DirectX o'rni, ochiq va tekin bo'lgan OpenGL ishlatiladi.

Wintel platformasi

ing. - Wintel

rus. - платформа Wintel

Windows operatsion tizimi boshkaruvida ishlaydigan Intel korporatsiyasi protsessorlari asosida qurilgan kompyuterlar uchun umumiy atama.

WINTEX-platforma

ing. - WINTEX-platform

rus. - WINTEX-платформа

Intel firmasining protsessoriga va Windows

operatsion tizimiga asoslangan kompyuter platformasi.

WMA formati

ing. - Windows Media Audio (WMA)

rus. - формат WMA

Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, hozirda MP3 bilan raqobatlashib kelayotgan format. Mazkur format hatto past bitretda (6 kbs dan 96.1 kbs gacha) ham musiqani sifatli ijro etish sifatini ta'minlaydi.

WML skripti

ing. - WML script

rus. - скрипт WML

WAP-standartidan foydalanadigan mobil qurilmalar uchun ssenariylarni tavsiflash tili.

Word

ing. - Word

rus. - Word

MS Office dasturiy mahsulotga ilova sifatida kiradigan matn redaktori. Windows operatsion tizimida ishlaydigan eng ommaviy matn protsessorlaridan biri.

WordArt

ing. - WordArt

rus. - WordArt

Word for Windows matn protsessoridagi hujjatlarni turli uslubda rasmiylashtiruvchi vositalar jamlanmasi.

Wordpad

ing. - Wordpad

rus. - Wordpad

Windows bilan birgalikda o'rnatiladigan standart dastur – matn redaktori.

WRAM xotirasi

ing. - Window Random

Access Memory (WRAM)

rus. - память WRAM

Grafik adapterlar uchun ikki portly xotira mikroshemalarining turi, VRAM xotiraning keyingi takomillashgani.

WWW hujjat

ing. - WWW-document

rus. - документ WWW

Gipermatnni ichiga oladigan, foydalanuvchiga ajratilgan so'z yoki jumlaning ko'rsatgan holda, ma'lumotlardan foydalana olish, berilgan giperhavola bilan bog'langan boshqa

bir veb-hujjatga o'tish imkonini beradigan, World Wide Web axborot resurslari tarkibidagi hujjat.

WYSIWYG prinsipi

ing. - WYSIWYG philosophy

rus. - принцип WYSIWYG

Display ekranida teriladigan bilan printer bosib chiqaradigan to'la mos kelish prinsipi. Noshirlik tizimlarida va matn redaktorlarida foydalaniladi. Inglizcha WYSIWYG – What You See Is What You Get – «nimani ko'rayotgan bo'lsangiz, o'sha narsani olasiz».

X turidagi raqamli abonent liniyasi

ing. - digital subscriber line (xDSL)

rus. - цифровая абонентская линия x-типа

Abonent foydalana olish texnologiyalari turkumi. Olti turdagi liniyani ichiga oladi. ADSL va VDSL texnologiyalari keng tarqalgan. Nomonlanishda x ning o'rmini to'ldiradigan literlar muayyan tur liniyani ko'rsatadi. Oldin bu simvol texnologiya nomidagi bitta harfni almashirsiz (A, N, S, V), hozirda turli harf birikmalari, masalan, AirDSL, RoDSL VoDSL kabi ko'rinishlarda foydalaniladi. xDSL ning umumiy g'oyasi nisbatan murakkab modulyatsiya usullariga ega qisqa liniyalardan foydalanishga qaratilgan, bu cheklangan polosalar chastotasidan yuqori samarali foydalanishni ta'minlaydi.

X Window protokoli

ing. - X Window System

rus. - протокол X Window

UNIX ning tarmoq muhitida grafikani ko'p oynali ko'rsatish va ishchi stansiyalarning pikseli displeylarida keng qo'llaniladigan protokol. X Window boshqaruvi asosida ishlaydigan dastur X-mijoz deyiladi. Ularni foydalanuvchining lokal kompyuteridan ham, uzoqlashgan kompyuterlardan turib ham ishga tushirish mumkin.

X.25 protokoli

ing. - X.25 (X.25 packet

Switching Standartd)

rus. - протокол X.25

ITU-TSS standartlari turkumi. Paketlar kommutatsiyalanadigan tarmoqda signallar va ma'lumotlarni jo'natish uchun ishlatiladigan protokolni belgilaydi. Har bir paket jo'natuvchi kompyuter va paketni qabul qilib olish kerak bo'lgan oluvchi kompyuter

to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi. Bu interfeys uch sathda – fizik, ma'lumotlar uzatish va tarmoq sathlarida tavsiflanadi. X.25 tarmoqlari o'z nomlarini TTXMQ tomonidan 1976-yilda chiqarilgan «X.25» tavsiyalari nomidan olgan.

X/Open konsorsiumi

ing. - X/Open

rus. - консорциум X/Open

Unix asosidagi ochiq tizim platformalari uchun spetsifikatsiyalar ishlab chiqishga buyurtma bergan yetkazib beruvchilarning xalqaro konsorsiumi. (1984-yilda tashkil etilgan). Ochiq kodli tizimlar uchun standartlarni testdan o'tkazish va sertifikatlashni amalga oshiradi.

<X> domeni

ing. - <X> domain

rus. - <X> домен

Har biri boshqaruvchi obyektga <X> o'ziga xos nisbat bilan bog'langan obyektlar to'plami.

<X> federatsiyasi

ing. - <X> federation

rus. - <X> федерация

<X> domenlar hamjamiyati.

<X> guruhi

ing. - <X> group

rus. - <X> группа

Muayyan o'ziga xos <X> nisbatga ega bo'lgan obyektlar to'plami.

<X> shablon

ing. - <X> pattern

rus. - <X> шаблон

Obyektlar tarkibining, berilgan xossaga ega bo'lgan kompozitsiyaning <X> deb nomlangan istalgan nususiga olib keladigan abstrakt spetsifikatsiyasi.

<X> tutib oluvchi

ing. - <X> interceptor

rus. - <X> перехватчик

Kanaldagi, domenlar orasidagi chegarada joylashtirilgan muhandislik obyekti. Chiqishga: tutib oluvchi <X> turli domenlardagi bazaviy muhandislik obyektlari o'rtasidagi ruxsat etilgan hamkorliklarda siyosatlar monitoringini yoki rioya qilinishini ta'minlash uchun tekshirishni bajaradi; turli sohalarda asosiy muhandislik obyektlari

tomonidan ma'lumotlar talqin qilinishidagi farqlarni niqoblash uchun o'zgarishni amalga oshiradi.

x86 processorli kompyuter

ing. - x86-based computer

rus. - компьютер с процессором x86

Har qanday x86, 8086, 80286, 80386, 80486 yoki Pentium protsessorlari asosidagi kompyuter. Chunki raqamlar avtorlik huquqlari ta'siriga o'tmaydi, Intel korporatsiyasi raqobat bilan kurashish maqsadida o'zining protsessorlariga nomlar bera boshlagan.

XENIX operatsion tizimi

ing. - operating system XENIX

rus. - операционная система XENIX

UNIX operatsion tizimining shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan bir foydalanuvchili versiyasi. Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. 1980 yilning avgustida chiqarilgan.

XHTML tili

ing. - extensible hypertext

markup language (XHTML)

rus. - язык XHTML

Veb-sahifalarda XML ni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan XHTML tili.

X-kompyuter, X turkumidagi kompyuter

ing. - X-computer

rus. - X-компьютер,

компьютер семейства X

Acer firmasi tomonidan taklif qilingan, turli sohalarda qo'llash uchun mo'ljallangan arzon, standartlashtirilgan, ixtisoslashtirilgan kompyuterlar konsepsiyasi.

Xmodem protokoli

ing. - Xmodem

rus. - протокол Xmodem

Asinxron aloqa fayllarini uzatish protokoli.

XSP

ing. - Cross Site Printing

rus. - XSP

Veb-sayt sahifasidagi JavaScript yordamida foydalanuvchining ruxsatisiz uning kompyuteridan printeriga bajariladigan chop etish. Bunda chop etish so'rovini yuboradigan veb-saytda to'laqonli matnni chop etish, sahifani formatlashga imkon beruvchi PostScript tilidagi buyruqlarni yuborish hamda

ba'zi hollarda, fakslarni jo'natish imoniyati paydo bo'ladi. Hujumning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun foydalanuvchi maxsus JavaScript kodga ega bo'lgan veb-saytga tashrif buyurishi kerak, xolos.

XSS

ing. - Cross Site Scripting

rus. - XSS

Kompyuter tizimi zaifligining turi, xakerlik hujumida foydalaniladi. Mazkur hujumlarning spetsifikatsiyasi shundaki, ular mijozga hujum vositasi sifatida serverga bevosita hujum o'rni uchun zaif serverdan foydalanadilar. XSS hujumi odatda maxsus URL'ni yaratilishi va hujum qiluvchining ushbu URL'ni o'z qurboniga taqdim etishi yo'li bilan o'tkaziladi. Bugungi kunda XSS aniqlanadigan zaifliklarning 15 foizini tashkil qiladi. Dasturchilar uzoq vaqt davomida bu hujumlarni xavfli deb hisoblamay, ularga yetarli e'tibor qaratmagan. Ba'zi hollarda XSS yordamida ma'murning sessiya identifikatorini olish yoki DoS hujumini uyushtirish mumkin bo'ladi.

X-terminal

ing. - X terminal

rus. - X-терминал

Lokal tarmoqda ishlaydigan va X Window System protokolini qo'llab-quvvatlaydigan grafik terminal.

YaST

ing. - YaST

rus. - YaST

SUSE Linux operatsion tizimini sozlash uchun ishlatiladigan, dastlabki propriyetary dasturiy ta'minot. 2003-yildan boshlab, GPL litsenziyasi ostida taqdim etiladi.

Z-modem

ing. - Z-modem

rus. - Z-modem

Xatolarni nazorat qilgan va tuzatgan holda fayllarni uzatishning tez protokoli, Y-modem protokolining yaxshilangan varianti.

ZAK paketi

ing. - zero administration kit (ZAK)

rus. - пакет ZAK

Microsoft korporatsiyasining Windows NT uchun mo'ljallangan paketi bo'lib, u foy-

dalanuvchini shaxsiy kompyuterning konfiguratsiyasi o'zgartirilishi yoki unga o'z dasturiy ta'minotini o'rnatganligi haqidagi ma'lumotlar to'g'risida ogohlantiradi.

ZF bayrog'i

ing. - zero flag

rus. - флаг ZF

Mikroprotsessor registridagi, operatsiya natijasi nolga tengligini ko'rsatadigan razryad. Bu razryad qiymatidan shartli o'tishning qator komandalarida foydalaniladi.

Zip

ing. - zip

rus. - zip

Arxiv formati. zip kengaytmali fayllarni yaratadi.

Zip-диск

ing. - zip disk

rus. - zip-диск

100 Mbyte va undan ko'proq sig'imga ega xotira qurilmasi.

ZV spetsifikatsiyasi

(kattalashtirilgan video porti)

ing. - Zoomed Video (Port) (ZV)

rus. - спецификация ZV

(Порт увеличенного видео)

Chips and Technology firmasi tomonidan ishlab chiqilgan bloknotli shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallangan videografikaga bo'lgan spetsifikatsiya. Tizimli shinadan o'tib PC-karta bo'linmasi orqali kadr buferiga bevosita ulanish imkonini beradi. PCI va VL-Bus qimmat lokal shinalarga muqobil hisoblanadi.

ZX Spectrum

ing. - ZX Spectrum

rus. - ZX Spectrum

Sinclair Research Ltd kompaniyasi tomonidan «Zilog» firmasining Z80 mikroprotsessori asosida yaratilgan 8 razryadli uy kompyuteri.

@ simvoli

ing. - at sign

rus. - символ @

Foydalanuvchi nomini va u mansub bo'lgan domeni ajratishda qo'llaniladigan simvol. Masalan, user@domain.

«&» belgisi

ing. - ampersand

rus. - знак «&»

& (ASCII 38) simvoli, ko'pingcha ingliz tilidagi «and» so'zining o'rmini bosadi.

^ kiritish belgisi

ing. - caret

rus. - знак вставки ^

Dasturlash tillari qatorida darajaga ko'tarish operatsiyasini belgilash uchun ishlatiladigan belgi, uning boshqacha nomlanishi – hat.

10 Base 2 standarti

ing. - 10 Base 2

rus. - стандарт 10 Base 2

RG58 C/U turidagi ingichka koaksial kabelda Ethernet tarmoqlarini amalga oshirish varianti. Uzatish tezligi 10 Mbit/s. Stansiyalar orasidagi masofa 185 m gacha (3 COM tarmoq adapterlaridan foydalanilganda 305 m).

10 Base 5 standarti

ing. - 10 Base 5

rus. - стандарт 10 Base 5

RG9 turidagi qalin koaksial kabelda bajarilgan Ethernet tarmog'i varianti. Uzatish tezligi 10 Mbit/s. Stansiyalar orasidagi masofa 500 m gacha (3 COM uskunasiidan foydalanilganda 1000 m).

10 Base-F standarti

ing. - 10 Base-F

rus. - стандарт 10Base-F

Optik tolali kabelda Ethernet tarmoqlarini amalga oshirish varianti. Uzellar orasidagi masofa kamida 2000 m. Spetsifikatsiya uchta standartni: 10Base-FB, 10Base-FL va 10Base-FP belgilaydi. Uzatish tezligi 10 Mbit/s.

10 Base-T standarti

ing. - 10 Base-T

rus. - стандарт 10Base-T

Ekranlanmagan o'ralgan juftida (AWG 22-26 turidagi kabel) bajarilgan Ethernet tarmoqlarini amalga oshirish varianti. Uzatish tezligi 10 Mbit/s. Foydalanish usuli CSMA/CD (IEEE 802.3 standarti); RJ 45 ajratgichlardan, 3-, 4- yoki 5-toifali kabel tizimlaridan foydalaniladi.

100 BaseT standarti

ing. - 100 BaseT

rus. - стандарт 100 BaseT

100 Mbit/s uzatish bo'lgan Ethernet tarmog'i uchun mo'ljallangan protokollar guruhi (foydalanish usuli CSMA/CD). Shuningdek, 100 Mbit/s tezlik bilan tuvchi yulduz topologiyali konfiguratsiyaga ega, 5-toifali ekranlanmagan o'ralgan juftli Ethernet tarmog'i orqali ma'lumotlarni tish standarti hisoblanadi.

1000BaseT standarti

ing. - 1000BaseT

rus. - стандарт 1000BaseT

Gigabit Ethernet standartining 5-toifali (100 m gacha) to'rt juft ekranlanmagan, kabel uchun mo'ljallangan loyihasi.

100Base-FX

ing. - 100Base-FX

rus. - 100Base-FX

1. Optik-tolali kabledan iborat 100Mb/s tezlikka ega Fast Ethernet tarmoqlarida qo'llaniladigan IEEE-standartining bir qismi.

2. 100Base-FX Fast Ethernet tarmoqlarining texnik spetsifikatsiyasi.

100BaseT spetsifikatsiyasi

ing. - 100BaseT

rus. - спецификация 100BaseT

100 Mbit/s tezlik bilan uzatuvchi Ethernet (CSMA/CD foydalanish usuli) tarmog'i uchun mo'ljallangan protokollar guruhi. Shuningdek, 100 Mbit/s tezlik bilan uzatuvchi yulduz topologiyali konfiguratsiyaga ega, 5-toifali ekranlanmagan o'ralgan juftli Ethernet tarmog'i orqali ma'lumotlarni uzatish standarti ham hisoblanadi. Fast Ethernet nomi bilan ham tanilgan.

100-Base-T4 standarti

ing. - 100Base-T4

rus. - стандарт 100-Base-T4

100-Base-T standarti fizik sathi amalga oshirilgan variant. To'rtta ekranlanmagan, 3, 4 va 5-toifali simlar juftidan foydalaniladi. Ma'lumotlar dupleks tilishini ta'minlamaydi, stansiyalar orasidagi masofa 100 m gacha.

100VG-AnyLAN

ing. - 100VG-AnyLAN

rus. - 100VG-AnyLAN

Mavjud lokal tarmoqda 100 Mbit/s tezlik bilan uzatish usuli. 3-5 toifalardagi ekranlanmagan o'ralgan juft asosida ishlaydi.

1Base5

ing. - 1Base5

rus. - 1Base5

O'ralgan juft asosidagi, 1 Mbit/s tezlikka ega tarmoq.

1-xavfli zona

ing. - 1 danger area

rus. - опасная зона 1

Axborotni qayta ishlash texnik vositasining atrofidagi maydon bo'lib, uning doirasida tasodifiy antennalarda yo'l qo'yiladigan normalangan darajadan yuqori bo'lgan xavfli signal hosil qilinadi. Birinchi zonada, tok o'tkazadigan kommunikatsiyalar orqali nazorat qilinadigan zonadan tashqariga chiqishi bo'lgan tasodifiy antennalarni joylashtirish taqiqlanadi.

1xEV-DO standarti

ing. - 1xEV-DO

rus. - стандарт 1xEV-DO

SDMA platformasiga asoslangan, 3G avlod ma'lumotlarni simsiz uzatish standarti. CDMA20001x standartlari turkumining bir qismi hisoblanadi. O'tkazish qobiliyati 1xRTT dagiga nisbatan 10 marta katta, ma'lumotlarni uzatish tezligining eng yuqori qiymati 2,4 Mbit/s. Amalda haqiqiy tezlik 300-600 Kbit/s ga yetadi. 1xEV-DO asoslanadigan xalqaro standart IS-856 sifatida ma'lum. GSM/ WCDMA tizimlarida uzatish tezligi va texnologiya rivojlanishining umumiy darajasi nuqtai nazaridan qaraganda, 1xEV-DO bilan tenglasha oladigani HSDPA bo'ladi.

1xRTT standarti

ing. - single carrier radio

transmission technology (1xRTT)

rus. - стандарт 1xRTT

CDMA platformasiga asoslangan, 2,5G avlod ma'lumotlarni simsiz uzatish standarti. CDMA IS-95 standartini kengaytirish va almashtirish uchun mo'ljallangan CDMA 20001x standartlari turkumining birinchi namunasi. Paketlarni kommutatsiyalash bilan uzatish prinsipidan foydalanadi. Nazariy jihatdan uzatish tezligini 144 Kbit/s gacha yetkazish imkonini beradi, biroq amalda haqiqiy uzatish tezligi (40-60) Kbit/s dan kam.

2.5 G

ing. - 2.5G

rus. - 2.5G

Raqamli mobil aloqaning takomillashtirilgan ikkinchi avlodi; ma'lumotlar uzatish tezligi 384 kbit/s gacha oshirilgan. Bu avlod tarmoqlariga GPRS va EDGE standartidagi tarmoqlar kiradi.

2,5G texnologiyasi

ing. - 2,5 Generation

rus. - технология 2,5 G

Mobil aloqa tizimlari rivojlanishining, 2G va 3G tizimlari o'rtasidagi o'tish bosqichi. Bu bosqich 3G tizimlariga xos bo'lgan xizmatlarni taqdim eta oladigan, 2G ning takomillashtirilgan vositalaridan foydalanishi bilan tavsiflanadi. 2,5G ham 2G foydalanadigan chastota diapazonidan foydalanadi va uskunaning eng kam darajada takomillashtirilishini talab qiladi. 2,5G tizimlari GPRS hamda 1xRTT tizimlarini o'z ichiga oladi.

24 P-standarti

ing. - HDTV standart for production and international program exchange 24 P

rus. - стандарт 24 P

Formati 16:9, kadrda 1080 ta aktiv satr va satrning aktiv qismida 1920 ta tasvir elementi bo'lgan parametrlarga ega, yuqori aniqlikdagi televideniyeining texnik parametrlariga va xarakteristikalariga qo'yiladigan talablarning majmuasi.

286

ing. - 286

rus. - 286

Intel korporatsiyasi 80286 protsessori va unga mos keladigan protsetning qisqartirilgan nomi.

2G tarmog'i

ing. - 2G network

rus. - сеть 2G

Ovozli chaqiruvlarni uzatishga yo'naltirilgan GSM va DAMPS standartidagi tarmoqlarning umumlashtirilgan nomi. Ma'lumotlarni uzatish tezligi juda past (9,6 Kbit/s gacha).

2T-impuls

ing. - 2T-pulse

rus. - 2T-импульс

Nolinchi qiymatlar orasida joylashgan sinus

kvadrat funksiya shaklliga va impuls ko'lamida 2T davomiyligiga ega televidion o'lchov signali, bu yerda T – yorqinlik signalining nominal chastotalar polosasidagi yuqori chegaraviy chastotaning yarim davri. Izoh – 2T-impulsdan tashqari T-impuls va 10T-impuls ishlatilishi mumkin.

2-xavfli zona

ing. - 2 danger area

rus. - опасная зона 2

Axborotni qayta ishlash texnik vositasining atrofidagi maydon bo'lib, uning doirasida elektromagnit maydon kuchlanganligini tashkil etuvchilar uchun xavfli signal/xalqit nisbati yo'l qo'yiladigan normalangan qiymatdan oshadi.

3:2 pasaytirish

ing. - 3:2 reduction

rus. - понижение 3:2

Maydon chastotasi 60 Hz bo'lgan televidion tizimda film namoyish qilish rejimi. Bunda bitta kinokadr TV tasvirning uchta, keyinchalik esa ikkita maydoni davomida namoyish qilinadi.

320xx

ing. - 320xx

rus. - 320xx

National Semiconductor firmasi protsessorlarining umumlashtirilgan nomi.

386

ing. - 386

rus. - 386

INTEL korporatsiyasi 80386 (386SX) protsessorlari turkumining va unga mos keladigan protseduralarning qisqartirilgan nomi.

386/ix

ing. - 386/ix

rus. - 386/ix

Interactive Systems korporatsiyasi tomonidan 80686 bazasida shaxsiy kompyuterlar uchun ishlab chiqilgan UNIX operatsion tizimining versiyasi.

386BSD

ing. - 386BSD

rus. - 386BSD

Inntel 80386 bazasidagi IBM RS qo'shila-

digan arxitekturalar uchun BSDUNIX operatsion tizimining erkin amalga oshirilishi. 386BSD dagi yangiliklar o'rnamli foydalani-ladigan xavfsizlik tizimini, halqa buferlarni, modulli yadro, peer-to-peer yuklashni, tartiblashtirilgan konfiguratsiyalashni ichiga oladi.

389 Directory Server

ing. - 389 Directory Server

rus. - 389 Directory Server

Korxonada darajasidagi, ochiq boshlang'ich kodli, ko'plab tarmoq serverlaridagi resurs-lardan erkin foydalanishni markazlashtiril-gan tarzda boshqarish uchun mo'ljallangan kataloglar xizmati.

3DO formati

ing. - 3DO

rus. - формат 3DO

Kompakt-disklarga ma'lumot yozish formati. O'yinli CD-qo'shimcha moslamalar uchun «3DO» firmasi tomonidan ishlab chiqilgan. Masalan, Sega firmasi.

4:2:2 formati

ing. - 4:2:2 format

rus. - формат 4:2:2

Komponentli signaldagi yorqinlik va ayir-marang signallarini diskretlash formati, bunda diskretlash chastotalarining nisbati 4:2:2 ga teng. Y uchun 13,5 MHz, Cb yoki R-Y uchun 6,75 MHz va Cr yoki B-Y uchun 6,75 MHz. Mos ravishda komponentli video Y ning 4 sanog'i, Cb ning 2 sanog'i va Cr ning 2 sanog'i qiymati nisbatida o'qiladi. Izoh – Shunga o'xshash formatlarga misollar: 4; 4; 4; 4; 4; 2; 0.

403-xatolik (foydalanish taqiqlangan)

ing. - 403 Error (Forbidden)

rus. - ошибка 403 (доступ запрещён)

http protokolidagi xatolik to'g'risidagi xabar, sahifaning mavjud ekanligini, lekin foydalanuvchiga uni ko'rib chiqish taqiqlan-ganligini bildiradi. Odatda saytning cgasi foydalanuvchilardan saytdagi axborotning qandaydir qismini yashirganida ushbu xatolik chiqadi. Ko'pincha papka tarkibining ro'yxatini ko'rish taqiqlanadi. Mazkur ho-latda, indeksli sahifa mavjud bo'lmasa ham, 403-xatolik ro'y beradi.

404-xatolik

ing. - 404 ERROR

rus. - ошибка 404

HTTP protokolining xatoligi haqidagi xabar, u mijoz server bilan ulanganligi, lekin server so'ralayotgan hujjatni topa olmaganligi to'g'risida xabar beradi.

486

ing. - 486

rus. - 486

Intel korporatsiyasi 80486 protsessorining va unga mos keladigan protseduralarning qisqartirilgan nomi.

5G standarti

ing. - 5G (5Generation)

rus. - стандарт 5G

Telekommunikatsiya uchun yangi avlod aloqa standarti. Qator talablar: odam salomatligi uchun xavfsizlik, aloqaning yuqori sifati va energiya samaradorligi bilan farqlanadi. Bu standartni joriy etish 2020-yilga rejalashtirilgan.

68K

ing. - 68K

rus. - 68K

Motorola firmasi protsessorlarining umumlashtirilgan belgilanishi (68000, 68010, 68020, 68030, 68040 i 68060).

7-son signalizatsiya tizimi

ing. - signalling system № 7 (SS7)

rus. - система сигнализации № 7

Tegishli aloqa xizmatlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan foydalanuvchilarning quyi tizimlarida va ilovalarida (TUP, ISUP, MAP, TCAP, MUP va boshqa) yagona transport kichik tizimi (MTP) ustida joylashgan, blokli funksional arxitekturaga ega, stansi-

yalararo signalizatsiyaning universal ko'p funktsionalli tizimi.

802.x

ing. - 802.x

rus. - 802.x

IEEE standartlari to'plami. Har biri o'z raqamiga ega bo'lgan 12 ta toifaga bo'linadi.

80x86 (x86)

ing. - 80x86 (x86)

rus. - 80x86 (x86)

Intel korporatsiyasi protsessorlarining umumlashtirilgan belgilanishi ($x=1, \dots, 5$, 8086 uchun bo'lmashligi mumkin). Ularga 086, 186, 286, 386, 486, Pentium, Pentium Pro, Pentium II protsessorlari kiradi.

86-DOS

ing. - 86-DOS

rus. - 86-DOS

Intel 8086 protsessoriga asoslangan kompyuter uchun, Seattle Computer Products firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va sotiladigan operatsion tizim. 86-DOS komandalar tuzilmasiga va bu komandalar tuzilmasini takrorlaydigan API ga hamda Digital Research kompaniyasining CP/M operatsion tizimining API ga ega, bu oqibatda dasturlarni ko'chirish jarayonini oson qildi. 86-DOS yangi IBM PC kompyuterlar uchun operatsion tizimlarning asosi sifatida Microsoft tomonidan sotib olingan edi. Microsoft nomini PC-DOS deb, keyinchalik esa, MS-DOS deb o'zgartirdi.

П-simon to'liq o'tkazgich

ing. - single-ridged waveguide

rus. - П-образный волновод

П-simon ko'ndalang kesimga ega bir bog'lanishli to'liq o'tkazgich.

1. Толковый словарь терминов по системам, средствам и услугам связи. «Радио и Связь», Москва, 2000. Под редакцией В.А.Докучаева. Справочное издание.
2. Л.М.Невдяев. Телекоммуникационные технологии. Англо-русский толковый словарь-справочник. Под редакцией Ю.М.Горностаева. Серия изданий «Связь и Бизнес». Москва, 2002.
3. Слепов Н.Н. Англо-русский толковый словарь сокращений в области связи, компьютерных и информационных технологий. М.: Радио и связь, 2005 г.
4. А.В.Смирнов. Основы цифрового телевидения. М.: изд. «Горячая линия Телеком». 2001 г.
5. Телевидение. Под ред. В.Е.Джакони. М.: Радио и связь, 1997 г.
6. Англо-русский словарь: Мультимедиа-системы. Телекоммуникационные компьютерные сети. Безопасность компьютерных систем и сетей. / Мячев А.А., Алексеев Е.С., Веселов В.Н. и др. – М.: Радио и связь, 1995. – 192 с.
7. Передача данных. Термины и определения. ГОСТ 1
8. Политехнический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1977 г.
9. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли лугати. Қайта ишланган, тўлдирилган иккинчи нашри. Ўзбекистон Алоқа ва ахборотлаштириш агентлиги, БМТ Тараққиёт дастурининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. Тошкент, 2010 й.
10. Безопасность в электросвязи и информационных технологиях. –Международный союз электросвязи, 2006.
11. Невдяев Л.М. Глоссарий. Мобильная безопасность: от А до Z. // Информ КургурСвязь, № 3, 2004.
12. Мостицкий И.Л. Англо-русский энциклопедический словарь. М.: Додека – XXI, 2008 г.
13. Терминология в области защиты информации. Справочник. – М.: ВНИИСтандарт, 1993.
14. Русско-узбекский толковый словарь терминов по мобильной и фиксированной беспроводной связи. Составитель Ликонцев Д.Н. и Хусанов З.К. Под редакцией Кадирова А. – Ташкент: ГУП «UNICON.UZ», 2016.
15. Справочник по выбору и использованию систем точной частоты и точного времени. Женева, МСЭ, 1997 г.
16. Регламент радиосвязи. Женева, МСЭ, 2008 г.
17. Рекомендации МСЭ-Т – Глоссарий специальных терминов системы сигнализации №7.
18. Рекомендация МСЭ-Т Q.791 – Контроль и измерения сети системы сигнализации №7.
19. Рекомендация МСЭ-PS.673-2. Термины и определения, связанные с космической радиосвязью (2002 г.).
20. Рекомендация МСЭ-Р V.662-3. Термины и определения (2000 г.).
21. Рекомендация МСЭ-Р V.573-5. Словарь по радиосвязи (2007 г.).
22. Рекомендация МСЭ-Р 566-3. Терминология, связанная с использованием космической связи для телерадиовещания (1990 г.).
23. Рекомендация МСЭ-Р М. 1797. Словарь терминов сухопутной подвижной службы (2007 г.).
24. Рекомендация МСЭ-Р F.592-4. Словарь терминов для фиксированной службы (2007 г.).
25. Рекомендация МСЭ-Р V.662-3. Термины и определения (2000 г.).
26. Рекомендация МСЭ-Р V.573-5. Словарь по радиосвязи (2007 г.).
27. Межгосударственный стандарт (ГОСТ 30372-95/ГОСТ Р 50397-92). Совместимость технических средств электромагнитная. Термины и определения.
28. ГОСТ 16487-83 Делопроизводство и архивное дело. Термины и определения
29. ГОСТ Р 52907-2008. Источники электропитания радиоэлектронной аппаратуры. Термины и определения.
30. ГОСТ Р 50304-92. Системы для сопряжения радиоэлектронных средств интерфейсные. Термины и определения.

31. ГОСТ 23611-79 (перездание с изменениями, 1995 г.). Совместимость радиоэлектронных средств электромагнитная. Термины и определения. М.: Издательство стандартов.
32. ГОСТ 23282-91. Межгосударственный стандарт. Решетки антенные. Термины и определения.
33. ГОСТ 18238-72. Межгосударственный стандарт. Линии передачи сверхвысоких частот. Термины и определения.
34. ГОСТ 26599-85. Межгосударственный стандарт. Системы передачи волоконно-оптические. Термины и определения.
35. ГОСТ 24375-80. Межгосударственный стандарт. Радиосвязь. Термины и определения.
36. ОСТ 45.124-2000. Службы связи спутниковые: фиксированная, радиовещательная и подвижная. Термины и определения.
37. Государственный стандарт Республики Узбекистан O'z DSt 1225:2009 «Почтовая связь»
38. O'z DSt 1109: 2006 Информационная технология. Криптографическая защита информации. Термины и определения.
39. O'z DSt ISO/IEC 2382-8:2007 Информационные технологии. Информационная безопасность. Термины и определения.
40. O'z DSt 1063:2004 Совместимость технических средств электромагнитная. Приборы для измерения промышленных радиопомех. Технические требования и методы испытаний.
41. O'z DSt ISO/IEC 2382-8:2007 Государственный стандарт Узбекистана. Информационные технологии. Информационная безопасность. Термины и определения. – Ташкент: Узбекское агентство стандартизации, метрологии и сертификации (агентство «Узстандарт»).
42. O'z DSt 1109:2006 Государственный стандарт Узбекистана. Информационная технология. Криптографическая защита информации. Термины и определения. – Ташкент: Узбекское агентство стандартизации, метрологии и сертификации (агентство «Узстандарт»).
43. O'z DSt 2927:2015 Государственный стандарт Узбекистана. Информационная технология. Информационная безопасность. Термины и определения. – Ташкент: Узбекское агентство стандартизации, метрологии и сертификации (агентство «Узстандарт»).
44. O'z DSt 1136:2007 Телевидение вещательное цифровое. Термины и определения.
45. O'z DSt 1047:2018 Государственный стандарт Республики Узбекистан. Информационная технология. Термины и определения. – Ташкент: Узбекское агентство стандартизации, метрологии и сертификации (агентство «Узстандарт»).
46. Отраслевой стандарт TSt 45.022:2002 «Общеканальная сигнализация ОКС №7. Термины и определения».
47. Отраслевой стандарт TSt 45-009:2008 «Услуги телекоммуникаций. Термины и определения».
48. Tst 45.010:2002 Отраслевой стандарт. Информационная безопасность в сфере связи и информатизации. Термины и определения. – Ташкент: Узбекское агентство связи и информатизации, 2002.
49. Рекомендация МСЭ-R V.573-5. Словарь по радиосвязи.
50. Рекомендация МСЭ-R M.1797-0. Словарь терминов сухопутной подвижной связи.
51. Глоссарий криптографических терминов. – <http://www.enlight.ru/crypto/glossary/glossary.htm>.
52. Лукацкий А.В. Краткий словарь по информационной безопасности. Версия 1.0 - http://software-testing.ru/lib/reviews/terminology/sec_dic.pdf.
53. Словарь терминов в области делопроизводства Центра компетенции по вопросам документационного обеспечения управления <http://www.edou.ru/enc/dictionary>.
54. Электронный документооборот – Термины и определения <http://www.inspe.kz/ecn/glossary.html>.
55. <http://dic.academic.ru/dic.nsf>.
56. <https://robo-sapiens.ru/stati/umnyi-gorod>.
57. <http://refleadcr.ru/jgeujgyfsbewyfs.html>.

O'quv adabiyoti

**AXBOROT TEXNOLOGIYLARI
ATAMALARINING IZOHLI
LUG'ATI**

Muvofiqlashtiruvchilar: **A.Eminov, N.Abdullayev**

Muharrir: **Y. Abdukarimov**

Sahifalovchi: **M. Zoyitova**

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.

“Kafolat print kompaniy” nashriyoti. Toshkent shahri, Istirohat ko‘chasi, 1-uy.

Bosishga 28.06.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$.

“Times New Roman” garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 68,25. Nashr bosma tabog‘i 68,5. Adadi 1000 nusxa.

“MMM BIZNES PRINT” MChJ matbaa bo‘limida chop etildi.

Toshkent shahri, Istirohat ko‘chasi, 1-uy. Tel.: +998 90 914-84-64.

ISBN 978-964-5-18288-7



9 789943 988897